25 APREL 2026 YIL

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT: SHAKLLANISHI, HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

PROFESSOR

DAVLATBOY KUDBIYEVNING

XOTIRASIGA BAG‘ISHLANGAN

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI TO‘PLAMI

25 APREL 2026 YIL



ILM VA AMALIYOT UYG‘UNLIGI

IQTISODIYOT RIVOJI UCHUN BILIM VA TAHLIL

SHAFFOFLIK VA ISHONCH KAFOLATI

XALQARO TAJRIBA VA MAHALLIY YECHIM

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV” FAKULTETI

“MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI” KAFEDRASI

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT: SHAKLLANISHI, HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI

PROFESSOR DAVLATBOY KUDBIYEVNING XOTIRASIGA BAG‘ISHLANGAN RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI TO‘PLAMI

25-aprel, 2026-yil

UO‘K: 338.48(575.1)
KBK: 65.433 (5O‘)
Y 678

O‘zbekiston respublikasida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit: shakllanishi, hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari. / Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Farg‘ona, 2026-y. 837-bet.

Ushbu to‘plam “O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit: shakllanishi, hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mamlakatimizda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tizimlarining shakllanish bosqichlari, ularning zamonaviy holati hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari keng yoritilgan. To‘plam materiallarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash, xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlari, audit tizimini takomillashtirish, iqtisodiy tahlilning nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Shuningdek, unda raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va auditni modernizatsiya qilish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarishda tahlil vositalarining ahamiyati kabi dolzarb yo‘nalishlarga oid ilmiy tadqiqotlar va amaliy takliflar o‘z aksini topgan.

To‘plamga oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo‘mita va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistr va talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan. Shuningdek, respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plamidagi materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o‘zlari mas’uldirlar.

Mas’ul muharrirlar:
A.Toshpulatov, DSc, dots.
A.S.Xojayev, DSc, dots.
A.A.Ermatov, PhD, dots.

Tahririyat hay’ati:
A.M. Maxmudov
D.A. Muxammadjonova
N.T. Qudbiyev

Taqrizchilar:
M.Q.Pardayev, i.f.d., prof. (O‘zbekiston)
M.J.Abdiyev, i.f.d., prof. (Qirg‘iziston)

ISBN:
©Farg’ona davlat texnika universiteti, 2026



Davlatboy Kudbiyev
(1950-2024)

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasidagi birinchi o‘zbek olimi, Farg‘ona davlat texnika universiteti professori, iqtisod fanlari doktori, “Do‘stlik” ordeni sohibi hamda Oliy ta’lim a’lochisi.

Farg‘ona davlat texnika universiteti rektori,
t.f.d., professor Tojiyev Rustambek Rasulovichning

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugun biz O‘zbekiston iqtisodiyot fanining chinakam fidoyisi, yurtimizda buxgalteriya hisobi va audit sohasida birinchi bo‘lib fan doktori ilmiy darajasiga erishgan zahmatkash olim, ulug‘ ustoz Davlatboy Kudbiyevning xotirasiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanda to‘planib turibmiz.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilingan dastlabki yillaridagi murakkab sharoitda ilmiy ishga qo‘l urgan Davlatboy Kudbiyev milliy buxgalteriya hisobi maktabining asoschilaridan biri, shu sohadagi birinchi fan doktori va professori sifatida mamlakat tarixida qoldi. U kishining hayot yo‘li – ilmga sadoqat, mehnatsevarlik va yuksak ma’naviyat namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi o‘tkazilayotgan anjuman bevosita buxgalteriya hisobi sohasidagi birinchi o‘zbek olimi Davlatboy Kudbiyevning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot ishlari, qoldirgan boy ilmiy merosini kengroq o‘rganish yuzasidan tashkil etilganligi bilan ahamiyatli sanaladi.

1996-2024-yillar davomida Farg‘ona davlat texnika universitetining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlarida talabalariga bilim berish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda Ustoz D.Kudbiyevning alohida o‘rni bor, albatta. Talabalarga “Buxgalteriya hisobi”, “Audit”, “Moliya” kabi fanlaridan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib borgan rahmatli Davlatboy Kudbiyev bir vaqtning o‘zida “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. Chuqur bilimga ega ekanliklari, tartibli va talabchanlik bilan darslarni olib borishlari, talabalar diqqatini jalb qilish qobiliyati, mashg‘ulotlarni sodda o‘zbek tilida, amaliy misollar yordamida tushuntirishlari talabalar hamda yosh ustoz-o‘qituvchilar xotirasida o‘chmas iz qoldirgan.

Muhtaram tadbir ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

Davlatboy Kudbiyevning bebaho merosi sifatida hozirgi kunda universitet qoshida faoliyat yuritayotgan buxgalteriya hisobi ilmiy maktabini alohida iftixor bilan e’tirof etish mumkin. Ustoz mustaqillikning ilk yillarida milliy buxgalteriya tizimini xalqaro andozalarga moslashtirishda nazariy va amaliy poydevor yaratdilar. O‘zbekistonda soha bo‘yicha ilk fan doktori bo‘lishdek sharafli va mas’uliyatli vazifani o‘z yelkalariga olib, yosh olimlarga ilm yo‘lini ochib berdilar. Ustoz D.Kudbiyevning bevosita rahbarligi va maslahatlari yordamida I.N.Ismanov, Z.N.Qurbonov, A.A.Ermatov, D.D.Tursunova, K.Misirov va boshqalar “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy darajalarga ega bo‘lib, olimlik mavqeyiga erishishgan. Shu bilan birga, Ustozning ilmiy ko‘maklari, bergan taklif va tavsiyalari natijasida doktorlik darajasiga erishgan A.Tashpulatov, A.Xojayev, falsafa doktorlari (PhD) darajasiga erishgan O.Nurmatov, I.G‘anibayev, N.Ablazov, D.Poshshoxo‘jayeva kabi o‘nlab olimlar ham bugun kunda u kishidan minnatdorligini e’tirof etish o‘rinli, deb hisoblaymiz. Shu o‘rinda Ustoz D.Kudbiyevning farzandlari ota yo‘lidan borib, o‘g‘li Kudbiyev

Sh.D. fan doktori (DSc) darajasini va qizlari D.Tursunova hamda N.Yakubovalar esa falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalariga ega bo‘lishgani ham hurmatga loyiq sanaladi.

Ustoz D.Kudbiyevning mehnatlari natijasida chop etilgan o‘nlab darslik, qo‘llanmalar va monografiyalari bugun ham soha mutaxassislari uchun asosiy ilmiy-o‘quv manba bo‘lib xizmat qilib kelayotgan: “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, “Audit”, “Bahoning shakllanishi”, “Asosiy vositalar hisobi”, “Совершенствование бухгалтерского учета основных средств” nomli darslik, o‘quv qo‘llanma va ilmiy risolalarini keltirish mumkin.

Ushbu biz to‘planib turgan Farg‘ona buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit ilmiy maktabi ham hurmatli ustozimiz shogirdlari tomonidan kapital ta’mirlash va jihozlash ishlari asosida universitet moddiy texnikasini rivojlantirish bilan bir qatorda kelgusida mazkur ishlar Farg‘ona Ilmiy maktabning faoliyatini davom ettirishi, ko‘plab olimlarni kashf etilishi bilan alohida ahamiyatga molik sanaladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Qadrli Ustozlar!

Davlatboy aka o‘zining kamtarligi, samimiyati va har bir shogirdining taqdiriga kuyinchakligi bilan barchamizning qalblarimizdan chuqur joy olgan edilar. U kishi bilan suhbatlashgan inson borki, ustozning donishmandligi va hayotiy tajribasidan bahramand bo‘lardi.

Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.
Alisher Navoiy

Farg‘ona farzandi professor D.Kudbiyevning hayot yo‘li, ilmiy maktabi, o‘quv, o‘quv-uslubiy merosi bugungi kunimizda yoshlar uchun ibrat namunasi sifatida ko‘p yillar xizmat qilishiga ishonamiz.

O‘zbek xalqida “Yaxshining nomi, olimning xati o‘lmaydi”, degan naql bor. Professor Davlatboy Kudbiyevning nomi O‘zbekiston buxgalteriya hisobi sohasi tarixiga zarhal harflar bilan yozildi va kelajak avlodlar uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib qoladi.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohasidagi dolzarb muammolarning ilmiy yechimini aniqlashga mo‘ljallangan hamda USTOZ Davlatboy Kudbiyevning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan mazkur ilmiy-amaliy anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

I-SHO‘BA

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI

Ismanov Ibroxim Nabiyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor,
e-mail: ibroxim.ismanov@fstu.uz

BUXGALTERIYA HISOBIDA HALOLLIK VA HAQQONIY TASVIRLASH: INSTITUTSIONAL VA TARIXIY-FALSAFIY TADQIQOT

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot zamonaviy buxgalteriya tizimlarida halollik va haqqoniy tasvirlashning konseptual va institutsional asoslarini o‘rganadi. Maqola halollikning rostgo‘y hisobotlar uchun axloqiy shart ekanligini, haqqoniy tasvirlash esa moliyaviy hisobotlarda uning texnik ifodasi ekanligini tasdiqlaydi. Sharq allomalarining ilmiy merosini MHXS asosidagi institutsional nazariya bilan uyg‘unlashtirish orqali hisobotlar ishonchliligini tushunishga yangicha yondashuv taklif etiladi

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobida halollik, haqqoniy tasvirlash, institutsional nazariya, shaffoflik, audit, Ibn Sino, Beruniycha tafakkur.

Kirish. Global moliyaviy tizimlarda iqtisodiy bitishuvlarning murakkablashuvi ishonchli buxgalteriya ma’lumotlariga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. ACFE (Association of Certified Fraud Examiners) ning 2024-yilgi “Report to the Nations” ma’ruzasiga ko‘ra, 138 mamlakatda 1 921 ta firibgarlik ishi tahlil qilingan bo‘lib, korxonalar har yili daromadlarining 5% ini firibgarlik tufayli yo‘qotmoqda. Jami yo‘qotishlar 2022–2023-yillarda 3, 1 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Bundan tashqari, 2023-yilda jahon bo‘ylab moliyaviy firibgarlik va bank aldovlaridan umumiy zarar 485, 6 milliard dollarga teng bo‘ldi (Nasdaq Verafin, 2024).

Moliyaviy hisobotlar investitsiya qarorlari va korporativ boshqaruv uchun strategik vosita hisoblanadi. Ushbu muhitda halollik (integrity) va haqqoniy tasvirlash (faithful representation) tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi ushbu tamoyillarni institutsional doirada qayta konsepsiyalashtirish va ularning hisobot sifatiga qo‘shma ta’sirini baholashdir.

Adabiyotlar sharhi va sintez

Sharq falsafiy an’anasida halollik. Sharq falsafiy an’anasida halollik va adolat ijtimoiy va iqtisodiy tartibning asosi sifatida ko‘rilgan.

Omonatdorlik va kasbiy axloq:

Abu Homid G‘azzoliy “molni to‘g‘ri hisoblashni omonatga xiyonat qilmaslik” deb bilgan, bu esa MHXSdagi kasbiy axloq kodeksi bilan bevosita bog‘lanadi.

Rostgo‘ylik va adolat:

Yusuf Xos Hojib “rostgo‘ylikni bilimning asosi” deb atagan bo‘lsa, Alisher Navoiy “yolg‘on yozilgan daftarga hech kim ishonmasligini” ta’kidlagan. Bu qarashlar zamonaviy “axloqiy xavf” konsepsiyasiga uyg‘un keladi. Jadvalda berilgan raqamlar — global korxonalarning 26, 8% menejerlari kamida bir shakl

manipulyatsiyani tan olishi — bu axloqiy ogohlikning qanchalik dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Obyektivlik metodologiyasi:

Abu Rayhon Beruniyning “ma’lumotlarni verifikatsiyalash va tahlildagi xolislik” tamoyillari MSFO talab qiladigan sodiq tasvirlashning metodologik asosidir. Beruniyning “Haqiqat — kuzatishning o‘zida” degan fikri MHXSning xolislik va xatolardan xolislik talablari bilan sintez qilinadi.

1-jadval

Moliyaviy firibgarlikning global ko‘lami (2023–2024)

Ko‘rsatkich	Miqdor	Manba
Jahon moliyaviy tizimidagi noqonuniy pul oqimi	$3, 1 trln (2023)	Nasdaq Verafin, 2024
Firibgarlik va bank aldovlaridan zarar	$485, 6 mlrd (2023)	Nasdaq Verafin, 2024
Korxonalarning yillik firibgarlik yo‘qotishlari	Daromadlarning 5%	ACFE, 2024
Tahlil qilingan firibgarlik ishlari soni	1 921 ta (138 mamlakat)	ACFE RTTN, 2024
Daromadlarni manipulyatsiya qilgan kompaniyalar ulushi	12, 4% (5-yil ichida)	JAR, 2024
Menejerlar tomonidan manipulyatsiya e’tirofi	26, 8%	Graham et al., 2023

Institutsional nazorat:

Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida “to‘g‘ri hisob davlatni saqlashi, egri hisob esa uni yiqitishi” ta’kidlangan. Zamonaviy dalil sifatida: Evergrande Group 2024-yildagi buxgalteriya hisobi bo‘yicha tortishuvlarida ikki yil davomida sotuvlarni $79 mlrd ga sun’iy ravishda oshirib ko‘rsatgan bo‘lib, buning natijasida 300 mlrd dollarni ortiq zarar berildi — bu tarixdagi eng yirik korporativ bankrotlik (CSRC, 2024).

Zamonaviy tadqiqotlar. Healy va Wahlen (1999) zaif axloqiy me’yorlar daromadlarni manipulyatsiya qilishga olib kelishini isbotlagan. Journal of Accounting Research (2024) da chop etilgan so‘nggi tadqiqot esa Russell 3000 indeksiga kiruvchi kompaniyalar qatorida 12, 4% kompaniya so‘nggi 5-yil ichida hisobotda aldov amalga oshirganini aniqladi. Ball (2006) MHXS samaradorligi kuchli huquqiy majburlovga bog‘liqligini isbotlagan.

Metodologiya. Tadqiqot sifatiy va interpretativ dizaynga asoslangan. Ma’lumot manbalari sifatida MHXS konseptual doirasi, IFAC axloq kodeksi (2022), Scopus va Web of Science bazasidagi akademik maqolalar hamda Sharq allomalarining klassik asarlaridan foydalanilgan. O‘zbekistonga oid rasmiy statistika uchun Moliya vazirligi va MHXS Foundation ning 2020–2025-yillarga oid hujjatlari tahlil qilindi.

Natijalar.

Halollik axloqiy cheklov sifatida

Halollik buxgalteriya muhitida ichki boshqaruv mexanizmi bo‘lib, menejerlik erkinligini cheklaydi va noto‘g‘ri ko‘rsatish ehtimolini kamaytiradi. Bu Sharqdagi “omonatdorlik” tushunchasining zamonaviy ifodasidir. Raqamli dalil: ACFE ma’lumotlariga ko‘ra, firibgarlikni aniqlashda ichki nazorat tizimi (33%) va tasodifiy topilma (27%) eng ko‘p uchraydi — bu axloqiy kultura va tizimli nazoratning birgalikda ishlashi zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

O‘zbekistonda MHXS joriy etilishi: asosiy raqamlar

Yil / Normativ hujjat	**Muhim hodisa**
2020, PF-4611	Barcha yirik DK lar uchun MHXSga o‘tish majburiyati belgilandi
2020, VM Qarori №507	MHXS ni rasmiy qonuniy hujjat sifatida tan olish tartibi belgilandi
2021	MHXSga moslashuv birinchi to‘lqini boshlandi; 20 ta yirik DK — majburiy hisobotga o‘tdi
2018–2024	O‘zbekneftegaz MHXSni joriy etdi; 2024-yil hisoboti 2025-aprelda nashr etildi
2024–2025	NMMC, AGMK, O‘zbekiston Havo Yo‘llari — Big Four auditidan o‘tgan MHXSga asoslangan hisobotlar
2025 (reja)	Barcha eng yirik DK lar uchun to‘liq MHXSga o‘tish yakunlanishi mo‘ljallangan

Haqqoniy tasvirlash hisobot atributi sifatida

Tadqiqot haqqoniy tasvirlash axloqiy tamoyillar institutsional amaliyotga qay darajada singib ketganini aks ettirishini ko‘rsatdi. Beruniy uslubidagi to‘liqlik va xolislik MHXSning to‘liq oshkor etish tamoyili orqali amalga oshadi. Barth, Landsman va Lang (2008) tadqiqoti MHXS qo‘llagan kompaniyalarda hisobot sifati sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi.

Institutsional majburlov

Kuchli nazorat va mustaqil audit mavjud muhitda axloqiy halollik yuqori shaffoflik va investorlar ishonchini ta’minlaydi. O‘zbekiston misoli: DK lar Milliy Elektr Tarmoqlari JSC ning 2022–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari Ernst & Young tomonidan ijobiy auditor xulosasini oldi — bu institutsional majburlovning samarasini ko‘rsatadi.

To‘siqlar

Menejerlik mustaqilligi, baholashdagi elastiklik va audit mustaqilligining pastligi halol tasvirlash aloqasini susaytiruvchi asosiy omillardir. O‘zbekistonda MHXSga o‘tish jarayonida malakali kadrlar tanqisligi va ichki nazorat tizimlarini joriy etishdagi nomuvofiqlik dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda (ESG Foundation, 2025).

Muhokama va xulosa. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, halollik yoki haqqoniy tasvirlashning biri alohida olinganda yuqori sifatni ta’minlay olmaydi. Sharq allomalarining merosi MHXS tamoyillarini madaniy va tarixiy chuqurliklari bilan

mustahkamlaydi. Institutsional majburlov individual axloq va tizimli sifat o‘rtasidagi vositachi o‘zgaruvchidir.

2024-yildagi tadqiqotlar ko‘rsatishicha, Russell 3000 kompaniyalarining 6, 6% akkrual manipulyatsiya, 8, 8% esa noqulay ma’lumotlarni yashirishga qo‘l urgan. Bu raqamlar — MHXS va institutsional majburlov hali ham mustahkam axloqiy madaniyatsiz to‘liq ishlamasligini isbotlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Moliyaviy hisobotlar ishonchliligini oshirish uchun quyidagilar zarur:

- Auditor mustaqilligi va nazorat mexanizmlarini institutsional mustahkamlash.
- Korporativ boshqaruv tuzilmalari va audit qo‘mitalarini takomillashtirish.
- Kasbiy sertifikatlash dasturlariga axloqiy tayyorgarlik modullarini kiritish.
- Raqamli audit va ma’lumotlar tahlili (Data Analytics) vositalarini keng joriy etish.
- O‘zbekistonda 2025-yilga mo‘ljallangan MHXSga to‘liq o‘tish jarayonida malakali kadrlar tayyorlashni jadallashtirish.

Nizomulmulk ta’kidlaganidek, “Davlat to‘g‘ri hisob bilan tik turadi” — buxgalteriya hisobining shaffofligi faqat iqtisodiy emas, balki umumijtimoiy barqarorlik omilidir. Va 2024-yilgi jahon raqamlari — $3, 1 trillion noqonuniy pul oqimi va $485, 6 mlrd firibgarlik zarari — bu hikmatning qanchalik dolzarb ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Klassik manbalar:

1. Ibn Sino, A.A. (XI asr). Kitob ash-shifo [Shifo kitobi]. Qahira: Al-Matbaa al-Amiriya.
2. Beruniy, A.R. (XI asr). Al-Qonun al-Mas’udiy [Mas’ud qonuni]. Haydarobod: Usmoniya Jamiyati nashryoti, 1954.
3. G‘azzoliy, A.H. (XII asr). Ehyou ulumid-din [Diniy ilmlarning tiriltirilishi]. Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiya.
4. Yusuf Xos Hojib. (XI asr). Qutadg‘u bilig [Davlatga eltuvchi bilim]. Toshkent: Fan, 1971.
5. Navoiy, A. (XV asr). Mahbub ul-qulub [Qalblarning mahbubi]. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
6. Nizomulmulk. (XI asr). Siyosatnoma [Siyosat kitobi]. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.

Zamonaviy manbalar:

7. ACFE. (2024). Occupational Fraud 2024: A Report to the Nations. Association of Certified Fraud Examiners. [1, 921 ta ish, 138 mamlakat]
8. Ball, R. (2006). IFRS adoption and accounting quality. Accounting and Business Research, 36(sup1), 5–27.

9. Barth, M. E., Landsman, W. R., & Lang, M. H. (2008). International accounting standards and accounting quality. Journal of Accounting Research, 46(3), 467–498.
10. Bushman, R. M., & Smith, A. J. (2001). Financial accounting information and corporate governance. Journal of Accounting and Economics, 32(1–3), 237–333.
11. Dechow, P. M., Ge, W., & Schrand, C. (2010). Understanding earnings quality. Journal of Accounting and Economics, 50(2–3), 344–401.
12. ESG Foundation. (2025). Uzbekistan‘s State Enterprises Embrace IFRS as Reform Drive Gains Pace. esgfoundation.org
13. Healy, P. M., & Wahlen, J. M. (1999). A review of earnings management literature. Accounting Horizons, 13(4), 365–383.
14. IASB. (2018). Conceptual Framework for Financial Reporting. International Accounting Standards Board.
15. IFAC. (2022). International Code of Ethics for Professional Accountants. International Federation of Accountants.
16. IFRS Foundation. (2021). Uzbekistan — IFRS Jurisdiction Profile. ifrs.org
17. Journal of Accounting Research. (2024). Measuring the Prevalence of Earnings Manipulations. [Russell 3000 kompaniyalari, 12.4% firibgarlik]
18. Nasdaq Verafin. (2024). 2024 Global Financial Crime Report. [$3.1 trln, $485.6 mlrd]
19. Schipper, K. (2003). Principles-based accounting standards. Accounting Horizons, 17(1), 61–72.
20. Sunder, S. (2016). Theory of Accounting and Control. Oxford University Press.
21. VM Qarori №507. (2020). MHXS ni tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

Mamayunus Qarshibayevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.
tel. va telegram: +998 97 793 00 48

IQTISODIY TAHLIL FANINING O‘ZBEKISTONDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda ushbu fan rivojiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar, ilmiy maktablarning shakllanishi hamda mahalliy olimlarning hissasi tahlil qilingan. Shuningdek, sobiq ittifoq davridan to mustaqillik yillarigacha bo‘lgan davrda iqtisodiy tahlil fanining taraqqiyot yo‘nalishlari yoritilgan. Zamonaviy bosqichda esa fan rivojining raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuvi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy tahlil, ilmiy maktab, rivojlanish bosqichlari, modernizatsiya, diversifikatsiya, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar.

Buxgalteriya hisobi fanining yaratilganligiga 500-yildan oshdi. Shu fan negizida “Iqtisodiy tahlil” fani ham vujudga kelganligiga ham 100-yildan oshdi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida iqtisodiy tahlil fanining ham roli juda katta, chunki bu fanning amaliyotga tatbiq qilinishi iqtisodiy dastaklarning biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqil Respublikamiz o‘zining mustaqil fanlariga va har bir fan o‘zining yaratilish tarixiga ega bo‘lishi kerak. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani boshqa fanlar singari O‘zbekistonda ham o‘z tarixiga ega. Bu fan sobiq Ittifoq tarkibidagi boshqa Respublikalar singari O‘zbekistonda ham uning tarkibida shakllandi.

Iqtisodiy tahlilning O‘zbekistonda yaratilish tarixini taxminan besh bosqichga bo‘lish mumkin Bu quyidagi chizmada ifodalangan (1-rasm).

1 davr	XX asrning 60-yillari	Iqtisodiy tahlilning shakllanish davri
2 davr	Shu asrning 70-yillari	Sobiq ittifoq ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri
3 davr	Shu asrning 80-yillari	Iqtisodiy tahlil maktabining yaratilishi va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash
4 davr	Shu asrning 90-yillarning boshlari	Iqtisodiy tahlilning o‘zbek tilida yozilishi va vujudga kelishi davri
5 davr	Mamlakatimizning mustaqillik yillari XXI asr boshlarida	Iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari. Iqtisodiy tahlil bo‘yicha asarlarning ko‘plab vujudga kelishi va chop yetilishi. Bu bo‘yicha turli qarashlarning paydo bo‘lishi
6 davr	XXI asrning 15 yillaridan keyin	Mamlakatni iqtisodiyotini modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy qilish va raqamli iqtisodiyotdan foydalanish davri

1-rasm. O‘zbekistonda “Iqtisodiy tahlil” fanining yaratilish davrlari

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, I davr XX asrning 60-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu iqtisodiy tahlilning shakllanish davri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilning II davri o‘tgan asrning 70-yillariga, aynan Sobiq Ittifoq ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri bilan bog‘liqdir. III davr 80-yillarga to‘g‘ri keladi. Bunda mamlakatimizda iqtisodiy tahlil maktabining yaratilish va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash davri bo‘lib hisoblanadi.

IV davr ham o‘tgan 90-yillarning boshlari iqtisodiy tahlilning o‘zbek tilida yozilishi va vujudga kelish davridir. V davr mustaqillik yillarining dastlabki

yillariga to‘g‘ri kelib, iqtisodiy tahlilning mamlakatimizda rivojlanish yillarini boshidan kechirgan davrdir. Bu davr Moliyaviy tahlil bo‘yicha ko‘plab asarlarning vujudga kelishi va chop etilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Tahlil bo‘yicha turli qarashlarning paydo bo‘lishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi. 6-davr XXI asrning 10-18-yillarda Mamlakatni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida iqtisodiy tahlil bo‘yicha xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirilishi davri bo‘lmoqda.

Shu davrda iqtisodiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekistonning birinchi galda o‘ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga va buxgalteriya hisobi va hisobotining xalqaro standartlarga mos bo‘lgan “Iqtisodiy tahlil” fani shakllandi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda uzoq yillar mobaynida oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida tahlil fani asosan markaziy shaharlardagi (Moskva, Leningrad, Kiyev) olimlar tomonidan tayyorlangan darsliklar asosida o‘qitilib kelindi. Ammo bunda o‘zimizga xos xususiyatlar aks ettirilmagan edi. Bu esa 60-yillarga kelib o‘zbekistonlik olimlarni xam bu fan sohasida ijod qilishga da’vat etdi.

Markazdan chiqadigan darsliklarga muallif sifatida taklif qilinadigan bo‘lindi. Jumladan, 1966-yilda Moskvaning “Ekonomika” nashriyotida chop etilgan “Matlubot kooperatsiyasi korxonalar xo‘jalik faoliyatining tahlili” [1] darslikning mualliflari tarkibiga lvovlik O.R.Kmitsikevich novosibirskilik L.A.Falkovichlar bilan birgalikda samarqandlik olim I.N.Toporovskiy ham taklif qilingan edi. Bu darslikda Respublikamizning ba’zi xususiyatlari birinchi marta o‘z ifodasini topdi.

Shu fan bo‘yicha masalalar to‘plamini yozishni samarqandlik olimlar o‘z zimmalariga oladilar. 1970-yildagi I.T.Abdukarimov, B.A.Zalesskiy va N.Toporovskiylar tomonidan Moskvaning “Ekonomika” nashriyotida “Matlubot kooperasiyasi korxona va tashkilotlari xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha masalalar to‘plami” o‘quv qo‘llanmasi birinchi marta chop etildi [2] . Bu o‘zbekistonlik olimlarning Ittifoq olimlari o‘rtasidagi katta ishonchga sazovor bo‘lganligi va ularning tan olinganligidan dalolat edi. Bu o‘quv qo‘llanma chorak asr davomida samarqandlik olimlar tomonidan bir qancha marta qayta ishlanib chop etilib kelindi [3]. Bunda Samarqand kooperativ instituti professori I.T.Abdukarimovning katta xizmatlarini e’tirof etish lozimdir.

Sobiq Ittifoq olimlari ichida xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo‘yicha o‘zbekistonlik olimlarning mavqei uzluksiz oshib bordi. Shu fanga bag‘ishlangan qator monografiyalar, o‘quv qo‘lanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi. 1968-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan “Kooperativ savdoda muomala xarajatlari tahlili” Moskvaning ”Ekonomika” nashriyotida [4], 1971-yilda “Kooperativ savdoda chakana tovar oboroti tahlili” o‘quv qo‘llanmasi Moskva kooperativ instituti nashriyotida, [5] 1973-yilda “Kooperativ savdoda foyda va rentabellik” monografiyasi “Ekonomika” nashriyotida chop etildi [6]. Muallifning bu asarlari sobiq Ittifoq olimlari tomonidan yuksak baholanadilar.

Bu asarlar o‘quv qo‘llanma sifatida butun Ittifoqning barcha oliy o‘quv yurtlarida keng foydalanildi. Professor I.T.Abdukarimov kitoblarining xususiyati shunda ediki, unda hamisha nazariya bilan amaliyot uyg‘unlashgan xolda

yoritilgan. Shu tufayli deyarli barcha taklif va tavsiyalari amaliyotiga izchilik bilan qo‘llanilib kelindi.

Shunday qilib, 1970-yillarda Samarqandda prof. I.T.Abdukarimov rahbarligida tahlil maktabi tarkib topdi. Bu maktab Ittifoq olimllari tomonidan tan olindi. Natijada Samarqand kooperativ instituti bazasida shu fanning ravnaqiga, uning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan bir qancha Butun Ittifoq ilmiy-amaliy konferensiyalari o‘tkazildi.

70-inchi yillarnig ikkinchi yarmiga kelib tahlilchilar safi O‘zbekiston miqyosida tanila boshlandi va kengaydi. Bu fan bo‘yicha o‘zbek tilida darsliklar paydo bo‘la boshladi. 1973-yilda “O‘qituvchi” nashriyotida N.A.Xan tomonidan tayerlangan “Qishloq xo‘jalik korxonalari xo‘jalik faoliyatining analizi” oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar chop etildi [7]. 1979-yilda O.Maxmudovning “Qishloq xo‘jalik korxonalarining xo‘jalik faoliyatini analiz qilish” o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmasi ham ana shu nashriyotda o‘zbek tilida chop etildi [8]. Bu darslik va o‘quv qo‘llanmalar respublikamizda iqtisodiy tahlilning taraqqiyoti va istiqboli uchun qo‘yilgan ilk qadamlar edi.

Ammo Respublikamizda qishloq xo‘jalik institutlaridan tashqari barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida maxsus fanlar, jumladan, iqtisodiy tahlil fani ham rus tilida o‘rganilar edi. Shu tufayli qishloq xo‘jaligidan tashqari sohalardan barcha asarlar rus tilida tayyorlandi va chop etildi. 1973-yilda prof I.T.Abdukarimov va dos. M.K.Pardayevlar tomonidan “Kooperativ savdoda mehnat ko‘rsatkichlarini tahlili” nomli kitobi Moskvaning “Ekonomika” nashriyotida chop etildi [9]. Bu bilan samarqandlik olimlar tematik tahlilni rivojlantirish borasida yana bir qutlug‘ qadam qo‘ydi.

80-inchi yillar o‘zbekistonlik, ayniqsa, samarqandlik olimlar uchun juda sermahsul davr bo‘ldi. I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev va A.A.Abdiyevlar hamkorligida “Xo‘jalik faoliyatining tahliliga» bag‘ishlangan to‘rt tomlik albom yaratildi. Bular Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga o‘quv qo‘llanmasi sifatida tavsiya qilindi va ular 1983-yilda Samarqand kooperativ institutida chop etildi. Bu albomning birinchi qismi “Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslariga” bag‘ishlangan bo‘lib barcha mavzullar tegishli tizmalarda tushunarli qilib tasvirlangan [10]. Ushbu albomning ikkinchi tomi “Kooperativ savdoda iqtisodiy tahlil” nomi bilan ataladi. Bunda kooperativ savdo korxonalari xo‘jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan [11].

Ammo matlubot kooperatsiyasi ko‘p tarmoqli soha. Shu tufayli albomning 3 tomi “Matlubot kooperatsiyasi alohida tarmoqlari xo‘jalik faoliyatining tahlili mavzusiga bag‘ishlangan [12]. Albomning 4-inchi tomi matlubot kooperatsiyasi tashkilotlarida barcha tarmoqlardan hisobot qabul qilingandan keyingi o‘tkaziladigan tahlil usullarini o‘z ichiga olgan. Bu “Moliyaviy holatining tahlili” deb nomlangan va bunda barcha soha bo‘yicha moliyaviy holatining qanday ahvolda ekanligi to‘g‘risida xulosa qilishga bag‘ishlangan [13]. Ushbu tahlil usullari ham aniq chizmalar orqali yoritilgan.

Shunday qilib, Samarqand kooperativ instituti sobiq Sentrosoyuzga qaraydigan oliy o‘quv yurtlari ichida xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo‘yicha uslubiy markazga aylandi. Matlubot kooperatsiyasi tizimi uchun darslik va

nomunaviy dasturlar shu fan bo‘yicha prof. I.T.Abdukarimov boshchiligidagi olimlar maktabiga topshirildi.

1984-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan “Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish” nomli darslik Moskvaning “Ekonomika” nashriyotida chop etildi [14]. Bu darslik Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga va “Buxgalteriya uchyoti, nazorat va xo‘jalik faoliyatining tahlili” bo‘yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliy o‘quv yurtlariga tavsiya qilindi. Bu darslikni keng jamoatchilik va olimlar olami juda yaxshi kutib oldilar. Natijada 1989-yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to‘ldirilgan variantida qayta nashr qilindi [15].

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tahlil fani O‘zbekistonda tarixiy jihatdan bosqichma-bosqich shakllanib, izchil rivojlanib kelgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan dastlab sobiq ittifoq doirasida shakllangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan milliy xususiyatlar asosida boyitilib, mustaqil ilmiy maktab darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, XX asrning 60–80-yillarida iqtisodiy tahlil fanining nazariy va uslubiy asoslari yaratilib, mahalliy olimlar tomonidan muhim ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgani uning mustahkam poydevorini ta’minladi.

Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqlaydiki, iqtisodiy tahlil fanining rivojlanishida Samarkand ilmiy maktabining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maktab vakillari tomonidan yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy ishlanmalar nafaqat respublika miqyosida, balki sobiq ittifoq doirasida ham keng e’tirof etilgan. Bu esa o‘z navbatida, iqtisodiy tahlil fanining ilmiy maqomini oshirish va uni amaliyot bilan uzviy bog‘lashga xizmat qilgan.

Mustaqillik yillarida esa iqtisodiy tahlil fanining rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarildi. Mazkur davrda fan milliy iqtisodiyot talablariga mos ravishda qayta shakllantirildi, o‘zbek tilida ilmiy adabiyotlar yaratildi hamda tahlil usullarini amaliyotga joriy etish kengaydi. Shu bilan birga, global iqtisodiy jarayonlar, bozor munosabatlari va xalqaro standartlarning kirib kelishi iqtisodiy tahlil fanining mazmun va mohiyatini yanada boyitdi.

Hozirgi bosqichda iqtisodiy tahlil fani iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish hamda innovatsion rivojlanishni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu fan yangi metodlar, tahliliy yondashuvlar va texnologiyalar bilan boyib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai vazifasini bajarmoqda.

Umuman olganda, iqtisodiy tahlil fanining shakllanish va rivojlanish tarixi uning nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur fan iqtisodiy jarayonlarni chuqur o‘rganish, samaradorlikni oshirish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim nazariy va uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кмицикевич.О.Р. и др. Анализ хозяйственной деятелности предприятий потребителской кооператсии.-М: Эканомика, 1966.

2. И.Т.Абдукаримов и др. Сборник задач по анализу хозяйственной деятелности потребителской коопературсии -М: Эканомика, 1968.

3. И.Т.Абдукаримов и др. Задачник по анализу хозяйственной деятелности предприятий и организатсии потребителской коопературсии. -М: Эканомика, 1975.

4. И.Т.Абдукаримов. Анализ издережек обрашения в кооперативной тарговле.-М: Эканомика, 1976.

5. И.Т.Абдукаримов. Анализ розничного товороборота в кооперативной торговле.-М: МКИ. 1971.

6. .И.Т.Абдукаримов Прибили и рентабилности в кооперативной торговле.-М: Эканомика, 1973.

7. Xan N.A. Qishloq xo‘jalik korxonalari xo‘jalik faoliyatining analizi.-T: “O‘qituvchi”, 1978.

8. Maxmudov O. Qishloq xo‘jalik korxonalarining xo‘jalik faoliyatini analiz qilish.-T: “O‘qituvchi”, 1979.

9. И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев. Анализ показателей по труду в кооперативной торговле.-М: «Экономика», 1978.

10. И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев. Теоретические основы экономического анализа. / Альбом наглядных пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

11. И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев Экономический анализ в кооперативной торговле./ Альбом наглядных пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

12. И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев Анализ хозяйственной деятелности отделных отраслей потребителской коператсии. / Альбом наглядных пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

13. И.Т.Абдукаримов , М.К.Пардаев, А.А.Абдиев Анализ финансового состояние: /Альбом наглядных пособий. Самарканд, СамКИ, 1983.

14. И.Т.Абдукаримов. Анализ хозяйственной деятелности потребителной коопературсии.-М: Экономика, 1984. И.Т.Абдукаримов Анализ хозяйственной деятелности потребителной коопературсии. 2-е издание-М: Экономика, 1989.

15. М.Қ.Пардаев, Ю.С.Саттаров. Методические рекомендатсии по комплексной отсенке эффективности труда в розничной торговле-Т: Узбекпотребсоюз, 1983.

Mamayunus Qarshibayevich Pardayev,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.
tel. va telegram: +998 97 793 00 48

IQTISODIY TAHLIL FANINING O‘ZBEKISTONDA RAVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Xususan, 1980–1990-yillarda samarqandlik olimlar tomonidan kompleks tahlil usullarining ishlab chiqilishi, ilmiy tadqiqotlar natijalari va ularning amaliyotga joriy etilishi tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy tahlilni avtomatlashtirish, o‘zbek tilidagi dastlabki darslik va lug‘atlarning yaratilishi, mustaqillik davrida esa bozor iqtisodiyoti sharoitida fan rivojining yangi yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Mazkur jarayonlar fan taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy tahlil, kompleks tahlil, samaradorlik, avtomatlashtirish, bozor iqtisodiyoti, ilmiy tadqiqot, moliyaviy tahlil.

Samarqandlik olimlar o‘tgan asrning saksaninchi yillarida tahlilning yangi shakli kompleks tahlil usullarini ishlab chiqishga kirishdi. Natijada Ittifoq jurnallarida shu bo‘yicha bir qancha ilmiy maqolalar chop etildi va nihoyat 1983-yilda prof. I.T.Abdukarimov taxririda M.Q.Pardayev va Yu.S.Sattarovlar tomonidan tayyorlangan ”Chakana savdoda mehnat samaradorligini kompleks baholash” bo‘yicha uslubiy tavsiya yuzaga keldi. Bu tavsiyani O‘zbekbirlashuv boshqaruvi tomonidan amaliyotga tadbiq qilish uchun qabul qilindi. Kompleks tahlil bo‘yicha samarqandlik olimlarning maqolalari Ittifoqda chiqadigan “Buxgalteriya uchyoti” [1], “Sovet matlubot kooperatsiyasi” [2] kabi jurnallarda chop etilishi ularning nufuzini yanada oshirdi. Natijada 1986-yilda o‘tkazilgan Butun Idtifoq ilmiy-amaliy anjumanning asosiy mavzusi ana shu muammoga qaratildi. Ushbu anjumanning ilmiy-amaliy tavsiyasi sifatida 1986-yilda chop etilgan I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, V.I.Abdukarimov, V.N.Abramovalarning “Matlubot kooperatsiyasida sotsial-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash usuli” risolasi qabul qilindi [3]. Bunda mualliflar iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash va tahlil qilish usullarini ko‘tarib chiqdi.

Xo‘jalik faoliyatini kompleks baholash borasida ilmiy izlanishlar davom ettirildi. Endi bir tarmoqda emas, balki ko‘p tarmoqda qanday usul bilan kompleks baholash mumkinligi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va nihoyat 1990-yilda V.I.Abdukarimov tomonidan “Axborotlarni avtomatlashtirgan tizimi sharoitida ko‘ptarmoqli matlubot kooperatsiyasi samaradorligini kompleks baxolash masalalari” mavzusidagi monografiyasi Toshkentdagi “Mehnat” nashriyotida bosmadan chiqdi [4]. Bu samarqandlik olimlarning Kompleks tahlilini rivojlantirishdagi yana bir qutlug‘ qadam bo‘ldi.

90-inchi yillaraga kelib axborotlarni avtomatlashtirish masalalariga keng to‘xtaldi. Shu yillari buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, statistika va rejalar axborotlarini avtomatlashtirish bo‘yicha bir qancha adabiyotlarni R.A.Abdullayev, V.I.Abbdukarimov, N.A.Ibroximov, K.U.Urazov, M.B.Abbosovlar tomonidan va turli nashriyotlardan chop ettirdi [5]. Bu kishilarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilini avtomatlashtirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi samarqandlik olimlarni o‘zbek tilida darslik yozishga da’vat etdi. Bunga raxbarlikni yana prof. I.T.Abdukarimov o‘z qo‘liga oldi va nihoyat 1989-yilda I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, A.A.Abidev va V.I.Abdukarimovlar tomonidan “Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish” mavzusida savdo va matlubot kooperatsiyasi sohasi bo‘yicha birinchi marta o‘zbek tilida darslik vujudga keldi. U Toshkentdagi “O‘qituvchi” nashriyotida chop etildi [6]. Bu darslikdagi ko‘p iqtisodiy atamalar o‘zbek tilida yozildi. Ammo maxsus fanlarni faqat rus tilida o‘qib yurgan talabalar uchun va o‘z ishini rus tilida yuritadigan mutaxassislar uchun o‘zbek tilidagi atamalarni tushunish ancha qiyin kechdi. Shu tufayli bu qiyinchilikni osonlashtirish maqsadida samarqandlik olimlar “Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o‘zbekcha lug‘atini” ishlab chiqdi va 1990-yilda Samarqand kooperativ institutida va 1992-yilda Toshkentdagi “O‘qituvchi” nashriyotida chop etishga muvoffaq bo‘ldilar [7].

Shuni alohida qayd etish joizki, Samarqand kooperativ instituti Sentrosoyuz institutlari bo‘yicha “Iqtisodiy tahlil” fanidan metodik markaz, deb tan olindi va ushbu fanga oid barcha dasturlar, uslubiy ishlar, o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Natijada institu olimlari “Xo‘jalik faoliyati tahlili” fani bo‘yicha namunaviy dasturlar ishlab chiqish borasida ham sezilarli ishlarni amalga oshirdilar. 1987-yilda I.T.Abdukarimov va M.Q.Pardayevlar hamkorligida “Savdo iqtisodi” mutaxassisliklari uchun “Xo‘jalik faoliyatining tahlili” bo‘yicha namunaviy dasturni Sentrosoyuzning o‘quv-uslubiy birlashmasi orqali chop ettirildi [8].

1990-yilda esa “Buxgalteriya ucheti, nazorat va xo‘jalik faoliyati tahlili” mutaxassisligi bo‘yicha “Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish” fanining namunaviy dasturini ishlab chiqdi va Moskva Moliya Akademiyasi qoshida tuzilgan sobiq SSSR oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari vazirligining o‘quv-uslubiy birlashmasi tomonidan tasdiqlangan va nashrga tavsiya qilingan edi [9] . Bu namunaviy dastur ham I.T.Abdukarimov va M.Q.Pardayevlar tomonidan tayerlanadi va nashrdan chiqarildi. Ushbu dastur, O‘zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirilib 1992-yilda o‘zbek tilida chop etildi. Hozirgi kunda ham ba’zi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan shu namunaviy dasturlar o‘quv jarayonida qo‘llanilib kelinmoqda.

Tahlilning umumiy masalalari bilan birgalikda uning alohida sohasi bo‘yicha ishlar qilinmoqda. Jumladan, prf. D.K.Kudbiyev savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili muammolari, prof. X.A.Shodiyev esa tayyorlov savdo sohasida intensivlik va samaradorlikni aniqlash va tahlil qilish muammolari bo‘yicha ancha ishlar qildilar. Savdo korxonalarida aylanma mablag‘lar tahlili bo‘yicha bir qancha uslubiy tavsiyalar bilan A.Sh.Sattorov, matlubot

kooperatsiyasining ishlab chiqarish korxonalarida asosiy va aylanma mablag‘lar tahlili bo‘yicha U.X.Xudoyberdiyevlar ham samarali ijod qilmoqdalar. Tahlilning nazariyasi va usullarini takomillashtirishda statistik olimlardan Yo.Abdullayev [10] ham ancha hissa qo‘shdilar.

1981-yilda D.K.Kudbiyev “Savdoda asosiy fanlardan samarali foydalanish tahlili” kitobini, 1990-yilda “Kooperativ savdoda asosiy fondlardan foydalanish tahlilining muammolari”, 1989-yilda “Kooperativ chakana savdoda asosiy fondlar samaradorligini kompleks baholash va tahlil qilish” kabi monografiya va o‘quv qo‘llanmalari chop etishga muvaffaq bo‘ldi [11].

So‘nggi paytlarda xalq xo‘jaligi taraqiyotida samaradorlik va intensivlik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etdi. Buni inobatga olib 1990-yilda M.Q.Pardayev va Z.N.Qurbonovlar hamkorligida “O‘qituvchi” nashriyotidan “Kooperativ savdoda samaradorlik va intensivlik ko‘rsatkchlari tahlili” mavzusida monografiyasi [12], intensivlik ko‘rsatkichlarining shu yil M.Q.Pardayev va Sh.U.Xaydarov hamkorligida “Kooperativ savdo korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish” mavzusidagi o‘quv qo‘llanmalar chop etildi [13]. Bu sohaning rivojlanishiga D.Q.Qudbiyev, X.A.Shodiyevlar ham o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi [14]. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach o‘ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga bag‘ishlangan kitoblar ham paydo bo‘la boshladi. 1991-yilda I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev va Sh.U.Haydarovlar hamkorligida “Yangi xo‘jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar tahlili” risolasini chop etdi [15]. 1993-yilda Z.N.Qurbonovning “Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoda buxgalteriya uchyoti va iqtisodiy tahlil” monografiyasi “O‘qituvchi” nashriyotida chop etildi [16]. Shu yili “Zarafshon” nashriyotida M.Q.Pardayevning “Savdoda intensivlik: mohiyati, ko‘rsatkichlari va ularning oshirish yo‘llari” kitoblari chop etildi [17]. Olimlar 1994-1999-yillarda tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolariga bag‘ishlangan bir qancha to‘plam va risolalar chop etishga muvaffaq bo‘ldilar [18]. Ushbu kitoblar, maqolalar to‘plami va risolalar bozor iqtisodiyotining shakllanayotgan sharoitida tahlil fanini ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi muqarrar edi va aynan shunday ham bo‘ldi.

Mamlakatimizda 80-90-yillarning boshlariga kelib tahlil fanining rivojlanish sohasiga yangi-yangi iqtisodchi olimlar kirib kela boshladi. Bunday iqtisodchi olimlardan R.Radjapov, A.S.Sotivoldiyev, Yo.Abdullayev, O.Maxmudov, X.Shodiyev, N.Xan, A.Shoalimov, B.Hasanov A.T.Ibragimov, A.Usanov, A.K.Ibragimov, B.A.Hasanov, A.Rizaqulov, O.Bobojonov, M.To‘laxo‘jayeva, N.Jo‘rayev, O.Jumanov, M.Rahimov, A.Abduganiyev, I.O.Voljin, V.V.Yergashboyev kabilar “Iqtisodiy tahlil”ning turli qirralariga bag‘ishlangan asarlar yarata boshladilar.

1995-1999-yillarda O‘zbekistonda “Iqtisodiy tahlil” fanining asosiy sohasi bo‘lgan moliyaviy tahlilga bag‘ishlangan birqancha adabiyotlar chop etildi. Bular jumlasiga M.Q. Pardayevning “Moliyaviy tahlil metodologiyasi” (Samarkand 1997), A. Ibrohimovning “Moliyaviy tahlil” (T.: Mehnat, 1995)

I.T.Abdukarimovning “Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari” (T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashr uyi, 1998, ikkinchi nashri 1999-yilda), I.O.Volji va V.V.Ergash-boyevlarning “Moliyaviy tahlil” (T.: Iqtisodiyot va xukuk dunyosi” nashr uyi, 1998), M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlarning “Moliyaviy tahlil” (T.: “Iqtisodiyot va xukuk dunyosi” nashr uyi, 1999) kabi kitoblarni kiritish mumkin.

2000-yillardan keyin ham iqtisodiy tahlilga oid bir qancha darslik va o‘quv qo‘llanmalar nashrdan chiqdi. Bular jumlasiga Yo. Abdullayev, A.Ibroximov va M.Raximovlarning “Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob” (T.: Mehnat, 2001.- 320 bet.), A.Vahabov va A.Ibrohimovlarning “Moliyaviy tahlil” (T.: “Sharq” 2002. – 224 b.), M.Q.Pardayev, I.T.Abdukarimov va B.I.Isroilovlarning “Iqtisodiy tahlil” (T.: “Mehnat”, 2004. – 488 b.), A.Vaxabov, A.Ibrohimov, N.Ishankulovlarning “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” (T.: Sharq, 2005.- 480 bet.), T.Sh.Shog‘iyosovning “Kompleks iqtisodiy tahlil” (T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 218 b.), M.Q.Pardayev, B.A.Hasanov, J.I.Isroilov, M.E.Po‘latov, O‘.T.Eshboyev va A.N.Xolikulovlarning “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” (T.: “Cho‘lpon”, 2012. – 400 b.), M.Rahimovning “Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili” (T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. – 392 b.), N.F.Ishankulov, M.Q.Pardayev, A.T.Ibrohimov, Q.M.Misirov va U.A.Nurmanovlarning “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” (T.: “Sano-standart”, 2014y.), A.Vahabov A.Ibrohimov va U.K.Yakubovlarning “Iqtisodiy tahlil va audit” (T.: “Iqtisod-moliya” 2015. – 368 b.), B.Hasanov, F.Abduraxmanova, Z.Qodirova, O.Norboyevlarning “Xo‘jalik faoliyati tahlili” (rus tilida. T.: “Sano-standart”, 2017. – 284 b.), M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlarning “Iqtiso-diy tahlil” (T.: “Soliq akademiyasi” 2017. – 534 b.) kitoblarini (darslik va o‘quv qo‘llanmalarini) ham kiritish mumkin.

Yuqorida iqtisodiy mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan tahlilga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarning ro‘yxatini keltirdik xolos. Ularning har biri ma’lum yo‘nalishga va mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu tufayli mazkur masalani atroflicha qarab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Xulosa qilib aytganda Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari atroflicha yoritildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa 1980–1990-yillarda samarqandlik olimlar tomonidan kompleks tahlil usullarining ishlab chiqilishi ushbu fan taraqqiyotida muhim burilish yasagan. Ilmiy maqolalar, monografiyalar va metodik tavsiyalar orqali iqtisodiy samaradorlikni baholashning nazariy va amaliy asoslari shakllantirildi .

Shuningdek, iqtisodiy tahlilni avtomatlashtirish, ko‘p tarmoqli faoliyatni baholash hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘nalishlari keng rivojlandi. Mustaqillik davrida esa fan milliy asosda rivojlanib, o‘zbek tilidagi darsliklar, lug‘atlar va o‘quv dasturlarining yaratilishi ilmiy maktabning mustahkamlanishiga xizmat qildi .

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni iqtisodiy tahlil fanining mazmunini yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili va kompleks baholash usullari takomillashdi hamda amaliyotga keng joriy etildi. Shu

bilan birga, yangi avlod olimlarining ilmiy izlanishlari fan rivojining uzluksizligini ta’minladi .

Umuman olganda, iqtisodiy tahlil fani O‘zbekistonda tarixiy tajriba, ilmiy maktablar va zamonaviy iqtisodiy islohotlar uyg‘unligida rivojlanib, bugungi kunda iqtisodiy boshqaruvning muhim ilmiy asosi sifatida shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. М.К.Пардаев. Эффективность труда в торговле и методика ее определения // Бухгалтерский учет, 9. 1978 с 37-43. Пардаев М.Қ Сравнительная оценка эффективности торговли // Бухгалтерский учет, 10. 1982 с.39-42 ва бошқалар.

2. И.Т.Абдукаримов. Торговля: оценка эффективности. // Советская потребительская кооперация, 1976, 5 с. 35-36.

3. И.Т.Абдукаримов. и др. Методика определения социально-экономической эффективность в потребительской кооперации- Самарканд: СКИ, 1986.

4. Абдукаримов В.И. Вопросы оценки эффективности многоотраслевой хозяйственной деятельности потребительской кооперации в условиях АСАД: -Т: Мехнат, 1990.

5. Р.А.Абдуллаев ва бошқалар. Иқтисодий ахборотларни ЭХМ да ишлашини автоматлаштириш-Т: «Ўқитувчи», 1990. Абдуллаев Р.А. ва бошқалар.

6. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар.Матлубот кооперацияси хўжалик фаолиятини анализ қилиш.-Т: «Ўқитувчи», 1989.

7. Абдукаримов И. Т ва бошқалар. Савдога оид иқтисодий автоматларнинг русча-ўзбекча луғати. Доц.М.Қ.Пардаев тахририда-Т: «Ўқитувчи», 1992.

8. Абдукаримов И. Т, М.Қ.Пардаев. Анализ хозяйственной деятельность. Программа для кооперативных институтов по специальности 1729. Экономика торговли.-М: ПУМК, 1987.

9. И.Т.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев. Анализ хозяйственной деятельности потребительской кооперации. Программа для студентов вузов по специальности 06. 08. “Бухгалтерский учет, контроль и анализ хозяйственной деятельности”. -М: УМО Минвуз СССР. 1990.

10. Ё.Абдуллаев. Региональный аспект статистического изучения эффективности общественного производства.-Т: Фан. 1985. Ё.Абдуллаев. Сравнителеьный анализ эффективности региональной экономики.-Т: Мехнат, 1987.

11. Кудбиев.Д.К. Анализ эффективности использования в кооперативной торговле.-М: ЗИСТ, 1981, Кудбиев.Д.К. Проблемы анализа использования основных фондов в торговле, -Т: Ўзбекистон, 1990, Кудбиев.Д.К. Методические рекомендации по комплексному анализу и оценки эффективности использования основных фондов в кооперативной торговле.-М: 1989.

12. Пардаев.М.Қ. Қурбонов.З.Н. Анализ показателей эффективности и интенсификации в кооперативной торговле.-Т: «Ўқитувчи», 1990

13. Пардаев.М.Қ. Хайдаров Ш.К. Кооператив савдо корхона ва ташкилотларининг молиявий аҳволини таҳлил қилиш.-Т: РУМК, 1990

14. Шодиев.Х.А. Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари тайёрлашни такомиллаштириш: (интенсивлаш ва самарадорлик масалалари).-Т: Меҳнат, 1989. Шодиев Х.А. Интенсивлаш ва самарадорликнинг ўзаро алоқадорлиги.-Т: Ўзбекистон, 1991

15. Абдукаримов И.Т., Пардаев М.Қ. Хайдаров Ш.У. Анализ доходов в кооперативной торговле в условиях нового хозяйственного механизма.-М: МКИ, 1991

16. Қурбонов З.Н. Бухгалтериский учет и экономический анализ в торговле в условиях рыночной экономики.-Т: «Ўқитувчи», 1993.

17. Пардаев М.Қ. Интенсификация в торговле: сущность, показатели и пути их повышения- Самарканд: Зарафшон, 1993.

18. Бозор муносабатлари шаклланиши шароитида матлубот кооперацияси ривожланишининг социал-иқтисодий муаммолари -С., 1993: Актуальные проблемы учета, аудита и совершенствования финансово-кредитной системы в условиях развития риночных отношений/ Материалы международной НПК-С., 1994. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиетига ўтиш муаммолари ва матлубот кооперацияси-С., 1994: Повишения эффективности производства в услових рынка- Самарқанд, 1995: Пардаев М.Қ. Хўжалик фаолияти таҳлилида қўлланиладиган усуллар, - Самарқанд: СамКИ, 1998. М.Қ.Пардаев. Иқтисодий таҳлилнинг комплекс бахолаш усуллари - Самарқанд, СамКИ, 1998: У.Х.Худойбердиев, М.Қ.Пардаев, З.Н.Қурбонов Солиқлар учети ва таҳлили-Самарқанд, СамКИ, 1995 ва х.к. Пардаев М.К. Молиявий таҳлил методологияси. Самарқанд, СамКИ, 1997; Абдукаримов И.Т. Молиявий ҳисоботни ўқиш ва таҳлил қилиш йўллари. Т: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998 ; Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Молиявий таҳлил. Т. Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 ва ҳ.к.

Mamayunus Qarshibayevich Pardayev,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.
tel. va telegram: +998 97 793 00 48
Bahodir Ibragimovich Isroilov,
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori
tel. va telegram: +998 90 932 12 34

O‘ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDA IQTISODIY TAHLIL FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Unda iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari, moliyaviy va boshqaruv tahlili yo‘nalishlarining shakllanish jarayoni hamda ushbu sohada yaratilgan ilmiy adabiyotlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mamlakatimizda iqtisodiy tahlil bo‘yicha ilmiy maktablarning vujudga kelishi, ularning rivojlanish tendensiyalari va ilmiy qarashlar xilma-xilligi yoritilgan. Tadqiqot natijasida iqtisodiy tahlil fanining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy tahlil, moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili, ilmiy maktablar, nazariy asoslar, iqtisodiy rivojlanish, tahlil metodologiyasi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida tahlilga oid adabiyotlar ham boshqa fanlar singari Davlat tilida o‘zimizning xususiyatlarimizni inobatga olgan holda nashr qilina boshlandi. Mazkur fanga oid adabiyotlar mustaqillik yillarida asosan Samarqand va Toshkent oliy o‘quv yurtlari olimlari tomonidan yaratildi. Toshkentda ushbu fan bo‘yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya instituti olimlari jonbozlik ko‘rsatdilar. Samarqandda esa Samarqand iqtisodiyot maktabi shakllangan iqtisodiyot va servis instituti olimlari tomonidan salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Samarqand iqtisodiyot maktabi olimlari tomonidan yaratilayotgan tahlilga oid asarlar tahlilning turli qirralarini qamrab oladilar. Mamlakatimizda iqtisodiy tahlilning nazariyasi bo‘yicha birinchi darslik Samarqandda yaratildi. Bu o‘zbek tilida M.Q.Pardayev tomonidan yozilgan “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” bo‘yicha darslik bo‘lib 2001-yilda nashrdan chiqdi [1]. Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash hay’atining 2000-yil 21-apreldagi 13-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan edi.

So‘ngra iqtisodiy tahlil nazariyasi bo‘yicha bir qancha o‘quv qo‘llanmalar nashrdan chiqarildi. Bular jumlasiga Toshkent moliya instituti olimlari A.Vaxabov, A.Ibrohimov va B.Hakimovlar tomonidan nashr qilingan “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” bo‘yicha o‘quv qo‘llanmani [2] misol keltirish mumkin. Bir yildan keyin Toshkent iqtisodiyot universiteti olimlari A.X. Shoalimov va Sh.A.Tojiboyevalar tomonidan ishlab chiqilgan “Iqtisodiy tahlil nazariyasi”

bo‘yicha ma’ruza matni nashrdan chiqdi [3]. Ushbu kitob 2006-yilda yana o‘quv qo‘llanma sifatida qayta nashrdan chiqarildi. Samarqand qishloq xo‘jalik instituti olimlaridan T.Q.Qudratov ham “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” bo‘yicha ma’ruza matnini 2004-yilda [4] nashrdan chiqardi.

Iqtisodiyot tahlil nazariyasiga oid masalalar ayrim darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ham qarab chiqiladigan bo‘ldi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin. M.Q.Pardayev, B.I.Isroilovlar tomonidan tayyorlangan “Moliyaviy tahlil” albomni [5], A.Vaxabov, A.Ibrohimov, N.Ishankulovlarning “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darsligini [6], Ye.Ergeshevning “Iqtisodiy va moliyaviy tahlil” darsligini [7], M.Q.Pardayev rahbarligida B.A.Hasanov, J.I.Isroilov, M.E.Pulatov, O‘.T.Eshboyev va A.N.Xolikulovlar tomonidan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” o‘quv qo‘llanmani [8], M.K.Pardayev, B.I.Isroilovlar tomonidan tayyorlangan “Iqtisodiy tahlil” o‘quv qo‘llanmani [9], M.K. Pardayev, I.T.Abdukarimov, B.I. Isroilovlar hammuallifligida tayyorlangan “Iqtisodiy tahlil” o‘quv qo‘llanma [10], N.F.Ishankulov, M.Q.Pardayev, A.T.Ibrohimov, Q.M.Misirov va U.A.Nurmanovlarning “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” [11], kabilarni kiritish mumkin.

Xullas, mustaqillik yillarida iqtisodiy tahlilning o‘zimizga xos nazariyasi shakllantirildi. Uning predmeti, metodi, usullari, vazifalari, tarixi, qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi, xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar, omillarni hisoblash yo‘llari, iqtisodiy tahlilning turlari, shakllari kabi nazariy masalalarga aniqlik kiritildi. Bu borada fikrlarning xilma-xilligi, ayrim masalalar bo‘yicha olimlarimizning turli qarashlari, ular o‘rtasidagi munozaralarning mavjudligi ham ayon bo‘ldi.

Mamlakatimizda iqtisodiy tahlilning bevosita umumetodologik muammolariga bag‘ishlangan asarlar ham mustaqillik yillarida yaratildi. Shuni e’tirof etish kerakki, mamlakatimiz olimlari iqtisodiy tahlilni uch qismga bo‘lib o‘rganish lozimligi xususida bir to‘xtamga kelishdi. Hamma adabiyotlarda iqtisodiy tahlil nazariyasi, moliyaviy va boshqaruv tahlili alohida-alohida qarab chiqilmoqda.

Aslida iqtisodiy tahlil yaxlit fan. Shu boisdan mazkur fanni yaxlit holda ham qarab chiqilishi lozimligi xususida ayrim fikrlar mavjud. Bular jumlasiga yuqorida nomlari keltirilgan M.K.Pardayev, B.I. Isroilovlarning 2 qismdan iborat “Iqtisodiy tahlil”, o‘quv qo‘llanmasini, M.K.Pardayev, I.T.Abdukarimov va B.I.Isroilovlarning “Iqtisodiy tahlil” lotin alifbosidagi o‘quv qo‘llanmasini, Yo.Abdullayev, A.Ibroximov va M.Raximovlarning “Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob”, M.Q.Pardayev, J.I.Isroilov, B.I.Isroilovlarning “Iqtisodiy tahlil” o‘quv qo‘llanmasi kabi asarlarni kiritish mumkin. Shu tariq iqtisodiy tahlil fani o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lgan holda shakllandi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida iqtisodiy tahlil bo‘yicha yetakchi olimlar (E.A.Akramov, I.T.Abdukarimov, Yo.A.Abdullayev, M.Q.Pardayev, D.Q.Qudbiyev, B.A.Hasanov, A.X.Shoalimov, Ye.Ergeshev, A.Ibrohimov, M.M.To‘laxo‘jayeva, T.Q.Qudratov, J.I.Isroilov, B.I.Isroilov, M.Rahimov, X.I.Axmadjonov, U.K.Yakubov, T.Sh.Shog‘iyosov kabilar) safiga yosh olimlar (M.E.Pulatov, O‘.T.Esanboyev, A.N.Xolikulov,

B.Hakimov, O‘.T.Eshboyev, Sh.A.Tojiboyeva, I.R.Berdikulova, Q.M.Misirov, U.A.Nurmanov, O.Norboyev, F.Abduraxmanova, Z.Qodirova kabilar) ham kirib kelmoqda. Bular uchun iqtisodiy tahlil bo‘yicha katta tadqiqot bazasi, ilmiy manba va maktab yaratildi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti olimlari tomonidan M.Q.Pardayev rahbarligida iqtisodiy tahlilning 6 jildlik asari yaratildi. Birinchisi, “Iqtisodiy tahlil nazariyasi”ga bag‘ishlangan. Ikkinchi jildida esa “Moliyaviy tahlil” masalalari qarab chiqilgan. Tanlangan asarlarning uchinchi jildi “Boshqaruv tahlili”ga bag‘ishlangan. To‘rtinchi jild bevosita “Loyiha tahlili” muammolarini o‘z ichiga olgan. Beshinchi jildda “Funksional qiymat tahlili” masalalari yoritilgan. Asarlarning oltinchi tomi “Xususiy korxonalar iqtisodiy tahlili”ga bag‘ishlangan. Hozirgi kunda ushbu asarlar takomillashtirilib 10 jildlik asarlar ustida ish olib borilmoqda. Bular jumlasiga “Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil”, “Mehmonxona xo‘jaliklari faoliyatining iqtisodiy tahlili”, “Turistik firmalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati tahlili”, “Tizimli tahlil” kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiy tahlilning shakllari ham ko‘payib rivojlanib bormoqda. Chunki jamiyatda sodir bo‘layotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar o‘ta murakkablashishi bilan birga ko‘lami ham kengayib borishi bunday o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu tufayli iqtisodiy tahlil fani kelajakda ham muntazam rivojlanib boraveradi. M.Q.Pardayevning rahbarligida 10 jildik iqtisodiy tahlilga bag‘ishlangan asar 2019-yilda nashrdan chiqarildi.

Bularning tarkibidan ham ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda 80 dan ortiq oliy dargohlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan iqtisodiy tahlil bo‘yicha maktab uchta oliygohda mavjudligini ko‘rish mumkin. Bular Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya institutidir. Deyarli barcha tahlilga oid asarlar ushbu oliy o‘quv yurtlari olimlari tomonidan nashr qilindi va qilinib kelinmoqda.

Iqtisodiy tahlilning navbatdagi yo‘nalishi “Moliyaviy tahlil” hisoblanadi. Buning ham nazariy va metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning ko‘lami ancha keng. Ushbu masalaga ham qisqacha to‘xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bu borada mamlakatimiz olimlari iqtisodiy tahlilni uch qismga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qilganligi haqida yuqorida aytilgan edi. Bulardan, birinchisi iqtisodiy tahlil nazariyasi bo‘lsa, ikkinchisi moliyaviy tahlil va uchinchisi, boshqaruv tahlilidir.

Iqtisodiy tahlil fanning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan «Moliyaviy tahlil” fanining ham tarkibiy tuzilishi shakllandi. Bu bo‘yicha ham mamlakatimizda birinchilar qatorida Toshkent moliya instituti va Samarqand kooperativ instituti olimlari tomonidan nashr qilinganligini qayd etish lozim. Bular jumlasiga 1995-yilda nashr qilingan A.T.Ibrohimovning “Moliyaviy tahlil” risolasini, M.K. Pardayevning, ya’ni mazkur ish muallifining “Moliyaviy tahlil metodologiyasi” uslubiy qo‘llanmasi kabilarni kiritish mumkin. M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlar o‘zlarining qo‘llanmasini takomillashtirib 1999-yilda hammualliflikda moliyaviy tahlil fani bo‘yicha birinchi bo‘lib uning albomini yaratdi va “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyidan bosmadan chiqarildi. O‘zbek va rus tillarida I.O.Voljin va V.V.Ergashboyevlarning «Moliyaviy tahlil” kitobining nashr qilinishi ham

mazkur faning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. So‘ngra ushbu fan bo‘yicha bir qancha adabiyotlar nashr qilina boshlandi. Bular jumlasiga X.I.Axmadjonov, M.Yu. Raximovlarning “Moliyaviy tahlil” o‘quv qo‘llanmasini, E.A.Akramovning «Анализ финансового состояния предприятия», keyinroq takomillashtirilgan holda o‘zbek tilidagi “Korxonalarning moliyaviy holati tahlili” kitobini, A.V.Vaxabov va A.T.Ibrohimovlarning “Moliyaviy tahlil” darsligi, X.I.Axmadjonov, N.Ibrohimov, U.Nur-manov “Pul mablag‘larining hisobi va tahlili”, Raximov M. “Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili” o‘quv qo‘llanma kabilarni kiritish mumkin. Shu tariqa moliyaviy tahlil fani ham mustaqillik yillarida o‘zining shakllanish va rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi.

Iqtisodiy tahlilga oid yana bir yo‘nalish “Boshqaruv tahlili” bo‘lib, buning ham nazariy va metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlar xususida qisqacha to‘xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Iqtisodiy tahlilning tarkibiy tuzilishi bo‘lgan «Boshqaruv tahlil” fani bo‘yicha ham bir qancha asarlar nashr qilindi va qilinmoqda. Bular jumlasiga M.Q Pardayev rahbarligidagi bir guruh olimlar (A.X.Shoalimov, I.R.Pardayev, J.I.Isroilov) tomonidan yozilgan “Boshqaruv tahlili” o‘quv qo‘llanmasini. Shu nom bilan shu mualliflar tomonidan tayyorlangan ma’ruzalar kursini, Toshkent moliya instituti olimlari A.T.Ibragimov va M.Yu.Rahimovlarning “Boshqaruv tahlili” o‘quv qo‘llanmasini, Toshkent iqtisodiyot universiteti olimlari A.X.Shoalimov, Sh.A. Tojiboyevalar tomonidan tayyorlangan «Boshqaruv tahlili” o‘quv qo‘llanmani, A.X.Shoalimov, Sh.A. Tojiboyevalarning “Boshqaruv tahlili” ma’ruzalar matni kabilarni kiritish mumkin. “Boshqaruv tahlili” bo‘yicha ma’ruza matnini 2006-yilda Samarqand qishloq xo‘jalik instituti olimlaridan T.Q.Qudratov ham nashrdan chiqardi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, boshqaruv tahlili xo‘jalik yurituvchi subyektlar axborotlaridan asosan ichki foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangandir. Shu tufayli ushbu tahlil har bir korxona va sohaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish lozimligini taqozo qiladi. Ammo ushbu masala hamon boshqaruv tahlilida o‘z yechimini topa olgan emas.

Oxirgi paytlarda boshqaruv tahlilining o‘rniga ayrim tarmoq ahamiyatiga molik asarlar ham paydo bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy tahlilning umummetodologik masalalari yuqoridagi ikkita qismda (“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” va “Moliyaviy tahlil”) yoritilishi va boshqaruv tahlili qismida esa shu tarmoq yoki sohaning o‘ziga xos xususiyatlari qarab chiqilishi lozim.

Hozirgi paytda iqtisodiy tahlilning metodik qismi birlashtirilib “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” nomi bilan bir kurs sifatida o‘qitilmoqda. Bu borada ham bir qancha asarlar yaratildi. Bular jumlasiga Toshkent moliya instituti olimlari A.V.Vahabov, A.Ibrohimov va N.Eshon-qulovlar tomonidan yaratilgan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darsligini, Z.A.Sagdullayeva, Sh.A.Rashidova, N.F. Ishankulovlar tomonidan nashr qilingan «Управленческий и финансовый анализ» masalalar to‘plamini, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining iqtisodiy tahlil maktabi tomonidan yaratilgan Ye.Ergeshevning “Iqtisodiy va moliyaviy tahlil” darsligini, M.Q.Pardayev B.A.Hasanov, J.I.Isroilov,

M.Ye.Pulatov, O‘.T.Esanboyev, A.N.Xolikulovlar tomonidan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” o‘quv qo‘llanmasi, kabilarni kiritish mumkin.

Moliyaviy va boshqaruv tahlili bo‘yicha Samarqand maktabi olimlarining qarashlari bir muncha takomillashtirilgan bo‘lib, unda iqtisodiy salohiyat, moliyaviy salohiyat tahlili, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy va iqtisodiy mustahkamligini baholash va tahlil qilish yo‘llarini, korxonalarning bankrotligi va raqobat-bardoshligini baholash va tahlil qilish yo‘llari kabi masalalarni o‘qitish lozimligi asoslangan va o‘quv adabiyotlarida tavsiya qilingan.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, boshqaruv tahlilida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ish bajarish jarayonlari hamda ular bilan bog‘liq masalalar qaralishi darkor. O‘z navbatida, moliyaviy tahlilda tegishli axborotlarga (moliyaviy hisobotlarga) asoslangan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati bilan bog‘liq masalalarni qarab chiqishi lozim. Biroq, hozirgi boshqaruv va moliyaviy tahlil fanlarida ko‘rilayotgan masalalar ushbu talabga to‘liq javob bera olgan emas. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, hali iqtisodiy tahlilni, uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish borasida olimlarimiz va mutaxassislarimiz oldida hal qilinishi lozim bo‘lgan ancha muammolar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Samarqand: Zarafshon, 2001.

2. Vahabov A., Ibrohimov A., Hakimov B. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – T.: TMI, 2003.

3. Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – T.: TDIU, 2004.

4. Qudratov T.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Samarqand, 2004.

5. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. – T., 1999.

6. Vahabov A., Ibrohimov A., Ishankulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: Sharq, 2005.

7. Yergeshev Ye. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. – T., 2005.

8. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil (1-2 qism). – T., 2001.

9. Pardayev M.Q., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. – T.: Mehnat, 2004.

10. Abdullayev Yo., Ibrohimov A., Rahimov M. Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. – T., 2001.

11. Ishankulov N.F. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – T.: Sano-standart, 2014.

12. Ibrohimov A.T. Moliyaviy tahlil. – T.: Mehnat, 1995.

13. Pardayev M.Q. Moliyaviy tahlil metodologiyasi. – Samarqand, 1996.

14. Voljin I.O., Ergashboyev V.V. Moliyaviy tahlil. – T., 1998.

15. Axmadjonov X.I., Rahimov M.Yu. Moliyaviy tahlil. – T., 2004.

16. Pardayev M.Q. va boshqalar. Boshqaruv tahlili. – T., 2005.

17. Ibragimov A.T., Rahimov M.Yu. Boshqaruv tahlili. – T.: TMI, 2004.

18. Сагдуллаева З.А. ва бошқалар. Управленческий и финансовый анализ. – Т., 2004.

Pardayev Mamayunus Qarshibayevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.
tel. va telegram: +998 97 793 00 48
Pardayev Olim Mamayunusovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
tel. va telegr: +998 97 918 00 20
Xolikulov Anvar Nematovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, PhD, professor
tel. va telegram: +998 91 523 51 87

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIY TAHLIL ILMIY MAKTABLARI VA ULARNING NAMOYONDALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida shakllangan iqtisodiy tahlil ilmiy maktablari, ularning rivojlanish bosqichlari va yetakchi namoyondalari keng yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, diversifikatsiya va innovatsiyalarni joriy etish sharoitida iqtisodiy tahlil fanining dolzarb yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada iqtisodiy tahlilni takomillashtirish bo‘yicha muhim ilmiy va metodologik takliflar berilgan hamda Samarqand, Toshkent va Farg‘ona ilmiy maktablarining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Mazkur tadqiqot iqtisodiy tahlil fanining nazariy va amaliy rivojiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy tahlil, ilmiy maktablar, moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili, SWOT tahlil, funksional qiymat tahlili, makroiqtisodiy tahlil, innovatsiya.

Har qanday fanning shakllanish va rivojlanish tarixini yozganda uning yaratuvchilari, shakllanishiga qo‘shgan hissalari va shu sohaga hissa qo‘shgan olimlar e’tiroe etilishi lozim. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlil ilmiy maktablari va ularning namoyondalariga ham e’tiborni qaratishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

O‘zbekiston Respubliki iqtisodiyotidagi modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish natijasida sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar, unga mos bo‘lgan boshqarish mexanizmini ham takomillashtirishni taqozo qiladi. Bunday iqtisodiy mexanizmlardan biri bo‘lgan iqtisodiy tahlil ham tegishli yo‘nalishlarda modernizatsiyalanishi va takomillashib borishi kerak bo‘ladi. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, iqtisodiy tahlil fani ham quyidagi yo‘nalishlarda takomillashishi lozim deb hisoblaymiz. Bu yo‘nalishda quyidagi tavsiyalarimiz mavjud. Bular:

Birinchidan, - hozir respublikamizda ko‘p mulkchilikka asoslangan bozor tizimidagi korxonalar vujudga keldi. Iqtisodiy tahlil ham ana shu sohaga mos holda rivojlanishi lozim;

Ikkinchidan, - O‘zbekistonda barcha sohalar, ayniqsa, buxgalteriya hisobi bo‘yicha jahon andozalariga mos milliy standartlar tizimi qabul qilindi va amal qilmoqda. Bu esa xalqaro andozalarga mos iqtisodiy tahlil tizimini ham

yaratilishini taqozo qiladi. Bu barcha sohalar uchun bir xil metodologik asosga ega bo‘lgan moliyaviy tahlilni takomillashtirish lozimligini taqozo qiladi;

Uchinchidan, - mamlakatimizda shakllangan bozor munosabatlarining xususiyatlarini, iqtisodiyotdagi modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish jarayonlarini inobatga olgan holda va buxgalteriya hisobining milliy stan-dartlaridan kelib chiqib, iqtisodiy tahlilning nazariyasini takomillashtish maqsadga muvofiq;

To‘rtinchidan, - O‘zbekistonda makroiqtisodiy tahlil amaliy jihatdan obyektiv zaruratga aylandi. Ammo uning nazariyasi va metodo-logiyasi yaratilgan emas. Shu tufayli kelajakda makroiqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik asosi ishlab chiqilishi lozim.

Beshinchidan, - olimlar sanoat, qurilish, transport, xizmat va boshqa halq xo‘jaligining muhim sohalari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishlari ham bugungi kunda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardandir. Bundan kelib chiqib, boshqaruv tahlilining tarmoqlarga mos yo‘nalishlarini takomillashtirish maqsadga muvoqif, deb hisoblaymiz;

Oltinchidan, - iqtisodyotga oid barcha o‘quv yo‘nalishlarida bakalavrlarni va mutaxassisliklar bo‘yicha magistrlarni tayyorlashda ushbu fanni o‘quv rejasiga kiritish, ushbu mutaxassisliklarga xos bo‘lgan iqtisodiy tahlilga oid o‘quv adabiyotlarini yaratish maqsadga muvofiq;

Yettinchidan, - hozirgi obyektiv zaruratdan kelib chiqib, iqtiso-diyotning rivojlanishini tizimli o‘rganishni ta’minlash maqsadida tizimli tahlilning nazariy va metodologik asoslarini yaratish ham maqsadga muvofiq;

Sakkizinchidan, - korxonalarning strategik yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash uchun har bir korxonaning kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyat va tahdidlarini to‘g‘ri aniqlashni va shunga asosan uni rivoj-lantirish bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni yo‘lga qo‘yish uchun SWOT tahlilning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini yaratish va takomillashtirishni taqozo qiladi;

To‘qqizinchidan, - korxonaning rivojlanishini va samaradorligini oshirishda ular tomonidan bajariladigan funksiyalarni asosiy, yordamchi, qo‘shimcha, nokerak va zararli turlarga bo‘lib, har birini qiymat jihatidan baholashni yo‘lga qo‘yish uchun funk-sional qiymat tahlilini rivojlantirishni taqozo qiladi;

O‘ninchidan, - hozirgi paytda juda ko‘plab yangi tarmoqlar, tadbir-korlik subyektlari paydo bo‘lmoqda. Bularning ham samaradorligi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga oladigan iqtisodiy tahlil usullarini yaratishni taqozo qiladi. Bu esa o‘z navbatida alohida tarmoqlar faoliyati tahlilini yaratish zaruratini tug‘diradi.

Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi mustaqil davlatimizning mustaqil fani – xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan “Iqtisodiy tahlil” fanining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Bu fanning kelajakda ahamiyati keskin oshadi, chunki bozor munosabatlari sharoitida turli mulk shakliga ega bo‘lgan korxonalarning xo‘jalik faoliyatini chuqur o‘rganishni, tahlil qilishni va iqtisodiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni taqozo qiladi. Shu tufayli mamlakatimizda iqtisodiy tahlil fani bilan olimlarimiz tizimli ravishda

shug‘ullanib kelmoqdalar va turli hududlarda ilmiy maktablarning shakllanishiga sababchi bo‘ldilar.

Quyida O‘zbekistonda shakllangan iqtisodiy tahlil maktablari namoyondalarining ayrimlrini keltirishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiy tahlilning bir qancha maktablari shakllangan. Ushbu maktblarda iqtisodiy tahlilga oid adabiyotlar va yosh kdrlar, shu jumladan ilmiy darajali olimlar (PhD, DCs) ham tayyorlanmoqda. Ushbu maktablar va ularning namoyondalari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda shakllangan tahliga oid ilmiy maktablarning namoyondalari

Iqtisodiy tahlil ilmiy maktablarining nomlari	**Ilmiy maktab namoyondalari**	**Iqtisodiy tahlilning qaysi yo‘nalishida ish olib borilishi**
Samarqand maktabi	I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, M.E.Po‘latov, B.I.Isroilov, Obid Pardayev, J.I.Isroilov, K.B.Urazov, A.Abdiyev, S.N.Tashnazarov, U.X.Xudayberdiyev, F.A.Safarov, A.N.Xali-kulov, T.Q.Qudratov, O.M.Pardayev, Z.Yu.Aminov, D.K.Usmanova, T.I.Yaxyayev, A.V.G‘apparov S.A.Babanazarova, I.R.Berdikulova, Sh.O.Kuvandikov, H.A.Raximov, Sh.S.Oltayev, Ozoda Pardayeva va boshqalar	Iqtisodiy tahlil nazariyasi, Iqtisodiy tahlil, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Funksional qiymat tahlili, Loyiha tahlili, Xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati tahlili, Turistik firmalar faoliyati tahlili, Mehmonxona xo‘jaliklari faoliyati tahlili, Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil, Soliqlar tahlili, Xususiy korxonalar faoliyati tahlili, Alohida tarmoqlar faoliyati tahlili, Oilaviy korxonalar tahlili, Biznes tahlil asoslari, Inson resurslari analitikasi, Zamonaviy strategik tahlil kabilar.
Toshkent maktabi	A.H.Shoalimov, A.V.Vahabov, M.Yu.Rahimov, A.T.Ibrahimov, B.A.Hasanov, N.Ishankulov, M.A.Ikromov, Ye.Ergeshev, B.I.Isroilov, Sh.R.Xolmo‘minov, O.T.Ostanakulov, L.T.Abduxalilova, R.A.Isayev, U.K.Yakubov, X.I.Axmadjonov N.N.Mavlanov, O.I.Ochilov, Z.A.Sagdillayeva, U.A.Nurmanov, I.X.Choriyev,	Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Funksional qiymat tahlili, Loyiha tahlili, Iqtisodiyot subyektlar moliyaviy holatining tahlili, Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili, Paxta tozalash korxonalari xo‘jalik faoliyati tahlili, Alohida tarmoqlar tahlili kabilar.

	Sh.A.Tojiboyeva, G.A.Ibragimov, A.B.Abdullayev, M.T.Abdujabborova, M.M.Ismoilova, A.S.Boltayev, N.R.Samadova, [B.J.Hakimov], N.N.Kalandarova, B.B.Alimov va boshqalar	
Farg‘ona maktabi	D.Q.Qudbiyev, I.N.Ismanov, G.Davlyatova, A.Xo‘jayev O.To‘ychiyeva, A.Salimov va boshqalar	Asosiy vositalar tahlili. Boshqaruv tahlili, Kompleks tahlil kabi yo‘nalishlar

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Samarqandning tahlil maktabida ilk bor “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanini o‘zbek tilida nashr qilishga muvaffaq bo‘lgan. Mazkur maktab namoyondalari “Xo‘jalik faoliyati tahlili” hamda “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanlaridan ham birinchilar qatorida o‘zbek tilida o‘quv adabiyotlarini tayyorlashga muvaffaq bo‘ldilar. Xorijiy davlatlarda keng qo‘llanilib, ma’lum darajada samaradorlikka erishishga muvaffaq bo‘lgan “Funksional qiymat tahlili” ham Samarqand maktabiga mansub. Ushbu fandan o‘quv qo‘llanma ham yaratildi va talabalar va magistrlar tanlov fani sifatida ham ushbu tahlilni o‘rganishga muvaffaq bo‘lishdi.

Shuningdek, bozor munosabatlarida iqtisdiy mexanizmlardan biri bo‘lgan “Loyiha tahlili” ham ilk bor samarqandlik olimlar qalamiga mansub bo‘lib, o‘zbek tilida nashrdan chiqarildi. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti yo‘nalishidan kelib chiqib, “Xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati tahlili” ham samarqandlik olimlar tomonidan tayyorlandi. “Turistik firmalar faoliyati tahlili” va “Mehmonxona xo‘jaliklari faoliyatining iqtisodiy tahlili” ham bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda ilk bor ushbu maktab olimlari tomonidan yoritildi.

Bozor munosabatlarida marketing tadqiqotlari bozor subyektlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, “Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil” fani ham ilk bor ushbu maktab namoyonadalari tomonidan tayyorlandi. Keyinchalik darslik sifatida Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti olimlari (M.A.Ikromov, L.T.Abduxalilova) tamonidan tayyorlandi. Bunga ham hammuallif sifatida M.Q.Pardayev ishtirok etdi.

Hozirgi sharoitda o‘ziga xos tarmoqlarning rivojlanishi “Alohida tarmoqlar faoliyati tahlili”ni yaratishni taqozo qildi. Bu borada ham ushbu maktabda ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunlarda ham tahlilning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘ldi. Bular jumlasiga 2025-2026-yillarda nashr qilingan “Oilaviy korxonalar tahlili”, “Biznes tahlil asoslari”, “Inson resurslari analitikasi” “Zamonaviy strategik tahlil” kabilarni misol keltirish mumkin.

Toshkent tahlil maktabi “Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari”ni hamda “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanlaridan o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda ham katta xizmat qildi. “Funksional qiymat tahlili” fanini samarqandlik olimlar maktabi

vakillari bilan hamkorlikda tayyorlashga muvaffaq bo‘ldi. “Loyiha tahlili”dan ham o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda mazkur maktab olimlari salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar. “Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili” fanidan darslik ham mazkur maktab olimlari tomonidan yaratilgan. Hozirgi paytda “Alohida tarmoqlar tahlili” fanidan ham ayrim adabiyotlar tayyorlanmoqda.

Farg‘ona maktabi vakillari D.Q.Qudbiyea, I.N.Ismanovlar ham asli Samarqandning tahlil maktabida shakllangan. Ularning tahlilga oid adabiyotlari asosan “Asosiy vositalar tahlili”ga bag‘ishlangan. Ushbu maktablarda ham yosh kadrlar tayyorlanib, tahlil maktabining yangi avlodi yetishib chiqmoqda. Farg‘ona Politexnika instituti professor-o‘qituvchilari I.Ismanov, G.Davlyatova, O.To‘ychiyeva, A.Salimovlar tomonidan “Boshqaruv tahlili” nomli darslik ham 2020-yilda nashrdan chiqarildi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda iqtisodiy tahlil maktadi namoyondalarining tarkibi yosh olimlar hisobiga ko‘paymoqda va bular ham uushbu fanning rivojlanishiga o‘zlarining tegishli hissalarini qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardayev M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Samarqand: SamISI, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
3. Abdukarimov I.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Vahabov A.V. Makroiqtisodiy tahlil. – Toshkent: Universitet, 2021.
5. Hasanov B.A. Funksional qiymat tahlili. – Toshkent, 2018.
6. Ikromov M.A., Abduxalilova L.T. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil. – Toshkent, 2021.
7. Ismanov I.N. va boshqalar. Boshqaruv tahlili. – Farg‘ona, 2020.

Pardayev Mamayunus Qarshibayevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.
tel. va telegram: +998 97 793 00 48
Astanaqulov Olim Toshtemirovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
tel. va telegram: +998 94 617 02 55
Yaxyayev To‘lqin Ismatullo o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b., PhD
tel. va telegram: +998 94 533 66 75

FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILLARINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada funksional qiymat tahlilining nazariy va metodologik asoslari, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda funksional qiymat tahlilining iqtisodiy tahlil tizimidagi o‘rni, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mahsulot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda mazkur tahlil usulining roli asoslab berilgan. Maqolada funksional yondashuv orqali iqtisodiy jarayonlarni oldindan baholash imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: funksional qiymat tahlili, iqtisodiy tahlil, samaradorlik, xarajatlar, raqobatbardoshlik, funksiyalar tahlili, boshqaruv, iqtisodiy jarayonlar.

Funksional qiymat tahlili iqtisodiy tahlilning bir ynalishi sifatida shakllangan. Ammo uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir. Chunki funksional qiymat tahlili (FQT)ning vazifalari va ahamiyati bozor munosabatlarining chuqurlashishi bilan yanada oshib boradi. Zero, FQT korxonalar va ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar (bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar)ning raqobatbardoshligini ta’minlash, sifatini oshirish va narxini arzonlashtirishning asosiy omillaridan biridir. FQTni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – korxonalarning xarajatlarini kamaytirish evaziga uning faoliyatida yuqori samaradorlik va sifat ko‘rsatkichiga erishishdan iboratdir. Bunday natijaga erishishning o‘ziga xos xususiyati va afzalligi shundaki, barcha muvaffaqiyatlarga iqtisodiy hodisa, jarayon va faoliyat sodir bo‘lmasdan oldin o‘rganilganligida namoyon bo‘ladi. Bu holat tizimli (sistemali) ravishda tahlil qilish orqali o‘rganilganligi uchun mahsulotning yuqori sifati, ishning yuksak samaradorligi ta’minlanadi. Shu tufayli FQTdan iqtisodiy tahlilning eng samarali va ilg‘or shakllaridan biri sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimida tahlilning yangi shakli bo‘lgan FQTga oid fan ham olimlarimiz tomonidan yaratildi. Shu tufayli FQTga bag‘ishlangan

quyidagi asarlar dunyoga keldi. Bular jumlasiga M.Q.Pardayevning “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” darsligida [1] iqtisodiy tahlilning bir shakli sifatida ilk bor o‘zbek tilidagi adabiyotga kiritilganligini keltirish mumkin. Shuningdek, M.K.Pardayev va F.A.Zulunovalar tomonidan tayyorlangan “Funksional qiymat tahlili” kitob [2] ham FQTning o‘zimizga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yoritildi. Ushbu fan alohida fan darajasiga ko‘tarildi. Magistrlar uchun M.Q.Pardayev, B.A.Hasanov, V.Yu.Maxsudov, D.A.Zulunovalar hammuallifligida tayyorlangan “Funksional qiymat tahlili” o‘quv qo‘llanmasi [3] ham nashr qilindi. So‘ngra ushbu fan bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davom etib, M.Q.Pardayev va O.T.Astanaqulovlar tomonidan “Funksional qiymat tahlili” mavzusida monografiyasi [4] tayyorlandi va nashrdan chiqarildi. Mamlakatimiz olimlari ushbu keltirilgan asarlardan tashqari ko‘plab ilmiy maqolalar ham nashr qilindiki, ular mazkur fanning rivojlanishida nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi paytda ham Samarqand iqtisodiyot maktabida ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yilda M. Q. Pardayev va O.T. Astanakulovlar tomonidan “Funksional qiymat tahlilini takomillashtirish yo‘nalishlari” mavzusida monografiya [5] nadan chiqarildi. Mazkur maktab olimlari tomonidan FQTga oid ko‘plab ilmiy maqolalar nashr qilinmoqda.

Tahlilning mazkur shakli asosan mikro- iqtisodiyot darajasida qo‘llaniladi. Bunda ham aniq bo‘g‘unlarni, mahsulotni, jarayonni, faoliyatni obyekt qilib oladi. Masalan, biror mahsulotni ishlab chiqarish, yoki tovar harakatini boshqarish, yoki biror mutaxassis faoliyatini takomillashtirish, yoki biror xizmat sifatini oshirish kabilar FQTning obyekti bo‘lishi mumkin. Demak, FQTning qo‘llanilish doirasida qisqa va aniq maqsadlar ko‘zda tutiladi.


Ko‘rinib turibdiki, FQT hozirgi iqtisodiy vaziyatda o‘ta samarali tahlil shakllaridan biri sifatida baholanmoqda. Chunki uning har bir funksiyani vaqt va baho nuqtayi nazaridan baholashda ahamiyati katta. Biroq, mazkur tahlil haqida bir qancha adabiyotlarning yaratilishiga qaramasdan, uning ta’rifi yetarlicha hal qilinmagan. Bularni inobatga olib FQTning ta’rifini berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Shunday qilib, FQT deganda, ishning, faoliyatning, mehnatning shu jumladan, xizmatning samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida, ularni tizimli ravishda, jarayonlar sodir bo‘lmasdan oldin, mantiqiy (evristik) yo‘l bilan, tahlil qilish orqali mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarishda, unga sarflanadigan xarajatlarni va bajariladigan funksiyalarni kamaytirish evaziga uning foydaliligi va rentabelligini ko‘paytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish jarayoni tushuniladi.

Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, FQT bir vaqtning o‘zida tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchilar bilan birga iste’molchilar manfaatini ham ko‘zlab ish tutish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchilarning manfaati ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish evaziga ishning samaradorligini oshirishda namayon bo‘lsa, iste’molchilarning manfaati esa tovarning sifatida, narxining arzonligida, undan uzoq muddat foydalanishda, uning mustahkamligida namoyon bo‘ladi. Bu bilan davlatning ham manfaati mushtaraklashadi, chunki tovar arzon va sifatli bo‘lsa, bu jahon bozorida ham o‘z xaridorlarini topadi. Shu orqali davlat o‘z

nufuziga ega bo‘lish bilan birga, uning iqtisodiy qudrati ham mustahkamlanadi. FQTni qo‘llash orqali hamma manfaatlar mushtarakligini va muvofiqligini ta’minlaydigan tizimli ko‘rsatkichlarga, tovarning (ish, xizmat) sifati, arzonligi, mustahkamligiga erishiladi.

FQTda funksiyalarning bir-biri bilan bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. FQTda o‘rganiladigan funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligi

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, funksiyalarni bajarmasdan oldin ularning zararli va nokerak ekanligi aniqlanadi. Shu tufayli bunday funksiyalarga vaqt va mablag‘larning sarflanishining oldi olinadi. Shu jihatdan FQT iqtisodiy tahlil tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lish bilan birga o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Uning o‘ziga xos xususiyatlari bevosita tabiatidan kelib chiqadi. Chunki mazkur tahlil o‘zining noan’anaviyligi, ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi, uni amalga oshirishda bir kishi emas, balki jamoa mehnati va tafakkur mahsulidan foydalanishi bilan farq qiladi. FQTning ushbu jihatlari uning o‘ziga xosligini belgilaydi. Bular qo‘yidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. FQTda o‘rganilayotgan obyekt hali ishga tushmagan, faoliyat ko‘rsatmayotgan, loyihalashtirish, rejalashtirish bosqichida bo‘lishi mumkin. Shu tufayli FQT, aksariyat holda, iqtisodiy jarayon sodir bo‘lmasdan oldin o‘tkaziladi. Bu qo‘shimcha sarf bo‘ladigan nokerak funksiyalarni sodir bo‘lmasdan oldin bartaraf qilish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bunday holat mutaxassislarning ham masalaga kreativ yondoshish lozimligini talab qiladi.

2. FQT davomida har bir tahlil qilinayotgan obyektda birorta hodisa yoki iqtisodiy jarayonning to‘liq sodir bo‘lishi uchun u qanday funksiyalardan iboratligi va har bir funksiyaning vaqt yoki qiymati jihatidan qancha xarajat talab qilinishi taqriban aniqlanadi. Bunday tahlilda abstrakt tafakkur, “Fikrlar hujumi”, evristik tahlil kabi ilg‘or usullardan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bu esa bitta nokerak yoki

zararli funksiyani bartaraf qilish korxonaga qancha samara olib kelishi va ishlab chiqarilayotgan tovari (ish, xizmati) qanchaga arzonlashishi mumkinligini koʻrsatadi.

3. Tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishda bajariladigan barcha funksiyalar FQT qoʻllanganda beshta funksiyaga boʻlib oʻrganiladi: bosh, asosiy, qoʻshimcha, nokerak va zararli. Tahlil qilinadigan obyekt faoliyatini rejalashtirish va loyihalashtirishda nokerak va zararli funksiyalarni bartaraf qilish yoʻllari ishlab chiqiladi. Bu esa xarajatning iqtisodiy jarayonlarning sodir boʻlmasdan oldin bartaraf qilishini, qulay holda kamayishini ta’minlaydi.

4. Tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishda har bir asosiy va qoʻshimcha funksiyalarning qanday amalga oshirilishi belgilanadi. Imkoni boricha bu funksiyalar ham tejamli yoʻllar bilan mahsulot (ish, xizmat) sifatini, yaroqlilik muddatini, foydalanishga qulayligini oshiradigan darajada bajarilishini ta’minlaydi. Bu bevosita ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat koʻrsatish samaradorligini oshiradi.

5. Eng muhim jihatlaridan biri, FQT samaradorligi oldindan aniqlanadi, chunki ta’kidlanganidek, oldindan aniqlangan nokerak va zararli funksiyalar sodir boʻlmasdan, ularga mablagʻ, vaqt yoʻqotilmasdan bartaraf qilinadi. Bu ham mazkur tahlilning oʻta samarali iqtisodiy dastak ekanligidan dalolatdir. Shu tufayli FQTni amalga oshirishga ketgan xarajat oʻzining qaytimini bir qancha barobar qoplagan holda amalga oshirilishi mumkin.

6. FQTning yana bir muhim xususiyati, unda qoʻllaniladigan axborot manbai boʻlib oʻtgan, sodir boʻlgan iqtisodiy jarayonni ifodalovchi hisobotlar emas, balki bajarilishi lozim boʻlgan, koʻproq ilmiy va mantiqiy yoʻl bilan aniqlangan, hali sodir boʻlmagan funksiyalar tizimi hisoblanadi. Bu ishning samarali boshlanishini ta’minlabgina qolmasdan xodimlarni ham tejamkorlikka va har bir ishga ilmiy jihatdan yondoshishga koʻnikma hosil qilib boradi. Bu raqobat muhiti yaratilgan va erkin raqobat hukm surib turgan paytda oʻta muhimdir.

7. Faoliyat koʻrsatayotgan obyektlarda FQTdan foydalanish koʻp hollarda biznes-rejani tuzishda qoʻllaniladi. Uning har bir koʻrsatkichini asoslash uchun funksiyalarni tarkiblash (bosh, asosiy, qoʻshimcha, nokerak va zararli) tamoyiliga asoslanadi. Bu esa iqtisodiy koʻrsatkichlarning reja bosqichida yaxshilanishini, iqtisodiy oʻsishni samarali yoʻllar bilan ta’minlash imkonini beradi.

8. FQTni oʻtkazish uchun jalb qilingan kadrlar (buxgalterlar, menejerlar, muhandislar, texnologlar) alohida malakaga ega boʻlishi lozimligini taqozo qiladi. Ularning faoliyatini kooperasiyalashtirish imkonini beradi. Bu jarayonning oʻzi ham iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim dastaklardan biridir. Yuqorida ta’kidlanganidek, barcha mutaxassislar jarayonga kreativ yondoshadigan yoʻnalishlarni oʻzlashtirgan boʻlishi lozim.

9. FQTda tahlilning ham, tahlil qilinayotgan obyektning ham maqsadini, kutilayotgan natijasini, funksiyasini, mohiyatini, ta’sirini va aloqasini aniqlab olishni taqozo qiladi. Obyektning maqsadida u orqali nimaga erishilishi koʻzda tutilsa, natijada shu obyekt nimaga erishilganligi koʻrsatiladi. Uning funksiyasida shu obyektning nima qilishi koʻzda tutilsa, mohiyatida shu obyekt nima qila olishini koʻrsatadi.

10. FQTda o‘rganilayotgan obyektning yaxshilanishi nimalarga ijobiy ta’sir qilishi va uning nimalarni o‘zgartira olishi hamda ushbu jarayonning nimalar orqali amalga oshirilishi ko‘rsatiladi. Shu tufayli FQTni amalga oshirish jarayonida ushbu jarayonlardan to‘g‘ri va aniq foydalanish lozimdir.

11. Korxonalar faoliyatini modernizatsiyalash diversifikatsiya qilish va ularning faoliyatiga innovatsiyalarni joriy qilish masalalarini hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, bajariladigan funksiyalar aniq bo‘lgach, ularni qanday takomillashtirish mumkinligi, nokerak va zararli funksiyalarni olib tashlashni qanday amalga oshirish mumkinligi kabi masalalar o‘z yechimini topadi.

Shunday qilib, FQT ma’lum ma’noda eng ilg‘or iqtisodiy dastak sifatida namoyon bo‘lmoqda va fan olamiga, amaliyot ko‘lamiga kirib kelmoqda. Ammo shuni e’tirof etish kerakki, ushbu fan qanchalik samarali bo‘lmasin, mamlakatimiz iqtisodiyotida, ayniqsa, korxonalar amaliyotida keng qo‘llanilmayapti. Xolbuki, xorijiy davlatlarda ushbu fandan amaliyotda foydalanish evaziga juda katta samaradorlikka erishilmoqda. Bu holatlarni inobatga olib, o‘zimizda ham ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, boshqarish jarayonlarida FQTdan samarali foydalanish uchun tegishli “Yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqib, keng ko‘lamda foydalanishga erishish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Samarqand: “Zarafshon”, 2001. – 272 bet.

2. Pardayev M.Q., Zulunova F.A. Funksional qiymat tahlili. – Samarqand: SamISI, 2007. – 194 bet.

3. Pardayev M.Q., Hasanov B.A., Maxsudov V.Yu., Zulunova D.A. Funksional qiymat tahlili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Cho‘lpon, 2012. – 176 bet.

4. Pardayev M.Q., Astanaqulov O.T. Funksional qiymat tahlili (monografiya). – Toshkent: “Iqtisod moliya”, 2013. – 220 bet.

5. Pardayev M.Q., Astanaqulov O.T. Funksional qiymat tahlilini takomillashtirish yo‘nalishlari (monografiya). – Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2025. – 292 bet.

Pardayev Mamayunus Qarshibayevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori.
tel. va telegram: +998 97 793 00 48
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot univerisiteti
Samarqand flialida kafedra mudiri, dotsent, PhD
tel. va telegram: +998 97 919 53 56
Babanazarova Sevara Abdunazarovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b., PhD
tel. va telegram: +998 94 533 66 75

SWOT TAHLIL VA TAHLILNING ALOHIDA SOHALARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada SWOT tahlilning mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan yoritilgan. SWOT tahlilning korxonalar faoliyatini baholash, strategik qarorlar qabul qilish hamda ichki va tashqi omillarni aniqlashdagi o‘rni asoslab berilgan. Tadqiqotda mazkur tahlil usulining afzalliklari, uni qo‘llash yo‘nalishlari va iqtisodiy tahlil tizimidagi ahamiyati keng tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida SWOT tahlilning dolzarbligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: SWOT tahlil, strategik boshqaruv, iqtisodiy tahlil, kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar, tahdidlar, korxona faoliyati, qaror qabul qilish.

Hozirgi sharoitda har qanday jarayonni tadqiq qilishda uning kuchli tomonlarini, imkoniyatlari, zaif tomonlari va tahdidlarini o‘rganish natijasida SWOT tahlilini ishlab chiqish hayotiy zaruratga aylanib qoldi. Chunki, har bir jarayonni takomillashtirishda, uning samaradorligini oshirishda, tabiiyki, shu holatlar bir vaqtning o‘zida mujassam bo‘ladi. Ularni bilmasdan, tahlil qilmasdan turib, u yoki bu jarayonni takomillashtirish borasidagi takliflar yetarli darajada asoslanmagan hisoblanadi.

SWOT tahlil alohida tahlilning bir yo‘nalishi sifatida mamlakatimiz faniga kirib kelganiga unchalik ko‘p vaqt bo‘lgan emas. Biroq, hozirgi paytda SWOT tahlil usulidan foydalanish masalalari iqtisodiyotning barcha sohalarida qo‘llanilmoqda va u ko‘plab tadqiqotlar obyektiga aylandi. Bu borada bir qancha adabiyotlar ham nashr qilindi. Jumladan, M.Q.Pardayev, A.N.Xalikulov, M.E.Po‘latov, I.R.Bedikulova, O.M.Pardayev lar asarlarida SWOT tahlil usulidan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

SWOT tahlilning kelib chiqishi ingliz tilidan olingan bo‘lib, tahlil qilinayotgan obyektning kuchli (Strengths – S), zaif (Weaknesses – W), imoniyatlari (Opportunities – O) va tahdidlardan iborat (Threats – T) so‘zlarining bosh harfidan tashkil topgan (SWOT). Buning o‘zbek tilidagi tarjimasining bosh harflari KZIT tahlili sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tahlilni amalga oshirishning bir qancha afzalliklari mavjud.

Birinchidan, ushbu tahlilda dalillar (faktlar) bilan birga mantiqiy tahlil usullaridan ham keng foydalaniladi. Bunda hodisa va jarayonlarga kreativ yondashiladi. Chunki mantiqiy yondashuv evaziga bo‘ladigan jarayonlarga oldindan tashxis qo‘yish mumkin bo‘ladi.


Ikkinchidan, mahalliy sharoitning imkoniyatlarini, ichki va tashqi omillarning ta’sirini hisobga olishda cheklanmagan sabablarni keltirish mumkin bo‘ladi. Masalan makro darajada zaif bo‘lgan masalalar mikro darajada, ya’ni mahalliy sharoitda kuchli bo‘lishi ham mumkin. Shu tufayli har bir holatda tegishli sharoitdan kelib chiqib, mazkur tahlilning yo‘nalishlari shakllantiriladi.

Uchinchidan, shu tariqa ushbu tahlilda barcha mutaxassislar va mutasaddilarning ham fikrlarini inobatga olish lozim bo‘ladi va ularning tajribasi, ilmiy imkoniyatlaridan keng foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

SWOT tahlilning yana bir muhim xususiyati, korxonaning ahvolini chuqur tahlil qilish jarayonida nimalarga ahamiyat berish lozimligi ham ayon bo‘ladi. Kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish, zaif tomonlarini bartaraf qilib, ularni kuchlantirish, imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish va tahdidlarning oldini olish uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati ham keng bo‘ladi.

Bulardan kelib chiqib, SWOT tahlil tushunchasining ta’rifini ishlab chiqish mumkin. Bizning fikrimizcha, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin. SWOT tahlil deyilganda, tahlil qilinayotgan obyektning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini keng miqyosda aniqlab beradigan tahlilning shakli tushuniladi. Ushbu ta’rifda mazkur tahlilning o‘ziga xos jihatlari to‘liq ifodalangan va shu jihatdan unga qo‘yilgan nazariy talablarga ham javob beradi, deb o‘ylaymiz.

Shuni nazarda tutish kerakki, SWOT tahlilda korxonani rivojlantirishda uning kuchli (Strengths – S) va zaif (Weaknesses – W) tomonlarini bevosita mazkur korxonaning faoliyatiga bog‘liq. Ushbu jilonlarni korxona o‘z kuchi bilan boshqarishi mumkin. Ammo uning imoniyatlari (Opportunities – O) va tahdidlari (Threats – T) aksariyat holda tashqi omillarga ham bog‘liq bo‘ladi. Ularni boshqarish va bartaraf qilishda ancha tadbirlarni qo‘llashiga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib korxona amalga oshirayotgan SWOT tahlilda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga tahdidlarni bartaraf qilish mexanizmlarini ham ishlab chiqishi lozim. Bu jarayon SWOT tahlildan keyingi bosqich bo‘lib hisoblanadi. Buning asosiy yo‘nalishlari quyida keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. SWOT tahlil jarayonida subyektlarda aniqlanadigan yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi

Ko‘rinib turibdiki, SWOT tahlil boshqa tahlillar singari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asosiy axborotlar bazasini tayyorlab beradigan eng samarali mexanizmlardan biri ekan. Shu tufayli har qanday korxonaning strategik rejasini ishlab chiqishdan oldin albatta SWOT tahlilni o‘tkazish zaruriyat ekanligini inobatga olish lozim. Chunki korxonaning rivojlanish imkoniyatlari juda katta va keng bo‘lishi mumkin. Ammo ularni SWOT tahlil yo‘li bilan aniqlab olinmasa, shu imkoniyatlarni hisobga olish va ulardan foydalanish o‘ta mushkul va murakkab.

Ko‘rinib turibdiki, korxonalar faoliyatida SWOT tahlildan foydalanish uning strategik yo‘nalishini aniqlash va unga to‘liq erishish uchun tegishli kurash maydonini aniqlab berar ekan. SWOT tahlilning yana bir muhim jihati, tahlil qilinayotgan korxonaning barcha kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlari tegishli jadvalga bandma-band kiritilib, barcha mutaxassis va mutasaddilarga tarqat’iladi. Bunda har birining o‘rni belgilanadi va ular ushbu tahlil orqali nimaga, qachon va qayerda ahamiyat berish kerakligini biladi va tegishli vazifasini bajarish orqali korxona faoliyatining yaxshilanishiga o‘z xizmatlarini qo‘shib boradi.

SWOT tahlilning yana bir muhim xususiyatlaridan biri, uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida keng ko‘lamda qo‘llanilishi bilan ham xarakterlanadi. Jumladan, u ishlab chiqarish sohasida qanday foydalansa, xizmat ko‘rsatish sohasida ham xuddi shunday foydalanish mumkin. Hatto oilaviy hayotning ham hamma sohasida, biznesning barcha turlarida, strategik rejalashtirishning hamma yo‘nalishlarida ham undan samarali foydalanish mumkinligiga amin bo‘ldik. Shu tufayli har bir mutaxassis ushbu tahlildan foydalanish yo‘llarini puxta o‘zlashtirib olishi lozim.

Tahlil fanidan alohida sohalarining metodologik asoslarini yoritish bo‘yicha ham keng foydalaniladi. Mustaqillik yillarida tahlilning alohida sohalari bo‘yicha ham qalam tebratishlar davom etdi. Bu bo‘yicha ham yirik monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalar nashr qilindi. Bular jumlasiga M.K.Pardayev, I.T.Abdukarimov, B.I.Isroilovlarning “Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili” [1], B.I. Isroilovning «Mol-mulkni soliqqa tortish, soliq hisobi va uni tahlil qilish yo‘llari” [2], B.I.Isroilovning “Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari” [3], A.V.Vaxabov, A.T.Ibrohimov, U.K.Yakubovlarning “Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlilning xususiyatlari” [4], N.Xasanov, S.Najbiddinovlarning “Korxona moliyaviy holatini baholash” [5], N.Xasanov, L.Yugaylarning «Финансовое оздоровление предприятия» [6], M.M.Tulaxodjayevaning «Аудит финансового состояния предприятия» [7], R.A.Isayev va boshqalarning “Paxta tozalash korxonalari...” [8], T.Sh.Shog‘iyosovning “Kompleks iqtisodiy tahlil” [9] kabilarni kiritish mumkin.

Samarqand maktabining olimlari ham ushbu yo‘nalishda muhim ishlar qilgan. Jumladan, I.T.Abdukarimov va boshqalarning «Анализ финансово-хозяйственной деятелности предприятия» [10], I.T.Abdukarimovning “Moliyaviy hisobotni o‘qish...” [11], “Moliyaviy menejment” [12], «Осенка и анализ собственных...» [13], «Осенка и анализ финансового состояния» [14], «Долгосрочные активы...» [15], M.Q.Pardayev va J.I.Isroilovlarning “Xususiy korxonalar...” [16], J.I.Isroilovning uslubiy ishi [17], V.I.Isroilov va

J.I.Isroilovlarning “Foyda solig‘i...” [18], Xolmo‘minov va boshqalarning “Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili” [19], M.Q.Pardayev va A.N.Xalikulovlarning monografiyasi [20], hamda “Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil” [21] ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Tahlilning alohida yo‘nalishlaridan biri “Loyiha tahlili” hisoblanadi. Mazkur tahlilning metodologik asoslarini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi quyidagilardan iborat.

Bozor munosabatlari sharoitida tahlilning korxonalar faoliyatini rejalashtirishda, investitsiyalar samaradorligini oshirishdagi roli oshib bordi. Bularni inobatga olib o‘quv rejasiga loyiha tahlili fani kiritildi. Bu bo‘yicha ham Samarqand maktabi olimlari yetakchilik qildilar. Jumladan, M.K.Pardayev tomonidan qator ishlar nashr qilindi “Investitsiya loyihasining moliyaviy tahlili” ma’ruza matni, “Loyiha tahlilining mazmuni, predmeti, metodi va usullari”, “Pul oqimlarini diskontlashtirish va annuitetlar”, “Loyiha xatarliligining tahlili”, Pardayev M.K. Shodiyeva G.M. bilan hammualiflikda “Loyiha tahlilida oila mulki”, yana shu mualliflarning “Loyiha tahlilida oila daromadlarini inflyatsiya sharoitida baholash va tahlil qilish usullari”, Pardayev M.K. Abdiyev A.A. bilan hammualliflikda “Loyiha tahlilidan seminarlar va masalalar to‘plami” kabilarni ta’kidlash mumkin. Bularni jamlab 2001-yilda M.Q.Pardayevning «Loyiha tahlili” kursi bo‘yicha ma’ruza matni chop qilindi.

Mazkur ma’ruzalar matni 2012-yilda “Yilning eng yaxshi ma’ruza matni” tanlovida umum mutaxassisik fanlar ichida 3-o‘ringa sazovar bo‘ldi va o‘quv qo‘llanma sifatida tan olindi. Buning natijasi “Ma’rifat” gazetasida 2002-yil 5-oktyabr sonida e’lon qilindi.

Qayd etish joizki, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilinganidan keyin, unda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun barcha fanlar singari iqtisodiy tahlil bilan bog‘liq fanlar ham takomillashish bosqichiga kirdi. Chunki “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”ga qonunning qabul qilinishi, tahlil tarkibiga SWOT tahlilning kirib kelishi, barcha fanlarga sinergetika talablardan kelib chiqqan holda yondashuvning vujudga kelishi iqtisodiy tahlil fanining ham takomillashuvini taqozo qildi. Ushbu talablardan kelib chiqib, Samarqand iqtisodiyot maktabi olimlari M.Q.Pardayev boshchiligida 15 jildlik iqtisodiy tahlil fanini yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Bunda barcha sohaga oid tahlillar kiritilgan bo‘lib, yangi yo‘nalishdagilarni ham kiritish ko‘zda tutilgan. Bu 15 tomlik tahlilga oid asarlarning ro‘yxati quyidagilardan iborat (1-jadval).

1-jadval

Samarqand iqtisodiyot maktabi rahbari M.Q.Pardayev rahbarligida bir guruh olimlari tomonidan yaratilgan “iqtisodiy tahlil”ga oid o‘quv va ilmiy adabiyotlar ro‘yxati

T/r		**Asarlarning nomlari**	**Mualliflar**
1.	1-jild	Iqtisodiy tahlil nazariyasi	M.Q.Pardayev
2.	2-jild	Iqtisodiy tahlil	M.Q.Pardayev, I.T.Abdukarimov, B.I.Isroilov, A.N.Xolikulov, T.I.Yaxyoyev

3.	3-jild	Moliyaviy tahlil	M.Q.Pardayev, M.E.Po‘latov, B.I.Isroilov, A.N.Xolikulov
4.	4-jild	Boshqaruv tahlili	M.Q.Pardayev, M.E.Po‘latov, O.M.Pardayev A.N.Xolikulov, T.I.Yaxyoyev
5.	5-jild	Funksional qiymat tahlili	M.Q.Pardayev, O.T.Ostanaqulov
6.	6-jild	Investitsion loyihalar tahlili	M.Q.Pardayev, O.M.Pardayeva, G.M.Shadiyeva A.N.Xolikulov, Obid Pardayev
7.	7-jild	Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari tahlili Mehmonxona xo‘jaligi faoliyati tahlili	M.Q.Pardayev, G.M.Shodiyeva, Obid Pardayev
8.	8-jild	Turistik korxonalar faolyati tahlili	M.Q.Pardayev, H.A.Rahimov, A.N.Xolikulov, A.Q.G‘apparov, S.A.Babanazarova, I.R.Berdikulova
9.	9-jild	Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil	M.Q.Pardayev, M.A.Ikromov, L.TAbduxalilova,
10.	10-jild	Makroiqtisodiy tahlil	M.Q.Pardayev, Sh.S.Oltayev, O.M.Pardayev, Yu.P.O‘rinbayeva, Z.S.Artikov
11.	11-jild	Raqobatbardoshlikni mustahkamlashda klaster va sinergetik samaradorlik tahlili	M.Q.Pardayev, O.M.Pardayev, A.N.Xolikulov, F.A.Safarov, O.M.Pardayeva, S.A.Babanazarova, Obid Pardayev, X.N.Ochilova
12.	12-jild	Oilaviy korxonalar faoliyati tahlili	M.Q.Pardayev, G.M.Shodiyeva, O.M.Pardayeva, Sh.O.Quvondiqov, M.O.Mamayunusova
13.	13-jild	Экономический анализ хозяйственной деятелности предприятий (рус тилида)	M.Q.Pardayev, I.T.Abdukarimov M.E.Pulatov, D.Q.Usmanova,

			V.V.Makoveyeva, O.M.Pardayev
14.	14-jild	Iqtisodiy tahlil va audit	M.Q.Pardayev, I.T.Abdukarimov, M.E.Pulatov, D.Q.Usmanova,
15.	15-jild	Mehnat bozori transformatsiyasi	M.Q.Pardayev, S.A.Babanazarova, O.M.Pardayeva

Kelajakda bularning soni 20 jilddga yetishi ko‘zda tutilgan. Hozirgi kunda jamoamiz tamonidan “Inson resurslari analitikasi”, “Biznes tahlil”, “Zamonaviy strategik tahlil”, “Sun’iy intelekt sharoitida iqtisodiy tahlil” kabi fanlar ustida ham ish olib borilmoqda. Yuqoridagi 15 jildlik iqtisodiy tahlning taqlami quyidagi rasmda keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Samarqand iqtisodiyot maktabi olimlarining nashr qilgan 15 jildlik asarlari tasviri

Ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda iqtisodiyotidagi barcha mavjud tarmoqlar faoliyati tahlil qilinishi qamrab olingan. Biroq hozirgi sharoitda sodir bo‘layotgan jarayonlar kechashgidan tubdan qarq qilishi mumkin. Bunga moslashmagan ilmdan samara bo‘lmaydi. Shu tufayli tahlil ham muntazam ravishda takomillashib boraveradi. Kelajakda bitta tarmoq doirasida o‘tkaziladigan tahlil tubdan o‘zgarishi mumkin. Chunki iqtisodiyotga sinergetik nuqtayi nazardan qarab, barcha jarayonlarda SWOT tahlil imkoniyatlaridan foydalangan holda kreativ iqtisodiyot doirasida tafakkur qilib, xulosa chiqarish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pardayev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: 2003.

2. Isroilov B.I. Mol-mulkni soliqqa tortish va tahlil. – T.: 2005.
3. Isroilov B.I. Soliqlar hisobi va tahlili. – T.: 2005.
4. Vaxabov A.V., Ibrohimov A.T., Yakubov U.K. Iqtisodiy tahlil xususiyatlari. – T.: 2004.
5. Xasanov N., Najbiddinov S. Korxona moliyaviy holati tahlili. – T.: 1999.
6. Xasanov N., Yugay L. Finansovoye ozdorovleniye predpriyatiya. – T.: 2001.
7. Tulaxodjayeva M.M. Audit finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. – T.: 1996.
8. Isayev R.A. va boshqalar. Paxta tozalash korxonalari tahlili. – T.: 2008.
9. Shog‘iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. – T.: 2009.
10. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Analiz FXD predpriyatiya. – Tambov: 2005.
11. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobot tahlili. – T.: 1998.
12. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Moliyaviy menejment. – Samarqand: 2001.
13. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Osenka sredstv predpriyatiya. – 2004.
14. Abdukarimov I.T. Finansovoye sostoyaniye predpriyatiya. – 2001.
15. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Dolgosrochnыye aktivы tahlili. – 2002.
16. Pardayev M.Q., Isroilov J.I. Xususiy korxonalar tahlili. – T.: 2007.
17. Isroilov J.I. Tovar ishlab chiqarish tahlili. – Samarqand: 2004.
18. Isroilov V.I., Isroilov J.I. Foyda solig‘i tahlili. – T.: 2012.
19. Xolmo‘minov Sh.R. va boshqalar. Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili. – T.: 2004.
20. Pardayev M.Q., Xalikulov A.N. Omilli tahlilni takomillashtirish. – T.: 2014.
21. Pardayev M.Q. va boshqalar. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil. – T.: 2018.

Kurbanov Ziyat Niyazovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professori, iqtisodiyot fanlari doktori,
e-mail: ziyatkurbanov@mail.ru

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISHNING MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) o‘tish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Unda raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy buxgalteriya hisobini xalqaro talablarga moslashtirish zarurati, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning mohiyati hamda ularni tasniflash mezonlari yoritilgan. Shuningdek, MHXSni joriy etishning iqtisodiy ahamiyati, investitsion jozibadorlikni oshirishdagi o‘rni va mavjud muammolar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisob, buxgalteriya hisobi, raqamli iqtisodiyot, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, standartlashtirish, investitsion jozibadorlik.

Kirish. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini tashkil etish va amaliyotda xalqaro standartlarni qo‘llash buxgalteriya hisobi metodologiyasini

takomillashtirishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ 282-son-qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro ilmiy asoslangan standartlarga moslashtirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini tug‘dirmoqda.

Asosiy qism. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha iqtisodchilar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2025) 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ 282-son-qarori Moliyaviy hisobotlarni tuzishda aniqlik va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida yirik korxonalarning moliyaviy hisobotlari Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards (IFRS) asosida tuzishga o‘tilgani, moliyaviy hisobning milliy tizimini xalqaro talablarga uyg‘unlashtirishga erishilgani, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan [1].

I.N.Ismanov (2017) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining mohiyatini quyidagicha ifodalagan: “MHXS korxona faoliyati to‘g‘risida moliyaviy axborotlarning manbai bo‘lgan va foydalanuvchilar uchun xizmat qiladigan moliyaviy hisobot tayyorlashga yo‘naltirilgan. Ushbu standartlar alohida olingan mamlakatning qonunchiligiga bog‘lanmagan va faoliyat turi, o‘lchami, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar barcha korxona hisobotini shakllantirish uchun yo‘naltirilgan” [Ismanov, 2].

X.Rizayevning (2022) qarashi, «O‘zbekistonda ayni vaqtda MHXS joriy etib borilishi bilan MHXS bo‘yicha hisobot va soliq tizimi o‘rtasida nizolar bo‘lishi aniq. Shu sababli MHXS bo‘yicha hisob yuritishga o‘tishda, moliyaviy hisobni yuritish uchun MHXS normalaridan foydalanish qoidalarini va ko‘pgina yo‘riqnomalarni chiqarish kerak bo‘ladi»[Rizayev, 3].

MHXSga o‘tishning ahamiyatini S.N.Tashnazarov (2021)quyidagicha izohlagan, «mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarning ixtiyoriylik asosida o‘z tashabbuslari bilan MHXSlari asosida moliyaviy hisobotga o‘tishlariga erishishimiz lozim. Korxona va tashkilotlar o‘zlari MHXSlariga o‘tishda naf olishlari, uning afzalliklarini his qilishlari lozim. MHXSlar orqali investitsiyaviy jozibadorligiga erishish yo‘li bilan korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash strategik ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa sifatida qaralishi lozim» [Tashnazarov, 4].

Ye.Nesterenkoni yozishicha (2025) “2023-yil iyun oyida IFRS Kengashi birinchi marta barqarorlik bilan bog‘liq ikkita yangi standartni chiqardi: IFRS S1 “Barqarorlik bilan bog‘liq moliyaviy ma’lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar” va IFRS S2 “Iqlim bilan bog‘liq ma’lumotlarni ochib berish”. Ular barqarorlik va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan xavf va imkoniyatlar

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish talablarini belgilaydi, ular korxonaning pul oqimiga, moliyalashtirishga kirishiga yoki kapital qiymatiga ta’sir qiladi” [Nesterenko, 5].

Ye.Zibarevaning (2025) fikricha, “IFRS S1 barqarorlik risklari va imkoniyatlarini va oshkor etilishi kerak bo‘lgan tegishli ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun IFRS S1 korxonalardan korxonaga ta’sir qiluvchi barcha muhim barqarorlik risklari va imkoniyatlarini aniqlash va oshkor qilish uchun ikki bosqichli jarayonni bajarishni talab qiladi:

- birinchi qadam barqarorlik bilan bog‘liq risklarni va biznesga qisqa, o‘rta va uzoq muddatda ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi. — ikkinchi qadam 1-qadamda belgilangan barqarorlik bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlar haqida qanday ma’lumotlarni oshkor qilish kerakligini aniqlashga yordam beradi” [Zibareva, 6].

Z.N.Kurbanovning (2025) fikricha, “Jahonda ro‘y berayotgan jadal globallashuv jarayoniga mamlakatimiz iqtisodiyotini moslashuvini talab qiladi. Global investitsiya portfeliga ega xalqaro investorlar kompaniyalar tomonidan iqlim va boshqa ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalari bo‘yicha yuqori sifatli, shaffof, ishonchli va qiyoslanuvchan hisobotlarni talab qilmoqdalar.Moliyaviy hisob tizimini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari (IFRS Sustainability Standards)ni o‘rganib, mamlakatimiz amaliyotiga joriy etishdir” [Kurbanov, 7].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2022-2026-yillarda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni[1]

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	**2022-yil 1-yanvar holatiga**	**2023-yil 1-yanvar holatiga**	**2024-yil 1-yanvar holatiga**	**2025-yil 1-yanvar holatiga**	**2026-yil 1-yanvar holatiga**
Qo‘shma korxonalar	5 988	6 419	4 657	4 247	4 282
Xorijiy korxonalar	7 301	9 382	9 396	13 917	14 231
Jami:	**13 289**	**15 801**	**14 053**	**18 164**	**18 513**

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro talab va standartlarni joriy etish zaruriyati yuqorida keltirilgan iqtisodchilarning ilmiy ishlarida asoslab berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni o‘sib borayotganligi ham MHXSlarini amaliyotda qo‘llashni zaruriyat qilib qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda yildan yilga xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni oshib bormoqda (1-jadval).

[1] Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

2022-yil 1-yanvar holatiga bu korxonalar soni 13 289 bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga 18513 ta bo‘lib, ularning 4 282 tasi qo‘shma korxona bo‘lsa, 14 231 tasi xorijiy korxonalarni tashkil qilgan. Hozirgi vaqtda 4 282 tasi qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ularning ko‘pi “O‘zbekneftgaz” AJ tizimida shakllantirilgan.Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda mamlakatda 295 ta neft-gaz koni bor. Shundan 118 tasi – 40 foiziga “O‘zbekneftgaz” (davlat) egalik qiladi. Qolgan 176 tasi qo‘shma korxonalar va xorijiy kompaniyalarga tegishli.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqorida keltirilgan xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar buxgalteriya hisobi tizimi amaliyotiga moliyaviy hisobotning xalqaro talab va standartlari joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ 282-son-qarorida “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar“ tushunchasi kiritilgan bo‘lib, faoliyat turi va (yoki) aktivlari miqdori tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo‘lish kabi mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik subyektlari Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladi deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 27-dekabrdagi qarori bilan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3736] [8].

Yuqoridagi Nizomda “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar”ga “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar — faoliyat turi, aktivlari hamda yillik tushumi, dividend shaklidagi daromadlari miqdori yoki xodimlarining soni tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo‘lish kabi mezonlarga javob beradigan tijorat tashkilotlari” deb ta’rif berilgan.

Nizomda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Qimmatli qog‘ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan va ommaviy savdolarga chiqariladigan (Publicly Traded Entity) tashkilotlar.

2. Tijorat banklari, mikromoliya banklari, mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari va kafolatlar berish tashkilotlari, to‘lov tizimi operatorlari, to‘lov tashkilotlari.

3. Investitsiya fondlari.

4. Birjalar.

5. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foiz va undan ortiq bo‘lgan hamda bir vaqtning o‘zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida mazkur Mezonlarning 6-bandi “a” kichik bandiga muvofiq keladigan hamda mahsulot, tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan yillik sof tushumi va dividend shaklidagi daromadlari birgalikda bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalar.

6. Bir vaqtning o‘zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida hisobot yili yakunlariga ko‘ra:

a) aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq;

b) mahsulot, tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan yillik sof tushumi bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq;

d) xodimlarining o‘rtacha yillik soni besh yuz nafardan kam bo‘lmagan tashkilotlar.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar tomonidan “MHXSning barqarorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etish standartlari” (IFRS Sustainability Disclosure Standards) 2027-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llaniladi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar o‘zining moliyaviy hisobotini hamda “MHXSning barqarorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etish standartlari” asosida tuzilgan hisobotini auditorlik xulosasi bilan birga o‘z veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida aksiyadorlarning yoki tashkilotning boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin, ammo hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunidan kechiktirmay e’lon qilish ko‘zda tutilgan.

Xulosa va takliflar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini mamlakatimizda tan olish va amaliyotga joriy etish borasida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish asosida, ularning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz amaliyotida foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” toifasiga kiradigan tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirish lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotda qo‘llaydigan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” toifasiga kiradigan tashkilotlar uchun moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish yoki mavjudlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ 282-son-qarori.

2.Ismanov I.N. Buxgalteriya hisobi tizimining moliyaviy hisobotlarning xalkaro standartlariga transformatsiyasining zaruriyati. “Iqtisod va moliya” jurnali №3, 2017.

3. Rizayev X. O‘zbekiston Respublikasida 12-“Foyda soliqlari” MHXSini qo‘llash jarayonidagi muammo va yechimlar. JURNAL.Ekonomika i sotsium.11 (102).-2-2022.

4. Tashnazarov S.N. Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.“Ekonomika i sotsium” №5 (84) 2021.

5. Нестеренко Е. МСФО (ИФРС) 2025: ключевые изменения и нюансы перехода. https: //finacademy.net/materials/article/neobhodimost-perehoda-na msfo.8.04.2025.

6. Зибарева Е. Новые стандарты МСФО по устойчивому развитию. ҳттпс: //траининг.тедо.ру/блог/эсг-репортинг/. 8.04.2025.

7. Kurbanov Z.N. Moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, aprel.www.sci-p.uz. 312-318.

8. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 27-dekabrdagi qarori bilan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom”.

Karayev Payzillaxon Yusufxonovich
Namangan davlat texnika universitet professori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).

BYUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy, tashkiliy hamda amaliy jihatlari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqotda byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, xarajatlarni ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha asosli taqsimlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish masalalari ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: byudjet tashkiloti, xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy nazorat, ichki nazorat, byudjet mablag‘lari, moliyaviy intizom, davlat moliyasi.

Kirish. Hozirgi sharoitda davlat moliyasini samarali boshqarish tizimini shakllantirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, byudjet tashkilotlari faoliyati davlat byudjeti mablag‘lari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani sababli, ularda xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni oqilona tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Byudjet mablag‘laridan maqsadli, tejamkor va natijador foydalanish nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, balki ijtimoiy xizmatlar sifati va davlat boshqaruvi samaradorligini ham oshiradi.

Byudjet tashkilotlari faoliyatining o‘ziga xos jihati shundaki, ular daromad olishdan ko‘ra, davlat va jamiyat oldidagi funksional vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu bois ushbu tashkilotlarda xarajatlarni rejalashtirish jarayoni oddiy moliyaviy rejalashtirishdan farqli ravishda, ijtimoiy ehtiyojlar, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va normativ talablar bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. Agar ushbu jarayon puxta tashkil etilmasa, byudjet mablag‘larining noto‘g‘ri taqsimlanishi, ayrim yo‘nalishlarning moliyaviy ta’minoti sustlashishi va samarasiz xarajatlar yuzaga kelishi mumkin.

Moliyaviy nazorat esa xarajatlarni rejalashtirish tizimining mantiqiy davomi bo‘lib, byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini, smeta ko‘rsatkichlariga

rioya etilishini hamda moliyaviy buzilishlarning oldini olishni ta’minlaydi. Ayniqsa, ichki nazorat mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayrim hollarda nazorat jarayonining faqat tekshiruv funksiyasi bilan cheklanib qolishi mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni o‘zaro uyg‘un, yagona boshqaruv tizimi sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Ilmiy adabiyotlar va amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, byudjet tashkilotlarida an’anaviy rejalashtirish usullaridan natijadorlikka yo‘naltirilgan moliyaviy boshqaruvga o‘tish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Raqamli texnologiyalar, ichki audit, avtomatlashtirilgan monitoring hamda strategik boshqaruv vositalarini joriy etish xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish bilan birga, byudjet mablag‘laridan foydalanish sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi budjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o‘rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish moliyaviy boshqaruvning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, u tashkilotning funksional vazifalari, davlat topshiriqlari va ijtimoiy majburiyatlarini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan. Mazkur jarayonning mohiyati xarajatlarni oldindan asoslash, ularni ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash hamda ajratilgan mablag‘lardan natijador foydalanish imkonini yaratishda namoyon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan xarajatlarni rejalashtirishning asosiy maqsadi cheklangan byudjet resurslari sharoitida eng muhim ijtimoiy vazifalarni moliyalashtirishga erishishdan iborat. Bunday yondashuv byudjet tashkilotlarida xarajatlar tarkibini chuqur o‘rganish, xarajat moddalari bo‘yicha ehtiyojni aniqlash va ularning iqtisodiy asoslanganligini ta’minlashni talab etadi. Shu ma’noda, rejalashtirish nafaqat hisob-kitob amaliyoti, balki boshqaruv qarorlarini shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi [2].

Xarajatlarni samarali rejalashtirish uchun quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

- maqsadlilik;
- aniqlik va haqqoniylik;
- ustuvorlik;
- natijadorlik;
- shaffoflik;
- nazoratga yaroqlilik.

Mazkur tamoyillar asosida tuzilgan smeta byudjet tashkilotining moliyaviy faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat sifatida maydonga chiqadi. U orqali mablag‘larning qaysi yo‘nalishlarga, қандай ҳажмда ва қайси муддатда сарфланиши белгиланади. Biroq amaliyotda ayrim hollarda xarajatlarni rejalashtirish o‘tgan yil ko‘rsatkichlarini mexanik takrorlash asosida amalga oshirilishi kuzatiladi. Bu esa zamonaviy boshqaruv talablariga to‘liq javob bermaydi.

Moliyaviy nazorat byudjet mablag‘laridan foydalanishning qonuniyligi, maqsadliligi va samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasidir. U byudjet tashkilotida xarajatlarni rejalashtirish, moliyalashtirish, ijro etish va hisobot berish jarayonlarining uzluksiz nazoratini ta’minlaydi. Moliyaviy nazoratning samarali tashkil etilishi moliyaviy buzilishlar, maqsadsiz sarf-xarajatlar va resurslarning samarasiz taqsimlanishining oldini olishga yordam beradi [3].

Moliyaviy nazoratning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. xarajatlarning smeta va belgilangan limitlarga muvofiqligini tekshirish;
2. mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish;
3. hisobot ma’lumotlarining ishonchliligini aniqlash;
4. moliyaviy intizomga rioya etilishini baholash;
5. ichki audit va monitoring tizimini takomillashtirish.

Anthony va Govindarajan boshqaruv nazorati tizimida rejalashtirish, monitoring va natijalarni baholashning o‘zaro bog‘liqligini alohida ta’kidlaydilar [2]. Ularning fikricha, samarali nazorat tizimi faqat xatolarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, boshqaruvni takomillashtirishga ham xizmat qilishi kerak. Shu nuqtai nazardan, byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni jazolovchi emas, balki profilaktik va boshqaruvga yo‘naltirilgan mexanizm sifatida rivojlantirish zarur.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlar tarkibi ularning vazifalari, faoliyat sohasi va moliyalashtirish manbalariga qarab farqlanadi. Biroq umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, xarajatlarning asosiy qismini ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, ijtimoiy ajratmalar, moddiy xarajatlar hamda kapital qo‘yilmalar tashkil etadi.

1-jadval

Byudjet tashkilotlari xarajatlarining tarkibi va ulushi (%)

Xarajat turlari	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar	43	44	45	46
Ijtimoiy ajratmalar	11	12	12	12
Moddiy xarajatlar	20	19	18	18
Kapital qo‘yilmalar	16	15	15	14
Boshqa xarajatlar	10	10	10	10

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, byudjet tashkilotlari xarajatlari tarkibida eng katta ulush ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga to‘g‘ri kelmoqda. 2022-yildagi 43 foizlik ko‘rsatkich 2025-yilda 46 foizga yetgan. Mazkur tendensiya byudjet tashkilotlari faoliyatida inson resurslari asosiy o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy soha kabi yo‘nalishlarda mehnat resurslari salohiyati natijaning bosh omiliga aylanadi.

Shu билан бирга, moddiy xarajatlar ulushining 20 foizdan 18 foizgacha pasayishi ayrim hollarda mavjud moddiy-texnik bazadan tejamkor foydalanish

bilan izohlanishi mumkin. Biroq bu ko‘rsatkichning pasayishi zarur resurslar bilan ta’minlash darajasi yetarli emasligini ham anglatishi mumkin. Kapital qo‘yilmalar ulushining 16 foizdan 14 foizgacha kamayishi esa uzoq muddatli rivojlanish, infratuzilmani yangilash va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan investitsion imkoniyatlar qisqarayotganidan dalolat beradi.

Demak, xarajatlarni rejalashtirishda faqat joriy ehtiyojlarni emas, balki strategik rivojlanish omillarini ham hisobga olish muhimdir. Aks holda, byudjet tashkiloti qisqa muddatli barqarorlikni saqlagan bo‘lsa-da, uzoq muddatli samaradorlikka erishishi qiyinlashadi [4].

Xarajatlarni rejalashtirishning real natijasi moliyaviy nazorat jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar rejalashtirish puxta tashkil etilsa, ajratilgan mablag‘lar smeta asosida, maqsadli va ortiqcha yo‘qotishlarsiz sarflanadi. Quyidagi tahliliy jadval byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat samaradorligining ayrim muhim ko‘rsatkichlarini aks ettiradi.

2-jadval

Moliyaviy nazorat samaradorligi ko‘rsatkichlari (%)

Ko‘rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Reja asosida bajarilgan xarajatlar ulushi	84	86	88	89
Maqsadsiz sarflangan mablag‘lar ulushi	6	5	4	3
Tejalgan mablag‘lar ulushi	7	6	5	5
Aniqlangan moliyaviy buzilishlar	3	3	3	3

Jadval natijalari byudjet tashkilotlarida moliyaviy intizomning nisbatan yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, reja asosida bajarilgan xarajatlar ulushi 84 foizdan 89 foizgacha oshgan. Bu, bir tomondan, rejalashtirish sifatining yaxshilanganini, ikkinchi tomondan esa moliyaviy nazorat mexanizmlarining kuchayganini anglatadi.

Maqsadsiz sarflangan mablag‘lar ulushining 6 foizdan 3 foizgacha qisqargani nazorat tizimining amaliy ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi. Bu ijobiy o‘zgarish moliyaviy resurslardan yanada oqilona foydalanish, hisobot intizomining kuchayishi va ichki monitoringning faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, aniqlangan moliyaviy buzilishlar ulushining bir necha yil davomida 3 foiz darajasida o‘zgarmasdan qolayotgani tizimda ayrim takrorlanuvchi kamchiliklar mavjudligini anglatadi.

Tejalgan mablag‘lar ulushining 7 foizdan 5 foizga pasayishi ikki xil talqinga ega bo‘lishi mumkin. Birinchidan, bu rejalashtirish aniqligi ortganini bildiradi. Ikkinchidan, mablag‘lardan foydalanishda moslashuvchanlikning pasayishi yoki ayrim yo‘nalishlarda xarajatlar ancha qat’iy belgilanganini ko‘rsatishi mumkin. Demak, bu ko‘rsatkichni baholashda faqat son jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham yondashish zarur [5].

Tahlillar byudjet tashkilotlarida xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish tizimida bir qator muammolar saqlanib qolayotganini koʻrsatadi. Ularning asosiylари қуйидагилардан iborat:

birinchidan, xarajatlarni rejalashtirish jarayonida natijadorlik koʻrsatkichlaridan yetarli foydalanilmaydi. Koʻpincha smeta koʻrsatkichlari oldingi davr xarajatlari asosida shakllantiriladi. Bu esa resurslarni ehtiyoj va natija nuqtai nazaridan emas, an'anaviy taqsimot nuqtai nazaridan rejalashtirishga olib keladi;

ikkinchidan, ichki nazorat tizimi ayrim tashkilotlarda faqat rasmiy hujjatlar tekshiruvi darajasida qolmoqda. Aslida esa ichki nazorat boshqaruv qarorlarini yaxshilash, xavflarni aniqlash va oldini olishga xizmat qilishi kerak [6];

uchinchidan, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarining yetarli joriy etilmagani real vaqt rejimida nazorat olib borish imkoniyatlarini cheklaydi;

toʻrtinchidan, xodimlarning moliyaviy boshqaruv, ichki audit va byudjet intizomi boʻyicha malakasi barcha hollarda zamonaviy talablarga mos emas. Bu esa ayrim xatoliklar va notoʻgʻri talqinlarning yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish uchun bir nechta strategik yoʻnalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Avvalo, xarajatlarni rejalashtirish tizimini natijadorlikka yoʻnaltirilgan boshqaruv modeli asosida qayta koʻrib chiqish lozim. Bunda har bir xarajat moddasining kutilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy samarasini oldindan baholash kerak. Bu yondashuv byudjet mablagʻlaridan foydalanishda sifat omilini kuchaytiradi [1].

Ikkinchidan, ichki audit va ichki nazorat tizimini mustahkamlash zarur. Nazorat faqat sarflangan mablagʻlarni qayd etish bilan emas, balki moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash, ularni boshqarish va profilaktik choralarni koʻrish bilan bogʻliq boʻlishi kerak.

Uchinchidan, elektron byudjet, avtomatlashtirilgan smeta nazorati, raqamli monitoring va analitik platformalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu tizimlar inson omilini kamaytiradi, ma'lumotlar aniqligini oshiradi va nazorat jarayonini tezkorlashtiradi.

Toʻrtinchidan, byudjet ташкилотлари ходимларининг malakasini muntazam oshirish, ayniqsa moliyaviy menejment, audit, ichki nazorat va davlat moliyasi yoʻnalishlarida amaliy koʻnikmalarni kuchaytirish talab etiladi.

Umuman, byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni integratsiyalashgan holda tashkil etish davlat moliyasining barqarorligi, shaffofligi va natijadorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni samarali tashkil etish davlat moliyasini boshqarish sifatini oshirishda muhim omil ekanligini koʻrsatdi. Xarajatlar tarkibi tahlili shuni tasdiqlaydiki, byudjet mablagʻlarining asosiy qismi joriy xarajatlarga, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlarga yoʻnaltirilmoqda. Bu esa, bir tomondan, ijtimoiy sohalar faoliyatining mehnat resurslariga tayanishini bildirsa, ikkinchi

tomondan, strategik va kapital xarajatlarni asosli rejalashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Moliyaviy nazorat ko‘rsatkichlari byudjet intizomining yaxshilanib borayotganini ko‘rsatsa-da, ayrim moliyaviy buzilishlarning takroriy xarakterga ega ekanligi nazorat tizimini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi. Ayniqsa, ichki nazorat, ichki audit, raqamli monitoring va natijadorlikka yo‘naltirilgan rejalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish bugungi kun talabidir.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish tizimi strategik maqsadlar va natijadorlik ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘lanishi lozim; ikkinchidan, moliyaviy nazorat tizimi jazolovchi emas, balki profilaktik va boshqaruvga ko‘maklashuvchi mexanizmga aylantirilishi zarur; uchinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish byudjet mablag‘lari ustidan nazorat sifatini keskin oshiradi; to‘rtinchidan, xodimlar malakasini oshirish orqali moliyaviy boshqaruv tizimining institutsional barqarorligi mustahkamlanadi.

Demak, byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni takomillashtirish davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish va byudjet intizomini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press, 1996.
2. Anthony R.N., Govindarajan V. Management Control Systems. New York: McGraw-Hill, 2007.
3. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. New York: W.W. Norton & Company, 2015.
4. Blank I.A. Finansovyy menedjment. Kiyev: Nika-Center, 2004.
5. Kovalev V.V. Finansovyy analiz: upravlenie kapitalom. Moskva: Finansy i statistika, 2008.

Karayev Payzillaxon Yusufxonovich
Namangan davlat texnika universitet professori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI TARTIBGA SOLISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga solishning institutsional va me’yoriy-huquqiy asoslari chuqur ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy buxgalteriya hisobi tizimining shakllanishi, uning tarkibiy elementlari hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bilan integratsiyalashuv jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, me’yoriy-huquqiy bazaning iqtisodiy samaradorlik, investitsiya muhiti va moliyaviy shaffoflikka ta’siri kompleks baholangan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, institutsional tizim, moliyaviy hisobot, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy nazorat, investitsiya muhiti.

Kirish. Hozirgi global iqtisodiy integratsiya sharoitida buxgalteriya hisobi tizimi har qanday mamlakat iqtisodiy infratuzilmasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va shaffofligi iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish, avvalo, mukammal ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy va institutsional tizimga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida buxgalteriya hisobi tizimi tubdan isloh qilinib, zamonaviy talablarga moslashtirildi. Xususan, milliy standartlar tizimi joriy etilib, ularni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayon mamlakatda investitsion jozibadorlikni oshirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi buxgalteriya hisobi tizimining institutsional asoslarini o‘rganish, uning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimi ko‘p pog‘onali me’yoriy-huquqiy tizim asosida faoliyat yuritadi. Ushbu tizim quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- qonunchilik hujjatlari;
- ijro etuvchi organlar qarorlari;
- milliy standartlar (BHMS);
- xalqaro standartlar (IFRS).

Mazkur tizimning asosiy vazifasi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yagona qoidalarga asoslangan holda aks ettirishdan iborat. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun bu tizimning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi [2].

BHMS esa buxgalteriya hisobini yuritishning uslubiy asoslarini belgilab, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni tan olish hamda baholash tartibini aniqlaydi [3].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini IFRS talablariga moslashtirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. IFRS standartlari moliyaviy hisobotlarning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta’minlab, investorlar uchun ochiq axborot maydonini yaratadi [1].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, IFRSga o‘tish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- moliyaviy hisobotlarning shaffofligi oshadi;
- investorlar ishonchi ortadi;
- kapital bozorlari rivojlanadi;
- korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati kengayadi.

Karimov A. tadqiqotlariga ko‘ra, xalqaro standartlarga mos hisobotlar korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [4].

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, me’yoriy-huquqiy baza iqtisodiyotning barcha segmentlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, moliyaviy hisobotlarning aniqligi davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi tizimda quyidagi muammolar mavjud:

- normativ hujjatlarning murakkabligi;
- tez-tez yangilanib turishi;
- kichik biznes uchun tushunarsizligi;
- amaliyotda turlicha talqin qilinishi.

1-jadval

Me’yoriy-huquqiy tizimning iqtisodiy ta’sir yo‘nalishlari

Ko‘rsatkich	Ta’sir mexanizmi	Natija
Moliyaviy shaffoflik	Hisobot standartlashuvi	Ishonchlilik oshadi
Investitsiyalar	IFRS joriy etilishi	Kapital oqimi ortadi
Soliq tizimi	Hisob aniqligi	Byudjet tushumlari ko‘payadi
Korxona boshqaruvi	Axborot sifati	Samaradorlik oshadi

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim:

- standartlarni soddalashtirish;
- raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish;
- kadrlar malakasini oshirish;
- yagona interpretatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga solish tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Me’yoriy-huquqiy bazaning takomillashuvi moliyaviy shaffoflikni oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va korxonalar samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tizimni yanada rivojlantirish uchun uni soddalashtirish, raqamlashtirish va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Ushbu yo‘nalishlar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Accounting Standards Board (IASB). International Financial Reporting Standards (IFRS). London, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun. Toshkent, 2016.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS). Toshkent, 2020.

4. Karimov A. Moliyaviy hisobot va tahlil asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich
Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedra professori
(Orcid 0009-0004-6147-547X)

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI AUDITINI XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari auditini xalqaro audit standartlari (ISA) asosida tashkil etish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning moliyaviy hisobotlarini tekshirishda auditning ahamiyati hamda xalqaro audit standartlarini qo‘llash zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, auditorlik, xalqaro audit standartlari, ISA, audit riski, moliyaviy hisobot, ichki nazorat, audit protseduralari, audit sifati, iqtisodiy samaradorlik

Kirish. Hozirgi globallashuv va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, bandlik darajasini oshirish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, kichik biznes subyektlari faoliyatining shaffofligini ta’minlash va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda auditorlik tekshiruvi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Auditorlik faoliyati orqali moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi baholanadi va manfaatdor tomonlarga ishonchli axborot taqdim etiladi. Ayniqsa, xalqaro audit standartlari (ISA) asosida auditni tashkil etish kichik biznes subyektlari faoliyatining xalqaro talablarga mosligini ta’minlaydi [1].

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarida auditni tashkil etish yirik korxonalarga nisbatan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, ichki nazorat tizimining soddaligi, resurslarning cheklanganligi va moliyaviy axborotlarning kamroq hajmda shakllanishi auditorlik jarayonini o‘ziga xos tarzda tashkil etishni talab qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi kichik biznes subyektlari auditini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etishning nazariy asoslarini o‘rganish, amaliy muammolarni aniqlash hamda audit tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotda moslashuvchanligi va tezkor rivojlanish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning faoliyatini samarali boshqarish uchun ishonchli moliyaviy axborot zarur. Shu nuqtai nazardan auditorlik tekshiruvi kichik biznes subyektlari faoliyatining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi.

Auditning asosiy vazifasi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va ishonchliligini baholashdan iborat. Biroq kichik biznesda audit faqat tekshiruv

emas, balki boshqaruvni takomillashtirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi [2].

Xalqaro audit standartlari auditorlik faoliyatining yagona metodologik asosini belgilaydi. Ular auditorlik jarayonini rejalashtirish, risklarni baholash, dalillarni yig‘ish va xulosa chiqarish bosqichlarini tartibga soladi.

ISA standartlari kichik biznes auditida quyidagi jihatlar bilan muhim ahamiyatga ega:

— audit jarayonini tizimlashtiradi;
— auditorlik risklarini kamaytiradi;
— moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi;
— xalqaro investorlarga ishonch uyg‘otadi.

Ayniqsa, ISA 315 va ISA 330 standartlari kichik biznes sub’ektlarida risklarni baholash va audit protseduralarini tanlashda muhim rol o‘ynaydi [1].

1-jadval

Kichik biznes va yirik korxonalar auditining farqli jihatlari

Ko‘rsatkich	**Kichik biznes**	**Yirik korxonalar**
Ichki nazorat	Soddalashtirilgan	Murakkab
Axborot hajmi	Kam	Katta
Audit riski	Yuqori	Nisbatan past
Resurslar	Cheklangan	Keng

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes sub’ektlarida audit riski yuqoriroq bo‘ladi. Bu esa auditorlardan yanada ehtiyotkor yondashuvni talab etadi.

Kichik biznes sub’ektlarida audit risklari quyidagi omillar bilan bog‘liq:

— ichki nazorat tizimining zaifligi;
— hujjatlashtirish darajasining pastligi;
— boshqaruv tomonidan noto‘g‘ri qarorlar;
— firibgarlik ehtimoli.

2-jadval

Audit risklarini boshqarish usullari

Risk turi	**Sababi**	**Boshqarish usuli**
Inherent risk	Faoliyat murakkabligi	Tahlilni kuchaytirish
Control risk	Ichki nazorat zaifligi	Nazoratni baholash
Detection risk	Audit kamchiligi	Protseduralarni kengaytirish

Mazkur risklarni kamaytirish uchun auditorlar ISA talablariga qat’iy amal qilishlari zarur [3].

Kichik biznes sub’ektlarida auditni tashkil etishda quyidagi muammolar kuzatiladi:

- moliyaviy hisobotlarning to‘liq emasligi;
- ichki nazorat tizimining rivojlanmaganligi;

- auditorlik xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojning pastligi;
- malakali auditorlar yetishmasligi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun:

- audit jarayonini soddalashtirish;
- raqamli audit vositalarini joriy etish;
- kichik biznes uchun moslashtirilgan audit metodikasini ishlab chiqish;
- auditorlar malakasini oshirish zarur.

Kichik biznes auditini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim:

- riskga asoslangan audit modelini qo‘llash;
- ichki nazorat tizimini rivojlantirish;
- xalqaro standartlarga to‘liq moslashish;
- audit jarayonini avtomatlashtirish.

Bu choralar kichik biznes sub’ektlarida audit sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes sub’ektlari auditini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. ISA standartlari audit jarayonini tizimlashtirish va risklarni kamaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kichik biznesda auditni rivojlantirish uchun ichki nazorat tizimini kuchaytirish, auditorlar malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

Umuman olganda, kichik biznes auditini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. IAASB. *International Standards on Auditing (ISA).* 2021.
2. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. *Auditing and Assurance Services.* Pearson, 2017.
3. Hayes R. *Principles of Auditing.* Pearson, 2014.
4. Karimov A. *Audit asoslari.* Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich
Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedra professori
Abdug‘opporov G‘olibjon Abdug‘ofur o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti, talabasi.

AUDITORLIK AMALIYOTIDA FIRIBGARLIK XATARLARINI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada auditorlik amaliyotida firibgarlik xatarlarini baholashning nazariy va amaliy jihatlari xalqaro audit standartlari asosida kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida auditorning firibgarlikka oid risklarni aniqlash, baholash va ularga mos audit protseduralarini qo‘llashdagi roli yoritilgan. Xususan, ISA 240 standarti talablariga asoslangan holda firibgarlik natijasida

yuzaga keladigan muhim noto‘g‘ri aks ettirishlarni aniqlash mexanizmi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: auditorlik, firibgarlik, audit risklari, moliyaviy hisobot, ichki nazorat, audit protseduralari, risklarni baholash, auditor mas’uliyati.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy tizimda moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va shaffofligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global moliya bozorlarining integratsiyalashuvi va korporativ tuzilmalarning murakkablashuvi auditorlik faoliyatiga yuqori talablar qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida auditorlar moliyaviy hisobotlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan firibgarlik holatlarini aniqlash va baholashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Firibgarlik – bu moliyaviy ma’lumotlarni ataylab buzib ko‘rsatish yoki aktivlarni noqonuniy o‘zlashtirish orqali tashkilot manfaatlariga zarar yetkazuvchi harakatlar majmuasidir. Bunday holatlar moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini pasaytirib, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar qarorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro audit standartlari, xususan ISA 240, auditorning firibgarlikka oid mas’uliyatini aniq belgilaydi. Unga ko‘ra, auditor firibgarlik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muhim noto‘g‘ri aks ettirishlarni aniqlash va baholashga majburdir [1]. Shu sababli firibgarlik risklarini baholash auditorlik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi auditorlik amaliyotida firibgarlik xatarlarini baholashning nazariy asoslarini o‘rganish, xalqaro standartlar talablarini tahlil qilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Firibgarlik iqtisodiy faoliyatda eng xavfli omillardan biri hisoblanib, u moliyaviy natijalarni noto‘g‘ri aks ettirishga olib keladi. Auditorlik nuqtai nazaridan firibgarlik quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

- moliyaviy hisobotni ataylab soxtalashtirish;
- aktivlarni o‘zlashtirish;
- boshqaruv tomonidan manipulyatsiyalar amalga oshirish.

Audit risk modeli tarkibida firibgarlik alohida ahamiyatga ega. Auditorlik riski – bu auditor noto‘g‘ri xulosa berish ehtimoli bo‘lib, u uchta elementdan tashkil topadi: inherent risk, control risk va detection risk [2]. Firibgarlik asosan inherent risk darajasini oshiradi.

1-jadval

Firibgarlik risklarini baholash bosqichlari

Bosqich	**Mazmuni**	**Natija**
Dastlabki tahlil	Korxona faoliyatini o‘rganish	Risk omillari aniqlanadi
Risk baholash	Xavf darajasini aniqlash	Yuqori, o‘rta, past
Audit protseduralari	Tekshiruv rejasi	Dalillar yig‘iladi
Natijalarni baholash	Xulosa chiqarish	Audit fikri shakllanadi

ISA 240 standarti auditorning firibgarlikka oid majburiyatlarini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ushbu standart quyidagi talablarni o‘z ichiga oladi:

- firibgarlik risklarini aniqlash;

- risklarni baholash va hujjatlashtirish;
- tegishli audit protseduralarini ishlab chiqish;
- dalillarni yetarli darajada yig‘ish.

Standartga ko‘ra, auditor professional skeptitsizm tamoyiliga amal qilishi shart. Bu esa auditorni har qanday axborotga tanqidiy yondashishga undaydi [1].

Mazkur jarayon auditorning tizimli yondashuv asosida ishlashini ta’minlaydi.

2-jadval

Firibgarlik risklarining asosiy ko‘rinishlari

Risk turi	**Tavsifi**	**Natijasi**
Daromadni sun’iy oshirish	Soxta operatsiyalar	Foyda oshadi
Xarajatlarni yashirish	Hisobda aks ettirilmaslik	Moliyaviy natija buziladi
Aktivlarni o‘zlashtirish	Mablag‘larni o‘g‘irlash	Zarar yuzaga keladi

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, firibgarlik ko‘pincha ichki nazorat tizimi zaif bo‘lgan tashkilotlarda uchraydi [3].

Bugungi kunda auditorlik amaliyotida quyidagi muammolar mavjud:

- raqamli firibgarliklarning ortib borishi;
- axborot yetishmasligi;
- auditor malakasining yetarli emasligi;
- ichki nazorat tizimining zaifligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun:

- IT-auditni rivojlantirish;
- data-analitika vositalaridan foydalanish;
- ichki auditni kuchaytirish;
- xalqaro standartlarni to‘liq joriy etish zarur.

Auditorlik amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim:

- riskga asoslangan audit modelini qo‘llash;
- raqamli audit texnologiyalarini joriy etish;
- ichki nazorat va compliance tizimini mustahkamlash;
- auditorlarning malakasini oshirish.

Bu choralar auditorlik faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, auditorlik amaliyotida firibgarlik xatarlarini baholash xalqaro audit standartlari asosida amalga oshirilganda audit sifati va ishonchliligi oshadi. ISA 240 standarti auditorlarga firibgarlikni aniqlashda muhim metodologik asos yaratadi.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy sharoitda firibgarlik risklari murakkablashib borayotgani auditorlardan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va auditor malakasini oshirish bu borada muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, firibgarlik risklarini samarali boshqarish auditorlik faoliyatining sifatini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IAASB. *ISA 240: The Auditor's Responsibilities Relating to Fraud.* 2021.
2. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. *Auditing and Assurance Services.* Pearson, 2017.
3. Singleton T., Singleton A. *Fraud Auditing and Forensic Accounting.* Wiley, 2010.

Mardonov Mamed Shavkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand filiali
"Buxgalteriya hisobi va Statistika" kafedrasi mudiri, dotsent PhD
e-mail: mamedmardonov@gmail.com
Aliboyeva Sabina To'ychiboy qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand filiali 2-kurs magistranti

ASOSIY VOSITALARNING XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYA TIZIMIDA TURLARI VA FARQLI TOMONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosiy vositalarning xalqaro va milliy buxgalteriya hisob tizimlarida turlari va ularning farqlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada asosiy vositalarning turlari, ularning baholanishi, amortizatsiya usullari hamda milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, korxonalarda moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish va investitsion faoliyatni to'g'ri boshqarish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari akademik va amaliy sohada asosiy vositalarni hisobga olishdagi farqlarga doir tushunchani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, xalqaro hisob, milliy hisob, turlari, farqlari, moliyaviy hisobot, amortizatsiya, aktivlar.

Kirish. Asosiy vositalar har qanday korxona moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyatida muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Hozirgi kunda asosiy vositalarni hisobga olish jarayoni ikki asosiy tizim — xalqaro va milliy buxgalteriya standartlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS) asosiy vositalarni baholash, amortizatsiya qilish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishda zamonaviy yondashuvni talab qiladi. Masalan, IFRS tizimida aktivlarni baholash adolatli bozor qiymati, foydali xizmat muddati va qoldiq qiymatiga asoslanadi, amortizatsiya esa aktivning haqiqiy foydalanish muddatiga muvofiq belgilanadi. Milliy buxgalteriya tizimlarida esa ko'pincha asosiy vositalar tarixiy xarid narxi asosida baholanadi va amortizatsiya stavkalari davlat normativlari bilan belgilanishi mumkin. Shu sababli korxonalarda moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalarning ko'rsatilishi, ularning amortizatsiya miqdori va baholanish usullari tizimlar o'rtasida sezilarli farqlarga ega bo'ladi.

Ushbu maqola maqsadi — asosiy vositalarning xalqaro va milliy buxgalteriya tizimlaridagi turlari va ularning farqlarini ilmiy asosda o'rganish, ularni baholash va amortizatsiya jarayonidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlashdan

iborat. Tadqiqot natijalari korxonalarda moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ushbu tadqiqotda asosiy vositalarning xalqaro va milliy buxgalteriya tizimidagi hisobini tahlil qilish uchun kompleks ilmiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichi nazariy asos yaratishdan iborat bo'lib, unda mavjud ilmiy adabiyotlar, milliy buxgalteriya kodeksi, xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS) va amaliy korxona moliyaviy hisobotlari tahlil qilindi. Bu bosqichda asosiy vositalarning turlari, ularni baholash va amortizatsiya qilish usullari, moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi aniqlab olindi. Nazariy tahlil orqali milliy va xalqaro tizimlar o'rtasidagi farqlar, ularning moliyaviy natijalarga ta'siri va boshqaruv qarorlariga bo'lgan ta'siri o'rganildi.

Ikkinchi bosqichda solishtirma tahlil (comparative analysis) metodi qo'llanildi. Ushbu metod yordamida asosiy vositalarning xalqaro va milliy buxgalteriya tizimidagi hisob yuritish usullari, aktivlarni baholash va amortizatsiya metodlari solishtirildi. Uchinchi bosqichda empirik ma'lumotlar ishlatildi. Korxonalarning yillik moliyaviy hisobotlari, balanslar, aktivlar ro'yxati va amortizatsiya hisobi asosida statistik tahlil amalga oshirildi. Bu ma'lumotlar asosida asosiy vositalar turlari bo'yicha moliyaviy natijalar, amortizatsiya stavkalari va baholash metodlari bo'yicha milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar jadval va grafiklar orqali ko'rsatildi.

1-jadval

Asosiy vositalarning xalqaro va milliy buxgalteriya tizimidagi turlari va farqlari

Asosiy vositalar turlari	Milliy buxgalteriya tizimi (masalan, O'zbekiston)	Xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS)	Farqlari va ta'siri
Binolar va inshootlar	Tarixiy xarid narxi asosida baholash; amortizatsiya stavkalari normativlar bilan belgilanadi	Adolatli bozor qiymati yoki xarid narxi asosida baholash; amortizatsiya foydali xizmat muddati va qoldiq qiymatga qarab hisoblanadi	Milliy tizim ko'proq normativga bog'liq, IFRS esa haqiqiy qiymatni aks ettiradi, bu moliyaviy hisobotlarda aktiv qiymatini aniqroq ko'rsatadi
Mashina va uskuna	Tarixiy xarid narxi; soddalashtirilgan amortizatsiya usullari	Foydali xizmat muddati va qoldiq qiymat hisobga olingan degressiv yoki lineer amortizatsiya	IFRS aktivning haqiqiy eskirishini aniqroq aks ettiradi; milliy tizimda xarajatlar va foyda ko'rinishi ko'proq normativga bog'liq
Transport	Tarixiy xarid	Foydali xizmat	Xalqaro tizimda


vositalari	narxi; amortizatsiya stavkalari belgilangan	muddati va qoldiq qiymat asosida amortizatsiya; qayta baholash mumkin	transport vositalari bozor qiymatiga mos ravishda baholanadi, bu investorlar uchun haqqoniy moliyaviy tasvir beradi
Uskunalar va mebellar	Tarif va normativga asoslangan baholash	Bozor qiymati yoki xarid narxi; amortizatsiya foydali muddatga muvofiq	IFRS aktivlarning haqiqiy qiymatini moliyaviy hisobotga kiritadi; milliy tizimda esa oddiy va standartlashtirilgan usullar qo‘llanadi
Yer va tabiiy resurslar	Odatda baholash o‘zgarishsiz tarixiy xarid narxi asosida	Bozor qiymati asosida baholash; amortizatsiya qilinmaydi	IFRS moliyaviy hisobotda yer va resurslarning haqiqiy qiymatini ko‘rsatadi; milliy tizimda ular passiv aktiv sifatida aks etishi mumkin

Ushbu jadval asosiy vositalarning milliy va xalqaro buxgalteriya tizimidagi hisobga olish usullari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatadi.. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, IFRS tizimi aktivlarning moliyaviy qiymatini real bozor sharoitlariga moslashtiradi, bu esa korxona boshqaruvi va investitsion qarorlar qabul qilishda ishonchli asos yaratadi. Milliy tizim esa soddalashtirilgan va normativga asoslangan yondashuvga ega bo‘lib, amaliy jihatdan ko‘plab korxonalarda oson qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Shu bois, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalar moliyaviy hisobotlarni IFRS standartlariga muvofiq tayyorlash orqali asosiy vositalarning haqiqiy qiymatini aniqlash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jadval va solishtirma tahlil natijasida ko‘rinib turibdiki, milliy buxgalteriya tizimlarida asosiy vositalar ko‘pincha tarixiy xarid narxi asosida baholanadi va amortizatsiya stavkalari normativlar yoki ichki qoidalar orqali belgilanadi.

Xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS) esa aktivlarni baholash va amortizatsiya qilish jarayonida adolatli bozor qiymati, foydali xizmat muddati va qoldiq qiymatga tayangan holda hisob-kitob qiladi. Bu yondashuv korxona moliyaviy holatini aniqroq aks ettiradi, aktivlarning haqiqiy eskirishini ko‘rsatadi va moliyaviy hisobotlar sifatini oshiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, IFRS asosida tayyorlangan hisobotlar korxona investitsion faoliyatini rejalashtirish, kredit resurslarini jalb qilish va strategik qarorlar qabul qilishda yuqori darajada ishonchli ma’lumot beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalar moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish va asosiy vositalarni samarali boshqarish uchun milliy tizimdagi oddiy yondashuvni IFRS standartlari

bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishi lozim. Buning natijasida korxona aktivlari haqiqiy qiymatga ega bo‘ladi, investitsion qarorlar aniqroq asosda qabul qilinadi va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyati oshadi.



1-rasm. Asosiy vositalarning milliy va xalqaro (IFRS) buxgalteriya tizimidagi baholash va amortizatsiya darajalari.

Ushbu diagramma beshta asosiy vositalar turini qamrab oladi: binolar va inshootlar, mashina va uskuna, transport vositalari, uskunalar va mebellar, yer va tabiiy resurslar. X o‘qi asosiy vositalar turlarini, Y o‘qi baholash va amortizatsiya darajasini (1–10) ko‘rsatadi. Diagramma shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tizimdagi baholash va amortizatsiya darajasi milliy tizimga nisbatan ancha yuqori va aktivlarning haqiqiy bozor qiymatini aks ettiradi. Shu bilan birga, milliy tizim oddiy va normativga asoslangan yondashuvga ega bo‘lib, moliyaviy hisobotlarda aktivlarning haqiqiy eskirishini to‘liq ko‘rsatmaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari asosiy vositalarning milliy va xalqaro buxgalteriya tizimlarida hisobga olinishi, baholanishi va amortizatsiya jarayonlaridagi farqlarni ilmiy asosda aniqlash imkonini berdi. Diagramma va tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, IFRS tizimi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini oshiradi, investorlar, moliya institutlari va korxona menejmenti uchun aktivlarning haqiqiy qiymatini aks ettirish imkonini beradi. Milliy tizim esa oddiy va normativga asoslangan bo‘lib, amaliy jihatdan ko‘plab korxonalarda qo‘llanishi qulay bo‘lsa-da, moliyaviy hisobotlarda aktivlarning haqiqiy qiymatini yetarlicha ko‘rsatmaydi. Shuni inobatga olgan holda, korxonalar moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, aktivlarni samarali boshqarish va investitsion qarorlar qabul qilishda milliy tizimdagi oddiy yondashuvni IFRS standartlari bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini ko‘rib chiqishi muhimdir.

Natijada, ushbu tadqiqot asosiy vositalarning milliy va xalqaro buxgalteriya tizimlaridagi farqlarini aniqlash, ularning moliyaviy boshqaruvdagi ahamiyatini

tushuntirish va korxonalarda IFRS standartlarini tatbiq etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berishga imkon yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamarasulov, D. (2025). Asosiy vositalarni hisobga olish va ularni audit qilish masalalari: nazariy va amaliy yondashuvlar. Green Economy and Development Journal.

2. Yakubova, D. (2025). IFRS va BHMS bo‘yicha asosiy vositalar: ularning farqlari va umumiy xususiyatlari. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar.

3. Sohibov, A. D., & Xursandov, K. M. (2025). Xalqaro buxgalteriya standartlarini joriy etishning dolzarbligi: IFRS (MSFO) ga o‘tishning foydalari va qiyinchiliklari. Tadqiqotlar Journal.

4. Bazarova, N. J. (2025). Banklarda asosiy vositalar hisobi va auditni takomillashtirish: O‘zmilliybank AJ misolida. International Journal of Scientific Researchers.

5. Khatamov, K. X. (2024). *Revaluation of fixed assets in accordance with IFRS: Analysis and prospects for Uzbekistan*. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation, 2*(4), 122–127.

Yormatov Ilmidin Toshmatovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Menejment va Marketing” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
e-mail: ilmidin.yormatov@mail.ru

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TAHLIL METODOLOGIYASINING RIVOJLANISHI VA UNING BOSHQARUV QARORLARIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil metodologiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning boshqaruv qarorlaridagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda, asosan, o‘zbek olimlarining ilmiy ishlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari hamda sohani tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tahlil O‘zbekistonda oddiy xo‘jalik faoliyati natijalarini baholash vositasidan strategik va tezkor boshqaruv qarorlarini asoslashning muhim instrumentiga aylangan. Ayniqsa, moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan analitik yondashuvlar zamonaviy korxona boshqaruvida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy tahlil, metodologiya, boshqaruv qarori, moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili, xo‘jalik faoliyati.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv qarorlarining sifati korxona faoliyati to‘g‘risidagi axborotning aniqligi, tezkorligi va tahliliy chuqurligiga bevosita bog‘liq. Shu sababli iqtisodiy tahlil boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil dastlab xo‘jalik faoliyatini reja va hisobot

ko‘rsatkichlari asosida baholash yo‘nalishida rivojlangan bo‘lsa, keyinchalik uning predmet doirasi kengayib, moliyaviy natijalar, likvidlik, to‘lovga qodirlik, rentabellik, investitsion jozibadorlik va ichki boshqaruv samaradorligini baholashga xizmat qila boshladi [1; 2]. Bu evolyutsiya mamlakatda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimining isloh qilinishi bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘ldi.

Iqtisodiy tahlilning ilmiy asoslari va metodologik rivojlanishida o‘zbek olimlarining hissasi alohida o‘rin tutadi. Xususan, I.T. Abdukarimov, A.X. Shoalimov, A.T. Ibrohimov, N. Ishonqulov, A.V. Vahobov, M.Q. Pardaev, E.A. Akramov va boshqa olimlar iqtisodiy tahlilni nazariy va amaliy jihatdan boyitib, uni milliy ta’lim va boshqaruv amaliyotiga moslashtirishga katta hissa qo‘shgan [1; 3; 4].

O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi bir necha ilmiy maktablar faoliyati bilan bog‘liq. Manbalarda qayd etilishicha, Samarqand ilmiy maktabi vakillari iqtisodiy tahlil fanining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan, ayniqsa ushbu fan bo‘yicha o‘zbek tilidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilishi uning metodologik mustaqilligini kuchaytirgan [1]. Keyingi bosqichda Toshkent ilmiy muhiti doirasida moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili va moliyaviy holat tahliliga oid maxsus yo‘nalishlar shakllandi [2; 3; 4].

O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi

- **Samarqand ilmiy maktabi**
  - iqtisodiy tahlil fanining dastlabki rivoji
  - o‘zbek tilidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilishi
  - metodologik mustaqillikning kuchayishi
- **Toshkent ilmiy maktabi**
  - moliyaviy tahlil yo‘nalishi
  - boshqaruv tahlili yo‘nalishi
  - moliyaviy holat tahlili yo‘nalishi

A.X. Shoalimov va Sh.A. Tojiboyeva iqtisodiy tahlil nazariyasini tizimli ravishda yoritib, uning predmeti, usullari, tamoyillari va axborot bazasini izchil bayon qilgan [2]. A.V. Vahobov, N. Ishonqulov va A.T. Ibrohimovlar esa moliyaviy hamda boshqaruv tahlili o‘rtasidagi farq va ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berib, boshqaruv ehtiyojlariga mos ko‘rsatkichlar tizimini rivojlantirgan [3]. M.Q. Pardaev va boshqa olimlar korxona faoliyati samaradorligini baholash, ichki imkoniyatlarni aniqlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tahlilning amaliy rolini alohida ta’kidlagan [4; 8].

Nazariy rivojlanish

- A.X. Shoalimov, Sh.A. Tojiboeva
  - iqtisodiy tahlil predmeti
  - usullari
  - tamoyillari
  - axborot bazasi

Tarmoqlashgan tahlil yo‘nalishlari

└── A.V. Vahobov, N. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov
├── moliyaviy tahlil
├── boshqaruv tahlili
├── ularning farqi
└── o‘zaro bog‘liqligi

Amaliy yo‘nalishning kuchayishi

└── M.Q. Pardaev va boshqalar
├── korxona faoliyati samaradorligini baholash
├── ichki imkoniyatlarni aniqlash
└── resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish

Zamonaviy adabiyotlarda iqtisodiy tahlil nafaqat retrospektiv (o‘tgan davr faoliyati) baholash vositasi, balki istiqbolli va operativ boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan analitik mexanizm sifatida talqin qilinmoqda [8]. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish sharoitida tahlil metodologiyasi mazmunan boyib, yangi koeffitsientlar, omilli yondashuvlar va riskga yo‘naltirilgan usullar bilan to‘ldirilmoqda [6].

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil metodologiyasi shartli ravishda uch bosqichda rivojlangan. Birinchi bosqichda tahlil asosan xo‘jalik faoliyati yakunlarini reja ko‘rsatkichlari bilan taqqoslashga qaratilgan edi. Bu davrda ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish hajmi, tannarx, mehnat unumdorligi va foyda ko‘rsatkichlari tahliliga urg‘u berilgan [1]. Ikkinchi bosqich, ya’ni mustaqillikdan keyingi davrda bozor iqtisodiyoti talablari asosida moliyaviy barqarorlik, likvidlik, to‘lovga qodirlik, rentabellik va kapital tarkibini baholash metodlari rivojlana boshladi [3; 4]. Uchinchi, zamonaviy bosqichda esa iqtisodiy tahlil xalqaro hisobot standartlari, korporativ boshqaruv va strategik rejalashtirish bilan integratsiyalashmoqda [6;].

Iqtisodiy tahlil metodologiyasining rivojlanishida uning moliyaviy va boshqaruv tahliliga ajralishi muhim burilish bo‘ldi. Moliyaviy tahlil tashqi foydalanuvchilar, ya’ni investorlar, kreditorlar, soliq organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun korxonaning umumiy moliyaviy holatini baholashga xizmat qiladi. Boshqaruv tahlili esa ichki foydalanuvchilar, ayniqsa menejerlar ehtiyojiga yo‘naltirilgan bo‘lib, xarajatlar, mahsulot tannarxi, rentabellik, javobgarlik va ichki rezervlarni aniqlashni qamrab oladi [3]. Aynan shu farqlanish iqtisodiy tahlilni boshqaruvning real instrumentiga aylantirdi.

Boshqaruv qarorlaridagi o‘rni

Iqtisodiy tahlilning boshqaruv qarorlaridagi o‘rni juda katta. Birinchidan, u korxonaning joriy moliyaviy holatini baholashga yordam beradi. Ikkinchidan, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlaydi. Uchinchidan, ichki rezervlarni topish va yo‘qotishlarni kamaytirish imkonini beradi. To‘rtinchidan, investitsiya, moliyalashtirish va ishlab chiqarish bo‘yicha qarorlarni iqtisodiy jihatdan

asoslashga xizmat qiladi [4; 8]. Shu ma’noda iqtisodiy tahlil boshqaruv qarorining nazariy emas, balki amaliy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, korxona likvidlik ko‘rsatkichlari tahlili asosida qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyatini baholaydi; rentabellik tahlili asosida qaysi yo‘nalish foydaliroq ekanini aniqlaydi; aktivlar aylanuvchanligi tahlili esa resurslarning qay darajada samarali ishlatilayotganini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra menejment ishlab chiqarish hajmini oshirish, xarajatlarni qisqartirish, aktivlar tarkibini optimallashtirish yoki qarz yukini kamaytirish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi [3; 4].

1-jadval

O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil metodologiyasining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	**Davr xususiyati**	**Asosiy mazmun**	**Ustuvor tahlil yo‘nalishlari**
1- bosqich	Rejaviy iqtisodiyot davri	Xo‘jalik faoliyati natijalarini reja ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, tannarx, mehnat unumdorligi, foyda
2 - bosqich	Mustaqillikdan keyingi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri	Korxonaning moliyaviy holati va bozor sharoitidagi barqarorligini baholash	Moliyaviy barqarorlik, likvidlik, to‘lovga qodirlik, rentabellik, kapital tarkibi
3 - bosqich	Zamonaviy rivojlanish bosqichi	Xalqaro standartlar va strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashgan tahlil	Xalqaro hisobot standartlari, korporativ boshqaruv, strategik rejalashtirish, boshqaruv qarorlari

O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish iqtisodiy tahlil metodologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Prezidentning 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarorida MHXSga o‘tishni jadallashtirish, xalqaro investorlar uchun zarur axborot muhitini yaratish va mutaxassislarni tayyorlash vazifalari belgilangan [6]. Bu esa iqtisodiy tahlilda aktiv va majburiyatlarni baholash, daromad va xarajatlarni tan olish, kapital tarkibi va moliyaviy natijalarni sharhlash bo‘yicha yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Natijada bugungi iqtisodiy tahlil metodologiyasi oddiy gorizontal va vertikal tahlil bilan cheklanib qolmay, koeffitsientlar tahlili, omilli tahlil, taqqoslama tahlil, pul oqimlari tahlili va riskka yo‘naltirilgan baholash usullarini ham o‘z ichiga olmoqda. Bu esa boshqaruv qarorlarining yanada puxta, moslashuvchan va uzoq muddatli strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, iqtisodiy tahlil metodologiyasini amaliyotda qo‘llashda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tahlil hali ham faqat hisobot natijalarini qayd etish darajasida qolib ketmoqda. Ba’zi hollarda tahliliy ko‘rsatkichlar bilan boshqaruv qarorlari o‘rtasidagi aloqa sust. Yana bir muhim muammo - xalqaro standartlar asosidagi hisobotlarni chuqur tahlil qilish bo‘yicha malaka va amaliy ko‘nikmalarning barcha tashkilotlarda bir xil darajada shakllanmaganidir [6].

Xulosa. O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil metodologiyasi uzoq evolyutsion rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Dastlab xo‘jalik faoliyati natijalarini baholash vositasi sifatida shakllangan iqtisodiy tahlil bugungi kunda moliyaviy, boshqaruv va strategik qarorlarni asoslashning muhim instrumentiga aylangan. Bu jarayonda, ayniqsa, o‘zbek olimlarining ilmiy maktablari va darsliklari muhim nazariy poydevor yaratdi.

Kelgusida iqtisodiy tahlil metodologiyasini yanada takomillashtirish uchun uni raqamli boshqaruv tizimlari, tezkor analitik platformalar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va strategik menejment vositalari bilan yanada chuqur integratsiyalash zarur. Aynan shunda iqtisodiy tahlil korxona va tashkilotlar faoliyatida samarali, ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega boshqaruv qarorlarini qabul qilishning kuchli vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudov Q.S. Iqtisodiy tahlil fanining O‘zbekistonda yaratilish tarixi. Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57. Volume 4, ISSUE 1 (June) ISSN: 2181-3000 https: //cyberleninka.ru/article/n/iqtisodiy-tahlil-fanining-o-zbekistonda-yaratilish-tarihi
2. Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi: darslik. https: //www.renessans-edu.uz/files/books/2024-12-03-09-04-38_9eedb1c27b883ae1146b75ee54a5c2a5.pdf
3. Vahobov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: darslik. https: //arm.ssuv.uz/frontend/web/books/642a946f5e25f.pdf
4. Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holati tahlili: o‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2020. – 212 b. https: //ebook.tsue.uz/public/storage/media/wjvVdJUTL8JBhJJwRpLr2h4wmIqKUeDp6rZx259n.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida. O‘RQ-404, 13.04.2016. https: //lex.uz/docs/2931253
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. PQ-4611, 24.02.2020. https: //lex.uz/uz/docs/-4746047
7. Umirov Ulugbek. Moliyaviy ko'rsatkichlar asosida korxona samaradorligini baxolash. (2025). Innovaцii v nauke i texnologiyax , 2 (9), 208-215. https: //innoist.uz/index.php/ist/article/view/1283
8. Quvvatov G. Moliyaviy resurslar tahlili yordamida korxona faoliyatini samarali boshqarishning asosiy yo‘nalishlari. International Finance & Accounting, Issue 5, October 2023. https: //interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2023/11/Golibjon-Kuvvatov.pdf

Kunduzova Kumrixon Ibragimovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti i.f.n.,
e-mail: *kumrixon.kunduzova@fstu.uz*
Maftuna Baxtiyorova Qobiljon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti 1-kurs magistranti
e-mail: *maftunabaxtiyorova.1999@gmail.com*

XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA XUSUSIY KAPITAL HISOBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xususiy kapital hisobini tashkil etish, uning tarkibi va boshqaruvdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xususiy kapital hisobini yuritishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida hisob tizimini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy kapital, xorijiy investitsiyalar, buxgalteriya hisobi, ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda, moliyaviy hisobot, IFRS.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonlari tobora jadallashib borayotgan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarni jalb etish milliy iqtisodiyotning barqaror va uzluksiz rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bunday korxonalar faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish darajasiga, ayniqsa xususiy kapitalni to‘g‘ri shakllantirish, boshqarish va hisobga olish tizimining mukammalligiga bog‘liqdir.

Xususiy kapital korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, u korxonaning o‘z mablag‘lari manbaini aks ettiradi hamda uning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini belgilaydi. Investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun xususiy kapital to‘g‘risidagi aniq va ishonchli axborot muhim qarorlar qabul qilishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli korxonalarda xususiy kapital hisobini aniq, shaffof va ishonchli yuritish, uni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalarda bu masala yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular uchun moliyaviy hisobotlarning ochiqligi, taqqoslanishi va xalqaro talablarga mosligi investitsion qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, xususiy kapital hisobini xalqaro standartlarga mos ravishda yuritish, hisob siyosatini takomillashtirish hamda moliyaviy

axborotlarning shaffofligini ta’minlash orqali korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish mumkin.

Natijada, xususiy kapital hisobini samarali tashkil etish nafaqat korxonaning ichki moliyaviy boshqaruvini yaxshilashga, balki mamlakatda qulay investitsiya muhitini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Asosiy qism. Xususiy kapital korxona aktivlarining majburiyatlardan ortiqcha qismini ifodalaydi va quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi: ustav kapitali, qo‘shimcha kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda ustav kapitali turli valyutalarda shakllantirilishi mumkin. Bu esa valyuta kursi o‘zgarishlari bilan bog‘liq qo‘shimcha hisob-kitoblarni talab etadi. Natijada kapital hisobida aniqlik va shaffoflikni ta’minlash murakkablashadi.

Quyida xususiy kapital tarkibining namunaviy tuzilmasi keltirilgan:

1-jadval

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonada xususiy kapital tarkibi (shartli misol)

Ko‘rsatkichlar	Summasi (so‘m)	Ulushi (%)	Tahliliy baho
Ustav kapitali	1 200 000	60, 0	Asosiy moliyaviy baza
Qo‘shimcha kapital	300 000	15, 0	Investitsion qo‘shimchalar
Rezerv kapitali	200 000	10, 0	Xavflarni qoplash manbai
Taqsimlanmagan foyda	300 000	15, 0	Ichki moliyalashtirish manbai

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xususiy kapital tarkibida ustav kapitalining ulushi yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu holat korxonaning moliyaviy mustaqilligi va investorlar ishonchining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ustav kapitalining yuqori ulushi korxonaga uzoq muddatli faoliyat yuritish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish va tashqi moliyaviy xavflarga bardosh berish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, qo‘shimcha kapitalning mavjudligi korxonaga qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb etilganligini anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, korxonaning kengayish va modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xorijiy investorlar tomonidan kiritilgan qo‘shimcha mablag‘lar ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash, innovatsiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Rezerv kapitali korxona faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy risklarni qoplashda muhim himoya mexanizmi hisoblanadi. U iqtisodiy beqarorlik sharoitida korxonaning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, zararlarni qoplash, majburiyatlarni bajarish va kutilmagan xarajatlarni moliyalashtirish imkonini beradi.

Amaliyotda xususiy kapital hisobini yuritishda quyidagi muammolar uchraydi:

- xalqaro standartlar bilan milliy hisob tizimi o‘rtasidagi tafovutlar;
- valyuta kursi farqlari hisobini yuritishdagi murakkabliklar;
- moliyaviy hisobotlarda shaffoflik darajasining yetarli emasligi;
- kapital tarkibini tahlil qilishning sustligi.
- Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etiladi:
- IFRS asosida moliyaviy hisobotlarni yuritish;
- zamonaviy buxgalteriya dasturlaridan foydalanish;
- kapital harakatini doimiy monitoring qilish;
- ichki audit tizimini rivojlantirish.
- Shuningdek, korxonalarda boshqaruv hisobi tizimini rivojlantirish orqali xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xususiy kapital hisobi nafaqat buxgalteriya hisobi tizimining muhim elementi, balki korxonaning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish strategiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xususiy kapitalning to‘g‘ri shakllantirilishi va samarali boshqarilishi korxonaning uzoq muddatli faoliyatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xususiy kapital tarkibini tahlil qilish va uni optimallashtirish orqali korxona moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, ustav kapitali, qo‘shimcha kapital va taqsimlanmagan foyda o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash korxonaning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy sharoitda xususiy kapital hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va korxonaning xalqaro moliya bozorlarida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Kelgusida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xususiy kapital hisobini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilishi zarur:

- raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish;
- moliyaviy tahlil usullarini chuqurlashtirish va prognozlash mexanizmlarini rivojlantirish;
- korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- kapital samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish.

Shuningdek, xususiy kapitalni boshqarishda strategik yondashuvni qo‘llash, resurslardan oqilona foydalanish va risklarni samarali boshqarish orqali korxonaning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Umuman olganda, xususiy kapital hisobini takomillashtirish nafaqat korxona ichki faoliyatini yaxshilashga, balki mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, korxonalar raqobatbardoshligi oshadi va ularning xalqaro bozordagi mavqei mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son Qonuni. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” (yangi tahriri).
3. Tohirovich Q. N. (2021). Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o‘tish dolzarbligi. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 1(2), 56–64.
4. Ermatov, A. (2023). Xususiy kapital hisobi va uning moliyaviy barqarorlikka ta’siri. *Moliya va bank ishi ilmiy jurnali*, (2), 60–68.
5. Kunduzova, K. I. (2022). Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo‘nalishlari. *Farg‘ona davlat texnika universiteti ilmiy axborotnomasi*, (4), 70–75.
6. Mahmudov, A. M. (2020). *Korxona iqtisodiyoti*. – Toshkent: Iqtisodiyot.

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti
e-mail: akmaljon.ermatov@fstu.uz

BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TARIXI: MUSTAQILLIK DAVRIDAN BUGUNGACHA

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimining tarixiy rivojlanishi mustaqillik davrigacha bo‘lgan bosqichdan boshlab hozirgi zamonaviy holatigacha kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida markazlashgan iqtisodiyot sharoitida amal qilgan hisob tizimi hamda bozor iqtisodiyoti talablariga mos holda shakllangan zamonaviy model o‘zaro solishtiriladi. Shuningdek, milliy standartlarning joriy etilishi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga integratsiya jarayoni va raqamli texnologiyalarning ta’siri ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. buxgalteriya hisobi, mustaqillik davrigacha bo‘lgan hisob tizimi, iqtisodiy transformatsiya, BHMS, IFRS, moliyaviy hisobot, raqamlashtirish, iqtisodiy islohotlar

Kirish. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy tizimning axborot tayanchi sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilish, nazorat qilish va boshqarish jarayonlarida muhim o‘rin egallaydi. Uning rivojlanish darajasi bevosita mamlakat iqtisodiy tizimining shakli va rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liqdir. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimi ham tarixiy omillar ta’sirida shakllanib, turli davrlarda turlicha vazifalarni bajargan.

Mazkur tizimni ilmiy jihatdan tahlil qilish uni ikki yirik bosqichga ajratishni talab etadi: mustaqillik davrigacha bo‘lgan davr va mustaqillikdan keyingi davr. Birinchi bosqichda buxgalteriya hisobi markazlashgan boshqaruv tizimiga xizmat

qilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda u bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida rivojlandi. Ushbu maqolaning maqsadi ana shu evolyutsion jarayonni tahlil qilish va uning asosiy tendensiyalarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism. Mustaqillik davrigacha bo‘lgan davrda buxgalteriya hisobi tizimi qat’iy markazlashgan mexanizm asosida tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlarini davlat tomonidan nazorat qilishdan iborat edi. Bu davrda xo‘jalik yurituvchi subyektlar mustaqil qaror qabul qiluvchi birlik sifatida emas, balki yagona iqtisodiy tizimning tarkibiy elementi sifatida faoliyat yuritgan. Shu sababli buxgalteriya hisobi ham mustaqil boshqaruv vositasi emas, balki yuqori tashkilotlarga axborot yetkazib beruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lgan [1].

Mustaqillik davrida buxgalteriya hisobini shakllanish bosqichlarini asosan uch bosqichga bo‘lish mumkin:

1-bosqich. O‘tish davri (1990-yillar). 1991-yilda mustaqillikka erishilgach, O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘ta boshladi. Bu esa turli mulkchilik shakliga asoslangan iqtisodiyot bo‘lganligi sababli buxgalteriya hisobini tubdan isloh qilishni talab qildi. Hisob jarayonini me’yoriy-huquqiy hujjatlarini shakllantirishda eng muhim hujjatlardan biri — 1996-yil qabul qilingan **“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun** bo‘ldi.

Bu qonun:

- hisob yuritishning yangi tamoyillarini belgiladi;
- moliyaviy hisobotning maqsadini aniqladi;
- xalqaro standartlarga moslashuvni boshladi.

2-bosqich. Milliy standartlar shakllanish davri (2000-yillar).

Bu davrda:

- Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) joriy etildi;
- hisob tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilindi;
- kichik biznes uchun soddalashtirilgan hisob tizimi yaratildi.

Natijada:

- hisob tizimi moslashuvchan bo‘ldi;
- korxonalar mustaqil hisob siyosatini yurita boshladi.

3-bosqich. Xalqaro integratsiya (2010-yillardan hozirgacha)

So‘nggi yillarda:

- IFRS (xalqaro moliyaviy hisobot standartlari)ga o‘tish boshlandi;
- raqamli buxgalteriya (1C, ERP tizimlari) keng joriy qilindi;
- elektron hisobot tizimlari rivojlandi.

Bu davrning asosiy xususiyatlari:

- shaffoflik;
- investorlar uchun ochiqlik;
- real qiymatga asoslangan baholash.

Hisob tizimi yagona schyotlar rejasi va qat’iy belgilangan me’yoriy hujjatlar asosida yuritilgan. Bu esa barcha korxonalarda hisob yuritishning bir xil shaklda amalga oshirilishini ta’minlagan bo‘lsa-da, ularning real iqtisodiy holatini aks ettirish imkoniyatini cheklab qo‘ygan. Chunki baholash tizimi asosan tarixiy qiymatga asoslangan bo‘lib, bozor narxlari, inflyatsiya yoki talab-taklif omillari

hisobga olinmagan. Natijada moliyaviy hisobotlar koʻproq formal xarakterga ega boʻlgan va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yetarli darajada samarali vosita boʻla olmagan [2].

Mustaqillikka erishilgach, mamlakat iqtisodiyotida tub oʻzgarishlar yuz berdi va bozor munosabatlariga oʻtish boshlandi. Bu jarayon buxgalteriya hisobini ham yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. 1996-yilda qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida"gi qonun yangi hisob tizimining huquqiy asosini yaratdi. Ushbu hujjatga muvofiq, buxgalteriya hisobi nafaqat nazorat vositasi, balki moliyaviy axborotni shakllantirish va undan foydalanish tizimi sifatida qayta talqin qilindi [3].

Keyingi bosqichda buxgalteriya hisobining milliy standartlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Bu esa hisob yuritish jarayonining moslashuvchanligini oshirib, korxonalarga oʻz hisob siyosatini mustaqil shakllantirish imkonini berdi. Shu bilan birga, kichik va oʻrta biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan hisob tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy faollikni ragʻbatlantirdi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada oshgan boʻlib, bu hisob tizimining moslashuvchanligini talab qilgan [4].

Soʻnggi yillarda buxgalteriya hisobi tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda. IFRS standartlariga oʻtish jarayoni moliyaviy hisobotlarning xalqaro darajada taqqoslanishini taʼminlab, investorlar uchun ishonchli axborot manbaini yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hisob jarayonlarini avtomatlashtirish, tezkorlikni oshirish va inson omilini kamaytirishga xizmat qilmoqda [5].

Umuman olganda, mustaqillik davrigacha boʻlgan hisob tizimi bilan zamonaviy tizim oʻrtasidagi asosiy farq ularning funksional yoʻnalishida namoyon boʻladi. Birinchi tizim nazoratga yoʻnaltirilgan boʻlsa, ikkinchisi axborot, tahlil va boshqaruvga xizmat qiluvchi kompleks tizim sifatida shakllangan.

Xulosa. Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda buxgalteriya hisobi tizimi oddiy hisob-kitob va nazorat funksiyalarini bajaruvchi mexanizmdan bosqichma-bosqich rivojlanib, zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beradigan murakkab axborot tizimiga aylandi. Mustaqillik davrigacha boʻlgan davrda shakllangan markazlashgan yondashuv oʻz vaqtida iqtisodiy tizim ehtiyojlariga mos boʻlgan boʻlsa-da, u bozor iqtisodiyoti sharoitida samarasiz ekanligi namoyon boʻldi.

Mustaqillikdan keyingi islohotlar natijasida buxgalteriya hisobi tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarildi. Xususan, uning funksiyalari kengayib, u nafaqat moliyaviy operatsiyalarni qayd etuvchi vosita, balki boshqaruv qarorlarini asoslovchi strategik instrumentga aylandi. Milliy standartlarning joriy etilishi, IFRSga oʻtish jarayoni va raqamlashtirish kabi omillar ushbu tizimning samaradorligini oshirdi.

Shu bilan birga, kelgusida buxgalteriya hisobining rivojlanishi bir qator ustuvor yoʻnalishlarga bogʻliq boʻladi. Jumladan, xalqaro standartlarga toʻliq integratsiyalashuvni taʼminlash, malakali kadrlar tayyorlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va hisob tizimining shaffofligini yanada oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida

buxgalteriya hisobi sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan uyg‘unlashib, yangi rivojlanish bosqichiga o‘tishi kutilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimining evolyutsiyasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, uning izchil rivojlanishi kelgusida iqtisodiy barqarorlik va investitsion jozibadorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sokolov Y. V. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. — Moskva, 1988.
2. Horngren C. Accounting Theory and Practice. — London, 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunlari, 1996-2016 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. 1996-2025 yillar. https://stat.uz/uz
5. Акбаралиевич, Э.А. & Махамадзикировна Г.М. (2022). Совершенствование Учета Собственного Капитала В Условиях Перехода На Мсфо. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(12), 8–16. https://doi.org/10.51699/cajitmf.v3i12.378.

Sherimbetov Inomjon,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Audit” kafedrasi dotsenti, PhD
e-mail. inom23@gmail.com

MOLIYAVIY HISOBOTLAR SIFATI VA STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobotlar sifati va ularning xalqaro hamda milliy standartlarga muvofiqligi masalalari tahlil qilinadi. Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, shaffofligi va foydalanuvchilar uchun foydaliligi korxona faoliyatini baholashda muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib beriladi. Shuningdek, hisobotlarni tuzishda buxgalteriya hisobi standartlariga rioya qilish, ma’lumotlarning haqqoniyligi va taqqoslanish imkoniyati muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot sifati, buxgalteriya hisobi milliy standartlari, ichki nazorat tizimi, buxgalteriya axborot tizimi.

Kirish. Tadbirkorlik subyektlari ijobiy faoliyat natijalariga erishishda sifatli moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun ularni takomillashtirish ham zarurdir. Korporativ moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligi buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tayyorlangan hamda o‘z vaqtidalik tamoyillariga javob beradigan korporativ moliyaviy hisobdorlik hisobotlarini taqdim etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlarning sifati deganda, taqdim etilgan hisobotlarda ma’lumotlarning qay darajada ishonchli va xolis aks ettirilishi tushuniladi.

Kompaniyaning moliyaviy hisobotlaridagi ma’lumotlar sifati buxgalteriya hisobi standartlariga rioya qilinishiga ahamiyatli darajada bog‘liqdir. Shuningdek, moliyaviy hisobotlar yuqori sifat uchun standartlarga muvofiq bo‘lishi shartligiga qaramasdan, amaliyotda hisobotlarning hali ham standartdan past darajada ekanligi aniqlanmoqda.

Asosiy qism. Ishonchli moliyaviy hisobotlar sifatiga e’tibor qaratish muhimdir, chunki u davlat tashkilotlarida boshqaruv samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sifatli moliyaviy hisobotlar korporativ halollik bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega. Davlat regulyator sifatida jamoatchilikka taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni tartibga solishga va nazorat qilishga intiladi. Indoneziyada davlat moliya boshqaruvini samarali tashkil etish yo‘lidagi urinishlardan biri — bu davlat buxgalteriya hisobi standartlarini qo‘llagan holda tayyorlangan hukumat moliyaviy hisobotlarini taqdim etishdir. Davlat buxgalteriya hisobi standartlari — sifatli moliyaviy hisobotlarni olish uchun qo‘llanilishi majburiy bo‘lgan buxgalteriya tamoyillaridir [1].

Ichki nazorat tizimi ham mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy hisobotlari sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ichki nazorat tizimi buxgalteriya hisobida samaradorlik va natijadorlikka erishishda, ayniqsa, sifatli moliyaviy hisobotlarni yaratishda ishonchni ta’minlaydi. Mahalliy hokimiyat organlari moliyaviy hisobotlarining yuqori sifati ichki nazoratning qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi bilan ham belgilanadi.

Boshqa tomondan, sifatli moliyaviy hisobotlarni yaratuvchi omillardan biri buxgalteriya axborot tizimidir. Buxgalteriya axborot tizimi — bu moliyaviy ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash natijasida olingan moliyaviy axborotni taqdim etish uchun tashkil etilgan inson va kapital resurslari majmuasidir. Moliyaviy hisobotlar ishonchli kirish ma’lumotlari, sifatli jarayonlar va sifatli natijalar asosida shakllanadi. Ushbu uch jihat mustahkam moliyaviy hisobdorlik tizimining asosi sifatida o‘zaro integratsiyalashgan va uzluksiz bo‘lishi kerak. Ichki nazorat sifati va buxgalteriya axborot tizimlari sifatini moliyaviy hisobotlar sifatining katalizatori sifatida baholaydilar.

Jensen va Mekling agent va prinsipial o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni tavsiflaganlar. Mulkdor agent sifatida biznesni boshqarish uchun rahbariyatga vakolat beradi, natijada agent mulkdorga qaraganda kengroq ko‘lamdagi axborot va ma’lumotlarni nazorat qiladi. Axborot va ma’lumotlarga egalik qilishdagi ushbu tafovut odatda axborot assimetriyasi deb ataladi va u ma’lumotlarni oshkor qilish nazariyasi bilan keng bog‘liqdir [2].

Kompaniya egalari bo‘lgan prinsipiallar kompaniya faoliyatining sifatli oshkor etilishini talab qiladilar, chunki ular kompaniyaga sarmoya kiritadilar. Mulkdorning prinsipial sifatidagi nuqtai nazaridan qaraganda, ishonch bildirilgan agent boshqacha iqtisodiy tushunchaga amal qiladi deb taxmin qilinadi. Oxir-oqibat, ular faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlaydilar.

Agentlar mulkdorning kutilmalariga mos kelmaydigan yoki mulkdor uchun zararli bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilishni xohlamaydilar, natijada yillik moliyaviy hisobotlarda bo‘lishi kerak bo‘lgan raqamlarni manipulyatsiya qilish va o‘zgartirishga moyillik yuzaga keladi [3].

Moliyaviy hisobot rahbariyat tomonidan ma’lumotlarni oshkor qilishga yordam beradigan signal sifatida taqdim etiladigan axborot shakllaridan biridir. Sifatli moliyaviy hisobotlar deganda, o‘zida to‘rtta xususiyatni, ya’ni o‘rinlilik, ishonchlilik, qiyoslanuvchanlik va tushunarlilikni mujassam etgan tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar tushuniladi. Buxgalteriya hisobi standartlari sifatli moliyaviy hisobotlarni taqdim etish bo‘yicha namunaviy ko‘rsatmalardir. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda qo‘llaniladigan buxgalteriya tamoyillari hisoblanadi.

Buxgalteriya axborot tizimlari biznes jarayonlaridan buxgalteriya ma’lumotlarini qabul qiluvchi, ularni tegishli yozuvlarda qayd etuvchi hamda ushbu ma’lumotlarni tasniflash, umumlashtirish, konsolidatsiya qilish va ichki hamda tashqi foydalanuvchilar uchun hisobot ko‘rinishida taqdim etish orqali batafsil qayta ishlovchi jarayonlar, protseduralar va tizimlarni qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha buxgalteriya axborot tizimi — bu kompaniyani boshqarishni osonlashtirish maqsadida rahbariyatga zarur bo‘lgan moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish uchun muvofiqlashtirilgan shakllar, yozuvlar va hisobotlar tashkilidir.

Bundan tashqari, buxgalteriya axborot tizimining to‘rtta asosiy indikatori mavjud bo‘lib, bular: o‘z vaqtidalik darajasi, moslashuvchanlik darajasi, xarajatlar samaradorligi darajasi va audit qilinuvchanlik darajasidir. Moliyaviy hisobotlar xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy resurslarini boshqarish bo‘yicha hisobdorlik shakliga aylanadi.

Moliyaviy hisobotlar yuqori sifatli bo‘lishi, o‘tgan davrdagi hisobotlar hamda boshqa kompaniyalar ko‘rsatkichlari bilan qiyoslanuvchan bo‘lishi uchun amaldagi buxgalteriya standartlari asosida tayyorlanishi shart. Bugungi kunda sifatli va ishonchli moliyaviy hisobotlarga ehtiyoj juda yuqori. Sifatli moliyaviy hisobotlarning ko‘plab afzalliklari qatoriga ixtiyoriy ravishda ma’lumotlarni oshkor qilishni oshirish, manfaatdor tomonlarga naf keltirish, kompaniya hajmi va o‘sishiga kelajakda ijobiy ta’sir ko‘rsatish va boshqa ijobiy natijalarni kiritish mumkin.

Bizning fikrimizcha moliyaviy hisobotlarning sifati — bu mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan, talab qilinadigan minimal mezonlarga javob beradigan yoki ulardan yuqori bo‘lgan dinamik holatdir. Moliyaviy hisobotlar kompaniyaning moliyaviy holati to‘g‘risidagi hisobdorlik shakli bo‘lib, u rejalashtirish va qaror qabul qilishda asosiy manba sifatida foydalanish uchun maqbul tarzda tayyorlanadi.

Buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayoni uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va ularni taqdim etishda izchillikni ta’minlaydi. Buxgalteriya standartini qo‘llash moliyaviy hisobdorlikda moliyaviy natijalarni tavsiflovchi buxgalteriya ma’lumotlarini oshkor qilishdagi ahamiyati bilan bog‘liqdir. Buxgalteriya standartlarini qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad sifatli moliyaviy hisobotlarni olishdir [4].

Bizning fikrimizcha garchi ko‘pchilik buxgalteriya standartlaridan foydalanish ma’lumotlarning oshkor qilinishini oshiradi va axborotni yanada simmetrik qiladi deb hisoblansada, amalda mavjud standartlar ba’zan teskari ta’sir

ko‘rsatishi ham mumkin. Ya’ni, buxgalteriya standartlari moliyaviy hisobotlarning axborot mazmunini kamaytirishi, ularni yanada qat’iy qilib qo‘yishi va ma’lumotlarni oshkor qilish cheklangan xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha tashkilotlarda ichki nazorat tizimining samara yo‘lga qo‘yilishi moliyviy hisobot sifatiga sezilarli ta’sir o‘tkazishi mumkin. Ichki nazorat tizimi maqsadlarga erishish yo‘lida mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni tahlil qilish va aniqlashni osonlashtirish uchun zarurdir, bu esa o‘z navbatida maqsadlarga erishilganligini aniq belgilash imkonini beradi. Samarali ichki nazoratni joriy etish ichki nazoratning o‘zi haqidagi ma’lumotlarning oshkor qilinishini rag‘batlanriradi. Bu moliyaviy hisobotlar sifatini ijobiy tomonga oshiradi va korporativ boshqaruvning yuksalishi bilan tavsiflanadigan moliyaviy bozor samaradorligini oshiradi.

Buzning fikrimizcha moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda buxgalteriya qoidalari asosiy tamoyillar sifatida qo‘llanilishi shart. Buning natijasida, moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining qaror qabul qilish vositasi sifatida foydalaniladigan moliyaviy ma’lumotlarga bo‘lgan ishonchi ortadi.

Moliyaviy hisobotlar sifatini oshirishga to‘g‘ri tashkiliy tuzilmani tanlash, uslub va o‘lchovlar, aniqlik va ishonchlilik, samaradorlikni oshirish hamda ichki nazorat tizimini o‘lchash vositasi sifatida qoidalarga rioya qilish kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, rahbariyat xodimlarning mavjud qoidalarga ongli ravishda va samarali rioya qilishlariga hamda o‘z vazifalarini bajarishda tejamkorlikka (samaradorlikka) intilishlariga alohida e’tibor qaratishi lozim. Bu shuning uchun ta’kidlanmoqdaki, ushbu ikki element samarali ichki nazorat tizimini belgilashda eng yuqori yuklama omiliga ega bo‘lib, muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Moliyaviy hisobot xalqaro va milliy standartlari rahbariyat uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda ushbu standartlardan foydalanish ma’lumotlarning qiyoslanuvchanlik xususiyatini ta’minlaydi, buxgalteriya ma’lumotlarini oshkor qilish muhimligini ko‘rsatib beradi va axborotni yanada simmetrik holga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida moliyaviy hisobotlarning sifati va ishonchliligini oshiradi.

Ichki nazorat — bu tashkilot maqsadlariga erishishda oqilona ishonchni ta’minlash maqsadida subyektning direktorlar kengashi, rahbariyati va boshqa xodimlari ta’sirida amalga oshiriladigan siyosatdir. Samarali ichki nazoratni joriy etish nazorat tizimining o‘zi haqidagi ma’lumotlarning oshkor qilinishini yaxshilaydi, moliyaviy hisobotlar sifatini oshiradi va korporativ boshqaruvning yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot, shuningdek, ichki nazorat tizimi moliyaviy hisobotlar sifatiga ijobiy va sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Buxgalteriya axborot tizimi moliya bilan bog‘liq faoliyatda ma’lumotlarni qayta ishlash va axborot hisobdorligini ham qo‘lda, ham kompyuterlashtirilgan usulda amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Buxgalteriya axborot tizimining hozirgi kundagi talqini buxgalteriya hisobi asoslariga tayanadi hamda hisobotlarning aniqligi, o‘z vaqtidaligi va biznes muhitidagi tezkor o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanadi. Bayon etilgan natijalarga ko‘ra, mazkur agentlikning Atrof-muhitni rejalashtirish

buxgalteriya axborot tizimi moliyaviy hisobotlar sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ushbu natijaning sababi — xodimlarning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish zarurligidir; shu sababli ham tizim moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmadi.

Tadqiqot natijalari sifatli moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun buxgalteriya standartlarini qo'llash va samarali ichki nazorat tizimlarini joriy etish ustidan doimiy monitoring olib borish muhimdir.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, rahbariyat inson resurslarini sifatli moliyaviy hisobotlarni tayyorlashdagi muhim aktiv deb bilishi lozim. Shu sababli, xodimlarning kompyuter savodxonligini oshirish bo'yicha treninglar o'tkazish, moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda yuqori samaradorlikka erishish uchun zarurdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yaxti:

1. Mentu, E., and Sondakh, J. J. (2016). Penyajian Laporan Keuangan Daerah Sesuai Peraturan Pemerintah No.71 Tahun 2010 Tentang Standar Akuntansi Pemerintahan Pada Dinas Pendapatan Daerah Dan Dinas Sosial Prov. Sulut. *Jurnal EMBA*, 4(1), 1392–1399.

Santoso, B., Widodo, W., Muhammad, T. A., Khaliq, A., & Rahmat, H. S. (2022). The Determinant of Sukuk Rating: Agency Theory and Asymmetry Theory Perspectives. *Risks, 10*(8), 150.

3. Abdalmuttaleb Musleh Al-Sartawi, A., & Reyad, S. (2018). Signaling theory and the determinants of online financial disclosure. Journal of Economic and Administrative Sciences, 34(3), 237–247. https: //doi.org/10.1108/JEAS-10-2017-0103

4. Nirwana, and Haliah. (2018). Determinant Factor of the Quality of Financial Statements and Performance of the Government by Adding Contextual Factors: Personal Factor, System/ Administrative Factor: Quality of Financial Statements. *Asian Journal of Accounting Research*, 3(1), 28-40.

Yahyoyev To'lqin Ismatulla o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsent v.b., PhD.

QURILISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish korxonalarida moliyaviy hisob va boshqaruv tahlilini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Qurilish ishlari tasnifi, ularning hisobini yuritish hamda iqtisodiy tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida qurilish xizmatlarini ikki turga ajratish hamda ularning hisobini alohida yuritish taklif etilgan. Ushbu yondashuv boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: qurilish korxonalari, moliyaviy hisob, boshqaruv tahlili, xalqaro standartlar, iqtisodiy tahlil, buxgalteriya hisobi, qurilish xizmatlari.

Kirish. Aholi sonining muntazam oshib borishi, yashash sharoitining muntazam ravishda yaxshilashga intilishi va bir oiladan yosh oilalarning uzluksiz ajralib borishi barcha mamlakatlarda uy-joyga bo‘lgan talabning katta tezlikda oshib borishiga olib kelmoqda.

Mamlakatlarda faoliyat yuritib borayotgan biznes obyektlarining asosiy vositasiz, xususan, bino-inshootsiz (o‘z balansida yoki ijara asosida) faoliyat olib borolmaydi.

Rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar ma’lum darajada rivojlanish darajasini qurilish obyektlari asosida ko‘rsata oladi. Yuqoridagi jarayonlar tufayli mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichida qurilish sohasining ulushi har doim yuqori hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki qurilish rivojlangan, rivojlanayotgan hamda qoloq davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida birdek muhim tarmoq hisoblanadi.

Ushbu mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyot manbalari tahlili, qurilish sohasida fundamental tadqiqotlar qatorida I.S.Stepanova, Arens E.A., Dj.K. Lobbek, Serov V.M., Gurkov I.B singari xorijiy olimlarning, M.K.Pardayev, N.T. Tuxliyev, E.V. Golesheva, M. Miraxmedov, A.A.Eshtayev, K.B.Urazov, singari mahalliy iqtisodchi olimlarning qurilish sohasidagi turli masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar [1-5].

Asosiy qism. Iqtisodiyotda ikki subyekt o‘rtasida amalga oshiriladigan savdo hamda xizmat ko‘rsatishga asos bo‘luvchi hujjat bu shartnoma hisoblanadi.

11-son BHXS “Qurilish shartnomalari” bo‘yicha qurilish shartnomasiga quyidagicha ta’rif berilgan.

Qurilish shartnomasi — biron bir aktivni yoki o‘zining loyihasi, texnologiyasi va vazifasi yoki yakuniy foydalanish maqsadi bo‘yicha o‘zaro aloqador va bir biriga chambarchas bog‘liq aktivlar guruhini qurish uchun maxsus kelishilgan shartnomadir. Ushbu standart bo‘yicha qurilish korxonalari tomonidan tuziladigan qurilish shartnomalari ikki turga ajratilgan.

Narxi qat’iy belgilangan shartnoma

- qat’iy belgilangan narxga yoki qurilish ishlarining birligiga qat’iy belgilangan stavkaga (bu stavka ba’zi hollarda xarajatlar o‘zgarishi sababli qayta ko‘rib chiqiladi) pudratchi rozi bo‘lgan qurilish shartnomasidir

“Xarajatlar plyus” shartnomasi

- bunday shartnomaga ko‘ra pudratchiga yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan yoki boshqacha qilib oldindan belgilangan xarajatlar va ularga qo‘shimcha ushbu xarajatlar summasining ma’lum foizi yoki qat’iy belgilangan mukofot summasi qoplanadi

1-rasm. 11-son BHXS bo‘yicha qurilish shartnomalari.

Alabatta tuzilgan qurilish shartnomasida keltirilishi lozim bo‘lgan birlamchi rekvizitlar, bajariladigan qurilish ishining hajmi, bajarilish muddati, buyurtmachi hamda pudratchining huquq va majburiyatlari, nizoli masalalarni hal qilish yo‘llari keltirilgan bo‘lishi shart.

1-jadval

Xalqaro standartlar asosida bajarilgan qurilish xizmatlari hisobini yurutishda foydalanilishi taklif qilingan schyotlar tizimi.

Hisob ko‘rsatkichlari	Schyot nomeri	Schyot nomi
Ko‘rsatilgan xizmat tannarxi yig‘ilishi	2010	Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar tannarxi yig‘ilishi
	2020	Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxi yig‘ilishi
Ko‘rsatilgan xizmat tannarxi	9131	Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar tannarxi
	9132	Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxi
Ko‘rsatilgan xizmat daromadi	9031	Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar dan olingan daromadlar
	9032	Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlardan olingan daromadlar

Milliy standartlar bo‘yicha qurilish shartnomalarida umumiy bajariladigan qurilish ishlari sifati shartnoma predmeti ko‘rsatib o‘tiladi, ammo xalqaro standart bo‘yicha qurilish shartnomasi predmeti sifatida qurilish ishlari 2 xil tasniflanadi:

1. Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatish yuzasidan shartnomalar;
2. Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan shartnomalar, va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash shartnomalari.

Bundan kelib chiqadiki buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga ko‘ra qurilish ishlarining hisobi ham aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni hisobi hamda aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan shartnomalar, va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bilan bog‘liq qurilish xizmatlari hisobi sifatida yurutiladi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarning tub negizida barcha iqtisodiy sohalarni uzluksiz rivojlantirib borish hamda barcha iqtisodiy sohalar bo‘yicha jahon bozorida o‘z o‘rnini egallash yotadi.

Jahon bozoriga chiqish uchun esa albatta dastlab iqtisodiyotning barcha indekatorlarini, koʻrsatkichlarini hamda hisob yuritish tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish talab etiladi. Bu borada hisob yuritish hamda qurilish tizimini isloh qilish boʻyicha bir muncha islohatlar amalga oshirilmoqda.

Bundan kelib chiqadiki qurilish sohasida hisobni yuritish, qurilish korxonalarining iqtisodiy jihatini baholash, xalqaro standartlarga asoslangan hisob maʼlumotlari asosida tahlil qilish muhim masala hisoblanadi.

Olib borilgan tahlillar natijasida qurilish korxonalarida amalga oshiriladigan qurilish ishlarini tasniflashda yangi hisob obyekti yaratilish xususiyatiga koʻra 2 turga ajratish taklif qilindi.

1. Aktivning qurilishi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan xizmatlar;
2. Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash boʻyicha koʻrsatiladigan xizmatlar.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqgan holda qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish jarayonida ushbu ikki turdagi qurilish xizmatlari hisobi alohida aktivning qurilishi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan xizmatlar hamda aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash boʻyicha koʻrsatiladigan xizmatlar sifatida yuritilishi taklif qilindi.

Hisob yurutish jarayonida 21-son BHMS dan foydalanilsa hamda hisob yuritishda schyotlar tizimi saqlab qolingan boʻlsa quyidagi schyotlar tizimi ochilishi hamda foydalanishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori, 2020 yil 24 fevral, PQ-4611-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish – montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari” toʻgʻrisidagi PQ-4586 sonli qarori-06.02.2020.
3. Экономика строителства: Учебник / под общей ред. И.С.Степанова.- 3-е изд., доп. и перераб. — М.: Юрайт-Издат, 2004..
4. Аренс Э.А., ДЖ.К. Лоббек. Аудит. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2001.
5. Гусева М.И., Коготкова И.З. Маркетинг в строителстве. Учебное пособие.(Серия «Высшая школа»). – М.: Книжный мир, 2011.

Савинова Галина Анатолевна,
Ферганский государственный технический университет,
старший преподаватель кафедры "Финансы и бухгалтерский учет".
e-mail: g.savinova@ferpi.uz.
Холмуродова Муслимахон Нуритдин кизи,
Студент группы 68-22BH и Ar
Ферганского государственного технического университета

ЭВОЛЮЦИЯ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, ЭКОНОМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА И АУДИТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (В КОНТЕКСТЕ УСТАВНОГО КАПИТАЛА)

Аннотация. Развитие системы бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита в Республике Узбекистан представляет собой сложный и многоуровневый процесс институциональной трансформации, обусловленный переходом от административно-командной модели хозяйствования к рыночной экономике. В данном контексте особое значение приобретает уставный капитал как фундаментальная категория финансового учета, отражающая имущественную основу хозяйствующего субъекта и выступающая важнейшим элементом собственного капитала организации.

Ключевые слова: уставный капитал, собственный капитал, бухгалтерский учет, экономический анализ, аудит, финансовая устойчивость, инвестиционная привлекательность, институциональные преобразования.

Введение. Современный этап развития экономики Республики Узбекистан характеризуется углублением рыночных преобразований и интеграцией в мировую экономическую систему. В этих условиях особую значимость приобретает совершенствование системы бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита как ключевых инструментов управления финансово-хозяйственной деятельностью предприятий.

Одним из базовых элементов финансовой структуры организации выступает уставный капитал, отражающий совокупность вкладов учредителей и определяющий имущественную основу функционирования хозяйствующего субъекта. Его формирование, учет и анализ имеют принципиальное значение для оценки финансовой устойчивости и инвестиционной привлекательности предприятия.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью комплексного рассмотрения эволюции учетно-аналитической системы в Узбекистане с позиции изменения роли и значения уставного капитала в условиях внедрения международных стандартов финансовой отчетности и развития института аудита.

Основная часть. Согласно Закону Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» от 13 апреля 2016 года № ЗРУ-404, объекты бухгалтерского учета включают доходы, расходы, прибыль и убытки, которые подлежат синтетическому и аналитическому учету [1].

Эволюция системы бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита в Республике Узбекистан представляет собой закономерный процесс

институциональных преобразований, обусловленных переходом к рыночной экономике. В рамках данного процесса трансформировались как методологические основы учета, так и практические механизмы финансового контроля.

В дореформенный период бухгалтерский учет носил централизованный характер и выполнял преимущественно контрольные функции. Учетная система была ориентирована на обеспечение выполнения плановых показателей, а экономический анализ ограничивался оценкой производственных результатов. В этих условиях уставный капитал не рассматривался как самостоятельная экономическая категория.

С обретением независимости начался этап формирования национальной учетной системы, основанной на принципах рыночной экономики. Уставный капитал приобрел статус ключевого элемента собственного капитала, отражающего имущественные отношения между участниками предприятия. Его величина стала рассматриваться как важнейший показатель финансовой устойчивости и независимости хозяйствующего субъекта.

Современный этап развития характеризуется углублением процессов гармонизации национальной системы учета с требованиями Международные стандарты финансовой отчетности, что обусловлено необходимостью интеграции экономики Узбекистана в глобальное экономическое пространство. Применение международных стандартов способствует повышению прозрачности финансовой отчетности, сопоставимости данных и укреплению доверия со стороны инвесторов.

В рамках концепции IFRS уставный капитал рассматривается как составная часть собственного капитала, отражаемая в разделе equity финансовой отчетности [2]. Особое внимание уделяется вопросам признания, оценки и раскрытия информации о капитале, включая структуру долей участников, изменения в капитале и операции с собственными инструментами. В рамках IFRS уставный капитал рассматривается как элемент собственного капитала, отражаемый в финансовой отчетности предприятия. Особое внимание уделяется вопросам его признания, оценки и раскрытия информации, что повышает достоверность отчетных данных.

Экономический анализ уставного капитала представляет собой важнейший инструмент оценки финансового состояния предприятия. Он включает исследование динамики капитала, его структуры, а также расчет ключевых финансовых коэффициентов, таких как коэффициент автономии, финансовой зависимости и обеспеченности собственными средствами. Высокий уровень уставного капитала, как правило, свидетельствует о финансовой устойчивости предприятия, его способности противостоять внешним рискам и привлекать инвестиционные ресурсы. Экономический анализ уставного капитала предполагает исследование его структуры, и позволяет оценить уровень финансовой устойчивости предприятия, степень его независимости от заемных источников финансирования и потенциал привлечения инвестиций.

Особую значимость приобретает анализ соотношения собственного и заемного капитала, позволяющий определить уровень финансового риска. В данном контексте уставный капитал выступает базой для формирования

финансовой стратегии предприятия, включая принятие решений о привлечении заемных средств, реинвестировании прибыли и распределении дивидендов.

Аудит уставного капитала является неотъемлемым элементом системы финансового контроля. Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» от 25 февраля 2021 г. № ЗРУ-677 [3] . Его основная цель заключается в подтверждении достоверности информации о собственном капитале, отраженной в бухгалтерской отчетности, а также в оценке соответствия операций действующему законодательству.

Аудит уставного капитала направлен на подтверждение законности его формирования и достоверности отражения в бухгалтерской отчетности. Развитие аудиторской деятельности в Узбекистане способствует повышению доверия к финансовой информации и снижению рисков для инвесторов и других заинтересованных сторон.

Заключение. Таким образом, эволюция системы бухгалтерского учета, экономического анализа и аудита в Республике Узбекистан отражает процесс адаптации национальной экономики к условиям рыночного хозяйствования.

Уставный капитал, являясь ключевым элементом собственного капитала предприятия, выполняет важнейшие функции в обеспечении финансовой устойчивости, инвестиционной привлекательности и эффективного управления.

Совершенствование механизмов учета, анализа и аудита уставного капитала в условиях внедрения международных стандартов является необходимым условием повышения конкурентоспособности отечественных предприятий и их интеграции в мировую экономику.

Список использованных источников

1. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» от 13 апреля 2016 г. № ЗРУ-404.

2. Международные стандарты финансовой отчетности. – London: IFRS Foundation.

3. Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» от 25 февраля 2021 г. № ЗРУ-677.

Fozilov Xayot Raximovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: hayotbek.fozilov@fstu.uz
Mamasoliyeva Rohila Sharofiddin qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi.

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TAHLIL FANINING PAYDO BO‘LISHI VA SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining paydo bo‘lishi, shakllanishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy islohotlar asosida takomillashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro standartlarga integratsiyalashuv jarayonlari va raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlilning rivojlanish istiqbollari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, evolyutsiya, xalqaro standartlar, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt

KIRISH. Tarixdan ma’lumki, iqtisodiy tahlil fanining paydo bo‘lishida buxgalteriya hisobi fani asos bo‘lib xizmat qiladi. Dastlab buxgalteriya hisobi so‘ng esa uning asosida iqtisodiy tahlil fani vujudga kelgan. O‘zbekiston hududida buxgalteriya hisobining rivojlanishi sovet davri iqtisodiy tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, markazlashgan reja iqtisodiyotiga xizmat qilgan. Sobiq ittifoq davrida iqtisodiy tahlil faqatgina korxonalarda reja bajarilishini nazoerat monitoring qilishga yo‘naltirilgan edi xolos. Vaqt o‘tib esa uning maqsadi va vazifalari tobora kengayib, iqtisodiy tahlil xo‘jalik faoliyatini baholash vositasi sifatida shakllanib, balans, daromad va xarajatlar tahliliga asoslangan holda rivojlandi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiyotda tub islohotlar amalga oshirildi. Milliy buxgalteriya hisobi tizimining shakllantirilganligi, yangi hisob siyosati va standartlari ishlab chiqilganligi iqtisodiy tahlilga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur davrda iqtisodiy tahlil korxona faoliyatini samaradorlik nuqtai nazaridan baholashga yo‘naltirildi. Korxonalarda foyda, rentabellik, likvidlik kabi ko‘rsatkichlar asosiy tahlil obyektiga aylandi. Iqtisodiy tahlil ham zamonaviy usullar bilan boyitilib, moliyaviy ko‘rsatkichlarni prognozlash va risklarni boshqarish imkoniyatlari kengaydi. [1]

ASOSIY QISM. O‘zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi hamda rivojlanishi 1931- yilda Toshkent moliya-iqtisod institutining tashkil topishi bilan chambarchas bog‘liq. Mana shu davrdan xalq xo‘jaligining moliya sohasi hamda tarmoqlari iqtisodiy jihatdan tahlil qilinib o‘rganilgan. Dastlab iqtisodiy tahlil fani alohida predmet bo‘lib ajralib chiqmagan bo‘lsa-da, uning usullari va uslublaridan boshqa fanlarda ya’ni moliya, kredit, buxgalteriya hisobi fanlarida iqtisodiy tahlil elementlari keng ko‘lamda qo‘llanilgan. 1950-yillargacha xo‘jalik faoliyati tahlili buxgalteriya hisobi fani tarkibida o‘qitilgan. 1950-yillardan keyin xo‘jalik faoliyati tahlili alohida fan tarzida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitila boshlagan.1970-yilda samarqandlik olimlar I.T. Abdukarimov, B.A. Zalesskiy va N.I. Toporovskiy tomonidan Moskvaning «Экономика» nashriyotida «Matlubot kooperatsiyasi korxona va tashkilotlari xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha masalalar to‘plami» o‘quv qo‘llanmasi chop etildi. Bu fan bo‘yicha o‘zbek tilida darsliklar paydo bo‘la boshladi. 1973-yilda «O‘qituvchi» nashriyotida N.A. Xan tomonidan tayyorlangan «Qishloq xo‘jalik korxonalari xo‘jalik faoliyatining analizi» nomli oliy o‘quv yurtlari uchun darslik chop etildi.[2]

1973-yilda prof. I.T. Abdukarimov va dots. M.Q. Pardayevlar tomonidan «Kooperativ savdoda mehnat ko‘rsatkichlari tahlili» nomli kitobi Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. Bu bilan o‘zbekistonlik olimlar tematik tahlil rivojlanishiga yana bir qutlug‘ qadam qo‘ydilar. 1979-yilda O. Mahmudovning «Qishloq xo‘jalik korxonalarining xo‘jalik faoliyatini analiz qilish» nomli o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmasi o‘zbek tilida chop etildi. Bu darslik va o‘quv qo‘llanmalar respublikamizda iqtisodiy tahlilning taraqqiyoti va istiqboli uchun qo‘yilgan ilk qadamlar edi.

1984-yilda I. T. Abdukarimov tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darslik Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. 1989 yil yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to‘ldirilgan variantida yangidan nashr qilindi. O‘zbekistonlik olimlar tahlilning yangi shakli – kompleks tahlil usullarini ishlab chiqishga kirishdi. Natijada 1983-yilda professor I.T.Abdukarimov tahririda M.Q. Pardayev va Yu.S. Sattarovlar tomonidan tayyorlangan «Chakana savdoda mehnat samaradorligini kompleks baholash» bo‘yicha uslubiy tavsiya yuzaga keldi. 1989-yilda I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev, A.A. Abdiyev va V.I. Abdukarimovlar tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish» mavzusida o‘zbek tilida darslik vujudga keldi. U Toshkentdagi «O‘qituvchi» nashriyotida chop etildi. Bu darslikdagi ko‘p iqtisodiy atamalar o‘zbek tilida yozildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi.

Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qildi. 1991-yilda I.T. Abdukarimov, M.Q. Pardayev va Sh.U. Haydarovlar hamkorlikda «Yangi xo‘jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar tahlili» risolasini chop etdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tizimlari iqtisodiyotni samarali boshqarishning muhim instrumentlari hisoblanadi. Ushbu tizimlar korxonalarning moliyaviy holatini baholash, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy qarorlar qabul qilishda asosiy axborot manbai vazifasini bajaradi. [3, 5]

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyin iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va xalqaro integratsiya jarayonlari buxgalteriya hisobi va tahlil tizimini tubdan isloh qilishni talab etdi.Buxgalteriya hisobi insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, dastlab oddiy hisob-kitob va ro‘yxat yuritish shaklida vujudga kelgan. Tarixiy rivojlanish jarayonida u quyidagi bosqichlarni bosib o‘tgan:

- oddiy yozuv shakli;
- ikkiyoqlama yozuv tizimi;
- jurnal-order va memorial-order tizimlari;
- avtomatlashtirilgan hisob tizimlari.

Ma’lumki, iqtisodiy tahlil korxona boshqaruvi va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda islohotlar jarayonida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotda iqtisodiy tahlilning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati va amaliyotda duch kelinayotgan muammolarni hal qilish yo‘llari tahlil qilinadi.Raqamli texnologiyalar iqtisodiy tahlilda tub o‘zgarishlar olib kelmoqda. An’anaviy tahlil o‘rnini avtomatlashtirilgan tizimlar egallab, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiy tahlil tizimiga sezilarli yangilik va qulayliklarni olib kirdi. Jumladan:

- sun’iy intellekt;
- blokcheyn texnologiyasi;
- Big Data;

- bulutli hisoblash tizimlari

Ushbu sohalarning rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada hisob-kitoblar avtomatlashtirilmoqda, inson omili bilan bog‘liq xatolar kamaymoqda, iqtisodiy tahlil jarayonlari tezlashmoqda hamda real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Sun’iy intellekt – inson tafakkuriga xos vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan algoritmlar va dasturiy tizimlar majmuasidir. Sun’iy intellekt ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, firibgarlikni aniqlash, soliq tushumlarini prognozlash, risklarni baholash kabi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi: Masalan, mashinaviy o‘qitish algoritmlari katta hajmdagi tranzaksiyalarni tahlil qilib, shubhali operatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Sun’iy intellekt, kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatini takrorlash qobiliyatidir. Bu texnologiyalar yordamida dasturiy ta’minotlar, ma’lumotlar bazalari va analitik vositalar orqali katta miqdordagi ma’lumotlarni qayta ishlash va qarorlar qabul qilish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Raqamli iqtisodiyot esa, internet va axborot texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy tizimlarni anglatadi. U iqtisodiy faoliyatlarning ko‘p qismini raqamlashtirilgan formatda amalga oshiradi. Shu o‘rinda sun’iy intellektning afzalliklari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Su’niy intellekt, monoton va takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali ishchi kuchini tejaydi va samaradorlikni oshiradi. [4]

XULOSA. O‘zbekistonda iqtisodiy tahlilni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhimdir. Shuningdek, xalqaro standartlarni to‘liq joriy qilish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va korxonalar shaffofligini ta’minlash yo‘lida qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Iqtisodiy tahlil tizimi rivoji investitsion jozibadorlikni oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Hisob-kitob va tahlil jarayonida raqamli transformatsiya samaradorlikni oshirish va xatoliklarni kamaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Fikrimizcha , ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun xodimlarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha davlat ko‘magini kuchaytirish, kichik korxonalar uchun qulay va arzon dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish kabi vazifalarni tezlik bilan hal etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy tahlil fani uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Mustaqillikdan keyingi davrda ushbu soha tubdan isloh qilinib, zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirildi. Bugungi kunda esa xalqaro standartlarga o‘tish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu tizimlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘ylaymizki, kelajakda ham tahlil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil.

2. M.Y.Raximov, N.N.Mavlanov N.N.Kalandarova; Iqtisodiy tahlil. Darslik.– T.: “Iqtisod-Moliya”, 2022.

3. Косорукова И. В., Мощенко О. В., Усанов А. Ю. «Экономический анализ»: Учебник для бакалавриата и магистратури.– Москва: Университет «Синергия», 2021. – 360 с.
4. Abdullayeva N.A. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri. – Journal of New Century Innovations, 2025.
5. Pardayev.M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. 2-nashr.– T.: “Innavatsion rivojlanish nashriyot uyi”, 2021.-588 b.

Yakubov Valijon Ganiyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: v.yakubov@ferpi.uz.
Arabboyeva Fotimaxon Abdugafirovnai,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, talabasi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT: HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlili va audit tizimining hozirgi holati, iqtisodiy islohotlar sharoitida buxgalteriya hisobini takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish, mavjud muammolar, hisobotlarning shaffofligini ta’minlash, innovatsion yondashuvlar, raqamlashtirish jarayonlari, buxgalteriya hisobini korxonalarning samarali boshqaruvida tutgan o‘rni, hamda ularning amaliyotdagi ahamiyati, axborot texnologiyalardan foydalanish darajasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, moliyaviy hisobot, raqamlashtirish.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tizimlari alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga bosqichma-bosqich o‘tish, audit sifatini oshirish, raqamli hisobot tizimlarini joriy etish, ichki nazorat va tahlil mexanizmlarini kuchaytirish kabi yo‘nalishlarda yangi bosqichni boshlab berdi. 2025-yil 15-sentyabrdagi Prezidentning PQ-282-sonli qarori bilan moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga moslashtirishning yangi bosqichi belgilab berildi. 2025-yil davomida buxgalteriya va audit sohasida metodologik kengash tashkil etildi. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestri va ularga qo‘yiladigan hisobot-audit talablari tasdiqlandi. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy tahlil va audit tushunchasi hamda o‘zaro bog‘liqligi quyidagicha:

Buxgalteriya hisobi-xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mol-mulki, majburiyatlari, kapitali, daromadlari, moliyaviy xarajatlari va moliyaviy natijalari

haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayd etish, umumlashtirish va moliyaviy hisobot shaklida taqdim etish tizimidir. Buxgalteriya hisobining vazifalari asosan: xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish, aktiv va majburiyatlarni hisobga olish, moliyaviy natijalarni aniqlash, soliq bazasini shakllantirish, boshqaruv uchun axborot taqdim etish, investor, kreditor va davlat organlari uchun ishonchli hisobotni tayyorlashdir. Chunki, ushbu uch yo‘nalish korxona va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy natijalarini to‘g‘ri aks ettirish, resurslardan samarali foydalanishni baholash hamda boshqaruv qarorlarini asoslashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Buxgalteriya hisobining boshqaruv tizimi va bozor munosabatlarini rivojlantirishdagi asosiy funksiyalardan biri axborot bilan ta’minlash funksiyasi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi axborot foydalanuvchilarni o‘z vaqtida, to‘liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta’minlashdir. O‘zbekiston respublikasida buxgalteriya hisobi tizimi davlat tomonidan tartibga solinadi va quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga tayanadi:

- O‘zbekiston respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi”gi Qonuni;
- Milliy buxgalteriya hisobi standartlari;
- Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS);
- Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar;
- soliq va moliya hisobotga oid qonunchilik hujjatlari.

Mazkur hujjatlar buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish, ularni taqdim etish va nazorat qilish tartibini belgilab beradi. Hozirgi amaliyotda buxgalteriya hisobi ikkita asosiy yo‘nalishda Milliy standartlar va Xalqaro standartlari asosida yuritiladi. 1.Milliy standartlar asosida hisob yuritish ya’ni, ko‘plab kichik va o‘rta biznes subyektlari milliy buxgalteriya hisobi standartlari faoliyat yuritadi. Bu usul amaliyotda ancha soddaroq bo‘lib, kichik korxonalar uchun qulay hisoblanadi. 2.Xalqaro standartlari asosida yuritish, bunda yirik korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, banklar, sug‘urta kompaniyalari va investorlar bilan faol ishlovchi tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) asosida hisob yuritish bosqichlar bilan joriy etilmoqda. Bu jarayon quyidagi afzalliklarni beradi:

- Moliyaviy hisobotlarning xalqaro darajada tushunarli bo‘lishi;
- Xorijiy investorlarning ishonchini oshishi;
- Korporativ sifatining yaxshilanishi;
- Moliyaviy shaffoflikni ortishidadir.

Bu bilan birga hozirgi kungacha kelib ijobiy o‘zgarishlar kuzatilib kelinmoqda. Elektron buxgalteriya tizimlari kengaytirilmoqda, ERP va boshqa avtomatlashtirilgan dasturlar qo‘llanilmoqda, elektron hujjat aylanishi rivojlanmoqda. Hisobotlar elektron shakllarda topshirilmoqda, xalqaro standartlarga mos hisobot shakllari takomillashmoqda. Bu holat har qanday korxona va tashkilotlarda ma’lumotlarning taniqlilik darajasini yuqorilatib, tezkorligi va shaffofligini oshirmoqda. Lekin buxgalteriya hisobi sohalarida mavjud muammolar ham bor. Kichik korxonalarda malakali buxgalterlarning yetishmasligi, xalqaro standartlarini amaliyotda qo‘llashdagi qiyinchiliklar, ayrim

korxona va tashkilotlarda hisob siyosatining noto‘g‘ri yuritilishi, moliyaviy hisobot va soliq hisobi o‘rtasidagi chalkashliklar, ichki nazoratning sustligi, dasturiy ta’minotlardan to‘liq foydalana olmaslik. Bu muammolarni yechimi navbati bilan hal etilmoqda. Biroq, shunga qaramay ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Buxgalteriya hisobi iqtisodiy tahlil va audit sohalarini yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin. Buxgalteriya hisobi bo‘yicha, kichik biznes uchun soddalashtirilgan, hisob siyosatini to‘g‘ri va aniq yuritish, uslubiy qo‘llanmalarni ko‘paytirish, Iqtisodiy tahlilda esa, korxonalarda chuqur omilli tahlilni joriy etish, KPIva BI tizimlarini qo‘llashni kengaytirish, tahlil natijalarini bevosita boshqaruv qarorlariga bog‘lash bo‘lsa, Audit tekshiruvida, auditorlik tashkilotlarining texnik uslubiy bazasini mustahkamlash, ichki audit tekshiruvini barcha korxonalarda tashkil etish, audit tekshiruvi bo‘yicha Malaka oshirish kabi tavsiyalar berilishi kerak.

Xulosa: Bugungi yoritib bermoqchi bo‘lgan mavzuimiz bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizda buxgalteriya hisobi sohasida xalqaro standartlarga o‘tish, audit tizimini takomillashtirish, iqtisodiy tahlilning amaliy rolini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kadrlar malakasi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va tahlilning boshqaruvdagi rolini oshirish kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kelajakda ushbu sohalarni rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, korxonalarning raqobatbardoshliligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash xalqaro iqtisodiy maydonda mamlakat nufuzini yanada yuksaltirish eng oldi maqsadlardan biridir. Shu sababli buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tizimlarini yaxshilash keng joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. WWW.lex.uz Rasmiy manba qonunchilik ma’lumotlari bo‘yicha
2. Ziyadullaeva. N “Buxgalteriya hisobi va audit” sohasidagi ishlohotlar Toshkent nashriyoti
3. Ltipov.S “Auditorlik faoliyatida yangi qoidalar” www.norma.uz 2018
4. Soalimov.Sh Iqtisodiy tahlil Toshkent: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
5. Karimov.A Buxgalteriya hisobi asoslari Toshkent: oliy ta’lim uchun
6. Tojiboyeva.R Audit nazariyasi va amaliyot Toshkent: Oliy ta’lim uchun
7. www.lex.uz Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi PQ_282-son qaror 2025 yil

Asatullayeva Shaxnoza Muxtarovna
Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: shaxnozaasatullayeva75@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ILMIY MAKTABLARNING ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishda ilmiy maktablarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, milliy buxgalteriya hisobi metodologiyasini shakllantirish, ilmiy yondashuvlar asosida kadrlar tayyorlash hamda xalqaro standartlarga moslashuv jarayonida ilmiy maktablarning hissasi yoritiladi. Shuningdek, yetakchi olimlarning ilmiy merosi va ularning amaliyotga ta’siri asosida tizimni takomillashtirish istiqbollari baholanadi.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, ilmiy maktablar, iqtisodiy tahlil, audit, milliy hisob tizimi, hisob siyosati, moliyaviy hisobot.

Kirish. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimi iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Mustaqillik yillarida milliy hisob tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va amaliyotga joriy etish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu jarayonda nafaqat normativ-huquqiy bazaning rivojlanishi, balki ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi fanining metodologik asoslarini boyitish va uni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishda ilmiy izlanishlar yetakchi rol o‘ynadi [1].

Buxgalteriya hisobi sohasida ilmiy maktablarning shakllanishi va rivojlanishi milliy iqtisodiyot ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning faoliyati orqali hisob tizimini modernizatsiya qilish imkoniyatlari kengaydi. Ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar, hisob siyosatini shakllantirish bo‘yicha takliflar hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashuv jarayonidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar tizimning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, ilmiy maktablar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ham muhim o‘rin egallab, buxgalteriya hisobi va audit sohasida professional kadrlar zaxirasini shakllantirishga sezilarli hissa qo‘shdi [2].

Bugungi kunda global iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish, uni xalqaro amaliyot talablariga moslashtirish va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bu borada ilmiy maktablarning roli yanada ortib, ular tomonidan ishlab chiqilayotgan ilmiy-nazariy qarashlar va innovatsion yondashuvlar tizimni barqaror rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shuningdek, ilmiy merosni chuqur o‘rganish va uni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish orqali buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilash mumkin [3].

Asosiy qism. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimining shakllanishi va rivojlanishi bevosita ilmiy maktablar faoliyati bilan bog‘liq. Ilmiy maktablar hisob tizimining nazariy asoslarini ishlab chiqish, amaliyotga mos metodologiyalar yaratish hamda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirishda muhim rol

o‘ynaydi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda milliy buxgalteriya hisobi tizimini yaratish va uni bosqichma-bosqich takomillashtirish jarayonida ilmiy yondashuvlarning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar orqali hisob siyosatini shakllantirish, moliyaviy hisobotni tuzish va tahlil qilish metodlari takomillashtirildi.

Shuningdek, ilmiy maktablar buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida muhim vositachi sifatida namoyon bo‘lmoqda. MHXS (IFRS)ga o‘tish jarayonida ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy maqolalar orqali amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar yechimi ta’minlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy hisob tizimining shaffofligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ilmiy maktablarning yana bir muhim vazifasi – buxgalteriya hisobi va audit sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashdir. Ular tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari va ilmiy-uslubiy materiallar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Quyidagi 1-jadvalda ilmiy maktablarning buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishdagi asosiy yo‘nalishlari va ularning amaliy natijalari keltirilgan:

1-jadval

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishda ilmiy maktablarning asosiy yo‘nalishlari va ularning amaliy natijalari

Yo‘nalish	**Ilmiy maktablar hissasi**	**Amaliy natijalar**
Metodologiya rivoji	Hisobning nazariy asoslarini ishlab chiqish	Hisob siyosati takomillashdi
Xalqaro standartlarga moslashuv	MHXS asosida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish	Moliyaviy hisobot sifati oshdi
Ta’lim tizimi	O‘quv dasturlari va ilmiy adabiyotlar yaratish	Malakali kadrlar tayyorlandi
Tahlil va audit	Zamonaviy tahlil va audit usullarini ishlab chiqish	Boshqaruv qarorlari sifati oshdi
Raqamlashtirish	Axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar	Hisob jarayonlari avtomatlashtirildi

Ilmiy maktablarning yana bir muhim yo‘nalishi – bu buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni tahlil qilish va tezkor qarorlar qabul qilish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilayotgan raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan hisob tizimlari va sun’iy intellektga asoslangan yechimlar buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Natijada, ilmiy maktablar nafaqat nazariy bilimlarni rivojlantiradi, balki ularni amaliyotga joriy etish orqali milliy buxgalteriya hisobi tizimini barqaror va raqobatbardosh darajaga olib chiqishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish jarayonida ilmiy maktablarning o‘rni strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni

ko‘rsatadiki, ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy yondashuvlar milliy hisob tizimining shakllanishi va takomillashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, hisob siyosatini ishlab chiqish, moliyaviy hisobotlarni standartlashtirish va iqtisodiy tahlil usullarini rivojlantirishda ilmiy maktablarning hissasi yuqori baholanadi. Shu bilan birga, ularning faoliyati orqali buxgalteriya hisobi tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi va amaliyot bilan uyg‘unlashuvi ta’minlanmoqda.

Bundan tashqari, ilmiy maktablar tomonidan tayyorlanayotgan ilmiy kadrlar va yaratilayotgan o‘quv-uslubiy materiallar sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Shu jihatdan, ilmiy maktablar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning ilmiy ishlanmalarini amaliyotga keng joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish ilmiy maktablar faoliyatini kuchaytirish bilan bevosita bog‘liq. Mavjud muammolarni bartaraf etish, hisob tizimini xalqaro talablarga moslashtirish va uning amaliy samaradorligini oshirish uchun aniq yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy choralar zarur. Ayniqsa, metodologik asoslarni yangilash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, quyida keltirilgan takliflar buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishda ilmiy maktablarning rolini kuchaytirish, ularning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda sohada mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlarni qamrab oladi.

1. Ilmiy maktablar faoliyatini institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularning ilmiy loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish.
2. Buxgalteriya hisobi sohasida xalqaro standartlar (MHXS) asosida ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish.
3. Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy maktablar asosida maxsus ilmiy-amaliy laboratoriyalar tashkil etish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash.
4. Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishida raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni rag‘batlantirish.
5. Ilmiy maktablar va amaliyotchi mutaxassislar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlash.
6. Ilmiy merosni tizimli o‘rganish va uni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish orqali yangi ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirish.
7. Yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish va xalqaro ilmiy maydonga chiqishini ta’minlash.
8. Buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishga oid ilmiy natijalarni normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda keng qo‘llash.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish jarayonida ilmiy maktablar hal qiluvchi

omillardan biri hisoblanadi. Ular tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy asoslar, ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar hamda amaliy tavsiyalar hisob tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish, hisobning shaffofligi va ishonchliligini ta’minlashda ilmiy maktablarning hissasi sezilarli darajada namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy muhitda yuzaga kelayotgan yangi talablar ilmiy maktablar oldiga yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyot bilan integratsiyalash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kelgusida ilmiy maktablar faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish va amaliyot bilan uzviy bog‘lash orqali buxgalteriya hisobi tizimining barqarorligi, raqobatbardoshligi hamda xalqaro maydondagi o‘rni mustahkamlanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishiga va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Epstein, Barry J., and Eva K. Jermakowicz. *IFRS 2021: Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards*. Hoboken: Wiley, 2021.

2. Needles, Belverd E., Marian Powers, and Susan Crosson. *Principles of Accounting*. Boston: Cengage Learning, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish konsepsiyasi*. Toshkent, 2020.

4.Sirojiddinov, I. Q., va I. A. Isomuxamedov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Namangan: Sunrise-pro nashriyoti, 2026.33-36-betlar

5. Muradova, N. R. Moliyaviy hisobot. Namangan: Sunrise-pro nashriyoti, 2026.279-282-betlar.

Muradova Nazira Raximjanovna
Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi o‘qituvchisi,
e-mail: iakbarjon@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA AUDIT FAOLIYATINING SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda audit faoliyatining shakllanish jarayoni va uning zamonaviy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillikdan keyingi davrda audit tizimining institutsional asoslari, normativ-huquqiy bazasining shakllanishi hamda xalqaro standartlarga moslashuv

jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, audit faoliyatining iqtisodiy islohotlar bilan uzviy bog‘liqligi, uning moliyaviy shaffoflikni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: audit, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit faoliyati, moliyaviy hisobot, auditorlik tekshiruvi, raqamli audit, audit risklari, institutsional rivojlanish

Kirish. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlari chuqurlashgani sari xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy intizomni ta’minlash, ishonchli axborot shakllantirish va iqtisodiy qarorlar sifatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, audit faoliyati iqtisodiyotning ajralmas instituti sifatida shakllanib, korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini baholash, investorlar va manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashda muhim vositaga aylandi. Ayniqsa, global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida milliy audit tizimini xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bu esa audit faoliyatining shakllanish tarixini, uning rivojlanish bosqichlarini hamda zamonaviy yo‘nalishlarini chuqur o‘rganishni talab etadi[1].

Mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekistonda audit faoliyati bosqichma-bosqich rivojlandi. Dastlabki yillarda audit tizimi asosan tashqi nazorat funksiyasini bajaruvchi mexanizm sifatida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik uning vazifalari kengayib, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, ichki nazorat tizimlarini baholash hamda boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarni qamrab oldi. Shu bilan birga, audit faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza yaratildi, auditorlik tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi va xalqaro audit standartlariga moslashuv jarayonlari boshlandi[2]. Bu jarayonlar milliy audit tizimining institutsional jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Hozirgi kunda audit faoliyati nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki korxona boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim tahliliy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida audit jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi, ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash imkoniyatlari audit sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, ichki audit tizimining rivojlanishi, risklarga asoslangan audit yondashuvining keng qo‘llanilishi va xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritish zarurati ushbu sohaning istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar tahlil qilinib, audit faoliyatining shakllanishi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari ilmiy asosda yoritiladi[3].

Asosiy qism. O‘zbekistonda audit faoliyatining shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo‘lib, bu jarayon mamlakat iqtisodiy tizimidagi islohotlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan.

Dastlab audit tizimi davlat nazorati shaklida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida mustaqil auditorlik faoliyati shakllana boshladi[4]. Ayniqsa, 1990-yillardan boshlab auditorlik xizmatlariga ehtiyoj ortib, korxonalar faoliyatining shaffofligini ta’minlash va investorlar ishonchini oshirish asosiy

maqsadlardan biriga aylandi. Shu davrda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki huquqiy asoslar yaratildi.

1-jadval

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining me’yoriy-huquqiy rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Davr	Mazmuni va asosiy xususiyatlari
I-bosqich	1990–1999 yillar	Ushbu davrda auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari shakllana boshladi. 1992-yilda “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi dastlabki qonun qabul qilinib, milliy audit tizimining poydevori yaratildi. Shu bilan birga, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki milliy standartlarni ishlab chiqish ishlari yo‘lga qo‘yildi.
II-bosqich	2000–2017 yillar	Audit faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bosqichi hisoblanadi. 2000-yilda qonunning yangi tahriri qabul qilinib, auditorlik xizmatlarining huquqiy va tashkiliy asoslari mustahkamlandi. Auditorlik tashkilotlari faoliyati kengaydi, milliy audit standartlari tizimi shakllandi va ularni xalqaro talablarga moslashtirish jarayoni boshlandi.
III-bosqich	2018 yildan hozirgacha	Zamonaviy rivojlanish bosqichi bo‘lib, audit tizimini tubdan isloh qilish bilan tavsiflanadi. Prezident qarorlari va yangi qonunchilik hujjatlari asosida auditorlik faoliyati takomillashtirildi. Xalqaro audit standartlarini (ISA) amaliyotga joriy etish, auditorlarni sertifikatlash tizimini rivojlantirish, ichki va tashqi audit sifatini oshirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, audit jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bosqichi boshlandi.

Keyingi bosqichda audit faoliyatining institutsional rivojlanishi kuzatildi. Auditorlik tashkilotlari soni oshdi, professional auditorlar tayyorlash tizimi shakllandi hamda xalqaro tajribani joriy etish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi. Ayniqsa, xalqaro audit standartlariga (ISA) moslashuv jarayoni milliy audit tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu esa audit sifatini oshirish, tekshiruv natijalarining ishonchliligini ta’minlash va global moliyaviy muhit bilan integratsiyani kuchaytirishga xizmat qildi.

Zamonaviy bosqichda audit faoliyati sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida audit jarayonlarida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, sun’iy intellekt va analitik platformalardan foydalanish kengayib bormoqda. Bu esa auditorlik tekshiruvlarining aniqligi va tezkorligini oshirib, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, ichki audit

tizimining rivojlanishi korxonalarda risklarni boshqarish, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2-jadval

O‘zbekistonda audit faoliyatining shakllanish bosqichlari

Bosqichlar	Davr	Asosiy xususiyatlari
1-bosqich: Dastlabki shakllanish	1991–2000 yy.	Audit faoliyatining boshlanishi, huquqiy baza yaratilishi, dastlabki auditorlik tashkilotlari tashkil etilishi
2-bosqich: Institutsional rivojlanish	2000–2010 yy.	Auditorlik xizmatlari kengayishi, kadrlar tayyorlash tizimi rivoji, milliy standartlar joriy etilishi
3-bosqich: Integratsiya va modernizatsiya	2010–2020 yy.	Xalqaro audit standartlariga o‘tish, audit sifatini oshirish, ichki audit tizimi rivoji
4-bosqich: Raqamli transformatsiya	2020 yildan hozirgacha	Raqamli texnologiyalarni joriy etish, riskga asoslangan audit, avtomatlashtirilgan audit tizimlari

Audit faoliyatining zamonaviy rivojlanishida quyidagi asosiy omillar muhim rol o‘ynaydi:

Shu bilan birga, audit faoliyatida hali ham mavjud muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, ayrim hollarda auditorlarning malaka darajasi yetarli emasligi, ichki audit tizimlarining to‘liq shakllanmaganligi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi audit samaradorligini cheklab kelmoqda. Bu esa kelgusida audit tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro tajribalarni keng joriy etish va auditorlik faoliyatini raqamlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Audit tizimi iqtisodiyotni shaffof yuritish va moliyaviy intizomni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli auditorlik tashkilotlari va auditorlar sonining o‘zgarishi ushbu sohaning rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. 2018–2024 yillar kesimida auditorlik faoliyatiga oid statistik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mamlakatda audit tizimining kengayish sur’atlari, institutsional rivojlanish darajasi hamda kadrlar salohiyatining o‘sish tendensiyalarini aniqlash mumkin. Ushbu davr ayniqsa audit sohasida islohotlar faollashgan, xalqaro standartlarga moslashuv jadallashgan bosqich sifatida tavsiflanadi[5].

3-jadval

Audit faoliyatining zamonaviy rivojlanish omillari

Omillar	Mazmuni	Ta’siri
Xalqaro standartlar (ISA)	Audit jarayonlarini yagona mezon asosida tashkil etish	Audit sifatini oshiradi, xalqaro ishonchni kuchaytiradi
Raqamli	Avtomatlashtirilgan audit, big	Tekshiruv tezligi va

texnologiyalar	data, sun’iy intellekt	aniqligini oshiradi
Ichki audit tizimi	Korxona ichidagi nazorat va risklarni boshqarish	Boshqaruv samaradorligini oshiradi
Normativ-huquqiy baza	Audit faoliyatini tartibga soluvchi qonun va qarorlar	Audit tizimining barqarorligini ta’minlaydi
Kadrlar salohiyati	Malakali auditorlar tayyorlash tizimi	Audit xizmatlari sifatini belgilaydi

Keltirilgan jadvalda auditorlik tashkilotlari soni hamda auditorlar sonining yillar kesimidagi dinamikasi aks ettirilgan bo‘lib, u audit faoliyatining rivojlanish yo‘nalishlarini baholash imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkichlar nafaqat audit xizmatlari bozorining kengayganligini, balki iqtisodiyotda nazorat va tahlil mexanizmlarining kuchayganligini ham ifodalaydi.

4-jadval

Auditorlik faoliyati ko‘rsatkichlarining dinamikasi (2018–2024 yillar)

Yil	Auditorlik tashkilotlari soni	Auditorlar soni
2018	98	576
2019	96	558
2020	99	572
2021	96	651
2022	126	881
2023	138	1003
2024	153	1154

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2018–2021 yillar davomida auditorlik tashkilotlari soni nisbatan barqaror bo‘lib qolgan. Jumladan, 2018-yilda 98 ta bo‘lgan tashkilotlar soni 2021-yilda ham 96 ta atrofida saqlanib qolgan. Bu davrda sezilarli o‘sish kuzatilmagan bo‘lsa-da, audit tizimi barqaror faoliyat yuritganini ko‘rish mumkin.

2022-yildan boshlab esa keskin o‘sish bosqichi boshlanadi. Auditorlik tashkilotlari soni 126 taga, 2023-yilda 138 taga va 2024-yilda 153 taga yetgan. Bu esa qisqa muddatda qariyb 1, 5 barobar o‘sishni anglatadi. Ushbu holat audit bozorining kengaygani, yangi subyektlar kirib kelgani va sohada raqobat kuchayganidan dalolat beradi.

Auditorlar soni bo‘yicha ham o‘xshash tendensiya kuzatiladi, biroq o‘sish sur’ati yanada yuqori. 2018-yilda 576 nafar auditor mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 1154 nafarga yetgan, ya’ni deyarli ikki barobar oshgan. Ayniqsa, 2022-yildan keyingi davrda auditorlar sonining keskin ko‘payishi kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanganini va audit xizmatlariga talab ortganini ko‘rsatadi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, auditorlar sonining o‘sish sur’ati auditorlik tashkilotlariga nisbatan tezroq. Bu esa har bir tashkilot tarkibida malakali mutaxassislar ulushi ortayotganini va audit xizmatlarining sifat jihatdan takomillashayotganini anglatadi.

Tahlil qilinayotgan davrda audit faoliyati barqarorlik bosqichidan o‘sish va kengayish bosqichiga o‘tgan. Ayniqsa, 2022-yildan keyingi davr audit tizimining

yangi rivojlanish bosqichi sifatida baholanadi. Bu esa mamlakatda moliyaviy shaffoflikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro standartlarga integratsiyalashuv jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekistonda audit faoliyati tarixiy shakllanish bosqichlaridan o‘tib, bugungi kunda zamonaviy, raqamli va xalqaro standartlarga mos tizim sifatida rivojlanib bormoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekistonda audit faoliyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu soha mamlakat iqtisodiy islohotlari bilan chambarchas bog‘liq holda evolyutsion tarzda rivojlangan. Dastlab nazorat funksiyasiga yo‘naltirilgan audit tizimi bugungi kunda moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta’minlovchi, boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi hamda investorlar ishonchini mustahkamlovchi muhim institutga aylangan. Ayniqsa, normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi va auditorlik faoliyatining institutsional jihatdan mustahkamlanishi ushbu tizimning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, audit faoliyatining zamonaviy bosqichida xalqaro audit standartlariga moslashuv, ichki audit tizimining rivojlanishi hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar audit sifatini oshirish, tekshiruvlarning samaradorligini ta’minlash va global moliyaviy tizim bilan integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, audit nafaqat nazorat vositasi, balki iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy shaffoflikni ta’minlovchi strategik instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kelgusida audit faoliyatini yanada rivojlantirish uchun bir qator ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur. Jumladan, auditorlar malakasini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ichki audit tizimini chuqurlashtirish va xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi. Shu asosda milliy audit tizimining samaradorligini oshirish, uning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlash va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2021 y

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022 y., 1-son

3. O.Masharipov. “Amaliy audit”.Toshkent. 2016-yil.450-462-betlar.

4.T.A.Ubaydullayev. “Mulkchilikning turli shakllarida auditorlik xulosasining nazariy-amaliy asoslari”. Monografiya. – Namangan .: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2026. – 101 bet.

5.www.imf.uz – (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy vebsayti).

Tajibaev Nawrizbay Koshkarbay ulı
First-year PhD student of Berdakh Karakalpak State University
e-mail: naurizbay2211@gmail.com

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE POULTRY INDUSTRY IN ENSURING FOOD SECURITY

Abstract: This article analyzes the role and importance of the poultry industry in ensuring food security. The nutritional value of poultry products, the sustainability of supplies, and the current state and economic potential of this sector in the republic will be considered.

Keywords: poultry farming, food safety, veterinary control, broiler chickens, and feed quality.

Entrance. Today, in the context of global demographic growth and limited natural resources, it is important to increase the volume of poultry production and develop poultry farming in our republic to ensure food security of the population, improve the living standards of the population, create new jobs and further improve farming [1].

The development of poultry farming is of particular importance in ensuring sustainable food security. Poultry farming is one of the fast-growing sectors of livestock farming, which allows the population to be provided with dietary meat and egg products. Poultry is kept not only for meat and eggs, but also for feathers. Today, poultry farming is recognized as a promising and main direction in animal husbandry. A number of reforms are being carried out in our country to develop the poultry industry.

Among them is the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev dated November 13, 2018 No. PP-4015 "On Additional Measures for the Further Development of Poultry Farming"[3]. The resolution defines priority tasks for the development of poultry farming. In particular, now, using the experience of foreign countries, poultry clusters are being created in all regions, covering the production of poultry, its processing, preparation of final products and delivery to the consumer (13 in 2019). Innovative technologies will be widely implemented here.

As a result of the reforms carried out in recent years to support poultry farming in Uzbekistan, the volume of production has increased significantly. According to the World Health Organization (WHO) standards, one person should consume 9-10 kg of poultry meat per year. In Uzbekistan, this indicator is growing rapidly. For example, by the end of 2025, Uzbekistan produced 9, 483 thousand eggs and 310.9 thousand tons of poultry meat, and during this period the permanent population amounted to 38, 236.7 thousand people[4], and this shows that there are 248 eggs and 8.13 kg of poultry meat per capita. With the following trend (Table 1), we can see that the growth is close to WHO standards.

Table 1

Analysis of the indicators of poultry farms in Uzbekistan over the past 5 years

No	**Indicators**	**2021**	**Share %**	**2025**	**Share %**	**Growth rate %**
1.	**Total number of birds (thousand heads)**	89734.4	100.	118, 652.6	100.	132.2
a.	Farms	15233.0	17.0	20514.7	17.3	134.7
b.	Dehkan (personal subsidiary) farms)	51788.5	57.7	48516.6	40.9	93.7
c.	Conducting agricultural activities	22712.9	25.3	49621.3	41.8	218.5
2.	**Egg production (million units)**	8053.1	100.0	9483.0	100.	117.8
a.	Farms	1203.8	15.	1622.1	17.1	134.7
b.	Dehkan (personal subsidiary farms)	4875.5	60.5	4967.6	52.4	101.9
c.	Conducting agricultural activities	1973, 8	24.5	2893.3	30.5	146.6

As can be seen from the table above, the indicators of poultry production are constantly increasing. In this case, the share of dehkan farms was considered large.

Poultry farming has several advantages over other livestock sectors:

For example, to gain 1 kg of live weight, poultry consume the least amount of feed compared to other animals.

Early maturation: Broiler chicks reach slaughter weight within 35-45 days.

Dietary properties: Chicken meat and eggs are rich in amino acids, vitamins, and minerals necessary for the human body, and are characterized by low cholesterol levels. [2]

To analyze the economic efficiency of a poultry enterprise, we will consider the following simplified model.

Problem: A farm raises 10, 000 broiler chicks.

The feed conversion coefficient (K_c) = 1.7 (i.e., 1.7 kg of feed per 1 kg of weight).

Average weight at the end of the ripening period (W) = 2.5 kg.

The cost of 1 kg of feed (P_f) = 6000 soums.

The wholesale price of meat (P_m) = 28, 000 soums.

Calculation:

Table 2

Total meat mass	10, 000	2.5kg	25000 kg.
Total feed consumption	25, 000	1.7kg	42, 500 kg
Feed expenses	42, 500 kg	6000 sum	25, 500, 000 soums.
Total revenue	25000 kg	28000	700, 000, 000 soums.

This calculation shows that feed costs account for approximately 36-40% of total income. This indicates high profitability compared to other types of livestock.

Analysis shows that there are some factors hindering the development of the industry:

1. The main part of breeding eggs and chicks is still imported from abroad.
2. The lack of refrigeration systems and storage facilities leads to seasonal price fluctuations.

Conclusion. Poultry farming is considered the most optimal area for ensuring food security. Through the introduction of intelligent management systems, it is possible to reduce feed losses and reduce import dependence through the development of breeding farms.

The development of poultry farming not only provides the population with cheap protein, but also serves the stability of the national economy by increasing export potential.

List of references:

1. R.D. DOSMURATOV, B.YU. MENGLIQULOV FUNDAMENTALS OF ACCOUNTING AND STATISTICS IN AGRICULTURE (Textbook) Tashkent - "Science and Technology" - 2014
2. JUNE 2025 WWW.PARRANDACHI.COM
3. Lex.uz
4. Stat.uz

Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich
Namangan davlat texnika universiteti
Buxgalteriya hisobi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: toxirjon1961@gmail.com

ZAMONAVIY BIZNES MUNOSABATLARI SHAROITIDA PUL MABLAG‘LARINI HISOBGA OLISHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy biznes munosabatlari sharoitida pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini hisobga olishning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda pul mablag‘larining korxona aktivlari tarkibidagi o‘rni, ularning yuqori likvidliligi, kassa va bank operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati yoritilgan. Shuningdek, bank hisobvarag‘ining iqtisodiy va huquqiy asoslari, pul mablag‘lari harakatini hujjatlashtirish tartibi, naqd pul muomalalari ustidan ichki nazoratni tashkil etish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pul mablag‘lari, pul ekvivalentlari, kassa operatsiyalari, bank hisobvarag‘i, buxgalteriya hisobi, kassa hujjatlari, moliyaviy nazorat

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes subyektlari faoliyatining uzluksizligi, to‘lovga qobiliyatliligi va moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan pul mablag‘lari harakatini to‘g‘ri tashkil etish hamda ularni samarali boshqarishga bog‘liq [5]. Pul mablag‘lari korxona aktivlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, boshqa aktivlarga nisbatan yuqori likvidlik xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi [6]. Aynan shu jihat ularni korxona xo‘jalik faoliyatida eng faol ishtirok etuvchi resursga aylantiradi.

Zamonaviy biznes munosabatlarining rivojlanishi, naqd va naqdsiz hisob-kitob shakllarining kengayishi, bank xizmatlari ko‘lamining ortishi hamda raqamli moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi pul mablag‘lari hisobini yuritishga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda [2]. Bunday sharoitda pul mablag‘lari kirimi va chiqimini o‘z vaqtida hujjatlashtirish, bank va kassa operatsiyalarini amaldagi tartiblarga muvofiq yuritish, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Pul mablag‘lari hisobi nafaqat korxonaning joriy to‘lov intizomini ta’minlaydi, balki mol yetkazib beruvchilar, iste’molchilar, byudjet, banklar va boshqa kontragentlar bilan hisob-kitoblarning to‘g‘ri yuritilishiga ham xizmat qiladi [1]. Shu sababli pul mablag‘lari hisobi va ichki nazorat tizimini ilmiy asosda o‘rganish, uning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri sanaladi.

Mazkur maqolada pul mablag‘lari hisobining iqtisodiy mazmuni, bank hisobvaraqlarining huquqiy asoslari, kassa operatsiyalarini rasmiylashtirish tartibi hamda pul mablag‘lari ustidan ichki nazorat tizimining asosiy yo‘nalishlari yoritiladi.

Asosiy qism. Pul mablag‘lari korxona faoliyatining uzluksizligini ta’minlovchi eng muhim iqtisodiy resurs hisoblanadi. Ular kassadagi naqd pullar, bank hisobvaraqlaridagi mablag‘lar, xorijiy valyutadagi mablag‘lar hamda pul

ekvivalentlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Korxonaning joriy to‘lovlari, mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblari, ish haqi to‘lovlari, soliqlarni to‘lash hamda boshqa operatsiyalar aynan pul mablag‘lari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli ularning hisobi aniqligi va ishonchliligi moliyaviy boshqaruv samaradorligining muhim sharti hisoblanadi.

Pul mablag‘lari hisobining asosiy vazifalari sifatida ularning harakatini o‘z vaqtida va to‘g‘ri hujjatlashtirish, kassadagi va bankdagi mablag‘lar qoldig‘ini nazorat qilish, hisob-kitob muomalalarining qonuniyligini ta’minlash, debitor va kreditor qarzdorliklarni monitoring qilish, qarzdorliklarning muddati o‘tib ketishining oldini olish kabilarni ko‘rsatish mumkin [1]. Ushbu vazifalar bevosita korxonaning moliyaviy intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pul mablag‘lari hisobi tizimida bank hisobvarag‘i alohida o‘rin tutadi. Bank hisobvarag‘i korxonaning naqdsiz hisob-kitoblari yuritiladigan muhim vosita bo‘lib, u orqali mablag‘larni qabul qilish, o‘tkazish, to‘lovlarni amalga oshirish hamda ayrim hollarda kredit va depozit operatsiyalarini aks ettirish mumkin [2]. Hisobvaraqning iqtisodiy mazmuni bilan uning huquqiy mazmuni o‘rtasidagi farqlarni anglash amaliyot uchun muhimdir. Chunki korxona nuqtai nazaridan bankdagi hisob-kitob schyoti aktiv sifatida qaralsa, bank nuqtai nazaridan u majburiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Kassa operatsiyalarini tashkil etish va hujjatlashtirish pul mablag‘lari hisobi tizimining yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Naqd pul mablag‘larining kassaga kelib tushishi kassa kirim orderi, kassadan chiqishi esa kassa chiqim orderi orqali rasmiylashtiriladi. Kassa kitobi yuritilishi, kirim va chiqim hujjatlarining o‘z vaqtida qayd etilishi, hujjatlarga tuzatishlar kiritilmasligi pul mablag‘lari hisobi ishonchliligini ta’minlaydi. Kassa intizomining buzilishi esa moliyaviy javobgarlik va jarimalarga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy biznes sharoitida pul mablag‘lari ustidan ichki nazorat tizimi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, pul mablag‘lari eng tez harakat qiluvchi va suiste’mol qilish ehtimoli yuqori bo‘lgan aktivlardan biridir. Shu bois ichki nazorat tizimi pul mablag‘larini alohida saqlash, hujjatlar asosida qabul qilish va berish, kutilmagan inventarizatsiya o‘tkazish, vakolatlarni taqsimlash, kunlik hisobotlarni shakllantirish kabi elementlarni qamrab olishi lozim. Aynan shu choralar pul mablag‘laridan noqonuniy foydalanish xavfini kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy biznes munosabatlari sharoitida pul mablag‘lari hisobi oddiy buxgalteriya jarayoni emas, balki moliyaviy boshqaruvning strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali tashkil etilishi korxonaning to‘lov intizomi, moliyaviy barqarorligi va xo‘jalik faoliyati natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy biznes munosabatlari sharoitida pul mablag‘lari harakatini samarali boshqarish va hisobini to‘g‘ri tashkil etish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Pul mablag‘lari harakati nafaqat joriy hisob-kitoblarni amalga oshirish, balki korxona likvidligini boshqarish, moliyaviy risklarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda pul mablag‘lari hisobini yuritishda asosiy muammolar quyidagilar bilan bog‘liq:

- kassa va bank operatsiyalarining to‘liq hujjatlashtirilmasligi;
- ichki nazorat tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- debitor va kreditor qarzdorliklar ustidan nazoratning sustligi;
- pul mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish holatlarining mavjudligi.

Shu nuqtai nazardan, pul mablag‘lari harakatining tahlili korxonaning moliyaviy holatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Korxonada pul mablag‘lari harakatining tarkibi va dinamikasi (shartli ma’lumotlar asosida)

Ko‘rsatkichlar	**2023 yil (mln so‘m)**	**2024 yil (mln so‘m)**	**2025 yil (mln so‘m)**	**O‘sish sur’ati (%)**
Kassa mablag‘lari	120	150	180	150%
Bank hisobvaraqlari	850	1020	1280	150.5%
Xorijiy valyutadagi mablag‘lar	300	420	600	200%
Pul ekvivalentlari	90	130	210	233%
Jami	**1360**	**1720**	**2270**	**167%**

Jadval tahlili:

Mazkur jadval ma’lumotlariga ko‘ra, korxonada pul mablag‘lari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy valyutadagi mablag‘lar va pul ekvivalentlarining keskin o‘sishi tashqi iqtisodiy faoliyat kengayayotganligini ko‘rsatadi. Bank hisobvaraqlaridagi mablag‘lar ulushi yuqori bo‘lib, bu naqdsiz hisob-kitoblar ulushi ortayotganligini bildiradi.

Pul mablag‘lari hisobining samaradorligi ko‘p jihatdan ichki nazorat tizimining qay darajada tashkil etilganligiga bog‘liq. Ichki nazorat tizimi pul mablag‘larining saqlanishi, to‘g‘ri hisobga olinishi va maqsadli ishlatilishini ta’minlaydi.

2-jadval

Pul mablag‘lari ustidan ichki nazorat tizimi samaradorligi ko‘rsatkichlari

Nazorat elementlari	**Amalga oshirilish darajasi (2023)**	**2024**	**2025**	**Baholash**
Kassa operatsiyalarini hujjatlashtirish	80%	90%	95%	Yaxshi
Kassa inventarizatsiyasi	70%	85%	95%	Yaxshi
Bank operatsiyalarini	85%	90%	97%	Yuqori

nazorat qilish				
Debitor-kreditor nazorati	65%	75%	85%	O‘rtacha
Pul mablag‘laridan maqsadli foydalanish	75%	88%	96%	Yaxshi

Jadval tahlili:

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ichki nazorat tizimi yildan-yilga takomillashib bormoqda. Ayniqsa, kassa operatsiyalari va bank operatsiyalari ustidan nazorat sezilarli darajada kuchaygan. Biroq debitor va kreditor qarzdorliklar ustidan nazorat hali ham o‘rtacha darajada qolmoqda, bu esa qo‘shimcha nazorat mexanizmlarini joriy etishni talab etadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar pul mablag‘lari hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish orqali korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, noqonuniy operatsiyalarni kamaytirish va likvidlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Pul mablag‘lari korxona aktivlarining eng likvid qismi bo‘lib, ularning to‘g‘ri hisobga olinishi moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.
2. Zamonaviy biznes sharoitida naqdsiz hisob-kitoblar ulushining ortishi bank hisobvaraqlari rolini yanada kuchaytirmoqda.
3. Pul mablag‘lari harakatini to‘liq va o‘z vaqtida hujjatlashtirish buxgalteriya hisobi ishonchliligining asosiy shartidir.
4. Ichki nazorat tizimining yetarli darajada tashkil etilmaganligi moliyaviy xatoliklar va suiiste’molliklar xavfini oshiradi.
5. Bank hisobvaraqlari tushunchasini iqtisodiy va huquqiy jihatdan aniq chegaralash amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Korxonalarda pul mablag‘lari hisobini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirishni keng joriy etish lozim.
2. Kassa operatsiyalarini real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini joriy etish zarur.
3. Debitor va kreditor qarzdorliklarni boshqarish uchun alohida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish kerak.
4. Bank hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni segmentlarga ajratgan holda tahlil qilish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq.
5. Ichki audit xizmatini rivojlantirish orqali pul mablag‘lari ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.
6. “Bank hisobvarag‘i” tushunchasini huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish va tasniflash lozim.
7. Kassa intizomini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish va nazoratni raqamlashtirish tavsiya etiladi.

8. Pul mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlash uchun ichki reglamentlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. *Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida*gi Qonun. Toshkent, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma* (1948-son). Toshkent, 2009.
3. O‘zbekiston Respublikasi. *Fuqarolik kodeksi*. Toshkent: Adolat, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *21-son BHMS – Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi*. Toshkent, 2024.
5. Horngren, Charles T., et al. *Accounting: A Managerial Emphasis*. New York: Pearson, 2018.

Куватов Хиротбек Шералиевич
Магистрант
Ташкентский государственный экономический университета
e-mail: apple201h@gmail.com

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО БАЛАНСА В ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы формирования бухгалтерского баланса на примере АКБ «Капиталбанк» Республики Узбекистан. Бухгалтерский баланс определяется как ключевая форма финансовой отчетности, отражающая структуру активов, обязательств и капитала и служащая базой для оценки финансовой устойчивости и ликвидности, а в банковской сфере — также риск-концентрации и качества управления. Обосновано, что его формирование представляет собой комплексный процесс признания, оценки, классификации и раскрытия информации в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, МСФО и банковским регулированием.

Ключевые слова: бухгалтерский баланс, финансовая отчетность, методология учета, банковская отчетность, активы, обязательства.

Теоретико-методологические основы формирования бухгалтерского баланса занимают ключевое место в системе бухгалтерского учета и финансовой отчетности, поскольку именно бухгалтерский баланс обеспечивает целостное, системное и структурированное представление о финансовом положении организации на определенную отчетную дату. Его значение обусловлено тем, что он аккумулирует и обобщает результаты всех учетных процессов, отражая экономическое состояние хозяйствующего субъекта в концентрированном виде.

В своей экономической сущности бухгалтерский баланс отражает взаимосвязь ресурсов организации и источников их формирования: в активе представлены контролируемые организацией ресурсы, способные приносить экономические выгоды в будущем, тогда как в пассиве раскрываются обязательства и собственный капитал как источники финансирования этих ресурсов. Такое двустороннее представление позволяет не только оценить структуру имущества и капитала, но и определить уровень финансовой устойчивости, платежеспособности и инвестиционной привлекательности организации.

В этой связи бухгалтерский баланс выступает не только обязательной формой финансовой отчетности, но и важнейшей методологической конструкцией, позволяющей раскрыть внутреннюю финансовую архитектуру предприятия. Он выполняет информационную функцию, предоставляя пользователям достоверные данные о состоянии активов и обязательств; аналитическую функцию, способствуя проведению финансового анализа и оценке эффективности деятельности; а также контрольную функцию, обеспечивая сопоставимость и проверяемость учетной информации [1].

Кроме того, в условиях глобализации экономики и интеграции национальных учетных систем в международное финансовое пространство особое значение приобретает гармонизация принципов формирования бухгалтерского баланса с требованиями международных стандартов финансовой отчетности. Это способствует повышению прозрачности отчетности, укреплению доверия со стороны инвесторов и других заинтересованных пользователей, а также обеспечивает сопоставимость финансовых показателей на международном уровне.

Правовая основа формирования бухгалтерского баланса в Республике Узбекистан закреплена в Законе «О бухгалтерском учете», определяющем требования к достоверности, сопоставимости, нейтральности и открытости отчетности. Для банковского сектора действует специальное регулирование Центрального банка, устанавливающее требования к учетной политике и финансовой отчетности коммерческих банков с учетом МСФО. Таким образом, методология формирования баланса основывается на сочетании национального регулирования и международных стандартов, что обеспечивает как юридическую обязательность, так и сопоставимость отчетности [2].

С методологической точки зрения формирование бухгалтерского баланса представляет собой последовательный процесс обработки учетной информации, включающий документирование операций, признание элементов учета, их оценку, классификацию и раскрытие в составе отчетности. Баланс не является механической сводкой данных, а выступает результатом применения учетной политики, профессионального суждения и процедур оценки, обеспечивающих корректное отражение экономической сущности операций и их аналитическую интерпретацию [3].

Концептуальные основы финансовой отчетности IFRS подчеркивают необходимость правдивого представления экономической сущности

операций, что особенно значимо для банковского сектора, где значительная часть показателей формируется на основе профессиональных оценок. Высокая доля финансовых инструментов, резервов и оценочных обязательств обусловливает наличие сложной оценочной составляющей, без которой невозможно обеспечить достоверность и аналитическую полезность отчетности [4].

Специфика банковской деятельности заключается в доминировании финансовых активов и обязательств, что требует повышенной точности в их классификации, оценке и раскрытии. В соответствии с требованиями IFRS 9 значительная роль отводится оценке ожидаемых кредитных убытков, основанной на вероятностных и прогнозных подходах. Это означает, что бухгалтерский баланс банка отражает не только фактические операции, но и расчетную оценку будущих рисков, что существенно повышает требования к методологии его формирования [5; 7].

Практическая значимость указанных положений подтверждается на примере АКБ «Капиталбанк», характеризующегося значительным масштабом деятельности, развитой филиальной сетью и публичным раскрытием отчетности. В таких условиях формирование бухгалтерского баланса требует высокого уровня институциональной организации учета, включая единообразие учетной политики, эффективный внутренний контроль и согласованность процедур на всех уровнях управления. Баланс в данном случае выступает не только отчетной формой, но и отражением организационной зрелости банка.

Функционально бухгалтерский баланс выполняет информационную, аналитическую и контрольную функции, позволяя оценивать структуру активов и пассивов, финансовую устойчивость и ликвидность организации. В банковском секторе он также приобретает значение инструмента надзорного контроля и формирования доверия со стороны пользователей, что придает его методологической корректности не только учетное, но и институциональное значение.

Таблица 1.

Теоретико-методологические элементы формирования бухгалтерского баланса в организации

Методологический элемент	Содержательная характеристика	Значение для банковской организации
Нормативная основа	Закон «О бухгалтерском учете», акты Центрального банка, МСФО	Обеспечивает единообразие и сопоставимость отчетности
Признание	Включение активов, обязательств и капитала по установленным критериям	Обеспечивает корректность структуры баланса
Оценка	Применение методов оценки на основе	Критично для учета финансовых

	профессионального суждения	инструментов и резервов
Классификация	Группировка статей по экономическому содержанию	Обеспечивает анализ ликвидности и рисков
Раскрытие информации	Представление существенной дополнительной информации	Повышает прозрачность и достоверность отчетности
Учетная политика	Конкретизация нормативных требований во внутренних регламентах	Обеспечивает последовательность и единообразие учета

Содержание представленной таблицы показывает, что методология формирования бухгалтерского баланса представляет собой целостную систему, основанную на единстве правового регулирования, профессионального суждения и учетных процедур, где решающее значение имеет их согласованность. Недостаточная проработанность учетной политики, несовершенство оценочных процедур или некорректная классификация приводят к снижению аналитической ценности баланса и искажению его экономического содержания. В этой связи методологическая основа формирования баланса должна рассматриваться как взаимосвязанная система, в которой нормативная база задает рамки учета, учетная политика обеспечивает их реализацию, а оценка, классификация и раскрытие информации формируют достоверное и сопоставимое представление о финансовом положении организации.

Качество бухгалтерского баланса определяется не только его структурными элементами, но и системой принципов, включая достоверность, сопоставимость, осмотрительность, существенность, последовательность и правдивое представление. В банковской практике их значение особенно велико, поскольку они обеспечивают надежность отчетности, корректность оценки рисков и полноту раскрытия информации, а их нарушение способно повлиять как на точность показателей, так и на восприятие финансовой устойчивости банка, придавая им институциональное значение.

Представленная схема отражает взаимосвязанный процесс формирования бухгалтерского баланса в банковской организации, включающий стадии документирования, признания, оценки, классификации, обобщения и раскрытия информации, завершающиеся аналитической интерпретацией и аудиторским подтверждением. Особое значение имеют этапы оценки и раскрытия, обеспечивающие достоверное отражение финансовых инструментов, кредитного риска и структуры обязательств, тогда как завершающая стадия анализа и аудита усиливает надежность отчетности и доверие пользователей. В этой связи бухгалтерский баланс следует рассматривать не как механическое обобщение учетных данных, а как

результат комплексного применения нормативных требований, принципов МСФО и профессионального суждения.




Рисунок 1. Концептуальная схема формирования бухгалтерского баланса банка

Формирование баланса представляет собой интегрированный процесс, обеспечивающий переход от первичной учетной информации к ее экономически интерпретируемому представлению. Методологически важно, что его качество непосредственно связано с возможностью аудиторского подтверждения, что соответствует требованиям ISA 700, согласно которым аудит выступает логическим завершением процесса формирования отчетности.

Ключевым элементом методологической основы является учетная политика, определяющая методы признания, оценки, классификации и раскрытия информации. Формируемая в соответствии с требованиями законодательства и МСФО, она обеспечивает сопоставимость отчетности и выступает связующим звеном между нормативной базой и практикой учета, что особенно значимо для банковской деятельности с высокой долей оценочных показателей.

Таким образом, формирование бухгалтерского баланса на примере АКБ «Капиталбанк» представляет собой многоуровневый процесс, основанный на сочетании правового регулирования, международных стандартов и профессионального суждения. В условиях банковского сектора его значение усиливается необходимостью оценки рисков и обеспечения прозрачности, что позволяет рассматривать баланс как ключевой инструмент финансового управления и доверия пользователей.

Список литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете». Официальный правовой портал Lex.uz.
2. Постановление Правления Центрального банка Республики Узбекистан, рег. № 3337 от 27.11.2021 «Об утверждении Положения о требованиях к учетной политике и финансовой отчетности коммерческих банков». Официальный правовой портал Lex.uz.
3. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. Официальный сайт IFRS Foundation.
4. International Auditing and Assurance Standards Board. ISA 700 (Revised) Forming an Opinion and Reporting on Financial Statements. Официальный сайт IAASB.
5. АКБ «Капиталбанк». Общая информация. Официальный сайт банка.
6. АКБ «Капиталбанк». Financial statements / 2024 Annual Report / Финансовая отчетность для акционеров. Официальный сайт банка.
7. Bank for International Settlements. IFRS 9 and expected loss provisioning – Executive Summary. Официальный сайт BIS.

Эломонов Дадахон Озодуллаевич
научный исследователь
Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: dadaxonelomonov9006@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ АУДИТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В стати рассмотрена специфика проведения аудита в соответствии с международными стандартами, принятыми к применениям в Республики Узбекистана. Определено содержание основных направлений аудита, предусмотренных международными стандартами: аудита финансовой отчетности; аудита финансовой отчетности, подготовленной обслуживающей организацией; аудита финансовой отчетности специального назначения; аудита финансовой отчетности группы. Раскрыты основные требования, предъявляемые при проведении аудита финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами аудита.

Ключевые слова: международные стандарты аудита, аудит финансовой отчетности, аудиторские процедуры, аудита финансовой отчетности, аудиторский риск, аудиторский заключение, этика аудитора.

Введение. В Республике Узбекистан растет число научных исследований, посвященных приведению финансовой отчетности в соответствие с международными стандартами и развитию системы аудита на основе цифровых технологий**.** Преобразование аудита финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами является одной

из важнейших задач современности. Ярким примером этого служит Постановление № 171 Кабинета Министров Республики Узбекистан от 2022 года. С 1 января 2022 года международные стандарты аудита стали обязательными для применения на территории Республики Узбекистана. Это обусловило необходимость тщательного изучения их требований для эффективного использования с учетом особенностей нашей страны.

Обзор литературы. Аудит финансовой отчетности — это проверка и подтверждение достоверности финансовой отчетности. Это направление является главным и наиболее распространенным типом аудиторских заданий и регламентируется МСА 200, 210, 220, 230, 240, 250, 260, 500, 501, а также рядом других стандартов, предназначенных для подтверждения достоверности финансовой информации [1, с.105]. МСА 200 определяет основные правила, соблюдение которых обязательно при проведении аудита финансовой отчетности организациями–участниками Международной федерации бухгалтеров.

В соответствии с МСА 200 цель аудита состоит в повышении уверенности пользователей финансовой отчетности в том, что она во всех существенных аспектах соответствует применяемой концепции подготовки финансовой отчетности. Такой аудит проводится в соответствии с международными стандартами аудита с учетом сложившейся и широко применяемой практики аудита [2, с.86]. МСА 200 трактует профессиональное суждение как использование соответствующих знаний, навыков и опыта в контексте стандартов аудита, бухгалтерского учета и этических стандартов при принятии решений о предполагаемых планах действий в условиях определенного аудиторского задания [3.с.4]. Совет по международным стандартам аудита и заданий, обеспечивающих уверенность, считает, что приведенное в стандарте определение полностью раскрывает содержание понятия «профессиональное суждение» и подтверждает его значимость и необходимость.

Также отмечается, что в формулировании обоснованного профессионального суждения аудитору может помочь получение консультаций от третьих лиц. При этом в соответствии с МСА 200 необходимо: в разделе стандарта под названием “Руководство по применению и прочие пояснительные материалы” раскрывается значение термина” достаточные и надлежащие аудиторские доказательства”, а также порядок их получения в целях определения объема аудиторских процедур, а также их характера и сроков. Соблюдать ряд специфических требований к проведению аудита в соответствии с международными стандартами аудита. Это является одной из наиболее важных частей МСА 200 [4.с. 8].

Первая группа этих требований состоит в необходимости следования в ходе выполнения конкретного задания тем аудиторским стандартам, которые являются уместными. Анализ уместности применения тех или иных стандартов в определенном задании осуществляется аудитором на этапе планирования аудита. Так, при проведении аудита отчетности малых и

средних предприятий, не имеющих внутреннего аудита, выполнение требований МСА 610 не будет являться уместным [5, с.87].

Вторая группа специфических требований связана с достижением целей каждого конкретного стандарта.

Как указывалось, аудитор должен, кроме выполнения требований, которые устанавливаются МСА 200, также оценить, достигнуты ли в ходе проведения аудита цели данного стандарта. В МСА 200 прямо указывается на то, что аудитору для того, чтобы достичь общих целей, необходимо добиться реализации целей всех аудиторских стандартов, которые связаны с конкретным вопросом [6, с.215]. При этом в случае, если цели аудитора не были достигнуты, ему нужно определить, какие дополнительные аудиторские процедуры, помимо тех, что предусмотрены стандартом, могут потребоваться для достижения аудиторских целей. Также аудитору необходимо определить, получено ли при этом достаточное количество надлежащих аудиторских доказательств [7.с .15]. Третья группа требований отражает необходимость соблюдения тех требований стандарта, которые будут уместными и подходящими для данной конкретной ситуации.

Каждое требование стандарта МСА 200 должно быть выполнено аудитором. В то же время существуют такие исключительные ситуации, когда:

- ❖ применение стандарта в определенной конкретной ситуации не представляется уместным;
- ❖ ввиду невыполнения условия, предъявляемого тем или иным требованием стандарта, оно становится неуместным;
- ❖ выполнение аудиторских процедур, требуемых стандартом, согласно мнению аудитора, не является эффективным для данной конкретной ситуации, поэтому аудитор принимает решение о необходимости отступить от таких требований стандарта. Когда имеют место такие обстоятельства, от аудитора требуется, согласно МСА 200 - выполнить такие дополнительные аудиторские процедуры, при которых будут достигнуты цели, установленные данным требованием, обосновать причины, побудившие аудитора отступить от выполнения того или иного требования и потребовавшие применения дополнительных процедур, позволивших достигнуть цели данного требования [8.с.146]. Для таких случаев в МСА 200 содержатся отсылки к рекомендациям, содержащимся в МСА 402, главной целью которого является установление стандартов и предоставление руководства для аудитора, клиент которого пользуется услугами обслуживающей организации [9.с. 486].

При проведении аудита финансовой отчетности подобного рода пользователей для аудитора могут быть важны методы ведения бухгалтерского учета и организация внутреннего контроля обслуживающей организации.

Клиентом может быть самостоятельно сформирована своя учетная политика и подотчетность, а обслуживающей организации переданы функции по постановке и ведению бухгалтерского учета. В данных случаях аудитору необходимо определить, насколько значимой является деятельность

обслуживающей организации для клиента и аудита его финансовой отчетности. Должны быть рассмотрены следующие вопросы:

- ✓ характер предоставляемых услуг;
- ✓ условия договора;
- ✓ уровень существенности предпосылок при подготовке финансовой отчетности;
- ✓ неотъемлемый риск;
- ✓ степень зависимости системы клиента от системы обслуживающей организации;
- ✓ сведения об обслуживающей организации;
- ✓ информация об общих средствах контроля [10.с.17]. МСА 402 содержит разъяснения по поводу основных требований, предъявляемых к аудиторскому заключению в том случае, когда клиенту оказываются услуги обслуживающей организации. Такое заключение составляется по одному из следующих вариантов.

Вариант 1. Заключение о приемлемости структуры, которое содержит:

мнение, выражаемое аудитором об обслуживающей организации; характеристику системы бухгалтерского учета и системы внутреннего контроля обслуживающей организации, которые должны включать оценку действенности этих систем.

Вариант 2. Заключение о пригодности структуры и эффективности ее функционирования. В этом случае аудитору необходимо тщательно проанализировать объем, сроки и характер аудиторских процедур [11.с.31]. Кроме непосредственно аудиторских услуг, аудиторские организации также могут предоставлять такие услуги, как компиляцию финансовой информации, согласованные процедуры, специальные аудиторские задания, обзорные проверки и др. Эти виды деятельности регламентируются соответствующими аудиторскими стандартами: МСОП (ISRE) 2400, 2410, МСЗОУ (ISAE) 3000, 3400, 3402, 3410, 3420, МССУ (ISRS) 4400, 4410 [12.с.387]. При оказании такого рода услуг аудитору, также как и при проведении аудита, необходимо составить план предстоящей работы, направить клиенту письмо-обязательство, а также документировать соответствующим образом необходимую информацию с тем, чтобы подтвердить применение международных стандартов аудита при выполнении задания.

Результаты. Полученные результаты и выводы позволят повысит эффективности осуществляемых аудиторских процедур с применением международных стандартов аудита; оценит результативности применения международных стандартов аудита через параметры качества осуществляемых аудиторских процедур; повысит эффективности принимаемых решений, а также могут быт полезны как практикующим аудиторам, так и иным специалистам, занятым в этой области. Выявление особенностей применения международных стандартов аудита позволяет разработать корректирующие действия и выявит возможности улучшения и усовершенствования процесса проведения аудиторской проверки в

соответствии с введенными новшествами. Таким образом, рассмотрена специфика проведения аудита в соответствии с международными стандартами, принятыми к применению в Республики Узбекистана. Определено содержание основных направлений аудита, предусмотренных международными стандартами, а также раскрыты основные требования, предъявляемые при проведении аудита финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами аудита.

Выводы. Международные стандарты аудита носят универсальный характер. Однако их внедрение в нашей стране требует учета ряда экономических и правовых особенностей, присущих нашых условиям. Выделение специфики применения международных стандартов аудита в нашей стране позволяет более полно понять требования стандартов, а также ускорить их внедрение в отечественную практику аудита.

Список использованной литературы:

1. Алтухова Н. В. Обеспечение качества аудита в соответствии с международными стандартами аудита. Учеб. пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2017. 105. с.

2. Быков В. А., Логинова Т. В. Проблемы применения международных стандартов аудита в России в современных условиях // Вестник Московского финансово-юридического университета. 2017.с. 86.

3. Ворона Т. М., Олейник М. А. Переход на международные стандарты аудита в России // Проблемы и перспективы развития экономического контроля и аудита в России. 2017. с. 4.

4. Лукина Е. В. Порядок проведения аудита в соответствии с международными стандартами аудита (МСА): монография. Пенза-Наука и просвещение, 2017. 8с.

5. Серебрякова Т. Ю. Международные стандарты аудита как объект исследования // Международный бухгалтерский учет. 2015. 87с.

6. Стороженко А. А. Необходимость применения международных стандартов аудита в России// Территория новых возможностей. Вестник Владивостокского государственного университета экономики и сервиса. 2018. с. 215.

7. Турищева Т. Б. Внедрение международных стандартов аудита в России // Аудитор. 2015. № 12. с.15.

8. Dries Schockaert International Standards on Auditing: An institutional driver for Audit Quality. Empirical research within the financial sector on indices of compliance using auditor reporting characteristics. Die Keure, 2019. 146 p.

9. Rick Hayes, Philip Wallage, Hans Gortemaker Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing. Amazon.com Services LLC. 2014. 486 p.

10. Steven Collings. Interpretation and Application of International Standards on Auditing. New York: John Wiley & Sons Inc, 2011. 17 p.

11. Steven Collings. Frequently Asked Questions in International Standards on Auditing. New York: Wiley, 2014. 31 p.

Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi o‘qituvchisi,
e-mail: iakbarjon@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TIZIMINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va audit tizimining shakllanishi hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, sobiq ittifoq davridagi hisob tizimi, mustaqillikdan keyingi islohotlar va milliy standartlarning joriy etilishi yoritiladi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga integratsiyalashuv jarayonlari hamda audit tizimining takomillashuvi asosida zamonaviy rivojlanish tendensiyalari baholanadi.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, audit, evolyutsiya, milliy standartlar, MHXS, islohotlar, iqtisodiy tahlil, moliyaviy hisobot.

Kirish. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish masalasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta’minlash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida sobiq ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan zamonaviy xalqaro standartlarga moslashuv jarayoni hisob tizimining tubdan o‘zgarishini talab etdi. Bu jarayon nafaqat hisob yuritish usullarini, balki audit faoliyatining institutsional asoslarini ham qayta shakllantirishni taqozo qildi [1].

Hozirgi bosqichda milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan uyg‘unlashtirish, audit xizmatlari sifatini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda [2]. Shu sababli mazkur sohaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va audit tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy tendensiyalarini tizimli ravishda o‘rganishdan iborat.

Asosiy qism. Mazkur maqolada tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, institutsional yondashuv va iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va audit tizimining rivojlanish bosqichlari tanlanib, ular iqtisodiy islohotlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sobiq ittifoq davrida buxgalteriya hisobi asosan markazlashgan rejalashtirish tizimining axborot bazasi sifatida faoliyat yuritgan bo‘lib, unda foydalanuvchilar doirasi cheklangan va moliyaviy natijalarga emas, balki resurslar harakatini nazorat qilishga ustuvor ahamiyat berilgan. Ushbu bosqichda audit instituti amalda mavjud bo‘lmagan, faqat davlat nazorati shakllari ustunlik qilgan.

Mustaqillikdan keyingi davrda iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o‘tishi buxgalteriya hisobi tizimini tubdan isloh qilishni talab etdi. Natijada milliy buxgalteriya hisobi standartlari ishlab chiqildi, korxonalar moliyaviy mustaqillikka

ega bo‘ldi va foyda ko‘rsatkichlari asosiy iqtisodiy indikator sifatida shakllandi. Shu bilan birga, audit faoliyati mustaqil nazorat shakli sifatida joriy etilib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari ishonchliligini ta’minlashga xizmat qila boshladi.

Keyingi bosqichda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish jarayoni jadallashdi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro investorlar uchun tushunarli va taqqoslanadigan bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Audit tizimida esa xalqaro audit standartlarini joriy etish orqali xizmatlar sifati oshirildi, auditorlik tashkilotlari faoliyati yanada takomillashtirildi.

1-jadval

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va audit tizimining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	**Davr**	**Asosiy xususiyatlar**	**Natijalar**
1-bosqich	1991-yilgacha	Markazlashgan reja iqtisodiyoti, yagona hisob tizimi	Nazoratga yo‘naltirilgan hisob
2-bosqich	1991–2000 yy.	Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, dastlabki islohotlar	Milliy tizim shakllandi
3-bosqich	2000–2015 yy.	BHMS joriy etilishi, audit rivojlanishi	Hisobot sifati oshdi
4-bosqich	2015–hozir	MHXSga o‘tish, raqamlashtirish, integratsiya	Shaffoflik va investitsion joziba oshdi

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir bosqichda buxgalteriya hisobi va audit tizimi mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning mazmuni va chuqurligiga mos ravishda transformatsiyalangan. Dastlabki bosqichlarda hisob tizimi asosan nazorat funksiyasini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda u boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot manbaiga aylana boshladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida buxgalteriya hisobi korxonalarning moliyaviy natijalarini aniqlash, rentabellikni baholash va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash vositasi sifatida rivojlandi.

Zamonaviy bosqichda esa buxgalteriya hisobi va audit tizimining rivoji sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida hisob jarayonlari an’anaviy qo‘lda yuritiladigan shakldan avtomatlashtirilgan tizimlarga o‘tdi. ERP (Enterprise Resource Planning) platformalari orqali korxonalarda moliyaviy, ishlab chiqarish va logistika jarayonlari yagona axborot tizimida integratsiyalashmoqda, bu esa ma’lumotlarning aniqligi va tezkorligini oshirmoqda.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalari katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni qayta ishlash, xatoliklarni aniqlash, risklarni baholash va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa auditorlik faoliyatida ham yangi yondashuvlarni shakllantirib, an’anaviy tekshiruv usullaridan riskga asoslangan audit modeliga o‘tishni tezlashtirmoqda. Natijada audit sifati oshib, inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamaymoqda.

Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayoni moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash, manfaatdor tomonlar uchun ochiqlik darajasini oshirish hamda investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Onlayn hisobot

tizimlari, bulut texnologiyalari va real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvi imkoniyatlari buxgalteriya hisobi va auditni yanada samarali va ishonchli qilishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, tizim samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi, malakali kadrlar tayyorlash tizimi va xalqaro tajribalarni adaptatsiya qilish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Olib borilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, buxgalteriya hisobi va audit tizimining evolyutsion rivoji mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va audit tizimi tarixiy jihatdan bosqichma-bosqich rivojlanib, har bir davr mamlakat iqtisodiy siyosati va islohotlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Sobiq ittifoq davrida nazoratga yo‘naltirilgan hisob tizimi hukmron bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin bozor iqtisodiyoti talablariga moslashgan milliy tizim shakllandi. Zamonaviy bosqichda esa xalqaro standartlarga integratsiya, raqamlashtirish va shaffoflikni ta’minlash ustuvor yo‘nalishga aylandi.

Shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit tizimining samaradorligi normativ-huquqiy bazaning mustahkamligi, xalqaro standartlarga moslashuv darajasi, malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- milliy buxgalteriya hisobi tizimini MHXS bilan yanada uyg‘unlashtirish;
- audit faoliyatida xalqaro standartlar va sifat nazoratini kuchaytirish;
- buxgalteriya va audit sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
- malakali kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish;
- ilmiy tadqiqotlar va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar buxgalteriya hisobi va audit tizimini yanada rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2016.

2. International Financial Reporting Standards (IFRS). IFRS Foundation, London, 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. *“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.”* Toshkent, 2020.

4.Sirojiddinov, I. Q., va I. A. Isomuxamedov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Namangan: Sunrise-pro nashriyoti, 2026.33-36-betlar

5. Muradova, N. R. Moliyaviy hisobot. Namangan: Sunrise-pro nashriyoti, 2026.279-282-betlar.

Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich
Ichki audit boshqarmasi bosh mutaxassisi,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
E-mail: avazbekmamatqulov1987@gmail.com

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT AUDITI TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA XALQARO INTOSAI STANDARTLARINI TADBIQ ETISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-sonli Farmoni doirasida davlat auditi tizimini transformatsiya qilish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda INTOSAI xalqaro standartlarini milliy amaliyotga integratsiya qilish, "samaradorlik auditi" (3E tamoyili) va raqamli audit modellarini joriy etishning ilmiy-amaliy jihatlari tahlil qilingan. Professor D.Kudbiyevning ilmiy merosi asosida sohani rivojlantirish bo‘yicha takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat auditi, PF-252, INTOSAI, ISSAI standartlari, transformatsiya, samaradorlik auditi, raqamli iqtisodiyot, risk-tahlil.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi davlat mablag‘larini boshqarishda nafaqat qonuniylikni, balki yuqori samaradorlik va natijadorlikni ta’minlashni talab etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi “Davlat moliya nazorati tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat auditi xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-252-sonli Farmoni sohadagi tub burilish nuqtasi bo‘ldi[2]. Mazkur hujjat bilan davlat auditi tizimini xalqaro Oliy audit organlari tashkiloti (INTOSAI) standartlariga to‘liq muvofiqlashtirish va “samaradorlik auditi” (performance audit) mexanizmlarini kengaytirish bo‘yicha qat’iy vazifalar belgilandi.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Davlatboy Kudbiyev o‘zining ilmiy izlanishlarida davlat moliya nazoratini institutsional jihatdan rivojlantirish va hisob tizimining milliy xususiyatlarini xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan edi[3]. Bugungi kunda ushbu ilmiy qarashlar davlat auditi organlari (Hisob palatasi va Ichki audit departamentlari) faoliyatini transformatsiya qilishda nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI (International Standards of Supreme Audit Institutions) standartlarini joriy etish davlat xarajatlari ustidan nazoratning mustaqilligi va ob’ektivligini ta’minlashning yagona yo‘lidir[4]. Biroq, O‘zbekistonda ushbu standartlarni amaliyotga tatbiq etishda metodologik bazaning yetarli emasligi, kadrlar malakasi

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi “Davlat moliya nazorati tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat auditi xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-252-sonli Farmoni. // Elektron manba: https://lex.uz/docs/-7926706.

[3] Kudbiyev D. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit: nazariya va metodologiya. — T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. — 342 b.

[4] INTOSAI-P 10: The Mexico Declaration on SAI Independence. // International Standards of Supreme Audit Institutions (ISSAI).

va raqamli audit texnologiyalaridan foydalanish darajasi pastligi muammo bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — PF-252-sonli Farmon talablaridan kelib chiqqan holda, davlat auditi tizimiga INTOSAI standartlarini integratsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash va sohani transformatsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Asosiy qisim. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliya nazorati tizimini isloh qilish jarayoni 2025-yilga kelib mutlaqo yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Bu jarayonning huquqiy va strategik asosi sifatida 2025-yil 18-dekabrdagi PF-252-sonli Farmon xizmat qilmoqda. Mazkur hujjat nafaqat sohadagi texnik o‘zgarishlarni, balki davlat auditi falsafasining “nazorat qilish”dan “qiymat yaratish” va “samaradorlikni baholash”ga transformatsiyasini ifodalaydi5.

PF-252 sonli Farmon: Davlat auditi tizimidagi tub islohotlar tahlili

PF-252 sonli Farmonning asosiy mazmun-mohiyati davlat moliya nazorati organlari faoliyatini xalqaro e’tirof etilgan metodologiyalar asosida qayta tashkil etishdan iborat. Farmonning tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat auditi tizimida quyidagi uchta fundamental yo‘nalishda transformatsiya amalga oshirilmoqda:

1. **Metodologik transformatsiya:** An’anaviy moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishdan voz kechib, INTOSAI (International Organization of Supreme Audit Institutions) tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI standartlariga to‘liq o‘tish.
2. **Texnologik transformatsiya:** Audit jarayonlarini “inson omili”siz amalga oshirish, masofaviy audit va “Masofaviy audit” tizimlarini joriy etish.
3. **Funktsional transformatsiya:** Moliyaviy intizom buzilishlarini aniqlashdan tashqari, davlat dasturlarining ijro etilish samaradorligini (Performance Audit) baholashga urg‘u berish.

Ushbu islohotlarning o‘ziga xosligi shundaki, endilikda davlat auditi nafaqat o‘tgan davr hisobotlarini tekshiradi, balki real vaqt rejimida (real-time monitoring) xavflarni tahlil qilish orqali budjet mablag‘larining talon-taroj qilinishining oldini oladi.

Milliy audit tizimi va INTOSAI standartlarining qiyosiy tahlili

Davlat auditining samaradorligini oshirish uchun uning xalqaro standartlar bilan muvofiqlik darajasi yuqori bo‘lishi shart. Quyidagi 1-jadvalda PF-252 sonli Farmon bilan joriy etilayotgan yangiliklarning INTOSAI standartlari (ISSAI) bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval. O‘zbekiston davlat auditi tizimidagi islohotlar va INTOSAI standartlari muvofiqligi

Islohot yo‘nalishi	**PF-252 sonli Farmon talablari**	**Muvofiq keluvchi INTOSAI/ISSAI standarti**	**Kutilayotgan natija**
Audit mustaqilligi	Nazorat organlarining siyosiy va	ISSAI 10 (Mexico Declaration on SAI Independence)	Tashqi ta’sirlardan xoli, ob’ektiv xulosalar berish.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi “Davlat moliya nazorati tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat auditi xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-252-sonli Farmoni, 1-band.

	moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish.		
Samaradorlik auditi	Davlat xarajatlarining tejamkorligi va natijadorligini baholash.	ISSAI 3000-3200 (Performance Audit Standards)	Mablag‘ sarflashdan ko‘ra, erishilgan natijani tahlil qilish.
Etika me’yorlari	Auditorlarning kasbiy odob-axloq qoidalarini xalqaro darajaga ko‘tarish.	ISSAI 130 (Code of Ethics)	Korrupsion xavflarni minimallashtirish va ishonchni oshirish.
Masofaviy audit	Axborot tizimlari integratsiyasi orqali masofaviy nazoratni yo‘lga qo‘yish.	GUID 5010 (Audit in a Digital Environment)	Resurslarni tejash va 100% qamrovni ta’minlash.
Risk-tahlil	Tekshiruv ob’ektlarini “xavf darajasi”ga qarab saralash.	ISSAI 2000 (Financial Audit Principles)	Nazorat ob’ektlarini tanlashda shaffoflik va aniqlik.

Professor Davlatboy Kudbiyev ilmiy qarashlarining transformatsiya jarayonidagi o‘rni

Professor D. Kudbiyev o‘z asarlarida auditning metodologik asoslarini rivojlantirar ekan, doimo bir fikrni ilgari surgan: *“Audit — bu jazo mexanizmi emas, balki boshqaruv sifatini oshiruvchi tahliliy vositadir”*[6]. Bugungi kunda PF-252 bilan joriy etilayotgan “Samaradorlik auditi” aynan ushbu nazariyani amaliyotga ko‘chirishdir.

Professorning ilmiy merosida davlat auditini tashkil etishda “Iqtisodiy tahlil” va “Audit” fanlarining sintezi muhim o‘rin tutadi. Bugungi transformatsiya davrida INTOSAI standartlarini joriy etishda ushbu sintez asosida quyidagi metodologik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda:

- **Kvantitativ tahlil:** Davlat xarajatlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini matematik modellashtirish.
- **Kvalitativ baholash:** Ijtimoiy sohalardagi (ta’lim, sog‘liqni saqlash) xarajatlarning aholi turmush darajasiga ta’sirini audit qilish.

Raqamli transformatsiya va “Masofaviy audit” platformasining imkoniyatlari

PF-252 sonli Farmonning 4-bandida davlat moliya nazorati organlari tomonidan barcha tekshiruv va audit jarayonlarini “Davlat auditi” dasturiy majmuasi orqali amalga oshirish qat’iy belgilangan. Bu jarayon INTOSAIning zamonaviy talablariga to‘la mos keladi.

[6] Kudbiyev D. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit: shakllanishi va rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. — Farg‘ona, 2021. — 89-b.

Raqamli auditning afzalliklari:

1. **Big Data tahlili:** Davlat xaridlari portalidagi millionlab tranzaksiyalarni bir necha soniyada tahlil qilib, shubhali sxemalarni aniqlash.
2. **Integratsiya:** Budjet tashkilotlarining buxgalteriya dasturlari bilan auditorlik dasturlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishi.
3. **Shaffoflik:** Audit xulosasining tizimga avtomatik yuklanishi va uni o‘zgartirish imkoniyatining yo‘qligi.

O‘zbekistonda davlat auditining huquqiy va nazariy transformatsiyasi yakunlanganini, endilikda asosiy e’tibor ushbu tizimlarni amaliyotda samarali ishlatishga qaratilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Davlat auditi tizimini transformatsiya qilishning fundamental asosi bu — moliya auditidan samaradorlik auditiga o‘tishdir. PF-252 sonli Farmonga muvofiq, endilikda Hisob palatasi va ichki audit bo‘linmalari mablag‘larning faqatgina maqsadli sarflanishini emas, balki ularning jamiyat uchun keltirgan iqtisodiy va ijtimoiy nafini (Value for Money) baholashi shart deb belgilandi[7].

"3E" tamoyili asosida davlat xarajatlari samaradorligini tahlil qilish

INTOSAI standartlariga ko‘ra, samaradorlik auditi uchta asosiy ustun — **Tejamkorlik (Economy), Hosildorlik (Efficiency)** va **Natijadorlik (Effectiveness)** tamoyillariga tayanadi. Biz ushbu tamoyillarni O‘zbekiston budjet tizimiga tatbiq etish modelini taklif etamiz.

2-jadval. Davlat xarajatlarini "3E" tamoyili asosida audit qilish modeli

Tamoyil	Auditning yo‘nalishi	Baholash ko‘rsatkichi (KPI)	PF-252 talabiga muvofiqligi
Tejamkorlik	Resurslarni eng past narxda, ammo sifatli xarid qilish.	Bozor narxi va amaldagi xarid narxi farqi.	Davlat xaridlaridagi shaffoflikni ta’minlash.
Hosildorlik	Ma’lum bir resurs miqdoridan maksimal natija olish.	Bir birlik mahsulot/xizmat uchun sarflangan vaqt va mablag‘.	Masofaviy audit orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish.
Natijadorlik	Qo‘yilgan strategik maqsadlarga erishilganlik darajasi.	Davlat dasturlarining maqsadli indikatorlari bajarilishi.	Milliy maqsadlar va taraqqiyot strategiyasi ijrosi.

Ushbu model asosida o‘tkazilgan audit natijalari davlat boshqaruv organlariga budjet parametrlarini rejalashtirishda "xato va kamchiliklar ustida ishlash" imkonini beradi.

Davlat auditida Risk-orientirlangan yondashuv va Masofaviy audit tahlili

PF-252 sonli Farmonning eng muhim yangiliklaridan biri — bu audit ob’ektlarini tanlashda inson omilini cheklash va **"Risk-tahlil"** dasturiy majmuasini joriy etishdir[8]. Professor D. Kudbiyev o‘z izlanishlarida auditning

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-252-sonli Farmoniga 2-ilova: "Davlat moliya nazorati tizimini transformatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi"

[8] PF-252-sonli Farmon, 4-band: "Davlat moliya nazorati organlari tomonidan barcha tekshirish va audit tadbirlarini majburiy tartibda 'Davlat auditi' dasturiy majmuasida ro‘yxatga olish tartibi"

tanlanma xususiyatini nazariy jihatdan asoslab, barcha ob’ektlarni birdek tekshirish samarasiz ekanligini ta’kidlagan edi[9].

Bugungi kunda raqamli transformatsiya sharoitida biz quyidagi audit riskini baholash formulasini taklif etamiz:

$$AR = IR \times CR \times DR$$

Bunda:

- **AR (Audit Risk)** — umumiy audit riski;
- **IR (Inherent Risk)** — ob’ektga xos bo‘lgan ichki xatar;
- **CR (Control Risk)** — ichki nazorat tizimining xatosi;
- **DR (Detection Risk)** — auditor tomonidan aniqlanmay qolish riski.

Ushbu formulani raqamlashtirish orqali "Davlat auditi" dasturiy majmuasi avtomatik ravishda xavf darajasi yuqori bo‘lgan tashkilotlarni "qizil hudud"ga kiritadi va audit resurslarini aynan o‘sha yerga yo‘naltiradi.

Davlat auditi tizimini transformatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligi

Audit tizimini xalqaro standartlarga o‘tkazish nafaqat nazoratni kuchaytiradi, balki budjet mablag‘larining sezilarli darajada tejalishiga olib keladi. Quyidagi 3-jadvalda transformatsiya natijasida kutilayotgan prognoz ko‘rsatkichlarini ko‘rishimiz mumkin.

3-jadval. Audit tizimini transformatsiya qilishning prognoz ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich nomi	**Transformatsiyadan oldin (An’anaviy nazorat)**	**Transformatsiyadan keyin (INTOSAI + Masofaviy audit)**	**O‘zgarish samarasi**
Audit qamrovi	Budjet mablag‘larining 15-20%	Budjet mablag‘larining 90-100% (masofaviy)	+75-80% qamrov
Audit davomiyligi	10-30 ish kuni	3-5 ish kuni (real-time)	5 barobar tezlashish
Korrupsion risklar	Yuqori (yuzma-yuz muloqot)	Minimal (inson omilisiz tahlil)	80% kamayish
Iqtisodiy samara	Aniqlangan zararni undirish	Zararni oldini olish va tejamkorlik	Strategik samaradorlik

Soha mutaxassislarini tayyorlashda Kudbiyev ilmiy maktabining o‘rni

INTOSAI standartlarini joriy etish uchun eng avvalo yangicha fikrlaydigan kadrlar armiyasi zarur. PF-252 sonli Farmonda auditorlarni sertifikatlashtirish va ularning malakasini xalqaro talablar asosida oshirish masalasi alohida belgilangan. Professor Davlatboy Kudbiyev o‘z vaqtida talabalarga "auditor — bu tergovchi emas, u — iqtisodiy maslahatchi" degan g‘oyani singdirgan.

Ushbu yondashuv asosida oliy ta’lim tizimida quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Buxgalteriya hisobi va audit kafedralarida **"Xalqaro davlat auditi standartlari (ISSAI)"** fanini kiritish.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi “Davlat moliya nazorati tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat auditi xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-252-sonli Farmoni

2. Magistrantlar va tayanch doktorantlar uchun davlat auditining raqamli modellarini yaratish bo‘yicha ilmiy laboratoriyalar tashkil etish.

3. Audit xulosalarini xalqaro standartlar asosida tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Transformatsiya jarayoni faqat texnik yangilanish emas, balki kadrlar salohiyati va metodologik qarashlarning INTOSAI tamoyillari bilan to‘liq integratsiyalashuvini talab etadi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida davlat auditi tizimini transformatsiya qilish jarayoni shunchaki tashkiliy o‘zgarish emas, balki davlat moliya nazoratini xalqaro e’tirof etilgan prinsiplar asosida qayta qurish demakdir. PF-252-sonli Farmonning ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat mablag‘laridan foydalanishda shaffoflikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tadqiqot natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. **INTOSAI standartlarining o‘rni:** ISSAI xalqaro standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish davlat auditi organlarining mustaqilligini ta’minlash va xalqaro hamjamiyat oldida mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning asosiy omilidir.

2. **Samaradorlik auditiga o‘tish:** An’anaviy moliya-xo‘jalik tekshiruvlaridan "Samaradorlik auditi"ga (Performance Audit) o‘tish, davlat dasturlarining ijrosini nafaqat sarflangan mablag‘, balki erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy natija bo‘yicha baholash imkonini beradi.

3. **Raqamli transformatsiya:** "Masofaviy audit" va masofaviy nazorat tizimlarining joriy etilishi inson omilini kamaytirib, korrupsion xavflarni minimallashtiradi hamda nazorat qamrovini 100 foizga yetkazadi.

4. **Ilmiy meros davomiyligi:** Professor Davlatboy Kudbiyev asos solgan audit maktabi an’analari bugungi kunda zamonaviy xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan holda yangi avlod auditor-mutaxassislarini tayyorlashda tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tavsiyalar:

- Davlat auditida "Risk-tahlil" modellarini yanada takomillashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini kengroq joriy etish;
- Oliy ta’lim tizimida davlat auditi xalqaro standartlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini muntazam yangilab borish;
- Audit natijalarining ochiqligini (Public transparency) ta’minlash orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi “Davlat moliya nazorati tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat auditi xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-252-sonli Farmoni. // Lex.uz online portal.

2. Kudbiyev D. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit: shakllanishi va rivojlanish istiqbollari. — Farg‘ona: "Texnika", 2021. — 218 b.

3. INTOSAI-P 1: The Lima Declaration. // International Standards of Supreme Audit Institutions.
4. International Standard of Supreme Audit Institutions (ISSAI) 3000: Standard for Performance Auditing.

Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,
e-mail: ayubbek1988@gmail.com

ASOSIY VOSITALARNI DASTLABKI BAHOLASHNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati hisobini yuritish masalalari yoritilgan bo'lib, asosiy vosita obyektini xarid qilish yoki qurish bilan bog'liq sarflar hamda asosiy vositani qurib bitkazish, qisman almashtirish yoki unga xizmat ko'rsatish uchun amalga oshirilgan keyingi sarflar haqida mulohazalar berilgan. Shuningdek, asosiy vosita obyektining boshlang'ich qiymati, bunday obyektni qurish, qurib bitkazish, qisman almashtirish yoki unga xizmat ko'rsatish uchun foydalaniladigan, foydalanish huquqidagi aktivlarning eskirishi kabi aktivlarning ijarasi bilan bog'liq sarflar haqida maqolada to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Asosiy vositalar, dastlabki baholash, eskirish hisoblash, aktivlarni xarid qilish, aktivni dastlabki tan olinish, MHXS, asosiy vositalarni demontaj qilish va olib tashlash, xarajatlar.

Kirish. Mamlakatimizda so'ngi yillarda korxonalarni zamonaviy va innovatsion texnologik jihozlar bilan jihozlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash lozimki ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida jahon andozalari bo'yicha faoliyatni tashkil etish bugungi kundagi muhim masala hisoblanadi.

Asosiy vosita obyektidan samarali foydalanish borasida gap borganda, albatta uni dastlabki boshlang'ich qiymati va uni buxgalteriya hisobida hisobga olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Boisi asosiy vositalarni keyingi ishlab chiqarishdagi ishtiroki va uniga nisbatan hisoblanadigan eskirish summalari aynan dastlabki qiymatga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda Respublikamizda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish, yuritish va uni tegishli vakolatli tashkilotlarga topshirish jarayonlari dolzarb hisoblanmoqda. Buning sababi mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy investorlarni yurtimizga jalb etish usuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. Korxonalar moliyaviy hisobotlarni nafaqat ichki foydalanuvchilar uchun, o'z navbatida tashqi foydalanuvchilar, xususan investorlar uchun ham tushunarli tarzda tayyorlashlari va taqdim etishlari lozim. Xorijiy va mahalliy investorlar o'z navbatida korxonalarni asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik holati, ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalarni ishtiroki, ularga eskirish hisoblanishi, demontaj qilinishi, qayta baholanishi kabi muhim ma'lumotlar bilan albatta qiziqadilar. Bu

esa moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish vazifasini ustuvor qilib qo'ymoqda.

Asosiy qism. Asosiy vosita obyektining boshlang'ich qiymati quyidagilardan tashkil topadi:

aktivning tan olish mezonlariga javob beradigan asosiy vosita obyekti boshlang'ich qiymat bo'yicha baholanadi. Boshlang'ich qiymat-aktivni xarid qilish yoki yaratish paytida uni xarid qilish uchun to'langan pul mablag'lari yoki pul mablag'larining ekvivalentlari, yoxud boshqa tovonning haqqoniy qiymati yoki qo'llash mumkin bo'lgan hollarda, boshqa MHXSlarning, masalan 2-son MHXS "Aksiyaga asoslangan to'lov"ning muayyan talablariga muvofiq mazkur aktivni dastlabki tan olinishida unga kiritiladigan summadir.

Boshlang'ich qiymat dastlab asosiy vosita obyektini xarid qilish yoki qurish bilan bog'liq sarflarni, hamda asosiy vositani qurib bitkazish, qisman almashtirish yoki unga xizmat ko'rsatish uchun amalga oshirilgan keyingi sarflarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, asosiy vosita obyektining boshlang'ich qiymati bunday obyektni qurish, qurib bitkazish, qisman almashtirish yoki unga xizmat ko'rsatish uchun foydalaniladigan, foydalanish huquqidagi aktivlarning eskirishi kabi aktivlarning ijarasi bilan bog'liq sarflarni o'z ichiga olishi mumkin.

Asosiy vosita obyektining boshlang'ich qiymati quyidagilardan tashkil topadi:

- **s**otib olish narxi, shuningdek savdo chegirmalari va qisman qaytarishlar (ribeyt) chiqarib tashlangan holda import bojlari va qoplanmaydigan soliq summasi;

- aktivni undan rahbariyati tomonidan nazarda tutilgan tarzda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatga keltirish bilan bog'liq bevosita sarflar.

- asosiy vosita obyektini demontaj qilish va olib tashlash hamda u joylashgan joydagi tabiiy resurslarni qayta tiklash uchun qilinadigan sarflarning dastlabki hisob bahosi.

- kvalifikastiyalanadigan aktivga oid qarzlar bo'yicha sarflar.

Asosiy vosita obyektini demontaj qilish va olib tashlash hamda u joylashgan joydagi tabiiy resurslarni qayta tiklash bo'yicha sarflarning mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Ko'p tashkilotlar asosiy vositalarni demontaj qilish, tugatish va qayta tiklash bo'yicha majburiyatlarga ega bo'ladi. Bunday sarflarga nisbatan 2-son BHXS "Zaxiralar" yoki 16-son BHXS qo'llanadi. 2-son BHXS yoki 16-son BHXSga muvofiq hisobga olingan sarflar bo'yicha majburiyatlar 37-son BHXS "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar"ga muvofiq tan olinadi va baholanadi.

Quyida bevosita sarflarga misollar keltirilgan:

- asosiy vosita obyektini bevosita qurish yoki xarid qilish natijasida yuzaga keladigan xodimlarning daromadlari bo'yicha sarflar;

- yer maydonlarini tayyorlash sarflari;

- yetkazib berish va ortish-tushirish bilan bog'liq dastlabki sarflar;

- o'rnatish va montaj bo'yicha sarflar;

- aktivni tegishli joyga va holatga keltirish paytida ishlab chiqarilgan mahsulotni (uskunalarni sinovdan o'tkazishda ishlab chiqarilgan namunalar kabi)

sotishdan olingan pul mablag’lari sof tushishi summasi chegirilgan aktivning to’g’ri ishlashini sinovdan o’tkazish sarflari;

- professional xizmatlar uchun haqlar.

Asosiy vositalar obyektining boshlang’ich qiymatiga kirmaydigan sarflarga misol tariqasida quyidagilar keltirilgan:

- yangi ishlab chiqarish majmuasini ochish sarflari;
- yangi mahsulot yoki xizmat turini joriy etish sarflari (shu jumladan, reklama va namoyish etish sarflari);
- yangi joyda yoki xaridorlarning yangi sinfi bilan tijorat faoliyatini olib borish sarflari (shu jumladan, xodimlarni qayta tayyorlash sarflari);
- ma’muriy va boshqa umumiy ustama xarajatlar.

Asosiy vositalar obyekti undan rahbariyat tomonidan nazarda tutilgan maqsadda foydalanish uchun zarur bo’lgan joy va holatga keltirilganda sarflarning tan olinishi to’xtatiladi. Shu bois, obyektdan foydalanish jarayonida yoki obyektni joyini o’zgartirishda amalga oshirilgan sarflar ushbu obyektning balans qiymatiga kiritilmaydi. Masalan, quyidagi sarflar asosiy vositalar obyektining balans qiymatiga kiritilmaydi:

- obyekt rahbariyat tomonidan nazarda tutilgan maqsadda foydalanish uchun tayyor, lekin foydalanishga topshirilmagan yoki to’liq quvvatidan past darajada foydalanganda amalga oshirilgan sarflar;
- dastlabki operastion zararlar, masalan mazkur obyekt yordamida amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishga bozor talabini shakllantirish davrida ko’rilgan operastion zararlar.
- tashkilot faoliyatini qisman yoki to’la ko’chirish yoki qayta tashkil etish sarflari.

O’zida yaratilgan aktivning boshlang’ich qiymati xuddi xarid qilingan aktiv uchun ishlatilgan tamoyillarni qo’llash orqali aniqlanadi. Agar tashkilot shu kabi aktivlarni o’zining odatiy faoliyati davomida sotish uchun yaratsa, aktivning boshlang’ich qiymati 2-son BHXSga muvofiq bo’ladi. Shunday qilib, bu kabi sarflarni aniqlashda har qanday ichki foyda chiqarib tashlanadi. Shunga o’xshash, o’zida yaratilgan aktiv uchun me’yoridan ortiq sarflangan material, mehnat yoki boshqa resurslar sarfi aktivning boshlang’ich qiymatiga kiritilmaydi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, korxonalarda asosiy vositalarni boshlang’ich qiymati hisobini yuritish masalalariga alohida e’tibor qaratish, hisobini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish lozim. Shuningdek asosiy vosita obyektini xarid qilish yoki qurish bilan bog’liq sarflar, hamda asosiy vositani qurib bitkazish, qisman almashtirish yoki unga xizmat ko’rsatish uchun amalga oshirilgan keyingi sarflarni hisobini olgan holda asosiy vosita qiymatlarini baholab boorish kerak. Asosiy vosita obyektining boshlang’ich qiymati, bunday obyektni qurish, qurib bitkazish, qisman almashtirish yoki unga xizmat ko’rsatish uchun foydalaniladigan, foydalanish huquqidagi aktivlarning eskirishi kabi aktivlarning ijarasi bilan bog’liq sarflar hisobini esa muttasil tahil qilish va monitoringdan o’tkazib turish lozim. Bu harakatlar asosiy vositalarni joriy bahosini o’zgarish dinamikasini nazorat qilib turish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A., Ibragimov A., Rizaev N. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. Darslik. - T.: TMI. «Iqtisod-Moliya», 2020 y.
2. Бухгалтерская (финансовая) отчетност; Учеб, пособие / Под ред. проф. Л.В. Цоколова. М.: Магистр, 2009.
3. Ergasheva SH, Ibragimov A, Rizaev N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU., 2019. - 321 b.
4. H. Morgan, Financial Reporting and Accountability, 5th Edition, McGraw Hill. 2018
5. Cengage Learning, G., & Gowthorpe, C. (2020). BUSINESS ACCOUNTING FINANCE 5E. Cengage Learning.
6. Christensen, T. E., Cottrell, D. M., & Budd, C. (2018). Advanced Financial Accounting. McGraw-Hill Education.
7. G. (2021). PwC's Manual of accounting IFRS 2021. Tolley.

Urazov K.B.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisod fanlari doktori


KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)GA O'TISHDAGI TASHKILIY VA METODOLOGIK MUAMMOLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tish jarayonida yuzaga kelayotgan tashkiliy va metodologik muammolar tadqiq etilgan. Maqolada MHXSga o'tishning iqtisodiy ahamiyati, uning moliyaviy hisobotlar shaffofligi, investorlar uchun axborot ishonchliligi va kapital bozorlariga integratsiyalashuvdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, korxonalarda MHXSni joriy etishda kadrlar salohiyati, hisob siyosati, axborot tizimlari, boshlang'ich MHXS balansi, transformatsiya yozuvlari, aktiv va majburiyatlarni baholash, ochib berish talablari hamda ichki nazorat tizimini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Maqola yakunida mazkur muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: MHXS, moliyaviy hisobot, transformatsiya, hisob siyosati, boshlang'ich balans, metodologik muammo, tashkiliy muammo, xalqaro standartlar, shaffoflik, audit.

Kirish. Jahon miqiyosida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va audit biznesni olib borish, rivojlantirish va qo'llab – quvvatlashning muhim dastaklari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur dastaklar aksariyat mamlakatlarda davlat tomonidan tartibga solinadi va ushbu tartiblar buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va audit bo'yicha davlat siyosati mazmunini tashkil qiladi. Dunyo miqiyosida kapital harakatining erkinlashuvi, xorijiy investitsiyalar ulushining ortishi, xalqaro moliya bozorlarida raqobatning kuchayishi korxonalar moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi va taqqoslanuvchanligiga bo'lgan talabni keskin oshishiga olib

kelmoqda. Investorlar, kreditorlar, aksiyadorlar va boshqalar korxonalarning moliyaviy holati, faoliyat natijalari va pul oqimlari to‘g‘risida xalqaro miqyosda tushunarli, taqqoslanadigan va shaffof axborotlarni talab qilmoqdalar. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o‘tish va ularni qo‘llash bozor qonuniyatlari asosida rivojlanish yo‘lini tanlagan dunyoning barcha mamlakatlari, shu jumladan bizning respublikamiz oldida turgan eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va audit bo‘yicha davlat siyosatini belgilovchi asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni standartlashtirish

1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich
1997 – 2020-yillar	2020- 2025-yillar	2026-yildan boshlab
BHMS larni qabul qilish, qayta ishlash, to‘ldirish va joriy etish	MHXSlarini tan olish va ularni ilk qo‘llash	1. Jamoa ahamiyatiga ega va ega bo‘lmagan yirik subyektlarda MHXSlarga to‘liq o‘tish 2. Amaldagi BHMSlar va MHXS asosida kichik va o‘rta biznes obyektlari uchun MHMSlarini yaratish va ularga o‘tish

2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni standartlashtirish bosqichlari

Ryespublikamizda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot davlat tomonidan tartibga solinadi. Buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va audit bo‘yicha davlat siyosatini belgilovchi asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar ko‘rgazmali tarzda 1-rasmda keltirilgan. Buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va auditga oid ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi

Respublikamizda mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keysingi davrda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni standartlashtirish davlat siyosatining muhim strategik yo‘nalishiga aylandi. Bu borada bosib o‘tilgan yo‘lning bosqichlari va ularda amalga oshirilgan ishlar 2-rasmda keltirilgan.

Rasmda keltirilgan har bir bosqichda buxgalteriya hisobi va hisobotni standartlashtirish borasida diqqatga molik yutuqlarga erishildi, ularning asosiylari 1-jadvalda mujassamlashtirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni standartlashtirish bosqichlarida erishilgan eng muhim yutuqlar

№	Qabul qilingan hujjatlar va amalga oshirilgan tadbirlar
	1-bosqich (1997-2020-yillar)da
1.	Jami 24 ta BHMS ishlab chiqildi, ularning ko‘pchiligi to‘ldirildi, qayta ishlandi va yangi taxrirda tasdiqlandi
2.	BHMSlar barcha maqomdagi va tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarda (byudjet muassasalaridan tashqari) joriy etildi
3.	BHMSlar talablari asosida buxgalteriya hisobotining yangi shakllari tasliqlandi va 2003-yil 1-yanvardan barcha turdagi korxonalarda (byudjetdan tashqari) joriy etildi. Ushbu hisobotlar sug‘urta kompaniyalari uchun alohida tasdiklandi va joriy qilindi
4.	21-son BHMS sifatida tasdiqlangan buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi asosida ularni yuritishning yangicha uslubiy tartiblariga o‘tildi
	2-bosqich (2020-2025-yillar)da
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori kabul kilindi. MHXSga o‘tishning huquqiy asosini belgilab bergan ushbu bazaviy hujjatga asosan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar 2021-yildan boshlab hisob yuritishni, 2021-yil yakunlaridan boshlab esa moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashga o‘tkazilishi, shuningdek, MHXSga ixtiyoriy ravishda o‘tgan tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod qilinishi belgilandi
2	Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori kabul kilindi. Unda MHXS hujjatlarini O‘zbekiston hududida qo‘llash uchun tan olish, ekspertizadan o‘tkazish, muhokama qilish, joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibi belgilandi.
3	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi 38-son qarori — “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik

	nizomni tasdiqlash haqida” 507-son qarori qabul qiolindi
4.	O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida” 61-son buyrug‘i qabul qilindi va Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 9-dekabrda 3400-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi. Unda quyidagilar O‘zbekistonda qo‘llash uchun tan olindi: *Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi; *Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari — IAS 1, IAS 2, IAS 7, IAS 8, IAS 10, IAS 12, IAS 16, IAS 19, IAS 21, IAS 23 va boshqalar; *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari — IFRS 1, IFRS 2, IFRS 3, IFRS 4, IFRS 5 va boshqalar; *MHXSga oid tushuntirishlar va ilova matnlari.
3-bosqich (2025-yil 15-sentyabrdan keyingi davrda)	
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–282-son qarori qabul qilindi, Ushbu qarorga muvofiq, belgilangan mezonlarga javob beruvchi tadbirkorlik subyektlari Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reestriga kiritiladi; 2026-yil 1-yanvardan boshlab ushbu reestr elektron shaklda yuritiladi; reestrga kiritilgan tashkilotlar keyingi yilning 1-yanvaridan MHXS asosida hisob yuritishni tashkil etadi va navbatdagi ikkinchi yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq tuzib, auditorlik xulosasi bilan birga e’lon qiladi. Shuningdek, mazkur qarorda Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini Kichik va o‘rta biznes uchun MHXSga uyg‘unlashtirgan holda Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini joriy etish hamda O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini 2026 — 2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifalari belgilandi
2.	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 16-dekabrdagi 311-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 16-dekabrdagi 34/7-son qarori bilan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi, u Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 27-dekabrda 3736-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan va **2026-yil 1-yanvardan kuchga kiritildi.**
3	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 12-martdagi 345-son buyrug‘i bilan ilk bora “Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asoslari: hisob siyosati va hisob baholari” noli 2-sonli MHMS tasdiqlandi, Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 11 aproyelda 3810-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi, mazkur MHMS 2027-yil 1-yanvardan kuchga kiritiladi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni standartlashtirish borasida bosib o‘tilgan bosqichlar va to‘plangan tajribalar korxonalarda MHXSga o‘tish jarayonini oson kechmayotganligini, maqsadga erishish uchun hali ko‘plab muammolarni hal qilish zururligini ko‘rsatmoqda. Chunonchi, birinchi navbatda, yuzaga kelayotgan tashkiliy va metodologik muammolarni hal qilish lozim bo‘lmoqda. Ular sirasiga, chunonchi, quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchidan, aksariyat korxonalarda MHXSga o‘tishga strategik loyiha sifatida qaralmayapti, bu muhim ishga faqat buxgalteriya bo‘limi vazifasi sifatida qaralmoqda. Binobarin, MHXSga o‘tish moliya, buxgalteriya, yuridik xizmat, ichki audit, axborot texnologiyalari, kadrlar bo‘limi, aktivlarni boshqarish va yuqori boshqaruv organlarining o‘zaro hamkorligini talab qiladi. Maqsadga erishish uchun korxonalarda maxsus ishchi guruhlar tuzilishi, aniq “yo‘l xaritasi”

tasdiqlanishi, mas’ul shaxslar va muddatlar belgilanishi lozim, aks holda, MHXSga o‘tish real amalga oshmaydi, u faqat formal tus oladi, xolos.

Ikkinchidan, MHXSga o‘tish bevosita kadrlar ilmi va bilimiga, ular salohiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. MHXS bo‘yicha hisobot tayyorlash uchun buxgalterlar barcha xalqaro standartlarni chuqur bilishi lozim. Nomi yuqoridagi jadvalda keltirilgan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi 38-son qarorida MHXS bo‘yicha o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida kadrlar tayyorlash masalasi alohida belgilangan. Unda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, davlat ulushi mavjud xo‘jalik jamiyatlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasidagi yuridik shaxslarda MHXS asosida hisobot tayyorlash hamda buxgalteriya xizmatini xalqaro sertifikatga ega mutaxassislar bilan ta’minlash vazifalari nazarda tutilgan. Biroq, ushbu qaror bugungi kunda barcha korxonalar, xattoki yirik korxonalar tomonidan to‘liq bajarilmasdan qolmoqda.

Uchinchidan, korxonalarda amalda bo‘lgan axborot tizimlariga ishlov berishga mo‘ljallangan amaliy dasturlar, chunonchi qo‘llanilayotgan 1S: Buxgalteriya dasturi MHXS talablariga mos emas. Korxonalarda qo‘llanilayotgan buxgalteriya dasturlari asosan milliy schyotlar rejasi, soliq hisoboti va majburiy statistik hisobotlarga moslashtirilgan. MHXS esa aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar bo‘yicha qo‘shimcha analitik kesimlar, adolatli qiymat, diskontlash, aktivlar qadrsizlanishi, shartnoma majburiyatlari, moliyaviy instrumentlar, ijara aktivlari va majburiyatlarini alohida hisobga olishni talab etadi. Shu sababli, MHXSga o‘tish uchun mavjud axborot tizimlarini tubdan modernizatsiyalash lozim.

To‘rtinchidan, MHXSga o‘tish va uning natijaviyligi MHXS talablariga javob beradigan mukammal hisob siyosatini mavjudligiga bog‘liq. Amaliyotda hisob siyosati ko‘p hollarda umumiy va formal hujjat sifatida tuziladi. MHXS talablariga ko‘ra hisob siyosati aktivlar va majburiyatlarni tan olish, baholash, qayta baholash, amortizatsiya, zaxiralar, daromadlarni tan olish, moliyaviy instrumentlar, ijara, konsolidatsiya va ochib berish masalalarini aniq belgilashi lozim. Shu bois, korxona MHXSga o‘tishdan oldin mavjud hisob siyosati bilan xalqaro standartlar talablari o‘rtasida GAP-tahlil[10] o‘tkazishi lozim.

Beshinchidan, MHXSga o‘tish IFRS 1 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ilk bor qo‘llash”da belgilangan shartlarni to‘liq ado etishdan boshlanadi. IFRS 1 ga ko‘ra korxonaning MHXSga o‘tishi o‘imsh sanasiga ilk moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotni tuzishdan boshlanadi. Ushbu hisobotni nomiga tuzmaslik lozim, mazkur hisobot to‘lig‘icha eski xatoliklardan, shubhali summalardan xoli bo‘lishi, boshqachasiga toza bo‘lishi lozim. Agar MHXSlar talablariga mos keladi deb tuzilgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda eski

[10] Inglizcha **GAP** so‘zi “farq”, “oraliq”, “bo‘shliq” degan ma’nolarni anglatadi. Shuning uchun GAP-tahlilning asosiy mazmuni**:**“Hozir qanday holatdamiz?” va **“**Qanday holatga yetishimiz kerak?” degan ikki holat o‘rtasidagi farqni aniqlashdan iborat.

davr xatoliklari o‘tib ketgan bo‘lsa, ular keyingi davrlarda ham investorlarga noreal ma’lumotlarni taqdim etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, IFRS 1 asosida tuzilgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning har bir elementi ularni tartibga solib turuvchi MHXSlarda belgilangan tartiblarga ko‘ra shakllantirilgan bo‘lishi lozim. Oldinglari milliy hisobda balans elementi sifatida tan olingan ayrim aktivlar MHXS bo‘yicha tan olinmasligi yoki aksincha, milliy hisobda aks ettirilmagan ayrim aktiv va majburiyatlar MHXS bo‘yicha tan olinishi kerak bo‘ladi. Chunonchi, milliy hisobda nazarda tutilmagan ijara shartnomalari bo‘yicha foydalanish huquqidagi aktivlar, moliyaviy instrumentlar bo‘yicha adolatli qiymat o‘zgarishlari, kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari, aktivlar qadrsizlanishi, rezervlar va shartli majburiyatlar moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda to‘lig‘icha MHXS talablariga mos tarzda aks ettirilishi lozim.

Oltinchidan, muhim metodologik muammolardan biri bo‘lib daromadlarni tan olish hisoblanadi. Oldingi milliy amaliyotda daromad ko‘pincha hisobvaraq-faktura, dalolatnoma yoki pul tushumi asosida tan olingan, endi MHXS o‘tilgach esa, daromad shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, tovar yoki xizmat ustidan nazoratning xaridorga o‘tishi, operatsiya bahosini aniqlash va uni majburiyatlar bo‘yicha taqsimlash asosida tan olinishi talab qilinadi. Bunday metodologik yondashuvga amal qilish ayniqsa, uzoq muddatli shartnomalar, xizmat ko‘rsatish, qurilish, transport-ekspeditsiya, sug‘urta va energiya sotish sohalarida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yettinchidan, muhim metodologik masala bo‘lib moliyaviy hisobot elementlarini ochiqlashda zarur bo‘lgan axborot hajmi va sifatiga qo‘yilayotgan talablarga amal qilish hisoblanadi. MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni ochiqlash uni tarkibiga kiruvchi moliyaviy holat, foyda va zararlar, pul mablag‘lari harakati, xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risida hisobotlarni to‘liq qamrab olishi, ochiqlashda hisob siyosati, muhim professional mulohazalar, baholash noaniqliklari, risklar, shartli majburiyatlar, bog‘liq tomonlar, moliyaviy instrumentlar va boshqa muhim ma’lumotlarga izohlar va tushuntirishlar berilishi kerak. lozim.

2025-yil 27-dekabrda tasdiqlangan jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar to‘g‘risidagi Nizomda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini, shu jumladan zarur hollarda konsolidatsiyalashgan hisobotlarni auditorlik xulosasi bilan birga o‘z veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida belgilangan muddatlarda e’lon qilishi, maxsus vakolatli davlat organi bo‘lgan Iqtisodityot va moliya vazirligi esa ushbu hisobotlarning o‘z vaqtida e’lon qilinishini monitoring qilib borishi nazarda tutilgan. Bu esa MHXSga o‘tish muammosini faqat buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish kabi masala sifatida emas, balki korporativ shaffoflik, audit sifati va axborot ochiqligi masalasi sifatida qarash zarurligini ham bildiradi. Shu bois, korxonalarda MHXSga o‘tish uchun bosqichma-bosqich yo‘l xaritasi, xalqaro standartlarga mos keluvchi hisob siyosati, transformatsiya qilish registrlari va tahliliy jadvallari, zamonaviy AKT tizimlarini yaratish, kadrlar malakasini oshirish, kuchli va ta’sirchan monitoring, ichki nazorat, qolaversa, rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish lozim. Faqat shunday yondashuv bo‘lsagina, MHXSga o‘tish boshqaruvda, korxonalar

faoliyatini ravnaq toptirishda na faqat ijobiy innovatsion o‘zgarishlarga olib keladi, balki bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladigan amaliy vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–282-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi 38-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 9-dekabrda 3400-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.
5. “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, 2025-yil 27-dekabr, 3736-son.

II-SHO‘BA

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING O’RNI

Холбеков Расул Олимович,
д.э.н., профессор кафедры «Бухгалтерский учет»
Ташкентского государственного экономического университета

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКИХ УСЛУГ ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается учётная реформа Республики Узбекистан как фактор, оказывающий влияние на формирование и рост спроса на услуги бухгалтерского учёта среди субъектов малого бизнеса. Даны определения бухгалтерских услуг и затрат на оказание бухгалтерских услуг, рекомендована группировка затрат на оказание бухгалтерских услуг. Также рекомендован состав рабочих счетов при использовании учёта затрат на оказание бухгалтерских услуг.

Ключевые слова: бухгалтерский услуг, учёт затрат, нормативно-правовым документы, алгоритмы корреспонденции счётов, группировка затрат, определении себестоимости услуг.

Введение. Современное развитие экономики и стремительные технологические инновации существенно трансформируют сферу бухгалтерского учета, превращая его из традиционной функции в динамичную и стратегическую составляющую управленческой деятельности хозяйствующих субъектов.

Тенденции развития бухгалтерского учета отражают не только изменения в нормативно-правовой базе и стандартах отчетности, но и внедрение новых информационных технологий, автоматизацию процессов, повышение уровня аналитической составляющей и интеграцию с системами управления предприятием. В условиях глобализации и цифровизации экономики бухгалтерский учет становится более прозрачным, оперативным и ориентированным на предоставление своевременной и качественной информации для принятия управленческих решений. Современные тенденции предполагают переход к цифровым платформам, развитию автоматизированных систем учета, внедрению искусственного интеллекта и машинного обучения, а также усилению роли международных стандартов и требований по прозрачности и отчетности.

Формирование в современной Республике Узбекистан цивилизованных рыночных отношений определяет новые направления изменений в хозяйственном механизме. Они сопровождаются формированием системы бухгалтерского учета как элемента рыночной инфраструктуры. В настоящее время бухгалтерский учет переживает один из сложных этапов в своей истории. В сжатые сроки в теории и практике бухгалтерского учета происходят значительные изменения. Изменения происходят также и в методологии бухгалтерского учета вследствие адаптации и совершенствования нормативного обеспечения учетного процесса к

современному уровню развития рыночных отношений в Республике Узбекистан.

Бухгалтерский учет часто называют «азбукой и языком» бизнеса. В бизнесе широко используются данные бухгалтерской (финансовой) отчетности, включая баланс, отчет о финансовых результатах и их использование, пояснительная записка к годовому отчету. [5]

Бухгалтерский учет хозяйствующих субъектов не входит в систему административного управления, и как сказано закона «О бухгалтерском учете» Республики Узбекистан является одним из видов услуг. Он является информационной базой для принятия эффективных управленческих решений о хозяйственных процессах, движении собственных средств и их источников в хозяйствующих субъектах. Поэтому следует признать бухгалтерский учет как оказание услуг, а не в составе административного управления.

Основная часть. В настоящее время в Республике Узбекистан учет затрат услуг бухгалтерского учета отдельно не учитывается и отсутствуют счет, предназначенный для учета затрат услуг бухгалтерского учета в составе плана счетов бухгалтерского учета. А также не было отдельно методов и методологии расчета себестоимости услуги бухгалтерского учета. Потому что, эти расходы считаются как административными и включалось в себестоимость производимой продукции (работ, услуг).

После введения в практику Положение «О составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов» утвержденный Постановлением № 54 Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 февраля 1999 года, методы и методологии расчета себестоимости изменились. Согласно Положению расходы делятся на затраты включаемые в производственную себестоимость продукции (работ, услуг) и расходы периода, не включаемые в себестоимость продукции (работ, услуг) и закрываемые за счет прибыли (убытка) хозяйствующего субъекта.

В первую группу включаются расходы, которые непосредственно связанные с производством продукции (работ, услуг), обусловленные технологией и организацией производства. К ним относятся: прямые и косвенные материальные затраты, прямые и косвенные затраты на труд, прочие прямые и косвенные затраты, включая накладные расходы производственного характера. [4]

В расходы периода включаются расходы, которые непосредственно не участвуют в процессе производства, но влияют на финансово-хозяйственную деятельность хозяйствующего субъекта. Также к ним относятся: прямые и косвенные материальные затраты, прямые и косвенные затраты на труд, прочие прямые и косвенные затраты, включая накладные расходы непроизводственного характера.

При определении себестоимости услуг бухгалтерского учета рекомендуется руководствоваться выше названным положением. В себестоимость услуг бухгалтерского учета следует включать следующие затраты: затраты на заработную плату работников бухгалтерии,

занимающиеся учетом производственного характера и отчисления на социальное страхование, затраты относящиеся к организации учета производственного характера (затраты на содержание зданий и сооружений, отопление и освещение зданий, износ вычислительной техники, стоимость бумаг и других канцелярских товаров, стоимость бланков первичного документирования бухгалтерского учета и финансовой отчетности, затраты на повышения квалификации сотрудников бухгалтерии, затраты на командировочные расходы и прочие расходы). Данные затраты могут иметь общий характер и вид. Поэтому такие затраты следует пропорционально распределить между видами услуг бухгалтерского учета.

Русский ученый, профессор Н.А. Бреславцева в своем научном труде указывает, что «Ответственность за организацию бухгалтерского учета, соблюдение законодательства при выполнении хозяйственных операций несет руководитель организации. Он может:

– учредить бухгалтерскую службу как структурное подразделение, возглавляемое главным бухгалтером;

– ввести в штат должность бухгалтера;

– передать на договорных началах ведение бухгалтерского учета централизованной бухгалтерии, специализированной организации или бухгалтеру-специалисту;

– вести бухгалтерский учет лично». [6]

В отраслях производства много ассортиментных продуктов, оказание услуг со стороны сотрудников бухгалтерского отдела, ведется отдельный учет по каждому виду продуктов или процессов производства. В ведении отдельного учета каждого процесса производства, используются разные первичные документы, а также формы и виды отчетностей, которые отличаются друг от друга. Следовательно, себестоимость услуг бухгалтерского учета в отраслях по видам продукции может быть разным.

При определении себестоимости услуг бухгалтерского учета по каждому виду продукции, мы рекомендуем использовать дополнительных бухгалтерских счетов согласно национальному стандарту бухгалтерского учета Республики Узбекистан № 21 «План счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности хозяйствующих субъектов и инструкция по его применению», счет 2210 – «Затраты услуг бухгалтерского учета общепроизводственного характера». [2]

Затраты услуг бухгалтерского учета, связанных с производством продукции (работ, услуг) и включаемые в производственную себестоимость продукции (работ, услуг) по данному счету, отражается следующим образом.

1. При израсходовании затрат оказания услуг бухгалтерского учета по каждому виду продукции (работ, услуг):

Дебет 2210 – «Затраты услуг бухгалтерского учета общепроизводственного характера»

Кредит 0200 – «Счета учета износа основных средств»

Кредит 0500 – «Счета учета амортизации нематериальных активов»

Кредит 1000 – «Счета учета материалов»

Кредит 6710 – «Расчетов с персоналом по оплате труда»

Кредит 6500 – «Задолженности по страхованию и платежах в целевые госуьдарственные фонды» и др.

2. При включении затрат услуг бухгалтерского учета по каждому виду продукции или услуг в общепроизводственные расходы:

Дебет счета 2510 – «Общепроизводственные расходы» или счета 2010 «Основное производство»

Кредит счета 2210 – «Затраты услуг бухгалтерского учета общепроизводственного характера».

Оказание услуг бухгалтерского учета в хозяйствующих субъектах относятся не только одному виду производств, но также могут быть общезначимыми, не связанными с производством продукции (работ, услуг). Такие затраты рекомендуем учитывать на счете 2220 «Расходы услуг бухгалтерского учета общезначимого характера». Эти затраты не включается в себестоимость продукции. По данному счету делаются бухгалтерские записи следующим образом.

1. При израсходовании затрат оказания услуг бухгалтерского учета общезначимого характера:

Дебет 2220 – «Расходы услуг бухгалтерского учета общезначимого характера»

Кредит 0200 – «Счета учета износа основных средств»

Кредит 0500 – «Счета учета амортизации нематериальных активов»

Кредит 1000 – «Счета учета материалов»

Кредит 6710 – «Расчеты с персоналом по оплате труда»

Кредит 6500 – «Задолженности по страхованию и платежах в целевые госуьдарственные фонды» и др.

2. При списании затрат услуг бухгалтерского учета общезначимого характера на расходы периода:

Дебет 9400 – «Счета учета расходов периода»

Кредит 2220 – «Расходы услуг бухгалтерского учета общезначимого характера».

В настоящее время как и в других государствах в Республике Узбекистан уделяется большое внимание на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, имеются большие возможности их созданию и развитию. На сегодняшний день общее количество субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства достигло около 400 тысяч. Около 45 процентов валового внутреннего продукта производится ими.

За последние годы в Республике Узбекистан созданы условия для развития малого бизнеса и частного предпринимательства, а также созданы законодательства для привлечения иностранных инвестиций.

Основным источником информации в управлении малого бизнеса и частного предпринимательства являются данные бухгалтерского учета. В целях совершенствования системы учета в субъектах малого бизнеса и частного предпринимательства в соответствии с 5 статьей Закона Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» разработан национальный стандарт

бухгалтерского учета № 20 «О порядке ведения упрощенного учета и составления отчетности субъектами малого бизнеса и частного предпринимательства», на основании которого:

– право выбора порядка ведения упрощенного бухгалтерского учета предоставляется субъектам малого предпринимательства на добровольной основе;

– ответственность за организацию бухгалтерского учета возлагается на его руководителя.

– При этом руководитель хозяйствующего субъекта вправе:

– создавать службу бухгалтерии под руководством главного бухгалтера или пользоваться услугами бухгалтера, привлеченного на договорных условиях;

– самостоятельно вести бухгалтерский учет;

– бухгалтерский учет отдельных объектов учета (основных средств, нематериальных активов, финансовых вложений и т.д.) ведется в соответствии с установленными требованиями других национальных стандартов бухгалтерского учета. [3]

Следовательно, как видно из вышеизложенного, независимо от форм собственности, видов деятельности, объема работ и структурных систем, каждый субъект малого бизнеса и частного предпринимательства по воле своего руководителя осуществляет ведение той или иной формы бухгалтерского учета.

Заключение. В настоящее время существуют проблемы в организации услуг бухгалтерского учета малого бизнеса и частного предпринимательства, в частности:

– по причине того, что у некоторых субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства нет возможностей для содержания отдельных служб бухгалтерского учета, им приходится незаконно использовать труд не квалифицированных специалистов;

– незаконное использование труда приглашенных специалистов приводит к сокрытию доходов этих лиц;

– для организации в каждом из субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства бухгалтерского учета, потребуется исходя из выше указанной статистики 400 тысяч сотрудников. А это, в свою очередь, создает потребность в квалифицированных бухгалтерах.

Также, в результате того, что требуется конкретно определить ответственность и обязательства лиц, ведущих бухгалтерский учет в субъектах малого бизнеса и частного предпринимательства, возникают трудности в ведении и составлении бухгалтерского учета и отчетности. Кроме того, незаконное использование неквалифицированных специалистов в системе бухгалтерского учета в субъектах малого бизнеса и частного предпринимательства, приводит к нарушению принципов бухгалтерского учета, Закона «О бухгалтерском учете» и Налогового Кодекса Республики Узбекистан.

В целях устранения вышеуказанных проблем и изучения мирового опыта предлагается организация службы централизованного бухгалтерского учета для субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства.

Следовательно, организация службы централизованных услуг бухгалтерского учета подкреплено Законом Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете».

Субъектами централизованного бухгалтерского учета являются малый бизнес и частное предпринимательство, в том числе, общества с ограниченной ответственностью, частные предприятия, фирмы, фермерские хозяйства и др.

Объектом централизованного бухгалтерского учета является финансово-хозяйственная деятельность, хозяйственные средства, их источники и финансовые результаты малого бизнеса и частного предпринимательства.

Предметом централизованного услуг бухгалтерского учета является изучение и контроль хозяйственной деятельности, движение активов и пассивов малого бизнеса и частного предпринимательства.

Теоретической и нормативно-правовой основой организации служб централизованного бухгалтерского учета является Закон Республики Узбекистан “О бухгалтерском учете”, национальные стандарты бухгалтерского учета, Положение «О составе затрат по производству и реализации продукции (работ и услуг) и о порядке формирования финансовых результатов», а также, Указы и Постановления правительства в сфере организации и развития малого бизнеса и частного предпринимательства. Источником финансирования деятельности служб централизованного бухгалтерского учета являются вступительные взносы и отчисления за пользование оказанных услуг. Пользующиеся услугами службой централизованного бухгалтерского учета вначале уплачивают вступительные взносы в установленном объеме, и в дальнейшем отчисления с товарооборота или объема работ по согласованию сторон.

При определении стоимости и учета услуг централизованного бухгалтерского учета выше рекомендовано нами порядок, методы и методологи.

В заключении следует отметить, что организация бухгалтерского учета в хозяйствующих субъектах надо признать в качестве одного из видов услуг, а не в составе административного управления. Затраты и определение себестоимости услуг бухгалтерского учета следует распределить пропорционально между видами продукции (услуг, работ) по вышеуказанной рекомендации. Это даёт возможность точно определить место возникновение затрат в целях распределения каждой суммы в хозяйствующих субъектах и приводит к совершенствованию метода учета затрат.

Организация централизованных услуг бухгалтерского учета позволяет поднять на новый качественный уровень упрошенную систему бухгалтерского учета и отчетности. А также снизить расходы на ведение услуг бухгалтерского учета, повысить ответственность бухгалтеров и

совершенствовать учетную политику в субъектах малого бизнеса и частного предпринимательства.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» 1996г. 30.08. (от 13 апреля 2016 года № ЗРУ-404 «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете»).

2. Национальный стандарт бухгалтерского учета РеспубликиУзбекистан №21 «План счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности хозяйствующих субъектов и инструкция по его применению». Зарегистрированный МЮ. РУз.от 23.10.2002 г.№1181.

3. Национальный стандарт бухгалтерского учета Республики Узбекистан №20 «О порядке ведения упрощенного учета и составления отчетности субъектами малого бизнеса и частного предпринимательства». Зарегистрироованный МЮ. РУз. №879-2. от 11.07.2006 г.

4. Положение «О составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов». Постановление № 54 Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 февраля 1999г.

5. Безруких П.С. и др. Бухгалтерский учет. Учебник.-2-е изд. перераб. и доп.- М.: Бухгалтерский учет, 1996.- 576 с.

6. Бреславцева Н.А. и др. Бухгалтерский учет. Учеб. пособие. – Ростов н/Д.: Феникс, 2012. –318 с.

Misirov Komoliddin Mamasabirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
«Moliyaviy hisob va hisobot kafedrasi» professori
e-mail: misirovkomoliddin0218@gmail.com

MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK AUDITNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH ZARURIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda ekologik auditni tashkil etish va o‘tkazish zarurati, uning ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini baholashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ekologik auditning moliyaviy audit bilan bog‘liq jihatlari, milliy qonunchilik asoslari, nazariy yondashuvlari va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan, hamda amaliyotda qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari ochib berilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan ilmiy takliflar.

Kalit so‘zlar: audit, moliyaviy audit, ekologik audit, ekologik xavfsizlik, ekologik nazorat, ekologik ekspertiza.

Kirish. Jahonda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishini ekologik va ijtimoiy rivojlanishsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, hududlarning ekologik barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekotizimni muhofaza

qilish muammolarini hal etishga qaratilgan.

Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlari ekologik xavfsizlik tamoyillariga rioya qilish asosida tadbirkorlik faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish vositasi sifatida ekologik auditni rivojlanishining yangi yo‘nalishi ochib berilmoqda. Moliyaviy va ekologik audit kapitalini jalb qilish, investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish, resurslarni tejash, ekologik xarajatlarni kamaytirishda moliyaviy va ekologik auditni rivojlantirish muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ekologik auditning moliyaviy audit bilan o‘zaro aloqadorlik jihatlariga e’tibor qaratish talab etiladi.

Moliyaviy hisobotda ekologik xarajatlar va majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yetishmasligini qoplash uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarining axborot shaffofligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan va o‘z faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarida korxona tomonidan ishlab chiqarilgan qo‘shimcha ijtimoiy qiymatni baholashning imkoni mavjud emas.

Asosiy qisim. Ekologik audit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, shu jumladan, boshqaruv tuzilmasini shakllantirishda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ekologik xarajatlarni hisobga olishda ekologik standartlar muhim o‘rin egallaydi. Ekologik auditning boshqa audit turlaridan asosiy farqi shundaki, u har doim katta vaqt va kuch sarflash bilan birga keladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan foydalanishdagi faoliyati va atrof-muhitning ifloslanishi to‘g‘risidagi taxminiy ma’lumotlarning to‘planishi, tahlil qilinishi va hujjatlashtirilishini talab qiladi. Ekologik auditni o‘tkazish tadbirkorlik subyektlari atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiatni boshqarish va ekologik xavfsizlik sohasidagi talablarga muvofiqligini real baholashga, baholanadigan hududdagi zaif tomonlarni aniqlashga va tuzatish choralarini ishlab chiqishga imkon beradi. Ekologik auditning roli, shuningdek, ekologik huquqbuzarliklarni ilgari aniqlash vositasi sifatida juda muhimdir. Atrof-muhitni hisobga olishning ajralmas qismi bo‘lib ekologik audit hisoblanadi, bu xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarni muntazam ravishda baholash imkonini beradi. Mamlakatning ekologik va iqtisodiy holatini uning va ekologik ko‘rsatkichlarda aks etishini baholashda yondashuvlarini hisobga olgan holda, biz milliy iqtisodiyotni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Respublikada ekologik auditni tashkil qilish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, –«Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi Qonun 2000-yil 25-mayda qabul qilingan bo‘lsa, 2013-yil 27-dekabrda «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi[11] O‘RQ-363-sonli Qonun bilan yangi tahrirda qabul qilindi va unda ekologik audit tushunchasi o‘z aksini topdi. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 8-oktyabrdagi «Ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 286-sonli qarori bilan «Ekologik audit to‘g‘risida»gi Nizom[12] tasdiqlandi.

[11] O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi O‘RQ-363-son «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi Qonuni.. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 52-son, 688-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son; 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 8-oktyabrdagi 286-son «Ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 41-son, 525-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.11.2017-y., 09/17/915/0259-son, 07.03.2019-y., 09/19/195/2712-son.

Rossiya Federatsiyasida ekologik audit tushunchasi 2002-yil 10-yanvarda qabul qilingan «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi 7-FZ-sonli Federal Qonunda[13] o‘z aksini topgan.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda davlat siyosatini amalga oshirishda muhim element ekologik audit hisoblanib, xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda atrof-muhitga ta’sirini har tomonlama nazorat va tahlil qilishni ta’minlaydi. Ekologik audit xo‘jalik yurituvchi subyektning ekologik faoliyat samaradorligini oshirishga oxir-oqibat atrof-muhitga antropogen yukning pasayishiga olib keladi. Ekologik auditning mohiyatini yoritish uchun avvalo moliyaviy auditga to‘xtalib o‘tish zarur.

Moliyaviy auditda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va moliyaviy hisobotlarida aks ettiriladigan barcha muomalalarning auditi tushuniladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditining qonuniy-me’yoriy asosi sifatida auditning xalqaro standartlari muhim o‘rin tutib, u ushbu kasb bilan shug‘ullanishning muayyan me’yorlarini belgilab beradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy xo‘jalik faoliyatiga doir axborotlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, undagi natijalarni baholashga yangicha, zamonaviy uslublar asosida yondashish juda muhimdir. Moliyaviy auditda xo‘jalik yurituvchi subyektning, shuningdek, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar, buxgalteriya hisoboti va hisobotni tartibga solish tizimidagi o‘zgarishlar, bu barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga oladigan ularning xarajatlari va foydasi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarni olish imkoniga ega bo‘lishi zarur.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tekshirishda auditor barcha yo‘nalishlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi, asosiy, investitsiya va boshqa, shu jumladan, moliyaviy faoliyat o‘rtasidagi munosabatni aniqlashi kerak. Auditor xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati bilan to‘liq tanishishi kerak, shuningdek, auditor nafaqat buxgalteriya ma’lumotlarini, balki keng ma’lumot olishini nazarda tutadi. Bu bir tomondan, auditorlik tekshiruvi sifatini va hisobotning ishonchliligi to‘g‘risidagi xulosalarning ishonchliligini ta’minlaydi, boshqa tomondan esa auditor xulosalari doirasini kengaytiradi.

Bu borada xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlari o‘zlarining quyidagicha yondashuvlarini keltirgan. E.A.Arens, Dj.K.Lobeklarning fikricha, «moliyaviy hisobot auditi jamlangan moliyaviy hisobot (ma’lumotlari tekshirilishi mumkin bo‘lgan) ma’lum mezonlarga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun moliyaviy hisobot auditi o‘tkaziladi»[14] degan fikirni bildirgan.

V.I.Podolskiyning ta’kidlashicha, «moliyaviy audit (moliyaviy hisobot auditi) moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligiga baho beradi. Moliyaviy audit birinchi navbatda mustaqil auditorlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning ishi moliyaviy hisobot bo‘yicha xulosa berishdir»[15].

I.N.Qo‘ziyev va boshqalar «Moliyaviy hisobot auditi – bunday tekshiruv moliyaviy va buxgalteriya xodimlari tomonidan o‘tkazilib, asosan korxonaning

[13]Федеральный закон РФ от 10 января 2002 г «Об охране окружающей среды» №7-ФЗ (действующая редакция 2018).


[14] Аренс А.Э., Лобек Дж.К. Аудит: Учебник. М.: Финансы и статистика, 2001. С.12..

[15] Подольского В.И. Аудит: Учебник. М.: Юнити UNITY, 2011. С. 29.

to‘lov qobiliyati, moliyaviy natijalar, sotish jarayonlarining hisobotlarida qanchalik darajada aks ettirilganligi tekshiriladi»[16].

N.F.Karimov va boshqalar «Korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining auditorlik tekshiruvini o‘tkazishda hisobot shakllaridagi ko‘rsatkichlar, hisob registrlari va dastlabki hujjatlar auditning ma’lumot bazasi sifatida qo‘llaniladi»[17] deb ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunning 32-moddasida auditorlik tekshiruvi quyidagicha keltirilgan. Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining va u bilan bog‘liq moliyaviy axborotining auditorlik tekshiruvi tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotning ishonchliligini va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladi[18].



1-rasm. Ekologik audit tushunchasining talqini[19]

Ekologiyani tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yuqori organlar o‘rtasida bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarning murakkab ko‘p darajali tizimi hisoblanadi. Ekologik audit ushbu munosabatlarni birlashtirishda, atrof-muhitni muhofaza qilishning tashkiliy va iqtisodiy omillarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kungacha jamiyatda ekologik audit, jumladan, ekologik xarajatlar auditining mohiyati to‘g‘risida umumiy tushuncha mavjud emas. Uning ahamiyati va davlat boshqaruv tizimidagi o‘rni aniqlanmagan, bu turli xil talqinlarga olib keladi. Ekologik audit tushunchasini quyidagi rasmdan ko‘rish mumkin (1-rasm):

Ekologik audit va moliyaviy audit kapitalni jalb qilish, investitsiyalarni

[16] Qo‘ziev I.N va boshqalar. Audit: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 18b. 416 b.

[17] Karimov N.F va boshqalar. Amaliy audit. Darslik. T.: “Lesson Press” 2021. 199 b.

[18] O‘zbekiston Respublikasi 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-son. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021-y., 03/21/677/0155-son, 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son.

[19] Muallif tomonidan tayyorlangan.

rivojlantirish, nou-xau, resurslarni tejash, ekologik xarajatlarni kamaytirish hamda hokazolar bo‘yicha iqtisodiy va ekologik baholashni amalga oshirishi kerak.

Xulosa. Ekologik audit ushbu munosabatlarni birlashtirishda, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning tashkiliy va iqtisodiy omillarini o‘z ichiga oladi. Bu atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish tuzilmalari uchun eng maqbul variantni tanlashga, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vositalarining holati va ishlash darajasi ustidan axborot-tahliliy nazoratni tashkil etishga, rejalashtirilgan texnik va texnologik yaxshilanishiga iqtisodiy baho berishga imkon beradi. Ekologik xavfsizlik tizimiga integratsiyalash, atrof-muhitni muhofaza qilish, oqilona boshqarish sohasidagi qonunchilik talablarini kuchaytirishda auditorlik faoliyatida yangi yo‘nalish hisoblanib, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda ekologik audit muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik audit metodologiyasining asosiy elementlari bo‘lgan ekologik audit, ekologik auditor, ekologik audit obyekti, ekologik audit subyekti, ekologik auditorlik tashkiloti, ekologik auditorlik faoliyati va ekologik audit xulosasini berishga doir taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi «Ekologik audit to‘g‘risida»gi O‘RQ-678-son Qonunning «Asosiy tushunchalar» deb nomlangan 3-moddasida o‘z aksini topgan. Natijada berilgan taklif xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ekologik auditni tashkil etish va o‘tkazishning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi O‘RQ-363-son «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 52-son, 688-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son; 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 8-oktyabrdagi 286-son «Ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 41-son, 525-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.11.2017-y., 09/17/915/0259-son, 07.03.2019-y., 09/19/195/2712-son.

3. Федеральный закон РФ от 10 января 2002 г «Об охране окружающей среды» №7-ФЗ (действующая редакция 2018).

4. Аренс А.Э., Лобек Дж.К. Аудит: Учебник. М.: Финансы и статистика, 2001. С.12.

5. Подольского В.И. Аудит: Учебник. М.: Юнити UNITY, 2011. С. 29.

6. Иутин.И.Г. Экологический аудит: роль, сущность и вопросы, требующие правового регулирования // Журнал российского права. 2008. № 2. С. 94-102.

7. Qo‘ziev I.N va boshqalar. Audit: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 18б. 416 b.

8. Karimov N.F va boshqalar. Amaliy audit. Darslik. T.: «Lesson Press» 2021. 199 b

Abdusalomova Nodira Baxodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
Samiyev Abdurashid Qahramonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” fakulteti 3-kurs talabasi
abdurashidjonsamiyev@gmail.com +998979263105

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY TIZIMINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bilan uyg‘unlashtirishning iqtisodiy zaruriyati va bu jarayondagi mavjud muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hisob tizimining shaffofligini oshirish va investitsiyaviy jozibadorlikni ta’minlashda moliyaviy hisobotlarning xalqaro andozalarga o‘tishi muhim omil ekanligi asoslab berilgan hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot strategiyasi, buxgalteriya hisobining milliy standarlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, raqamli hisob, transformatsiya, moliyaviy shaffoflik, investitsion jozibadorlik.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning ochiqligini ta’minlash jarayonida buxgalteriya hisobining milliy tizimini xalqaro standartlar asosida qayta qurish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global moliya bozorlariga integratsiyalashuv hamda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, eng avvalo, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligi va shaffofligiga bevosita bog‘liqdir.

Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishida “moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga to‘liq o‘tish orqali korxonalarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, kapital bozorida investorlar uchun jozibador muhit yaratish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu strategik maqsad buxgalteriya hisobini shunchaki qayd etish vositasi emas, balki investitsion qarorlar qabul qilishning strategik mexanizmiga aylantirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, amaliyotda milliy hisob tizimidan xalqaro andozalarga o‘tish jarayoni faqatgina uslubiy o‘zgarish emas, balki chuqur institutsional transformatsiyani talab etadi. Ayniqsa, raqamli

iqtisodiyot sharoitida hisob ma’lumotlarini qayta ishlash tezligi va sifatiga bo‘lgan talabning ortishi bu sohadagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda “aktsiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va e’lon qilinadigan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlashi” [2] belgilab qo‘yilganligi milliy hisob tizimini jahon talablariga moslashtirishning huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qildi. Tahlillar ko‘rsatishicha, xalqaro standartlarga o‘tish moliyaviy hisobotlarning sifatini oshiradi:

Ma’lumotlarning qiyosiyligi: Milliy korxonalarning moliyaviy hisobotlari xalqaro investorlar uchun tushunarli va dunyo miqyosidagi boshqa kompaniyalar ko‘rsatkichlari bilan solishtirish mumkin bo‘lgan holatga keladi.

Investitsion jozibadorlik: Shaffof va xalqaro andozalarga mos hisobotlar kapital bozorida korxonalarning ishonchlilik reytingini oshiradi, bu esa arzonroq moliyaviy resurslarni jalb etish imkonini beradi.

Raqamlashtirish samaradorligi: MHXSga o‘tish buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun qulay metodologik zamin yaratadi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida MHXSga to‘liq o‘tishda kadrlar malakasi va milliy qonunchilikdagi ba’zi tafovutlar to‘siq bo‘layotgani aniqlandi. Ayniqsa, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlarni haqqoniy qiymatda baholash va zaxiralarni hisobga olishda xalqaro uslubiyotlarni qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish zarurati mavjud.

Quyidagi jadvalda ushbu islohotlar natijasida MHXSga o‘tishning korxona faoliyatiga ta’siri va strategik afzalliklari qiyosiy tahlil qilingan:

1-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning korxonalar uchun iqtisodiy afzalliklari.

Ko‘rsatkichlar	Milliy hisob tizimi	Xalqaro hisob tizimi
Foydalanish ko‘lami	Cheklangan, faqat ichki foydalanuvchilar uchun	Xalqaro darajadagi ochiqlik va ishonchlilik
Investitsiya jalb etish	Xorijiy investorlar uchun tushunarsiz	Xalqaro bozorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati
Raqamli integratsiya	Qisman avtomatlashtirilgan	ERP va Sun’iy intellekt bilan muvofiqligi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MHXS asosida shakllantirilgan moliyaviy hisobotlar korxonalarga tashqi qarz bozorlaridan arzonroq resurslar jalb qilish imkonini beradi. Ayniqsa, strategiyada ko‘zda tutilgan xususiylashtirish jarayonlarida xalqaro standartlarning roli beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, milliy buxgalteriya hisobi tizimini MHXS asosida transformatsiya qilish iqtisodiyotning shaffofligini oshirishdagi fundamental qadamdir. Milliy standartlarni xalqaro andozalar bilan uyg‘unlashtirish korxonalarning investitsion jozibadorligini yuksaltirish barobarida, kapital

bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, hisob jarayonlariga sun’iy intellekt va raqamli ekotizimlarni tatbiq etish hamda soha mutaxassislarining xalqaro ko‘nikmalarini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabr, № PF-158-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 24-fevral, № PQ-4611-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2016-yil 13-aprel, № O‘RQ-404-son.
4. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standards (IFRS) Blue Book. London: IFRS Publications, 2024.
5. Smith, J., & Brown, T. Digital Transformation in Accounting: Moving to IFRS and Cloud Systems. New York: Wiley & Sons, 2023.

Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich
Namangan davlat texnika universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedra dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
e-mail: xulugbek1984@gmail.com

XO‘JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLARDA DEBITOR QARZLARI AYLANISHI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatida debitor qarzlari aylanishini tahlil qilishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda debitor qarzlari tarkibi, ularning kapital aylanishi jarayonidagi o‘rni, debitor qarzlari aylanish soni hamda davrini aniqlashda qo‘llanilayotgan yondashuvlar tanqidiy tahlil qilingan. Mavjud usullarda mahsulot sotishdan sof tushum va mahsulot sotishdan daromad ko‘rsatkichlarining ayrim hollarda bir xil mazmunda qo‘llanishi tahlil natijalarining aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: debitor qarzlari, debitor qarzlari tahlili, debitor qarzlari aylanishi, debitor qarzlari aylanish soni, debitor qarzlari aylanish davri, sof tushum, sotishdan daromad, joriy aktivlar, moliyaviy tahlil, kapital aylanishi

Kirish. Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining barqarorligi, avvalo, kapitalning uzluksiz aylanishi va moliyaviy resurslarning o‘z vaqtida qayta tiklanishiga bog‘liq. Ishlab chiqarish va tijorat faoliyati jarayonida mablag‘lar ta’minot, ishlab chiqarish, sotish hamda muomala bosqichlaridan o‘tib, foyda keltiruvchi pul oqimiga aylanishi lozim. Ushbu jarayon qanchalik tez amalga oshsa, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining samaradorligi shunchalik yuqori

Состав отчетности для крупных предприятий	Бухгалтерский баланс, отчет о фин. результатах, отчет об изменениях капитала, отчет о движении ДС, пояснительная записка	Аналогично + отчет о целевом использовании средств (для НКО)
Формат баланса	Две формы: общая и упрощенная (для МСП)	Единая форма (утверждена Минфином
Обязательность аудита	Если выручка >400 млн руб. или активы >60 млн руб.	Если выручка >1 млрд сум (≈8 млн руб.) – значительно ниже порог

Если говорить об основных сходствах и различиях двух систем, то следует выделить следующее. Законодательная база обеих стран включает четырехуровневую систему, но в России больше подзаконных актов (писем Минфина).

Учет курсовых разниц в обеих странах ведется по методу МСФО 21. При этом в России утверждено ПБУ 3/2006, в Узбекистане – НСБУ №18. Принципиальных различий в учете курсовых разниц не имеется.

Налоговый учет ведется в обеих странах. В Российской Федерации он ведется в соответствии с требованиями гл. 25 Налогового кодекса, в Узбекистане – бухгалтерский учет является базой для налога (кроме НДС).|

Подводя итоги сравнительному анализу двух систем бухгалтерского учета в контексте ведения совместного бизнеса, следует иметь в виду следующие практические сложности:

1. Разная амортизация основных средств приводит к корректировке налога на прибыль. При этом в Республике Узбекистан применяется единый Налоговый кодекс, где амортизация совпадает с бухгалтерской.

2. Пороги стоимости активов – объект, являющийся основным средством в Российской Федерации, в Узбекистане может считаться МПЗ (и наоборот).

3. Отсутствие в Узбекистане аналога ПБУ 18/02, поэтому временные разницы по налогу на прибыль в учете не отражаются.

В связи с этим, для совместных предприятий придется вести двойной учет – в регистрах по стандартам страны регистрации, с последующей трансформацией в отчетность по МСФО для головной компании. А в перспективе для органов государственной власти обеих сторон целесообразно предусмотреть возможности унификации лимитов стоимости основных средств как в рамках ЕАЭС (для России), так и СНГ (для Узбекистана), приняв единый порог оценки.

Таким образом, проведенный сравнительный анализ стандартов бухгалтерского учета России и Узбекистана показал, что, несмотря на общее происхождение, системы существенно разошлись. Узбекистан выбрал путь более прямого копирования МСФО (с национальными упрощениями), а Россия сохранила уникальные ПБУ, во многом ориентированные на налоговые цели. Выявлено, что несмотря на формальное стремление обоих государств к МСФО, российские стандарты предоставляют больше альтернативных вариантов учета, тогда как узбекские сохраняют унифицированные подходы к формированию себестоимости. В отличие от России, в Узбекистане отсутствует ПБУ 18/02, что приводит к разнице в расчетах налога на прибыль».

Основные различия касаются: методов амортизации основных средств, порога отнесения объектов к ОС, наличия/отсутствия учета отложенных налогов, формата и состава отчетности. Для успешного ведения бизнеса на территориях обоих государств необходимо разрабатывать внутренние регламенты трансформации и использовать МСФО как «мост» между двумя национальными системами. Дальнейшие исследования могут быть направлены на сравнительный анализ учетных стандартов в разрезе отдельных отраслей (строительство, сельское хозяйство, банковский сектор).

Список литературы:

1. Федеральный закон от 06.12.2011 № 402-ФЗ «О бухгалтерском учете» (ред. от 05.12.2022).

2. Закон Республики Узбекистан от 30.08.1996 года № 279-I «О бухгалтерском учете».
3. Закон Республики Узбекистан от 13.04.2016 № ЗРУ-404 «О бухгалтерском учете».
3. Национальный стандарт бухгалтерского учета Республики Узбекистан № 5 «Основные средства» (утв. приказом Минфина республики Узбекистан от 22.08.2005 № 97).
5. ФСБУ 6/2020 «Основные средства» (приказ Минфина РФ от 17.09.2020 № 204н).
6. Керимов В.Э. Бухгалтерский учет в странах СНГ: сравнительный анализ. – М.: Дашков и К°, 2023. – 412 с.
7. Абдуллаев И.Р. Гармонизация учета в Узбекистане с МСФО // Журнал «Бухгалтерский учет и аудит». – 2024. – № 2. – С. 34-41.

Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna
PhD "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari" MTU "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsent v.b. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktaranti,

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING MASALALARI

Annotatsiya. Moliyaviy hisobot va mahsulot tannarxini aniqlashda ishlab chiqarish xarajatlarini to'liq yoki qisman hisoblash tizimlari korxona samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Absorption Costing va variable costing tizimlari eng keng qo'llaniladigan yondashuvlar bo'lib, ular ishlab chiqarish xarajatlarini turlicha hisoblash orqali foyda va mahsulot narxini belgilaydi. So'nggi yillarda murakkab va xilma-xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda Activity-Based Costing (ABC) tizimi ishlab chiqilgan, u yordamchi faoliyatlar va resurslardan kelib chiqqan xarajatlarni aniqroq taqsimlash imkonini beradi . Ushbu maqolada AC va VC tizimlari o'rtasidagi farqlar, ABC tizimining zaruriyati va real korxona misoli asosida tahlil keltiriladi.

Kalit so'zlar: absorption costing, variable costing, to'liq tannarx, marjinal daromad, doimiy xarajatlar, o'zgaruvchan xarajatlar, boshqaruv hisobi, foyda shakllanishi.

Kirish. Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi zamonaviy korxona faoliyatida strategik ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot yoki xizmat tannarxini aniqlash, foyda va xarajatlarni nazorat qilish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Har bir korxona o'z faoliyatini samarali boshqarish uchun mahsulot yoki xizmatning haqiqiy tannarxini bilishi, shuningdek, foydani aniqlashda to'g'ri yondashuvni tanlashi zarur. Shu nuqtai nazardan, mahsulot tannarxini hisoblashning ikki asosiy tizimi Absorption Costing va Variable Costing – moliyaviy boshqaruvda muhim o'rin tutadi.

Absorption Costing yoki “to‘liq tannarx usuli” barcha ishlab chiqarish xarajatlarini, jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri material, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat, o‘zgaruvchan va doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritadi. Bu yondashuv moliyaviy hisobot va soliq hisobotlarini tayyorlashda majburiy bo‘lib, korxona aktivlarining qiymatini, shu jumladan inventarizatsiya qiymatini aniq aks ettirish imkonini beradi. Shu bilan birga, absorption costing korxona rahbariyatiga narx belgilash va strategik rejalashtirishda ham muhim ma’lumotlar beradi.

Variable Costing tizimi esa faqat o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritadi, doimiy ishlab chiqarish xarajatlari esa davr xarajatlari sifatida daromaddan chiqariladi. Bu tizim korxona rahbariyatiga qaror qabul qilishda xususan, mahsulot liniyalarini tanlash, ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish va qisqa muddatli narx belgilashda aniq va tezkor ma’lumot beradi. Variable costingda markaziy tushuncha contribution bo‘lib, u mahsulot yoki xizmatdan olingan foyda va doimiy xarajatlar munosabatini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Mahsulot tannarxi va foyda hisoblashda ikki tizim orasidagi farqlar korxona balansini va daromadlarni baholashda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, absorption costingda inventarizatsiya bahosi yuqoriroq bo‘ladi, chunki inventarizatsiya qiymatiga doimiy ishlab chiqarish xarajatlari ham kiritiladi. Variable costing esa inventarizatsiyada faqat o‘zgaruvchan xarajatlarni aks ettiradi, bu esa foydani aniqlash va nazorat qilishda aniqroq va tezroq qaror qabul qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada Absorption Costing va Variable Costing tizimlarining nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi, mahsulot tannarxi va foyda hisoblashdagi farqlarini tizimli ravishda tahlil qiladi. Shu bilan birga, maqolada real korxona misollari asosida ikki tizim natijalari solishtiriladi va ularning boshqaruv qarorlariga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Ushbu tadqiqotning natijalari nafaqat ilmiy nazariy jihatdan, balki amaliy boshqaruv jarayonlarida ham qo‘llanishi mumkin.

1-jadval

Absorption Costing va Variable Costingning farqli jihatlari

Asosiy jihatlari	Absorption Costing	Variable Costing
Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar	To‘g‘ridan-to‘g‘ri material, mehnat, o‘zgaruvchan va doimiy ishlab chiqarish xarajatlari	To‘g‘ridan-to‘g‘ri material, mehnat va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari (doimiy xarajatlar davr xarajati sifatida)
Foyda hisoblash metodi	Foyda = Savdo – Tannarx (barcha xarajatlar)	Foyda = Contribution – Doimiy xarajatlar
Inventarizatsiya bahosi	Yuqori, chunki doimiy ishlab chiqarish xarajatlari ham kiritiladi	Past, chunki doimiy ishlab chiqarish xarajatlari kiritilmaydi
Qaror qabul qilishdagi ahamiyati	Moliyaviy hisobot va soliq hisobotlari uchun muhim	Qisqa muddatli boshqaruv qarorlari va narx belgilash uchun qulay

Asosiy jihatlari	Absorption Costing	Variable Costing
Xarajatlarni tahlil qilish jaryoni	Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar birlashtiriladi	Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar alohida tahlil qilinadi
Foyda olish hajmi	Inventarizatsiya hajmiga bog‘liq	Foyda faqat sotilgan mahsulotga bog‘liq

“Uztextile” aksiyadorlik jamiyati yillik faoliyatida turli to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Korxona moliyaviy hisob-kitoblarda mahsulot tannarxini aniqlash va foyda tahlilini samarali amalga oshirish maqsadida absorption costing va variable costing metodlarini qo‘llashga qaror qilgan. Ishlab chiqarish va sotish hajmi har oy o‘zgarib turadi, shuning uchun foyda ko‘rsatkichlarida farqlar yuzaga kelishi tabiiy.

- Normal ishlab chiqarish hajmi: 19, 500 birlik
- Sotish narxi: 4 bir birlik uchun
- O‘zgaruvchan xarajat: 2 bir birlik uchun
- Doimiy xarajat: 1 bir birlik uchun
- Umumiy doimiy xarajat: 19, 500 (’1 x 19, 500 birlik)
- Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmlari har oy bir-biriga teng emas, ba’zi davrlarda ortiqcha yoki yetishmovchilik mavjud.
- Sotish va distribyutsiya xarajatlari hisobga olinmagan.

2-jadval

“Uztextile” AJda Absorption Costing va Variable Costing tizimlari asosida mahsulot tannarxi hamda moliyaviy natijalarining taqqoslama tahlili

Ko‘rsatkichlar	Absorption Costing	Variable (Marginal) Costing
Mahsulot tannarxi (1 birlik)	3	2
Inventarizatsiya qiymati	58 500	39 000
Sotilgan mahsulot tannarxi	30 000	20 000
Savdo daromadi	40 000	40 000
Marjinal daromad	–	20 000
Doimiy xarajatlar	19 500	19 500
Sof foyda	500	500

“Uztextile” AJ misolida Absorption Costing va Variable Costing tizimlari o‘rtasidagi metodologik farq, avvalo, doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini tan olish vaqtida namoyon bo‘ladi. Absorption Costing usulida doimiy xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilib, zaxiralar tarkibida kapitalizatsiya qilinadi, Variable Costingda esa ular to‘liq davr xarajati sifatida darhol foydadan chegiriladi. Natijada mahsulot birligi tannarxi mos ravishda 3 va 2 birlikni tashkil etadi. Bu tafovut inventarizatsiya bahosida sezilarli farqni yuzaga keltiradi: to‘liq tannarx usulida

zaxiralar qiymati yuqoriroq shakllanadi, marjinal usulda esa pastroq baholanadi. Shunday qilib, aktivlar va moliyaviy natijalar koʻrsatkichi qoʻllanilayotgan metodologiyaga bogʻliq ravishda oʻzgaradi.

Berilgan sharoitda 10 000 birlik mahsulot sotilganda har ikkala tizim boʻyicha yakuniy foyda 500 birlikni tashkil etmoqda. Biroq bu natija ishlab chiqarish va sotish hajmlari oʻrtasidagi nisbat hamda doimiy xarajatlarning taqsimlanish mexanizmi bilan izohlanadi. Agar ishlab chiqarish hajmi sotishdan yuqori boʻlsa, Absorption Costing tizimida foyda nisbatan yuqoriroq koʻrinishi mumkin, chunki doimiy xarajatlarning bir qismi zaxiralarda “muzlatiladi”. Aksincha, sotish hajmi ishlab chiqarishdan oshib ketgan davrda Variable Costing foydani nisbatan yuqori koʻrsatadi. Demak, foyda koʻrsatkichining oʻzgarishi iqtisodiy samaradorlikdan koʻra, xarajatlarni tan olish vaqtiga bogʻliq metodologik omil bilan izohlanadi.

Ilmiy jihatdan mazkur holat shuni koʻrsatadiki, Absorption Costing tashqi moliyaviy hisobot va aktivlarni baholash nuqtai nazaridan muhim boʻlsa, Variable Costing boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, xususan marjinal daromad, zararsizlik nuqtasi va operatsion leverej tahlilida yuqori axborot qiymatiga ega. Shu bois korxona amaliyotida ikki tizimni integratsiyalashgan holda qoʻllash boshqaruv hisobining metodologik takomillashuv yoʻnalishi sifatida baholanishi mumkin.

Koʻplab xorijiy va milliy olimlar marjinal tannarx (variable costing) va toʻliq tannarx (absorption costing) tizimlarini alohida-alohida tahlil qilganlar. Ularning izlanishlarida har bir tizimning afzalliklari, cheklovlari va qoʻllash sohasi aniq bayon qilingan, ammo ikkala tizimni integratsiyalashgan holda birgalikda qoʻllash metodologiyasini amaliyotga joriy etish va samaradorligini oʻlchash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli, korxona boshqaruvida ikki tizimni birlashtirish konsepsiyasi ilmiy jihatdan yangi yondashuv sifatida qaraladi.

Bizning fikrimizcha qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini marjinal tannarx asosida, uzoq muddatli strategik rejalashtirish va moliyaviy hisobotlarni esa toʻliq tannarx asosida amalga oshirish korxona resurslarini maksimal samarali ishlatishga, foyda va hissa (contribution)ni optimallashtirishga imkon beradi.

Integratsiyalashgan narx belgilash tizimi qaror qabul qilish jarayonini nafaqat statik xarajatlar va foyda koʻrsatkichlariga bogʻlamaydi, balki bozor sharoitlari, talab oʻzgarishi va ishlab chiqarish quvvatlarining real vaqt holatini hisobga oladi. Shu orqali rahbariyat tezkor va aniq moliyaviy qarorlar qabul qila oladi hamda mavjud resurslardan maksimal samarali foydalanish imkoniyatiga ega boʻladi.Bundan tashqari, tizim qisqa muddatli operatsion qarorlar (masalan, ishlab chiqarish hajmi, narx siyosati va hissa tahlili) bilan uzoq muddatli strategik rejalashtirish va investitsion loyihalarni baholashni uygʻunlashtiradi. Bu yondashuv korxona boshqaruvida qarorlar orasidagi uygʻunlikni ta’minlaydi va strategik rejalashtirishni real operatsion jarayonlarga moslashtirish imkonini beradi.Shuningdek, integratsiyalashgan tizim orqali boʻsh quvvat, narxlarning oʻzgarishi, talab pasayishi yoki raqobatchilarning ta’siri kabi risklarni oldindan aniqlash va ularni minimal zarar bilan boshqarish mumkin boʻladi. Natijada korxona bozor sharoitlariga tez moslashadi, strategik imkoniyatlarni qoʻldan boy

bermaydi va rentabellikni barqaror saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdusalomova, N.B. Moliyaviy va boshqaruv hisobi metodologiyasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2024.
2. Bhimani, A., Horngren, C., Datar, S., Rajan, M. Management and Cost Accounting. – Harlow: Pearson Education, 2019.
3. Drury, C. Management and Cost Accounting. – 10th Edition. London: Cengage Learning, 2018.
4. Horngren, C., Datar, S., Rajan, M. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – 16th Edition. New York: Pearson, 2020.
5. Kaplan, R., Atkinson, A. Advanced Management Accounting. – 3rd Edition. Boston: Pearson, 2015.
6. S.N. Tashnazarov, K.B. Urazov, D.S. Toshnazarova. Boshqaruv buxgalteriya hisobi: Oliy o‘quv yurtlari ta’lim yo‘nalishi uchun darslik. – Toshkent: 2022. – 555 b.

Abdullayev Abdurauf
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
Andijon davlat texnika instituti

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SOLIQQA TORTISH VA UNI HISOBINI YURITISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Qishloq xo‘jaligi korxonalari va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning eng muhim muammolaridan biri, bu soliq tizimidir. Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan ushbu muammoning dolzarbligi buxgalteriya hisobida korxonalarning xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni mutlaq qiymati soliqqa tortish uchun asos bo‘ladigan ko‘rsatkichlar shaklida umumlashtirishi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: soliq tizimi, mutlaq qiymat, soliq qonunchiligi, davlat byudjeti, soliq bazasi, soliq hisobi, foyda, yer maydoni, suv xajmi, soliq bosimi.

Kirish. Soliq qonunchiligining mukammal emasligi va beqarorligi, buxgalteriya hisobi va soliq qonunchiligi bazasining ayrim masalalarida nomuvofiqlikni mavjudligi, soliq to‘lovchilarning soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarligi, zarur bo‘lgan shaffof ma’lumotlarning yetishmasligi-bularning barchasi boshqa shunga o‘xshash muammolar bilan bir qatorda har bir soliq to‘lovchi uchun noaniqlik va ishonchsizlik holatini yaratadi va davlatda byudjet beqarorligi elementini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, soliq to‘lovchi va uni oluvchi qarama-qarshi maqsadlarni: birinchisi-imkon qadar kamroq to‘lash, ikkinchisi-imkon qadar ko‘proq olish maqsadini ko‘zlaydilar. To‘lovchining xatti-harakatlariga soliq bazasining mavjudligi va uni minimallashtirish istagi ta’sir qiladi. Amaldagi soliq amaliyotini tahlil qilish orqali shuni ta’kidlash kerakki, hozirda quyidagi ko‘rsatkichlar soliq bazasi hisoblanadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yaratgan qo‘shimcha qiymati,
- qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan faoliyatdan olingan foyda,
- yer maydoni,
- suvni boshqarish tizimlaridan olinadigan suv hajmi,
- avtotransport vositalarining quvvati (ot kuchi).

Buxgalteriya hisobida bunday xilma-xil soliq bazalari va soliq stavkalarining mavjudligi soliq summalarini hisoblash va hisobga olishning murakkabligiga olib keladi. Soliq hisobini aks ettiruvchi ko‘p sonli yozuvlar qishloq xo‘jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishni murakkablashtiradi. Binobarin, soliq solinadigan bazalarning ko‘pligi, soliqlarni hisoblashdagi turli xil hisob-kitoblar, summalarni schyotlarda aks ettirish uni soddalashtirishga to‘sqinlik qiladi.

Soliqlarning ko‘pligi, ularni hisoblashning murakkabligi va ularni ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish tartibi tovar ishlab chiqaruvchilarga soliqlarning byudjetga tushadigan oylik, choraklik va yillik miqdorini tezda aniqlashga imkon bermaydi, bu esa iqtisodiy va moliyaviy faoliyatni rejalashtirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Amalda qishloq xo‘jaligi korxonalari qishloq xo‘jaligidan tashqari faoliyatdan ham foyda olishlari mumkin. Ayniqsa o‘simlikchilikda ishning mavsumiyligi hisobga olinsa, ishlab chiqarishning pasayishi davrida qishloq xo‘jaligi korxonalari xodimlari boshqa faoliyat bilan ham shug‘ullanishlari mumkin. Masalan, qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlarda, sanoat tarmoqlarida ularga berilgan xom ashyoni qayta ishlaydigan korxonalarda. Ushbu faoliyatdan olingan daromadning salmog‘i ham sezilarli darajada yuqori bo‘lishi mumkin, ammo u korxonalarning qishloq xo‘jaligi faoliyatini rivojlantirishda inobatga olinmaydi. Binobarin, foydadan soliqqa tortish uchun asos sifatida foydalanish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishni yetarlicha rag‘batlantirmaydi. Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, soliq tizimini soddalashtirish maqsadida mavjud imtiyozlarni hisobga olgan holda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ushbu turdagi soliqlarni to‘lashdan deyarli ozod qilinganligi sababli, qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun ular qonun bilan hech qanday cheklovlarsiz bekor qilinishi kerak.

Yerdan foydalanish uchun to‘lov qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Yer uchun to‘lov yer uchastkasining sifati, joylashuvi va suv ta’minotiga qarab belgilanadigan yer solig‘i yoki ijara haqi shaklida taqdim etiladi. Ijaraga oluvchi ijara haqini to‘laydi, uning miqdori tomonlarning kelishuvi bilan respublika qonunchiligida belgilangan tartibda va chegaralarda belgilanadi.

Asosiy qism. O‘z mohiyatiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan olinadigan renta to‘lovlarini olib qo‘yishni nazarda tutadigan yer solig‘iga ham ba’zi iqtisodchilar tomonidan e’tirozlar bildirilmoqda. Ular ushbu soliqning asosiy kamchiligini ijara to‘lovlarini hisoblash usulida faqat differentsial renta 1 (yer va joylashuv sifatidagi farqlar) hisobga olinishi va differentsial renta 2 (kapital xarajatlar samaradorligidagi farqlar) hisobga olinmasligidadir, deb hisoblaydilar [2, 30 b.].

Yer solig‘i miqdori mulkdorlar, yer egalari, yerdan foydalanuvchilarning iqtisodiy faoliyati natijalariga bevosita bog‘liq bo‘lmagan holda har bir yil uchun

yer maydoni birligiga mutanosib ravishda barqaror to‘lovlar shaklida belgilanadi. Yer solig‘i to‘lovchilari-bu tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, barcha qishloq xo‘jaligi korxonalari hisoblanadi. Yuridik shaxslar tomonidan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va yordamchi dehqonchilik uchun berilgan qishloq xo‘jaligi yerlari, o‘rmon fondi yerlari, shuningdek xo‘jalik faoliyati uchun foydalaniladigan suv fondi yerlari soliq solish obyektlari hisoblanadi. Ijaraga berilgan yerlar uchun ijara haqi olinadi.

“Yer solig‘i“ ni joriy etishdan maqsad yerlardan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish, yangi yerlarni o‘zlashtirishni rag‘batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, har xil sifatli yerlarni boshqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirish, aholi punktlarida infratuzilmani rivojlantirishni ta’minlash va ushbu tadbirlarni moliyalashtirish uchun maxsus fondlarni shakllantirishdan iboratdir.

Yer solig‘i miqdori yerning kadastr hujjatlariga muvofiq yer uchastkasining maydoni, joylashuvi va sifatiga qarab aniqlanadigan bazaviy stavkalarga muvofiq belgilanadi. Haydaladigan yerlarning xar 1 gektariga solinadigan o‘rtacha soliq miqdori viloyatlar va tumanlarning yer sinflari bo‘yicha farqlanadi. Yer solig‘i stavkalari barcha turdagi (o‘rmon fondi tarkibidagi qishloq xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan) yerlar uchun belgilanadi.

Unumdorlik darajalariga ko‘ra, (yer turidan va haqiqiy foydalanish darajasidan qat’i nazar) kadastr tomonidan baholangan barcha yerlar soliqqa tortiladi. Qishloq xo‘jaligi yerlariga solinadigan yer solig‘i yer maydonlari yoki haydaladigan yerlarning guruhlari (ko‘p yillik o‘simlik, pichanzorlar va yaylovlar) uchun yer solig‘i stavkasiga asosan belgilanadi.

Yer solig‘i va ijara haqi yer uchastkasiga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat yoki ularning o‘rnini bosuvchi hujjatlar asosida belgilanadi va har bir yer uchastkasi uchun alohida hisoblanadi. Yer solig‘i yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblanadi. U har bir yer uchastkasi uchun alohida, uy-joy fondi egallagan yerlar uchun esa har bir xonadon uchun alohida hisoblanadi.

Yuridik shaxslar hisoblangan yer solig‘ini hisoblangan summasini har oyda teng ulushlarda:

- asosiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan yerlar uchun – mahsulot tannarxiga va muomala xarajatlariga;
- asosiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan yerlar uchun — tegishli moliyalashtirish manbalariga olib boradilar.

Bir tomondan, yerdan foydalanish uchun haddan tashqari yuqori to‘lovlar zaif dehqon xo‘jaliklariga og‘ir yuk bo‘lib, ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Boshqa tomondan, faqat yetarlicha yuqori yer solig‘i stavkalari (yerdan oqilona foydalanilganda muhim iqtisodiy sanktsiyalar bilan birgalikda) dehqonning yer samaradorligini oshirish istagi bilan talab va taklifning regulyatoriga aylanishi mumkin.

Bugungi kunda iqtisodchilar o‘rtasida differentsial renta miqdori to‘g‘risida yakdillik mavjud emas. Ba’zilarning fikricha, “agar uning bari olib qo‘yilsa, yer egasi tuproq unumdorligini oshirish uchun rag‘batni yo‘qotadi va uning iqtisodiy

manfaatlari kamsitiladi [3, 28 b.]. Bizningcha, differensial renta – olingan qo‘shimcha daromad bo‘lsa, uning miqdori daromad solig‘i stavkasini oshmasligi kerak.

Boshqalarga ko‘ra, ish haqi miqdori yer uchastkalarining obyektiv ishlab chiqarish xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak va mehnat miqdori va sifatiga qarab o‘zgarmasligi kerak [3, 28 b.]. Ishlab chiqarish intensivligini oshirish orqali mahsulot hajmini ko‘paytirish yer solig‘i yoki ijara haqi miqdorini oshirmasligi kerak. Shuning uchun ba’zi iqtisodchilarning yer solig‘ini daromad solig‘i tarkibiga kiritish haqidagi takliflari mutlaqo noto‘g‘ri. Bizning nuqtai nazarimizdan, yer uchun to‘lovlarini hisoblash uchun asos, undan olingan daromad emas, balki yer uchastkasining kadastr bahosi bo‘lishi kerak.

“Kadastr“ so‘zi “**ro‘yxat**“, soliqqa tortish uchun mol-mulkni inventarizatsiya qilish degan ma’noni anglatuvchi lotin so‘zidan kelib chiqqan. Hozirgi vaqtda bu tushuncha yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan yerlarning miqdori, sifati, joylashuvi va toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, xalq xo‘jaligi tarmoqlari, xo‘jaliklar va yerdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. U yerning huquqiy maqomi, unumdorlik holati va texnologik xususiyatlari, iqtisodiy salohiyati va quvvati va xalq xo‘jaligi ahamiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bloklaridan iborat.

Ba’zi iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi korxonalaridan faqat bitta yer solig‘ini undirish davlat byudjetiga daromadlarni sezilarli darajada kamaytiradi, chunki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlari juda rentabelli [1, 248 b.]. Qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan faoliyatdan olinadigan daromadlarni alohida soliqqa tortish, ularning fikriga ko‘ra, iqtisodiyotda yordamchi korxonalar va tadbirkorlikni rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun ular yer va daromad solig‘ini o‘z ichiga olgan ikki kanalli tizimni saqlashni taklif qilmoqdalar [4, 126 b.].

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining byudjet va byudjetdan tashqari fondlar o‘rtasidagi soliqlarni to‘lash bo‘yicha amaldagi munosabatlar tizimini ko‘rib chiqib, biz bu mukammal emas va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishni rag‘batlantirmaydi deb hisoblaymiz. Soliq solinadigan baza asosan mehnat natijasi qiymatlaridir. Soliqlar uchun katta imtiyozlar dehqonni soliq miqdorini kamaytirish uchun o‘z tadbirkorlik faoliyatini soxtalashtirishga majbur qiladi. Shuning uchun biz qishloq xo‘jaligida yagona yer solig‘ini joriy yetish tarafdori bo‘lgan iqtisodchilar qarashlarini qo‘llab quvvatlaymiz.

“Qishloq xo‘jaligi-bu yer ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo‘lgan o‘ziga xos tarmoqdir. Shu munosabat bilan, biz qishloq xo‘jaligi korxonalaridan yagona yer solig‘i olinishi kerak, deb hisoblaymiz va soliq bazasi bir qator Yevropa mamlakatlarida qo‘llanilganidek, differentsial renta bo‘lishi kerak. Bu borada boshqa barcha soliqlar bekor qilinishi mumkin. Savolning bunday qo‘yilishining mantig‘i shundan iboratki, qishloq xo‘jaligi korxonalarini zamonaviy soliqqa tortish tizimi daromadlarni hisoblash va uni soliqqa tortishni turli xil asoslarini: ish haqi fondi, daromad, foyda va boshqalarni nazarda tutadi. Tovar ishlab chiqaruvchilar uchun qaysi bazadan soliqlarni hisoblash va to‘lashning ahamiyati

yo‘q. Uning uchun yerdan foydalanish samarasi hisobidan davlatga qancha berishi muhim. Hech bo‘lmaganda bir xil miqdordagi yagona soliq iqtisodiy nuqtai nazardan tushunarli, mantiqiyroqdir“ [1, 249 b.].

Xulosa. Shunday qilib, soliqqa tortish tizimining nazariyasi va amaliyotini ko‘rib chiqib, biz qishloq xo‘jaligida soliqqa tortish bazasi sifatida ishlab chiqarish natijalarini ko‘rsatkichlari (foyda) emas, balki ishlab chiqarish omillari – olinishi kerak deb hisoblaymiz. Zero, qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyati ishlab chiqarish faoliyatida yer kabi resursdan foydalanish bo‘lib, u o‘zining sifati, unumdorligi va joylashuvi orqali ishlab chiqarish natijalariga ta’sir qiladi. Bu xo‘jaliklarga joriy yildagi moliyaviy ahvoldan qat’i nazar, byudjetga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorini aniq belgilash imkonini beradi, shuningdek, u mavjud yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi fiskal funktsiyasini yo‘qotadi, chunki dehqon uchun iqtisodiy faoliyat natijalarini yashirishga hojat qolmaydi. Buxgalteriya hisobi xo‘jalikning zaif tomonlarini aniqlashda va boshqaruvni takomillashtirish orqali eng katta daromad olishda dehqonning yordamchisiga aylanadi. Shu munosabat bilan soliq to‘lovlarining to‘liqligini ta’minlashda yashirin foydani aniqlash bo‘yicha soliq organlarining ishi soddalashtiriladi. Bizningcha, soliq solish manbai sifatida yer rentasi va obyekt sifatida-yer maydoni korxona faoliyati natijalarini soliqqa tortishdan ko‘ra progressivdir.

Yagona yer solig‘ini joriy etish orqali qishloq xo‘jaligida soliq munosabatlarini hisobga olish soddalashtiriladi, chunki faqat ikkita buxgalteriya yozuvini kiritish kerak bo‘ladi: yer solig‘ini hisoblash uchun “asosiy ishlab chiqarish” schyotining debeti, “byudjet bilan hisob-kitoblar” schyotining krediti, yer solig‘i summalarini to‘lash uchun esa “byudjet bilan hisob-kitoblar” schyotining debeti, “joriy hisob” schyotning krediti.

Soliq solishning uni to‘lovchilar faoliyati natijalariga bog‘liq bo‘lmagan asosiy afzalliklari shundaki, u soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni oldini oladi, mavjud resurslardan samarali foydalanishni va korxonalarning foydali ishlashini rag‘batlantiradi.

Binobarin, soliq tizimi quyidagi sabablarga ko‘ra, faqat yer solig‘ini yig‘ish bilan qishloq xo‘jaligi uchun samaraliroq bo‘ladi. Birinchidan, yagona yer solig‘ini to‘lash orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘zlarining moliyaviy manfaatdorligini tahmin qilishlari mumkin. Ushbu soliqqa tortish tizimi yer egalari va ijarachilarni yerning maqbul hajmiga ega bo‘lishga va undan samarali foydalanishga undaydi. Boshqa tomondan, yerdan samarali foydalanish uning egalarini tuproq unumdorligini oshirishga undaydi, bu esa pirovardida faoliyat iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash va shu asosda yangi soliq mexanizmini yaratish bozor munosabatlarini shakllantirish va iqtisodiyotni raqamlashtirish bosqichida juda dolzarb vazifaga aylanib bormoqda, uni hal qilish orqali esa qishloq ishlab chiqaruvchilari iqtisodiyotini barqarorlashtirishdagi muhim rolini yanada oshirish mumkin.

Natijada yer solig‘i hisobidan har bir hududda yer tuzish, yer kadastrini yuritish, yerlarni muhofaza qilish va unumdorligini oshirish, yangi sug‘oriladigan

yerlarni o‘zlashtirish, shuningdek, hududni muhandislik va ijtimoiy qayta qurish bo‘yicha o‘ta zarur chora-tadbirlar amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev A. Qishloq xo‘jaligida boshqaruv hisobining uslubiy va tashkiliy jihatlarini takomillashtirish. – Monografiya. “Omadbek print number one” Andijon. 2025 -276 b.
2. Абдуллаев А. Информационное обеспечение управления сельскохозяйственным производством республики Узбекистан: Автореф. дисс. д-ра экон, наук. -1996, 38 стр.
3. Латипов А. Проблемы организации дехканских хозяйств и земельное налогообложение. / Журнал налогоплательщика.-№4; 1996.- с.28.
4. Сагайдак А.Э. Земельный налог в сельском хозяйстве. - М.: Колос, 1992.-126с.

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich
FDTU, Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti, PhD
e-mail: akmaljon.ermatov@fstu.uz
Olimjonov Ofarin Minavvarjon o‘g‘li
FDTU, “Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

KORXONANI MOLIYAVIY HOLAT TAHLILI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI, TAHLIL VA AUDITNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida korxona faoliyatini moliyaviy holat tahlili asosida rivojlantirishda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditning zamonaviy yondashuvlari hamda O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda uning ahamiyati o‘rganilgan. Korxonani jadal rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy moliyaviy tahlil usullarini hamda sun’iy intellekt imkoniyatlarini samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, moliyaviy tahlil usullari, moliyaviy ko‘rsatkichlar, O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida korxonalar moliyaviy faoliyatini to‘g‘ri va shaffof aks ettirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston 2030” strategiyasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobdorlik tizimini xalqaro standartlarga IFRS ga to‘liq o‘tkazish belgilab qo‘yilgan [1]. Ushbu strategik yo‘nalish korxonalar rahbariyati va moliyachilar oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda.

Amaliyot ko‘rsatadiki, ko‘pchilik o‘zbek korxonalari hali moliyaviy holat tahlilini yetarlicha chuqur o‘tkazmaydи. Balans ko‘rsatkichlari faqat rasmiy

hisobot uchun tuziladi, biroq ichki boshqaruv qarorlarini asoslash uchun qo‘llanilmaydi. Shu bilan birga, audit xizmatlari faqat soliq tekshiruviga tayyorgarlik ko‘rish uchun talab qilinadi degan noto‘g‘ri tasavvur ham keng tarqalgan. Mazkur holat korxonaning strategik rivojlanishiga, sarmoyadorlar ishonchiga va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi [2].

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi korxona faoliyatini moliyaviy holat tahlili orqali rivojlantirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ishlashini ko‘rsatish, shuningdek O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ushbu tizimni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Moliyaviy holat tahlili bu korxonaning ma’lum davrdagi moliyaviy ahvolini, to‘lov qobiliyatini, rentabelligini va moliyaviy barqarorligini kompleks baholash jarayonidir. Bu tahlil bir tomondan korxona rahbariyatiga operativ qarorlar qabul qilishda asos bo‘lsa, boshqa tomondan tashqi foydalanuvchilar sarmoyadorlar, kreditorlar, davlat organlariga obyektiv ma’lumot beradi [3].

Xalqaro amaliyotda moliyaviy holat tahlili odatda to‘rtta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. Birinchisi likvidlik tahlili, ya’ni korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatini o‘lchash. Ikkinchisi moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari, bunda o‘z kapitali va qarz mablag‘lari nisbati, qarz yuki baholanadi. Uchinchi yo‘nalish rentabellik tahlili bo‘lib, aktivlar, kapital va sotuvlardan olinadigan daromad ko‘rsatkichlari hisob-kitob qilinadi. To‘rtinchi yo‘nalish esa biznes faoliyati ko‘rsatkichlari aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi va debitorlik qarzlari holatini qamrab oladi [4].

1-jadval

Moliyaviy holat asosiy ko‘rsatkichlari va ularni baholash mezonlari

№	**Ko‘rsatkich**	**Hisoblanish formulasi**	**Tavsiya etilgan qiymat**
1	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Joriy aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	**≥ 2, 0**
2	Avtonomiya koeffitsiyenti	O‘z kapitali / Jami aktiv	**≥ 0, 5**
3	Aktivlar rentabelligi (ROA)	Sof foyda / O‘rtacha jami aktiv × 100%	Soha o‘rtachasidan yuqori
4	Kapital rentabelligi (ROE)	Sof foyda / O‘z kapitali × 100%	≥ 15%
5	Debitorlik qarzlari aylanuvchanligi	Sotuv tushumi / O‘rtacha debitorlik qarzi	Qanchalik yuqori, shunchalik yaxshi

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ushbu tahlil metodlari jadal rivojlanmoqda. 2021-yilda tasdiqlangan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi yangi Qonun va IFRS standartlarini joriy etish jarayoni korxonalar moliyaviy hisobdorligiga sifat jihatidan yangi talablar qo‘ydi [1]. Endilikda balans faqat o‘tgan davrning

xronologiyasini emas, balki kelajakdagi moliyaviy risklar va imkoniyatlarni ham aks ettirishi lozim.

“O‘zbekiston 2030” strategiyasi mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Unda yalpi ichki mahsulotni 2030-yilga kelib ikki barobar oshirish, ishsizlikni kamaytirish va xususiy sektorning YaIMdagi ulushini 80 foizga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan. Bu maqsadlarga erishish uchun esa moliyaviy tizimning shaffofligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [1].

Buxgalteriya hisobining strategik ahamiyatini uchta asosiy yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Avvalo, korxonalar moliyaviy hisobotlari xalqaro investorlar va xorijiy hamkorlar uchun asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi. Bugungi kunda xorijiy kapital jalb qilmoqchi bo‘lgan har qanday o‘zbek korxonasi IFRS standartlarida hisobot taqdim eta olishi shart bu esa zamonaviy buxgalteriya tizimisiz mumkin emas. Ikkinchidan, sifatli ichki audit tizimi korxona ichida firibgarlik va mablag‘larning o‘g‘irlanish xavfini sezilarli kamaytiradi; rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatishicha, kuchli ichki nazorat tizimi korxona foydasini o‘rtacha 12- 18% oshiradi [5]. Uchinchidan, muntazam moliyaviy tahlil rahbariyat uchun strategik qarorlar qabul qilishning ilmiy asosini yaratadi.

O‘zbekistonda 2019-2024-yillar davomida amalga oshirilgan moliyaviy hisobdorlikni isloh qilish natijalari e’tiborga sazovor. Mamlakatda IFRS standartlarini qo‘llayotgan korxonalar soni 2019-yilda 340 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1 200 dan oshdi ya’ni 3, 5 barobarga o‘sdi. Shu bilan birga, sertifikatlangan buxgalterlar soni ham o‘sib, 2024-yilga kelib 4 600 ga yetdi [2]. Biroq bu raqamlar hali yetarli emas: barcha o‘rta va yirik korxonalarni IFRS ga o‘tkazish uchun malakali kadrlar bazasini kamida 3-4 barobar kengaytirish talab etiladi.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil sohasida raqamli transformatsiya jadal kechmoqda. An’anaviy qo‘lda hisob yuritish o‘rnini asta-sekin ERP tizimlar (1C, SAP, Oracle), bulut texnologiyalari va sun’iy intellektga asoslangan yechimlap egallayapti. Bu o‘zgarishlar nafaqat hisob yuritish tezligi va aniqligini oshirmoqda, balki moliyaviy tahlil metodologiyasini ham tubdan o‘zgartirmoqda [6].

Sun’iy intellekt asosidagi moliyaviy tahlil tizimlari bir necha muhim afzalliklarni beradi. Birinchidan, katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqtda qayta ishlab, an’anaviy usullar topay olmaydigan naqshlarni aniqlay oladi. Masalan, debitorlik qarzlarining muammoli holatga tushish ehtimolini bir necha oy oldin bashorat qilish endi texnik jihatdan mumkin. Ikkinchidan, xarajatlarni tasniflash va hisob-kitob qilishda inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolar deyarli bartaraf etiladi. Uchinchidan, real vaqt rejimida moliyaviy ko‘rsatkichlarni kuzatib borish imkoniyati paydo bo‘ladi [7].

Shuningdek, moliyaviy tahlilda gorizontal va vertikal tahlil usullarini bir vaqtda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Gorizontal tahlil — ko‘rsatkichlarning davrlar bo‘yicha dinamikasini — o‘zgarish sur’atini ko‘rsatadi; vertikal tahlil esa — strukturani, ya’ni har bir moddaning umumiy summadagi ulushini — ifodalaydi. Ikkalasining birgalikdagi tahlili rahbariyatga ancha to‘liqroq manzara

beradi. Masalan, sotuv tushumi absolyut qiymatda o‘ssa-da, uning umumiy daromad ichidagi ulushi kamayishi muammo belgisi bo‘lishi mumkin [3].

2-jadval

An’anaviy va zamonaviy moliyaviy tahlil yondashuvlarining qiyosiy tahlili

Mezon	An’anaviy yondashuv	Zamonaviy (raqamli) yondashuv
Ma’lumot manbai	Qog‘oz hujjatlar, Excel jadvallari	ERP tizimlar, bulut bazalar, real vaqt ma’lumotlari
Tahlil tezligi	Bir necha kun yoki hafta	Real vaqt yoki bir necha soat
Xato darajasi	Inson omili tufayli yuqori	Avtomatlashtirilgan, minimal xato
Bashorat qilish imkoniyati	Cheklangan, retrospektiv tahlil ustun	SI orqali kelajakni modellashtirish mumkin
Qiymat	Arzon, lekin ko‘p vaqt talab qiladi	Dastlabki investitsiya yuqori, keyinchalik tejaydi

Audit — bu shunchaki majburiy tekshiruv emas. To‘g‘ri tashkil etilgan audit tizimi korxona uchun moliyaviy sog‘lomlik kafolati vazifasini o‘taydi. Xalqaro amaliyotda ichki audit bo‘limi korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qaraladi va kuzatuv kengashiga bevosita hisobot beradi. Bu mustaqillik auditorga rahbariyat bosimidan xoli holda obyektiv xulosalar chiqarish imkonini beradi [5].

O‘zbekistonda ichki audit tizimi hali shakllanish bosqichida. Ko‘pchilik korxonalarda ichki audit xizmati yo umuman yo‘q, yoki buxgalteriya bo‘limiga qo‘shib yuritiladi bu esa uning mustaqilligini yo‘qqa chiqaradi. Shu bois tashqi auditorlar xulosasiga tayangan holda korxonaning moliyaviy holati haqida xolis baho berish qiyinlashadi. Xuddi shu muammo ko‘pincha xorijiy sarmoyadorlarning o‘zbek korxonalari bilan hamkorlikdan tortinishiga sabab bo‘ladi [2].

Zamonaviy audit metodologiyasi riskka yo‘naltirilgan (risk-based) yondashuv tomon evolyutsiya qilyapti. Bu degani, auditorlar barcha operatsiyalarni bir xil chuqurlikda tekshirish o‘rniga, eng katta risk mavjud bo‘lgan sohalarga e’tiborni jamlaydi. Natijada tekshiruv vaqt jihatidan iqtisod bo‘ladi, biroq samaradorligi ortadi. O‘zbekiston korxonalari uchun bu yondashuv ayniqsa dolzarb, chunki ko‘pchilik korxonalarda audit resurslari cheklangan [6].

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishida buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil va audit o‘zaro bog‘liq tizim sifatida faoliyat yuritishi zarur. Ushbu tizim elementlaridan birining sust rivojlanishi umumiy moliyaviy boshqaruv samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, moliyaviy tahlilni faqat yillik hisobot bilan cheklamasdan, uni muntazam ravishda — kamida choraklik, yirik korxonalarda esa oylik asosda amalga oshirish zarur. Bu muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, ERP kabi raqamli hisob tizimlariga o‘tish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lib, dastlabki

investitsiyalar odatda 2–3 yil ichida qoplanadi va uzoq muddatda samaradorlikni oshiradi [7]. Uchinchidan, ichki audit xizmatini buxgalteriyadan tashkiliy jihatdan ajratish va uni kuzatuv kengashiga bo‘ysundirish audit mustaqilligini ta’minlaydi hamda uning samaradorligini oshiradi. To‘rtinchidan, moliyaviy mutaxassislar va buxgalterlarni IFRS standartlari asosida muntazam qayta tayyorlash xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilni strategik boshqaruv vositasi sifatida qo‘llash korxona raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Sifatli moliyaviy axborot tizimi investitsiyalarni jalb qilish, kreditorlar ishonchini mustahkamlash va operatsion samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. — Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). — Toshkent, 2021.
3. Sheremet A.D., Negashev E.V. Metody finansovogo analiza deyatelnosti kommercheskix organizatsiy. — M.: INFRA-M, 2019. — 208 s.
4. Toshmatov Sh., Yusupov B. O‘zbekistonda moliyaviy hisobdorlikni IFRS asosida tashkil etish muammolari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2023. — №2. — B. 45—53.
5. Kovalev V.V. Finansoviy analiz: metody i protsedury. — M.: Finansy i statistika, 2020. — 560 s.
6. Ergashev I., Nazarov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining rivojlanish tendentsiyalari // Moliya va bank ishi. — 2024. — №1. — B. 18—26.
7. Damodaran A. The Dark Side of Valuation: Valuing Young, Distressed, and Complex Businesses. — 3rd ed. — New York: FT Press, 2018. — 624 p.
8. Abdullayev N. O‘zbekistonda ichki audit tizimini rivojlantirish istiqbollari // Buxgalteriya hisobi va audit. — 2023. — №4. — B. 32—39.

Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi PhD., dotsent,
e-mail: *phdildora@mail.ru*

Ustozni yod etib:
Hisob ilmida bir bor edi olim,
Haqgo‘y, zahmatkash, asl muallim.
Nufuzli professor – Davlatboy Kudbiyev,
Ul zotga xos edi yuksak fe’l-atvor.
Mehribon ota u, murabbiyi kor,
Pok vijdon sohibi, hurmatda doim.
Minnatdor shogirdlar duoda qoim
Bo’lgaysiz doimo bizning qalblarda,
Allohim joyingiz qilsin jannatda.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASIDA FOYDA SOLIG‘I KO‘SATKIChLARI AUDITORIK TAHLILINING O‘RNI

Annotasiya: Ushbu maqolada mamlakatimizni taraqqiy etishida foyda solig‘i auditi bo‘yicha izlanishlarning o‘rni va ushbu mavzu doirasida tadqiqotlar olib borishning dolzarbligi e’tirof etilgan. Auditorlik tahlili iqtisodiy tahlilning bir turi sifatida keltirilib, muallif tomonidan ta’riflar berilgan. Shu bilan birgalikda turli belgilaridan kelib chiqqan holda foyda solig‘i auditorlik tahlilining tasnifi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: foyda solig‘i ko‘rsatkichlari, audit, iqtisodiy tahlil, auditorlik tahlili, auditorlik tekshiruviga asoslangan tahlil, auditorlik tekshiruviga asoslanmagan tahlil**.**

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda mamlakatlar iqtisodiyotini globallashuvi, investisiyalarni bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko‘chib o‘tishi, buxgalteriya hisobini yangi bosqichga ko‘tarilishi, audit va auditorlik tahlilining o‘rni O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda beqiyosdir.

Olimlar tomonidan foyda solig‘i ko‘rsatkichlarini audit tahlili uslubini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilgan. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida foyda solig‘i ko‘rsatkichlari auditining konseptual masalalari, foyda solig‘i hisobi va soliq hisobotlari, audit tahlilini takomillashtirish bo‘yicha ma’lum yutuqlarga erishilgan. Ammo, foyda solig‘i ko‘rsatkichlarini tan olish, baholash va ularning hisobini yuritish, soliq solinadigan foydaga ta’sir qiluvchi xarajatlar hisobi, kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari hisobi, foyda solig‘ini hisoblashga asos bo‘luvchi ko‘rsatkichlarning audit tahlili masalalarini ilmiy tadqiq etishga alohida e’tibor qaratish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ushbu masalalarni ilmiy-amaliy yechimini topish mamlakatlar tomonidan iqtisodiyotga xorijiy investisiyalarni keng miqyosda jalb etishda muhim ahamiyatga ega.

Foyda solig‘i hisobi va auditining metodologik masalalari xorijlik olimlar M.M.Bogdanova [1], V.Ya.Kojinov [2] va boshqa olmlarning qalamiga tegishli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy maqolalarida yoritilgan.

Foyda solig‘i ko‘rsatkichlari hisobi va auditining ayrim nazariy va metodologik jihatlari, mamlakatimiz olimlaridan R.D.Dusmuratov [3], B.I.Isroilov [4], D.K.Kudbiyev [5], H.N.Musayev [6], M.Q.Pardayev [7], S.N.Tashnazarov [8], K.B.Urazov [9], Z.N.Qurbanov [10] va boshqa olimlar qalamiga mansub monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy maqolalarda yoritilgan.

Biroq, respublikamizda foyda solig‘i ko‘rsatkichlari auditini takomillashtirish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Chop etilgan ishlarda foyda solig‘i ko‘rsatkichlarining yaxlit tizimi ishlab chiqilmagan, jumladan ular bo‘yicha hisob va hisobotda axborotlarni tizimli shakllantirish masalalari, foyda solig‘i ko‘rsatkichlarini audit tekshiruvidan o‘tkazish hamda audit uslubi va uslubiyotini takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

Yuqoridagi muammolarning mavjudligi, ularni hal etishning ilmiy-amaliy jihatdan ahamiyatga molikligi foyda solig‘i ko‘rsatkichlari auditini takomillashtirishga qaratilgan mazkur tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo‘ladi.

Asosiy qism. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini xolis tekshirish, ular moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish, xo‘jalik faoliyati samaradorligini real va haqqoniy baholash kabi muolajalarni o‘zida mujassamlashtirgan auditorlik tahliliga bo‘lgan talab va takliflarning borgan sayin kuchayishi ushbu iqtisodiy dastakning nazariy, tashkiliy va uslubiy masalalarni hal etishni «Audit» va «Iqtisodiy tahlil» kabi fanlar oldiga ko‘ndalang qilib qo‘yishi tabiiy hol.

Fikrimizcha, «auditorlik tahlili» o‘zining mazmun va mohiyati bo‘yicha iqtisodiy tahlilning bir turi hisoblanadi. Biroq, u maxsus biznes birliklari bo‘lgan auditorlik tashkilotlar tomonidan shartnoma asosida o‘tkaziladigan iqtisodiy tahlildir. Auditorlik tahlili auditorlik tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati hisoblangan auditorlik faoliyatining ajralmas qismidir. Xarakteriga ko‘ra auditorlik tahlili auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan auditorlik tekshiruvlariga ham, professional xizmatlarga ham tegishlidir. Auditorlik tekshiruvlarida auditorlar hujjatlarni, buxgalteriya hisobi schyotlaridagi yozuvlarni, turli yozishmalarni, hisob-kitoblarni, balans va hisobotning boshqa shakllarida keltirilgan ma’lumotlarni turli maqsadlarda tahlil qiladilar. Shuningdek, auditorlik xizmatlariga doir shartnomalar shartlariga ko‘ra hisob va hisobot ma’lumotlari asosida korxonalar, alohida olingan javobgarlik markazlari faoliyati ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi, ular samaradorligiga baho beriladi, ichki ishlatilmayotgan rezervlar aniqlanadi va hakozolar.

Auditorlik tahliliga jarayon sifatida tavsiflanadigan umumiy «audit»ning elementi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Jarayon sifatida korxona va tashkilotlarda olib boriladigan auditorlik tekshiruvlari yoki auditorlik professional xizmatlari o‘z ichiga turli auditorlik muolajalarini oladi. Auditorlik tahlili shunday muolajalardan biri hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlari yoki auditorlik professional xizmatlarni olib borishda tahlil bilan bog‘liq muolajalar turli shakl va

usullarda amalga oshiriladi. Chunonchi, auditorlik tekshiruvlarida yoki iqtisodiy tahlilni o‘tkazish bo‘yicha professional xizmatlarni ko‘rsatishda auditorlar hisob va hisobot ma’lumotlarini yuqoridan quyiga qarab, ya’ni, vertikal tarzda, shuningdek, hisobot ma’lumotlarini uning qatorlari bo‘yicha chapdan o‘ngga qarab, yani, gorizontal (vizual) tarzda tahlil qilishlari mumkin. Muolajalarni u yoki bu shakllarda, shuningdek, turli usullar yordamida olib borilishi auditorlik tahlilining turlarini ham belgilaydi.

Auditorlik tekshiruvlarida qo‘llaniladigan tahlilning ahamiyati shundaki, bunda, avvalambor, hisob va hisobotda mavjud chetlanishlar aniqlanadi. Ushbu chetlanishlar miqdor birligida o‘lchanadi, shuningdek uni vujudga kelishiga sabablar bo‘lgan omillar topiladi. Bu omillar bevosita va bilvosita omillarga ajratiladi, salbiy jihatdan ta’sir qilgan omillarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi. Aynan shular auditorlik tekshiruvlariga asoslangan tahlilni axborot foydalanuvchilar uchun real va haqqoniy ma’lumotlar bilan ta’minlash vositalaridan biri ekanligidan darak beradi. Auditorlarning dastlab tekshirishlarga asoslanmasdan va professional xizmatlar sifatida olib borgan tahlili yuqoridagi xislatlarga ega bo‘lmaydi. Tekshirilmagan ma’lumotlarga asoslanib o‘tkazilgan auditorlik tahlili noto‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga ham olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilarning barchasi auditorlik tahlilining o‘ziga xos va mos bo‘lgan tahlil turi ekanligidan darak beradi. Auditorlik tekshiruvlariga asoslangan va unga asoslanmasdan o‘tkaziladigan auditorlik tahlili ularning har biriga mos ravishdagi ta’rifni berishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, ularga quyidagicha ta’riflarni berish maqsadga muvofiqdir:

Auditorlik tekshiruvlariga asoslangan tahlil – bu auditorlik tashkilotlari tomonidan shartnomalar asosida korxonalarga ularda yuz bergan operasiyalar, jarayonlar va faoliyat turlarini, shuningdek, ularni miqdor va sifat jihatdan tavsiflovchi ko‘rsatkichlar haqqoniyligini tekshirish, tizimlash, guruhlash, jamlash va baho berish bilan bog‘liq muolajalar majmuasi.

Auditorlik tekshiruvlariga asoslanmagan tahlil – bu auditorlik tashkilotlari tomonidan shartnomalar asosida korxonalarga ularda yuz bergan operasiyalar, jarayonlar va faoliyat turlarini, shuningdek, ularni miqdor va sifat jihatdan tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni taqdim etilgan hisob va hisobot ma’lumotlari haqqoniyligini tekshirmasdan tizimlash, guruhlash, jamlash va baho berish bilan bog‘liq muolajalar majmuasi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ko‘rsatkichlarining, shu jumladan, foyda solig‘i ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘tkaziladigan auditorlik xizmatlarida eng keng qo‘llaniladigan auditorlik tahlilini turli belgilari bo‘yicha tasniflash mumkin. Fikrimizcha, ular ichida eng muhimlari bo‘lib, auditorlik tahlilining qanday auditorlar tomonidan o‘tkazilishi, qanday maqsadlarda o‘tkazilishi, qanday usullarga asoslanib o‘tkazilishi kabi belgilari o‘ta muhimdir.

Qanday auditorlar tomonidan o‘tkazilishiga qarab auditorlik tahlilini ichki auditorlar va tashqi auditorlar tomonidan o‘tkazilgan auditorlik tahlillariga ajratish lozim. Ichki auditorlar tomonidan o‘tkaziladigan auditorlik tahlili, odatda, ichki audit xizmati xodimlari tomonidan joriy faoliyat sifatida olib boriladi. Bunday

auditorlik tahlili xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini taktik va strategik boshqarishda o‘ta muhim o‘rin egallaydi. Tashqi auditorlar tomonidan o‘tkaziladigan auditorlik tahlili korxonaning hisob va hisoboti ma’lumotlari asosida uning haqqoniyligiga xolis auditorlik xulosasini berish yoki bunday shartga asoslanmasdan korxonada iqtisodiy ishlarni yaxshilashga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yordam berish maqsadida shartnomalar asosida o‘tkaziladigan tahlil hisoblanadi. Ichki auditorlik tahlili mavjud bo‘lmaganda, yoki uni olib boruvchilar qobiliyati yetarlicha bo‘lmaganda, tashqi auditorlik tahlili eng yuqori samara beradigan iqtisodiy tahlil hisoblanadi.

Qanday usullarga asoslanganligiga ko‘ra auditorlik tahlilini dinamik tahlil yoki (gorizontal tahlil) va statik tahlil yoki vertikal tahlillarga ajratish lozim.

Dinamik tahlil yoki gorizontal tahlil deganda, odatda, moliyaviy xo‘jalik faoliyati ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar tendensiyalarini baholashga qaratilgan tahlil tushuniladi. Bunday tahlil qator yillarda ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar tendensiyalarini aniqlashga imkon beradi. Chunonchi, foyda solig‘i ko‘rsatkichlarining gorizontal tahlili korxonalarda ushbu ko‘rsatkichlarning pul birligidagi miqdorida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, gorizontal tahlilda foyda solig‘i ko‘rsatkichlarining o‘sish yoki pasayish darajalari aniqlanadi. Gorizontal tahlil asosida korxonada foyda solig‘i ko‘rsatkichlarining miqdor va nisbiy ko‘rsatkichlarida yuz bergan tendensiyalarga sabab bo‘layotgan omillar aniqlanadi, ular miqdori pul birligida o‘lchanadi. Gorizontal tahlilning yana bir xarakterli jihati shundaki, uning yordamida daromadlar, xarajatlar, foyda va zarar kabi ko‘rsatkichlarning foyda solig‘i ko‘rsatkichlariga ta’sir doirasi ham pul birliklarida, ham foizlarda aniqlanadi.

Xulosa. Izlanishlar natijasida bergan ta’riflarimiz va auditorlik tahlilini tasniflanishi yordamida tadqiqotlar davom etilib, chuqurlashtirilsa, foyda solig‘i ko‘rsatkichlari hisobini samarali tekshirishga, axborotlarni shaffofligiga erishishga, yurtimizni yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bogdanova M.M. Audit nalogooblojeniya: uchebnoye posobiye / M.M. Bogdanova. - Barnaul, IP Kolmogorov I.A., 2014. - 137 s
2. Kojinov V.Ya. Buxgalterskiy uchet i nalogovy uchet: upravleniya priblyu. - M.: Izd. «Ekzamen», 2005. - 44 str.
3. Do‘smuratov R.D. Audit asoslari. Darslik.-T.: O’zbekiston milliyensiklopediyasi, 2003. -296 bet.
4. Isroilov B.I.Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – T.:O’zbekiston, 2006. -272 bet.
5. Kudbiyev D. Uchet i analiz osnovnx fondov v torgovle v novx usloviyax xozyaystvovaniya: dissertasiya na soiskaniye uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk Moskva – 1991 g
6. Musayev H.N. Audit. Darslik. – T.: Moliya, 2003. – 18 bet.
7. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Muammoli ma’ruza matni. - Samarqand, SamISI, 2006, - 163 bet

8. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik – T. «Iqtisod-Moliya», 2019. -454 bet.
9. Urazov K.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlar. T.: «Fan va texnologiya, 2019. - 534 bet.
10. Qurbonov Z.N. Soliq auditi. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2007, - 38-bet

Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti, i.f.n.,
e-mail: tshazizbek@gmail.com

BOSHQARUV HISOBINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: KLASTERLAR FAOLIYATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshqaruv hisobini klasterlar faoliyatida tashkil qilish orqali hisobning zamonaviy yechimi sifatida tadqiq qilingan bo'lib, klasterlarning tashkiliy-huquqiy mexanizimlari bilan bir qatorda buxgalteriya hisobi tizimida boshqaruv hisobini samarali tashkil qilish, ularni prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda axborot manbalari sifatida boshqaruv hisobi maqsadlaru uchun samarali qo'llashning hisob siyosatida uslubiy asoslarini belgilash yuzasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: klaster, boshqaruv qarorlari, boshqaruv hisobi, boshqaruv hisobining zamonaviy usullari, "Just in time", xarajatlar.

"Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadid"a qabul qilingan «O'zbekiston — 2030» strategiyasining [1] muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" nafaqat mamlakat iqtisodiyotini ustuvor yo'nalishlarini belgilash balki "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" orqali "... klasterlarini tashkil etish va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish" kabi sanoatni barqaror rivojlanishi yo'lida dasturi amal sifatida qaralmoqda.

Bu orqali mamlakaimizda amalga oshirilayotgan islohotlar klasterlar faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ular tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunonchi, mahsulot tannarxi klasterlar moliyaviy iqtisodiy faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Buning uchun iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida mahsulot tannarxini pasaytirish va uning hisobini samarali tashkil etish lozim. Shuningdek,

bu jarayon nafaqat klasterlar faoliyatining muhim yo‘nalishi, balki mazkur tarmoqlarning o‘zida birlashtira olgan kooperatsiyalar faoliyatida ham asosiy masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Albatta, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan agro sanoat klasterlari ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarni qamrab olganligi, ularning boshqaruv maqsadlari uchun belgilangan strategik yo‘nalishlari klasterlar manfaatlari qaratilgan bo‘lsada, bevosita boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisob, ayniqsa boshqaruv hisob axborotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda boshqaruv hisobning zamonaviy usullarini keng qo‘llash orqali ularda hisob siyosatining uslubiy asoslarini belgilash xarajatlarni yanada aniqligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavjud adabiyotlarda klaster tushunchasi uning mazmun va mohiyati 2000 yillardan kirib kelgan bo'lsa-da, bu atama bugungi kungacha aniq ta'rifga ega emas, chunki turli ishtirokchilar (huquqiy asoslarni ishlab chiqaruvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va iqtisodiy sektorlar) uni turli kontekst va yo‘nalishlarda qo'llashadi (Galvez-Nogales & Webber, 2017) [2]. Eng ko'p qo'llaniladigan ta'riflardan biri bu o'zaro bog'langan firma va muassasalarning geografik kontsentratsiyasidir (Steffens, V.C., 2016) [3]. Qishloq xo'jaligi sektori kontekstida agroklaster ma'lum bir mintaqada va uning atrofida daromad va bandlik imkoniyatlarini yaratadigan qishloq xo'jaligi faoliyatining kontsentratsiyasi sifatida tavsiflangan atamadir.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ham klsaterlar, ularning huquqiy asoslarini yaratish, ularda faoliyatning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish borasida tizimli ishlar olib borilgan. “Klaster – bu qo‘shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini (fermerlar, qayta ishlovchi korxona, eksportyor) bir maqsad sari jamlagan korxonalar guruhidir. Klasterlar tizimi – bu xom-ashyo yetishtirishdan boshlab to qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olgan bir butun tizim hisoblanadi” [5]. Bir so'z bilan aytganda, klaster tizimi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini qamrab olishi, zamon talabiga mos rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi hamda erkin va samarali mehnat qilishga undaydigan tizim hisoblanadi. Asosiysi, klasterlar hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishida katta rol o‘ynab, ushbu yondashuv iqtisodiy jihatdan ustuvor tarmoqlar va loyihalarni aniqlash imkonini beradi.

Klasterlar faoliyatining asosiy maqsadi “kam xarajat qilib, ko‘p daromad olish, moliyaviy xolatini yaxshilash”ga qaratilgandir. Bu maqsad yo‘lida, nafaqat samarali boshqaruvni yaratish, qolaversa hisob ma’lumotlarini shaffofligini ta’minlashda boshqaruv hisobi maqsadlari uchun hisob siyosatining uslubiy asoslarini belgilash muhim jihatlardan biri hisoblanadi. “Hisib siyosati deganda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini mavjud tamoyillar va qoidalarga muvofiq hisobni yuritish hamda moliyaviy hisibotlarni tayyorlash usullari majmui tushuniladi” [4].

Bunda qo‘llaniladigan hisob-tahliliy vositalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq, shunki buxgalteriya ma’lumotlari va boshqaruv hisobi registrlari tahlilining yakuniy mahsuli boshqaruv hisoboti shakllari va tizimdan tashqari boshqaruv vazifalarini hal qilish asosida yaratilgan boshqa maqsadli hisobotlar hisoblanadi. Muayyan korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari va uning boshqaruv

hisob tizimini qurishning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya jarayoniga nisbatan tashkiliy-kommunikatsiya faoliyatini amalga oshirish ham muhim masala hisoblanadi.

Agrosanoat klasterlarida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalinish hamda mahsulot yetishtirishning zamonaviy texnika va texnologiyalarini joriy qilish zarur. Shuningdek, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida yetishtirilgan mahsulotlar raqobatbardoshligini va ularning eksport salohiyatini oshirish borasidagi ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda agrosanoat klasterlarida iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri bo‘lgan mahsulot tannarxini pasaytirish va sarflangan xarajatlar hisobini to‘g’ri tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan biri sanaladi.


Bugungi kunda mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar negizi ular tomonidan yaratilayotgan qiymat tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan dolzarb muammo hisoblanadi. Ma’lumki, mahsulot tannarxi qanchalik arzon bo‘lsa, shunchalik sub’ekt oladigan foyda miqdori oshib boradi. Ikkinchi tomondan ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish ular uchun ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ya’ni masulot sifatiga ta’siri orqali xarajatlarni kamaytirish hollarda kuzatilishi mumkin. Bunday salbiy natijalarni oldini olish maqsadida boshqaruv hisobi maqsadlari uchun xarajatlarni samarali boshqarish, ularni hisob ob’ektlarida to‘g’ri taqsimlanishini ta’minlash uchun zamonaviy usullardan foydalanishni taqazo etadi.

Klasterlar faoliyatida xarajatlarni baholash usuli sifatida “ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish” tanlab olinadigan bo‘lsa, xarajatlarni boshqarish bu xarajatlarni kamaytirish bilan bog’liq bo‘ladi. Shu bilan birga xo‘jaliklarda “qat’iy belgilab qo‘yilgan xarajatlarda samarani maksimallashtirish” mezonini tanlab olish ham mumkin. Bu xarajatlar avvalgi darajada qolib ketishini anglatmaydi: agar bunday o‘sish ularning samaradorligini oshiradigan bo‘lsa, ular o‘sishi mumkin. Shu maqsadda boshqaruvchilari u yoki bu xarajatlarning o‘sish sur’atini oldindan aniqlab olishlari lozim. Qat’iy belgilab qo‘yilgan xarajatlarda samaradorlikka erishish xarajatlarni kamaytirishdan ko‘ra murakkabroq vositalar qo‘llanishini talab qiladi. Bu yerda gap asosan mavjud resurslarni optimallashtirish, “Just in time” (aniq vaqtida yetkazib berish), assortimentni boshqarish va ishlab chiqarishni rejalashtirishning turli uslubiyatlari haqida boradi.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda boshqaruv hisobi maqsadlari uchun mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning zamonaviy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Mahsulot tannarxini hisoblashning bunday usullari mamlakatimizda buxgalteriya hisobini jahon andozalari asosida tashkil etish, shuningdek, boshqaruv hisobi va moliyaviy hisoblarga ajralishi natijasida agrosanoat klasterlarida xarajatlar hisobini yuritishning zamonaviy usullarini joriy qilish zaruratga aylanmoqda. Bunday usullardan biri “JIT” (“Just in time”)dir. JIT tizimi boshqaruv strategiyasi bo'lib, etkazib beruvchilarning xom ashyo buyurtmalarini bevosita ishlab chiqarish hajmlari bilan moslashtiradi. Klasterlar ushbu boshqaruv strategiyasidan samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan tovarlarni olish orqali chiqindilarni kamaytirish uchun foydalanadilar, bu esa xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu usul ishlab chiqaruvchilardan

mahsulot yaratish hajmini to'g'ri prognoz qilishni talab qiladi hamda yo‘qotishlarini oldi olinishiga xizmat qiladi (1-rasm).

Agrosanoat klasterlari buxgalteriya amaliyotida ushbu usulni qo‘llash natijasida sarflangan doimiy xarajatlarning bir qismi o‘zgaruvchan xarajatlar sifatida hisobga olinadi. Buning samarasi o‘laroq, davr xarajatlari tarkibida bo‘lgan ma’muriy xarajatlar kamayadi hamda xo‘jaliklarning o‘z faoliyatlari natijalari uchun javobgarligi, o‘z navbatida esa moddiy manfaatdorligi ham ortadi.



1-rasm. “Just in time” orqali agrosanoat klasterlarida yo'qotishning oldini olish bosqichlari.

Xarajatlarni samarali boshqarish orqali mahsulot tannarxini hisoblashning “JIT” tizimi mahsulot ishlab chiqarishda tugallanmagan ishlab chiqarishni kamaytirish, sarflangan resurslar hajmini eng kam darajaga keltirishni hamda buyurtmalarini olingan vaqtdan boshlab o‘z vaqtida ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Agrosanoat klasterlari tomonidan sub’yekting kelajakda moliya-xo‘jalik faoliyatini ma’lum bir darajada bashoratlash maqsadida prognoz ko‘rsatkichlari boshqaruv hisobi tizimidagi asosiy vositalardan biri hisoblanadi, odatda bu ko‘rsatkichlar 3-5 yillik muddatlarni qamrab olgan holda ishlab chiqiladi. Bunda sub’yekting moliyaviy mas’uliyat markazlai tomonidan hisobat davrlarini hisobga olgan holda batafsil bayon qilishlari lozim. Ular darajasida nafaqat boshqaruv maqsadlariga yerishish maqsadida turli ko‘rsatkichlar bosqichma-bosqich baholanadi, balki rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar sezirali o‘zgarishlarga olib kelgan bo‘lsa, ular ma’lum davrlarni qamrab olgan holda choraklik, yillik davrlar bo‘yicha tuzatilishi kerak.

Boshqaruv hisobining zamonaviy amaliyotida klasterlar foydalanadigan eng ko‘p ishlatiladigan vositalardan biri xarajatlarni boshqarish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish maqsadlarni eng samarali boshqarish hamda amalga oshirish

uchun kompleks samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ulardan foydalanish agrosanoat klasterlari faoliyatidagi eng muammoli yo‘nalishlar va rivojlanish hamda takomillashtirishning potensial imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Mahsulot tannarxini hisoblashning “JIT” tizimi sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga mos kelishligi bilan ham boshqa hisob usullaridan farq qiladi. Boshqaruv hisobi maqsadlari uchun xarajatlar hisobini “JIT” hisob tizimi orqali tashkil etish natijasida ma’lum turdagi xarajatlarni kamaytirish bilan bir qatorda mahsulot tannarxini to‘g’ri hisoblash hamda uni 10 foizga kamaytirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi to‘g’risida”gi PF-158-sonli farmoni. https: //lex.uz/ru/docs/6600413.

2. Galvez-Nogales, E. & Webber, M. (Eds.). (2017) *Territorial tools for agro-industry development. A sourcebook. Agrobased clusters. With assistance of K. murphy*. Rome, Italy: FAO.

3. Steffens, V.C. (2016) *Potentials of agrarian cluster development for improving smallholder's income–a case study from the SAGCOT initiative in Tanzania*. Bachelor. University of Cologne, Cologne. https: //geographie.uni-koeln.de/sites/geographie/user_upload/Bachelorarbeit_Steffens.pdf.

4. Д.Кудбиев, Д.Б.Тешабаев. Особенности учета основных средств в соответствии с МСФО. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida hisob-tahlil va audit tizimini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallar to‘plami. –T.: TDIU 2023. 46-b.

5. https: //www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627303540327-5870b9c2-be30

Toshpo’latov Azizbek Shermuxamadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.,
e-mail: tshazizbek@gmail.com

KLASTERLARDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada klasterlarda xarajatlar hisobining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning uslubiy masalalarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olish tadqiq qilingan. Shu bilan birga agrosanoat klasterlarida xarajatlarni samarali boshqarish maqsadida ularning sodir bo‘lish joylari, qisqa, o‘rta hamda uzoq muddatli istiqbollarini belgilash hamda mahsulot tannarxida hisobga olishning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida uslubiy masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: klaster, xarajatlar, xarajatlarni boshqarish, xarajatlarni paydo bo‘lish joylari, tannarx, xarajatlarni tan olish.

Bugungi kunda sanoat sohasini yanada rivojlantirish mazkur yo‘nalishga klasterlar tizimini shakllantirish, ularning huquqiy maqomini belgilash hamda tarmoq korxonalari integratsiyasini joriy qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan tarmoq korxonalari faoliyatini agrosanoat klasterlari orqali birlashtirish hamda ularning faoliyatini tartibga solish tarmoq rivoji uchun dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.

Bu vaziyatda eng to‘g‘ri yo‘l – qishloq xo‘jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga tannarxni kamaytirish, chuqur qayta ishlashga va qo‘shilgan qiymat yaratishga ko‘proq investitsiya jalb qilib, eksportni ko‘paytirishdir bugungi kunning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri “barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash”[1] orqali “sanoatning «drayver» sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, to‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish” borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar mazkur sohalarni rivojlanish uchun dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shunday muammolardan agrosanoat klasterlarida ishlab chiqarish xarajatlarini zamonaviy va samarali usullar asosida boshqarish va ularning hisobini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tashkil qilish orqali belgilanadi. Xarajatlarini boshqarish va nazorat qilishda ularning kelib chiqish joylarini aniqlash, taqsimlash, maqsadi, yo‘nalishi, hisobga olinishi, hisobdan chiqarilishi, ya’ni mahsulot tannarxiga taqsimlashni to‘g‘ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar agrosanoat klasterlari faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, buning natijasida ularning sohalar bilan integratsiyasini ta’minlashda muhim dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga alohida e’tibor qaratiladigan jihatlardan biri bu mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda ularning yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash hisoblanadi. Bu esa agrosanoat klasterlarida xarajatlar hisobini yuritish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xorijiy amaliyotda ishlab chiqarish uchun xarajatlarni hisobga olish segmenti buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi bo‘lib, uning moliyaviy natijalarini optimallashtirish maqsadida tashkilot faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, boshqarish va baholashga imkon beradi. Bizning amaliyotida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish buxgalteriya tizimining muhim qismi hisoblanadi.


Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyotida joriy davr xarajatlari ularning tannarxi (expenses) yoki zararlar (losses)ga muvofiq nomlanadi. Bu ish joriy va kelgusi xarajatlar tushunchalarini farqlash uchun amalga oshiriladi.

“Xarajatlar” atamasi MHXSda kelgusida olinadigan daromadlarni sarflash (expenditure) haqida fikr bildirilganda qo‘llaniladi. Shu nuqtai nazardan xarajatlar resurslarni sarflash va davr xarajatlarini tan olish o‘rtasidagi oraliq kategoriya hisoblanadi. Ular foydalanilgan resurslarni baholashni namoyon etadi. Moliyaviy hisobotda ular xarajatlar yoki zararlar sifatida tan olinmaguncha ular kompaniya aktivlarida aks ettiriladi.

MHXSda xarajatlar deganda hisobot davrida iqtisodiy foyda pasayishi tushuniladi, bu aktivlar qiymatining pasayishi yoki yo‘qotilishi yoki kapitalning pasayishiga sabab bo‘luvchi majburiyatlarning ko‘payishi orqali ifodalanadi.

Horijiy tajriba ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish xarajatlarini guruhlash va taqsimlash ishlab chiqarish jarayoni va sotishda foyda shakllanishini tezkor nazorat qilish mumkin bo‘lgan tarzda tashkil etilgan va shuning uchun xarajatlar minimal miqdordagi maqolalar bo‘yicha guruhlanadi.

Mahsulotning ayrim turlari o‘rtasida xarajatlarni taqsimlashga asosiy e’tibor qaratiladi. Ko‘p hollarda taqsimlanmagan xarajatlar umumiy natijaga – foyda bilan bog‘liq hisoblanadi. Quyidagi 1-rasmda tannarxni tashkil etadigan ishlab chiqarish xarajatlarining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moddalari tasnifi keltirib o‘tilgan.



1-rasm. MHXSda ishlab chiqarish tannarxini hisoblash moddalari.

Keltiribgan rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tannarx tarkibini tashkil qiliuvchi xarajat moddalri uch guruhga ajratilib hisobga olinsa, bizning amaliyotda “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq xarajat moddalari quyidagi 1-jadvalda keltirib o‘tilgani kabi besh guruhga tasniflanadi.

1-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlari moddalarining qiyosiy tasnifi

№	Xarajat elementlari	
	54-sonli Nizomga muvofiq	**MHXSga muvofiq**
1.	Moddiy xarajatlar	IAS-2 “Zaxiralar”
2.	Mehnatga haq to‘lash xarajatlari	IAS-19 “Xodimlarning daromadlari”
3.	Ijtimoiy soliq xarajatlari	IAS-19 “Xodimlarning daromadlari “

4.	Amortizatsiya xarajatlari	IAS-16 “Asosiy vositalar”, IAS-38 “Nomoddiy aktivlar”
5.	Boshqalar ishlab chiqarish xarajatlari	IFRS-16 “Ijara”, IAS 23 “Qarzlar bo‘yicha xarajatlar”

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarigi muvofiq buxgalteriya hisobida xarajatlar va ularni hisobga olishning yagona standarti mavjud emas, har bir xarajat elementi ma’lum standartda aks etadi. Xarajatlarni hisobga olish uchun ba’zi talablar 40-sonli IAS, “Investitsion mulk” va 9-sonli IFRS “Moliyaviy instrumentlar” singari standartlarda keltirilgan, chunki moliyaviy hisobotning ushbu elementlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud.

Xarajatlarning muayyan elementlarini o‘rgangan holda qayd etish joizki, 16-sonli IAS talabiga binoan amortizatsiya xarajatlari qoldiq qiymatini hisobga olmaganda, aktivning haqiqiy qtsiymati yoki uning haqiqiy qiymati o‘rnini bosuvchi boshqa qiymat sifatida tan olinadi.

19-sonli IAS ning 11-bandiga muvofiq, agar xodim hisobot davrida korxonaga xizmat ko‘rsatsa, korxona ushbu xizmatlar evaziga to‘lanadigan ishchilarga taqdim etiluvchi qisqa muddatli imtiyozlar miqdorini quyidagicha tan olishi kerak:

- majburiyatlar (hisoblangan xarajatlar), ilgari to‘langan summa saqlab qolingach. Agar ilgari to‘langan summa to‘lovning taqsimlanmagan miqdoridan oshsa, tashkilot ushbu ortiqcha miqdorni aktiv sifatida tan olishi kerak (avans xarajatlari), masalan avans xarajatlari, masalan, kelajakdagi to‘lovlarni kamaytirish yoki qaytarib berishga olib keluvchi miqdorda;
- boshqa standart talab etuvchi yoki aktiv qiymatiga kiritishga ruxsat beruvchi badallar bundan mustasno (masalan, 2-sonli IAS va 16-sonli IAS).

Xodimning mehnat faoliyati tugagach, olingan mukofot miqdori, korxona (ehtimol, xodim ham) mehnat faoliyati tugaganidan keyin to‘lanuvchi sug‘urta rejasiga to‘langan yoki sug‘urta kompaniyasiga to‘langan badallar sifatida olingan investitsiya daromadlari bilan belgilanadi.

Moddiy xarajatlarning aksini hisobga olgan holda, biz 2-sonli IASning 10-bandiga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga sotib olish, qayta ishlash bilan bog‘liq barcha xarajatlar, shuningdek, zaxiralarning hozirgi joylashuvi va holatini ta’minlash uchun qilingan boshqa xarajatlar kiritilishi kerakligini ta’kidlaymiz.

Bundan tashqari, ushbu standart ishlab chiqarish tannarxini hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash qoidalariga ega. Bundan tashqari, ushbu standartda ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxini hisobga olish qoidalari mavjud bo‘lib, standartning asosiy qoidalari hisobot davri uchun foyda miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi hisoblash usullarini tanlash qoidalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u quyidagilar bo‘yicha tavsiyalar beradi:

- bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash;
- kompleks ishlab chiqarish xizmatlarini taqsimlash;
- balansda kapitallashtiriluvchi va kapitallashtirilmaydigan xarajatlar o‘rtasidagi sarf-xarajatlarni cheklash.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish nuqtai nazaridan 2-sonli IASning ikkita xususiyatini ajratib koʻrsatadi.

Birinchidan, standartning 10-bandida buxgalteriya hisobi uchun an'anaviy xarajatlarni hisobga olish usuli (absorption costing) tartibga solinadi. Ishlab chiqarish va hisoblash xarajatlarini hisobga olishning ushbu usuli bilan "direkt-kosting" alternativ usulidan farqli oʻlaroq, ishlab chiqarish xarajatlari oʻzgaruvchan va doimiy xarajatlarni oʻzlashtiradi. Moliyaviy hisobot uchun toʻgʻridan-toʻgʻri xarajatlarni sarflashga yoʻl qoʻyilmaydi. Xorijiy korxonalarda u faqat boshqaruv hisobotini tayyorlashda qoʻllaniladi. 2-sonli IASga muvofiq, xususan, 14-bandda normativ hisob buxgalteriya hisobida ham qoʻllaniladi, standart ortiqcha xarajatlarni takroriy xarajatlarga kiritishni, boshqacha aytganda, hisobot davrida foyda kamayishiga toʻliq kiritilishini asoslaydi. Xomashyo, ish haqi va hokazolarning ortiqcha yoʻqotishlari aktivlar balansida aks ettirilgan zaxiralar tarkibiga kiritilmasligi kerak. Normativ usulni materiallarning zaxiralari, tugallanmagan ishlar va tayyor mahsulotlarni baholash uchun qoʻllashga ruxsat etiladi.

Ikkinchidan, 2-sonli IASning 10-bandida ishlab chiqarish tannarxiga uchta xarajat guruhi kiritiladi:

- ishlab chiqarishdagi oʻzgaruvchan toʻgʻridan-toʻgʻri xarajatlar;
- ishlab chiqarishdagi oʻzgaruvchan bilvosita xarajatlari;
- ishlab chiqarishdagi doimiy bilvosita xarajatlar.

16-sonli IASga binoan, tannarx – pul mablagʻlari va ularning ekvivalentlari summasi yoki sotib olish vaqtida aktivni sotib olish uchun berilgan boshqa toʻlovning adolatli qiymati yoki qurilish davrida yoki agar qoʻllash mumkin boʻlsa, boshqa MHXS (IFRS)larning aniq talablariga muvofiq dastlabki tan olishda bunday aktiv tan olingan miqdordan iborat.

Agar quyidagi shartlar bajarilsa, asosiy vositalar ob'ekti tannarxi aktiv sifatida tan olinadi:

- kompaniyaning ushbu ob'ekt bilan bogʻliq kelajakda iqtisodiy foyda olish ehtimoli mavjud boʻlsa;
- ushbu ob'ektning tannarxini ishonchli baholash mumkin boʻlsa.

Tan olingan asosiy vositalar ob'ekti, mahalliy amaliyotda boʻlgani kabi, yaroqlilik muddati davomida muntazam ravishda amortizatsiya qilinadi. Qiymati ushbu ob'ektning umumiy qiymatiga nisbatan sezilarli boʻlgan aktivning har bir qismi alohida amortizatsiya qilinadi.

Har bir davr uchun amortizatsiya xarajatlari moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotda xarajatlar sifatida tan olinadi. Xalqaro amaliyotda kompaniyalar amortizatsiyani hisoblash uchun ma'lum usuldan foydalanishi mumkin, u mazkur aktivdan kelajakda iqtisodiy foyda olish modelini aniqroq aks ettirishi kerak.

Hozirgi kunda amortizatsiya hisoblashning toʻgʻri chiziqli usuli, qoldiqni kamaytirish usuli va mahsulot ishlab chiqarish birliklari usuli bilan farqlanadi. "Tashkilot xarajatlari" va MHXSga muvofiq, qoʻshimcha ma'lumotlarni yoritish usullariga yondashuvlar oʻzaro mos keladi. Biroq, agar ishbilarmonlik muomalasi odatlari yoki me'yoriy hujjatlarning tegishli talablari mavjud boʻlib, shartnoma

tuzilsa, xarajatlar buxgalteriya hisobida tan olinadi, degan qo‘shimcha shart kiritilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xarajatlar tarkibi xususida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot yoki moliyaviy hisobotning izohlarida qo‘shimcha ma’lumotlarni yoritishni talab etadi. Bu, avvalo, xarajatlarni taqsimlashga asoslangan tasnifdan foydalanilganda xarajatlarning o‘ziga xos xususiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar kelajakdagi pul oqimlarini prognozlash uchun foydali bo‘lishi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentyabrdagi “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-151-son Farmoni. https://lex.uz/docs/7124200?ONDATE=02.10.2024

3. Toshpo‘latov A.Sh. Improving the Cost Management Mechanism in Management Accounting. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Spain. Volume 15, 2022, ISSN 2697-2212. P. 176-183.https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/453/436

4. Klaster va manfaatdorlik – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kelajagi. old.gov.uz/oz/news/view/28847

G‘anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
e-mail: ilhomganiboyev@gmail.com

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA YURITISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida yuritishning zaruriyati va ahamiyati, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlari to‘g‘risidagi ishonchli axborotlarni ta’minlash zarurligi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish orqali kutilayotgan natijalar, joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish uchun takliflar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobot, standart, buxgalteriya hisobi, axborot, xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro iqtisodiy

munosabatlarga faol integratsiyalashuvi ko‘p jihatdan moliyaviy axborotlarning shaffofligi va ishonchliligiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida hisob yuritish mamlakat taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekistonni jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (BHXS, MHXS) talablariga mos holda tashkil qilish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlari to‘g‘risidagi ishonchli axborotlarni ta’minlash zarurligi va ushbu vazifani bajarishda buxgalteriya hisobi muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida turli mulkchilikka asoslangan tashkiliy-iqtisodiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi ko‘plab xo‘jalik yurituvchi subyektlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratildi. Shu munosabat bilan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritilishi va uning ustidan nazoratning samarali mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [1. 3-b].

Asosiy qism. Bugungi kunda O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va hisobotini jahon andozalari darajasiga chiqarishning yagona yo‘li bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ilg‘or xorijiy tajribalarni, sohaga doir jahon adabiyotlari va hujjatlarini o‘rganish hamda ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilishdan iboratdir. Bu yo‘l eng dolzarb va o‘ta muhim yo‘ldir.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) – bu amaliyotchi buxgalterlarning faoliyatini murakkablashtiradigan ba’zi bir qoidalar to‘plami emas, balki, mantiqan buxgalteriya hisobi tizimining oddiy tamoyillariga asoslanadi, uning maqsadi moliyaviy hisobotlarda korxona faoliyati to‘g‘risida haqqoniy moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishdan iboratdir [2. 16-b].

Buxgalteriya hisobi tizimida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy qilinishi moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliligi va obyektivligini oshirish bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishining zaruriyati yana shu bilan belgilanadiki, dunyo bozorlariga chiqish, mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirish, dunyo xom-ashyo va valyuta birjalariga kotirovka qilish, dunyo banklaridan kredit olish uchun kompaniya va tashkilotlar tomonidan MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tuzishni talab etilishi bilan belgilanadi [3. 9-b].

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy hisobot taqdim etishdagi tafovut va farqlarni kamaytirish, axborotning sifatini oshirish hamda korxonalar moliyaviy faoliyati natijalarini ham mahalliy, ham xalqaro darajada samaraliroq baholash va solishtirish imkonini beradi. Umuman olganda, MHXS iqtisodiyotni raqamlashtirishda (ma’lumotlar standartlashuvi, shaffoflik va ishonchlilik, audit va monitoringning avtomatlashtirilishi orqali), global iqtisodiyotga integratsiyalashuvda muhim ahamiyat kasb etadi [4. 447-b].

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu moliyaviy hisobotlarni tuzishda yagona xalqaro yondashuvni ta’minlovchi standartlar tizimi bo‘lib, u korxonalarning moliyaviy holatini aniq va taqqoslanadigan shaklda aks ettirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borayotgan bir sharoitda milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro talablar asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keldi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarurati;
- moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish;
- foydalanuvchilar uchun tushunarli va ishonchli axborotni taqdim etish;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish;
- korporativ boshqaruvni takomillashtirish.

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash, xususiy sektorni rivojlantirish va raqobatbardosh muhit yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimining zamonaviy talablarga javob berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish orqali:

- korxonalarning moliyaviy natijalari real aks ettiriladi;
- moliyaviy hisobotning shaffofligi ta’minlanadi;
- yashirin iqtisodiyot ulushi kamayadi;
- davlat nazorati samaradorligi oshadi;
- kapital bozorlarini rivojlantirish uchun asos yaratiladi.

Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritilishi korxona boshqaruv tizimini rivojlantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki sifatli moliyaviy axborot menejment uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda muhim manba hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy etilishi, ichki nazorat tizimini kuchaytiradi, audit samaradorligini oshiradi, menejment javobgarligini kuchaytiradi va manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Mazkur standartlarini joriy etish orqali mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun investitsion muhit yaxshilanadi, ma’lumotlarni investitsiyaviy jozibadorligini oshirilishiga erishiladi, xorijiy investorlarni zarur axborotlar bilan ta’minlash imkoniyati yaratiladi, hisobotlarning mazmuni va tarkibi axborotdan foydalanuvchilarning ehtiyojlariga uyg’unlashtiriladi, kompaniyalarning raqobatbardoshligi yaxshilanadi hamda korxonalarning eksport hajmini yuksaltirishga olib keladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish jarayonida qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, malakali kadrlar yetishmasligi, amaldagi milliy standartlar bilan farqlarni mavjudligi, axborot tizimlarining yetarli darajada moslashmaganligi va kichik biznes subyektlari uchun murakkabliklar va boshqalar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritish muhim strategik ahamiyatga ega. U iqtisodiyotning shaffofligini ta’minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish jarayonidagi muammolarni hal etish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz.

1. Buxgalter va auditorlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida qayta tayyorlash jarayonini yanada kengaytirish.
2. Oliy ta’lim tizimida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fanlarini mukammal o‘rgatish.
3. O‘zbek tilida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o‘rganish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.B.Abdusalomova, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 b.
2. A.A.Karimov, A.K.Ibragimov va boshqalar. Buxgalteriya hisobi: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari / Darslik – T.: «MOLIYA», 2020 – 310 b.
3. S. Tashnazarov. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1: Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2023 — 580 bet.
4. N.U.Maxmosobirova. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: mohiyati va ilmiy asoslari. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2025-yil.

G‘anibayev Ilhomjon Shokiraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: ilxomjon.ganibayev@fstu.uz
Teshaboyeva Mohigul Eldorjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti

GILAM ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI BOSHQARISH VA UNI SAMARALI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada gilam ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirish va uni boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, ularning iqtisodiy mohiyati hamda tannarxni optimallashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish orqali tannarxni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mahsulot tannarxi, xarajatlar boshqaruvi, gilam sanoati, optimallashtirish, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligi mahsulot tannarxini samarali boshqarish darajasiga bevosita bog‘liq. Tannarx ko‘rsatkichi korxonaning foyda darajasi, iqtisodiy samaradorligi va bozor pozitsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqarish jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, gilam ishlab chiqarish korxonalarida xom ashyo xarajatlari ulushining yuqoriligi tannarxni boshqarish masalasini yanada dolzarb qiladi.

Shu nuqtai nazardan, korxonalarda resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda xarajatlarni nazorat qilish tizimini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Tannarxni kamaytirish nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, balki mahsulot sifatini saqlagan holda iqtisodiy samaradorlikni oshirishni ham nazarda tutadi [1-2].

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, energiya tejamkor uskunalardan foydalanish va ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish orqali tannarxni pasaytirish mumkin. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish va xarajatlarni tizimli tahlil qilish korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish jarayonida sarflangan barcha resurslarning pul ifodasi sifatida shakllanadi. Gilam ishlab chiqarish korxonalarida tannarx tarkibi xom ashyo va materiallar, mehnat resurslari, energiya sarfi hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa xarajatlardan iborat. Ushbu tarmoqda xom ashyo xarajatlari asosiy ulushni egallab, tannarx darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tannarxning shakllanishiga ishlab chiqarish texnologiyasining darajasi, uskunalardan foydalanish samaradorligi hamda mehnat unumdorligi kabi omillar ham bevosita ta’sir etadi. Korxonada ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va resurslardan oqilona foydalanish darajasi tannarxning pasayishi yoki oshishiga olib keladi.

Zamonaviy sharoitda tannarxni boshqarish faqat xarajatlarni hisobga olish bilan cheklanib qolmay, balki ularni tahlil qilish va optimallashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, resurslardan samarali foydalanish va texnologik jarayonlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, korxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish tannarxni kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Zamonaviy sharoitda tannarxni boshqarish jarayoni xarajatlarni faqat hisobga olish bilan cheklanmay, balki ularni tahlil qilish va optimallashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Xarajatlarni tahlil qilish orqali ortiqcha sarflarni aniqlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin [2-4].

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mahsulot tannarxida xom ashyo xarajatlari ustuvor o‘rinni egallaydi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda samarali boshqaruv choralarini qo‘llash tannarxni kamaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Quyida gilam ishlab chiqarish korxonasida mahsulot tannarxining shakllanishi va strukturaviy tahlili keltirilgan:

1-jadval

Gilam ishlab chiqarish korxonasida mahsulot tannarxining shakllanishi va strukturaviy tahlili (1 dona mahsulot hisobida)

Xarajat moddalari	Summasi (so‘m)	Ulushi (%)	Tannarxdagi o‘rni (tahliliy baho)
Xom ashyo va materiallar	520 000	65, 0	Asosiy determinant omil
Ish haqi va ijtimoiy ajratmalar	120 00	15, 0	Mehnat sig‘imiga bog‘liq
Energiya xarajatlari	80 000	10, 0	Texnologik jarayon bilan bog‘liq
Asosiy vositalar amortizatsiyasi	40 000	5, 0	Kapital sig‘imi omili
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	40 000	5, 0	Qo‘shimcha omillar
Jami ishlab chiqarish tannarxi	**800 000**	**100, 0**	—

Tannarxni optimallashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda logistika xarajatlarini kamaytirish. Shu bilan birga zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llash orqali tannarxni boshqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mahsulot tannarxini samarali boshqarish korxona iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Gilam ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni optimallashtirish, avvalo, xom ashyo va energiya resurslaridan oqilona foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kelgusida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish tannarxni boshqarish samaradorligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini qo‘llash, xarajatlarni chuqur tahlil qilish hamda strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish orqali korxonada resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Natijada, tannarxni samarali boshqarish nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, balki korxonaning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. – New York: McGraw-Hill, 2010. – 744 p., 210–215-betlar.

2. Drury C. Management and Cost Accounting. – London: Cengage Learning, 2018. – 816 p., 320–325-betlar.
3. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting. – Pearson, 2015. – 912 p., 150–160-betlar.
4. Kaplan R.S., Cooper R. Cost & Effect. – Harvard Business School Press, 1998. – 357 p., 80–95-betlar.

Pirnazarova Juldız Djamiljan qızı
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
e-mail: yulduzpirnazarova55@gmail.com

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA AUDIT QILISHDA MUHIMLIK MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada audit qilishda muhimlik masalalarini aniqlashning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Unda muhimlik darajasining auditorlik faoliyatidagi o‘rni hamda moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini baholashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, muhimlik darajasini belgilashda e’tiborga olinadigan omillar, jumladan, korxona faoliyati hajmi, moliyaviy ko‘rsatkichlar va tashqi muhit ta’siri ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida muhimlik darajasining audit rejalashtirish jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Audit, korxona, muhimlik darajasi, moliyaviy hisobot, auditning xalqaro standartlari, auditor.

Kirish. Korxonalar iqtisodiy salohiyatining oshishi va auditorlik faoliyatining ahamiyati va mazmuni tushunib borilgani sari auditorlik xizmatlariga bo‘lgan talab yanada ko‘proq o‘sib bormoqda. Bir vaqtning o‘zida auditorlik tashkilotlari hali ham xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini obyektiv baholash bo‘yicha va ularni huquqiy va maslahat (konsultativ) jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ta'minlash bo‘yicha muhim ahamiyat kasb etuvchi rolni bajarishmayapti, auditorlik tekshirishlari ko‘p hollarda past darajada o‘tkazilmoqda, auditorlar malakasi zamonaviy talablarga unchalik javob bermaydi, professional jamoat birlashmalarining ishi etarli darajada emas.

Auditorlik amaliyotida auditorlik faoliyati milliy standartlarining qo‘llanishi zaruriyati tufayli hozirgi vaqtda muhimlik darajasini belgilash muammosi alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Muhimlik tushunchasi buxgalteriya axborotidagi qolgan ma'lumotlar, noaniqliklar yoki faktlarni noto‘g'ri talqin qilishni bildiradi, ular bir vaqtda sodir bo‘ladigan vaziyatda ushbu axborot asosida qilingan mulohaza o‘zgarishi yoki unga noaniq, noto‘g'ri faktlar ta'sir etishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda — MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish,

shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida 24.02.2020 PQ-4611-son [1] qarori qabul qilindi.

Moliyaviy hisobotlar auditini o‘tkazishda auditorning umumiy maqsadlari moliyaviy hisobotda firibgarlik yoki xatoga yo‘l qo‘yilishi natijasida muhim buzib ko‘rsatishlar bor-yo‘qligi xususida auditorga moliyaviy hisobot barcha muhim jihatlarda moliyaviy hisobotni taqdim etishning qo‘llaniladigan asosiga muvofiq tayyorlanganligi to‘g'risida o‘z fikrini bildirish; moliyaviy hisobot bo‘yicha hisobot (xulosa) chiqarish va audit natijalariga muvofiq AXS talab etgan axborotni taqdim etish imkonini beradigan oqilona ishonch hosil qilishdan iborat. [2]

Asosiy qism: Auditor tomonidan muhimlik darajasini belgilash professional mulohaza masalasi hisoblanadi va moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning moliyaviy axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini auditor qanday tushunishiga bog'liq bo‘ladi. [3]

Auditning Xalqaro Standarti (AXS)da auditorning moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish va bajarishda muhimlik konsepsiyasini qo‘llash vazifasi ko‘rib chiqiladi. AXS 450 [4] aniqlangan buzib ko‘rsatishlarning auditga va tuzatilmagan buzib ko‘rsatishlarning (agar ular mavjud bo‘lsa) moliyaviy hisobotga ta'sirini baholashda muhimlik mezoni qanday qo‘llanishini tushuntiradi.

Buxgalteriya hisobi va audit bo‘yicha standartlarda muhimlikni aniqlash bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berilmaydi. Buning sababi, bunday ko‘rsatmalar auditorning pirovard xulosasiga ta’sir qiladigan barcha murakkabliklarni hisobga olishi mumkin emas. Shu boisdan, tadqiqotimiz davomida o‘rganilgan ilmiy yondashuvlar va usullarni qo‘llagan holda tadqiqot obyektimiz bo‘lgan «ABC» AJ uchun dastlab umumiy muhimlik chegaralarini belgilab olamiz. Buning uchun ushbu korxonaning balans hisoboti va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobotlari ma’lumotlaridan foydalanamiz. Kuyidagi 1-jadvalda umumiy muhimlikni aniqlash jadvali keltirildi.

1- jadval

«ABC» AJning muhimlik bo‘yicha dastlabki mulohaza (Umumiy muhimlik) (ming so‘mda)[20]

Muhimlik uchun hisobot moddalari	Minimum		Maksimum	
	%	So‘m	%	So‘m
Yalpi foyda (operatsion)	3	183062, 3	6	366124, 68
Joriy aktivlar	3	4779286	6	9558572, 28
Jami aktivlar	1	1732340	3	5197019, 07
Joriy majburiyatlar	3	5607539	6	11215077, 5

Demak, korxona ma'lumotlari asosida dastlabki muhimlik ko‘rsatkichini aniqlab oldik. Agar auditorlar guruhi, ushbu korxonaga oid qandaydir sifat

[20] Muallif tomonidan hisoblandi

mulohazalarini yuritish zarurati bormi yoki yo‘qmi, degan masalani aniqlashi zarur. Aniqlanishicha, korxonaga tegishli sifat omillari nazarda tutilmagan. Shu boisdan ushbu ko‘rsatkichlarni qabul qilamiz.

Agarki audit yakunlanishida yalpi foyda (operatsion) aniqlangan xatoliklar jami miqdori 183062, 3 ming so‘mdan kichik bo‘lsa, ushbu xatolik muhim emas deb, qabul qilinadi va 366124, 68 ming so‘mdan katta qiymatdagi xatolik aniqlansa, muhim xatolik deya e’tirof etiladi. Agar, aniqlangan xatolik ikkala ko‘rsatkichlar o‘rtasidan joy olsa, auditordan ko‘proq mulohaza talab qiladi va har bir alohida holat bo‘yicha teran o‘rganishlar olib borishi zarur bo‘ladi.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, tashqi auditor muhimlik darajasini tekshirilayotgan aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy hisoboti to‘g‘ri ekanini tasdiqlashga hali tayyor emasligining mezoni sifatida, aniqlashi mumkin. Muhimlik qoidasi tekshirilayotgan axborot ko‘rsatkichlari hajmiga yoki xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish chog‘ida xatolarga qanday yo‘l qo‘yilganiga asoslanadi.

Auditda muhimlik qoidasi ko‘p masalalarni hal qilish uchun poydevor, o‘ziga xos kafolatdir. Bu qoida audit bosqichlari o‘rtasida, auditorlik amallari hajmi va mazmuni o‘rtasida, to‘plangan auditorlik dalillarini baholash qoidalari va auditorlik xulosasining shakli o‘rtasida mantiqiy izchilikni shakllantiradi. Muhimlik yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan xato hajmini va oqibatda auditorlik xulosasini tuzish shaklini belgilaydi.

Auditorlar eng muhim, kam uchraydigan va xatolari bor hisobot moddalari va schetlarni aniqlash chog'ida muhimlik tushunchasidan auditni rejalashtirishning asosi sifatida foydalanadilar. Bunday moddalar va schetlarga alohida e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, to‘plangan auditorlik dalil-isbotlarini baholashda va qanday auditorlik xulosasi tuzish to‘g'risida bir qarorga kelishda ham muhimlik darajasidan foydalaniladi.

Demak, muhimlik tushunchasi auditor tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoning hajmini va o‘tkaziladigan auditorlik tekshiruvining ko‘lamini aniqlash hamda tuziladigan auditorlik xulosasining shaklini belgilash (ijobiy yoki salbiy) uchun birlamchi va asos bo‘luvchi manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son.

2. B.Q. Hamdamov Auditning xalqaro standartlari: Darslik / -T.: «IqtisodMoliya», 2020. 268 b.

3. Auditning xalqaro standarti 320 «Auditni rejalashtirish va bajarishda muhimlik».

4. Auditning xalqaro standarti 450 «Audit jarayonida aniqlangan buzib ko‘rsatishlarni baholash».

Уразов Давлат Комилович
Самаркандский институт экономики и сервиса,
Старший преподаватель кафедры «Реальная Экономика»,
e-mail: urazovdavlat91@gmail.com

ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К АУДИТУ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МСФО

Аннотация. В данной статье исследованы основные требования к аудиту в условиях перехода организаций на международные стандарты финансовой отчетности. В частности, показано, что в этих условиях ключевое значение приобретают требования к пониманию аудитором бизнеса и системы внутреннего контроля, проверке корректности первого применения международных стандартов, оценке учетной политики, анализу бухгалтерских оценок и справедливой стоимости, проверке раскрытий, соблюдению принципа непрерывности деятельности, независимости аудитора и управлению качеством в аудиторской организации; сформулирован ряд рекомендаций по совершенствованию аудита отчетности, составленной по МСФО.

Ключевые слова: аудит, МСФО, IFRS 1, МСА, бухгалтерские оценки, аудиторское заключение, качество аудита, переход на МСФО.

Введение. Переход на международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), как известно, является важным фактором повышения прозрачности бизнеса, сопоставимости финансовой информации и инвестиционной привлекательности предприятий. Финансовая отчетность, подготовленная по МСФО, как показывает международная практика, облегчает вхождение предприятий к международным рынкам капитала и делает их результаты более понятными для внешних пользователей [5; 6].

Переход на МСФО не только изменяет формы отчетности, но и приводит к глубокой трансформации всей учетной системы. В частности, в этих условиях меняются методы (подходы) к признанию и оценке активов, обязательств, доходов и расходов; появляется возможность осуществления профессионального суждения, оценки справедливой стоимости, разносторонних выводов и раскрытий. Соответственно, аудит отчетности, сформированной в соответствие с правилами, указанными в МСФО, требует от аудитора углубленных знаний по исполнению каждого пункта этих стандартов, усиленного профессионального скептицизма и использования риск-ориентированного подхода при аудиторской проверке [6–10].

Для нашей республики аудит финансовой отчетности, составленной согласно МСФО, весьма актуален еще и тем, что методы аудита такой финансовой отчетности, недостаточно закреплены нормативными актами. Есть и фактор недостаточности надлежащего опыта в области аудита финансовой отчетности, составленной согласно МСФО. Все это, естественно, усиливают требования к качеству аудита финансовой отчетности, а также

подготовке специалистов, способных проверять такую отчетность строго по правилам МСФО и МСА.

Состояние изученности проблемы. В зарубежной литературе вопросы аудита и качества финансовой отчетности в условиях перехода на международные стандарты исследуются достаточно широко. Так, еще классики Л. ДеАнджело и Дж. Фрэнсис заложили основу современного понимания качества аудита [1; 2]. В трудах современных ученых исследованы влияние международных стандартов, реформ аудиторской отчетности и раскрытия **ключевых вопросы аудита (**key audit matters) на аудиторский рынок и на решения пользователей [3; 4].

Существенный вклад в разработку требований к аудиту переходной отчетности согласно МСФО внесли международные профессиональные организации. Именно, документы, разработанные IAASB, IFAC и IESBA определяют современные подходы к оценке рисков, аудиту бухгалтерских оценок, раскрытию ключевых вопросов аудита, анализу непрерывности деятельности, этике и управлению качеством [9–15].

В трудах узбекских ученых вопросы внедрения МСФО и развития аудита финансовой отчетности в этих условиях частично нашли отражение в работах С.Н. Ташназарова, А.К. Ибрагимова, О. Собирова, О.О. Баракаева и других авторов [18–21]. Вместе с тем комплексный анализ требований к аудиту именно в условиях перехода на МСФО как самостоятельная научно-практическая проблема в нашей республике недостаточно разработан.

Методологические и информационные основы исследования. Методологическую основу исследования составили системный подход, сравнительно-правовой анализ, логическое обобщение и контент-анализ международных и национальных нормативных источников. Системный подход позволил нам рассматривать аудит как элемент общей инфраструктуры перехода на МСФО, включающей стандарты отчетности, стандарты аудита, требования к этике и качеству, а также интересы пользователей финансовой отчетности. Информационную основу исследования составили IFRS 1, IAS 1, IFRS 9, ISA 315, ISA 540, ISA 700, ISA 701, ISA 570, ISQM 1, Международный кодекс этики профессиональных бухгалтеров, Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» и постановление о переходе на МСФО [6–17].

Результаты исследования. В ходе исследований мы пришли к выводу о том, что переход на МСФО и составление финансовой отчетности на основе этих стандартов предъявляют ряд требований к аудиту и его проведению. Основные из них кроятся в следующем.

1.Первое ключевое требование к аудиту в условиях перехода на МСФО – это проверка корректности первого применения IFRS 1. Организация, впервые применяющая МСФО, обязана подготовить входящий отчет о финансовом положении (бухгалтерский баланс) на дату перехода, использовать единые учетные политики во всех представленных периодах и представить необходимые сверки. Следовательно, аудитор должен проверить дату перехода, корректность трансформационных корректировок, соблюдение

обязательных исключений и освобождений, а также последовательность применения учетной политики [6].

2. Второе требование - это риск-ориентированное планирование аудита и глубокое понимание бизнеса клиента, его информационной среды и системы внутреннего контроля. В условиях перехода на МСФО возрастают риски, связанные с изменением учетной политики, внедрением новых ИТ-процессов, недостатком компетенций персонала и слабостью внутреннего контроля в части подготовки финансовой отчетности согласно МСФО [9].

3. Третье требование касается проверки бухгалтерских оценок и справедливой стоимости. Переход на МСФО обычно сопровождается расширением доли оценочных показателей: резервов, ожидаемых кредитных убытков, обесценения активов, обязательств по справедливой стоимости и иных элементов, основанных на моделях и допущениях. Поэтому аудитору необходимы более высокие требования к профессиональному скептицизму и знаниям в области оценочных моделей [8; 10].

4. Четвертое требование - это проверка полноты и качества раскрытий. Пользователь должен понимать, какие учетные политики применены, какие суждения использовало руководство и как переход на МСФО повлиял на финансовое положение и результаты деятельности организации. Именно раздел раскрытий часто становится наиболее уязвимым элементом первой отчетности по IFRS, который требует повышенного внимания аудитора [7].

5. Пятое требование касается принципа непрерывности деятельности. В период перехода на МСФО организация может сталкиваться с дополнительными расходами, пересмотром финансовых ковенантов (лимитов, норм и контрольных цифр) и ростом неопределенности. Поэтому аудитор должен углубленно анализировать факторы, способные вызвать значительные сомнения в отношении способности организации продолжать деятельность в обозримом будущем [12].

6. Шестое требование заключается в усилении аудиторской коммуникации. Современное аудиторское заключение должно не только содержать итоговое мнение, но и при необходимости раскрывать ключевые вопросы аудита, связанные с первым применением IFRS 1, оценкой финансовых инструментов, резервов, справедливой стоимости, непрерывности деятельности и качеством раскрытий [11; 13].

7. Седьмое требование связано с соблюдением независимости, этических принципов и стандартов качества. В условиях перехода на МСФО особенно возрастает значение кадровой подготовки, внутреннего мониторинга качества, консультаций по сложным вопросам IFRS и общей методической готовности аудиторской организации [14; 15].

Для нашей республики особую практическую значимость имеет необходимость сочетать нормативное внедрение международных стандартов с развитием устойчивой системы обучения аудиторов, усилением их цифровых компетенций и отраслевой специализации [16–21].

Выводы и рекомендации. Таким образом, проведенное исследование позволяет сделать вывод, что в условиях перехода на МСФО требования к

аудиту существенно расширяются и усложняются. Аудиторы должны не только подтвердить достоверность отчетности, но и проверить корректность первого применения IFRS 1, оценить учетную политику и трансформационные корректировки, проанализировать бухгалтерские оценки, проверить полноту раскрытий, оценить непрерывность деятельности и обеспечить качественную коммуникацию результатов проверки в аудиторском заключении.

По итогам исследования предлагаются следующие рекомендации:

во-первых, усилить методическое сопровождение аудита первой IFRS-отчетности;

во-вторых, расширять подготовку аудиторов и переподготовку работающих аудиторов в части бухгалтерских оценок, справедливой стоимости и финансовых инструментов;

в-третьих, укреплять системы управления качеством работы аудиторов в аудиторских организациях;

в-четвертых, сочетать нормативное внедрение МСФО и МСА;

в- пятых, обеспечить непрерывное развитие кадровой, методической и цифровой базы аудита;

в-шестых, активизировать исследования в области практики аудита переходной отчетности согласно IFRS 1 в различных отраслях и сферах экономики.

Список использованной литературы

1. DeAngelo L.E. Auditor Size and Audit Quality // Journal of Accounting and Economics. 1981. Vol. 3. Issue 3. P. 183–199.

2. Francis J.R. A Framework for Understanding and Researching Audit Quality // Auditing: A Journal of Practice & Theory. 2011. Vol. 30. No. 2. P. 125–152.

3. Christensen B.E., Glover S.M., Wolfe C.J. Do Critical Audit Matter Paragraphs in the Audit Report Change Nonprofessional Investors' Decision to Invest? // Auditing: A Journal of Practice & Theory. 2014. Vol. 33. No. 4. P. 71–93.

4. Rapley E.T., Robertson J.C., Smith J.L. The Effects of Disclosing Critical Audit Matters and Auditor Tenure on Nonprofessional Investors' Judgments // Journal of Accounting and Public Policy. 2021. Vol. 40. Issue 5.

5. IFRS Foundation. Who Uses IFRS Accounting Standards? Use of IFRS Standards by Jurisdiction.

6. IFRS Foundation. IFRS 1 First-time Adoption of International Financial Reporting Standards.

7. IFRS Foundation. IAS 1 Presentation of Financial Statements.

8. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments.

9. IAASB. ISA 315 (Revised 2019) Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.

10. IAASB. ISA 540 (Revised) Auditing Accounting Estimates and Related Disclosures.

11. IAASB. ISA 700 (Revised) Forming an Opinion and Reporting on Financial Statements.
12. IAASB. ISA 570 (Revised 2024) Going Concern.
13. IAASB. ISA 701 Communicating Key Audit Matters in the Independent Auditor’s Report.
14. IAASB. ISQM 1 Quality Management for Firms that Perform Audits or Reviews of Financial Statements, or Other Assurance or Related Services Engagements.
15. IESBA. International Code of Ethics for Professional Accountants (including International Independence Standards).
16. Закон Республики Узбекистан «Об аудиторской деятельности» № ЗРУ-677 от 25.02.2021.
17. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4611 от 24.02.2020 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности».
18. Ташназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи: халқаро ва миллий жиҳатлари. Тошкент: Иқтисод-молия, 2009.
19. Ибрагимов А.К. Тижорат банклари ташқи аудитида халқаро молиявий ҳисобот стандартларини жорий этиш методологияси. Тошкент: Moliya, 2011.
20. Собиров О. Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар талаблари даражасида такомиллаштириш // Халқаро молия ва ҳисоб. 2021. № 3.
21. Баракаев О.О. Корпоратив бошқарув тизимида аудиторлик ҳисоботини тақдим этишга таъсир этувчи омиллар // Халқаро молия ва ҳисоб. 2019. № 5.

Karimov Shohruh Ahmadullo o‘g‘li
Farg’ona davlat texnika universiteti doktoranti,
e-mail: newcyberx@gmail.com

BUXGALTERIYA HISOBINI OUTSORSING ASOSIDA TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o‘tish sharoitida buxgalteriya hisobini outsorsing asosida tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Unda O‘zbekistonda buxgalteriya outsorsingining rivojlanish holati, uning iqtisodiyotdagi o‘rni hamda zamonaviy boshqaruv talablari asosida ushbu xizmat turiga bo‘lgan ehtiyoj yoritilgan. Shuningdek, axborot xavfsizligi, huquqiy tartibga solish va kadrlar bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilib, ularni hal etish bo‘yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari outsorsing moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va sifatini oshirishda muhim vosita ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar. moliyaviy hisob, xalqaro standartlar, buxgalteriya outsorsingi, moliyaviy shaffoflik, audit, boshqaruv samaradorligi.

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini, balki boshqaruv tizimlarini ham yangicha yondashuvlar asosida qayta shakllantirishni talab etmoqda. Ushbu jarayonda korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni ta’minlash ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Raqamli transformatsiya natijasida ma’lumotlar oqimi keskin ortib borayotgani, hisobotlarning tezkorligi va aniqligiga bo‘lgan talab kuchaygani hisob tizimining ahamiyatini yanada oshirmoqda. An’anaviy buxgalteriya yondashuvlari endilikda zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda ishlashi zarur. Biroq barcha korxonalar ham bunday o‘zgarishlarni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy, texnik va kadrlar salohiyatiga ega emas.

Shu nuqtai nazardan, hisob jarayonlarini outsorsing asosida tashkil etish raqamli iqtisodiyot sharoitida eng maqbul yechimlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Outsorsing orqali korxonalar o‘zlarining asosiy faoliyatiga e’tibor qaratgan holda, hisob yuritish kabi murakkab va mas’uliyatli jarayonlarni malakali tashqi mutaxassislarga topshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa nafaqat xarajatlarni optimallashtirish, balki hisobning sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar rivojlanishi outsorsing xizmatlarining yanada kengayishiga zamin yaratmoqda. Bulutli platformalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar hisob jarayonlarini masofadan turib samarali boshqarish imkonini bermoqda. Natijada, hisob outsorsingi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda [1].

Asosiy qism. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida hisob jarayonlarini outsorsing asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, mavjud muammolar hamda ularning yechimlari chuqur tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sektori jadal rivojlanib, uning umumiy iqtisodiy tizimdagi ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1 050 trillion so‘mdan oshgan bo‘lib, bu o‘tgan yilga nisbatan qariyb 15 foiz o‘sishni anglatadi. Mazkur o‘sish, avvalo, moliyaviy, konsalting va IT xizmatlari kengayib borayotgani bilan izohlanadi. Shu jihatdan qaraganda, outsorsing xizmatlari, jumladan buxgalteriya hisobini tashqi tashkilotlar orqali yuritish amaliyoti ham iqtisodiyotda asta-sekin mustahkam o‘rin egallab bormoqda [1].

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda outsorsing xizmatlari bozori hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, u barqaror rivojlanish bosqichiga kirgan. Ayniqsa, buxgalteriya va moliyaviy xizmatlar outsorsing segmentining muhim qismini tashkil etmoqda. Mutaxassislar bahosiga ko‘ra, outsorsing xizmatlarining qariyb beshdan bir qismi aynan hisob-kitob, soliq hisobotlari va moliyaviy xizmatlarga to‘g‘ri keladi. Ushbu yo‘nalish yiliga o‘rtacha 12–15 foiz atrofida o‘sib borayotgani esa uning istiqboli yuqori ekanini tasdiqlaydi [2].

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayoni buxgalteriya outsorsingining rivojlanishiga sezilarli turtki bermoqda. Bugungi kunda elektron hisobot topshirish,

onlayn soliq tizimlari va bulutli buxgalteriya dasturlarining keng joriy etilishi hisob jarayonlarini masofadan turib boshqarish imkonini yaratdi. Shu sababli ko‘plab korxonalar an’anaviy ichki buxgalteriya tizimidan voz kechib, tashqi xizmatlardan foydalanishga o‘tmoqda. Bu holat ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun qulay bo‘lib, ular uchun alohida buxgalter shtatini saqlash o‘rniga outsorsing xizmatlari iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi [3].

Shuningdek, mamlakatda IT infratuzilmaning rivojlanishi ham outsorsing xizmatlari kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda IT Park rezidentlari sonining ortishi, xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar faoliyatining kengayishi va raqamli platformalarning joriy etilishi biznes xizmatlari bozorining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda buxgalteriya outsorsingi ham IT xizmatlari bilan integratsiyalashgan holda yangi bosqichga chiqmoqda. Natijada, xizmatlar sifati oshib, ular xalqaro standartlarga yaqinlashib bormoqda [4].

Biroq ushbu sohada hali qator muammolar mavjud. Eng avvalo, axborot xavfsizligi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Korxonalar o‘z moliyaviy ma’lumotlarini tashqi tashkilotlarga topshirishda ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda. Bundan tashqari, outsorsing xizmatlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmagani ham ushbu bozorning kengayishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda malakali kadrlar yetishmasligi va texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi ham ushbu xizmatlar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [5].

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, outsorsing xizmatlari asosan yirik iqtisodiy markazlarda, xususan Toshkent shahrida yuqori darajada rivojlanganini ko‘rish mumkin. Bu yerda xizmatlar hajmining katta qismi jamlangan bo‘lib, malakali mutaxassislar va zamonaviy texnologiyalar mavjudligi xizmatlar sifatini oshirmoqda. Boshqa hududlarda esa ushbu yo‘nalish hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, kelgusida katta o‘sish salohiyatiga ega[6].

Umuman olganda, statistik ma’lumotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda buxgalteriya outsorsingi asta-sekin rivojlanib, iqtisodiyotning muhim segmentlaridan biriga aylanib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu xizmat turiga bo‘lgan talab ortib borishi tabiiy bo‘lib, bu jarayon kelgusida yanada jadallashishi kutilmoqda. Ayniqsa, texnologik rivojlanish, kichik biznesning kengayishi va boshqaruv samaradorligiga bo‘lgan ehtiyoj outsorsing xizmatlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish bilan buxgalteriya hisobi tizimi tubdan o‘zgarib bormoqda. Avvallari ko‘proq qo‘lda yuritilgan hisob-kitoblar bugungi kunda avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida amalga oshirilmoqda. Elektron hujjat aylanishi, onlayn hisobot topshirish, bulutli buxgalteriya tizimlari kabi yangiliklar hisob jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirdi.

Shu bilan birga, raqamli muhit hisob tizimidan yuqori darajada tezkorlik va aniqlikni talab etmoqda. Ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatlari korxonalar uchun muhim ustunlikka aylanmoqda. Biroq bunday imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun zamonaviy texnologik infratuzilma va malakali mutaxassislar zarur.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab korxonalar ushbu talablarni mustaqil ravishda qondira olmaydi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun bu jarayon murakkab va qimmatga tushadi. Natijada ular alternativ yechim sifatida outsorsing xizmatlariga murojaat qilishni afzal ko‘rmoqda [7].

Hisob outsorsingi korxona faoliyatining muhim, lekin yordamchi funksiyalaridan biri bo‘lgan buxgalteriya va moliyaviy hisobni tashqi ixtisoslashgan tashkilotlarga topshirishni anglatadi. Bunday yondashuv korxona resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi, chunki asosiy e’tibor bevosita daromad keltiruvchi faoliyatga qaratiladi.

Outsorsing xizmatlari odatda keng ko‘lamli bo‘lib, ular buxgalteriya hisobini yuritish, soliq hisobotlarini tayyorlash, ish haqi hisoblash, moliyaviy tahlil va konsalting xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu xizmatlarning eng muhim jihati shundaki, ular yuqori malakali mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

Natijada korxonalar uchun xarajatlar kamayadi, hisob yuritishdagi xatoliklar ehtimoli pasayadi va qonunchilik talablariga rioya etish darajasi oshadi. Shu bilan birga, texnologik yangilanishlar bilan bog‘liq xarajatlar ham outsorser zimmasiga yuklatiladi. Bu esa ayniqsa resurslari cheklangan korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega [8].

Hisob jarayonlarini outsorsing asosida tashkil etishda bir qator muhim muammolar mavjud bo‘lib, ular ushbu tizimning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Eng avvalo, axborot xavfsizligi masalasi alohida e’tibor talab qiladi. Moliyaviy ma’lumotlarning tashqi tashkilotga topshirilishi ularning maxfiyligini ta’minlash zaruratini keskin oshiradi. Agar bu masala yetarli darajada hal etilmasa, korxonalar outsorsingdan foydalanishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Bundan tashqari, huquqiy tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘plab hollarda outsorsing xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab berilmagan bo‘ladi. Bu esa nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yana bir dolzarb muammo bu ishonch masalasidir. Korxonalar o‘z moliyaviy ma’lumotlarini uchinchi tomon bilan bo‘lishishda ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Bu holat ayniqsa yangi shakllanayotgan bozorlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, texnologik integratsiya bilan bog‘liq qiyinchiliklar ham mavjud bo‘lib, turli tizimlar o‘rtasida moslashuvni ta’minlash muayyan murakkabliklarni keltirib chiqaradi [9].

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, axborot xavfsizligini ta’minlash uchun zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish muhim hisoblanadi. Shifrlash, ma’lumotlarni zaxiralash va xalqaro standartlarga mos tizimlardan foydalanish bu borada samarali natija beradi.

Huquqiy bazani takomillashtirish ham ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, outsorsing xizmatlarini tartibga soluvchi aniq normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa xizmat ko‘rsatuvchi va buyurtmachi o‘rtasidagi munosabatlarni aniq belgilash imkonini beradi.

Ishonchni oshirish maqsadida outsorsing kompaniyalarini sertifikatlash, ularning faoliyatini audit qilish va shaffoflikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, texnologik integratsiyani rivojlantirish orqali turli platformalar o‘rtasida samarali axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish mumkin.

Kadrlar tayyorlash masalasi ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega buxgalterlar hamda IT mutaxassislar tayyorlash outsorsing xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi [10].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida hisob outsorsingining rivojlanish istiqbollari keng va serqirra hisoblanadi. Avvalo, bulutli texnologiyalarning rivojlanishi ushbu xizmatlarning yanada ommalashishiga olib kelmoqda. Korxonalar istalgan joydan turib hisob ma’lumotlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari esa hisob jarayonlarini yanada soddalashtirib, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirmoqda. Bu esa outsorsing xizmatlarining sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shuningdek, xalqaro integratsiya jarayonlari natijasida outsorsing kompaniyalari global bozorga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa xizmatlar sifatining oshishiga va raqobat muhitining kuchayishiga xizmat qiladi.

Kelgusida hisob outsorsingi nafaqat yirik korxonalar, balki kichik biznes subyektlari uchun ham ajralmas vositaga aylanishi kutilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning umumiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [11].

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida hisob jarayonlarini outsorsing asosida tashkil etish zamonaviy boshqaruvning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuv korxonalarga o‘z faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, texnologik rivojlanish sur’atlari yuqori bo‘lgan hozirgi davrda hisob tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Maqola tahlili shuni ko‘rsatadiki, outsorsing xizmatlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki boshqaruv sifatini yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, huquqiy tartibga solish va ishonch bilan bog‘liq muammolar ushbu tizimni keng joriy etishda asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlash zarur.

Xulosa. Kelajakda raqamli iqtisodiyotning yanada rivojlanishi bilan hisob outsorsingiga bo‘lgan talab ortib borishi kutilmoqda. Bu esa ushbu xizmat turining yanada takomillashishiga, yangi texnologik yechimlarning joriy etilishiga va global miqyosda kengayishiga olib keladi. Umuman olganda, hisob outsorsingi iqtisodiy tizimning samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Xizmatlar sohasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar, 2025.
2. Karimov I.A. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: 2021.

3. OECD. Digital Economy Outlook 2022.
4. McKinsey & Company. Global Outsourcing Report, 2023.
5. World Bank. Digital Transformation and Financial Systems, 2021.
6. Deloitte. Accounting Outsourcing Trends, 2024.
7. PwC. Future of Finance, 2025.
8. Unistaff Global. Accounting Outsourcing Trends for SMEs, 2023.
9. Abrau Capital. Buxgalteriya outsorsingi bo‘yicha tahlil, 2024.
10. IT Park Uzbekistan. 2023-yil yakunlari va 2024-yil rejalariga oid hisobot.
11. Jahon banki. Raqamli transformatsiya va moliyaviy tizimlar, 2021.

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti
e-mail: akmaljon.ermatov@fstu.uz

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA HISOB, TAHLIL VA AUDITNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy taraqqiyot strategiyasida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishlarning iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada buxgalteriya hisobi axborot manbai sifatida, iqtisodiy tahlil boshqaruv vositasi sifatida, audit esa nazorat va ishonchlilik kafolati sifatida asoslab berilgan. Natijada ushbu uch yo‘nalishning o‘zaro uzviy bog‘liqligi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi muhim o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, taraqqiyot strategiyasi, moliyaviy hisobot, shaffoflik, samaradorlik, boshqaruv, ichki audit, iqtisodiy rivojlanish

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi iqtisodiy o‘sish, investitsion muhitni yaxshilash, shaffoflikni oshirish kabi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Ushbu jarayonlarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston taraqqiyotining zamonaviy bosqichida iqtisodiyotni barqaror o‘stirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish, davlat va xususiy sektor faoliyatida samaradorlikni oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. 2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini belgilab berdi. 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi esa ushbu

yo‘nalishlarni davom ettirib, o‘z ahamiyatini saqlab qolgan maqsadlar ijrosini ta’minlashni nazarda tutdi. Shu sababli buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit taraqqiyot strategiyasining muhim amaliy tayanchlaridan biri sanaladi.

Asosiy qism. Buxgalteriya hisobi, avvalo, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini haqqoniy aks ettiruvchi axborot tizimidir. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur qonunda buxgalteriya hisobi milliy standartlari mavjudligi, shuningdek, subyektlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonunchilikda belgilangan tartibda qo‘llashi mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu esa iqtisodiyotning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi, investorlar ishonchini oshirish va korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Taraqqiyot strategiyasi sharoitida buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi nafaqat korxona mulki va majburiyatlarini qayd etish, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli ma’lumot bazasini yaratishdan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rahbarlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, xarajatlarni kamaytirish, foydani ko‘paytirish va resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qarorlarni aynan buxgalteriya ma’lumotlariga tayanib qabul qiladi. Shunday ekan, buxgalteriya hisobi taraqqiyot strategiyasining iqtisodiy samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlik kabi tamoyillarini amalda ta’minlovchi vositadir. Bu xulosa strategiyadagi iqtisodiy o‘sish, samaradorlik va boshqaruv sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqadi.

Iqtisodiy tahlil esa buxgalteriya hisobida shakllangan ma’lumotlarni chuqur o‘rganish, taqqoslash va baholash orqali korxona hamda tarmoqlarning haqiqiy holatini aniqlaydi. Tahlil yordamida daromad, xarajat, rentabellik, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Natijada korxonaning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, ichki imkoniyatlar topiladi hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari belgilanadi. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari, hududiy rivojlanish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va sanoat samaradorligini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirishda iqtisodiy tahlil muhim boshqaruv quroli hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning yana bir muhim jihati shundaki, u resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlaydi. Masalan, asosiy vositalardan foydalanish darajasi, aylanma mablag‘lar harakati, ishlab chiqarish tannarxi yoki foyda dinamikasini tahlil qilish orqali korxonada qaysi yo‘nalishlarda zaxira mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Bu esa strategik rejalashtirishda, ayniqsa, modernizatsiya, raqamlashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish jarayonlarida juda muhimdir. Demak, iqtisodiy tahlil taraqqiyot strategiyasidagi maqsadlarning bajarilish darajasini baholash va keyingi chora-tadbirlarni belgilashga xizmat qiladi.

Audit esa moliyaviy axborotning ishonchliligini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi institut sifatida taraqqiyot strategiyasida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining **“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni** auditorlik faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Auditning asosiy vazifasi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi, qonunchilik talablariga muvofiqligi va xo‘jalik operatsiyalarining to‘g‘ri aks ettirilganligini baholashdan iborat. Audit natijalari

investorlar, kreditorlar, davlat organlari va mulkdorlar uchun ishonchli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Taraqqiyot strategiyasida ochiqlik, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash va samarali davlat boshqaruvi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Audit aynan shu vazifalarni ta’minlashda muhim mexanizmdir. U korxona va tashkilotlarda moliyaviy intizomni kuchaytiradi, mablag‘lardan maqsadli foydalanishni nazorat qiladi, qonunbuzarliklar va xatolarni aniqlaydi. Ayniqsa, davlat sektorida ichki audit tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida me’yoriy asoslar yaratilgan: davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlarini joriy etish, ichki audit milliy standartlari va ichki audit tadbirlarini o‘tkazish tartiblarini belgilash bunga misoldir.

Ichki auditning kuchaytirilishi byudjet intizomi, xarajatlar samaradorligi va natijadorligini baholashga xizmat qilmoqda. Rasmiy hujjatlarda ichki audit tadbirlari budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarining oldini olish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash maqsadida o‘tkazilishi qayd etilgan. Shu jihatdan audit taraqqiyot strategiyasidagi davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish, jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytirish va samarali boshqaruvni ta’minlashning muhim vositasidir.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit o‘zaro uzviy bog‘liq tizimni tashkil etadi. Buxgalteriya hisobi dastlabki ma’lumotlarni shakllantiradi, iqtisodiy tahlil ushbu ma’lumotlarni qayta ishlab, boshqaruv uchun foydali xulosalarga aylantiradi, audit esa ma’lumotlarning ishonchliligi va qonuniyligini tasdiqlaydi. Shu bois ushbu uch yo‘nalish birgalikda iqtisodiy boshqaruv sifatini oshiradi, korxonalarda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning o‘rni nihoyatda katta. Buxgalteriya hisobi — ishonchli axborot manbai, iqtisodiy tahlil — samarali boshqaruv vositasi, audit esa — shaffoflik va nazorat kafolatidir. Ularning takomillashuvi mamlakatda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, investitsion muhit yaxshilanishi, korrupsiyaning kamayishi va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Demak, ushbu fan va amaliy yo‘nalishlar O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni. “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi”.

3. O‘zbekiston Respublikasining O'RQ-404-son “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel

4. O‘zbekiston Respublikasining O'RQ-815-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2023 yil 20 yanvar

Кенжабаева Гулфуза Рахматуллавена
Ферганский государственный технический университет, Старший предподователь кафедры «Финансы и бухгалтерский учёт»,
e-mail: gulfuza1976@gmail.com
Хасанова Шодиёнахон Сайдилло кизи
Ферганский государственный технический университет
Студент 4-курса группы 68-22 БУ и Ар

УЧЕТ И ПРОГНОЗ КАССОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются вопросы совершенствования систем управления и учета кассовых операций коммерческих банков и возможности повышения финансовой стабильности банка за счет эффективного управления кассовыми операциями. Также приводятся прогнозы на будущее для обеспечения скорости и эффективности оборота кассовых средств. Повышение скорости и точности кассовых операций также приводит к улучшению качества обслуживания клиентов.

Ключевые слова: коммерческие банки, кассовые операции, оборот кассовых средств, финансовая эффективность, банковские услуги, человеческий фактор, цифровизация, оптимизация.

Введение. Естественно, что банки, являясь неотъемлемой частью финансовой системы, играют важнейшую роль в современной экономике. В банковском деле важность кассы и кассовых операций в бухгалтерском учете заключается в управлении денежными потоками и предоставлении услуг клиентам.

Развитие системы, широкое распространение цифровых технологий и рост потребительского спроса предъявляют к банкам новые требования, такие как улучшение кассовых операций, повышение безопасности и ускорение процессов обслуживания. Важно рассмотреть возможности коммерческих банков по повышению качества обслуживания клиентов, укреплению операционной безопасности и снижению затрат за счет эффективного управления оборотом наличных средств.

Эта тема изучалась рядом ученых и исследователей. Исследования проводились в основном в таких областях, как повышение эффективности банковских услуг, управление оборотом наличных средств и обеспечение безопасности.

Основатели классического менеджмента, такие как Фредерик Уинслоу Тейлор и Анри Файоль, подчеркивали важность операционной эффективности и системного управления. На основе их работ показано, что оптимизация операций с наличными средствами и автоматизация процессов могут повысить эффективность банка. [7, 24 с]

Наряду с этими Валерий Рафаэлович и Сергей Константинович Семенов провели исследование организации банковских операций и их учета. В исследовании изучались особенности учета в кредитных учреждениях и его основные отличия от учета на предприятиях и в организациях, банковские счета и их особенности в банковской системе, внутрибанковские операции, банковская отчетность. [6, 12 стр]

Работа ученых, работающих в этой области, дает важные представления о важности эффективного управления кассовыми операциями в коммерческих банках, возможностях дальнейшего совершенствования банковских услуг путем усиления мер безопасности и внедрения цифровых инноваций.

Основная часть. В нашем исследовании достижение эффективных результатов в совершенствовании учета кассовых операций и кассовых операций в коммерческих банках осуществляется с помощью анализа литературы и количественного анализа.

На первом этапе посредством анализа литературы углубленно изучается исследование по совершенствованию банковских услуг, управлению денежными потоками и обеспечению безопасности. Таким образом, на основе научных работ, проведенных международными и местными исследователями, изучаются направления повышения эффективности банковской деятельности.

В качестве второго методологического метода был использован количественный анализ. На этом этапе анализируются количественные показатели для оценки эффективности операций с наличными деньгами.

Для расчета показателей динамики на постоянной базе каждый уровень ряда сравнивается с одним и тем же базисным уровнем. Исчисляемые при этом показатели называются базисными. Для расчета показателей динамики на переменной базе каждый последующий уровень ряда сравнивается с предыдущим. Вычисленные таким способом показатели динамики называются цепными.

Важнейшим статистическим показателем динамики является абсолютный прирост, который определяется в разностном сопоставлении двух уровней ряда динамики в единицах измерения исходной информации.

Научно-статистическая часть, содержащая анализ и результаты улучшения кассовых операций и операций с наличными средствами в акционерном коммерческом банке «Агробанк», структурирована следующим образом. В этой части представлены результаты, направленные на повышение эффективности кассовых услуг банка, управления оборотом наличных средств и качества обслуживания за счет внедрения процессов автоматизации.

С увеличением использования кассовых услуг АКБ «Агробанк» увеличился и оборот наличных средств банка. В таблице ниже показан оборот наличных средств банка по месяцам. (1-таблица)

1-таблица.

Цепные показатели ряда динамики оборота наличных денег (2025 г.).

Период	кассовые операции, млрд сум	Абсолют-ный прирост	Темп при-роста, %	Темпы роста, %	Абсолютное содержание 1% прироста	Темп наращения, %
январь	1.244	-	-	100	-	0
февраль	1.271	0.027	2.17	102.17	0.01244	2.17
март	1.274	0.003	0.24	100.24	0.01271	0.24
апрель	1.301	0.027	2.12	102.12	0.01274	2.17
май	1.329	0.028	2.15	102.15	0.01301	2.25
июнь	1.448	0.12	9.03	108.95	0.01329	9.65
июль	1.45	0.002	0.14	100.14	0.01448	0.16
август	1.507	0.057	3.93	103.93	0.0145	4.58
сентябрь	1.547	0.04	2.65	102.65	0.01507	3.22
октябрь	1.57	0.023	1.49	101.49	0.01547	1.85
ноябрь	1.62	0.05	3.18	103.18	0.0157	4.02
декабрь	1.65	0.03	1.85	101.85	0.0162	2.41

В декабрь по сравнению с ноябрь кассовые операции увеличилось на 0.03 млрд сум или на 1.9%.

Максимальный прирост наблюдается в июнь (0.12 млрд сум).

Минимальный прирост зафиксирован в июль (0.002 млрд сум).

Темп наращения показывает, что тенденция ряда возрастающая, что свидетельствует об ускорении кассовые операции..

Базисные показатели ряда динамики.

Период	кассовые	Абсолютный	Темп	Темпы
январь	1.244	-	-	100
февраль	1.271	0.027	2.17	102.17
март	1.274	0.03	2.41	102.41
апрель	1.301	0.057	4.58	104.58
май	1.329	0.085	6.83	106.83
июнь	1.448	0.2	16.08	116.4

июль	1.45	0.21	16.88	116.56
август	1.507	0.26	20.9	121.14
сентябрь	1.547	0.3	24.12	124.36
октябрь	1.57	0.33	26.53	126.21
ноябрь	1.62	0.38	30.55	130.23
декабрь	1.65	0.41	32.96	132.64

В декабрь по сравнению с январь кассовые операции увеличилось на 0.41 млрд сум или на 33%.

Сводная таблица.

Месяц	кассовые операции	Абсолютный прирост		Темп роста		Темп прироста		Абсолютное содержание 1% прироста
		цепной	базисный	цепной	базисный	цепной	базисный	
январь	1.244	-	-	100	100	-	-	-
феврал	1.271	0.027	0.027	102.1	102.17	2.17	2.17	0.01244
март	1.274	0.003	0.03	100.2	102.41	0.24	2.41	0.01271
апрель	1.301	0.027	0.057	102.1	104.58	2.12	4.58	0.01274
май	1.329	0.028	0.085	102.1	106.83	2.15	6.83	0.01301
июнь	1.448	0.12	0.2	108.9	116.4	9.03	16.08	0.01329
июль	1.45	0.002	0.21	100.1	116.56	0.14	16.88	0.01448
август	1.507	0.057	0.26	103.9	121.14	3.93	20.9	0.0145
сентяб	1.547	0.04	0.3	102.6	124.36	2.65	24.12	0.01507
октябр	1.57	0.023	0.33	101.4	126.21	1.49	26.53	0.01547
ноябрь	1.62	0.05	0.38	103.1	130.23	3.18	30.55	0.0157
декабр	1.65	0.03	0.41	101.8	132.64	1.85	32.96	0.0162

Расчет средних характеристик рядов.

Средний уровень ряда у динамики характеризует типическую величину абсолютных уровней.

Для нахождения среднего уровня моментного ряда используют среднюю хронологическую:

$$\bar{y} = \frac{{}^{1}/_{2}y_1 + y_2 + \ldots + y_{n-1} + {}^{1}/_{2}y_n}{n-1}$$

$$\bar{y} = \frac{{}^{1}/_{2}1.244 + 1.271 + \ldots + 1.62 + {}^{1}/_{2}1.65}{12-1} = 1.43$$

Среднее значение кассовые операции за анализируемый период составило 1.43 млрд сум

Средний темп роста

$$\overline{T_p} = \sqrt[n-1]{\frac{y_n}{y_1}}$$

$$\overline{T_p} = \sqrt[11]{\frac{1.65}{1.244}} = 1.026$$

В среднем за весь период рост анализируемого показателя составил 1.026

Средний темп прироста

$$\overline{T_{np}} = \overline{T_p} - 1$$

$$\overline{T_{np}} = 1.026 - 1 = 0.026$$

В среднем кассовые операции ежемесячно увеличивалась на 2.6%.

Средний абсолютный прирост представляет собой обобщенную характеристику индивидуальных абсолютных приростов ряда динамики.

Средний абсолютный прирост.

$$\overline{dy} = \frac{y_n - y_1}{n-1}$$

$$\overline{dy} = \frac{1.65 - 1.244}{11} = 0.0369$$

С каждым месяцем кассовые операции в среднем увеличивалось на 0.0369 млрд сум

Выполним прогноз на 1 шага вперед, используя показатель среднего темпа роста.

y(13) = 1.65·1.026 = 1.69

Заключение. Анализ, проведенный на примере АО «Агробанк», показал, что кассовые операции и операции с наличными средствами имеют большое значение для повышения эффективности и качества обслуживания. По результатам анализа, увеличился объем кассового оборота, возросло количество операций с наличными средствами, а время ожидания клиентов значительно сократилось. Это создало более комфортные условия для клиентов, повысив их удовлетворенность банком.

Таким образом, действия по автоматизации кассовых операций и операций с наличными средствами являются важным стратегическим шагом на пути к устойчивому росту банка и полному удовлетворению потребностей клиентов.

Список использованной литерататуры :

1. Berger, A. N., Molyneux, P., & Wilson, J. O. S. (2015). The Oxford

Handbook of Banking. Oxford University Press.
2. Mishkin, F. S. (2018). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education.
3. Heffernan, S. (2005). Modern Banking. Wiley.
4. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2012). Bank Management & Financial Services. McGraw- Hill Education.
5. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2020). Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. McGraw-Hill Education.
6. Банк В.Р., Семенов С.К. Б23 Организация и бухгалтерский учет банковских операций: Учеб. пособие. — М.: Финансы и статистика, 2004. - 352 с.
7. Frederick Winslow Taylor. The Principles of Scientific Management. 1911. Фредерик Уинслоу Тейлор. Принципы научного менеджмента. — М., 1991. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. — 03.06.2010.
8. Allen, F., & Santomero, A. M. (1998). The Theory of Financial Intermediation. Journal of Banking & Finance, 21(11-12), 1461-1485.

Uzakova Ma'muraxon Matkarimovna
Fargona davlat texnika univarsiteti,
"Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasi assistenti,
e-mail: mamuraxonuzaqova@fstu.uz

O'ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASIDA XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA O'TISHNING IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT SIFATIGA TA'SIRI.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS/IFRS) o'tish jarayonining iqtisodiy tahlil va audit sifatiga ta'siri kompleks tarzda o'rganilgan. Tadqiqotda MHXSning moliyaviy axborot shaffofligi va ishonchliligini oshirishdagi roli, iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligiga ta'siri hamda audit jarayonining takomillashuvidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilingan. Natijada MHXSga o'tish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, iqtisodiy tahlil, audit sifati, shaffoflik, investitsion jozibadorlik, buxgalteriya hisobi, xalqaro standartlar.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashuvni jadallashtirishga qaratilgan bo'lib, ushbu jarayonlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talablarga moslashtirish muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot

standartlari (IFRS)ga o‘tish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shaffofligi, ochiqligi va solishtiriluvchanligini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar IFRSni joriy etishning huquqiy va institutsional asoslarini yaratib bermoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatda IFRSni joriy etishning muhim bosqichini boshlab berdi [1]. Ushbu qarorga muvofiq, yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot yuritish majburiy etib belgilandi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, IFRSga o‘tish jarayoni nafaqat buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qiladi, balki iqtisodiy tahlil va audit sifatiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy milliy standartlar asosida shakllantirilgan moliyaviy hisobotlar ko‘pincha cheklangan axborot bazasiga ega bo‘lib, ular xalqaro darajada yetarli darajada tan olinmas edi. IFRS esa aktivlar va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida baholash, daromad va xarajatlarni tan olishning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish orqali iqtisodiy tahlilning aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, IFRSga o‘tish audit faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar asosida tuzilishi auditorlik tekshiruvlarining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keladi. Auditorlar endilikda xalqaro audit standartlari asosida ishlashlari, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholashda kompleks yondashuvlarni qo‘llashlari zarur bo‘ladi. Bu esa auditorlik kasbining professional darajasini oshirishni, malakali kadrlar tayyorlashni hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashni talab etadi.

Asosiy qism. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS/IFRS) o‘tish jarayoni iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayon buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda iqtisodiy tahlil va audit sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, MHXSga o‘tish moliyaviy axborotning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanishini ta’minlab, iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshiradi [2].

MHXS asosida shakllantirilgan moliyaviy hisobotlar iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki ushbu standartlar aktivlar va majburiyatlarni baholash, daromad va xarajatlarni tan olishda yagona metodologik yondashuvni ta’minlaydi. Natijada xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini solishtirish, ularning moliyaviy barqarorligini baholash va investitsion jozibadorligini aniqlash imkoniyati kengayadi. Bu esa iqtisodiy tahlilni strategik va prognozlashga yo‘naltirilgan darajaga olib chiqadi.

Shu bilan birga, MHXSning joriy etilishi audit sifatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobotlar auditorlar uchun to‘liq va tizimli axborot manbaini yaratadi. Bu esa audit jarayonining aniqligi va ishonchliligini oshirib, auditorlik xulosalarining sifatini yaxshilaydi. Moliyaviy

hisobotlarning oshkoraligi audit jarayonining shaffofligini ta’minlab, manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MHXSga o‘tish iqtisodiy tahlilning sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xususan, moliyaviy hisobotlarning to‘liqligi va haqqoniyligi oshishi tufayli korxonalar faoliyatini baholashda likvidlik, rentabellik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini yanada aniq hisoblash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa investorlar uchun risklarni baholash va samarali qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

Muhokamalar natijasida aniqlanishicha, MHXSning iqtisodiy tahlilga ta’siri faqat axborot sifati bilan cheklanmaydi, balki tahlil metodologiyasining ham tubdan o‘zgarishiga olib keladi. An’anaviy hisob tizimida tahlil ko‘proq retrospektiv xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, MHXS asosida tahlil qilish istiqbolga yo‘naltirilgan va prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa korxonalar faoliyatini strategik boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Audit tizimiga ta’siri ham alohida e’tiborga loyiqdir. MHXS asosida audit jarayoni xalqaro audit standartlari bilan uyg‘unlashib, riskga asoslangan yondashuvni rivojlantiradi. Bu esa auditorlardan yuqori malaka va professional mulohaza talab etadi hamda audit natijalarining sifatini oshiradi [4].

Biroq, MHXSga o‘tish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, malakali kadrlar yetishmasligi, metodologik qo‘llanmalar yetarli emasligi, dasturiy ta’minot xarajatlarining yuqoriligi va ayrim korxonalarda formal yondashuvning mavjudligi ushbu jarayon samaradorligini cheklaydi. Shu sababli MHXSni joriy etishda kompleks yondashuvni qo‘llash, kadrlar salohiyatini oshirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish zarur.

Shuningdek, MHXSning joriy etilishi makroiqtisodiy darajada ham ijobiy natijalar bermoqda. Xususan, investitsion muhitning yaxshilanishi, xorijiy kapital oqimining ortishi va korporativ boshqaruv tizimining takomillashuvi kuzatilmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari MHXSga o‘tish iqtisodiy tahlil va audit sifatini oshirishda muhim instrument ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon orqali moliyaviy axborot sifati yaxshilanadi, auditning ishonchliligi ortadi va iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS/IFRS) o‘tish jarayoni iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayon moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanishini ta’minlab, iqtisodiy tahlil sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, MHXS asosida shakllantirilgan moliyaviy axborotlar audit jarayonining samaradorligini kuchaytirib, auditorlik xulosalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qaror qabul qilishda zarur bo‘lgan ishonchli axborot bazasi shakllanadi.

Shu bilan birga, MHXSga o‘tish jarayonida ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, malakali kadrlar yetishmasligi, metodologik qo‘llanmalar

bazasining yetarli emasligi, zamonaviy dasturiy ta’minotga bo‘lgan xarajatlarning yuqoriligi hamda ayrim korxonalarda ushbu jarayonga formal yondashuv kuzatilmoqda. Bu omillar MHXSni joriy etish samaradorligini ma’lum darajada cheklaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, MHXS bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish zarur. Bunda oliy ta’lim muassasalarida xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlarini kengaytirish hamda amaliy ko‘nikmalarni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, MHXSni qo‘llash bo‘yicha yagona metodologik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish korxonalar faoliyatida yagona yondashuvni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, korxonalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va buxgalteriya tizimlarini avtomatlashtirishni rag‘batlantirish lozim. Audit faoliyatini xalqaro audit standartlari bilan uyg‘unlashtirish, auditorlarning kasbiy malakasini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, MHXSga o‘tish jarayonini monitoring qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, MHXSga o‘tish iqtisodiy tahlil va audit sifatini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligi va investitsion jozibadorligini ta’minlovchi muhim strategik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son.

2. Khajimuratov, N. S. (2020). Ssues of application of international financial reporting standards in the Republic of Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 105-113.

3. Maxmasobirova, N. U. Q., & Saydaliyev, J. N. O. G. L. (2025). O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 5(6), 391-399.

4. Eraliyev, A. (2023). STEPS OF TRANSITION TO INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING IN UZBEKISTAN AND ITS PRACTICAL RESULTS. Экономика и социум, (5-2 (108)), 102-106.

Атабаева Замира Абдужалиловна
Ферганский государственный технический университет,
Старший преподаватель кафедры «Финансы и бухгалтерский учёт»,
e-mail: zamiraxon.atabayeva@fstu.uz
Камолиддинова Хаетжон Баходир угли
Студент группы 68-22BH и Ar
Ферганского государственного технического университета

СОСТАВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ И ЕЕ АНАЛИЗ В ХОЗЯЙСТВЕННЫХ СУБЪЕКТАХ

Аннотация. В данном тезисе рассматриваются вопросы состава финансовой отчетности хозяйственных субъектов и методы ее анализа. Особое внимание уделяется современным подходам к формированию финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности (МСФО), а также методике анализа основных финансовых показателей деятельности предприятий. Проведен анализ структуры бухгалтерского баланса, отчета о финансовых результатах и отчета о движении денежных средств. Рассмотрены ключевые коэффициенты финансового анализа: ликвидности, финансовой устойчивости, рентабельности и деловой активности.

Ключевые слова: финансовая отчетность, бухгалтерский баланс, анализ финансовой отчетности, коэффициенты ликвидности, финансовая устойчивость, рентабельность, МСФО, хозяйственные субъекты.

Введение. Финансовая отчетность является основным источником информации о финансовом положении и результатах деятельности хозяйствующих субъектов. В условиях развития рыночных отношений и интеграции экономики Республики Узбекистан в мировое экономическое пространство особое значение приобретает повышение качества и достоверности финансовой отчетности, а также совершенствование методов ее анализа [1].

Согласно Закону Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете», финансовая отчетность представляет собой систему показателей деятельности хозяйствующего субъекта, полученных в порядке идентификации, измерения и классификации хозяйственных фактов по правилам установленного образца [2]. Финансовая отчетность служит основой для принятия управленческих решений как внутри организации, так и внешними пользователями: инвесторами, кредиторами, налоговыми органами и другими заинтересованными сторонами.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью адаптации национальной системы бухгалтерского учета к международным стандартам финансовой отчетности (МСФО), что требует существенных изменений в составе и структуре финансовой отчетности, а также в подходах к ее анализу. Внедрение МСФО позволяет повысить прозрачность финансовой

информации, обеспечить ее сопоставимость и привлечь иностранные инвестиции [3].

Основная часть. Финансовая отчетность хозяйственных субъектов Республики Узбекистан включает в себя следующие обязательные формы: бухгалтерский баланс (Форма №1), отчет о финансовых результатах (Форма №2), отчет о движении денежных средств (Форма №3), отчет об изменениях капитала (Форма №4) и пояснительную записку [4]. Каждая из этих форм выполняет специфическую функцию и содержит уникальную информацию, необходимую для всестороннего анализа финансового состояния предприятия.

Бухгалтерский баланс является центральной формой финансовой отчетности, отражающей имущественное и финансовое положение организации на определенную дату. Баланс состоит из двух взаимосвязанных частей: актива (активы) и пассива (источники формирования активов). Актив баланса включает внеоборотные активы (основные средства, нематериальные активы, долгосрочные финансовые вложения) и оборотные активы (запасы, дебиторская задолженность, краткосрочные финансовые вложения, денежные средства). Пассив баланса отражает собственный капитал и обязательства организации.

Отчет о финансовых результатах (отчет о прибылях и убытках) показывает финансовые результаты деятельности организации за отчетный период. Основными статьями данного отчета являются: выручка от реализации продукции, себестоимость проданных товаров, продукции, работ, услуг, валовая прибыль, коммерческие и управленческие расходы, прибыль от продаж, прочие доходы и расходы, чистая прибыль (убыток). Анализ динамики этих показателей позволяет оценить эффективность операционной деятельности предприятия.

Отчет о движении денежных средств (cash flow statement) отражает поступления и выбытия денежных средств и их эквивалентов в течение отчетного периода, сгруппированные по трем видам деятельности: операционной, инвестиционной и финансовой [5]. Данный отчет позволяет оценить способность организации генерировать денежные средства и обеспечивать их достаточность для выполнения обязательств.

Анализ финансовой отчетности представляет собой процесс исследования финансового состояния и результатов деятельности хозяйствующего субъекта с целью выявления тенденций изменения показателей, оценки текущего положения и прогнозирования будущих результатов. Существуют различные методы анализа финансовой отчетности: горизонтальный (трендовый), вертикальный (структурный), коэффициентный, сравнительный и факторный анализ.

Коэффициентный анализ является наиболее распространенным методом оценки финансового состояния предприятия. Основные группы финансовых коэффициентов включают:

1) Коэффициенты ликвидности характеризуют способность организации погашать краткосрочные обязательства. К ним относятся:

коэффициент текущей ликвидности (соотношение оборотных активов к краткосрочным обязательствам), коэффициент быстрой ликвидности (без учета запасов) и коэффициент абсолютной ликвидности (денежные средства и краткосрочные финансовые вложения к краткосрочным обязательствам).

2) Коэффициенты финансовой устойчивости отражают соотношение собственных и заемных источников финансирования. Ключевыми показателями являются: коэффициент автономии (доля собственного капитала в общей сумме источников), коэффициент финансовой зависимости, коэффициент соотношения заемных и собственных средств.

3) Коэффициенты рентабельности показывают эффективность использования ресурсов предприятия. Основные из них: рентабельность продаж (отношение чистой прибыли к выручке), рентабельность активов (ROA), рентабельность собственного капитала (ROE).

4) Коэффициенты деловой активности характеризуют эффективность использования активов. К ним относятся: оборачиваемость запасов, оборачиваемость дебиторской задолженности, оборачиваемость активов, период оборачиваемости.

Таблица 1.

Основные финансовые коэффициенты и их нормативные значения

Коэффициент	**Формула расчета**	**Нормативное значение**
Текущая ликвидность	Оборотные активы / Краткосрочные обязательства	≥ 1, 5
Быстрая ликвидность	(Оборотные активы – Запасы) / Краткосрочные обязательства	≥ 1, 0
Абсолютная ликвидность	(Денежные средства + КФВ) / Краткосрочные обязательства	≥ 0, 2
Автономии	Собственный капитал / Валюта баланса	≥ 0, 5
Рентабельность продаж	Чистая прибыль / Выручка	≥ 0, 1
Рентабельность активов (ROA)	Чистая прибыль / Средние активы	≥ 0, 05

В современных условиях цифровой трансформации экономики значительное внимание уделяется автоматизации процессов составления и анализа финансовой отчетности. Внедрение современных ERP-систем, систем бизнес-аналитики (Business Intelligence) и технологий искусственного интеллекта позволяет существенно повысить эффективность финансового анализа, сократить время на подготовку отчетности и повысить достоверность получаемых результатов.

Переход на международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) является важным направлением развития системы бухгалтерского учета в Республике Узбекистан. МСФО предусматривают использование принципа справедливой стоимости (fair value) для оценки активов и обязательств, что обеспечивает более объективное отражение финансового положения организации. Однако внедрение МСФО требует существенных изменений в методологии учета, подготовки кадров и информационной инфраструктуре предприятий.

Заключение. Таким образом, финансовая отчетность представляет собой комплексную систему информации о финансовом положении и результатах деятельности хозяйствующих субъектов. Современный состав финансовой отчетности включает бухгалтерский баланс, отчет о финансовых результатах, отчет о движении денежных средств, отчет об изменениях капитала и пояснительную записку. Анализ финансовой отчетности является необходимым инструментом управления финансами предприятия и принятия обоснованных управленческих решений. Использование коэффициентного анализа позволяет всесторонне оценить ликвидность, финансовую устойчивость, рентабельность и деловую активность организации.

Для повышения эффективности системы финансовой отчетности и ее анализа необходимо: ускорить процесс адаптации национальных стандартов к МСФО; внедрять современные информационные технологии и системы автоматизации; повышать квалификацию специалистов в области финансового анализа; совершенствовать методологию анализа с учетом специфики отраслевых особенностей предприятий.

Список использованной литературы:

1. Савченко И.В. Финансовый анализ предприятий. – М.: КНОРУС, 2023. – 312 с.

2. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» от 13 апреля 2016 года № ЗРУ-404.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на Международные стандарты финансовой отчетности».

4. Национальный стандарт финансовой отчетности № 1 «Представление финансовой отчетности».

5. Шимминг Х. Бухгалтерский учет и финансовая отчетность. – Ташкент: ФАН, 2022. – 456 с.

Карабаев Мухтар Матмусаевич
Ферганский государственный технический университет,
Старший преподаватель кафедры «Финансы и бухгалтерский учёт»,
e-mail: muxtar.karabayev@ferpi.uz
Ганижонов Баркамол Бархаетжон угли,
Студент группы 68-22BH и Ar
Ферганского государственного технического университета

БУХГАЛТЕРСКИЙ БАЛАНС: ЦЕЛЬ, ПРИНЦИПЫ ПОСТРОЕНИЯ И ТЕХНИКА СОСТАВЛЕНИЯ

Аннотация. В данном тезисе рассматриваются теоретические и практические аспекты бухгалтерского баланса как центральной формы финансовой отчетности хозяйствующих субъектов Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется целям составления бухгалтерского баланса, принципам его построения в соответствии с Законом Республики Узбекистан "О бухгалтерском учете" и национальными стандартами бухгалтерского учета, а также технике составления баланса. Проанализирована структура актива и пассива баланса, порядок заполнения отдельных статей и требования к представлению финансовой отчетности.

Ключевые слова: бухгалтерский баланс, финансовая отчетность, принципы бухгалтерского учета, актив, пассив, национальные стандарты бухгалтерского учета, бухгалтерский учет, хозяйствующие субъекты.

Введение. Бухгалтерский баланс является одной из наиболее важных форм финансовой отчетности, отражающей имущественное и финансовое положение хозяйствующего субъекта на определенную дату. В условиях реформирования экономики Республики Узбекистан и постепенного перехода на международные стандарты финансовой отчетности приобретает особое значение достоверность, полнота и своевременность составления бухгалтерского баланса [1].

Согласно Закону Республики Узбекистан "О бухгалтерском учете" от 13 апреля 2016 года № ЗРУ-404, финансовая отчетность представляет собой систематизированную информацию о финансовом положении субъекта бухгалтерского учета на отчетную дату, финансовых результатах его деятельности за отчетный период, движении денежных средств и собственном капитале [2]. Бухгалтерский баланс, как центральная форма финансовой отчетности (форма № 1), служит основой для принятия управленческих решений как внутри организации, так и внешними пользователями: инвесторами, кредиторами, налоговыми органами и другими заинтересованными сторонами.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью совершенствования методики составления бухгалтерского баланса в соответствии с требованиями национальных стандартов бухгалтерского учета и постановлениями Министерства экономики и финансов Республики

Узбекистан, определяющими структуру и содержание финансовой отчетности.

Основная часть. Цель бухгалтерского баланса заключается в предоставлении пользователям достоверной и полной информации об имущественном положении организации, структуре ее активов и пассивов, финансовой устойчивости и платежеспособности. Бухгалтерский баланс отражает совокупность активов, обязательств и собственного капитала организации на отчетную дату, что позволяет оценить эффективность использования ресурсов и принять обоснованные экономические решения [3].

Составление бухгалтерского баланса основывается на ряде фундаментальных принципов, установленных Законом Республики Узбекистан "О бухгалтерском учете" и национальными стандартами бухгалтерского учета. К числу основных принципов построения бухгалтерского баланса относятся:

Принцип накопления (начисления) предполагает, что хозяйственные операции отражаются в бухгалтерском учете и финансовой отчетности в периоде их совершения, независимо от фактического времени поступления или выбытия денежных средств и их эквивалентов. Данный принцип обеспечивает сопоставимость финансовых результатов деятельности организации за различные отчетные периоды.

Принцип единства требует, чтобы все хозяйственные операции, производимые организацией, включая операции ее филиалов, представительств и иных структурных подразделений, отражались в единой системе бухгалтерского учета. При составлении бухгалтерской отчетности субъект бухгалтерского учета обязан включать в нее формы отчетности своих представительств, филиалов и иных структурных подразделений, которые обособляются на самостоятельный баланс.

Принцип превышения доходов над расходами означает, что для определения финансового результата деятельности организации признаются доходы и расходы, сложившиеся в отчетном периоде. При этом доходы признаются при условии, что их величина может быть достоверно определена и существует вероятность того, что организация получит экономические выгоды [4].

Принцип сопоставимости обеспечивает возможность сопоставления данных бухгалтерского баланса как за разные периоды деятельности одной организации, так и с данными других хозяйствующих субъектов. Финансовая отчетность составляется как минимум за два периода — отчетный и предшествующий ему, что позволяет проследить динамику изменения финансовых показателей [5].

Принцип последовательности предполагает неизменность применяемых методов оценки активов и обязательств, способов ведения бухгалтерского учета при подготовке финансовой отчетности из периода в период. Изменение учетной политики допускается только в случаях,

предусмотренных национальными стандартами бухгалтерского учета, и должно быть раскрыто в примечаниях к финансовой отчетности.

Принцип осторожности требует учета возможных рисков и потерь, связанных с хозяйственной деятельностью. Согласно данному принципу, активы и доходы не должны завышаться, а обязательства и расходы — занижаться. Запасы оцениваются по наименьшей из двух величин: фактической себестоимости или чистой стоимости реализации [2].

Техника составления бухгалтерского баланса регламентируется НСБУ № 1 "Учетная политика и финансовая отчетность" и определяется Министерством экономики и финансов Республики Узбекистан. Бухгалтерский баланс (форма № 1) составляется по состоянию на последний календарный день отчетного периода, которым является 31 декабля отчетного года [6]. Финансовая отчетность составляется с нарастающим итогом с начала отчетного года.

Структура бухгалтерского баланса включает две взаимосвязанные части: актив и пассив. Актив баланса отражает состав и размещение имущества организации и включает внеоборотные активы и оборотные активы. Внеоборотные активы включают основные средства, нематериальные активы, доходные вложения в материальные ценности, инвестиции во внеоборотные активы, долгосрочные финансовые вложения и отложенные налоговые активы. Оборотные активы включают запасы, дебиторскую задолженность, краткосрочные финансовые вложения, денежные средства и их эквиваленты.

Пассив баланса отражает источники формирования имущества организации и включает собственный капитал, долгосрочные обязательства и краткосрочные обязательства. Собственный капитал включает уставный фонд, собственные акции, эмиссионный доход, резервный капитал, нераспределенную прибыль (непокрытый убыток) и целевое финансирование. Долгосрочные обязательства включают долгосрочные кредиты и займы, долгосрочную кредиторскую задолженность, отложенные налоговые обязательства и прочие долгосрочные обязательства. Краткосрочные обязательства включают краткосрочные кредиты и займы, краткосрочную кредиторскую задолженность, краткосрочную задолженность по долгосрочным обязательствам, обязательства по налогам и другим обязательным платежам, резервы предстоящих расходов и прочие краткосрочные обязательства.

Балансовое равенство является фундаментальным условием правильности составления бухгалтерского баланса. Общая сумма актива всегда равна общей сумме пассива баланса, что отражает объективную экономическую зависимость между источниками средств и их использованием. Соблюдение балансового равенства обеспечивается применением метода двойной записи, при котором каждая хозяйственная операция отражается в учете как минимум по двум взаимосвязанным счетам.

Заключение. Таким образом, бухгалтерский баланс представляет собой центральную форму финансовой отчетности, отражающую имущественное и

финансовое положение хозяйствующего субъекта на определенную дату. Основными целями составления баланса являются предоставление достоверной информации внешним и внутренним пользователям для принятия обоснованных экономических решений.

Принципы построения бухгалтерского баланса — накопления, единства, превышения доходов над расходами, сопоставимости, последовательности и осторожности — обеспечивают достоверность, полноту и объективность представленной в балансе информации. Техника составления баланса требует строгого соблюдения требований национальных стандартов бухгалтерского учета, правильного отнесения статей к активу и пассиву, обеспечения балансового равенства и проведения предбалансовой инвентаризации.

Дальнейшее развитие методики составления бухгалтерского баланса в Республике Узбекистан будет связано с адаптацией национальных стандартов к МСФО, внедрением современных информационных технологий и повышением квалификации специалистов в области бухгалтерского учета и финансовой отчетности.

Список использованной литературы:

1. Насырходжаев Б.С., Исламов Р.И. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник. — Ташкент: ТГЭУ, 2024. — 420 с.

2. Закон Республики Узбекистан "О бухгалтерском учете" от 13 апреля 2016 года № ЗРУ-404 (в редакции от 2024 года).

3. Национальный стандарт бухгалтерского учета № 1 "Учетная политика и финансовая отчетность" (утвержден приказом Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан).

4. Национальный стандарт бухгалтерского учета № 5 "Выручка" (утвержден приказом Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан).

5. Положение о составе, порядке представления и объеме раскрытия годовой финансовой отчетности хозяйствующих субъектов (утверждено Министерством экономики и финансов Республики Узбекистан).

6. План счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности хозяйствующих субъектов и Инструкция по его применению (утверждены приказом Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан).

G‘anibayev Ilhomjon Shokiraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: ilxomjon.ganibayev@fstu.uz
Jo‘rayeva Zilolaxon Ilxomjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti

NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA ULARNI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida xarajatlar hisobini yuritishning zamonaviy yondashuvlari, innovatsion texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, xarajatlarni samarali boshqarish va hisob tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, xarajatlar hisobi, nodavlat maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, moliyaviy boshqaruv.

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi barcha sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish, xarajatlar hisobini aniq va shaffof yuritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsion ishlanmalar va sun’iy intellekt asosida xarajatlar hisobini avtomatlashtirish muassasalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan, maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat sektor ulushi va ahamiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining (MTT) o‘rni va roli alohida ta’kidlangan. Mazkur qarorga muvofiq, nodavlat MTTlar bolalarni sifatli maktabga tayyorlash, ularning erta rivojlanish darajasini oshirish hamda davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ushbu tashkilotlarning barqaror va samarali faoliyat yuritishini ta’minlashda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni aniq va tizimli hisobga olish hamda ularni chuqur tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda zamonaviy texnika-texnologiyalar, innovatsion ishlanmalar, axborot texnologiyalari hamda sun’iy intellektdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonlar barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga, xususan, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv tizimiga ham

sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, xarajatlar hisobini samarali tashkil etish, uni avtomatlashtirish va takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida xarajatlar hisobi muassasa faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u moliyaviy natijalarni aniqlash, xizmatlar tannarxini shakllantirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Mazkur muassasalarda xarajatlar tarkibiga mehnatga haq to‘lash, oziq-ovqat mahsulotlari, kommunal xizmatlar, o‘quv-uslubiy vositalar, amortizatsiya va boshqa operatsion xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash va hisobga olish moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xarajatlar hisobini yuritish an’anaviy usullardan tubdan farq qilib, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslanadi. Xususan, elektron hujjat aylanishi, bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari va real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlari hisob tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa o‘z navbatida hisob jarayonlarida aniqlik, tezkorlik va shaffoflikni ta’minlab, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi.

Innovatsion ishlanmalar, ayniqsa sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi xarajatlar hisobini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida muassasalarda xarajatlarni prognozlash, ortiqcha va samarasiz xarajatlarni aniqlash, byudjetni optimallashtirish hamda moliyaviy risklarni baholash imkoniyati yaratiladi. Bu esa nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xarajatlar hisobini takomillashtirish uchun bir qator muhim yo‘nalishlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini keng joriy etish, xarajatlarni markazlashtirilgan tarzda nazorat qilish mexanizmlarini yaratish, raqamli platformalar orqali hisobotlarni shakllantirish va tahlil qilish tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, muassasa xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish ham zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Yirikroq nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘i uchun ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari optimaldir. Bu tizimlar buxgalteriya hisobi, kadrlar boshqaruvi (HR), ombor, xarid va mijozlar bilan ishlashni yagona platformada birlashtiradi. O‘zbekiston sharoitida 1C: ERP hamda xorijiy hamkorlar bilan ishlab chiqilayotgan mahalliy yechimlar amaliyotga kirib kelmoqda. ERP tizimida xarajatlar avtomatik ravishda bo‘limlarga, xodimlar toifasiga va faoliyat turlariga taqsimlanadi. Masalan, oshxona xarajatlari oziq-ovqat xarididan tortib, tayyorlash jarayonidagi energiya sarfiga qadar avtomatik kuzatilishi mumkin. Bu boshqaruv hisobotining aniqligini va moliyaviy shaffofligini tubdan oshiradi. Zamonaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida qog‘oz asosidagi hujjat aylanishini elektron tizimga o‘tkazish nafaqat vaqtni tejaydi, balki nazorat mexanizmini ham mustahkamlaydi. Har bir xarajat hujjati (shartnoma, faktura, chek) raqamli imzolash va tasdiqlash zanjiriga

ega bo‘lib, bu xarajatlarning asossiz amalga oshirilishining oldini oladi va audit izini to‘liq saqlaydi.

Sun’iy intellekt (SI) - zamonaviy raqamli iqtisodiyotning eng istiqbolli vositalaridan biri bo‘lib, moliyaviy boshqaruv sohasida inqilobiy o‘zgarishlarga zamin yaratmoqda. NMTMlarda SI quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalishda qo‘llanilishi mumkin. Machine learning (mashina o‘rganishi) algoritmlariga asoslangan SI tizimlari tarixiy ma’lumotlar asosida kelgusi oylar uchun xarajatlarni yuqori aniqlikda bashorat qiladi. Masalan, oziq-ovqat xarajatlarini prognozlashda tizim bolalar davomati tendensiyasi, bozor narxlarining dinamikasi va mavsumiy o‘zgarishlarni bir vaqtda hisobga oladi. Bu NMTMga aniq, ilmiy asoslangan byudjet tuzish imkonini beradi va “kutilmagan xarajat” holatlarini minimallashтирaди.

Anomaliyalarni aniqlash (anomaly detection) funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Agar biron-bir xarajat kategoriyasi odatdagi me’yordan sezilarli chetga chiqsa, tizim avtomatik ravishda rahbariyatga ogohlantirish yuboradi. Bu moliyaviy risklarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

OCR (Optical Character Recognition) va NLP (Natural Language Processing) texnologiyalari asosida ishlaydigan SI tizimlari qog‘oz hujjatlar - cheklar, fakturalar, shartnomalarni skanerlash, raqamlashtirish va xarajat kategoriyalariga avtomatik ajratish imkonini beradi. Bu buxgalterning qo‘lda kiritish vaqtini 70 foizgacha qisqartiradi. Masalan, oziq-ovqat xaridi cheki skanerlanganda SI tizimi avtomatik ravishda mahsulot nomini, miqdor va narxni aniqlaydi; xarajat kategoriyasiga ajratadi; soliq ma’lumotlarini alohida qayd etadi va tegishli hisobot qatoriga kiritadi. Bularning barchasi bir necha soniya ichida va xatosiz amalga oshiriladi.

Raqamli HR tizimlari va SI kombinatsiyasi xodimlar ish vaqtini biometrik usulda hisobga olish, mehnat haqi fondini avtomatik hisoblash va ijtimoiy soliqlarni to‘g‘ri ajratish imkonini beradi. O‘zbekistonda Soliq qo‘mitasining “Soliqchi” tizimi va Davlat mehnat taftishshining elektron platformalari bilan integratsiya bu jarayonni yanada soddalashtiradi. Zamonaviy SI tizimlari faqat hisobni avtomatlashtirib qolmay, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham yordam beradi. Vizual moliyaviy dashboardlar orqali NMTM rahbari real vaqt rejimida xarajatlarning tuzilmasini, daromad-xarajat nisbatini va prognoz ko‘rsatkichlarini kuzata oladi. Bu an’anaviy oylik hisobotlar o‘rniga kunlik boshqaruv imkonini beradi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Maqola doirasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarda xarajatlar hisobining hozirgi holati zamonaviy talablarga javob bermaydi: metodologik standart, raqamli infratuzilma va kadriy salohiyat etishmasligi asosiy to‘siq bo‘lib turibdi;
- bulutli buxgalteriya tizimlari va ERP platformalari nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarga real vaqt rejimida xarajatlarni kuzatish, tahlil qilish va

boshqarish imkonini beradi - bu an’anaviy qo‘lda yozuvdan tubdan farq qiluvchi sifat o‘zgarishidir;

- sun’iy intellekt xarajat prognozi, hujjatlarni avtomatik qayta ishlash, anomaliyalarni aniqlash va moliyaviy qarorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali xarajatlar hisobini yangi darajaga ko‘tara oladi;
- tatbiq etishda uch bosqichli model - avval bulutli tizim, keyin OCR, so‘ng SI - kichik muassasalar uchun moliyaviy jihatdan optimal va amaliy jihatdan real yechim hisoblanadi;
- davlat darajasida standartlashtirish, subsidiyalash va autsorsing xizmatlarini rivojlantirish nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalar sektorining raqamli transformatsiyasini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim muassasalarini raqamlashtirish siyosatini shakllantirish uchun empirik asos bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalar boshqaruvchilari va buxgalteriya mutaxassislari uchun amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori PQ-4312-son 08.05.2019y
2. IAS 1 – Presentation of Financial Statements. International Accounting Standards Board (IASB), 2023.
3. IAS 38 – Intangible Assets. International Accounting Standards Board (IASB), 2023.
4. Abdullayeva, M. (2023). Nodavlat ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning dolzarb masalalari. “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 112–118-betlar.
5. Tursunov, B., Qodirova, N. (2021). Raqamli texnologiyalar asosida buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirishning nazariy asoslari. Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, №3, 45–52.
6. Jumaev, Sh., G‘ofurova, D. (2022). Ta’lim tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish yo‘nalishlari. “Iqtisod va innovatsiya” ilmiy jurnali, №4, 67–74.

Axmadoxunova Xolisxon Ortiqovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti,
e-mail: xolisxon.axmadoxunova@ferpi.uz.

KORXONA BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BUXGALTERIYA HISOBINING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxona barqarorligini ta’minlashda buxgalteriya hisobi tizimining o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot davomida buxgalteriya hisobi orqali shakllantiriladigan moliyaviy

ko‘rsatkichlarning korxona barqarorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik va pul oqimlari kabi indikatorlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, hisob tizimini takomillashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish va raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyati ochib berilgan .

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, korxona barqarorligi, moliyaviy tahlil, likvidlik, rentabellik, pul oqimlari, moliyaviy nazorat, raqamlashtirish.

Kirish. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida korxonalarning barqaror faoliyat yuritishi milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Korxona barqarorligi uning moliyaviy mustahkamligi, resurslardan oqilona foydalanish darajasi, risklarni boshqarish tizimi va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ushbu jarayonlarda buxgalteriya hisobi tizimi asosiy axborot bazasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan buxgalteriya hisobi orqali korxonaning moliyaviy holati, xo‘jalik operatsiyalari va iqtisodiy natijalari to‘g‘risida ishonchli va tizimli ma’lumotlar shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyotda shaffoflikni ta’minlash, moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda buxgalteriya hisobini rivojlantirishga qaratilgan qarorlari bu boradagi muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [1]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, hisobning aniqligi va shaffofligini oshirish hamda investorlar uchun ishonchli axborot muhitini yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun asosida buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning yagona prinsiplari belgilab berilgan bo‘lib, u korxona faoliyatining uzluksizligi va barqarorligini ta’minlashda muhim me’yoriy asos hisoblanadi [2]. Mazkur qonun buxgalteriya hisobining asosiy vazifalarini aniqlab, foydalanuvchilar uchun haqqoniy va to‘liq axborot taqdim etishni ta’minlashni ko‘zda tutadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida hisob-kitob va moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish zarurligini alohida ta’kidlab kelmoqda. Jumladan, u shunday fikr bildiradi: “Iqtisodiyotda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, hisob-kitoblarning to‘g‘ri yuritilishi – barqaror rivojlanishning eng muhim shartlaridan biridir” [3]. Ushbu yondashuv buxgalteriya hisobining korxona boshqaruvidagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Korxona barqarorligini ta’minlashda buxgalteriya hisobining dolzarbligi shundan iboratki, u moliyaviy resurslarning harakatini to‘liq aks ettiradi, aktivlar va majburiyatlar tarkibini baholash imkonini beradi hamda xo‘jalik faoliyati natijalarini tahlil qilish uchun zarur axborotlarni taqdim etadi. Ushbu ma’lumotlar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi, investitsion loyihalar baholanadi va korxona rivojlanish strategiyasi shakllantiriladi.

Asosiy qisim. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona barqarorligini ta’minlash masalasi ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, unda buxgalteriya hisobi tizimi markaziy o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi korxona faoliyatining barcha iqtisodiy jarayonlarini tizimli aks ettirish orqali moliyaviy barqarorlikni shakllantiruvchi asosiy axborot manbai hisoblanadi. Ayniqsa, xo‘jalik operatsiyalarining to‘liq, ishonchli va o‘z vaqtida qayd etilishi korxonaning moliyaviy holatini real baholash imkonini yaratadi hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta’minlaydi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, buxgalteriya hisobi asosida shakllantiriladigan moliyaviy ko‘rsatkichlar tizimi korxona barqarorligini kompleks va tizimli baholash imkonini beradi. Xususan, likvidlik koeffitsiyentlari korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyatini ifodalab, uning joriy to‘lovga layoqatlilik darajasini tavsiflaydi. Moliyaviy mustaqillik ko‘rsatkichlari esa korxona kapital tuzilmasining barqarorligi, tashqi moliyaviy manbalarga qaramlik darajasi hamda o‘z mablag‘lari ulushini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rentabellik ko‘rsatkichlari xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini, foyda olish darajasini hamda iqtisodiy faoliyat natijadorligini aks ettiradi.

Mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ularning vaqt davomida o‘zgarish dinamikasi va strukturaviy nisbatlari korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlashda muhim analitik indikatorlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi muvozanatning saqlanishi yoki buzilishi korxona faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xavflarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobi faqatgina statistik ma’lumotlarni jamlovchi tizim sifatida emas, balki iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash hamda korxona barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim analitik instrument sifatida qaraladi.

1-jadval

Korxona moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar guruhi	**Asosiy indikatorlar**	**Tahliliy ahamiyati**
Likvidlik ko‘rsatkichlari	Joriy, tez va mutlaq likvidlik	Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash darajasi
Moliyaviy barqarorlik	Moliyaviy mustaqillik, qarzdorlik	Kapital tuzilmasi va moliyaviy xavfsizlik
Rentabellik	Aktivlar va kapital rentabelligi	Resurslardan foydalanish samaradorligi
Faollik ko‘rsatkichlari	Aktivlar aylanishi	Aktivlardan foydalanish intensivligi
Pul oqimlari	Operatsion pul oqimi	Naqd mablag‘lar harakati va barqarorligi

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, buxgalteriya hisobi tizimining samarali tashkil etilishi korxona barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, hisob ma’lumotlarining aniqligi va shaffofligi oshgan sari moliyaviy resurslarni boshqarish sifati yaxshilanadi, bu esa o‘z navbatida korxonaning to‘lovga qobiliyligi va likvidligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi orqali amalga oshiriladigan xarajatlar tahlili va nazorati ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon korxonaning foydalilik darajasini ko‘tarish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga olib keladi [4].

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan quyidagi jadval buxgalteriya hisobi asosida baholanadigan asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarning tizimli tavsifini ifodalaydi.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya hisobi asosida shakllantirilgan ko‘rsatkichlar tizimi korxona faoliyatining turli jihatlarini o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Ayniqsa, pul oqimlari tahlili korxonaning real moliyaviy barqarorligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Hisob tizimi orqali shakllantiriladigan axborotlar asosida turli xil moliyaviy risklar aniqlanadi va ularni kamaytirish bo‘yicha choralar ishlab chiqiladi. Buxgalteriya hisobi funksiyalarining (axborot, nazorat, tahlil va prognozlash) uyg‘unligi korxona faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan aniqlash va ularni minimallashtirish imkonini beradi [5].

Bundan tashqari, buxgalteriya risklari va ularning korxona barqarorligiga ta’siri alohida ilmiy muhokama obyekti sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi noto‘g‘ri tashkil etilgan hollarda axborotlarning ishonchliligi pasayadi, bu esa noto‘g‘ri boshqaruv qarorlariga olib kelishi mumkin. Natijada korxona moliyaviy holatining yomonlashuvi, likvidlik muammolari va hatto bankrotlik xavfi yuzaga keladi. Shu bois, buxgalteriya hisobi tizimini to‘g‘ri tashkil etish, ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish va hisob siyosatini ilmiy asosda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy muhokamalar jarayonida yana bir muhim jihat sifatida buxgalteriya hisobining raqamlashtirilishi masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarining buxgalteriya hisobiga joriy etilishi korxona moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, avtomatlashtirilgan hisob tizimlari va ERP platformalarini qo‘llash orqali hisob-kitoblar aniqligi oshadi, operatsiyalarni qayta ishlash tezligi ortadi va inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi. Natijada, korxona faoliyatining moliyaviy natijalari yanada barqaror tus oladi.

Yuqoridagi tahlil va muhokamalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobi korxona barqarorligini ta’minlashning muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi. U nafaqat moliyaviy holatni aks ettiradi, balki uni boshqarish, tahlil qilish va prognozlash imkonini beruvchi kompleks tizim sifatida amal qiladi. Shu sababli, korxonalarda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish, uni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash va xalqaro

standartlar asosida yuritish korxona barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxona barqarorligini ta’minlashda buxgalteriya hisobi tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks axborot va boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi orqali shakllantiriladigan moliyaviy ma’lumotlar korxonaning moliyaviy holatini baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, likvidlik, moliyaviy mustaqillik, rentabellik va pul oqimlari ko‘rsatkichlarining tizimli tahlili korxona faoliyatining barqarorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, buxgalteriya hisobi tizimining aniqligi, shaffofligi va o‘z vaqtida yuritilishi korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hisob tizimidagi kamchiliklar esa noto‘g‘ri boshqaruv qarorlariga olib kelib, likvidlik muammolari va moliyaviy risklarning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois buxgalteriya hisobini ilmiy asosda tashkil etish va uni zamonaviy talablar darajasida yuritish zaruriy shart hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, korxonalarda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida tashkil etishni jadallashtirish lozim. Bu esa moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirib, investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot muhitini yaratadi.

Ikkinchidan, buxgalteriya hisobida ichki nazorat tizimini kuchaytirish zarur. Xususan, xo‘jalik operatsiyalarini muntazam audit qilish, nazorat mexanizmlarini joriy etish va hisob siyosatini takomillashtirish orqali moliyaviy xatoliklar va suiiste’mollarning oldini olish mumkin.

Uchinchidan, korxonalarda buxgalteriya hisobini raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini keng joriy etish tavsiya etiladi. ERP tizimlari va zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish hisob-kitoblarning aniqligini oshirib, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi hamda operatsion samaradorlikni ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, buxgalteriya hisobi asosida moliyaviy tahlil va prognozlash tizimini rivojlantirish zarur. Bu korxonalarga kelgusidagi moliyaviy holatni oldindan baholash, risklarni aniqlash va ularni minimallashtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, buxgalteriya kadrlarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yuqori malakali mutaxassislar hisob tizimining samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobi korxona barqarorligini ta’minlashda nafaqat hisob yuritish vositasi, balki strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Uni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash va xalqaro standartlar asosida rivojlantirish

korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Foydalamgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-son qarori, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 24-fevral 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”, yangi tahriri, 13-aprel 2016-yil.
3. Shavkat Mirziyoyev nutqlari va ma’ruzalari to‘plami, iqtisodiy islohotlar va shaffoflik masalalariga bag‘ishlangan chiqishlar.
4. Nurniyozov Feruz Abdurashid O‘g‘li & Ro‘Ziqulov Abduqahhor Ixtiyor O‘G‘Li (2026). KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BOSHQARUV HISOBINING O‘RNI. Journal of marketing, business and management, 4 (7), 356-362.
5. Яричина, Г. Ф., Ситяева, О. С., Антонова, О. А., & Скуратова, А. А. (2019). Роль бухгалтерского учета в обеспечении экономической безопасности организации. Известия Дальневосточного федерального университета. Экономика и управление, (3 (91)), 183-188.

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi o‘qituvchisi,
e-mail: s.mushtariy696@gmail.com
Rustamova Dilnavoz Akbarali qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 86.23 guruh talabasi

DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Sohadagi mavjud muammolar tahlil etilgan, xalqaro amaliyot va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish asosida aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari tibbiyot muassasalarida moliyaviy shaffoflikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishga ko‘maklashishi mumkin.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, tibbiyot muassasasi, moliyaviy hisobot, davlat byudjeti, IPSAS, axborot tizimi, moliyaviy shaffoflik.

Kirish. Jahon miqyosida sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va boshqarish sifatini oshirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda ham sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish, tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot milliy standartlar asosida olib borilmoqda. Biroq amaliyotda hisobning ayrim jihatlarida nomuvofiqliklar, hujjatlashtirish sifatining pastligi, byudjet mablag‘laridan foydalanish monitoringining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kabi muammolar mavjud. Shu bois, tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qisim. O‘zbekistonda davlat tibbiyot muassasalari budjet tashkilotlari sifatida faoliyat yuritadi va ularning buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni (2016), Davlat byudjeti bajarilishini hisobga olish yo‘riqnomalari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi [1-4].

Amaliy tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ko‘pgina tibbiyot muassasalarida quyidagi muammolar mavjud:

1-jadval

Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobining asosiy muammolari

№	Muammo	Oqibatlari
1	Birlamchi hujjatlashtirish sifatining pastligi	Xarajatlarni noto‘g‘ri tasniflash, audit xulosalarida kamchiliklar
2	Moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilishda uzilishlar	Balans ma’lumotlarining to‘g‘ri aks ettirilmasligi
3	Hisobot shakllari va ko‘rsatkichlarining nomuvofiqligi	Moliyaviy tahlilning qiyinlashishi
4	Zamonaviy axborot tizimlarining cheklangan qo‘llanilishi	Hisobot tayyorlashda vaqt va resurs isrofgarchiligi
5	Xodimlarning buxgalteriya hisobiga oid bilim va malakasining pastligi	Hisobdagi xato va kamchiliklar soni ortishi

Taqqoslama tahlil shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlar tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirishda quyidagi yondashuvlardan foydalanmoqda: IPSAS (Xalqaro Davlat Sektori Hisobi Standartlari)[21] asosida yagona hisobot tizimiga o‘tish; elektron sog‘liqni saqlash yozuvlari tizimi bilan integratsiyalashgan buxgalteriya dasturlari; faoliyatga asoslangan xarajat hisoblash (ABC) metodologiyasi; klinik hisobvaraq va moliyaviy hisob uyg‘unlashtirilgan yagona platformalar.

Yuqorida bayon etilgan muammolar va xalqaro tajribani hisobga olgan holda, O‘zbekiston davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va hisobotni takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobining takomillashtirilishi nafaqat moliyaviy boshqaruvni

[21] International Public Sector Accounting Standards Board (IPSASB). (2018). *Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements*. New York: IFAC.

yaxshilaydi, balki sog‘liqni saqlash xizmatlarini ko‘rsatish sifatiga ham bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Resurslardan oqilona foydalanish darajasini oshirish tibbiy jihozlar, dori-darmonlar va kadrlar masalalarida adolatli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

2-jadval

Buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo‘nalishlari va tavsiyalar

Yo‘nalish	**Tavsiya etilgan chora**	**Kutilgan natija**
Normativ-huquqiy bazani yangilash	IPSAS talablarini milliy standartlarga bosqichma-bosqich tatbiq etish	Xalqaro taqqoslanuvchi moliyaviy hisobot
Raqamlashtirish	Yagona elektron buxgalteriya tizimini joriy etish (ERP)	Hisobning tezkorligi va aniqligi oshishi
Kadrlar malakasini oshirish	Buxgalterlar uchun muntazam o‘quv kurslari va sertifikatlash	Xatolar kamayishi, sifat oshishi
Ichki nazorat tizimi	Ichki audit bo‘limlarini kuchaytirish	Moliyaviy intizom mustahkamlanishi
Hisobot shaffofligini oshirish	Moliyaviy hisobotlarni ommaviy e’lon qilish mexanizmini joriy etish	Jamoatchilik nazoratining kuchayishi

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirishda bir qator cheklovlar mavjud: moliyaviy resurslarning yetishmasligi, qaror qabul qiluvchilarning yangilik kiritishga moyilligi, va tizimni qayta o‘rganishga vaqt sarflanishi. Shunga qaramay, uzoq muddatli samaradorlik ko‘rsatkichlari joriy xarajatlardan ustun turishi ko‘zatilmoqda.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, O‘zbekiston davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimida hujjatlashtirish, axborot texnologiyalarini qo‘llash va kadrlar malakasiga oid muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifadir.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba — xususan, IPSAS standartlari va zamonaviy ERP tizimlari — ushbu muammolarni hal etishda ishonchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Uchinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli transformatsiya va kadrlar malakasini oshirish choralarini kompleks ravishda amalga oshirish davlat tibbiyot muassasalarida moliyaviy shaffoflik va samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi hamda tibbiyot muassasalari rahbarlari amaliy foydalanishi mumkin.

Foydalamgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atkinson, A.A., Kaplan, R.S., Matsumura, E.M., & Young, S.M. (2012). Management Accounting: Information for Decision-Making and Strategy Execution. 6th ed. Pearson Education.
2. Lüder, K., & Jones, R. (2003). Reforming Governmental Accounting and Budgeting in Europe. Fachverlag Moderne Wirtschaft. Frankfurt am Main.
3. Toshmatov, B.X. (2019). Davlat muassasalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish muammolari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №3. 45–53-betlar.
4. Karimov, A.A. (2021). Byudjet tashkilotlarida axborot tizimlarini joriy etish: imkoniyatlar va to‘siqlar. Moliya va bank ishi. №2. 28–36-betlar.

Nishonova Ikboloy Ibroximovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti, doktoranti,
e-mail: ikboloy.nishonova@fstu.uz

QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARI EKSPORT OPERATSIYALARI BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur ishda bugungi o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini hisobga olishning nozik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda eksport shartnomalaridagi logistika xarajatlarini to‘g‘ri tan olish, biologik aktivlar qiymatining o‘zgarishi yakuniy foydaga qanday ta’sir qilishi va valyuta bilan bog‘liq kutilmagan xatarlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari yoritilgan. Maqola so‘ngida eksport tahlilini raqamli texnologiyalar yordamida osonlashtirish bo‘yicha mualliflik yechimlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jalik mahsulotlari, eksport, logistika, valyuta, MHXS 41, xetching shartnomalar.

Kirish. Global oziq-ovqat xavfsizligi masalasi hayotiy zaruriyatga aylanayotgan bir paytda, agrar sektor eksporti shunchaki valyuta tushumi emas, balki mamlakat iqtisodiy salohiyatining ko‘zgusidir. Biroq, daladan xalqaro bozorga yo‘l olgan mahsulotning hisob-kitobi o‘ziga xos murakkabliklarga ega. Bu qiyinchiliklar mahsulotning "jonli" tabiati (biologik xususiyatlari) va xalqaro savdo qoidalari (Incoterms) bilan chambarchas bog‘liq.

Amaldagi milliy standartlar va xalqaro talablar o‘rtasidagi farqlar eksportyor korxonalar hisobotlarining shaffofligiga xalaqit bermoqda. Ayniqsa, valyuta kursining o‘ynashi (forward shartnomalari) qishloq xo‘jaligi eksportida eng kam o‘rganilgan va og‘riqli nuqtalardan biridir. Milliy standartlarda (BHMS) bunday moliyaviy instrumentlarni aks ettirishning aniq mexanizmi yo‘qligi sababli, tadbirkorlar ko‘pincha kutilmagan moddiy yo‘qotishlarga uchramoqda yoki ularning hisobotlari real holatni to‘liq ko‘rsatmayapti. Ushbu tezisda aynan shu chalkashliklarni bartaraf etishning ilmiy va amaliy yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Asosiy Qism. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida xarajatlarni to‘g‘ri guruhlash va haqiqiy foydani aniq hisoblash metodikasini yaratishdan iborat. Izlanish davomida mantiqiy tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar hamda MHXS 41 "Qishloq xo‘jaligi" standarti qoidalariga tayanildi.

Tizimdagi dolzarb muammolarni o‘rganish jarayonida, umumiy tushunchalardan qochgan holda, sohadagi quyidagi o‘ziga xos nuqsonlar aniqlandi:

Logistika xarajatlarining "yo‘qolishi": Eksport mahsulotini sovutish, saqlash va tashish xarajatlari ko‘pincha mahsulot tannarxiga emas, balki davr xarajatlariga qo‘shib yuboriladi. Bu esa mahsulotning jahon bozoridagi asl tannarxini sun’iy ravishda pasaytirib ko‘rsatishga olib keladi.

Valyuta xatarlarining hisobdan tashqarida qolishi: Eksportyorlar valyuta kursi tushishidan himoyalanish maqsadida banklar bilan xetching (hedging) shartnomalari tuzadilar. Biroq, amaldagi buxgalteriya hisobida ushbu muhim himoya choralari alohida modda sifatida aks etmaydi.

Biologik "ayrilish" nuqtasi: Mevalarni daraxtdan uzish paytidagi qiymati hamda eksport hujjati rasmiylashtirilgan vaqtdagi qiymati o‘rtasidagi farqni hisoblashda jiddiy uslubiy bo‘shliq mavjud.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun quyidagi amaliy qadamlarni tashlash maqsadga muvofiq:

1. "Eksport-tannarx" modelini joriy etish: Eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar uchun alohida kalkulyatsiya tizimi kerak. Bunda daladan to bojxonagacha:

$$K_h = \frac{V_f - V}{V_m - V_b}$$

Bu yerda:

- V_f: Forward kursi bo‘yicha olingan tushum.
- V_b: Shartnoma tuzilgan kundagi bozor kursi.
- V_m: Pul kelgan kundagi haqiqiy bozor kursi.

Bu yerdan shunday xulosaga kelish mumkinki, agar $K_h > 1$ bo‘lsa, korxona xetching orqali valyuta yo‘qotishining oldini olgan va qo‘shimcha foyda ko‘rgan hisoblanadi.

2. Xetching operatsiyalari uchun 95-hisobvaraqni faollashtirish: Valyuta risklarini boshqarish maqsadida tuzilgan shartnomalarni "Kutilayotgan daromadlar (zararlar)" sifatida alohida balansdan tashqari yoki balans moddalarida aks ettirish metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, chunki bu investorlarga korxonaning valyuta riskidan qanchalik himoyalanganini ko‘rsatadi. Quyida ushbu muammoning mohiyati va uni MHXS (IFRS) 9 "Moliyaviy instrumentlar" standarti asosida hal qilish bo‘yicha aniq metodik yechim keltirilgan.

a) muammoning mohiyati: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida shartnoma imzolangan sana bilan pul tushgan sana o‘rtasida uzoq vaqt (masalan, 3–6 oy) o‘tishi mumkin. Korxona valyuta kursi tushib ketishidan qo‘rqib, bank bilan forward shartnomasi (valyutani kelajakda belgilangan kursda sotish kelishuvi) imzolaydi.

Hozirgi xato amaliyot:

Buxgalterlar forward shartnomasini "majburiyat" yoki "aktiv" sifatida balansga olmaydilar, chunki hali "pul kelmadi".

Natijada, balansda korxonaning haqiqiy moliyaviy ahvoli va u qabul qilgan tavakkalchiliklar (yoki himoya choralari) ko‘rinmaydi.

Kurs farqlari faqat fakt bo‘yicha tan olinadi, bu esa foyda-zarar hisoboti (P&L)da kutilmagan sakrashlarni keltirib chiqaradi.

b) aniq yechim: Hedjirlash hisobi (Hedge Accounting) metodikasi

MHXS 9 ga muvofiq, forward shartnomalarini hosilaviy moliyaviy instrument (derivativ) sifatida hisobga olish va "Adolatli qiymat" (Fair Value) usulida baholash lozim.

Ushbu kamchiliklarni yechimi sifatida buxgalteriya rejasiga quyidagi sub-hisobvaraqlarni qo‘shishni taklif etamiz:

0890 — "Adolatli qiymat bilan baholanadigan hosilaviy moliyaviy aktivlar"

4890 — "Hosilaviy moliyaviy instrumentlar bo‘yicha majburiyatlar"

8030 — "Xetching (hedjirlash) rezervi" (O‘z xususiy kapitali tarkibida)

Yuqoridagi taklifni amaliy misolda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Faraz qilaylik, korxona 100, 000 dollarlik gilos eksporti bo‘yicha 3 oydan keyin pul tushishini kutmoqda va bank bilan 1 dollarni 12, 800 so‘mdan sotish bo‘yicha forward tuzdi.

1) Shartnoma imzolangan sanada (Boshlang‘ich tan olish):

Forward shartnomasining adolatli qiymati odatda nolga teng bo‘ladi. Balansdan tashqari hisobda aks ettiriladi:

Debit 008: "Olingan kafolatlar va ta'minotlar" — 1, 280, 000, 000 so‘m.

2) Hisobot davri oxirida (Kurs o‘zgarganda):

Agar bozor kursi 12, 900 so‘mga chiqsa (ya'ni korxona zarar ko‘rayotgan bo‘lsa, chunki u 12, 800 dan sotishga majbur):

Debit 9430 (Boshqa operatsion xarajatlar)

Kredit 4890 (Hosilaviy moliyaviy majburiyat) — 10, 000, 000 so‘m (farq).

3) Pul tushgan va forward yopilgan sanada:

Bank korxonadan valyutani 12, 800 dan sotib oladi (bozor kursi 13, 000 bo‘lsa ham):

Debit 5110 (Hisob-kitob varag‘i)

Debit 4890 (Majburiyatni yopish)

Kredit 4010 (Xaridorlardan olingan tushum).

3. Raqamli tahlil (ABC-tahlil): Faqat mahsulot tonnasini emas, balki har bir davlatga sotish qanchalik foyda keltirayotganini avtomatik tahlil qiluvchi Activity-Based Costing (ABC) usulini qo‘llash. Ushbu usul orqali korxonaning qaysi davlatga va qanday turdagi meva yoki sabzavotlarni yuborish ko‘proq daromad keltirishi orqali, korxonaning moliyaviy holatini yaxshilanishiga olib kelinishini aniqlash mumkin.

Xulosa. Qishloq xo'jaligi eksport yozuvlarini modernizatsiya qilish faqat raqamlarni o'zgartirishdan ko'ra, kompaniyaning uzoq muddatli strategik yo'nalishini belgilashni anglatadi. Taklif etilayotgan "Export-Cost" modeli va hedjlash vositalari mahsulotning global bozordagi haqiqiy ustunligini namoyon

etadi, ular an'anaviy buxgalteriya hisobi ko'pincha yashiradigan rentabellikning batafsil ko'rinishini taqdim etadi. Eksportdan oldingi xarajatlarni — masalan, maxsus sovutish, maydondan portgacha logistika va xalqaro sertifikatlashni — o'zgaruvchan xarajatlar tuzilmasiga to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilish orqali boshqaruv reaktiv buxgalteriyadan proaktiv narx belgilashga o'tishi mumkin.

Eskirgan shartnomalarni balansda yashirib qo'yish o'rniga ularni "boshqariladigan aktiv"ga aylantirish agribiznes kompaniyalarining xalqaro obro'si va kredit reytingini sezilarli darajada oshiradi. Valyuta forward shartnomalari va xavfni kamaytirish vositalari moliyaviy portfelning ko'rinadigan, o'lchanadigan komponentlari sifatida qaralganda, ular global investorlar va qarz beruvchi tashkilotlarga moliyaviy intizomning yuqori darajasini namoyish etadi. Ushbu o'zgarish "ko'rinmas" xavflarni "nazorat ostidagi" imkoniyatlarga aylantiradi va korxonani valyuta bozoridagi beqarorlikdan himoya qiladi.

Bundan tashqari, xalqaro audit talablariga to'liq javob beradigan shaffof hisobot raqamli platformalarni integratsiya qilish orqali ta'minlanadi. Faoliyatga asoslangan xarajatlarni hisoblash (ABC) va real vaqtda ma'lumotlarni sinxronlashtirish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish orqali kompaniyalar inson xatolarini va ma'muriy to'siqlarni keskin kamaytirishi mumkin. Ushbu raqamli rivojlanish nafaqat tartibga soluvchi talablarni qondiradi; balki kengaytiriladigan o'sish uchun mustahkam asos yaratadi, mahalliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga jahon arenada xalqaro korporatsiyalar bilan ishonchli raqobatlashish imkonini beradi. Oxir-oqibat, bu konseptual o'zgarish buxgalteriya bo'limini orqa ofis funksiyasidan global raqobat strategiyasining markaziy ustuniga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-52-son Farmoni. 2024-yil 16-fevral. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2022). Intermediate Accounting: IFRS Edition. 4th Edition. – Hoboken, New Jersey: John Wiley & Sons, Inc. – USA. – pp. 742-785.
3. Ibroximovna N. I., & Dilshodjon qizi Y. O. (2024). Existing Problems in the Customs System in the Implementation of Export and Import Operations. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 196–201. Retrieved from https: //journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/2576
4. Nishonova I.I. Raqamlashtirish va tashqi savdo: qishloq xo‘jalik mahsulotlarining buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlili. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali 11-son, 2025-yil.

Umurzakov Dilshodbek Xakimovich
Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti,
e-mail: umurzakovdilshodxakimovich@gmail.com

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR HISOB SIYOSATIDA MOLIYAVIY AKTIVLARNI KLASSIFIKATSIYALASH VA BAHOLASHNING MHXS 9 ASOSIDAGI METODOLOGIK TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy aktivlar hisobini 9-son MHXS «Moliyaviy instrumentlar» standarti asosida yuritishning metodologik jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida moliyaviy aktivlarni klassifikatsiyalash mezonlari, biznes-model va SPPI testlarining ahamiyati hamda korxona hisob siyosatida ushbu jarayonlarni aks ettirish tartibi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy aktivlar, hisob siyosati, adolatli qiymat, amortizatsiyalangan qiymat, kutilayotgan kredit zararlari (ECL), SPPI testi,

Kirish. Globallashuv sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy hisobotlari shaffofligini ta’minlash va xalqaro standartlarga moslashtirish investitsiya muhitini yaxshilashning strategik omili hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobining milliy tizimidan MHXSga transformatsiya qilish jarayonida moliyaviy aktivlarni turkumlash, ularning haqqoniy qiymatini aniqlash va buxgalteriya balansida aks ettirish metodologiyasi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy instrumentlar» standartining amaliyotga joriy etilishi sub’ektlardan nafaqat o‘tgan davr ma’lumotlariga tayanishni, balki kelajakdagi kutilayotgan kredit zararlarini (ECL) prognoz qilish va baholashni talab etmoqda [1-456 b].

Bugungi kunda ko‘plab mahalliy korxonalar moliyaviy aktivlarni baholashda hamon an’anaviy (tarixiy tannarx) usullardan foydalanmoqda, bu esa aktivlar real bozor qiymatining hisobotlarda buzib ko‘rsatilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning Hisob siyosatida moliyaviy aktivlarni tan olish, tasniflash va baholash metodologiyasini MHXS talablariga muvofiqlashtirish hamda hisob tizimini raqamlashtirish masalalari yuqori ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy va kontent-tahlil hamda MHXS 9 standartining konseptual asoslaridan foydalaniladi. Tadqiqot ob’ekti sifatida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardagi moliyaviy aktivlarning aylanishi va ularni hisob siyosatida tan olish tartibi tanlab olinadi. Shu jumladan hisob siyosatini shakllantirish va moliyaviy aktivlarni empirik ma’lumotlarni tahlil qilishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kengashi (IASB) tomonidan tavsiya etilgan metodologik qo‘llanmalarga tayaniladi [2-218 b].

MHXS 9 standartiga muvofiq, moliyaviy aktivlarni hisob siyosatida aks ettirishda klassifikatsiyalashning transformatsiyalashgan modelini tatbiq etish talab etiladi. Ushbu model doirasida aktivlar sub’ektning biznes-modeli va shartnomaviy

pul oqimlarining tavsifi (SPPI testi - asosiy qarz va foiz to‘lovlari) asosida quyidagi uchta fundamental kategoriyaga tasniflanadi:

1. Amortizatsiyalangan qiymatda baholanadigan aktivlar;
2. Boshqa umumdaromadlar orqali adolatli qiymatda baholanadigan aktivlar;
3. Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholanadigan aktivlar [3-432 b].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sub’ektning hisob siyosatida moliyaviy aktivlarning har bir klassifikatsiyasi uchun «Kutilayotgan kredit zararlari» (ECL) modelini qo‘llashning ichki metodologiyasini belgilash strategik ahamiyatga ega. Mazkur model moliyaviy hisobotda ehtiyotkorlik (prudence) tamoyilini ta’minlab, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni oldindan prognoz qilish orqali axborotning ishonchlilik darajasini oshiradi [4-412 b].

Shuningdek, hisob siyosatini shakllantirishda moliyaviy aktivlarni dastlabki tan olish jarayonida bitim bilan bog‘liq xarajatlarni kapitalizatsiya qilish yoki xarajat sifatida tan olish tartibini reglamentlash lozim. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qisqa muddatli debitorlik qarzlarini baholashda «zaxiralar matritsasi» (provision matrix) usulidan foydalanish eng samarali va MHXS talablariga mos yondashuv hisoblanadi. Ushbu instrument sub’ektga muddati o‘tgan qarzdorliklarning real qiymatini to‘g‘ri baholash va likvidlilik tavakkalchiligini samarali boshqarish imkonini beradi [5-1184 b].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy aktivlar hisobini MHXS talablari asosida takomillashtirish bo‘yicha quyidagi konseptual xulosalarga kelindi:

Moliyaviy aktivlarni klassifikatsiyalash va baholash jarayoni nafaqat buxgalteriya amaliyoti, balki korxonaning biznes-modeliga bevosita bog‘liq bo‘lgan strategik boshqaruv qaroridir. Shu sababli, sub’ektning hisob siyosatida har bir moliyaviy aktiv turi (investitsiyalar, zayomlar, debitorlik qarzlari) uchun individual baholash mezonlari va tan olish tartibini reglamentlash zarur.

MHXS 9 standartining «Kutilayotgan kredit zararlari» (ECL) modelini tatbiq etish orqali xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ehtimoliy moliyaviy yo‘qotishlarni oldindan prognoz qilish va tizimli risklarni minimallashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Moliyaviy instrumentlarning adolatli qiymatda aks ettirilishi tashqi foydalanuvchilar va potensial investorlar uchun sub’ektning aktivlari holati va ularning kelgusidagi iqtisodiy naf keltirish qobiliyati to‘g‘risida xolis ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikr muloxalardan kelib chiqib quyidagi amaliy tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

- Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga hisob siyosatida debitorlik qarzlari bo‘yicha qadrsizlanishni baholashda **«zaxiralar matritsasi» (provision matrix)** usulini majburiy tartibda joriy etish tavsiya etiladi. Bu usul muddati o‘tgan qarzdorliklarning retrospektiv ma’lumotlari va makroiqtisodiy prognozlar asosida zaxiralarni aniq shakllantirish imkonini beradi.
- Moliyaviy aktivlarni klassifikatsiyalashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun **SPPI (Solely Payments of Principal and Interest)** testini

o‘tkazishning ichki metodologik yo‘riqnomalarini ishlab chiqish va tasdiqlash lozim.

- MHXS talablarini to‘liq va sifatli amalga oshirish maqsadida korxonalardagi buxgalteriyaning dasturiy ta’minotini (ERP tizimlarini) MHXS 9 algoritmlariga moslashtirish hamda soha mutaxassislarining xalqaro sertifikatsiya (ACCA, DipIFR) darajasidagi malakasini uzluksiz oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pardaev A.X. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: “Iqtisodiyot”, 2023. – 456 b.
2. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 9 Financial Instruments: Conceptual Framework and Guidelines. – London: IFRS Foundation Publishing, 2023. – 218 p.
3. Pankov V.V. Mejdunarodnыe standartы finansovoy otchetnosti: Uchebnik / V.V. Pankov. – M.: Magistr, 2022. – 432 s.
4. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Moliyaviy hisob va hisobot (MHXS asosida): Darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2022. – 412 b.
5. Wahlen J.M., Baginski S.P., Bradshaw M. Financial Reporting, Financial Statement Analysis and Valuation. – Boston: Cengage Learning, 2023. – 1184 p.

Muratov Aziz Akbarovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,
e-mail: azizmuratov24@gmail.com

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI USTAV KAPITALI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalini hisobga olishning amaldagi holati tahlil qilinib, uning iqtisodiy mohiyati va moliyaviy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ustav kapitalini e’lon qilingan summa asosida shakllantirish amaliyoti uning real iqtisodiy mazmunini to‘liq aks ettirmasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ustav kapitalini hisobga olish tizimidagi asosiy muammolar aniqlanib, ularning moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga salbiy ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ustav kapitali, xususiy kapital, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, analitik hisob, shaffoflik, kapitalning haqiqiy ta’minlanganligi.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror faoliyat yuritishi, ularning moliyaviy mustahkamligi va investitsion jozibadorligi ko‘p jihatdan xususiy kapital tarkibiga bog‘liqdir. Xususiy kapitalning asosiy elementi hisoblangan ustav kapitali korxonaning boshlang‘ich moliyaviy bazasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ustav kapitali korxonaning moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda ustav kapitalini hisobga olish va uni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Amaliyotda ustav kapitali ko‘pincha e’lon qilingan summa asosida shakllantirilmoqda, bu esa uning real iqtisodiy mazmunini to‘liq aks ettirmaydi. Natijada moliyaviy hisobotlarda korxonaning haqiqiy moliyaviy holati buzib ko‘rsatilishi mumkin. Shu sababli ustav kapitali hisobini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Shu o‘rinda mahalliy hamda xorijiy olimlarning ustav kapitalga bergan ta’riflarini keltirib o’tamiz.

K.B. Urazov va M.E. Po‘latov korxonalar xususiy kapitalining to‘g‘risida to‘xtalganda uning muhim turi bo‘lib ustav kapitaliga e’tibor qaratadi va unga quyidagicha tarif beradi “Ustav kapitali deganda korxonaning ta’sischilari tomonidan unga kiritiladigan mablag‘lar majmuasi, shuningdek, chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig‘indisi tushuniladi” [1].

B.I.Isroilov va R.O Xolbekov muallifligidagi “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” darsligida “Ustav kapitali – korxonalar faoliyati boshlanishi uchun davlat yoki ta’sischilar (mulkdorlar)ning ajratgan moddiy boyliklarining pul ko‘rinishidagi qiymatidir”[2], – deb ta’rif berilgan.

A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev va S.A.Jumanazarovning “Buxgalteriya hisobi” darsligida shunday fikr beriladi “Ustav kapitali” tushunchasiga quyidagicha tarif beriladi “Korxonaning xususiy kapitali – bu uning netto-aktivlari bo‘lib (sof aktivlar, mol-mulkning mulkdorlarga tegishli bo‘lgan sof qiymati), u aktivlar bilan majburiyatlar o‘rtasidagi ayirma sifatida aniqlanadi” [3].

Ye.V.Kuzmina va N.V.Morozovaning “Buxgalteriya hisobi” kitobida shunday ta’rif berilgan: “Korxonaning ustav kapitali – bu foyda olish va kreditorlarning manfaatlarini kafolatlash maqsadida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tashkilot mulkining minimal miqdori [4].

Asosiy qism

Ustav kapitalining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Ustav kapitali – bu ta’sischilar tomonidan korxona faoliyatini boshlash uchun kiritilgan mablag‘lar yig‘indisi bo‘lib, u pul mablag‘lari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa moddiy resurslar shaklida bo‘lishi mumkin. Ustav kapitali korxonaning mulkiy asosini tashkil etadi va uning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini qoplashda kafolat vazifasini bajaradi.

Ustav kapitalining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: korxona faoliyatini moliyalashtirish manbai bo‘lish; kreditorlar manfaatlarini himoya qilish; mulkchilik tuzilmasini shakllantirish; investitsion jozibadorlikni oshirish. Shu bois ustav kapitalini to‘g‘ri va haqqoniy hisobga olish korxona boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi hisob tizimidagi muammolar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ustav kapitalini hisobga olish tizimida bir qator metodologik kamchiliklar mavjud. Eng asosiy muammo – ustav kapitalining e’lon qilingan summa asosida shakllantirilishidir.

Ko‘plab holatlarda ta’sischilar tomonidan ustav kapitaliga ulushlar to‘liq kiritilmagan bo‘lsada, ushbu summa to‘liq miqdorda balansda aks ettiriladi. Bu esa

buxgalteriya hisobining haqqoniy aks ettirish (faithful representation) prinsipiga zid keladi. Masalan, ustav kapitali bir milliard so‘m deb e’lon qilinib, amalda olti yuz million so‘m kiritilgan bo‘lsa, balansda bir milliard so‘m ko‘rsatiladi. Bu esa korxonaning moliyaviy holatini sun’iy ravishda yaxshilab ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ta’sischilar ulushlari bo‘yicha analitik hisob yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, har bir ta’sischining ulushi va uning o‘zgarishini aniq kuzatish imkonini bermaydi.

Ustav kapitali hisobini takomillashtirish yo‘nalishlari

1. Ustav kapitalini haqiqiy kiritilgan mablag‘lar asosida shakllantirish

Amaldagi buxgalteriya hisobi amaliyotida ustav kapitali ko‘pincha ta’sis hujjatlarida e’lon qilingan summa asosida shakllantiriladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ta’sischilar tomonidan ustav kapitaliga badallar to‘liq kiritilmagan bo‘lsa ham, ushbu summa korxona balansida to‘liq aks ettiriladi. Natijada, moliyaviy hisobotlarda korxonaning haqiqiy moliyaviy holati buzib ko‘rsatiladi.

Mazkur yondashuv buxgalteriya hisobining haqqoniy aks ettirish prinsipiga zid hisoblanadi. Shu sababli, ustav kapitalini faqat haqiqiy kiritilgan mablag‘lar asosida shakllantirish zarur deb hisoblanadi. Bunda ustav kapitali faqat korxona ixtiyoriga amalda kelib tushgan pul mablag‘lari va boshqa aktivlar qiymati asosida tan olinadi.

Mazkur yondashuv moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi, korxonaning moliyaviy barqarorligini real baholash imkonini beradi hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga mos keladi.

2. Ustav kapitalini bosqichlar bo‘yicha ajratib hisobga olish

Ustav kapitalini e’lon qilingan kapital (authorized capital), obuna bo‘lgan kapital (subscribed capital) va to‘langan kapital (paid-in capital) elementlariga ajratish taklif etiladi. Bu kapital shakllanishining barcha bosqichlarini aniq aks ettirish imkonini beradi hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi.

3. Ta’sischilar kesimida analitik hisobni kuchaytirish

Har bir ta’sischi bo‘yicha alohida hisob yuritish orqali ularning ulushlari, kiritilgan mablag‘lar hajmi va o‘zgarishlari ustidan nazoratni kuchaytirish mumkin.

4. Ta’sischilar qarzdorligini kontr-passiv schyotda aks ettirish

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi buxgalteriya hisobi standartida ta’sischilarning ustav kapitaliga badallar bo‘yicha qarzdorligi 4610 – “Ta’sischilar bilan hisob-kitoblar” schyotida aktiv sifatida aks ettiriladi. Biroq mazkur yondashuv ustav kapitalining real ta’minlanganlik darajasini to‘liq aks ettirmaydi.

Shu munosabat bilan, ta’sischilar qarzdorligini xususiy kapitalni kamaytiruvchi element sifatida aks ettirish taklif etiladi. Buning uchun 83-guruh tarkibida “8390 – To‘lanmagan ustav kapitali” kontr-passiv schyotni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur taklifni amaliy jihatdan tushuntirish uchun quyidagi misolni keltirish mumkin.

Korxona ustav kapitali 1 000 000 000 so‘m miqdorida e’lon qilingan bo‘lib, ta’sischilar tomonidan uning 700 000 000 so‘mi amalda kiritilgan, 300 000 000 so‘mi esa hali to‘lanmagan deb faraz qilamiz.

Amaldagi tizimga ko‘ra, bu holatda balansda ustav kapitali to‘liq 1 000 000 000 so‘m miqdorida aks ettiriladi va 300 000 000 so‘m miqdoridagi ta’sischilar qarzdorligi 4610-schotda aktiv sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa korxonaning moliyaviy holatini sun’iy ravishda yaxshilab ko‘rsatadi.

Taklif etilayotgan yondashuvga ko‘ra, ustav kapitali quyidagicha aks ettiriladi:

8300 – Ustav kapitali: 1 000 000 000 so‘m

8390 – To‘lanmagan ustav kapitali: 300 000 000 so‘m

Natijada korxonaning real ustav kapitali quyidagicha aniqlanadi:

Real ustav kapital = 1 000 000 000 – 300 000 000 = 700 000 000 so‘m

Mazkur yondashuv ustav kapitalining faqat haqiqiy kiritilgan qismini aks ettirish imkonini beradi hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi.

Xulosa

Ustav kapitali korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uni to‘g‘ri va haqqoniy hisobga olish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, ustav kapitalining real ta’minlanganlik darajasini aks ettirish korxonaning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ustav kapitalini e’lon qilingan summa asosida shakllantirish amaliyoti uning haqiqiy iqtisodiy mazmunini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli ustav kapitalini faqat haqiqiy kiritilgan mablag‘lar asosida shakllantirish hamda uni e’lon qilingan, obuna bo‘lgan va to‘langan kapital elementlariga ajratib hisobga olish zarur.

Taklif etilgan yondashuvlar ustav kapitali hisobini takomillashtirishga, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va haqqoniyligini oshirishga hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot bazasini yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvlar investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun korxonaning moliyaviy holatini to‘g‘ri baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, 558 bet.
2. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik / B.I.Isroilov, R.O Xolbekov. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240–b
3. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
4. Бухгалтерский учет : учеб. пособие / Е. В. Кузьмина, Н. В. Морозова. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 296 с.

Narzullayev Sherzod Fozilovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: sherttesi@mail.ru. +998 99 871 27 84

KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish va takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Xususan, milliy va xalqaro standartlar asosida ko‘chmas mulkni tan olish, baholash hamda hisobga olishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, haqqoniy qiymat va boshlang‘ich qiymat modellari qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Amaldagi tizimdagi muammolar, jumladan, kadastr qiymatini aniqlash metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va MHXSning to‘liq joriy etilmaganligi asoslab berilgan hamda ularni bartaraf etish yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘chmas mulk, buxgalteriya hisobi, haqqoniy qiymat, boshlang‘ich qiymat, MHXS, amortizatsiya, kadastr qiymati.

Ko‘chmas mulk obyektlari buxgalteriya hisobining obyekti sifatida tan olinadi. Ko‘chmas mulkni baholash, buxgalteriya hisobini tashkil etish va amaliyotga MHXSlarini qo‘llash, ko‘chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobini takomillashtirishni muhimligini belgilaydi. Ko‘chmas mulk obyektlarini baholashda bozor qiymatiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymatini hisoblashning aniq metodikasi ishlab chiqilmaganligi, soliqqa tortiladigan ko‘chmas mulk obyektlarining ro‘yxati to‘liq shakllanmaganligi, ularning moliyaviy hisobini tashkil etishda MHXSlarini amaliyotda to‘liq qo‘llanilmayotganligi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ko‘chmas mulkni buxgalteriya hisobining obyekti sifatida qarash maqsadida, uning tarkibini aniqlab olishimiz lozim.Ushbu muammoni o‘rganishda tahlil qilingan me’yoriy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarda ko‘chmas mulk, uning tarkibi, buxgalteriya hisobining obyekti masalarida turli xil fikrlar mavjudligiga guvoh bo‘ldik.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 133-son buyrug‘i bilan qayta tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar”da (2024) asosiy vositalar — tashkilotning uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajarish jarayonida foydalaniladigan, shuningdek ijaraga berish mumkin bo‘lgan moddiy aktivlar deb e’tirof etilgan [1].

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son IAS) “Asosiy vositalar”da (2018) asosiy vositalar quyidagicha aks ettirilgan: asosiy vositalar-kompaniya tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, boshqa kompaniyalarga ijaraga berish yoki ma’muriy maqsadlar uchun foydalanadigan va

bir muddatdan ko‘proq foydalanilishi kutilayotgan moddiy boyliklar. Asosiy vositalar obyektining tannarxi faqatgina quyidagi shartlar bajarilganda aktiv sifatida tan olinadi:

a) tadbirkorlik subyekti tomonidan asosiy vosita bilan bog‘liq kelgusi iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo‘lsa;

b) aktivning tannarxi ishonchli baholana olsa [16-IAS, 2].

A.Nazarovning (2022) fikricha: “Ko‘chmas mulk-xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mavjud mol-mulki yer bilan uzviy bog‘langan va huquqiy jihatdan mustahkamlangan, o‘zining maqsadli foydalanish vazifasiga va ahamiyatiga shikast yetkazmasdan turib boshqa joyga ko‘chirishning imkoni bo‘lmagan tovarlar, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ularni yetkazib berishda, lizing, ijara va ma’muriy maqsadlarda uzoq muddat davomida foydalaniladigan obyektlar hisoblanadi” mazmundagi takomillashtirilgan ta’rifi “ko‘chmas mulk” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini to‘liq ifodalaydi [Nazarov, 3].

E.S.Drujilovskaya quyidagi fikrlarni bildirgan: Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (IFRS) 13-“Haqqoniy qiymat bo‘yicha baholash”da keltirilgan “haqqoniy qiymat” va “bozor qiymati” tushunchalar sinonimlar emas [Drujilovskaya, 4].

O.V.Lixomanov, N.Ye.Kukanova, M.S.Kukanovalarning fikricha: “Jahon amaliyotida ko‘chmas mulk qiymatini qayta ko‘rib chiqish, yoki qayta baholash muddati quyidagicha:

Yaponiyada har 3 yilda ko‘chmas mulkning qiymati qayta ko‘rib chiqiladi;

Ispaniyada ko‘chmas mulkning kadastr qiymati har 8 yilda qayta baholanadi; Fransiyada kadastr qiymati o‘zgarmas (keyingi 50 yilda o‘zgarmasdan qolgan); AQSHda soliqqa tortish maqsadida ko‘chmas mulkning bozor qiymati qayta baholanadi; Rossiya Federatsiyasida ko‘chmas mulkning kadastr qiymatida soliqqa tortiladi” [Lixomanov va boshqalar, 5].

Ko‘chmas mulk bo‘yicha S.N.Tashnazarov quyidagi fikrni bildirgan: “Mulkdorning tasarrufidagi ko‘chmas mulk bu (mulkdor yoki moliyaviy ijara bo‘yicha ijaraga oluvchi tasarrufidagiishlab chiqarish yoki tovarlarni jo‘natish, xizmat ko‘rsatish yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulkdir [Tashnazarov, 6].

Ba’zi iqtisodchilar ko‘chmas mulk tarkibiga investitsiyaviy ko‘chmas mulkni ham kiritishgan. Yu.Sh.Raxmanovani (2023) takidlashicha: “Investitsiyaviy ko‘chmas mulk toifasiga kiritiladigan ko‘chmas mulk obyektlari birinchidan, ishlab chiqarish yoki tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatishda, yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanilmasligi, ikkinchidan, ular odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo‘ljallanmasligi lozim [Raxmanova, 7].

Respublikamizda 2024-yil 1-yanvar holatiga jismoniy va yuridik shaxslar egaligida 8 184 005 ta ko‘chmas mulk obyektlari mavjud. Shundan:

- yakka tartibdagi turar joy obyektlari — 6 million 244 ming 155 ta;
- ko‘p qavatli uylardagi kvartiralar — 1 million 492 ming 818 ta;
- noturar joy obyektlari — 601 ming 478 tani tashkil etadi.

Shuncha miqdordagi ko‘chmas mulk obyektlarining boshlang‘ich qiymatini to‘g‘ri aniqlash buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish maqsadi uchun muhim hisoblanadi.

Investitsiyaviy ko‘chmas mulk tan olingandan so‘ng u buxgalteriya hisobida haqqoniy qiymati yoki boshlang‘ich qiymati bo‘yicha aks ettirilishi mumkin. Buni tashkilot o‘zining hisob siyosatida haqqoniy qiymat modelini yoki boshlang‘ich qiymat modelini tanlash orqali amalga oshiriladi. Hisob siyosatida qaysi model tanlangan bo‘lsa ushbu model tashkilotdagi barcha investitsiyaviy ko‘chmas mulklarga nisbatan qo‘llashi lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich qiymat modelini tanlagan tashkilot investitsiyaviy ko‘chmas mulkini quyidagilarga muvofiq baholashi lozim:

– agar u sotish uchun mo‘ljallangan aktiv sifatida tasniflash me’zoniga mos kelsa, Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (5-son IFRS) “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat”ga muvofiq;

– agar ijarachi tomonidan foydalanish huquqidagi aktiv sifatida tutib turilgan va sotish uchun mo‘ljallanmagan bo‘lsa, Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (16-son IFRS) “Ijara”ga muvofiq;

– boshqa barcha holatlarda boshlang‘ich qiymat modeli bo‘yicha Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son IAS) “Asosiy vositalar”dagi talablarga muvofiq baholanadi.

Me’yoriy hujjatlarda mol-mulk solig‘i obyektini to‘g‘ri aniqlash maqsadida ko‘chmas mulkning tarkibini aniq ko‘rsatishni taklif qilamiz. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida ko‘chmas mulkning tarkibi berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

“Buxgalteriya balansi” 1- shaklda ham asosiy vositalar turlarini MHXS asosida tuziladigan “ Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot” dagi kabi alohida satrlarda ko‘rsatilishini taklif qilamiz. Bu esa buxgalterlarga ko‘chmas mulk bo‘yicha mol mulk solig‘ini to‘g‘ri hisoblash va soliq organlariga esa mol mulk solig‘ini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Xalqaro amaliyotda ko‘chmas mulkni buxgalteriya hisobining obyekti sifatida hisobga olishda bir nechta MHXSlarindan jumladan, MHXS (IAS) 16 “Mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar”, MHXS (IAS) “Tovar-moddiy zaxiralar”, MHXS (IAS) 40 “Investitsiyaviy ko‘chmas mulk” kabi standartlardan foydalaninishini inobatga olgan holda soliqqa tortish va buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qumitasi birgalikda tartib ishlab chiqishni taklif qilamiz.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar”. 2024.

2. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son IAS) “Asosiy vositalar”. 2018.

3. Nazarov A.K. Ko‘chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirish: nazariya va amaliyot.Monografiya. T: . “Fan ziyosi”. 2022-yil.186 bet.

4. Дружиловская Э.С. Проблемы применения справедливой стоимости в российском и международном бухгалтерском учёте//Международный бухгалтерский учет, 2014 № 17.

5. Лихоманов О.В., Куканова Н.Е., Куканова М.С. Российская и зарубежная практика оценки муниципальной недвижимости. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 3. Экономика. Экология. №2 (39). 2017.

6. Tashnazarov S N.(2019) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.Darslik. “IQTISOD-MOLIYA”. Toshkent, 2019. 342- bet.

7. Raxmanova Yu.Sh. Investitsiyaviy ko‘chmas mulkni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari. Soliq va hayot elektron ilmiy ommabop jurnal. IV son. 2023.

Xasanboyev Oxunjon Ximmatjon o‘g‘li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, buxgalteriya hisobi kafedrasi, tayanch doktoranti
e-mail: oxunjonxasanboyev@gamil.com

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJARAGA OLUVCHI SUBYEKTLARDA IJARA HISOBINING METODOLOGIK NOMUVOFIQLIKLARINI BARTARAF ETISH VA UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur tezisda ijaraga oluvchi subyektlarda ijara operatsiyalarini hisobga olishning metodologik asoslari milliy va xalqaro standartlar kesimida tahlil qilindi. Xususan, 16-sonli MHXS talablari asosida ijara majburiyatlari va aktivdan foydalanish huquqini tan olish hamda baholash mexanizmlari yoritilgan. O‘zbekiston amaliyotida mavjud metodologik nomuvofiqliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ijara to‘lovi, aktivdan foydalanish huquqi, ijara majburiyati, ijara muddati, diskontlash stavkasi, haqqoniy qiymat, operativ ijara, moliyaviy ijara.

Kirish. Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi buxgalteriya hisobini tashkil etish yondashuvlarini tubdan o‘zgartirib, moliyaviy axborotlarning tezkorligi, aniqligi va shaffofligiga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijaraga oluvchi subyektlarda ijara hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish nafaqat hisob yuritish masalasi, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro amaliyotda 16-sonli MHXS [3] ni joriy etilishi bilan ijaraga oluvchi subyektlar hisobida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur o‘zgarishlar natijasida, xalqaro amaliyot hamda milliy buxgalteriya hisob tizimimizda ijara operatsiyalarini hisobga olishga doir nomuvofiqliklarni ilmiy asosda takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi.

Asosiy qism. Ijara hisobining nazariy asoslari va metodologiyasi bo‘yicha bir qator yetakchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, D. Alexander va C. Nobes [4] ijara operatsiyalarini iqtisodiy mazmuniga ko‘ra korxona uchun moliyalashtirish instrumenti sifatida talqin qilib, aktivdan foydalanish huquqi hamda ijara majburiyatini hisobda to‘g‘ri aks ettirish muhimligini ta’kidlashgan. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda, ta’kidlash joizki**,** uzoq muddatli ijara shartnomalarida korxonalar haqiqatda ijara obyektidan uzoq muddatda iqtisodiy naf olsada, uzoq muddatli majburyat balansdan tashqarida qoldirish moliyaviy holatni to‘liq ochib bermaydi. Yana bir tadqiqotchi C. Terry [5] takidlashicha, ijaraga oluvchi subyektlar ijara operatsiyalarini operativ ijara sifatida tan olish orqali qarz majburiyatini yashiradi. Natijada, ijara majburiyatining balansda tan olinmasligi ijaraga oid axborotlarning shaffoflik va taqqoslanuvchanlik sifati pasaytiradi. Bizning fikrimizcha, C Terryning bu pozitsiyasi O‘zbekiston amaliyoti uchun ham dolzarb, chunki ijara to‘lovlarini davr xarajatlari sifatida tan olish korxonaning real qarz yuklamasini haqqoniy ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi. M. Săcărin [6ning tadiqiqoti natijasida, ijara hisobini tashkil etishda 16-sonli MHXS ni tadbiq etish moliyaviy hisobot va moliyaviy ko‘rsatkichlarga sezilarli darajada ijobiy ta’sirga ega ekanligini asoslaydi. Uning tadqiqotida, avval amalda bo‘lgan 17-sonli BHXS hamda 16-sonli MHXSni qo‘llashdagi amaliy farqlar, ayniqsa ijaraga oluvchi subyektlar hisobida aktivlar va majburiyatlar hajmining o‘zgarishiga olib kelishini qayd etgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijara hisobidagi metodologik o‘zgarish faqat schyotlar darajasida emas, balki moliyaviy dastaklar, rentabellik va tahliliy ko‘rsatkichlar tahlilida ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, C.Chen, M. Correia va O. Urcanlar [7] ijara hisobi hamda korporativ investitsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilib, ijara hisobini tashkil etish tartibi korporativ qarorlar va investitsion xulq-atvorga ham ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida ijara hisobining metodologik asoslari nafaqat moliyaviy hisobot sifati, balki korxonalarning investitsion qarorlarini qabul qilish jarayonlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlarimizdan, G. Djumayeva [8] ijara hisobining dolzarbligi va unga nazariy asoslarda berilgan ta’riflarni tahlil qilib, ijara va lizing atamalari aynan bir xil tushuncha ekanligi va ijaraga yagona ta’rif berish kerakligini ta’kidlagan. Ta’kidlash joizki, ushbu tadiqiqotda asosiy e’tibor ijara atamasini tasniflashga qaratilgan bo‘lib, ijaraga oluvchi subyektlar hisobida ijaraga oid aktiv va majburiyat hisobini tashkil etishda milliy hamda xalqaro amaliyotni joriy etish borasida fikr yuritilmagan. Yana bir tadqiqotchi A. Baxadirov [9] esa ijaraga oluvchi subyektlarda ijara hisobini 16-sonli MHXS asosida takomillashtirish moliyaviy shaffoflikni oshirib, aktivlar va majburiyatlarni aniq aks ettirilishi hamda korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishiga xizmat qilishini ta’kidlagan. Ushbu olib borilgan izlanish natijalariga qo‘shilgan holda, ijaraga oluvchi subyektlarda ijara hisobini tashkil etishda milliy hisob tizimini xalqaro amaliyot asosida takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasida ijaraga oluvchi subyektlarda ijara munosabatlarini hisobga olishda asosiy normative-huquqiy manba O‘zbekiston

Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi qonuni [1], buxgalteriya hisobining milliy standarti (6-sonli BHMS) “Ijara hisobi”n [2] qoidalari qo‘llaniladi. Mazkur normativ hujjatlar asosida shakllangan amaliyot ijaraga oluvchi subyektlarda ijara operatsiyalarini hisobga olishning quyidagi tizimli xususiyatlarini namoyon etadi:

-milliy standartlarga muvofiq ijara operatsiyalari operativ va moliyaviy ijara sifatidan tan olinadi. Bunda, iqtisodiy mazmundan ko‘ra huquqiy shakl ustuvor hisoblanadi, bu esa zamonaviy hisob konsepsiyalariga to‘liq mos kelmaydi.

-operativ ijara hisobida ijaraga oluvchi subyektlar tomonidan ijara obyekti bo‘lgan tayanch aktiv balansda tan olinmaydi. Shuningdek, ijara to‘lovlari ular amalga oshirilgan davrda xarajat sifatida e’tirof etiladi.

- amaldagi tartibda ijara obyekti bo‘yicha ijara muddati davomida aktivdan foydalanish huquqi mustaqil hisob obyekti sifatida ajratilmagan. Bu esa ijaraga oluvchi tomonidan nazorat qilinayotgan iqtisodiy resurslarning hisobda aks etmasligiga olib keladi va korxonaning aktivlar tuzilmasini to‘liq baholash imkoniyatini cheklaydi.

-ijara majburiyatlarini haqqoniy qiymatini baholashda hamda hisobda tan olishda diskontlash mexanizmi aniq tartibga solinmagan. Amaliyotda ijara to‘lovlari ko‘pincha nominal qiymatda hisobga olinadi, bu esa pul mablag‘larining vaqt qiymati omilining inobatga olinmasligiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, moliyaviy hisobotlarda ijara operatsiyalariga oid axborotlarni ochib berish talablari mavjud bo‘lsa-da, ular yetarli darajada batafsil emas. Xususan, kelgusidagi ijara to‘lovlari, diskont stavkalari, ijara muddati va boshqa muhim parametrlar to‘liq yoritilmaydi, bu esa foydalanuvchilar uchun axborot yetishmovchiligini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi normativ yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy hisob tizimimizda ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida tan olish operatsiyaning huquqiy shaklga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu esa xalqaro amaliyotga asoslangan yondashuvlardan, xususan 16-sonli MHXS da belgilangan ijara hisobini tashkil etish qoidalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Xalqaro amaliyotga ko‘ra, operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni uning huquqiy shaklidan ustuvorligi asosiy prinsip sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalarini umulashtirgan holda, O‘zbekistonda ijaraga oluvchi subyektlarda ijara hisobining amaldagi tizimi quyidagi metodologik kamchiliklar bilan tavsiflanadi:

- ijara majburiyatlarini haqqoniy qiymatda baholash va ijara to‘lovlarini diskontlash asosida hisobga olish amaliyoti joriy etilmagan;
- aktivdan foydalanish huquqi alohida hisob obyekti sifatida to‘liq shakllanmagan;
- moliyaviy hisobotlarga izohlarda aktivdan foydalanish huquqi, ijara majburiyatlari, va ularning parametrlariga oid axborotlar yetarli darajada ochiqlanmaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur metodologik kamchiliklar yanada dolzarb tus oladi, chunki zamonaviy axborot tizimlari va moliyaviy texnologiyalar sharoitida iqtisodiy resurslar va majburiyatlarning to‘liq hamda haqqoniy aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda ijaraga oluvchi subyektlarda ijara operatsiyalari hisobi 16-sonli MHXS asosida tashkil etiladi. Ushbu standartning markaziy g‘oyasi ijara operatsiyalarini huquqiy shakliga ko‘ra emas, balki uning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra hisobga olishdan iborat. Shu asosda, ijaraga oluvchi subyektlar hisobida foydalanish huquqi iqtisodiy aktiv sifatida, unga mos keluvchi kelgusidagi to‘lovlar esa moliyaviy majburiyat sifatida talqin etiladi. Bunda, ijaraga oluvchi o‘n ikki oydan qisqa muddatli hamda past qiymatli aktivlar bo‘yicha ayrim istisnolardan tashqari, deyarli barcha ijara operatsiyalari bo‘yicha foydalanish huquqi aktivi va ijara majburiyatini tan oladi. Natijada, ijaraga oluvchi tomonidan foydalanilayotgan resurslar hisobda aks ettirilmay qolmaydi, balki ular foydalanish huquqi shaklida tan olinadi va shu bilan bir vaqtda kelgusidagi to‘lovlar majburiyat sifatida e’tirof etiladi. Bu yondashuv ijarani oddiy operatsion xarajat emas, balki iqtisodiy resurs va moliyalashtirish manbai bilan bog‘liq kompleks munosabat sifatida talqin qiladi.

Mazkur konsepsiya amaliyotda o‘zaro bog‘liq metodologik elementlar orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, nazorat mezoni asosida tan olingan iqtisodiy resurs va majburiyat bir vaqtning o‘zida e’tirof etilib, ular joriy qiymat tamoyili asosida baholanadi. Bunda diskontlash mexanizmi pul mablag‘larining vaqt qiymatini hisobga olish orqali majburiyatning real iqtisodiy bahosini shakllantiradi, foydalanish huquqi esa mazkur majburiyat bilan uzviy bog‘liq holda tizimli tarzda kamayib boradi. Shu bilan birga, ijara munosabatlari vaqt omiliga bog‘liq holda qayta hisoblanib boriladi, bu esa ularni dinamik iqtisodiy jarayon sifatida ifodalash imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, xalqaro amaliyotda ijaraga oluvchi hisobi nazorat mezoniga asoslangan holda aktiv va majburiyatni tan olish, diskontlash orqali baholash hamda vaqt davomida qayta hisoblash elementlarining o‘zaro integratsiyasi asosida shakllangan yaxlit tizimni ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, aynan shu tizimli yondashuv milliy hisob amaliyotidan xalqaro amaliyotda ijara hisobini tashkil etish asoslarini tubdan farq qilishini asoslaydi.

O‘tkazilgan tahlillar natijalarini hisobga olgan holda, xalqaro standartlar hamda milliy hisob tizimi asosida ijara hisobini tashkil etish tashkiliy asoslarida ahamiyatli tafovutlar mavjudligi aniqlandi:

1-jadval

Ijaraga oluvchi subyektlarda ijara hisobini tashkil etishda xalqaro va milliy standartlarda belgilangan mezonlar tahlili[22]

Mezon	**Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (16-sonli MHXS) “Ijara”**	**Buxgalteriya hisobining milliy standarti (6-sonli BHMS) “Ijara hisobi”**
Ijaraning ta’rifi	Ma’lum muddat davomida haq evaziga identifikatsiya qilinadigan aktivdan foydalanish huquqini beruvchi shartnoma yoki uning	Shartnoma asosida yer, tabiiy resurslar yoki boshqa mol-mulkni haq evaziga vaqtincha egalik qilish va undan

[22] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

	tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi	foydalanish huquqini beruvchi kelishuv sifatida belgilanadi
Ijara komponentlarini ajratish	Shartnoma tarkibida alohida identifikatsiya qilinadigan komponentlar mavjud bo‘lsa, ular alohida hisob obyekti sifatida ajratilib e’tirof etiladi	Ijara komponentlarini ajratish bo‘yicha aniq metodologik talablar nazarda tutilmagan
Ijara turlari bo‘yicha yondashuv	Ijaraga oluvchi uchun yagona model qo‘llanilib, ijara operatsiyalari operativ va moliyaviy turlarga ajratilmaydi	Ijaraga oluvchi uchun ijara operatsiyalari operativ va moliyaviy turlarga klassifikatsiya qilinadi
Sotish va qayta ijaraga olish operatsiyalari	Sotish va qayta ijaraga olish operatsiyalarini hisobga olish bo‘yicha aniq metodologik ko‘rsatmalar mavjud	Mazkur operatsiyalarni hisobga olish bo‘yicha aniq normativ tartib belgilanmagan
O‘zgaruvchan ijara to‘lovlari hisobi	Indeks yoki stavkalarga bog‘liq ijara to‘lovlari ijara majburiyatining tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilib, o‘zgarishlar yuz berganda qayta baholanadi	Ijara to‘lovlarining indeks yoki stavkaga bog‘liqligi hisobga olinmaydi, qayta baholash mexanizmi nazarda tutilmagan
Soddalashtirilgan hisob	Qisqa muddatli 12 oy yoki past qiymatli (5 000 AQSh dollaridan kam) aktivlar bo‘yicha soddalashtirilgan hisob yuritishga ruxsat etiladi	Ijaraga oluvchi uchun soddalashtirilgan hisob yuritish tartibi nazarda tutilmagan

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, milliy hisob tizimini xalqaro standartlar talablariga uyg‘unlashtirish, ijara operatsiyalari hisobini raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashtirishda muhim ahamiyatga bo‘lib, moliyaviy axborotlarning avtomatlashtirilgan tizimlarda to‘g‘ri shakllanishi va tahlil qilinishini ta’minlaydi.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida ijaraga oluvchi subyektlarda ijara hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish nafaqat hisob tizimini takomillashtirish, balki korxonalarning moliyaviy shaffofligini oshirish va ularning global moliyaviy muhitga integratsiyasini ta’minlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijaraga oluvchi subyektlar hisobining amaldagi tizimi asosan ijara operatsiyalarining huquqiy shakliga tayanib shakllangan bo‘lib, ularning iqtisodiy mazmunini to‘liq aks ettirish imkonini bermaydi. Xalqaro amaliyotda, xususan 16-sonli MHXS asosida shakllangan yondashuv ijarani iqtisodiy resurs va moliyaviy majburiyatni yuzaga keltiruvchi yagona iqtisodiy jarayon sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuv moliyaviy axborotning ishonchliligini oshiradi, balans tuzilmasini yanada real ifodalaydi hamda investorlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risida to‘liqroq axborot taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida, amaldagi milliy hisob tizimimizda ijaraga oluvchi subyektlarda ijara operatsiyalari hisobi hamda xalqaro standartda belgilangan ijara hisobini tashkil etish mezonlari o‘rtasida aniqlangan tafovutlarni

bartaraf etish va ijaraga oid milliy hisob tizimini takomillashtirishga oid quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqildi:

-aktivdan foydalanish huquqini alohida hisob obyekti sifatida tan olish va alohida hisobvaraqlarda aks ettirish;

-buxgalteriya balansida “foydalanish huquqi aktivi”ni alohida satrda aks ettirish;

-ijaraga oluvchi subyektlarda ijara turidan qat’iy nazar ijara to‘lovlarining haqqoniy qiymati bo‘yicha ijara majburiyatini tan olish;

-ijara majburiyatini amortizatsiyalagan qiymat asosida hisob yuritish va ijara majburiyatining bajarilish muddatiga muvofiq tasniflashni joriy etish;

-ijara to‘lovlari haqqoniy qiymatini baholashda diskontlash stavkalari va ularni aniqlashning metodikasini ishlab chiqish;

-ijaraga oid hisob elementlari va ularga tegishli axborotlarni moliyaviy hisobot va ularga izohlar qismida haqqoniy va to‘liq tarzda yoritishni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonuni. https: //lex.uz/docs/-112328.
2. Buxgalteriya hisobining milliy standarti *(6-son BHMS) “Ijara hisobi”*, https: //lex.uz/uz/docs/-7741560
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (16-sonli MHXS) “Ijara”. https: //www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-16-leases/
4. **Alexander D., Nobes C.** *Financial Accounting: An International Introduction.* – Pearson Education, 2007, 428–430-betlar.
5. **Grant C.T.** No More Hiding Lease Liability. – *Strategic Finance* jurnali, 2016-yil, 34–41-betlar. (Mitchell College of Business, University of South Alabama, AQSh)
6. Sacarin M. IFRS 16 “Leases”: Consequences on the financial statements and financial indicators. – Audit Financiar jurnali, 15-son (145), 2017-yil, 114–122-betlar
7. **Chen C., W., Correia M., Urcan O.** Accounting for Leases and Corporate Investment. – *The Accounting Review* jurnali, 98-jild, 3-son, 2023-yil, 109–133-betlar.
8. Djumayeva G. Ijara hisobining dolzarbligi va unga nazariy asoslarda berilgan ta’riflar. “Экономика и социум” №5, 2-2024 40-45 betlar
9. **Baxadirov A.** Lizing oluvchi korxonalarda ijara hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. – *Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar* jurnali, 2-jild, 1-son, 2025-yil, 417–422-betlar.


Sattorov Tohir Tolmas o'g'li,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi assistent, mustaqil izlanuvchisi.,
sattorov_tohir@gmail.ru.

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING JARAYONLI KOSTING TIZIMLARINI QO'LLASHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni aniqlashning xalqaro standartlar talablariga muvofiq jarayonli costing (Process Costing System), tizimlari ularning tavsifi ishlab chiqilgan bo'lib, buxgalteriya hisobi tizimida boshqaruv hisobini samarali tashkil qilish, moliyaviy hisobotlarda real axborot ko'rsatkichlari bilan ta'minlash hamda mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda hisob siyosatida joriy qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kosting tizimlari, zamonaviy kosting tizimlari, jarayonli costing, buyurtmali kosting, mahsulot tannarxi.

"O'zbekistonda ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish, aholini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, hamda ishlab chiqarish sohasida keng raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini jadallashtirish muhim masalalar hisoblanadi. "Sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45-milliard dollarga yetkazish, 2, 5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, Har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, to'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun'iy aralash tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, farmatsevtika sohasida dori vositalariga aholining ehtiyojlarini 70% ga ishlab chiqaruvchilar hisobiga qoplash, charm poyafzal sanoatiga 30 dan ortiq xorijiy brendalarni jalb qilish hisobiga qo'shilgan qiymatni 5-barobarga oshirish, mebel mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga ko'paytirish" maqsadida qabul qilingan «O'zbekiston — 2030» strategiyasining [1] muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.Korxonalarda mahsulot tannarxini baholash, aniqlash, real ko'rsatkichlarda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga o'tishning talablarini ham ta'minlashga xizmat qiladi.




1-rasm. Kosting tizimlarining tannarx obyektlari.

Buning natijasida respublikamizda istiqomat qiluvchi aholiga ham arzon sifatli, haqqoniy narxlarda bozorga taklif qilinishi aholi turmush darjasi farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini aniqlashda kosting tizimlarining qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida ilg‘or xorij tajribalarini qo‘llash va joriy etishni taqozo etadi. Jarayonli kostingning buyurtmali kostingdan farqli jihati tannarx hisobi obyektini tanlash bo‘lib hisoblanadi. Buyurtmali usulda hisob obyekti bo‘lib Xaridorlar tomonidan buyurtma qilingan va uni ishlab chiqarishni alohida tashkil qilish mumkin bo‘lgan buyurtma hisoblanadi. Jarayonli kostingda esa maqsadli Xarajat bo‘lib ishlab chiqarish jarayoni olinadi. Buni quyidagi rasmda aks ettirishimiz mumkin bo‘ladi (1-rasm).

Keng qo‘llaniladigan kosting tizimlaridan biri bu jarayonli kosting tizimidir. Bu tizimda mahsulot bir qancha jarayonlarda ishlab chiqarilganda qo‘llaniladi. Jarayonli kostingning muhim xususiyatlaridan biri bu mahsulotlarning jismoniy harakati bilan ularning tannarxi harakatining muvofiqligi bo‘lib hisoblanadi. Muvofiqlik esa ushbu tizimning samarali ishlashini ta’minlaydi. Jarayonli kosting tannarxi buxgalteriya hisobining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Jarayonli kosting tizimining maqsadi mahsulot tannarxi, tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini to‘g‘ri hisoblash bo‘lib hisoblanadi.


Ushbu jarayonni quyidagi rasmda ifodalashimiz mumkin bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Jarayonli kostingda mahsulot tannarxining shakllanishi.

Ushbu chizmadan ko‘rinib turibdiki, jarayondi kostingda har bir jarayonning tannarxi alohida hisoblanadi, asosiy material birinchi jarayonda kiritiladi. A jarayonda u qayta ishlanadi va jarayon yakunida mahsulot B jarayonga o‘tkazilishi bilan A jarayonning tannarxi ham o‘tkaziladi. B jarayonda yana qayta ishlash amalga oshiriladi va u yakunlanishi bilan mahsulot S jarayonga o‘tkaziladi. Mahsulot harakatiga mutanosib ravishda tannarx ham S jarayonga o‘tkaziladi. S jarayon ishlab chiqarishning oxirgi jarayoni hisoblanganligi bois, ushbu jarayonda mahsulot ishlab chiqarilishi yakunlanadi va tayyor mahsulot olinadi. S jarayoning tannarxi ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotning tannarxini tavsiflaydi.

Zamonaviy kosting tizimlari va ularning tavsiflari keltirildi. Jarayonli kostingga ta’rif ishlab chiqildi “Jarayonli kostingda tannarx ob’ekti ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bo‘yicha jarayonlar bo‘lib, har bir jarayonning tannarxi alohida hisoblanib, bir jarayoninng tannarxi boshqa jarayonga o‘tkaziladi va oxirgi jarayonning tannarxi mahsulot (ish va xizmatlar)ning tannarxini belgilaydi”. Jarayonli kostingda mahsulot tannarxining shakllanishi jarayoni ko‘rsatib berildi.



3-rasm. Jarayonli kostingni amalga oshirish bosqichlari

Jarayonli kostingning bosqichlari taklif etildi. Birinchi bosqich, hisobot davri boshida tugallanmagan ishlab chiqarish Xarajatlari summasini ikkita kategoriyaga, jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar va qayta ishlash Xarajatlari moddalari bo‘yicha ajratish kerakligi ta’kidlandi. Ikkinchi bosqichda, hisobot davri davomida amalga oshirilgan joriy Xarajatlar aniqlanadi. Jarayonli kostingda FIFO va AVEKO usullarida jami tannarxni aniqlash tartibi keltirildi. Uchinchi bosqichda, mahsulot birligi tannarxini aniqlash uchun ekvivalent birlik aniqlanadi. To‘rtinchi bosqichda, Xarajatlarning kategoriyalari bo‘yicha mahsulot birligining tannarxi aniqlanadi. Beshinchi bosqichda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar tannarxi va hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ini baholash

amalga oshiriladi. Oltinchi bosqichda, 2010 “To‘liqsiz ishlab chiqarish tannarxi” schyotida tannarxning shakllanishini qayd qilinadi, buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Jarayonli kostingni bir qancha bosqichlarga ajratishni taklif etamiz (3-rasm).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi ““O‘zbekiston — 2030“ Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. https: //lex.uz/ru/docs/6600413.

2. Вуд Френк. Бухгалтерский учет для предпринимателей. М.: ООО Аскери, 2006г.

3. Ташназаров С.Н. Алимова Н.К. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби: халқаро стандартлар ва тараққий эттириш омиллари. Монография. Самарқанд-2023, 336-бет. 260-б.; 280-282-бетлар.

4. С.Н.Ташназаров, К.Б.Уразов, Д.С.Тошназарова. Бошқарув бухгалтерия ҳисоби: Олий ўқув юртлари таълим йўналиши учун дарслик. – Самарқанд, МЧЖ “Наврўз Полиграф” матбаа бўлими, 2022. – 448 б., 368-б.

5. https: //www. qomus.info/encyclopedia/cat-m/mahsulot-uz/

Fayziyeva Aziza Azamat qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: fayziyeva.aziza.96@mail.ru

SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI MOLIYA, MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR VA BANK TIZIMI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida raqamli moliya tizimi, moliyaviy texnologiyalar hamda bank sektorida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar hududiy iqtisodiyot rivoji bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etilgan. Tadqiqot davomida elektron to‘lov tizimlari, mobil bank xizmatlari va fintech yechimlarining joriy etilishi natijasida moliyaviy xizmatlar qamrovi kengayayotgani hamda kichik tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani asoslab berilgan. Olingan natijalar raqamli moliya vositalari hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biriga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli moliya, fintech, mobil bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, moliyaviy inklyuziya, bank tizimi, hududiy iqtisodiyot.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib borib, ayniqsa moliya-bank tizimining rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Raqamli yechimlarning keng qo‘llanilishi natijasida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish shakllari sezilarli darajada yangilanib, mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligi va sifati oshmoqda.

O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida bank tizimini modernizatsiya qilish, elektron to‘lovlarni rivojlantirish va moliyaviy xizmatlarni

raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu jihatdan, Surxondaryo viloyati misolida ushbu jarayonlarni o‘rganish hududiy iqtisodiyot rivojlanishining muhim jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Raqamli moliya va moliyaviy texnologiyalar masalalari so‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda fintech texnologiyalarining moliya tizimi samaradorligini oshirishdagi roli, moliyaviy xizmatlarning ommalashuvi va inklyuziya darajasiga ta’siri alohida e’tibor markazida turadi.

Xususan, Douglas W. Arner, Janos Barberis va Ross P. Buckley tomonidan yozilgan “The Evolution of FinTech: A New Post-Crisis Paradigm” (2016) nomli ilmiy ishda fintech texnologiyalarining moliya tizimidagi o‘rni, ularning rivojlanish bosqichlari hamda an’anaviy bank xizmatlariga ko‘rsatayotgan ta’siri kompleks tarzda tahlil qilingan. Mualliflar fintechning moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish tizimini tubdan o‘zgartirayotganini va yangi iqtisodiy model shakllanishiga xizmat qilayotganini asoslab beradilar.

Shuningdek, Thomas Philippon tomonidan e’lon qilingan “The FinTech Opportunity” (2016) tadqiqotida moliyaviy texnologiyalar bank tizimining samaradorligini oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy xizmatlarning ommalashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Moliyaviy inklyuziya va raqamli moliya xizmatlari rivoji masalalari World Bank tomonidan chop etilgan “Digital Financial Services” (2022) hisobotida keng yoritilgan bo‘lib, unda raqamli moliya vositalarining aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlangan.

Bundan tashqari, International Monetary Fund tomonidan tayyorlangan “Fintech and the Future of Finance” (2021) hisobotida fintech texnologiyalarining global moliya tizimiga ta’siri, risklari va istiqbollari tahlil qilingan.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham ushbu masalaga e’tibor qaratilgan. Jumladan, Abdurakhmanov K. H. o‘zining “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesni rivojlantirish” (2018) nomli asarida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ularning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini asoslab bergan.

G‘ulomov S. S. tomonidan yozilgan “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy omillar” (2019) maqolasida moliyaviy infratuzilmaning tadbirkorlik rivojiga ta’siri tahlil qilingan bo‘lib, unda bank xizmatlari va moliyaviy resurslarning mavjudligi iqtisodiy faollikning muhim omili sifatida baholanadi.

Shuningdek, Saidova N. A. ning “Kichik biznesni rivojlantirishning institutsional asoslari” (2020) nomli ilmiy ishida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, shu jumladan moliyaviy infratuzilmaning roli atroflicha yoritilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli moliya va fintech texnologiyalari iqtisodiy tizim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati makro yoki milliy darajada olib borilgan bo‘lib, hududiy kesimda, xususan Surxondaryo viloyati misolida

raqamli moliya va bank tizimi transformatsiyasini kompleks o‘rganishga yetarli e’tibor qaratilmagan.

Shu sababli mazkur tadqiqot hududiy darajada raqamli moliya tizimining rivojlanishi va uning iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini aniqlashga qaratilganligi bilan ilmiy yangilik kasb etadi.

Surxondaryo viloyatida so‘nggi yillarda raqamli moliyaviy xizmatlar kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Elektron to‘lov tizimlari, bank kartalari va mobil ilovalar orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmi ortib bormoqda. Bu esa naqd pulsiz hisob-kitoblarning ulushini oshirish bilan birga iqtisodiy jarayonlarning tezlashishiga ham xizmat qilmoqda.

Shuningdek, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamli to‘lov vositalarining keng qo‘llanilishi moliyaviy operatsiyalarni yanada qulaylashtirmoqda.

Hududda tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan mobil banking xizmatlari aholiga moliyaviy operatsiyalarni masofadan turib amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu esa bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish bilan birga, vaqt va xarajatlarni tejash imkonini ham yaratmoqda.

Fintech yechimlari orqali esa kichik tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish yanada soddalashib, ularning iqtisodiy faolligi oshib bormoqda.

Raqamli moliya xizmatlarining kengayishi natijasida aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati sezilarli darajada ortmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida yashovchi aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlari yaxshilanmoqda.

Natijada, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengayib, bu hududiy iqtisodiy faollikning oshishiga olib kelmoqda.

Raqamli moliya xizmatlarining rivojlanishi hududiy iqtisodiyotga bir qator ijobiy ta’sirlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan:

- iqtisodiy operatsiyalarning tezligi oshmoqda;
- savdo va xizmat ko‘rsatish hajmi kengaymoqda;
- moliyaviy operatsiyalar shaffofligi ortmoqda;
- kichik biznes subyektlarining faoliyati faollashmoqda.

Bu esa raqamli moliyaning hududiy iqtisodiy rivojlanishda muhim omil sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryo viloyatida raqamli moliya tizimining rivojlanishi ijobiy tendensiyaga ega. Biroq ushbu jarayonni yanada jadallashtirish uchun bir qator muammolarni hal etish zarur.

Xususan, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, aholining raqamli savodxonligi pastligi hamda bank xizmatlariga nisbatan ishonch darajasining bir xil emasligi mavjud muammolar qatoriga kiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish raqamli moliya tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida raqamli moliya va moliyaviy texnologiyalar rivojlanishi bank tizimining transformatsiyasini jadallashtirib, hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Elektron to‘lov tizimlari, mobil bank xizmatlari va fintech yechimlarining keng joriy etilishi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kelgusida raqamli infratuzilmani takomillashtirish, fintech xizmatlarini kengaytirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish orqali ushbu jarayonlarning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Arner D. W., Barberis J., & Buckley R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm. Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271–1319.
2. Philippon T. (2016). The FinTech opportunity. National Bureau of Economic Research Working Paper, No. 22476.
3. World Bank (2022). Digital Financial Services. Washington, DC: World Bank.
4. International Monetary Fund (2021). Fintech and the Future of Finance. Washington, DC: IMF.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). To‘lov tizimlari rivoji bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar. Toshkent.
7. Abdurakhmanov K. H. (2018). Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznesni rivojlantirish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. G‘ulomov S. S. (2019). Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy omillar. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 3(1), 45–52.
9. Saidova N. A. (2020). Kichik biznesni rivojlantirishning institutsional asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(2), 112–120.

Maxmudova Dilobarxon Rasuljon qizi
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti tayanch doktoranti

BUXGALTERIYA HISOBINING IJOBIY BALANSI KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING MUHIM KO‘RSATKICHIDIR

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorlik ta’minlanishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning baholanish masalalari ko‘rib o‘tilgan. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar guruhlanib, moliyaviy oqimlarning muvozanatini aks ettiradigan ko‘rsatkichlar asoslab berildi. Shuningdek, maqolada moliyaviy (iqtisodiy) salohiyatni aniqlashning mavjud ko‘plab yondashuvlari tahlil qilinib, bu borada amaliy fikrlar va xulosalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy salohiyat, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy mustaqillik, mablag‘lar va ularning manbalari, buxgalteriya hisobi balansi, aktiv, passiv, ijobiy buxgalteriya hisobi balansi, salbiy buxgalteriya hisobi balansi.

Kirish

Iqtisodiy o‘zgarishlar davrida har qanday korxonaning biznes jarayoni uning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita qiziqish bildiradigan turli bozor ishtirokchilarining diqqat markazida bo‘ladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida raqobatning kuchayishi bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samarali ishlashishidagi an’anaviy tartiblar o‘zgarib boradi. Bugungi kunda korxonalar raqobat bozorda yutib chiqish uchun nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish balki, yanada yangi samarali biznes va boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarilgan o‘z mahsulotlari va ko‘rsatilgan xizmatlarining raqobatbardoshligini ta’minlash kerak bo‘ladi.

Biroq, bozor iqtisodiyotida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni ta’minlash uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘zlarining moliyaviy holatini baholashning usullaridan to‘g‘ri foydalanishi zarurdir. Bu orqali korxonalarning moliyaviy boshqaruvi malakali dastaklar bilan ta’minlanadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va to‘lov qobiliyati darajasini tahlil qilish, uning moliyaviy aktivlarini muvaffaqiyatli boshqarishning asosiy shartidir. Korxonaning moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishda, moliyaviy xavflarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda axborot manbalari muhim element hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘zgarishlar davrida xo‘jalik yurituvchi subyektlardan kutilmagan o‘zgarishlarga nisbatan ko‘proq moslashuvchanlik funksiyasidan foydalanish talab qilinadi. Bu esa bozor munosabatlari sharoitidagi kutilmagan o‘zgarishlar tufayli korxonaning to‘lovga qodir emasligi yoki bankrotlikka uchrash ehtimolini kamaytiradi.

Mamlakatimizdagi o‘zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning omon qolishini asosiy kaliti va barqaror faoliyatining uzluksiz ta’minlanishi asosi uning iqtisodiy barqarorligi va to‘lovga qodirligidir. Bu o‘z navbatida, korxona ulardan samarali foydalanish orqali kelajakda rivojlanishni ta’minlay oladigan resurslar holatini aks ettira olishini bildiradi.

Asosiy qism

Moliyaviy barqarorlik — bu ma’lum bo‘sh mablag‘lar va muvozanatli moliyaviy oqimlarning mavjudligi tufayli tashkilotning mavjudligi va uzluksiz ishlashini ta’minlash qobiliyati. Muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish bilan bir qatorda, tashkilotning faoliyati olingan kreditlarga xizmat ko‘rsatishni ham o‘z ichiga olishi kerak. Moliyaviy barqarorlik tashkilotning uzoq vaqt davomida to‘lovga qodir bo‘lishini anglatadi.[6]

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi va ularning iqtisodiy holatini baholash bilan bog‘liq masalalar ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Masalan, professor A.U. Burxanov fikricha “Korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan ularning ixtiyoridagi mablag‘larning turi va hajmiga

hamda ular qanday investitsiya qilinishiga bog‘liq. Foydalanilgan kapital, ulardan foydalanish yo‘nalishiga qarab, o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘lariga bo‘linadi”.[1]

U.Ye. Sadikov fikricha “Moliyaviy barqarorlik — bu kompaniyaning moliyaviy holati bo‘lib, u uning moliyaviy manbasini aks ettiradi. Qarzga olingan moliyalashtirish manbalari hajmi va vaqti jihatidan cheklanishning yagona yo‘li ekanligi odatda qabul qilingan”.[4]

A.D. Sheremetning fikriga ko‘ra, moliyaviy barqarorlik zaxiralar va shakllanish manbalaridan xarajatlarning mavjudligi, shuningdek, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq.[5]

M.Ye. Grebneva ta’kidlashicha, “Biznesning moliyaviy barqarorligi, uning o‘z moliyaviy resurslari va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash qarorini anglatadi. Moliyaviy muvozanat, o‘z navbatida kompaniya aktivlarining o‘z mablag‘lariga nisbati bo‘lib, bunda kompaniyaning o‘z qarzi ham eski, ham butunlay yangi qarzlar bilan to‘liq qoplanadi. Shu bilan birga, agar, yangi qarzlarni qaytarish manbalari bo‘lmasa, mavjud mablag‘lardan foydalanish uchun ma’lum shartlar mavjud”.[3]

O.I. Vyatkina “Moliyaviy barqarorlikning asosiy nuqtalari quyidagilardan iborat:

- o‘z kapitalining yetarli miqdori;
- to‘lov qobiliyati va likvidligi;
- investitsion jozibadorlik;
- tashqi kreditorlardan mustaqillik;
- balansning qoniqarli tuzilishi;
- ta’sir etuvchi omillardan qat’iy nazar ishlash qobiliyatidir”.

Moliyaviy barqarorlik — bu kompaniyaning to‘lov qobiliyatiga ta’sir qiluvchi moliyaviy holat darajasining ichki aksidir. Xulosa qilib aytganda, “moliyaviy barqarorlik aktiv va passivlar tarkibi, daromad va xarajatlar darajasi hamda to‘lovlar va tushumlar darajasi o‘rtasidagi muvozanat asosida aniqlanadi”.[2]

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash bevosita ularda mavjud mablag‘lar va ularning manbalarining holati hamda harakati bilan bog‘liqdir.

Shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiyotning an’anaviy tartibiga ko‘ra korxona moliyaviy barqarorlik o‘z mablag‘lari manbalari soniga qarab agar, ularning o‘z mablag‘larining manbalaridan kredit mablag‘larining manbalari oshib ketadigan bo‘lsa, bu salbiy holat hisoblangan. O‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat, korxonada mablag‘larni jamlash muddatini hamda korxonaning qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlari o‘rtasidagi farq, o‘z aylanma mablag‘larning manbalari darajasi baholanishini ifodalaydi.

Jahon amaliyotida “Moliyaviy barqarorlik” ning turli xil ta’riflari balans tahliliga bir nechta yondashuvlar mavjudligi sababli paydo bo‘lganligi aytiladi. Bu zamonaviy va an’anaviy likvidlik tahlili deb aytiladi. Aynan shu yondashuvlarning mavjudligi moliyaviy barqarorlik haqida turli xil tasavvurlarni keltirib chiqaradi. Moliyaviy barqarorlikni aniqlash orqali korxonaning faol va harakatsiz aktivlari

o‘rtasidagi farqni aniqlash hamda korxona rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zaxiralar miqdorini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu mezon korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlashning asosiy element hisoblanadi. Chunki, bunday mezon korxonalarning xarajatlariga nisbatan daromadlar o‘sishi barqarorligini belgilaydi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning maqsadi korxona mablag‘larini boshqarish va ulardan foydalanishning yildan-yilga mutanosibligini aniqlashdir. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning asosiy vazifalari:

to‘lov qobiliyatini tahlil qilish;

moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradigan usullarni tanlash;

mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

zamonaviy usullar asosida moliyaviy ko‘rsatkichlar bashorati.

Hozirgi vaqtda xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish uchun bir qancha usullar qo‘llaniladi, eng ko‘p qo‘llaniladigan koeffitsiyent usuli hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini hisoblashning asosiy ma’lumot manbai bo‘lib, buxgalteriya hisobining moliyaviy hisobotlar jumladan, buxgalteriya hisobi balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot hisoblanadi.

Xulosa

Bizga ma’lumki, buxgalteriya hisobi balansi korxonalarda mavjud mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari harakatini nazorat qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, aktiv va passiv tomonlardan iborat bo‘ladi. Aktiv tomonida korxona mablag‘lari harakati va passiv tomonida mablag‘larning tashkil topish manbalarini harakati ko‘rsatib boriladi. Uning asosiy xususiyati har qanday o‘zgarishdan keyin, aktiv tomonining jami summasi bilan passiv tomonining jami summasi bir-biriga teng chiqishi shart bo‘ladi.

Ularning tengligi quyidagi formula bilan belgilanadi:

Aktiv = Xususiy kapital + Majburiyat.

Bizning fikrimizcha, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish nuqtai nazaridan korxona buxgalteriya hisobi balansining natijalariga qarab, ijobiy (qoniqarli) va salbiy (qoniqarsiz) turga ajratish mumkin. Ijobiy (qoniqarli) buxgalteriya hisobi balansi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlanganligini ifodalaydi ya’ni, korxonalarning xarajatlariga nisbatan daromadlar o‘sishi barqarorligini belgilaydi. Salbiy (qoniqarsiz) buxgalteriya hisobi balansi korxonaning daromadga nisbatan xarajatlarini o‘sib borayotganini ya’ni, bankrotlik xavfi kuchayib borayotganini ifodalaydi. Bu holat korxona xususiy kapitaliga nisbatan majburiyatini o‘sib borayotganini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бурханов А.У. Саноат корхоналари молиявий барқарорлигини баҳолаш усули. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь 2018.

2. Вяткина О.И. Финансовая устойчивость предприятия (организации). // «Научно-практический журнал Аллея Науки» –2022. – №8(24). – С. 1-2

3. Гребнева М.Е. Финансовая устойчивость предприятия. // Курский государственный университет, г. Курск. 2019. — №6. — 67 с.

4. Садыков У.Е. Оценка платежеспособности и финансовой устойчивости. // Наука и образование. — 2019. № 6. — С. 78- 81.

5. Шеремет А.Д. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций / А.Д. Шеремет, Е.В. Негашев. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Инфра-М. –2021.- 237с.

6. www.klerk.ru

Maxmudov Eldorbek Adxamjonovich
Farg'ona davlat texnika universiteti doktoranti,
eldorbek.mahmudov@mail.ru

SUN'IY INTELLEK INQILOBI VA BUXGALTERIYA HISOBI

Annotatsiya: Ushbu maqolada butun boshqaruv sohasidagi kasblarning kelajagiga bevosita shubha uyg'ota boshlagan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda insonlardan talab qilinadigan ko'nikmalarga ko'proq e'tibor berildi. So'ngi o'n yilliklarda deyarli barcha jamiyatlarda shakllanib ulgurgan inson yaxshi yashashi uchun yaxshi o'qishi, bir paytning o'zida yaxshi oilada tarbiyalanishi kerakligi kabi paradokslarning biz yashayotgan asr uchun ko'p ham aktual emasligi haqida gap yurtilgan.

Kalit so'zlar: to'rtinchi inqilob, buxgalteriya tili, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt,

Kirish. Bugungi kunda yer yuzida sakkiz milliarddan ortiq insonlar yashamoqda va ular ushbu davrga qadar rivojlanishning murakkab evolutsion bosqichlarini bosib o'tishdi. Davrlar almashar ekan, odamlarning ehtiyojlari ham o'zgarib bordi. Hozirda yashayotgan odam o'zidan oldingi ajdodlarining yashab qolish va rivojlanish jarayonidagi barcha eng yaxshi hislatlarini o'zlashtirgan deb e'tirof etish mumkin.

Insoniyat rivojlanib, taraqqiy etib borar ekan, o'z imkoniyatlarini oshirish, moddiy resurslardan maqsadli va oqilona foydalanish yo'lida bugunga qadar uchta sanoat inqilobini boshidan o'tkazdi. E'tiborli tomoni har uchala sanoat inqiloblari so'ngi uch asrda sodir bo'lgan. Ayni paytda biz hayot kechirayotgan asr to'rtinchi sanoat inqilobi bosqichida davom etmoqda. Ushbu asosini sun'iy intellekt texnologiyalari tashkil etayotgan inqilob o'zidan oldingilaridan katta farq qiladi. Dastlabki sanoat inqiloblarida asosiy harakatlantiruvchi kuch- ishchilar mehnatini optimallashtirish (yengillashtirish) bo'lsa, ushbu sanoat inqilobida harakatlantiruvchi kuch bo'lib, boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchilarning mehnatini (aqliy mehnatni) optimallashtirish hisoblanmoqda. Dunyoning ayrim ishbilarmonlari boshqaruv hodimlarini yoppasiga ishdan bo'shatish orqali mablag'larini tejash yo'lini tanlasa, ayrim investorlar insonning o'ziga xos qarorlar

qabul qila olish (ijodkorlik) imkoniyatlariga ko’proq ahamiyat bergan holda, sun’iy intellektdan faqat bir xillikni talab etuvchi va ko’p vaqt sarflanib, kam natija olib keladigan ayrim muammolarning yechimi sifatida foqdalanmoqda.

Asosiy qism. Buxgalteriya xizmati ko’rsatuvchilar (yollanma ishchi yoki outsorsing firmalari) aynan aqliy mehnat kishilaridir hamda ushbu shaxslarning o’ziga xos xususiyatlari sifatida hisob ma’lumotlarini tez va sifatli qayta ishlash, tahlil qilish va samarali yechimlar taklif etish qaraladi. Ushbu amaliyotlar sun’iy intellekt tomonidan insonlarga nisbatan bir necha marta tezroq, kamchiliklarsiz va ayrim detallarni tushirib qoldirmagan holda amalga oshirilayotgani ko’plab boshqaruv turidagi kasb hodimlari (menejerlar, iqtisodchilar, dasturchilar) singari buxgalteriya xizmati ko’rsatuvchilarda ham o’z professional faoliyati doirasida kasbiy va shaxsiy rivojlanish masalalarini savol ostida qoldira boshladi. Sun’iy intellektning jamiyat hayotiga tezlik bilan kirib kelishi buxgalterlarning ayrim takrorlanuvchi ishlarini yengillashtirdi va ularga ushbu texnologiyalarning yutuqlaridan yanada kengroq foydalanish uchun qo’shimcha vaqt va imkoniyatlar taqdim etdi. Ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalana olgan buxgalterlar o’z ish jarayonlariga yangi texnologik yordamchini olib kira olishdi va undan o’z ishlarini yengillashtirishda foydalana boshlashdi.

Men har ikki toifa ya’ni o’z ish jarayoniga texnologik imkoniyatlarni olib kira olgan va hozircha sun;iy intellektdan ish maqsadida foydalanmayotgan buxgalterlar uchun foydali bo’lishi mumkin bo’lgan jarayon haqida so’z yuritmoqchiman.

Ushbu konferensiyaga tayyorlanish jarayonida quyida keltirayotgan bir izoh e’tiborimni tortdi: “Tasavvur qiling, siz avtomobil ixtiro qilingan paytda Belgiyadagi ot aravalarini tuzatadigan eng zo'r usta hisoblanasiz. Kelajagingiz xavf ostida ekanligini bilganingiz uchun, yangi aravalarga imkon qadar ko‘proq buyurtma olishni xohlaysiz. Yoki, aksincha, imkon qadar tezroq o‘sha "yangi chiqqan matoh" (avtomobil)lardan birini qo‘lga kiritib, uni ta’mirlashni o‘rganasiz. Ikkala vaziyatda ham yanada qattiqroq ishlashingiz kerak bo'ladi.” Har ikki holatda ham qattiqroq ishlashga to’g’ri kelar ekan yangiliklar va sinab ko’rish imkoniyati ko’proq tomonga harakat qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Sun’iy intellekt texnologoyalariga shubha, ishonchsizlik, hadik yoki istalgan boshqa hissiy qarashdan ko’ra, insoniyat uchun yaratilgan imkoniyatdan o’z ulushungizni olish ko’nikmasiga ega bo’lish ko’proq foydali.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi shaxslar asosan oddiy insonlar. Ularning ko’pchiligi dasturlash tillari bo’yicha tajribaga ega emas. Ya’ni qanchalik noo’rin eshitilmasin sun’iy intellekt insonlar bilan kodlar orqali emas insonlarning o’z so’zlashish tillari orqali muloqot qilmoqda. Dunyoning eng qimmat kompaniyasi (NVIDIA) rahbari, sun’iy intellekt inqilobi yetakchilaridan biri Jensen Huangdan maktabni endi bitirayotgan, nima kasb tanlash haqida o’ylanayotgan yoshlarga nima qanday bera olishi haqida so’rashdi. U matematika, fizika kabi aniq fanlarni o’rganish hanuz muhim bo’lib qolishini aytish bilan birga, “Ingliz tilini o’rganing”, dedi. Buni chet elliklarga emas, amerikalik yoshlarga aytdi. Buxgalteriya tilini o’rganishda davom etish kasbiy rivojlanishda davom etishdek taassurot uyg’ota boshlaydi. Barcha ehtimoliy o’tkazmalarni, qonunchilik

talablarini a’lo darajada biladigan buxgalter o’rnini oddiy AI yordamchilar egallayotgan zamonda, yuzaga kelgan muammolarga topqirlik bilan yondosha oladigan buxgaltergina sun’iy intellektga asoslangan bozorlarda o’z qiymatini topa oladi.

Aslida dunyo aholisining taxminan 25 (yigirma besh) foiz atrofidagi qismigina sun’iy intellekt yordamida qandaydir foydali yumush bajara olish imkoniyatiga ega. Bizniki singari rivojlanayotgan jamiyatlarda bu ko’rsatkich dunyodagi o’rtacha ko’rsatkishdan ko’ra ham pastroq. Ayni paytda yangi sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdan ko’ra, mavjud texnologiyalarni oddiy korxonaga qo’llab, moslashtirib beruvchilarga (“implementer”larga) ehtiyoj ko’p. Shu sababli, ham buxgalteriya sohasida tajribaga ega bo’lgan, ham sun’iy intellektdan maqsadliroq foydalana oladigan shaxslarga ayni paytdagi mehnat bozorining talablari yuqori.

Yuqoridagi fikrlar bo’yicha ushbu kichik xulosa qilib aytish mumkinki, yangi texnologiyalardan eng samarali foydalanuvchilar- buxgalteriyaga oid savollarni eng to’g’ri bera oluvchilar va taqdim etilgan yechimlarning eng optimallarini tanlay olish qobiliyati egalaridir.

Buxgalteriya asosi va mantig’ini tushunmaydigan, sun’iy intellektdan esa yuqori darajada foydalana oladigan shaxsning xatolarsiz ishlashi imkonsiz. Sun’iy intellekt texnologiyalarini o’qitish jarayoni murakkab ekanligi, ma’lumotlarni saqlash harajatlari tobora qimmatlashib borayotganligi, kelgusida insonning aqliy qobiliyatlariga hozirgidan ham ko’proq ehtiyoj tug’ilishi ham nazariy jihatdan keng tarqalgan fikr hisoblanadi.

Xulosa. Tobora globallashib borayotgan iqtisodiyot tizimlarida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo’llanilayotgani qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish bilan bir qatorda iqtisodiyotlarning ortiqcha qizib ketish xatarini oshiradi. Ayni shunday vaziyatlarda tezkor qaror qiluvchi top menejerlardan ko’ra, holatga ko’proq aql bilan yondosha oladigan buxgalterlarning qiymati ortishi ko’rinib turibdi. Bugungi kun buxgalterlari faqatgina hisob yurituvchilar emas, balki risklarni boshqaruvchilar, xo’jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruvida rahbarlardan ham uddburonroq bo’lishlari talab etiladigan moliyaviy maslahatchilar ham hisoblanishadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini o’z ishlariga tatbiq eta olgan buxgalterlar esa, boshqa hamkasblaridan ko’ra kengroq imkoniyatlarga egalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Al-Naimi, M., & Alajmi, R. (2022). Digital transformation in accounting: Impacts on auditing, reporting, and internal control. Journal of Accounting and Digital Innovation, 6(4), 45–60.
2. Appelbaum, D., Kogan, A., Vasarhelyi, M., & Yan, Z. (2017). Impact of automation and artificial intelligence on accounting. Journal of Emerging Technologies in Accounting, 14(1), 1–16.
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. New York: W.W. Norton & Company.

4. Deloitte. (2023). Digital transformation in finance and accounting: Global research report 2023. Deloitte Insights. https://www2.deloitte.com
5. International Federation of Accountants (IFAC). (2022). Digital transformation in accounting profession: Strategy for 2030. IFAC Publications. https://www.ifac.org
6. Kaplan, R. S., & Mikes, A. (2012). Managing risks: A new framework. Harvard Business Review, 90(6), 48–60.
7. Porter, M. E., & Heppelmann, J. (2015). How smart, connected products are transforming companies. Harvard Business Review, 93(10), 53–70.
8. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
9. Tohirov, A., & Abdurahmonova, D. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish. O‘zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy jurnali, 2(3), 110–118.
10. N.T. Qudbiyev, Z.A. Axmadaliyeva. “Soliq yukining biznes uchun ahamiyati”, Scientific Progress, vol. 3, no. 3, pp. 699–708, 2022.
11. Abduxalimovna, A. Z., & Nabiyevich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(11), 86-92.
12. Axmadaliyeva, Z. A. (2023). MHXS ASOSIDA INVESTITSION MULKLARNI HISOBGA OLISHNING O‘ZIGA XOSLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 801-811.

Uralov Temur Boxodir o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: uralov.t.b@gmail.com

ENERGETIKA TARMOG‘IDA MHXS JORIY ETISHNING STRATEGIK MODELI VA SAMARADORLIK BAHOLASH TIZIMI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot energetika tarmog‘ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishning turli strategik modellarini taqqoslash va samaradorlik baholash tizimini ishlab chiqishga bag‘ishlang‘an. Dunyo amaliyotida qo‘llaniladigan to‘rt asosiy model - to‘liq integratsiya, parallel tizim, konvergensiya va moslashtirish - ning energetika kontekstidagi xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston energetika korxonalarining MHXS joriy etish tajribasi xalqaro standartlar bilan solishtirilib, samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: strategik model, samaradorlik baholash, energetika tarmog‘i, integratsiyalashgan hisobot, konseptual asoslar.

Kirish. Global iqtisodiyotning rivojlanishi va moliyaviy bozorlarning integratsiyasi sharoitida energetika tarmog‘i mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda markaziy rol o‘ynamoqda. 160 dan ortiq mamlakatda rasman qabul qilingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari energetika

korxonalari uchun xalqaro kapital bozorlariga integratsiya strategiyasining asosiy komponentiga aylanmoqda [1].

Energetika sohasi o‘zining yuqori kapital talabliligi, texnik murakkabligi va operatsion sikli uzoqligi bilan MHXS joriy etishda alohida yondashuvni talab etadi. Turli mamlakatlar o‘z iqtisodiy sharoiti va institutsional imkoniyatlaridan kelib chiqib turli strategik modellarni qo‘llab kelmoqda.

Asosiy qism. O‘zbekistonda 2021-yildan boshlab amalga oshirilayotgan MHXS joriy etish jarayoni dunyo tajribasini o‘rganish va o‘z sharoitiga moslashtirish prinsiplariga asoslangan. Ushbu jarayonning samaradorligini baholash va kelgusi rivojlanish strategiyasini belgilash uchun kompleks tahlil va ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi [2]. Dunyo amaliyotini o‘rganish natijasida energetika sohasida MHXS joriy etishning to‘rt asosiy strategik modeli aniqlandi. Har bir modelning o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va qiyinchiliklari mavjud.

To‘liq integratsiya modeli milliy standartlardan to‘liq voz kechib, faqat MHXS asosida hisobot yuritishni nazarda tutadi. Ushbu modelni Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan Yevropa mamlakatlari qo‘llab kelmoqda. Bu yondashuvning asosiy afzalligi standartlarning to‘liq birligi va xalqaro solishtirish imkoniyatining yuqoriligi hisoblanadi.

Parallel tizim modeli milliy standartlar va MHXSni bir vaqtda qo‘llashni nazarda tutadi. Rossiya, Qozog‘iston va Belarusya kabi mamlakatlar ushbu modelni qo‘llamoqda. Bu yondashuv milliy hisob an’analarini saqlab qolish bilan birga xalqaro talablarga ham javob berishga imkon beradi.

Konvergensiya modeli milliy standartlarni MHXS bilan bosqichma-bosqich yaqinlashtirishni, ammo to‘liq birlashtirmaslikni nazarda tutadi. AQSH, Xitoy va Yaponiya kabi yirik iqtisodiyotlar ushbu strategiyani qo‘llab kelmoqda. Bu usul milliy hisob tizimining mustaqilligini saqlab qolish bilan birga xalqaro uyg‘unlikni ta’minlaydi. Moslashtirish modeli milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda MHXSni joriy etishni nazarda tutadi. Braziliya, Hindiston va BAA kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar ushbu yondashuvni qo‘llab kelmoqda.

O‘zbekiston hozirda moslashtirish modelidan konvergensiya modeliga o‘tish jarayonini boshdan kechirmoqda. 2024-yilda amalga oshirilgan BHMSlarning MHXS bilan uyg‘unlashtirilishi ushbu jarayonning muhim bosqichi hisoblanadi. [3]

Energetika korxonalarida MHXS joriy etish Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari kengashi (IASB) tomonidan belgilangan fundamental prinsiplarga asoslanadi. Ushbu prinsiplar energetika sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llanilishi kerak.

Hisoblash tamoyili (accrual basis) energetika korxonalari uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya etkazib berish bo‘yicha uzoq muddatli shartnomalar, ijara munosabatlari va kechiktirilgan to‘lovlarni hisobga olishda operatsiyalar va hodisalarni pul mablag‘larini olish yoki to‘lash paytida emas, balki ular yuzaga kelgan paytda aks ettirish zarur.

Faoliyat uzluksizligi tamoyili (going concern) energetika korxonalarining uzoq muddatli foydalanish sikliga ega asosiy vositalarini baholash kontekstida

alohida ahamiyat kasb etadi. Elektr stansiyalari va tarmoq infratuzilmasi 25-50 yilgacha foydalanish muddatiga ega bo‘lganligi bu tamoyilning to‘g‘ri qo‘llanilishini taqozo etadi.

Moddiylik tamoyili (materiality) energetika sohasi uchun kapital qo‘yilmalar, obyektlarni ekspluatatsiyadan chiqarish uchun zaxiralar va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha majburiyatlar haqidagi ma’lumotlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunday ma’lumotlarning tushirib qoldirilishi yoki buzib ko‘rsatilishi moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Energetika sohasida MHXS joriy etishda uchraydigan asosiy muammolarni tizimli tahlil qilish samarali yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur. Rejalashtirilgan faoliyatni hisobga olish muammosi tarif nazoratining moliyaviy holatga ta’sirini aks ettirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu muammani hal qilish uchun sohaviy tavsiyalar ishlab chiqish va korxonalar o‘rtasida tajriba almashish tizimini yaratish taklif etiladi.

Ixtisoslashtirilgan aktivlarni baholash muammosi nodir energetika obyektlarining adolatli qiymatini aniqlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ixtisoslashtirilgan baholovchilarni jalb qilish va ichki metodikalarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanishdan chiqarish majburiyatlarini hisobga olish muammosi energetika obyektlarini ekspluatatsiyadan chiqarish bilan bog‘liq uzoq muddatli majburiyatlarni baholashda noaniqlik tug‘diradi. Aktuar hisob-kitoblardan foydalanish va baholashlarni muntazam yangilash bu muammoni hal qilishning samarali usuli hisoblanadi [4].

Energetika sohasida MHXS ni joriy etishda turli mamlakatlardagi katta yutuqlarga qaramay, korxonalar quyidagi umumiy muammolarga duch kelmoqda, ularga quyidagi yechimlar taklif etilish mumkin (1-jadval):

1-jadval

Energetika sohasida MHXSni joriy etish muammolari va ularni hal qilish yo‘llari

Muammolar	Tasnifi	Hal etish yo‘llari
Rejalashtirilgan faoliyatni hisobga olish	Tarif nazoratining moliyaviy holatga ta’sirini aks ettirishda qiyinchiliklar	Sohaviy tavsiyalar ishlab chiqish va korxonalar o‘rtasida tajriba almashish
Ixtisoslashtirilgan aktivlarni baholash	Nodir energetika obyektlarining adolatli qiymatini aniqlashda qiyinchiliklar	Ixtisoslashtirilgan baholovchilarni jalb qilish va ichki metodikalarni ishlab chiqish
Foydalanishdan chiqarish majburiyatlarini hisobga olish	Energetika obyektlarini foydalanishdan chiqarish bilan bog‘liq uzoq muddatli majburiyatlarni baholashda noaniqlik	Aktuar hisob-kitoblardan foydalanish va baholashlarni muntazam yangilash
Parallel buxgalteriya tizimi	Turli maqsadlar uchun bir necha hisob tizimini qo‘llab-quvvatlash zarurligi	Integrallashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va transformatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish
Mutaxassislarni	Energetika sohasida MHXS	Ixtisoslashtirilgan ta’lim dasturlari

tayyorlash	bo‘yicha malakali kadrlar yetishmasligi	va sertifikatlashtirishni rivojlantirish

Parallel buxgalteriya tizimi muammosi turli maqsadlar uchun bir necha hisob tizimini qo‘llab-quvvatlash zarurligini keltirib chiqaradi. Integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish va transformatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish ushbu muammoning samarali yechimi hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumunki MHXS joriy etishning samaradorligini baholash uchun kompleks ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini qamrab oladi va energetika sohasining xususiyatlarini hisobga oladi.

Tashkiliy samaradorlik ko‘rsatkichlari ichki nazorat tizimining sifati, korporativ boshqaruv darajasi va axborot tizimlarining integratsiya darajasini o‘lchaydi. Bu ko‘rsatkichlar MHXS joriy etishning ichki jarayonlarga ta’sirini baholash imkonini beradi.

Xalqaro tan olish ko‘rsatkichlari xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan baholar, xalqaro auditorlik firmalari bilan hamkorlik darajasi va xalqaro moliya bozorlaridagi ishtirokni o‘lchaydi.

Xalqaro tajribada moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlarni birlashtiradigan integratsiyalashgan hisobot tizimi keng qo‘llanilmoqda. Energetika korxonalari uchun bunday tizim ayniqsa muhim, chunki u qiymat yaratish jarayonini to‘liqroq aks ettirish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan hisobot tizimining asosiy komponentlari moliyaviy kapital, ishlab chiqarish kapitali, intellektual kapital, inson kapitali, ijtimoiy va munosabatli kapital hamda tabiiy kapitaldan iborat. Energetika kontekstida har bir kapital turi alohida ahamiyatga ega.

Moliyaviy kapital moliyaviy resurslarning mavjudligi va samarali foydalanilishini aks ettiradi. Ishlab chiqarish kapitali elektr stansiyalari, tarmoqlar va texnik jihozlarni qamrab oladi. Intellektual kapital patentlar, litsenziyalar va texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Inson kapitali xodimlarning malakasi, tajribasi va motivatsiyasini aks ettiradi. Ijtimoiy kapital jamoat bilan munosabatlar, brending va reputatsiyani qamrab oladi. Tabiiy kapital atrof-muhitga ta’sir va tabiiy resurslardan foydalanishni o‘lchaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Energy Agency. (2023). Energy sector financial reporting: Global trends and best practices in IFRS implementation. IEA Energy Finance Outlook, 127-145. doi: 10.1787/iea-efo-2023-en

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi “MHXS o‘qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarni qoplash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi 38-son qarori. Lex.uz vebsayti: https: //lex.uz/pdfs/5678522

3. Karimov A.M., Raximov Sh.N., Azizova G.B. (2024). O‘zbekiston energetika korxonalarida MHXS joriy etishning strategik modeli: konvergensiya yondashuvining samaradorligi. Iqtisodiy strategiya, 2- son, bet. 78-94.

4. Ismoilova N.X., Qodirov S.J. (2023). O‘zbekiston energetika korxonalarida integratsiyalashgan hisobot tizimini joriy etishning konseptual asoslari. Buxgalteriya hisobi va audit bet. 89-107.

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti
e-mail: akmaljon.ermatov@fstu.uz
Rahimjonov Bozorboy Ahadjon o‘g‘li
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
yo’nalishi 4-kurs talabasi

MOLIYAVIY BARQARORLIK KO‘RSATKICHLARINING KORXONA RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarning uzoq muddatli va barqaror faoliyat yuritishida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining ahamiyati yoritilgan. Moliyaviy barqarorlik korxonaning to‘lovga qobiliyati, likvidligi, moliyaviy mustaqilligi, rentabellik darajasi hamda investitsion jozibadorligini ifodalovchi muhim mezon sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. moliyaviy barqarorlik, likvidlik, to‘lovga qobiliyat, moliyaviy mustaqillik, rentabellik, yashil iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, MHXS, IFRS, moliyaviy hisobot, investitsion jozibadorlik.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki daromad miqdori bilan, balki uning moliyaviy jihatdan mustahkamligi bilan ham belgilanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligi uning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi, tashqi moliyaviy manbalarga haddan tashqari qaram bo‘lmasligi va uzoq muddatli istiqbolda rivojlanish imkoniyatlarini сақлаб qolish qobiliyatini anglatadi [1].

Moliyaviy barqarorlikni baholashdan asosiy maqsad korxonaning real moliyaviy holatini aniqlash, to‘lovga qobiliyatini baholash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xavflarning oldini olishdan iboratdir. Ko‘rsatkichlar investorlar, kreditorlar, banklar, aksiyadorlar va davlat organlari uchun muhim axborot manbai hisoblanadi [2].

Asosiy qism. Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash zarurati shundan iboratki, korxona o‘z faoliyatida likvidlik yetishmovchiligi, qarzdorlikning ortishi, kapital yetarli emasligi yoki foydalilikning pasayishi kabi salbiy holatlarni oldindan aniqlashi va ularning oldini olishi kerak. Shu sababli moliyaviy tahlil strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy barqarorlikning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri joriy likvidlik koeffitsienti hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich korxonaning qisqa muddatli

$$K_{jl} = \frac{Joriy\ aktivlar}{Qisqa\ muddatli\ majburiyatlar}$$

majburiyatlarini joriy aktivlar hisobidan qoplash imkoniyatini ifodalaydi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Agar ushbu ko‘rsatkich 2 dan yuqori bo‘lsa, korxonaning likvidligi qoniqarli deb baholanadi. Mazkur ko‘rsatkichni hisoblashning asosiy maqsadi korxonaning qisqa muddatli moliyaviy barqarorligini aniqlashdan iboratdir [3].

Tezkor likvidlik koeffitsienti esa zaxiralarni hisobga olmagan holda korxonaning real to‘lovga qobiliyatini ko‘rsatadi:

$$K_{tl} = \frac{Joriy\ aktivlar - Zaxiralar}{Qisqa\ muddatli\ majburiyatlar}$$

Bu ko‘rsatkich ayniqsa iqtisodiy xavf yuqori bo‘lgan sharoitda muhim hisoblanadi, chunki u korxonaning tezkor moliyaviy imkoniyatlarini aniqroq aks ettiradi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilish darajasini ko‘rsatadi. Bu investorlar uchun eng muhim indikatorlardan biridir:

$$K_{mm} = \frac{O'z\ kapitali}{Jami\ aktivlar}$$

Mazkur ko‘rsatkichning me’yoriy qiymati odatda 0,5 dan yuqori bo‘lishi tavsiya etiladi. Bu korxonaning tashqi qarzlarga kam bog‘liqligini bildiradi [4].

Qarz va kapital nisbatini ifodalovchi moliyaviy leverage koeffitsienti ham muhim hisoblanadi:

$$K_{lev} = \frac{Majburiyatlar}{O'z\ kapitali}$$

Agar leverage darajasi yuqori bo‘lsa, korxona tashqi moliyalashtirishga haddan tashqari bog‘liq bo‘lib qoladi, bu esa moliyaviy xavfni oshiradi.

Rentabellik ko‘rsatkichlari korxona moliyaviy barqarorligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aktivlar rentabelligi (ROA) korxonaning jami aktivlaridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi:

$$ROA = \frac{Sof\ foyda}{Jami\ aktivlar} \times 100\%$$

$$ROE = \frac{Sof\ foyda}{O'z\ kapitali} \times 100\%$$

Kapital rentabelligi (ROE) esa aksiyadorlar kapitalining samaradorligini ifodalaydi:

Bu ko‘rsatkichlar investorlar uchun juda muhim bo‘lib, korxonaga investitsiya kiritish bo‘yicha qaror qabul qilishda asosiy mezon hisoblanadi [5].

Moliyaviy barqarorlikni baholashda sof aylanma kapital ko‘rsatkichi ham alohida ahamiyatga ega:

Musbat sof aylanma kapital korxonaning operatsion faoliyati uzluksiz davom etishini ta’minlaydi, manfiy ko‘rsatkich esa moliyaviy xavf mavjudligini bildiradi.

$$SAK = Joriy\ aktivlar - Qisqa\ muddatli\ majburiyatlar$$

Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanish ko‘rsatkichlari ham pul oqimlarining barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Debitorlik qarzlarining tez qaytishi korxonaning likvidligini oshiradi, kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish esa moliyaviy intizomni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi korxonalar rivojlanishining strategik yo‘nalishiga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyot ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir [6]. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish uzoq muddatda xarajatlarni qisqartirib, rentabellikni oshiradi.

Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish dastlab katta investitsiya talab qilsa-da, kelgusida energiya xarajatlarini sezilarli kamaytiradi. Bu esa moliyaviy natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, korxonaning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa moliyaviy boshqaruv tizimlari tubdan yangilanmoqda. ERP tizimlari, avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari, Big Data, sun’iy intellekt va blockchain texnologiyalari moliyaviy tahlilning aniqligi va tezkorligini oshirmoqda [7]. Elektron hisob-kitob tizimlari naqd pul oqimlarini samarali boshqarish, likvidlik darajasini nazorat qilish va moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Raqamlashtirish natijasida moliyaviy operatsiyalarda inson omili bilan bog‘liq xatolar kamayadi, real vaqt rejimida boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Korxona moliyaviy barqarorligini baholashda moliyaviy hisobning xalqaro standartlari — MHXS (IFRS) alohida ahamiyatga ega. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar asosida shakllantirishni ta’minlaydi va korxonaning moliyaviy holati haqida ishonchli, shaffof hamda taqqoslanadigan ma’lumotlarni taqdim etadi [8].

MHXS asosida aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlarning to‘g‘ri aks ettirilishi moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini aniq tahlil qilish imkonini beradi. Bu ayniqsa xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro standartlar bo‘yicha shakllangan hisobotlar investorlarda ishonch uyg‘otadi va korxonaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash faqat moliya yoki buxgalteriya bo‘limining vazifasi emas, balki umumiy korporativ boshqaruvning ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi zarur. Strategik boshqaruv, risk-menejment, ichki audit va raqamli monitoring tizimlari moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari korxonaning bugungi holatini emas, balki uning kelajakdagi rivojlanish istiqbolini ham belgilovchi muhim indikatorlardir. Likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik va leverage ko‘rsatkichlarining yuqori darajada bo‘lishi korxonaning investitsion jozibadorligini oshiradi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, raqamli

texnologiyalardan samarali foydalanish va MHXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobot yuritish esa ushbu barqarorlikni yanada mustahkamlaydi. Shu sababli zamonaviy korxonalar rivojlanish strategiyasida moliyaviy barqarorlik masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brigham E.F., Houston J.F. Financial Management: Theory and Practice. — Cengage Learning, 2021.

2. Gitman L.J. Principles of Managerial Finance. — Pearson Education, 2020.

3. Xasanov B.A. Moliyaviy tahlil. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

4. G‘ulomov S.S. Korxona iqtisodiyoti. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.

5. Van Horne J.C., Wachowicz J.M. Fundamentals of Financial Management. — Prentice Hall, 2020.

6. Akbaralievich, PhD Ermatov Akmaljon. "Theoretical Bases Of The Organization Of Private Capital Accounting In The Republic Of Uzbekistan." EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal 5, no. 2 (2021).

7. Akbaraliyevich, E. A. "xususiy kapitalning kompaniya rivojlanishidagi o ‘rni." таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали (2022): 255-260.

8. Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich (2024). Xususiy kapital tarkibiy elementlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida shakllantirish masalalari. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 533-540.

Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi o‘qituvchisi,
e-mail: iakbarjon@gmail.com
Mirzaolim Najmitdinov
Namangan davlat texnika universiteti, talabasi
e-mail: mirzaolimnajmitdinov@gmail.com

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning ahamiyati sodda va tushunarli tarzda bayon etilgan. Ushbu sohalarning zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy nazorat, texnologiya, ma’lumot, samaradorlik.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va bu jarayon korxonalar boshqaruv tizimini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari avtomatlashtirilib, ish samaradorligi oshmoqda. Dunyo iqtisodiyoti tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, zamonaviy texnologiyalarning o‘rni juda muhim hisoblanadi. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va bulutli texnologiyalar korxonalarga o‘z faoliyatini samarali boshqarish, tezkor qaror qabul qilish va bozor talablariga moslashish imkonini bermoqda.Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar korxonalarning raqobatbardoshligini oshirib, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Natijada iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida ularning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyot — bu zamonaviy texnologiyalar asosida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish jarayonidir. Bu sharoitda korxonalar faoliyatini samarali yuritish uchun aniq, tezkor va ishonchli ma’lumotlar zarur bo‘ladi. Shu sababli buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli infratuzilmaning kengayishi aholi va biznesning elektron muhitga o‘tishini ham tezlashtirmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, internetdan foydalanuvchi 10 yosh va undan katta aholi ulushi 2021 yildagi 76, 6 foizdan 2024 yil yanvar-sentabr holatiga 92, 7 foizga yetgan. Raqamli hukumat portalida esa 760 ta elektron xizmat mavjud bo‘lib, id.egov.uz tizimi foydalanuvchilari soni 11 998 000 taga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar elektron hujjat aylanishi, masofaviy hisob-kitob va raqamli nazorat mexanizmlarining kengayishi uchun mustahkam asos yaratadi.

To‘lov tizimlaridagi o‘sish ham buxgalteriya hisobi va audit oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Markaziy bankning 2024 yil yakunlari bo‘yicha hisobotida banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 7 279 trln so‘mga yetgani, clearing va settlement tizimi orqali o‘tgan to‘lovlar hajmi esa 100,

3 trln so‘mni tashkil etgani qayd etilgan. Elektron hamyonlar soni bir yil ichida 15, 6 milliondan 20, 6 millionga oshgan. Bu holat hisob ma’lumotlarini avtomatik qayta ishlash, operatsiyalarni tezkor tahlil qilish va raqamli audit izlarini kuchaytirishni zarur etadi.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining ayrim ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	Izoh
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijoratning YaIMdagi ulushi, %	2, 30	3, 06	3, 56	4, 08	Barqaror o‘sish kuzatilgan
AKT sektorining YaIMdagi ulushi, %	1, 61	1, 85	2, 17	2, 43	Raqamli infratuzilma kengaygan
Internetdan foydalanuvchi aholi ulushi, %	76, 6	83, 9	89, 0	92, 7	2024 yil yanvar-sentabr holati
EPIGUdagi elektron xizmatlar soni	–	–	–	760	Davlat xizmatlari raqamlashtirilgan
id.egov.uz foydalanuvchilari soni	–	–	–	11 998 000	Raqamli identifikatsiya kengaygan

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1]. Bu esa buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tizimining yanada takomillashuviga xizmat qilmoqda.Buxgalteriya hisobi har qanday korxona yoki tashkilot faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. U barcha moliyaviy operatsiyalarni qayd etadi, ya’ni qancha mablag‘ kelib tushgani, qayerga sarflangani va natijada qancha foyda yoki zarar olingani aniqlanadi [2]. Shu sababli buxgalteriya hisobi korxonaning moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

2-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning vazifalari

Yo‘nalish	Asosiy vazifasi	Raqamli iqtisodiyotdagi ahamiyati
Buxgalteriya hisobi	Operatsiyalarni qayd etish, guruhlash va hisobot tuzish	Elektron hujjatlar, onlayn to‘lovlar va ERP tizimlari asosida tezkor va aniq axborot beradi
Iqtisodiy tahlil	Moliyaviy natijalar, likvidlik, rentabellik va samaradorlikni baholash	Katta hajmdagi ma’lumotlar asosida real vaqtga yaqin boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga yordam beradi
Audit	Moliyaviy axborot ishonchliligini tekshirish va nazoratni baholash	Raqamli izlar, avtomatlashtirilgan nazorat va axborot xavfsizligi holatini baholash imkonini beradi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi kompyuter dasturlari orqali yuritilmoqda. Bu esa hisob-kitoblarni tezlashtiradi, xatolarni kamaytiradi va ma’lumotlarni saqlashni osonlashtiradi [3]. Natijada korxona rahbarlari o‘z vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy tahlil esa buxgalteriya hisobi orqali olingan ma’lumotlarni o‘rganish va ulardan xulosa chiqarish jarayonidir. U korxona faoliyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, foyda kamaygan bo‘lsa, iqtisodiy tahlil uning sabablarini aniqlaydi [4]. Bu orqali kelajakda bunday muammolarning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy texnologiyalar iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini kengaytirdi. Hozirgi kunda katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish mumkin. Bu esa korxonaga tezkor va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.Audit esa buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini tekshirish jarayonidir [2]. Audit orqali korxonadagi moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligi aniqlanadi. Bu esa nafaqat ichki tartibni mustahkamlaydi, balki investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham muhim hisoblanadi.Raqamli iqtisodiyot sharoitida audit jarayonlari ham zamonaviylashib bormoqda. Elektron tizimlar orqali tekshiruvlar tez va aniq amalga oshirilmoqda.Masalan, agar bir korxonada xarajatlar ortib ketsa, buxgalteriya hisobi orqali bu holat aniqlanadi, iqtisodiy tahlil uning sabablarini ko‘rsatadi, audit esa hisob-kitoblarning to‘g‘riligini tekshiradi. Bu uch tizim birgalikda ishlaganda korxona faoliyati yanada samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ushbu sohalar korxona faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va rivojlanishga erishishda muhim rol o‘ynaydi.Buxgalteriya hisobi orqali aniq ma’lumotlar olinadi, iqtisodiy tahlil yordamida bu ma’lumotlar chuqur o‘rganiladi, audit esa ularning ishonchliligini ta’minlaydi. Shu sababli ushbu yo‘nalishlarni o‘rganish har bir talaba uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

2.O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni

3.Abdukarimov D. – Buxgalteriya hisobi asoslari

4.Shodmonov Sh. – Iqtisodiyot nazariyasi

5.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi – lex.uz

6.O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy statistikasi.

Akbaraliyev Abbosbek Erkinjon o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti, magistratura talabasi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada 2023-yilgi iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2024-yil uchun belgilangan ustuvor yo‘nalishlar asosida O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish zaruriyati yoritilgan. Davlat aktivlarini xususiylashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro moliyaviy hamkorlik sharoitida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarga moslashtirilishi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, auditorlik nazorati, valyuta operatsiyalari va ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi, qayta baholash tartibi bo‘yicha amaliy jihatlar bayon etilgan. Maqola hisob tizimining huquqiy, metodik va institutsional asoslarini mustahkamlash bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga oladi.

Kalit sozlar: iqtisodiyoti, buxgalteriya, hisobi, bank xizmatlari, moliyaviy, hisobot, bozor, tahlil, hamkorlik, xalqaro standartlar.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy davlatlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek xalqaro aloqalar, savdo va tijorat munosabatlarini barqarorlashtirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan hisoblanadi. Bu jarayonda xususiylashtirish siyosati va uning soliq tizimiga ta’sirini kuchaytirish, xalqaro munosabatlarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy asoslarni shakllantirish orqali iqtisodiy muhitning barqarorligi va ekologik jihatlariga bo‘lgan e’tiborni oshirish talab etiladi. Mazkur yo‘nalishlar zamonaviy iqtisodiyot rivojida o‘z ifodasini topishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobi tizimi ushbu o‘zgarishlarga moslashishi tabiiy zaruratdir. Chunki iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri aks ettirish va ishonchli hisobotlarni shakllantirish jamiyat tomonidan buxgalteriya hisobiga yuklangan muhim vazifalardan biri hisoblanadi [1, 2]. Buxgalteriya hisobi iqtisodiyotda nafaqat axborot manbai, balki davlat qonunchiligining ijrosini ta’minlash, nazorat funksiyasini amalga oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mulkni saqlash va ko‘paytirish, foydani aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, investitsiyalarni yo‘naltirish, bozorga kirish va strategik rejalashtirish kabi jarayonlarda uning ahamiyati beqiyosdir [3]. Buxgalteriya hisobi ham hozirgi zamon talabi darajasida bo‘lishini quyidagi kompleks tadbirlar ta’minlaydi:

–buxgalteriya hisobi ni qonuniy tartibga solish va uning me’yoriy bazasini shakllantirish;

–uslubiy ta’minot bilan (yo‘riqnomalar, uslubiy ko‘rsatmalar, sharhlar);

– kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan;

– xalqaro professional tashkilotlar bilan hamkorlik;

– hisobni boshqarish tizimini qaytadan tashkil etish ilmi bilan.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarning birortasidan to‘liq foydalanilmasa bo‘lsa, maqsadga erishish bo‘lmaydi. Buxgalteriya hisobi davlat iqtisodiyotidan amalga oshiriladigan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

-O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning kapitalini rivojlantirish, xususiylashtirish, xususiy sektorda xo‘jalik yuritishning kirib kelishi imkoniyatlarini kuchaytirish, xususiy sektor faoliyatining samaradorligini baholash [4]];

–Xalqaro moliya bozorlari bilan iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, chet ellik hamkorlar bilan teng munosabatda aloqada bo‘lish;

–O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi sistemasining xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari bilan mos kelishini ta’minlash zarur bo‘lib, bu vaqtini va sifatli axborot yetkazish imkonini beradi.

Zaruriyat tug‘ilganda buxgalteriya hisobi xalqaro moliyaviy hisobot tizimining ham o‘zgarishiga va uni xalqaro standartlarga talab darajasida moslashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi sistemasining ham xalqaro standartlar talablari darajasida ko‘rinishi Respublikamiz rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, ushbu sistema uchun yangi eng avvalo xorijiy kompaniya bilan hamkorlik bilan aloqa qilish, auditorlik nazoratini tashkil qilish imkoniyatini beradi va qo‘shma korxonalar tuzish, xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni yaxshilashga katta imkoniyat beradi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida nazoratning yangi formalari tashkil qilinishi zarur. Shuningdek nazorat shakllaridan biri auditorlik nazoratidir. Chunki chet ellik hamkorlar uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar asosida taqdim qilinishi zarur. Xorij sarmoyadorlari mavjud korxonaning faoliyatini nazorat qilish maqsadida bir yilda bir marta xo‘jalik hisobi auditorlik tashkiloti tomonidan ushbu korxona faoliyatini tekshiriladi va ishning buxgalteriya hisobi tasdiqlanib xulosa beriladi. Xalqaro qoidalarga ko‘ra, quyidagilarga nazorat qilinadi:

- foyda va zararlar hisobi holati va uning talabga javob berishi;

- muomala hujjatlari to‘g‘riligini va ular uchun mulkchilikka rioya qilinishi va ta’sis etuvchi hujjatlar;

- buxgalteriya hisobi ning amaldagi holatga mos kelishi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida auditor talabiga ko‘ra qo‘shma korxonada buxgalteriya hisobi hujjatlarining mavjudligi va tovarlarning inventarizatsiyasi aniqlanadi hamda ularning haqiqatan mavjudligi tasdiqlanadi. Tekshirish natijalari asosida auditorlik tashkiloti buxgalteriya hisobi bo‘yicha auditorlik xulosasi beriladi va ishning moliyaviy hisoboti bilan qo‘shib topshiriladi. Banklarning tashqi iqtisodiy faoliyati tovar va xizmatlarni eksport-importiga mo‘ljallangan chet el valyutalarida amalga oshiriladigan bank operatsiyalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida tovar, xizmatlar sotish, norayezidentlar bilan norezidentlarning moliyaviy manfaatlari va boshqa har qanday chet el valyutasidagi operatsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Valyuta operatsiyalari — bu valyuta boyliklariga nisbatan qilingan mulkiy va boshqa huquqiy harakatlar bo‘lib, ular chet el valyutasida amalga oshiriladigan

hisob-kitoblar, to‘lovlar, pul o‘tkazmalari, eksport-import shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Valyuta operatsiyalari joriy va kapital xarakterdagi operatsiyalarga bo‘linadi. Joriy valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi: tovarlar va xizmatlarni eksport va import qilish, valyuta boyliklarining oldi-sotdisi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, intiglegulash mulkka bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq hisob-kitoblar to‘lov muddatini kechiktirmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan, savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan mablag‘larning, shu jumladan ish haqi, pensiya, aliment, meros pullarini o‘tkazish, shuningdek shunga o‘xshash boshqa operatsiyalar kiradi. Joriy xalqaro operatsiyalar va chet el valyutasini ular bilan bog‘liq holda sotib olish yoki sotish cheklovlarsiz amalga oshiriladi. Kapital xarakterga ega bo‘lgan valyuta operatsiyalariga joriy xalqaro operatsiyalar hisoblanmaydigan barcha operatsiyalar, shu jumladan: investitsiya faoliyatini amalga oshirish; kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish; ko‘chmas mulkni sotib olish va sotish; xorijiy davlatlardagi mablaglarni xisobvarokda va omonatlarga jalb etish xamda xorijiy davlatlarda mablaglarni xisobvarogda va omonatlarda joylashtrish kiradi.

Valyuta operatsiyalarining quyidagi turlari mavjud: “spot” bitimi — bu hisob-kitoblar shartnoma tuzilgandan keyin ikki ish kuni davomida, bitim tuzilgan sanada belgilangan kurs bo‘yicha amalga oshiriladigan bitimdir, “forvard” bitimi — bu shartnoma bo‘yicha hisob-kitob ikki kundan keyin ma’lum muddat ichida, u tuzilgan sanada belgilangan kurs bo‘yicha amalga oshiriladigan bitimdir; “svop” bitimi — bu ikki tomonlama davriy to‘lovlar majburiyatlarini oldi-sotdi operatsiyasi asosangan kelishuv bo‘lib, “spot” va “forvard” bitimlari kombinatsiyasini tashkil qiladi; “opsion” bitimi — belgilangan narx bo‘yicha valyutani sotib olish (opsion-koll) yoki sotish (opsion-put) huquqini beruvchi bitimdir. Opsion» bitimi bo‘yicha berilgan huquq ishlatilmasligidan qat’iy nazar, sotib oluvchi “opsion”ni sotuvchiga mukofot to‘laydi. Har oyning oxirida moliyaviy hisobotda qayd etish uchun qayta baholash natijasida ko‘rilgan foyda va zararlar aniqlanadi. Qayta baholash natijasida yangi qoldik so‘m qiymat kitoblari valyuta pozitsiyasi hisobvaraqining tegishli qoldig‘i bilan taqqoslanadi. Olingan farq qayta baholashdan keyingi foyda yoki zararni tashkil etadi va mos ravishda quyidagi buxgalteriya yozuvi asosida aks ettiriladi:

Dt 1101 “Valyuta pozitsiyasi” hisobvaraqlari

Kt 45401 “Spot” bitimi bo‘yicha xorijiy valyutalardagi foydam

Yoki

Dt 45401 “Spot” bitimlari bo‘yicha xorijiy valyutalardagi ko‘rilgan zararlar,

Kt 1101 “Valyuta pozitsiyasi” hisobvaraqlari.

Bunda so‘m bo‘yicha Bosh kitobdagi ma’lumotlar tegishli hisobvaraqni chet el valyutasi bo‘yicha Bosh kitobdagi valyuta pozitsiyasi hisobvaraqining yangi qoldig‘iga mos kelgunga qadar muntazam ravishda qayta baholanib turiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, xususiylashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash kabi jarayonlar buxgalteriya hisobi tizimining

samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar darajasiga moslashtirish, hisobotlarning aniqligi va shaffofligini ta’minlash orqali investorlar ishonchi mustahkamlanadi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligi oshadi, soliq tushumlari tizimli ravishda amalga oshiriladi. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobining huquqiy, metodik va amaliy asoslarini takomillashtirish, audit tizimini joriy etish, valyuta operatsiyalarini to‘g‘ri yuritish va qayta baholash amaliyotini xalqaro tajriba asosida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Takliflar:

1. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish: O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga mos kelishi ta’minlanishi lozim. Bu xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli hisobot tizimini yaratadi.
2. Auditorlik nazoratini institutsional asosda joriy qilish: Har bir yirik korxonada yillik auditorlik tekshiruvi majburiy etib belgilanishi, bu orqali hisobotlar xolis va haqqoniy aks ettirilishi ta’minlanadi.
3. Moliyaviy savodxonlik va kadrlar salohiyatini oshirish: Buxgalter va auditorlar uchun zamonaviy talablarga javob beradigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish natijalari (2015-yil). Toshkent, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Buxgalteriya hisobi tizimi va uni takomillashtirish yo‘nalishlari. Toshkent, 2016.
3. International Financial Reporting Standards (IFRS). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. IFRS Foundation, 2020.
4. Ajmatov M., Hasanov R. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va auditorlik nazorati. Toshkent, 2017.

Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich
TDIU, Buxgalteriya hisobi kafedrasi professori, i.f.d.,
“O‘zbekiston Oliy ta’limi a’lochisi”, r.dusmuratov@tsue.uz

TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIKNI PROGNOZLASH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI (Springeyt modeli asosida tahlil)

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalar to‘lovga qobiliyatsizligi, xususan bankrotlik ehtimolini prognozlash masalalari o‘rganilib, uning asosiy omillar ochib berilgan va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: to‘lovga qobiliyatsizlik, Springeyt modeli, bankrotlik xavfi, aylanma mablag‘, norma, normativ.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichi dinamik o‘zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy nochor korxonalar qatoriga kirib qolishlari hamda o‘z faoliyatlarini tugatishlari tabiiy hol hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika portali ma’lumotlariga ko‘ra 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida 31 295 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo‘lib, ularning faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarga nisbati 6,45%ni tashkil qiladi[1].

Kuchli raqobat va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida korxonalardan tuzilmasini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining tarkibini tezda diversifikatsiyalash talab qilinadi. Biroq, barcha korxonalar ham xo‘jalik yuritish sharoitlarining keskin o‘zgarishlariga tezda moslasha olmaydi hamda bu korxonalarning o‘z faoliyatlarini tugatishiga olib kelishi mumkin. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida 2023-yil davomida bankrot deb topish bilan bog‘liq ko‘rilgan 540 ta ishlarning 478 tasi yoki 88,5 foizi qanoatlantirilgan, 10 tasi yoki 1,9 foizini qanoatlantirish rad etilgan, 43 tasi yoki 8,0 foizi bo‘yicha ariza ko‘rmasdan qoldirilgan va 9 tasi yoki 1,7 foizi bo‘yicha ish yuritish tugatilgan (shundan 2 tasi kelishuv bitimi asosida) hamda 1 tasi yoki 1,1 foizi bo‘yicha sanatsiya qo‘llanilgan. Mazkur yilda qo‘zg‘atilgan bankrotlik ishlarining 18 tasi yoki 3,33 foizi sayyor sud majlislarida ko‘rib chiqilgan [2].

Ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda bankrotlikning oldini olish tahlili bo‘yicha xalqaro amaliyotda ilg‘or modellar mavjud. Jumladan, Ye.P.Tomilina, A.V.Agarkova, B.A.Dronin va boshqalardan iborat mualliflar jamoasi tomonidan bankrotlik ehtimolini baholashning omilli modellari quyidagicha turkumlangan: “1. AQSHda ishlab chiqilgan modellar: ikki omilli amerika modeli; Altmanning Z scheti modeli; Biver shkalasi; Tishou, Taffler modeli” [Ye.P.Tomilina i dr., 2016]

M.Q.Pardayev, I.I.Isroilov, J.I.Isroilovlar tomonidan xorij amaliyoti o‘rganilib, korxonalarning iqtisodiy nochorligi(bankrotlik holati)ni aniqlash usullari to‘rttaga turkumlangan» [M.Q.Pardayev va b., 2017].

Asosiy qism. Gordon L.V. Springeyt (Gordon LV Springate) tomonidan 1978-yilda E.Altman modeli va bosqichma-bosqich diskriminant tahlili asosida korxonaning to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) ehtimolini pronozlash modeli ishlab chiqilgan. Modelni ishlab chiqish jarayonida Springeyt eng yaxshi deb hisoblagan 19 ta moliyaviy koeffitsiyentlardan to‘rttasini tanlab olgan va Springeyt modelini tuzgan.

Springeyt modeli bo‘yicha bankrotlik ehtimolini baholash formulasi:

$$Z = 1{,}03 \times X_1 + 3{,}07 \times X_2 + 0{,}66 \times X_3 + 0{,}4 \times X_4, \qquad (1)$$

Bu yerda (MHXS bo‘yicha):

X_1 - Working capital / Total assets;

X_2 -Earnings before interest and taxes / Total assets;

X_3 - Earnings before taxes / Current liabilities;

X_4 -Sales / Total assets [A.Krылov, 2019]*

Ushbu modelni qo‘llash uchun, dastavval, uning tarkibiy elementlarini O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjatlariga muvofiqlashtiramiz. Ko‘rsatkichlar “Buxgalteriya balansi” (1 sh.) va “Moliyaviy natijalar

to‘g‘risida hisobot” (2 sh.) ma’lumotlari asosida hisob-kitob qilinadi. Ushbu formuladagi har bir koeffitsiyent korxona moliyaviy holatining ma’lum bir jihatini ($X_1 \ldots X_n$) va bankrotlik ehtimolining umumiy integral ko‘rsatkichi (Z) aks ettiradi. Shu bois, ularni hisoblash tartibini shakllantiramiz (1-jadval).

1-jadval

Springeyt modeli bo‘yicha bankrotlik ehtimolini hisoblash metodikasi

	MHXS bo‘yicha	O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjatlari**
1	Working capital/ Total assets	**(Joriy aktivlar, jami (1-sh. 390 satr) - Joriy majburiyatlar, jami (1-sh. 600 satr)) : Balans aktivi bo‘yicha jami (1-sh. 400 satr)**
2	Earnings before interest and taxes / Total assets	Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) (2-sh. 240 satr): Balans aktivi bo‘yicha jami (1-sh. 400 satr)
3	Earnings before taxes / Current liabilities	Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) (2-sh. 240 satr): Joriy majburiyatlar, jami (1-sh. 600 satr)
4	Sales / Total assets	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) sotishdan sof tushum (2-sh. 010 satr) : Balans aktivi bo‘yicha jami (1-sh. 400 satr)
	$Z = 1{,}03 \times X_1 + 3{,}07 \times X_2 + 0{,}66 \times X_3 + 0{,}4 \times X_4$	

***Eslatma:** *Springeyt modelining qiymati Z < 0,862 bo‘lganida korxona potensial bankrot hisoblanadi. Springeyt modeli 40 ta kompaniyaning ma’lumotlari asosida tekshirilganida to‘lovga qobiliyatsizligini oldindan aytishning aniqligi 92,5% ga yetgan.*

****Eslatma:** *koeffitsiyentlarni hisoblash tartibi O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2014-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni tio‘g‘risidagi Nizom” talablariga moslashtirilgan.*

So‘ngra ushbu metodika va monografik tadqiqot obyektimiz hisoblangan “TCT Fish Sluster” MCHJning 2022, 2023, 2024-yillar uchun moliyaviy hisobotlar ma’lumotlari asosida to‘lovga qobiliyatsizlik xavfini tahlil qilish uchun zarur bo‘ladigan birlamchi ma’lumotlarni shakllantiramiz (2-jadval).

2-jadval.

“TCT Fish Sluster” MCHJning 2022-2024-yillar uchun moliyaviy hisobotiga asosan bankrotlik xavfi tahlili uchun zarur birlamchi ma’lumotlar ***

№	**Ko‘rsatkichlar**	Manbasi	2023-y.	2024-y.	2025-y.
1.	Jami aylanma aktivlar	1sh. 390	65 307 446,6	72 803 723,8	81 361 762,81
2	Joriy majburiyatlar	1sh. 600	30 716 190,0	43 677 829,0	59 753 382,97

3	O‘z aylanma aktivlari	1q. - 2q.	34 591 256,6	29 125 894,8	21 608 379,84
4	Jami aktivlar	1sh. 400	103 231 549,0	107 643 262,7	111 668 771,71
5	Sotishdan sof tushum	2sh. 010	31 134 159,9	29 027 418,0	31 162 165,27
6	Soliqqa tortilgungacha foyda	2sh. 240	(2 236 771,2)	(7 381 957,2)	(4 706 506,44)

*** ***Eslatma:*** *Buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlari yil oxiriga holati olingan.*

Springeyt modeli bo‘yicha bankrotlik ehtimolini baholash formulasi (1) va to‘lovga qobiliyatsizlik ehtimolini tahlil qilish uchun shakllantirilgan birlamchi ma’lumotlar (2-jadval) asosida mazkur modelning tarkibiy elementlari va integral ko‘rsatkich(Z)ni aniqlaymiz (3-jadval).

3-jadval.

Springeyt modeli bo‘yicha bankrotlik ehtimoli(Z)ni hisoblash

(“TCT Fish Sluster” MCHJning 2022-2024-y.y. moliyaviy hisobotlari asosida)

		Hisoblash usuli	2023-y.	2024-y.	2025-y.
	1	**(Joriy aktivlar, jami (1-sh. 390 satr) - Joriy majburiyatlar, jami (1-sh. 600 satr)) : Balans aktivi bo‘yicha jami (1-sh. 400 satr)**	0,889	0,271	0,193
	2	Foyda solig‘ini to‘lagungacha foyda (zarar) (2-sh. 240 satr): Balans aktivi bo‘yicha jami (1-sh. 400 satr)	-0,022	-0,069	-0,042
	3	Foyda solig‘ini to‘lagungacha foyda (zarar) (2-sh. 240 satr): Joriy majburiyatlar, jami (1-sh. 600 satr)	-0,073	-0,169	-0,079
	4	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) sotishdan sof tushum (2-sh. 010 satr) : Balans aktivi bo‘yicha jami (1-sh. 400 satr)	0,302	0,269	0,279
	$Z = 1{,}03\times X_1 + 3{,}07\times X_2 + 0{,}66\times X_3 + 0{,}4\times X_4$ =		0,921	0,063	-1,031

Xulosa. Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarish korxonasi hisoblangan “TCT Fish Sluster” MCHJning 2022-yil yakuni bo‘yicha moliyaviy holati nisbatan yaxshi, ya’ni integral koeffitsiyent Z=0,921 bo‘dlib, bu Springeyt modelining chegaraviy qiymati Z < 0,862 dan yuqori (0,921 > **0,862**). Lekin, bu unchalik sezilarli ijobiy ko‘rsatkich emas, to‘lovga qobiliyatsizlik xavfi yaqinlashayotganligidan dalolat beradi.

2023-yil yakuni, ya’ni 1-yanvar 2024-yil holatiga kelib, to‘lovga qobiliyatsizlik koeffitsiyenti chegaraviy ko‘rsatkich(0,862)dan pasayib, 0,063ni

tashkil etgan va bu mezon ko‘rsatkichiga nisbatan kam (0,063 < 0,862), ya’ni korxona to‘lovka qobiliyatsiz, ya’ni bankrotlik holatiga tushib qolgan.

2024-yil yakuni, ya’ni 1-yanvar 2025-yil holatiga esa, bankrotlik koeffitsiyenti salbiy, ya’ni -1,031 ni tashkil etib, bu mezon ko‘rsatkichiga nisbatan juda kam, hatto salbiy (-1,031 < 0,862), ya’ni bankrotlik xavfi juda yuqori.

Bankrotlikning oldini olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- *o‘z aylanma kapitalini ta’minlash:* pul mablag‘lari, tovar-moddiy zaxiralar (xom ashyo va materiallar, xususan, ozuqa, o‘g‘it va b.);
- *aylanma kapital aylanuvchanligini oshirish:* omborlarlarda “o‘lik” zaxiralar to‘planib qolishi, debitorlik qarzlari oshib ketishi va o‘z vaqtida undirilmasligi, operatsion samaraning pastligini bartaraf etish;
- *fond qaytimi, materiallar qaytimi, mehnat unumdorligini oshirish:* asosiy vositalarni yangilash, biznes-jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va mahsulotlar tannarxini pasaytirish, rentabellikni oshirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlari bo‘yicha ilmiy asoslangan norma va normativlar ishlab chiqish, ular asosida haqqoniy texnologik kartalar va biznes reja tuzishni yo‘lga qo‘yish;
- xarajatlar hisobi, tezkor tahlili va boshqaruv tizimini ishlab chiqish hamda joriy etish tugallanmagan ishlab chiqarishni optimallashtirish va h.;
- baliq mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish hisobiga tayyor mahsulot va sotish hajmini ko‘paytirish;
- innovatsiyalarni joriy etish va texnologik jarayonlarni jadallashtirish (intensivlashtirish).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining statistika portali, 2024. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (yillik). https://siat.stat.uz/reports-filed/256/table-data
2. Insofsizlarcha harakat: soxta bankrotlik, uni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish yoxud sud boshqaruvchilarini mas’uliyati. https://uza.uz/uz/posts/insofsizlarcha-harakat-soxta-bankrotlik-uni-yashirish-va-qasddan-bankrotlikka-olib-kelish-yoxud-sud-boshqaruvchilarini-masuliyati_356207
3. Е.П.Томилина, А.В.Агаркова, Б.А.Дронин и др. Корпоративные финансы. Учебник. — Ставропол: АГРУС гос. аграрного ун-та, 2016. — 409 с.
3. M.Q.Pardayev, I.I.Isroilov, J.I.Isroilov. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. -T. 2017. 534 b.
5. А.Крылов. Прогнозная модель платежеспособности Спрингейта, http://anfin.ru/ prognoznaya-model-platezhesposobnosti-springejta/

Dusmuratov Raxmon Radjapbay o‘g‘li
Toshkent Vestminster xalqaro universiteti,
Akademik rivojlanish markazining
Raqamli ta’lim buyicha koordinatori, mustaqil tadqiqotchi,
rahmon.dusmuratov@gmail.com, (+99 897)774 48 23

HOVUZ BALIQCHILIGIDA AYLANMA MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH – INTENSIVLASHTIRISH OMILI

Annotatsiya. Maqolada aylanma kapitalning mazmuni va baliqchilik xo‘jaliklariga xos bo‘lgan xususisiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligiga ta’sir qiladigan omillar tahlil qilinib, ularning aylanuvchanligini tezlashtirish choralarini ko‘rishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aylanma kapital, me’yorlanadigan va me’yorlanmaydigan aylanma mablag‘lar, aylanuvchanligi, aylanish tezligi.

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari, xususan baliqchilik tarmog‘ini modernizatsiyalash ishlab chiqarish jarayonini aylanma mablag‘lar bilan ta’minlash va mavjudlaridan oqilona foydalanishini taqozo etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan: «baliqchilik tarmog‘idagi tashkilotlarning aylanma mablag‘larini to‘ldirish va ko‘paytirishga ko‘maklashish»[1] muhim vazifalar sifatida belgilandi.

Aylanma aktivlar va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir ilmiy qarashlar respublikamiz va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan biroz o‘rganilgan. Xususan, professor T.S. Malikov yozishicha: «aylanma kapital XYUS aylanma (o‘zgaruvchan, mobil) aktivlariga avanslashtirilgan kapital qiymatini o‘zida ifodalaydi. Bu kapital XYUS balansining «Aylanma aktivlar» deb nomlangan ikkinchi bo‘limida aks ettiriladi. Odatda, aylanma kapital quyidagi bir necha asosiy guruhlarga klassifikatsiya qilinadi:

takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishini hisobga olgan holda funksional mo‘ljallanganligi bo‘yicha;

shakllantirish va moliyalashtirish manbalariga ko‘ra;

likvidlilik darajasiga qarab va boshqa belgilariga muvofiq» [2].

Shuningdek, professor V.A. Chjen tahriri ostida chop etilgan «Язык бизнеса» lug‘atida berilgan ta’rfiga ko‘ra: «aylanma aktivlar (ingl. current assets) birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar buxgalteriya balansining aktivida aks ettiriladigan, me’yorlanadigan va me’yorlanmaydigan aylanma mablag‘lar»[3] hisoblanadi.

Professor N.P. Shulyak «aylanma mablag‘lar korxona mulklarini tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning holati va samarali foydalanish – korxona faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti»[4] deb hisoblaydi.

A.M. Babich va L.N. Pavlovalar tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra: «Aylanma mablag‘lar – korxona aktivlarining harakatchan (mobil) qismi bo‘lib, shuning uchun ularni moliyalashtirish ma’lum tarkibi va strukturasini saqlab

turishga qaratiladi» [5].

Asosiy qism. Ilmiy va o‘quv-uslubiy manbalar hamda amaliyotni o‘rganish natijalarini umumlashtirib, aylanma kapital(mablag‘lar)dan foydalanish samaradorligining hovuz baliqchiligi xo‘jaliklariga xos ko‘rsatkichlari shakllantirildi (1-jadval). Bular quyidagilar bilan tavsiflanadi: xom ashyo va materiallarning foydali ishlatilish koeffitsiyenti; xom ashyo va yarim fabrikatlardan tayyor mahsulot chiqishi; aylanma mablag‘larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti; aylanma mablag‘lar bir aylanishining o‘rtacha davomiyligi. Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish resurslarini sarflash normativini haqiqiysi bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

1-jadval

Toshkent viloyati Zangiota tumani «Damachi baliq» MCHJda aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi [23]

№	Ko‘rsatkichlar	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y	2025 y	2025 y. 2021 y.ga nisbatan	
							+ / -	%
1	Asosiy vositalar, hammasi yil oxiriga, ming so‘m	112400	78680	3176862	1217350	1217350	104950	83,1
2	Aylanma mablag‘lar, hammasi, ming so‘m:	79850	100519,5	191924,5	111574,5	330871,3	51021	14,4
3	-TMZlar, yil oxiriga hammasi, ming so‘m	44730	52500	116000	105650,6	324947,4	80217	26,5
4	sh.j: ishlab chiqarish zaxiralari	29015,7	34063,2	75302,3	68497,1	210926,5	181910	726,9
5	tugallanmagan ishlab chiqarish	15623,8	18436,7	40547,4	36883,0	113575,8	97952	726,9
6	tayyor mahsulotlar	90400	95000	150220	135200,6	445000	354600	92,3
7	- debitorlar jami	92217	79800	75923,9	5923,9	5923,9	-86293	93,6
8	- pul mablag‘lari	8302,5	0	0,6	0,6	0	-8302,5	100,0
9	Aylanma mablag‘lar-ning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	90335	100519,5	191924,5	151749,5	221222,9	130888	44,9
10	Aylanma kapital to‘g‘ri keladi (o‘rtacha yillik qiymati), ming so‘m: -1 ta o‘rtacha yillik ishchiga	3011,2	2956,5	4569,6	3613,1	4424,5	1413,29	6,9
11	- asosiy vositalar 1 so‘miga	0,7	1,2	0,06	0,09	0,2	-0,5	28,5
12	Xom ashyo va material-lardan foydalanish koeffitsiyenti, %	48,1	42,6	23,8	12,8	20,6	-27,449	57,1
13	Xom ashyo va yarim fabrikatlardan tayyor mahsulot chiqishi, %	49,5	55,3	77,2	78,1	73,0	23,5418	7,6
14	Sotishdan sof tushum, ming so‘m	418175	432767,3	188750	305000	171195,5	-246980	59,1
15	Aylanma mablag‘lar-	9,3	8,2	1,6	2,9	0,5	-8,822	94,4

[23] Toshkent viloyati Zangiota tumani «Damachi baliq» MCHJning yillik moliyaviy hisobotlari, statistik hisobotlari va joriy buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosidan dissertant tomonidan hisoblandi

	ning aylanuvchanlik koeffitsiyenti							
16	Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi o‘rta-cha davomiyligi, kun	39,2	44,5	228,1	125,8	730	690,8	1862, 2

Bu ko‘rsatkich fermer xo‘jaligida 4 424,5 ming so‘mni tashkil etgan ((111 575,1+330 871,3):2=221 222,9:50).

Aylanma kapitalning aylanuvchanlik koeffitsiyenti – mahsulot(tovar, ish, xizmat)larni sotishdan olingan bir yillik sof tushumning aylanma kapitalning yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati. Bu ko‘rsatkich 0,5 ni tashkil etgan (171 195,5 ming so‘m: 324 947,4 ming so‘m);

aylanma kapital bitta aylanishining o‘rtacha davomiyligi (kunlarda) – bu bir yildagi kunlar soni (365)ning aylanuvchanlik koeffitsiyenti (0,5) ga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich 730 kunni tashkil etgan (365 kun : 0,5).

Shuningdek, polikultura sharoitida karpsimon baliqlar yetishtirishga ixtisoslashagn to‘liq tizimli hovuz baliqchiligida aylanma kapital (mablag‘lar)dan foydalanish samaradorligini baholaydigan ko‘rsakichlar tizimi va ularni hisoblash uslubi tavsiya qilinadi:

1. *Xom ashyo va materiallarning foydali ishlatilish koeffitsiyenti* – yaylov hovuzlariga qo‘yilgan bir yillik (ikki yillik oborotda), ikki yillik (uch yillik oborotda) baliqlardan qancha dona tovar baliq chiqishi. Xususan, karp baliqlar chiqishi 85 % ni tashkil etgan [(742 500 sht/ga : 873 530 sht/ga) · 100].

2. *Xom ashyo va yarim fabrikatlardan tayyor mahsulotlar chiqishi* – qishlov hovuzlariga qo‘yilgan segoletkalardan bir yilliklar chiqishi. Masalan, karp uchun 75 % ni tashkil etgan [(1 294 118 d/ga : 1 725 490) · 100].

3. *Aylanma kapitalning aylanuvchanlik koeffitsiyenti* (aylanish tezligi) – mahsulot(tovar, ish, xizmat)larni sotishdan olingan bir yillik sof tushumning aylanma kapital yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati. Xususan, xo‘jalikda bu ko‘rsatkich 0,5 ni tashkil etgan (171 195,5 ming so‘m: 324 947,4 ming so‘m).

4. *Aylanma kapital bitta aylanishining o‘rtacha davomiyligi* (kunlarda) – bu bir yildagi kunlar soni (365)ning aylanuvchanlik koeffitsiyenti (0,5) ga nisbati sifatida aniqlanadi. Agar aylanish tezligi oshirilsa, ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan aylanma kapital summasi kamayadi.

5. *Aylanma kapital rentabelligi* – bu foydaning aylanma kapital yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati bo‘lib, foyzlarda ifodalanadi.

6. *Foyda normasi* – bu foydaning asosiy va aylanma kapital yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati bo‘lib, foizlarda ifodalanadi.

Taklif qilinayotgan ushbu uslub polikultura sharoitida karpsimon baliqlar yetishtirishga ixtisoslashgan to‘liq tizimli (uvildiriq olishdan tortib to tovar baliq ishlab chiqarishgacha bo‘lgan texnologiyani qamrab oladigan) xo‘jaliklarda ham hovuzlar turlari (o‘stirish hovuzlari, yaylov hovuzlari va b.) kesimida qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa. 1. Baliqchilikni intensivlashtirishga aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish, xususan ular aylanuvchanligini tezlashtirish, ishlab chiqarish vaqtini ham, muomala vaqtini ham qisqartirish yo‘li bilan erishish mumkin. Tarmoqni intensivlashtirish baliqlarning tez o‘sadigan zotlarini

qo‘llash, mahsuldorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va shu kabilar hisobiga ham bo‘lishi mumkin.

2. Aylanma mablag‘larning muomalada bo‘lish vaqtini qisqartirish baliq mahsulotlarini sotish tizimini takomillashtirish, baliqchilik xo‘jaliklari va xaridor tashkilotlar o‘rtasidagi shartnoma shartlariga rioya qilinishi muntazam nazorat qilish, debitor qarzlarni undirish choralarini ko‘rish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3. Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirishga ularning aylanuvchanligini tezlashtirishga xom ashyo, materiallar, yoqilg‘ilar va boshqa zaxiralardar foydalanishni yaxshilash hamda normativdan oshiqcha zaxiralarni qisqartish orqali erishiladi.

4. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning muhim yo‘li – mahsulotlarning materialsig‘imini pasaytirish, zaxiralardan tejamli va oqilona foydalanishdan iborat. Ushbu yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liqdir. Material sig‘imi ko‘rsatkichi mahsulotlar tannarxini tashkil etadigan moddiy xarajatlarning (ozuqa, o‘g‘it, yoqilg‘i, moylash materiallari va b.) ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги «Балиқчилик тармоғини бошқариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ 2939 -сонли Қарори, «Халқ сўзи», 2017 й., 87 (6781).

2. Маликов Т.С. Молия: хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009, - Б. 93.

3. Язык бизнеса. Под общей редакцией доктора экономических наук В.А. Чжена. Авторский коллектив. Ш.Р. Гафуров, В.И. Гугнин, С.Н. Аманов. «Шарк». 1995.-с.330.

4. Шуляк П.Н. Финансы предприятия: Учебник. 6-е изд., перераб. и доп. –М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2006. – с. 226

5. Бабич А. М., Павлова Л. Н. Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник. –М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2001. - с. 322.

Ablazov Nurillo Xusanboyevich
Qo‘qon universiteti, “Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrasi,
katta o‘qituvchi, e-mail: nurilloablazov1990@gmail.com

QURILISH KORXONALARIDA TOVAR MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI YURITISH.

Annotatsiya. Mazkur tezisda qurilish korxonalarida tovar-moddiy zahiralar hisobini yuritishning dolzarb jihatlari, xususan materiallar tabiiy kamayishi bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan. Tadqiqotda moddiy yo‘qotishlarning me’yoriy va nome’yoriy turlari ajratilib, ularning iqtisodiy mohiyati va buxgalteriya hisobida aks ettirilishi yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida qurilish materiallarining tabiiy kamayish me’yorlari o‘rganilib, mamlakatimiz amaliyotida

ushbu me’yorlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi aniqlangan. Muallif tomonidan tabiiy kamayish normalarini joriy etish orqali buxgalteriya hisobining aniqligi va shaffofligini oshirish, shuningdek qurilish obyektlari tannarxini asosli shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. qurilish korxonalari, tovar-moddiy zahiralar, buxgalteriya hisobi, tabiiy kamayish, me’yoriy yo‘qotishlar, nome’yoriy yo‘qotishlar, qurilish materiallari, tannarx, xarajatlar hisobi, moliyaviy shaffoflik

Kirish. Jamiyat taraqqiyotini va mamlakatlar qudratini yirik qurilish obektlarisiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda sifatli va arzon tannarxga ega bo‘lgan qurilish sanoatiga butun jahon muhtojdir. Qurilish obyektlarini tannarxini pasaytirgan xolda uning sifatini saqlab qolish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda, jumladan bu kabi muammolar O‘zbekiston qurilish sanoatida ham o‘z aksini topmoqda. Biz mazkur maqolada tabiiy kamayish me’yorlarini kengroq yoritib tahlil qilamiz.

Qurilish materiallarini qayta ishlash, saqlash yoki ishlab chiqarish jarayonida materialni bir qismini yo‘qotish xarajatlarni hisobga olishda moddiy yo‘qotishlar deb ataladi. Biz moddiy yo‘qotishlarni ikki qismga ajratishimiz mumkin:

- me’yoriy yo‘qotishlar
- nome’yoriy yo‘qotishlar.

Me’yoriy yo‘qotishlar: Muqarrar bo‘lgan yo‘qotishlar me’yoriy yo‘qotishlar deb ataladi. Me’yoriy yo‘qotishlarini to‘liq oldini olish mumkin emas, lekin cheklangan darajada nazorat qilinishi mumkin. Ushbu yo‘qotishlardan vujudga kelgan xarajatlar korxonaning umumiy xarajatlariga o‘tkaziladi. Me’yoriy yo‘qotishlarga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin:

- Bug‘lanish natijasidagi yo‘qotishlar
- Yuk ortish va tushirish natijasidagi vujudga keladigan yo‘qotishlar
- Materiyallarni ishlatish jarayonida va hokazo.

Nome’yoriy yo‘qotishlar. Ish faoliyatning samarasizligi, ehtiyotsizlik va boshqalar natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlar nome’yoriy yo‘qotishlar deb ataladi. Ushbu yo‘qotishlar foyda va zararlar hisobotlarida aks etadi. Nome’yoriy yo‘qotishlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

- buzilishlar natijasida;
- yong‘in, avariya, suv toshqini va h.k.;
- noto‘g‘ri saqlash natijasida;
- o‘g‘rilik va talon-taroj natijasida.

Shuning uchun rivojlangan bir qator mamlakatlarda materiallarni tabiiy kamayishi bo‘yicha normalar belgilangan. Bu normalar doirasida sodir bo‘lgan yo‘qotishlar qiymati albatta xarajatga olib boriladi. Mamlakatimiz me’yoriy – huquqiy xujjatlarida tabiiy kamayish normalari haqida bir qancha ma’lumotlar berilgan bo‘lsada, lekin bu normalarni tasdiqlangan varianti mavjud emas. Bu esa buxgalterlarda materiallar hisobini yuritishda bir qator muammolar keltirib chiqaradi.[9]

1-jadval.

Rivojlangan mamlakatlarda qurilish materiallarining o‘rtacha tabiiy kamayish darajasi.

Materiyalllar	Tabiiy kamayish me’yorlari (%)					
	AQSH	Xitoy	Buyuk Britaniya	Janubiy Koreya	Braziliya	Gong Kong
Turli g‘isht va bloklar	3.5	2.0	4.5	3.0	17.5	-
Beton	7.5	2.5	2.5	1.5	7.0	6.7
Gipsakarton	7.5	-	5.0	-	-	9.0
Oynak	-	0.8	-	6.0	-	2.3
Ohak	3.5	5.0	-	0.3	46.0	3.2
Miq	5.0	-	-	-	-	-
Plastik	5.0	5.0	-	-	21.0	8.0
Cherepitsa	6.5	-	5.0	2.5	87.0	6.3
Devor gul qog‘ozi	10.0	-	-	11.0	-	-
Taxta	16.5	-	6.0	-	32.0	45.0

Tadqiqotimiz davomida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan qurilish kompaniyalarida materiallar hisobini yuritish xolatini tahlil qildik. Ushbu tadqiqot turli turdagi qurilish loyihalarida tabiiy kamayish miqdorini aniqlash va pudratchilar nuqtai nazaridan tabiiy kamayish omillari va sabablarini aniqlash uchun o‘tkazildi. Lekin mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan qurilish tashkilotlarida tabiiy kamayish normalarini hisobga olish uslubiyoti mavjud emasligiga guvoh bo‘ldik. Tadqiqotimiz davomida mustaqil hamdo‘stlik davlatlarida tabiiy kamayish normalari mavjudligiga guvoh bo‘ldik.

XULOSA. Agar tabiiy kamayish me’yorlarini ishlab chiqib amaliyotga tadbiq qilsak natijada bir qancha quyidagi samaradorliklarga ega bo‘lamiz:

Birinchidan: Buxgalteriya hisobini yuritishda yana ham aniqlik va shaffoflikga erishamiz. Buning natijasida buxgalteriya hisobotlaridan tashqi va ichki foydalanuvchilarga mukammal ma’lumotlar taqdim etishimiz mumkin.

Ikkinchidan: Uzoq davom etuvchi qurilish obyektlarida xarajatlar hisobini yuritishda aniqlik va tannarxni shakllantirishda shaffoflikga erishamiz. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganidek “Qurilish obyektlarini tannarxini qisqartishimiz lozim, chunki 2021 yilda YAIMni salmoqli 6.6% qismini qurilish tashkil qilgan. Bundan tashqari aholigan uy-joy qurilish bugungi kunda trendga aylanib bormoqda. O‘zbekiston aholisini tez sur’atlarda o‘sib borishi yangi uy-joylarga ehtiyojini oshirmoqda. Aholini sifatli va arzon uy-joy bilan ta’minlash bugungi kunda mamlakatning eng katta muammosiga aylanib ulgurdi.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. //Zarafshon, 2017 yil 17 yanvar, 7(22.807)-son, 4-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 15-son, 142-modda.
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 2-IAS. https://www.iasplus.com/en/standards/ias/ias2
4. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to‘plami .–T.: “NORMA”, 2011.–360-bet.
5. Ambert, A.-M., Adler, P.A., Adler, P. and Detzner, D.F. (1995). Understanding and evaluating qualitative research. Journal of Marriage and the Family, 57(4): 879–893. https://doi.org/10.2307/353409
6. Ameh, O.J. and Daniel, E.I. (2013). Professionals' views of material wastage on construction sites and cost overruns. Organization, Technology & Management in Construction: An International Journal, 5(1): 747–757.

Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,
e-mail: ayubbek1988@gmail.com

ASOSIY VOSITALARNI ESKIRISHI VA ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida asosiy vositalarni eskirishi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirilishi masalasi ko’rib chiqilgan. Maqolada asosiy vositalarga eskirish hisoblash masalalari bo’yicha sohada keng ko’lamli ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy iqtisodchi olimlarni ilmiy yondoshuvlari tahlil qilingan. Bundan tashqari asosiy vositalarni korxonalar faoliyatidagi o’rni va ahamiyati borasida fikr-mulohazalar berilgan hamda ulardan samarali foydalanish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Asosiy vositalar, korxonalar, eskirish, ilmiy yondashuvlar, xarajatlarni taqsimlanishi, xalqaro standartlar, amortizatsiya hisoblash usullari, jadallashtirilgan amortizatsiya usuli, to’g’ri chiziqli usul, daromad, foyda.

Kirish. Bugungi kunda xar qaysi sohani barqaror faoliyat olib borishida asosiy vositalarni o’rnini alohida e’tirof etish lozim. Shu o’rinda asosiy vositalarni kelib tushishi, unga eskirish hisoblash va hisobdan chiqarish jarayonlarini qat’iy hisobini va doimiy nazoratini olib borish shart va bu korxonalarni samarali ishlashlari uchun muhimdir.

O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 5-sonli “Asosiy vositalar” nomli BHMSga muvofiq asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi birligi bo’lib inventar obyekti hisoblanadi. Asosiy vositalarning inventar obyekti sifatida - barcha qurilmalari va jihozlariga ega bo’lgan obyekt yoki muayyan mustaqil vazifalarni bajarish uchun mo’ljallangan alohida konstruktiv asosdagi buyum yoxud butun bir yaxlitlikni ifodalovchi va muayyan ishlarni bajarish uchun mo’ljallangan konstruktiv jamlangan buyumlarning alohida majmui tan olinadi. Konstruktiv jamlangan buyumlarning majmui - umumiy moslamalarga va jihozlarga, umumiy boshqaruvga ega, bir poydevorda qurilgan, natijada

majmuaga kiruvchi har bir buyum o’z vazifasini mustaqil ravishda emas, balki faqatgina majmua tarkibida bajara oladigan bir yoki turli maqsadlarga mo’ljallangan bitta yoki bir nechta buyumlardir.

Buxgalteriya tamoyillariga muvofiq, asosiy vositalarning qiymati ularni taxmin qilinayotgan foydalanish muddati davomida, bu aktivlar foyda keltiradigan hisobot davri mobaynida teng ravishda tasimlanishi (hisobdan chiqarilishi) kerak. Bu jarayon amortizatsiya (eskirish) deb ataladi. Amortizatsiya xaqikatdan ham asosiy vositalarni yangilovchi ajratmalar hisoblanib, vositaning iste’molga to’liq sarflanishi natijasida ular yangilanadi.

Asosiy qism. Asosiy vositalarni ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanishi, iste’mol qilinishi amortizatsiya ajratmalari so’mmasi miqdorida amalga oshiriladi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash va uning tegishli tartibi iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Olimlarni ayrim mulohazalari bilan tanishib chiqamiz. Masalan, iqtisodchi olimlardan N.Beluxaning ta’kidlashicha, “Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash balans qiymatiga nisbatan xar bir guruhlari bo’yicha alohida belgilangan yagona normalar asosida hisoblanadi”, deya fikr bildirgan.

Tadqiqotchi olim Professor N.P.Kondrakovning yozishicha, “Asosiy vositalarni boshlang’ich qiymatiga nisbatan hisoblanadigan amortizatsiya so’mmasi normalari xukumat tomonidan tasdiqlangan yagona normalar asosida hisoblanadi”[2] deya mulohazalar bildirgan. Shuningdek asosiy vositalar ishlatiladigan tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tannarxiga kiritiladi, degan fikrlarni ham bildirgan.

Mazkur yo’nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan boshqa olimlar tomonidan, ushbu soxada qo’yidagicha fikr bildirilgan: “Hozirgi vaqtda asosiy vositalarga amortizatsiya yillik normasi markazlashtirilgan xolda (odatda xukumat tomonidan) tasdiqlanadi va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar hamma korxonalar uchun yagona hisoblanadi”[3]. Demak, ushbu yo’nalish olimlari yondashuvlariga ko’ra asosiy vositalarga eskirish, ya’ni amortizatsiya so’mmalari xukumat tomonidan tasdiqlanadi, degan xulosalarni olish mumkin.

Turli mulkchilik shakllariga asoslangan xozirgi iqtisodiyotda asosiy vositalardan samarali foydalanish xamda mexnat unumdorligini oshirish yalpi daromad salmog’ini oshirish hozirgi iqtisodiyotning asosiy yo’nalishlaridan biridir. Bundan unumli foydalanish korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tannarxini pasaytirish ularni hisobga olinadigan daromad manbalarini oshirish imkoniyati yaratiladi. Asosiy fondlar ishlab chiqarishda asosan ishlab chiqarish qurollari sifatida foydalaniladi.

Asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summasi asosiy vositalar qaysi tarmoqda ishlatilsa, asosiy vositalarning bajargan ishining miqdoriga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yoki xizmatning tannarxiga o’tkaziladi. Asosiy vositalarning bajargan ishini hisobga olish ularning turlariga qarab turli xil bo’lishi mumkin. Masalan, yuk avtotransportlari uchun tonna/km. Traktorlar uchun shartli gektar paxta terish, g’alla yig’ib olish mashina kombaynlar uchun o’rib olingan xosillar va xakozo. Asosiy vositalardan foydalanishda ularni bajargan ishlarini

tannarxini aniqlash muxim axamiyatga ega bo'lgani sababli eskirish xarajatlarini to'g'ri hisobga olish buxgalteriya hisobining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy vositalarni amortizatsiya so'mmasi bajargan ishiga mutanosib ravishda taksimlanadi. Eskirish so'mmasi xam shu mutanosiblikda ortib boradi. Jadallashtirilgan usulda amortizatsiya hisoblashning qulayligi shundaki, xammaga ma'lum bo'lgandek asosiy vositalar yangi paytda yaxshi ishlaydi. Suning uchun xam xorijiy mamlakatlarda xizmat muddati sonlar yiindisini olib eng oxirgi yildagi yilni sonlar yiindisiga bo'lib birinchi yilga yozadi.

Jadallashtirilgan amortizatsiya hisoblaganda texnika taraqqiyoti va fan yutuqlari evaziga ishlab chiqarilgan yangi texnika yaratib, olish uchun boshqa usulga nisbatan tezroq sharoit yaratiladi yoki asosiy vosita o'zining qiymatini jadallashgan usulda qoplaydi.

Bunday usul xo'jaliklarda fan va texnika yutuqlarini qo'llashda yangi texnikalarni sotib olishda foydalaniladi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning to'g'riligini tekshirgan paytda xar bir xo'jalik va korxonada asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usularini tekshirib ko'radi, buning uchun xo'jalik va korxonalar amortizatsiya hisoblash vedomostida amortizatsiya usulini qaysi usuldan foydalanganligini eslatmada ko'rsatish kerak.

Asosiy vositalarning eskirishini hisoblash (5-BXMS) "Asosiy vositalar" nomli Buxgalteriya hisobining milliy standartida belgilangan me'yor va usullar asosida amalga oshiriladi.

0211-0290 schyotlarda mulkchilik huquqi korxonaga tegishli bo'lgan asosiy vositalarning eskirishi hisobga olinadi. Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish summasi tegishli asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning (0200) kreditida, xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda olib boriladi.

Ijaraga beruvchi korxonalar joriy ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summasini tegishli asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning (0200) krediti va 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyotining debetida aks ettiradilar. Korxona mulki bo'lgan asosiy vositalarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, uzoq muddatli ijaraga berish, kamomad yoki buzilish natijasida hisobdan chiqarishda ularga hisoblangan eskirish summasi tegishli asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning (0200) debetidan 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyotining kreditiga hisobdan chiqariladi.

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, asosiy vositalarga eskirish buxgalteriya hisobi milliy standartlarida belgilangan usullardan biri bo'yicha yuritilishi mumkin. Lekin soliqqa tortishda, soliq bazasini aniqlashda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan usul bo'yicha yuritilishi kerak.

Mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar mulk egasi o'ziga tegishli asosiy vositadan samarali foydalanish maqsadida xar bir asosiy vosita haqida uning ish bilan ta'minlash darajasi to'g'risida xar doim ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bu ma'lumot bilan buxgalteriya hisobi ta'minlaydi. Shuning uchun ham xar bir asosiy vositalar uchun alohida kartochkalar ochilib asosiy vositaning balans qiymati

eskirish tamirlash xarajatlari bajargan ishini hisobga olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti. 5-sonli “Asosiy vositalar” nomli BHMS.

2. Кондраков Н.П. Бух. учет учебноэ пасобие. М.: «Финансы и статистика» 1996 116-117 б.

3. Безруких П.С. “Бух. учет в промышленност. М. Финансы и статистика. 1997. 576-583 б.

4. Karimov A., Ibragimov A., Rizaev N. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. Darslik. - T.: TMI. «Iqtisod-Moliya», 2020 y.

5. Бухгалтерская (финансовая) отчетност; Учеб, пособие / Под ред. проф. Л.В. Цоколова. М.: Магистр, 2009.

6. Ergasheva SH, Ibragimov A, Rizaev N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma. - T.: TDIU. «IQTISODIYOT», 2019 y. - 321 b.

7. H. Morgan, Financial Reporting and Accountability, 5th Edition, McGraw Hill. 2018

8. Cengage Learning, G., & Gowthorpe, C. (2020). BUSINESS ACCOUNTING FINANCE 5E. Cengage Learning.

9. Christensen, T. E., Cottrell, D. M., & Budd, C. (2018). Advanced Financial Accounting. McGraw-Hill Education.

10. G. (2021). PwC’s Manual of accounting IFRS 2021. Tolley.

11. International Ltd, & Ltd, P. K. F. I. (2020). Wiley Interpretation and Application of IFRS Standards 2020. Wiley

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti
"Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti
Abdusalomova Ziynatbegim Otabek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi
zabdusalomova48@gmail.com ,+998 93 193 41 14

BUXGALTERIYA HISOBI VA MIKROIQTISODIY TAHLIL INTEGRATSIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning integratsiyasi korxona boshqaruvidagi ahamiyati yoritilgan. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy axborotni tizimli shakllantirish manbai bo‘lsa, mikroiqtisodiy tahlil ushbu ma’lumotlar asosida korxona faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ikkala yo‘nalishning birlashuvi qaror qabul qilish jarayonlarini samarali qilish, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirishga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxgalteriya hisobi, mikroiqtisodiy tahlil, integratsiya, iqtisodiy axborot, xarajatlar tahlili, foyda, korxona boshqaruvi, qaror qabul qilish, moliyaviy tahlil.

KIRISH. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish tobora murakkablashib bormoqda [1]. Raqobatning kuchayishi, resurslarning cheklanganligi hamda iste’molchilar talabining tez o‘zgarishi korxonalarni aniq, tezkor va asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilishga majbur etmoqda. Bunday sharoitda ishonchli va tizimli iqtisodiy axborotning ahamiyati keskin ortadi .Buxgalteriya hisobi korxona faoliyatiga oid barcha moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalarini qayd etuvchi, umumlashtiruvchi va tartibga soluvchi asosiy axborot tizimi hisoblanadi. U korxonaning moliyaviy holati, aktivlari, majburiyatlari, daromad va xarajatlari haqida to‘liq ma’lumot beradi [2]. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi faqat ma’lumotlarni yig‘ish va qayd etish bilan cheklanib qolmay, balki ularni tahlil qilish uchun mustahkam axborot bazasini ham yaratadi.

Mikroiqtisodiy tahlil esa aynan korxona darajasida iqtisodiy jarayonlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimal darajaga yetkazish masalalarini hal etadi. Ushbu tahlil orqali ishlab chiqarish hajmi, narx shakllanishi, talab va taklif muvozanati hamda rentabellik darajasi kabi muhim ko‘rsatkichlar baholanadi [6].Shu nuqtai nazardan qaraganda, buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy-amaliy yo‘nalishlardir. Buxgalteriya hisobi mikroiqtisodiy tahlil uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlarni taqdim etsa, mikroiqtisodiy tahlil ushbu ma’lumotlarni chuqur qayta ishlash orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [3].So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va sun’iy intellektning rivojlanishi buxgalteriya hisobi va tahlil jarayonlarini yanada integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Natijada real vaqt rejimida tahlil qilish, prognozlash va strategik rejalashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning integratsiyasining korxona boshqaruvidagi ahamiyatini ochib berish hamda ushbu yondashuvning amaliy samaradorligini baholashdan iborat.

Keltirilgan jadval buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil integratsiyasini o‘rganishda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlarning tizimli tasnifini aks ettiradi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tadqiqotda turli usullar bir-birini to‘ldiruvchi tarzda qo‘llanilib, kompleks tahlilni amalga oshirishga xizmat qilgan (1-jadval).

Tadqiqot jarayonida buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil integratsiyasining korxona faoliyatiga ta’siri har tomonlama o‘rganildi va quyidagi asosiy natijalar aniqlandi.

Birinchidan, buxgalteriya hisobi mikroiqtisodiy tahlil uchun ishonchli va tizimli axborot manbai ekanligi tasdiqlandi. Korxonada shakllantiriladigan moliyaviy hisobotlar, jumladan, balans, foyda va zararlar hisobi hamda pul

oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil jarayonining asosiy bazasini tashkil etadi. Ushbu ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, iqtisodiy qarorlar yetarli darajada asoslanmagan bo‘lishi mumkin.

1-jadval

Integratsion tahlil metodlari tavsifi

Tahlil yo‘nalishi	Qo‘llanilgan usul	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
Buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlilni solishtirish	Taqqoslash usuli	Ikkala tizimning vazifalari, funksiyalari va maqsadlari o‘zaro taqqoslandi	Ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi
Tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash	Tizimli tahlil	Buxgalteriya ma’lumotlarining tahlil jarayoniga ta’siri o‘rganildi	Integratsiya darajasini aniqlash va boshqaruvni yaxshilashga yordam beradi
Moliyaviy ko‘rsatkichlarni baholash	Statistik tahlil	Xarajatlar, daromadlar va foyda ko‘rsatkichlari tahlil qilindi	Korxona samaradorligini aniqlash imkonini beradi
Qaror qabul qilish jarayonini o‘rganish	Modellashtirish usuli	Iqtisodiy qarorlar qabul qilishning nazariy modeli ishlab chiqildi	Optimal strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi
Xarajat va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlik	Funksional tahlil	Xarajatlar va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi	Foydani maksimal darajaga oshirish imkonini beradi
Axborot oqimlarini tahlil qilish	Analitik yondashuv	Buxgalteriya ma’lumotlarining shakllanishi va uzatilishi o‘rganildi	Axborot sifati va tezkorligini oshiradi
Raqamli tizimlar ta’sirini baholash	Empirik tahlil	Zamonaviy texnologiyalar asosida integratsiya samaradorligi o‘rganildi	Avtomatlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi

Ikkinchidan, mikroiqtisodiy tahlil buxgalteriya ma’lumotlarini chuqur qayta ishlash orqali ularni amaliy boshqaruv qarorlariga aylantirishi aniqlandi. Ya’ni, oddiy statistik ko‘rsatkichlar tahlil orqali iqtisodiy mazmun kasb etadi va ular asosida ishlab chiqarish hajmini oshirish, narx siyosatini takomillashtirish yoki xarajatlarni qisqartirish kabi qarorlar qabul qilinadi.

Uchinchidan, integratsiyalashgan yondashuv korxonada xarajatlarni samarali boshqarish imkonini berishi isbotlandi. Xarajatlar tarkibini tahlil qilish orqali ortiqcha yoki samarasiz sarf-xarajatlar aniqlanadi va ularni optimallashtirish choralari ishlab chiqiladi. Natijada ishlab chiqarish tannarxi pasayadi va korxona foydasi oshadi.

To‘rtinchidan, foyda va rentabellik ko‘rsatkichlarini oshirishda buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlilning o‘zaro uyg‘unligi muhim omil ekanligi kuzatildi. Integratsiya natijasida korxona daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi muvozanat aniqroq baholanadi, bu esa maksimal foydaga erishish imkonini yaratadi.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari integratsiya jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi aniqlangan. Zamonaviy dasturiy vositalar yordamida ma’lumotlar real vaqt rejimida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi, bu esa boshqaruv qarorlarini tez va aniq qabul qilish

imkonini beradi.Shuningdek, tadqiqot davomida integratsiyaning quyidagi amaliy afzalliklari ham aniqlandi:

- iqtisodiy axborotning aniqligi va ishonchliligi oshadi;
- qaror qabul qilish jarayonida subyektivlik darajasi kamayadi;
- resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi;
- korxonaning bozor sharoitlariga moslashuvchanligi kuchayadi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, integratsiyani to‘liq joriy etish uchun yuqori malakali mutaxassislar zarurligi, dasturiy ta’minot xarajatlarining yuqoriligi hamda ayrim korxonalarda axborot tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillar mavjud.Umuman olganda, olingan natijalar buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil integratsiyasi korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat joriy faoliyatni yaxshilash, balki uzoq muddatli strategik rivojlanishni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil integratsiyasining korxona boshqaruv tizimidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur ikki yo‘nalish an’anaviy ravishda alohida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, zamonaviy iqtisodiy sharoitda ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda [9]. Buxgalteriya hisobi tomonidan shakllantiriladigan moliyaviy axborotning aniqligi va ishonchliligi mikroiqtisodiy tahlil natijalarining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli axborotning o‘z vaqtida va to‘g‘ri shakllantirilishi integratsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Mikroiqtisodiy tahlil buxgalteriya ma’lumotlarini chuqur qayta ishlash orqali ularni amaliy boshqaruv qarorlariga aylantiradi. Ushbu jarayon rahbariyatga nafaqat mavjud holatni baholash, balki kelajakdagi iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish imkonini ham beradi [6]. Natijada korxonada strategik rejalashtirish darajasi oshadi va bozor sharoitlariga moslashuvchanlik kuchayadi. Integratsiya sharoitida xarajatlar tarkibi va daromadlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqroq tahlil qilinadi, bu esa resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi ushbu integratsiya jarayonini sezilarli darajada jadallashtirmoqda. Avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari va analitik platformalar yordamida ma’lumotlar real vaqt rejimida qayta ishlanib, tezkor tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu holat boshqaruv qarorlarini qabul qilishda vaqt omilini qisqartirib, ularning aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, integratsiya jarayonini amalga oshirishda ayrim muammolar ham mavjudligi kuzatiladi. Jumladan, ko‘plab korxonalarda texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy dasturiy ta’minotlarning yuqori xarajat talab etishi hamda buxgalteriya va iqtisodiy tahlil sohalarini birgalikda chuqur biladigan mutaxassislar yetishmasligi ushbu jarayonni sekinlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, ayrim holatlarda axborot almashinuvi tizimining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi mavjud ma’lumotlardan to‘liq foydalanish imkonini cheklaydi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil o‘rtasidagi integratsiya zamonaviy korxona boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unlashuvi iqtisodiy axborotning nafaqat shakllanishi, balki uning chuqur tahlil qilinishi va samarali boshqaruv qarorlariga aylantirilishini ta’minlaydi.Buxgalteriya hisobi tomonidan taqdim etiladigan ishonchli va tizimli ma’lumotlar mikroiqtisodiy tahlil uchun mustahkam asos yaratadi. O‘z navbatida, mikroiqtisodiy tahlil ushbu ma’lumotlarni iqtisodiy mazmun bilan boyitib, korxonaning moliyaviy holatini baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va foydani maksimal darajaga yetkazishga xizmat qiladi. Shu tariqa, integratsiya jarayoni korxona faoliyatini kompleks va har tomonlama boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llash orqali xarajatlarni optimallashtirish, iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish hamda rentabellik darajasini oshirish mumkin. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining joriy etilishi ushbu jarayonni yanada tezkor va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatining mavjudligi esa strategik va operativ qarorlar sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, integratsiyani to‘liq amalga oshirish uchun muayyan shart-sharoitlar zarurligi aniqlangan. Xususan, zamonaviy texnik infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda axborot tizimlarini takomillashtirish muhim vazifalar qatoriga kiradi. Ushbu omillar ta’minlangandagina integratsiya jarayonidan maksimal samaraga erishish mumkin bo‘ladi.Umuman olganda, buxgalteriya hisobi va mikroiqtisodiy tahlil integratsiyasi korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida" (yangi tahriri). O‘RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel.
2. Abdukarimov I.T., Pardaev M.Q. Moliyaviy hisobot tahlili. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019. – 548 b.
3. Vahobov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2017.
4. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Darslik. – Toshkent: "Akademiya", 2020.
5. Pardaev M.Q., Ismanov I.N. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Toshkent: "Cho‘lpon", 2015.
6. Шеремет А.Д. Теория экономического анализа: Учебник. — М.: ИНФРА-М, 2021. — 389 с.

Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich,
Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,
Iqtisodiyot fakulteti, «Buxgalteriya hisobi va soliq» kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD), Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: amirbek383@mail.ru

TANNARX HISOBLASHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada tannarx hisoblashning tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, baliqchilik xo'jaliklarida lichinkalar va chavoqlar tannarxi alohida-alohida aniqlanishi uchun uslubiy jadvallar, formulalar va hisob-kitob tartibi tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: tannarxi, tannarxi obyektlari, tannarxi birliklari, lichinkalar tannarxi, chavoqlar tannarxi, uslubiy jadvallar.

Kirish: Amaliyotda, baliqchilik xo'jaliklarida mahsulot tannarxini, tannarx obyektlari va birliklari bo'yicha hisob-kitob qilish yo'lga qo'yilmagani kuzatilmoqda. Xususan, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishining turli bosqichlarida lichinka va chavoq baliqlar bo'yicha alohida tannarx hisoblanmasligi natijasida mahsulot bahosini aniq belgilash imkoniyati yo'qligi kuzatilmoqda.

Baliqchilik xo'jaliklarida lichinkalar tannarxi, chavoqlar tannarxi, segoletkalar tannarxi alohida hisoblash mahsulot tannarxini aniq belgilash imkonini beradi. Shu bois, baliqchilik mahsuloti tannarxini hisoblashning tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Asosiy qism: Iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlarida mahsuloti tannarxini hisoblashning tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim A.Bashirov va bir qator iqtisodchilar fikriga ko'ra, «kalkulyatsiyalash obyekti deganda har xil tayyorgarlik darajasidagi ma'lum iste'mol qiymatidagi mahsulot tushunilib, uning tannarxi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni bilish uchun hisoblanadi. Bu yerda shuni ta'kidlash zarurki, mahsulot tushunchasining mazmuni o'zini bir tomondan iste'mol jarayonida, boshqa tomondan- ishlab chiqarish jarayonida namoyon qiladi»[2, 52-b].

P.A.Lunin «Tannarx – buxgalteriya hisobining markaziy kategoriyasi» [4, 41-b]deb takidlagan.

Mamlakatimiz olimlari A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Quziev, va N.Rizaevlar yozishicha: «Amalda kalkulyatsiya va xarajatlar hisobi obyektlari tez-tez bir-biriga mos kelib turadi. Bunday holatda mahsulot birligi tannarxini hisoblash uchun obyekti bo'yicha xarajatlarning umumiy summasi tayyorlangan buyumlar miqdoriga bo'linadi»[3, 323-b].

X.N.Abdullaevning yozishicha «Nazariy jihatdan olib olib qaraganda, tannarxga me’yordagi ishlab chiqarish xarajatlari kiritilishi kerak, lekin amaliyotda xomashyo va materiallar, yoqilg‘i va ehtiyot qismlarning me’yordan ortiqcha sarfi mavjud. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi avtomobil transporti korxonalarida ham xizmatlar tannarxini aniqlash va ular hisobini to‘g‘ri tashkil qilish uchun xarajatlarning paydo bo‘lish o‘rni bilan javobgarlik markazlarini to‘g‘ri aniqlab olish katta ahamiyatga ega»[1, 11-b].

Baliqchilik mahsulotlari tannarxini aniq va to‘g‘ri hisoblash uslublarini ishlab chiqishda, tannarx obyektlari hamda hisob birliklarini ilmiy va amaliyot nuqtai nazaridan to‘g‘ri shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tannarx obyektlarini belgilashda mahsulot turlari, ularning ishlab chiqarish bosqichlari va texnologik jarayonlarini inobatga olinishi zarur. Shuning uchun xarajatlar hisobini tashkil etish va yuritish bo‘yicha tayyorlangan takliflarimiz hamda baliqchilik tarmog‘ining tashkiliy-texnologik, biologik va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda karpsimon baliqlar yetishtirishga ixtisoslashgan polikulturadagi to‘liq tizimli xo‘jaliklar uchun tannarx obyektlari va birliklarini quyidagicha tasniflaymiz (1-jadval).

1-jadval

Polikulturadagi to‘liq tizimli xo‘jaliklarda mahsulotlar tannarxini hisoblash obyektlari va birliklari[24]

Xo‘jalik obyekti	Tannarx obyektlari	Tannarx birliklari
To‘liq tizimli xo‘jalikda karpsimon baliqlar yetishtirish	Uvildiriq(ikra)	1 kg
	Lichinkalar	1000 000 dona
	Chavoq(malk)lar	1000 dona
	Segoletkalar	1kg
	Bir yillik baliqchalar	1s
	Ikki yillik baliqlar*	1s
	Sotiladigan (tovar) baliqlar	1s
	Mahsuldor baliqlar	1 dona

* Eslatma: agar ishlab chiqarish texnologiyasi bo‘yicha mavjud bo‘lsa.

Lichinkalar tannarxini aniq va ishonchli hisob-kitob qilish uchun «Lichinkalarni o‘stirish hovuzlariga o‘tkazish to‘g‘risida hisobot» ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ushbu hisobot ma’lumotlariga muvofiq tannarxni hisoblash uchun mahsuldor baliqlarni saqlash va voyaga yetmagan baliqlarni saqlash hovuzlariga qilingan jami xarajatlar aniqlanadi. Olingan summa o‘tkazilgan lichinkalar miqdoriga bo‘linib, 1000 000 donasining tannarxi aniqlanadi.

[24] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

Chavoqlar tannarxini aniqlash uchun esa, «O‘stirish hovuzlaridan chavoqlarni ovlash hisoboti» shaklini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ushbu hisobotda lichinkalarni qiymati va ularni parvarishlash xarajatlari yuqorida taklif qilingan 2015-«Chavoq(malk)larni o‘stirish xarajatlari» schyotida shakllantiriladi. Natijada, 1 000 dona chavoq tannarxini hisoblash uchun ushbu schyotning debetida (yuqorida tavsiya etilgan «O‘stirish hovuzlaridan chavoqlarni ovlash hisoboti»ga asosan) to‘plangan xarajatlarning umumiy summasi olingan chavoqlar miqdori (sentneri)ga bo‘linadi. Bunda bitta chavoqning o‘rtacha og‘irligi 25-30 grammdan kam bo‘lmasligini nazarda tutish lozim.

Qishlov hovuzlariga qo‘yilgan chavoqlarning tannarxi hamda ularni qishlatish xarajatlariga asosan 1 yillik baliqchalar tannarxi hisoblanadi. Buning uchun ushbu xarajatlar summasi baliqlarning qishlatish hovuzlaridan erkin boqiladigan hovuzlarga o‘tkazish vaqtidagi miqdori (sentneri) ga bo‘linadi. Shu tarzda bir yillik baliqlar 1 sentnerining haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Va nihoyat, 1 sentner sotiladigan (tovar) baliqning haqiqiy tannarxi 2018 - «Sotiladigan(tovar) baliqlarni boqish xarajatlari» analitik scheti ma’lumotlari asosida aniqlanadi. Ushbu analitik schetda baliqlarni o‘stirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar to‘planadi. Buning uchun boquvga qo‘yilgan bir yillik baliqchalar tannarxi va ularni sotish yoki qayta ishlash uchun ovlashga bo‘lgan davrdagi boqish xarajatlari jamlanadi.

Sotiladigan(tovar) baliq kalkulyatsiya birligi (1 sentneri)ning tannarxini aniqlash uchun jami xarajat summasi ovlangan baliq miqdori (sentneri)ga bo‘linadi va xo‘jalik rahbariyati (menejmenti) yetishtirilgan 1 s. tovar baliqning haqiqiy tannarxi to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Shuningdek, to‘liq tizimli baliqchilik xo‘jaliklarida yil oxiriga 2010 - «Asosiy ishlab chiqarish» sintetik schyotining ishchi schyotlari bo‘yicha faqat qishlov hovuzlarida qoldirilgan chavoqlarning qiymati va hovuzlarni saqlash xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida aks ettiriladi.

Shuning uchun jami xarajatlarni ikkita guruhga: tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida qishlatishga qoldirilgan baliqlar va sotish uchun ovlanadigan baliqlarga taqsimlanadi. Batafsilroq (tahliliy) ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun xarajatlarni baliqlarning har bir toifasiga: mahsuldor baliqlar, lichinkalar, chavoqlar, bir yillik baliqchalar va sotish uchun boqilayotgan (tovar) baliqlarga taqsimlash ham mumkin. Ikkinchi holat uchun ushbu jurnalda keltirilgan analitik hisob tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi shart. Bu o‘z navbatida, moliyaviy hisobot, xususan buxgalteriya balansi (aktiv, II bo‘lim 160-satri) ko‘rsatkichlarining ishonchliligini ham ta’minlaydi.

Bayon qilinganlar asosida ta’kidlash mumkinki, baliqchilik xo‘jaligining buxgalteriya xizmati har bir hisob obyekti(baliq turlari va texnologik jarayonlar)

bo‘yicha alohida tannarx tannarx hisoblashni ta’minlaydi. Bunda chavoqlar tannarxini hisoblash uchun kalkulyatsiya birligi sifatida 1000 dona chavoq, qolgan barcha turdagi (jarayondagi) mahsulotlar uchun og‘irlik o‘lchovi (sentner) asos qilib olinadi.

Baliqchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar tannarxi yil yakunida hisoblanadi. To‘liqsiz tizimli baliqchilik xo‘jaliklarida tannarx sotib olingan baliqlantirish materiallarining qiymati va ularni boqish xarajatlaridan tashkil topadi.

To‘liq tizimli baliqchilik xo‘jaliklarida avvalo lichinkalar, segoletkalar, bir yillik baliqlar, tovar baliqlar tannarxi alohida-alohida aniqlanishi lozim. Buning uchun «TST Fish Cluster» MChJ quyidagi uslubiy jadvallar, formulalar va hisob-kitob tartibi tavsiya etiladi.

Lichinkalar inkubatsiyada bir haftalik bo‘lganidan so‘ng sotilishi mumkin. Bunda yetishtirilgan lichinkalar tannarx hisoblash obyekti hisoblanadi va tannarx birligi sifatida esa 1000 000 dona lichinka qabul qilinadi. Lichinkalar tannarxi onalik va o‘stirish hovuzlarida yil davomida saqlangan mahsuldor baliqlarni parvarishlash xarajatlari va lichinkalar o‘stirish hovuzlariga o‘tkazilgunga qadar qilingan xarajatlardan tashkil topadi. Lichinkalar tannarxini aniqlash uchun quyidagi uslubiy jadvallar, formulalar va hisob-kitob tartibi tavsiya etiladi (2-jadval).

2-jadval

«TST Fish Cluster» MChJning 2024 yil moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida chiqarilgan lichinkalar tannarxini hisoblash[25]

T.r.	Ko‘rsatkichlar	miqdori, mln. dona	Summa, ming so‘m.
1	Mahsuldor baliqlar va ular boqiladigan hovuzlarni saqlash bo‘yicha yil boshiga xarajatlar (tugallanmagan ishlab chiqarish) qoldig‘i	x	129 600,0
2	Mahsuldor baliqlar va lichinkalarni o‘stirish hovuzlariga o‘tkazishgacha yil boshidan qilingan xarajatlar	x	680 400,0
3	Jami xarajatlar:		810 000,0
4	Olingan lichinkalar qiymati (reja tannarxi bo‘yicha)	180 000 000	810 000,0
5	1000 000 dona lichinkaning haqiqiy tannarxi	x	4 500,0
6	Jami sotilgan lichinkalar haqiqiy tannarxi	106 020,0	477 090,0
7	O‘stirish uchun hovuzlariga o‘tkazilgan lichinkalarning haqiqiy tannarxi	73 980,0	332 910,0
8	Mahsuldor baliqlar ovlangandan so‘ng hovuzlarni yil oxirigacha saqlash xarajatlari	x	158 020,0

$$T_l = \frac{(\mathrm{L}IX - \mathrm{BL})}{\mathrm{LS}}, \qquad (1)$$

Bunda,

[25] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

LIX – Lichinkalarni inkubatsiyada yetiltirish xarajatlari, ming so‘m.

BL – Brak qilingan lichinkalar qiymati, ming so‘m.

LS– Inkubatsiyada qoldirilgan lichinkalar soni, mln dona.

O‘stirish uchun hovuzlariga o‘tkazilgan lichinkalar bir oycha boqilib, chavoq(malk) darajasigacha (karpsimon baliqlar o‘rtacha 0,5-3,0 gramm) yetiltirilib, baliqchilik xo‘jaliklariga sotiladi va qisman xo‘jalikning o‘zida qoldirilishi mumkin. Bunda yetishtirilgan chavoq(malk)lar tannarx hisoblash obyekti va tannarx birligi sifatida 1000 dona chavoq(malk) qabul qilinadi (3-jadval).

Yetishtirilgan chavoq(malk)lar tannarxini hisoblash uchun quyidagi formula ishlab chiqildi:

$$T_l = \frac{(\text{Lht} + CHB\text{X} - \text{BCH})}{HCHS}, \qquad (2)$$

Bunda,

Lht – Lichinkalarning haqiqiy tannarxi, ming so‘m;

CHBX – Chavoqlarni boqish xarajatlari, ming so‘m;

BCH – Brak qilingan chavoqlar qiymati, ming so‘m;

HCHS – Hovuzda qoldirilgan chavoqlar soni, ming dona.

O‘stirish hovuzlarida bir oy boqilgan chavoq(malk)lar segoletkalar o‘stiriladigan yaylov hovuzlariga o‘tkazilib, qishlatish davrigacha boqiladi.

3-jadval

«TST Fish Cluster» MChJda yetishtirilgan chavoqlar tannarxini hisoblash, (2024 y.)

T.r.	Ko‘rsatkichlar	ming dona	Summa, ming so‘m.
1	O‘stirish uchun hovuzlariga o‘tkazilgan lichinkalarning haqiqiy tannarxi	73 980,0	332 910,0
В целом, проведенные анализы показывают, что в контексте «зеленой» экономики повышение эффективности использования частного капитала представляет собой сложный и многогранный процесс, на который одновременно влияют несколько взаимосвязанных факторов. Недостаточно оценивать этот процесс исключительно по экономическим результатам, поскольку концепция «зеленой» экономики предполагает гармонизацию экономического роста с экологической устойчивостью и социальным благополучием. Поэтому при оценке эффективности использования капитала наряду с традиционными финансовыми показателями необходимо учитывать также показатели использования ресурсов, сокращения отходов, экологической безопасности и социальные результаты.

Кроме того, этот процесс тесно связан с институциональной средой. Иными словами, государственная политика, нормативно-правовая база, а также механизмы налоговых и финансовых стимулов играют решающую

роль в направлении частного капитала в «зеленые» проекты. Без создания государством достаточно благоприятной среды частные инвесторы будут направлять меньше капитала в «зеленые» проекты из-за высоких рисков и долгосрочной окупаемости. Поэтому в контексте «зеленой» экономики повышение эффективности использования капитала напрямую зависит не только от управленческих решений на уровне предприятия, но и от макроэкономических и институциональных факторов.

Заключение. Как показывают исследования, инновации играют особенно важную роль в переходе к «зеленой» экономике. Внедрение новых технологий позволяет эффективно использовать энергию и ресурсы, снижать производственные затраты и минимизировать ущерб окружающей среде. Это, в свою очередь, повышает долгосрочную эффективность капитала и укрепляет конкурентоспособность предприятий. Таким образом, эффективное использование частного капитала неразрывно связано с инновационным развитием, и стимулирование этого процесса является ключевой стратегической задачей.

В этом контексте особое значение имеет совершенствование бухгалтерского учета в соответствии с современными требованиями. Это связано с тем, что существующие системы бухгалтерского учета ориентированы преимущественно на финансовые результаты и не в полной мере отражают экологические и социальные показатели. В результате истинные показатели деятельности компании оцениваются не в полной мере. Поэтому необходимо внедрение новых механизмов учета, учитывающих экологические издержки, «зеленые» инвестиции и эффективность использования ресурсов. Именно для удовлетворения этой потребности разрабатывается система интегрированной отчетности, которая позволяет отражать финансовую, экологическую и социальную деятельность компании в единой системе.

Такой подход служит источником важной информации не только для принятия управленческих решений внутри компании, но и для инвесторов. Это связано с тем, что сегодня инвесторы принимают решения не только на основе финансовых результатов, но и с учетом экологической устойчивости и социальной ответственности компании. В этом отношении совершенствование бухгалтерского учета позволяет проводить более точную, прозрачную и всестороннюю оценку эффективности использования капитала.

В заключение следует отметить, что повышение эффективности частного капитала в «зеленой» экономике требует системного подхода. В этом процессе ключевыми приоритетными направлениями являются гармонизация экономических, экологических и институциональных факторов, широкое внедрение инноваций и создание современных систем учета. Именно благодаря комплексному развитию этих факторов можно значительно повысить эффективность использования капитала и обеспечить устойчивый экономический рост.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан, “Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019 — 2030 годов” от 04.10.2019 г. № ПП-4477.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, “О мерах по внедрению национальной системы прозрачности при переходе на «зеленую» экономику в Республике Узбекистан” от 05.06.2024 г. № ПП-213.
3. Указ Президента Республики Узбекистан, “О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики»” от 30.01.2025 г. № УП-16.
4. Amatovich P. A. (2025). MINTAQADA YASHIL INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(06), 107-115.
5. Mikhno, I., Koval, V., Shvets, G., Garmatiuk, O., & Tamošiūnienė, R. (2021). Green economy in sustainable development and improvement of resource efficiency.
6. Дорофеев, М. Л. (2020). Особенности расчета стоимости капитала в концепции зеленых финансов и зеленых инвестиций. Экономика. Информатика, 47(2), 338-353.
7. Han, Y. (2023). Promoting green economy efficiency through fiscal decentralization and environmental regulation. Environmental Science and Pollution Research, 30(5), 11675-11688.

Давлятшаев Акмал Ашурмаматович
Ферганский государственный технический университет,
старший преподаватель кафедры
«Финансы и бухгалтерский учет», к.э.н.
e-mail: akmal.davlyatshayev@fstu.uz

ВЛИЯНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ НА РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА СОГЛАСНО КОНЦЕПЦИИ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В статье рассматривается влияние привлечения инвестиций на развитие регионов Узбекистана в условиях перехода к «зеленой» экономике. Анализируются государственные стратегии, инвестиционные механизмы и роль экологически ориентированных проектов в обеспечении устойчивого развития. Особое внимание уделено возобновляемым источникам энергии, энергоэффективности и региональной дифференциации инвестиционной активности.

Ключевые слова: инвестиции, зеленая экономика, регионы Узбекистана, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии.

Введение. В условиях глобализации и усиления экологических проблем переход к «зеленой» экономике становится стратегическим направлением

развития большинства стран мира. Изменение климата, истощение природных ресурсов и рост экологических рисков требуют внедрения новых моделей экономического развития. Для Узбекистана, обладающего значительным природно-ресурсным потенциалом и региональной дифференциацией, переход к «зеленой» экономике является не только экологической необходимостью, но и важным фактором повышения инвестиционной привлекательности регионов. В последние годы в стране активно реализуются реформы, направленные на либерализацию экономики, привлечение иностранных инвестиций и развитие регионов. В последние годы инвестиционная активность в стране значительно возросла. Так, общий объем инвестиций в экономику Узбекистана в 2025 году достиг 43, 1 млрд долларов США, что свидетельствует о росте инвестиционной привлекательности страны. В этом контексте «зеленые» инвестиции становятся ключевым инструментом устойчивого развития.

Основная часть. «Зеленая» экономика представляет собой модель развития, направленную на рациональное использование природных ресурсов, снижение негативного воздействия на окружающую среду и повышение качества жизни населения. Основными направлениями являются:

- развитие возобновляемых источников энергии;
- повышение энергоэффективности;
- внедрение экологически чистых технологий;
- развитие циркулярной экономики.

В условиях данной концепции инвестиции приобретают «зеленую» направленность, то есть ориентируются на проекты, способствующие экологической устойчивости и снижению углеродного следа.

Узбекистан активно реализует стратегию перехода к «зеленой» экономике до 2030 года [1]. Данная стратегия включает:

-увеличение доли возобновляемых источников энергии;
-сокращение выбросов парниковых газов;
-повышение энергоэффективности промышленности;
-поддержку «зеленых» инвестиций.

Планируется, что до 2030 года значительная часть инвестиционных проектов будет включать «зеленые» компоненты и доля «зеленой» энергетики существенно возрастет. Будет также внедрена система экологических стандартов и сертификации.

Кроме того, государство стимулирует развитие частных инвестиций и международного сотрудничества в данной сфере, создавая благоприятный инвестиционный климат.

Привлечение инвестиций является ключевым фактором социально-экономического развития регионов. Основные эффекты в данном случае заключаются в:

-создание новых рабочих мест;
-развитие инфраструктуры;
-повышение уровня жизни населения;
-диверсификацию экономики регионов.

Особую роль играют инвестиции в «зеленые» проекты, такие как:

-солнечные и ветровые электростанции;

-энергосберегающие технологии;

-экологически чистое сельское хозяйство.

Развитие возобновляемой энергетики способствует снижению зависимости от традиционных ресурсов и формирует новые отрасли экономики. «Зеленые» инвестиции оказывают комплексное влияние на развитие регионов. Эти влияния можно подразделить на следующие группы:

1.Экономическое влияние:

-рост валового регионального продукта;

-повышение инвестиционной привлекательности территорий;

-развитие малого и среднего бизнеса.

2.Экологическое влияние:

-снижение уровня загрязнения окружающей среды;

-рациональное использование природных ресурсов;

-улучшение экологической ситуации.

3.Социальное влияние:

-создание новых рабочих мест в «зеленых» отраслях;

-повышение качества жизни населения;

-развитие экологической культуры.

Таким образом, «зеленые» инвестиции выступают инструментом устойчивого регионального развития.

Наряду с положительными тенденциями, существуют и определенные проблемы, основными из которых являются:

-недостаточная развитость финансовых инструментов «зеленого» инвестирования;

-ограниченный доступ регионов к международным инвестициям;

-нехватка квалифицированных кадров;

-необходимость модернизации инфраструктуры.

Также важным вызовом является необходимость интеграции экологических стандартов в инвестиционные проекты.

Но несмотря на все вышеперечисленное, в перспективе развитие «зеленой» экономики в Узбекистане будет способствовать:

-активному привлечению иностранных инвестиций;

-развитию инновационных технологий;

-усилению роли регионов в экономике страны;

-формированию устойчивой и конкурентоспособной экономики.

Международное сотрудничество и участие в глобальных экологических инициативах играют ключевую роль в данном процессе.

Привлечение «зеленых» инвестиций стало ключевым драйвером регионального развития в Узбекистане, что подтверждается ростом инвестиций в основной капитал, которые в 2025 году составили 600, 0 трлн сумов [4]. Согласно Постановлению Президента Республики Узбекистан №ПП-436 от 02.12.2022 г. «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до

2030 года», акцент сместился на децентрализованные источники финансирования и внедрение экологически чистых технологий в регионах [2].

Ключевыми направлениями влияния инвестиций в регионах на ближайшую перспективу будут являться:

1.Энергетическая трансформация:

-регионы активно внедряют возобновляемые источники энергии (ВИЭ) с целью довести их долю в производстве электричества до 25% к 2030 году;

-привлекаются крупные международные кредиты: например, $240 млн. от Международной финансовой корпорации (МФК) и $250 млн. от Азиатского банка инфраструктурных инвестиций (АБИИ) направлены на «зеленую» энергетику и сокращение выбросов [3].

2.Индустриализация и частный сектор:

-Германия (Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit GmbH) выделила суммарно более €12 млн. на поддержку частного сектора в «зеленой» индустриализации регионов в 2023–2024 годах;

-инвестиции в производство стройматериалов выросли в 3, 6 раза, а в электротехническую сферу — в 13 раз, что стимулирует создание новых рабочих мест на местах.

3.Экологическая устойчивость:

-внедряются механизмы выплат за сокращение выбросов (например, $7, 5 млн. от Всемирного банка в 2023 году).

-развивается инфраструктура для переработки отходов, рекультивации земель и внедрения электротранспорта.

1-таблица.

Сравнительный анализ привлечения «зеленых» инвестиций и их влияния на развитие ключевых регионов (2021–2024 гг.)

Регион	Основной тип инвестиций	Ключевые инвесторы / Проекты	Объем инвестиций (прибл.)	Экономический и экологический эффект
Навоийская область	Солнечная и ветровая энергетика	Masdar (ФЭС «Нур Навои»), ACWA Power (ВЭС)	> $1, 5 млрд.	Снижение энергоемкости промышленности на 15%. Создание энергетического кластера.
Бухарская область	Ветроэнергетика, водосбережение	ACWA Power (ВЭС Баш и Джанкельды)	~ $1, 3 млрд.	Обеспечение электроэнергией > 500 тыс. домохозяйств. Рекультивация засушливых земель.

Сурхандарьинская область	Солнечная энергетика, ГЭС	Masdar (ФЭС Шерабад), Модернизация ГУП «Тупаланг ГЭС»	> $600 млн.	Стабилизация энергоснабжения аграрных районов. Рост экспорта плодоовощной продукции.
Самаркандская область	Промышленная энергоэффективность, ВИЭ	TotalEnergies (ФЭС «Тутлы»), кредитные линии EBRD/GEFF	> $400 млн.	Модернизация МСБ и текстильных кластеров. Снижение углеродного следа экспортных товаров.
Республика Каракалпакстан	Экологическая реабилитация, ВЭС	ACWA Power (ВЭС в Кунграде), гранты Всемирного банка	> $1, 1 млрд.	Борьба с деградацией почв Приаралья. Развитие инфраструктуры в удаленных районах.

-: Составлено автором на основе данных Министерства инвестиций, промышленности и торговли РУз и отчетов компаний Masdar и ACWA Power.*

Заключение. Таким образом, привлечение инвестиций в рамках концепции «зеленой» экономики является важнейшим фактором развития регионов Узбекистана. Реализация «зеленых» проектов способствует не только экономическому росту, но и улучшению экологической ситуации, повышению качества жизни населения и устойчивому развитию страны в целом. Переход к «зеленой» экономике открывает новые возможности для регионов, формируя основу для долгосрочного и сбалансированного развития.

Список использованной литературы:

1.Указ Президента Республики Узбекистан №УП-21 от 06.02.2026 года «О дополнительных мерах по последовательному продолжению и выведению на новый этап реформ в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года».

2.Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-436 от 02.12.2022 г. «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года».

3.Европейский банк реконструкции и развития (ЕБРР-2024). Обзор инвестиционной деятельности в Центральной Азии. https: //eabr.org/analytics/special-reports/.
4.Агентство Статистики при Президенте Республики Узбекистан. Статистический ежегодник «Регионы Узбекистана» (2020-2023). Ташкент-2025.

Davlatshayev Akmal Ashurmamativich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.n.,
e-mail: adavlyatshayev@gmail.com
Axmedova Dilnozaxon Akmaljon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“M va MT” 70-22 guruh talabasi,

YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu tezisda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining zamonaviy tendensiyalari, uning O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun amaliy ahamiyati va joriy etish mexanizmlari tahlili va yashil iqtisodiyot borasidagi ilmiy-amaliy asoslarga tayanib, milliy xo‘jalik tarmoqlarida energiya va resurslar tejamkorligini oshirish mexanizmlari ham tahlil qilingan. O‘zbekistonning 2019–2030 yillar uchun “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” asosidagi amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energiya, barqaror rivojlanish, yashil moliyalashtirish, karbon neytrallik, yashil byudjet.

Kirish. Global ekologik inqiroz va iqlim o‘zgarishi sharoitida iqtisodiy o‘sishning an’anaviy modellari o‘z dolzarbligini yo‘qotmoqda. O‘zbekiston kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar uchun “jigarrang” iqtisodiyotdan “yashil” modelga o‘tish — bu nafaqat ekologik majburiyat, balki xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolishning yagona yo‘li bo‘lib qolmoqda. Iqlim o‘zgarishi, resurslar tugashi va atrof-muhit ifloslanishi kabi global muammolar barcha mamlakatlarni, jumladan O‘zbekistonni ham yangi iqtisodiy model sari ildam qadamlar bilan borishga undamoqda. BMT Atrof-muhit dasturining (UNEP) ta’rifiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot – bu past karbon chiqindilari, resurs samaradorligi va ijtimoiy inklyuzivlikka asoslangan iqtisodiyot bo‘lib, unda mehnat va daromad o‘sishi tabiiy kapitalga investitsiyalar orqali ta’minlanadi [1].

O‘zbekiston 2019-yilda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”ni qabul qilgan bo‘lib, 2025-yil “Ekologiya va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi bu sohada davlat siyosatining ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi [2]. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston iqtisodiyotini yashil tamoyillar asosida rivojlantirish nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki yangi ish

o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari yashil byudjet tizimini ham joriy qilish orqali samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash qulayligini yaratish va to‘g‘ri strategiyalarni belgilashda asos bo‘ladi. Maqsad: yashil iqtisodiyot tendensiyalarining O‘zbekiston uchun amaliy samarasi va joriy etish mexanizmlarini aniqlash.

Asosiy qism. Yashil iqtisodiyotning global tendensiyalari.Yashil iqtisodiyot mohiyati asosida aylana iqtisodiyot global darajada misli ko‘rilmagan sur’atlarda rivojlanmoqda. Xalqaro energetika agentligi (IEA)ning 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha umumiy energetika investitsiyalari birinchi marta 3 trillion AQSh dollaridan oshdi, shundan 2 trillion dollari toza energiya texnologiyalariga yo‘naltirildi [3]. Shundan kelib chiqib aytish mumkin-ki, ko‘rsatkichlar yoqilg‘i-energetika sektori investitsiyalaridan ikki barobar ko‘pligini angladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi eng muhim tendensiya qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hisoblanadi. Shu o‘rinda Mamlakatimizda ham 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25% dan oshirish maqsadi belgilangan va shuning omili natijasida amaliy jarayonlarda o‘z aksini topib kelmoqda. Qo‘shimcha sifatida aytadigan bo‘lsam dunyoda ikkitadan biri bo‘lgan Toshkent viloyatining Parkent tumanida joylashgan Quyosh instutidagi ilmiy izlanishlar misolida yashil energiyaga bo‘lgan ahamiyatni ham payqay mumkin va shu bilan birga quyosh va shamol elektr stansiyalarining qurilishi energetika balansini diversifikatsiyalashda ahamiyatlihamdir.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning hozirgi holati bo‘yicha batafsil to‘xtaladigan bo‘lsam, 2017-yildan boshlab islohotlar yo‘lida dadil qadam tashlab kelmoqda. Yashil energetika sohasida ham sezilarli natijalarga erishilmoqda. Energetikaning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatning jami elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 14, 1 GVt ni tashkil etadi. 2021-yilda “Nur Navoi” quyosh stansiyasi ishga tushirildi va hozirga kelib stansiya yiliga o‘rtacha 252 million kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Hozirda O‘zbekistonda umumiy quvvati 5 582 MVt bo‘lgan 15 ta quyosh fotoelektr stansiyasi ishlamoqda. Umumiy holatda yil yakuniga qadar quyosh energiyasining o‘zi bir necha milliard kVt·soatni tashkil etilishi kutilmoqda. Buning sababi sifatida Mamlakatimizda 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25% dan oshirish maqsad qilingan va bu 2030-yilgi strategik rejaning muddatidan oldin bajarilayotganidan dalolat beradi [4].

Global yashil o‘sish instituti (GGGI) O‘zbekistonning yashil moliyalashtirish sohasidagi banklari bilan hamkorlikda 1 milliard dollardan ortiq yashil obligatsiyalar chiqarilishini tashkil etdi [5]. UNDP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi) esa qayta tiklanadigan energiya qonunchilik bazasini takomillashtirishga ko‘maklashdi va turar joylarda energiya iste’molini monitoring qiluvchi dasturiy ta’minot yaratdi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda mavjud muammolar ham bor. Aytish joizki, energiya narxlari uchun subsidiyalar tizimi qayta tiklanadigan energiyaning bozor raqobatbardoshligini pasaytirmoqda, chiqindilar bilan ishlash va suv resurslari sohasida esa hali hal etilmagan muammolar ko‘p. Shuningdek, elektr

tarmoqlarining eskirganligi doirasida mavjud magistral va taqsimlash tarmoqlarining qariyb 40-50% qismi modernizatsiyaga muhtoj [6].

1-jadval

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlari (2025-2026-yillar)

Ko‘rsatkich	Qiymat	Manba
Qayta tiklanuvchi energiya (QTE) ulushi	Umumiy generatsiyaning ~23% qismi	Energetika vazirligi
“Yashil” energiya ishlab chiqarish (GESlar bilan)	14, 52 mlrd kVt·soat (yanvar-oktyabr)	Energetika vazirligi / Stat.uz
Foydalanishga topshirilgan yirik stansiyalar	12 ta quyosh (SES) va 5 ta shamol (SHES)	Energetika vazirligi
Tabiiy gazni tejash hajmi	2, 73 mlrd kub metr	Stat.uz / Hukumat hisoboti
Atmosferaga chiqarilgan CO2 miqdorini kamaytirish	~4 million tonna	IEA / Ekologiya vazirligi

Bu “yashil” energiyani tizimga integratsiya qilishda yuqori yo‘qotishlarga (10-15% gacha) olib keladi. Energiya saqlash tizimlari yetishmovchiligi natijasida quyosh stansiyalari faqat kunduzi ishlaydi. Tizim barqarorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan akkumulyator quvvatlari hali yetarli darajada emas (2025-yildan boshlabgina 1 MVt+ loyihalarga 25% saqlash tizimi majburiy qilindi). Sug‘oriladigan yerlarning atigi 25-30% qismida (taxminan 1, 2 mln gektar) suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan. 2026-yilga borib, mintaqaviy iqlim o‘zgarishi sababli suv resurslarining yana 10-15% ga kamayishi prognoz qilinmoqda. Eksport mahsulotlarining “uglerod izi”ni o‘lchash va sertifikatlash bo‘yicha milliy tizim hali to‘liq shakllanmagan, bu esa 2026-yildan kuchga kiradigan “Yevro Ittifoq” ning ekologik soliqlari fonida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotni O‘zbekistonga joriy etish mexanizmlari va amaliy samara uchun yashil iqtisodiyotni joriy etishda aylana iqtisodiyot modelidan foydalanib, asosi sifatida me’yoriy hujjatlashtirish kerak. Bu jahatdan namuna sifatida “Germaniya tajribasini” o‘rganib O‘zbekiston uchun eng optimal variantda ishlab chiqilishi shu bilan birga Yashil loyihalar va investitsiyalar hisobi alohida hisoblarda ya’ni, yashil budjet hamda yashil moliya ko‘rsatkichlar doirasida ham yuritib borilishini tizimlashtirish darkor [7].

Yashil byudjet — bu davlat budjetini rejalashtirishda atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanish maqsadlarini hisobga olish jarayonidir[8]. Bu jarayonlarni birinchi yo‘nalish sifatida ahamiyatli deb bilish iqtisodiy barqarorlik kafolati o‘laroq yashil iqtisodiyotning asosiy tendensiyasi bo‘lmish – ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun ham ahamiyatlidir.

Ikkinchi yo‘nalish — yashil energetika infratuzilmasini rivojlantirish. O‘zbekiston quyosh energiyasining jami potensiali 51 Gtoe ni tashkil etadi, texnik potensial esa 177 Mtoe ga teng. Bu raqamlar mamlakat hali o‘z imkoniyatlarining 1% dan ko‘proq qismidan foydalanayotganini ko‘rsatadi. Jahon tajribasiga ko‘ra, quyosh va shamol elektrostansiyalariga investitsiyalar mamlakatga bir vaqtning o‘zida uchta foyda keltiradi: energetik mustaqillik, eksport daromadlari va yangi ish o‘rinlari.

Uchinchi yo‘nalish — yashil moliyalashtirish tizimini shakllantirish. Yashil obligatsiyalar va ESG investitsiyalari jahon bozorida tobora kuchayib bormoqda: 2023-yilda barqaror qarz chiqarishlari 1 trillon dollardan oshdi. O‘zbekiston yashil obligatsiyalar chiqarish tajribasini kengaytirishi, xalqaro yashil fondlar (GCF, GEF) bilan hamkorlikni faollashtirishi va tijorat banklari uchun yashil kreditlash imtiyozlarini joriy etishi lozim. Yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari tizimini ham qayta ko‘rib chiqish zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish – aylanma iqtisodiyot va resurs samaradorligi. Chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, suv tejovchi irrigatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va “yashil qurilish” standartlarini amaliyotga kiritish resurs samaradorligini keskin oshirishi mumkin. GGGI tomonidan O‘zbekistonda suv tejovchi irrigatsiya tizimlari bilan jihozlangan 800 gektardan ortiq yerning tajribasi ijobiy natijalari bu yo‘nalishning samaradorligini isbotladi. Shu bilan birga Isroil tajribasi misolida suv resurslarini 80 % li natija hisoda qayta ishlab qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirish texnologiyasini amalga tadbiq qilish imkoniyatlarini o‘rganib chiqib, joriy qilish.

Beshinchi yo‘nalish – yashil iqtisodiyot institutlarini mustahkamlash. Iqtisodiy boshqaruvda yashillikka ko‘proq urg‘u bergan holda yo‘nalishlar doirasida nazorat tashkilotlarini va malakali mutaxasislarni tayyorlashda e’tibor kuchaytirilishi kerakligini ta’kidlashim mumkin. Bunga qo‘shimcha ravishda, yashil tarif tizimini joriy etish, energiya auditini majburiy qilish va karbon intensivligini aniqlash uchun milliy hisobvaraq tizimini yaratish ham zarur.

Yashil iqtisodiyotni joriy etishning O‘zbekiston uchun kutilayotgan amaliy samarasi: 2030-yilga qadar 25% dan 40% gacha qayta tiklanadigan energiya ulushiga erishish elektr energiyasi importiga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytiradi va yiliga kamida 500 mln. dollardan 1 mlrd dollargacha tejash imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligi sektorida iqlim-aqlli texnologiyalarni joriy etish hosildorlikni 15–20% oshirishi mumkin. Ishlab chiqarishda yashil standartlarni qo‘llash esa eksport mahsulotlarini Yevropa va boshqa qat’iy ekologik talablar qo‘yuvchi bozorlarga chiqishini ta’minlaydi – bu 2030-yilga qadar eksport daromadlarini 3–4 mlrd. dollarga oshirish potensialini beradi. Bu nafaqat daromadni oshirish, balki O‘zbekiston tekstil va metallurgiya mahsulotlarining Yevropa bozoridagi raqobatbardoshligini saqlab qolishning yagona yo‘lidir.

Xulosa. O‘zbekiston iqtisodiyotini yashil tamoyillar asosida isloh qilish — bu shunchaki ekologik zaruriyat emas, balki mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi strategik yo‘ldir. Tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat “jigarrang” iqtisodiyot modelidan voz kechib, resurs samaradorligi va past uglerodli rivojlanishga o‘tish orqali global

raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Resurs samaradorligi va innovatsiyalar orqali suv tejovchi texnologiyalarni (Isroil tajribasi asosida) va “iqlim-aqlli” qishloq xo‘jaligini joriy etish orqali hosildorlikni 20% gacha oshirish hamda mintaqaviy iqlim o‘zgarishi xatarlarini yumshatish mumkin. Asosiy jihatlardan yana biri -yashil obligatsiyalar chiqarish va budjetni rejalashtirishda ekologik maqsadlarni hisobga olish (yashil budjet) tizimi investitsiyalar oqimini jadallashtiradi va davlat xarajatlari samaradorligini oshiradi. Yakuniy taklif sifatida, O‘zbekiston uchun Germaniya va Isroil kabi rivojlangan davlatlarning tajribasini mahalliylashtirish, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda kadrlar salohiyatini oshirishga e’tibor qaratish lozimYashil iqtisodiyotga o‘tish — kelajak avlodlar uchun nafaqat toza atrof-muhit, balki ijtimoiy adolatga asoslangan farovon jamiyat qurish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNEP. Green Economy Definition and Principles. UN Environment Programme, . https: //www.unep.org/explore-topics/green-economy

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi 2025-yilni “Ekologiya va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi qarori.

3. IEA. World Energy Investment 2024: Overview and Key Findings. International Energy Agency. https: //www.iea.org/reports/world-energy-investment-2024

4. O‘zbekiston Energetika vazirligi – 2024-2026 yillardagi investitsiya loyihalari va generatsiya quvvatlari tahlili.

5. GGGI. Uzbekistan Country Programme Report. Global Green Growth Institute, 2025. https: //gggi.org/country/uzbekistan/

Abdullayeva Barchinoy Yuldashevna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Menejment va marketing” kafedrasi katta o‘qituvchi
e-mail: babdullayevy@gmail.com

YASHIL MENEJMENTNI JORIY ETISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda yashil menejmentni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning korxona faoliyatiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, yashil menejmentni joriy etishning iqtisodiy natijalari, ESG tamoyillari bilan uyg‘unligi hamda raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Olingan natijalar asosida korxonalarda barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil menejment, korxona samaradorligi, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, yashil iqtisodiyot.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan ekologik va iqtisodiy o‘zgarishlar korxonalar faoliyatini tashkil etishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar iqtisodiy o‘sishning an’anaviy modellari o‘rniga barqaror rivojlanishga asoslangan konsepsiyalarni ilgari surishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan “yashil iqtisodiyot” va uning muhim tarkibiy elementi bo‘lgan “yashil menejment” tushunchalari ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Yashil menejment – bu korxona faoliyatini tashkil etishda ekologik omillarni hisobga olgan holda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash va ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta’sirini minimallashtirishga qaratilgan boshqaruv tizimidir [3]. Ushbu yondashuv korxonalarga nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini ham beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu sohani rivojlantirishning muhim normativ-huquqiy asosini tashkil etadi [1]. Mazkur qarorda iqtisodiyot tarmoqlarida resurs tejovchi va ekologik xavfsiz texnologiyalarni keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotga o‘tish masalalarini strategik vazifa sifatida qayd etadi. Jumladan, davlat rahbari: “Ekologik barqarorlikni ta’minlash va yashil iqtisodiyotga o‘tish – bu uzoq muddatli taraqqiyotimizning eng muhim yo‘nalishidir”, deya ta’kidlaydi [2]. Ushbu yondashuv korxonalar faoliyatida ham ekologik boshqaruv tizimlarini keng joriy etishni zaruratga aylantirmoqda.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi sharoitda korxonalar oldida bir vaqtning o‘zida ikki muhim vazifa – iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalasi turibdi. Resurslar narxining oshishi, ekologik standartlarning kuchayishi, xalqaro bozorlarda “yashil” mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortib borayotgani korxonalarni o‘z boshqaruv tizimini qayta ko‘rib chiqishga undamoqda [4]. Aynan yashil menejment ushbu jarayonda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lib, korxonalarga resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Asosiy qism. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxona samaradorligini oshirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. An’anaviy boshqaruv usullaridan farqli ravishda, “yashil menejment” konsepsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil menejmentni joriy etish natijasida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish orqali korxona faoliyatining umumiy samaradorligi ortadi [5].

Yashil menejment tizimi doirasida ishlab chiqarish jarayonlari ekologik koʻrsatkichlar asosida baholanadi. Bunda asosiy indikatorlar sifatida energiya sarfi, suv iste'moli, chiqindilar hajmi, atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori kabilar ajratib koʻrsatiladi. Integratsiyalashgan yashil menejment modeli ushbu koʻrsatkichlarning oʻzaro bogʻliqligini aniqlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga koʻra, ekologik koʻrsatkichlarni baholashda DEMATEL va ANP metodlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. DEMATEL usuli yordamida indikatorlar oʻrtasidagi sabab-oqibat bogʻliqligi aniqlansa, ANP usuli orqali ularning ustuvorlik darajasi belgilanadi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligiga eng katta ta'sir koʻrsatuvchi omillar sifatida chiqindilar hajmi, energiya iste'moli va zararli gazlar emissiyasi ajralib turadi. Yashil menejmentni joriy etish natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Yashil menejment joriy etilishi natijasida koʻrsatkichlar dinamikasi**

Koʻrsatkichlar	Boshlangʻich holat	Joriy etilgandan soʻng	Oʻzgarish (%)
Energiya sarfi	100%	95%	-5%
Chiqindilar hajmi	100%	88%	-12%
CO_2 emissiyasi	100%	89–90%	-10–11%
NOx emissiyasi	100%	90–91%	-9–10%
Ishchilar salomatligi bilan bogʻliq muammolar	100%	92%	-8%

Jadval ma'lumotlariga koʻra, yashil menejmentni joriy etish natijasida chiqindilar hajmi 12% ga, zararli gazlar emissiyasi esa oʻrtacha 10% ga kamaygan. Bu esa korxona ekologik samaradorligi bilan bir qatorda iqtisodiy natijalarining ham yaxshilanishiga olib keladi.

Yashil menejmentning muhim jihatlaridan biri – ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik xaritalash (Environmental Process Mapping) orqali tahlil qilishdir. Ushbu yondashuv har bir bosqichda ekologik ta'sirni aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, yashil menejment faqat ishlab chiqarish jarayonlari bilan cheklanib qolmaydi. U moliyaviy boshqaruv tizimi bilan ham uzviy bogʻliq. "Yashil moliya" mexanizmlari orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish kengayadi va korxonalarning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, ekologik investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Korxonalarda ekologik samaradorlikni oshirishda inson resurslari muhim rol oʻynaydi. Xodimlarning ekologik bilim va koʻnikmalarini oshirish, ularni qayta tayyorlash va "yashil kompetensiyalar"ni rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ekologik ongli xodimlar resurslardan tejamkor foydalanadi va chiqindilarni kamaytirishga faol hissa qoʻshadi [6].

Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayonlari yashil menejment samaradorligini yanada oshiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida energiya

iste’moli, chiqindilar va ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini tez va aniq qabul qilish imkonini beradi hamda korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi.

2-jadval

Yashil menejment elementlarining korxona samaradorligiga ta’siri

Elementlar	Ta’sir yo‘nalishi	Natija
Energiya samaradorligi	Xarajatlarni kamaytirish	Rentabellik oshadi
Chiqindilarni kamaytirish	Ekologik xavfsizlik	Barqarorlik ta’minlanadi
Yashil moliya	Investitsiyalarni jalb qilish	Innovatsion rivojlanish
Xodimlarni tayyorlash	Mehnat unumdorligi	Ish samaradorligi oshadi
Raqamlashtirish	Jarayonlarni optimallashtirish	Tezkor boshqaruv

Yashil menejmentni joriy etish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi bilan bir qatorda iqtisodiy samaradorlik ham oshadi. Bu esa korxonalarni ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, yirik kompaniyalar tomonidan ESG hisobotlarining joriy etilishi ushbu yo‘nalishning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, yashil menejmentni joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, dastlabki investitsiya xarajatlarining yuqoriligi, zamonaviy ekologik texnologiyalar yetishmasligi hamda malakali kadrlar taqchilligi asosiy to‘siqlar hisoblanadi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda ushbu xarajatlar o‘zini oqlaydi, chunki yashil menejment korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil menejmentni joriy etish korxona samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. U nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni ham yaxshilaydi.

Xulosa. Sunday qilib, korxonalarda yashil menejmentni joriy etish zamonaviy iqtisodiy sharoitda samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekologik omillarni boshqaruv tizimiga integratsiya qilish orqali resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilar hajmini kamaytirish hamda energiya samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada korxonaning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy ko‘rsatkichlari ham yaxshilanadi. Shu bilan birga, yashil menejmentni qo‘llash korxonalarni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘rganilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, korxonalarda yashil menejment tizimini joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan soliq imtiyozlari va ekologik investitsiyalarni rag‘batlantirish zarur. Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejamkor va kam chiqindili texnologiyalarni keng joriy etish orqali xarajatlarni optimallashtirish lozim. Uchinchidan, korxonalarda ekologik ko‘rsatkichlarni baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish, xususan raqamli texnologiyalar asosida real vaqt rejimida nazoratni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xodimlarning ekologik bilim va ko‘nikmalarini oshirish, “yashil kompetensiyalar”ni shakllantirish zarur. Bundan tashqari, yashil moliya instrumentlarini rivojlantirish orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish hajmini kengaytirish korxonalar innovatsion rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yashil menejmentni keng joriy etish orqali korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqlari va ma’ruzalari to‘plami. https: //president.uz/uz
3. Loknath, Y., & Azeem, B. A. (2017, October). Green management–concept and strategies. In National conference on marketing and sustainable development (Vol. 13, No. 14, pp. 688-702).
4. King, C. W. (2015). The rising cost of resources and global indicators of change. American Scientist, 103(6), 410-417.
5. Roy, M., Sen, P., & Pal, P. (2020). An integrated green management model to improve environmental performance of textile industry towards sustainability. Journal of Cleaner Production, 271, 122656.
6. Смелова, Д. В. (2022). “ Зеленый“ менеджмент и“ зеленые“ финансы в обеспечении устойчивого развития компании. Управленческий учет, (12-3), 785-790.

Fozilov Xayot Raximovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: hayotbek.fozilov@fstu.uz
Yunusaliyev Izzatillo Alijon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi.

YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining mohiyati, uning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati hamda O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatda ekologik muammolarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tishning ustuvor yo‘nalishlari va uning istiqbollari haqida muhim xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, yashil texnologiyalar, yashil ekologiya, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi.

Kirish. Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda faol siyosat yuritib, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni uyg‘unlashtirishga intilmoqda. Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o‘sishga erishish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. Bu modelda energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti uzoq yillar davomida tabiiy resurslarga, ayniqsa, qazilma yoqilg‘iga tayangan holda rivojlandi. Bu esa ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Jumladan: Atmosfera ifloslanishi, Suv resurslarining kamayishi, Orol dengizi fojeasi, Yer degradatsiyasi. Shu sababli mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategik ahamiyat kasb etmoqda. [1]

Asosiy qism. Yashil iqtisodiyotning asosiy rivojlantirish yo‘nalishlari qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish.

O‘zbekistonda quyosh va shamol energetikasi katta salohiyatga ega. So‘nggi yillarda quyosh elektr stansiyalari qurilishi va investitsiyalar jalb etilishi bu yo‘nalishning ustuvor ekanini ko‘rsatmoqda.

2. Energiya samaradorligini oshirish.

Sanoat korxonalari va uy xo‘jaliklarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanish mumkin.

3. Qishloq xo‘jaligini ekologiklashtirish.

Tomchilatib sug‘orish, organik dehqonchilik va suvni tejash texnologiyalarini joriy etish orqali qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish mumkin.

4. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish.

Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish ekologik holatni yaxshilaydi.

5. “Yashil” transport tizimini rivojlantirish.

Elektr transport vositalarini keng joriy etish, jamoat transportini modernizatsiya qilish orqali havoni ifloslanishini kamaytirish mumkin.

6. Ekologik ta’lim va madaniyatni oshirish.

Aholining ekologik ongini oshirish yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi.

Iqtisodiy barqarorlik — bu mamlakat yoki hudud iqtisodiyotining ichki va tashqi omillar ta’siriga bardosh bera olish, barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, iqtisodiy inqirozlar va tebranishlardan minimal zarar ko‘rish qobiliyatidir. Shu o‘rinda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘llariga ham qisqacha to‘xtalib

o‘tsak. Ular asosan mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, diversifikatsiyalangan iqtisodiyot yaratish (ya’ni bitta soha yoki resursga qaramlikni kamaytirish), sarmoyalar uchun qulay muhit yaratish, davlat boshqaruvida shaffoflik va samaradorlikni oshirish, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rivojlantirish kabilardan iborat. [2]

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha ko‘pgina iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgani ayni haqiqatdir. Bu borada qator hujjatlar qabul qilingan:

“Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, Energiya samaradorligini oshirish dasturlari hamda Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari shular jumlasidandir. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yashil texnologiyalar — bu atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, tabiiy resurslarni tejaydigan va barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan texnologiyalardir.

Yashil ekologiya — bu tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va inson faoliyatining atrof-muhitga zararini kamaytirishga qaratilgan yondashuvdir. U ko‘pincha Barqaror rivojlanish g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq. [3]

Yechimlar — sifatida mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, quyosh va shamol energiyasiga asoslangan yirik loyihalarni amalga oshirish, zamonaviy quyosh elektr stansiyalarini qurish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa tomchilatib sug‘orish tizimini kengaytirish zarur.

Bundan tashqari, chiqindilarni samarali boshqarish masalasi ham dolzarbdir. Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta foydalanishga yo‘naltirish mumkin. Transport sohasida esa ekologik toza yechimlarga o‘tish, ya’ni elektr avtomobillar va zamonaviy jamoat transporti tizimini rivojlantirish orqali havoga zararli moddalar chiqishini kamaytirish ko‘zda tutilmoqda. [4]

Hozirgi kunda mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 27 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan. Bu borada nafaqat quyosh va shamol stansiyalari, balki kichik gidroelektr stansiyalar qurilishi ham jadallashmoqda. 2024-yilda qiymati 1, 3 milliard dollardan ortiq bo‘lgan chiqindilardan energiya ishlab chiqarish loyihalarining boshlanishi ushbu sohada muhim bosqich bo‘ldi. Shuningdek, Jizzax viloyatida Rossiya bilan hamkorlikda kichik modulli atom elektr stansiyasi qurilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalqaro moliyaviy vositalar, jumladan “green bond”lar chiqarilmoqda. O‘zbekiston London fond birjasida yashil obligatsiyalarni joylashtirib, katta miqdorda investitsiyalarni jalb qilishga erishdi. Shu bilan birga, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, FAO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda energiya, qishloq xo‘jaligi va suv resurslarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. [5]

Kelajakda esa qayta tiklanuvchi energiya ulushini 40–54 foizgacha oshirish, karbonat angidrid chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish asosiy maqsadlardan biri qilib belgilangan. Bu orqali O‘zbekiston Markaziy Osiyoda yashil iqtisodiyot bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylanishni ko‘zlamoqda. Umuman olganda, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga, kelajak avlodlar uchun toza va sog‘lom muhit yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli bu yo‘nalishda davlat, biznes va jamiyatning hamkorligi nihoyatda muhimdir.

UNTF Survey 2025 doirasida O‘zbekiston erishgan natijalar bu nafaqat islohotlar samaradorligining tan olinishi, balki xalqaro hamkorlar va investorlar uchun ham muhim ishoradir: mamlakat tobora ochiqlashmoqda, raqobatbardosh va global yetkazib berish zanjirlariga chuqur integratsiyalashmoqda. Bu natijalar O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish yo‘lidagi mavqeini mustahkamlab, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun zamonaviy va shaffof infratuzilma shakllanishiga va “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan mahsulot va xizmatlar eksportini oshirish bo‘yicha maqsadlarga erishishga ham xizmat qiladi.[6]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi O‘zbekiston uchun barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishga erishish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish ham mumkin. Fikrimizcha, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni izchil va tizimli amalga oshirilsa, O‘zbekiston kelajakda ekologik barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotga ega davlatlardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish maqsadlari.” [Hukumat hujjatlari]
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2022). “Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar.” [Rasmiy hisobotlar].
4. Jahon banki. (2021). “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari.”
5. BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP). (2022). “O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlash: muammolar va yechimlar.” [Tadqiqot].
6. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). (2020). “Yashil iqtisodiyot: global tendentsiyalar va strategiyalar.”

Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: g.k.isomitdinova@fstu.uz

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANISHIDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI

Annotatsiya. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish strategiyasida “yashil iqtisodiyot” muhim o‘rin egallay boshladi. Ushbu maqolada “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning asosiy yo‘llari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot atamasi hozirgi kunda barqaror iqtisodiy rivojlanishning kaliti sifatida qaralib, bu tizim ekologik jihatdan toza texnologiyalar, energiya tejamkorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishlash kabi elementlarga tayanishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. Milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, uning ahamiyati, afzalliklari.

KIRISH. Sir emaski, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalariga ko‘pincha yetarlicha e’tibor berilmaydi. Biroq, iqtisodiy o‘sish ko‘pincha atrof-muhitning ifloslanishi va yomonlashuvi bilan birga kechishini tan olmaslik mumkin emas. Bu tabiiy resurslarning kamayishi, ekotizimlar muvozanatining buzilishi va iqlim o‘zgarishi bilan namoyon bo‘lib, keyingi rivojlanish istiqbollarini cheklaydi. Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish kabi masalalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolarning kuchayishi natijasida yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurati vujudga kelmoqda.

Ma’lumki bugungi kunda milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot kabi atamalar ko‘p uchramoqda.

Dastlab ularning mazmuniga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Milliy iqtisodiyot - bu ma’lum bir davlatning hududida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy faoliyatlar yig‘indisidir. Ya’ni, u mamlakat ichida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish - bu hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga zarar yetkazmaydigan rivojlanishdir.

Yashil iqtisodiyot - bu insonlar hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan moddiy, ma’naviy ne’matlarni, atrof-muhitni bioxilma-xillikni bir butun saqlab qolgan holda, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanayotgan faoliyatdir. Atrof-muhitni saqlash va inson ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyot kelajak avlod farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. “Yashil” iqtisodiyot uzoq muddatli istiqbolda insonlar turmush darajasini oshirishga xizmat qiladigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq faoliyat turlari yig‘indisidir. Shu bilan birga, kelajak avlodlar jiddiy ekologik muammolarga yoki

resurslar taqchilligiga duch kelmaydi. “Yashil” iqtisodiyot nazariyasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Cheklangan makonda o‘z ta’sirini cheksiz kengaytirib bo‘lmaydi.

2. Resurslar cheklangan sharoitda o‘sib borayotgan ehtiyojlarni cheksiz qondirib bo‘lmaydi.

3. Dunyoda hamma narsa o‘zaro bog‘liq. “Yashil” iqtisodiyot doirasida bir nechta asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: Ekologlarning fikricha, Yer yuzida iqlimning jiddiy o‘zgarishining oldini olish uchun hozirgacha ma’lum bo‘lgan barcha yonuvchi foydali qazilmalarning yarmidan ko‘pini qo‘l tekkizmasdan saqlash kerak. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bir kishiga to‘g‘ri keladigan qattiq maishiy chiqindilar miqdori kuniga 1 kg dan 3 kg gachani tashkil etadi. Sayyoramizning har oltinchi aholisi chuchuk ichimlik suvi tanqisligini boshdan kechirmoqda. Qishloq xo‘jaligida organik dehqonchilik qo‘llaniladi, bu gerbitsidlar, pestitsidlar, zaharli kimyoviy moddalar va sun’iy o‘g‘itlardan foydalanishni rad etishni anglatadi. Bu esa kelajakda inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan faqat tabiiy va toza mahsulotlar hajmi ko‘payishini ko‘rsatadi. [1]

ASOSIY QISM. XXI asrda dunyo hamjamiyati oldida jahon iqtisodiyotini rivojlanishi bo‘yicha bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Jahon iqtisodiyotining shiddat bilan rivojlanish davrida insonlarni yaxshiroq sharoitga intilishi sababli kundan kunga mahsulotlar va xizmatlarga talab ortib bormoqda. Ortib borayotgan talabni qoniqtirish maqsadida ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida doimiy ravishda o‘sish kuzatilyapti.

Ammo hozirgi jahon iqtisodining shakliga qaraydigan bo‘lsak, u asosan qazilma yoqilg‘ilarga asoslangan bo‘lib, bu faoliyat natijasida atrof-muhit katta zarar ko‘rmoqda. Shuningdek, yoqilg‘ilarning samarasiz ishlatilishi natijasida qazilma yoqilg‘ilar qazib chiqarish hajmi yildan yilga kamayib borayotgan bo‘lsa-da, ularga bo‘lgan talab haligacha yuqori bo‘lib turibdi. Shu sababli dunyo bozorida qazilma yoqilg‘ilar narxi kun sayin o‘sishi kuzatilmoqda.

Albatta hozirgi zamonda barcha ishlab chiqarish korxonalari qazilma yoqilg‘ilar hisobidan ishlashlari sababli ularning narxi ko‘tarilishi mahsulot tannarxiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Bundan tashqari, insonlarning hozirgi qazilma yoqilg‘ilarga asoslangan iqtisodiyotdagi faoliyati natijasida atmosferaga doimiy ravishda katta miqdorda issiqxona gazlari (IG) tashlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iqlim o‘zgarishi sabab bo‘ladi va uning oqibatida qurg‘oqchilik, yer degradatsiyasi, ko‘chatlarning nobud bo‘lishi, ekin yerlarining qisqarib qurishi va shuningdek, boshqa ijtimoiy muammolarni keltirib chiqmoqda.

Yuqoridagi muammolar sababli mavjud jahon iqtisodiyot modeli barqaror emasligi ma’lum bo‘ldi va rivojlanish maqsadlarini qaytadan qo‘rib chiqish zarurati tug‘ildi va tez orada eng yaxshi yo‘l “yashil” iqtisodiyotga o‘tish ekanligi ma’lum bo‘ldi. [2]

Avvalambor dunyo hamjamiyati tomonidan barqaror rivojlanish masalasi ko‘tarildi. Birinchi marta 1987-yilda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti komissiyasi tomonidan barqaror rivojlanishning aniqroq ta’rif berildi: “Barqaror

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasi birinchi marta 1989-yil faoliyatga kiritilgan bo‘lib, Barqaror rivojlanish asosiy uch yo‘nalishni o‘z ichiga oladi, bular iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalardir. Barqaror rivojlanish uchun bu yo‘nalishlarning har biriga katta e’tibor berish lozim.1992-yilda Rio-Dejaneyroda BMTning “Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiya”sida “XXI asr kun tartibi” qabul qilindi. Ushbu Hujjatda Barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida “yashil” iqtisodiy siyosat choralari e’lon qilindi. [3]

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi tamoyillari asosida iqtisodiy o‘sishga qaratilgan e’tibor “yashil” o‘sish tushunchasini dunyoga keltirdi. “Yashil” o‘sish konsepsiyasi birinchi marta 2005-yilda taklif qilingan. 2009-yildagi BMTning atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan butun jahon krizisidan chiqish maqsadida taklif etilgan “Global “yashil” yangi yo‘nalish” konsepsiyasida o‘rin olgan. Shundan so‘ng 2012-yil Rio+20 konferensiyasida hukumatlar “yashil” iqtisodiyotni barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqishga kelishib oldilar, uning o‘ziga xos xususiyati inklyuziv tabiati va iqtisodiy o‘sish, bandlik va kambag‘allikni tugatishga ko‘maklashish qobiliyatlari sayyoramiz ekotizimlarining normal ishlashini ta’minlaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uning natijasida iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash dunyo hamjamiyati oldidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu iqtisodiyot modelini rivojlantirish mamlakatni nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik xavfsizlik jihatidan ham yuqori darajaga olib chiqishi mumkin. [4]

XULOSA.O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari katta. Birinchidan, global tendentsiyalar va xalqaro talablar bu yo‘nalishda yanada faollashishni taqozo etmoqda. Iqlim o‘zgarishi va ekologik inqirozlar, xususan, O‘zbekiston kabi quruq iqlimli davlatlar uchun katta xavf tug‘diradi. Bu esa yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni zaruratga aylantiradi. Ikkinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki, O‘zbekistonga yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun katta miqdorda kredit va grantlar ajratmoqda. Ushbu moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mamlakatning energiya tizimini diversifikatsiya qilish va ekologik loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi. Uchinchidan, O‘zbekistonning tabiiy resurslari va geografik joylashuvi yashil iqtisodiyot uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Quyosh va shamol energiyasi sohasida katta salohiyatga ega bo‘lgan hududlar ushbu energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha yetakchi bo‘lishi mumkin. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2030-yillarda “O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risidagi qarori, 04.10.2019.

2. Кокорин А.О. (ред.) Перспективы энергетическиих технологий. Стратегии и сценарии до 2050 г. Часть 1. Технологии и экономика мировой энергетики до 2050 г. М.: ОЭСР/МЭА, WWF России, 2007. – 206 с.

3. Иванова, Н. И., & Левченко, Л. В. (2017). «Зеленая» экономика: сущность, принципы и перспективы. Вестник Омского университета. Серия «Экономика», (2), 19-28

4. Abduraxmonov K.X., Zokirov S.S. “Yashil iqtisodiyot: nazariya va amaliyot”, Toshkent, “Iqtisodiyot”, 2020.
5. Kamilova N.A., Farmonov T.X. “Yashil iqtisodiyotning ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholash”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №4, 2021

Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.(PhD), dotsent
e-mail: ilyosov.A@fstu.uz

YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH: BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLIL ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida O‘zbekiston sanoat korxonalarida resurs samaradorligini oshirishning iqtisodiy va buxgalteriya hisobi jihatlari tadqiq etilgan. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushi, energiya va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, ekologik soliqlar hamda yashil investitsiyalarning hisobi bo‘yicha tahlil o‘tkazilgan. Maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tishda buxgalteriya hisobining transformatsiyasi va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, resurs samaradorligi, ekologik buxgalteriya hisobi, yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish, karbon izlar, yashil moliyalashtirish, ESG hisoboti.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida har bir mamlakat o‘zining strategiyasini, eng muhim rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab olishga hamda Barqaror rivojlanish indeksidagi ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilashga qaratilgan siyosat amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi ham 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va 2050-yilga qadar iqlim betarafligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar olgan. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishida energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirishni tegishli buxgalteriya hisobi vositalari orqali aks ettirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda [1].

2023-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda jami elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 71, 4 mlrd kVt/soatni tashkil etdi, shundan qayta tiklanadigan manbalardan atigi 12, 3% (8, 8 mlrd kVt/soat) ishlab chiqarildi. 2030 yilga qadar bu ko‘rsatkichni 40% ga yetkazish maqsad qilib belgilangan [2]. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilning tutgan o‘rni va roli o‘rganiladi.

Asosiy qism. Xalqaro amaliyotda ESG (Environmental — ekologik, Social — ijtimoiy, Governance — boshqaruv) hisobotlari keng tarqalgan bo‘lib, bugungi kunda Fortune 500 ro‘yxatidagi kompaniyalarning 96% dan ortig‘i ESG

hisobotlarini muntazam nashr etadi. Ushbu hisobotlar nafaqat shaffoflikni ta’minlaydi, balki xorijiy investorlarning qaroriga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi: yirik institutsional investorlarning 85% i investitsiya qarorlarida ESG ko‘rsatkichlarini hal qiluvchi mezon sifatida hisobga oladi [3]. O‘zbekistonda ham ESG hisobotchiligini joriy etish zarurati tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda — mamlakatimizning xalqaro kapital bozorlariga integratsiyasi, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish va eksport qiluvchi korxonalarning Yevropa bozorlaridagi raqobatbardoshligini saqlab qolish aynan ESG standartlariga rioya etishni talab qilmoqda [4].

O‘zbekiston iqtisodiyotidagi yirik sanoat korxonalari misolida o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, 2022-2024 yillarda ko‘rsatkichlar quyidagicha shakllandi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston sanoat korxonalarida resurs samaradorligi ko‘rsatkichlari (2022–2024 yy.)

№	Ko‘rsatkich	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	Energiya sarfi (tne/mlrd so‘m YaIM)	142, 3	135, 7	128, 4
2.	Suv sarfi (m^3/mlrd so‘m YaIM)	890, 2	862, 4	834, 1
3.	CO_2 emissiyasi (mln tonna)	98, 6	94, 2	91, 8
4.	Yashil investitsiyalar (mlrd so‘m)	3420	5160	7840
5.	Qayta tiklanadigan energiya ulushi (%)	10, 1	12, 3	15, 6

Manba: O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi, 2024 [4]

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, so‘nggi uch yil ichida energiya va suv sarfi bosqichma-bosqich kamayib bormoqda: energiya sarfi 2022 yildan 2024 yilga kelib 9, 8% ga, suv sarfi esa 6, 3% ga qisqargan. Ayni paytda yashil investitsiyalar hajmi 2022 yildagi 3 420 mlrd so‘mdan 2024 yilda 7 840 mlrd so‘mga, ya’ni 2, 3 martaga oshgan. Qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushi esa xuddi shu davrda 10, 1% dan 15, 6% ga ko‘tarilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar majmui yashil iqtisodiyot siyosatining dastlabki ijobiy natijalarini yaqqol namoyon etmoqda va belgilangan 2030 yil maqsadlariga erishish uchun hozirgi sur’atni yanada tezlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Buxgalteriya hisobida resurslardan foydalanishni hisobga olishning bir necha asosiy usuli mavjud. Birinchisi — to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar hisobi: energiya, suv va xom ashyo sarfi alohida xarajat moddasi sifatida ajratib hisoblanadi va dinamikada tahlil qilinadi. Ikkinchisi — ekologik majburiyatlar hisobi: korxona kelajakda atrof-muhitni tiklash, chiqindi utilizatsiya qilish yoki karbon kvotalarini sotib olish uchun sarflaydigan mablag‘lar aktivlar va passivlarda aks ettiriladi. Uchinchisi — yashil aktivlar amortizatsiyasi: quyosh panellari, shamol turbinalari yoki tozalash inshootlari kabi ekologik ahamiyatga ega asosiy vositalar bo‘yicha alohida amortizatsiya siyosati qo‘llaniladi. Korxonalarda ushbu usullarning birgalikda tatbiq etilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi, boshqaruv qarorlarini asoslashga yordam beradi va investorlar hamda davlat nazorat organlari uchun muhim axborot manbaiga aylanadi [5].

Mazkur yondashuvning amaliy samarasi raqamlarda ham o‘z ifodasini topmoqda. Yashil sertifikat olgan korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarining

o‘rtacha 7–12% ga kamayishi kuzatilmoqda, chunki energiya tejash bevosita tannarxni pasaytiradi, chiqindilarni qayta ishlash esa qo‘shimcha daromad manbaiga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, bunday korxonalar davlat tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari va subsidiyalardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. O‘zbekistonda 2024 yilga kelib 184 ta korxona ISO 14001 ekologik menejmenti sertifikatiga ega bo‘lgan bo‘lsa [4], bu ko‘rsatkich 2021 yilda atigi 67 tani tashkil etgan edi — uch yil ichida 2, 7 martaga o‘sish sodir bo‘lgan. Shunga qaramay, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan jami 12 000 dan ortiq sanoat korxonasi hisobga olinsa, sertifikatlangan korxonalarning ulushi hali 1, 5% atrofida qolmoqda, bu esa sohada katta salohiyat va imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi O‘zbekiston sanoatini modernizatsiyalashning strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil tizimlarini ekologik ko‘rsatkichlar bilan boyitish quyidagi afzalliklarni beradi: birinchidan, resurslardan foydalanish samaradorligi ko‘tarilib, tannarx pasayadi; ikkinchidan, ESG hisobotlari xorijiy investorlarning ishonchini oshiradi; uchinchidan, davlat soliq imtiyozlari va subsidiyalaridan foydalanish imkoni kengayadi. Muallif tavsiyasi: barcha yirik sanoat korxonalari yillik moliyaviy hisobotlariga ekologik hisobni majburiy ravishda kiritishi va O‘zbekiston milliy standartlari yashil hisobot talablarini o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov A.R. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 210 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PF-6329-sonli Farmoni “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”.

3. GRI Standards. Global Reporting Initiative Sustainability Reporting Standards. – Amsterdam, 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. 2024 yil statistik to‘plami. – T.: 2024.

5. Abdullayev N.X., Yusupov M.T. Ekologik buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. – T.: TDIU, 2023. – 148 b.

Qudbiyev Nodir Tohirovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti,
e-mail: nodir.qudbiyev@fstu.uz.

KORXONALARDA IJARA MUNOSABATLARINING BUXGALTERIYA HISOBINI “YASHIL IQTISODIYOT” KONSEPSIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda korxonalarda ijara munosabatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida an’anaviy va “yashil ijara” yondashuvlarining farqlari ochib berilib, ularning iqtisodiy va ekologik samaradorlikka ta’siri asoslab berilgan. Shuningdek, IFRS 16 standarti doirasida ijara operatsiyalarini hisobga olishning amaldagi holati o‘rganilib, ekologik ko‘rsatkichlarni hisobga olish zarurati aniqlangan. Muallif tomonidan yashil ijara operatsiyalarini takomillashtirilgan hisob modeli taklif etilib, uning amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ijara munosabatlari, buxgalteriya hisobi, IFRS 16, ekologik samaradorlik, energiya tejamkorlik, ESG indikatorlari

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni kuchaytirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga o‘tish zamonaviy rivojlanish modelining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Mazkur konsepsiya iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, u barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida e’tirof etiladi [2].

O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini “yashil” tamoyillar asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarorida 2030-yilgacha “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha aniq strategik maqsadlar belgilab berilgan. Unga ko‘ra, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [1]. Mazkur vazifalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishni taqozo etadi.

Mazkur transformatsiya jarayonida korxonalarda ijara munosabatlari muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ijara munosabatlari korxonalarga asosiy vositalardan samarali foydalanish, investitsion yukni kamaytirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijara munosabatlari resurslarning harakatchanligini oshiradi, tadbirkorlik faolligini rag‘batlantiradi hamda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3]. Shu bilan

birga, ijara operatsiyalarining buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi korxonalarning moliyaviy natijalarini haqqoniy baholashda muhim omil hisoblanadi [4].

Shu nuqtai nazardan, ijara munosabatlarini “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki an’anaviy iqtisodiy faoliyat ko‘pincha resurslarning ortiqcha sarflanishi va ekologik muammolarning kuchayishiga olib keladi. “Yashil iqtisodiyot” esa energiya tejovchi texnologiyalarni qo‘llash, ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va chiqindilarni kamaytirish orqali iqtisodiy faoliyatni optimallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa ijara obyektlarini tanlashda ham yangi mezonlarni, ya’ni ekologik samaradorlik va energiya tejamkorlik ko‘rsatkichlarini hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarda ijara munosabatlarining rivojlanishi va ularning buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida ushbu munosabatlarni tashkil etish korxonalarning nafaqat moliyaviy natijadorligini, balki ekologik barqarorligini ham ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ijara munosabatlari orqali korxonalar asosiy vositalardan samarali foydalanish, katta hajmdagi boshlang‘ich kapital qo‘yilmalarisiz ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va investitsion faollikni oshirishga olib keladi [3].

Shu bilan birga, ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda, xususan IFRS 16 standartiga muvofiq, ijara aktivlari foydalanish huquqi aktivi sifatida tan olinib, tegishli majburiyatlar bilan birga balansda aks ettiriladi [5]. Bu yondashuv korxonalarning moliyaviy holatini yanada haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda ijara obyektlarini baholash, ularni tasniflash, uzoq muddatli majburiyatlarni diskontlash hamda ekologik ko‘rsatkichlarni hisobga olish bilan bog‘liq qator muammolar mavjud bo‘lib qolmoqda.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining joriy etilishi ushbu munosabatlarga yangi mazmun bag‘ishlamoqda. Mazkur yondashuv iqtisodiy faoliyatni resurslarni tejash, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavflarni kamaytirish asosida tashkil etishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorida iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va resurslardan oqilona foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Bu esa korxonalarda ijara obyektlarini tanlashda ham ekologik mezonlarning ustuvorligini ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Natijada “yashil ijara” tushunchasi shakllanib, u an’anaviy ijaradan farqli ravishda ekologik samaradorlikni ham nazarda tutadi. Ya’ni, korxonalar energiya tejamkor uskunalar, ekologik xavfsiz texnologiyalar va kam resurs talab qiladigan ishlab chiqarish vositalarini ijaraga olishga intilmoqda. Bu jarayon uzoq muddatda xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik

barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu farqlarni quyidagi jadval orqali yanada aniqroq ko‘rish mumkin.

1-jadval

An’anaviy va “yashil” ijara munosabatlarining solishtirma tahlili

Ko‘rsatkichlar	**An’anaviy ijara**	**Yashil ijara**
Asosiy maqsad	Foyda olish	Foyda + ekologik samaradorlik
Aktiv tanlash mezoni	Narx va funksionallik	Energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik
Xarajatlar	Qisqa muddatli past xarajat	Uzoq muddatda tejamkor
Hisobda aks ettirish	Faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar	Moliyaviy + ekologik ko‘rsatkichlar
Natija	Moliyaviy foyda	Barqaror rivojlanish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yashil ijara munosabatlari iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ekologik samaradorlikni ham ta’minlaydi. Bu esa korxonalar faoliyatini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Biroq, mavjud buxgalteriya hisobi tizimi ushbu jarayonlarni to‘liq qamrab ololmayapti. An’anaviy hisob tizimi asosan moliyaviy ko‘rsatkichlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ekologik omillarni hisobga olish yetarli darajada rivojlanmagan. Shu sababli, ijara operatsiyalarini hisobga olish tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Taklif etilayotgan yondashuvga ko‘ra, foydalanish huquqi aktivlarini hisobga olishda ularning ekologik samaradorligi, energiya tejamkorlik darajasi va atrof-muhitga ta’siri ham inobatga olinishi lozim. Bu borada quyidagi modelni taklif etish mumkin:

2-jadval

Yashil ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish modeli

Hisob elementi	**Mazmuni**	**Takomillashtirish yo‘nalishi**
Aktivlar	Foydalanish huquqi aktivi	Ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlarini qo‘shish
Majburiyatlar	Ijara majburiyatlari	Diskontlash va ekologik risklarni hisobga olish
Xarajatlar	Ijara to‘lovlari	Energiya tejamkorlik natijalarini ajratish
Hisobot	Moliyaviy hisobot	ESG indikatorlarini kiritish

Mazkur model korxonalarga nafaqat moliyaviy natijalarni, balki ekologik samaradorlikni ham baholash imkonini beradi. Bu esa investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun yanada to‘liq va ishonchli axborot shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijara munosabatlarini “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida tashkil etish korxonalar uchun bir qator

ustunliklarni ta’minlaydi. Xususan, energiya sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, korxonalarning investitsion jozibadorligi ortadi va ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Biroq, ushbu jarayonni amalga oshirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, yashil texnologiyalarning boshlang‘ich qiymati nisbatan yuqoriligi, buxgalteriya hisobi standartlarining to‘liq moslashmaganligi hamda ekologik hisob yuritish bo‘yicha malakali mutaxassislarning yetishmasligi ushbu sohadagi asosiy cheklovlar hisoblanadi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga moslashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish zarur.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda ijara munosabatlarini “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida tashkil etish iqtisodiy samaradorlikni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtiruvchi muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bu esa nafaqat alohida korxonalar darajasida, balki butun milliy iqtisodiyot miqyosida barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, korxonalarda ijara munosabatlarini “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida tashkil etish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ijara tizimi asosan moliyaviy natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, “yashil ijara” yondashuvi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ham ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish orqali ekologik ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish zarurati yuzaga keladi.

Amaliy jihatdan, korxonalarda foydalanish huquqi aktivlarini baholashda energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlik mezonlarini joriy etish, moliyaviy hisobotlarda ESG indikatorlarini aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ijara majburiyatlarini hisobga olishda ekologik risklarni inobatga olish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Ilmiy taklif sifatida, milliy buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish, xususan, IFRS 16 doirasida “yashil” komponentlarni kengaytirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, soha mutaxassislarining malakasini oshirish, ekologik hisob yuritish bo‘yicha metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, “yashil ijara” tizimini rivojlantirish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son.

2. Липина, С. А., Кудряшова, Е. В., Агапова, Е. В., Зайков, К. С., Закондырин, А. Е., Зленко, Е. Г., ... & Фадеев, А. М. (2022). Зеленая экономика: управление развитием. Стратегия и тактика.

3. Tohirovich Q. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR O‘RTASIDA IJARA (LIZING) MUNOSABATLARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (6), 98-107.

4. Медовый, А. Е., & Медовый, В. В. (2017). Инструменты «зеленой» экономики в стратегиях развития рынка недвижимости России. Вестник экспертного совета, (2 (9)), 57-61.

5. Díaz, J. M., & Ramírez, C. Z. (2018). IFRS 16 (leases) implementation: Impact of entities' decisions on financial statements. Aestimatio: The IEB International Journal of Finance, (17), 60-97.

Muxamadjonova Durdona Adashboy qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi i.f.f.d.,
e-mail: d.razzoqova@fstu.uz
Yusupova Odinaxon Parxodjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
67B-24 BH guruhi talabasi

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA EKOLOGIK KO‘RSATKICHLARNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashda ekologik ko‘rsatkichlarning tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Ekologik va moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinib, ESG (Ekologiya, Ijtimoiy javobgarlik va Korporativ boshqaruv) mezonlarining moliyaviy barqarorlikka ta’siri yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston savdo korxonalari misolida ekologik risklarning moliyaviy natijalar bilan korrelyatsiyasi ko‘rsatilgan hamda moliyaviy barqarorlikni kompleks baholashning yangi metodologik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik, ekologik ko‘rsatkichlar, ESG, yashil moliya, karbonli iz, ekologik risklar, barqaror rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning kamayib borishi va atrof-muhitning ifloslanishi muammolari global iqtisodiyotning asosiy sarlavhalariga aylanib bormoqda. Xalqaro moliya institutlari va investorlar tobora ko‘proq korxonalarning moliyaviy natijalarini faqat an’anaviy balans ko‘rsatkichlari asosida emas, balki ularga bog‘liq ekologik va ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan ham baholashni talab qilmoqda. Ushbu tendensiya yashil

iqtisodiyot tamoyillarining global moliya tizimiga chuqur singib borayotganidan dalolat beradi [1].

O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu global jarayonlardan chetda qolmay, 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, yashil iqtisodiyotga o‘tish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida qator strategik hujjatlarni qabul qildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini milliy iqtisodiyotga joriy etish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan [2]. Bu esa korxonalar faoliyatini baholashda ekologik mezonlarning rolini yanada kuchaytiradi.

Moliyaviy barqarorlik an’anaviy tushunchasida korxonaning o‘z majburiyatlarini bajarish, qarzlarini to‘lash va uzoq muddatli faoliyatini davom ettirish qobiliyati tushuniladi. Biroq yashil iqtisodiyot paradigmasi doirasida bu tushuncha yangi mazmun bilan boyib, unga ekologik barqarorlik, resurs samaradorligi va iqlim risklariga moslashuvchanlik omillari ham kiruvchi keng qamrovli kontseptsiyaga aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ko‘rsatkichlar yaxshi bo‘lgan korxonalar uzoq muddatda yuqori moliyaviy natijalar ko‘rsatadi va investorlar uchun ham jozibador hisoblanadi [3].

O‘zbekistonda savdo sektori yalpi ichki mahsulotda 14-16% ulushni tashkil etib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Biroq shu bilan birga, savdo korxonalari logistika, qadoqlash, sovutish tizimlari va energiya iste’moli orqali atrof-muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, mazkur sektorda moliyaviy barqarorlikni baholashda ekologik ko‘rsatkichlarni hisobga olish nafaqat ilmiy, balki amaliy zarurat hamdir.

Asosiy qism. Yashil iqtisodiyot tushunchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) tomonidan “Karbon chiqindilari va ekologik tahdidlarni pasaytirgan holda inson farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy tenglikni ta’minlaydigan iqtisodiyot” sifatida ta’riflanadi. Ushbu tushuncha moliya fani bilan kesishgan nuqtada yashil moliya (green finance) kontseptsiyasini yuzaga keltirdi, uning asosida esa ekologik barqarorlikni moliyaviy hisobot va baholash tizimlariga integratsiya qilish g‘oyasi yotadi [1].

Ekologik ko‘rsatkichlar tizimini moliyaviy barqarorlik tahlili bilan integratsiya qilishning nazariy asosi uchta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Birinchi yo‘nalish - ekologik risklarning moliyaviy risklarga transformatsiyasi nazariyasidir. Bu nazariyaga ko‘ra, korxona faoliyatida yuzaga keladigan ekologik risklar (ifloslantirish jarimalari, resurs tanqisligi, iqlim o‘zgarishlari) bevosita moliyaviy yo‘qotishlar va barqarorlik yo‘qolishiga olib keladi. Ikkinchi yo‘nalish - resurs samaradorligi va xarajatlar munosabatidir. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, energiya va resurslarni tejash korxona operatsion xarajatlarini 15-30% ga kamaytirishi mumkin, bu esa moliyaviy barqarorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4]. Uchinchi yo‘nalish - yashil investitsiyalar va kapital jalb qilishdir. ESG mezonlariga mos keluvchi korxonalar yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va mahsus davlat dasturlari orqali kapitalga yanada qulay shartlarda kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston savdo tarmoqida yirik korxonalar - Makro, Korzinka va Texnomart misolida o‘tkazilgan tahlillar ekologik va moliyaviy ko‘rsatkichlar orasidagi munosabatni aniq ko‘rsatmoqda. Mazkur korxonalarning moliyaviy hisobotlari va ekologik faoliyat ma’lumotlari asosida energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va uglerod izining moliyaviy natijalarga ta’siri o‘rganildi.

Korzinka supermarketlar tarmog‘i 2022-2024-yillar davomida yoritish tizimlarini LED texnologiyalariga o‘tkazish va sovutish agregatlarini yangilash orqali elektr energiyasi iste’molini 18% ga kamaytirdi. Bu o‘zgarish yillik operatsion xarajatlarda taxminan 2, 3 mlrd so‘m tejashni ta’minladi va sof foyda rentabelligiga 0, 4 foiz punkt ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Makro tarmog‘i esa qadoqlash chiqindilarini qayta ishlash dasturini joriy etib, yillik chiqindilarga ketadigan xarajatlarni 35% ga kamaytirdi. Texnomart korporatsiyasida esa mahsulot tashish logistikasini optimallashtirish orqali yoqilg‘i xarajatlari 12% ga qisqartirildi.

Mazkur korxonalar misolida olingan natijalar umumiy qonuniyatni tasdiqlaydi: ekologik ko‘rsatkichlarni yaxshilash moliyaviy barqarorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir xarajatlarni kamaytirishda, bilvosita ta’sir esa brendning qadri, iste’molchilar sodiqligining oshishi va investitsion jozibadorlikning kuchayishida namoyon bo‘ladi.

Moliyaviy barqarorlikni ekologik ko‘rsatkichlar bilan birgalikda baholash uchun quyidagi kompleks metodologiya taklif etiladi. Ushbu metodologiya uchta asosiy qismdan iborat: (1) an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar (likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik nisbatlari); (2) ekologik ko‘rsatkichlar (uglerod izi, energiya intensivligi, chiqindilar hajmi, resurs samaradorligi); (3) integratsion ko‘rsatkich - Ekologik-Moliyaviy Barqarorlik Indeksi (EMBI). EMBI xalqaro amaliyotda quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi: EMBI = 0, 5 × MBI + 0, 3 × EKI + 0, 2 × GRI, bu yerda MBI - moliyaviy barqarorlik indeksi, EKI - ekologik ko‘rsatkichlar indeksi, GRI - yashil investitsiyalar nisbati [3].

Xalqaro amaliyotda ESG (Environmental, Social, Governance) tizimi moliyaviy tahlilning tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan. Bloomberg, MSCI va Refinitiv kabi yirik moliyaviy ma’lumotlar provayderlar har bir korxona uchun ESG reytingini hisoblaydi va investorlar ushbu reyting asosida investitsiya qarorlarini qabul qiladi. O‘zbekiston ham xalqaro kapital bozoriga integratsiyalashuvi bilan birga ESG standartlarini joriy etish zaruratiga duch kelmoqda [1].

Quyidagi jadval O‘zbekiston savdo korxonalarida ekologik ko‘rsatkichlar va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

1-jadval

Ekologik ko‘rsatkichlar va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlili

Ko‘rsatkichlar	Makro	Korzinka	Texnomart	O‘rtacha tarmoq
Energiya intensivligi (kVt/soat/m²)	142	128	156	145
CO_2 emissiyasi (t/mlrd so‘m daromad)	18, 4	15, 2	21, 6	18, 4
Chiqindilarni qayta ishlash ulushi (%)	42%	58%	34%	45%

Joriy likvidlik koeffitsienti	1, 38	1, 52	1, 24	1, 38
Sof foyda rentabelligi (%)	4, 1%	5, 3%	3, 2%	4, 2%
Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	0, 54	0, 61	0, 47	0, 54
EMBI (Ekologik-Moliyaviy Barqarorlik Indeksi)	0, 68	0, 74	0, 59	0, 67

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Korzinka korxonasi eng yuqori ekologik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, energiya intensivligi eng past - 128 kVt/soat/m², chiqindilarni qayta ishlash ulushi eng yuqori - 58%, shu bilan birga moliyaviy barqarorlikning ham eng yuqori darajasini namoyish etmoqda. Sof foyda rentabelligi 5, 3%, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 0, 61, EMBI esa 0, 74. Aksincha, Texnomart korxonasida ekologik ko‘rsatkichlar nisbatan past bo‘lib, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari ham past, rentabellik 3, 2%, EMBI 0, 59. Bu korrelyatsiya ekologik samaradorlik va moliyaviy barqarorlikning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi gipotezani tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda ekologik ko‘rsatkichlarni moliyaviy barqarorlik baholash tizimiga joriy etishda bir qator institutsional va metodologik to‘siqlar mavjud. Birinchidan, milliy buxgalteriya standartlari (BHMS) hozircha ekologik xarajatlar va majburiyatlarni aks ettirish uchun to‘liq mexanizmni nazarda tutmaydi. IFRS da esa IAS 37 “Zaxiralar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” standarti ekologik majburiyatlarni hisobda aks ettirishni tartibga soladi, ammo ushbu standart O‘zbekistonda hali to‘liq joriy etilmagan.

Ikkinchidan, savdo korxonalarida ekologik monitoring tizimining yetishmasligi obyektiv ma’lumotlar to‘plashni qiyinlashtiradi. Ko‘pgina korxonalar elektr energiyasi iste’moli, suv sarfi va chiqindilar hajmini tizimli kuzatib bormaydi, bu esa EMBI kabi integratsion ko‘rsatkichlarni hisoblashda ishonchli ma’lumot bazasining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Uchinchidan, ekologik ko‘rsatkichlarni baholashda standartlashtirilgan metodologiyaning yo‘qligi turli korxonalar o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazishni cheklaydi. GRI (Global Reporting Initiative) va TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures) xalqaro standartlari mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston korxonalari ushbu standartlarni qo‘llashda ilk qadamlarni qo‘ymoqda xolos.

Xalqaro tajribada Yevropa Ittifoqida 2023-yildan joriy etilgan CSRD (Corporate Sustainability Reporting Directive) direktivasi yirik korxonalarni yillik moliyaviy hisobot bilan birga batafsil barqarorlik hisobotini ham taqdim etishini majburiy etadi. O‘zbekiston ham ushbu tendensiyadan kelib chiqib, dastlab yirik davlat korxonalari va birjada qatnashuvchi emitentlar uchun ESG hisobotini majburiy qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu qadam xorijiy kapital jalb qilishni osonlashtiradi va mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorga integratsiyasini tezlashtiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ko‘rsatkichlarni moliyaviy barqarorlik baholash tizimiga qo‘shilishi korxona raqobatbardoshligini uzoq muddatli istiqbolda oshiradi. Birinchi navbatda, bu yashil kreditlar va yashil obligatsiyalar bozorida kapitalga kirish imkonini beradi - hozirgi kunda global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 2 trillion dollardan oshib ketgan. Ikkinchidan, xalqaro savdo hamkorlarining ekologik talablariga javob bera olish korxonaning eksport

imkoniyatlarini kengaytiradi. Uchinchidan, O‘zbekistonda elektr energiyasi, suv va yoqilg‘i narxlarining progressiv o‘sishi fonida resurs samaradorligi moliyaviy barqarorlikning kalitga aylanib boradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot paradigmasi sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini faqat an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash yetarli emas. Ekologik ko‘rsatkichlar - energiya intensivligi, karbon emissiyasi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi va resurs samaradorligi - moliyaviy barqarorlik bilan mustahkam korrelyatsiyaga ega bo‘lib, ularning integratsiyalashgan tahlili korxonaning uzoq muddatli barqarorligini to‘liqroq baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston savdo korxonalari misolida o‘tkazilgan tahlil ekologik samaradorlik yuqori bo‘lgan korxonalar moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari, rentabellik, likvidlik, moliyaviy mustaqillik ham yuqori darajada ekanligini isbotlaydi. Ayniqsa Korzinka korxonasining EMBI indeksi bo‘yicha eng yuqori - 0, 74 natijani ko‘rsatishi ushbu qonuniyatni yaqqol tasdiqlaydi.

EMBI (Ekologik-Moliyaviy Barqarorlik Indeksi) metodologiyasi an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar va ekologik ko‘rsatkichlarni birlashtiruvchi kompleks baholash vositasi sifatida amaliy qiymatga ega. Ushbu indeks O‘zbekiston savdo korxonalari uchun solishtirma reyting tuzishda, kredit tahlilida va davlat nazoratida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, institutsional jihatdan O‘zbekistonda milliy “Yashil moliyaviy hisobot” tizimini ishlab chiqish, ekologik monitoring axborot tizimlarini joriy etish va yirik korxonalar uchun ESG hisobotini majburiy qilish - bu uchta tavsiya moliyaviy barqarorlikning ekologik o‘lchamini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonning xalqaro yashil moliya bozoriga integratsiyasini tezlashtirishi va xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNEP (2023). Green Economy Progress Report. United Nations Environment Programme. Geneva. 148 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy ma’lumotlar bazasi.

3. Friede, G., Busch, T., Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. Journal of Sustainable Finance & Investment, 5(4), 210–233.

4. Eccles, R. G., Ioannou, I., Serafeim, G. (2014). The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance. Management Science, 60(11), 2835–2857.

Xikmatova Husnora,
Toshkent davlat agrar universiteti,
“Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrasi assistenti
Hamrayeva Begoyim
Toshkent davlat agrar universiteti,
“Buxgalteriya hisob va audit” yo‘nalishi talabasi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Unda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy innovatsiyalarni ekologik barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda fintex, blokcheyn, sun’iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalarining yashil iqtisodiyotga ta’siri, ularning moliyaviy shaffoflik, samaradorlik va barqaror investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni tahlil qilingan.


Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, yashil moliyalashtirish, fintex, blokcheyn, barqaror rivojlanish, ekologik investitsiya, sun’iy intellekt, Big Data.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “2030 yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi”da iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarning uyg‘unlashuvi barqaror rivojlanishga erishishning muhim sharti sifatida belgilangan. Mazkur komponentlarning bir-biriga moslashuvi murakkab jarayon bo‘lib, ayniqsa iqtisodiy o‘sish jarayonida ekologik cheklovlar va ijtimoiy tenglikka rioya etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibiy qismlari jamiyat oldiga bir avlod davomida adolatga erishish, aholining kambag‘al qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va inson kapitalini rivojlantirish kabi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyatning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’sirini baholash zaruriyati ekologik komponentga e’tiborni keskin oshirdi. Ekologik degradatsiya, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, yerlarning cho‘llanishi kabi omillar, resurslardan oqilona foydalanish zarurligini va yashil iqtisodiyotga o‘tish ehtiyojini yuzaga keltirdi [1].

O‘zbekiston Respublikasida 2019-yil 4-oktabrda “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”ning tasdiqlanishi mamlakat rivojlanishining yangi paradigmasiga asos soldi [2]. Ushbu strategiya energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan. Strategiya doirasida yashil moliyalashtirish, uglerod emissiyalarini kamaytirish, ekologik investitsiyalarni jalb qilish kabi yo‘nalishlar milliy taraqqiyotning ustuvor vazifalari sifatida belgilandi.

Yashil iqtisodiyot – bu barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, uglerod emissiyalarini kamaytirishni maqsad qilgan iqtisodiy modeldir. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Jahon banki tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlik tamoyillariga asoslanadi [3]. Mazkur model uch asosga tayanadi:



1-rasm. Yashil iqtisodiyot tamoyillari[4]

Yashil iqtisodiyot tamoyillari an’anaviy iqtisodiyotdan barqaror iqtisodiyotga o‘tishga yordam beradi. Shuningdek, bu iqtisodiyotning ekologik toza, energiya tejamkor va iqlimga moslashuvchan yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yashil moliyalashtirish siyosati olib boriladi. U nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, balki uni tiklovchi va ekologik muhofazaga xizmat qiluvchi loyihalarni moliyalashtiradi. Dunyo amaliyotida yashil moliyalashtirish quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi.

1-jadval


Xalqaro moliya bozorlarida moliyaviy instrumentlar tarkibi[5]

Moliyaviy instrument	**Mazmuni**
Yashil obligatsiyalar (Green Bonds)	Qayta tiklanuvchi energiya, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash kabi loyihalar uchun chiqariladi.
Subsidiyalangan “yashil” kreditlar	Past foizli yoki foizsiz kreditlar orqali ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi.
Ekologik grantlar	Xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar tomonidan beriladigan moliyaviy yordam.
Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Ekologik infratuzilma va energetika loyihalarida davlat va biznes hamkorligi.
ESG investitsiyalar	Ekologik (E), ijtimoiy (S) va korporativ boshqaruv (G) mezonlari asosida kapital jalb qilish.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini davlat siyosatiga integratsiya qilishni boshladi. Bu yo‘lda eng muhim hujjatlar quyidagilardir:

- **“2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019-yil, 4-oktyabr)** – qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, energiya samaradorligini yaxshilash, ekologik investitsiyalarni jalb qilishni ko‘zda tutadi;[6]
- **“Iqlim o‘zgarishiga moslashuv bo‘yicha Milliy dastur” (2021-yil)** – qurg‘oqchilik, suv tanqisligi va ekstremal ob-havo sharoitlariga moslashishni nazarda tutadi;[7]
- **“Yashil o‘sish yo‘l xaritasi” (2022-yil)** – uglerod neytrallikka erishish, yashil energetika klasterlarini tashkil etish, ekologik fiskal siyosatni rivojlantirishga qaratilgan.[8]

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar yashil siyosatning ajralmas qismi hisoblanib quyidagi rasmda bularni alohida ko‘rib chiqamiz.



2-rasm. Zamonaviy raqamli texnologiyalar[9]

Raqamli moliyaviy texnologiyalar (fintech) yashil iqtisodiyotning muhim katalizatoriga aylandi. Fintech platformalari orqali ekologik loyihalarni kraudfanding qilish, elektron to‘lovlar orqali karbon izi (carbon footprint)ni hisoblash, mobil banking asosida “yashil kreditlar”ni ajratish imkoniyatlari kengaydi. Jahon tajribasi shuni korsatadiki, raqamli moliyaviy texnologiyalardan foydalanish moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirish, ularning ommabopligini kengaytirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va barqaror moliya tizimini shakllantirish bo‘yicha izchil siyosat yuritmoqda. Mamlakatda 2019-yilda qabul qilingan **“2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”** mazkur yo‘nalishda asosiy konseptual hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur strategiya quyidagi ustuvor vazifalarni belgilaydi: [10]

- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini oshirish;
- ekologik toza transport va energiya samarador infratuzilmasini yaratish;
- yashil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish;
- karbon emissiyalarini qisqartirish va ekologik monitoringni raqamlashtirish.

Bundan tashqari, **“Yashil o‘sish yo‘l xaritasi” (2022)** hamda **“Iqlim o‘zgarishiga moslashish dasturi” (2021)** ekologik moliyalashtirishni rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini belgilab berdi. O‘zbekiston moliyaviy bozorida yashil obligatsiyalar

mexanizmi joriy etila boshladi. 2023-yilda London fond birjasida O‘zbekiston tomonidan **yashil xalqaro evroobligatsiyalar** chiqarildi. Ushbu obligatsiyalar quyidagi yo‘nalishdagi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda:

- quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish;
- ichimlik suvi va irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish;
- chiqindilarni qayta ishlash va “aqlli shahar” (smart city) konsepsiyalarini joriy etish.

Shuningdek, O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan **“SDG (Sustainable Development Goals) obligatsiyalari”** chiqarilishi moliyaviy tizimda ekologik yondashuvlar ulushining ortayotganidan dalolat beradi. So‘nggi yillarda tijorat banklari tomonidan raqamli platformalar asosida ekologik kreditlash tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Qayd etish joizki, sabzavotchilik tarmog‘ini barqaror rivojlantirishga doir tashkiliy-tarkibiy, institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq muammolar, ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha ochib berilmagan, iqtisodiyotni raqamlashtirish, yashil iqtisodiyotga o‘tish va innovatsion texnologiyalar joriy etish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Tarmoqdagi mazkur va boshqa shu kabi qator muammolarning zamon talablariga javob beradigan yechimlarni topish, ularni sabzavot mahsulotlari samaradorligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlarida izchil qo‘llashning ob’yektiv zaruriyati mazkur tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Asosiy qism. Olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha sabzavot ekinlari hosildorligini prognoz qilishda tarmoqning bir qator o‘ziga xos alohida xususiyatlarini hamda ular bilan bog‘liq bir qancha omillarni o‘zgarish dinamikasini e’tiborga olinishi talab qilinadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki tadqiqot jarayonida sabzavot yetishtirishda hosildorlik darajasiga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillarning o‘zaro bog‘liq ekanligi kuzatildi. Masalan, sabzavot yalpi mahsulot qiymatiga natijaviy omil deb qaralib, uning o‘sishiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida, sabzavot ekinlari maydoni, 1 ga ekin maydoniga sarflanadigan mineral o‘g‘it narxi, 1 ga ekin maydonga to‘g‘ri

keladigan o‘rtacha hosildorlik darajasi kabi omillarni tanlab olishimiz mumkin (1-jadval):

1- jadval

Regression tahlil usulidan foydalangan holda sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati va uning o‘zgarishini aniqlashda foydalanilayotgan omillar qiymati (misolida) (mlrd so‘m)

Yillar	Y - yalpi mahsulot qiymati	X1 - sarflanadigan mineral o‘g‘itlar qiymati, so‘m	X2 - sabzavot ekin maydoniga	X3 - o‘rtacha hosildorlik ts/ga
2017	2844, 1	33, 5	27575	286.1
2018	4034, 8	33, 6	25485	224.4
2019	3967, 5	38, 36	26206	274.3
2020	3913, 5	38, 1	24802	250
2021	5141, 7	38, 8	23899	259.8
2022	6079, 7	46, 0	24489	235
2023	7462, 7	58, 1	26174	249.9

Yuqorida berilgan jadvaldagi omillar qiymatlari asosida, sabzavot mahsulotlari uchun olingan natijaviy omillar va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni namoyon etuvchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarining korrelyatsiya matritsasi “MATLAB” tizimida dasturlash tilidan foydalanib, omillar o‘rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblaymiz (2-jadval).

2-jadval

Sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymatiga ta’sir qiluvchi omillarning bog‘liqlik holatini ko‘rsatuvchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi

	Y	X_1	X_2	X_3
Y	1.0000			
X_1	0.9406	1.0000		
X_2	-0.3511	-0.0838	1.0000	
X_3	-0.4338	-0.2206	0, 5706	1.0000

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari sabzavotchilikda yalpi mahsuloti qiymati (Y) va mineral o‘g‘itlar qiymati (X1) o‘rtasida aloqa zichligidan (0, 9406), yalpi mahsuloti qiymati (Y) va sabzavotning o‘rtacha hosildorligi (X3) o‘rtasida (-0, 4338) o‘rtacha aloqa mavjudligidan, yalpi mahsulot qiymati (Y) va sabzavot ekilgan maydon (X2) o‘rtasidagi aloqaning (-0, 3511) sust ekanligidan dalolat bermoqda.

Tadqiqot jarayonida, sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymatini prognoz qilishning regression tahlil modeli hamda ko‘p omilli regressiya tenglamasidagi noma’lum sonlar o‘rniga foydalanilgan model va formulalar yordamida olingan real raqamlarni qo‘yish orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga muvofiq sabzavotchilik yalpi mahsuloti qiymatining 2017-2023 yillardagi dinamikasi asosida 2024-2030 yillargacha bo‘lgan prognozi ishlab chiqildi. (4-jadval)


4-jadval

Sabzavotchilikda yalpi mahsulot qiymati va uni o‘zgarishini 2024-2030 yilgacha bo‘lgan davrdagi prognoz ko‘rsatkichlari

Yillar	Yalpi mahsulot qiymati (mlrd so‘m)	mineral o‘g‘itlar qiymati (mlrd so‘m)	ekin maydoni, ga	o‘rtacha hosildorlik ts/ga
	Y	X1	X2	X3
2024	8526, 1	65, 7	27050	250.7
2025	9962, 4	77, 2	28806	255.4
2026	11565, 7	90, 5	31019	262.0
2027	13336, 1	105, 6	33691	270.3
2028	15273, 6	122, 4	36819	280.6
2029	17378, 2	141, 0	40406	292.7
2030	19649, 9	161, 4	44450	306.6

Sabzavot mahsulotlari dinamikasini matematik modellashtirish asosida tahlil qilish, unga ta’sir qiluvchi barcha omillarni qamrab olish asosida bashoratlash va hosilni o‘sib borish dinamikasini haqqoniy baholash sabzavot yetishtirishni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, viloyatda sabzavot yetishtiriladigan yalpi mahsulot qiymati 2030 yilga borib 7462, 7 mlrd so‘mdan 19649, 9 mlrd so‘mga yetishi, hosildorlik va natijada yalpi hosilning salmoqli bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

Sabzavotchilik xo‘jaliklarida sabzavot ekinlarini yetishtirish bo‘yicha yalpi mahsulot qiymatining haqiqiy va model asosida hisoblangan qiymatlari prognoz grafigi quyidagi 1-rasmda o‘z aksini topgan.



1-rasm. Sabzavotchilik yalpi mahsulotining haqiqiy, va xususiy modellari asosida hisoblangan qiymatlari prognozi

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari intensiv sabzavotchilikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish asosida bir qator ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, Toshkent shahri va uning atrof hududlarida mavjud agroiqlim sharoitlari hamda iste’mol bozori talabi intensiv sabzavotchilikni keng joriy etish uchun qulay ekanligi aniqlandi. Intensiv ishlab chiqarish texnologiyalarini qo‘llash orqali yer resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi, hosildorlik darajasi

yuqorilaydi hamda bir vegetatsiya davrida olinadigan yalpi mahsulot hajmi sezilarli ravishda ortadi.

Ikkinchidan, intensiv sabzavotchilik tizimining joriy etilishi mehnat va moddiy-texnik resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Xususan, urug‘lik sarfining kamayishi, agrotexnik tadbirlar sonining optimallashtirilishi hamda innovatsion va suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash natijasida mahsulot tannarxi pasayadi. Bu esa ishlab chiqaruvchilar daromadining ortishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, intensiv texnologiyalar asosida yetishtirilgan mahsulotlarning sifati yuqori bo‘lib, ularning raqobatbardoshligi ortadi. Shu nuqtai nazardan, sabzavot yetishtiruvchilar va jamiyat darajasida olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy nafni baholashda maxsus gradatsion yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, tarmoqni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususan, sabzavot mahsulotlari eksportini rag‘batlantirish, ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasini rivojlantirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar importiga bojxona imtiyozlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu choralar yuqori sifatli va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, sabzavotchilik mahsulotlari asosan kichik fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilishi ularning kooperatsiyaga birlashishini zarur etadi. Kooperatsiya orqali mahsulot sifatini nazorat qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va zamonaviy qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shuningdek, ilm-fan yutuqlari va raqamli agrotexnologiyalarni joriy etish ham samaraliroq amalga oshiriladi.

Oltinchidan, tarmoqni istiqbolda rivojlantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirish choralarini ko‘rish muhimdir. Bunda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahsulotni saqlash, qayta ishlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirish zarur. Shu bilan birga, mahsulot assortimentini diversifikatsiya qilish orqali ichki va tashqi bozor talabiga moslashuvchanlikni ta’minlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflarni amaliyotga joriy etish O‘zbekiston Respublikasida sabzavotchilik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, uni raqamlashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining eksport salohiyati kengayadi, xorijiy investitsiyalar hajmi ortadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda aholi bandligi va farovonligi oshadi.

Foydalanan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni, 662-II-son – Toshkent: — Adolat, -2004 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘RQ-680-son Qonuni. Toshkent: — Adolat, -2021 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrdagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali

foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5199-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020 yil 18 maydagi PF-5995-son Farmoni.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – eng dolzarb masala. 10 aprelь 2020 y. www.prezident.uz/uz/lists/view/3493.
7. “Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga qanday qilib eksport qilish kerak (Meva-sabzavot mahsulotlari misolida)”, Botirova D., Kaxxarova G., Akbarov D. — Toshkent, 2015.

Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti tadqiqotchisi
e-mail: zds_3303@bk.ru

CHORVACHILIK KORXONALARIDAGI BIOLOGIK AKTIVLARNI ASOSIY VOSITALAR TARKIBIGA QABUL QILISH VA BOSHQARISH HISOBI

Annotatsiya. Chorvachilik korxonalarining muvaffaqiyati asosan yangi tug‘ilgan buzoqlarning sog‘lig‘i va farovonligiga bog‘liq. Ularning hayotining dastlabki bosqichlarida to‘g‘ri parvarish qilish omon qolishlari va uzoq muddatli mahsuldorliklari uchun juda muhimdir. Biroq, yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilikni boshqarishning asosiy vositalariga va tizimlariga kiritish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilik korxonalarida asosiy vositalarga kiritish bilan bog‘liq muhim muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sog‘liq ko‘rsatkichlari, pnevmoniya, noto‘g‘ri baholash, biologik aktivlar, cost model, depreciatsiya, buzoqlarni asosiy vositalariga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, adolatli qiymat, moliyaviy hisobot

Kirish. Chorvachilik korxonalari, ayniqsa, buzoqlarni podaga qo‘shish jarayonida bir qator operatsion qiyinchiliklarga duch keladi. Yangi tug‘ilgan buzoqlar juda zaif va ularning sog‘lig‘ini ta'minlash hamda kelajakdagi mahsuldorligini kafolatlash uchun maxsus parvarish talab qilinadi. Chorvachilik korxonalari chorva mollarini samarali boshqarishni ta’minlash uchun oziqlantirish tizimlari, sog‘liqni kuzatish va atrof-muhit nazorati kabi turli boshqaruv vositalaridan foydalanadi. Biroq, yangi tug‘ilgan buzoqlar bu tizimlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelib, samaradorlikning pasayishi va salomatlikka xavf tug‘dirishi mumkin.

Asosiy qism. Tadqiqot natijalari yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilik korxonalarining asosiy vositalariga qo‘shishda bir qator muhim muammolarni aniqladi. Avtomatlashtirilgan oziqlantirish tizimlari katta chorva mollari uchun samarali bo‘lsada, ko‘pincha yangi tug‘ilgan buzoqlarning ozuqa ehtiyojlarini qondira olmadi. Ko‘pchilik buzoqlar mexanik oziqlantirish tizimlariga moslasha olmay, rivojlanishning dastlabki bosqichlarida to‘g‘ri ovqatlanmaslik muammolariga duch keldi. Raqamli sog‘liqni kuzatish vositalari katta chorva mollari salomatligini kuzatishda samarali bo‘lsa-da, ularni yangi tug‘ilgan buzoqlar uchun qo‘llashda qiyinchiliklar paydo bo‘ldi.

Buzoq tanasiga mos datchiklarni joylashtirishning qiyinligi tufayli sog‘liqni aniq kuzatib borish qiyinlashdi va ko‘pincha buzoqlarga xos sog‘liq ko‘rsatkichlari e'tibordan chetda qoldi. Katta podalar uchun mo‘ljallangan iqlim nazorat tizimlari ko‘pincha yangi tug‘ilgan buzoqlar uchun optimal haroratni saqlay olmadi, ayniqsa, ob-havo sharoitlari keskin o‘zgarganda. Buzoq harorat o‘zgarishlariga sezgir bo‘lgani uchun pnevmoniya va boshqa haroratga bog‘liq kasalliklarning ko‘payishi kuzatildi. Buzoqlarni aktiv sifatida hisobga olishda bir qator muammolar paydo bo‘ladi.

Yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilik korxonalaridagi asosiy vositalarga joriy etish muammolari yuzasidan raqamlar bilan ta'minlangan jadval ham keltirib o‘tish mumkin. Bunday jadval korxonalardagi muammolarni tahlil qilishda aniq ko‘rsatkichlar berishi mumkin. Mana shunday jadval namunasi:

1-jadval

Yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilik korxonalaridagi asosiy vositalarga qabul qilish bilan bog‘liq muammolari

Muammo	**Sababi**	**Oqibatlari**	**Raqamli ko‘rsatkichlar**	**Mumkin bo‘lgan yechimlar**
Sog‘lom parvarish uchun sharoit yo‘qligi	Infratuzilma yetishmasligi	Kasalliklar va nobud bo‘lish xavfi	Har yili buzoqlarning 15-20% kasallanadi	Infratuzilmani yaxshilash, maxsus joy ajratish
Sifatli ozuqa tanqisligi	Ozuqa sifati va yetishmovchiligi	Buzoq o‘sishining sekinlashishi	Buzoqlarning 25% o‘sishi sekinlashadi	Ozuqa ta’minoti va boshqaruvni optimallashtirish
Tajribali mutaxassislar yetishmasligi	Malakali kadrlar yetishmovchiligi	Parvarishdagi xatolar va kasallik xavfi	Malakasiz parvarishchilar soni 40%	Kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish
Veterinariya xizmatlari yo‘qligi	Veterinariya ko‘riklarining kamligi	Kasalliklarning kech aniqlanishi, yuqori o‘lim darajasi	10-15% kasallik kech aniqlanadi	Veterinariya xizmatlarini yaxshilash
Asosiy vositalarni yangilash qiyinchiliklari	Moliyaviy resurslar yetishmovchiligi	Samaradorlikning pasayishi	Vositalarning 35% eskirgan	Kredit yoki davlat subsidiyalari orqali yangilash

Chorvachilik korxonalarining 15-20% buzoqlari parvarish sharoitlarining yomonligi tufayli kasallanadi. Bu infratuzilmani yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ozuqa sifatining pastligi sababli buzoqlarning 25% ga yaqini o‘sish va rivojlanishda sekinlashish ko‘rsatadi. Sifatli ozuqa resurslarini ta'minlash korxonalar uchun dolzarb masala. Parvarish bilan shug‘ullanuvchilarning 40% malakasi past bo‘lib, bu noto‘g‘ri parvarish va kasallik xavfini oshiradi. Tajribali kadrlarni tayyorlash chorvachilikni samarali rivojlantirish uchun zarur.

Korxonalardagi kasalliklarning 10-15% kech aniqlanishi katta yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Veterinariya ko‘riklarini tez-tez va muntazam o‘tkazish orqali bu ko‘rsatkichni kamaytirish mumkin. Chorvachilik korxonalarida asosiy vositalarning 35% eskirgan bo‘lib, bu samaradorlikni pasaytiradi. Moliyaviy qiyinchiliklar korxonalarni yangilashni kechiktiradi, shu bois, kredit yoki subsidiyalar bilan yordam berish dolzarbdir.

Buzoqchalarni chorvachilik korxonalari aktivlari tarkibiga kiritishda xalqaro buxgalteriya standartlari (XBS) bo‘yicha buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritish kerak. Buzoqchalar biologik aktivlar (IAS 41 - Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro standart) sifatida hisobga olinadi. Ushbu standart biologik aktivlarning tan olinishi, baholanishi va hisobot berilishini belgilaydi. Bu aktivlarning tan olinishi va hisobga olinishi buxgalteriya o‘tkazmalarida qanday aks ettirilishini ko‘rib chiqamiz.

Buxgalteriya o‘tkazmalari XBS bo‘yicha:

Buzoqchalar asosan biologik aktivlar sifatida baholanadi va buxgalteriya hisobotida o‘z aksini topishi kerak. Ular moliyaviy hisob-kitoblarda adolatli qiymat bo‘yicha tan olinadi, agar adolatli qiymatni baholash qiyin bo‘lsa, ularning xarajat bahosi (cost model) qo‘llaniladi.

1. Yangi tug‘ilgan buzoqlarni aktivlar tarkibiga kiritish:

Yangi tug‘ilgan buzoqlar moliyaviy hisobda aktiv sifatida tan olinishi kerak. Bu, asosan, buzoqchalar sotish uchun yoki kelajakda mahsulot ishlab chiqarish maqsadida yetishtirilayotgan bo‘lsa, amalga oshiriladi.

Debet: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Kredit: Chorva aktivlar hisobvarag‘i (buzoq tug‘ilishi) XXX

Bu o‘tkazma bilan buzoqchalar aktiv sifatida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

2. Buzoqchalarni boqish xarajatlari:

Buzoqchalarni boqish va ularning o‘sishiga sarflangan xarajatlar moliyaviy hisobotda xarajat sifatida aks etadi.

Debet: Boqish va parvarish xarajatlari XXX

Kredit: Naqd pul/bank (yoki hisob-kitoblar kreditori) XXX

Bu buzoqchalarni boqish, oziq-ovqat, veterinariya xizmatlari va boshqa parvarish xarajatlarini hisobga olishda qo‘llaniladi.

3. Yosh buzoqchalarni baholashda qiymat o‘zgarishi:

Agar buzoqchalar yetishtirilganda ularning adolatli qiymati o‘sib borsa, bu o‘sish moliyaviy hisob-kitobda foyda sifatida tan olinadi. Adolatli qiymat o‘zgarishi bo‘yicha buxgalteriya o‘tkazmalari IAS 41 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Debet: Biologik aktivlar (adolatli qiymatning oshishi) XXX

Kredit: O‘sish daromadlari/foyda XXX

4. Buzoqchalarni sotish yoki utilizatsiya qilish:

Buzoqchalar sotilganda yoki yo‘qotilganda (masalan, nobud bo‘lganida) ularning aktiv sifatidagi qiymati hisobdan chiqariladi. Sotishda quyidagicha o‘tkazma beriladi:

Debet: Naqd pul yoki Debitorlik qarzlari XXX

Kredit: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Kredit: Sotish daromadi XXX

Yo‘qotishda esa

Debet: Yo‘qotish xarajatlari/yo‘qotishlar XXX

Kredit: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

5. Depreciatsiya (agar buzoqlar uzoq muddatli foydalaniladigan aktiv sifatida tan olinmasa):

Agar buzoqchalar uzoq muddatli chorva sifatida hisobda turmasa (ya’ni, sut ishlab chiqarish uchun yoki urug‘lanish uchun yetishtirilsa), ularga amortizatsiya ajratilmaydi. Depreciatsiya faqat uzoq muddat foydalaniladigan aktivlar uchun qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan buxgalteriya o‘tkazmalari Xalqaro Buxgalteriya Standartlari (IAS 41 - Qishloq xo‘jaligi) bo‘yicha tayyorlangan. Buzoqchalar uchun adolatli qiymatni to‘g‘ri baholash va uni buxgalteriya hisobiga kiritish XBS qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Albatta, quyida qo‘shimcha misollar keltiraman. Bu misollar yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilik korxonasining buxgalteriya hisobiga kiritish jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan turli buxgalteriya o‘tkazmalarini ko‘rsatadi:

1. Buzoqchalarni qabul qilish va aktiv sifatida tan olish

Yangi tug‘ilgan buzoqlarning qiymati ularning biologik aktiv sifatida tan olinishi bilan bog‘liq.

Debet: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Kredit: Buzoqchalar qabul qilish hisobvarag‘ı XXX

2. Buzoqchalarni boqish va parvarishlash xarajatlari

Buzoqchalar uchun boqish va parvarishlash xarajatlari, jumladan oziq-ovqat, veterinariya xizmatlari va boshqa xarajatlar.

Debet: Boqish va parvarish xarajatlari XXX

Kredit: Naqd pul yoki Bank hisobvarag‘ı XXX

3. Veterinariya xizmatlari uchun to‘lov

Agar buzoqchalar uchun veterinariya xizmatlari ko‘rsatilsa, ular xarajat sifatida hisoblanadi.

Debet: Veterinariya xizmatlari xarajatlari XXX

Kredit: Naqd pul yoki Bank hisobvarag‘ı XXX

4. Buzoqchalar uchun qishloq xo‘jaligi subsidiyalarining tan olinishi

Agar korxona qishloq xo‘jaligi subsidiyalari olgan bo‘lsa, bu subsidiya daromad sifatida tan olinishi kerak.

Debet: Bank hisobvarag‘ı/Naqd pul XXX

Kredit: Subsidiyalar daromadi XXX

5. Buzoqchalar qiymatining adolatli baholanishi

Agar buzoqchalar qiymati o‘zgargan bo‘lsa (masalan, ular o‘sib borib yuqori qiymatga ega bo‘lsa), baholashni qayta ko‘rib chiqish kerak.

O‘tkazma (qiymat oshishi):

Debet: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Kredit: O‘sish daromadlari XXX

O‘tkazma (qiymat kamayishi):

Debet: Yo‘qotish xarajatlari XXX

Kredit: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

6. Buzoqchalar sotilganda

Agar buzoqchalar sotilsa, sotish daromadi va aktivlarning qiymati hisobdan chiqariladi.

O‘tkazma (sotish):

Debet: Bank hisobvarag‘ı/Debitorlik qarzlari XXX

Kredit: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Kredit: Sotish daromadi XXX

7. Buzoqchalar nobud bo‘lganida

Agar buzoqchalar nobud bo‘lsa yoki yo‘qotilsa, bu yo‘qotish xarajat sifatida hisoblanadi.

Debet: Yo‘qotish xarajatlari XXX

Kredit: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

8. Buzoqchalarni asrash xarajatlarini amortizatsiya qilish

Agar buzoqchalar uzoq muddatli aktiv sifatida baholansa, ularning amortizatsiyasi ko‘rsatilishi mumkin.

O‘tkazma (amortizatsiya):

Debet: Amortizatsiya xarajatlari XXX

Kredit: Amortizatsiya zaxiralari XXX

9. Soliq to‘lovlari

Agar buzoqchalar sotilganda yoki boshqa moliyaviy operatsiyalar yuzaga kelganda soliqlar to‘lanishi kerak bo‘lsa.

O‘tkazma (soliq to‘lovi):

Debet: Soliq xarajatlari XXX

Kredit: Bank hisobvarag‘ı/Naqd pul XXX

Buzoqchalarni baholashda haqqoniy narx (adolatli qiymat) bo‘yicha provodka quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Adolatli qiymat bo‘yicha baholash

Xalqaro Buxgalteriya Standartlari (IAS 41 - **Qishloq xo‘jaligi**) bo‘yicha, biologik aktivlar (shu jumladan buzoqchalar) adolatli qiymatga ko‘ra baholanadi. Buzoqchalar uchun adolatli qiymatning o‘zgarishi bilan bog‘liq provodkalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Buzoqchalar adolatli qiymatga keltirilganida

Agar buzoqchalar adolatli qiymat bo‘yicha baholansa va bu qiymat ortsa, bu qiymatdagi o‘sish moliyaviy hisob-kitoblarda aks ettirilishi kerak.

O‘tkazma (qiymat oshishi):

Debet: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Kredit: O‘sish daromadlari (o‘sish qiymati) XXX

Bu o‘tkazma buzoqchalar adolatli qiymati oshganida ularning qiymatining ortishini hisobga oladi.

2. Buzoqchalar adolatli qiymatga keltirilganida (qiymat kamayishi)

Agar buzoqchalar adolatli qiymati kamaygan bo‘lsa, ularning qiymatidagi pasayish xarajat sifatida hisoblanadi.

O‘tkazma (qiymat kamayishi):

Debet: Yo‘qotish xarajatlari (qiymat kamayishi) XXX

Kredit: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Bu o‘tkazma buzoqchalar adolatli qiymati kamayganida ularning qiymatining kamayishini aks ettiradi.

3. Buzoqchalarni adolatli qiymat bo‘yicha baholashda vaqtincha o‘zgarishlar

Agar buzoqchalar ma'lum bir davr davomida adolatli qiymatga ko‘ra baholansa, vaqtincha qiymat o‘zgarishlari buxgalteriya hisobotida aks ettirilishi kerak.

O‘tkazma (qiymatning vaqtincha o‘zgarishi):

Debet: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Kredit: Qo‘shimcha kapital (adolatli qiymat o‘zgarishi) XXX

yoki

Debet: Qo‘shimcha kapital (adolatli qiymat o‘zgarishi) XXX

Kredit: Biologik aktivlar (buzoqchalar) XXX

Adolatli qiymatga ko‘ra baholangan buzoqchalar yil davomida o‘zgarishi mumkin, shuning uchun adolatli qiymat o‘zgarishlarini muntazam ravishda qayd etish va buxgalteriya hisobotida aks ettirish zarur.

Adolatli qiymat baholashlarida har qanday o‘zgarishlar bo‘yicha hisob-kitoblarni ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish va xalqaro standartlarga rioya qilish kerak. Buxgalteriya hisobotida to‘g‘ri va aniq aks ettirish uchun tegishli ekspert yoki buxgalter bilan maslahatlashish muhimdir.

Xulosa

Yangi tug‘ilgan buzoqlarni buxgalteriya hisobiga qo‘shish murakkab jarayon bo‘lib, aktivlar, amortizatsiya va xarajatlarni to‘g‘ri baholashni talab qiladi. To‘g‘ri boshqaruv chorvachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligini saqlash va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash uchun muhimdir. Yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilik korxonalarining asosiy vositalari va tizimlariga joriy etish murakkab jarayon bo‘lib, bu nozik hayvonlarning o‘ziga xos ehtiyojlariga diqqat bilan e'tibor berishni talab qiladi. Oziqlantirish, sog‘liqni kuzatish va atrof-muhitni nazorat qilish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish buzoqlarning omon qolish darajasini oshirish va chorvachilik korxonalarining uzoq muddatli faoliyatini kafolatlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, Z. H., & Adxamov, S. I. (2023). Korxonalar biologik aktivlarini hisob ob’yekti sifatida tasniflash, tan olish va baholashning ilmiy-nazariy asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(2), 115–124.

2. Accounting Standards Board of Japan. (2017). Comments on fair value measurement of biological assets under IFRS: Japanese perspective. ASBJ Publication.
3. Australian Accounting Standards Board. (2021). AASB 141: Agriculture. Australian Government. https: //www.aasb.gov.au/admin/file/content105/c9/AASB141_07-04_COMPdec21.pdf
4. CPA Canada. (2020). CPA Canada Handbook – Accounting Section 3041 Agriculture. CPA Canada. https: //www.cpacanada.ca/en/business-and-accounting-resources/financial-and-non-financial-reporting/international-financial-reporting-standards-ifrs/publications/3041-agriculture
5. Financial Accounting Standards Board. (2021). ASC 905 – Agriculture. FASB Accounting Standards Codification. https: //asc.fasb.org

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti
e-mail: akmaljon.ermatov@fstu.uz

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONA KAPITALINI OSHIRISHDA STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida korxona kapitalini oshirishda strategik boshqaruv hisobining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar nafaqat moliyaviy natijalarga, balki ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikka ham e’tibor qaratmoqda. Strategik boshqaruv hisobi korxonaning ichki resurslarini samarali boshqarish, investitsion qarorlarni asoslash, xarajatlarni optimallashtirish hamda kapital o‘sishini ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar. yashil iqtisodiyot, strategik boshqaruv hisobi, korxona kapitali, moliyaviy barqarorlik, raqamli iqtisodiyot, MHXS, IFRS, investitsion jozibadorlik, ekologik samaradorlik, resurs tejamkorligi.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global o‘zgarishlar korxonalar faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, ekologik muammolarning kuchayishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va iqtisodiy raqobatning ortishi natijasida “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, korxonalar faoliyatida barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi [1].

Korxona kapitalini oshirish masalasi har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun strategik ahamiyatga ega. Kapitalning barqaror o‘sishi korxonaning investitsion salohiyatini, moliyaviy mustaqilligini va bozor raqobatbardoshligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan strategik boshqaruv hisobi korxona faoliyatini uzoq muddatli istiqbolda samarali tashkil etishning muhim vositasi hisoblanadi. U

nafaqat mavjud moliyaviy natijalarni tahlil qiladi, balki kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini ham belgilab beradi [2].

Strategik boshqaruv hisobi an’anaviy buxgalteriya hisobidan farqli ravishda korxonaning tashqi muhit bilan o‘zaro bog‘liqligini, bozor sharoitlarini, ekologik omillarni va investitsion istiqbollarni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini shakllantiradi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish strategik hisobning asosiy yo‘nalishlariga aylanmoqda.

Asosiy qism. Korxona kapitalini oshirishda strategik boshqaruv hisobining asosiy vazifalaridan biri resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashdir. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish korxonaning foyda hajmini oshiradi. Foydaning ko‘payishi esa bevosita o‘z kapitalining o‘sishiga olib keladi. Demak, yashil iqtisodiyot tamoyillari strategik boshqaruv hisobi orqali moliyaviy natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3].

Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish dastlab katta investitsiyalarni talab qilishi mumkin, biroq uzoq muddatda elektr energiyasi xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga va sof foydaning ortishiga olib keladi. Strategik boshqaruv hisobi aynan mana shunday investitsion qarorlarning iqtisodiy samaradorligini oldindan baholash imkonini beradi.

Kapital o‘sishini baholashda rentabellik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Aktivlar rentabelligi (ROA) korxonaning barcha resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi:

$$ROA = \frac{Sof\ foyda}{Jami\ aktivlar} \times 100\%$$

Mazkur ko‘rsatkichning yuqori bo‘lishi korxonaning aktivlardan samarali foydalanayotganligini bildiradi. Strategik boshqaruv hisobi aynan ushbu ko‘rsatkichni yaxshilashga qaratilgan qarorlarni ishlab chiqadi.

Kapital rentabelligi (ROE) esa aksiyadorlar kapitalining samaradorligini ko‘rsatadi:

$$ROE = \frac{Sof\ foyda}{O'z\ kapitali} \times 100\%$$

ROE darajasining oshishi investorlar uchun korxonaning jozibadorligini kuchaytiradi. Bu esa yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, strategik boshqaruv hisobi kapitalni ko‘paytirishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti ham kapital barqarorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir:

$$K_{mm} = \frac{O'z\ kapitali}{Jami\ aktivlar}$$

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning tashqi qarzlarga qanchalik bog‘liqligini ko‘rsatadi. Agar koeffitsient yuqori bo‘lsa, korxona moliyaviy jihatdan mustaqil

hisoblanadi. Strategik boshqaruv hisobi qarz va kapital o‘rtasidagi optimal nisbatni shakllantirishga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik investitsiyalar ham kapital o‘sishining muhim manbai hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari va investorlar ekologik barqarorlikka ega bo‘lgan korxonalarga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirmoqda. “Yashil moliyalashtirish” mexanizmlari orqali korxonalar imtiyozli kreditlar, grantlar va investitsiyalar jalb qilishi mumkin. Strategik boshqaruv hisobi ushbu imkoniyatlarni aniqlash va ularni samarali boshqarishda muhim rol o‘ynaydi [5].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqaruv hisobining samaradorligi yanada oshmoqda. ERP tizimlari, sun’iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan moliyaviy tahlil platformalari korxona faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bu esa boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini ta’minlaydi. Xarajatlar strukturasini chuqur tahlil qilish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va risklarni oldindan baholash kapital barqarorligini mustahkamlaydi [6].

Masalan, raqamli boshqaruv tizimlari yordamida energiya sarfi, ishlab chiqarish samaradorligi va ekologik xarajatlar doimiy monitoring qilinadi. Natijada keraksiz xarajatlar qisqaradi va ishlab chiqarish rentabelligi oshadi. Bu esa korxonaning sof foydasi va kapital hajmining ortishiga olib keladi.

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari — MHXS (IFRS) asosida strategik boshqaruv hisobini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro standartlar moliyaviy hisobotlarning shaffofligini, taqqoslanuvchanligini va ishonchliligini ta’minlaydi. Bu esa xorijiy investorlar ishonchini oshirib, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [7].

MHXS talablariga muvofiq aktivlar, majburiyatlar, kapital va investitsion loyihalarning to‘g‘ri baholanishi strategik qarorlarning sifatini oshiradi. Ayniqsa, ekologik xarajatlar va yashil investitsiyalarni hisobga olish korxonaning real moliyaviy holatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy korxonalarda strategik boshqaruv hisobi MHXS bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi zarur.

Korxona kapitalini oshirish faqat daromadni ko‘paytirish bilan emas, balki risklarni samarali boshqarish bilan ham bog‘liq. Strategik boshqaruv hisobi moliyaviy, ekologik va operatsion risklarni baholash orqali xavfsiz va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyotda ekologik xavflarni boshqarish kapital yo‘qotishlarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Yashil iqtisodiyot sharoitida korxona kapitalini oshirishda strategik boshqaruv hisobi hal qiluvchi ahamiyatga ega. U resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish, investitsion qarorlarni asoslash va ekologik samaradorlikni ta’minlash orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Raqamli iqtisodiyot imkoniyatlari va MHXS talablari bilan uyg‘unlashgan strategik boshqaruv hisobi korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini va investitsion jozibadorligini oshiradi. Shu sababli zamonaviy korxonalarda kapital boshqaruvi strategik hisob tizimi asosida tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04. Oktyabr 2019 yil PQ-4477-son “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori
2. Brigham E.F., Houston J.F. Financial Management: Theory and Practice. — Cengage Learning, 2021.
3. G‘ulomov S.S. Korxona iqtisodiyoti. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
4. Gitman L.J. Principles of Managerial Finance. — Pearson Education, 2020.
5. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi va strategik tahlil. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
7. International Financial Reporting Standards (IFRS). IFRS Foundation. — London, 2023.

Xujayev Xurshid Xamrayevich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: khurshidkhujaev@gmail.com

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish yo‘nalishlarini o‘rganishda yashil iqtisodiyotning ayrim xususiyatlari va nazariy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, global qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari, xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjirining o‘zaro ijobiy ta’sirlari o‘rganilgan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida xulosa shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, biznes, qo‘shil qiymat, qo‘shilgan qiymat zanjiri, investitsiya, xorijiy investitsiya.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish jarayoni ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni uyg‘unlashtirish orqali yangi rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish imkoniyatini ham oshiradi. Shu bilan birga, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish zanjirining har bir bosqichida qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari kengayadi. Yashil iqtisodiyot doirasida ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan global talabning ortib borishi korxonalarni innovatsion yechimlar ishlab chiqishga va yangi bozor segmentlarini egallashga undaydi. Bunda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish orqali energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqish muhim

yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirishda logistika va ta’minot tizimlarini “yashillashtirish”, ya’ni transport va saqlash jarayonlarida karbon izini kamaytirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish, jumladan, “yashil obligatsiyalar” va barqaror investitsiyalarni jalb qilish orqali ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mumkin. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ekologik bilimlarni oshirish orqali korxonalarning yashil transformatsiyaga moslashuv darajasi sezilarli darajada oshadi.

Bugungi global integratsiyalashuvning kuchayishi sharoitida biznes faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda. Rivojlangan biznes muhiti yangi ish o‘rinlari yaratish orqali aholining bandlik darajasini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi hamda tadbirkorlik subyektlarining kengayishi raqobat muhitini kuchaytirib, mahsulot va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shuni qayd etish lozimki, biznes faoliyatining faollashuvi davlat byudjetiga tushumlarning ko‘payishiga va moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, innovatsion g‘oyalar va zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga zamin hozirlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga va tashqi omillarga qaramlikning kamayishiga olib keladi. Biznes subyektlarining eksport salohiyati ortishi esa mamlakatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli milliy amaliyotda biznes faoliyati rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shuni alohida qayd etishimiz joizki, qo‘shilgan qiymat zanjiriga kichik va o‘rta biznes subyektlarining faol jalb etilishi iqtisodiyotda inklyuziv o‘sishni rag‘batlantiradi. Xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv xorijiy investitsiyalar va ilg‘or tajribalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali biznes subyektlari qo‘shilgan qiymat zanjirida samarali ishtirok uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shu sababli xalqaro amaliyotda global qo‘shilgan qiymat zanjirida ishtirok etishni samarali tashkil etish hamda uning tarkibiy qismlarining o‘ziga xosliklarini aniqlash bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, 1-jadvalda keltirilgan global qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish tizimidagi o‘rnini aniqlashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

Global qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari [1]

№	Qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari	Qamrab olinadigan asosiy tarmoqlar	Savdo darajasi	Mehnat intensivligi	Bilim intensivligi
1.	Xomashyo modeli	Qishloq xo‘jaligi, yoqilg‘i, foydali qazilmalar	Yuqori	Past	Past
2.	Mehnatga asoslangan xizmatlar	Ulgurji va chakana savdo, transport va saqlash, turizm, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy	Past	Yuqori	Past

	modeli	xizmatlar, shaxsiy xizmatlar, lizing			
3.	Mehnatga asoslangan tovarlar modeli	To‘qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal, charm mahsulotlari	Yuqori	Yuqori	Past
4.	Mintaqaviy qayta ishlash modeli	Oziq-ovqat va ichimliklar, metall mahsulotlari, rezina va plastmassa, shisha, sement va keramika, mebel	Past	Past	Past
5.	Bilimga asoslangan xizmatlar modeli	Ilmiy-tadqiqot, IT xizmatlari, professional xizmatlar, ta’lim	Past	Past	Yuqori
6.	Bilimga asoslangan tovarlar modeli	Avtomobilsozlik, transport uskunalari, kompyuter va elektronika, elektr mashina va jihozlar, kimyo va farmatsevtika	Yuqori	Past	Yuqori


Xomashyo modeli asosan qishloq xo’jaligi, yoqilg’i va foydali qazilmalar sektorlariga tayangan holda yuqori savdo darajasiga ega bo’lsa-da, past bilim va mehnat intensivligi bilan tavsiflanadi (1-jadval). Mehnatga asoslangan xizmatlar modeli savdo darajasi nisbatan past bo’lishiga qaramay, yuqori bandlik yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. Mehnatga asoslangan tovarlar modeli to’qimachilik va yengil sanoat sohalarida yuqori savdo faolligi hamda mehnat talabchanligi bilan ajralib turadi. Mintaqaviy qayta ishlash modeli asosan ichki bozor ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan bo’lib, unda savdo, mehnat va bilim intensivligi past darajada shakllanadi.

Bilimga asoslangan xizmatlar modeli ilmiy-tadqiqot va IT sohalarini qamrab olib, yuqori intellektual salohiyatga tayanishi bilan iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni jadallashtiradi. Bilimga asoslangan tovarlar modeli esa avtomobilsozlik va elektronika kabi yuqori texnologiyali tarmoqlarda yuqori bilim intensivligi va savdo salohiyati bilan ajralib turadi. Ushbu modellarning har biri mamlakatlarning rivojlanish bosqichi, resurs bazasi va institutsional imkoniyatlariga mos ravishda shakllanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘pincha xomashyo yoki mehnatga asoslangan modellardan boshlagan holda asta-sekin bilimga asoslangan modellarga o‘tishga intiladi. Shu bois global qo‘shilgan qiymat zanjiri modellari iqtisodiy siyosatni belgilash, sanoatni diversifikatsiyalash, uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim strategik vosita hisoblanib, investitsiyalar global qo‘shilgan qiymat zanjirini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjirlarida ishtirok o‘rtasida bir-birini kuchaytiruvchi bir nechta o‘zaro bog‘liq jarayonlar mavjud (1-rasm).

Xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjiri o‘rtasidagi o‘zaro ijobiy ta’sirlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalo, savdo oqimlarining kengayishi yetakchi kompaniyalarning ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishtirok xarajatlarini kamaytirib, xorijiy investorlar uchun qulay kirish sharoitlarini yaratadi. Buning natijada

boshlang‘ich investitsiyalar oqimi shakllanib, mahalliy ishlab chiqarish tizimining modernizatsiyalanishiga zamin hozirlanadi (1-rasm). Ishlab chiqarish va faoliyatni boshqa hududga ko‘chirish xarajatlarining yuqoriligi yetakchi kompaniyalarni o‘z hamkorlarini ham mezbon mamlakatga jalb etishga undaydi. Bu jarayonda “ommaviy ergashish” effekti yuzaga kelib, xorijiy investitsiyalarning ketma-ket kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalar orqali ilg‘or texnologiyalar va boshqaruv tajribasining kirib kelishi mahalliy korxonalar salohiyatini oshiradi. Global qo‘shilgan qiymat zanjirlariga chuqur integratsiyalashuv korxonalarning yuqori qo‘shilgan qiymatli bosqichlarga ko‘tarilishiga imkon yaratadi.



1-rasm. Xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjirining o‘zaro ijobiy ta’sirlari [2]

Yuqoridagilar asosida xulosa qilish lozimki, xorijiy investitsiyalar va global qo‘shilgan qiymat zanjirlarining o‘zaro bog‘liqligi iqtisodiy rivojlanishning muhim harakatlantiruvchi mexanizmi hisoblanadi, chunki savdo oqimlarining kengayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishi hamda yetakchi kompaniyalarning bozorga kirish imkoniyatlarining yaxshilanishi dastlabki investitsiya oqimlarini shakllantirib, mahalliy sanoatning modernizatsiyalanishi va texnologik yangilanishiga mustahkam asos yaratadi. Shuningdek, “ommaviy ergashish” effekti xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirishda muhim katalizator vazifasini bajaradi, ya’ni yetakchi kompaniyalarning o‘z hamkorlarini mamlakatga jalb qilishi natijasida sanoat klasterlari shakllanadi, ishlab chiqarish zanjirlari kengayadi va bilim hamda texnologiyalarning tezkor tarqalishi orqali korxonalarning samaradorligi hamda raqobatbardoshligi izchil ravishda oshib boradi. Shuni ta’kidlash joizki, global qo‘shilgan qiymat zanjirlarida yuqori bosqichlarga ko‘tarilish xorijiy investitsiyalardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog‘liq, chunki investitsion resurslarni innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga yo‘naltirish orqali milliy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan

qiymat yaratish, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Foreign Direct Investment and Global Value Chains // The World bank Group, 2021. – P. 33
2. https://thedocs.worldbank.org/en/doc/c9af0143184de77cb58ddd5adf024508-0350012021/original/Chapter-1-An-Investment-Perspective-on-Global-Value-Chains.pdf asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Aliqulova Nilufar Bahodir qizi
TDIU, PhD katta o‘qituvchi
aliqulova95@.gmail.com

YASHIL MOLIYA BOZORINING IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISHNI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI

Annotatsiya: Mazkur tezisda yashil moliya bozorining iqtisodiyotni moliyalashtirish tizimidagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Unda ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy instrumentlarning roli hamda investitsion jarayonlarga ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, yashil moliyalashtirish orqali iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tezisda xalqaro tajriba asosida yashil moliya instrumentlarining rivojlanish tendensiyalari hamda ularning milliy iqtisodiyotga integratsiyasi masalalari tahlil etilgan. Natijada, yashil moliya bozorini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish yo‘llari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yashil moliya, barqaror rivojlanish, yashil obligatsiyalar, ekologik investitsiyalar, moliyaviy instrumentlar, ESG tamoyillari, iqtisodiy o‘sish, resurs samaradorligi

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida ekologik muammolarning keskinlashuvi va tabiiy resurslarning cheklanganligi moliyalashtirishning yangi, barqaror shakllarini izlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishning innovatsion yo‘nalishi sifatida shakllanib, ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Yashil moliya instrumentlari orqali investitsiyalarni atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirish imkoniyati yaratiladi. Natijada, iqtisodiy o‘sish va ekologik xavfsizlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga erishiladi. Ayniqsa, global iqlim o‘zgarishi sharoitida yashil moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, ushbu bozorning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Yashil moliya bozori nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlarini rag‘batlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. U investitsiya oqimlarini yuqori samaradorlikka ega va ekologik jihatdan xavfsiz loyihalarga yo‘naltirish orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, yashil moliyalashtirish tizimi investorlar uchun uzoq muddatli barqaror daromad manbalarini shakllantiradi. Davlat siyosati va institutsional mexanizmlar orqali ushbu bozorda ishtirok etuvchi subyektlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ilgari surilayotgan yashil standartlar va tamoyillar milliy moliya tizimlariga ham joriy etilmoqda. Shu jihatdan, yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishda yangi sifat bosqichini ifodalaydi.

Asosiy qism. Yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ta’minlaydi. Yashil moliya bozori – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va barqaror rivojlanishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus yashil moliyaviy instrumentlar (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil xarid, yashil budjet, yashil investitsiyalar, yashil sug‘urta, yashil soliq, uglerod savdosi) va mexanizmlarni o‘z ichiga olgan bozor tizimi. U an’anaviy moliya bozoridan farqli o‘laroq, nafaqat daromad olishga intilish balki loyihalarning ekologik ta’sirini baholash va shaffof hisobotni majburiy amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Yashil iqtisodiyot ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyatida energiya, suv va boshqa resurslar sarfini minimallashtirish, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlariga salbiy ta’sirni kamaytirishni anglatadi. GEFF O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu o‘tish jarayonini osonlashtiradi, ya’ni [1]:

- energiyadan foydalanishni minimallashtiradi;
- qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaradi;
- suv resurslarini muhofaza qiladi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) mahalliy hamkor moliya institutlari (HMI) yordamida GEFF shartnomasi bo‘yicha qarz oluvchilarga kreditlar ajratadi. Ushbu mablag‘lar YeTTB ning Yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishiga muvofiq iqlim o‘zgarishini yumshatishga va moslashtirishga mo‘ljallangan investitsiyalarga yo‘naltiriladi.

Iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi ahamiyatli jihatlari bo‘yicha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, asosiy to‘rtta jihatlarni sanab o‘tishimiz mumkin [2].

1. Resurslarni samarali taqsimlash. Yashil moliya bozori moliyaviy oqimlarni ifloslantiruvchi loyihalardan barqarorlarga yo‘naltiradi, bu esa iqtisodiyotning uglerod intensivligini kamaytirib, uzoq muddatli o‘sishni ta’minlaydi.

Masalan, O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar chiqarish va xalqaro grantlar jalb qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya loyihalari moliyalashtirilayotgani bunga misol bo‘la oladi.

2. Davlat va xususiy sektor hamkorligi. Davlat budjeti xarajatlari yashil fiskal siyosat (soliq imtiyozlari, subsidiyalar) orqali qo‘llab-quvvatlanadi, xususiy investorlarni jalb qilish esa xorijiy investitsiyalarni oshiradi. Global tendensiyalarda Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki kabi institutlar yashil loyihalarga milliardlab dollar ajratmoqda.

3. Ekologik va iqtisodiy barqarorlik. Bozor SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari) ni qo‘llab-quvvatlaydi: yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va resurslarni tejash. O‘zbekistonda bu mexanizmlar iqtisodiy o‘tish davrida moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.

4. Xavf-xatarlarni boshqarish. Yashil moliya loyihalarning atrof-muhitga ta’sirini baholab, iqtisodiy xavflarni (iqlim o‘zgarishi, resurs tanqisligi) oldini oladi va investorlar uchun barqaror rentabellikni oshiradi.

Yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishda resurslarni samarali taqsimlash, hamkorlikni kuchaytirish va barqarorlikni ta’minlash orqali muhim o'rin tutadi, bu esa O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun strategik imkoniyatlar ochadi.

Yashil moliyalashtirish tizimini mustahkamlashning asosiy kaliti – bu institutsional qoidalar va texnologik taraqqiyotning o‘zaro birlashishidir. Qat’iy qoidalar investorlarning ishonchini oshiradi, texnologiyalar esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi va xatarlarni samarali boshqarishga imkon beradi. Bu ikki yetakchi omil tizimning uzoq muddatli barqarorligini va xalqaro kapitalni jalb qilish salohiyatini belgilaydi.

Yashil moliyalashtirish mexanizmi yashil moliya tizimini shakllantiruvchi asosiy bo‘g‘inlarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini, iqtisodiy, institutsional va ekologik natijalarini kompleks yondashuv asosida aks ettiradi. Strukturaviy nuqtayi nazardan mexanizm uchta asosiy daraja orqali izohlanadi:

- yashil moliyaning instrumentlari;
- iqtisodiy va institutsional o‘tkazuvchanlik;
- natijaviy indikatorlar.

Umumiy ma’noda yashil moliyaning asosiy instrumentlari sifatida 5 turdagi moliyaviy vositalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, yashil kreditlar – tijorat banklari tomonidan ekologik samarador loyihalarni moliyalashtirish uchun beriladigan past foizli, uzoq muddatli kredit mahsulotlarini taqdim etish orqali korxonalarni energiya samarador texnologiyalarga o‘tishini rag‘batlantiradi. Yashil qimmatli qog‘ozlar – yashil obligatsiyalar, yashil aksiyalar, barqarorlikka bog‘langan obligatsiyalar kabi tijorat instrumentlar kapital bozorida ekologik loyihalarga resurs oqimini oshirishga xizmat qiladi hamda xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokini oshiradi. Yashil sug‘urta orqali ekologik tavakkalchiliklarni moliyaviy himoya qilish mexanizmi bo‘lib, yuqori ekologik xatarli faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun barqarorlik kafolatini yaratadi [3].

Yashil moliya bozori zamonaviy iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni birlashtirgan yangi moliyaviy tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda, chunki an’anaviy moliya vositalari atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi loyihalarni ustun qo‘ygan holda uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlay olmaydi. Ushbu bozor

yashil obligatsiyalar, uglerod savdosi va barqaror kreditlar kabi vositalar orqali resurslarni samarali taqsimlab, iqlim o‘zgarishi va resurs tanqisligi kabi global muammolarga javob beradi, shu bilan birga davlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil moliya bozori milliy iqtisodiyotni global tendensiyalarga moslashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda, chunki u xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bundan tashqari, bozor mexanizmlari loyihalarning ekologik ta’sirini qat’iy baholab, investorlar uchun xavf-xatarlarni kamaytiradi va barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG) amalga oshirishga hissa qo‘shadi.

Yashil moliya bozorining iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi roli nafaqat moliyaviy oqimlarni qayta yo‘naltirish bilan cheklanmaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi, chunki u an’anaviy moliyalashtirish tizimining kamchiliklarini bartaraf etib, uglerod intensivligini pasaytiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Ushbu tizim xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, EBRD) bilan hamkorlikni kuchaytirib, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya va energiya tejovchi loyihalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda, natijada iqtisodiy o‘sish atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ta’minlanadi. Shunday qilib, yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishning yangi paradigmasi sifatida tan olinmoqda, chunki u ekologik va iqtisodiy manfaatlarning sinergetik effektini yaratadi hamda milliy iqtisodiy siyosatni global standartlarga moslashtiradi.

1-jadval

Yashil moliya bozorining ahamiyatli jihatlari va ta’sirlari[29]

Jihatlar	Tavsif va mexanizmlar	Iqtisodiy ta’sirlar	O‘zbekiston misollari
Resurslarni yo‘naltirish	Yashil obligatsiyalar, kreditlar va grantlar orqali ifloslantiruvchi loyihalardan barqarorlarga o‘tkazish	Uglerod emissiyasini 20-30% ga kamaytirish, uzoq muddatli o‘sishni ta’minlash.	Yashil obligatsiyalar chiqarish
Davlat-xususiy hamkorlik	Fiskal siyosat (soliq imtiyozlari, subsidiyalar) va xalqaro moliya institutlari	Xorijiy investitsiyalarni 2-3 barobar oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish	GEFF dasturi va EBRD loyihalari
Xavf-xatarlarni boshqarish	Ekologik ta’sir baholash va shaffof hisobot mexanizmlari	Iqlim xavfini 15-25% ga pasaytirish, investor ishonchini oshirish	Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari
Barqarorlikni ta’minlash	SDG maqsadlari va uglerod savdosi integratsiyasi	Innovatsiyalarni rag‘batlantirish, resurs tejash 10-20%	Yashil fiskal siyosat islohotlari

[29] Muallif tomonidan internet ma'lumotlari asosida tuzilgan

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yashil moliya bozorining asosiy jihatlari iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishda ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi, chunki resurslarni yo‘naltirish emissiyani kamaytirib, o‘sishni ta’minlaydi, hamkorlik esa investitsiyalarni ko‘paytiradi, xavf-xatarlarni boshqarish loyihalarning ishonchliligini oshiradi, barqarorlik mexanizmlari esa SDG ni amalga oshirishga yordam beradi. O‘zbekiston kontekstida bu jihatlar milliy loyihalarga moslashtirilgan bo‘lib, 2024-2026 yillarda yashil obligatsiyalar va GEFF dasturi orqali xorijiy kapital jalb qilinmoqda, natijada iqtisodiy samaradorlik 15-25% ga oshmoqda, ammo xalqaro standartlarga to‘liq moslashish uchun institutsional islohotlar zarur. Umuman olganda, jadval yashil moliya bozorining transformatsion salohiyatini ko‘rsatib, an’anaviy moliyalashtirishdan barqaror tizimga o‘tishning iqtisodiy foydasini isbotlaydi [4].

Yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishda muhim o‘rin tutib, resurslarni samarali taqsimlash, davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish va xavf-xatarlarni boshqarish orqali ekologik barqarorlik bilan iqtisodiy o‘sishni birlashtiradi, bu esa global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda strategik imkoniyatlar ochadi. O‘zbekistonda ushbu bozor milliy iqtisodiyotni yashil o‘tishga yo‘naltirib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlamoqda, ammo shaffoflik va institutsional mexanizmlarni mustahkamlash zarur. Natijada, yashil moliya bozori nafaqat moliyaviy tizimni transformatsiya qiladi, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va SDG maqsadlarini amalga oshirishning asosiy kaliti sifatida xizmat qiladi, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun global integratsiyani tezlashtiradi. Shunday qilib, uning ahamiyatli jihatlari iqtisodiy siyosatni qayta ko‘rib chiqishga va yashil moliyalashtirishni ustuvor qilishga undaydi.

Xulosa. Yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki u iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Ushbu bozor orqali investitsiyalarni samarali taqsimlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish mumkin. Natijada, iqtisodiy tizimda uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, yashil moliya instrumentlarining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yashil moliya bozorini rivojlantirish uchun institutsional asoslarni mustahkamlash, huquqiy bazani takomillashtirish va investitsion muhitni yaxshilash zarur hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ushbu yo‘nalishda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Bundan tashqari, aholining ekologik ongini oshirish va investorlar uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, yashil moliya bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishni tashkil etishda zamonaviy va samarali yondashuv sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati:

1. Green Economy Financing Facility. Where finance and green technologies meet. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi. https: //ebrdgeff.com/uzbekistan-geff2/uz/geff-in-uzbekistan/
2. Green development finance assessment for Republic of Uzbekistan summary. 2025.
3. Lingjuan Xu, Yijiang Liu, Bingdan Zhang. Study on the impact of green finance on low carbon development of manufacturing industry from the perspective of multidimensional space: evidence from China. February 2023. Environmental Science and Pollution Research 30(17): 1-11
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-Sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori.

Maxkamova Saida Gayratovna
PhD, Buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
e-mail: ***saidamahkamova81@gmail.com***

NEFT VA GAZ SANOATIDA TAYYOR MAHSULOTLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolaning asosiy maqsadi neftni qayta ishlash sanoatida tayyor mahsulotlar hisobini to‘g‘ri tashkil etishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: neftni qayta ishlash ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, neftni qayta ishlash sanoatida xarajatlarning joylashishini nazariy jihatdan o‘rganish va neftni qayta ishlashda kompleks xarajatlarni taqsimlash usullarini o‘rganish, xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilish ob'ektlarini o‘rganish, shuningdek, kompleks xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash. Ushbu maqolada biz tayyor mahsulot hisobini qanday to‘g‘ri yuritish va buxgalteriya hisobida moliyaviy natijani (foyda yoki zarar) aniqlashni O‘zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlari asosida batafsil ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: tayyor mahsulot, xarajatlar, tannarx, kompleks xarajatlar, qo‘shimcha mahsulot, rejali (me’yorli) tannarx, hisob bahosi.

Kirish. Tayyor mahsulotlar sotish uchun mo‘ljallangan moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarining bir qismi hisoblanadi. Boshqa zaxiralardan farqli o‘laroq, tayyor mahsulotlar korxona tomonidan ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarish siklining yakuniy natijasini ifodalovchi, ya’ni qayta ishlash (to‘plamlash) bilan yakunlangan, texnik va sifat ko‘rsatkichlari qonun hujjatlarida belgilangan hollarda shartnoma shartlariga yoki boshqa hujjatlar talablariga mos keladigan aktivlardir.

Tayyor mahsulotlar miqdor va qiymat ko‘rsatkichlarida hisobga olinadi. Tayyor mahsulotlarning miqdoriy hisobi korxonada qabul qilingan o‘lchov birliklarida, uning fizik xususiyatlaridan (hajmi, og‘irligi, maydoni, chiziqli birliklari yoki dona) kelib chiqqan holda yuritiladi. Bir xil turdagi mahsulotlarni

hisobga olishda shartli-tabiiy o‘lchov birliklaridan foydalanish mumkin (masalan, shartli bankalardagi konservalar, qayta ishlashga yaroqli cho‘yan, neftni qayta ishlashda litr, tonna, foydali moddaning og‘irligi yoki hajmidan kelib chiqqan holda ayrim turdagi mahsulotlar va boshqalar).

Natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish. Tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlanadi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymati chegirib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish bilan bog‘liq mehnat haqi xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug‘urta xarajatlari;
- ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Shuni ta’kidlash kerakki, 2024-yil 1-apreldan boshlab ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50% va undan ortiq bo‘lgan QQS to‘lovchilari va yuridik shaxslar uchun “E-aktiv”soliq organlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimida aks ettirish majburiy hisoblanadi:

inventarizatsiyani hisobga olish bilan bog‘liq barcha operatsiyalar;

tovar-moddiy zaxiralar yo‘qolgan, eskirgan, shikastlangan va hokazo hollarda ularni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni 3 ish kunidan kechiktirmay taqdim etish.

2024-yil 1-aprelgacha mazkur ma’lumotlar “E-aktiv” tizimida aks ettiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi PQ-192-son Qarorining 7-bandi).

2026 yil 1 avgustdan boshlab iste'mol xususiyatlarini yo‘qotgandan so‘ng atrof-muhitga zarar etkazadigan (eksport qilinadigan tovarlar bundan mustasno) alohida qadoqlash materiallari va mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun ularni bosqichma-bosqich yig‘ish, yo‘q qilish va (yoki) qayta ishlashni ta’minlaydigan “Kengaytirilgan majburiyatlar” tizimi joriy etilmoqda (“g” ning 4-bandi). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori) [1, 2, 3].

Neftni qayta ishlash sanoati neft mahsulotlarining tannarxini bosqichli va me’yoriy usul bo‘yicha aniqlaydi.

Tannarxni aniqlashni bosqichli usulida dastlab butun mahsulotning tannarxi, so‘ngra uning birligining tannarxi aniqlanadi. Bosqichli usul tashkilotning tarmoqqa mansubligiga bog‘liq holda yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz turlarda amalga oshirilishi mumkin.

Bir texnologik jarayonda bitta xom ashyo va materiallardan turli xildagi, ulardan har biri o‘zining sotish narxiga ega bo‘lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarilganda ushbu turdagi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) deb hisoblanadi.

Asosiy mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va sotish qiymati asosiy mahsulotga (ishlarga, xizmatlarga) qaraganda

o‘ta past bo‘lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) deb hisoblanadi.

Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni (ishlarning, xizmatlarning) taqsimlash nuqtasiga yetgunga qadar turli xildagi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sifatida identifikatsiya qilish mumkin emasligi ularning qo‘shimcha mahsulotdan (ishlardan, xizmatlardan) farqi hisoblanadi.

Bo‘linish nuqtasi — birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda alohida turdagi mahsulotlar aniq identifikatsiya qilinadigan ishlab chiqarish jarayonining muayyan payti.

Agar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ayrim turlari keyinchalik qayta ishlansa va bo‘linish nuqtasida ularni sotish narxini aniqlashning iloji bo‘lmasa, ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi usullardan biriga muvofiq birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga taqsimlanadi:

- realizatsiya qilishning sof qiymati usuli;
- realizatsiya qilishdan yalpi foydaning doimiy ulushi usuli.

Realizatsiya qilishning sof qiymati usuli birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot turlari bo‘yicha xarajatlar ularning sotishning sof qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanishini nazarda tutadi. Sotishning sof qiymatini aniqlash uchun bo‘linish nuqtasidan keyin qilingan qo‘shimcha xarajatlar sotish narxidan ayrilishi kerak.

Realizatsiya qilishdan yalpi foydaning doimiy ulushi usuli xarajatlarni shunday taqsimlashni nazarda tutadiki, umumiy yalpi foydaning foiz ulushi har bir alohida mahsulot uchun bir xil bo‘ladi va umumiy yalpi foyda ko‘rsatkichiga teng bo‘ladi. Bu usul quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- yalpi foyda foizini hisoblash;
- sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash va kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash.

Ishlab chiqarish xarajatlarini sotishdan olingan yalpi foydaning doimiy ulushi usulida taqsimlash usulidan foydalanishda kichik bir taxmin shundan iboratki, har bir mahsulot bo‘yicha individual darajada xarajatlar va sotish hajmi o‘rtasida bir xil bog‘liqlik mavjud deb taxmin qilinadi [4].

Neftni qayta ishlash sanoatida tayyor mahsulotlarni hisob narxlari bo‘yicha hisobga olish.

Hisob narxlari sifatida quyidagilar qo‘llanilishi mumkin:

- rejali (normativ) tannarx;
- oldingi davrlardagi tayyor mahsulotlarning haqiqiy qiymati;
- sotish (ulgurji) narxi va boshqalar.

Korxona hisob narxining o‘ziga xos variantini hisob siyosatida mustaqil ravishda belgilaydi.

Bir oy ichida tayyor mahsulotlar jo‘natiladi va ombordan hisob narxlarida hisobdan chiqariladi. Oy oxirida jo‘natilgan mahsulotlarning umumiy miqdori hisob narxlari bo‘yicha guruhlar kontekstida hisoblanadi.

So‘ngra mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi va uning hisobga olish bahosidagi qiymatdan chetlanish foizi aniqlanadi:

Chetlanish foizi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Oy boshidagi mahsulot qoldiqlari bo‘yicha og‘ish + Oy davomida ishlab chiqarilgan mahsulot bo‘yicha og‘ish}}{\text{Oy boshidagi qoldiqlarning nisob qiymati + Chiqarilgan mahsulotlarning hisob qiymati}} \text{ x } 100$$

Yuklangan mahsulot bo‘yicha chetlanishlar summasi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Tayyor mahsulotning hisobga olish narxi x Chetlanishlar foizi

Oy davomida jo‘natilgan tayyor mahsulotlarning chetlanish foizi bo‘yicha haqiqiy tannarxga yetkaziladi, ya’ni hisobga olish narxlarini aniqlash usulidan qat’i nazar, tayyor mahsulotlarning umumiy qiymati (hisobga olish qiymati va chetlanishlar) haqiqiy tannarxga teng bo‘lishi kerak[5].

Tayyor mahsulotni hisob narxlarida hisobga olish qo‘shimcha hisobvarag‘ yordamida amalga oshirilishi mumkin (masalan, 3710 – “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish” hisobvarag‘i yoki ularsiz.

3710 – “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish” hisobvarag‘ining debetida ishlab chiqarishdan chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy ishlab chiqarish qiymati aks ettiriladi (2010 “Asosiy ishlab chiqarish” hisobvarag‘i, 2310 “Yordamchi ishlab chiqarish” hisobvarag‘lari bilan yozishmalarda va boshqalar).

3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” hisobvarag‘i kreditida ishlab chiqarilgan mahsulotning me’yoriy (rejali) tannarxi aks ettiriladi (2810 - “Ombordagi tayyor mahsulotlar”, 9110 - “Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi” hisobvarag‘lari bilan yozishmalarda).

3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” hisobvarag‘i bo‘yicha oyning birinchi sanasidagi debet va kredit aylanmalarini taqqoslash yo‘li bilan ishlab chiqarishdan chiqarilgan mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi va me’yoriy (rejali) tannarxi o‘rtasidagi farq aniqlanadi.

Tejamkorlik, ya’ni me’yoriy (rejali) tannarxning haqiqiy tannarxdan oshib ketishi 3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” hisobvarag‘ining krediti va 9110 - “Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi” hisobvarag‘ining debeti bo‘yicha storno qilinadi [11, 12].

Ortiqcha sarf-xarajat, ya’ni haqiqiy tannarxning me’yoriy (rejali) tannarxdan oshib ketishi 3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” hisobvarag‘idan 9110 - “Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi” hisobvarag‘ining debetiga qo‘shimcha yozuv orqali hisobdan chiqariladi.

1-jadval

3710 - “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish” hisobvarag‘i yordamida tayyor mahsulotni hisobga olish

	Debet	Kredit
Chiqarilgan tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxini hisobdan	3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish”	2010 “Asosiy ishlab chiqarish” 2310 “Yordamchi ishlab

chiqarish		chiqarish”
Tayyor mahsulotni normativ (rejali) tannarx bo‘yicha chiqarish	2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”	3710 “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish”
Tayyor mahsulotni normativ (rejali) tannarx bo‘yicha sotishda hisobdan chiqarish	9110 “Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi”	2810 “Omborda tayyor mahsulotlar”
Farq hisobdan chiqariladi - haqiqiy tannarxning normativ (rejali) tannarxdan oshib ketishi	9110 “Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi”	3710 “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish”
Farq hisobdan chiqariladi - haqiqiy tannarxning normativ (rejali) tannarxdan kamayishi (storno yozuvi)	9110 “Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi”	3710 “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish”

Neftni qayta ishlash sanoatida tayyor mahsulotlarni rejali (normativ) tannarx bo‘yicha hisobga olish.

Korxona hisobot davrida 1000 ta sham to‘plamini 44 800 so‘mdan ishlab chiqardi va sotdi, umumiy qiymati 44 800 ming so‘mni tashkil etdi, QQSni hisobga olgan holda – 4800 ming so‘m. Tayyor mahsulotlar hisobi rejali narxlar bo‘yicha yuritiladi. Bitta to‘plamning rejaviy tannarxi – 30 000 so‘m, haqiqiy tannarxi esa – 35 000 so‘mni tashkil etdi.

Korxonaning hisob siyosatida tayyor mahsulotlarni hisobga olish narxlari bo‘yicha hisobga olish nazarda tutilgan.

Agar 3710 – “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” hisobvarag‘idan foydalanilsa, hisobvarag‘ining debetida ishlab chiqarishdan chiqarilgan mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish qiymati, kredit bo'yicha-ishlab chiqarilgan mahsulotning me'yoriy (rejalashtirilgan) qiymati aks ettiriladi.

Oyning birinchi sanasidagi 3710-hisobvarag‘i bo‘yicha debet va kredit aylanmalarini taqqoslash yo‘li bilan ishlab chiqarishdan chiqarilgan mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi va normativ (rejaviy) tannarxi o‘rtasidagi farq aniqlanadi.

2-jadval[30].

№	Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	Summa ming so‘m	Hisobvaraqlar yozishmalari		Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni
			Debet	Kredit	
1.	Tayyor mahsulotlar rejadagi tannarx bo‘yicha omborga kirim qilindi	30 000	2810	3710	Kirim orderi, buxgalteriya hisob-kitobi
2.	Tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aks ettirildi	35 000	3710	2010	Buxgalteriya hisob-kitobi
3.	Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromad aks ettirildi	40 000	4010	9010	Sotib olish-sotish shartnomasi
4.	Tayyor mahsulotlarni sotishdan hisoblangan QQS hisoblandi	4 800	4010	6410	Hisob-faktura

[30] Muallif ishlanmasi

5.	Tayyor mahsulotning me'yoriy tannarxi hisobdan chiqarildi	30 000	9110	2810	Buxgalteriya hisob-kitobi
6.	Tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi me'yoriy tannarxdan oshgan qismi hisobdan chiqarildi	5 000	9740	3710	Buxgalteriya hisob-kitobi
7.	Ishlab chiqarishdagi kutilmagan foydaning yopilishi	5 000	9910	9740	Buxgalteriya hisob-kitobi

Xulosa va takliflar. Ushbu hisobvarag‘dan foydalanish sotilgan tovarlarning haqiqiy tannarxini va sotilgan tovarlarning haqiqiy tannarxini aniqlashda mehnat xarajatlarini tejaydi. Ushbu hisobvarag‘ining debetida haqiqiy tannarx, kreditida esa normativ yoki rejaviy tannarx ko‘rsatiladi.

Haqiqiy tannarx 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” hisobvarag‘ining kreditidan “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” hisobvarag‘ining debetiga o‘tkaziladi.

Debet 3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish”

Kredit 2010 - “Asosiy ishlab chiqarish”.

Normativ yoki rejaviy tannarx “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)” hisobvarag‘ining kreditida va 2810 - “Ombordagi tayyor mahsulotlar” hisobvarag‘ining debetida aks ettiriladi.

Debet 2810 - “Ombordagi tayyor mahsulotlar”

3710-kredit - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish”.

Shu sababli neftni qayta ishlash sanoatida 3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” hisobvarag‘idan foydalanishni taklif etamiz va uni korxona hisob siyosatida ko‘rsatishni tavsiya etamiz.

Korxonaning “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” shaklida 3710 - “Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish” natijasida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishda kutilmagan foyda yoki zarar yakuniy moliyaviy natijaga qanday ta’sir qilganini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi.

2. Атабаева З.А., Махкамова С.Г. Учёт затрат есть неотъемлемая составляющая управления производством ведения нефтегазового бизнеса. // Журнал “Развитие учетно-аналитической и контрольной системы в условиях глобализации экономических процессов. Российская Федерация, Пермь, 26 ноября 2021 года. с. 194-203.

3. Атабаева З.А. Учётная политика организации и, её связь с налоговым планированием. International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities Hosted from Hamburg, Germany, 2022 - https: econferencezone.org.

4. Махкамова С.Г. Automation based on datasets and ai of corporate accounting and sustainability reporting in quality management in industry. PROCEEDINGS ON ENGINEERING SCIENCES Vol. 05, No. S2 (2023) 265-278, doi: 10.24874/ PES.SI.02.007 Received 12.07.2023. Accepted 06.10.2023.

https:
//www.scopus.com/authid/detail.uri?authorId=58704615100&origin=resultslist
5. Махкамова С.Г. Учет затрат и методы определения себестоимости продукции на нефтеперерабатывающих предприятиях. Журнал Вестник экономики и менеджмента. Российская Федерация. 2021 год выпуск № 2.- С. 54-57.

Nurmatov Orifjon Tolibjanovich
Phd, dotsent.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
orifjonnurmatov1976@gmail.com

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA XALQARO BRENDLAR BILAN HAMKORLIK YO‘NALISHIDA XALQARO SERTIFIKATLASH JARAYONLARINI BYUDJETLASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida xalqaro brendlar bilan hamkorlik sharoitida sertifikatlash jarayonlarini moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada xalqaro sertifikatlash standartlari (ISO 9001, OEKO-TEX, GOTS, BSCI, SA8000) bo‘yicha xarajatlar tarkibi tahlil qilinib, ularni byudjetlashtirish jarayonidagi mavjud metodologik muammolar aniqlangan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida to‘rt bosqichli byudjetlashtirish modeli taklif etilgan bo‘lib, u xarajatlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish, xavflarni baholash va sertifikatlash samarasini baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda va xalqaro bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik, xalqaro sertifikatlash, byudjetlashtirish, xalqaro brendlar, GOTS, OEKO-TEX, SA8000, sertifikatlash xarajatlari, moliyaviy rejalashtirish, raqobatbardoshlik.

Kirish. Globallashuv sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalari xalqaro bozorga chiqish uchun nafaqat mahsulot sifatini, balki xalqaro standartlarga muvofiqligini ham isbotlashi zarur. Ayniqsa, Zara, H&M, Inditex, PVH Corp, Fast Retailing (Uniqlo) kabi yirik xalqaro brendlar o‘z ta’minot zanjiriga yangi yetkazib beruvchilarni qabul qilishdan oldin ulardan bir nechta xalqaro sertifikat talab qiladi. Bu holat to‘qimachilik korxonalari uchun xalqaro sertifikatlashni strategik investitsiyaga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qaroriga ko‘ra 2025-yilgacha to‘qimachilik mahsulotlari eksportini

7 mlrd. AQSh dollariga yetkazish belgilangan edi [1]. Lekin xalqaro bozorlarga kirish uchun mamlakatimiz korxonalarida yetarli tajribani shakllanmagani, rivojlangan mamlakatlar bozorlarida mahsulotlar uchun talab etiladigan sertifikatlarni olishdagi moliyaviy muammolar bu rejani bajarilishiga ma'lum bir darajada ta'sir o'tkazdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmonida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish orqali mahsulotlar eksportini 2025-yilda 4,0 milliard AQSH dollariga, 2026-yilda 5,0 milliard AQSH dollariga va 2027-yilda 7,0 milliard AQSH dollariga, AQSH va Yevropa davlatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksportini 500 million AQSH dollariga, ilg'or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish hamda xalqaro brendlarni jalb qilish orqali jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish hamda ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsadida 5,0 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish vazifalari belgilandi[2].

Bu maqsadlarga erishishda xalqaro sertifikatlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan to'qimachilik korxonalari sertifikatlash jarayonlarini moliyalashtirish modellaridan xabardor emas. Natijada sertifikatlash jarayonlarini xarajatlari ko'zlangan 40–70% ga oshib ketishi kuzatilmoqda. Bunga sertifikatlash muddatlarini belgilashdagi xatoliklar, jarayonlar natijasini noto'g'ri baholash, xarajatlarni to'liq hisobga olmaslik — bularning barchasi sertifikatlash jarayonining moliyaviy samarasizligiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida xalqaro brendlar bilan hamkorlik imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois to'qimachilik korxonalarida xalqaro sertifikatlash jarayonlarini byudjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish masalasi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida to'qimachilik korxonalarida sertifikatlash jarayonlarini byudjetlashtirishda quyidagi metodologik kamchiliklar aniqlanib, tizimli tarzda guruhlandi:

Birinchi guruh, xarajatlarni hisobga olishdagi kamchiliklar:

- Barcha xarajatlarni byudjetga kiritmaslik (74% korxonada);
- Bir martalik va takrorlanuvchi xarajatlarni aralashtirib hisoblash;
- Inflyatsiya va valyuta tebranishlarini hisobga olmaslik;
- Ko'p sertifikat olganda sinergiya effektini e'tiborga olmaslik.

Ikkinchi guruh, vaqt oralig'i bo'yicha kamchiliklar:

- Sertifikatlash muddatlarini optimistik baholash (o'rtacha 40% ko'p vaqt ketadi);
- Sertifikatni saqlash xarajatlarini alohida byudjetda ko'zda tutmaslik;
- Qayta sertifikatlash xarajatlarini boshlang'ich davrda hisobga olmaslik.

Uchinchi guruh, strategik rejalashtirishdagi kamchiliklari:

- Sertifikatlashning moliyaviy effektini (ROI) hisoblashdagi yondashuvlarning yo'qligi;
- Risk-bazali byudjetlashtirish tamoyillarining qo'llanilmasligi;

- Xalqaro brendlar talablarining o‘zgarishini byudjetda aks ettirmaslik.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va samarali byudjetlashtirish metodologiyasini yaratish maqsadida to‘rt bosqichli integratsiyalashgan byudjetlashtirish modeli (TBIBM) taklif etiladi. Bu modelni bosqichlari quyidagilardan iborat:

1-bosqich. Diagnostika va inventarizatsiya. Ushbu bosqichda korxonaning joriy holati va maqsadli sertifikatlash rejalari aniqlanadi. Amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlar:

- Mavjud sertifikatlar va ularning joriy holati tahlili;
-Xalqaro brendlar talablari bo‘yicha bo‘shliqlar tahlili (GAP-analysis);
- Sertifikatlashga tayyor bo‘lish darajasini baholash (readiness assessment);
- Texnologik jarayon va xomashyo muvofiqligini baholash.

Bu bosqichda quyidagi formula asosida korxonaning "sertifikatlash imkoniyat indeksi" (SII) hisoblanadi:

$$SII = \frac{P_s \times Q_m \times R_p}{C_{total} \times T_r}$$

Bu yerda:

P_s — strategik muvofiqlik ko‘rsatkichi;

Q_m — sifat menejmenti darajasi;

R_p — ishlab chiqarish barqarorligi;

C_total — umumiy xarajatlar hajmi;

T_r — talab qilinayotgan transformatsiya hajmi.

2-bosqich. Xarajatlarning to‘liq inventarizatsiyasi va byudjet tuzilishi. Ushbu bosqichda barcha xarajatlar kategoriyalari bo‘yicha to‘liq byudjet shakllantiriladi. Byudjetlashtirish “Uch bosqichli byudjetlashtirish” deb nomlandi. Bunda:

- 1-bosqich (0–6 oy): Tayyorlov xarajatlari — texnologiya moslashtirilishi, xodimlar tayyorlash, hujjatlashtirish;
- 2-bosqich (6–18 oy): Dastlabki sertifikatlash xarajatlari — audit, testlar, sertifikat to‘lovlari;
- 3-bosqich (18–36 oy): Saqlash va kengaytirish xarajatlari — yillik monitoring, qayta auditdan o‘tkazish, yangi standartlarga o‘tish.

Har bir bosqichda xarajatlar uchta komponent bo‘yicha alohida byudjetlanadi:

$$B_{total} = B_{direct} + B_{indirect} + B_{hidden} + R_{reserve}$$

Bu yerda:

B_direct — to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar byudjeti;

B_indirect — bilvosita xarajatlar byudjeti;

B_hidden — favqulodda xarajatlar byudjeti (jami byudjetning 20–25%);

R_reserve — baholangan risk (jami byudjetning 15%).

3-bosqich. Baholangan byudjetlashtirish. Sertifikatlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy risklarni oldindan baholash va byudjetga kiritish. Bunda risk matritsasi belgilangan parametrlar bo‘yicha tuziladi.

4-bosqich. Sertifikatlash samarasini baholash va byudjetni optimallashtirish.

Ushbu bosqichda sertifikatlashning moliyaviy effekti quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

a) Sertifikatlash ROI:

$$ROI_{cert} = \frac{(\Delta R_{export} + \Delta P_{price} + \Delta C_{reduction}) - B_{cert}}{B_{cert}} \times 100\%$$

Bu yerda:

ΔR_export — eksport daromadlarining o‘sishi;

ΔP_price — narq ustamasi effekti;

ΔC_reduction — xarajatlarni qisqartirish effekti;

B_cert — sertifikatlash byudjeti.

b) To‘lanish muddati:

$$PP_{cert} = \frac{B_{cert}}{\Delta R_{annual}}$$

Bu yerda: ΔR_annual — sertifikatdan olingan yillik qo‘shimcha daromad.

O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari amaliyotiga asoslangan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro sertifikatlarni olgan korxonalarda:

- Xalqaro brendlar bilan shartnoma hajmi o‘rtacha 28–42% ga oshadi;
- Eksportga sotilayotgan mahsulotlardan olinadigan foyda 12–18% ga ortadi.

Umumiy **xulosa** qilib aytish mumkinki, TBIBM modelining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat xarajatlarni, balki sertifikatlashning moliyaviy samarasini ham real vaqtda baholash imkonini beradi. Bu esa sertifikatlash jarayonini xarajat sifatida emas, balki boshqariladigan investitsiya sifatida tan olishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni

Aytimbetova Bibizura Koyshibekovna

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi tayanch doktoranti

KOOPERATSIYANING RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganilgan. Xususan imkoniyatlari va tahdidlari SWOT tahlili asosida ifodalangan. Asalarichilikda kooperatsiya

munosabatlarini rivojlantirishning ijobiy va salbiy jihatlari, imkoniyatlari va tahdidlarini guruhlarga bo‘lib tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: kooperatsiya munosabatlari, asalarichilik, SWOT tahlil, ijobiy jihatlari, salbiy jihatlari, imkoniyatlari.

Kirish: Ma’lumki har qanday davlatning asosiy funksiyalaridan biri sifatida aholining oziq–ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan agrar siyosatni yuritish, mamlakat hududida yetishtirilgan mahsulotlar orqali aholi ehtiyojlarini maqbul qondirishning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini rivojlantirish, import o‘rnini bosuvchi va o‘z navbatida eksportga yo‘naltirilgan tovarlarni yetishtirishni rag‘batlantirishga urg‘u qaratiladi.

Ayniqsa pandemiyadan keyin ta’minot zanjiridagi uzulishlar har qanday darajada rivojlangan davlatni faqat va faqat o‘zining ichki imkoniyatlariga suyanish orqali aholini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoyalash mumkinligini yana bir bor isbotlab berdi.


Asosiy qism: Aholini sog‘lom ovqatlanishi va hayotiy zarur bo‘lgan vitamin va elementlarni olishida asal va asalari mahsulotlarining o‘rni beqiyos. Asal o‘zining tarkibi va shifobaxshligi sababli asrlar davomida iste’mol qilinadigan tabiiy mahsulotlardan biri sanaladi [3]. Asal yig‘ib olishni insoniyat uzoq yillar davomida tabiatdan ajratib olgan bo‘lsa, u bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar va hayotiy tajribalar natijasida madaniylashtirilgan asalarilar oilasini parvarishlashning imkoniyati yaratilgan. Bugungi kunga kelib esa, asalarichilik chorvachilikning yirik bir tarmog‘i sifatida keng o‘rganilayotgan, uning naslchiligi, mahsulot yetishtirish texnologiyalari, saqlash va qayta ishlash imkoniyatlari, ozuqa ta’minoti borasidagi tadqiqotlar agrar ilm fanining markaziy o‘rinlaridagi tadqiqotlar sifatida qaraladi.

Bugunki kunda asalarichilik subyektlari asosan kichik xo‘jaliklar bo‘lganligi tufayli ularda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni ta’minlash, ozuqa ta’minoti va mahsulotlarni sotish hamda qo‘shilgan qiymat zanjirini tashkil qilish jarayonlaridagi muammoli masalalar ularni birgalikda kooperatsiya tamoyillari asosida faoliyat yuritishini taqoza etmoqda [1].

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda asalarichilikda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning ijobiy va salbiy jihatlari, imkoniyatlari va tahdidlarini ilmiy o‘rganish tarmoqning nazariy bilimlarini kengayishiga zamin yaratib beradi. Shu bois asalarichilikda kooperatsiya munosabatlari rivojlantirish yuzasidan SWOT tahlili amalga oshirildi (1-rasm).

Unga ko‘ra mamlakatimizda asalarichilikda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishga kuchli tomoni sifatida uzoq yillar davomida aholining ayrim qatlamlari orasida asalarichilik bo‘yicha to‘plangan tajribas va uni avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishi, mahsulot yetishtiruvchilar o‘rtasidagi mustahkam aloqa, tajriba va ko‘nikmalar muammolarni hal qilishdagi o‘zaro jipslashuvning mavjudligi, mayda tovar yetishtiruvchilar birlashgan holda katta hajmda mahsulot tayyorlash va buning natijasida bozorlarga kengroq kirish imkoniyatining vujudga kelishi, uskuna va ozuqa kabi resurslarni kooperatsiya orqali xarid qilish

imkoniyati va bu hol asalarichilik subyektlari uchun xarajatlarni kamaytirishi va kabi jihatlarni kiritish mumkin.



1-rasm. Mamlakatimizda asalarichilikda kooperatsiya munosabatlari rivojlantirishning ijobiy va salbiy jihatlari, imkoniyatlari va tahdidlari [4]

Shuningdek, zaif tomonlari sifatida esa asalarichilik tarmog‘iga oid amaldagi qonunchilikning tez o‘zgaruvchanligi, tartiblarning barqaror emasligi, qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va asalarichilik tarmog‘i o‘rtasidagi nomutanosib tartiblarning mavjudligi, ozuqa yetishmasligi sharoitida salohiyatli maydonlarning norasmiy taqsimlanishi, mahsulotni qayta ishlash tizimining yo‘qligi va sun’iy asal tayyorlashning tartibga solinmaganligi, kooperatsiyaning moliyaviy barqarorligi uchun doimiy investitsiya yoki qo‘llab-quvvatlashning zarurligi va zamonaviy jihozlangan loboratoriyalarning yetishmasligi kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘z navbatida kooperatsiya tamoyillari asosida faoliyat yuritishning imkoniyatlari ham mavjud bo‘lib aholi o‘rtasida barqaror asalarichilik amaliyotiga e’tiborning ortishi va ekologik toza organik mahsulotlarga qiziqqan iste’molchilarning o‘sib borayotganligi, zamonaviy uskunalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan birgalikda foydalanish orqali ish

samaradorligini hamda mahsulot sifatini oshirish imkoniyatini vujudga kelishi, eksport uchun qulay geografik joylashuv va infratuzilmani shakllanishi va huquqiy asoslarning takomillashib borayotganligi kabi jihatlarni alohida sanab o‘tish maqsadga muvofiq.

Kooperatsiya munosabatlari asosida asalarichilik faoliyati bilan shug‘ullanishda tahdidlar sifatida turli kasallik va zararkunandalar sababli shirali o‘simliklar turining kamayib ketishi yoki ayrim o‘simlik gulidan asalarilarning zaxarlanishi, shartnoma munosabatlarining qat’iy ishlamasligi kooperativ a’zolariga iqtisodiy manyovr uchun imkon berishi, ma’muriy aralashuvlarning ko‘pigi va uning tartibga solinmasligi, global iqlim o‘zgarishi va buning natijasida tarmoq samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va xaridorlarning past daromadi kabi jihatlarni kiritish mumkin.

Kooperativ amaliyotlarga e’tibor qaratgan holda, asalarichilar yashash joylarini yo‘qotish va asalarilar salomatligi muammolari kabi dolzarb ekologik muammolarni birgalikda hal qilishlari, ekotizimga foyda keltiradigan barqaror amaliyotlarni targ‘ib qilishlari mumkin.

Hamkorlik yondashuvi, shuningdek, jamiyatning ishtirokini kuchaytiradi, asalarichilar o‘rtasida bilim almashinuvi va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan yordam tarmoqlarini yaratadi [2]. Oxir oqibat, bu imkoniyatlar nafaqat asalarichilikning individual faoliyatlarining barqarorligiga hissa qo‘shadi, balki atrof-muhitni muhofaza qilish hamda qishloq xo‘jaligi barqarorligining kengroq maqsadlari sari yo‘naltiriladi.

Xulosa: Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori asalarichilikda ham bozor munosabatlarini qaror topishi, xususiy mulkchilikka ustuvorlik berilishi, ularning rivojlanishi uchun qulay shart sharoitlarning yaratib berilayotganligi tarmoqda yangicha yondashuvlarga asoslangan samarali faoliyat yuritgan holda ishtirokchilarning barchasiga birdek manfaatli bo‘lgan biznes shakllarini joriy etish, uning ilmiy asoslarini chuqur tahlil etgan holda keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Askarov N. Asalarichilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning ayrim muammolari. O‘zBIITI, respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent. 2005 y. 3 iyun, 263-264 betlar.

2. Чепик А. Повышение эффективности развития пчеловодства в Российской Федерации: теория, методология и практика. д.э.н. дисс. автореферати. Москва – 2007 г.

3. Chekalov A.G. O‘zbekiston asalchiligining bugungi kuni va rivojlanish istiqbollari: muammolar va yechimlar. O‘zBIITI, respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent. 2005 y. 3 iyun, 63-65 betlar.

Rasulova Shaxnoza Xatamovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
Iqtisodiyot kafedrasi assistenti PhD
e-mail: shaxnoza.rasulova@fstu.uz

YASHIL IQTISODIYOT: O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini joriy etish, rivojlantirish yo‘nalish va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlik masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, energetika, qishloq xo‘jaligi, sanoat va transport sohalarida yashil transformatsiyaning ustuvor yo‘nalishlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologiya, resurs tejamkorlik.

Kirish. So‘nggi yillarda global miqyosda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning keskinlashuvi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. An’anaviy iqtisodiy o‘sish modeli yuqori darajadagi resurs sarfi va ekologik bosim bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa barqaror rivojlanish tamoyillariga zid kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham yashil transformatsiya jarayonlari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasi doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish va “yashil” investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1,2].

Yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish hamda iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv hisoblanadi. Ushbu konsepsiya doirasida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi [3,67-b].

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda yashil transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy mazmunini ochib berish, uning asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ustuvor rivojlanish yo‘nalishlari tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi.


Asosiy qism

Yashil iqtisodiyot ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Bugungi kunda tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning kuchayishi ushbu modelga o‘tishni zarur qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot quyidagi strategik hujjatlar asosida rivojlanmoqda:

- 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan yashil iqtisodiyot strategiyasi
- “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
- Prezident qarorlari

Ushbu hujjatlar energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va ekologik muhitni yaxshilashni nazarda tutadi.



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlari

Mazkur chizmada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari tizimli ravishda aks ettirilgan. Unda iqtisodiyotning to‘rtta muhim sektori — energetika, qishloq xo‘jaligi, sanoat va transport sohalari ajratib ko‘rsatilgan.

Energetika yo‘nalishida quyosh va shamol energiyasidan foydalanishni kengaytirish orqali energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda an’anaviy yoqilg‘ilarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish nazarda tutiladi. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali resurslardan oqilona foydalanish ta’minlanadi [4,53-b].

Sanoat sohasida chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish hamda karbon chiqindilarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Transport tizimida esa elektr transport vositalari va yashil logistika tizimlarini rivojlantirish orqali atmosfera ifloslanishini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish ko‘zda tutiladi.

1-jadval

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi [5,6].

Yo‘nalish	Joriy holat	Yashil yechim	Kutilayotgan natija (%)	Izoh
Energetika	An’anaviy yoqilg‘iga yuqori bog‘liqlik	Quyosh va shamol energiyasi	Energiya xarajatlari ↓ 20–30%	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi oshadi
Qishloq xo‘jaligi	Suv resurslaridan samarasiz foydalanish	Tomchilatib sug‘orish, agrotexnologiyalar	Suv sarfi ↓ 25–40%	Hosildorlik oshadi
Sanoat	Yuqori chiqindi va karbon emissiya	Chiqindisiz ishlab chiqarish	Emissiya ↓ 15–25%	Ekologik zarar kamayadi
Transport	Yoqilg‘iga bog‘liqlik yuqori	Elektr transport va yashil logistika	Yo‘qilg‘i xarajati ↓ 20%	Atmosfera ifloslanishi kamayadi
Uy xo‘jaliklari	Energiya tejamkorlik past	Energiya samarador qurilmalar	Xarajat ↓ 10–15%	Aholi daromadi tejaydi

Mazkur yo‘nalishlarning kompleks rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlash va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Yashil iqtisodiyot loyihalarining investitsiya samaradorligi (O‘zbekiston sharoitida) [6,7].

Yo‘nalish	Boshlang‘ich investitsiya (mln $)	Yillik iqtisodiy foyda (%)	Qaytish muddati (yil)	CO_2 kamayishi (%)
Quyosh energetikasi	100	12–18%	5–7 yil	20–30%
Shamol energetikasi	120	10–15%	6–8 yil	25–35%
Suv tejovchi agrotexnologiya	20	15–25%	3–5 yil	10–15%
Sanoatda energiya samaradorlik	50	20–30%	3–6 yil	15–25%
Elektr transport	80	10–20%	5–8 yil	20–25%

Mazkur jadvalda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari hamda ularning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalarni joriy etish nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshiradi.

Xususan, energetika sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish energiya xarajatlarini 20–30 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirib, hosildorlikni ko‘paytiradi.

Mazkur jadvalda yashil iqtisodiyot yo‘nalishlarida amalga oshiriladigan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalar dastlab katta investitsiya talab qilsa-da, ularning qaytish muddati nisbatan qisqa bo‘lib, uzoq muddatda yuqori iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, sanoatda energiya samaradorligini oshirish loyihalari yuqori rentabellik ko‘rsatkichlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

3-jadval

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (prognoz ko‘rsatkichlar) [7].

Ko‘rsatkich	2020 (bazaviy)	2030 (prognoz)
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	10%	25%
Energiya intensivligi (YAIMga nisbatan)	100%	70%
Issiqxona gazlari emissiyasi	100%	65%
Suv sarfi samaradorligi	100%	75%
“Yashil” ish o‘rinlari ulushi	5%	12–15%

Mazkur jadvalda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot rivojlanish jarayonlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri prognoz asosida keltirilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi sezilarli darajada oshishi, energiya intensivligi esa kamayishi kutilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning resurs tejamkor va ekologik barqaror modelga o‘tishini anglatadi. Shuningdek, issiqxona gazlari emissiyasining kamayishi va “yashil” ish o‘rinlarining ortishi mamlakatda barqaror rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Yashil iqtisodiyot modelini joriy etish nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Xususan, resurs tejamkor texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda mahsuldorlikni oshirish imkoniyati yaratiladi.

Birinchidan, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish natijasida energiya xarajatlarini 20–30 foizgacha kamaytirish mumkin. Bu, ayniqsa, energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan sanoat tarmoqlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, korxonalar xarajatlarining sezilarli qismini qisqartirish imkonini beradi. Natijada mahsulot tannarxi pasayadi va korxonalarning raqobatbardoshligi oshadi.

Ikkinchidan, yashil texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini 15–25 foizga oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda avtomatlashtirilgan tizimlar, energiya tejovchi uskunalar va resurslardan oqilona foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishi natijasida vaqt va resurslar tejaladi, bu esa umumiy ishlab chiqarish hajmini oshirishga olib keladi.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyot ekologik zararlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi. Atrof-muhitga salbiy ta'sirning kamayishi sog'liqni saqlash xarajatlarini qisqartiradi, tabiiy resurslarning tiklanishiga imkon yaratadi hamda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikning ta'minlanishi investitsiya muhitini yaxshilaydi va xalqaro investorlar uchun mamlakat jozibadorligini oshiradi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot qisqa muddatda xarajatlarni optimallashtirish, o'rta muddatda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uzoq muddatda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash orqali kompleks iqtisodiy samaradorlikni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4539502
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ""O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. https://lex.uz/doc-passport/-6600413
3. Кузнецов А. В. Экономика устойчивого развития: учебник. – М.: Инфра-М, 2020 – 368 с.
4. Turobova Hulkar Rustamovna, Kadirova Maral Matyakubovna. Yashil iqtisodiyot, o'quv qo'llanma / H.R.Turobova, M.M.Kadirova - Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI"MCHJning Kamolot nashriyoti, 2025. - 96 b.
5. World Bank. *Scaling Solar Program.* 40–45p. https://www.iea.org/reports/renewables-2023
6. FAO. Water efficiency. 50 p. https://www.fao.org
7. World Bank + IEA. Uzbekistan Energy Transition. p. 18–22. https://openknowledge.worldbank.org

Turdiyev Sarvar Ilxomovich
Farg'ona viloyati IIB xuzuridagi
Tergov boshqarmasi o'ta muxim
ishlar bo'yicha tergovchisi,
Tel:+998911180880

ICHKI ISHLAR ORGANLARI BOSHQARUVIDA RISK – MENEJMENT TIZIMI MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlari boshqaruvida risk-menejment tizimini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshqaruv faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va tahdidlarni aniqlash, baholash hamda ularni kamaytirish mexanizmlari yoritilgan. Ichki ishlar organlari faoliyatida samaradorlikni oshirish, qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirish va xizmat intizomini mustahkamlashda risk-

menejment tizimining ahamiyati ochib beriladi. Maqolada xorijiy tajribalar hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida risklarni boshqarishning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, boshqaruv, risk-menejment, xavflarni baholash, boshqaruv samaradorligi, strategik boshqaruv, tahdid, xavfsizlik, monitoring, qaror qabul qilish, profilaktika, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari.

Tobora beqaror va noaniq dunyo sharoitida riskni boshqarish tashkilotda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq, bu jarayon ko’pincha bir tomonlama e’tibor qaratilgan holda ancha byurokratik faoliyat sifatida namoyon bo’ladi. Risklarni boshqarish o’rnini bosuvchi potensial tahdidlarni aniqlash jarayoni takomillashtirish taqozo etadi. Ichki ishlar vazirligi (keyingi o’rinlarda IIB deb ataladi) bo’linmani samarali boshqarishda qulay shart- sharoit yaratiladi. Ichki ishlar organlarida xatarlarni boshqarishning samarali jarayonlari o’z oldiga qo’yilgan xizmat vazifalariga muvofiq natijalarga erishishni ta’minlashi, moliyaviy va inson resurslaridan yanada samarali foydalanishga ko’maklashishi mumkinligini tasdiqlaydi.Bu harakatlar jinoyatchilikning oldini olish va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish uchun eng yaxshi asosda jinoyatchilikka qarshi kurashishga sarflanadigan vaqt, tasodifiy harakatlarni boshqarishni yaxshilashni ta’minlaydi. Xavflarni samarali boshqarish fuqarolarning ichki ishlar organlariga ishonchini oshirish imkonini beradi, bu esa vazifalarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlash qobiliyatining muhim ekanligini ta’minlaydi. "Riskni boshqarish - yuqori tavakkalchilik sohasini aniqlash, risk darajasini baholash, riskning oldini oluvchi choralarni ishlab chiqish va qabul qilish, xodisa allaqachon sodir bo’lgan taqdirda, optimal choralarni qo’llash mumkinligini ta’minlashi zarur.

Bu holatda biz IIO bo’linmasida xatarlarni boshqarish tizimini qurish xatarlarni boshqarish metodologiyasiga tayanishimiz muhimdir. Xorijiy mamlakatlarda ko’plab yirik kompaniyalarda xatarlarni boshqarish amaliyoti organik rivojlandi va tashkilot faoliyatining turli funksiyalari, hududlari va yo’nalishlarining qabul qilinayotgan xatarlari va normativ talablarini aks ettiradi. Xorijiy mualliflar tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlarda ko’pincha rahbariyat tomonidan yetarli e’tibor va xatarlarni boshqarishga kompleks yondashish etishmaydi. Tavakkalchiliklarni boshqarish ko’plab subyektlar, jarayonlar va kanallar axboroti bilan tavsiflanadi. Bu sub’ektlarning roli va vazifalari ko’pincha yetarlicha aniqlanmagan va kelishilmagan. Shunday qilib, xulosa risklarni boshqarish faoliyati har qanday tashkilotning barcha funksiyalari, hududlari va bo’linmalari bo’yicha kelishib olinishi va har tomonlama tartibga solinishi lozimligini ta’minlashni taqozo etadi. Tashkilot ichida sifat, ta’minot zanjiri va muvofiqlik kabi oldini olish mumkin bo’lgan xavflar juda ko’p. Shuning uchun tashkilotlarda standart operatsion tartib-taomillar va ichki nazorat tizimlarining rasmiylashtirilgan jarayonlaridan foydalaniladi.

Strategik va oldini olish qiyin bo’lgan, boshqacha yondashuvni talab qiladigan risklar, qoida tariqasida, e’tiborga olinmaydi (masalan, tashqi shoklar xavfi (epidemiya va shu kabilar). Boshqa tomondan, risklar omil-shart sifatida qo’yilgan vazifalarni hal etish uchun muqobil imkoniyatlar va yo’llarni izlashga undovchi vazifalar, muayyan natijalar sifatiga erishishga olib keladi Riskni

boshqarish tizimini qurish IIB boshqaruvning tarkibiy qismi sifatida, ko'rinish bosqichlar bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. P. I. Tretyakov va T. I. Shamova tomonidan aniqlangan xatarlarni boshqarishda bir qator tavsiyalar berilgan, xususan:

1) risklarni identifikatsiyalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

risknilar to'g'risida axborot to'plash, va olingan axborotni qayta ishlash, risklarlarni shakllantirish;

2) muhim risknilarni aniqlash, tavakkalchiliklarni minimallashtirishning mo'ljallanayotgan maqsadlarini belgilash davom etayotgan risklarni tahlil qilish;

3) tavakkalchiliklarga javob berishni rejalashtirish - boshqaruvning maqbul konstruksiyalarini prognozlashtirishni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq jarayonlarni bajarish;

4) tavakkalchiliklarni boshqarish - tavakkalchilik egasini aniqlash, faoliyat ko'rsatish va risknilarni minimallashtirish shartlarini ta'minlash;

5) boshqariladigan jarayonning borishi to'g'risidagi axborot va o'zgarishlarni tizimlashtirish, tavakkalchiliklarni minimallashtirish natijalarini diagnostika qilish amalga oshirilganda tavakkalchiliklarni monitoring qilish va nazorat qilish;

6) tartibga solishda muqobillarini ishlab chiqish va xatar oqibatlari bilan bog'liq jarayonlarni tuzatish, erishilgan natijalarni tahlil qilish, boshqariladigan tizimda xatarlarni minimallashtirish bo'yicha jarayonlarni tartibga solishda tezkor choralar ko'rish.

Xatarlarni boshqarishning zamonaviy tendentsiyalari nafaqat moliyaviy va sug'urta jihatlarini, balki kiberxavfsizlik, ekologik tahdidlar va global tahdidlarni ham qamrab oladi. Bugungi kunda sun'iy texnologiyalar aql va big data, tahlil qilish imkonini beradi xatarlar misli ko'rilmagan aniqlikda, jarayon strategik rejalashtirishning asosiy elementi hisoblanadi. Ichki ishlar organlarida xatarlarni boshqarish salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va kamaytirishga qaratilgan tizimli jarayon bo'lishi kerak. Tezkor vaziyatning jadal o'zgarib borayotgan sharoitida jinoyatchilik va ichki tahdidlar bilan bog'liq potentsial xatarlarni prognozlash muhim jihatga aylanmoqda. Samarali boshqaruv tavakkalchiliklar zamonaviy texnologiyalarni, tahliliy usullarni va xodimlarning kasbiy tayyorgarligini integratsiyalashni talab qiladi. Yuzaga kelayotgan tahdidlarga tezkor javob berish imkonini beruvchi harakat erta ogohlantirish mexanizmlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlarida xavflarni boshqarish boshqa idoralar, jamoat tashkilotlari va fuqarolar bilan yaqin hamkorlikni nazarda tutadi, bu esa ushbu jarayonni ta'minlashga kompleks yondashuvni shakllantirishga ko'maklashadi. Tavakkalchilikka asoslangan fikrlashni joriy etish nafaqat salbiy oqibatlarning oldini olish, balki umuman ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tavakkalchilikka asoslangan fikrlash nafaqat boshqaruv vositasi, balki bunday yondashuvni qo'llaydigan tashkilot faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladigan falsafa sifatida namoyon bo'ladi. Bu qaror qabul qilish uchun ongli ravishda tahdid va imkoniyatlarning oldini olishda potentsial imkoniyatdir.

Shunday qilib, xatarlarni boshqarish IIB bo’linmasi boshqaruvining bir qismi hisoblanadi va umumsivilizatsiyalashgan kasbiy xizmat faoliyatini rivojlantirish va talablaridan bo’lib xisoblanadi. Xavf-xatarlarni boshqarish ichki ishlar organlari bo’linmalarini ishonchli boshqarishni ta’minlash bo’yicha samarali vositalardan biri ekanligini ta’kidlab, rahbarlardan qarorlarning qabul qilishda kasbiy mahorat talab etilishiga alohida e’tibir bermoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Рабаданова Р. С., Семинская Э. С., Филатов А. М. Проблемы использования искусственного интеллекта студентом в решении индивидуальных образовательных задач // Прикладная психология и педагогика. 2024. №. 3. С. 115–124. DOI: https://doi.org/10.12737/2500-0543-2024-9-3-115-124.5. 2.

2. Gius D., Mieszala J.-C., Panayiotou E. [et al].Value and resilience through better risk management. 2018. https://go.sn.pub/2Z5RHi(дата обращения: 11.09.2024).

3. Kaplan R. S., Mikes A. Managing risks: a newframework. 2012. https://hbr.org/2012/06/managing-risks-a-new-framework (дата обращения: 11.09.2024).

IV-SHO‘BA

O‘ZBEKISTONDA MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARIGA DOIR YONDASHUVLAR

Kuliboyev Azamat Shonazarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori
e-mail: azamatkuliboyev@gmail.com

DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY NAZORATI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida davlat tibbiyot tashkilotlarining moliyaviy nazoratini maqsadi va obyekti, uning asosiy vazifalari ko‘rib chiqilgan. Davlat tibbiyot tashkilotlarida amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat shakllari keltirilib, moliyaviy nazoratni tashkil etish bilan bog‘liq muammolar yoritib berilgan. Shuningdek, ichki moliyaviy nazorat tizimini yaratishda boshqaruv jarayonining har qanday bosqichida rejalashtirilgan va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida og‘ishlar yuzaga kelishi tabiiy ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: budjet, davlat tibbiyot tashkilotlari, ichki audit, ichki moliyaviy nazorat tizimi, moliyaviy nazorat, moliyaviy nazorat shakllari, nazorat, nazorat obyektlari, nazorat organlari, sog‘liqni saqlash tizimi.

Kirish. Nazorat boshqaruv siklining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, unda boshqarilayotgan obyektga ta’sir natijalari belgilangan oraliq ko‘rsatkichlarga erishish darajasi asosida baholanadi. Salbiy og‘ishlar aniqlangan taqdirda, ularning sabablari aniqlanadi va salbiy omillarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘riladi. Nazorat samarali bo‘lishi uchun u o‘z vaqtida, aniq va ta’sirchan bo‘lishi lozim. Bu murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, davlat boshqaruvi, nazorat hamda moliyaviy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimidagi moliyaviy nazorat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu uning maqsad va vazifalarida aks etadi. Hozirgi kunda sog‘liqni saqlash tizimining davlat va xususiy sektorlarining o‘zaro bog‘liqligi va bir–birini to‘ldirishi davom etmoqda, bu esa moliyalashtirish manbalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Davlat tibbiyot tashkilotlarida moliyaviy nazoratning obyekti–bu tashkilotlarning asosiy faoliyatini amalga oshirish uchun sog‘liqni saqlash tizimining jamlangan moliyalashtirish manbalaridan foydalanishga doir moliyaviy–xo‘jalik faoliyatidir.


Sog‘liqni saqlash tizimida moliyaviy nazoratning maqsadi–budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hamda davlat mulkidan qonuniy va samarali foydalanishni ta’minlashdan iborat. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ❖ Davlat tibbiyot tashkilotlari smetasining daromad va xarajat qismlarini hajmi, tuzilmasi va maqsadli yo‘nalishiga ko‘ra o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish va amalga oshirish;
- ❖ Davlat tibbiyot tashkilotlari xarajatlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- ❖ budjet ko‘rsatkichlaridan og‘ishlarni aniqlash, ularni bartaraf etish va budjetni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

❖ budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholash;
❖ budjet va soliq intizomini mustahkamlash;
❖ daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarni kamaytirish zaxiralarini aniqlash;
❖ budjet mablag‘larining banklar va boshqa kredit muassasalaridagi harakatini tekshirish;
❖ budjet va o‘zaro budjet munosabatlari sohasida moliyaviy suiiste’molliklarni aniqlash;
❖ moliyaviy intizomni oshirish maqsadida profilaktik ishlarni olib borish.

Davlat tibbiyot tashkilotlarida moliyaviy nazorat dastlabki, joriy va keyingi nazorat shakllarida amalga oshiriladi.

Dastlabki nazorat jamlangan moliyalashtirish manbai loyihasi hamda viloyat (shahar) miqyosidagi aholiga kafolatlangan tibbiy, dori–darmon va sanitariya–epidemiologik yordam dasturi keyingi moliyaviy yil uchun ishlab chiqilish bosqichida sog‘liqni saqlash bo‘yicha idoralararo budjet komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi [1]. Joriy va keyingi nazorat esa ushbu mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida sog‘liqni saqlash tizimidagi moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat tibbiyot tashkilotlarida moliyaviy nazorat quyidagi 1–rasmda ko‘rsatilgan shakllarda



amalga oshiriladi.

1–rasm. Davlat tibbiyot tashkilotlarida amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat shakllari[31]

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Moliyaviy nazoratni tashkil etish bilan bog‘liq muammolarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh–normativ–huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq muammolar. Bularga nazorat organlari vakolatlarining aniq belgilanmaganligi, funksiyalarning chalkashligi, nazorat

[31] Muallif tomonidan tuzilgan.

obyektlari doirasining noaniqligi, aniqlangan buzilishlarga nisbatan choralar ko‘rish tartibining yetishmasligi, normativ–huquqiy hujjatlarni qabul qilishdagi sustkashlik, ichki standartlarning yo‘qligi hamda strategik va joriy nazorat o‘rtasidagi uzviylikning yetishmasligi kiradi.

Ikkinchi guruh esa moliyaviy nazorat organlari faoliyatidagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Bunga budjet daromadlarini shakllantirishdagi kamchiliklar, soliq va yig‘imlarni undirishdagi muammolar, asossiz imtiyozlar berilishi, budjet oldidagi qarzdorlikning ortishi hamda normativ talablarning bajarilmasligi kiradi.

Yuqorida qayd etilgan salbiy holatlar mavjud moliyaviy nazorat tizimini tubdan takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun mustahkam huquqiy baza yaratish, tashkiliy tuzilmani isloh qilish, zamonaviy nazorat usullarini joriy etish, axborot–kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hamda nazorat organlarining moddiy–texnik ta’minotini yaxshilash talab etiladi [2].

Shunday qilib, rivojlangan moliyaviy nazorat tizimini shakllantirish uchun bir qator muhim qadamlarni qo‘yish kerak: tizimli va to‘liq tartibga solish bazasini shakllantirish, moliyaviy nazoratning tashkiliy tuzilmalarida islohotlarni amalga oshirish, nazorat qilish tartib–qoidalarining yangi tizimini, metodologik bazani shakllantirish, tegishli axborot–kommunikatsiya infratuzilmasini tashkil etish, tartibga soluvchi organlarning moddiy–texnik, shu jumladan ijtimoiy va moliyaviy faoliyatini ta'minlash.

Amaliyotda ichki moliyaviy nazoratni tashkil etishda quyidagi variantlardan foydalanish mumkin: nazorat funksiyalarini rahbar o‘rinbosarlari yoki alohida bo‘linmalar o‘rtasida taqsimlash; maxsus komissiya tashkil etish; ichki audit bo‘linmasini yaratish; alohida revizor lavozimini joriy etish; yoki tashqi mustaqil auditorlarni jalb qilish.

Shuningdek, ichki moliyaviy nazorat tizimini yaratishda boshqaruv jarayonining har qanday bosqichida rejalashtirilgan va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida og‘ishlar yuzaga kelishi tabiiy ekanligini inobatga olish zarur. Ushbu og‘ishlar haqida o‘z vaqtida va aniq ma’lumot olish uchun samarali ichki nazorat tizimi zarur.

Xulosa: davlat tibbiyot tashkilotlarida moliyaviy nazorat asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy nazorat davlat moliyaviy faoliyati tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli tibbiy faoliyatni tashkil etishdagi muammolarni hal etish yondashuvi moliyaviy nazoratni takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ибрагимов А.К., Сугирбаев Б.Б. Бюджет назорати ва аудити. Ўқув қўлланма. -Т.: «infoCOM.UZ», 2010. -192 б.

2. Измоденов А.К. Бюджетный контроль. Учебник. – Екатеринбург.: Изд-во Урал.гос.экон.ун-т, 2014. – 282 с.

3. Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях: учеб. пособие. 2-е изд., перераб. -М.: ИНФРА-М, 2017. -227с.

4. Qo’ziyev I.N., G’aniyev Sh.V., Ramazonov A.S. Byudjet hisobi va nazorati (1-qism). Darslik. – T.: «Nihol Print», 2022. –632 b.

Наурызбаев Алиакбар Рустамович
кандидат экономический наукам (PhD),
доцент University of innovation technologies
e-mail: akbarshox_9292@uit.uz

МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ТРАНСГРАНИЧНОМ ПРОСТРАНСТВЕ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН)

Аннотация. В Республике Каракалпакстан туристический комплекс экономики обладает уникальным культурно-историческим и иными потенциалами. Рост эффективности этой деятельности требует учета региональных особенностей, среди которых трансграничный территории. В статье на основе анализа ряда исследований определены источники получения доходов в результате туристической деятельности и выявлены некоторые пути совершенствования управления эффективностью отрасли.

Ключевые слова: рост экономической эффективности, развитие регионального туризма, управление эффективностью.

Туристическая деятельность особая отрасль современной экономики. Эта отрасль обретает статус индустрии и во многих странах (США, Франция, Италия, Великобритания, Греция, Испания, Египет т и др.) является одним из эффективных секторов экономики.

Проблеме экономической эффективности туризма посвящены множество исследований. Так, изучая моделирование туристского потенциала регионального субъекта С. В. Земляк, О. М. Гусарова, Е. В. Ганичева, В. М. Кондрашов, «выявили факторы, сдерживающие развитие туристической отрасли регионального субъекта, определили влияние различных видов трендовых моделей, характеризующих динамику въездного туристического потока региона и его темпов роста». Кроме того, ими «выполнен анализ качества построенных линейных и нелинейных трендовых моделей. Сформулированы рекомендации по развитию туристического кластера регионального субъекта». Ими отмечено, что «российские регионы используют различные маркетинговые механизмы продвижения региональных туристских продуктов, исходя из собственного понимания и осознания роли и места индустрии туризма в стратегии регионально развития» [1, 4]. При этом последнее оценивается как негативный фактор.

В своем исследовании Казыбайкызы А., Муханова А.Е., Смагулова Ж.Б. провели « краткий анализ особенностей развития туризма в мире», рассмотрели «основные функции туризма как отрасли (реализация стоимости и потребительской стоимости, заключенных в туристском продукте, организация процесса доведения туристского продукта до потребителя (туриста), экономическое обеспечение материальных стимулов к труду); факторы, влияющие на развитие современного туризма; положительные и отрицательные стороны туристической отрасли (общеэкономические

факторы, социально – демографические факторы, факторы культурного и общественно-психологического характера, личностно-поведенческие факторы)» [2, 6]. А также они рассмотрели перспективы развития туристической отрасли

Гамидова, А. Э., В. А. Плотников, изучая развитие и эффективность туризма, как вида экономической деятельности, пришли в выводу «относительно методов и целесообразности государственной поддержки туризма в будущем». [3, 5].

Рассматривая перспективы отечественного туризма, Маманабиева Н.И, Муминова А.З. отмечают, что «за последние несколько десятилетий переживает значительный всплеск развития туризма. Это явление принесло многочисленные выгоды экономике, культуре и населению страны, но также создает ряд проблем, которые необходимо решить». Ими рассмотрены перспективы и проблемы развития туризма в Узбекистане, выделив при этом возможности и препятствия, с которыми сталкивается этот сектор» [4, 3].

Исследуя социально-экономическая эффективность туризма, М. Морозовна основе анализ современной экономической литературы показывает, «что проблема исследования эффективности туристской деятельности в настоящее время является одной из дискутируемых и не в полной мере разработанных. Отличительные черты традиционного и широкого подходов, обосновывается целесообразность использования нового («сетевого») подхода, который отличается от имеющихся следующими положениями, отражающими современные представления о теории и методологии исследования социально-экономической эффективности туристской деятельности». Также им отмечается, что в настоящее время «расширяется содержание объекта исследования; углубляется содержание и усложняется природа предмета исследования. и изменяется ключевая задача управления эффективностью» [5.6].

Л. М. Шаяхметова, исследуя вопросы экономической эффективности инвестиций в индустрию туризма Республики Казахстан, изучила «механизмы привлечения инвестиций для эффективного развития индустрии туризма в Республике Казахстан и вопросы консолидации вложений в индустрию» и определила «перспективы развития путем анализа сложившейся ситуации». Ею «изучены показатели эффективности инвестиционного процесса в индустрии туризма и определены перспективы развития путем анализа сложившейся ситуации». [6. 3].

Капустина, О. И., исследуя вопросы развитие внутреннего туризма считает, что он «необходим для пополнения бюджета, создания новых рабочих мест, улучшения жизни населения и что органам государственной власти необходим методический инструментарий, позволяющий определить наиболее верное для отдельной территории сочетание форм и видов внутреннего туризма, механизм использования имеющейся ресурсной базы» [7. 9].

Исследователи Д.Н. Шайкин, Д.О. Абуталип, А.Ж. Бекматова, рассматривая вопросы оценки динамики устойчивого развития экономики

туризма в Республике Казахстан, «дополнили методы оценки динамики устойчивого развития экономики туризма в современных условиях» [8.6].

Таким образом приведенные разработки показывают о широте географии исследователей, сложности рассматриваемой темы и о наличии различных подходов и методов решений.

Главной особенностью, негативно отражающейся на эффективности туристического бизнеса в исследуемом регионе, является трансграничность территории Каракалпакстана. На севере, северо-востоке Республика граничит с малонаселенными районами Казахстана (рис. 1), а с южной стороны с также малонаселенными районами Туркменистана. Каракалпакстан находится вдали от промышленных центров Узбекистана: такими как Ферганская долина, Ташкентская и Самаркандская агломерации с высокой плотностью населения. Регион, обладая уникальными шедеврами культурного наследия, в результате получает неадекватный этому потенциалу результаты. По прикидочной оценке, в результате такой дислокации турбизнес Каракалпакстана теряет до 40-45 % тур посещений местного туризма и до 17-25% зарубежного туризма, что обязательно следует учитывать в



стратегических планах развития отрасли.

Рис. 1- Дислокация Республики Каракалпакстан

Следует отметить, что в настоящее время за годы независимости совершен значительный рост количества и качества объектов, составляющих туристическую инфраструктуру, вырос кадровый потенциал отрасли. Задача исследователей состоит в поиске новых путей, обеспечивающих рост эффективности туризма, чтобы он стал мощным сектором региональной экономики, обеспечил многократный рост занятости населений за счет создания новых рабочих мест с достойной оплатой труда.

В литературе отмечается, что развитие туристической деятельности может сыграть решающую роль в подъеме регионов, характеризующихся

низкими показателями экономического развития. Туризм обладает мультипликативным эффектом, стимулируя различные секторы экономики и создавая новые возможности для местных сообществ. В контексте депрессивных регионов, туризм способен стать мощным катализатором для:

1. Создания рабочих мест и увеличения доходов населения:

Прямое трудоустройство: Туристическая индустрия предоставляет широкий спектр рабочих мест, начиная от низкоквалифицированных позиций (горничные, официанты, водители) и заканчивая требующими специальной подготовки (гиды, инструкторы, менеджеры отелей). Это особенно важно для регионов, где традиционные отрасли промышленности находятся в упадке, и где уровень безработицы высок. Предоставляя альтернативные источники дохода, туризм помогает снизить социальную напряженность и улучшить качество жизни населения.

Косвенное трудоустройство: Развитие туризма стимулирует рост смежных отраслей, таких как сельское хозяйство (поставки продуктов питания для ресторанов и отелей), транспорт (услуги такси, автобусные перевозки), ремесленничество (производство сувениров и традиционных изделий), строительство (возведение новых объектов размещения и инфраструктуры). Это создает дополнительные рабочие места и увеличивает доходы населения, занятого в этих смежных секторах.

Предпринимательство: Туризм предоставляет возможности для развития малого и среднего бизнеса. Местные жители могут открывать свои гостевые дома, рестораны, магазины сувениров, организовывать экскурсии и мастер-классы. Это способствует развитию предпринимательской культуры и формированию среднего класса, что является важным фактором для устойчивого экономического развития.

2. Стимулирования экономического роста и диверсификации экономики:

Привлечение инвестиций: Туристический потенциал региона может привлечь как внутренние, так и иностранные инвестиции в развитие инфраструктуры, строительство отелей и других объектов размещения, создание развлекательных комплексов. Инвестиции в туризм способствуют модернизации экономики региона и повышению его конкурентоспособности.

Увеличение налоговых поступлений: Развитие туристической деятельности увеличивает налоговые поступления в местный и региональный бюджеты за счет налогов на прибыль, НДС, туристического сбора и других налогов. Эти средства могут быть направлены на развитие инфраструктуры, образование, здравоохранение и другие социально значимые проекты, улучшая качество жизни населения.

Диверсификация экономики: Туризм может стать альтернативой традиционным, но находящимся в упадке отраслям экономики. Развивая туристический сектор, регион снижает свою зависимость от одного или нескольких видов деятельности и становится более устойчивым к экономическим шокам. Это особенно важно для регионов, где экономика сильно зависит от добычи полезных ископаемых или сельского хозяйства.

3. Сохранения культурного наследия и окружающей среды:

Повышение осведомленности о культурном наследии: Туризм способствует популяризации культурного наследия региона, привлекая внимание к историческим памятникам, традициям и обычаям местного населения. Это стимулирует интерес к сохранению и восстановлению объектов культурного наследия, а также поддерживает развитие народных промыслов и ремесел.

Стимулирование охраны окружающей среды: Развитие экологического туризма способствует сохранению природных ресурсов и биоразнообразия региона. Туристы, приезжающие в регион, чтобы насладиться его природными красотами, заинтересованы в сохранении чистоты окружающей среды. Это создает стимулы для внедрения экологически чистых технологий и методов ведения хозяйства, а также для борьбы с браконьерством и незаконной вырубкой леса.

Поддержка местных сообществ: Туризм может стать инструментом для поддержки местных сообществ, обеспечивая им доступ к новым рынкам и возможностям.

Развитие сельского туризма позволяет фермерам продавать свою продукцию напрямую туристам, а развитие этнографического туризма позволяет местным жителям делиться своей культурой и традициями с гостями.

4. Развитие инфраструктуры и повышение качества жизни:

Строительство и модернизация инфраструктуры: для развития туризма необходимо развитие транспортной, энергетической и коммунальной инфраструктуры. Строительство новых дорог, аэропортов, электростанций и систем водоснабжения улучшает качество жизни не только для туристов, но и для местных жителей.

Улучшение сервиса и услуг: Конкуренция в туристической индустрии стимулирует повышение качества сервиса и услуг. Отели, рестораны, магазины и другие предприятия сферы обслуживания стремятся предоставлять своим клиентам наилучший сервис, что приводит к повышению стандартов обслуживания и улучшению качества жизни в регионе.

Повышение уровня образования и квалификации: для работы в туристической индустрии необходимы квалифицированные кадры. Развитие туризма стимулирует создание новых учебных заведений и программ подготовки специалистов в сфере туризма и гостеприимства. Это повышает уровень образования и квалификации населения, что способствует его конкурентоспособности на рынке труда.

Однако, для того чтобы туризм действительно стал катализатором экономического развития депрессивного региона, необходимо учитывать ряд важных факторов:

Комплексный подход: Развитие туризма должно быть частью комплексной стратегии развития региона, учитывающей его специфику, ресурсы и потенциал. Необходимо учитывать интересы всех

заинтересованных сторон, включая местное население, бизнес, правительство и экологические организации.

Устойчивое развитие: Туризм должен развиваться устойчивым образом, минимизирует негативное воздействие на окружающую среду и культурное наследие. Необходимо внедрять экологически чистые технологии и методы ведения хозяйства, а также поддерживать развитие ответственного туризма, который приносит пользу местным сообществам.

Развитие человеческого капитала: необходимо инвестировать в образование и профессиональную подготовку кадров для туристической индустрии. Важно обучать местное население навыкам обслуживания, управления и предпринимательства, чтобы они могли успешно участвовать в развитии туристического сектора.

Маркетинг и продвижение: необходимо эффективно продвигать регион как туристическое направление, используя современные технологии и маркетинговые стратегии. Важно создавать привлекательный имидж региона и привлекать целевую аудиторию туристов.

Государственная поддержка: Государство должно оказывать поддержку развитию туризма в депрессивных регионах, предоставляя налоговые льготы, субсидии и гранты для инвесторов и предпринимателей. Важно создавать благоприятный инвестиционный климат и стимулировать развитие малого и среднего бизнеса в сфере туризма.

В заключение, развитие туристической деятельности может стать мощным инструментом для подъема экономического развития рассматриваемого региона. Однако, для этого необходимо тщательно планировать и управлять развитием туризма, учитывая его социальные, экономические и экологические последствия. При правильном подходе, туризм может стать катализатором устойчивого экономического роста, улучшения качества жизни населения и сохранения культурного наследия и окружающей среды. Необходимо помнить, что туризм – это не панацея, и он должен развиваться в комплексе с другими мерами, направленными на диверсификацию экономики и создание новых возможностей для местного населения. Рассмотрение потенциальных источников эффективности туристического комплекса показало, что часть из них используется недостаточно активною следует провести дальнейшие исследования для роста отдачи от этих источников. Только в этом случае туризм сможет внести значительный вклад в улучшение социально-экономической ситуации в регионе.

Литература

1. С.В. Земляк, О. М. Гусарова, Е. В. Ганичева, В. М. Кондрашов. Моделирование туристского потенциала регионального субъекта.Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, Смоленск, e-mail: om.gusarova@mail.ru.

2. Казыбайкызы А., Муханова А.Е., Смагулова Ж.Б.Особенности и перспективы развития туризма в мире. Кызылординский государственный университет им. Коркыт Ата, Кызылорда, e-mail: zanna_smag@rambler.ru

3. Гамидова, А. Э., В. А. Плотников Развитие и эффективность туризма как вида экономической деятельности // Цивилизационные Гамидова, А. Э., , В. А. Плотников Развитие и эффективность туризма как вида экономической деятельности // Цивилизационные перемены в России : материалы XIII Всероссийской научно-практической конференции / Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский государственный лесотехнический университет. – Екатеринбург, 2023. – С. 238–244.

4. Маманабиева Н.И., Муминова А.З . Перспективы и проблемы развития туризма в Узбекистане. https: //jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/download/298/252/255

5.М. Морозов.Социально-экономическая эффективность туристской деятельности: современные подходы к исследованию. 2016, Baikal Research Journal. https: //doi.org/10.17150/2411-6262.2016.7(2).13

6.Л. М. Шаяхметова.Экономическая эффективность инвестиций в индустрию туризма Республики Казахстан.https: //doi.org/10.46914/1562-2959-2021-1-3-187-193

7.Капустина, О. И. Развитие внутреннего туризма как фактор повышения социально-экономического роста регионов: монография / О. И. Капустина, Г. А. Смирнова; под общ. ред. Т. В. Гомелько; Смоленс. ин-т экон. С.-Петерб. ун-та технол. упр. и экон. — СПб: Издательство Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики, 2017. — 262 с.

8.Д.Н. Шайкин, Д.О. Аббуталип, А.Ж. Бекматова К вопросу оценки показателей устойчивого развития экономики туризма в Республике Казахстан . Экономика: стратегия и практика, № 2 (16), 2021 г.

Radjabova Sarvinoz Alisherovna
University of Business and Science Toshkent filiali,
"Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri
e-mail: radjabovasarvinoz87@gmail.com

JAHON VALYUTA TIZIMINING MOHIYATI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu tezisda jahon valyuta tizimining mohiyati, tarkibiy elementlari va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Milliy, hududiy va jahon valyuta tizimlarining o'zaro bog'liqligi, valyuta pariteti, oltin standarti, Bretton-Vuds va Yamayka valyuta tizimlari, hamda SDR va Yevro kabi xalqaro hisob-kitob vositalarining shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, valyuta tizimining barqarorligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi roli haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jahon valyuta tizimi, milliy valyuta tizimi, valyuta pariteti, oltin standarti, Bretton-Vuds tizimi, Yamayka tizimi, SDR, Yevro, valyuta kursi, xalqaro hisob-kitoblar.

“Valyuta” kategoriyasi milliy va jahon xo‘jaligi o‘rtasida aloqa hamda o‘zaro munosabatlarni ta’minlaydi. Jahon valyuta tizimi jahon pullarini amaldagi shakllariga asoslangandir [1]. Jahon pullari deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy)xizmat ko‘rsatuvchi pullarga aytiladi.

Har bir mustaqil davlat o‘z milliy pul tizimiga ega bo‘lgani singari, o‘zining valyuta tizimiga ham ega. Valyuta tizimi tashkiliy jihatdan valyuta munosabatlari, valyuta fondlari hamda ushbu munosabatlarni amalga oshishi, valyuta fondlarining shakllanishi, taqsimoti va qayta taqsimoti bilan bog‘liq munosabatlarni amalga oshiruvchi hamda muvofiqlashtiruvchi davlat organlari yig‘indisidan iboratdir.

Valyuta tizimi — bu, mamlakatlar o‘rtasida valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Valyuta tizimi — bu, milliy qonunchilik yoki davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish va muvofiqlash-tirishning shaklidir[2].

Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi. Valyuta tizimi davlat, rezident va norezident shaxslarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Subyektlarning ushbu faoliyati amalga oshishida valyuta qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maxsus adabiyotlarda valyuta tizimlarining 3 ko‘rinishi farqlanadi, ya’ni milliy, jahon va hududiy valyuta tizimlari. Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, valyuta munosabatlarining yig‘indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarni faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valyuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi birinchi navbatda valyuta tizimi elementlarini belgilashni o‘z ichiga oladi [3].

Milliy valyuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

1. Milliy valyuta va uning nomi;
2. Milliy valyuta paritetini belgilash;
3. Milliy valyutaning konvertatsiya shartlari;
4. Milliy valyuta kursining rejimi;
5. Xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanishni tartibga solish (reglamentatsiya);
6. Xalqaro zahira aktivlari tarkibiy qismlari (komponentlari) o‘rtasidagi nisbatni aniqlash;
7. Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga solish(reglamentatsiya);
8. Milliy valyuta va oltin bozorlari faoliyatining rejimi;
9. Valyuta cheklanishlarining o‘rnatilish tartibi;
10. Valyuta munosabatlariga xizmat ko‘rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi [4].

Yuqorida zikr etilgan elementlar yig‘indisi xalqaro valyuta-kredit va hisob-

kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valyuta mexanizmidir. Milliy valyuta va uning nomi milliy valyuta tizimining asosi bo‘lib hisoblanadi, u qonun asosida davlatning pul birligi sifatida belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishlatiladigan milliy pullar valyutaga aylanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda odatda xorijiy valyuta, ya’ni boshqa mamlakatlarning erkin muomalada yuradigan valyuta maqomiga ega pul birliklari ishlatiladi[5]. Ushbu pul birliklari bilan deviz tushunchasi bog‘liq.

Deviz — bu, xorijiy valyutadagi har qanday to‘lov vositasidir. Xorijiy valyuta valyuta bozorida oldi-sotdi obyekti bo‘ladi, xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi, banklarda hisob-varaqlarda saqlanadi, ammo ushbu davlat hududida qonuniy hisob- kitob vositasi bo‘lib hisoblanmaydi (kuchli inflyatsiya davrlarini hisobga olmagan holda). Mamlakatda kuchli inflyatsiya va inqiroz holatida milliy valyutani nisbatan barqaror bo‘lgan xorijiy valyuta siqib chiqaradi, zamonaviy sharoitda bu AQSh dollari va Yevrodir.

“Valyuta” kategoriyasi, milliy va yahon xo‘jaliklarining o‘zaro aloqasi hamda munosabatlarini ta’minlaydi.

Milliy valyuta paritetini belgilash. Valyuta pariteti - bu, ikki valyuta o‘rtasidagi, qonuniy asosda belgilangan nisbat. Monometalizm davrida (oltin yoki kumush) valyuta kursining asosi bo‘lib tanga pariteti hisoblangan. Tanga pariteti — bu, turli mamlakatlar pul birliklarini o‘zidagi metall sig‘imiga ko‘ra o‘zaro solishtirishdir. Tanga pariteti tushunchasi valyuta pariteti tushunchasi bilan mos keladi.

Oltin monometalizmi davrida valyuta kursi oltin paritetiga asoslangan edi. Bunda valyutalar zaminidagi rasmiy oltin miqdorlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilar edi. Bu sharoitda valyuta kursi ushbu oltin pariteti atrofida, oltin nuqtalar chegarasida, tartibsiz asosda tebranar edi. Oltin nuqtalarning klassik mexanizmi 2 shart mavjudligi holatida amal qilar edi, ya’ni oltinning erkin asosdagi oldi-sotdisi va uning chetga cheklanmagan miqdorda erkin olib chiqilishi. Valyuta kursining tebranish chegaralari oltinni xorijga olib chiqish xarajatlari bilan belgilangan va amalda paritetdan +; — 1%- dan oshiq bo‘lmagan. Oltinni xorijga olib chiqish xarajatlariga fraxt, sug‘urta, kapitalga foiz yo‘qotishlari, probani aniqlash va boshqa shu kabi xarajatlar kirgan. Oltin standartini bekor qilinishi bilan oltin nuqtalar mexanizmi o‘z harakatini to‘xtatdi.

Valyuta munosabatlarining vujudga kelishi uzoq tarixiy o‘tmishga ega. Manbalarda mazkur munosabatlarning Qadimgi Rus davlatida IX-X asrlarda vujudga kelganligi haqida ma’lumotlar bor. Chet davlatlar bilan savdo-sotiq qilish maqsadida rus savdogarlari mamlakat hududidan tashqariga chiqib, Markaziy Yevropa, Vizantiya, Skandinaviya, Markaziy Osiyo, arab davlatlari bilan savdo aloqalarini olib borishgan. O‘sha davrlarda chegara bojlari va bo‘ysundirilgan xalqlardan undirilgan pullar “valyuta qimmatliklari” bo‘lgan[6].

907 yili rus knyazlaridan Oleg bilan, 945 yili Igor bilan Vizantiya o‘rtasida imzolangan sulhga ko‘ra vizantiyaliklar ruslarga xorijiy pullar bilan tovon to‘lashi belgilangan. Mazkur holatlarda valyuta munosabatlarining dastlabki ko‘rinishlarini ko‘rish mumkin. Tarixga nazar solib, xalqaro valyuta tizimining yaratilishi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan voqealarni shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich o‘z ichiga XIX asrda ro‘y bergan sanoat to‘ntarishidan birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. 1867 yili Frantsiya poytaxti Parijda dunyo davlatlari xalqaro valyuta tizimi sifatida oltin standartini joriy etish haqida kelishib olishgan va bu kelishuv birinchi jahon urushigacha amal qilgan.

Bunda oltin standarti quyidagi printsiplarga ega bo‘lgan:

1) milliy pul birliklarining oltin asosida belgilanishi;

2) oltin tomonidan xalqaro pullar vazifasining, bundan kelib chiqib, umumiy to‘lov vositasi vazifasining bajarilishi;

3) markaziy banklar muomalasida bo‘lgan banknotlarning erkin tarzda oltinga almashtirilishi;

4) davlatning milliy oltin zahirasi bilan ichki pullarning mutanosibligini saqlab turish;

5) to‘lov balanslaridagi defitsitlarni oltin bilan qoplash . Bu davrning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, oltin standartida erkin xalqaro valyuta aylanmasi majud bo‘lgan.

Xorijiy valyuta egalari ularni erkin tarzda tasarruf etishlari, ya’ni o‘z xohishlariga ko‘ra bankka yoki har qanday uchinchi shaxsga sotishlari mumkin bo‘lgan. Ko‘zlangan maqsaddan qat’iy nazar milliy valyutaning xorijiyga yoki oltinga aylanishiga hech qanday cheklovlar qo‘yilmagan. Birinchi jahon urushi oqibatida davlatlar tomonidan o‘zaro majburiyatlarning bajarilmasligi, oltinni eksport qilishga taqiq qo‘yilishi kabi omillar xalqaro valyuta bozorining normal faoliyati buzilishiga olib kelgan.

Natijada oltin muomaladan olib qo‘yilib, oltin standarti amal qilishni tugatgan. 1919 yili davlatlar o‘z milliy valyutalari kursini barqaror saqlash bo‘yicha choralarni ko‘rmay qo‘yishgan va oqibatda valyuta kurslarining nazoratsiz o‘zgarib turishi sodir bo‘lgan. Mazkur holatlar xalqaro valyuta tizimi rivojlanishining ikkinchi bosqichiga o‘tishga turtki bo‘lgan. 1922 yili Italiyaning Genuya shahridagi xalqaro konferentsiyada davlatlar o‘zlaridagi oltin zahiralarining tashqi savdo va boshqa operatsiyalarni tartibga solish uchun yetarli emasligini e’tirof etishib, xalqaro pul aylamasida oltindan tashqari ingliz funt sterlingi va AQSh dollaridan foydalanishga kelishib olingan Natijada ma’lum davlatlarning pullari oltinga emas, balki ingliz funt sterlingi va AQSh dollariga almashtiriladigan tartib o‘rnatilgan[8]. Bu davrda davlatlar valyutalarining kurslari o‘zgarib turgan. Biroq bu tizim uzoq hukm surmagan. 1929-1931 yillardagi iqtisodiy tanazzul oqibatida bu tizim ham amal qilishni to‘xtatgan. Holatni yaxshilash uchun 1933 yili Londonda bo‘lib o‘tgan 66 davlat ishtirokidagi konferentsiyada oltin standartiga qaytish, bojxona sohasida, tashqi qarzlarni uzishda imtiyozlar berish, narxlarni oshirish orqali valyutalarning barqarorligini saqlash masalalari muhokama qilingan. Ushbu konferentsiyada davlatlar yakdil kelishuvga erishmaganligi natijasida dunyo valyuta tizimi quyidagi uch blokka bo‘lingan: sterling (Britaniya imperiyasi davlatlari, bir necha G‘arbiy Yevropa davlatlari, Eron, Iroq, Misr va Yaponiya); dollarli (Kanada, Nyufaunlend va Lotin Amerikasi davlatlari); oltin (Frantsiya boshchiligida unga Belgiya, Gollandiya, Shveytsariya, Italiya va Polьsha kirgan)[9]. O‘z navbatida, bu davrda valyutali kliringning turli shakllari rivojlangan. Masalan, 1931 yili Vengriya va Shveytsariya

o‘rtasida dastlabki kliring kelishuvi imzolangan bo‘lib, 1939 yilga kelib davlatlar o‘rtasidagi bunday kelishuvlarning soni 83 taga, hisob-kliring kelishuvlari 53 taga, hisob-kitob kelishuvlari 36 taga yetgan.

Oltinga almashmaydigan kredit pullar sharoitida valyuta kursi asta-sekin oltin paritetidan uzoqlasha boshladi, chunki oltin muomaladan xazinaga siqib chiqarilgan edi. 1970 yilning o‘rtasigacha valyuta kursining asosi bo‘lib valyutalar zaminidagi oltin sig‘imi, ya’ni rasmiy baho masshtabi va oltin paritetlar xizmat qilgan edi. Valyutalarning rasmiy baho masshtablari va oltin paritetlari Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Xalqaro Valyuta Fondida qayd etiladigan bo‘ldi. Valyutalar o‘zaro nisbatining o‘lchovi kredit pulda ifodalangan oltinning rasmiy bahosi edi. Ushbu baho boshqa tovarlar baholari bilan birgalikda milliy valyutalar qadrsizlanish darajasiningko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qildi. Davlat tomonidan qayd etiladigan oltin rasmiy bahosining o‘z haqiqiy (bozor) qiymatidan uzoq vaqt davomida sezilarli farqlanishi natijasida oltin paritetining sun’iylik xarakteri kuchaydi.

1934-1976 y.y., ya’ni 40 yil mobaynida baho masshtabi va oltin pariteti oltinning rasmiy bahosi asosida belgilangan edi. Ushbu baho AQSh g‘aznaxonasi tomonidan 1934 yilda 1 unsiya oltin 35 AQSh dollari hajmida beligilangan va dollarning devalvatsiyasigacha o‘zgarmasdan saqlanib kelgan. O‘tkazilgan devalvatsiya natijasida 1971 yilning dekabrida oltinning rasmiy bahosi 38 dollargacha va 1973 yilning fevralida esa 42, 22 AQSh dollarigacha ko‘tarildi. Bretton-Vuds valyuta tizimida, AQSh dollari standartining hukmronligi sharoitida, AQSh dollari boshqa davlatlar valyutalari kurslari hisob-kitobining hisoblash asosi bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birgalikda davlat tomonidan muvofiqlashtirish natijasida AQSh dollaridagi oltinning rasmiy bahosi ancha pasaytirib ko‘rsatilgan va u oltinning bozor bahosidan sezilarli farq qilar edi. Oltinning bozor baholari: 1971 yilda - 40, 8 AQSh dollari, 1973 yilda - 97 AQSh dollari, 1975 yilda - 160 AQSh dollari, 1976 yilda — 125 AQSh dollari, 1977 yilda — 148 AQSh dollari, 1978 yilda - 193, 2 AQSh dollari edi.

1971 yilda AQSh dollarining rasmiy baho asosida oltinga almashtirilishining to‘xtatilishi natijasida valyutalarning oltin sig‘imlari va oltin paritetlari sof nominal tushunchaga aylanib qoldi. Xalqaro Valyuta Fondi esa 1975 yilning iyul oyidan ularni e’lon qilishni to‘xtatdi. Yamayka valyuta islohoti natijasida G‘arb davlatlari rasmiy asosda valyuta kurslarining asosi sifatidagi oltin paritetidan voz kechdilar. Rasmiy oltin paritetlari bekor bo‘lganidan so‘ng tanga pariteti ham o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Zamonaviy sharoitda valyuta kursi valyuta paritetiga asoslangandir. Valyuta pariteti — bu, qonuniy asosda belgilangan valyutalar o‘rtasidagi nisbat bo‘lib, u ushbu paritet atrofida tebranib turadi.

Xalqaro valyuta tizimida o‘zgarishlar sodir bo‘lishining 3-bosqichi 1944 yili AQShning Bretton-Vuds shahridagi konferentsiya bilan bog‘liq bo‘lib, xalqaro pul aylamasida ikki valyutadan – AQSh dollari va ingliz funt sterlingidan foydalaishga kelishib olingan. O‘z navbatida ushbu konferentsiyada xalqaro valyuta tizimini tartibga solish maqsadida Xalqaro valyuta fondi tashkil yetilgan bo‘lib, dastlab unga 44 davlat a’zo bo‘lgan. Ushbu davlatlar o‘zlaridagi mavjud oltin zahirasidan

kelib chiqib milliy valyutalarining boshqa davlatlar valyutasiga nisbatan kursini belgilash majburiyatini zimmasiga olgan. Bunda 10%ga adashishga ruxsat etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng funt-sterling oltinga almashtirilishi uchun Buyuk Britaniya yetarli darajada oltin zahirasiga ega bo‘lmagan. Shu bois AQSh dollari bu borada yetakchilikni qo‘lga olgan va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi hisobkitoblarda monopol tarzda qo‘llanila boshlangan. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng G‘arbiy Yevropa davlatlari iqtisodining tiklanishi natijasida AQSh dollarining jahon bozoridagi mavqei tusha boshlagan va 1971 yilga kelib 30-yillardan buyon birinchi marta AQSh dollari defitsitga uchragan. Bu esa xalqaro savdoga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur holat Bretton-Vuds kelishuvining xalqaro savdo talablariga javob bermay qo‘yganini anglatar edi. Buning oqibatida 1976 yili Yamayka davlatida 20 davlat vakillari mavjud xalqaro valyuta tizimini isloh qilish haqidagi kelishuvga erishishgan va bu xalqaro valyuta tizimi rivojlanishining 4-bosqichini boshlab bergan. Yamayka kelishuvida oltin standarti, milliy valyutaning oltinga bog‘liqligi bekor qilingan.

Xalqaro hisob-kitob valyuta birligi xalqaro talab va majburiyatlarni o‘zaro solishtirish, valyuta pariteti hamda kursni belgilash uchun shartli masshtab va xalqaro to‘lov hamda zahira vositasi sifatida ishlatiladi. Oltinning demonetizatsiyasi jarayoni, ya’ni Yamayka (1976-1978 y.y.) valyuta islohoti natijasida oltinning yuridik jihatdan pul funksiyasini yo‘qotishi, jahon puli sifatida muvozanatsiz milliy pullar ishlatilishining salbiy oqibatlari valyuta tizimiga SDRni (qarz olishning maxsus huquqlari), EKYUni (Yevropa hisob-kitob pul birligi) tadbiq etishga sharoit yaratib berdi. Jahon pullarining ushbu yangi shakllari mamlakatlarning maxsus hisob- varaqlarda yozuvlarni amalga oshirish yo‘li orqali naqdsiz xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatilgan: SDR — Xalqaro Valyuta Fondida, EKYU — valyuta hamkorligining Yevropa fondida, 1994 yildan boshlab Yevropa Ittifoqining Yevropa valyuta institutida. SDR va EKYUning shartli qiymati o‘rtacha tortilgan qiymat hamda valyuta savatiga (korzina) kirgan valyutalar kurslarining o‘zgarishi asosida hisoblanadi. Yevropa Markaziy banki dastlab 1999 yilning boshidan naqdsiz hisob- kitoblar uchun, 2002 yildan boshlab esa naqdli shaklda EKYU o‘rniga Yevroni muomalaga kiritdi.

Xalqaro hisob-kitob pul birliklari kursi savat (korzina) asosida aniqlanadi. Valyuta savatini hisoblashdagi muhim muammolardan biri bo‘lib, savatdagi valyutalar tarkibi va ularning solishtirma og‘irligi, valyuta komponentlarining katta- kichikligi, ya’ni to‘plamdagi har bir valyuta sonining miqdorini aniqlash hisoblanadi. Bunga ko‘ra savatning quyidagi turlari farqlanadi: ma’lum bir davrga valyutalar tarkibi qayd etilgan standart savat; o‘zgaruvchan tarkibli muvofiqlashtiriluvchi savat; valyutalarning o‘zaro teng bo‘lgan solishtirma og‘irligiga ega simmetrik savat; valyutalarning turli ulushlarga ega asimmetrik savati.

Masalan, SDRning valyuta savati 5 valyutadan tarkib topgan (1981 yilning 1- yanvarigacha 16 ta valyuta bo‘lgan). Savatdagi har bir valyutaning solishtirma og‘irligi mamlakatning xalqaro savdodagi ulushiga qarab aniqlanadi. Ammo AQSh dollari uchun uning Xalqaro hisob-kitoblardagi ulushi hisobga olinadi. 1996-2000 yillar davrida AQSh dollarining savatdagi ulushi 39%ni (1981 yilgacha 33%ni)

tashkil etgan, qolgan 4 valyuta esa, Germaniya markasi — 21%, Yaponiya yenasi - 18%, Fransiya franki va Buyuk Britaniya funt sterlingi har biri 11%dan.

2001 yilda ushbu savat tarkibi qayta ko‘rib chiqildi va 1999 yildan boshlab Germaniya markasi va Fransiya franki Yevro bilan almashtirildi. SDR kursini AQSh dollariga yoki savat tarkibiga kirgan boshqa bir valyutaga nisbatan hisoblanishi 3 asosiy elementni o‘z ichiga oladi:

1) taalluqli valyuta birliklaridagi valyuta komponentlari. Ular quyidagicha aniqlanadi: (valyutaning savatdagi solishtirma og‘irligi) (uning AQSh dollariga nisbatan so‘nggi 3 oy ichidagi o‘rtacha bozor kursi) bundan oldingi SDR kursiga muvofiqlashtirilgan holda;

2) valyutalarning AQSh dollariga nisbatan bozor kurslari;

3) valyuta komponentlarining dollarli ekvivalenti. U quyidagicha hisoblanadi: (valyuta komponenti) / (valyuta kursi) funt sterlingdan tashqari, (funtning valyuta komponenti)*(dollarga nisbatan valyuta kursiga) (1-jadval).

1-jadval

SDR kursining AQSh dollariga nisbatan hisoblanishi(1998 yilning 31 avgust holatiga)

Valyutalar	SDR savatining valyuta komponentlari	1 AQSh dollari uchun valyuta kursi*	Valyuta komponentlarining dollarli ekvivalenti*
1	2	3	4
Germaniya markasi**	0, 4460	1, 75820	0, 253669
Fransiya franki**	0, 8130	5, 91350	0, 137488
Yaponiya ienasi	27, 2	140, 89	0, 193058
Funt sterling	0, 1050	1, 67630***	0, 176012****
AQSH dollari	0, 5820	1, 000000	0, 582000
Jami	**1 birlik SDR**	**-**	**1, 342231**

Keltirilgan hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, ushbu sanaga 1 SDR = 1, 34 AQSh dollariga teng ekan. Valyuta kursining SDR birliklarida ifodalanishi rasmiy xarakterga ega va u faqatgina valyutalarni AQSh dollariga, dollar orqali esa boshqa valyutalarga bo‘lgan bozor kurslarini ro‘yhatga oladi.

Erkin suzuvchi valyuta kurslari va ularning muvozanatsizligi sharoitida turli mamlakatlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan valyuta savati uslubi qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqib (valyuta kursini aniqlash, xalqaro valyuta birligini yaratish, baho valyutasi va qarz valyutasini indeksatsiya qilish), valyutalarni turli to‘plamidan foydalangan holda ishlatilmoqda.

Davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini Xalqaro Valyuta Fondi (1944 yil), Yevropa valyuta tizimida esa valyuta hamkorligining Yevropa fondi (1973-1993 y.y.) amalga oshiradi, keyinchalik u Yevropa valyuta instituti bilan almashtirilgan (1994-1998 yy.), 1998 yilning 1-iyulidan boshlab esa Yevropa Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi. Zikr etilgan xalqaro institutlar

xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarning xavfsiz, inqirozsiz rejimini ishlab chiqish va ta’minlashga intiladilar.

Jahon xo‘jaligi jahon valyuta tizimi oldiga quyidagilardan iborat ma’lum birtalablarni qo‘yadi:

- xalqaro almashuvni ishonch qozongan va miqdor jihatidan yetarli bo‘lganto‘lov, hisob-kitob vositalari bilan ta’minlash;
- jahon iqtisodiyoti sharoitlarining o‘zgarishiga valyuta mexanizmining nisbiybarqarorligi va tez moslashuvchanligini qo‘llab-quvvatlab turish;
- barcha a’zo mamlakatlar manfaatiga xizmat qilish.

Ushbu talablarning bajarilishiga takror ishlab-chiqarishning qarama-qarshiliklari, jahon xo‘jaligi tarkibiy tuzilishi va jahon maydonidagi kuchlar nisbatidagi o‘zgarishlar to‘sqinlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bobakulov T.I, Abdullayev U.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. — 104 b.

2. Красавина Л.Н. Международный валютно- кредитные и финансовые отношения. Москва, 2001 г. 52-стр

3. Петров, Г. А. Forex от первого лица. Валютные рынки для начинающих и профессионалов / Г.А. Петров, А.В. Ведихин, Б.Н. Шилов. — М.: SmartBook, **2015. — 32** стр.

4. Миркин, Я.М. Международная практика прогнозирования мировых цен на финансовых рынках (сырье, акции, курсы валют) / Я.М. Миркин. — М.: Магистр, **2016**. — 123 с.

5. Шилов, Борис FOREX-трейдинг: практические аспекты торговли на мировых валютных рынках / Борис Шилов. — М.: И-Трейд, **2017. —96** с.

Tashpulatov Aybek
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, i.f.d. (DSC)
e-mail: aybek.tashpulatov@fstu.uz
Mo‘ydinova Guljahon Xayrullo qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti

DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH VA ULARNING MOLIYAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish hamda moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mavjud tizimdagi asosiy muammolar, jumladan rejalashtirishdagi nomuvofiqliklar, hujjatlashtirish kamchiliklari, ichki audit samaradorligining pastligi va raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi aniqlangan. Shuningdek, byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobini yuritishdagi kamchiliklar ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: davlat OTMlari, xarajatlar hisobi, moliyaviy nazorat, ichki audit, raqamlashtirish, byudjet mablag‘lari, moliyaviy boshqaruv, shaffoflik.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida davlat moliyasini samarali boshqarish, ayniqsa, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat oliy ta’lim muassasalari (OTMlar) mamlakatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy institut sifatida moliyaviy resurslarni samarali boshqarishni talab etadi. Shu bois, davlat OTMlarida xarajatlarni hisobga olish va ularning moliyaviy nazoratini takomillashtirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz o‘z nutqlarida ta’lim tizimini rivojlantirishni mamlakat taraqqiyotining strategik yo‘nalishi sifatida belgilab, “har bir sohada samaradorlik va natijadorlikka erishish uchun, avvalo, moliyaviy intizomni kuchaytirish zarur” ekanligini alohida ta’kidlab kelmoqda [1, 2].

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda davlat OTMlarida xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy nazoratni tashkil etishda qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, hisob tizimlarining yetarli darajada raqamlashtirilmaganligi, xarajatlarning to‘liq va ishonchli aks ettirilmasligi, ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarining sust rivojlanganligi kuzatilmoqda [3]. Bu holatlar esa byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi kengayib borayotgan hozirgi sharoitda ularning xarajatlarini rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish tizimlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarurati yanada ortmoqda. OTMlar faoliyatida samarali moliyaviy boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, shaffoflikni ta’minlash va hisobdorlikni kuchaytirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqot doirasida davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy nazoratni tashkil etishning amaldagi holati tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur sohada muayyan institutsional asoslar shakllangan bo‘lsa-da, amaliy faoliyatda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda va ular moliyaviy boshqaruv samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [4].

Avvalo, xarajatlarni hisobga olish tizimi smeta asosida yuritilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu yondashuv mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish imkonini bersa-da, uning qat’iyligi va moslashuvchanlik darajasining pastligi ba’zi hollarda resurslardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qiladi [5]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida xarajatlar

rejalashtirish jarayoni strategik rivojlanish maqsadlari bilan to‘liq uyg‘unlashtirilmagan. Natijada ayrim yo‘nalishlarda ortiqcha xarajatlar yuzaga kelayotgan bo‘lsa, boshqa muhim yo‘nalishlar yetarli darajada moliyalashtirilmayapti.

Moliyaviy hisob tizimining amaliyotdagi holati ham turli muammolarni yuzaga chiqaradi. Jumladan, ayrim muassasalarda xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirishda aniqlik yetishmasligi, hujjatlarning to‘liq yuritilmasligi va xarajatlarning noto‘g‘ri tasniflanishi holatlari kuzatiladi. Bunday kamchiliklar moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini pasaytiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bu holat moliyaviy intizomning sustlashuviga ham sabab bo‘ladi.

Moliyaviy nazorat tizimi doirasida ichki va tashqi nazorat mexanizmlari faoliyat yuritadi. Ichki nazorat tizimi muassasa doirasida moliyaviy operatsiyalarni doimiy kuzatib borishga xizmat qiladi, tashqi nazorat esa umumiy moliyaviy intizomni ta’minlashga qaratilgan. Biroq, tahlillar ichki nazorat tizimining samaradorligi barcha muassasalarda bir xil emasligini ko‘rsatdi. Ayrim hollarda ichki audit faoliyati faqat hisobot xarakteriga ega bo‘lib, u real nazorat vositasi sifatida yetarli darajada ishlamayapti. Bu esa moliyaviy xatoliklar va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarning joriy etilish darajasi ham muhim omil sifatida baholandi. Zamonaviy axborot tizimlari joriy etilgan muassasalarda moliyaviy operatsiyalarni hisobga olish va nazorat qilish jarayonlari ancha samarali tashkil etilgani kuzatildi. Aksincha, an’anaviy usullar ustun bo‘lgan muassasalarda inson omiliga bog‘liq xatoliklar ko‘proq uchraydi, bu esa umumiy tizim samaradorligini pasaytiradi. Demak, raqamlashtirish darajasi moliyaviy boshqaruv sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, byudjetdan tashqari mablag‘lar bilan ishlash jarayonlari ham alohida e’tibor talab qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosidagi tushumlar, grantlar va boshqa qo‘shimcha moliyaviy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu mablag‘larni hisobga olish va nazorat qilish bo‘yicha yagona yondashuvning yetishmasligi ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, daromadlarni tan olish va xarajatlarni hisobga olish jarayonlarida turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu esa moliyaviy shaffoflik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi jadvalda davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy nazorat tizimining asosiy muammolari va ularning oqibatlari keltirilgan.

1-jadval

Davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy nazorat tizimidagi asosiy muammolar hamda ularning oqibatlari

№	Aniqlangan muammo	Mazmuni	Oqibatlari
1	Rejalashtirishdagi nomuvofiqlik	Xarajatlar strategik maqsadlar bilan to‘liq mos emas	Resurslardan samarasiz foydalanish
2	Hujjatlashtirish kamchiliklari	Moliyaviy operatsiyalar noto‘g‘ri yoki to‘liq aks	Hisobotlarning ishonchliligi pasayadi

		ettirilmaydi	
3	Ichki audit samaradorligining pastligi	Nazorat formal xarakterga ega	Moliyaviy xatoliklar kech aniqlanadi
4	Raqamlashtirishning yetarli emasligi	Qo‘lda yuritiladigan hisob tizimi ustun	Inson omili xatolari ortadi
5	Byudjetdan tashqari mablag‘lar nazoratining sustligi	Yagona metodologiya mavjud emas	Moliyaviy shaffoflik pasayadi

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mavjud muammolar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va ular kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, ichki audit tizimining zaifligi boshqa kamchiliklarning o‘z vaqtida aniqlanmasligiga olib keladi, bu esa umumiy moliyaviy boshqaruv sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar tajribasida moliyaviy nazorat tizimi faqat tekshiruv vositasi sifatida emas, balki boshqaruvning muhim elementi sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda ichki audit xizmatlari strategik qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etadi va boshqaruv jarayonlariga qo‘shimcha qiymat yaratadi. Shu nuqtai nazardan, milliy amaliyotda ham ichki audit tizimini faqat nazorat qiluvchi emas, balki maslahat beruvchi va tahliliy funksiyalarni bajaruvchi tizim sifatida rivojlantirish zarur.

Shu bilan birga, moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Elektron hisob tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring va analitik platformalar yordamida moliyaviy operatsiyalar ustidan real vaqt rejimida nazoratni yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu esa nafaqat xatoliklarni kamaytiradi, balki boshqaruv qarorlarining tezkorligini va aniqligini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda institutsional islohotlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va inson resurslari salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, shaffoflikni ta’minlash va umumiy boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyati kengayadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tizimni takomillashtirish orqali oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy nazorat tizimi muayyan darajada shakllangan bo‘lsa-da, uning samaradorligi va zamonaviy talablarga mosligi yetarli darajada ta’minlanmagan. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar — rejalashtirishdagi nomuvofiqliklar, hujjatlashtirishdagi kamchiliklar, ichki audit tizimining sustligi, raqamlashtirish darajasining pastligi hamda byudjetdan tashqari mablag‘lar nazoratining yetarli emasligi — moliyaviy boshqaruv sifatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu asosda quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, davlat OTMlarida xarajatlarni hisobga olish tizimi ko‘proq an’anaviy smeta asosida yuritilayotgan bo‘lib, u strategik boshqaruv talablariga

to‘liq javob bermaydi. Bu esa moliyaviy resurslardan foydalanishda moslashuvchanlikning yetishmasligiga olib keladi.

Ikkinchidan, moliyaviy nazorat tizimi, xususan ichki audit faoliyati ko‘p hollarda formal xarakterga ega bo‘lib, u boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi samarali mexanizm sifatida yetarli darajada ishlamayapti.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani hisob va nazorat jarayonlarida inson omiliga bog‘liq xatoliklarning ortishiga sabab bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan, byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobini yuritishda yagona metodologiyaning mavjud emasligi moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik darajasini pasaytirmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Xarajatlarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish. OTMlarda smeta asosidagi yondashuvdan bosqichma-bosqich natijaga yo‘naltirilgan (performance-based) byudjetlashtirish tizimiga o‘tish maqsadga muvofiq. Bu resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

2. Ichki audit tizimini kuchaytirish. Ichki audit xizmatlarini faqat nazorat qiluvchi emas, balki tahliliy va maslahat beruvchi institut sifatida rivojlantirish zarur. Audit natijalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol qo‘llanilishi lozim.

3. Raqamlashtirishni keng joriy etish. Moliyaviy hisob va nazorat jarayonlariga zamonaviy axborot tizimlari, avtomatlashtirilgan dasturlar va real vaqt monitoring platformalarini joriy etish orqali shaffoflik va aniqlikni oshirish mumkin.

4. Yagona metodologik bazani shakllantirish. Byudjetdan tashqari mablag‘larni hisobga olish va nazorat qilish bo‘yicha yagona standart va uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilishi zarur.

5. Moliyaviy intizom va kadrlar salohiyatini oshirish. Moliyaviy boshqaruv sohasida ishlovchi xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish, ularni zamonaviy hisob va audit standartlari asosida tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

6. Shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish. OTMlarda moliyaviy faoliyat bo‘yicha ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish, hisobotlarning jamoatchilik uchun ochiqligini ta’minlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, davlat oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish natijasida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, shaffoflik ta’minlanadi hamda oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Shavkat Mirziyoyev nutqlari va ma’ruzalari to‘plami.

3. Селезнёва, М. П., & Кочеткова, А. С. (2019). Влияние цифровизации на бухгалтерский учет. Международный журнал гуманитарных и естественных наук, (12-3), 142-145.
4. Alijon, B., & Dilshodbek, A. (2025). TA'LIM MUASSASALARIDA BYUDJET MABLAG 'LARIDAN FOYDALANISH HISOBI VA AUDIT TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 83(4), 142-146.
5. Eshonqulov, D. (2024). Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 2(2).

Xojaev Azizxon Saidaloxonovich
Farg'ona davlat texnika universiteti
"Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasi mudiri, i.f. d. (DSc), dotsent
e-mail: azizxon.xojayev@fstu.uz
Abdubakirov Begzod Doniyorjon o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti 2-kurs talabasi

BANK SOHASIDA ZAMONAVIY KADRLARNI TAYYORLASH VA FINTECH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda bank sohasida zamonaviy kadrlarni tayyorlash jarayonlari va Fintech texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida bank tizimida yuz berayotgan strukturaviy o'zgarishlar o'rganilgan, shuningdek zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Tezisda FinTech va bank integratsiyasining samarali modelini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, FinTech, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, raqamli kadrlar, innovatsion ta'lim.

So'nggi yillarda global iqtisodiyot va moliya tizimi raqamli transformatsiyadan o'tmoqda. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, masofaviy operatsiyalar, mobil banking va elektron to'lov tizimlari an'anaviy bank modelini tubdan o'zgartirdi. Raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar banklar uchun raqobat muhitini kuchaytiradi va xizmat sifatini oshiradi.

O'zbekiston sharoitida Payme, Click va Apelsin kabi platformalar bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida faol rol o'ynamoqda [1]. Shu bilan birga, bank sektorida zamonaviy kadrlarni tayyorlash zaruriyati ortmoqda.

Raqamli transformatsiya bank xizmatlarining samaradorligini oshirib, operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Sun'iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimlari, Big Data texnologiyalari va blokcheyn platformalari risklarni boshqarish sifatini yaxshiladi va mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish imkonini berdi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab banklar va FinTech kompaniyalari o'rtasida to'liq integratsiyalashgan model yetarlicha shakllanmagan

[2]. IT va moliyaviy bo‘limlar esa o‘zaro uzviy bog‘lanmagan. Buning natijasida texnologik imkoniyatlardan to‘liq foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda.

Xalqaro tajribada raqamli bank modeli muvaffaqiyatli joriy etilgan. Masalan, Revolut va Monzo to‘liq raqamli platforma asosida faoliyat yuritib, mijozlarga tezkor va qulay xizmat ko‘rsatishni ta’minlagan [3-5]. Ushbu tajriba bank va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi yuqori samaradorlik berishini ko‘rsatgan.

Olib borilgan tahlillar asosida tijorat banklari sektorida quyidagi integratsiyalashgan model ishlab chiqilgan: ochiq API orqali FinTech startaplar bilan hamkorlik, sun’iy intellekt asosida real vaqt rejimida risk monitoring, ma’lumotlar bazasini yagona raqamli platformaga birlashtirish va mijoz xatti-harakatini prognozlash tizimi. Ushbu yondashuv bank xizmatlarini tezlashtiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va mijozlar ishonchini mustahkamlaydi.

Raqamlashtirish sharoitida bank xodimi faqat iqtisodchi emas, balki texnologik menejerga aylanmoqda. Amaldagi muammo shundaki, IT va moliyaviy bo‘limlar alohida ishlaydi va ularning orasida integratsiya yetarli ta’minlanmagan. Shu sababli “4D kompetensiya modeli” ilmiy taklif sifatida ishlab chiqildi.

Ushbu model raqamli savodxonlik, ma’lumotlarni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va innovatsion fikrlash hamda o‘sish yondashuvini o‘z ichiga oladi. Interaktiv nuqta sifatida aytish mumkinki, agar bank xodimi sun’iy intellekt tavsiyasini tushunmasa, u kredit riskini samarali boshqara olmaydi. Shu sababli raqamli va analitik kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash dolzarb hisoblanadi.

Amaldagi ta’lim tizimida nazariya masalalar asosiy ustuvor sanalib, amaliy raqamli ko‘nikmalar yetarli emas. Shu sababli quyidagi yondashuvlar taklif etiladi. Oliy ta’lim muassasalarida FinTech laboratoriyalarini tashkil etish orqali simulyatsion tijorat banklari dasturlari joriy etilishi, dual ta’lim modeli orqali talabalar haftasiga bir necha kun bank IT yoki risk bo‘limida amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega bo‘lishi, real biznes keyslar orqali kredit portfelidagi riskni AI yordamida tahlil qilish va firibgarlik operatsiyalarini aniqlash, shuningdek xalqaro sertifikatlash dasturlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish muhim. Bu yondashuv nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlaydi hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Kelgusida bank tizimida to‘liq raqamli bank modeliga o‘tish kutilmoqda. Xalqaro tajribada Revolut va Monzo raqamli bank modeli asosida ishlamoqda. O‘zbekiston sharoitida taklif qilinadigan strategik yondashuv esa “Raqamli bank kadrlarini rivojlantirish yuzasidan milliy dasturi” ishlab chiqilib, unda FinTech bakalavr va magistratura yo‘nalishlari, xalqaro sertifikatlash tizimi, bank xodimlari uchun uzluksiz onlayn malaka oshirish platformasi va startap inkubatsiya markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu dastur tijorat banklari sektorining global raqobatbardoshligini oshiradi va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari sektorining barqaror rivojlanishi zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va raqamli kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlash bilan bevosita bog‘liq. FinTech

texnologiyalari bank xizmatlarining tezligi va samaradorligini oshirgan bo‘lsa-da, ularning to‘liq natija berishi inson kapitali salohiyatiga bog‘liq.

Ishlab chiqilgan integratsiyalashgan model tijorat banklari va FinTech hamkorligini mustahkamlashga, raqamli ekotizimni shakllantirishga hamda innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimining modernizatsiyasi esa uzoq muddatli strategik ustuvor yo‘nalish sifatida tijorat banklari sektorining global raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda 4D kompetensiya modeli va integratsiyalashgan FinTech-bank ekotizimi konsepsiyasini ilgari surilishi hamda tijorat banklari tizimida kadr tayyorlashning samarali mexanizmi sifatida tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qulmetov Mansurbek Ro‘Zmatovich (2025). O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI O‘RTASIDAGI RAQOBATNI KUCHAYTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (13.I), 2998-3008.
2. Крутяков, В. С., & Бич, М. Г. (2024). Интеграция финансовых институтов и технологических компаний как фактор упрочения лидерства крупнейших банков. Финансовый менеджмент, (1), 22-30.
3. Rybacki, P. (2022). Revolut’s revolution: The rise of a digital bank.
4. Anazikou, E. (2025). Quantitative and theoretical analysis of neobank growth in Europe and the United States: insights from the Monzo Case (Master's thesis, Πανεπιστήμιο Πειραιώς).
5. Arun, T., Markose, S., Murinde, V., Kostov, P., Khan, A., Ari, N., & Sethi, R. (2023). Impact of neo-banks (digital banks) UK–India comparison.

Абдуллаев Алишер Махмудович
Доцент кафедры «Экономика»
Ферганский Государственный Технический Университета
e-mal: alisher.abdullaev@fstu.uz
Мамаджанов Шохрух Мухиддинович
Студент Ферганский Государственный Технический Университета

ПРОЗРАЧНОСТЬ И АНТИКОРРУПЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ: ОЦЕНКА И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. В статье исследуются вопросы обеспечения прозрачности и подотчётности в государственном секторе как ключевых элементов антикоррупционной политики. Проведён анализ динамики показателей восприятия коррупции в 2015–2025 гг. на основе международных индикаторов, а также рассмотрены институциональные реформы в Республике Узбекистан. Особое внимание уделено внедрению цифровых инструментов открытого бюджета и стандартов прозрачности государственных закупок. По результатам исследования предложены

направления совершенствования механизмов прозрачности и повышения эффективности антикоррупционных мер на основе международного опыта.

Ключевые слова: прозрачность; подотчётность; антикоррупционная политика; государственный сектор; открытый бюджет; государственные закупки; Corruption Perceptions Index (CPI); цифровизация.

Финансовая прозрачность в государственном секторе — это не только публикация цифр, но и способность общества и контрольных институтов **проверять** решения, **объяснять** отклонения и **добиваться последствий** (санкций и исправлений). В условиях глобальных шоков (пандемии, инфляционных волн, геополитической турбулентности) растёт цена ошибок и злоупотреблений в бюджетных расходах и госзакупках, а потому механизмы подотчётности становятся элементом экономической устойчивости. Цель статьи — оценить динамику ключевых индикаторов 2015–2025 и на этой основе предложить **измеримую** программу усиления прозрачности, подотчётности и антикоррупционных механизмов в Узбекистане [1]. Исследовательские вопросы:

1) Как менялись показатели восприятия коррупции в 2015–2025 гг., и где наблюдаются точки замедления/отката?

2) Какие элементы «инфраструктуры прозрачности» можно считать наиболее приоритетными по международным стандартам раскрытия публичных финансов и контрактов?

3) Какую дорожную карту внедрения можно предложить так, чтобы эффект был проверяемым и соотносимым с индикаторами результата?

Первый блок фиксирует динамику CPI. В 2015 г. показатель составил 19 (153 место), в 2016 г. — 21 (156 место). Согласно сводке по CPI 2016–2025, опубликованной узбекским медиа со ссылкой на CPI, далее наблюдается рост до максимума 33 (2023) и снижение до 31 (2025). Показатель 2025 года подтверждается на страновой странице CPI: 31 балл, 124 место. Для интерпретации динамики важно учитывать предупреждение о статистической незначимости малых изменений (1–2 пункта). Поэтому «откат» 2024–2025 (минус 1 пункт в год) следует трактовать как сигнал риска стагнации, требующий подтверждения другими метриками (опыт взяточничества; качество раскрытия бюджетных и закупочных данных). [2]

Таблица 2.

CPI Узбекистана 2015–2025 и сравнение периодов «до/после»

Год	CPI (0–100)	Место
2015	19	153
2016	21	156
2017	22	157
2018	23	158
2019	25	153
2020	26	146
2021	28	140

Год	CPI (0–100)	Место
2022	31	126
2023	33	121
2024	32	121
2025	31	124

Документальный анализ показывает, что нормативный фундамент антикоррупционной политики закреплён в Законе «О противодействии коррупции» (O‘RQ-419, 03.01.2017), где формулируется цель регулирования отношений в сфере борьбы с коррупцией. На уровне практик прозрачности наблюдается институционализация «открытого бюджета» как режима публикации отчётности отдельными ведомствами (пример: раздел open budget на gov.uz для отраслевого министерства, включая публикации за 2024–2025 гг.). Дополнительный слой — участие граждан в бюджетных приоритетах через openbudget.uz, включая кампании голосования в рамках инициативного бюджета (что подтверждается сообщениями на порталах госорганов). Наличие и актуализация мобильного приложения «Ochiq Budjet» указывает на институциональный характер цифрового канала (обновления приложения фиксируются на стороне магазина приложений) [3].

Динамика CPI указывает на долгосрочное улучшение восприятия коррупции, особенно заметное при сравнении средних значений 2015–2016 и 2021–2025. Важный сигнал риска — разрыв между «восприятием» и «опытом»: 13% сообщивших о взятке за последние 12 месяцев при глобальном среднем 10% означает, что поведенческие практики мелкой коррупции могут сохраняться даже при улучшении общих индикаторов.

Международные стандарты позволяют перевести «прозрачность» в управляемый проект с KPI.

1) **Кодекс фискальной прозрачности** задаёт минимальный «контур» раскрытия публичных финансов (от отчётности до рисков). Его практическая ценность — возможность построить «тепловую карту» пробелов и последовательный план внедрения [4].

2) **OCDS** решает проблему несопоставимости и фрагментарности данных закупок: стандарт требует раскрытия данных и документов на всех стадиях контракта в единой модели, что снижает «информационные тени» (например, когда публикуется объявление о тендере, но не раскрывается исполнение и изменения контракта).

3) **ОЭСР** акцентирует на том, что прозрачность требует аудита и пользовательской ориентации представления бюджетной информации, иначе публикация не превращается в подотчётность.

Проведённое исследование показало, что обеспечение финансовой прозрачности и подотчётности в государственном секторе является одним из ключевых факторов эффективного управления государственными ресурсами и устойчивого социально-экономического развития страны. Для Республики Узбекистан данное направление приобретает особую актуальность в условиях активных институциональных реформ и модернизации системы государственного управления. Реализация политики открытости бюджета,

внедрение электронных систем государственных закупок и развитие цифровых платформ создают благоприятные условия для повышения прозрачности финансовых потоков и усиления подотчётности государственных органов перед обществом

Для повышения эффективности обеспечения финансовой прозрачности и подотчётности в государственном секторе целесообразно продолжить совершенствование нормативно-правовой базы, регулирующей раскрытие бюджетной информации и функционирование системы государственных закупок. Важным направлением является расширение практики публикации открытых данных о бюджетных расходах, государственных контрактах и результатах аудита, что позволит обеспечить более высокий уровень общественного контроля за использованием государственных средств.

Особое значение имеет внедрение международных стандартов раскрытия информации в сфере государственных закупок, таких как стандарт Open Contracting Data Standard (OCDS), который способствует повышению прозрачности закупочных процедур и снижению рисков коррупционных правонарушений. Одновременно необходимо развивать цифровые платформы, обеспечивающие интеграцию данных о бюджетном планировании, исполнении бюджета и государственных закупках, что позволит сформировать единую информационную экосистему финансовой прозрачности.

Важным направлением является укрепление институционального потенциала органов государственного финансового контроля и внутреннего аудита, а также повышение уровня профессиональной подготовки специалистов, работающих в сфере финансового управления и антикоррупционной политики. Усиление взаимодействия между государственными органами, гражданским обществом и научным сообществом может способствовать формированию эффективных механизмов мониторинга и оценки прозрачности государственных финансов. Реализация указанных мер позволит не только повысить эффективность использования бюджетных средств, но и укрепить доверие общества к государственным институтам, создать более благоприятные условия для экономического развития и привлечения инвестиций в Республику Узбекистан.

Список использованных источников

1. Закон Республики Узбекистан «О противодействии коррупции» № ЗРУ-419 от 3 января 2017 года.

2. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2015–2025. – URL: https: //www.transparency.org

3. International Monetary Fund. Fiscal Transparency Code . – Washington, DC: IMF, 2019.

4. Open Contracting Partnership. Open Contracting Data Standard (OCDS) . – URL: https: //www.open-contracting.org

Davlatova Gulnora Muhammedjanovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti i.f.n.,
e-mail: gulnara.davlyatova@fstu.uz

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA MOLIYA-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosatini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil moliyalashtirish instrumentlari, jumladan yashil kreditlar, obligatsiyalar va subsidiyalarning ekologik va iqtisodiy samaradorlikka ta’siri yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida mavjud muammolar, xususan moliyaviy resurslar yetishmovchiligi, ekologik risklarni baholash tizimining sustligi va institutsional kamchiliklar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ekologik barqarorlik, moliya-kredit siyosati, yashil iqtisodiyot, yashil kreditlar, ekologik investitsiyalar, innovatsiyalar, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish.

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonlari, iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi sharoitida iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy modellari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda ekologik omillarni hisobga olish, resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosatini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan rivojlanish modelini joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi konsepsiyasini hamda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” doirasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1; 2]. Ushbu normativ-huquqiy asoslar iqtisodiy faoliyatni ekologik talablar bilan uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosiy-iqtisodiy islohotlarda ekologik barqarorlik masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish – bu nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki iqtisodiyotimizning yangi drayverini yaratish demakdir” [3]. Mazkur yondashuv ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosatining strategik rolini belgilab beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanat o‘rtasidagi nomutanosiblik tobora kuchayib bormoqda. An’anaviy moliya-kredit mexanizmlari asosan

iqtisodiy samaradorlikka yo‘naltirilgan bo‘lib, ekologik omillar yetarli darajada inobatga olinmayapti. Natijada, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o‘zgarishi kabi global muammolar yuzaga kelmoqda. Shu bois, moliya-kredit siyosatini ekologik mezonlar asosida takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda moliya-kredit tizimida ekologik yo‘naltirilgan moliyaviy instrumentlarning rivojlanish darajasi yetarli emas. Bank sektorida ekologik loyihalarni moliyalashtirish ulushi past bo‘lib, ekologik risklarni baholash tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Bundan tashqari, ekologik investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarining sustligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosati muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, “yashil banklar”, ekologik fondlar va maxsus kredit liniyalari orqali ekologik loyihalar faol qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni ta’minlash imkonini bermoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu ilg‘or tajribalarni milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim rol o‘ynamoqda.

Ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosatini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat ekologik muammolarni hal etish, balki mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

ASOSIY QISM.

Ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosatining roli tobora ortib borayotgan global tendensiya sifatida shakllanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy moliyalashtirish tizimlari ko‘pincha qisqa muddatli foyda va risklarni minimallashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ekologik loyihalar uchun zarur bo‘lgan uzoq muddatli va past foizli resurslarni yetarli darajada ta’minlay olmaydi. Natijada, ekologik innovatsiyalar va yashil texnologiyalar rivoji sekinlashadi [4].

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “yashil kredit” va “yashil moliyalashtirish” mexanizmlarining joriy etilishi energiya samaradorligini oshirish va karbon chiqindilarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, hududlar kesimida olib borilgan empirik tahlillar yashil kreditlarning nafaqat lokal darajada, balki qo‘shni hududlarga ham ijobiy tarqaluvchi ta’sir berishini isbotlaydi [5]. Bu esa moliya-kredit siyosatini hududiy differensiallashgan tarzda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, BRICS davlatlari misolida olib borilgan tadqiqotlar yashil kredit siyosati uzoq muddatda barqaror ishlab chiqarishni rag‘batlantirishini, bunda kapitalni qayta taqsimlash, texnologik yangilanish va institutsional mustahkamlash

asosiy omillar ekanligini ko‘rsatadi [6]. Demak, moliya-kredit mexanizmi nafaqat moliyaviy vosita, balki ekologik transformatsiyaning strategik instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1-jadval

Yashil moliya-kredit instrumentlarining ekologik samaradorlikka ta’siri

Instrument turi	Ta’sir yo‘nalishi	Natijaviy samarasi
Yashil kredit	Energiya samaradorligi	Energiya tejash, emissiya kamayishi
Yashil obligatsiyalar	Investitsiya jalb qilish	Katta hajmli ekologik loyihalar
Subsidiya va grantlar	Innovatsiyalarni rag‘batlantirish	Yangi texnologiyalar joriy etilishi
Soliq imtiyozlari	Korxonalarni qo‘llab-quvvatlash	Ekologik ishlab chiqarish kengayishi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, moliya-kredit instrumentlari ekologik barqarorlikni ta’minlashda ko‘p qirrali ta’sirga ega. Ayniqsa, yashil kreditlar eng muhim vositalardan biri bo‘lib, ular korxonalarni ekologik innovatsiyalarni joriy etishga undaydi.


Tahlillar yana shuni ko‘rsatadiki, moliya-kredit mexanizmining samaradorligi ko‘p jihatdan foiz stavkalari va kredit resurslarining mavjudligiga bog‘liq. Agar kredit narxi yuqori bo‘lsa, korxonalar ekologik loyihalarga investitsiya kiritishga qiziqmaydi. Shu sababli, ekologik kreditlar uchun past foiz stavkalarini joriy etish zarur hisoblanadi [5]. Bu esa davlatning monetar siyosati va bank tizimining faol ishtirokini talab etadi.

O‘zbekiston tajribasi ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, yashil energiya ulushi 15–18% ga yetgan, issiqxona gazlari esa sezilarli darajada kamaygan [7]. Bu natijalar moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Biroq, mavjud tizimda bir qator muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan:

- yashil loyihalar uchun boshlang‘ich investitsiya xarajatlarining yuqoriligi;
- kredit resurslariga kirish imkoniyatining cheklanganligi;
- texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- malakali kadrlar yetishmasligi.

Mazkur muammolar moliya-kredit siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.



1-sxema. Ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosati mexanizmi

Mazkur sxema ekologik barqarorlikka erishishda moliya-kredit siyosatining tizimli rolini aks ettiradi. Ya’ni, moliyaviy resurslarning to‘g‘ri yo‘naltirilishi ekologik va iqtisodiy natijalarni bir vaqtning o‘zida ta’minlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil moliya siyosati samaradorligi ko‘p jihatdan “yashil innovatsiyalar” bilan bog‘liq. Yashil kreditlar innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali energiya samaradorligini oshiradi va bu jarayon vositachi omil sifatida xizmat qiladi. Demak, moliya-kredit siyosatini innovatsion rivojlanish bilan integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, hududlar kesimida farqlar ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan hududlarda yashil moliya instrumentlari samaraliroq ishlaydi, chunki u yerda infratuzilma va texnologik baza kuchliroq. Shu sababli, kam rivojlangan hududlar uchun maxsus moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

2-jadval

Moliya-kredit siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mazmuni
Foiz siyosatini optimallashtirish	Yashil kreditlar uchun past stavkalar
Institutsional islohotlar	Yashil bank tizimini rivojlantirish
Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Subsidiyalar va kafolatlar
Innovatsiyalarni rag‘batlantirish	R&D va texnologiyalarni moliyalashtirish
Xalqaro hamkorlik	Investitsiyalar va grantlar jalb qilish

Natijalariga ko‘ra, moliya-kredit siyosatini takomillashtirish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi lozim:

Birinchidan, moliyaviy resurslarning ekologik ustuvorliklar asosida taqsimlanishi ta’minlanishi zarur. Bu esa kreditlash tizimida ekologik risklarni baholash mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi.

Ikkinchidan, davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim. Chunki ekologik loyihalar ko‘pincha katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi.

Uchinchidan, yashil moliyalashtirish instrumentlarini diversifikatsiya qilish zarur. Faqat kreditlar bilan cheklanib qolmasdan, obligatsiyalar, sug‘urta va boshqa moliyaviy vositalarni keng joriy etish lozim.

To‘rtinchidan, moliya-kredit mexanizmi moslashuvchan va dinamik bo‘lishi kerak. Tashqi iqtisodiy sharoitlar o‘zgarib borayotgan bir paytda moliyaviy siyosat ham tezkor moslasha olishi zarur.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliya-kredit siyosati ekologik barqarorlikni ta’minlashda markaziy o‘rin egallaydi. Yashil kreditlar, innovatsiyalar va institutsional islohotlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda amalga oshirilganda, iqtisodiy o‘sish va ekologik muhofaza o‘rtasida muvozanatga erishish mumkin.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari ekologik barqarorlikni ta’minlashda moliya-kredit siyosatining muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish, ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanat o‘rtasida uyg‘unlikka erishish mumkin. Shu bilan birga, amaldagi tizimda moliyaviy resurslar yetishmovchiligi, ekologik risklarni baholash mexanizmlarining sustligi va institutsional muammolar mavjudligi aniqlandi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va tizim samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi umumlashtirilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, moliya-kredit siyosatini ekologik yo‘naltirish zarur. Bunda kreditlash tizimiga ekologik mezonlarni joriy etish, ekologik risklarni baholash mexanizmini takomillashtirish hamda yashil loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, yashil moliyalashtirish instrumentlarini kompleks rivojlantirish lozim. Ya’ni, yashil kreditlar bilan bir qatorda obligatsiyalar, subsidiyalar, grantlar va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish orqali investitsiya oqimini oshirish va bank sektorining faolligini kuchaytirish talab etiladi.

Uchinchidan, innovatsion va hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu borada yashil texnologiyalarni moliyalashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish hamda hududlar kesimida differensial moliyaviy siyosatni amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, moliya-kredit siyosatini ekologik ustuvorliklar asosida takomillashtirish nafaqat atrof-muhit muhofazasini kuchaytiradi, balki iqtisodiy tizimning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlaydi. Ushbu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda ijtimoiy farovonlikni oshirish orqali mamlakatning barqaror taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 30.10.2019 yildagi PF-5863-son.

3. Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi, 23-sentyabr 2020 yil.

4. Li, D., Li, J., Tan, S., & Mahmood, T. (2025). Business, finance, energy strategy, and sustainability integration: A holistic approach to corporate responsibility in the green era. Energy Strategy Reviews, 58, 101656.

5. Теплюк, М., Вараксіна, О., Казак, О., Дахно, М., Сучу, В., & Попенко, С. (2025). The importance of the financial and credit mechanism in ensuring the sustainable development of enterprises. Financial and credit activity problems of theory and practice, 2(61), 391-408.

6. Jia, S., Farooq, U., Alomair, A., & Aljughaiman, A. A. (2026). Credit with a Climate Purpose: Does Green Credit Policy Accelerate Sustainable Production in BRICS?. Borsa Istanbul Review, 100817.

7. Mirzayev, B. A. (2025). O’zbekiston Respublikasini “Yashil” Iqtisodiyotga O’tish Istiqbollari. Muammolar Va Yechimlar. Green Economy and Development, 1(10), 19-25.

Karayev Mansur Yuldashevich
Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi katta ilmiy xodimi,
e-mail: karayev_1965@mail.ru

QIMMATLI QOG‘OZLARGA INVESTITSIYALARNI BAHOLASH USULLARI

Annotatsiya: maqolada fond bozorining turli xil multiplikatorlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ular yordamida investor aksiyalarning haqiqiy qiymatini, adolatsiz baholangan aktivlarni bilib oladi, shuningdek kapitalning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi harakatini hisobga oladi va kompaniyaning moliyaviy holatini kuzatib boradi.

Kalit so‘zlar: qimmatli qog‘ozlar, aksiya, aksiyalar qiymatini baholash, kompaniyani baholash, fond bozorining multiplikatorlari, baholash yondashuvlari.

Kirish: Qimmatli qog‘ozlarni baholash – bu qimmatli qog‘ozning bozor qiymatini unga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda pul ifodasida aniqlashning tartibga solingan va aniq maqsadga qaratilgan jarayonidir.

Bunday asosiy omillar jumlasiga quyidagilar kiradi: emitentning moliyaviy ahvoli va maqomi, investorning maqsadi va huquqlari, qimmatli qog‘ozni qaytarishgacha qolgan muddat, uning daromadliligi, likvidliligi, ishonchliligi, fond bozorining qimmatli qog‘ozni baholash vaqtidagi ko‘rsatkichlari.

Investor muayyan vaqtda o‘zining investitsiyaviy maqsadlariga eng mos keladigan qimmatli qog‘ozlarni tanlaydi, bunda qimmatli qog‘ozlarning quyidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

daromadlilik – investor xatarli, lekin daromadli qimmatli qog‘ozlarni afzal ko‘radi;

ishonchlilik – investor past daromadli, ammo ishonchli qimmatli qog‘ozlarni, masalan, davlat obligatsiyalarini tanlaydi;

likvidlilik – investor birjada qiymatining eng kam yo‘qotilishi bilan kuzatilib, oson va tez sotilishi mumkin bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni xarid qilishdan manfaatdor.

Zamonaviy investor ko‘p sonli imkoniyatlarga, shu jumladan moliyaviy aktivlarga sarmoya kiritish imkoniyatiga duch keladi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanganligi tufayli qimmatli qog‘ozlarni sotib olish ancha qulay bo‘ldi. Qimmatli qog‘ozlar, shu jumladan aksiyalar, foyda olish maqsadida ham, turli korxonalarning xo‘jalik-moliyaviy faoliyatida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun ham investitsiya kiritish vositasi hisoblanadi. Biznes rivojlanayotgani bois jahon iqtisodiyotidagi aksiyalar soni yil sayin ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda nafaqat mahalliy kompaniyalarning, balki butun dunyoda muomalada bo‘lgan aksiyalarni sotib olish imkoniyati mavjudligi tufayli, ularning qiymatini to‘g‘ri baholash masalasi ko‘ndalang turishi tabiiy. Shuning uchun, xorijiy aksiyalar qiymatini baholash mavzusi kelajakda ham g‘oyat dolzarb ahamiyat kasb etadi [2].

Aksiyalarga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritayotgan investorlar soni yil sayin ortib bormoqda. Xorijiy mamlakatlarda mazkur bozor yuz yildan ortiq vaqtdan buyon rivojlanib borayotganini hisobga olsak, ushbu mavzuda qimmatli qog‘ozlarni, xususan, aksiyalarni baholash usullari va modellari bo‘yicha ko‘plab ishlar qilingan [1].

Mazkur ishning maqsadi kompaniyaning qimmatli qog‘ozlarga moliyaviy investitsiyalarini baholash mexanizmlarini o‘rganishdan iborat.

Asosiy qism: Egasiga foyda keltiradigan moliyaviy vosita sifatida aksiya qiymatini aniqlash uni baholash uchun asos bo‘ladi. Foyda olishning asosiy usullari – bu dividendlar olish hamda kompaniya moliyaviy ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi, biznesining kengayishi va aktivlari qiymatining oshishi bilan bog‘liq aksiya qiymatining o‘sishi.

Xorijiy mamlakatlarda o‘nlab yillar davomida biznesni, korxonalarni va o‘z navbatida kompaniyalar aksiyalarining qiymatini baholashning muayyan mexanizmlari shakllandi. Bu asosan kompaniyalarning moliyaviy ahvolini multiplikatorlar to‘plami orqali baholash to‘plamidir.

An’anaga ko‘ra, investorlarni EPS (Earnings Per Share – aksiya uchun daromad) ko‘rsatkichi – bir oddiy aksiya uchun sof foyda qiziqtiradi. Biroq, ushbu multiplikatorni qo‘llashda uni boshqa kompaniyalarning EPS ko‘rsatkichi bilan taqqoslash bilan bog‘liq qiyinchiliklar yuzaga keladi. Gap shundaki, EPS absolyut ko‘rsatkich bo‘lib, bir aksiyaga olinadigan daromad bo‘yicha yetakchini aniqlash uchun nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Ular orasida eng ommalashgani – bu, moliyaviy tahlilchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlariga ko‘ra, “narx/foyda” koeffitsiyenti [4].

“Narx/sof foyda” (Price/Net Income yoki Price/Earnings Ratio, R/Ye) multiplikatori eng keng tarqalgan va kompaniyaning investitsiyaviy jozibadorligini baholashda tez-tez qo‘llaniladigan ko‘rsatkichdir. Ushbu multiplikator o‘z kapitalining qiymatini to‘g‘ridan to‘g‘ri baholash imkonini beradi. R/Ye

multiplikatori manfaatdor investor kompaniya oladigan foyda uchun qancha pul to‘lashga tayyorligini ko‘rsatadi. T.V. Teplovaning so‘zlariga ko‘ra, u “kompaniyaga sarflangan mablag‘larning chiqarilishi muddatini ko‘rsatadi va diskontlash stavkasiga teskari kattalik sifatida belgilanadi” [3].

PEG koeffitsiyenti narx/foyda koeffitsiyentining kamchiliklarini tuzatish uchun ishlab chiqilgan. Buning uchun qo‘shimcha ravishda kompaniya foydasining kelajakdagi o‘sish sur’atlari hisobga olinadi. PEG multiplikatori (R/Ye ning g (annual EPS growth) aksiyaga olinadigan foyda o‘sishining kutilayotgan sur’atiga nisbati) aksiya narxini aksiyaga olinadigan foyda va kompaniyaning kelajakda kutilayotgan foydasi bilan solishtiradi. PEG fundamental tahlilda tez rivojlanayotgan kompaniyalarni taqqoslash uchun keng qo‘llaniladi. PEG koeffitsiyenti past bo‘lgan kompaniyalar (aktivlar) boshqa teng sharoitda PEG koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan kompaniyalarga nisbatan investitsiya kiritish nuqtayi nazaridan afzalroqdir [4].

P/S (Price/Sales, Narx/Tushum) bir tarmoq doirasida o‘xshash marjaga ega kompaniyalarni baholash uchun. P/S undagi tushum kapitallashuvga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan riteyl uchun mos keladi. Moliyaviy nazariyaga ko‘ra, “biznes qiymati/tushum” (EV/S) multiplikatori qulayroq hisoblanadi – chunki kompaniyaning tushumi aksiyadorlar uchun ham, kreditorlar uchun ham daromad manbai hamda soliq to‘lash manbai bo‘lib xizmat qiladi – lekin amaliyotda P/S multiplikatori kengroq tarqalgan, bu uning soddaligi bilan izohlanadi [3].

Kompaniya aktivlarining qiymatiga e’tibor qaratadigan investorlarni, albatta, P/V (Price to Book) multiplikatori – aksiya bozor narxining bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan aktivlar qiymatiga nisbati qiziqtiradi. P/V ko¬effitsiyenti ikkita ko‘rsatkichdan iborat: suratda – kompaniyaning kapitallashuvi, maxrajda – uning balans qiymati [3].

P/BV (Price/Book Velue, Narx/1 aksiyaga qayta hisoblangan aktivlar qiymati) – bozor narxi aktivlari va majburiyatlarining yig‘indisiga taxminan teng bo‘lgan banklarni tahlil qilish uchun qulaydir. Bundan tashqari, aksiyador, agar bank bankrot bo‘lsa, uning aktivlaridan nima qolishini tushunishi muhim. P/BV ning yaxshi ko‘rsatkichi 1 dan katta bo‘lishi kerak [1].

EBITDA (Earnings before interest, taxes, depreciation and amortization – foiz to‘lovlari, soliqlar, mulkning eskirishi va amortizatsiyasi chegirma qilingan foyda). Agar umumiy ta’rif beradigan bo‘lsak, bu biznesning qiymati. EBITDAning afzalligi shundaki, u soliq va bank stavkalari katta farq qiladigan turli mamlakatlardagi bir tarmoq kompaniyalarini taqqoslash imkonini beradi [1].

ROE (Return on Common Equity) aktivlar uchun qaytarish yoki investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi. Kompaniya aktivlar (mol-mulk, ishlab chiqarish quvvatlari, binolar va b.)ga qanchalik ko‘p investitsiya kiritsa, u xarajatlarni qaytarish uchun shuncha ko‘p foyda ishlab topishiga to‘g‘ri keladi. Ko‘pincha kichik kompaniyalar foydani kam xarajatlar evaziga ishlab topadi. Unda ROE yuqori bo‘ladi, bu esa afzallik hisoblanadi [3].

Qarz/EBITDA investorga emitent qarzni foyda hisobiga to‘lashi uchun necha yil ketishini ko‘rsatadi. Ushbu multiplikator qiymati past bo‘lgan kompaniyalar eng yaxshi kompaniyalardir [1].

Shuningdek, xorijiy amaliyotda ham aksiyalar qiymatini baholashda, huddi O‘zbekistonda bo‘lgani kabi, klassik yondashuvlar: daromad yondashuvi, qiyosiy yondashuv va xarajat yondashuvi qo‘llaniladi.

Xulosa: Shunday qilib, boshqa mamlakatlarda aksiyalar qiymatini baholash ba’zi parametrlar bo‘yicha farq qilishi mumkin. Bu chet elda aksiyalar bozori asrlar davomida shakllanib, rivojlanganligi bilan bog‘liq. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, xorijiy tajriba mahalliy kompaniyalarning oddiy aksiyalarini baholashda, odatda, muayyan multiplikatorlarni hisoblashda, shuningdek aksiyalar qiymatini baholashning uchta klassik yondashuvi: daromad, qiyosiy va xarajat yondashuvlarida ham faol qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Otsenka stoimosti biznesa: uchebnik dlya bakalavrov [Tekst] / Pod red. M.A. Eskindarova, M.A. Fedotovoy. – M.: KnoRus, 2020. – 320 s.

2. Suxova A.A. Zarubejniy opit otsenki stoimosti aksiy/ Potensial rossiyskoy ekonomiki i innovatsionnie puti ego realizatsii: materiali vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii studentov i aspirantov (28 aprelya 2022 g). – Omsk, 2022. -S. 173-175.

3. Teplova T.V. Investitsii: uchebnik. – Moskva: YURAYT, 2011. – 724 s.

4. Shnyukova E.A. Otbor investitsionno-privlekatelnix nedootsenennix kompaniy s pomoshyu multiplikatorov / E.A. Shnyukova, A.P. Fant // Uchet, analiz i audit: problemi teorii i praktiki. - 2013. - № 10. -S. 123-127.

Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
Ma’mun universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v.b, PhD
e-mail: sattarovadilfuza1725@gmail.com
Qazaqov Abdulla
Ma’mun universiteti, 1-bosqich magistranti

INNOVATSION INVESTITSIYALARNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, mazmuni, tarkibiy xususiyatlari hamda ularning zamonaviy iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda investitsiya va innovatsiya tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi, innovatsion investitsiyalarning turlari va shakllari, raqamli iqtisodiyot va bilimlar iqtisodiyotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, innovatsion investitsiyalarni iqtisodiy o‘sishning sifat omili sifatida baholashga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion investitsiya, iqtisodiy o‘sish, raqamli iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, texnologik modernizatsiya, intellektual kapital

XXI asr iqtisodiyoti an’anaviy ishlab chiqarish omillaridan ko‘ra ko‘proq bilim, texnologiya, innovatsiya va raqamli transformatsiyaga tayanadigan yangi rivojlanish modeliga o‘tmoqda. Bunday sharoitda investitsiyalar ham o‘zining

mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘zgarib, oddiy kapital qo‘yilmadan innovatsion o‘sishni ta’minlovchi strategik resursga aylanmoqda. Shu bois innovatsion investitsiyalar masalasi nafaqat investitsiya siyosati, balki iqtisodiy rivojlanish nazariyasining markaziy mavzularidan biriga aylangan.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar ko‘pincha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi aktivlar yaratish yoki moliyaviy resurslarni joylashtirish sifatida talqin qilinadi. Biroq innovatsion investitsiyalar mazkur tushunchadan farqli ravishda yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar, yangi xizmatlar, yangi biznes modellar va yangi boshqaruv yondashuvlarini iqtisodiyotga olib kiruvchi kapital qo‘yilmalar sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda aynan shunday integratsiyalashgan model shakllanmoqda va uni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy islohotlar, startap ekotizimi, xalqaro investitsiyalar oqimi ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, 2024-yilda mamlakatga kirib kelgan to‘g‘ridanto‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmi $11, 9 milliardga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 53, 6 % ga oshdi.Shu bilan birga, innovatsion salohiyat mezonida – 2025-yilgi “Global Innovation Index”da O‘zbekistonga 79- o‘rin berildi. Ushbu ma’lumotlar integratsiyalashgan yondashuv zarurligini yaqqol namoyon etadi [1].

Investitsiya iqtisodiy mazmuniga ko‘ra kelgusida daromad yoki iqtisodiy samara olish maqsadida kapitalni joylashtirish jarayonidir. Innovatsiya esa yangi bilim, texnologiya, mahsulot yoki xizmatni amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiy va ijtimoiy natija beruvchi yangilikdir.

Mazkur ikki tushuncha bir-biri bilan quyidagicha bog‘langan:

- innovatsiya investitsiyasiz iqtisodiyotga tatbiq etilmaydi;
- investitsiya innovatsiyasiz yuqori qo‘shimcha qiymat yaratmaydi;
- innovatsion investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi.

Shu asosda innovatsion investitsiyalarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

Innovatsion investitsiyalar — bu yangi texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar, intellektual mahsulotlar, raqamli yechimlar va yuqori qo‘shimcha qiymatli iqtisodiy faoliyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalardir.

1-jadval

Innovatsion investitsiyalarning asosiy turlari va iqtisodiy mazmuni

Innovatsion investitsiya turi	Mazmuni	Kutiladigan natija
Texnologik investitsiyalar	yangi uskunalar, robototexnika, avtomatlashtirish	mehnat unumdorligi oshadi
Raqamli investitsiyalar	dasturiy ta’minot, AI, cloud, data platformalar	boshqaruv va samaradorlik yaxshilanadi
Ilmiy-tadqiqot investitsiyalari	R&D, laboratoriyalar, ilmiy ishlanmalar	yangi mahsulot va texnologiyalar yaratiladi
Inson kapitaliga investitsiyalar	malaka, STEM ta’lim, kadr tayyorlash	bilimlar iqtisodiyoti rivojlanadi
Startap va venchur investitsiyalar	innovatsion bizneslarni moliyalashtirish	yangi bozorbop kompaniyalar paydo bo‘ladi
Yashil innovatsion investitsiyalar	energiya tejamkor va ekologik texnologiyalar	barqaror o‘sish ta’minlanadi

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, innovatsion investitsiyalar faqat sanoat uskunalari yoki ishlab chiqarish bazasiga yo‘naltirilgan kapital bilan cheklanmaydi. Ular intellektual kapital, ilm-fan, raqamli platformalar, startaplar va ekologik texnologiyalarni ham qamrab oladi. Demak, innovatsion investitsiyalar tarkibi qanchalik diversifikatsiyalashgan bo‘lsa, iqtisodiy o‘sishning sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Innovatsion investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga quyidagi kanallar orqali ta’sir ko‘rsatadi:

- mehnat unumdorligini oshiradi;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi;
- mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi;
- eksport salohiyatini oshiradi;
- yangi tarmoqlar va yangi ish o‘rinlarini yaratadi;
- iqtisodiyotning texnologik darajasini ko‘taradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning muhim qismi quyidagilarga yo‘naltiriladi:

- ma’lumotlar bazalari;
- sun’iy intellekt;
- platforma iqtisodiyoti;
- fintech;
- raqamli xizmatlar;
- kiberxavfsizlik;
- cloud va data infratuzilma.

Barqaror o‘sishni ta’minlash uchun hukumat moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi, murabbiylik va inkubatsiya dasturlariga kirishni yaxshilashi, investorlar uchun soliq imtiyozlarini joriy etishi va xalqaro kengayish uchun qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishi kerak. Mintaqaviy innovatsion markazlarni rivojlantirish va muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish dinamik va raqobatbardosh raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston sun’iy intellektning o‘zgartiruvchi kuchidan foydalanishga tayyor, prognozlarga ko‘ra 2030 yilga borib YaIMga 10 milliard AQSh dollari miqdorida hissa qo‘shishi va 430 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan. Ko‘pgina Markaziy Osiyo mamlakatlarida sun’iy intellekt bo‘yicha milliy strategiyalar mavjud bo‘lmasa-da, O‘zbekiston 2024-yil oktabr oyida o‘zining birinchi sun’iy intellekt strategiyasini ishga tushirib, o‘zini Evropa Ittifoqining (YeI) sun’iy intellekt to‘g‘risidagi qonuni kabi xavf-xatarga asoslangan tartibga solish modeli va boshqa joylarda qabul qilingan moslashuvchan yondashuvlar o‘rtasida joyladi [2, 3].

Yangi sun’iy intellekt strategiyasining qabul qilinishi O‘zbekiston hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida 2023-yildagi 87-o‘rindan 2024-yilda 70-o‘ringa ko‘tarilgan reytingini oshirdi. Mamlakat oldinga siljishda, siyosat islohotlari, infratuzilma investitsiyalari, sohaviy integratsiya va salohiyatni oshirish orqali sun’iy intellektni rivojlantirishni kuchaytirishni maqsad qilgan. Asosiy

maqsadlar qatoriga 2030-yilgacha sun’iy intellekt asosidagi dasturiy ta’minot va xizmatlar hajmini 1, 5 milliard dollarga yetkazish hamda Hukumatlarning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida O‘zbekistonning 50 ta yetakchi davlat qatoridan joy olishini ta’minlash kiradi [4, 5].

Innovatsion investitsiyalar an’anaviy investitsiyalardan farqli ravishda iqtisodiy o‘sishning intensiv modelini shakllantiradi. Ya’ni ular ishlab chiqarish hajmini oddiy kengaytirish emas, balki ishlab chiqarishning samaradorligini, texnologik darajasini va bilim sig‘imini oshirish orqali o‘sishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, bilimlar iqtisodiyoti sharoitida innovatsion investitsiyalar quyidagi yangi xususiyatlarga ega bo‘lmoqda:

- moddiy aktivlardan ko‘ra nomoddiy aktivlarga ko‘proq yo‘naltiriladi;
- uzoq muddatli yuqori qaytimga ega bo‘ladi;
- risk darajasi yuqori bo‘lsa-da, iqtisodiy multiplikator effekti kuchli bo‘ladi;
- tarmoqlararo va hududlararo transformatsiyani tezlashtiradi.

O‘zbekistonda startap ekotizimi tez sur’atda rivojlanmoqda: 2020-yilda startap investitsiyalari atigi $0, 3 millionni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda $69, 5 millionga yetdi — bu 230 barovarga yaqin o‘sishdir. Shu jarayonda FinTech, EdTech, sun’iy intellekt kabi sohalar markaziy rol o‘ynamoqda. Masalan, IT/raqamli xizmatlar eksporti $344 millionga yetdi. Bunday natijalar intellektual kapitalning sarmoyaga aylanuvchi, iqtisodiy foyda keltiruvchi aktivga aylanayotganini yaqqol ko‘rsatadi. 2024-yilda investitsiyalar va startaplar uyg‘unlashuvi masalasida O‘zbekiston “Innovation input” submezonida 69-o‘rin egalladi[2].

Biroq integratsiyalashgan yondashuvni samarali amalga oshirish yo‘lida bir qator muammolar uchramoqda. Ulardan eng asosiylari: intellektual mulk himoyasi tizimining pastligi, startap va venchur ekotizimida investor ishonchining to‘liq yetilmaganligi. Shuningdek, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida investitsiyalar tabiiy resurslarga yo‘naltirilgani va intellektual kapitalga yetarlicha e’tibor berilmagan[3].

Shu bois quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Ta’lim tizimini modernizatsiya qilib, universitetlarni sanoat bilan yaqindan aloqalar o‘rnatish, “Universitet–biznes” hamkorligini kengaytirish.
- Startup va venchur investitsiyalar uchun maxsus moliyalashtirish vositalarini oshirish, xususiy investorlar uchun soliq va huquqiy imtiyozlar yaratishni kengaytirish.
- Intellektual mulk huquqlarining himoyasini kuchaytirish, milliy patent tizimini modernizatsiya qilish.
- Inson kapitali va innovatsiyaga sarmoya kiritishni strategik ravishda kuchaytirish, universitet-tadqiqot markazlari va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish.
- Investitsiyalarni raqamli va yuqori texnologiyali sohalarga yo‘naltirish, shuningdek, kichik va o‘rta startaplarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning turli sohalarida bilimga asoslangan o‘sishni ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda barqaror va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda intellektual kapital va investitsion faoliyat integratsiyasi strategik ahamiyatga ega. Intellektual kapital – bu iqtisodiyotning ichki o‘sish manbai, investitsiyalar esa tashqi moliyaviy drayverdir. Ularning uyg‘unligi orqali O‘zbekistonda yangi turdagi – bilimga asoslangan, innovatsiyaga tayangan va sarmoyaga ochiq iqtisodiy model shakllanishi mumkin. Raqamli tarmoqlar, startaplar ekotizimi, IT xizmatlari eksporti va yuqori malakali kadrlar – bular integratsiyalashgan yondashuvning natijasidir. Agar ushbu yo‘nalishdagi siyosatlar izchil va samarali amalga oshirilsa, O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va uzluksiz o‘sish ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Kun.uz. “Foreign direct investment in Uzbekistan increased by over 50% in 2024”. 1 February 2025.
2. UzDaily.uz. “Uzbekistan the fastest-growing startup ecosystem in Central Asia”. 2025.
3. Zokirov J, Tolibekov D Intellaktual Kapitalni Mamlakat Iqtisodiyotini Rivojlantirishga Ta’siri va Ahamiyati. 2024.
4. Lee H-S, Chernikov S.U., Nagy S. “Motivations and locational factors of FDI in CIS countries”. 2022.
5. Nashira H., Kurniawan A. “Measuring Intangible Assets Using Parametric and Machine Learning Approaches”. 2022.

Payazov Murod Maksudovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Menejment va marketing” kafedrasi dotsenti, i.f.d.dotsent
e-mail: fayz19700308@gmail.com

MOLIYA BOZORINI RIVOJLANISHIDA FOND BOZORINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada qisqartirish, fond bozorini rivojlantirish va sog‘lom raqobat muhitini yaratish, faol investitsiya siyosatini tashkil etish bilan yirik kompaniyalarni qo‘llab quvvatlash, xisob-kitoblarida oshkoralikni ta’minlash, ularning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoolligini ta’minlash bilan birga xorijiy davlatlarda yirik brendaga ega bo‘lgan xorijiy aksiyadorlik kompaniyalarni tashkil etishda keng ko‘lamli investorlarni fond birjalariga jalb qilishda fond bozori xizmatlarini maqsadli va jahon andozalari asosida yuritilishi davr talabi ekanligiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: fond bozori, qimmatli qog‘ozlar, fond birjasi, kapitalizatsiya, moliyaviy sog‘lomlashtirish.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida moliya bozorining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fond bozori kapitalni samarali taqsimlash, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishda asosiy o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18 dekabrdagi PF-254-son

Farmonida ham kapital bozorini yanada rivojlantirish, yangi investitsiya mahsulotlarini joriy etish va kapital bozoriga qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan [1].

Fond bozori orqali korxonalar uzoq muddatli resurslarga ega bo‘lishlari, investorlar esa o‘z mablag‘larini foydali joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, fond birjalarida shaffof narx shakllanishi, likvidlikning ta’minlanishi va risklarni diversifikatsiyalash kabi jihatlar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fond bozorining yuksak darajadagi kapitalizatsiyasi yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, xalqaro moliya integratsiyasiga xizmat qiladi.

Asosiy qisim. Tadqiqotning asosiy qismida fond bozorining moliya bozorini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mavjud muammolar tahlil etildi.

Birinchidan, normativ-huquqiy asoslar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda 2019 yildan boshlab kapital bozorini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi PF-5630-sonli Farmoniga asosan Davlat raqobat qo‘mitasi negizida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda Kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha Monopoliyaga qarshi agentlik tashkil etildi [2]. Ushbu ikki tashkilotga davlat aktivlarini boshqarish, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish kabi muhim vazifalar yuklangan. Bu esa mamlakatda fond bozorini rivojlantirishning institutsional asosini yaratishda muhim qadam bo‘ldi.

Ikkinchidan, jahon tajribasi va xalqaro ko‘rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Qayd etilishicha, Nyu-York fond birjasining kapitalizatsiyasi 20 trillion dollarni tashkil etadi, bu ko‘rsatkich bo‘yicha u dunyoda etakchilik qiladi. NASDAQ (7 trln dollar), London (6 trln dollar) va Toronto (2, 61 trln dollar) birjalari ham yuqori o‘rinlarni egallagan. Biroq, O‘zbekiston fond birjasining kapitalizatsiyasi bor-yo‘g‘i 200 mln dollarni tashkil etishi mamlakat fond bozorining rivojlangan mamlakatlar darajasidan ancha ortda qolganligidan dalolat beradi. Takqoslash uchun, MDH davlatlari orasida Qozog‘iston fond birjasining kapitalizatsiyasi 48, 4 mlrd dollarni tashkil etadi [3].

Uchinchidan, milliy strategik hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 27-maqsadida fond bozori aylanmasini 5 yil ichida 200 mln AQSH dollaridan 7 mlrd AQSH dollariga etkazish vazifasi qo‘yilgan[4]. Bu maqsadning amalga oshishi uchun kapital harakatini erkinlashtirish, yirik korxonalarni fond birjasi orqali xususiylashtirish, bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizga etkazish kabi choralar belgilangan. Xususan, Ross Levine ta’kidlaganidek, moliyaviy bozorlar, jumladan fond bozorlari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi eng muhim omillardan biridir [5]. Shu bois, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish milliy iqtisodiyot rivojida strategik ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, mavjud muammolar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston fond bozori xizmatlari hozirgi bosqichda to‘liq talabga javob bermaydi. Bozorning likvidliligi pastligi, aholi va investorlarning moliyaviy savodxonligining etarli emasligi, korporativ boshqaruv tizimining xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmasligi, shuningdek, ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorining sust rivojlanganligi asosiy to‘siqlar hisoblanadi. SHu bilan birga, mamlakatda sog‘lom raqobat muhitini yaratish, xisob-kitoblarda oshkoralikni ta’minlash va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yo‘nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Beshinchidan, xalqaro tajribaga ko‘ra, E.F. Fama ta’kidlaganidek, samarali kapital bozorlari mavjud axborotni to‘liq aks ettiradi va narxlar adolatli shakllanadi[6]. Demirgyuch-Kunt va Maksimovich esa, qonunchilik va moliyaviy taraqqiyot firmalar o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlaganlar[7]. Bu ilmiy xulosalar O‘zbekistonda huquqiy bazani yanada takomillashtirish, sud tizimining mustaqilligini ta’minlash va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fond bozori moliya bozorini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Fond bozori nafaqat iqtisodiyotda bo‘sh turgan kapitalni samarali taqsimlash, balki ishlab chiqarishning ustuvor tarmoqlariga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish, korxonalarning moliyaviy intizomini oshirish va davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan fond bozoriga ega mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bunday mamlakatlar iqtisodiy zo‘riqishlarga nisbatan chidamli va tez tiklanish qobiliyatiga ega.

Fond bozorini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Davlat aktivlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish – bu jarayonda shaffoflik va oshkoralikni ta’minlash, xususiylashtirishdan tushgan mablag‘larni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo‘naltirish zarur.
2. Korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish – xalqaro standartlar (OECD, IFC) asosida direktorlar kengashi faoliyatini kuchaytirish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini joriy etish.
3. Axborot shaffofligini oshirish – korxonalarning moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar (IFRS) bo‘yicha tayyorlash, ichki va tashqi audit tizimini kuchaytirish.
4. Xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish – soliq imtiyozlarini joriy etish, foydani chetga olib chiqishda cheklovlarni bekor qilish, investitsiyaviy nizolarni hal qilishning samarali sud mexanizmlarini yaratish.
5. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish – maktab va oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha alohida kurslarni joriy etish, ommaviy axborot vositalari orqali qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida tushunchalar tarqatish.

Shu bilan birga, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilanganidek, fond bozori aylanmasini 200 million

dollardan 7 milliard dollarga etkazish milliy iqtisodiyot rivojida muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu strategik maqsadga erishish uchun yuqorida sanab o‘tilgan beshta chora-tadbirni tizimli va izchil amalga oshirish, shuningdek, fond bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilish, depozitariy xizmatlarini raqamlashtirish, onlayn savdo platformalarini joriy etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, fond bozorini rivojlantirish – bu nafaqat iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, balki mamlakatning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, korrupsiyani kamaytirish, investitsion iqlimni yaxshilash va aholining turmush darajasini oshirishning samarali vositasidir. Kelgusi besh yilda fond bozorini tubdan isloh qilish orqali O‘zbekiston mintaqadagi etakchi moliyaviy markazlardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2025 yildagi PF-254-son “Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. [Elektron manba]: https: //lex.uz/docs/7932083 (qaraldi 10.04.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi PF-5630-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. [Elektron manba]: https: //lex.uz/docs/4160392 (qaraldi 10.04.2026).
3. E. F. Fama, “Efficient capital markets: A review of theory and empirical work, ” *Journal of Finance*, vol. 25, no. 2, pp. 383–417, 1970.
4. R. Levine, "Financial development and economic growth: Views and agenda, ” *Journal of Economic Literature*, vol. 35, no. 2, pp. 688–726, 1997
5. E. F. Fama, “Efficient capital markets: A review of theory and empirical work, ” *Journal of Finance*, vol. 25, no. 2, pp. 383–417, 1970.
6. A. Demirgüç-Kunt and V. Maksimovic, “Law, finance, and firm growth, ” *Journal of Finance*, vol. 53, no. 6, pp. 2107–2137, 1998.
7. World Bank, *Global Financial Development Report*. Washington, DC, USA, 2020.

Kenjebayeva Gulfuza Raxmatillayevna
FDTU, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o’qituvchisi
e-mail: gulfuza1976@gmail.com

MOLIYAVIY AKTIVLAR LIKVIDLIGINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISHNING MAVJUD USULLARINI TANQIDIY TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy aktivlar likvidligini baholash va tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan an’anaviy usullarning nazariy va amaliy cheklovlari tanqidiy tahlil qilinadi. Xususan, bozor likvidligining asosiy ko‘rsatkichlari – spred, savdo hajmi va bozor chuqurligining birja va birjadan

tashqari (OTC) bozorlarda qo‘llanilishi, shuningdek, ushbu usullarning moliyaviy derivativlar kabi murakkab vositalarga tatbiq etilishidagi o‘ziga xos qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavjud uslubiyotlar statik, bir o‘lchovli va OTC hamda derivativ bozorlarning dinamik, ko‘p omilli tabiatini to‘liq aks ettira olmaydi.

Kalit so‘zlar: likvidlik, spred, savdo hajmi, bozor chuqurligi, birjadan tashqari bozor, moliyaviy derivativlar, tanqidiy tahlil.

Kirish. Likvidlik – moliyaviy aktivning qiymatiga sezilarli ta’sir qilmasdan tezda naqd pulga aylantirish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Likvidlikni baholash bozor samaradorligi, narx kashfiyoti va risklarni boshqarishning asosiy elementi hisoblanadi [2, 2205 b.]. Biroq, moliyaviy bozorlarning murakkablashishi, birja va birjadan tashqari savdo mexanizmlarining farqlari, shuningdek, derivativlar kabi murakkab vositalarning keng tarqalishi an’anaviy likvidlik ko‘rsatkichlarining ishonchliligiga shubha tug‘dirmoqda [4, 13b.]. Ushbu maqola mavjud usullarni tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish va ularning cheklovlarini aniqlashga bag‘ishlangan.

Asosiy qism. Bozor likvidligini baholashda eng keng tarqalgan uch ko‘rsatkich – spred (xaridor va sotuvchi narxlari orasidagi farq), savdo hajmi (ma’lum davrdagi bitimlar soni yoki qiymati) va bozor chuqurligi (buyurtmalar kitobidagi ma’lum narx darajasidagi talab va taklif hajmi) hisoblanadi [3, 108-b.].

Spred likvidlikning tezkor indikatori bo‘lsa-da, u faqat bir lahzali vaziyatni aks ettiradi va bozor stressi yoki informatsion asimmetriya sharoitida keskin kengayib, likvidlikning real darajasini buzib ko‘rsatishi mumkin [1, 52-b.]. Masalan, 2008-2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz davrida ko‘plab aktivlar bo‘yicha spred normal darajadan 5-10 baravar kengaygan. Savdo hajmi ko‘pincha “yuzaki likvidlik”ni ko‘rsatadi – yirik institutsional buyurtmalar hajmning kichik qismini tashkil etsa ham, butun hajm likvid deb talqin qilinadi [5]. Bozor chuqurligi esa faqat limitli buyurtmalar kitobi mavjud bo‘lgan markazlashgan birjalar uchun ishonchli; ammo bu ko‘rsatkich ham bozor manipulyatsiyasiga (masalan, “spoofing” – soxta buyurtmalar joylashtirish) nisbatan zaifdir [3, b.].

Birja bozorlarida savdo hajmi, spred va buyurtmalar kitobi real vaqt rejimida ommaviy ravishda taqdim etiladi. Biroq birjadan tashqari (OTC) bozorlar, masalan, forvardlar, svoplar yoki korporativ obligatsiyalarning katta qismi, shaffof emas: bitimlar xususiy ravishda tuziladi, narx va hajm ma’lumotlari kechiktirilgan yoki umuman e’lon qilinmaydi [4, 17b.].

OTC bozorlarda spredni hisoblash uchun odatda brokerlarning indikativ kotirovkalariga tayaniladi, bu esa real bitim narxlaridan sezilarli farq qilishi mumkin [1, 67-b.]. Savdo hajmi ko‘pincha oylik yoki choraklik hisobotlar orqali ma’lum bo‘lib, likvidlikning kunlik o‘zgarishlarini o‘rganish imkonini bermaydi. Bozor chuqurligi OTC bozorlarda deyarli aniqlanmaydi. Shu sababli, birja va OTC ma’lumotlari asosida olingan likvidlik ko‘rsatkichlarini solishtirish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Quyidagi 1-jadvalda birja va OTC bozorlaridagi likvidlik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval

Birja va birjadan tashqari (OTC) bozorlarda likvidlikni baholash imkoniyatlarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	Birja bozori	OTC bozori	Tanqidiy eslatma
Spred (kotirovka)	Real vaqt, ommaviy	Indikativ, kechikkan	OTC da real bitim spredi farq qiladi]
Savdo hajmi	Real vaqt, bitim bo‘yicha	Oylik/choraklik, agregat	OTC da likvidlikning kunlik o‘zgarishlarini aniqlab bo‘lmaydi
Bozor chuqurligi	Buyurtmalar kitobi orqali aniq	Mavjud emas	OTC da chuqurlikni hisoblash imkonsiz
Ma’lumotlarning shaffofligi	Yuqori	Past	Manipulyatsiyaga moyillik yuqori
Likvidlikning vaqt dinamikasi	Sekundlar	Kunlar yoki haftalar	OTC da real vaqtda monitoring qiyin

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, OTC bozorlarida likvidlikni baholashning deyarli barcha an’anaviy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada cheklangan yoki umuman qo‘llanilmaydi.

Derivativlar (fyucherslar, optsionlar, svoplar, forvardlar) o‘zining murakkab tuzilishi, asosiy aktivga bog‘liqligi, muddatlari, ijro narxlari (optsionlar uchun) va garov (margin) talablari bilan ajralib turadi [2, 2210 b.]. An’anaviy likvidlik ko‘rsatkichlarini derivativlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi:

Ko‘p o‘lchovlilik: Har bir derivativ shartnoma o‘zining muddati, strike narxi va turi (call/put) bo‘yicha farqlanadi. Likvidlik bir xil asosiy aktiv uchun ham turli muddatlarda keskin farq qilishi mumkin [5, 215-b.]. Masalan, bir oylik fyuchers likvidi bo‘lishi mumkin, ammo bir yillik fyuchers deyarli likvidsiz.

Birja va OTC aralashmasi: Standartlashtirilgan derivativlar (masalan, birja fyucherslari) birjada savdo qilinsa, forvardlar va svoplar OTC hisoblanadi [4, 25-b.]. Likvidlikni bir xil metodika bilan baholash imkonsiz.

Kontragent riski va garov effekti: OTC derivativlarda likvidlik ko‘pincha kontragentning kredit reytingiga va garov talablariga bog‘liq. An’anaviy usullar bu omillarni hisobga olmaydi [2, 2220-b.].

Sun’iy likvidlik: Ba’zi derivativlar (masalan, optsionlar) market-meykerlar tomonidan taqdim etilgan kotirovkalar tufayli yuzaki likvid bo‘lishi mumkin, ammo yirik buyurtma berilganda spred keskin kengayadi [1, 89-b.].

O‘zbekiston moliya bozori o‘tish iqtisodiyotiga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, likvidlikni baholash va tahlil qilish uslubiyotlarini takomillashtirish masalalari ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlari soni nisbatan kam – 2025-yil 1-noyabr holatiga 399, 8 ming tijorat tashkilotidan atigi 632 tasi aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritmoqda (jami korxonalarning 0, 2 foizi). Taqqoslash uchun, MChJlar ulushi 78, 3 foizni tashkil etadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining bunday kam ulushi fond bozorining torligi va likvidlik muammolarining asosiy sabablaridan biridir.

Davlat ulushiga ega korxonalar holati ham alohida e’tiborga loyiq. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil boshida ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo‘lgan 1776 ta faol korxona hisobga olingan

bo‘lsa, ular bilan bir qatorda 14, 5 mingga yaqin nochor va tugatilayotgan korxona mavjud. Bu holat aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy aktivlari likvidligini baholashda bir qator qo‘shimcha omillarni – xususan, davlat ishtirokidagi korxonalarning alohida hisobot va nazorat tartiblarini hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Respublika fond birjasi (RFB “Toshkent”) mamlakatdagi yagona birja platformasi bo‘lib, u yerda aksiyalar va korporativ obligatsiyalar savdolari amalga oshiriladi. 2025-yilning ikkinchi choragida birjada tuzilgan bitimlar soni 34, 4 foizga, bozor kapitallashuvi esa 482, 2 mlrd so‘mga kamaydi. Mutaxassislar O‘zbekistonda moliya bozorining likvidligi talab darajasida emasligini ta’kidlaydi. Xususan, aksiyalar segmentida likvidlik muammosi saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, ikkilamchi bozorning sustligi va investorlar faolligining pastligi tufayli korxonalarga investitsiya mablag‘larini jalb qilish qiyinlashmoqda.

OTC bozorlari va derivativlar sohasida esa vaziyat yanada murakkab. O‘zbekistonda derivativlar bozorining rivojlanish darajasi hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, qonunchilik bazasining yetarli emasligi, infratuzilmaning shakllanmaganligi va investorlarning cheklanganligi asosiy to‘siqlar hisoblanadi. UZEX (O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi)da forvard shartnomalari va ayrim derivativ vositalar savdolari amalga oshirilsa-da, mazkur vositalarning likvidligini baholashning yagona uslubiyoti mavjud emas. Birja rahbariyatining ta’kidlashicha, faol REPO bozorisiz korporativ obligatsiyalar investorlar uchun jozibador va likvid vosita bo‘la olmaydi.

Bank tizimida esa nisbatan boshqacha rasm kuzatilmoqda. Markaziy bankning 2025-yil III chorak ma’lumotlariga ko‘ra, umumiy likvidlik tarkibiy profitsit sharoitida saqlanib qolgan. Sanoatning muhim ko'rsatkichi sifatida qayd etilishicha, yuqori sifatli likvid aktivlar hajmi 2024-yilning aprel oyida 95, 4 trillion so‘mdan 2025-yil aprelida 143, 3 trillion so‘mgacha oshgan. Banklararo pul bozori faolligi oshib, operatsiyalar hajmi 255, 6 trln so‘mni tashkil etib, oldingi chorakka nisbatan 19 foizga o‘sgan. Biroq bank likvidligi bilan real sektor korxonalarining moliyaviy aktivlari likvidligi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud. Bu holat mavjud likvidlikni baholash usullarining nomukammalligini va sohada maxsus uslubiyotlar ishlab chiqish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Moliyaviy hisobot tizimida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ-282-son qarori bilan MHXS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) asosida moliyaviy hisobot tuzish va auditga nisbatan qat’iy talablarni belgilovchi “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” (PIE) konsepsiyasi joriy etilmoqda. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ kabi yirik aksiyadorlik jamiyatlari 2025-yilning birinchi yarim yilligi uchun o‘z konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarini MHXS talablari asosida tayyorlagan. Biroq, IFRSga o‘tish jarayoni likvidlikni baholash usullariga ham ta’sir qiladi: xalqaro standartlar bo‘yicha tuzilgan hisobotlar an’anaviy milliy usullarga nisbatan aktivlarning bozor qiymatini, qisqa muddatli majburiyatlarni va pul oqimlarini batafsilroq ochib beradi. Bu esa, o‘z navbatida, likvidlik ko‘rsatkichlarini qayta ko‘rib chiqish va mavjud uslubiyotlarni xalqaro talablarga moslashtirish zaruriyatini tug‘diradi.

Shunday qilib, O‘zbekistondagi amaliyot xalqaro tajriba bilan bir qatorda, likvidlikni baholashning milliy xususiyatlarni hisobga oladigan, fond bozori torligi, aksiyadorlik jamiyatlarining kam soni va davlat ishtirokidagi korxonalarning o‘ziga xos holatiga moslashtirilgan uslubiyotlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ushbu vaziyatni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagi 3-jadvalda O‘zbekiston va rivojlangan davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya) misolida likvidlikni baholashning asosiy ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan.

Xulosa va tavsiyalar. Mavjud likvidlikni baholash usullari – spred, hajm va bozor chuqurligi – asosan oddiy aktsiyalar va likvid birjalar uchun ishlab chiqilgan. Ularning OTC bozorlar va derivativlar sohasiga ekstrapolyatsiyasi jiddiy metodologik xatolarga olib keladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kelajakdagi uslubiyotlar quyidagi talablarni qondirishi kerak:

1. Dinamik va ko‘p omilli bo‘lishi – vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanlikni, bozor stressi va likvidlikning o‘z-o‘zini mustahkamlash effektlarini hisobga olish;
2. OTC ma’lumotlarining nomukammalligiga bardoshli statistik usullarni (masalan, Gibbs sampling, imputed data yoki machine learning asosidagi imputatsiya) qo‘llash;
3. Derivativlar uchun asosiy aktiv, muddat, strike va garov omillarini birlashtirgan integral likvidlik indeksini yaratish;
4. Likvidlikning turli o‘lchovlarini (kenglik, chuqurlik, darholik, mustahkamlik) bir vaqtda baholaydigan kompozit indikatorlarni ishlab chiqish;
5. Birja va OTC ma’lumotlarini birlashtirgan yagona ma’lumotlar bazasini yaratish – bu derivativlar va birjadan tashqari aktivlarning real vaqt rejimidagi likvidligini kuzatish imkonini beradi;
6. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini MHXS talablari asosida tayyorlash jarayonini tezlashtirish;
7. REPO bozorini faollashtirish – korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarning likvidligini oshirish maqsadida Markaziy bank bilan hamkorlikda REPO mexanizmini joriy etish;
8. Derivativlar bozorini rivojlantirish – forvard, svop va optsion kabi vositalarning likvidligini baholashning milliy standartlarini ishlab chiqish.

Amaliyotda ushbu tavsiyalarni amalga oshirish uchun birja va OTC ma’lumotlarini birlashtirgan yagona ma’lumotlar bazasini yaratish, shuningdek, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan real vaqt likvidlik monitoring tizimlarini joriy etish lozim. O‘zbekistonning o‘tish iqtisodiyoti sharoitida ushbu chora-tadbirlar nafaqat mavjud uslubiyotlarni takomillashtirishga, balki investorlarning ishonchini oshirish va moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amihud, Y. (2002). Illiquidity and stock returns: cross-section and time-series effects. Journal of Financial Markets, 5(1), 31–56.
2. Hasbrouck, J. (2007). Empirical Market Microstructure. Oxford University Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Pul bozori va likvidlik sharhi – 2025-yil III chorak*.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.09.2025 yildagi PQ-282-son qarori.
5. “Toshkent” respublika fond birjasi. (2025). Faoliyat hisoboti.
6. O‘zbekistonda derivativlar bozorining rivojlanish darajasi. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025.

Кенжабаева Гулфуза Рахматуллавена
Ферганский государственный технический университет, Старший предподователь кафедры «Финансы и бухгалтерский учёт»,
e-mail: gulfuza1976@gmail.com
Камалова Рухшона Тимурхон кизи
Ферганский государственный технический университет
Студентка 3-курса группы 667-23 RI

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФИНАНСОВОМ РЫНКЕ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и применения информационных технологий в развитии современного финансового рынка. Анализируются основные направления цифровизации финансового сектора, включая развитие финтеха, онлайн-банкинга, технологий больших данных и искусственного интеллекта, влияние технологий на эффективность финансовых операций, а также перспективы развития цифровых инструментов. Особое внимание уделяется таким аспектам, как автоматизация процессов, развитие онлайн-банкинга, использование больших данных и технологий искусственного интеллекта.

Ключевые слова: информационные технологии, финансовый рынок, финтех, цифровизация, онлайн-банкинг, искусственный интеллект, Big Data.

Введение. Финансовый рынок является важнейшим элементом современной экономики, обеспечивающим перераспределение финансовых ресурсов между участниками экономической системы. В последние десятилетия его развитие тесно связано с внедрением информационных технологий, которые существенно изменили принципы функционирования финансовых институтов. Современный финансовый рынок развивается под значительным влиянием информационных технологий, которые становятся основным фактором повышения эффективности финансовых операций. В условиях глобализации и цифровой трансформации экономики роль технологий значительно возрастает.

Информационные технологии обеспечивают ускорение обработки данных, повышение прозрачности финансовых процессов и снижение транзакционных издержек. Внедрение цифровых решений позволяет финансовым институтам адаптироваться к изменяющимся условиям рынка и усиливающейся конкуренции [1, 58].

Исследования показывают, что цифровизация финансового сектора способствует не только повышению эффективности, но и формированию новых моделей финансового посредничества [2, 112].

Изучение роли информационных технологий в финансовом секторе является актуальным направлением научных исследований. Многие ученые рассматривают влияние цифровых решений на эффективность финансовых рынков, снижение операционных издержек и повышение качества обслуживания клиентов.

1. **Значение информационных технологий в финансовом секторе**

Информационные технологии играют фундаментальную роль в функционировании финансового рынка. Они позволяют автоматизировать ключевые процессы, такие как обработка платежей, управление активами и анализ рисков.

Современные банки и финансовые организации используют информационные системы для повышения точности и скорости операций. Это способствует снижению операционных рисков и повышению надежности финансовых услуг [3, 74]. Кроме того, внедрение ИТ позволяет минимизировать влияние человеческого фактора и повысить уровень контроля за финансовыми потоками [4, 39].

2. Основные направления развития финансовых технологий

Одним из ключевых направлений является развитие **финтеха (FinTech)**, который объединяет инновационные технологии и финансовые услуги. Финтех-компании предлагают новые решения в области платежей, кредитования и инвестиций [5, 91].

Широкое распространение получил **онлайн-банкинг**, который обеспечивает удаленный доступ к финансовым услугам. Это позволяет клиентам осуществлять операции в любое время и из любой точки мира [1, 102].

Также важным направлением является использование **больших данных (Big Data)**. Анализ больших массивов информации позволяет финансовым организациям:

- прогнозировать поведение клиентов;
- снижать кредитные риски;
- разрабатывать персонализированные продукты [6, 67].

Технологии **искусственного интеллекта** активно применяются для автоматизации процессов, включая обработку заявок, выявление мошенничества и управление инвестициями [2, 145]

3. Влияние ИТ на эффективность финансового рынка

Внедрение информационных технологий значительно повышает эффективность финансового рынка. Это проявляется в:

- сокращении времени проведения операций;
- снижении затрат на обслуживание клиентов;
- повышении точности финансовых расчетов;
- улучшении качества финансовых услуг [3, 118].

Например, автоматизированные торговые системы позволяют осуществлять операции на финансовых рынках в режиме реального времени, что повышает ликвидность рынка и его устойчивость [7, 52].

Кроме того, цифровизация способствует развитию новых финансовых инструментов и услуг, что расширяет возможности для инвесторов и заемщиков [5, 134].

4. Анализ влияния информационных технологий на эффективность финансовых операций

Для оценки влияния информационных технологий на финансовый рынок рассмотрим условные показатели эффективности банковских операций до и после внедрения цифровых решений.

Таблица 1

Динамика эффективности финансовых операций при внедрении ИТ

Период	Кол-во операций (тыс.)	Время обработки (мин)	Затраты (млн сум)	Темп роста (%)
2021	850	15	120	100
2022	1020	12	110	120
2023	1250	9	95	147
2024	1480	7	80	174
2025	1720	5	70	202

Из таблицы видно, что с развитием информационных технологий:
количество операций увеличилось с 850 тыс. до 1720 тыс.;
время обработки сократилось с 15 до 5 минут;
операционные затраты снизились с 120 до 70 млн сум.
Рассчитаем **средний темп роста операций**:
Средний темп роста можно определить по формуле:

$$T_{\text{ср}} = \left(\frac{Y_n}{Y_1}\right)^{\frac{1}{n-1}}$$

$$T_{\text{ср}} = \left(\frac{1720}{850}\right)^{\frac{1}{4}} \approx 1,19$$

Это означает, что в среднем количество операций увеличивалось на **19% ежегодно**.

Средний абсолютный прирост

$$\Delta_{ср} = \frac{1720 - 850}{4} = 217,5$$

Таким образом, ежегодно количество операций увеличивалось в среднем на **217, 5 тыс. операций**.

Вывод по анализу

Полученные результаты подтверждают, что внедрение информационных технологий:

1. значительно увеличивает объем финансовых операций;
2. снижает временные и финансовые издержки;
3. повышает общую эффективность финансового рынка.

Это соответствует выводам современных исследований в области цифровизации финансов [5, 134].

5. Риски использования информационных технологий

Несмотря на преимущества, внедрение ИТ сопровождается определенными рисками. Одной из главных проблем является кибербезопасность. Увеличение объема цифровых данных делает финансовые системы уязвимыми для кибератак [6, 143].

Также существует риск технологических сбоев, которые могут привести к серьезным финансовым потерям. Высокая зависимость от информационных систем требует постоянного контроля и модернизации инфраструктуры [4, 88].

Дополнительно следует учитывать высокие затраты на внедрение современных технологий, что может стать барьером для небольших финансовых организаций [7, 97].

5. Перспективы развития информационных технологий в финансах

В ближайшие годы ожидается дальнейшее развитие цифровых технологий в финансовом секторе. Особое внимание уделяется следующим направлениям:

- ✓ внедрение блокчейн-технологий;
- ✓ развитие цифровых валют;
- ✓ расширение использования искусственного интеллекта;

рост числа полностью цифровых банков [2, 176].

Эти изменения приведут к трансформации финансового рынка и формированию новых бизнес-моделей [5, 158].

Заключение. Таким образом, информационные технологии играют ключевую роль в развитии финансового рынка. Их использование способствует повышению эффективности финансовых операций, снижению затрат и улучшению качества обслуживания клиентов.

В то же время цифровизация требует решения вопросов безопасности и адаптации к новым технологическим условиям. В перспективе именно информационные технологии будут определять развитие финансовой системы.

Список использованной литературы:

1. Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: Darslik / S.Elmirzayev va boshqalar; – T.: “Iqtisod-moliya”, 2022. – стр b.
2. M.P.Eshonov. A.U. Burxanov, X.X. Xudoyqulov Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar -T.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» — 2021 , 448 стр.
3. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. — Pearson, 2018.

4. Saunders, A., Cornett, M. Financial Institutions Management. — McGraw-Hill, 2020.
5. Heffernan, S. Modern Banking. — Wiley, 2005.
6. Rose, P. S., Hudgins, S. Bank Management & Financial Services. — McGraw-Hill, 2012.

Yakubov Valijon Ganiyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: v.yakubov@ferpi.uz.
Turg‘unov Xojiakbar Qaxramonjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
67A-22 BH va A guruhi talabasi

BANK KREDITLARI VA ULARNI KORXONALARNING RIVOJLANISHIGA TA’SIRINI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda bank kreditlarining korxonalar rivojlanishiga ta’siri ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kredit resurslarining ko‘payishi ishlab chiqarish hajmini oshirish, investitsion faollikni kuchaytirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, kreditlash tizimi orqali iqtisodiyotda multiplikativ ta’sir yuzaga kelib, yalpi ichki mahsulot o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kreditlash jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham asoslab berilgan .

Kalit so‘zlar: bank kreditlari, korxona rivojlanishi, investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, moliyaviy resurslar, kreditlash tizimi, kichik biznes.

Kirish. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmlarining oshishi hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda moliyaviy resurslarning o‘rni beqiyosdir. Shu jihatdan, bank kreditlari korxonalar faoliyatini kengaytirish, modernizatsiya qilish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va bank kreditlarining ularning rivojlanishiga ta’sirini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish, bank-moliya tizimini isloh qilish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezident farmon va qarorlari bank kreditlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda [2]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida banklarning kredit siyosatini liberallashtirish, kredit resurslarini

iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirish va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida bank tizimini iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida baholab, banklarning iqtisodiyotdagi rolini alohida ta’kidlab kelmoqda. Xususan, u shunday fikr bildirgan: “Banklar iqtisodiyotimizning qon tomiri bo‘lib, ular orqali investitsiyalar va moliyaviy oqimlar samarali yo‘naltirilishi zarur” [3]. Ushbu yondashuv bank kreditlarining iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdagi muhim o‘rnini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda korxonalar faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslarga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun bank kreditlari asosiy moliyalashtirish manbai bo‘lib xizmat qiladi [4]. Shu bilan birga, kredit resurslaridan samarali foydalanish, ularning qaytaruvchanligi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlash masalalari ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Bank kreditlarining korxonalar rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy resurslarning mavjudligi va ulardan oqilona foydalanish iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida bank kreditlari hajmining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda va bu jarayon real sektor korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2020-yildagi taxminan 250 trillion so‘mdan 2024-yilga kelib 600 trillion so‘mdan oshgan. Ushbu o‘sish sur’atlari bank tizimining iqtisodiyotdagi vositachilik rolini kuchayganidan dalolat beradi va kredit resurslari orqali investitsiya jarayonlari jadallashayotganini tasdiqlaydi [1].

Quyidagi jadval bank kreditlari hajmi, investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada aniqroq ifodalaydi:

1-jadval

Bank kreditlari va iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (shartli-statistik ma’lumotlar asosida)

Yillar	Kreditlar hajmi (trln so‘m)	Investitsiyalar o‘sishi (%)	YAIM o‘sishi (%)	Bandlik o‘sishi (%)
2020	250	5.0	1.9	1.2
2021	320	9.8	7.4	2.5
2022	410	7.2	5.7	2.2
2023	510	8.5	6.0	2.8
2024	620	9.1	6.5	3.1

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kreditlar hajmining ortishi bilan investitsiyalar, YAIM va bandlik ko‘rsatkichlari ham ijobiy o‘sish dinamikasiga ega bo‘lgan. Bu holat kreditlash tizimining iqtisodiyotdagi multiplikativ ta’sirini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kreditlar hajmining ortishi yalpi ichki mahsulot (YAIM) o‘sishi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, 2021-yilda kreditlash hajmining keskin oshishi fonida YAIM o‘sishi 7 foizdan yuqori darajani tashkil etgan bo‘lsa,

keyingi yillarda ham kreditlar hajmining o‘sishi iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan. Bu holat moliyaviy resurslarning iqtisodiyotga samarali yo‘naltirilishi ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar va bandlik darajasiga ijobiy multiplikativ ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Kreditlar orqali moliyalashtirilgan investitsiya loyihalari natijasida yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushiriladi, mavjud korxonalar modernizatsiya qilinadi va bu esa umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [5].

Korxonalar faoliyati misolida qaralganda, bank kreditlari asosan ishlab chiqarishni kengaytirish, aylanma mablag‘larni to‘ldirish va asosiy vositalarni yangilashga yo‘naltirilmoqda. Statistik kuzatuvlarga ko‘ra, ajratilgan kreditlarning qariyb 35–40 foizi ishlab chiqarish hajmini oshirishga, 20–25 foizi texnik va texnologik modernizatsiyaga, 15–20 foizi esa aylanma mablag‘larni moliyalashtirishga sarflanadi. Bu ko‘rsatkichlar kreditlarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashdagi o‘rnini yaqqol ifodalaydi. Ayniqsa, modernizatsiyaga yo‘naltirilgan kreditlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida bank kreditlarining roli yanada muhimroqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlarining 70 foizdan ortig‘i o‘z faoliyatini kengaytirishda bank kreditlariga tayanadi. Ayniqsa, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida bu ko‘rsatkich 75 foizgacha yetadi. Shu bilan birga, kreditlash orqali kichik biznes subyektlarida yangi ish o‘rinlari yaratilishi ham kuzatilmoqda. Kredit hisobidan moliyalashtirilgan loyihalar orqali o‘rtacha 5–10 ta yangi ish o‘rni yaratilishi aniqlangan. Bu esa kreditlash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ham oshiradi [3].

Tahlillar davomida kreditlarning korxonalar moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’siri ham o‘rganildi. Kredit mablag‘laridan samarali foydalangan korxonalarda rentabellik darajasi o‘rtacha 10–15 foizga oshgani kuzatilgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish hajmi 1, 2–1, 5 barobar, eksport ulushi esa ayrim hollarda 20 foizgacha oshgan. Bu natijalar kredit resurslarining to‘g‘ri yo‘naltirilishi korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kreditlardan noto‘g‘ri yoki samarasiz foydalanilgan holatlarda aksincha natijalar, ya’ni qarzdorlikning ortishi va moliyaviy muammolar yuzaga kelishi ehtimoli ham mavjud.

Bank kreditlarining iqtisodiyotga ta’sir mexanizmini quyidagicha izohlash mumkin: dastlab kredit resurslari investitsiyalarga aylanadi, investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshiradi, ishlab chiqarishning kengayishi esa daromadlar va bandlikning ortishiga olib keladi. Natijada esa umumiy iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi. Ushbu jarayon iqtisodiy adabiyotlarda “kredit-investitsiya multiplikatori” sifatida talqin qilinadi va u iqtisodiy tizimda muhim rol o‘ynaydi [4].

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar kreditlash tizimida mavjud muammolarni ham aniqlash imkonini berdi. Eng asosiy muammolardan biri bu kredit olish jarayonining murakkabligi va ortiqcha byurokratik talablar bilan

bog‘liqdir. Korxonalar ko‘pincha kredit olish uchun ko‘plab hujjatlarni taqdim etishga majbur bo‘ladi, bu esa vaqt va resurslarning ortiqcha sarflanishiga olib keladi. Bundan tashqari, foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi ham kreditga bo‘lgan talabni cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ayrim tijorat banklarida kredit foiz stavkalari 20–25 foiz atrofida bo‘lib, bu ko‘rsatkich ishlab chiqarish korxonalari uchun sezilarli moliyaviy yuk hisoblanadi.

Yana bir muhim muammo – bu garov ta’minoti bilan bog‘liq cheklovlardir. Ko‘plab kichik biznes subyektlari yetarli garov ta’minotiga ega emasligi sababli kredit olish imkoniyatidan mahrum bo‘lmoqda. Bu esa iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning teng taqsimlanmasligiga olib keladi. Hududlar kesimida ham kredit resurslarining notekis taqsimlanishi kuzatiladi, ya’ni asosiy kreditlar iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarga yo‘naltirilmoqda, kam rivojlangan hududlarda esa kreditlash darajasi pastligicha qolmoqda.

Olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, bank kreditlari korxonalar rivojlanishining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi va ular iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, kreditlash tizimining samaradorligini oshirish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish zarur. Xususan, kredit olish jarayonlarini soddalashtirish, foiz stavkalarini maqbullashtirish, garovsiz kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish va kredit resurslarini hududlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kreditlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, biznes-rejalashtirishni rivojlantirish va risklarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu esa kredit mablag‘larining maqsadli ishlatilishini ta’minlaydi va ularning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar bank kreditlari va korxonalar rivojlanishi o‘rtasida mustahkam ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Kreditlash tizimi iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda va uning samarali ishlashi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot natijalari bank kreditlari korxonalar rivojlanishining muhim moliyaviy manbasi ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Xususan, kredit resurslarining ortib borishi ishlab chiqarish hajmining kengayishi, investitsion faollikning oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda korxonalarning moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kredit mablag‘laridan samarali foydalangan korxonalarda rentabellik darajasi oshib, eksport salohiyati kengaymoqda hamda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, kreditlash tizimi orqali iqtisodiyotda “kredit–investitsiya multiplikatori” mexanizmi shakllanib, umumiy makroiqtisodiy rivojlanishga turtki bermoqda .

Biroq, tadqiqot davomida kreditlash tizimida bir qator muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, kredit olish jarayonining murakkabligi, yuqori foiz stavkalari, garov ta’minoti bilan bog‘liq cheklovlar hamda hududlar kesimida

kredit resurslarining notekis taqsimlanishi korxonalar, ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda. Ushbu omillar kreditlardan foydalanish samaradorligini pasaytirishi va iqtisodiy imkoniyatlarning to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Shu asosda quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va raqamlashtirish zarur. Bu orqali ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, kredit olish muddatlarini qisqartirish va tadbirkorlar uchun qulay moliyaviy muhit yaratish mumkin.

Ikkinchidan, kredit foiz stavkalarini maqbullashtirish hamda uzoq muddatli va imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish lozim. Bu ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy yukini kamaytirib, investitsion faollikni rag‘batlantiradi.

Uchinchidan, garovsiz yoki qisman garov asosida kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kichik biznes va startap loyihalar uchun kafillik fondlari va sug‘urta mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

To‘rtinchidan, kredit resurslarini hududlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash siyosatini kuchaytirish lozim. Bu orqali iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarda ham tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni oshirish mumkin.

Beshinchidan, korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, biznes-rejalashtirish va risklarni boshqarish amaliyotini keng joriy etish talab etiladi. Bu kredit mablag‘laridan samarali foydalanish va ularning qaytaruvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bank kreditlash tizimini yanada takomillashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etish va zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni joriy etish orqali korxonalar rivojlanishini jadallashtirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

6. Mishkin, F. S. (2007). The economics of money, banking, and financial markets. Pearson education.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni.

8. Shavkat Mirziyoyev nutqlari va ma’ruzalari to‘plami. – Toshkent, 2017–2024.

9. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Singer, D. (2015). Corrigendum to ’Is Small Beautiful? Financial Structure, Size and Access to Finance’[World Dev. 52 (2013) 19–33]. World Development, 66, 778.

10. Levine, R. (2005). Finance and growth: theory and evidence. Handbook of economic growth, 1, 865-934.

Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: g.k.isomitdinova@fstu.uz
Rahimov Shaxriyor Hayotjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi.

MAMLAKAT MOLIYA-KREDIT MEXANIZMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. O‘zbekiston sharoitida moliya-kredit tizimini isloh qilish iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida moliya-kredit mexanizmining hozirgi holati, undagi asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari moliya tizimini takomillashtirish, bank sektorini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: moliya-kredit mexanizmi, bank tizimi, kreditlash, foiz stavkasi, moliyaviy bozor, iqtisodiy islohotlar.

KIRISH. Zamonaviy iqtisodiyotda moliya-kredit mexanizmi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu mexanizm orqali moliyaviy resurslar shakllantiriladi, taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. O‘zbekiston sharoitida moliya-kredit tizimini isloh qilish iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda moliya-kredit mexanizmi - bu iqtisodiyotda pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi tizimdir. U davlat, banklar, korxonalar va aholi o‘rtasidagi moliyaviy aloqalarni o‘z ichiga oladi. Moliya-kredit mexanizmi - bu moliyaviy resurslarni yig‘ish (soliqlar, jamg‘armalar), ularni taqsimlash va qayta taqsimlash hamda kredit berish va undan foydalanish jarayonlarini boshqaruvchi usullar, vositalar va institutlar yig‘indisidir. **Bank tizimi** - bu moliyaviy institutlar (asosan banklar) va ularning faoliyati orqali pul mablag‘larini boshqarish, saqlash, taqsimlash va iqtisodiyotda aylanishini ta’minlaydigan tizimdir. **Kreditlash** - bu bank yoki boshqa moliyaviy tashkilot tomonidan mijozga ma’lum muddatga, foiz evaziga pul mablag‘i berish jarayonidir. **Foiz stavkasi** - bu kredit yoki omonat bo‘yicha puldan foydalanish uchun to‘lanadigan (yoki olinadigan) haq foizlarda ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning hajmi so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi: 2025-yil 1-oktabr holatiga tijorat banklari kreditportfeli 582 211 mlrd so‘mga yetdi. Shu bilan birga, aholiga berilgan kreditlar portfeldagi ulushi 36 % ni tashkil qilmoqda va bu ko‘rsatkich yil davomida 23 % ga o‘sdi. Biroq, mamlakatimizda kreditlash mexanizmi hamda bank xizmatlari xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy moliyaviy mexanizmlarga mos ravishda takomillashtirilsa -bu nafaqat kredit sifatini oshiradi, balki tadbirkorlik va

aholining umumiymoliyaviy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu asosda, O‘zbekiston moliya-kredit tizimini xalqaro standartlar va zamonaviy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish, kreditlash mexanizmini samaraliroq va shaffof qilish, hamda islomiy moliya shakllarini joriy etish orqali aholiga va iqtisodiyotga yangi imtiyoz va imkoniyatlarni yaratish bugungi kunda dolzarb masaladir. [1]

ASOSIY QISM. Mavzuni statistik ma’lumotlar bilan yoritib o‘tamiz. Ilg‘or xorijiy tajriba va xalqaro moliyaviy standartlar, jumladan islomiy moliya tamoyillari adabiyoti o‘rganildi. Kreditlash mexanizmi, risk-baho, mijozlarni baholash (scoring), monitoring va shaffoflik jihatlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. 2025 yil iyul holatiga davlat banklari kreditlarning 69 % ini ta’minlagan. Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki -hozirgi kreditlesh tizimi aholiga va sanoat -qishloq xo‘jaligiga yetarlicha xizmat qilmoqda, ammo strukturaviy va mexanizmlar jihatidan modernizatsiyaga ehtiyoj bor. 2024 yil dekabrida Markaziy bank xalqaro islomiy moliya standartlari bo‘yicha reglament ishlab chiqish va tartibga solish uchun Islamic Financial Services Board ga a’zo bo‘ldi. 2025 yil 10-oyda e’lon qilinishicha, 2030 yilgacha kamida 10 ta islom bank tashkil etilishi kutilmoqda.

Islom banklari kredit va moliyalashtirish amaliyotida “foiz (riba)” o‘rniga “foyda-zarar bo‘yicha sheriklik”, aktiv asosida moliyalashtirish, shariatga mos savdo, ijara, leasing kabi shakllarni qo‘llaydi. Bu tizim, odatiy banklardan farqli o‘laroq, mijoz va bank o‘rtasida “kredit beruvchi-kredit oluvchi” emas, balki “tadbirkor -sherik” munosabatini o‘rnatadi. Natijada, islomiy moliya shakidlari O‘zbekiston sharoitida nafaqat diniy jihatdan mos, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali muqobil bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi holatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank tizimi hozirda jismoniy va yuridik shaxslarga kredit berishda faol -lekin kreditlashda raqamli baholash, riskmonitoring, shaffoflik va xalqaro standartlarga moslik yetishmaydi. Bu masala ayniqsa kichik va mikro biznes, qishloq xo‘jaligi va yosh tadbirkorlar uchun dolzarb. Shu bois, ilg‘or xorijiy tajriba -masalan, sun’iy intellekt , big data asosida kredit scoring, kredit risklarini real vaqtda monitoring qilish, avtomatlashtirilgan kredit berish- O‘zbekiston bank sektori uchun moslashtirilishi lozim [2].

Islomiy moliya va islom banklari joriy etilishi- kreditlash mexanizmini transformatsiyaqilish uchun muhim vosita bo‘lishi mumkin. Chunki ular foizga asoslanmagan, aktiv asosidagi, sheriklik va foyda-zarar ulushiga asoslangan mexanizmlar taklif qiladi. Bu, ayniqsa, diniy e’tiqodi bo‘lgan aholiga va tadbirkorlarga mos.

Biroq, mavjud qonunchilik va regulyativ bazada ba’zi cheklovlar mavjud -banklar savdo bilan bevosita shug‘ullanmasligi, islomiy kredit/ moliyalashtirish shakllarini qo‘llashga to‘siqlar bo‘lishi mumkin. Banklar yuqori tavakkalga asoslanmagan faliyat olib boradi. Kredit oluvchi biror faoliyatga kiritgan mablag‘ini qaytaraolmagan holatda qarzdor juda katta iqtisodiy inqirozga kirib ketadi [4].

Shunday ekan, modernizatsiya va islomiy moliyalashtirishni joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos kreditlash mexanizmini yaratish muhim. Bugungi

kunda moliya-kredit mexanizmidagi asosiy muammolar qatorida quyidagilar mavjud:

1. Kredit resurslariga kirish imkoniyatining cheklanganligi.Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun kredit olish jarayonining murakkabligi iqtisodiy faollikni pasaytiradi. Garov ta’minoti talablari yuqoriligi asosiy to‘siqlardan biridir.

2. Foiz stavkalarining yuqoriligi.Yuqori foiz stavkalari investitsion loyihalarning samaradorligini kamaytiradi va tadbirkorlik rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Bank tizimida raqobatning yetarli emasligi.Davlat ulushi yuqori bo‘lgan banklarning ustunligi xususiy sektor rivojlanishini cheklaydi.

4. Muammoli kreditlar ulushi. Kredit portfelidagi muammoli kreditlarning mavjudligi bank tizimi barqarorligiga xavf tug‘diradi.

5. Moliyaviy bozorlarning rivojlanmaganligi. Qimmatli qog‘ozlar bozori va boshqa moliyaviy instrumentlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi investitsiya imkoniyatlarini cheklaydi.

Fikrimizcha ushbu muammolarni bartaraf etish yo‘llari sifatida kreditlash tizimini takomillashtirish, garovsiz kreditlash mexanizmlarini joriy etish, mikromoliya institutlarini rivojlantirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, pul-kredit siyosatini optimallashtirish, inflyatsiyani pasaytirish orqali foiz stavkalarini kamaytirish, moslashuvchan monetar siyosat yuritish zarur bo‘ladi. [3]

Xulosa. O‘zbekistonda moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish orqali moliyaviy tizim samaradorligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish mumkin. Kredit mablag‘lari ajratilgach, ularning ishlatilishi, loyihaning rivoji, daromad/qarz bozori holati monitoring qilinishi kerak.

Bu kredit qaytmasligi xavfini kamaytiradi. Islomiy moliya institutlari va banklar tarmog‘ini yo‘lga qo‘yish zarur. Tadbirkorlar va aholiga ma’lumot - moliyaviy savodxonlik oshirish bilan birga Islomiy moliya, murabaha, musharaka, ijar, aktiv asosida kreditlash kabi tushunchalarni oddiy tilda tushuntirish zarur.

Yoshlarga, aholi qishloq joylarida yashovchilarga va boshlang‘ich tadbirkorlarga kredit va moliyalashtirish imkoniyati yaratish kerak. Mamlakatimizda moliya-kredit tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va islomiy moliyalashtirish shakllarini keng joriy etish -iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy adolat, va ijtimoiy moslashuv jihatdan muhim va foydali yo‘l.

Tizimni yanada shaffof va samarali qilish, risklarni kamaytirish hamda keng ko‘lamli mijozlar -tadbirkorlar va oddiy fuqarolar uchun qulaylik yaratish zarur. Islomiy moliya institutlari va raqamli kreditlash, monitoring mexanizmlari bu maqsadga erishishda muhim vosita bo‘lishi mumkin. Umuman, moliya-kredit mexanizmlarining modernizatsiyasi investitsiyaviy faollikni oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish, iqtisodiy o‘sish drayverlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. Toshkent, 2022
2. Jo‘rayev M. M. Real sektorda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uchraydigan muammolar va yechimlar // Iqtisodiy tahlil. 2022. No4. B. 45–50.
3. Rasulov A. X. O‘zbekistonda zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish istiqbollari // Moliya. 2021. No3. B. 30-36.
4. Hasanov X. Q. Moliyaviy savodxonlik va raqamli moliya xizmatlarini rivojlantirishning real sektorga ta’siri // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. 2023. No2. B.218.

Maxmudov Anvarjon Maxmudovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi
e-mail: anvar_maxmudov1968@mail.ru

SOLIQ MA’MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHIDA KADRLAR TAYYORLASHGA KONSEPTUAL YONDOSHUV ORQALI MEHNAT UNUMDORLIGIGA ERISHISH YO‘LARI

Annotatsiya. Kadrlar tayyorlash asosiy e’tibor ta’lim jarayonidagi sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ya’ni jahon andozalariga mos raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o‘quv jarayonini yaxshilash, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsion texnologiyalarini amalda joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanish va shu asosda masofadan o‘qitishni keng joriy qilishdan iboratdir. Ish kunlari hamda mehnatga haq to‘lashni ilg ‘or tajribalarini qo ‘llash orqali samaradorlikka erishish

Kalit so‘zlar Ta’lim sifati va usuli, raqamli tahlil, texnik vositalarb dual ta’lim, ish kunlari, sun’iy intellekt, samaradorlik.

Mamlakatda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

So‘nggi ikki yilda soliq bazasi kengaygani hisobiga byudjetga tushumlar iqtisodyot sur’atlariga nisbatan tezroq o‘smoqda. Xalqaro valyuta jamg‘armasi ham mazkur natijalarga soliq ma’murchiligini kuchaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali erishilayotganini e’tirof etmoqda. Shu bilan birga, tizimni izchil isloh qilish orqali 2030-yilga borib, soliq tushumlarini 491, 5 trillion so‘mga yetkazish, iqtisodiyotda kuzatilmaydigan ulushni esa 28 foizdan 19, 6 foizgacha qisqartirish maqsad qilingan. Soliq tushumlarini oshirishdagi eng katta zaxira yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdir.

Prezidentimiz raqamli tahlil va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanib, “aqlli” nazorat tizimini joriy etish orqali joriy yilda budjetga

qo‘shimcha 30 trillion so‘m tushumni ta’minlash zarurligini ko‘rsatib o‘tdi. Bu savdo va xizmatlar, sanoat, qurilish, umumiy ovqatlanish hamda boshqa sohalarda P2P-operatsiyalar monitoringi, tovarlarni markirovkalash, raqamli nazoratni kuchaytirish, yuklarni hujjatsiz tashish faoliyatini avtomatik aniqlash va norasmiy bandlikni rasmiylashtirish kabi mexanizmlardan keng foydalanish hisobiga ta’minlanishi mumkin.

Bozorlar va savdo majmualarida bugungi kunda 72 mingdan ortiq chakana savdo subyekti faoliyat yuritmoqda. Biroq ularning 38 mingdan ortig‘i tovar aylanmasini oyiga 1 million so‘mdan kam ko‘rsatgan, 40 mingdan ziyodi esa kuniga atigi 2-3 ta chek bermoqda. Shuningdek, bozorlardagi 12 mingta savdo nuqtasi bo‘yicha ijara shartnomalari hisobga qo‘yilmagan. Natijada 37 ming tadbirkor oyiga 500 ming so‘mdan kam soliq to‘lagan.[2]

Yangi O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo‘lini ta’minlash uchun ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarnig salohiyatiga bog‘liqdir.

Shu bois sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg‘or davlatlar ta’limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalardan biriga aylandi.

Soliq organlari faoliyatidagi eng asosiy masala kadrlar salohiyati bo‘lib, so‘nggi yillarda bu yo‘nalishdagi ishlar yetarli darajada tashkil etilmagani sababli kadrlar qo‘nimsizligi oshgan. Xodimlarning malakasini oshirish darajasi pastligi, moddiy rag‘batlantirish tizimi zamon talablariga javob bermasligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yetarli emasligi, xususan, 2022-yilda 3 mingdan ortiq xodim malaka oshirgan bo‘lsa, o‘tgan yili bor-yo‘g‘i 700 nafari qayta o‘qitilgan.

Shu munosabat bilan kadrlar malakasini oshirish, uzluksiz ta’limni yo‘lga qo‘yish maqsadida kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida Soliq qo‘mitasi huzuridagi Soliq akademiyasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralari belgilandi.

Soliq ma’murchiligida raqamli texnologiyalar, tahlil va sun’iy intellekt asosida mutlaqo yangi ish uslubini joriy etish, tadbirkorlar uchun qulay va adolatli soliq muhitini yaratish hamda sohada malakali kadrlar korpusini shakllantirish masalalari ko‘rildi.

Soliq tizimi faoliyatini “tekshiruvdan – servisga” tamoyili asosida transformatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirish va nazoratning zamonaviy, samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifa sifatida belgilandi [2].

Soliq tizimiga kadrlar tayyorlashda asosiy e’tibor ta’lim jarayonidagi sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ya’ni jahon andozalariga mos raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarning yechimini topib, ularni amalda keng qo‘llash ta’lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o‘quv jarayonini yaxshilash, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish,

o‘qitishning zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsion texnologiyalarini amalda joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanish va shu asosda masofadan o‘qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta’lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo‘ladi. Bu o‘qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta’lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta’limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo‘lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo‘lsa, ta’lim umummiylikka egadir.

Ta’lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob’ektiv borliqdagi voqea-hodisalarning intiqosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo‘ladigan tushunchalar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifatida belgilansa, bilim individuallikka ega bo‘ladi. Ta’limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo‘lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalariga beriladigan ta’lim bir xildir.

O‘qituvchi bilim emas, balki ta’lim beradi. Talaba esa ana shu ta’lim jarayonida bilimga ega bo‘ladi. Buning uchun u mustaqil o‘qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo‘ladi, eshitganlari va o‘qitganlarini sintez qiladi, natijada bilimga ega bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, davlatning gullab yashnashi, samarali faoliyat yuritishi uning kim tomonidan faoliyat olib borishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan hozirgi kadrlarga davrning o‘zi jiddiy va ma’suliyatli talablarni qo‘ymoqda. Endilikda kadrlarning asosiy vazifasi ish jarayonini tashkil etish bilan chegaralanib qolmay, balki imkon boricha iqtisodiy jihatdan barqarorlikni ta’minlashni samarali yo‘lga qo‘yishni ham taqazo etmoqda. Chunki bugungi kadrlar bozor muhitida ishlayaptilar. Har bir xodim o‘z ish sifatini oshirish yo‘llarini izlashdan tortib, qo‘shimcha mablag‘ topishga tegishli bo‘lgan ko‘plab qarorlar, usullarni qidiradi. Malakali kadrlar bular - menejerlar hamdir.

Vaziyat tahlili shuni ko‘rsatadiki:

Birinchidan, iqtisodiyot jamiyatning shunday yagona tarmoqlaridan biriki, xodimlar bir paytning o‘zida murakkab qatlam xaridor, iste’molchi, tadbirkor umumiy qilib aytganda xalq bilan ish olib boradi. Bu kadrning o‘ziga xos murakkab shakli hisoblanadi.

Ikkinchidan, bugungi kun xodimdan tengi yo‘q tashkilotchi, huquqiy va iqtisodiy bilimlardan boxabar zamonaviy kadr bo‘lishni talab etadi. U pedagogika, psixologiyaga oid bilimlarni bilishi darkor. Kadrlarning salohiyati iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi asosiy g‘oyalarni amalga tatbiq etish orqali mamlakat iqtisodiyoti taqdirini, istiqbolini belgilaydi.

Uchinchidan, hozirgi paytda zamonaviy kadr u hayotiy zarurat bo‘lgan yangi texnologiyalarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

To‘rtinchidan, tez o‘zgarayotgan davrda zamonaviy yangi tipdagi kadrlar mamlakatimiz uchun zarurdirlar.

Beshinchidan, islohotlar, o‘zgarishlar, takomillashtirish- bularning barchasi iqtisodiyot sifatini oshirish, aholining intellektual salohiyatini rivojlantirish va jahon bozorida raqobatbardosh mutaxassislarga ega bo‘lishiga imkon yaratadi.

Shu o‘rinda ish vaqtini to‘g‘ri taqsimlanishi orqali yuqori unumdorlikka erishgan chet el firmalarini tajribasini bir ko‘rib chiqsak:

Besh kunli ish haftasi bu ko‘p davlatlarni shakllanib bo‘lgan va chuqur ildiz otgan odatiy tizimi. Microsoft kompaniyasi o‘tkazgan tajriba orqali bu tizimni sindirish vaqti keldi.“Microsoft kompaniyasining Yaponiyadagi bo‘limi haftasiga 4 kunlik ish kuni belgilash oqibatida ish unumdorligin 40 foizga oshishga erishibdi”.

Bizda bu tizimni joriy etsa qanday natijalarga eriish mumkin. Ishchilar o‘z ish vaqtlarini qadrlay boshlaydilar. Eng muhimi majlisvozliklar qisqaradi. Ichki turizm rivojlanadi. Ota-onalarni farzand taribiyasiga vaqt ajratishi oshadi. Bundan tashqari yaxshi dam olgan xodimda mehnat unumdorligi yuqori bo‘ladi.

Qo‘shimcha plyus bo‘lib, elektr energiyasi, suv iste’moli keskin qiqaradi, ishlatilayotgan qog‘oz sarfi kamaydi.

To‘g‘ri tajriba o‘tazuvchi kompaniya uchun salbiy tomonlari ham bor masalan mijozlar bilan ishlashda vjudga kelishi mumkin ular 5 kunlik ishlayotgan raqabotdosh korxonaga o‘tib ketishi mumkin.

Keltirilgan konseptual yo‘riqlarga asoslangan holda quyidagi takliflarni kiritmoqchiman:

1.Kadrlarni tayyorlashda dual talim o‘qitish yo‘nalishiga etiborni ko‘proq qaratish;

2.Kadrlarga sifatli bilim berish uchun guruhdagi o‘quvchilar sonini keskin qisqartirish

3.Haftalik o‘quv yuklamalarini to’rt kunlikka to‘liq o‘tkazish;

4.Tajriba sifatida 4 kunlish ish haftasini amaliyotga joriy etish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4389-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti husurida 2026-yil 6-aprel kungi “Soliq ma’murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari taqdimot”idan.

3. Internet sahifasi www.popmech.ru

Boymatov Tuychivoy Alijonovich
Farg‘ona viloyati oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i
e-mail: tuychiboyboymatov@gmail.com

HUDUDIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA TA’LIM INTEGRATSIYASINING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda ta’lim integratsiyasining iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Xususan, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sub’ektlari o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, uning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, Germaniya, Janubiy Koreya va Finlyandiya davlatlarining ilg‘or tajribalari o‘rganilib, ular asosida O‘zbekiston sharoiti uchun mos modellar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim integratsiyasi, hududiy iqtisodiyot, inson kapitali, dual ta’lim, iqtisodiy mexanizmlar, innovatsion rivojlanish, ta’lim klasterlari, mehnat bozori, davlat-xususiy sheriklik, raqamli iqtisodiyot.

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan inson kapitali sifatini oshirish bilan bog‘liq. Bu esa ta’lim tizimining samarali tashkil etilishi va uning ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalari bilan integratsiyalashuv darajasiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari va kasb-hunar ta’limi tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirish hududlarda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta’lim integratsiyasining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda iqtisodiyot bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tayotgan bir paytda, ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim vazifaga aylanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson kapitali rivojlanishi iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi va ta’limga qilingan investitsiyalar mehnat unumdorligi va innovatsion faollikni oshiradi [1]. Shu bilan birga, O‘zbekiston aholisining katta qismi yoshlardan iborat bo‘lib, bu demografik omil iqtisodiy imkoniyat yoki xavfga aylanishi mumkin. Agar ta’lim tizimi samarali integratsiya qilinsa, mazkur demografik o‘sish “demografik dividend”ga aylanadi. Aks holda, ishsizlik va malakali kadrlar yetishmasligi muammosi yuzaga kelishi mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli ta’limni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi [2]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim va inson kapitali iqtisodiy transformatsiyaning asosiy ustuni sifatida belgilangan. Shuningdek, ta’lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o‘rtasidagi nomuvofiqlik (skills mismatch) hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [3].

Bu holat ta’lim mazmunining amaliyotdan uzoqligi va ish beruvchilar bilan hamkorlikning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda ta’lim integratsiyasining iqtisodiy

mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida ta’lim integratsiyasini rivojlantirish quyidagi muhim amaliy tarmoqlarni qamrab oladi.

1. Mehnat bozori muammolarini hal etish. Ushbu tarmoq ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya kadrlar tayyorlashni real iqtisodiyot ehtiyojlariga yaqinlashtiradi. Bu esa, ishsizlik darajasini kamaytirish, malakali kadrlar tanqisligini bartaraf etish, yoshlar bandligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi .

2. Hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish. Bu yo‘nalish orqali har bir hududning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos ta’lim tizimini shakllantirishida mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish vazifalarni qamrab olingan. Bu esa hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish. Bu tarmoq asosida ta’lim integratsiyasi ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani kuchaytiradi. Ya’ni, universitet–sanoat hamkorligi kuchaytiiladi, startap va texnoparklar rivojlanadi, yangi texnologiyalarni joriy etiladi. Natijada innovatsion faollik va iqtisodiy samaradorlik oshirish mumkin.

4. Inson kapitali sifatini oshirish. Inson kapitali indeksi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim sifatini yaxshilash bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar sifatida ta’lim integratsiyasi orqali amaliy ko‘nikmalar shakllanadi, raqamli kompetensiyalar rivojlanadi, xalqaro mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlanadi

5. Davlat siyosatining samaradorligini oshirish borasida, ta’lim integratsiyasi davlat siyosatining quyidagi yo‘nalishlarida samaradorlikni ta’minlanadi. Xususan, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, ta’limga investitsiyalarni ko‘paytirish, ta’lim tizimini raqamlashtirish, Bu esa uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Ushbu mexanizmlarni xorijiy tajribalar nuqtai nazaridan tahlil qilinganida rivojlangan davlatlarda ta’lim va iqtisodiyot integratsiyasi quyidagi modellar asosida amalga oshiriladi:

1. Germaniya tajribasi (Dual education system) tizimi bo‘yicha. Germaniyada dual ta’lim tizimi orqali talabalar bir vaqtning o‘zida ta’lim muassasasida o‘qish va korxonalarda amaliy tajriba orttirish imkoniga ega. Bu tizim mehnat bozori talablariga tez moslashuvni ta’minlaydi.

2. Janubiy Koreya tajribasi bo‘yicha. Janubiy Koreyada universitetlar sanoat korxonalari bilan innovatsion klasterlar orqali hamkorlik qiladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishga joriy etiladi.

3. Finlyandiya tajribasi. Finlyandiyada ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv ustuvor bo‘lib, ish beruvchilar ta’lim dasturlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ta’lim integratsiyasi iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri hisoblanadi.

Hududiy iqtisodiyot rivojlanishida ta’lim integratsiyasining iqtisodiy mexanizmlari inson kapitalini hududiy ehtiyojlarga moslashtirish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va klasterlashish orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizmlar oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalarini o‘zaro manfaatli hamkorlikka birlashtirib, mintaqa raqobatbardoshligini oshiradi.

Xususan, hududiy ta’lim integratsiyasining iqtisodiy mexanizmlari sifaktida quyidagilarni keltirish mumkin.

Ta’lim va ishlab chiqarish klasterlari. Hududiy iqtisodiyotda ishlab chiqarish korxonalari, kollej va universitetlarning yagona tarmoqqa birlashishi (klasterlashish). Bu kadrlar buyurtmasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri sanoat ehtiyojlariga moslaydi.

Inson kapitaliga investitsiya. Hududiy korxonalar tomonidan ta’lim muassasalariga sarmoya kiritilishi, dual ta’lim tizimini joriy etish va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish.

Innovatsion infratuzilmani shakllantirish. Texnoparklar, biznes-inkubatorlar va ta’lim muassasalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy va texnik aloqalarni o‘rnatish.

Mehnat bozori va ta’lim muvozanati. Hududiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga ko‘ra, kadrlarni tayyorlashning o‘rta va uzoq muddatli prognoz mexanizmlarini qo‘llash.

Ta’lim integratsiyasi hududlardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yagona intellektual va moddiy resurslar bazasidan foydalanishi orqali, mintaqa iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekistonda ta’lim integratsiyasining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, balki hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik omili hisoblanadi. Bu jarayon inson kapitali sifatini oshirish, mehnat bozorini muvozanatlashtirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda ta’lim integratsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Samarali iqtisodiy mexanizmlar orqali ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy aloqalarni kuchaytirish mumkin. Xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda ta’lim integratsiyasini rivojlantirish hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rasulovna M. K.. Innovation teaching method in primary education //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 5. – S. 31-34

2. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 2018.

3. Schultz T.W. Investment in Human Capital. – New York: Free Press, 2015.

Ashurov Zafar,
Turan International University
m.iqt.25-au guruhi magistranti

FINTEX INNOVATSIYASI SIFATIDA BLOKCHEYN: MOLIYAVIY HISOBOT SIFATI VA INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Tadqiqotda blokcheyn texnologiyasining moliyaviy hisobot sifatiga ko‘rsatadigan ta’siri xususan, ma’lumotlar yaxlitligini mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va manipulyatsiya imkoniyatlarini kamaytirish orqali investitsiya qarorlarining samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Tadqiqot blokcheynni qabul qilishning yetarli daromad va foyda keltirib chiqarishi yoki chiqarmasligi masalasi hali-hamon ochiq ilmiy muammo bo‘lib qolayotganini ta’kidlaydi va ushbu sohada qo‘shimcha empirik tadqiqotlar o‘tkazish zaruratini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: blokcheyn texnologiyasi, investitsiya samaradorligi, taqsimlangan registr texnologiyasi, ma’lumotlar yaxlitligi, shaffoflik, daromadlarni boshqarish, audit sifati, korporativ boshqaruv, FinTex innovatsiyalari.

Ushbu tadqiqot kompaniyalarning blokcheyn texnologiyasini qabul qilishi ularning investitsiya samaradorligi bilan qanday va qay darajada bog‘liqligini o‘rganadi. Roy-chowdhury (2019) ta’kidlaganidek, real vaqt rejimida tasdiqlangan ma’lumotlarni taqdim etuvchi taqsimlangan registr texnologiyalari moliyaviy hisobot va korporativ investitsiyalar o‘rtasidagi munosabatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1]. Bu esa blokcheyn texnologiyasining moliyaviy hisobot amaliyotlarini o‘zgartirish orqali korporativ investitsiya qarorlarining samaradorligiga ta’sir eta olishini anglatadi. Ushbu maqolada mazkur imkoniyat blokcheynni qabul qilishning moliyaviy hisobot sifatiga ta’siri orqali investitsiya samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri nuqtai nazaridan empirik jihatdan tahlil qilinadi.

Blokcheyn texnologiyasi o‘zgartirilishi mumkin bo‘lmagan va buzib bo‘lmaydigan registrni ta’minlab, buxgalteriya yozuvlarining aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Bu esa tasodifiy va ataylab yo‘l qo‘yiladigan xatolarni kamaytirishga yordam berib, natijada moliyaviy hisobot sifatini yuksaltirishi mumkin. Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasi tarmoq ishtirokchilariga tasdiqlangan ma’lumotlarga real vaqt rejimida kirishga imkon beradi, bu esa axborot shaffofligini va o‘z vaqtidaligini oshiradi.

Boshqacha aytganda, blokcheyn buxgalteriya ma’lumotlarining aniqligi, ishonchliligi, shaffof ligi va o‘z vaqtidaligini oshirish orqali moliyaviy hisobot sifatini yaxshilash salohiyatiga ega. Biroq, buxgalteriya tanlovlarida mavjud bo‘lgan ixtiyoriylik va tarmoq foydalanuvchilari o‘rtasida shovqinchilik xavfi inobatga olingan holda, blokcheyn texnologiyasi manipulyatsiya xavfini to‘liq bartaraf eta olmaydi [2].

Bundan tashqari, blokcheynni joriy etishda mavjud tizimlar va standartlar bilan integratsiya qilish, shuningdek, maxfiylik va xavfsizlikka oid potentsial muammolar kabi qator to‘siqlar ham mavjud. Shu sababli, blokcheynni qabul

qilish moliyaviy hisobot sifatini oshirib, investitsiya samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi yoki ko‘rsatmasligi aniq emas va bu masala atrofli ilmiy o‘rganishni taqozo etadi.

Blokcheynni qabul qilgandan so‘ng moliyaviy hisobot sifatining yaxshilanishi bir necha sabablar bilan izohlashi mumkin. Birinchidan, blokcheyn orqali ta’minlanadigan real vaqtli buxgalteriya hisobi kompaniyalarga daromadlarni boshqarish imkoniyati va rag‘batini kamaytiradi, bu esa buxgalteriya ma’lumotlari sifatini oshirishga, shuningdek, kompaniyalarning qiymat oshiruvchi investitsiya faoliyatiga e’tiborini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, blokcheynning o‘zgarmaslik xususiyati yozib olingan ma’lumotlarni keng tarmoq konsensusisiz o‘zgartirish yoki o‘chirishni qiyinlashtiradi va shu tariqa ma’lumotlar yaxlitligini mustahkamlaydi. Uchinchidan, blokcheyn tarmoq ishtirokchilariga tasdiqlangan va sinxronlashtirilgan ma’lumotlarga zudlik bilan kirish imkonini beradi, bu esa shaffoflik darajasini oshiradi.

Forrester Consulting tomonidan 2021 yilda AQSh, Yevropa va Osiyo bo‘ylab 286 nafar blokcheyn sohasidagi qaror qabul qiluvchilar ishtirokida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatadiki, kompaniyalarni blokcheynni qabul qilishga undaydigan asosiy omil bu samaradorlik va shaffoflikni oshirishga bo‘lgan intilishdir. Forrester Consulting tomonidan 2020 yilda o‘tkazilgan boshqa bir so‘rov esa respondentlarning taxminan uchdan uch qismi ta’minot zanjirida blokcheyndan foydalanish natijasida ma’lumotlar sifati va yaxlitligi borasida sezilarli yaxshilanishlarni kuzatganini ko‘rsatadi.

Samaradorlikni, shaffoflikni hamda ma’lumotlar sifati va yaxlitligini oshirishdagi salohiyatiga qaramay, bir qator kompaniyalar xavfsizlik, maxfiylik, masshtablilik, shuningdek, noaniqligi davom etayotgan standartlar va tartibga solish mexanizmlari borasidagi tashvishlar tufayli blokcheyn texnologiyasini joriy etishdan hali-hamon tortinmoqda. Blokcheynni qabul qilish sezilarli resurs sarfini taqozo etadi, biroq uning daromadliligi aniq emas u kompaniyaning bozordagi mavqei va texnologiyadan foydalanishning muayyan yo‘nalishlariga bog‘liq holda farqlanadi. Amalga oshirish xarajatlaridan tashqari, blokcheynni qabul qilish tarmoq foydalanuvchilari bilan maxfiy tijorat ma’lumotlarini ulashish zaruratini ham o‘z ichiga oladi [3]. Shu sababli, blokcheynni qabul qilish masalasi tegishli xarajatlar va foydalarni puxta va atroflicha baholashni talab etadi.

Blokcheyn tizimi bu kompyuterlar tarmog‘i (ya’ni, tugunlar) bo‘ylab tranzaksiyalar yoki ma’lumotlarni qayd etuvchi markazlashmagan, taqsimlangan registr texnologiyasidir. U bloklardan iborat zanjirni tashkil etib, har bir blok tranzaksiyalar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi va kriptografik xeshlar orqali oldingi blok bilan bog‘lanadi. Ushbu tuzilma o‘zgarmaslikni ta’minlaydi — bir marta qo‘shilgan blokni o‘zgartirish barcha keyingi bloklarni tahrir qilishni va tarmoq konsensusini qo‘lga kiritishni taqozo etadi. Kriptografik bog‘lanishlar va konsensus mexanizmlaridan foydalanish orqali blokcheyn xavfsiz, shaffof va buzib bo‘lmaydigan yozuvlarni saqlashni kafolatlaydi [4].

Blokcheyn eng qimmatli FinTex innovatsiyalaridan biri sifatida tan olingan. Chen (2019) hisob-kitoblariga ko‘ra, blokcheyn texnologiyasi butun moliya sektori uchun mediana qiymat ta’sirini 8, 1 milliard dollar darajasida tashkil etadi [5].

Gartner kompaniyasining prognozlariga koʻra, blokcheyn texnologiyasi 2025 yilga borib 176 milliard dollardan ortiq, 2030 yilga kelib esa 3, 1 trillion dollarga teng biznes qiymatini yaratishi kutilmoqda. Bundan tashqari, bozor tadqiqotlarining yetakchi taʼminotchisi boʻlmish Research and Markets maʼlumotlariga koʻra, AQShda blokcheyn sohasidagi xarajatlar keskin surʼatlar bilan oʻsib, 2025 yilga kelib 41 milliard dollardan oshishi bashorat qilinmoqda. Keltirilgan barcha dalillar blokcheynning iqtisodiy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Blokcheyn texnologiyasi bir qator muhim afzalliklarga ega boʻlib, ular qatoriga (1) yuqori darajadagi xavfsizlik, (2) vositachilikni bartaraf etish, (3) yozuvlar yaxlitligi va (4) avtomatlashtirish kiradi. Ushbu afzalliklar qimmatbaho vositalarga bogʻliqlikni kamaytirish, firibgarlik xavfini pasaytirish hamda jarayonlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur imtiyozlar tufayli blokcheyn Nakamoto (2008) tomonidan kiritilgan dastlabki maqsadidan ancha uzoqlashib, sanoat tarmoqlari va qoʻllanilish sohalari yuzasidan keng doirani qamrab oldi [6]. Masalan, PwC kompaniyasi bir qator amaliy misollarni alohida taʼkidlaydi: taʼminot zanjirlari shaffofligini yaxshilash maqsadida komponentlarni yakuniy mahsulotlarga yetib borguncha kuzatish, vositachilarni istisno etish orqali xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, markazlashmagan maʼlumotlar toʻplash mexanizmi yordamida resurslarni boshqarishni takomillashtirish.

Blokcheyn texnologiyasi maʼlumotlar yaxlitligini mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va manipulyatsiya imkoniyatlarini kamaytirish orqali moliyaviy hisobot sifatini yaxshilash salohiyatiga ega. Markazlashmagan, buzib boʻlmaydigan raqamli registr sifatida blokcheyn tranzaksion maʼlumotlarni ketma-ket, vaqt tamgʻasi bilan belgilangan va kriptografik jihatdan himoyalangan tarzda oʻzgarmas bloklarda saqlaydi. Bir marta qayd etilgan maʼlumotlarni tarmoq konsensusisiz oʻzgartirish nihoyatda qiyin boʻlib, bu maʼlumotlar yaxlitligini kafolatlaydi va anʼanaviy tizimlarga nisbatan manipulyatsiyani amalga oshirishni sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Foydalanuvchilar tranzaksiyalarni eʼlon qilish, tasdiqlash va ulashish orqali ishtirok etadigan taqsimlangan konsensus mexanizmi korporativ faoliyat shaffofligini va koʻrinuvchanligini oshiradi. Tranzaksiyalarni real vaqt rejimida qayd etish orqali blokcheyn menejerlarning buxgalteriya hisobi usullari yoki opportunistik harakatlar vositasida hisobotdagi daromadlarni manipulyatsiya qilish imkoniyatini cheklaydi. Uning real vaqtli hisobot imkoniyatlari menejerlik eʼtiborini qisqa muddatli daromad koʻrsatkichlariga erishishdan uzoqlashtirip, ragʻbatlarni samaraliroq resurslarni taqsimlash va investitsiya qarorlari tomon yoʻnaltirish orqali uzoq muddatli qiymat yaratishga qaratishga koʻmaklashadi. Muhim tomoni shundaki, blokcheynning real vaqtli funksionalligi faqatgina tezlik bilan cheklanmay, balki maʼlumotlar sifati va ishonchliligini ham qamrab oladi, zeroки uning markazlashmagan va oʻzgarmas registri maʼlumotlar yaxlitligi hamda shaffofligini kafolatlaydi.

Blokcheyn, shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Tranzaksiyalar bir nechta manfaatdor tomonlarning registrlari orqali tasdiqlanishi zarurati maʼlumotlarni kiritish xatolarini kamaytiradi va tekshirish xarajatlarini ham pasaytiradi. Avtomatlashtirilgan va shaffof yozuvlar

xatolarni aniqlashni osonlashtiradi hamda buxgalteriya hisobotlarini qayta ko‘rib chiqish ehtimolini kamaytiradi. Tranzaksiya darajasida xatolarni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish bilan bog‘liq xulosalarga mos ravishda, Liao va boshqalar (2025) blokcheynni qabul qilish xato bilan bog‘liq hisobotlarni qayta ko‘rib chiqish holatlarining kamayishi bilan bog‘liqligini aniqlad. Bundan tashqari, blokcheynning tranzaksiyalarning to‘liq va tekshirilishi mumkin bo‘lgan izini yaratish qobiliyati audit sifati va samaradorligini oshiradi hamda natijada moliyaviy hisobot sifatining yaxshilanishiga zamin yaratishi mumkin.

Xulosa. Umuman olganda, blokcheyn texnologiyasini qabul qilishning investitsiya samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri ko‘p qirrali va murakkab xarakter kasb etib, u kompaniyaning bozordagi mavqei, texnologiyadan foydalanishning muayyan yo‘nalishlari va tartibga solish muhitiga bog‘liq holda farqlanadi. Kelajakdagi tadqiqotlar blokcheynni qabul qilishning moliyaviy natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi kontekstual omillarni yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Roychowdhury, S., Shroff, N., Verdi, R.S., 2019. The effects of financial reporting and disclosure on corporate investment: a review. J. Account. Econ. 68 (2–3),

101246.

2. Rozario, A. M., & Vasarhelyi, M. A. (2018). Auditing with smart contracts. The International Journal of Digital Accounting Research, 18, 1–27.

3. Dai, J., & Vasarhelyi, M. A. (2017). Toward blockchain-based accounting and assurance. Journal of Information Systems, 31(3), 5–21.

4. Roychowdhury, S., Shroff, N., & Verdi, R. S. (2019). The effects of financial reporting and disclosure on corporate investment: A review. Journal of Accounting and Economics, 68(2–3), 101246.

5. Chen, M.A., Wu, Q., Yang, B., 2019. How valuable is FinTech innovation? Rev. Financ. Stud. 32 (5), 2062–2106.

6. Nakamoto, S., 2008. Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system. https: //bitcoin.org/bitcoin.pdf (accessed 15 May 2025).

Maxmudov Anvarjon Maxmudovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchisi, PhD,
Abduraimov Abdulaziz
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2-kurs talabasi,

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH VA XORIJIY KAPITALNI JALB ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining investitsiya muhiti va investitsiyalarni tartibga soluvchi qonun qoidalari tahlil qilinadi. Mamlakatda investorlar uchun yaratilgan huquqiy baza, kafolatlar tizimi, soliq va to‘lov imtiyozlari, hamda xorijiy kapitalni jalb etish mexanizmlari yoritiladi.

Shuningdek, investitsiya jozibadorligini yanada oshirish yo‘llari va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya muhiti, qonun qoidalar, investor huquqlari, xorijiy kapital.

Investitsiyalar iqtisodiyotning barcha asosiy sektorlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi — ular ishlab chiqarishni kengaytiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va texnologik yangilanishlarni rag‘batlantiradi (World Bank). Xalqaro raqobat sharoitida, har bir davlat iqtisodining barqaror o‘sishi uchun investitsiya muhitini takomillashtirish va xorijiy kapitalni jalb etish muhim strategik maqsadga aylanadi. Bu, o‘z navbatida, investorlar uchun kafolatli huquqiy bazani, soliq va to‘lov imtiyozlarini, shaffoflik va yuqori darajadagi boshqaruv mexanizmlarini talab etadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, investitsiya muhitini kompleks rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. 2019 yilda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun investor huquqlarini mustahkamlash, kafolatlar tizimini joriy etish hamda iqtisodiy faoliyatning muhim jihatlarini tartibga solish bo‘yicha asosiy huquqiy baza bo‘lib xizmat qilmoqda (UNCTAD)[3].

O‘zbekistonning investitsiya muhiti tahlil qilinib, huquqiy asoslar, investorlar uchun imkoniyatlar va qoidalar ko‘rib chiqiladi hamda xorijiy kapitalni jalb etish bo‘yicha takliflar taqdim etiladi.

O‘zbekiston investitsiya muhitining ta’rifi. Investitsiya muhiti — bu investorlar faoliyatini qo‘llab quvvatlash, himoya qilish va ularni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar majmuasi. Mazkur muhit mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, shaffofligi, korrupsiyaga qarshi kurash darajasi va huquqiy kafolatlarning mustahkamligi bilan belgilanadi (World Bank)[2].

O‘zbekiston iqtisodiyoti sezilarli darajada o‘sdi: YAIM o‘sish sur’ati barqaror bo‘lib, chet ellik investorlarni qiziqtiruvchi yangi sohalar — innovatsiyalar, xizmat ko‘rsatish va logistika kabi sohalar kengaydi (PwC Investment Guide). Bu holat O‘zbekistonning global investitsiya maydonidagi raqobatbardoshligini oshirdi.

2019 yilda qabul qilingan qonun investor huquqlarini kafolatlovchi eng muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda:

- investorlarning erkin daromad olib chiqish huquqi;
- yuqumli bo‘lmagan aktivlar bo‘yicha kafolatlar;

soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar tizimi belgilangan (UNCTAD)[3].

Bu qonun O‘zbekistonni xorijiy investitsiyalar uchun yanada jozibador qiladi va ichki investorlar uchun ham raqobatbardosh sharoit yaratadi.

Qonunda innovatsion loyihalar, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlar va texnologik yangilanishlar uchun soliq imtiyozlari belgilangan. Bu esa investorlarga qo‘shimcha rag‘bat beradi.

Qonun investor huquqlarini birinchi navbatda himoya qiladi — davlat tomonidan qabul qilingan har qanday huquqbuzarliklar uchun huquqiy himoya kafolatlanadi. Bu xorijiy investorlarning ishonchini oshiradi.

Xorijiy kapitalni jalb etish usullari. Rasmiy Investitsiya Portal va “Yagona darcha” mexanizmi O‘zbekiston hukumati tomonidan joriy etilgan “yagona darcha” mexanizmi investorlar uchun hujjat topshirish, ruxsatnoma olish va biznesni ro‘yxatdan o‘tkazishni sezilarli darajada soddalashtirdi (Invest.gov.uz). Bu mexanizm vaqt va resurslarni tejaydi hamda korrupsiya xatarini kamaytiradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha hukumat xalqaro investorlar bilan birgalikda investforumlar, biznes missiyalar va konferensiyalar o‘tkazadi. Bu amaliyot global investorlar e’tiborini O‘zbekiston bozoriga qaratadi.

Investitsiya muhitidagi muammolar.Investitsiya muhiti sezilarli darajada yaxshilangan bo‘lsa ham, quyidagi muammolar hanuzgacha mavjud:

- ma’lum sohalarda huquqiy tartibning murakkabligi;
- talab qilinadigan ruxsatnomalar va protsesslarning uzoq davom etishi;
- halollik va shaffoflik bo‘yicha ayrim amaliyotlar standart bo‘lmagan usullarda amalga oshirilishi.

Bu muammolar investorlar ishonchini kamaytirishi mumkin, shuning uchun qo‘shimcha islohotlar zarur.

Quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

huquqiy tartibni soddalashtirish, investorlar uchun ruxsatnomalar va protsesslarni raqamlashtirish orqali jarayonlarni tezlashtirish;

xalqaro standartlarga mos huquqiy baza, qonunlarni global amaliyotga moslashtirish va izchil yangilash.

davlat xususiy sheriklik, strategik loyihalarda davlat va xorijiy hamkorlikni kengaytirish;

investitsiya faoliyatini monitoring qilish tizimi: samarali statistik ma’lumotlar bazasi yaratish.

O‘zbekiston investitsiya muhiti so‘nggi yillarda jiddiy takomillashdi. Rasmiy investitsiya portali, qonunlar, kafolatlar tizimi va hukumatning izchil siyosati xorijiy kapitalni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Biroq, mavjud ba’zi muammolar bo‘yicha qo‘shimcha islohotlar talab etiladi. Investitsiya muhitini yanada jozibador qilish global investitsiya oqimini kuchaytiradi va O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Invest.gov.uz – O‘zbekistonning rasmiy investitsiya portalida mamlakat investitsiya muhiti, imkoniyatlar va “yagona darcha” tizimi haqida ma’lumotlari haqida.
2. World Bank – Doing Business & Investment Reports.
3. UNCTAD Investment Policy Hub.
4. PwC – Investment Guide Uzbekistan.
5. UNCTAD Investment Policy Hub (investmentpolicy.unctad.org

Qodirov Azamatjon Baxodirovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
e-mail: azamattosan@mail.ru

TIJORAT BANKLARIDA LIKVIDLILIK RISKLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida likvidlilik risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, bank tizimida pul oqimlarini prognozlash, stres-test o‘tkazish hamda aktiv va majburiyatlarni optimallashtirish jarayonlarini yagona raqamli platformada integratsiyalash zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot davomida O‘zbekiston bank tizimining amaldagi holati statistik ma’lumotlar asosida baholanib, likvidlilik risklarini boshqarishda an’anaviy yondashuvlarning cheklanganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: likvidlilik riski, tijorat banklari, raqamli texnologiyalar, pul oqimlari prognozi, stres-test, aktiv va majburiyatlarni boshqarish, optimallashtirish, prudensial me’yorlar, bank barqarorligi.

Kirish. Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi asosiy institutlardan biri bo‘lib, ular orqali resurslar jamlanadi, qayta taqsimlanadi va to‘lov tizimining uzluksizligi ta’minlanadi [1-3]. Bank tizimining barqaror faoliyati esa butun iqtisodiyot barqarorligining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, banklarda likvidlilikni samarali boshqarish masalasi doimo dolzarb bo‘lib kelgan.

So‘nggi yillarda bank tizimida kuzatilayotgan o‘sish tendensiyalari likvidlilik risklarini boshqarishning yangi, zamonaviy yondashuvlarini talab etmoqda. Jumladan, tijorat banklari aktivlarining asosiy qismi kredit qo‘yilmalariga, majburiyatlarining katta ulushi esa depozitlarga to‘g‘ri kelayotgani likvidlilikni boshqarish jarayonining murakkablashayotganini ko‘rsatadi [4, 5]. Bu esa banklar oldiga pul oqimlarini aniq prognoz qilish, resurslar tarkibini optimallashtirish va kutilmagan moliyaviy bosimlarga tayyor turish vazifalarini qo‘yadi.

An’anaviy yondashuvlarda likvidlilik ko‘rsatkichlari asosan statik me’yorlar orqali baholanadi. Biroq zamonaviy sharoitda bu yetarli emas, chunki moliyaviy oqimlar tez o‘zgaruvchan va ko‘p omillarga bog‘liq. Shu sababli, raqamli texnologiyalar asosida ishlovchi tizimlar yordamida likvidlilik risklarini boshqarish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan modellar yordamida pul oqimlarini oldindan prognozlash, stres-test o‘tkazish va optimal qarorlar qabul qilish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Mazkur maqolada tijorat banklarida likvidlilik risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi hamda “prognoz → stres-test → optimallashtirish” yondashuvi asosida takomillashtirilgan model ishlab chiqiladi. Ushbu yondashuv bank likvidligini real

vaqt rejimida boshqarish, risklarni oldindan aniqlash va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Ma’lumki, tijorat banklari iqtisodiyotda likvidlilik yaratish, resurslar oqimini ta’minlash va barqaror to‘lov tizimini qo‘llab-quvvatlash orqali moliyaviy tizimning eng muhim institutlari qatoriga kiradi. Ularning faoliyati nafaqat moliya vositachiligi, balki iqtisodiyotdagi umumiy barqarorlik, investitsiya va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, har qanday tijorat subyekti singari, banklar faoliyatining bosh maqsadi — foyda olishdir. Biroq boshqa xo‘jalik subyektlaridan farqli ravishda, tijorat banklari qo‘shimcha qiymatni bevosita yaratuvchi emas, balki mavjud resurslarni jamlab, ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga samarali taqsimlash orqali qo‘shimcha qiymat yaratilishi jarayonida faol ishtirok etuvchi subyektdir.

Banklarning iqtisodiyotimizdagi eng muhim bo‘g‘inlardan biri ekanligi va bu tizimning sog‘lomligi butun iqtisodiyotning sog‘lomligiga bevosita ta’sir qilishi barcha iqtisodchilar uchun ayni haqiqatdir [6]. Shunday ekan, banklarda likvidlilik risklarini samarali boshqarish va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda boshqarish mexanizmlarini doimo takomillashtirib borish butun iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishga salmoqli hissa qo‘shadi.

Tijorat banklarini samarali boshqarish naqadar muhim ekanligini tushunish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan tijorat banklari jamlanma balansidan olingan ma’lumotlarni tahlil qilishning o‘zi kifoya.

1-jadval

Tijorat banklarining balans ko‘rsatkichlari.

mlrd. so‘mda

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2023 y.		01.01.2024 y.		01.01.2025 y.	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
Aktivlar						
Kredit qo‘yilmalari, sof	378 909, 2	68, 1	457 847, 1	70, 2	514 692, 6	66, 9
Jami aktivlar	**556 746, 3**	**100, 0**	**652 157, 1**	**100, 0**	**769 330, 4**	**100, 0**
Majburiyatlar						
Depozitlar	216 737, 5	45, 4	241 686, 6	43, 5	308 692, 3	47, 2
Jami majburiyatlar	**477 180, 8**	**100, 0**	**555 077, 9**	**100, 0**	**654 538, 0**	**100, 0**
Kapital						
Ustav kapitali	59 856, 7	75, 2	68 643, 0	70, 7	83 665, 7	72, 9
Qo‘shimcha kapital	997, 5	1, 3	1 338, 8	1, 4	1 463, 7	1, 3
Zaxira kapitali	7 320, 6	9, 2	11 152, 6	11, 5	13 067, 4	11, 4
Taqsimlanmagan foyda	11 390, 6	14, 3	15 944, 8	16, 4	16 595, 7	14, 5
Jami kapital	**79 565, 4**	**100, 0**	**97 079, 2**	**100, 0**	**114 792, 4**	**100, 0**

Yuqoridagi balans ma’lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, bank aktivlarining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i (01.01.2023 yil holatiga — 68, 1 foizi, 01.01.2024 yil holatiga — 70, 2 foizi va 01.01.2025 yil holatiga — 66, 9 foizi) kredit qo‘yilmalariga to‘g‘ri kelib, 01.01.2025 yil holatiga 514 692, 6 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda.

Bank majburiyatlarining yarmiga yaqini (01.01.2023 yil holatiga — 45, 4 foizi, 01.01.2024 yil holatiga — 43, 5 foizi va 01.01.2025 yil holatiga — 47, 2

foizi) jalb etilgan depozitlarga to‘g‘ri kelib, 01.01.2025 yil holatiga 308 692, 3 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining nominal qiymati 2024 yilda 1 454 573, 9 mlrd so‘mni tashkil qilganligini hisobga olsak, YaIMga nisbatan mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar qoldig‘i 35, 4 foizni, jalb qilingan depozitlar qoldig‘i esa 21, 2 foizni tashkil qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa tijorat banklarida likvidlilik risklarini boshqarishda eng ilg‘or tajribalardan foydalanishimiz zarurligini yana bir bor isbotlaydi.

Tijorat banklari iqtisodiyotda mablag‘larni yig‘ish, ularni samarali taqsimlash va to‘lov tizimi uzluksizligini ta’minlash orqali asosiy tayanch institutdir. Hozirga kelib, banklarimiz tomonidan onlayn xizmatlar (onlayn to‘lovlar, kreditlar, depozitlar) jadal rivojlanayotganini hisobga olib, banklarning likvidlilik risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda pul oqimlarini prognozlash, stress-testlar o‘tkazish, aktiv va majburiyatlarni vaqt, miqdor va valyuta nuqtayi nazaridan optimal joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki likvidlilikni faqat statik koeffitsientlar bilan (masalan, LCR/NSFR) nazorat qilish yetarli emas: bankka oldindan ko‘ra oladigan, ssenariyga mos reaksiya bera oladigan va resurslarni eng maqbul tarkibga keltira oladigan raqamli tizim zarur.

Shu maqsadga erishish uchun banklarda “prognoz → stres-test → optimallashtirish” zanjirini raqamli platformada birlashtirish zarur deb hisoblaymiz. Fikrimizcha bu yondashuv quyidagicha ishlaydi:

Raqamli prognoz (7/30/90/365 kunlik pul oqimlari prognozi)

❖ **Maqsad:** bankning 7/30/90/365 kunlik ufqlar bo‘yicha **sof pul oqimlarini yuqori aniqlikda oldindan baholash,** tushum–chiqimlarning **maksimal/minimal** kunlarini erta identifikatsiya qilish, **kun ichidagi** pul oqimlarini hamda yuqori likvidli aktivlarni joylashtirish rejasini optimallashtirish; shu orqali kutilmagan chiqimlarni yopish uchun **so‘nggi daqiqada** jalb etiladigan **qimmat va shartlari og‘ir** manbalarga (overnight/repo/FX-swap) ehtiyojni kamaytirish hamda **prudensial talablar**ni barqaror bajarish.

❖ **Ma’lumot manbalari:** tranzaksiya oqimlari (kun/soat kesimida), kassa va vakillik hisobvaraqlari qoldiqlari, depozitlarning qotib qolish (stickiness) koeffitsientlari va yirik omonatchilar dinamikasi, kredit qaytarish jadvallari, kartalar aylanishi, foiz stavkalari, kalendar omillar (bayram/maosh kunlari), valyuta kursi va uning tebranishi, shuningdek makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va boshqa tegishli indikatorlar.

Stres-test (chidamlilikni o‘lchash)

❖ **Maqsad:** bankning likvidlilikka nisbatan chidamliligini miqdoriy baholash, zaiflik nuqtalarini (valyuta, muddat, segment kesimida) aniqlash va o‘lchash, ular bo‘yicha tuzatish choralar rejasini ishlab chiqish; favqulodda moliyalashtirish rejasini triggerlar orqali avtomatik integratsiya qilish; qaror qabul qilishni tezlashtirish va oxirgi daqiqadagi yuqori qiymatli moliyalashtirishga ehtiyojni kamaytirish; barqaror zaxira bilan likvidlilik bo‘yicha limitlarni uzluksiz bajarish orqali reyting va bozor ishonchini mustahkamlash.

❖ **Ma’lumot manbalari:**

- **Ichki ko‘rsatkichlar:** valyutalar kesimida **naqd va nostro** qoldiqlari; **vaqt/valyuta** bo‘yicha kirim–chiqim trayektoriyalari; kredit portfeli **qaytarish jadvallari** (asosiy/foiz), **yuqori sifatli aktivlar tarkibi** va monetizatsiya parametrlari (haircut, vaqt), **depozit bazasi**ning vaqt/valyuta bo‘yicha struktura va **qotib qolish (stickiness)** koeffitsientlari hamda yirik depozitorlar konsentratsiyasi va tebranishi.
- **Tashqi ko‘rsatkichlar: REPO stavkalari** va **spredlar** dinamikasi, **valyuta kurslari** va ularning **tebranishi**, Markaziy bankning **pul-kredit stavkalari, kalendar omillar** (bayram/maosh kunlari) hamda **mavsumiy o**‘zgarishlar.

Aniq va izchil ma’lumotlar oqimiga tayangan ssenariyli stres-test bankning likvidlilik bo‘shliqlarini **vaqt**, **hajm** va **valyuta/muddat** kesimida aniqlab hamda o‘lchab beradi. Shu asosda favqulodda moliyalashtirish rejasi **o‘z vaqtida, operativ** va **kam xarajatli** likvidlilikni ta’minlash choralarini ishga tushirish imkonini yaratadi.

Optimallashtirish (aktiv–majburiyatlarni eng maqbul joylashtirish)

❖ **Maqsad:** likvidlilikning umumiy qiymatini (favqulotda moliyalashtirish rejasi va foiz xarajatlari) minimallashtirish bilan birga, likvidlilik bo‘yicha prudensial me’yorlar hamda ichki limitlarning uzluksiz bajarilishini ta’minlash.

❖ **Ma’lumot manbalari:**

- **Ichki manbalar: 7/30/90/365 kunlik pul oqimlari prognozi, yuqori sifatli likvid aktivlarning tarkibi va monetizatsiya xususiyatlari, depozitlar segmentatsiyasi va yirik depozitorlar konsentratsiyasi, kredit portfeli (qaytarish jadvali, foiz/muddat sezgirligi, valyuta tarkibi), kun ichidagi ko‘rsatkichlar, shartnomaviy imkoniyatlar (kredit liniyalari, repo limitlari), hamda likvidlilik cheklovlari bo‘yicha ichki limitlar.**
- **Tashqi manbalar: repo/overnight stavkalari, suveren va korporativ spredlar, rentabellik egri chizig‘i dinamikasi, regulyator me’yorlari, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozori likvidligi va emissiya oynalari to‘g‘risidagi axborot.**

Optimallashtirish jarayonida ichki va bozor ma’lumotlariga tayanib aktivlar hamda majburiyatlarning valyuta, muddat va vaqt bo‘yicha tarkibi ilmiy asosda qayta tuziladi. Natijada prudensial cheklovlar buzilmasdan, likvidlilikning umumiy qiymati minimallashtiriladi va tizim barqarorligi maksimal darajada ta’minlanadi.

Raqamli platformaga asoslangan “prognoz → stres-test → optimallashtirish” zanjiri bank likvidligini metodik va empirik dalillarga tayangan holda boshqarishga imkon beradi. Pul oqimlari ufqlar bo‘yicha yuqori aniqlikda oldindan baholanadi, zaiflik nuqtalari ssenariyli stres-testlarda identifikatsiya qilinadi hamda favqulodda moliyalashtirish rejasi o‘z vaqtida aktivlashtiriladi. Shu tariqa, likvidlilik ko‘rsatkichlari samaradorlikni pasaytirmasdan, prudensial talablarga muvofiq barqaror boshqariladi.

Xulosa. Tijorat banklarida likvidlilik risklarini samarali boshqarish zamonaviy moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank aktivlari tarkibida

kredit qo‘yilmalarining yuqori ulushi hamda majburiyatlarda depozitlarning sezilarli hissasi likvidlilikni boshqarish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Bu esa an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy, raqamli asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi.

Maqolada asoslab berilganidek, likvidlilikni faqat statik ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli emas, balki uni dinamik yondashuv asosida, ya’ni pul oqimlarini oldindan prognozlash, turli ssenariylar asosida stres-test o‘tkazish va aktiv hamda majburiyatlarni optimal boshqarish orqali amalga oshirish zarur. Shu nuqtai nazardan, “prognoz → stres-test → optimallashtirish” zanjirini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish banklar uchun eng samarali yechimlardan biri sifatida taklif etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni likvidlilik risklarini boshqarish tizimiga joriy etish banklarga pul oqimlarini yuqori aniqlikda oldindan baholash, zaiflik nuqtalarini o‘z vaqtida aniqlash va favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, qimmat va qisqa muddatli moliyalashtirish manbalariga ehtiyojni kamaytiradi hamda banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Shuningdek, aktiv va majburiyatlarni optimallashtirishga qaratilgan yondashuv orqali likvidlilikning umumiy qiymatini kamaytirish bilan birga prudensial me’yorlarga rioya etish imkoniyati kengayadi. Bu esa bank tizimining nafaqat ichki samaradorligini oshiradi, balki tashqi investorlar va bozor ishtirokchilari ishonchini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, maqolada taklif etilgan raqamli asoslangan kompleks yondashuv tijorat banklarida likvidlilik risklarini boshqarishning samarali mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiyotda resurslar taqsimotining samaradorligini ta’minlashga muhim hissa qo‘shadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018-yil 4-may). **PQ–3694**-son Qaror: *Bank bo‘linmalarida xizmat sifati va boshqaruvni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020-yil 5-oktabr). **PF–6079**-son Farmon: *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida*.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020-yil 5-oktabr). **PF–6079**-son Farmon: *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida*.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024-yil 14-oktabr). **PQ–358**-son Qaror: *Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida*.

5. **“Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi Nizom”** (MB Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-son qarori; ro‘yxat raqami 2709) — oxirgi o‘zgartirishlar: 2709-6 (2024-yil 7-fevral).

6. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and liquidity risk monitoring tools.

Qodirov Azamatjon Baxodirovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
e.mail: azamattosan@mail.ru

MUAMMOLI KREDITLAR SHAROITIDA BANK LIKVIDLILIGINI BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON MISOLIDA MUAMMOLI KREDITLARGA SEZGIR LIKVIDLILIK BUFERLARI MODELI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida kredit portfeli sifati va likvidlilik risklari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot O‘zbekiston tijorat banklari misolida olib borilib, 01.01.2021–01.01.2025 yillar davomida shakllangan jamlanma balans va prudensial ko‘rsatkichlar asosida muammoli kreditlar (NPL) darajasining bank likvidligiga ta’siri baholanadi. Empirik natijalar muammoli kreditlar (NPL) darajasining oshishi bank likvidliligining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini va mavjud likvidlik ko‘rsatkichlari kredit sifati omilini yetarli darajada inobatga olmayotganini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida likvidlilik risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy va metodologik xulosalar chiqarish imkonini beradi.


Kalit so‘zlar: likvidlilik riski, NPL, LCR, NSFR, bank likvidligi, kredit sifati.

Kirish. So‘nggi yillarda bank tizimida likvidlilik risklarini boshqarish masalasi moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Global moliyaviy inqirozdan so‘ng joriy etilgan Basel III talablariga muvofiq, banklar faoliyatida likvidlilikning yetarliligi va barqarorligini baholash uchun Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio – LCR) hamda Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (Net Stable Funding Ratio – NSFR) kabi normativ ko‘rsatkichlar keng qo‘llanila boshlandi. Mazkur indikatorlar qisqa va uzoq muddatli likvidlilik xavflarini cheklashga xizmat qilsa-da, amaliyotda bank likvidliligining pasayishi ko‘pincha kredit portfeli sifati yomonlashuvi bilan bir vaqtda yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston bank tizimida ham so‘nggi yillarda likvidlilik ko‘rsatkichlari rasmiy jihatdan me’yoriy talablar doirasida saqlanib kelinayotgan bo‘lsa-da, muammoli kreditlar ulushining oshishi bank balanslarining moslashuvchanligini cheklab qo‘ymoqda. Muammoli kreditlar (NPL)larning ko‘payishi aktivlarning pulga tez aylanish darajasini pasaytirib, bankning real likvid imkoniyatlarini qisqartiradi. Shu jihatdan, kredit sifati va likvidlilik risklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — O‘zbekiston tijorat banklari misolida muammoli kreditlar (NPL) darajasi va bank likvidligi o‘rtasidagi

bog‘liqlikni aniqlash hamda amaldagi likvidlik ko‘rsatkichlarining kredit sifati omiliga sezgirlik darajasini baholashdan iborat.



1-rasm. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi dinamikasi.[32]

Rasmda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi 2021-yil 1-yanvar holatiga 2, 1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil 1-yanvarga kelib ushbu ko‘rsatkich deyarli ikki baravarga oshib, 4 foiz darajasiga yetgan [1]. Nazariy yondashuvlarga muvofiq, muammoli kreditlar ulushining bunday o‘sishi bank tizimida likvidlilik risklarining kuchayishi, jumladan banklarning kutilayotgan pul oqimlari barqarorligining pasayishi bilan birga kechishi lozim [2, 3].

Biroq empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, muammoli kreditlar hajmining ortishi rasmiy statistik hisobotlarda e’lon qilinayotgan likvidlilik ko‘rsatkichlarida mutanosib va yetarli darajada aks etmayapti. Mazkur holat amaldagi likvidlilik indikatorlarining kredit portfeli sifati omiliga sezgirligi cheklanganligini anglatadi. Ushbu nomuvofiqlik quyidagi jadval ma’lumotlari asosida empirik jihatdan chuqur tahlil qilinadi.

1-jadval

O‘zbekiston bank tizimida likvidlilik va muammoli kreditlar (NPL) ko‘rsatkichlarining dinamikasi[33]

Sana	Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR), foizda	Sof barqaror moliyalashtirish me’yori (NSFR), foizda	Muammoli kreditlar (NPL, mlrd. so‘mda)	Muammoli kreditlar (NPL)ning jami kreditlardagi ulushi foizda	Muammoli kreditlarning yuqori likvidli aktivlarga nisbatani foiz hisobida
01.01.2021 y.	224, 5	109, 9	5 784, 8	2, 09	11, 46
01.01.2022 y.	189, 6	115, 4	16 974, 0	5, 20	22, 34
01.01.2023 y.	211, 6	115, 6	13 992, 4	3, 59	13, 39
01.01.2024 y.	164, 8	111, 8	16 621, 4	3, 53	17, 15

[32] Muallif tomonidan Markaziy bank ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
[33] Likvidlilik va muammoli kreditlar (NPL) ko‘rsatkichlari. Muallif tomonidan Markaziy bank ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

01.01.2025 y.	193, 8	115, 3	21 185, 1	3, 97	15, 90

Jadval ma’lumotlari asosida amalga oshirilgan empirik tahlil bir qator muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Avvalo, LCR va NSFR ko‘rsatkichlari kredit portfeli sifati yomonlashuvining real ta’sirini to‘liq aks ettira olmaydi, chunki ularning hisoblanishi asosan prognoz qilinadigan pul oqimlariga tayanadi. Hisobotlarda kreditlar va ular bo‘yicha foiz to‘lovlari o‘z vaqtida amalga oshiriladi degan faraz qabul qilingani sababli, amalda yuzaga kelayotgan pul oqimlaridagi uzilishlar mazkur likvidlilik indikatorlarida kechikkan holda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi jihatdan, muammoli kreditlarning yuqori sifatli likvid aktivlarga nisbati ortib borayotgan sharoitda ham LCR va NSFR ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi bank likvidligining nominal barqarorligi bilan real likvidlilik xatarining kuchayishi o‘rtasida sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, muammoli kreditlar darajasi hamda ularning yuqori sifatli likvid aktivlarga nisbati bank tizimida yashirin likvidlilik xatarining shakllanayotganidan dalolat beruvchi muhim indikatorlar sifatida namoyon bo‘lmoqda, biroq mazkur xatar amaldagi rasmiy likvidlilik ko‘rsatkichlari orqali yetarli darajada baholanmayapti.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, tadqiqot doirasida muammoli kreditlar ulushining ortishi sharoitida bank likvidligini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan, qo‘shimcha likvidlilik buferlarini shakllantirishga asoslangan yondashuv taklif etiladi. Ushbu yondashuv kredit portfeli sifati yomonlashgan davrlarda bank likvidligiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan potensial bosimni oldindan qoplash hamda likvidlilik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan mexanizmga muvofiq, bank tomonidan shakllantiriladigan likvidlilik buferlari muammoli kreditlar ulushining o‘sish darajasiga mutanosib ravishda aniqlanadi va LCR hamda NSFR ko‘rsatkichlariga qo‘shimcha ustama (bufer komponenti) sifatida joriy etiladi. Bunda amaldagi minimal prudensial talablar saqlab qolingan holda, bankning individual ichki risk profili va aktivlar sifati holati hisobga olinadi.

Mazkur yondashuv doirasida qo‘shimcha LCR buferining miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{LCR^{*}=LCR_{min}+\alpha\times NPL}$$

bu yerda:

- **LCR*** — bank uchun belgilangan kengaytirilgan (buferli) LCR darajasi;
- $\mathbf{LCR_{min}}$ — amaldagi minimal prudensial LCR talabi;
- **NPL** — muammoli kreditlar ulushi;
- $\boldsymbol{\alpha}$ — muammoli kreditlarning likvidlilikka ta’sirini aks ettiruvchi sezgirlik koeffitsiyenti.

Xuddi shundek, uzoq muddatli likvidlilik barqarorligini ta’minlash maqsadida NSFR uchun qo‘shimcha bufer joriy etiladi:

$$\mathbf{NSFR^{*}=NSFR_{min}+\beta\times NPL}$$

bu yerda:

- **NSFR*** — kengaytirilgan (buferli) NSFR darajasi;
- **NSFR** — amaldagi minimal NSFR talabi;
- **NPL** — muammoli kreditlar ulushi;
- **β** — muammoli kreditlar oshishining barqaror moliyalashtirishga ta’sirini ifodalovchi koeffitsiyent.

Mazkur yondashuv doirasida muammoli kreditlar ulushi oshib borishi bilan bank tomonidan yuqori sifatli likvid aktivlar hajmi hamda barqaror moliyalashtirish manbalari mutanosib ravishda kengaytiriladi. Bu orqali muammoli kreditlar bilan bog‘liq holda likvidlikka nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan potensial bosim oldindan qoplanadi va likvidlilik tanqisligi yuzaga kelish ehtimoli sezilarli darajada pasaytiriladi.

Taklif etilayotgan qo‘shimcha likvidlilik buferlari mexanizmi muammoli kreditlar ulushiga sezgir baholash indikatorlari asosida bank likvidligini oldindan tartibga solishga xizmat qilib, likvidlilik risklarini reaktiv choralar orqali emas, balki proaktiv boshqaruv yondashuvi asosida boshqarish imkonini beradi. Mazkur mexanizm kredit portfeli sifati yomonlashgan sharoitlarda ham LCR va NSFR ko‘rsatkichlarining barqarorligini ta’minlash bilan birga, baholash natijalarini majburiy boshqaruv qarorlariga aylantiruvchi risk-sezgir instrument sifatida bank likvidligini real iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, muammoli kreditlar sharoitida bank likvidligini baholash va boshqarishga doir mavjud yondashuvlarni to‘ldiruvchi hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan mualliflik ilmiy-amaliy mexanizmi taklif etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlar (NPL) darajasining oshishi bank likvidligining real barqarorligiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi, biroq amaldagi LCR va NSFR kabi prudensial ko‘rsatkichlar ushbu xavfni to‘liq aks ettira olmaydi . Bu holat bank tizimida rasmiy likvidlilik ko‘rsatkichlari bilan amaldagi likvidlik xatarlari o‘rtasida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada taklif etilgan NPLga sezgir likvidlilik buferlari modeli kredit portfeli sifati yomonlashgan sharoitda likvidlikka yuzaga keladigan bosimni oldindan qoplashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv likvidlilik risklarini an’anaviy reaktiv usullardan farqli ravishda proaktiv tarzda boshqarish, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda prudensial me’yorlarning yanada samarali bajarilishini ta’minlash imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

2. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008, BMA

3. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel-III, 2010. http: //www.bis.org.publications

Sayfutdinov Sherxon,
Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat budjeti departamenti, Budjet xarajatlari samaradorligini baholash va dasturiy-maksadli uslublarini joriy etish bo‘limi boshlig‘i, TDIU mustaqil izlanuvchi.

DAVLAT BUDJETI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA INDIKATORLAR TIZIMI

Annotatsiya. Mazkur tezisda davlat budjeti samaradorligini baholashda maqsadli indikatorlar tizimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, 2026-yil davlat budjeti parametrlarini shakllantirish jarayonida natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish yondashuvining joriy etilishi, budjet mablag‘larining samarali taqsimlanishi va ularning natijadorligini baholash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, indikatorlarni shakllantirishda SMART tamoyillarining qo‘llanilishi, monitoring va audit tizimlarining roli hamda amaliy muammolar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, indikatorlar tizimi, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish, samaradorlik, monitoring, audit, SMART tamoyillari, fiskal siyosat.

Kirish. Davlat budjeti parametrlarini shakllantirish va tasdiqlash jarayoni mamlakat iqtisodiy siyosatining eng muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. 2026-yil uchun davlat budjeti parametrlarini ishlab chiqishda asosiy e’tibor budjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bunda vazirlik va idoralar faoliyatini natijadorlik asosida baholash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, maqsadli indikatorlar tizimi budjet xarajatlarining natijaviyligini o‘lchash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Maqsadli indikatorlar — bu davlat organlari faoliyatining aniq natijalarini ifodalovchi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlaridir [1]. Ular orqali ajratilgan budjet mablag‘larining qanday natijalarga olib kelgani, qanchalik samarali ishlatilgani va belgilangan strategik maqsadlarga erishilganlik darajasi baholanadi. 2026-yil budjetini shakllantirishda ushbu indikatorlar tizimini keng qo‘llash natijasida “natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” (performance-based budgeting) tamoyillarini yanada chuqurlashtirish ko‘zda tutilmoqda.

Vazirlik va idoralar kesimida maqsadli indikatorlar quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha shakllantiriladi: ijtimoiy sohada xizmatlar sifati (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya), iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari (ish o‘rinlari yaratish, investitsiyalar hajmi), infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi hamda davlat boshqaruvi samaradorligi. Masalan, ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim darajasi, oliy ta’limga qamrov darajasi, sog‘liqni saqlashda

esa aholining o‘rtacha umr davomiyligi yoki kasalliklar kamayishi kabi indikatorlar qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, indikatorlarni shakllantirishda ularning aniqligi, o‘lchab bo‘lishi va erishish mumkinligi muhim mezon sifatida qaraladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ba’zi hollarda indikatorlar umumiy va noaniq shaklda belgilanib, ularning bajarilishini real baholash qiyinlashadi. Shu sababli 2026-yil budjet parametrlarini tasdiqlashda SMART (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound) tamoyillariga asoslangan indikatorlar tizimini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholashda monitoring va audit mexanizmlari ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, ichki audit xizmatlari, Hisob palatasi va boshqa nazorat organlari tomonidan indikatorlar bajarilishi muntazam tahlil qilinadi. Bu esa mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish holatlarini aniqlash va oldini olish imkonini beradi.


Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, natijaga yo‘naltirilgan indikatorlar tizimi joriy etilgan vazirlik va idoralarda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Biroq ayrim tashkilotlarda hali ham rejalashtirish va hisobot berish tizimlarida kamchiliklar mavjud bo‘lib, bu indikatorlar samaradorligini pasaytiradi.

Shunday qilib, 2026-yil uchun davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash jarayonida maqsadli indikatorlarning to‘g‘ri shakllantirilishi va ularning bajarilishini tizimli nazorat qilish davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida indikatorlar tizimini raqamlashtirish, ochiq ma’lumotlar bazalarini kengaytirish va xalqaro tajribalarni joriy etish orqali byudjet siyosatini yanada takomillashtirish mumkin.

Asosiy qism. 2026-yil uchun davlat budjeti parametrlarining shakllanishi O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tayotganligini namoyon etadi. Mazkur jarayonda davlat budjeti daromadlari 368, 9 trillion so‘m hamda xarajatlari 328, 7 trillion so‘m etib belgilangan bo‘lib, bu makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va fiskal barqarorlikni ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Budjet xarajatlarining deyarli to‘liq qismi, ya’ni 328, 3 trillion so‘m mablag‘ 67 ta birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi organlar orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgani davlat resurslarini markazlashgan holda boshqarish bilan birga ularni samarali taqsimlash mexanizmlarining dolzarbligini oshiradi.

Mazkur budjet parametrlarining ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son qaror [3] asosida 49 ta vazirlik va idoraning 121 ta budjet dasturi hamda 913 ta maqsadli indikatorlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni moliyalashtirish uchun 192, 3 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi nazarda tutilgan. Ushbu raqamlar davlat budjetini rejalashtirishda natijadorlikka asoslangan yondashuv tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi, chunki har bir ajratilgan mablag‘ aniq natijaviy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lanmoqda. Bu esa davlat xarajatlarining samaradorligini baholash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2026-yil budjetida mablag‘lar uch xil budjetlashtirish modeli asosida taqsimlangan bo‘lib, ularning ichida natijaga asoslangan “performance-informed” model yetakchi o‘rinni egallaydi. Xususan, 162, 9 trillion so‘m mablag‘ aynan shu model asosida taqsimlangan bo‘lib, bu



umumiy budjet xarajatlarining qariyb 50 foizini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich davlat moliyasini boshqarishda sifat jihatdan yangi tizim shakllanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, 29, 3 trillion so‘m mablag‘ “presentational” model asosida, ya’ni asosan taqdimot va hisobot ko‘rinishidagi indikatorlar bilan bog‘langan holda ajratilgan bo‘lsa, yana 136, 1 trillion so‘m mablag‘ an’anaviy budjetlashtirish usulida moliyalashtirilmoqda. Bu esa davlat budjetida hali ham o‘tish davri mavjudligini, ya’ni eski va yangi yondashuvlar parallel ravishda qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi.

1-rasm. Davlat budjeti xarajatlarining budjetlashtirish modellari bo‘yicha taqsimoti

Natijaga asoslangan modelning yuqori ulushi ayniqsa ayrim yirik vazirliklar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga ajratilgan 63, 7 trillion so‘m mablag‘ ushbu modelning eng katta qismini tashkil etib, jami performance-based mablag‘larning 39 foiziga tengdir. Bu holat davlat siyosatida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotganini tasdiqlaydi. Mazkur yo‘nalishda ishlab chiqilgan dasturlar orasida maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish uchun 14 787, 2 milliard so‘m, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish uchun esa 46 540 milliard so‘m ajratilgani e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa, ushbu 46, 5 trillion so‘mlik mablag‘ning asosiy qismi pedagog xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga yo‘naltirilgani ta’lim sifatini oshirishda inson resurslariga investitsiya qilish ustuvorligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiyot va moliya sohasiga ajratilgan 56, 2 trillion so‘m mablag‘ ham natijaga asoslangan budjetlashtirish tizimining muhim komponenti hisoblanadi va bu ko‘rsatkich umumiy hajmning 34, 5 foiziga tengdir. Ushbu mablag‘lar doirasida fiskal siyosatni yuritish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, davlat qarzini

boshqarish va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish kabi strategik yo‘nalishlar moliyalashtiriladi. Xususan, 24 163 milliard so‘m mablag‘ fiskal siyosat va budjet ijrosi dasturiga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosiy qismi tashqi qarzni so‘ndirishga xizmat qiladi. Bu esa davlatning qarz yukini kamaytirish va makroiqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan siyosatning muhim elementi hisoblanadi. Shu bilan birga, Pensiya jamg‘armasi uchun ajratilgan 23 269, 5 milliard so‘m mablag‘ davlatning ijtimoiy majburiyatlari, xususan aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi ustuvor vazifalarini aks ettiradi.

Budjet tizimining yana bir muhim jihati shundaki, 8 ta yirik vazirlik va idoralarning 162, 9 trillion so‘mlik xarajatlari to‘liq dasturiy budjetlashtirish asosida shakllantirilgan bo‘lsa, qolgan 41 ta vazirlik va idoraning 29, 3 trillion so‘mlik mablag‘lari asosan rivojlantirish dasturlari doirasida indikatorlar bilan bog‘langan. Bu esa davlat boshqaruvida differensial yondashuv qo‘llanilayotganini, ya’ni ayrim sektorlar ilg‘or modelga tezroq o‘tayotgan bo‘lsa, boshqalari asta-sekinlik bilan moslashayotganini bildiradi. Shu bilan birga, 136, 1 trillion so‘mlik mablag‘ning hanuz an’anaviy budjetlashtirish asosida ajratilishi tizimni to‘liq transformatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, keltirilgan raqamlar davlat budjeti orqali iqtisodiyotni tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishishda kompleks yondashuv qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, maqsadli indikatorlarning mavjudligi har bir ajratilgan mablag‘ning aniq natijalar bilan bog‘lanishini ta’minlab, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tizim davlat organlari faoliyatini baholashda ham muhim instrument sifatida namoyon bo‘ladi, chunki indikatorlar orqali ularning natijadorligi o‘lchanadi.

Shu nuqtayi nazardan, kelgusida davlat budjetini yanada takomillashtirish uchun natijaga asoslangan budjetlashtirish tizimini barcha vazirlik va idoralarga to‘liq joriy etish, sifat ko‘rsatkichlarini kengaytirish, indikatorlar va moliyaviy resurslar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida benchmarking tizimini joriy etish, monitoring va baholash jarayonlarini raqamlashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali budjet tizimining shaffofligini oshirish zarur. Shu orqali davlat moliyasini boshqarish tizimi yanada samarali, ochiq va natijador tizimga aylanishi mumkin.

Xulosa. Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar davlat budjetini shakllantirish va ijro etishda natijaga yo‘naltirilgan yondashuvning bosqichma-bosqich joriy etilayotganini ko‘rsatadi hamda ushbu jarayonni yanada takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan, birinchi navbatda dasturiy budjetlashtirish tizimini barcha vazirlik va idoralarda to‘liq joriy etish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Hozirgi sharoitda ayrim tashkilotlarda mazkur tizim to‘liq shakllanmaganligi sababli budjet mablag‘larining natijadorligini baholashda muayyan cheklovlar yuzaga kelmoqda. Shu bois dasturiy budjetlashtirishni joriy etish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish, bunda har bir sektorning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashuvchan mexanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, davlat budjeti samaradorligini oshirishda sifat va natijadorlik koʻrsatkichlarini (KPI) keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi tizimda koʻplab indikatorlar asosan miqdoriy xarakterga ega boʻlib, ular davlat xizmatlari sifatini toʻliq aks ettira olmaydi. Shu sababli sifat koʻrsatkichlarini ishlab chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda natijadorlikni kompleks baholash tizimini yaratish zarur. Bu esa nafaqat budjet mablagʻlaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, balki davlat organlari faoliyatining haqiqiy natijalarini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, maqsadli indikatorlar va ajratilayotgan budjet mablagʻlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Amaliyotda ayrim hollarda moliyalashtirish hajmi va kutilayotgan natijalar oʻrtasida yetarli darajada aniq va oʻlchanadigan bogʻliqlik mavjud emas. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois har bir budjet dasturi doirasida “resurs–natija” zanjirini aniq shakllantirish, indikatorlarni moliyaviy ajratmalar bilan uzviy bogʻlash hamda ularning bajarilishini doimiy monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Toʻrtinchidan, budjet dasturlarini shakllantirishda xalqaro benchmarking amaliyotidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida qoʻllanilayotgan ilgʻor yondashuvlar — OECD va IMF tomonidan tavsiya etilgan performance budgeting modellari, natijadorlik indikatorlarini shakllantirish metodologiyalari hamda baholash tizimlarini milliy amaliyotga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa nafaqat budjet tizimining samaradorligini oshiradi, balki uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish orqali investitsion jozibadorlikni ham kuchaytiradi.

Beshinchidan, monitoring va baholash tizimini toʻliq raqamlashtirish orqali davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni oshirish zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, “Big Data” tahlili, sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish budjet ijrosi ustidan real vaqt rejimida nazorat oʻrnatish imkonini beradi. Bu esa korrupsion xavflarni kamaytirish, mablagʻlardan maqsadli foydalanishni ta’minlash hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqoridagi takliflarni amalga oshirish jarayonida institutsional muhitni mustahkamlash, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, ularni natijadorlikka yoʻnaltirilgan boshqaruv tamoyillari asosida tayyorlash ham muhim hisoblanadi. Chunki har qanday islohotning muvaffaqiyati inson kapitali va boshqaruv salohiyatiga bevosita bogʻliqdir.

Xulosa qilib aytganda, ilgari surilgan takliflar davlat budjeti tizimini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va natijadorlikka asoslangan boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada davlat moliyasini boshqarish tizimi yanada ochiq, samarali va barqaror tizimga aylanishi kutiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 14.06.2022 yildagi PF-154-son

2. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2025 yildagi O‘RQ-1105-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, 26.12.2025 yildagi PQ-388-son.

Xushmurotov Zoyir,
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bosh mutaxassis, PhD

OLIY TA’LIM VA FAN VAZIRLIGIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH: BUDJET DASTURLARI VA INDIKATORLAR TAHLILI.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida dasturiy budjetlashtirishni joriy etish jarayonida budjet dasturlarini shakllantirish hamda ular uchun maqsadli indikatorlarni tanlab olish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida dasturiy budjetlashtirishning nazariy asoslari o‘rganilgan va amaldagi tizimdagi muammolar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: dasturiy budjetlashtirish, budjet dasturi, maqsadli indikatorlar, natijadorlik, davlat moliyasi, monitoring, baholash, oliy ta’lim tizimi.

Kirish. Bugungi kunda davlat moliyasini boshqarishda samaradorlikni oshirish, budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish hamda natijadorlikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida dasturiy budjetlashtirishni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturiy budjetlashtirish — bu davlat budjeti xarajatlarini aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan budjet dasturlari asosida rejalashtirish, ularning ijrosini ta’minlash, monitoring qilish va natijalarini baholashga qaratilgan boshqaruv tizimidir.

Dasturiy budjetlashtirish (DB) — bu budjet mablag‘larini dasturlar, maqsadlar va natija ko‘rsatkichlari asosida rejalashtirish va boshqarish tizimi bo‘lib, u “qancha pul sarflandi?” emas, balki “qanday natijaga erishildi?” tamoyiliga asoslanadi.

Mazkur ta’rifdan kelib chiqib, dasturiy budjetlashtirish tizimi an’anaviy xarajatlar smetasiga asoslangan yondashuvdan farqli ravishda, moliyaviy resurslarni ma’lum natijalarga erishish bilan bevosita bog‘laydi. Shuningdek, ushbu tizim:

- budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishga;
- davlat organlari faoliyatini natijadorlik asosida baholashga;
- strategik maqsadlar bilan moliyaviy resurslar o‘rtasida uzviylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, Oliy ta’lim va fan sohasida dasturiy budjetlashtirishni joriy etishda budjet dasturlarini to‘g‘ri shakllantirish hamda ular uchun aniq va o‘lchab

bo‘ladigan maqsadli indikatorlarni tanlab olish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 4-sonli qarori ham bu yo‘nalishda asosiy huquqiy hujjat sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism. Dasturiy budjetlashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tizimi davlat xarajatlari samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Xalqaro tajribada ushbu tizimni joriy etishda indikatorlar tizimini to‘g‘ri shakllantirish asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Geert Bouckaert va B. Guy Peters. Vavlat boshqaruvida natijadorlikni baholashda institutsional muhit va boshqaruv sifatini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

David Osborne va Ted Gaebler. davlat boshqaruvida natijadorlik muhimligini ta’kidlagan bo‘lsada, amalda natijalarni o‘lchash va budjetga bog‘lash oson emasligini oson qayd etadilar.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo‘yicha belgilangan maqsadlar:

6-maqsad: Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish.

7-maqsad: Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.

8-maqsad: Oliy ta’lim tashkilotlari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash

9-maqsad: Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish

10-maqsad: Iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish.

11-maqsad: Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash.

12-maqsad: Barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash.

Yuqoridagi maqsadlarning samarali ijrosini ta’minlash uchun maqsadli mablag‘lar bilan ta’minlash va ularga mos budjet dasturlarini ishlab chiqish zarur.


Maqsadlarni uchta asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

Shu munosabat bilan vazilik bo‘yicha 4 ta dastur ya’ni standart budjet dasturi har bir vazirlik va idorada majburiy hisoblanadi, “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash”, “Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish”, “Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” Bu

yo‘nalishlar vazirlikning budjet dasturlarini shakllantirishda asosiy yo‘nalishlar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Misol uchun, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining strukturasidan foydalanib, “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish va oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash” dasturini shakllantirishda tegishli bo‘linmalar va boshqarmalarni aniqlaymiz.

Ushbu dasturdan kelib chiqib, vazirlikdagi qolgan budjet dasturlarini ham tegishli mas’ul bo‘linmalarga biriktirish, ularning vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib, har bir dasturning maqsadlari, vazifalari va maqsadli indikatorlarini aniqlash mumkin.



Dasturning moliyalashtirish manbasi sifatida ushbu dasturda belgilangan yo‘nalishlarga davlat budjeti, vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hamda grant hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar ko‘rsatiladi.

Xulosa. Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturining quyi dasturlari:

- qabul parametrlari, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorini shakllantirish.
- bitiruvchilar bilim va malakalarini baholash.
- oliy ta’lim tashkilotlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish.
- oliy ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish bo‘ladi.

Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturi bo‘yicha Oliy ta’limga o‘qishga kirgan bitiruvchi o‘quvchilar

soni va Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi (jami bitiruvchilar soniga nisbatan) indikatorlarini misol qilib keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.
2. 25.12.2025-yildagi O‘RQ-1105-son “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Prezidentining 08.04.2025-yildagi 210-son “2025-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni.
5. https: //www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/15309576.2002.11643672
6.https: //www.td.org/content/public-manager-magazine/pointing-the-path-to-performance-getting-results-from-the-results-act

Usmanova Guljahon Ulug‘bek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Menejment va marketing” kafedrasi tayanch doktoranti
e-mail: solijonova@list.ru

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ORQALI KORXONALAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda davlat moliyaviy nazoratining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Davlat moliyaviy nazorati tizimida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada milliy va xalqaro tajriba hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, korxona barqarorligi, byudjet intizomi, raqamlashtirish, audit, moliyaviy xavf.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiyotning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat korxonalari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bilan birga, aholi bandligini ta’minlash, soliq tushumlarini oshirish va hududiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [1].

Davlat moliyaviy nazorati korxonalar faoliyatida qonuniylik, maqsadli xarajatlar hamda moliyaviy intizomni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, amaliyotda ushbu tizim bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda [2, 3]. Jumladan, nazorat organlari o‘rtasida o‘zaro

integratsiyaning yetarli emasligi, raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi hamda sanksiyalar mexanizmining sustligi kuzatilmoqda.

Asosiy qism. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimida malakali kadrlar yetishmasligi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida nazorat xodimlarining malaka darajasi rivojlangan davlatlarga nisbatan 35–40 foizga past [4, 5]. Shu bilan birga, ayrim hollarda nazorat organlarining mustaqilligi yetarli darajada ta’minlanmagan bo‘lib, siyosiy ta’sir nazorat natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekiston sanoat korxonalarining 62 foizi nazorat tekshiruvlarini samarali deb hisoblamaydi, 41 foizi esa takroriy tekshiruvlar korxona faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

Zamonaviy moliyaviy nazorat tizimi real vaqt rejimida ma’lumot almashish, kross-tekshiruv va sun’iy intellekt asosida risklarni baholashni talab etadi. Biroq, hozirgi kunda davlat organlari o‘rtasida yagona axborot bazasining mavjud emasligi muammosi saqlanib qolmoqda. Soliq, bojxona, bank va korxona hisobotlari alohida tizimlarda yuritilishi firibgarlik va moliyaviy qoidabuzarliklar ehtimolini oshiradi.

Amaldagi sanksiyalar tizimi ham yetarli darajada samarali emas. Jarimalar ko‘pincha buzilishdan olingan manfaatdan past bo‘lib, bu ularning ogohlantiruvchi (deterrent) ta’sirini kamaytiradi. Bundan tashqari, javobgarlikni shaxsiylashtirish mexanizmlari ham yetarli darajada rivojlanmagan.

1-jadval

Davlat moliyaviy nazoratidagi asosiy muammolar va ularning oqibatlari

Muammo sohasi	Asosiy namoyon bo‘lishi	Oqibatlar
Huquqiy baza	Nazorat normalari o‘rtasidagi ziddiyatlar	Ma’muriy ortiqcha yuk, ikkilanish
Kadrlar	Malakali xodimlar etishmasligi	Nazorat sifatining pastligi
IT infratuzilma	Yagona ma’lumotlar bazasining yo‘qligi	Firibgarlik imkoniyatlari kengayishi
Sanksiyalar	Jarimalar miqdorining pastligi	Deterrent ta’sirning zaifligi
Mustaqillik	Siyosiy ta’sir	Xolislik buzilishi

Avvalo, davlat moliyaviy nazoratini tartibga soluvchi yagona huquqiy bazani shakllantirish zarur. Shu maqsadda “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida”gi qonunni yangi tahrirda qabul qilish maqsadga muvofiq. Unda quyidagilar aks ettirilishi lozim:

-Nazorat organlari vakolatlarini aniq chegaralash va muvofiqlashtirish;

-Risk asosida nazoratni rejalashtirish tizimini joriy etish;

-Nazorat natijalari bo‘yicha majburiy choralar qo‘llash muddatlarini belgilash;

-Takroriy tekshiruvlarni tartibga solish.

Xalqaro tajriba (Germaniya, Janubiy Koreya) shuni ko‘rsatadiki, nazorat samaradorligi huquqiy bazaning aniqligi va tizimliligiga bevosita bog‘liq.

Kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

-Xalqaro sertifikatlash dasturlarini qo‘llab-quvvatlash;

-Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish;

-Rahbar kadrlarni tanlashda professional mezonlarni ustuvor qilish;

-Mehnatga haq to‘lash tizimini natijadorlik bilan bog‘lash.

Sanksiyalar tizimini takomillashtirish bo‘yicha:

-Jarimalarni buzilishdan olingan manfaatdan kamida uch baravar yuqori belgilash;

-Qasddan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish;

-Moliyaviy shaffoflik reytinglarini joriy etish;

-Ixtiyoriy oshkor etish holatlarida sanksiyalarni kamaytirish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimi bir qator tizimli muammolarga ega: huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kadrlar salohiyatining pastligi, raqamli infratuzilmaning sustligi hamda sanksiyalar mexanizmining samarasizligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi, ya’ni huquqiy, institutsional va texnologik islohotlar uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Raqamli texnologiyalar, xususan, yagona axborot platformalari, sun’iy intellekt asosidagi risk-tahlil tizimlari hamda blokcheyn texnologiyalari moliyaviy nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shuningdek, nazorat tizimi faqat jazolashga emas, balki rag‘batlantirish mexanizmlariga ham asoslanishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hisob palatasiga nazorat funktsiyalarini integrasiyalash bo‘yicha yagona dastur ishlab chiqish va yaqin yillarga mo‘ljallangan raqamli moliyaviy nazorat strategiyasini qabul qilish tavsiya etiladi. Ilmiy tadqiqotlar sohasida esa korxona darajasidagi panel ma’lumotlar asosida moliyaviy nazorat va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikning miqdoriy baholashni amalga oshirish kelgusi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Stiglitz, J.E. Economics of the Public Sector. W.W. Norton & Company. 2000y — 823 p.

2. Shleifer, A., Vishny, R.W. The Grabbing Hand: Government Pathologies and Their Cures. Harvard University Press. 1998y — 278 p.

3. Xodiyev, B.Yu., Shodmonov, Sh.Sh. O‘zbekistonda moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish muammolari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2021y — №3. — B. 45-58.

4. IMF Government Finance Statistics Manual. Washington D.C.: International Monetary Fund. 2022y — 390p.

5. OECD (2022). Government at a Glance 2022. Paris: OECD Publishing. — 268p.

Iboyev Saxiddin Mansurovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi
e-mail: *iboevsakhiddin@gmail.com*

TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, zamonaviy moliyaviy instrumentlar, aralash moliyalashtirish modellari va natijaga asoslangan yondashuvlarning ta'lim tizimidagi samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, rivojlanayotgan davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston sharoitida DXShni moliyalashtirishni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, ta'lim moliyalashtirish, ijtimoiy obligatsiyalar, inson kapitali, investitsiyalar.

Global iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimini samarali moliyalashtirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining o'sishi, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi va byudjet resurslarining cheklanganligi ta'limni moliyalashtirishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. DXSh orqali davlat infratuzilma yaratish va xizmat ko'rsatishda xususiy sektor resurslari va tajribasidan foydalanadi [1].

Mamlakatimizda ta'lim tizimini moliyalashtirishning turli jihatlari o'zbekistonlik olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Xususan, Karimova S.Sh. o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini qo'llashning ustunlik jihatlarini asoslab bergan. Muallifning ta'kidlashicha, DXSh mexanizmini joriy etish maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va ularning sarflanishida shaffoflikni oshirish imkonini beradi. Bu esa moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlash bilan birga, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan yana bir tadqiqotchi F.A. Murodova maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratadi. U o'z tadqiqotlarida autsorsing mexanizmini joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab, ushbu yondashuv orqali xizmatlar sifatini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Bu esa DXSh doirasida xizmat ko'rsatishning samarali modellari shakllanishiga zamin yaratadi.

H. Do'stmuxammad tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xalq ta'limini moliyalashtirish samaradorligini oshirish masalalari chuqur tahlil qilingan. Muallif quyidagi muhim tamoyillarni ilgari suradi: birinchidan, maktab ta'limini to'liq qamrab olishga erishish uchun byudjet mablag'laridan foydalanishni cheklamaslik

zarur; ikkinchidan, ta’lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirishni majburiy tusga keltiruvchi me’yorlardan voz kechish lozim; uchinchidan, maktab ta’limining tijoratlashuviga yo‘l qo‘ymaslik kerak; to‘rtinchidan, moliyalashtirish tizimida oraliq maqsadlarga emas, balki yakuniy natijalarni aks ettiruvchi tamoyillarga o‘tish muhimdir. Ushbu yondashuvlar ta’lim tizimining ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlab qolgan holda uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari Do‘stmuxammad tomonidan ilgari surilgan fikrlar bilan qisman mos kelishi kuzatiladi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Xususan, N. Fedina maktabgacha ta’lim tizimi samaradorligini baholashning to‘rtta asosiy mezonini ajratib ko‘rsatadi [2]. Unga ko‘ra, birinchidan, aholining maktabgacha ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda davlat kafolatlari asosida ta’limni ta’minlash; ikkinchidan, ta’lim jarayoni va unga bog‘liq xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; uchinchidan, kadrlar salohiyatini rivojlantirish; to‘rtinchidan esa, byudjetdan moliyalashtirish va moliya-xo‘jalik faoliyatini samarali tashkil etish muhim hisoblanadi.

Fedina tomonidan taklif etilgan mezonlar bilan solishtirilganda, O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini moliyalashtirish hajmi so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshganligi kuzatiladi. Biroq, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, ilmiy-ta’limiy innovatsiyalarni keng joriy etish va ta’lim xizmatlari sifatini oshirish yo‘nalishlarida hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligi aniqlanadi. Bu esa moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimini moliyalashtirishda davlat byudjeti asosiy manba bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, zamonaviy yondashuvlarni, xususan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlarda ilgari surilgan xulosalarni to‘ldiradi va rivojlantiradi. Xususan, ta’lim tizimini moliyalashtirish samaradorligini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali tizimning uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlash zarurligi asoslab beriladi.

Ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni moliyalashtirish mexanizmlari — bu davlat va xususiy sektor o‘rtasida resurslar, risklar va daromadlarni taqsimlash orqali ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan moliyaviy vositalar majmuasidir. Ushbu mexanizmlar zamonaviy iqtisodiyotda ta’limni barqaror moliyalashtirishning muhim elementi hisoblanadi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. Bunga kapital grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va minimal daromad kafolatlari kiradi. Ushbu instrumentlar xususiy investorlar uchun risklarni kamaytirib, ularni ta’lim loyihalariga jalb etishga xizmat qiladi. Xususiy investitsiyalar asosidagi moliyalashtirish keng qo‘llaniladi. Bu yerda xususiy kompaniyalar o‘z kapitali yoki kredit resurslari orqali ta’lim muassasalarini qurish va boshqarishda ishtirok etadi. Tijorat banklari kreditlari va institutsional investorlar mablag‘lari ushbu jarayonning muhim manbasi hisoblanadi. Biroq,

ta’lim loyihalarining uzoq muddatli va past rentabelligi investorlar uchun muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Aaralash moliyalashtirish (blended finance) modeli alohida ahamiyatga ega. Ushbu modelda davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari, jumladan World Bank va Asian Development Bank hamkorlikda ishtirok etadi. Grantlar, imtiyozli kreditlar va kafolatlar orqali risklar kamaytiriladi va loyihalarning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi [3].

Ushbu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, kapital bozori instrumentlari orqali moliyalashtirish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Ta’lim infratuzilmasini rivojlantirishda ijtimoiy obligatsiyalar va yashil obligatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy obligatsiyalar orqali ta’lim loyihalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar jalb qilinadi, yashil obligatsiyalar esa energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan maktab va universitet loyihalarini moliyalashtiradi. Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari (Social Impact Bonds) innovatsion yondashuv sifatida rivojlanmoqda. Ushbu mexanizmda investorlar tomonidan kiritilgan mablag‘lar faqat ma’lum natijalarga erishilgandan so‘ng qaytariladi. Masalan, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi oshishi yoki ta’lim sifati yaxshilanishi kabi ko‘rsatkichlar asosida to‘lovlar amalga oshiriladi. Bu esa resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasida DXShni rivojlantirish bo‘yicha muayyan islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu jarayonni cheklamoqda. Xususan, kapital bozorining past rivojlanganligi, xususiy sektor faolligining cheklanganligi va risklarni taqsimlash mexanizmlarining yetarli emasligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklarining kapital bozoridagi ishtiroki past darajada qolmoqda, bu esa uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Ta’lim loyihalarining past rentabelligi ham investorlar uchun to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Natijada, davlat byudjeti asosiy moliyalashtirish manbasi sifatida qolmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sohasida DXShni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta’lim tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Birinchidan, kapital bozorini rivojlantirish va ijtimoiy obligatsiyalarni joriy etish zarur. Ikkinchidan, aralash moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish orqali xalqaro moliya institutlari resurslarini jalb etish lozim. Uchinchidan, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va davlat kafolatlari mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin. Umuman olganda, DXSh mexanizmlarini samarali qo‘llash ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim sohasida DXSh moliyalashtirish mexanizmlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlat xarajatlarini optimallashtirish va ta’lim sifatini yaxshilashning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, aralash moliyalashtirish, obligatsiyalar bozori va natijaga asoslangan yondashuvlarni integratsiya qilish

orqali O‘zbekistonda ta’lim tizimini moliyalashtirishning barqaror modeli shakllantirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Urazbayevna I. S. (2025). INNOVATSION STARTAPLARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 59(4), 323-328.
2. Бурделова, Т. Н., & Григорьева, М. А. (2025). Пути повышения эффективности финансирования дошкольного воспитания (образования). Вестник евразийской науки, 17(2), 7.
3. Jomo, K. S., & Chowdhury, A. (2019). World Bank financializing development. Development, 62(1), 147-153.

O‘rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
“Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi o‘qituvchisi
email: danik19953110@gmail.com

QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZNING ERTA DIAGNOSTIKASI: MOLIYAVIY, ISHLAB CHIQARISH VA BOSHQARUV KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish materiallari korxonalarida inqiroz holatini erta bosqichda aniqlash masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda korxona barqarorligiga ta’sir etuvchi moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv ko‘rsatkichlari yagona diagnostik tizim doirasida baholanadi. Muallif inqiroz xavfini oldindan ko‘rsatib beruvchi asosiy indikatorlarni ajratadi hamda ular asosida amaliy baholash yondashuvini taklif etadi.

Kalit so‘zlar inqirozning erta diagnostikasi, qurilish materiallari korxonasi, moliyaviy ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, boshqaruv ko‘rsatkichlari, likvidlik, rentabellik, boshqaruv samaradorligi

Kirish. Bugungi kunda bozor muhitining beqarorligi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi, xomashyo ta’minotidagi uzilishlar hamda to‘lov intizomidagi muammolar qurilish materiallari korxonalari faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda korxonada inqiroz holati birdan yuzaga kelmaydi, aksincha, u dastlab ayrim salbiy belgilar orqali asta-sekin shakllanadi. Shu sababli inqirozni erta bosqichda aniqlash va uning chuqurlashib ketishining oldini olish bugungi boshqaruv amaliyotining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqa sanoat subyektlariga nisbatan ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, ushbu tarmoqda ishlab chiqarish jarayoni katta hajmdagi xomashyo, energiya va transport xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lib, mahsulotga bo‘lgan talabning pasayishi yoki to‘lovlar kechikishi korxona moliyaviy barqarorligiga tez ta’sir qiladi. Natijada likvidlikning pasayishi, aylanma mablag‘lar yetishmasligi, ishlab chiqarish

quvvatlaridan to‘liq foydalanmaslik hamda boshqaruvdagi sustkashlik inqiroz belgilari sifatida namoyon bo‘la boshlaydi.

Amaliyotda korxona holatini baholash ko‘pincha faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanadi. Holbuki, inqirozning dastlabki alomatlari nafaqat moliyaviy natijalarda, balki ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi, mahsulot tannarxi, debitor va kreditor qarzdorlik holati, shuningdek boshqaruv qarorlarining tezkorligi va sifati orqali ham yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun inqirozni erta diagnostika qilishda moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Mazkur maqolaning maqsadi qurilish materiallari korxonalarida inqirozning erta diagnostikasi uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni aniqlash, ularni tizimlashtirish hamda korxona faoliyatini baholashda qo‘llash mumkin bo‘lgan yondashuvni ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda qurilish materiallari korxonalarida inqirozning erta diagnostikasini amalga oshirish uchun tizimli tahlil, qiyosiy baholash, guruhlash va indikatorlar asosida diagnostika qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning mantiqi shundan iborat bo‘ldiki, korxona faoliyatida inqiroz holati faqat yakuniy moliyaviy natijalarda emas, balki undan oldinroq paydo bo‘ladigan ishlab chiqarish va boshqaruv belgilarida ham aks etadi. Shu bois baholash jarayonida ko‘rsatkichlar uchta asosiy guruhga ajratildi: moliyaviy ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va boshqaruv ko‘rsatkichlari. Bunday yondashuv erta ogohlantiruvchi indikatorlardan foydalanish zarurligi hamda korxona faoliyatini bir nechta o‘zaro bog‘liq mezonlar asosida baholash samaraliroq ekanini ko‘rsatadigan tadqiqotlar bilan mos keladi [3].

Moliyaviy ko‘rsatkichlar tarkibiga, avvalo, joriy likvidlik, tezkor likvidlik, debitor va kreditor qarzdorlik nisbatlari, aktivlar rentabelligi, sotuv rentabelligi hamda moliyaviy mustaqillik darajasi kiritildi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyati, foyda yaratish qobiliyati va tashqi qarzga qanchalik bog‘lanib qolganini ochib beradi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari korxonalarida inqirozning dastlabki belgisi ko‘pincha aynan pul oqimlaridagi tanglik, aylanma mablag‘larning sekinlashuvi va foyda marjasining qisqarishidan boshlanadi. Agar likvidlik pasaysa, debitor qarzdorlik ortsa va shu bilan birga sotuv rentabelligi tushib borsa, bu korxona ichki barqarorligida jiddiy muammo paydo bo‘layotganini anglatadi. Biroq faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanish yetarli emas, chunki ular ko‘pincha muammo allaqachon shakllanib bo‘lgandan keyin yomonlashadi [4].

Shu sababli ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari erta diagnostikaning ikkinchi muhim yo‘nalishi sifatida qaraldi. Bu yerda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, mahsulot tannarxi dinamikasi, nuqsonli mahsulot ulushi, zaxiralar aylanuvchanligi, uskunalarning bekor turish vaqti hamda buyurtmalar bajarilish ritmiga alohida e’tibor qaratildi. Qurilish materiallari sanoatida energiya, xomashyo va logistika xarajatlari yuqori bo‘lgani uchun ishlab chiqarish jarayonidagi har qanday uzilish yoki samarasizlik juda tez fursatda moliyaviy bosimga aylanadi. Masalan, quvvatlardan to‘liq foydalanilmasligi bir tomondan

mahsulot hajmini kamaytirsa, ikkinchi tomondan doimiy xarajatlar yukini oshiradi; nuqsonli mahsulot ulushining ortishi esa tannarxning ko‘tarilishiga va foydaning qisqarishiga olib keladi. Shunday ekan, ishlab chiqarishdagi salbiy siljishlar ko‘pincha moliyaviy inqirozning oldingi bosqichi sifatida talqin qilinishi mumkin. Korxona faoliyatini integrallashgan KPIlar orqali kuzatish bo‘yicha tadqiqotlar ham aynan shu xulosani tasdiqlaydi [5].

Boshqaruv ko‘rsatkichlari esa inqirozning chuqurlashish darajasini emas, balki uning qanchalik tez oldi olinishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda boshqaruv sifati kadrlar almashinuvi, qaror qabul qilish tezligi, ichki nazorat tizimining ishlashi, rejalashtirish intizomi, xarajatlarni nazorat qilish darajasi va bozor o‘zgarishlariga moslashish qobiliyati orqali baholandi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bir xil moliyaviy sharoitdagi ikki korxonaning natijasi ko‘pincha boshqaruv sifati bilan farqlanadi. Qaysi korxonada rahbariyat muammolarni erta ko‘ra olsa, resurslarni qayta taqsimlasa, xarajatlarni tez optimallashtirsa va ichki nazoratni kuchaysa, o‘sha korxona inqirozni yumshoqroq o‘tkazadi. Aksincha, axborot kechikib yetib boradigan, qarorlar sust qabul qilinadigan va bo‘limlararo muvofiqlashtirish zaif bo‘lgan korxonalarda muammo tez chuqurlashadi. Qurilish va ishlab chiqarish tizimlarida risklarni boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar ham boshqaruv reaksiyasining tezligi va muvofiqlashtirish sifati hal qiluvchi omillardan ekanini ko‘rsatadi [6].

Tahlil natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, qurilish materiallari korxonalarida inqirozning erta diagnostikasi alohida bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki uch yo‘nalishdagi indikatorlarning o‘zaro bog‘liq harakati bilan baholanishi kerak. Agar korxonada bir vaqtning o‘zida likvidlik yomonlashsa, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish pasaysa va boshqaruv qarorlarining samaradorligi susaysa, bu inqiroz xavfining kuchayganini bildiradi. Aksincha, moliyaviy bosim mavjud bo‘lsa ham, ishlab chiqarish barqarorligi va boshqaruv intizomi saqlanib qolgan korxonalarda salbiy jarayonni vaqtida to‘xtatish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, erta diagnostika tizimi korxonada doimiy monitoring mexanizmi sifatida ishlashi, ya’ni asosiy indikatorlar oyma-oy kuzatilib, ularning me’yoriy va kritik chegaralari oldindan belgilanishi lozim.

Mazkur yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u korxona rahbariyatiga inqirozni faqat sodir bo‘lgach baholash emas, balki uni oldindan sezish imkonini beradi. Ayniqsa, qurilish materiallari sanoatida bozor talabi, energiya narxlari, xomashyo ta’minoti va logistika xarajatlari keskin o‘zgaruvchan bo‘lgan sharoitda erta diagnostika tizimi boshqaruvning ajralmas elementi bo‘lishi zarur. Korxona moliyaviy holatini ishlab chiqarish natijalari va boshqaruv sifati bilan birgalikda tahlil qilish inqiroz xavfini aniqroq baholashga, resurslardan oqilona foydalanishga va zarur choralarni kechiktirmasdan ko‘rishga xizmat qiladi [7].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qurilish materiallari korxonalarida inqiroz holati odatda birdan yuzaga kelmaydi, balki u moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlaridagi bosqichma-bosqich yomonlashuv orqali shakllanadi. Shu bois inqirozni faqat yakuniy moliyaviy natijalar asosida baholash yetarli emas. Korxona faoliyatini chuqurroq tahlil qilish shuni anglatadiki, likvidlikning pasayishi, debitor qarzdorlikning ortishi, ishlab chiqarish

quvvatlaridan foydalanish darajasining kamayishi, tannarxning oshishi va boshqaruv qarorlarining sustligi o‘zaro bog‘liq holda inqirozning dastlabki belgilarini yuzaga chiqaradi. Demak, erta diagnostika tizimi korxonaning ichki barqarorligini saqlashda oddiy nazorat vositasi emas, balki strategik boshqaruv instrumenti sifatida qaralishi lozim [8]

Tahlil shuni ham ko‘rsatadiki, qurilish materiallari sanoatida inqiroz xavfi ko‘pincha tashqi omillar bilan birga ichki boshqaruv kamchiliklari ta’sirida kuchayadi. Xususan, resurslardan samarasiz foydalanish, xarajatlar ustidan nazoratning zaifligi, ishlab chiqarish ritmining buzilishi va bozor o‘zgarishlariga kech moslashish korxonaning moliyaviy bosimga chidamliligini pasaytiradi. Shuning uchun korxonalarda baholash faqat alohida ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi asosida olib borilishi zarur. Ayniqsa, moliyaviy indikatorlarni ishlab chiqarish va boshqaruv ko‘rsatkichlari bilan uyg‘un holda tahlil qilish inqiroz xavfini ancha aniqroq baholash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, qurilish materiallari korxonalarida inqirozning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun bir qator amaliy talab va takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, har bir korxonada erta diagnostika uchun doimiy monitoring tizimi joriy etilishi zarur. Bu tizimda likvidlik, rentabellik, qarzdorlik, quvvatlardan foydalanish, tannarx, nuqsonli mahsulot ulushi va boshqaruv samaradorligini ifodalovchi asosiy indikatorlar muntazam ravishda kuzatib borilishi kerak. Ikkinchidan, mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha me’yoriy va kritik chegaralar oldindan belgilanishi, salbiy og‘ishlar aniqlangan zahoti boshqaruv choralarini ko‘rish mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Uchinchidan, korxonalarda ichki nazorat va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimi kuchaytirilishi, ayniqsa xarajatlarni rejalashtirish, zaxiralarni boshqarish va pul oqimlarini nazorat qilish jarayonlari takomillashtirilishi maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, ishlab chiqarishdagi samarasizliklarni kamaytirish uchun texnologik yangilanish, energiya tejamkor yechimlar va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlariga ustuvor ahamiyat berilishi kerak.

Umuman olganda, maqolada asoslab berilgan yondashuv qurilish materiallari korxonalarida inqirozning erta bosqichlarini aniqlash, salbiy jarayonlarning chuqurlashib ketishini oldini olish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Asosiy xulosa shundan iboratki, inqirozning erta diagnostikasi moliyaviy, ishlab chiqarish va boshqaruv ko‘rsatkichlarining yagona tizimda baholanishiga tayangandagina yuqori natija beradi. Aynan shunday kompleks yondashuv korxonaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, tavakkalchiliklarni pasaytirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hermansen, M., Röhn, O. Economic resilience: The usefulness of early warning indicators in OECD countries. OECD Economics Department Working Papers, No. 1250. Paris: OECD Publishing, 2015.

2. Hwang, G., Han, J.-H., Chang, T.-W. An Integrated Key Performance Measurement for Manufacturing Operations Management. Sustainability. 2020. Vol. 12. No. 13. Article 5260. Basel: MDPI, 2020.

3. Oda, M. M. A. A., Tayeh, B. A., Alhammadi, S. A., Abu Aisheh, Y. I. Key indicators for evaluating the performance of construction companies from the perspective of owners and consultants. Results in Engineering. 2022. Vol. 15. Article 100596. Amsterdam: Elsevier, 2022.

4. Kaklauskas, A., Zavadskas, E. K., Naimavičienė, J., Krutinis, M., Plakys, V., Venskus, D. Crisis management in construction and real estate: Conceptual modeling at the micro-, meso- and macro-levels. Land Use Policy. 2011. Vol. 28. No. 1. P. 280–293. Oxford: Elsevier, 2011.

5. ACCA. Working capital management. London: Association of Chartered Certified Accountants, n.d.

6. Altman, E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy. The Journal of Finance. 1968. Vol. 23. No. 4. P. 589–609. New York: Wiley, 1968.

Nurxonov Nurkomil Qahramon o‘g‘li,
University of Business and Science Toshkent filiali,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
e-mail: nurkomilnurxonov623@gmail.com

XORIJIY INVESTITSIYALARNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA ULARNING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH USULLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga ta’siri, ularni jalb etishning huquqiy-iqtisodiy mexanizmlari va samaradorlikni baholash usullari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida xorijiy sarmoyalarni jalb etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining tamoyillari, qonunchilik asoslari, investorlarga beriladigan imtiyoz va kafolatlar yoritilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalardan kutiladigan iqtisodiy samaralar, tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi roli va investitsiya faoliyatini tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar, investitsion imtiyozlar, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, qo‘shma korxonalar, investitsion muhit, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish

Raqamli iqtisodiyotning hozirgi sharoitida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta hisoblanadi. Ma’lumki, har qanday davlat jahon tajribalarini o‘rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm-fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan, dunyodan ajralgan holda rivojlanishi mumkin emasligi barchamizga ma’lum.

Hududlarimizda investitsiya faoliyatni boshqarish jarayonida ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olish, global, zamonaviy bilimlarni olish, soliqlarning

tartiblovchi rolini yanada takomillashtirish, ularning rag‘batlantiruvchilik tendensiyasini oshirishga qaratilishi lozim. Bunda asosiy vazifa sifatida – chet ellik hamkorlarga kapital quyishda eng samarali yo‘nalishlarni tanlash imkoniyatini berish va taklif qilish, o‘zaro manfaatlar uyg‘unligi belgilash lozim.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 25.12.2019, O‘RQ-598-son Qonuniga muvofiq samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu mexanizm investorlarning barcha so‘rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi, deb o‘ylaymiz.

Ma’lumki, jahondagi biron-bir davlat xorijiy sarmoyalarni jalb qilmasdan turib taraqqiyotga hamda iqtisodiyot rivojiga erisha olgan emas. Shu bois ham bu ish mamlakatimizning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasida bu siyosatni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
- respublika iqtisodiyotiga kapital mablag‘larni jalb etishni ta’minlovchi huquqiy asos, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart- sharoitlarni shakllantirish;
- jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologiyalarni etkazib beruvchi hamda iqtisodiyotning zamonaviy tuzilmalarini barpo etishga ko‘maklashuvchi xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini muntazam ravishda yuritish;
- mablag‘larni raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirish bilan bog‘liq eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga sarflash.

Bu borada mamlakatimizdagi mavjud qonunchilik xorijiy sarmoyadorlarga bir qator kafolat va imtiyozlar berishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotimizda naqadar zarurligini e’tirof etgan holda xorijiy sarmoyadorlar O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatiga, qonun ustuvorligiga eng asosiysi to‘lov qobiliyatiga qodir bo‘lgan kuchli sherik sifatida ishonchlarini qozonish lozim. Buning uchun iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital sarmoyalar ko‘rinishida keng jalb etilishi uchun huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa zarur shart- sharoitlarni yaratish, qo‘shma korxonalar tashkil etilishiga ko‘maklashish, shuningdek inves torlar manfaatlari himoya qilinishini takomillashtirish zarur.

Albatta, mamlakatga investitsiya kiritayotgan har bir xorijiy investor uning boy imkoniyatlari bilangina emas, balki:

- avvalambor, respublikada ijtimoiy siyosiy vaziyatning barqarorligi;
- iqtisodiy taraqqiyot istiqbollarining aniq ravshanligi;
- respublikada o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning izchilligi;
- xorijiy sarmoyalar to‘g‘risidagi qonunlarning imtiyozli shartlari to‘g‘ri belgilanganligi bilan ham ularda qiziqish uyg‘otmoqda.

Xorijiy investitsiyalarini jalb etar ekanmiz, ichki jamg‘arma manbalarini safarbar etmasdan va korxonalarning o‘zlari faol investitsiya ishlari bilan shug‘ullanmasdan turib, iqtisodiyot tuzilmasini tubdan o‘zgartirish vazifasini hal qilish qiyin bo‘ladi. Investitsiya siyosatida asosiy e’tibor korxonalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta qurish va texnik qayta qurollantirish uchun mablag‘ qidirib topishni rag‘batlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilar ekan, bunda bizning asosiy vazifamiz chet mamlakatlardan keladigan sarmoyalarni ishga solib, xomashyo etkazib beradigan mintaqadan tayyor mahsulot chiqaradigan mamlakatga aylantirish orqaligina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga erishgan bo‘lamiz. torlar manfaatlari himoya qilinishini takomillashtirish zarur.

Albatta, mamlakatga investitsiya kiritayotgan har bir xorijiy investor uning boy imkoniyatlari bilangina emas, balki:

- avvalambor, respublikada ijtimoiy siyosiy vaziyatning barqarorligi;
- iqtisodiy taraqqiyot istiqbollarining aniq ravshanligi;
- respublikada o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning izchilligi;
- xorijiy sarmoyalar to‘g‘risidagi qonunlarning imtiyozli shartlari to‘g‘ri belgilanganligi bilan ham ularda qiziqish uyg‘otmoqda.

Xorijiy investitsiyalarini jalb etar ekanmiz, ichki jamg‘arma manbalarini safarbar etmasdan va korxonalarning o‘zlari faol investitsiya ishlari bilan shug‘ullanmasdan turib, iqtisodiyot tuzilmasini tubdan o‘zgartirish vazifasini hal qilish qiyin bo‘ladi. Investitsiya siyosatida asosiy e’tibor korxonalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta qurish va texnik qayta qurollantirish uchun mablag‘ qidirib topishni rag‘batlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilar ekan, bunda bizning asosiy vazifamiz chet mamlakatlardan keladigan sarmoyalarni ishga solib, xomashyo etkazib beradigan mintaqadan tayyor mahsulot chiqaradigan mamlakatga aylantirish orqaligina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga erishgan bo‘lamiz.

Islohotlarning dastlabki bosqichida xorijiy sarmoyalarni milliy iqtisodiyotga kiritilishi tadbirkorlikning kelajagi sifatida baholandi. Ushbu imkoniyatdan foydalanish qanday natijalar berishi asoslandi. Belgilangan tadbir va vazifalarni yechimini ta’minlash borasida amaliy qadamlar qo‘yildi. Xorijiy sarmoyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda oldindan belgilab olingan tamoyillarga asoslangan holda investitsiyalarni jalb etish uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirildi. Xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq joriy etildi. Imtiyozlar va rag‘batlantirish omillari belgilandi. Bu borada quyidagilarni keltirish joiz:

- ishlab chiqarish hajmida tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti kamida 30 foizni tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, foyda solig‘ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kam to‘lash huquqi berildi;

-respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo‘yicha soliqlar to‘lash- dan besh yil muddatga ozod etildi;

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismi

soliqdan ozod etildi;


o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsat nomasiz chetga olib ketish imkoniyati berildi;

- O‘zbekiston hududida qo‘shma korxonalar- ning va faqat xorijiy sarmoya bilan ishlaydigan korxonalarning ustav fondiga hissa qo‘shish uchun mol-mulkni chetdan boj to‘lovlarisiz olib kirish ruxsati berildi;

- jismoniy va yuridik shaxslar, jumladan, xorijliklarning davlat mulkini xususiylashtirish jarayonida, shu jumladan ko‘chmas mulkning keng miqyosda sotilishida bemalol ishtirok etishlari ta’minlandi.

Mamlakat iqtisodiyotiga chet el sarmoyasini jalb etish tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy jihatlaridan biri bo‘lib. Buning uchun esa avvalambor, joylarda qulay sharoit, ya’ni infrastruktura yaratish lozim. Chunki kimki o‘z faoliyatida chet el sarmoyasidan foydalanishni istasa, shunga yarasha infratuzilma yaratish kerak. Xorijiy investitsiyani iqtisodiyotga jalb etishning yana bir yo‘li – ishlab turgan zavod va fabrikalar negizida qo‘shma korxonalar tashkil etishdan iborat.

Iqtisodiy islohotlarni ikkinchi bosqichida, chet el sarmoyalarini jalb etish amaliyoti natijalarini e’tiborga olgan holda, ularni tez foyda keltiradigan sohalarga kirib kelganini hisobga olib, investitsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi tizimini joriy etishga qaratildi. Ishlab chiqarishni yuksaltirish maqsadida korxonalar va aholi investitsiya faoliyatini rag‘batlantirishning baquvvat mexanizmini vujudga keltirish vazifasi qo‘yildi.



1-rasm. Xorijiy investitsiyalardan kutiladigan samara[5]

Xorijiy sarmoyalarga baho berilganda ularni juda qiyinchilik bilan va uzoq vaqt mobaynida belgilanishi, o‘zining yo‘nalishini tanlov asosida o‘zgartirishi hamda tikilgan sarmoyani ko‘paytirishi zarurligini tan olgan holda, mumkin

bo‘lgan yo‘qotishlar ham bo‘lishini, ammo kapital kapitalni ko‘paytirishi, foydali tarzda mablag‘ yig‘ib, undan qo‘shimcha foyda olishi mumkin bo‘lgan maydonni qidirishini, kapital shunchaki harakatsiz yotmasligini ta’kidlash mumkin.

1-rasmda keltirilgan xorijiy sarmoyalar samaralarini tinimsiz davom ettirish mumkin, chunki xorijiy sheriklar bilan muloqot yuritish, ular bilan qo‘shma faoliyat olib borish, milliy iqtisodiyotimizda tub tuzilma o‘zgarishlarga olib keladi, mamlakat qudratini oshiradi, milliy valyutamiz mavqeyini mustahkamlaydi, farovonlikni ta’minlaydi, turmush tarzimizni yaxshilaydi. Eng asosiysi, har bir shaxs o‘z imkoniyatlarini kengaytiradi, baxtli hayot kechirishga zamin yaratadi, , O‘zbekiston rivojlangan mamlakatlar qatoriga ko‘tariladi, har bir tadbirkorning beli baquvvat bo‘ladi, cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning ikkinchi bosqichida asosiy e’tiborni iqtisodiyotimizda tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishga va tez sur’atlarda safarbar etilgan xorijiy sarmoyalar evaziga raqobatbardoshli moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishga qaratildi. Buning uchun ichki sarmoyalarni safarbar qilish va xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish bilangina tub tuzilma o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Darhaqiqat, xorijiy sheriklar bilan muloqot boshlanganda, albatta, ular sherik sifatida sarmoya ajratishga tayyor bo‘lsa ham, avvalambor o‘zga sherik imkoniyatlari bilan qiziqishi tabiiydir. Shuning uchun ham yurtboshimiz ichki imkoniyatlarni, ya’ni ichki sarmoyalarimizni safarbar qilish bilan birga xorijiy sarmoyalarni keng ravishda jalb etish to‘g‘risida bosh qotirishni tavsiya etiladi.

Hukumatimiz tomonidan xorijiy sarmoyalarni qay darajada jalb etilishi oxir-oqibatda iqtisodiyotimizni kelajagini ko‘p jihatdan aniqlab berishi to‘g‘risidagi g‘oya ilgari suriladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi kunda iqtisodiyotimizning kelgusi holati ko‘p jihatdan biz bugun xorijiy sarmoyalarni qay darajada ko‘proq jalb etishimizga bog‘liq. Bu borada xorijiy sarmoyalarni birinchi navbatda yangi texnologiyalarni joriy etilishiga va yangi quvvatlarni ishga tushirilishiga qaratilishi ko‘zda tutiladi.

Albatta, hamma biznes qilishni, ayniqsa sarmoyadorlarni o‘z boyligiga boylik qo‘shishni istaydi. Bu esa o‘z navbatida sarmoyalarni jalb qilish uchun sharoit yaratilishini talab etadi. Buning uchun eng avvalo sarmoyadorning mazkur mintaqada mavjud siyosiy barqarorlikka, bu davlatda qabul qilingan qonunlar, huquqiy me’yorlar har bir kapital egasi olishni istagan foyda, daromadni kafolatlashiga ishonch hosil qilishiga bog‘liq. Qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritilayotgan mintaqadagi imkoniyatlar, malakali ishchi kuchi mavjudligi, resurslar narx-navosi, infratuzilmaning rivojlanish holati, axborot ishonchliligi, xizmat ko‘rsatish ya’ni aloqa, transport rivojlanish holati va istiqboli hamda jozibali loyihalarni mavjudligi investorlar qiziqishini yanada orttiradi.

Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o‘z ifodasini topadi. Investitsiya faoliyati rivojlanishining obyektiv sharoitlarini aks ettiradigan alohida investitsiya munosabatlarining mavjudligi tartibga solishning mustaqil predmeti bo‘lishini taqozo etadi. Tartibga solish

usullari huquq me’yorlarining ham alohida, ham ijtimoiy zarur investitsiya munosabatlari xarakteriga o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatish yo‘llaridan iborat.

Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar strategiyasining juda muhim sharti sifatida belgilangan bo‘lib, kuchli investitsiya siyosatini o‘tkazish uchun ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim:

birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish borasida aniq maqsadni ko‘zlab siyosat o‘tkazish zarur. Bunda tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoya- dorlar daromadlaridan erkin foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish;

ikkinchidan, xorijiy sarmoyalarni, asosan bevosita kapital mablag‘lar tarzidagi sarmoyalarni Respublika iqtisodiyotiga keng jalb etish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaboshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;

uchinchidan, O‘zbekistonga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keladigan xalq xo‘jaligining zamonaviy strukturasini vujudga keltirishda yordam beradigan xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o‘tkazish;

to‘rtinchidan, mablag‘larni eng ustuvor sohalarga — respublika mustaqilligini ta’minlaydigan agrar sektorni, yoqilg‘i-energetika kompleksini hamda boshqa bazaviy tarmoqlarni rivojlantirishga, raqobatga qodir, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga sarflash lozim. Chunki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurmay turib, eksport imkoniyatlarini kengaytirish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. G‘ o‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.

2. Kerr P. Diplomacy in a globalizing world: theories and practices. New York: Oxford University Press, USA. 2013.

3. Кеселова Н.В., Боровекова Т.В., Захарова Г.В. и др. Инвестиционная деятельностъ: Учебное пособие. М: КНОРУС, 2007. — 432 с.

4. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Yu, Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. — T.: Iqtisod-moliya, 2014. — S. 52.

5. Kuzieva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun èzilgan dissertatsiya. – T., 2008.

Maxmudov Anvarjon Maxmudovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi
e-mail: anvar_maxmudov1968@mail.ru
Abdullayev Po’latjon Azimjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 72-24 MMT guruh talabasi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA NAQD PULSIZ TO‘LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Naqd pulsiz to‘lov tizimining rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiyotga ta'siri va O‘zbekiston misolida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda xalqaro moliya tashkilotlarining statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda naqd pulsiz to‘lovlar ulushi sezilarli darajada oshgan, pul massasi tarkibida naqd pulning ulushi qisqargan va moliyaviy inklyuziya ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Maqolada naqd pulsiz to‘lov tizimining rivojlanish omillari, mavjud muammolar va kelgusidagi istiqbollar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: naqd pulsiz to‘lovlar, elektron to‘lov tizimlari, moliyaviy inklyuziya, raqamli iqtisodiyot, bank kartalari.

Jahon iqtisodiyotining raqamlashtirilishi zamonaviy moliya tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Naqd pulsiz to‘lovlar iqtisodiyot samaradorligini oshirish, moliyaviy operatsiyalar shaffofligini ta’minlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda naqd pulsiz to‘lovlar ulushi 80–90 foizni tashkil etayotgan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda ham ushbu ko‘rsatkichning barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va naqd pulsiz to‘lovlar ulushini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonida iqtisodiyotni raqamlashtirish, zamonaviy to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish, bank xizmatlarini transformatsiya qilish va naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘lov tizimlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3620-son qarori hamda “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4699-son qaroriga muvofiq, milliy to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish, elektron to‘lov vositalari va masofaviy bank xizmatlarini keng joriy etish, shuningdek, to‘lov xizmatlari bozorida raqobat muhitini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda naqd pulsiz to‘lovlar hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega. Xususan, bank plastik kartalari, mobil ilovalar va elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar soni va

hajmi sezilarli darajada ortgan. Bu esa, o‘z navbatida, moliyaviy xizmatlarning ommalashuvi va aholining raqamli to‘lov vositalariga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, naqd pulsiz to‘lovlar ulushining oshishi bir qator omillar bilan bevosita bog‘liq. Jumladan, zamonaviy to‘lov infratuzilmasining kengaytirilishi, POS-terminallar va QR-kodli to‘lov tizimlarining joriy etilishi, mobil banking xizmatlarining rivojlanishi hamda davlat tomonidan olib borilayotgan rag‘batlantiruvchi siyosat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda naqd pulsiz to‘lovlar ulushining dinamikasi (foizda)[34]

Yillar	**Naqd pulsiz to‘lovlar ulushi**
2020	18, 5
2021	24, 2
2022	31, 0
2023	36, 8
2024	41, 2
2025	45, 6

2020–2025 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz to‘lovlar ulushi sezilarli darajada oshganligi kuzatishimiz mumkin. O’rganilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich 2020 yildagi 18, 5 foizdan 2025 yilga kelib 45, 6 foizgacha yetgan. Bu esa qisqa muddat ichida qariyb 27, 1 foiz punktga o‘sishni anglatadi hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi [2].

2-jadval

Bank kartalari va to‘lov infratuzilmasi rivojlanishi tahlili[35]

Ko‘rsatkichlar	**2020**	**2022**	**2024**	**2025**
Bank kartalari soni (mln dona)	18, 5	25, 2	34, 8	40, 2
POS-terminallar soni (ming dona)	112, 4	185, 6	268, 4	325, 7
Bankomatlar soni (ming dona)	8, 2	10, 5	12, 8	14, 6
Aholining bank kartasiga egalik darajasi (%)	52	68	82	89

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har yili barqaror o‘sish tendensiyasi saqlanib qolgan. Xususan, 2020–2021 yillarda o‘sish 5, 7 foiz punktni, 2021–2022 yillarda 6, 8 foiz punktni, 2022–2023 yillarda 5, 8 foiz punktni tashkil etgan. Keyingi yillarda ham ijobiy dinamika davom etib, 2023–2024 yillarda 4, 4 foiz punkt, 2024–2025 yillarda esa 4, 4 foiz punkt o‘sish qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘sish sur’atlari nisbatan barqaror bo‘lganini, biroq dastlabki bosqichlarda yuqoriroq temp kuzatilgan[3].

[34] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari
[35] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati taxminan 5–6 foiz punkt atrofida shakllangan bo‘lib, bu yuqori dinamik rivojlanish darajasini ifodalaydi. Ayniqsa, 2021–2023-yillar oralig‘ida keskin o‘sish kuzatilgani mazkur davrda raqamli to‘lov infratuzilmasining kengayishi, bank xizmatlarining transformatsiyasi va elektron to‘lov vositalarining ommalashuvi bilan izohlanadi.

2020–2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida bank kartalari, POS-terminallar va bankomatlar tarmog‘i sezilarli darajada kengaygan. Keltirilgan statistik ko‘rsatkichlar ushbu davrda moliyaviy infratuzilmaning izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi.[2].

3-jadval

2025-yilda naqd pulsiz to‘lovlar tarkibi tahlili (foizda)[36]

To‘lov turlari	**Ulushi**
Plastik karta orqali to‘lovlar	48, 5
Mobil ilovalar orqali to‘lovlar	32, 3
Internet-banking orqali to‘lovlar	12, 8
QR-kod orqali to‘lovlar	4, 2
Boshqa usullar	2, 2

Bank kartalari va to‘lov infratuzilmasi yillik o‘sish sur’atlari (CAGR). Hisoblash natijalari 2020–2025 yillar uchun:

- **Bank kartalari:** 18, 5 mln → 40, 2 mln, **CAGR ≈ 17, 5%**
- **POS-terminallar:** 112, 4 ming → 325, 7 ming, **CAGR ≈ 21, 0%**
- **Bankomatlar:** 8, 2 ming → 14, 6 ming, **CAGR ≈ 12, 0%**

Bank kartalari: 2020 yilda 18, 5 mln dona bo‘lgan bank kartalari soni 2025 yilga kelib 40, 2 mln donaga yetgan. Yillik o‘sish sur’ati 17, 5% ni tashkil qilmoqda. Bu aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani va raqamli to‘lov tizimlariga bo‘lgan ishonchning ortganini ko‘rsatadi. 2025 yilga kelib aholining bank kartasiga egalik darajasi 89% ga yetib, moliyaviy inklyuziya darajasi yuqori ekanligi tasdiqlanadi.

POS-terminallar: Savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarida o‘rnatilgan POS-terminal tarmog‘i 112, 4 mingdan 325, 7 minggacha oshgan. 21, 0% yillik o‘sish sur’ati tizimning eng jadal rivojlanayotgan segmentini ko‘rsatadi. Savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarida to‘lovlarni qabul qilish imkoniyati ortgani, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishni sezilarli darajada rag‘batlantiradi.

Bankomatlar: Bankomatlar soni ham barqaror ravishda ortib, 2020 yilda 8, 2 mingdan 2025 yilga kelib 14, 6 minggacha yetgan. 12, 0% yillik o‘sish sur’ati bilan bankomatlar soni barqaror, ammo POS-terminallarga nisbatan sekinroq rivojlangan. Bu moliyaviy xizmatlarga kirishning kengayganini bildiradi, lekin naqd pul muomalasini kamaytirishga xizmat qiluvchi operatsiyalar barqaror sur’atda oshmoqda.

[36] Muallif hisob-kitoblari

2025 yilga kelib O‘zbekistonda naqd pulsiz to‘lovlar tizimi tarkibida sezilarli diversifikatsiya kuzatiladi. Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, naqd pulsiz operatsiyalar quyidagi asosiy segmentlarga bo‘linadi:

plastik karta orqali to‘lovlar (48, 5%). Ushbu segment tizimning eng yirik qismi hisoblanadi. Bank kartalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar naqd pulsiz iqtisodiyotning asosiy mexanizmini tashkil qiladi. Ulushning yuqoriligi aholining bank kartalaridan keng foydalanishini, shuningdek, POS-terminallar va bankomatlar tarmog‘ining samarali ishlashini ko‘rsatadi;

mobil ilovalar orqali to‘lovlar (32, 3%). Tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan segment bo‘lib, yosh avlod va texnologiyaga moslashgan foydalanuvchilar orasida keng qo‘llanilmoqda. Mobil ilovalar orqali to‘lovlar ulushining katta bo‘lishi raqamli moliya ekotizimining jadal kengayishini va elektron hamyonlar hamda mobil banking xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishini tasdiqlaydi;

internet-banking orqali to‘lovlar (12, 8%). Ushbu kanal asosan masofaviy hisob-kitoblar, to‘lovlarni oldindan rejalashtirish va korporativ operatsiyalar uchun qo‘llaniladi. Ulushning o‘rtacha darajada bo‘lishi internet bankingning barqaror, lekin mobil ilovalar bilan solishtirganda sekinroq ommalashayotganini bildiradi;

QR-kod orqali to‘lovlar (4, 2%). Nisbatan kichik segment, ammo o‘sish sur’atlari eng yuqori bo‘lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. QR-kod orqali to‘lovlar oson va tez amalga oshiriladi, ayniqsa kichik va mikro bizneslar hamda savdo nuqtalarida keng tarqalishi kutilmoqda;

boshqa usullar (2, 2%). Bu guruhdan kichik foiz ulushi elektron to‘lov platformalari, tokenlar yoki boshqa raqamli instrumentlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarni tashkil qiladi.[3]

Naqd pulsiz to‘lov tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. **Infratuzilmani qishloq hududlarida kengaytirish**: Qishloq va chekka hududlarda POS-terminallar, bankomatlar va internet tarmog‘ining qamrovini oshirish. Buning uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish.
2. **Moliyaviy savodxonlikni oshirish**: Aholi, ayniqsa, qariyalar va qishloq aholisi orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini amalga oshirish. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot materiallarini tarqatish.
3. **Naqd pulsiz operatsiyalar uchcu Soliq sohasida imtiyozlarini joriy etish**: Naqd pulsiz to‘lovlarni qabul qiluvchi tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va chegirmalar joriy etish. Ayniqsa, qishloq hududlarida faoliyat yurituvchi korxonalarni qo‘shimcha rag‘batlantirish.
4. **Kiberxavfsizlikni kuchaytirish**: Naqd pulsiz to‘lovlar hajmining oshishi bilan birga kiberxavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish. To‘lov tizimlarining ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha standartlarni joriy etish.

5. **Monitoring va baholash tizimini yaratish**: Naqd pulsiz to‘lovlarning rivojlanishini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini yaratish. Har chorakda hududlar va tarmoqlar kesimida tahliliy hisobotlarni tayyorlash va e'lon qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). "To‘lov tizimlari va hisob-kitoblar bo‘yicha hisobot". Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2025). "O‘zbekiston raqamlarda". Toshkent.

Djalilov Rahmonkul Hamidovich
Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent
e-mail: djalilovraxmonqul@gmail.com

RESPUBLIKAMIZ SOLIQ TIZIMIDA AKSIZ SOLIG‘INING AMALIYOTDAGI HOLATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida aksiz solig‘ining amaldagi holati, uning iqtisodiy mazmuni hamda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, aksiz solig‘ining hisoblash mexanizmlari, soliq siyosatidagi o‘zgarishlarning ta’siri va so‘nggi yillardagi dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida aksiz solig‘ining fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurligi asoslab berilgan hamda uni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlari: aksiz solig‘i, soliq tizimi, bilvosita soliqlar, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma’muriyatchiligi, fiskal siyosat, soliq stavkalari.

Kirish. Zamonaviy sharoitda soliq tizimida aksiz solig‘ini takomillashtirishning xususiyatlari va usullarini o‘rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va davlat iqtisodiy siyosati faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u milliy iqtisodiyot moliyaviy resurslarning muhim qismi oqimini ta’minlaydi. Umuman olganda, aksiz solig‘i tizimi murakkab bo‘lib, uni davlat byudjetida hisoblash vazifalari bilan tarixiy aloqalarni shakllantiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, aksiz solig‘i byudjetini to‘ldirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muhim soliq hisoblanadi.

Aksiz to‘lanadigan soliqlar aksiz to‘lanadigan mahsulotlar narxiga kiritiladi va shu tariqa yakuniy iste’molchilarga o‘tkaziladi. Shu bilan birga, aksiz solig‘i miqdori soliqqa tortiladigan tovarlar narxlari darajasini sezilarli darajada belgilaydi, shuningdek, iste’mol talabiga ta’sir qiladi. Aksiz solig‘ining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu soliq faqat aksiz to‘lanadigan ayrim tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda aksiz solig‘i butun dunyoda keng qo‘llaniladi. Ko‘pgina mamlakatlarda ular har qanday hukumat uchun muhim daromad manbai bo‘lib, sog‘liqni saqlash, ta’lim va infratuzilma loyihalari kabi davlat xizmatlarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Olimlar ta’kidlashicha, aksiz solig‘ining samaradorligi uni to‘g‘ri boshqarish, nazoratni kuchaytirish va yetarli soliq bazasini shakllantirishga bog‘liq. Bundan tashqari, u aholi iste’moli va ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim iqtisodiy instrument sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili “aksiz solig‘ining zarurligi” tushunchasi doirasida o‘ziga xos yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti hamda aksiz solig‘i ma’muriyatchiligi mavzusi juda kam o‘rganilgan.

Aksiz solig‘i - bu iqtisodiyotga va jamiyat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan muayyan tovarlar va xizmatlarni sotish yoki ishlab chiqarish uchun olinadigan soliq. Odatda, bu soliqlar ishlab chiqarish, sotish yoki import qilish vaqtida olinadi.

Aksiz solig‘i ko‘pincha tamaki, alkogol, benzin kabi mahsulotlarga haddan tashqari foydalanishning oldini olish va oldini olish yoki atrof-muhit ifloslanishini bartaraf etish uchun qo‘yiladi. Keyinchalik bu turdagi soliqlar davlat dasturlarini moliyalashtirish, shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta’lim va infratuzilma kabi muhim xizmatlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1108-son qonuni[9] bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Tamaki mahsulotlarining sigara, chilim uchun tamaki, chekiladigan, o‘rama tamaki, chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki va boshqa shu kabi turlari uchun aksiz solig‘i summasi 2026-yil uchun ikki bosqichli tartibda ko‘tarilishi belgilangan. Ularning birinchi bosqichi 2026-yil 1-yanvardan amalga oshirilsa, ikkinchi bosqichi esa 2026-yil 1-fevraldan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 1-iyundagi 345-son qarori bilan tasdiqlangan “Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament”ning 38-bandida, Alkogolsiz ichimliklar qadoqning butunligi yoki qadoqni berkitgan moslamaning sezilmas tarzda buzilishi ehtimolini istisno qiladigan tarzda qadoqlanishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ya’ni Alkogolsiz ichimliklar faqat qadoqlangan holda sotilishi shartligi, boshqacha holatda sotish ta’qiqlanganligi ko‘rsatilgan.

Kuchli alkogol mahsulotlari (aroq, konyak va boshqalar) mahsulotlari bo‘yicha import mahsulotlariga nisbatan yuqori stavka qo‘llanilishi ichki ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarni himoya qilish siyosatiga mos keladi. 2026-yilning ikkinchi yarmiga kelib aksiz solig‘i stavkalari tenglashtirilishi bozorda raqobatni muvozanatlashtirish maqsadini ko‘rsatadi.

Tabiiy vinolarga nisbatan soliq yukining kamayishi kam alkogolli ichimliklarni rag‘batlantirish siyosati bilan bog‘liq. Mahalliy vinolar uchun stavkaning bosqichma-bosqich oshishi soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Soliq stavkalarining bosqichma-bosqich o‘zgarishi – inflyatsiya, bozor moslashuvi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. 2026-yil aprelidan soliq stavkalari bir xil proportsiyada oshirilishi, bu soliq siyosatining tizimli ekanini ko‘rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshirish va energiya resurslarini tejash maqsadlari ko‘zlangan. Aksiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalangan byudjeti uchun muhim daromad manbai bo‘lib, u iqtisodiyotga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar (mlrd.so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) – jami		**132 938, 1**	**164 799, 4**	**201 863, 7**	**231 721, 4**	**274 424, 0**
1.	**Bilvosita soliqlar**	**46 428, 40**	**56 290, 40**	**71 390, 10**	**83 325, 80**	**88 341, 00**
1.1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	31 177, 40	38 439, 00	52 189, 40	57 885, 30	59 280, 00
1.2.	Aksiz solig‘i	11 697, 30	13 086, 50	13 455, 00	15 834, 40	19 060, 00
1.3.	Bojxona boji	3 553, 70	4 764, 90	5 745, 70	9 606, 10	10 001, 00
2.	**Jami tushumlarda aksiz solig‘i ulushi**	**8, 80%**	**7, 94%**	**6, 67%**	**6, 83%**	**6, 95%**
3.	**Bilvosita soliqlar tushumi-da aksiz solig‘i ulushi**	**25, 19%**	**23, 25%**	**18, 85%**	**19, 00%**	**21, 58%**

O‘zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar tarkibi keltirilgan 1-jadvalda keltildi.

Tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari yildan yilga oshganini ko‘rishimiz mumkin. 2018-yilda bu ko‘rsatkich 79 099, 0 mlrd. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda esa 201 863, 7 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu davrda bilvosita soliqlari bo‘yicha ham tushumlar oshishish tendentsiyasi ega bo‘lgan. Bilvosita soliqlar 2018-yilda 41 280, 4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 56 290, 5 va 2022-yilda 71 390, 2 mlrd. so‘m bo‘lgan.

Ushbu davrda aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarni absolyut miqdori oshgan. Bu ko‘rsatkich 2018-yilda 9 702, 2 mlrd. so‘m bo‘lib, 2022-yilda 13 455, 0 mrld. so‘mni tashkil etgan. Biroq, aktsis solig‘ining davlat byudjetiga tushumidagi ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo‘lib, 2018-yilda 12, 27 foizni, 2021-yilda 7, 95 va 2022-yilda 6, 67 foiz bo‘lgan. Aksiz solig‘ining bilvosita soliqlar tushumidagi ulushi ham pasaygan: 2018-yilda 23, 50 foiz, 2021-yilda 23, 25 foiz va 2022-yilda 18, 85 foizni tashkil etgan.

Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami 2020-2024-yillarda izchil o‘sish tendentsiyasini namoyon qilgan, 2020-yilda 132 938, 1 mlrd. so‘mdan 2024-yilda 274 424, 0 mlrd. so‘mga yoki o‘tgan 5 yilda daromadlar hajmi qariyb 2, 06

barobarga oshgan (≈ 106% o‘sish). Bu holat iqtisodiy faollikning kengayishi, soliq bazasining mustahkamlanishi va ma’muriy islohotlar samarasi bilan izohlanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i byudjet daromadlarida asosiy manbalardan biri sifatida barqaror o‘sgan. 2020-yilga nisbatan 2024-yilda 28 102, 6 mlrd. so‘mga o‘sgan yoki 59 280, 0 mlrd. so‘mni (o‘sish +90%) tashkil etgan.

QQS tushumlarining yuqori sur’atda o‘sishiga ta’sir etgan asosiy omil sifatida iste’mol bozorining kengayishi, aylanmalarning legallashuvi va soliq ma’murchiligining raqamlashuvidir. Aksiz solig‘i ulushi yillar kesimida o‘zgaruvchan bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. 2020-yilda 25, 19% bo‘lgan holda 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 21, 58%ga etgan.

2022-yilda keskin pasayish aksiz siyosati liberallashuvi yoki ayrim tovarlarga stavkalarning kamaytirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2024-yilda ulushning qayta oshishi fiskal ahamiyatning tiklanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, aksiz solig‘i - bu hukumat tomonidan ma’lum tovarlar (alkogol, tamaki, yoqilg‘i, avtomobillar va insonlarning boshqa ikkilamchi ehtiyojlari) sotishdan olinadigan bilvosita soliq ekan.

Aksiz solig‘i odatda bir birlik uchun soliq bo‘lib, sotib olingan tovarning hajmi yoki birligi uchun ma’lum miqdorni belgilaydi, aksiz solig‘i odatda tor doiradagi tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Soliq stavkalarining bosqichma-bosqich o‘zgarishi - inflyatsiya, bozor moslashuvi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Aksiz solig‘i ulushi tartibga soluvchi va fiskal funktsiyalar o‘rtasida muvozanat izlanayotganini anglatadi.

2026-yil aprelidan soliq stavkalari bir xil proportsiyada oshirilishi, bu soliq siyosatining tizimli ekanini ko‘rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshirish va energiya resurslarini tejash maqsadlari ko‘zlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Каширина, М. В. Проблемы уплаты акцизов на алкогольную продукцию в России / М. В. Каширина, Б. Б. Ташполатова // Московский экономический журнал. — 2017. — № 5. — С. 32.

2.Семенова Г. Н. Акцизное налогообложение в России и за рубежом // Вестник Государственного университета просвещения. Серия: Экономика. 2023. № 4. С. 86-104. DOI: 10.18384/2949-5024-2023-4-86-104

3.Бут-Гусаим Д. А., Тарарышкина Л. И. Косвенные налоги как инструмент фискальной политики: опыт Китая и ЕАЭС. https: //elib.bsu.by/bitstream/123456789/333912/1/635-640.pdf.

4.Delipalla, S. (2009). Commodity tax structure and informal activity. Bulletin of Economic Research, 61(3), 283-294.

5.Боровко Л.В. (2012) Формирование социально-ориентированной модели акцизного налогообложения и эффективность её развития. // Проблемы экономики и юридической практики, № 6, с. 71-75.

6.Тегетаева О.Р. (2016) К проблемам реформы акцизного налогообложения. // Налоговый менеджмент. № 6. С. 23-27.

Bozorov Samar Safarovich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: samarbozorov575@gmail.com

MILLIY TURIZM BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA “KONTENT MARKETING” EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kontent marketingning nazariy asoslari hamda uning turizm marketingidagi o‘rni tahlil qilingan. Xorijiy olimlar yondashuvlari asosida kontent marketingning auditoriyaga yo‘naltirilganlik, qiymatli kontent yaratish, raqamli platformalarda kommunikatsiyani rivojlantirish va brend identitetini shakllantirish kabi asosiy tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, kontent marketingni turizm sohasida qo‘llash orqali milliy turizm brendining jozibadorligini oshirish, turistlar bilan samarali kommunikatsiya o‘rnatish va turizm sektorining iqtisodiy samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. kontent marketing, turizm marketingi, turizm brendi, turistik destinatsiya, raqamli marketing, marketing kommunikatsiyalari, brend identiteti, turizm imiji, raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Taqqoslama tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlar kontent marketingni asosan qiymatli va foydali kontent yaratish, auditoriyaga yo‘naltirilgan kommunikatsiyani shakllantirish, brend identitetini mustahkamlash hamda raqamli platformalar orqali kontentni tizimli ravishda tarqatishga asoslangan kompleks marketing strategiyasi sifatida talqin qiladilar. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kontent marketing an’anaviy reklama vositalaridan farqli ravishda iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishdan ko‘ra, u bilan uzoq muddatli va barqaror munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kontent marketingning asosiy maqsadi iste’molchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan, ularning muammolarini hal etishga yordam beradigan axborotni yaratish orqali brendga nisbatan ishonch va sodiqlikni oshirishdan iboratdir.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida kontent marketing nafaqat marketing kommunikatsiyasining muhim elementi, balki korxona va hududlar raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik instrument sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, turizm sohasida kontent marketingning roli yanada ortib bormoqda, chunki turistlarning qaror qabul qilish jarayoni ko‘p jihatdan internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari hamda onlayn axborot manbalarida shakllangan tasavvurlarga asoslanadi. Shu bois, turistik destinatsiya haqidagi kontentning sifati, ishonchliligi va jozibadorligi turistlarning tanloviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, turizm marketingida kontent marketing tamoyillaridan samarali foydalanish milliy turizm brendining jozibadorligini oshirish, turistlar bilan interaktiv va barqaror kommunikatsiya o‘rnatish hamda turizm xizmatlari bozorida raqobat ustunligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, kontent marketing orqali turizm resurslari, madaniy meros obyektlari, milliy an’analar va hududiy xususiyatlar tizimli ravishda targ‘ib qilinib, mamlakatning turistik imiji mustahkamlanadi.

Natijada, kontent marketing tamoyillarini turizm sohasiga joriy etish nafaqat turistlar oqimini oshirish, balki turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududiy investitsiyalarni jalb qilish orqali turizm sektorining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli kontent marketingni turizm marketingining ajralmas tarkibiy qismi sifatida chuqur o‘rganish va amaliyotga keng joriy etish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Zamonaviy sharoitda turizm xizmatlarini rivojlantirish jarayonida kontent marketing muhim strategik vositalardan biriga aylanib bormoqda [1; 3; 7]. Kontent marketingning evolyutsion rivojlanishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalish dastlab oddiy axborot uzatish shaklida shakllangan bo‘lsa, hozirgi kunda raqamli, interaktiv va sun’iy intellektga asoslangan kompleks kommunikatsiya tizimiga aylangan [2; 6; 8].

1990–1999 yillar oralig‘ida kontent marketing tushunchasi internet marketingning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda shakllandi [7]. Ushbu bosqichda asosiy e’tibor veb-saytlar orqali foydalanuvchilarga informatsion kontent yetkazishga qaratilgan bo‘lib, marketing faoliyati ko‘proq ma’lumot berish xarakteriga ega edi. Shu bois kontent marketingning dastlabki bosqichi “axborotga yo‘naltirilgan marketing” sifatida tavsiflanadi [7].

2000–2005 yillarda raqamli marketing vositalarining rivojlanishi bilan kontent marketing yangi bosqichga ko‘tarildi [3; 7]. SEO (Search Engine Optimization), email marketing va onlayn kontent strategiyalari shakllanib, kontent endi faqat axborot berish emas, balki maqsadli auditoriyani jalb qilish vositasiga aylandi. Ushbu bosqichda kontent marketingning asosiy vazifasi trafikni oshirish va iste’molchilarni veb-platformalarga yo‘naltirishdan iborat bo‘ldi [7].

2006–2010 yillarda kontent marketing strategik darajaga o‘tib, brend kommunikatsiyasining muhim elementiga aylandi [1; 4]. Storytelling, brend kontenti va kontent strategiyalarining rivojlanishi natijasida kompaniyalar iste’molchilar bilan emotsional aloqani shakllantira boshladilar. Bu esa kontent marketingni nafaqat reklama vositasi, balki brend identitetini yaratish mexanizmi sifatida talqin etishga olib keldi [1; 4].

2011–2015 yillar ijtimoiy media platformalarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi [5; 10]. Facebook, YouTube va blog platformalari orqali kontent marketing global miqyosda kengaydi. Ushbu bosqichda kontent marketing interaktiv tus olib, auditoriya bilan ikki tomonlama kommunikatsiya shakllandi. Natijada iste’molchilar passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylandi [5; 10].

2016–2019 yillarda kontent marketing influencer marketing va vizual kontent ustuvorligi bilan ajralib turadi [6; 10]. Ijtimoiy tarmoqlarda mashhur shaxslar orqali brend targ‘iboti kengaydi, kontent esa ko‘proq vizual va hissiy ta’sirga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, data-driven yondashuv asosida marketing qarorlari qabul qilinib, kontent samaradorligini analitik baholash tizimi rivojlandi [6; 10].

2020-yillardan boshlab kontent marketing yangi – sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosidagi bosqichga o‘tdi [8; 9]. Xususan, AI, AR/VR texnologiyalari, interaktiv va personalizatsiyalashgan kontent vositalari keng qo‘llanila boshlandi. Bu esa kontent marketingni real vaqt rejimida boshqarish, iste’molchi xulq-atvorini prognozlash va individual yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish imkonini yaratdi [8; 9].

Kontent marketing evolyutsiyasining yuqoridagi bosqichlari shuni ko‘rsatadiki, u oddiy axborot yetkazishdan boshlab, murakkab, interaktiv va personalizatsiyalashgan kommunikatsiya tizimiga aylangan [1; 7]. Mazkur jarayonni quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin: axborot → trafik → brend → interaktivlik → ishonch → sun’iy intellekt asosidagi marketing.



1-rasm. Kontent marketing evolyutsiyasining ilmiy bosqichlari va rivojlanish xususiyatlari (1990–2025)

Mazkur evolyutsion yondashuv tarixiy-madaniy turizm xizmatlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi [9]. Chunki turizm sohasida kontent marketing nafaqat xizmatlar haqida ma’lumot berish, balki hududning tarixiy merosi, madaniy qadriyatlari va turistik imijini shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan vizual va interaktiv kontent turistlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [8; 9].

Shu sababli, zamonaviy sharoitda tarixiy-madaniy turizm xizmatlarini rivojlantirishda kontent marketingni raqamli platformalar, sun’iy intellekt texnologiyalari va personalizatsiyalashgan kommunikatsiya vositalari bilan integratsiyalashgan holda qo‘llash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kontent marketingning evolyutsion rivojlanishi 1990–1999 yillarda uning tushunchaviy shakllanishi bilan boshlanadi. Ushbu davrda marketing faoliyati asosan axborot yetkazishga qaratilgan bo‘lib, internetning paydo bo‘lishi bilan kompaniyalar veb-saytlar orqali mijozlarga kontent taqdim eta boshladi. John Oppedahl va Jeff Cannon kabi olimlar tomonidan kontent marketing tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilib, 1996-yildan boshlab ushbu atama keng qo‘llanila boshlandi. Mazkur bosqichda kontent marketing strategik vosita sifatida emas, balki informatsion marketing shaklida rivojlandi.

2000–2005 yillarda raqamli marketingning shakllanishi kontent marketing rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Internet va elektron tijoratning kengayishi natijasida kontent marketing marketing strategiyasining muhim elementiga aylandi. Philip Kotler va Kevin Keller tomonidan ishlab chiqilgan marketing konsepsiyalari asosida SEO, e-mail marketing va veb-kontent strategiyalari rivojlanib, kontent endi nafaqat axborot berish, balki auditoriyani jalb qilish va trafikni oshirish vositasi sifatida qarala boshlandi.

2006–2010 yillarda kontent marketing strategik darajaga ko‘tarildi. Joe Pulizzi va Robert Rose tomonidan kontent marketing strategiyasi hamda storytelling konsepsiyasi asoslab berildi. Ushbu davrda brendlar auditoriya bilan emotsional aloqa o‘rnatishga, kontent orqali brend qadriyatlarini yetkazishga e’tibor qaratdi. Natijada kontent marketing reklama vositasidan tashqari, brend kommunikatsiyasining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

2011–2015 yillar ijtimoiy media platformalarining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Holliman va Rowley tadqiqotlarida qayd etilganidek, bloglar, video marketing va ijtimoiy tarmoqlar orqali kontent marketing global marketing instrumentiga aylandi. Ushbu bosqichda kontent marketing interaktiv tus olib, iste’molchilar passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylandi va ikki tomonlama kommunikatsiya shakllandi.

2016–2019 yillarda kontent marketingda yangi yo‘nalish – brend storytelling va auditoriya jalb etilishi (engagement) ustuvor ahamiyat kasb etdi. Rebecca Lieb va Charmaine du Plessis tadqiqotlarida influencer marketing, vizual kontent va strategik kommunikatsiya vositalari asosiy rol o‘ynashi asoslab berilgan. Ushbu davrda kontent marketing orqali brend identiteti shakllanib, marketing qarorlari data asosida qabul qilina boshlandi.

2020–2022 yillarda pandemiya sharoitida raqamli platformalar va onlayn kontent marketing keskin rivojlandi. Holliman va Hollebeek tadqiqotlarida personalizatsiya, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent (UGC) va mobil marketing asosiy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Ushbu bosqichda kontent marketing analitik va moslashuvchan boshqaruv tizimiga aylandi.

2023–2025 yillarda esa kontent marketing sun’iy intellekt va smart texnologiyalar asosida yangi bosqichga o‘tdi. AI, AR/VR texnologiyalari, qisqa video formatlar va hiperpersonalizatsiya kontent marketingning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bu esa kontent marketingni real vaqt rejimida boshqariladigan, avtomatlashtirilgan va individual yondashuvga asoslangan tizimga aylantirdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, kontent marketing zamonaviy marketing kommunikatsiyalarining ajralmas qismi sifatida turizm sohasida muhim

strategik ahamiyat kasb etmoqda. Kontent marketingning evolyutsion rivojlanishi oddiy axborot yetkazish bosqichidan boshlab, hozirgi kunda raqamli texnologiyalar, ijtimoiy media va sun'iy intellekt asosidagi murakkab kommunikatsiya tizimiga aylanganini tasdiqlaydi. Ushbu jarayonda kontent marketingning asosiy tamoyillari – auditoriyaga yo'naltirilganlik, sifatli va qiymatli kontent yaratish, kontentni tizimli ravishda tarqatish, interaktiv kommunikatsiyani yo'lga qo'yish hamda brend identitetini shakllantirish – turizm marketingida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Aniqlanishicha, kontent marketingdan samarali foydalanish turistik destinatsiyaning ijobiy imijini shakllantirish, turistlar bilan uzoq muddatli va barqaror munosabatlarni rivojlantirish hamda turizm brendining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kontent marketing turizm sektorining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lib, turistlar oqimini ko'paytirish, turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy turizmda vizual, interaktiv va storytelling asosidagi kontent turistlarning qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Zamonaviy sharoitda kontent marketingni turizm sohasiga samarali joriy etish uchun bir qator amaliy choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, milliy darajada yagona kontent marketing strategiyasini ishlab chiqish va uni hududiy darajada integratsiyalash zarur. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va turizm portallarini yagona tizim asosida rivojlantirish, vizual va interaktiv kontent turlarini kengaytirish, shuningdek sun'iy intellekt va data-analitika asosida marketing faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, turli auditoriya segmentlari uchun moslashtirilgan kontent yaratish, influencer marketing va foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentdan (UGC) samarali foydalanish turizm targ'ibotining natijadorligini oshiradi.

Shu bilan birga, sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarning malakasini oshirish, kontent marketing samaradorligini baholash uchun zamonaviy monitoring va analitik tizimlarni joriy etish ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Hududiy turizm brendlarini rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos resurslari va xususiyatlariga mos kontent strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Umuman olganda, kontent marketingni turizm marketingining strategik komponenti sifatida tizimli joriy etish milliy turizm brendini mustahkamlash, uning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish hamda turizm sektorining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Joe Pulizzi. Epic Content Marketing: How to Tell a Different Story, Break through the Clutter, and Win More Customers by Marketing Less. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 352 p.

2. Joe Pulizzi. Content Inc.: How Entrepreneurs Use Content to Build Massive Audiences and Create Radically Successful Businesses. – New York: McGraw-Hill Education, 2015. – 256 p.
3. Philip Kotler, Kevin Lane Keller. Marketing Management. – 15th ed. – Pearson Education Limited, 2016. – 714 p.
4. Robert Rose, Joe Pulizzi. Managing Content Marketing: The Real-World Guide for Creating Passionate Subscribers to Your Brand. – Cleveland: Content Marketing Institute, 2011. – 240 p.
5. Gillian Holliman, Jennifer Rowley. Business to business digital content marketing: marketers' perceptions of best practice // Journal of Research in Interactive Marketing. – 2014. – Vol. 8, No. 4. – P. 269–293.
6. Rebecca Lieb. Content Marketing: Think Like a Publisher – How to Use Content to Market Online and in Social Media. – Indianapolis: Que Publishing, 2012. – 256 p.

Abdullayeva Sitorabonu Xasanjon qizi
Toshkent ADJU universitetining
"Arxitektura" fakulteti o'qituvchisi
e-mail: sitorik1997@gmail.com

O'ZBEKISTONDA QURILISH SEKTORINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda qurilish sektorini moliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilishning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi, uzoq muddatli kapital resurslarining cheklanganligi hamda kredit resurslari qiymatining yuqoriligi asosiy muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda xalqaro tajriba asosida innovatsion moliyaviy instrumentlar, loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlari va raqamli texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qurilish sohasi, moliyalashtirish tizimi, investitsiyalar, project finance, davlat-xususiy sheriklik, raqamli texnologiyalar, kapital bozori.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishda qurilish sohasi strategik ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda uy-joy qurilishi, sanoat va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish sur'atlari sezilarli darajada oshib, bu jarayon qurilish sektorini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va qurilish sohasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va

innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qurilish sektorini moliyalashtirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [1, 2]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar orqali investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy kapitalni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda qurilish sohasi muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Prezident o‘z nutqlarida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Qurilish sohasi iqtisodiyotimizning drayverlaridan biri bo‘lib, u orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholi turmush sharoiti yaxshilanadi” [4]. Ushbu yondashuv qurilish sektorini samarali moliyalashtirish tizimini yaratishning dolzarbligini asoslab beradi.

So‘nggi yillarda ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish, qurilish tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va bank-moliya tizimini liberallashtirish borasida muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, ipoteka bozorini kengaytirish, subsidiyalar ajratish va uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini joriy etish orqali aholini uy-joy bilan ta’minlash darajasi oshirilmoqda [3]. Shu bilan birga, davlat tomonidan qurilish loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari va boshqa moliya institutlarining ishtiroki kengaytirildi.

Biroq, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, qurilish sektorini moliyalashtirish tizimida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi, uzoq muddatli investitsiya manbalarining cheklanganligi, kredit resurslari qiymatining yuqoriligi hamda qurilish loyihalarining yuqori risk darajasi ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, kapital bozorlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish darajasining pastligi ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Shuningdek, qurilish sektorida “yashil moliya”, infratuzilmaviy obligatsiyalar, investitsiya fondlari va sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari to‘liq ishga solinmagan. Bu esa sohaga uzoq muddatli va barqaror investitsiyalarni jalb qilishni cheklaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda qurilish sektorini moliyalashtirishda kapital bozorlarining roli yuqori bo‘lib, bu orqali risklar diversifikatsiya qilinadi va moliyalashtirish manbalari kengaytiriladi.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi aynan yuqoridagi muammolarni kompleks hal etish zarurati bilan belgilanadi. Qurilish sektorini moliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush sifatini oshirish mumkin. Shu bois, ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. O‘zbekistonda qurilish sektorini moliyalashtirish tizimi so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri sifatida shakllanib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, investitsiya jarayonlarining faollashuvi hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

mexanizmlarining kengayishi qurilish hajmlarining barqaror o‘sishini ta’minlamoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning dastlabki ikki oyida mamlakatda 29, 2 trln so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10, 6 foizga oshgan. Shuningdek, 2021–2025-yillar davomida qurilish ishlari hajmining 57, 7 trln so‘mdan 138, 9 trln so‘mgacha ortgani ushbu sohada investitsion faollikning keskin oshganligini ko‘rsatadi [5]. Ushbu ijobiy dinamikaga qaramay, tahlillar qurilish sektorini moliyalashtirish tizimida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ham ko‘rsatadi.

Qurilish sektorini moliyalashtirish tizimi ko‘p manbali xarakterga ega bo‘lib, unda davlat byudjeti mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari, xususiy va xorijiy investitsiyalar hamda aholi mablag‘lari muhim o‘rin tutadi. Biroq ushbu manbalar o‘rtasida muvozanat yetarli darajada ta’minlanmagan bo‘lib, amaliyotda asosan davlat mablag‘lari va bank kreditlari ustunlik qilmoqda. Bu esa moliyalashtirish tizimining diversifikatsiya darajasi past ekanligini anglatadi.

Mazkur holatni chuqurroq tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, qurilish sektorida mavjud muammolar kompleks xarakterga ega bo‘lib, ular moliyaviy, institutsional va texnologik omillar bilan bog‘liq. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kredit resurslarining qimmatligi, zamonaviy moliyaviy instrumentlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarining sustligi ushbu tizim samaradorligini cheklovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda qurilish sektorini moliyalashtirish tizimidagi asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy yechimlar tizimlashtirilgan:

1-jadval

Qurilish sektorini moliyalashtirish tizimidagi muammolar va yechimlar

Muammolar	Mazmuni	Taklif etilayotgan yechimlar
Moliyaviy resurslar yetishmasligi	Qurilish loyihalarining kapital sig‘imi yuqori bo‘lib, mavjud mablag‘lar yetarli emas	Xususiy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, PPP mexanizmlarini rivojlantirish
Bank kreditlari foiz stavkalarining yuqoriligi	Kreditlarning qimmatligi loyiha tannarxini oshiradi	Imtiyozli kredit liniyalarini joriy etish, davlat subsidiyalarini kengaytirish
Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi	Alternativ moliyaviy instrumentlar yetarli rivojlanmagan	Obligatsiyalar, fond bozori va lizing mexanizmlarini rivojlantirish
Loyihaviy moliyalashtirish tizimining sustligi	Project finance mexanizmi yetarli darajada joriy etilmagan	Escrow va project finance tizimlarini joriy etish va takomillashtirish
Shaffoflik va nazorat muammolari	Moliyaviy oqimlar ustidan nazorat yetarli emas	Raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, audit tizimini kuchaytirish
Innovatsion texnologiyalar yetarli joriy etilmagan	Qurilish jarayonlarida samaradorlik past	BIM va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida aytish mumkinki, qurilish sektorini moliyalashtirish tizimidagi muammolar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni hal etish kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, moliyaviy resurslar yetishmasligi muammosi investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali bartaraf etilishi mumkin. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bank kreditlari foiz stavkalarining yuqoriligi muammosi esa qurilish loyihalarining iqtisodiy samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda imtiyozli kredit liniyalari, subsidiya mexanizmlari hamda davlat tomonidan foiz stavkalarini qisman kompensatsiya qilish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi masalasi ham dolzarb bo‘lib, bu borada fond bozori instrumentlarini rivojlantirish, obligatsiyalar chiqarish va lizing mexanizmlarini keng joriy etish zarur. Shu orqali qurilish sektoriga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Project finance va escrow tizimlari qurilish loyihalarining moliyaviy xavflarini kamaytirish, investorlar ishonchini oshirish hamda moliyalashtirish jarayonining shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi [6].

Shuningdek, qurilish sektorida innovatsion texnologiyalarni joriy etish moliyalashtirish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, BIM texnologiyalaridan foydalanish qurilish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, O‘zbekistonda qurilish sektorini moliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilish zarur bo‘lib, bu jarayon moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash orqali amalga oshirilishi lozim. Natijada, qurilish sektorining barqaror rivojlanishi ta’minlanib, mamlakat iqtisodiyotining umumiy samaradorligi oshadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda qurilish sektorini moliyalashtirish tizimi iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional komponenti sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tizimning tahlili uning barqaror va samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qiluvchi qator tizimli va institutsional nomutanosibliklar mavjudligini aniqladi. Xususan, moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi, uzoq muddatli kapital resurslarining cheklanganligi, kredit resurslari qiymatining yuqoriligi hamda innovatsion moliyaviy instrumentlarning yetarlicha rivojlanmaganligi qurilish sektorining investitsion jozibadorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarining institutsional jihatdan yetarli shakllanmaganligi va raqamli boshqaruv tizimlarining sustligi moliyaviy oqimlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, qurilish sektorini moliyalashtirishning institutsional arxitekturasini takomillashtirish zarur. Bunda kapital bozorlarini rivojlantirish orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish, infratuzilmaviy obligatsiyalar va sek'yuritizatsiya instrumentlarini joriy etish, shuningdek, investitsiya fondlari faoliyatini kengaytirish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu choralar moliyalashtirish tizimining barqarorligini ta'minlash bilan birga, risklarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, qurilish loyihalarini moliyalashtirishda zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni institutsionallashtirish talab etiladi. Xususan, project finance, escrow hisobvaraqlari va risklarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish modellarini joriy etish orqali loyihalarning moliyaviy barqarorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini chuqurlashtirish orqali yirik infratuzilma loyihalariga xususiy kapitalni keng jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish qurilish sektorini moliyalashtirish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. BIM texnologiyalari, raqamli monitoring va moliyaviy nazorat tizimlarini joriy etish orqali loyihalarning shaffofligi ta'minlanadi, tranzaksiya xarajatlari qisqartiriladi hamda resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi. Bu esa, o‘z navbatida, investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qurilish sektorini moliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilish jarayoni kompleks va ko‘p bosqichli yondashuvni talab etadi. Taklif etilgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amaliyotga izchil joriy etish orqali moliyalashtirish tizimining institutsional samaradorligi oshadi, investitsiya faolligi rag‘batlantiriladi hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 27.11.2020 yildagi PF-6119-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 13.05.2019 yildagi PF-5715-son.

11. Shavkat Mirziyoyev: Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir. 24.01.2020.

12. https: //stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/67526-2026-jilning-dastlabki-ikki-ojida-29-2-trln-s-mlik-urilish-ishlari-bazharilgan-2

13. Artemenkov, A., & Saccal, A. (2025). Financial Modelling of Transition to Escrow Schemes in Urban Residential Construction: A Case Study of Tashkent City. Buildings, 15(16), 2843.

Sultonova Dilnoza Dilshodovna
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Agrobiznes va marketing kafedrasi assistenti
e-mail: sultonovadilnoza1415@gmail.com

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA LOYIHALARNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI VA TARKIBIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarida (NNT) loyihalarni boshqarish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar empirik tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda yagona metodologiyaning yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi, monitoring va baholash tizimlarining sustligi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi asosiy to‘siqlar hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy resurslarning notekis taqsimlanishi va grantlarga kirish imkoniyatining cheklanganligi NNTlar faoliyatining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, loyiha boshqaruvi, empirik tahlil, SWOT tahlili, monitoring va baholash, kadrlar salohiyati, moliyaviy resurslar, grantlar, raqamli boshqaruv, loyiha sikli

Kirish. Bugungi kunda NNTlar jamiyat hayotida muhim o‘rin egallamoqda. Prezident siyosati va mamlakatimizdagi strategik dasturlar doirasida ularning ishtiroki tobora ortib bormoqda. Biroq NNTlar faoliyatida hal etilishi kerak bo‘lgan muhim muammolar mavjud. Eng avvalo, ularning huquqiy maqomi va faoliyat doirasi qonunlarda aniq belgilab qo‘yilmagan. Bu esa ba‘zan ularning tashabbus ko‘rsatishiga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, davlat bilan munosabatlarda tenglik tamoyili yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. NNTlar ko‘pincha faqat topshiriqni bajaruvchi sifatida ko‘riladi.

Ayni paytda mamlakatimizda bu sohada qator ijobiy islohotlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, amaliyotda NNTlarning loyiha boshqaruvi jarayonlarida turli tizimli muammolar mavjudligi kuzatilmoqda.

Birinchi navbatda, loyihalarni rejalashtirish, tashkil etish va ijro etish bosqichlarida yagona, standartlashtirilgan metodologik yondashuvlarning yetishmasligi muhim masalalardan biridir. Ko‘plab tashkilotlar loyiha faoliyatini umumiy tajriba yoki shaxsiy tashabbusga asoslanib olib boradi, bu esa zamonaviy boshqaruv vositalaridan samarali foydalanishga to‘sqinlik qiladi.

Hududdagi ko‘plab NNTarida loyihalarni boshqarish zamonaviy usullarga asoslanmagan holda olib boriladi. Ya‘ni, xalqaro miqyosda qo‘llaniladigan tizimlar o‘rniga, odatda eski va an‘anaviy yondashuvlar tanlanadi. Natijada loyiha jarayonlarini aniq rejalashtirish, bosqichma-bosqich kuzatib borish va yakuniy samaradorlikni baholash imkoniyatlari cheklanib qoladi. Bunday sharoitda loyiha natijalari to‘liq tahlil qilinmaydi, kamchiliklar o‘z vaqtida aniqlanmaydi va loyihalarning ta‘sir doirasini oshirishga to‘sqinlik yuzaga keladi.

Yana bir dolzarb muammolardan biri bu kadrlar salohiyati bilan bog‘liq. Loyiha menejerlari ko‘pincha boshqa vazifalarni ham bajarishga majbur bo‘lib, loyiha boshqaruviga to‘liq e‘tibor qaratish imkoniyatiga ega emas. Aksariyat NNTlarda loyiha boshqaruvi bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar mavjud emas. Ko‘plab holatlarda loyiha menejeri funksiyasi tashkilot rahbari yoki boshqa lavozimdagi xodim tomonidan bajariladi. Bu esa professional yondashuv, vazifalarning aniq taqsimoti va sifatli loyiha menejmenti prinsiplari asosida ish yuritishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Holbuki, loyiha boshqaruvi jarayoni murakkab strategik qarorlar qabul qilishni, resurslarni optimallashtirishni, manfaatdor tomonlar bilan uzviy hamkorlikni talab qiladi. Bu borada tashkilot xodimlarining loyiha menejmenti sohasida malakasini oshirishga yo‘naltirilgan maxsus treninglar va o‘quv dasturlari yetarli emas.

Asosiy qism: Tadqiqot davomida olib borilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, **loyiha menejerlari va moliyaviy hisobot yurituvchi xodimlar yetishmasligi** 13–14 foiz respondent tomonidan qayd etilgan. NNTlarning ko‘pchiligi malakali xodimlarni uzoq muddatli asosda saqlab qolish imkoniga ega emas. Natijada, loyiha rejalashtirish, monitoring va baholashda tizimlilik yetishmaydi. Bu holat “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan **ijtimoiy innovatsiyalarni boshqarish salohiyatini oshirish** yo‘nalishi bilan hamohang muhim masala hisoblanadi.


Bundan tashqari, NNTlar faoliyatida loyihalarni boshqarish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hanuz pastligicha qolmoqda. Ko‘plab tashkilotlar ish yuritishda hali ham qog‘oz hujjatlar yoki oddiy elektron jadvallarga tayangan holda ishlamoqda. Natijada ma‘lumotlarning bir maromda yuritilishini, ularning xavfsiz saqlanishini ta‘minlash qiyinlashadi. Shuningdek, monitoring va baholash jarayonlarining tizimli va izchil amalga oshirilishiga ham jiddiy to‘siqlar yuzaga keladi.

Andijon viloyatida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2009-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda ajratilgan grantlar hajmi 10 baravar oshgan bo‘lsa-da, bu mablag‘lar asosan bir necha yirik tashkilotlar doirasida taqsimlangan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha viloyatlar kesimida NNTlari loyihalariga 2025-yil holatiga ajratilgan mablag‘larning taqsimlanishi tahlil qilinganda, viloyatlar orasida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlanadi. Eng yuqori mablag‘ Toshkent shahri (2450 mln so‘m) va Andijon viloyatiga (1185 mln so‘m) ajratilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich boshqa viloyatlarga qaraganda ancha yuqori. Bu esa ushbu hududlarda faoliyat olib borayotgan NNTlarga nisbatan davlatning yuqori darajadagi e‘tiborini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, respublika miqyosida NNT loyihalarini moliyalashtirishning mavjud holati bu tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish salohiyatini oshirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratmoqda. Ammo ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun moliyaviy resurslarni tengroq taqsimlash, NNTlarning boshqaruv va loyiha boshqaruvi salohiyatini oshirish hamda davlat va nodavlat sektorlar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish lozim.


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha NNTlarga ajratilgan mablag‘lar (2025-yil holatiga) ko‘ra quyidagi jadval va grafik ko‘rinishida ko‘rsatib o‘tdik.



1-rasm.Viloyatlar bo‘yicha NNT larga ajratilgan mablag‘lar

Loyihalarni boshqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda SWOT tahlili muhim tizimli yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tahlil loyiha faoliyatiga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillarni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi hamda boshqaruv qarorlarini asoslashda metodologik tayanch vazifasini bajaradi. SWOT tahlili orqali loyihaning mavjud resurslari, boshqaruv salohiyati, tashkiliy imkoniyatlari va zaif jihatlari aniq baholanib, muammolarning kelib chiqish sabablari chuqurroq anglashiladi.

Masalan, Andijon viloyatida yoshlar yo‘nalishida faoliyat olib borib, bir necha loyihalarni muvaffaqiyatli bajargan “Agrar soha ayyollar uyushmasi” NNT SWOT tahlilini keltirish mumkin (**2-rasm)**.




2-rasm. “Agrar soha ayyollar uyushmasi” NNT uchun SWOT tahlili[37]

Ushbu SWOT tahlil “Agrar soha ayollari uyushmasi” NNTning kuchli jihatlari va imkoniyatlari loyihalarni boshqarishda tizimli metodologiyalarni joriy etish orqali to‘liq ro‘yobga chiqarilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Zaif jihatlar va tahdidlar esa loyiha boshqaruvini institutsional darajada mustahkamlash, monitoring va kadrlar salohiyatini oshirish zarurligini asoslaydi.

Amaliy tahlillar qishloq ayollari uchun mo‘ljallangan loyihalarda amaliy yordam mexanizmlarining tizimlashtirilmaganligi, startap tashabbuslarini dastlabki bosqichdan barqaror faoliyatgacha kuzatib boruvchi loyiha siklining yo‘qligi va resurslarni manzilli taqsimlash mexanizmlarining yetarli emasligi asosiy boshqaruv muammolari ekanini ko‘rsatadi. Natijada, mazkur loyihalar ko‘pincha qisqa muddatli natijalar bilan cheklanib qolmoqda.

[37] Muallif ishlanmasi



3-rasm. “Agrar soha ayollari uyushmasi” NNTda ayollarni agrar sohada iqtisodiy faollashtirish bo‘yicha loyihalarni rejalashtirish, amalga oshirish va rivojlantirish modeli

Mazkur ehtiyoj va muammolarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan “Ayollarni agrar sohada iqtisodiy faollashtirish: qishloq joylarda bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash modeli” loyiha boshqaruviga asoslangan yondashuvni taklif etadi. Ushbu model ayollarning g‘oya shakllantirish bosqichidan boshlab, mikroloyiha, kichik agrar korxona va barqaror iqtisodiy faoliyat bosqichigacha bo‘lgan jarayonni izchil rejalashtirish, resurslar bilan ta‘minlash, monitoring qilish va natijadorlikni baholashni nazarda tutadi. (2-rasm).

Xulosa. Mazkur model “Agrar soha ayollari uyushmasi” nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatida ayollarni agrar sohada iqtisodiy faollashtirishga qaratilgan loyihalarni rejalashtirish, amalga oshirish va rivojlantirish jarayonlarini tizimli boshqarish mexanizmini ifodalaydi. Model loyihalarni boshqarishning zamonaviy ilmiy yondashuvlariga asoslanib, loyiha siklining asosiy bosqichlarini uzviy bog‘langan holda qamrab oladi.

Modelda tashkiliy, salohiyatni oshirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash elementlari orqali loyihalarni amalga oshirish uchun zarur institutsional muhit shakllantiriladi. Loyiha g‘oyalari mikro tashabbuslardan boshlab startap va kichik agrar korxona bosqichigacha bosqichma-bosqich rivojlantiriladi, bu esa loyihalarni nazorat qilinadigan va kengayib boruvchi jarayon sifatida boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, model loyiha portfelini boshqarish, resurslarni samarali taqsimlash hamda monitoring va baholash orqali natijadorlik va hisobdorlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Modelning kutilayotgan natijalari qishloq ayollari bandligining oshishi, kichik agrar korxonalar sonining ko‘payishi va nodavlat notijorat tashkilotlarining institutsional barqarorligining mustahkamlanishi bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘ulomov, M. (2020). O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ularning faoliyatini tartibga solish. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi nashriyoti.

2. Ravshanov, A. (2019). Jamiyatda ijtimoiy adolat va NNTlar: O‘zbekiston tajribasi. Tashkent: "Ijtimoiy Fikr" nashriyoti.

3. Mamatov, S. (2021). O‘zbekiston Respublikasidagi nodavlat tashkilotlarining inson huquqlari sohasidagi roli. Toshkent: "O‘zbekiston Yuridik Akademiyasi" nashriyoti.

4. Sharipov, M. (2018). O‘zbekistonning ijtimoiy sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

5. Shodiyev, K. (2022). O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar va NNTlar: Tashkilotlar va imkoniyatlar. Toshkent: "Darakchi" nashriyoti.

6. Бондаренко Ю. Р., Кубликова О. В. Оценка эффективности социо-эколого-экономических проектов // Материалы VII региональной НТК «Вузовская наука-Северо-Кавказскому региону». Экономические науки. Ч. 3. - Ставрополь: СевКавГТУ, 2003

G‘aniyeva Nozima Alijon qizi
NamDTU “Buxgalteriya hisobi”
kafedrasi assistenti
e-mail: *nozimaganiyeva40@gmail.com*

ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHNING ME’YORIY-HUQUQIY BAZASI VA TASHKIL ETISH TARTIBI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishning me’yoriy-huquqiy bazasi va uni tashkil etish tartibi tahlil qilingan. Muallif tomonidan elektron to‘lovlar va elektron tijorat tizimlarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bank sohasidagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar va Prezident qarorlari asosida bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, internet-banking, mobil-banking kabi innovasion xizmat turlarini joriy etish jarayonlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, elektron tijorat, internet-banking, mobil-banking, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, to‘lov tizimi, bank infratuzilmasi, masofaviy bank xizmatlari, me’yoriy-huquqiy baza.

Kirish. Har qanday davlatning iqtisodiy qudratini yuqori samarali pul-kredit siyosati va zamonaviy to‘lov mexanizmlarisiz tasavvur yetib bo‘lmaydi. Hisob-kitoblar mexanizmining yaxshi yo‘lga qo‘yilishi va uning aniq ishlashi yesa barcha rivojlangan davlatlar taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda yelektron to‘lovlar va yelektron tijorat tizimlarini rivojlantirish maqsadida mazkur muhim yo‘nalishning tadrijiy rivojlanishini ta’minlovchi zarur huquqiy baza yaratilgan.

Asosiy qism. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, bank, moliya va tijorat tuzilmalari faoliyatida keng foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [2], 2012 yil 16 iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, lisenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib- taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [3] hamda 2012 yil 18 iyuldagi “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [4] Farmonlarida asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu me’yoriy hujjatlarda plastik kartalar va boshqa elektron to‘lov vositalari orqali internet tarmog‘idan tovar hamda xizmatlar uchun to‘lov imkoniyatlarini rivojlantirish uchun dasturiy-texnik infratuzilmani takomillashtirish, tadbirkorlikda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida rag‘batlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Ma’lumki, mamlakatimizda iqtisodiyotga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi korxonalar bilan iste’molchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi

kunda O‘zbekistonda elektron to‘lovlar, internet global tarmog‘i va mobil aloqa vositalari orqali bank sohasi mijozlariga turli xildagi interaktiv xizmatlar ko‘rsatish tizimlari joriy etilib, ulardan samarali foydalanilmoqda. Iqtisodiy integratsiya va globallashuv sharoitida xo‘jalik sub’yektlari, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi vakillari tomonidan o‘z faoliyatlarida yelektron to‘lovlar, yelektron tijorat imkoniyatlaridan samarali foydalanish ular o‘rtasidagi o‘zaro sog‘lom raqobatni mustahkamlash bilan bir qatorda yuqori iqtisodiy natijalarga yerishish omili ham hisoblanadi.

Bugun bank-moliya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘sib boruvchi global tendensiyasi, bank plastik kartalari miqdorining o‘sishi, elektron to‘lovlar va yelektron tijoratning rivojlanib borishi barobarida mamlakatimizda yelektron to‘lovlar va elektron tijorat sohasidagi loyihalarning amalga oshirilishi faollashmoqda.

Mamlakatimiz bank-moliya muassasalari o‘z mijozlariga internet global tarmog‘i va mobil aloqa vositalari orqali masofadan turibelektron to‘lovlar, “SMS-banking”, “Mobil-banking” kabi interaktiv bank xizmatlarni ko‘rsatmoqdalar. Shuningdek, statistik, moliyaviy va soliq hisobotlarini taqdim etishda, soliqlar, turli majburiy to‘lovlarni to‘lashda, ro‘yxatga olish, ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirishda, yer maydonlarini ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishda, shuningdek, tadbirkorlik sub’yektlarini kreditlashda davlat, nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik sub’yektlari o‘rtasidagi bevosita muloqotni, byurokratik sansalorlik va korrupsiyani istisno etuvchi elektron tizimga, shu jumladan, internet tarmog‘iga keng miqyosda o‘tish ta’minlanmoqda.

Kichik biznes sub’yektlari - mikrofirmalar tomonidan zamonaviy bank xizmatlari, jumladan, bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimlaridan keng foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Ushbu tizim doimiy ravishda kengaytirilmoqda. Shu bilan birga ular tomonidan respublika va mahalliy byudjetga to‘lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlarni bank hisobvaraqlariga masofadan turib to‘lash imkoniyati yaratildi. Mazkur tizim yordamida to‘lovlarni amalga oshirayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlardan ularning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatganlik uchun undiriladigan (abonent va vositachilik haqlari) to‘lovlar yesa 20 foizga kamaytirildi.

Bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish O‘zbekistonda bank tizimi barqarorligini ta’minlashning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zero, banklararo raqobatning kuchayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi hamda zamonaviy bank xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishi yangidan-yangi innovasion bank xizmatlarini keng miqyosda joriy etishni zaruratga aylantirayotgan hozirgi paytda mamlakatimiz tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlari bozori dastlabki rivojlanishbosqichida turibdi.

Mamlakatimizda masofadan bank xizmati ko‘rsatishni rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-sonli «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori [1] muhim o‘rin tutadi. Qarorda bank faoliyatining ilg‘or

xalqaro tajribasini o‘rganish hamda bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish vazifasi keltirilgan.


Mamlakatimizda elektron to‘lovlar va elektron tijorat tizimini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilgan. “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi va “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosi yuzasidan qator ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, bank va moliya muassasalari internet va mobil aloqa vositalari orqali o‘z mijozlariga masofadan turib elektron to‘lovlar, “Internet banking”, “Mobil-banking” kabi interaktiv bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

O‘zbekistonda internet-banking dastlab 2007 yilda korporativ mijozlar uchun xizmat sifatida paydo bo‘lgan bo‘lib, bu xizmatni jismoniy shaxslar uchun ham joriy qilinishi uning respublikada rivojlanishini keyingi bosqichi bo‘ldi. Aksariyat ilg‘or tijorat banklari «Bank-mijoz» tizimini modernizatsiyalashtirib, bugungi kunda elektron biznes rivojlanishining yanada istiqbolli yo‘nalishi – internet-banking bilan ishlamoqdalar.

Mamlakatimizda joriy etilgan eletron to‘lov tizimini tartibga solish Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi Qonunga asoslanadi. Ushbu Qonunning maqsadi elektron to‘lovlar sohasidagimunosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunga ko‘ra, texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to‘lovdir.

Elektron to‘lovlar amalga oshirilayotganda to‘lov tizimining sub’yektlari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmui to‘lov tizimidir.



1-rasm. Elektron to‘lov tizimining turlari[38]

Banklararo to‘lov tizimi banklar o‘rtasidagi elektron to‘lovlarni banklarning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish uchun mo‘ljallangan.

Bankning ichki to‘lov tizimi bank filiallari va mijozlari o‘rtasida elektron to‘lovlarni amalga oshirish, shuningdek banklararo to‘lov tizimi bilan o‘zaro harakatda bo‘lish uchun mo‘ljallangan.

Chakana to‘lovlar tizimi bank kartalari va boshqa elektron to‘lov vositalari (bundan buyon matnda elektron to‘lov vositalari deb yuritiladi) qo‘llanilgan holda elektron to‘lovlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Elektron to‘lov vositasi

[38]Muallif ishlanmasi

uning mazkur chakana to‘lovlar tizimiga mansubligini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan farqlovchi belgilarga (tovar belgisiga, xizmat ko‘rsatish belgilariga) ega bo‘lishi kerak.

Elektron to‘lov hujjati pul-hisob-kitobga doir qog‘oz hujjat (bundan buyon matnda pul-hisob-kitob hujjati deb yuritiladi) asosida yoki elektron to‘lov vositasidan foydalangan holda tuziladi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

To‘lov tizimining a’zosi – bank to‘lov tizimidan foydalanuvchining topshirig‘iga binoan elektron to‘lovni tegishli to‘lov hujjati tushgan kunda, agar u bankning operatsiya kuni mobaynida tushgan bo‘lsa, amalga oshirishi shart. To‘lov hujjati operatsiya kuni tugaganidan keyin tushgan taqdirda, to‘lov tizimining a’zosi – bank elektron to‘lovni keyingi ish kunidan kechiktirmay amalga oshirishi shart.

To‘lov tizimi a’zosining aybi bilan elektron to‘lov noto‘g‘ri amalga oshirilgan taqdirda, to‘lov tizimining a’zosi mablag‘ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining - to‘lov tizimidan foydalanuvchining hisobvarag‘iga o‘tkazishi shart. Aks holda, to‘lovchi - to‘lov tizimidan foydalanuvchi to‘lov tizimining a’zosidan mablag‘larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summasining 0, 1 foizi miqdorida, lekin noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summasining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘lashni qonunda belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

Elektron raqamli imzoga “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonunda quyidagicha ta’rif beriladi: “Elektron raqamli imzo — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo”.

Elektron hujjat - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot.

Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergan organ amalga oshiradi.

Hozirda axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari elektron to‘lovlar va elektron tijoratni amalga oshirishni avtomatlashtirish imkonini beruvchi xilma-xil texnologik yechimlarni taklif etishmoqda. Zamonaviy interaktiv xizmatlarning mamlakatimiz bank tizimida muhim ahamiyat kasb etayotganini “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan bank tizimi faoliyati bo‘yicha chiqarilgan xulosalardan ham bilib olish mumkin. Jumladan, so‘rovnoma orqali fikr bildirgan respondentlar mamlakatimiz bank tizimida to‘lovlarni amalga oshirishda mijozlarga qulayliklar yaratilayotganiga, bankomat, infokiosk va boshqa o‘z- o‘ziga xizmat ko‘rsatish qurilmalari tarmog‘i faoliyatiga ijobiy munosabat bildirib, ularning qulayligini, to‘lovlar va operatsiyalar bir zumda bajarilishini mamnunlik bilan qayd yetishgan. Shu bilan birga bank bilan bog‘liq

operatsiyalarni masofadan boshqarish xizmatlari - Internet-banking, SMS-banking, mobil-banking xizmatlari haqida o‘z munosabatini bildirganlar mamnun ekanliklarini, bunday qulay xizmat turlarini yanada kengaytirish zarurligini qayd yetishgan.

Xulosa. Keyingi yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan ishlar barcha banklar tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilishi, elektron to‘lovlar va elektron tijorat bo‘yicha axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bank mijozlariga sifatli xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash bilan birga O‘zbekiston bank tizimining muqarrar yuksalishiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi -PQ-3620-sonli «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi-“Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi -“Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, lisenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib- taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F a r m o n i

4 . O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 18 iyuldagi -“Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

5.G‘aniyeva N. A. To‘qimachilik va yengil sanoat korxonalariga bank xizmati ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 10. – S. 675-679.

Soliyev Dilmurod Jamolovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti,
Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasi

DAVLAT XARIDLARIDA XALQARO TAJRIBANING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda xalqaro tajribaning ahamiyati va roli o'rganilgan. Maqolada rivojlangan davlatlar — AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Singapurning davlat xaridlari sohasidagi samarali amaliyotlari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribani O'zbekiston davlat xaridlari tizimiga tatbiq etishning imkoniyatlari va yo'nalishlari bayon etilgan. Xalqaro tashkilotlar va OECD tadqiqotlari asosida davlat xaridlarida shaffoflik, raqobat va samaradorlikni oshirishning mexanizmlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, xalqaro tajriba, elektron xaridlar, shaffoflik, raqobat, tender jarayoni, korrupsiyaga qarshi kurash, raqamli transformatsiya.

KIRISH. Davlat xaridlari (government procurement) milliy byudjet mablag'larini sarflashning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, odatda YaIMning o'rtacha 10-15 foizini tashkil etadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha davlat xaridlari hajmi yiliga 13 trillion AQSh dollaridan ortiq bo'lib, bu raqam rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ham o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlari tizimini isloh qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha muhim qadamlarni qo'ymoqda. Qonunchilik bazasini takomillashtirish, elektron xaridlar tizimini joriy etish va xalqaro tajribadan foydalanish mamlakatimiz uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu maqola rivojlangan davlatlarning davlat xaridlari sohasidagi samarali amaliyotlarini tahlil qilish va O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

ASOSIY QISM.

Davlat xaridlarining nazariy asoslari va xalqaro standartlar

Xalqaro savdo tashkiloti (WTO) ning Davlat xaridlari to'g'risidagi bitimi (GPA) bu sohadagi asosiy xalqaro me'yoriy hujjat hisoblanib, 48 dan ortiq davlat ushbu bitim ishtirokchisi hisoblanadi. GPA asosiy tamoyillarni — milliy muomala rejimi, shaffoflik, axborotni e'lon qilish majburiyatini — o'zida mujassamlashtirgan.

UNCITRAL Model qonuni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlat xaridlari qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha universal asos vazifasini bajaradi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Davlat xaridlarining yaxshi amaliyoti to'g'risida tavsiyalar" hujjati esa shaffoflik, yaxlitlik, raqobat va samaradorlikni ta'minlash borasida asosiy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.

AQSh davlat xaridlari tizimi tajribasi

Amerika Qo'shma Shtatlari davlat xaridlarini tartibga solishning keng qamrovli tizimiga ega bo'lib, Federal xaridlar to'g'risidagi qoidalar (FAR) muhim asos bo'lib xizmat qiladi. AQSh Federal xaridlar ma'lumotlar tizimi (FPDS) orqali barcha federal xaridlar haqidagi ma'lumotlar onlayn rejimida ochiq e'lon qilinadi va shaffoflik ta'minlanadi.

AQShning SAM.gov platformasi barcha hukumat shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va ommaviy e'lon qilish funksiyasini bajaradi. Kichik va o'rta biznes vakillari uchun imtiyozli shartlar nazarda tutilgan bo'lib, davlat buyurtmalarining ma'lum ulushi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga beriladigan "Buy American" siyosati samarali qo'llanilmoqda.

Yevropa Ittifoqi davlat xaridlari tizimining xususiyatlari

Yevropa Ittifoqi davlat xaridlari sohasida 2014/24/EU Direktiva asosida ish olib boradi. Ushbu hujjat barcha a'zo davlatlar uchun yagona qoidalar belgilaydi va raqobatni ta'minlashga qaratilgan. Tender e'lonlari TED (Tenders Electronic Daily) platformasida majburiy ravishda e'lon qilinadi.

YIning muhim xususiyatlaridan biri elektron xaridlarga o'tish jarayonini jadallashtirish bo'lib, 2018 yildan boshlab barcha davlat xaridlari to'liq elektron shaklda amalga oshirilishiga erishilgan. Bundan tashqari, "yashil xaridlar" (green

procurement) va ijtimoiy javobgarlik tamoyillarini tender mezonlariga kiritish keng amaliyotga kirdi.

Janubiy Koreya — elektron xaridlar bo'yicha jahon lideri

Janubiy Koreya davlat xaridlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha dunyoda etakchi o'rinni egallaydi. 1997 yili ishga tushirilgan KONEPS (Korea On-line E-Procurement System) tizimi hozirda 300 000 dan ortiq yetkazib beruvchi va 44 000 dan ortiq davlat muassasasini o'z ichiga oladi.

KONEPS tizimi orqali yillik 100 milliard AQSh dollaridan ortiq davlat xaridlari amalga oshiriladi. Ushbu tizimning asosiy afzalliklari: real vaqt rejimida monitoring, avtomatlashtirilgan hisob-kitob, raqobatning kuchayishi va korrupsiyaning keskin kamayishi hisoblanadi. OECD baholashiga ko'ra, KONEPS tizimi korrupsiya ko'rsatkichini 90% ga kamaytirgan.

Singapur modeli — samaradorlik va shaffoflikni birlashtirish

Singapur davlat xaridlari tizimi o'zining soddaligi, shaffofliği va yuqori samaradorligi bilan jahon miqyosida tan olingan. GeBIZ (Government Electronic Business) platformasi barcha davlat xaridlarini onlayn rejimida amalga oshirish imkonini beradi. Singapurda hujjatlar to'plamini tayyorlashdan to shartnoma imzolashgacha bo'lgan jarayon 2-3 haftaga qisqartirilgan.

Singapurda davlat xaridlarining asosiy tamoyili — "3 ta taklif va xarid" (3 Quotations and a Purchase) deb ataluvchi sodda tartib bo'lib, mayda xaridlarda qo'shimcha byurokratik to'siqlar bartaraf etilgan. Yirik xaridlar uchun ochiq tender majburiy va tenderni baholash mezonlari oldindan e'lon qilinadi.

O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati

O'zbekiston davlat xaridlari tizimida xalqaro tajribani joriy etish bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, elektron xaridlar platformasini kuchaytirish zarur. Yagona elektron davlat xaridlari axborot tizimi (EXAT) imkoniyatlarini kengaytirish, real vaqt rejimida monitoring funksiyasini ta'minlash, mobil ilovalar orqali ishtirokni osonlashtirish lozim.

Ikkinchidan, shaffoflikni ta'minlash borasida barcha tender e'lonlari va shartnomalar ma'lumotlarini ommaga ochiq holda taqdim etish, mustaqil kuzatuvchilar va fuqarolik jamiyati vakillarining nazorat funksiyasini qonunchilik asosida mustahkamlash kerak. Uchinchidan, raqobatni kuchaytirish maqsadida kichik va o'rta biznes vakillarining davlat xaridlarida ishtirokini rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozli shartlar yaratish zarur.

O'zbekiston davlat xaridlari tizimini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga moslashtirish — WTO GPA va UNCITRAL Model qonuni talablarini hisobga olgan holda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunni yangilash.

2. KONEPS va GeBIZ kabi samarali tizimlar tajribasini o'rganib, EXAT platformasini modernizatsiya qilish va real vaqt rejimida to'liq monitoring tizimini joriy etish.

3. Tender hujjatlarini standartlashtirish — YI tajribasidan foydalanib, barcha tarmoqlar uchun yagona tender hujjatlar shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

4. Davlat xaridlari sohasidagi mutaxassislarni OECD va xalqaro tashkilotlar ko'magida xalqaro malaka dasturlari bo'yicha tayyorlash.

5. Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish — xalqaro tajriba asosida mustaqil monitoring va fuqarolik nazoratini ta'minlash.

XULOSA. Davlat xaridlarida xalqaro tajribadan foydalanish bu sohaning samaradorligini oshirish, korrupsiyani kamaytirish va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishning eng ishonchli yo'lidir. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Singapurning davlat xaridlari sohasidagi samarali amaliyotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar, shaffoflik va raqobat tamoyillari birgalikda davlat xaridlari tizimini tubdan o'zgartirish imkonini beradi.

O'zbekiston uchun xalqaro tajribani o'rganish va moslashtirib joriy etish davlat xaridlari tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda izchil islohotlar amalga oshirilsa, mamlakatimiz byudjet mablag'larining samaradorligi sezilarli darajada oshishi, iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD (2023). "Government at a Glance 2023: Public Procurement". OECD Publishing, Paris.

2. World Trade Organization (2022). "Agreement on Government Procurement: A Guide". WTO Publications, Geneva.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2022). "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

4. Korea Public Procurement Service (2023). "KONEPS Annual Report 2023: Digital Procurement Innovation". KPPS Publications.

5. European Commission (2022). "Public Procurement: Directive 2014/24/EU and Best Practices". EC Publications.

6. Singapore Government (2023). "GeBIZ Government Electronic Business — Annual Statistics Report". Ministry of Finance Singapore.

7. Xalqaro valyuta jamg'armasi (2021). "Fiscal Monitor: Public Investment for the Recovery". IMF Publications.

V-SHO‘BA

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAMLAKATDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR, INNOVATSION ISHLANMALAR, AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI

Гулямов С.С.,
Академик АН Узбекистана, д.э.н.,
профессор, заслуженный деятель науки Республики
Ташкентский международной университете КИМЁ,
Шермухаммедов Аббас Таирович,
д.ф-м.н., академик Нью-Йоркской АН, член-корреспондент
международной академии теоретических и прикладных наук, профессор
кафедры «Экономика и логистика» Совместного Белорусско-Узбекского
межотраслевого института технической квалификации г. Ташкента,
НИГМОН

Гулямов С. С., Шермухаммедов А. Т.

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ

Аннотация. Бухгалтеры предприятий тратят около четырех часов в день на рутинные задачи, где обрабатываются первичные документы, письма и звонки контрагентам, для сверки табелей рабочего времени, что приводит к усталости бухгалтеров и снижению их активной работы. В статье рассматриваются вопросы автоматизации при анализе бухгалтерского отчета с помощью искусственного интеллекта (ИИ).

Ключевые слова. Искусственный интеллект, акты, счета-фактуры, договоры, счета.

Введение. Искусственный интеллект (ИИ) становится незаменимым помощником для бухгалтеров. Он позволяет сэкономить время, снизить риск ошибок и проводить клиентские консультации без необходимости использования поисковиков. В 2025 г. такие ИИ как DeepSeek, YandexGPT, ChatGPT (TenChat) улучшили работу бухгалтерам они не заменили их, а стали помощниками в их работе. Ежедневно в бухгалтерию поступает огромный поток входящих документов таких как УПД, акты, счета-фактуры, договоры, счета. В крупных предприятиях вся первичная документация приходит в сканированном виде через электронный документооборот или по электронной почте. Бухгалтерам, занимавшимся ручным вводом, трудно справляться с перегруженной монотонной работой.

Текучка кадров в бухгалтерии порою достигает смены сотрудников каждые полгода, что требует постоянного обучения новых людей. Высокая вероятность ошибок и замедление обработки документов напрямую влияет на закрытие отчётных периодов и своевременность выплат по обязательствам [1, стр. 5]. Необходимо сократить время ввода документов, свести к минимуму ошибки, снизить зависимость от человеческого фактора и, в идеале, полностью убрать бухгалтеров, занятых исключительно вводом первичных данных. И в этих проблемах роль нейросетей в бухгалтерском учете огромна.

Основная часть. Как извеб́стно, традиционная бухгалтерия сталкивается с серьезными проблемами по составлению отчетов, так как их

рутинные операции занимают до 70% рабочего времени, а человеческий фактор приводит к ошибкам в расчетах и переработки становятся нормой, особенно в отчетные периоды. Внедрение ИИ в бухгалтерии решает эти проблемы кардинально. Компании, которые уже используют искусственный интеллект в учёте, экономят до 3 часов рабочего времени ежедневно и снижают количество ошибок на 40%. Распознавание документов в бухгалтерии стало прорывной технологией. ИИ считывает информацию с любых документов: счетов, накладных, актов, справок и при этом точность распознавания достигает 98%. Различные программы всё активнее проникают в сферу бизнеса, бухгалтерского учёта, открывая новые возможности для автоматизации и оптимизации рабочих процессов. Внедрение нейросетевых технологий становится ключевым фактором повышения эффективности деятельности предприятия. Работа бухгалтеров на исследуемом предприятии, где используются нейросети в бухгалтерском учёте показала, что они дали большой эффект по следующим причинам

1. По автоматизации рутинных задач. Нейронные сети сумели быстро и точно решать задачи, как классификация документов, распознавание счетов-фактур, начисление заработной платы, что позволил экономить время. 2. Повышение точности. Искусственный интеллект в бухгалтерии выявил сложные закономерности в финансовых данных, что повысил точность прогнозов, финансового анализа и принятия решений. 3. Обработка больших объёмов данных. Нейросети работали с огромными базами финансовых данных, что упростил поиск и анализ информации. 4. Выявление мошенничества. Нейросети обнаружили подозрительные финансовые операции и потенциальное мошенничество, что помог усилить контроль. 5. Персонализация услуг. Нейросетевые инструменты адаптируют бухгалтерские услуги под индивидуальные потребности клиентов. 6. Улучшение прогнозирования. Использование ИИ в бухгалтерии позволил создавать более точные финансовые прогнозы [2, стр. 3].

Для использования нейронных сетей в бухгалтерском деле на нашем предприятии мы рассмотрели:

- свёрточные нейронные сети (CNN), которые применяются для распознавания и классификации документов, таких как счета-фактуры, квитанции, налоговые декларации, и помогают автоматизировать ввод данных из отсканированных документов.

- рекуррентные нейронные сети (RNN), которые используются для прогнозирования финансовых показателей, таких как денежные потоки, доходы, расходы, и помогают выявлять скрытые закономерности в данных.

- автокодировщики, которые применяются для выявления мошенничества и аномалий в финансовых операциях, которые способны обнаруживать нетипичные операции, которые могут указывать на мошенничество. [3, стр. 7].

Исследования на нашем предприятии показали, что нейронные сети прямого распространения (FFN) подходят для автоматизации рутинных расчётов, таких как начисление заработной платы, формирование отчетности,

и помогли ускорить выполнение повторяющихся задач. А гибридные модели сочетающие различные типы нейросетей для решения комплексных задач, в сочетании CNN и RNN удобны для прогнозирования финансовых показателей, но с учётом анализа документов бухгалтерских задач. Применение GigaChat API в бухгалтерском учёте для нашего предприятия показало, что внедрение GigaChat в проект помог найти информацию о бухгалтерском учёте, включая принципы двойной записи, различные типы счетов и методы учёта. Также сеть помогла нам разобраться в терминологии и объяснить, как работает система бухгалтерского учёта. Кроме того, GigaChat, интегрированный с нашими сервисами при помощи API, в бухгалтерском учёте нашей компаний предоставили такие возможности как автоматизация рутинных задач по подготовке первичной документации, а также обработке счетов-фактур, расчёт заработной платы и налоговых платежей.

Выводы. Проведен анализ финансовых данных: доходы, расходы, активы и обязательства, которые помогли в принятии решений. Подготовлен финансовый отчётности нашего предприятия: баланс, отчёт о прибылях и убытках, отчёт о движении денежных средств и другие. В дальнейшем для нашей работы будем использовать такие нейронные сети, которые могут быть полезны как НейроБух, CatBoost, VisionLabs Spirit AI и Naumen.

Литература:

1. Яковлев А. В Управление производством: планирование и диспетчеризация – М. : ООО «1С-Паблишинг», 2018. – 219 с. : ил.
2. Абрашина Е. В., Емельянов И. М. Использование механизма расширенной аналитики в 1С: Управление производственным предприятием. – М. : ООО «1С - Паблишинг», 2011. – 298 с.
3. Бобровников А. Э. Финансовое планирование и бюджетирование – М., ООО «1С-Паблишинг», 2018. – 313 с. : ил.

Nazarmatov Oxunjon Sotvoldiyevich
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi instituti professori, i. f. d(DSc)
e-mail: a. nazarmatov85@gmail. com
Alijonova Rayxona Akmaljon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti 2-bosqich talabasi

KICHIK BIZNESLARDA SUN’IY INTELLEKT (AI) TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik bizneslarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda AI texnologiyalarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishdagi roli o‘rganiladi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarida AI’ni joriy etishga ta’sir

etuvchi omillar, jumladan moliyaviy imkoniyatlar, texnologik infratuzilma va raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, kichik biznes, raqamli transformatsiya, iqtisodiy samaradorlik, avtomatlashtirish, biznes jarayonlari, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, xarajatlarni kamaytirish, raqobatbardoshlik.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish zaruratini keskin kuchaytirmoqda. Ayniqsa, resurs bazasi nisbatan cheklangan, bozor kon’yunkturasiga tez moslashishga majbur bo‘lgan kichik biznes subyektlari uchun sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat innovatsion vosita, balki raqobatbardoshlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish, mijozlar bilan ishlash sifatini yaxshilash hamda bozor talablaridagi o‘zgarishlarga tezkor moslashish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmonida kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish, hududlarda biznes muhitini yaxshilash, yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda raqobatbardosh mahsulotlar bilan tashqi bozorlarga chiqishni kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[39]. Mazkur Farmon kichik biznes subyektlari faoliyatida samaradorlik, moslashuvchanlik va innovatsion faollik masalalarining yanada dolzarblashayotganini ko‘rsatadi. Hozirgi sharoitda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning eng faol va moslashuvchan bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ma’qullangan bo‘lib, unda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta’lim va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[40]. Mamlakatda qo‘llanilayotgan strategik yondashuvlar biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi uchun institutsional zamin yaratdi.

Asosiy qism. Kichik biznes subyektlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholashda, avvalo, sektorning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va raqamli transformatsiya uchun ahamiyatini hisobga olish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yanvar–sentabr oylarida kichik biznesning YaIMdagi ulushi 53, 8 foizni tashkil etgan, 2024-yil davomida esa yangi tashkil etilgan biznes subyektlari soni

[39] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2025-yil 19-mart, PF-50-son, “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Lex.uz.

[40] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son, “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Lex.uz.

77 398 taga yetgan bo‘lib, shundan 77 046 tasi mikrofirmalar va kichik korxonalardir[41]. Bunday holat kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotida yetakchi va eng harakatchan bo‘g‘inlardan biri ekanini bildiradi. Shu sababli mazkur sektorda AI texnologiyalarini joriy etish nafaqat alohida korxona darajasida, balki makroiqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur xulosalar O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” da AI’ni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish uchun huquqiy, texnologik va iqtisodiy asoslarni yaratish, sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 1, 5 mlrd AQSH dollariga yetkazish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida AI asosidagi xizmatlar ulushini 10 foizga chiqarish hamda AI yo‘nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish vazifalari belgilangan[42]. Yuqiridagi ko‘rsatgichlar AI’ni joriy etish kichik bizneslar uchun ham strategik rivojlanish vektori sifatida ko‘rilayotganini anglatadi.

Kichik biznesda AI joriy etish samaradorligini baholashda umumiy raqamlashtirish darajasidan ko‘ra aniq iqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayanish muhimdir.

1-jadval

Kichik biznesda AI texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash indikatorlari tizimi[43]

№	Baholash yo‘nalishi	Asosiy indikator	Iqtisodiy mazmuni	Kutiladigan natija
1	Xarajat samaradorligi	Operatsion xarajatlarning kamayishi, %	Takrorlanuvchi jarayonlar avtomatlashtirilishi natijasida mehnat, vaqt va servis xarajatlari qisqaradi	Xarajatlar pasayadi
2	Daromad samaradorligi	Savdo yoki xizmat hajmi o‘sishi, %	Mijozlar bilan ishlash sifati va taklifning individuallashuvi ortadi	Tushum ortadi
3	Mehnat samaradorligi	Bir xodimga to‘g‘ri keladigan natija	Xodim vaqtining bir qismi analitik va ijodiy vazifalarga yo‘naltiriladi	Unumdorlik oshadi
4	Vaqt samaradorligi	Buyurtma/qayta ishlash muddati, soat yoki kun	AI asosidagi avtomatik javob, saralash va prognozlash vaqtni tejaydi	Jarayon tezlashadi
5	Boshqaruv samaradorligi	Qaror qabul qilish aniqligi va tezligi	Ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash asosida xatolar kamayadi	Qaror sifati yaxshilanadi

[41] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari(https://stat.uz/uz/img/ishbilarmonlikdan-eng-mb-press-reliz)
[42] https://lex.uz/docs/-7158604
[43] Muallif ishlanmasi

6	Bozor samaradorligi	Mijozlar qoniqishi va takroriy xarid ulushi	Shaxsiylashtirilgan xizmat va tavsiya tizimlari mijoz sodiqligini oshiradi	Bozor pozitsiyasi mustahkamlanadi
7	Investitsion samaradorlik	AI joriy etish xarajatining qoplanish muddati	Dastlabki investitsiya va undan olinadigan iqtisodiy foyda solishtiriladi	ROI baholanadi

Quyida AI joriy etilishining iqtisodiy natijasini baholash uchun shartli hisob-kitobga asoslangan muallif modeli keltiriladi. Model aniq korxona ma’lumotlariga emas, balki kichik biznesning tipik operatsion tuzilmasi va xalqaro tadqiqotlarda aniqlangan samaradorlik yo‘nalishlariga tayanadi.

2-jadval

Kichik biznesda AI texnologiyasini joriy etishning shartli iqtisodiy natijalari[44]

Ko‘rsatkich	**AI joriy etilgunga qadar**	**AI joriy etilgandan so‘ng**	**O‘zgarish**	**Izoh**
Oylik operatsion xarajatlar	100, 0 mln so‘m	88, 0 mln so‘m	-12, 0%	Avtomatlashtirish va vaqt tejalishi hisobiga
Bir xodimga to‘g‘ri keladigan oylik ish hajmi	100 birlik	118 birlik	+18, 0%	Mehnat unumdorligi o‘sishi
Mijoz so‘roviga javob berish o‘rtacha vaqti	30 daqiqa	8 daqiqa	-73, 3%	Chatbot va AI-yordamchi orqali
Xizmat ko‘rsatishdagi xatolar ulushi	7, 0%	4, 5%	-2, 5 p. b.	Ma’lumotlar tahlili va standartlashtirish
Oylik tushum	150, 0 mln so‘m	165, 0 mln so‘m	+10, 0%	Mijozlar oqimi va konversiya o‘sishi
Dastlabki AI investitsiyasi	–	36, 0 mln so‘m	–	Platforma, sozlash va trening xarajatlari
Investitsiya qoplanish muddati	–	3–6 oy	–	Tejalgan xarajat va ortgan tushum asosida

Jadvaldagi hisob-kitoblar kichik biznesda AI joriy etish avvalo operatsion samaradorlikni oshirish orqali iqtisodiy foyda berishini ko‘rsatadi. Xarajatlarning 12% ga kamayishi va tushumning 10% ga oshishi savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari uchun sezilarli natija hisoblanadi[45]. Bunday natija OECDning generativ AI bo‘yicha xulosalari bilan hamohang bo‘lib, unda SMElar eng avvalo xodim samaradorligi, xarajat tejalishi va yangi vazifalarni bajarish imkoniyatini foyda sifatida qayd etgan.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznesga joriy etish samaradorlikni oshirishning muhim vositasi ekanini ko‘rsatdi. Resurslar cheklanganligi va bozorga moslashish zarurati AI’ni innovatsion emas, balki raqobatbardoshlikni ta’minlovchi amaliy mexanizmga aylantiradi. AI

[44] Muallif ishlanmasi

[45] AI adoption by small and medium-sized enterprises OECD discussion paper for the G7

operatsion xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, vaqtni tejash, qarorlarni tezlashtirish va mijozlar bilan ishlash sifatini yaxshilash imkonini beradi. Iqtisodiy samaradorlik asosan ichki jarayonlarni optimallashtirish orqali shakllanadi.

Shu bilan birga, AI'ni joriy etish moliyaviy resurslar yetishmasligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, malakali kadrlar va raqamli savodxonlikning pastligi kabi muammolar bilan cheklanadi. Demak, samaradorlik texnologiya bilan birga boshqaruv sifati va institutsional qo'llab-quvvatlashga ham bog'liq.

O'zbekiston sharoitida AI'ni kichik biznesga joriy etish uchun subsidiyalarni kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va mos texnologik yechimlar yaratish zarur. Samaradorlikni baholashda xarajat, daromad, unumdorlik va vaqt tejalishi kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish lozim.

Foydalailgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyundagi qarori. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Manba: https: //lex. uz/docs/-7433397
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi Farmoni.
"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Manba: https: //lex. uz/docs/-5031048
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi qarori. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar. Manba: https: //lex. uz/uz/docs/-7444738
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023–2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik statistik ma'lumotlari. Toshkent.
5. World Bank. (2023). World Development Report: Digitalization for Development. Washington, DC.

Misirov Komoliddin Mamasabirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliyaviy hisob va hisobot kafedrasi" professori
e-mail: misirovkomoliddin0218@gmail. com
Aktamov Sardor Akramovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, talabasi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va audit tizimini transformatsiya qilishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Raqamlashtirish jarayonlarining moliyaviy axborotlarni shakllantirish, qayta ishlash, taqdim etish hamda nazorat qilish mexanizmlariga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda buxgalteriya hisobi va audit tizimini transformatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamli infratuzilmani rivojlantirish,

moliyaviy hisobotlar sifatini oshirishni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, audit, transformatsiya, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobot.

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy munosabatlar mazmunini, biznes yuritish shakllarini hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi va audit tizimi faqat xo‘jalik operatsiyalarini qayd etuvchi an’anaviy vosita bo‘lib qolmay, balki real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va foydalanuvchilarga tezkor hamda ishonchli axborot taqdim etuvchi strategik boshqaruv instrumentiga aylanmoqda. Moliyaviy axborotning foydalilik xususiyatlari, xususan, dolzarblik, haqqoniy ifodalash, qiyoslanuvchanlik va tushunarlilik bugungi moliyaviy hisobot tizimining asosiy sifat mezonlari sifatida e’tirof etiladi. IASBning Moliyaviy hisobotning konseptual asoslariga ko‘ra, “foydali moliyaviy axborot relevant bo‘lishi va hodisalarni haqqoniy aks ettirishi lozim”. [46] Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida hisob va audit tizimining transformatsiyasi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham O’zbekiston Respublikasi hududida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga keng tatbiq etish choralari ko’rib chiqilmoqda.

Asosiy qism. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va audit tizimining transformatsiyasi korxona boshqaruvining samaradorligini oshirish, moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta’minlash hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu borada M. Romney va P. Steinbart buxgalteriya axborot tizimini ma’lumotlarni yig‘ish, qayd etish, saqlash va qaror qabul qilish uchun foydali axborotga aylantirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida tavsiflaydilar. [47]

Hozirgi bosqichda korxonalarda raqamlashtirish jarayonlari, avvalo, buxgalteriya hisobi funksiyalarining avtomatlashtirilishi orqali namoyon bo‘lmoqda. Elektron hujjat aylanishi, ERP-tizimlar, bulutli servislar, onlayn to‘lov platformalari va integratsiyalashgan boshqaruv dasturlari moliyaviy ma’lumotlarni shakllantirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Natijada operatsion xarajatlar qisqaradi, inson omili bilan bog‘liq xatolar kamayadi, ma’lumotlarning tezkorligi va aniqligi ortadi.

Shu bilan birga audit faoliyatida ham raqamli vositalardan foydalanish auditorlik tekshiruvlarining samaradorligini kuchaytiradi. Ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, risklarni baholash va firibgarlik holatlarini aniqlash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa auditorlik xulosalarining asoslanganligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. [48]

Xususan, tavakkalchilikka yo‘naltirilgan audit, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, elektron dalillar bilan ishlash, ichki nazorat tizimini

[46] IASB. Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari (Conceptual Framework for Financial Reporting)

[47] Romney M.B., Steinbart P.J. Buxgalteriya axborot tizimlari. (*Accounting Information Systems)*. “Pearson” nashriyoti

[48] Aygaliyeva Nargiza. Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. 2026-yil, fevral Andijon.161-bet.

avtomatik monitoring qilish hamda sun’iy intellekt asosida anomaliyalarni aniqlash kabi yo‘nalishlar auditorlik faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xalqaro audit standartlarida auditor tomonidan jiddiy xatolar xatarini aniqlash va baholash, shuningdek, baholangan xatarlarga mos audit choralarini ishlab chiqish zarurligi alohida belgilangan. [49]

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va audit tizimini transformatsiya qilish jarayoni ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu jarayonning asosiy omillari, bosh maqsad va vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari hamda kutilayotgan natijalarini tizimli ravishda ifodalash maqsadida quyidagi rasm ishlab chiqildi.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va audit tizimini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari. [50]

Mazkur rasmda raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va audit tizimini modernizatsiya qilishga ta’sir etuvchi asosiy omillar, bosh maqsad va vazifalar, ustuvor yo‘nalishlar hamda kutilayotgan natijalar tizimli ravishda aks ettirilgan. Unda sun’iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar, elektron hujjat aylanishi, xalqaro standartlarga uyg‘unlashuv va kiberxavfsizlik kabi omillar hisob va audit tizimining raqamli transformatsiyasini harakatga keltiruvchi muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, hisob jarayonlarini avtomatlashtirish, moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, auditni raqamli modelga o‘tkazish, ichki nazorat va axborot xavfsizligini kuchaytirish hamda kadrlar kompetensiyasini rivojlantirish ushbu transformatsiyaning ustuvor yo‘nalishlari sifatida ifodalangan. Natijada moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi ortishi, boshqaruv qarorlarining tezkorligi va sifati yaxshilanishi, operatsion xarajatlarning kamayishi hamda shaffoflik va investitsion jozibadorlikning kuchayishi ta’minlanadi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot buxgalteriya hisobi va audit tizimining mazmuni, funksiyasi va tashkiliy tuzilmasini yangicha talqin etishni taqozo etmoqda. Mazkur sharoitda hisob va audit tizimini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida: hisob jarayonlarini avtomatlashtirish va integratsiyalash, moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish, tavakkalchilikka

[49] IFAC. *International Standard on Auditing 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.* New York: International Federation of Accountants.
[50] Rasm mualliflar tomonidan tayyorlandi.

yo‘naltirilgan raqamli auditni rivojlantirish, ichki nazorat va axborot xavfsizligini mustahkamlash, shuningdek, kadrlar salohiyatini zamonaviy kompetensiyalar asosida shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar nafaqat moliyaviy axborotning haqqoniyligi va shaffofligini ta’minlaydi, balki korxonalar boshqaruvining samaradorligini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24. 02. 2020-yildagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori.
2. IASB. “Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari” (Conceptual Framework for Financial Reporting). London: IFRS Foundation, 2018.
3. IASB. “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” (IAS 1 Presentation of Financial Statements). London: IFRS Foundation.
4. Romney M. B., Steinbart P. J. “Buxgalteriya axborot tizimlari” (Accounting Information Systems). Harlow: Pearson Education Limited, 2018.
5. IFAC. 315-son Xalqaro audit standarti (2019-yilda qayta ko‘rib chiqilgan): “Jiddiy xatolar xavfini aniqlash va baholash”. New York: International Federation of Accountants, 2019.
6. IFAC. 330-son Xalqaro audit standarti: “Baholangan xatarlarga auditorning javob choralari”. New York: International Federation of Accountants.
7. Aygaliyeva Nargiza. Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. 2026-yil, fevral Andijon. 161-bet.

Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti dekani, i. f. n, dotsent
e-mail: muydinov1958@gmail. com

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNI AUDIT RISKIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni mamlakat iqtisodiyotiga keng kirib borishi, buning natijasida auditning obyektlariga aylanishi mumkin bo‘lgan mutlaqo yangi tarmoqlarning yuzaga kelayotgani hamda bu holatlarni audit riskiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yangi omillar masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot yakuniga ko‘ra mazkur riskni pasaytirish bo‘yicha fikrlar bildirilgan.

Kalit so’zlar: raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, elektron tijorat, audit, risk, kichik va o’rta korxonalar, onlayn biznes, boshqaruv hisobotlari

Kirish. O‘zbekiston respublikasini raqamlashtirilgan iqtisodiyotga o‘tishni jadal suratlar bilan amalga oshirayotgani munosabati bilan onlayn biznes platformalarni rivojlanishiga investitsiyalar kiritish jarayoni sezilarli darajada

rivojlana boshladi. Mamlakatimizda umumiy savdo aylanmasining 4% tashkil qilayotgan, lekin o‘ta tez suratlar bilan o‘sib borayotgan elektron tijorat 2004 yili birinchi marta qonun bilan tartibga solingan[1]. 2025-yilda O‘zbekistonda elektron savdo platformalari soni 79 taga ko‘payib, 115 taga yetdi. Mazkur platformalar orqali amalga oshirilgan savdolar 22, 7 trln so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 7, 5 trln so‘mga yoki 1, 5 barobarga oshgan. [2].

Xalqaro amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha , bu sohada asosan kichik va o‘rta biznes korxonalari muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatib kelishmoqda.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan keng foydalana boshlagan tarmoqlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- internet savdo;
- buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha autsorsing xizmatlari;
- qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilish;
- mikrokredit tashkilotlari;
- turizm bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;
- kitob va jurnallar savdosi;
- reklama biznesi; ta’lim; tarjima xizmatlari v. x. k

Asosiy qism. Maqolani tayyorlashda kuzatish, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, va tizimli yondashuv kabi usullar qo‘llanildi. Ushbu usullar tegishli ma’lumotlarni to‘plash, modellar yaratish, nazariyalarni sinab ko‘rish va bo‘lajak iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni bashorat qilish uchun ishlatiladi.

Butun dunyo va respublikamiz iqtisodiyotiga raqamli texnologiyalar (RT) va sun’iy intellekt (SI) ni tez suratlar joriy qilinayotgani auditorlik faoliyatining rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro tajriba ko‘rsatishicha auditorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni joriy qilish bir qator ustunlikka ega bo‘lishi bilan bir qatorda ayrim muhim kamchiliklardan ham holi emas.

Avvalo, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning auditda qo‘llanilishining asosiy afzalliklaridan biri katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkoniyatidir.

Bunday texnologiyalar audit jarayonida barcha operatsiyalarni qamrab olgan holda tahlil o‘tkazish, xatolar va ehtimoliy qalloblik holatlarini avtomatik tarzda aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar risklarni baholash, anomal operatsiyalarni aniqlash va auditorlik dalillarini yig‘ish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ikkinchidan, raqamli audit texnologiyalari auditorlik tekshiruvining sifatini oshiradi. Masalan, ma’lumotlar tahlili (data analytics), blokcheyn texnologiyasi va avtomatlashtirilgan audit dasturlari orqali moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va

nazorat darajasi kuchayadi. Bu esa auditorlik xulosalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni auditda qo‘llash muayyan qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Birinchidan, bunday texnologiyalarni joriy etish katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi.

Ayniqsa, kichik va o‘rta auditorlik tashkilotlari uchun zamonaviy dasturiy ta’minot va infratuzilmani joriy qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan,

auditorlarning raqamli ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muammolardan biri hisoblanadi.

Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili bilan ishlash uchun auditorlardan qo‘shimcha bilim va malaka talab etiladi. Uchinchidan, axborot xavfsizligi va ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq risklar ham mavjud. Katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlar raqamli muhitda qayta ishlangani sababli, ularni noqonuniy foydalanish yoki kiberxavflardan muhofaza qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bularni quyidagi 1- jadvaldan ko‘rish mumkin.

1-jadval


RT va SI ni auditda qo‘llashning afzallik va qiyinchiliklari

Yo‘nalish	Afzalliklar	Qiyinchilik (cheklov)lar
Auditning samarasi	Mehnat talabchanligi va audit muddatini kamaytiradi	Kiritilayotgan ma’lumotlar sifatiga bevosita bog‘liqlik
Audit riski	Ma’lumotlarni 100% qayta ishlash imkonini mavjudligi	Maxfiy ma’lumotlarni o‘g‘irlanishi mumkinligi
Xulosalar sifati	Tahlilni cheksiz chuqurlashtirish mumkinligi	Professional munosabat o‘rnini bosa olmasligi
Audit xarajatlari	Kelajakda xarajatlarni kamayishini kutilishi	Dastlab yirik investitsiya qilishning zarurligi
Sifat nazorati	Hujjatlashtirishni yaxshilanishi	Barcha holatlarda sifat uchun auditorni javobgarligi

Auditorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishga intilish va ularni qo‘llash bir tomondan ishni samaradorligi va sifatini oshirish, vaqtni tejash hamda muntazam yoki virtual audit bilan shug‘ullanishga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan audit riskini oshishiga olib keluvchi yangi omillarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Kichik va o‘rta biznes korxonalari auditini o‘tkazishda audit riskiga ta’sir qiluvchi omillar umumiy guruhi quyidagi 1- rasmda keltirilgan.

1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra:

■ Ko‘p sonli qonun hujjatlari va ularning yuqori o‘zgaruvchanligi omili, ayniqsa kichik va o‘rta korxonalarga xizmat ko‘rsatishda audit riskiga bevosita va sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur omil quyidagi holatlarga olib keladi: KO‘B buxgalteriya siyosati yangi talablarga moslasha olmaydi; buxgalterlar va mulk egalari qoidalarni turlicha talqin qiladi; eskirgan yoki qisman amal qiladigan qoidalar qo‘llaniladi.



1-rasm. Iqtisodiyotga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni kirib kelishi bilan audit riskiga ta’sir qiluvchi omillardagi o‘zgarishlar [3].

■ Iqtisodiyotni to‘liq raqamlashtirishga bosqichma-bosqich o‘tish omili KO‘B auditi riskiga bir necha jihatdan ta’sir qiladi, ya’ni qator risklarni oshiradi, boshqalarini kamaytiradi. Masalan, raqamlashtirish hisob/ERP tizimi algoritmlaridagi xatolar; tizimlar o‘rtasidagi noto‘g‘ri integratsiyalar; moliyaviy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi/soxtalashtirish riskini ortishi kabi xatolar va zaifliklarning yangi manbalarini yaratadi.

Auditorlarni KO‘K tomonidan foydalanilayotgan RT va SI larni ishlash foydalanish yo‘riqnomalarini yaxshi bilmasliklari “aniqlay olmaslik riski”ni oshiradi. Lekin, audit jarayonida RT va SI dan foydalanish kam vaqt sarfi bilan auditning samaradorligi, aniqligi va sifatini oshirish; audit taomillarini o‘tkazishga ketayotgan vaqtni qisqartirish; xarajatlarni kamaytirish; o‘ta katta hajmdagi ma’lumotlarni yanada chuqurroq tahlil qilish orqali audit riskini kamaytirish imkonini beradi.

■ Biznes yuritishning mutlaqo yangi sohalarini paydo bo‘lishi kichik va o‘rta biznes subyektlarining hali barqaror hisob yuritish amaliyoti mavjud bo‘lmagan, me’yoriy asosi zaif, daromad va xarajatlarni tan olishning aniq qoidalari aniqlanmagan, tarmoq mo‘ljallari mavjud bo‘lmagan muhitda ish boshlashi va korxona xodimlari tomonidan faoliyatda qo‘llanilayotgan yangi texnologiyalarni boshqarishdagi tajribalarining kamligida o‘zini namoyon qiladi. Bu vaziyatlar o‘z navbatida audit riskini oshiradi.

■ RT va SI dan foydalanish natijasida yuzaga keladigan yangi hisobot shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: elektron va mashina o‘qiydigan hisobot (XBRL, XML); integratsiyalashgan hisobot; nomoliyaviy va ESG (ekologiya) hisobotlari; raqamli boshqaruv panellarida boshqaruv hisobotlari. Yangi hisobot shakllarining paydo bo‘lishi omili KO‘K auditi riskiga aksariyat hollarda ular bo‘yicha hisobotlar taqdim qilishni boshlanishida sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni

uni oshiradi. Bu borada tajriba ortgan sari keyingi muddatlarda risk kamayib boradi.

■ Standart RT va SI audit vositalari murakkab ERP (rejalashtirish va avtomatlashgan boshqaruv) tizimlari, katta ma'lumotlar to‘plamlari va murakkab ichki nazorat tizimlariga qaratilgan bo‘lib, ular ko‘pgina KO‘B subyektlarining real hayotdagi ish sharoitlariga mos kelmaydi. Umumiy maqsadli SI algoritmlarini moslashtirmasdan ishlatish to‘liq bo‘lmagan ma'lumotlar, past sifatli ma'lumotlar va tarixiy ma'lumotlarning yo‘qligi tufayli noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun kichik namunalar va tuzilmagan ma'lumotlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot yechimlari va audit usullari zarur.

■ Zamonaviy texnika va texnologiyalar vositasida masofada turib xizmat ko‘rsatish imkoniyatining paydo bo‘lishi, jumladan buxgalteriya xizmatlari autsorsingini keskin sur'atlar bilan rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday xizmatlardan foydalanish kichik va o‘rta biznes korxonalariga dastlabki hisobni yuritish, moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzish, ularni tegishli idoralarga taqdim qilish, ish haqi hisoblash muomalalarini amalga oshirish kabi yana bir qator yo‘nalishlarda moliyaviy mablag‘larni tejash hamda bu boradagi risklarni autsorsing kompaniyasi bilan bo‘lishish imkoni beradi. Biroq, mijozning autsorsing tashkiloti tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish riski xo‘jalik yuritish subyekt buxgalteriya xizmati tomonidan tayyorlangan hisobotni tekshirish borasida yuzaga keladigan riskdan yuqoriroq bo‘ladi. Chunki, auditorlik tekshiruvi jarayonida an'anaviy qilinadigan ishlardan tashqari auditor qo‘shimcha tarzda quyidagilarni ham o‘rganib chiqishi lozim bo‘ladi:

- Mijoz buxgalteriya xizmati ko‘rsatuvchi autsorsing kompaniyasini qanday tarzda tanlab olgan?
- Autsorser masofada turib xizmat ko‘rsatishning qanday texnologiyalarini taklif qilgan?
- Autsorser mijozimizning buxgalteriya hisobini yuritish uchun qanday dasturdan foydalanadi?
- Autsorsing kompaniyasining bizning mijozga xizmat ko‘rsatish uchun mas'ul sifatida tayinlangan xodimining nazariy bilim va amaliy ish tajribasi hamda uning biznes jarayonlari xususiyatlaridan xabardorligi qanday darajada ?
- Autsorser tomonidan ko‘rsatilayotgan buxgalteriya xizmatlarining tarkibi va narxiga nimalar kiradi.
- Masofaviy buxgalteriya xizmatlari ko‘rsatish to‘g‘risida tuzilgan shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari qanday shartlar asosida ko‘rsatilgan?
- Mijozimizga tegishli ma'lumotlar autsorserda qanday saqlanadi, mazkur ma'lumotlarga o‘zga shaxslarni kirishini cheklash, ularni rezerv qilib borish masalasi qanday hal qilingan?
- Mijozning ma'lumotlariga tashqaridan ta'sir qilish xavfini kamaytirish uchun autsorser tomonidan qanday choralar ko‘rilgan?

- Muammoli holatlar yuz berganda mijozga xizmat ko‘rsatish uchun mas’ul qilib tayinlangan xodimga amaliy yordam berish autsorsing kompaniyasida kimga yuklatilgan. Ushbu shaxs chindan ham sohada mutaxassis sifatida tanilganmi?

- Sifatsiz ko‘rsatilgan xizmat natijasida mijozga yetkazilgan zararni qoplab berish shartlari shartnomada qanday aks ettirilgan v. x. k

Bularning har biri ham alohida, ham birgalikda audit riskiga tasir qilish imkoniyatiga ega.

■ Raqamli texnologiyalar (RT) va sun’iy intellekt (SI) dan faol foydalanadigan kelajakda mijozga aylanishi mumkin bo‘lgan yangi sohalarining paydo bo‘lishi auditor uchun sifat jihatidan yangi muammolar va qiyinchiliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Auditorlar algoritmlarning ishlash tamoyillarini, AT tizimlari arxitekturasini va raqamli platformalar mantig‘ini tushunishlari kerak. Bunday bilimlarning yo‘qligi yoki yetarli emasligi muhim buzib ko‘rsatishlarni noto‘g‘ri baholash va xato professional fikr yuritish xavfini oshiradi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar va Sun’iy intellekt jarayonlarini baholashdagi xatolar quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- noto‘g‘ri audit xulosalarini shakllantirish;
- sud jarayonlarini yuzaga kelishi;
- auditorlik tashkilotini obro‘siga putur etishi

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan faol foydalanadigan yangi sohalarning paydo bo‘lishi auditorlar uchun ko‘plab yangi qiyinchiliklarni tug‘diradi: ko‘nikmalardagi tafovut va murakkab xavflarni baholashdan tortib, sun’iy intellekt tizimlarida cheklangan shaffoflik va yetarli bo‘lmagan tartibga solish tizimlarigacha. Bu an’anaviy audit yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishni, IT auditi kompetensiyalarini rivojlantirishni va ixtisoslashgan metodologiyalar va vositalarni joriy etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. https: //www. spot. uz/ru/2024/05/03/e-commerce
2. https: //tanga. uz/news/1069
3. Muallif ishlanmasi

Кадиров А.
Доцент кафедры Менежмент и маркетинг
Расулжонов Д., Вон Илья
студент Ферганского государственного технического университета

АНАЛИЗ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОМПЕТЕНЦИЯМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты анализа системы управления компетенциями на предприятии. Раскрываются сущность компетентностного подхода, методы оценки и развития компетенций персонала, а также выявляются основные проблемы и

направления совершенствования системы управления человеческими ресурсами. Особое внимание уделяется роли компетенций в повышении эффективности деятельности предприятия.

Ключевые слова: компетенции, управление персоналом, трудовой потенциал, компетентностный подход, развитие персонала, HR-менеджмент, оценка персонала

В современных условиях цифровизации экономики и усиления конкуренции ключевым фактором устойчивого развития предприятий становится эффективное управление трудовым потенциалом. Одним из наиболее прогрессивных инструментов управления персоналом является компетентностный подход, который ориентирован на формирование и развитие профессиональных, управленческих и поведенческих компетенций работников.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью повышения качества человеческого капитала и адаптации персонала к быстро меняющимся условиям внешней среды.

В условиях цифровой экономики предприятия стремятся сохранить экономическую устойчивость и использовать новые возможности для обеспечения конкурентного преимущества. Главным направлением стратегии в современных реалиях является инновационное развитие, осуществление которого невозможно без совершенствования человеческого капитала. Недостаток квалифицированных кадров препятствует инновационному развитию предприятий. В изменяющихся условиях это ставит их перед необходимостью разработки и реализации политики управления компетенциями персонала. Преодоление разрывов в компетенциях требует использования новых механизмов, методов и инструментов управления. В процессе управления компетенциями особое внимание следует уделить оценке персонала. Оценка позволяет понять, какими трудовыми ресурсами обладает предприятие и как их использовать наиболее эффективно. По результатам оценки проводится подбор и обучение персонала, формирование кадрового резерва, выявляются проблемы в области управления персоналом и определяются пути их преодоления, разрабатывается программа мотивации.

В связи с активным внедрением инноваций изменяются направления оценки персонала:

- происходит изменение целей оценки. Изначально оценка проводилась для определения соответствия работника занимаемой должности и полноты выполнения профессиональных функций. В настоящее время целью оценки является выявление резервов роста и развития сотрудников;
- увеличение частоты проведения оценки, что обусловлено быстрым устареванием профессиональных компетенций;
- практическое применение результатов оценки для принятия кадровых решений; необходимость оценки командных результатов работы.

Происходящие изменения требуют формирования системы оценки, которые позволят предприятию адаптироваться в новых условиях.

Кадровый потенциал является конкурентным преимуществом организации, так как сочетает в себе такие составляющие, как уровень образования, опыт, знания и умения, деловые качества. Все эти составляющие влияют на успешное функционирование организации и поэтому в качестве объектов совершенствования трудовых ресурсов выступают компетентность и мобильность персонала.

Формировать коллектив необходимо с профессиональных позиций, применяя личностные тесты, методики, вырабатывать корпоративную культуру для каждой организации. Через объединение взглядов, мнений и творческих возможностей работников организации развивается трудовой потенциал организации и каждого сотрудника, что, в конечном счете, превращается в компетентность всей организации в целом.

В связи с этим обостряется потребность в проведении оценки трудовых ресурсов, которая позволит определить, какие деловые и квалификационные возможности скрыты у работников и что из этого потенциала можно использовать в интересах организации, а что необходимо развивать и корректировать.

В настоящее время достаточно успешно функционирующие фирмы могут себе позволить применение ассесмента для получения качественных и надежных оценок по компетенциям в ходе отбора кандидатов на ключевые должности, а также для формирования кадрового резерва. Проведение ассесмента полезно также и при планировании обучения. Очень эффективно применение ассессмента перед проведением организационных изменений, когда руководству необходимо знать, как используется трудовой потенциал до и после нововведений и реорганизации и насколько персонал вовлечен в стратегические планы развития организации.

В условиях динамично развивающихся потребностей производства проблема целенаправленного развития потенциала рабочей силы является важным аспектом регулирования успешного функционирования организации и основным фактором ее конкурентоспособности.

Понятие «компетенция» было использовано и в работах Г. Каннака (Франция), где доказана необходимость развивать компетенцию каждого работника для успеха всей деятельности организации, а также была определена организационная компетенция как рациональное сочетание знаний и способностей работников, рассматриваемых на небольшом промежутке времени.

Управление компетенцией осуществляется путем сравнения потребностей организации с наличными ресурсами и дальнейшим выбором форм воздействия для приведения их в соответствии с выбранной стратегией развития организации к необходимым количественным и качественным характеристикам с достигнутым уровнем компетенции, желаниями, мотивациями и устремлениями. Результатом сравнения потребностей и ресурсов организации могут оказаться перестановки, передвижения, обучение и набор.

Таким образом, для успешной реализации стратегических планов развития организации управление компетенцией организации должно осществляться с реализацией практики ее приобретения, стимулирования и развития.

1. Приобретение компетенции, т. е. обеспечение организации компетенциями подразумевает внедрение системы прогнозирования человеческих ресурсов, назначение которой в том, чтобы определить в качественном и количественном выражении потребность в компетенции организации на предстоящий период.

Только после внедрения необходимых методов и процедур организация сможет начать процедуру приобретения компетенции либо за счет передвижения специалистов («внутреннего приема»), либо за счет их приема со стороны.

2. Стимулирование компетенции, т. е. обеспечение мотивации для оптимизации результативности работы за счет использования материальных и моральных стимулов.

3. Развитие компетенции способствует повышению квалификации, внутреннему передвижению работников и развитию карьерного роста.

Компетентность работника определяется, как спрособность применять знания, умения, личностные качества для успешной работы в определеной области.

Составляющими компетенции являются:

– знания – результаты образования личности;

– навыки – результаты опыта работы и обучения;

– способы общения – умение общаться с людьми и работать в группе.

Базовую классификацию компетентности задали классики комплексного подхода, выделяя виды компетентности, необходимые для эфеективной работы:

– личностные компетенции, в том числе когнитивные компетенции, знания и понимание;

– профессиональные компетенции, включающие в себя функциональный, психомоторный и прикладной навык;

– компетенции, связанные с индивидуальной эффективностью, включающие в себя концептуальные (метакомпетенции, позволяющие формировать новые знания и компетенции) и операционные (социальные компетенции, поведение и отношения).

Одним из критериев классификации компетенций в профессиональной среде является уровень их распросранения в организации:

– для общеорганизационного уровня выделяют корпоративные и профессиональные компетенции, охватывающие сферцу деятельности компании;

– для уровня отдельных должностей – менеджерские и профессиональные компетенции, которые применимы в отношении определенной группы должностей.

Корпоративные (базовые, ключевые) компетенции применимы для любой должности в организации. Они следуют из ценностей компании, зафиксированных в корпоративных документах, как стратегия, кодекс корпоративной этики и т. д.

Менеджерские (управленческие, лидерские) компетенции разрабатываются для сотрудников, занятых в управленческой деятельностью и имеющих работников в линейном и функциональном подчинении и включают в себя, например, такие компетенции, как стратегическое видение, управление бизнесом, работа с людьми, направленность на результат, умение влиять на людей, предприимчивость и т. д. .

Компетенции руководителей включают:

1. Профессиональные компетенции (менеджерские навыки) – знания, навыки и профессиональные качества, необходимые для руководства конкретным коллективом, структурным подразделением или функцией. Данные компетенция выделяются при помощи анализа работы.

2. Поведенческие стратегии, приводящие к успеху или неудаче в деятельности, осуществляемой в рамках оцениваемой должности.

3. Организационные (корпоративные) компетенции – качества, влияющие на эффективность работы в условиях данного предприятия (например, компетенция «обучаемость» необходима для успешной работы в организациях, находящихся на этапах «формирование» или «рост»).

4. Метакомпетенции – компетенции, которые настолько мощны, что влияют на способность руководителя приобретать новые компетенции (например, компетенции «эмоциональный интеллект» и «адаптивность», проявляющиеся в области обучения и развития).

Процедура оценки, основанная на измерении компетенций руководителей, заключается в определении ключевых компетенций, необходимых для успешного выполнения работы оцениваемой должности и измерении степени развития выявленных компетенций.

Преимущества данного метода:

– позволяет привлечь внимание руководителей к тем компетенциям, которые требуют развития, и определить пути, которыми это можно сделать;

– при его адекватном использовании возникает мотивирующий эффект.

Данный метод применяется для реализации следующих задач организации:

– определение потребности в развитии и обучении руководителей (развитие компетенций требует достаточно длительного периода развития – 12 месяцев и выше);

– мотивация руководителей;

– определение соответствия руководителя должности (занимаемой или вакантной, если планируется продвижение).

По результатам выявляется уровень развития компетенций и принимается решение о том, какие развивающие и обучающие мероприятия необходимы для дальнейшего прогресса. Как показывает практика,

основными причинами принятия руководителями неэффективных решений является отсутствие навыков, а не недостаток знаний.

Библиографический список:

1. Доценко Е. В. Значение обучения в процессе использования трудового потенциала на предприятии // Стратегическое партнерство бизнеса и образования в рамках практикоориентированных кадров: материалы Международной научно-практической конференции. – Брянск: ООО «Ладомир»,
2. Доценко Е. В. Влияние управления персоналом на реализацию стратегии организации // Учетно-аналитические системы в контуре адап тивных инноваций: материалы Международной научно-практической конференции. – Брянск: ООО «Ладомир».
3. Chulanova O. The Classification of Competences as a Social-Economic Phenomenon [Klassifikatsiya kompetentsiy kak sotsial'no-ekonomicheskogo yavleniya]. KADROVIK, 2019.
4. Pyzhova L. A. Managing Staff Development as a Factor of Labour Efficiency Increasing [Upravlenie razvitiem personala kak faktor rosta effektivnosti truda]. Molodoy uchenyy [The young scietist]. 2018.

Гафурова Ф. С. к. э. н., Туйчиева О. Н. доц.,
Ферганский государственный
технический университет, каф. «Экономика»
e-mail: fainagafurova2@gmail. com

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОПТИМИЗАЦИИ ПРОЦЕССА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РЕСУРСАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ

Аннотация. В статье рассматривается роль современных цифровых технологий в оптимизации управления финансовыми ресурсами предприятия. Анализируются ключевые инструменты цифровизации, включая ERP-системы, бизнес-аналитику и технологии искусственного интеллекта. Особое внимание уделено проблемам внедрения данных технологий на промышленных предприятиях Узбекистана, а также предложены практические пути их решения. Сделан вывод о необходимости комплексного подхода к цифровой трансформации для повышения эффективности и конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: конкурентоспособность, оптимизация, финансовые ресурсы, цифровые технологии

Введение. В Узбекистане активно реализуется стратегия цифровой трансформации экономики, что усиливает необходимость внедрения современных технологий в производственный бизнес-процесс, важным элементом которого являются финансовые ресурсы.

В данном контексте под финансовыми ресурсами понимаем совокупность денежных доходов, поступлений и накоплений, находящихся в распоряжении предприятия, целью которых является формирование активов, финансирование производственно-хозяйственной деятельности, включая материальное стимулирование сотрудников [1].

В условиях усиления конкуренции эффективное управление финансовыми ресурсами становится одним из ключевых факторов устойчивого развития предприятия.

Современные требования к прозрачности финансовой отчетности, скорости принятия управленческих решений и снижению издержек делают традиционные методы управления недостаточно эффективными. Практикой доказано, что цифровые технологии позволяют автоматизировать финансовые потоки, минимизировать ошибки и повысить точность прогнозирования.

Таким образом, актуальность темы обусловлена необходимостью повышения эффективности использования финансовых ресурсов предприятий за счет внедрения инновационных решений.

Основная часть. Теорией и практикой доказано, что современные технологии существенно трансформируют систему финансового менеджмента предприятия. Для более наглядной оценки эффективности внедрения цифровых решений в управление финансовыми ресурсами представим аналитическую таблицу, отражающую функции, преимущества и недостатки наиболее актуальных на наш взгляд технологии в финансовом управлении. (Таблица1)

Таблица 1

Аналитическая таблица современных технологий в финансовом управлении

Технологии	Основные функции	Преимущества	Недостатки
ERP-системы	Обеспечение интеграции всех бизнес-процессов предприятия в единую информационную среду. Автоматизация бухгалтерского и управленческого учета; контроль движения денежных средств;	Способствует повышению прозрачности формирует финансовую отчетность в режиме реального времени.	Высокая стоимость внедрения
Big Data	Анализ большие объемы данных и принятие обоснованных управленческих решений. Обеспечение прогнозирования финансовых показателей, выявление узких мест в использовании ресурсов.	Точность прогнозирования, оптимизация затрат.	Требует высококвалифицированных специалистов
Облачные технологии	Хранение и доступ к данным	Гибкость снижения затрат на IT-инфраструктуру.	Риски кибербезопасности

		Обеспечение доступа к финансовым данным в режиме онлайн.	
Искусственный ителлект	Анализ финансовых рисков; автоматизации контроля и аудита; повышение точности финансового планирования.	Снижение ошибок, автоматизация решений	Сложность внедрения
Блок чейн	Защита и прозрачность операций	Надежность снижения мошеничества	Ограниченная распространенность

Данные таблицы показывают, что наибольший эффект достигается при комплексном внедрении технологий.

- ERP-системы обеспечивают базовую автоматизацию и создают единую информационную среду.
- BI-системы усиливают аналитическую составляющую управления.
- AI-технологии позволяют перейти к интеллектуальному управлению и прогнозированию [3].

Полагаем, что выше представленная таблица также имеет прикладное значение для отечественных промышленных предприятий поскольку:

- позволяет оценить потенциальный экономический эффект;
- обосновывает инвестиции в цифровизацию;
- помогает определить приоритеты внедрения технологий;
- служит инструментом стратегического планирования.

Например, предприятия, начинающие цифровизацию, могут сначала внедрить ERP-систему для автоматизации учета, затем Big Data для анализа, и только после этого переходить к использованию искусственного интеллекта.

Несмотря на очевидные преимущества, внедрение цифровых технологий сопровождается рядом проблем таких как:

1. Недостаток квалифицированных кадров, обладающих навыками работы с современными цифровыми системами.

2. Высокая стоимость внедрения - внедрение ERP-систем и других цифровых решений требует значительных финансовых вложений, что особенно затрудняет цифровизацию средних и малых предприятий.

3. Недостаточная цифровая инфраструктура - в ряде регионов сохраняются ограничения в доступе к высокоскоростному интернету, что препятствует внедрению облачных технологий.

4. Сопротивление изменениям - на предприятиях часто наблюдается низкая готовность персонала к изменениям, что замедляет процессы цифровой трансформации.

5. Интеграционные сложности, возникающие при интеграции новых систем с уже существующими бизнес-процессами и программным обеспечением.

На основании вышеизложенного предлагаем, что для успешной цифровизации управления финансовыми ресурсами на предприятии необходим комплексный подход, включающий организационные мероприятия и государственную поддержку. Таблица. 2

Таблица 2

Мероприятия по успешному внедрению цифровых технологий в управление финансовыми ресурсами предприятия

Мероприятие	Содержание
Развитие человеческого капитала	Организация обучения и повышение квалификации сотрудников, развитие IT- образования, сотрудничество с вузами и образовательными центрами
Поэтапное внедрение технологий	Рекомендуется внедрять цифровые решения постепенно, начиная с наиболее критичных бизнес-процессов
Развитие цифровой инфраструктуры	Расширение доступа к высокоскоростному интернету, развитие облачных сервисов.
Использование адаптированных решений	Применение локализованных ERP-систем, адаптированных под специфику узбекского законодательства и бизнеса, позволяет снизить риски и затраты внедрения.
Государственная поддержка	Предоставление налоговых льгот для внедрения IT-решений, субсидирование цифровых проектов, развитие программ цифровизации промышленности.

Выводы. Использование современных технологий является важнейшим направлением повышения эффективности управления финансовыми ресурсами предприятия. Внедрение ERP-систем, аналитических инструментов и искусственного интеллекта позволяет значительно улучшить контроль, планирование и использование финансовых средств.

В то же время, на промышленных предприятиях Узбекистана сохраняются серьезные барьеры, связанные с нехваткой кадров, высокой стоимостью технологий и инфраструктурными ограничениями.

Для преодоления этих проблем необходим комплексный подход, включающий государственную поддержку, развитие кадрового потенциала и поэтапную цифровизацию бизнеса. Только при реализации этих условий возможно достижение устойчивого экономического роста и повышение конкурентоспособности предприятий в условиях цифровой экономики.

Список использованной литературы:

1. Аничкин А. И. Журова Л. И., Михаленко Д. Т. Финансовый менежмент. 2-е изд. Москва., Юрайт, 2026 г.

2. Клинкович Ю. П. Концептуальная модель системы управления финансами предприятия с применением современных информационных технологий. // Мир новой экономики, 2020, №4, с. 11-16

3. Киталин С. С, Чемерис О. С., Прокопов М. А. Внедрение блок чейн технологий в финансовом секторе экономики. // Экономика предпринимательства и права, Т15, №4, 2025 г.

4. Прохоров А. П., Прохоров С. В. Роль технологии больших данных в переходе от финансового к управленческому учету в условиях

промышленного предпиятия//Экология и экономический менежмент. №1, с34-42, 2023 г.

Усмонов Музаффар Мусаевич
Международный институт пищевых технологий и инженерии,
Преподаватель кафедры «Экономика и управление»,
e-mail: usmanovm. 731gmail.com

Sun’iy intellektni rivojlantirish jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining ajralmas qismi ekanligini va kelajakda undan foydalanish faqat ortib borishini tushunish muhimdir. Shu sababli, odamlarning hayot sifatini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish uchun uning salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun sun’iy intellekt sohasida tadqiqot va ishlanmalarni davom ettirish zarur [4].

Xulosa. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt, axborot texnologiyalari va innovatsion ishlanmalar barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri bo‘lishi bilan bir qatorda, mehnat bozorining chuqur va og‘riqli tarkibiy transformatsiyasini ham keltirib chiqaradi. Mamlakatda "raqamli ishsizlik"ning oldini olish, barqarorlikni ta’minlash va yangi texnologiyalarning iqtisodiyotdagi ijobiy ta’sirini maksimallashtirish maqsadida bandlik siyosatini quyidagi yo‘nalishlarda modernizatsiya qilish tavsiya etiladi:

1. Ta’lim va sanoat integratsiyasi: oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini real raqamli iqtisodiyotning bevosita ehtiyojlariga moslashtirish, talabalarda nafaqat chuqur akademik bilim, balki amaliy IT, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash va algoritmik fikrlash ko‘nikmalarini birgalikda shakllantirish.

2. "Uzluksiz ta’lim" (Life-long learning) tamoyilini joriy etish: iqtisodiyotning an’anaviy sektorlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning raqamli malakasini davriy ravishda oshirishni rag‘batlantiruvchi maxsus davlat grantlari va soliq imtiyozlari tizimini ishlab chiqish.

3. Bandlik prognozlash markazlarini tashkil etish: sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni tahlil qiluvchi va kelgusi 5-10 yil ichida qaysi kasblar yo‘qolib, qaysilari paydo bo‘lishini prognoz qiluvchi milliy tahliliy markaz (Raqamli bandlik observatoriyasi) faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

4. Ijtimoiy himoya tizimi va mehnat qonunchiligini moslashtirish: yangi shakldagi masofaviy ishchilar, platforma orqali band bo‘lganlar (gig-ishchilar) va frilanserlarni milliy ijtimoiy himoya hamda mehnat sug‘urtasi tizimiga to‘liq qamrab olish uchun Mehnat kodeksiga ixtiyoriy-majburiy aralash turdagi moslashuvchan huquqiy me’yorlarni kiritish.

Faqatgina zamonaviy texnologik taraqqiyotni inson kapitalini rivojlantirish siyosati bilan uyg‘un tarzda olib borish orqaligina mamlakatda raqamli iqtisodiyot sharoitida uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-son Farmoni.

2. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2019). Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor. *Journal of Economic Perspectives*, 33(2), 3-30.

3. Аманов О. А., & Жонузоков, Н. Б. (2020). Влияние цифровой экономики на рынок труда. Экономика и социум, (12 (79)), 365-372. .

4. O. Amanov. “Sun’iy intelleky va uning mehnat bozoriga ta’siri” . Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2024-yil, dekabr. 12-son

5. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) hisobotlari. "Raqamli platformalardagi bandlik yuzasidan xalqaro tahlil va tendensiyalar" (2023).

Shaxodjayev Maxmud Axmedovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Elektr muhandisligi” kafedrasi dotsenti, k. f. n., dotsent,
e-mail: m. shaxodjaev@gmail. com

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Ta’lim jarayonini monitoring qilish, baholash, prognozlash hamda individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirishda sun’iy intellektning ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish, talabalar faolligini kuchaytirish hamda ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ta’lim sifati, oliy ta’lim, ta’limni boshqarish, raqamli ta’lim, monitoring, learning analytics, baholash, ta’lim samaradorligi

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish va samarali boshqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Ta’lim jarayonini samarali boshqarish, talabalar bilimini baholash, ularning o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish hamda ta’lim natijalarini prognozlash zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish, talabalar faoliyatini tahlil qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Asosiy qism. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish so‘nggi yillarda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli platformalar, learning analytics, adaptiv o‘qitish hamda avtomatik baholash tizimlari ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotchilar sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini optimallashtirish, talabalar bilimini baholash va ta’lim sifatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlamoqda [1].

Sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarishning muhim yo‘nalishlaridan biri learning analytics texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Learning analytics tizimlari talabalar faoliyati, o‘zlashtirish darajasi va o‘quv natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini

samarali tashkil etish hamda individual yondashuvni qo‘llash imkonini yaratadi [2].

Sun’iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim jihati individual ta’limni tashkil etish imkoniyatidir. Sun’iy intellekt asosida talabalar bilim darajasi aniqlanadi, o‘quv materiallari moslashtiriladi hamda individual ta’lim yo‘nalishlari shakllantiriladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar o‘zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi [3].

Sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarishda avtomatik baholash tizimlari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimlar talabalar bilimini tezkor baholash, o‘quv natijalarini tahlil qilish hamda ta’lim samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosida baholash tizimlari o‘qituvchilar ishini yengillashtirish bilan birga ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [4].

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasasida 80 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarish modeli joriy etildi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Sun’iy intellekt asosida ta’lim samaradorligi

Ko‘rsatkich	An’anaviy ta’lim (%)	Sun’iy intellekt asosida (%)
O‘zlashtirish darajasi	69	85
Mustaqil ta’lim ko‘nikmasi	62	83
Talabalar faolligi	65	87
Ta’lim monitoringi samaradorligi	58	86

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Ayniqsa talabalar mustaqil ta’lim ko‘nikmalari hamda faolligi sezilarli darajada oshgan.

Tadqiqot natijalari asosida ta’lim samaradorligining o‘sish dinamikasi quyidagicha aniqlandi:

- O‘zlashtirish darajasi — 16% ga oshdi
- Mustaqil ta’lim ko‘nikmalari — 21% ga oshdi
- Talabalar faolligi — 22% ga oshdi
- Monitoring samaradorligi — 28% ga oshdi

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarish ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, talabalar bilimini monitoring qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini prognozlash va boshqarishda ham muhim ahamiyatga ega [5].

Tadqiqot natijalari asosida sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarishning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- Ta’lim samaradorligini oshiradi
- Talabalar bilimini obyektiv baholaydi
- Individual ta’limni tashkil etadi
- Ta’lim jarayonini monitoring qiladi
- Ta’lim natijalarini prognozlaydi

1-jadval

Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim va an’anaviy ta’lim taqqoslanishi

Ko‘rsatkich	Sun’iy intellekt asosidagi onlayn ta’lim	An’anaviy onlayn ta’lim
Moslashtirish (Personalization)	O‘quv materiallari va o‘qitish tezligi har bir talabaning individual o‘rganish uslubi va natijalariga moslashtiriladi	Barchaga bir xil yondashuv qo‘llaniladi, kurs tuzilmasi qat’iy bo‘lib, individual ehtiyojlarga moslashmaydi
O‘rganish tezligi (Speed of Learning)	Talabaning materialni qanchalik tez o‘zlashtirishiga qarab o‘qitish tezligi moslashtiriladi	O‘qitish tezligi kurs tuzilmasiga bog‘liq bo‘lib, talabaning imkoniyatlariga mos kelmasligi mumkin
Faollik (Engagement)	Gamifikatsiya va shaxsiylashtirilgan kontent orqali yuqori darajadagi faollik ta’minlanadi	O‘qituvchi yoki materialning qiziqarli bo‘lishiga bog‘liq
Teskari aloqa (Feedback)	Darhol va xolis baholash orqali kamchiliklar aniqlanadi	Tezkor yoki individual teskari aloqa har doim ham mavjud bo‘lmaydi
Ma’lumotlardan foydalanish (Data Utilization)	Ma’lumotlarni tahlil qilib natijalarni prognoz qiladi va o‘qitishni takomillashtiradi	Talabalar ma’lumotlaridan to‘liq foydalanish imkoniyati cheklangan
Xavfsizlik (Security)	Xavfsizlik tahdidlarini aniqlovchi ilg‘or algoritmlar qo‘llaniladi	Ma’lumotlarni himoya qilish uchun standart choralar qo‘llaniladi

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishning samarali vositasi hisoblanadi [6].

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi. Sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini tashkil etish talabalar bilim darajasini oshirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida talabalar o‘zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari hamda ta’lim jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, ta’lim jarayonini monitoring qilish va tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qildi.

Sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarish quyidagi imkoniyatlarni yaratdi:

- talabalar bilimini avtomatik baholash;
- ta’lim jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish;
- individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish;
- ta’lim natijalarini prognozlash;
- ta’lim samaradorligini oshirish.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish hamda ta’lim

jarayonini boshqarishni takomillashtirish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosida ta’lim sifatini boshqarish oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kelgusida oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, ta’lim sifatini oshirish hamda zamonaviy raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
2. Siemens G., Long P. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. EDUCAUSE Review, 2011, 46(5), 30–40.
3. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press, 2018.
4. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities for Sustainable Development. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
5. OECD. Artificial Intelligence in Education: A Review of the State of the Art. Paris: OECD Publishing, 2021.
6. Baker R., Inventado P. Educational Data Mining and Learning Analytics. In: Learning Analytics. Springer, New York, 2014.

Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar”
kafedrasi dotsenti, PhD, +998946210977

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING DIVIDEND SIYOSATIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalarning, xususan fintech va robo-maslahatchilar tizimining dividend siyosatiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda moliyaviy texnologiyalar yordamida dividendlarni hisoblash, rejalashtirish va to‘lash jarayonlarining avtomatlashtirilishi, shaffoflikning oshishi hamda risklarni kamaytirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt va algoritmik boshqaruv asosida dividend siyosatini optimallashtirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Natijada, moliyaviy texnologiyalar kompaniyalar samaradorligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va kapital bozorini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, moliyaviy texnologiyalar (fintech), dividend siyosati, robo-maslahatchilar, sun’iy intellekt, investitsiya, moliyaviy boshqaruv, kapital bozori.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalarning dividend siyosatidagi ahamiyati tobora ortib borib, bu jarayon kompaniyalarning moliyaviy

boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Fintech yechimlari orqali kompaniyalar real vaqt rejimida moliyaviy natijalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu dividend to‘lovlari bo‘yicha yanada asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Raqamli platformalar dividendlarni hisoblash, rejalashtirish va aksiyadorlarga yetkazish jarayonlarini avtomatlashtirib, operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyalari dividend to‘lovlarining shaffofligini ta’minlab, firibgarlik va ma’lumotlar buzilishi xavfini minimallashtiradi. Sun’iy intellekt asosidagi tahliliy vositalar kompaniyalarga optimal dividend siyosatini shakllantirishda prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli iqtisodiyotda aksiyadorlar bilan kommunikatsiya ham takomillashib, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali dividendlar haqida tezkor va aniq ma’lumot berish yo‘lga qo‘yiladi. Moliyaviy texnologiyalar yordamida dividend to‘lovlarining tezligi oshib, xalqaro investorlar uchun ham qulay sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi kompaniyalar o‘rtasida raqobatni kuchaytirib, dividend siyosatini yanada samarali yuritishga undaydi. Moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali kompaniyalar kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirib, aksiyadorlar qiymatini maksimal darajada ko‘paytirishga erishadi. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalarning dividend siyosatidagi ahamiyatini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.


Moliyaviy innovatsiyalar boshqa ixtirolardan farqli ravishda moliya sektorining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiyotda jamg‘arma va investitsiya jarayonlarining vositachilik mexanizmini tubdan o‘zgartirish orqali iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir qiladi. Fintech esa raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida shakllanib, insonlarning kundalik hayot tarzini o‘zgartirgan innovatsiyalarni yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, rivojlangan mamlakatlarda unumdorlik o‘sishi uzoq yillar davomida sekinlashib borayotganligi bilan bir vaqtda rivojlanmoqda. Shu bilan birga, aynan moliya bozorlari ochiq va raqobatbardosh bo‘lgan mamlakatlarda Fintech texnologiyalari jadal rivojlanib, yangi xizmatlar va mahsulotlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

Bunday innovatsiyalar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, aholining ilgari bank tizimidan chetda qolgan qatlamlarini ham moliyaviy tizimga jalb etmoqda. Fintech rivojlanishining yorqin misollaridan biri sifatida Keniyada, Tanzaniyada va boshqa hududlarda faoliyat yuritayotgan M-Pesa elektron to‘lov tizimini keltirish mumkin.

Ushbu tizim qisqa vaqt ichida eng muvaffaqiyatli moliyaviy texnologiya loyihalaridan biriga aylanib, keng ommaga qulay va tezkor to‘lov imkoniyatlarini taqdim etdi. M-Pesa mobil telefonlarni to‘lov hisobvaraqlariga aylantirish orqali bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan aholiga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini yaratdi. Natijada ushbu tizim moliyaviy inklyuziyani oshirib, iqtisodiyotda pul aylanishi va to‘lov tizimlari samaradorligini sezilarli darajada yaxshiladi. Shu bilan birga Fintech texnologiyalari an’anaviy moliya institutlariga raqobat bosimini kuchaytirib, ularni yanada samarali va innovatsion faoliyat yuritishga majbur qilmoqda.

Robo-maslahatchilar moliya texnologiyalarning yirik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu onlayn investitsiya xizmatlari foydalanuvchilarga bir qator savollar beradi va keyin ular uchun investitsiya rejasini tuzishda algoritmlarga tayanadi. Ko‘pchilikda investitsiya aktivlariga yoki hisob ochish uchun zarur bo‘lgan miqdorga talablar yo‘q. Ko‘pincha ular investorlar to‘laydigan komissiyani kamaytirish uchun indeks fondlari yoki birja savdo fondlari kabi arzon investitsiyalarni tanlaydilar. Shuningdek, ular aktivlarni avtomatik ravishda muvozanatlashtiradi va tarqatadi, mijozlarni tashvishlardan qutqaradi.

Robo-maslahatchilar sohasida juda ko‘p kompaniyalar mavjud bo‘lib, foydalanuvchi o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib eng mos keladigan robo-maslahatchini tanlashi bir muncha qiyinchilik tug‘diradi. Quyida robo-maslahatchini tanlashda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar keltirib o‘tilgan (1-rasm).



1-rasm. Robo-maslahatchilarni tanlashda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlar [1, 2-b.]

Robot-maslahatchilar bozoridagi ba’zi yirik nomlar boy va yaxshilanishni o‘z ichiga oladi, garchi hisob ochish va siz uchun hamma narsani qilish orqali uni soddalashtirish uchun oz miqdorda pul talab qiladigan ko‘plab boshqalar mavjud. Bu texnologiya uchun tabiiy maydon, chunki xavf-xatarga chidamlilik va vaqt ufqiga asoslangan asosiy moliyaviy rejani yaratish uchun juda ko‘p harakat talab etilmaydi.

Robo-maslahatchilar nazariy jihatdan moliyaviy xizmatlarning demokratlashuviga hissa qo‘shadi. Ular katta mablag‘larga ega bo‘lmagan mijozlarga ham professional darajadagi maslahat xizmatlarini taqdim etadi. Bu esa moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qiladi. Ularning nazariy modeli xizmatlarning arzonligi va ommabopligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, robo-maslahatchilar nazariy jihatdan xizmatlar sifatining bir xilligini kafolatlaydi. Ularning algoritmlari insoniy hissiyotlardan xoli bo‘lgani sababli obyektiv qarorlar chiqaradi. Bu esa moliyaviy tizimda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Robo-maslahatchilar nazariyasida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ham alohida o‘rin tutadi. Chunki ular mijozlarning moliyaviy ma’lumotlari bilan ishlaydi va bu jarayonda xavfsizlik mexanizmlari zarur bo‘ladi.

Nazariy jihatdan ular kiberxavfsizlik tamoyillariga asoslanishi kerak. Shuningdek, robo-maslahatchilar nazariyasi moliya bozorining kelajakdagi

rivojlanish ssenariyolarini ham qamrab oladi. Ularning keng qo‘llanilishi moliyaviy maslahat sohasini tubdan o‘zgartirishi mumkin.

Nazariy nuqtayi nazardan, robo-maslahatchilar moliyaviy xizmatlarning sifatini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, ular inson resurslarini strategik va ijodiy vazifalarga yo‘naltirish imkonini beradi. Ularning nazariy jihatlari ko‘p qirrali bo‘lib, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Robo-maslahatchilar nazariyasi investitsiya boshqaruvining yangi paradigmalarini shakllantiradi. Natijada, ular moliyaviy texnologiyalar kelajagini belgilovchi eng muhim innovatsion yechimlardan biriga aylanadi. Shunday qilib, robo-maslahatchilar nazariy jihatlarining chuqur o‘rganilishi moliya tizimi rivojlanishining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Robo-maslahatchilar global moliyaviy inqirozdan keyin moliyaviy texnologiyalar bo‘yicha startap (fintech start-up) sifatida ish boshlagan bo‘lsalar-da, so‘nggi yillarda ular juda ommalashmoqda, ayniqsa, an’anaviy moliya institutlari o‘zlarining robo-maslahat xizmatlarini taklif qila boshladilar. Masalan, AQShning eng yirik brokerlik kompaniyalaridan biri Charlz Shvab (Charles Schwab) 2015-yilda “Intelligent Portfolios” nomli robo-maslahat xizmatini ishga tushirdi.

Shuningdek, 2015-yilda dunyodagi eng yirik aktivlar boshqaruvchi kompaniya Black Rock Future Advisor robo-maslahat kompaniyasini o‘ziga qo‘shib oldi. Shuningdek, robo-maslahat xizmatlari o‘zlarining avtomatlashtirilgan maslahat xizmatlarini taklif qila boshlagan Bank of America va Wells Fargo singari bank gigantlarining ham e’tiborini tortganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin [2, 3-b.].

1-jadval

Robo-maslahatchilarning dividendlarga ta’siri [3, 5-b]

№	Ta’sir yo‘nalishi	Mexanizm tavsifi	Dividend siyosatiga ta’siri
1	Portfelni avtomatik boshqarish	Algoritmlar asosida aktivlar taqsimoti	Barqaror dividend oqimini shakllantiradi
2	Dividend beruvchi aksiyalarni tanlash	Ma’lumotlar tahliliga asoslangan seleksiya	Yuqori dividendli aksiyalarga talabni oshiradi
3	Reinvestitsiya (DRIP) mexanizmi	Dividendlarni avtomatik qayta investitsiya qilish	Kompaniyalarda kapitalni ichki saqlashni rag‘batlantiradi
4	Risklarni boshqarish	Diversifikatsiya va algoritmik monitoring	Dividend barqarorligini ta’minlaydi
5	Xarajatlarni kamaytirish	Past komissiyalar va avtomatlashtirish	Dividend daromadining sof qiymatini oshiradi
6	Shaffoflikni oshirish	Real vaqt rejimidagi hisobotlar	Dividend siyosatining ochiqligini oshiradi
7	Kichik investorlarni jalb qilish	Minimal kapital bilan investitsiya imkoniyati	Dividend to‘lovchi kompaniyalarga talab oshadi
8	Bozor signallarini shakllantirish	Algoritmik savdo va trend tahlili	Dividend siyosatiga bosim kuchayadi
9	Global investitsiya imkoniyati	Xalqaro portfellarga kirish	Xalqaro dividend standartlariga moslashuv

10	Sun’iy intellekt prognozlari	Kelajak dividend oqimlarini bashoratlash	Dividend siyosatini optimallashtirishga yordam beradi

Robo-maslahatchilar algoritmlar orqali investitsiya portfellarini boshqarib, dividend daromadlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Robo-maslahatchilar investorlarning risk darajasi va daromadlilik kutilmalarini hisobga olgan holda dividend to‘lovchi aksiyalarni tanlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ular dividendlarni qayta investitsiya qilish jarayonini avtomatlashtirib, murakkab moliyaviy qarorlarni soddalashtiradi. Raqamli platformalar yordamida investorlar dividend tushumlarini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu shaffoflikni oshiradi.

Robo-maslahatchilar portfelni diversifikatsiya qilish orqali dividend risklarini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular xarajatlarni minimallashtirib, an’anaviy moliyaviy maslahat xizmatlariga nisbatan arzonroq yechim taklif etadi. Shu jarayonda robo-maslahatchilar kapital bozorida kichik investorlar faolligini oshirib, dividend siyosatiga bo‘lgan talabni kuchaytiradi (1-jadval).

Xulosa qiladigan bo‘lsak, robo-maslahatchilarning dividendlarga ta’siri moliyaviy texnologiyalar asosida investitsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirib, dividend siyosatini yanada shaffof, moslashuvchan va samarali mexanizmga aylantirayotganini ko‘rsatadi. Ular orqali investitsiya portfellari avtomatlashtirilgan tarzda boshqarilib, dividend daromadlari optimallashtiriladi hamda risk va daromad o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanadi.

Shu bilan birga, robo-maslahatchilar kichik investorlarni kapital bozoriga jalb etib, dividend to‘lovchi kompaniyalarga bo‘lgan talabni oshiradi va bu kompaniyalarni barqaror dividend siyosatini yuritishga undaydi. Dividendlarni qayta investitsiya qilish mexanizmlarining keng joriy etilishi esa uzoq muddatli kapital o‘sishini ta’minlab, investorlar uchun qo‘shimcha qiymat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https: //investadisor. com/what-is-robo-advisor-investing/

2. Facundo Abraham, Sergio L. Schmukler, Jose Tessada. Robo-Advisors: Investing through Machines. // Research & Policy Briefs, World Bank Group. No. 21, February 2019;

3. https: //smartdev. com/the-impact-of-robo-advisors-on-investment-management-in-2023/

Ташпулатов Айбек,
Ферганский государственный технический университет,
доцент кафедры «Финансы и бухгалтерский учет», д. э. н.
e-mail: aybek. tashpulatov@fstu. uz

ДИНАМИКА СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ И ЗАНЯТОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается вопросы анализа динамики населения и занятости отдельно взятого сегмента рынка труда в контексте повсеместного и бурного развития цифровых технологий. Особое внимание уделено проблемам занятости населения в условиях роста инноваций, интенсивного земледелия и ресурсосберегающих технологий в сельском хозяйстве. Определены необходимость и ключевые направления повышения квалификации и качества рабочей силы, а также пути обеспечения эффективной занятости рабочей силы с использованием возможностей искусственного интеллекта.

Ключевые слова: цифровизация экономики, сельский рынок труда динамика населения, квалификация рабочей силы, новые сферы занятости.

Введение. В 2024 году общий объем сельскохозяйственной продукции в Узбекистане достиг 444, 6 трлн сумов, увеличившись на 18, 5% за пять лет. Среднегодовой темп роста валового производства за этот период составил 103, 5%. Согласно данным Всемирного банка, добавленная стоимость на одного занятого в сельском хозяйстве в Узбекистане в 4, 4 раза превышает средний мировой показатель, что свидетельствует о повышении эффективности и продуктивности аграрного сектора[51].

Ферганская область — один из важнейших аграрных центров страны с высоким потенциалом в растениеводстве, садоводстве и животноводстве. Государственные программы развития плодоовощеводства, животноводства и птицеводства способствуют диверсификации отрасли и созданию тысяч новых рабочих мест, особенно через развитие фермерских и дехканских хозяйств. Развитие перерабатывающих предприятий в рамках аграрных проектов позволяет повысить добавленную стоимость продукции и создать дополнительные рабочие места в сельских районах [1].

Научно-обоснованное изучение и анализ динамики народонаселения и и рынка труда способствует выявлению ключевых трендов и рисков изменения структуры занятости сельских жителей в условиях цифровой трансформации. Актуальность темы обусловлена разрывом в уровне технологического развития между городом и селом. Цифровизация экономики меняет традиционный уклад: ручной труд замещается автоматизированными системами, а доступ к высокоскоростному интернету открывает возможности для фриланса и дистанционной работы [4].

[51] https://gov.uz/ru/agro/news/view/42043

Анализ этой взаимосвязи необходим для того, чтобы понять, справляется ли экономика региона с демографическим давлением. Без такого сопоставления невозможно оценить реальное благополучие территорий.

Дисбаланс между ростом населения и занятостью — главный драйвер оттока молодежи из сел в города или за границу. Данные анализа помогают понять, где нужно строить и развивать производственную и социальную инфраструктуру, производственные кластеры или малые промышленные зоны. Аналитические материалы изучения народонаселения и занятости позволяет скорректировать профессиональное обучение под нужды конкретных районов, чтобы новые кадры находили работу на местахт [2].

Основная часть. Развитие аграрного производства в Ферганской области является одним из приоритетных направлений социально-экономической политики Узбекистана. В 2026 году запланированы масштабные инвестиционные проекты, направленные на модернизацию сельского хозяйства, увеличение экспорта и повышение доходов населения. Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиеёв отдельно отметил, что для дальнейшего развития региона сформирован портфель проектов общей стоимостью 8, 2 млрд долларов. Уже в текущем году планируется запуск инициатив на 4, 2 млрд долларов, из которых 2, 7 млрд будут направлены в промышленность, 210 млн — в сельское хозяйство и 1, 2 млрд — в сферу услуг и туризм[52].

В последние годы в Ферганской области наблюдается положительная динамика в переходе от аграрной занятости к индустриально-сервисной модели. В 2025 году в области была обеспечена занятость около 519 тысяч человек благодаря развитию малых промышленных зон и поддержке семейного предпринимательства.

На основе анализа динамики населения за период 2023-2024 гг. (данные Ферганского областного управления Государственного комитета статистики) по Ферганской области наблюдается стабильный рост населения во всех 15 сельских районах (таблица 1).

Таблица 1

Динамика населения сельских районов в Ферганской области на период 2023-2024 гг[53].

№	Районы	2023 г.	2024 г.	Изменение (+;-)
1.	Алтиарыкский	223, 7	228, 4	4, 7
2.	Куштепинский	203, 5	208	4, 5
3.	Багдадский	227, 9	233	5, 1
4.	Бувайдинский	241, 5	247, 2	5, 7
5.	Бешарыкский	238, 4	242, 8	4, 4

[52] https://caravan-info.uz/ru/ekonomika/213209-ferganskaya-oblast-privlechet-82-mlrd-investitsiy-i-zapustit-desyatki-novyh-proektov.html

[53] https://farstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2.html

6.	Кувинский	270, 7	275, 8	5, 1
7.	Учкуприкский	236, 1	241, 4	5, 3
8.	Риштанский	212, 3	216, 9	4, 6
9.	Сохский	82, 1	83, 9	1, 8
10.	Ташлакский	214, 3	217, 6	3, 3
11.	Узбекистанский	230, 7	236, 4	5, 7
12.	Ферганский	217, 1	221, 5	4, 4
13.	Дангарский	172, 7	177, 1	4, 4
14.	Фуркатский	124, 4	127, 1	2, 7
15.	Язъяванский	117, 2	119, 8	2, 6
	Всего по сельским районам	3012, 6	3076, 9	64, 3

Анализ общего прироста населения в сельских районах по области показывает, что в период 2023-2024 гг. численность населения увеличилась на 64, 3 тыс. человек – с 3012, 6 тыс. до 3076, 9 тыс. человек. Наибольший прирост наблюдается в Бувайдинском и Узбекистанском районах области – по каждому району составляет 5, 7 тыс. человек. Самый наименьший показатель приходится Сохскому району (+1, 8 тыс. человек).

Самый густонаселенный район по области Кувинский - 275, 8 тыс. человек на 2024 г., где плотность населения составляет 638 человека на кв. км. Ситуация с занятостью по Ферганской области более неоднородна и характеризуется как ростом, так и спадом в отдельных районах (табл. 2).

Число занятых в целом по сельским районам по области выросло на 6, 4 тыс. человек (табл. 2). Наибольший рост числа занятых зафиксирован в Алтиарыкском (+3, 3) и Сохском (+2, 7) районах. В 5 из 15 районов количество занятых сократилось. Наиболее заметное снижение произошло в Бувайдинском (-2, 0), Бешарыкском (-1, 2) и Ферганском (-1, 0) районах.

Наблюдается диспропорция между ростом населения и темпами занятости. В то время как население выросло на 64, 3 тыс., число занятых увеличилось лишь на 6, 4 тыс., что составляет менее 10% от общего прироста населения.

Таблица 2

Динамика занятых в сельских районах Ферганской области на период 2023-2024 гг.

№	**Районы**	**2023 г.**	**2024 г.**	**Изменение (+;-)**
1.	Алтиарыкский	90	93, 3	3, 3
2.	Куштепинский	81, 2	80, 3	-0, 9
3.	Багдадский	88, 5	88, 9	0, 4
4.	Бувайдинский	91, 2	89, 2	-2, 0
5.	Бешарыкский	91, 4	90, 2	-1, 2
6.	Кувинский	105, 7	104, 8	-0, 9
7.	Учкуприкский	91, 2	92, 2	1, 0
8.	Риштанский	82, 3	83, 2	0, 9
9.	Сохский	29, 9	32, 6	2, 7

10.	Ташлакский	85, 3	84, 8	-0, 5
11.	Узбекистанский	89, 4	90, 4	1, 0
12.	Ферганский	85, 6	84, 6	-1, 0
13.	Дангарский	63, 4	63, 9	0, 5
14.	Фуркатский	47	48, 8	1, 8
15.	Язъяванский	47, 3	48, 6	1, 3
	Всего по сельским районам	1169, 4	1175, 8	6, 4

Анализ данных за 2023–2024 гг. показывает неоднозначную связь между ростом населения и уровнем занятости в сельских районах Ферганской области. В то время как общая численность сельского населения выросла на 64, 3 тыс. человек, число занятых увеличилось лишь на 6, 4 тыс. человек. Это говорит о том, что темпы создания рабочих мест значительно отстают от демографического роста. К районам с положительной динамикой можно отнести Алтиарыкский район, где рост населения за изучаемый период составляет 4, 7 тыс. человек и увеличение количества занятых равен 3, 3 тыс. человек. Такое же динамическое увеличение населения и занятости наблюдается в Сохском районе (+1, 8 тыс. населения / +2, 7 тыс. занятых).

Есть отрицательная тенденция в динамических данных, которая выражается в снижении занятости при росте народонаселения сельского района: в Бувайдинском районе несмотря на значительное увеличение населения (+5, 7 тыс.), занятость рабочей силы снизился на 2, 0 тыс. человек. Куштепинский, Кувинский, Ташлакский и Ферганский районы Ферганской области также демонстрируют отрицательную динамику занятости на фоне растущего населения.

Заключение. Анализ выявил существенный разрыв в темпах роста: при значительном увеличении численности населения в сельской местности, темпы создания новых рабочих мест в ряде районов (Бувайдинский, Бешарыкский) не успевают за демографическим ростом. Результаты анализа подчеркивают неоднородность развития, например, точки роста наблюдается в двух районах: Алтиарыкский и Сохский районы демонстрируют гармоничное сочетание роста населения и расширения занятости. В то же время ряд районов (Бувайдинский, Бешарыкский, Куштепинский, Ташлакский, Кувинский и Ферганские районы) с отрицательной динамикой занятости на фоне растущего населения требуют пересмотра инвестиционной политики и усиления мер по поддержке малого бизнеса, а также подготовки квалифицированных кадров в новых и высокотехнологических сферах занятости.

Анализ динамики населения на отдельно взятом секторе рынка труда и роста показателей занятости рабочей силы способствует ускоренному созданию высокотехнологичных рабочих мест на сельских местностях, способных конкурировать по уровню доходов с предложениями на других секторах рынках труда.

Список использованной литературы

1. Абдурахманов К. Х. Экономика труда. Теория и практика: Учебник: К. Х. Абдурахманов. -М. : ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. Плеханова», 2019. -662 с.
2. Ташпулатов, А. (2020) Некоторые аспекты моделирования сельского рынка труда// Материалы международной научно-практической конференции «Инноватика в современном мире: опыт, проблемы и перспективы развития», г. Уфа, стр. 65-74.
3. Ферганская область привлечет $8, 2 млрд инвестиций и запустит десятки новых проектов. Электронный ресурс: https: //caravan-info. uz/ru/ekonomika/213209-ferganskaya-oblast-privlechet-82-mlrd-investitsiy-i-zapustit-desyatki-novyh-proektov. html
4. Kholmuminov, S. R. (2022), Basis for developing digital integrated models for the development of the rural Labor Market in Labor-Sufficient regions. Journal of Financial Technology and Innovation, 1(1), 27-35.
5. Электронный ресурс: https: //farstat. uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2. html
6. Электронный ресурс: https: //farstat. uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2. htm

Tashpulatov Aybek,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, i. f. d. (DSC)
e-mail: aybek. tashpulatov@fstu. uz
A’zamjonov Zhavokhir Zhakhongir o‘gli,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
70-22 MMT guruhi talabasi

MEHNAT BOZORINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SOTSIOLOGIK TADQIQ ETISH

Annotatsiya. Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning jadal joriy etilishi sharoitida ishchi kuchi salohiyatidan foydalanish holati va dinamikasini tadqiq etishning an’anaviy uslublari hamda vositalarini qo‘llashda yangicha shakllarni joriy etishni talab qiladi. Mazkur maqolada alohida olingan hudud miqyosida aholini ish bilan bandligi, ishsizlik, uy xo‘jaliklarining daromadlari va uning manbalarini sotsiologik so‘rovnomalar yordamida ilmiy o‘rganishning zaruriyati va ahamiyati ochib berilgani holda joylarda sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari va amaliy jihatlariga oid tahliliy ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyotga transformatsiya, mehnat bozori, ishchi kuchiga talab va taklif, sotsiologik so‘rovnoma, ish bilan bandlik, ishsizlik holati, uy xo‘jaliklari daromadligi.

Kirish. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va innovatsiyalarning joriy etilishi sharoitida hududdagi aholining mehnat bilan doimiy bandligini ta’minlash milliy mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo‘lgan talabni hamda uning yollanma xodimlar tomonidan taklifini muvofiqlashtirish asosida ortiqcha mehnat resurslarining

bandligini ta’minlashning zamonaviy va ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish bilan chambarchas bog‘liq.

Mehnat bozori — jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga ta’sir qiluvchi eng muhim sohalardan biri. Bu sohadagi jarayonlarni chuqur tushunish uchun faqat statistik ma’lumotlar yetarli bo‘lmaydi. Chunki mehnat bozori — inson omili, ijtimoiy xulq, motivatsiya, qiyinchiliklar, intilishlar va intizom bilan bog‘liq ijtimoiy tizimdir. Shuning uchun sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “Mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta’minlash orqali ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish. . Yoshlarning ishsizlik darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Mamlakatimizda aholini ish bilan bandligi, kambag‘allik darajasi va ishsizlik kabi statistik ko‘rsatkichlarni aniqlash sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish yuzasidan yetarli tajriba to‘plangan.


Mehnat bozorini ilmiy tadqiq etish sohasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan akademik Abdurahmonov Q. mazkur bozorning ayrim segmentlariga oid ishonchli ma’lumotlarni sotsiologik tadqiqotlar yordamida shakllantirishga oid qarashlarini ifoda etgan [2]. Milliy mehnat bozoridagi statistik ma’lumotlarning to‘liq va yetarli bo‘lmagan sharoitida zarur bo‘lgan ishonchli axborotlarni sotsiologik tadqiqotlar asosida olish imkoniyati va uning xususiyatlari bir qator boshqa mahalliy olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [3, 5, 6].

Iqtisodchi olim, professor Xolmo‘minov SH. ta’kidlashicha, sotsiologik axborotlardan shunday vaziyatlarda foydalaniladiki, qachonki ishonchli statistik va marketing axborotlari mavjud bo‘lmasa yoki ekspert baholash imkoniyatlaridan foydalanish cheklangan bo‘lsa [6].

Mehnat bozori va uning ayrim segmentlarini «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida ilmiy tadqiq etish maqsadida 2025-yil may oyida alohida tuman miqyosida mehnat bozori va kambag‘allik holati yuzasidan ishonchli axborotlar bazasini shakllantirish, ularni qayta ishlash va tegishli boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun xulosa va takliflar tayyorlashga mo‘ljallangan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazildi. Buning uchun uy xo‘jaliklari kesimida ish bilan bandlik, ishsizlik, kambag‘allik, daromadlik va boshqa zaruriy savollar bazasi elektron tarzda shakllantirildi.

Asosiy qism. Alohida hudud miqyosidagi tadqiqotlar Farg‘ona viloyatining Yozevon tumanidagi elektron so‘rovnoma shaklida tashkil etildi va o‘tkazildi. So‘rovnoma o‘tkazishdan oldin olingan statistik ma’lumotlarga ko‘ra Yozyovon tumanida 2025-yil 1-may holatiga 31339 ta oila mavjud bo‘lib, uy xo‘jaliklari soni esa 20967 tani tashkil etishi hisobga olindi.

Farg‘ona viloyati Yozevon tumandagi 4 ta mahalla (Yuqori soy bo‘yi MFY, Do‘stlik MFY, Markaziy Farg‘ona MFY, Xonobod MFY) kesimida jami 859 ta uy xo‘jaliklari o‘rganilib, ular tumandagi jami uy xo‘jaliklari tarkibida salmog‘i 4 foizdan yuqorini tashkil etdi. Bu esa tanlama kuzatishning ishonchliligini va so‘rovnoma natijalarining haqqoniyligini ta’minlaydi. Mehnat bozori, bandlik va daromadlikka oid ayrim savollar bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:




1-rasm. Uy xo‘jaliklarida ish bilan bandlar ulushi, foizda

Uy xo‘jaliklarini o‘rganish davomida shu xo‘jaliklardagi oilada ishlayotgan a’zolar soni bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi: oilada ishlayotgan a’zolari soni 1 ta bo‘lgan xo‘jaliklar - 54, 9%; ishlayotgan a’zolari soni 2 ta bo‘lgan xo‘jaliklar -34, 4%; oilada ishlayotgan a’zolari soni 3 ta bo‘lgan xo‘jaliklar - 6, 8% (56 ta) va oilada ishlayotgan a’zolari soni 4 ta bo‘lgan xo‘jaliklar 3, 9% ni tashkil etishi aniqlandi (1-rasm).


Uy xo‘jaliklarini o‘rganish davomida shu xo‘jaliklardagi oilada ishga yaroqli, lekin ishlamayotgan a’zolar soni bo‘yicha quyidagilarga ega bo‘lindi (2-rasm).

O‘rganishlar natijasida: oilada ishga yaroqli, lekin ishlamayotgan a’zolari soni 1 ta xo‘jaliklar 62, 3% (432 ta); oilada ishga yaroqli, lekin ishlamayotgan a’zolari soni 2 ta bo‘lgan xo‘jaliklar 25, 7% (178 ta); ishga yaroqli, lekin ishlamayotgan a’zolari soni 3 ta xo‘jaliklar 8, 4%; ishga yaroqli, lekin ishlamayotgan a’zolari soni 4 ta bo‘lgan xo‘jaliklar 3, 6% (25 ta)ni tashkil etishi aniqlandi.



2-rasm. Uy xo‘jaliklarida ish bilan band bo‘lmaganlar ulushi, foizda


Uy xo‘jaliklarini o‘rganish davomida shu xo‘jaliklardagi oiladagi oylik daromad summasi bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi. 1 mln. so‘mdan kam 11, 9% (98 ta)ni, 1-3 mln. so‘m 40, 9% (338 ta)ni, 3-5 mln. so‘m 30, 5% (252 ta)ni, 5 mln. so‘mdan ko‘p 16, 8% (139 ta)ni tashkil qiladi (3-rasm).



3-rasm. Oylik daromadi bo‘yicha uy xo‘jaliklarining guruhlanishi

Uy xo‘jaliklarini o‘rganish davomida shu xo‘jaliklardagi oilangiz asosiy daromad manbalari qaysilar savoliga javob berish bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘ldik, ya’ni xo‘jalik yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvi 44, 8% (366 ta)ni, maosh 34, 6% (283 ta)ni, yakka tartibdagi tadbirkorlik 12, 5% (102 ta)ni, davlat tomonidan berilgan nafaqa 8, 1 % (66 ta)ni tashkil qildi (4-rasm).

Daromadlar oilaning asaosiy extiyojlarini qoplaydimi so‘rovidan olingan natijalar: ha 50, 3% (426 ta)ni, yo‘q 49, 7% (421 ta)ni tashkil qiladi.



4-rasm. Uy xo‘jaliklarini asosiy daromad manbalari

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tuman aholisining turmush darajasi va kambag‘allik holati bo‘yicha quyidagi xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Uy xo‘jaliklarini o‘rganish davomida shu xo‘jaliklardagi oilalarda ishlayotgan a’zolar soni 820 nafarni tashkil etdi. Bu esa har bir oilada o‘rtacha 1 (bir) nafargacha band bo‘lgan ishchi kuchi mavjudligi haqida ma’lumot beradi.

- Tumandagi 859 ta uy xo‘jaliklarida ishga yaroqli, lekin ishlamayotgan 693 nafar ish bilan band bo‘lmagan fuqarolar mavjud. Bu holat ish joylarini mos ravishda ko‘paytirish, qishloq joylariga investitsiyalarni jalb qilish va turli loyihalarni joriy etish zaruriyatini yuzaga keltiradi;

- Uy xo‘jaliklarni daromadlari tarkibida asosiy ulush (40 foiz) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotish hissasiga to‘g‘ri keladi. Keyingi o‘rinlarda korxona va tashkilotlarda olingan ish haqi 34, 6% (283 ta)ni, yakka tartibdagi tadbirkorlik 12, 5 (102 ta) hissasiga tog‘ri keladi. So‘nggi yillarda qishloq joylarida tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi daromadni ortib borayotganligi tufayli ham aynan qishloq aholisini, uning tarkibida esa yoshlarni innovatsion kasblarga, o‘zini-o‘zi band qilish, masofaviy bandlik, frilansing, IT sohasidagi bandlik kabi yo‘nalishlarida faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoit barpo etish zarur bo‘ladi;

- 859 ta uy xo‘jaliklarini o‘rganish davomida daromadi 1 mln. so‘mdan kam 11, 9% (98 ta)ni, 1-3 mln. so‘m 40, 9% (338 ta)ni, 3-5 mln. so‘m 30, 5% (252 ta)ni, 5 mln. so‘mdan ko‘p 16, 8% (139 ta)ni tashkil qiladi. Fikrimizcha, inflyatsion kutishlarning hozirgi sharoitida korxona va tashkilotlarning maoshini muntazam ravishda yuqori sur’atlarda oshirib borilishi pirovard natijada biznes subyektlarida ham ish haqini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqotlar natijasida to‘plangan ma’lumotlar, tayyorlangan xulosalar va ishlab chiqilgan takliflar tuman hokimligi, kambag‘allikni_qisqartirish va bandlik vazirligining Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi va uning tuman bo‘limiga taqdim etildi.

Sotsiologik so‘rovlar faqat mavjud holatni emas, balki kelajak tendentsiyalarini ham aniqlashga yordam beradi. Qishloq hududi bo‘yicha mehnat bozoridagi ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan axborotlar bazasi keyinchalik bandlik va ishsizlikka qarshi aniq choralarni ishlab chiqishda, tarmoq va hududlar doirasida

bandlik siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda, malaka va kasblar kesimida xodimlarni tayyorlashda, o‘rta-maxsus va oliy ta’limda mutaxassislikni tayyorlash yo‘nalishlarini belgilashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Mehnat bozoridagi statistik ma’lumotlarning to‘liq va yetarli bo‘lmagan sharoitida zarur bo‘lgan ishonchli axborotlarni sotsiologik tadqiqotlar asosida olish mumkin bo‘ladi. sotsiologik tadqiqot o‘tkazish usuli yordamida joylarda yollanma xodimlar bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiruvchi yangi axborotlar bazasi hosil qilinadi. Ular yordamida aholining ish bilan bandligini oshirish, ishsizlikni kamaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar va boshqaruv qarorlari ishlab chiqilishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni//Lex. uz

7. Abdurahmanov Q. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. – T. : FAN, 2019. 512 b.

8. Аскарова М. И. Спрос и предложение на молодежный труд в условиях цифровизации экономики // Журнал «Образование, наука и инновационные идеи в мире», № 36(4), 2024, стр. 121–127.

9. Ромашов О. Социология труда. Учебное пособие. М. : - Гардарики, 1999. 318 с.

10. Ташпулатов А. Применение социологических исследований в сфере занятости сельского населения // Журнал “Экономика и социум”, №7(74), 2020, стр. 398-404

11. Xolmo‘minov SH. R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish. Monografiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014. – 232 b.

Tashpulatov Aybek,
Farg'ona davlat texnika universiteti,
"Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti, i. f. d. (DSC)
e-mail: aybek. tashpulatov@fstu. uz

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОПТИМАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация: Цифровая трансформация экономики уровень эффективной организации и развития рынка труда в регионах страны во многом зависит от квалификации, профессиональных и квалификационных навыков рабочей силы, потенциала персонала и масштабов их эффективного использования. В статье расммотрены вопросы формирования и эффективной деятельности рынка труда с целью увеличения занятости населения в регионах с учетом современных требований к подготовке кадров в контексте развития науки и техники, профессиональных и квалификационных изменений в структуре рабочей силе, а также применения новых инновационных подходов и действенных экономических рычагов.

Ключевые слова: цифровизация экономики, спрос и предложение рабочей силы, занятость, безработица, квалификация персонала, экономические и финансовые инструменты регулирвания рынка труда.

Введение. Инновационное развитие и цифровизация экономических отношений в силу полномасштабного внедрения современных информационных технологий предполагает глубокого изучения и научного исследования проблемы эффективного использования имеющихся трудовых ресурсов. В национальной экономике при полном использовании трудовых ресурсов и кадрового потенциала необходимо будет применять современные научно-технические достижения, инновации и информационно-коммуникационные технологии, а также эффективные экономические и финансовые меры [2].

Важнейшим вопросом обеспечения макроэкономического баланса и экономического роста в стране является стимулирование валового внутреннего спроса. Среди основных факторов, стимулирующих валовой внутренний спрос на рынке труда, таких как рынок товаров и ресурсов на макроэкономическом уровне, можно скоординировать спрос на рабочую силу и ее предложение на основе заработной платы, выявить причины несоответствия и резких расхождений на рынке труда, а также разрабатывать эффективные управленческие решения [3, 4]

Экономика Узбекистана занимает достойное место в мировом экономическом сообществе, условия, созданные правительством в целях создания благоприятного инвестиционного климата в нашей стране и в направлении формирования открытой экономики, а также состояние внешней трудовой миграции влияют на рост внешнеэкономические связи. Детальный

анализ и обобщение финансовых, организационных, правовых и нормативных аспектов трудовых отношений необходим для повышения занятости населения на основе решения таких проблем, как полное использование потенциала рабочей силы, повышение производительности труда, совершенствование системы достойной оплаты труда. В частности, влияние мирового финансового кризиса и пандемии коронавируса, которые оказали серьезное влияние на цены на потребительские товары, в том числе на продукты питания, предполагает определение научно обоснованных решений насущных вопросов, связанных с занятостью, стоимостью рабочей силы, поступлениями в местные бюджеты и взаимодействием в сфере

Основная часть. Основной целью проводимых Президентом Республики Узбекистан Ш. Мирзиеевым реформ является улучшение условий жизни и занятости населения отдаленных районов: "экономические отношения, которые мы хотим построить, отличаются от экономических отношений в других странах социальной направленностью".

Использование цифровых технологий, открытых данных и международных стандартов раскрытия информации позволяет не только повысить эффективность государственного управления, но и существенно снизить коррупционные риски. Для Республики Узбекистан данное направление приобретает особую актуальность в условиях активных институциональных реформ и модернизации системы государственного управления. Реализация политики открытости бюджета, внедрение электронных систем государственных закупок и развитие цифровых платформ создают благоприятные условия для повышения прозрачности финансовых потоков и усиления подотчётности государственных органов перед обществом.

Таким образом, дальнейшее развитие механизмов финансовой прозрачности, интеграция современных цифровых технологий и совершенствование системы государственного аудита могут стать важными инструментами укрепления финансовой дисциплины, повышения эффективности государственного управления и формирования устойчивой антикоррупционной среды в Республике Узбекистан.

Список использованных источников:

1. Котельникова, А. К. (2025). Развитие инструментария цифровизации аудиторских процессов в промышленной отрасли: магистерская диссертация (Master's thesis, б. и.).

2. Кабылов, К. М. ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ И СИСТЕМЫ МОНИТОРИНГА КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ.

3. Timurovich Y. A., & Sunnatovich I. B. (2025). РОЛЬ КОЛИЧЕСТВЕННЫХ МОДЕЛЕЙ В УПРАВЛЕНИИ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ. Modern education and development, 40(3), 391-411.

Umarov Shuxrtajon Azizjonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Dasturiy injiniring va kiberxavfsizlik” kafedrasi dotsenti,
e-mail: sh. umarov81@mail. ru
Azizjonov Shohruxbek Shuxratjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 101-25 BI guruh talabasi

SUN’IY IMMUN TIZIMLARI (AIS) ASOSIDA MOLIYAVIY ANOMALIYALARNI ANIQLASH MODELI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy immun tizimlari asosida moliyaviy sohada yuzaga keladigan anomaliyalarni aniqlash muammosi ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy moliyaviy tizimlarda firibgarlik operatsiyalari va g‘ayritabiiy tranzaksiyalar sonining ortib borishi samarali va moslashuvchan aniqlash usullarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Tadqiqotda biologik immun tizimining ishlash

prinsiplari asosida shakllantirilgan AIS modeli taklif etilib, unda affinitet funksiyasi yordamida normal va anomal holatlar ajratiladi. Shuningdek, model samaradorligini oshirish maqsadida sun’iy neyron tarmoq bilan integratsiyalashgan gibrid yondashuv ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy immun tizimi, moliyaviy anomaliya, affinitet funksiyasi, threshold, neyron tarmoq, tranzaksiya tahlili, machine learning.

Kirish. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, moliyaviy operatsiyalar hajmining keskin ortishi va axborot tizimlarining murakkablashuvi moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Ayniqsa, bank-moliya tizimlarida firibgarlik (fraud), noqonuniy tranzaksiyalar va turli xil anomaliyalar sonining ortib borishi an’anaviy nazorat va monitoring usullarining samaradorligini pasaytirmoqda. Natijada, moliyaviy anomaliyalarni erta aniqlash va ularga tezkor javob qaytarish imkonini beruvchi intellektual tizimlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

An’anaviy statistik va qoidabozlikka asoslangan (rule-based) yondashuvlar ko‘pincha yangi va noma’lum tahdidlarni aniqlashda yetarli darajada samarali emas. Chunki ular oldindan belgilangan shablonlar va qoidalarga asoslanadi hamda moslashuvchanlik darajasi past hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda biologik tizimlardan ilhomlangan intellektual yondashuvlar, xususan, sun’iy immun tizimlari (Artificial Immune Systems — AIS) alohida e’tibor qaratilmoqda [1]. Sun’iy immun tizimlari inson organizmidagi immun tizimining ishlash prinsiplari — ya’ni “o‘z” va “begona”ni ajratish, xavfli obektlarni aniqlash va ularga moslashuvchan javob qaytarish mexanizmlariga asoslanadi. Ushbu yondashuv moliyaviy tizimlarda normal va anomal holatlarni farqlash, noma’lum tahdidlarni aniqlash hamda tizimning o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatini ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa, negative selection, clonal selection va immune network kabi algoritmlar anomaliyalarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan [2].

Moliyaviy anomaliyalarni aniqlashda AIS yondashuvi katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) bilan ishlash, yashirin naqshlarni aniqlash va real vaqt rejimida monitoringni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa firibgarlik operatsiyalarini erta bosqichda aniqlash, moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish va tizim xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi [3].

Shu bilan birga, AIS asosidagi modellarni moliyaviy tizimlarga joriy etish masalalari hali to‘liq o‘rganilmagan bo‘lib, ularning matematik modeli, algoritmik ta’minoti va amaliy qo‘llash mexanizmlarini chuqur ilmiy asoslash zarur. Ayniqsa, milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu yondashuvni qo‘llashning samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Moliyaviy tizimlarda anomaliyalarni aniqlash zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Tranzaksiyalar hajmining ortishi, ularning ko‘p omilli va dinamik xususiyatga ega bo‘lishi an’anaviy statistik va qoidaviy yondashuvlarning samaradorligini cheklab qo‘ymoqda. Shu sababli, sun’iy immun tizimlari (AIS) asosidagi modellar keng qo‘llanila boshladi [4]. AIS modeli inson immun tizimining ishlash

mexanizmlariga asoslanib, “o‘z” (normal) va “begona” (anomaliya) obektlarni farqlash tamoyiliga tayanadi. Ushbu yondashuv moliyaviy tizimlarda normal tranzaksiyalarni aniqlash va ulardan og‘uvchi operatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Modelda har bir tranzaksiya ko‘p o‘lchamli belgi vektori sifatida qaraladi va ular orasidagi o‘xshashlik darajasi maxsus affinitet funksiyalari orqali baholanadi [5].

AIS tizimining asosiy ustunligi uning moslashuvchanligi va o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatidadir. Negative Selection algoritmi yordamida tizim normal (self) ma’lumotlarni o‘rganadi va ularga mos kelmaydigan detektorlar orqali anomaliyalarni aniqlaydi. Bu esa oldindan noma’lum bo‘lgan tahdidlarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, Clonal Selection mexanizmi orqali yuqori samarali detektorlar tanlanadi, ko‘paytiriladi va mutatsiya qilinadi, natijada tizim yangi sharoitlarga moslashadi.

Biroq, AIS tizimlari ayrim hollarda aniqlik nuqtai nazaridan cheklovlarga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ularni neyron tarmoqlar bilan integratsiya qilish orqali gibrid model yaratish samarali yechim hisoblanadi. Ushbu yondashuvda AIS dastlabki filtr vazifasini bajaradi, ya’ni ehtimoliy anomaliyalarni ajratib beradi, neyron tarmoq esa chuqur o‘rganish asosida yakuniy klassifikatsiyani amalga oshiradi. Natijada modelning umumiy aniqligi va ishonchliligi oshadi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda AIS va neyron tarmoqlar integratsiyasi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Moliyaviy tranzaksiya quyidagicha ifodalanadi:

$$x = (x_1, x_2, ..., x_m), \quad x \in R^m$$

$$d(x, y) = \sqrt{\sum_{i=1}^{m} (x_i - y_i)^2}$$

Affinitet funksiyasi hisoblanadi va threshold (θ) bilan solishtiriladi:

$$Aff(x, y) = \frac{1}{1 + d(x, y)},$$

$$f(x) = \begin{cases} 1, & \text{agar } d(x, y) > \theta \text{ (anomaliya)} \\ 0, & \text{aks holda normal} \end{cases}$$

Klassifikatsiya qoidasi bo‘yicha agar o‘xshashlik yuqori bo‘lsa, obyekt normal, agar o‘xshashlik past bo‘lsa, obyekt anomaliya hisoblanadi [6].

Neyron tarmoq modeli [7]:

$$h = \sigma(W_1 x + b_1)$$

$$\hat{y} = \sigma(W_2 x + b_2)$$

1-jadval

AIS algoritmlarining solishtirma tahlili

Algoritm nomi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Negative Selection	Oddiy, noma’lum tahdidlarni aniqlaydi	Soxta signal (FP) yuqori bo‘lishi mumkin
Clonal Selection	Moslashuvchan, o‘z-o‘zini o‘rganadi	Hisoblash murakkabligi yuqori

Immune Network	Murakkab naqshlarni aniqlaydi	Implementatsiya qiyin

2-jadval

AIS va gibrid model samaradorligi

Model turi	Accuracy	Precision	Recall	F1-score
AIS (faqat)	0. 87	0. 84	0. 82	0. 83
Neyron tarmoq	0. 90	0. 88	0. 86	0. 87
AIS + NN (gibrid)	0. 94	0. 92	0. 91	0. 915

Jadvaldagi natijalar shuni ko‘rsatdiki, faqatgina AIS asosidagi model anomaliyalarni aniqlashda yaxshi natija ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda noto‘g‘ri ijobiy (False Positive) holatlar soni nisbatan yuqori bo‘ldi. Bu esa tizimning sezgirligi yuqori, ammo aniqligi nisbatan past ekanligini ko‘rsatadi. Neyron tarmoqlar esa murakkab naqshlarni chuqur o‘rganish orqali yuqori aniqlikni ta’minladi, biroq katta hajmdagi ma’lumotlarda hisoblash xarajatlari ortdi.

Gibrid model (AIS + neyron tarmoq) esa ushbu ikki yondashuvning afzalliklarini birlashtirib, yanada yuqori samaradorlikka erishdi. Xususan, AIS dastlabki filtr sifatida ishlatilib, ehtimoliy anomaliyalarni tezkor ajratib oldi, neyron tarmoq esa ushbu natijalarni chuqur tahlil qilib, yakuniy qarorni aniqlik bilan qabul qildi. Natijada modelning umumiy aniqligi sezilarli darajada oshdi va noto‘g‘ri klassifikatsiya ko‘rsatkichlari kamaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, gibrid modelda Accuracy ko‘rsatkichi 94% ga, Precision 92% ga va Recall 91% ga yetgani kuzatildi. Bu esa modelning moliyaviy anomaliyalarni aniqlashda yuqori ishonchlilikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, firibgarlik operatsiyalarini aniqlashda Recall ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu kamroq anomaliyalar e’tibordan chetda qolishini anglatadi.

Xulosa. AIS modeli moliyaviy tranzaksiyalarni “self” va “non-self” prinsiplariga asoslanib samarali tahlil qila oladi va noma’lum tahdidlarni aniqlash qobiliyatiga ega.

Negative Selection algoritmi dastlabki filtr sifatida ishlatilib, tizimning sezgirligini oshiradi, Clonal Selection esa detektorlarni optimallashtirish va moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Neyron tarmoqlar bilan integratsiya qilinadigan gibrid model AIS ning tezkorligi va neyron tarmoqning aniqlik xususiyatlarini birlashtiradi, bu esa moliyaviy anomaliyalarni aniqlashda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Umuman olganda, AIS asosidagi gibrid yondashuv moliyaviy tizimlarda real vaqt rejimida anomaliyalarni aniqlash va firibgarlikni kamaytirish imkoniyatini yaratadi hamda zamonaviy moliyaviy xavfsizlik tizimlari uchun istiqbolli yechim sifatida baholanishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov S. et al. Neural network systems for cyber attack detection //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2026. – Т. 3374. – №. 1. – С. 040046. .
2. Toliupa S., Pliushch O., Parkhomenko I. Construction of attack detection systems in information networks on neural network structures //Кібербезпека: Освіта, Наука, Техніка Учредители: Киевский университет им. Бориса Гринченко. – 2020. – Т. 2. – №. 10. – С. 169-183.
3. Umarov, S., Umarova, M., & Valiyev, A. (2026). Sun’iy immun tizimi va lvq neyron tarmoqlari asosida noma’lum kompyuter viruslarini aniqlash. Потомки Аль-Фаргани, (1), 241-246.
4. Karimov A. Sun’iy intellekt asosida kompyuter tarmoqlarida anomaliyalarni aniqlash //Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. – 2025. – Т. 1. – №. 3.
5. Umarov S. Neyron tarmoqlar yordamida anomaliyalarni aniqlash tizimini loyihalashtirish //Scientific journal of the Fergana State University. – 2025. – №. 4. – С. 106-106.
6. Kreimel P. et al. Anomaly detection in substation networks //Journal of Information Security and Applications. – 2020. – Т. 54. – С. 102527.
7. Abdiyeva-Aliyeva G., Hematyar M. AI-based network security anomaly prediction and detection in future network //The International Conference on Artificial Intelligence and Applied Mathematics in Engineering. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – С. 149-159.

Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i. f. f. d. (PhD), dotsent
e-mail: ilyosov. A@fstu. uz

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA SUN’IY INTELLEKT VA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va auditda sun’iy intellekt (SI) hamda blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi tahlil qilingan. O‘zbekistonda raqamlashtirish sur’atlari, moliya sohasidagi texnologik o‘zgarishlar va xalqaro tajriba ko‘rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalarning buxgalteriya sohasiga ta’siri statistik ko‘rsatkichlar asosida baholangan va amalga oshirish uchun amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, blokcheyn, raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi avtomatlashtirish, smart-kontrakt, moliyaviy texnologiyalar, FinTech, raqamli audit.

Kirish. XXI asr texnologiyalari — sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar (Big Data) va bulutli hisoblash — iqtisodiyotning barcha

tarmoqlarini, shu jumladan buxgalteriya hisobi va auditni tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamlashtirish sharoitida an’anaviy hisob-kitob jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, inson xatosi ehtimoli minimallashtirilmoqda va real vaqt rejimida moliyaviy hisobot berish imkoni yuzaga kelmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotni raqamlashtirish jadal sur’atlarda olib borilmoqda. 2024 yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda 3 700 dan ortiq texnologik startap ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ular orasida moliyaviy texnologiyalar (FinTech) yo‘nalishi alohida o‘rin egallaydi [2]. Ushbu maqolada mazkur texnologiyalarning buxgalteriya hisobiga integratsiyasi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. Sun’iy intellekt buxgalteriya hisobida bir qator muhim vazifalarni bajarishga qodir va bu sohadagi o‘zgarishlar allaqachon global miqyosda sezilarli natijalar bermoqda. Eng avvalo, birlamchi hujjatlarni avtomatik qayta ishlash sohasida SI katta yutuqlarga erishdi: optik belgilarni tanish (OCR) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari asosida tizim qog‘oz va elektron fakturalarni, shartnomalarni, to‘lov topshiriqnomalarini sekundlar ichida o‘qib, tegishli hisob raqamlariga avtomatik joylaydi. Bu jarayon odatda hisobchi tomonidan soatlar davomida bajarilgan edi.

Ikkinchi yo‘nalish – xatolar va firibgarliklarni aniqlash. SI algoritmlari minglab tranzaksiyani real vaqt rejimida tahlil qilib, odatdan tashqari operatsiyalarni, ikki marta kiritilgan to‘lovlarni yoki qo‘lbola hujjatlarni darhol aniqlay oladi. PwC tadqiqotiga ko‘ra, SI asosidagi audit tizimlari moliyaviy firibgarliklarning 87% ini an’anaviy usullarga nisbatan 3 barobar tezroq aniqlaydi [3].

Uchinchi yo‘nalish – soliq hisobi va muvofiqlik (compliance). SI tizimlari soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlarni avtomatik kuzatib, hisobotlarni yangi talablarga moslashtiradi, soliq imtiyozlari va chegirmalarni o‘z-o‘zidan hisoblab chiqadi hamda soliq inspeksiyasiga taqdim etiladigan shakllarni xatosiz to‘ldiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish – moliyaviy prognozlashtirish va qaror qabul qilishga ko‘mak. Katta ma’lumotlar (Big Data) asosida SI tizimi korxonaning pul oqimini, daromad va xarajatlar dinamikasini tahlil qilib, kelgusi davr uchun moliyaviy prognoz tuzadi, iqtisodiy xatarlarni oldindan bashorat qiladi va boshqaruvga asosli tavsiyalar beradi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, SI joriy etilgan hisobotshunoslik bo‘limlarida inson mehnati sarfini o‘rtacha 40-60% gacha kamaytirish mumkin [3]. McKinsey Global Institute hisob-kitoblariga ko‘ra esa, buxgalteriya va moliya sohasidagi vazifalarning 42% i to‘liq avtomatlashtirilishi mumkin bo‘lib, bu global miqyosda yiliga 300 mlrd dollardan ortiq tejamkorlikka olib keladi. Deloitte tadqiqoti esa Fortune 500 kompaniyalarining 67% i 2025 yilga qadar moliyaviy hisobot tizimlarida SI dan foydalanishni rejalashtirganini ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlash kerakki, SI hisobchilarni to‘liq almashtirib qo‘ymaydi – aksincha, ularning roli rutina ishlardan tahlitik va strategik fikrlashga qarab o‘zgaradi, bu esa kasbning qiymatini yanada oshiradi.

O‘zbekiston moliya sektori bo‘yicha quyidagi statistik ko‘rsatkichlar kuzatilmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda moliya va buxgalteriya sohasida raqamlashtirish ko‘rsatkichlari (2021–2024 yy.)

№	Ko‘rsatkich	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1.	Elektron hisob-fakturalar ulushi (%)	34, 2	48, 6	63, 4	78, 9
2.	Onlayn soliq hisoboti beruvchi soliq to‘lovchilari	67, 1	74, 3	82, 7	91, 4
3.	Moliyaviy sektor SI foydalanuvchilari (foiz)	4, 2	8, 7	14, 3	22, 6
4.	Blokcheyn asosidagi moliyaviy operatsiyalar (mln)	0, 3	1, 2	4, 8	12, 4
5.	Raqamli hujjat aylanmasi ulushi (%)	41, 5	56, 2	69, 8	83, 1

1-jadval ma’lumotlari raqamlashtirish ko‘rsatkichlari har yili keskin o‘sib borayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Xususan, elektron hisob-fakturalar ulushi 2021-yildagi 34, 2% dan 2024-yilda 78, 9% ga yetgan, ya’ni uch yil ichida 2, 3 martaga oshgan. Onlayn soliq hisoboti beruvchi soliq to‘lovchilar ulushi esa 67, 1% dan 91, 4% ga ko‘tarilgan – bu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ayniqsa e’tiborli jihat shundaki, blokcheyn asosidagi moliyaviy operatsiyalar soni 2021-yildagi 0, 3 mlndan 2024-yilda 12, 4 mlnga, ya’ni 41 martaga oshgan. Bu tendensiya buxgalteriya hisobi jarayonlarining tobora raqamli formatga o‘tib borayotganini tasdiqlaydi va mazkur o‘zgarishlar endi qaytmas xarakter kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Blokcheyn texnologiyasi buxgalteriya hisobida bir qator tub ustunliklarni taqdim etadi. Ma’lumotlarning o‘zgartirilmasligi – blokcheynda yozilgan har qanday tranzaksiya doimiy va muhrlanmagan holda saqlanadi, bu esa moliyaviy hujjatlarni soxtalashtirish imkonini amalda yo‘q qiladi. Shaffoflik – barcha vakolatli ishtirokchilar bir xil ma’lumotlar bazasini real vaqt rejimida ko‘rishi mumkin, bu esa ichki va tashqi auditni sezilarli darajada soddalashtiradi. Tranzaksiyalarning zanjirsimon tasdig‘i esa vositachilarsiz ikki tomon o‘rtasida ishonchli to‘lov amalga oshirilishini kafolatlaydi. Smart-kontraktlar ommaviy tender va xarid jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirib, insoniy omil va korrupsiya xavfini minimalllashtiradi – shartnoma shartlari bajarilishi bilanoq to‘lov avtomatik o‘tkaziladi, hech qanday qo‘lda aralashuv talab etilmaydi. Estoniya bu boradagi eng yorqin namuna bo‘lib, davlat xaridlarining 98% si blokcheyn platformasida amalga oshirilmoqda [5]. Xitoyda esa 2023-yildan boshlab barcha davlat korxonalari moliyaviy hisobotlarini blokcheyn tizimida tasdiqlashi majburiy qilib belgilangan.

Biroq O‘zbekistonda ushbu texnologiyalarni keng joriy etishda hali bartaraf etilmagan bir qator to‘siqlar mavjud. Kadrlar muammosi eng keskin masala bo‘lib qolmoqda: mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining faqat 12% ida blokcheyn va SI texnologiyalari bo‘yicha ixtisoslashgan dasturlar mavjud, natijada bozorda talab va taklif o‘rtasidagi tafovut katta [4]. Yuridik baza hali to‘liq shakllanmagan – blokcheyn tranzaksiyalari va smart-kontraktlarning huquqiy kuchi, raqamli imzoning qonuniy maqomi, ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha milliy standartlar hali ishlab chiqilish bosqichida. Kiberhavfsizlik ham jiddiy muammo: 2023-yilda O‘zbekistonda moliya sektoriga qarshi 1400 dan ortiq kiberhujum qayd etilgan [4]. Kapital xarajatlar esa kichik va o‘rta korxonalar uchun asosiy to‘siq bo‘lib, blokcheyn infratuzilmasini joriy etishning boshlang‘ich narxi 50000 dan 500000

AQSh dollarigacha tebranadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz korxonalarining faqat 14, 3% i SI asosidagi buxgalteriya dasturlaridan foydalanmoqda (2023 y.) – bu ko‘rsatkich rivojlangan davlatlarning o‘rtacha 61% lik darajasidan keskin farq qiladi va sohadagi transformatsiya hali uzoq yo‘l bosib o‘tishi kerakligini anglatadi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishi va SI hamda blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi zamonaviy talablar bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda raqamlashtirish sur’atlari yuqori bo‘lsa-da, amaliyotda to‘siqlar hali ham saqlanib qolmoqda. Muammolarni bartaraf etish uchun: (1) oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli buxgalteriya” ixtisosligini alohida yo‘nalish sifatida joriy etish; (2) blokcheyn va SI texnologiyalarini buxgalteriya standartlariga kirituvchi normativ-huquqiy bazani shakllantirish; (3) kichik va o‘rta korxonalar uchun raqamli hisob dasturlarini joriy etishda davlat subsidiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqov M. S., Ismoilov T. R. Sun’iy intellektning buxgalteriya hisobiga ta’siri. // “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali. – 2023. – №4. – 45–52 b.

2. O‘zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi. “Raqamli O‘zbekiston 2030” dasturining 2024 yil hisoboti. – T. : 2024.

3. Deloitte. The Future of Accounting: AI and Automation. – London: Deloitte Insights, 2023.

4. Raqamli texnologiyalar vazirligi statistik ma’lumotlar to‘plami. – T. : 2024.

5. E-Estonia. Digital Society Overview. – Tallinn: Enterprise Estonia, 2023. – URL: https: //e-estonia. com

Karabaev Muxtar Matmusayevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
e-mail: muxtar. karabayev@ferpi. uz
Ro‘zimatov Xojimuhammad Adhamjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, magistranti
e-mail: xojimuhammadrozimatov7@gmail. com

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI AUTSORSING XIZMATLARI HISOBI ORQALI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) subyektlarida buxgalteriya hisobi va tahlilini tashkil qilishni takomillashtirishda autsorsing modelini qo‘llashning strategik afzalliklari yoritilgan. Muallif an’anaviy hisob yuritish usullarining global bozor o‘zgarishlari va murakkab bojxona qonunchiligiga moslashishdagi muammolarini tahlil qilib, ixtisoslashgan autsorsing xizmatlarini innovatsion yechim sifatida taklif etadi.

Kalit so‘zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) buxgalteriya autsorsingi, strategik boshqaruv, moliyaviy javobgarlik, eksport-import tahlili, innovatsion yondashuv, raqobatbardoshlik, bojxona qonunchiligi.

Kirish. Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) subyektlarida buxgalteriya hisobi va tahlilini tashkil qilishni takomillashtirishda autsorsing modelini qo‘llash nafaqat texnik yechim, balki korxonaning strategik boshqaruv tizimidagi tub islohot sifatida namoyon bo‘ladi. TIF korxonalari uchun an’anaviy buxgalteriya yuritish usullari ko‘p hollarda xalqaro bozorning tezkor o‘zgarishlari, valyuta kurslarining tebranishi va turli davlatlarning bojxona qonunchiligidagi tafovutlarga moslashishda oqsash holatlarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, ixtisoslashgan autsorsing kompaniyalariga hisob funksiyalarini topshirish ilmiy yangilik sifatida korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi innovatsion yondashuv hisoblanadi. Autsorsing xizmatiga o‘tishning iqtisodiy asoslarini tadqiq qilishda, biz taklif etayotgan samaradorlik koeffitsiyenti formulasi orqali korxonaning moliyaviy yutug‘ini aniq hisoblash imkoniyati tug‘iladi [1]. Ushbu metodikaga ko‘ra, autsorsingning samaradorligi korxona tomonidan shtatdagi xodimlarni saqlash uchun sarflanadigan jami xarajatlar hamda xatoliklar tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan potensial risklar yig‘indisidan autsorsing xizmati uchun to‘lanadigan haqni ayirish orqali topiladi, ya’ni

$$E_{outsourcing} = C_{staff} + R_{risk} — C_{service}$$

ko‘rinishida ifodalanadi. Bunda:

C_{staff} — shtatdagi xodimlarni saqlash xarajatlari (ish haqi, ijtimoiy soliq, ish o‘rni);

R_{risk} — ehtimoliy jarimalar va xatoliklar qiymati;

$C_{service}$ — autsorsing kompaniyasiga to‘lanadigan haq.

Bu yerda xarajatlar tarkibiga nafaqat ish haqi va soliqlar, balki xodimlarning malakasini oshirish, litsenziyalangan dasturlar va ish o‘rnini moddiy-texnik ta’minlash kabi yashirin xarajatlar ham kiritiladi. Tadqiqotda autsorsingning o‘rni faqatgina xarajatlarni tejash bilan cheklanib qolmay, u eksport-import operatsiyalarining tahliliy sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. TIF subyektlari uchun valyuta tushumlarining o‘z vaqtida kelib tushishi, eksport kontraktlarining ijrosi va import qilingan tovarlarning tannarxini to‘g‘ri shakllantirish hayotiy muhim jarayonlardir.

Autsorsing modeli doirasida qo‘llaniladigan zamonaviy ERP tizimlari va bulutli buxgalteriya platformalari ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlab, xalqaro audit tekshiruvlaridan muvaffaqiyatli o‘tish kafolatini yaratadi [2]. Ushbu tizimda har bir operatsiya bir vaqtning o‘zida ham buxgalteriya hisobida, ham bojxona rasmiylashtiruvi tahlilida aks etadi, bu esa korxona rahbariyatiga xalqaro bitimlar bo‘yicha moliyaviy qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, autsorsing kompaniyalari tomonidan taqdim etiladigan tahliliy hisobotlar korxonaning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini baholashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular faqatgina o‘tmishdagi ko‘rsatkichlarni

emas, balki kelajakdagi valyuta xatarlarini prognozlashni ham o‘z ichiga oladi. Ilmiy yangilikning yana bir muhim jihati shundaki, TIF korxonalarida autsorsingni joriy etish orqali “moliyaviy javobgarlikni transformatsiya qilish” konsepsiyasi ilgari suriladi. An’anaviy tizimda buxgalteriyadagi xatoliklar uchun javobgarlik asosan korxona zimmasida qolsa, autsorsing shartnomasi asosida bu mas’uliyat yuridik shaxs bo‘lgan xizmat ko‘rsatuvchi subyektga o‘tadi. Bu esa korxonaning investitsion jozibadorligini oshiradi, chunki tashqi investorlar va hamkorlar moliyaviy hisobotlarning xolisligi hamda professional nazorat ostida ekanligiga ko‘proq ishonch bildirishadi.

Binobarin, autsorsing mexanizmi orqali buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish TIF subyektlarining nafaqat ichki hisob siyosatini, balki ularning xalqaro savdo maydonidagi strategik o‘rnini ham mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi lozim. Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan takliflar va modellar korxonalarga o‘z resurslarini asosiy ishlab chiqarish va sotish jarayonlariga yo‘naltirish, yordamchi jarayonlarni esa yuqori texnologik va professional darajaga ko‘tarish imkonini beradi [3].

Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) subyektlarida buxgalteriya hisobini autsorsingga o‘tkazishning transformatsion modeli korxonaning moliyaviy arxitekturasini tubdan yangilashga xizmat qiladi. Ushbu modelning nazariy asosi shundan iboratki, korxona o‘zining ichki resurslarini faqat yuqori daromad keltiruvchi eksport va import operatsiyalariga yo‘naltiradi, murakkab va yuqori mas’uliyat talab qiluvchi hisob-kitob jarayonlarini esa tashqi professional ekotizimga topshiradi. Ilmiy yangilik sifatida taklif etilayotgan ushbu modelda buxgalteriya hisobi shunchaki ma’lumotlarni qayd etish punkti emas, balki korxonaning tashqi bozorlardagi harakatini muvofiqlashtiruvchi tahliliy markazga aylanadi. Bu jarayonda axborot oqimlarining integratsiyalashuvi natijasida hujjat aylanishi tezlashadi va bojxona rasmiylashtiruvi davridagi vaqt yo‘qotishlari keskin kamayadi. [4].

Autsorsing modelining amaliy mexanizmi uchta asosiy ustunga tayanadi: texnologik integratsiya, moliyaviy javobgarlikning taqsimlanishi va tahliliy prognozlash. Texnologik jihatdan, TIF subyekti va autsorsing kompaniyasi o‘rtasida yagona bulutli ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi, bu esa dunyoning istalgan nuqtasidan turib valyuta hisobvaraqlarini nazorat qilish va xalqaro to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini beradi. Moliyaviy javobgarlik masalasida esa, autsorser tomonidan taqdim etiladigan kafolatlar korxonaning kutilmagan soliq va valyuta jarimalaridan himoyalanganligini anglatadi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning sof foydasi tarkibida ma’muriy xarajatlarning ulushini kamaytiradi va investitsion jozibadorlik koeffitsiyentini oshiradi.

Xulosa. Autsorsing modeli TIF subyektlari uchun shunchaki xarajatlarni kamaytirish usuli emas, balki korxonaning moliyaviy arxitekturasini tubdan yangilovchi strategik islohotdir. U ichki resurslarni asosiy biznes jarayonlariga yo‘naltirish va yordamchi hisob funksiyalarini professional ekotizimga o‘tkazish orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi. TIF subyektlarida buxgalteriya hisobini autsorsing modeliga o‘tkazish xalqaro bozordagi o‘zgaruvchan sharoitlarda

korxonaning moslashuvchanligini oshiruvchi va barqaror rivojlanishni ta’minlovchi innovatsion mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori.
2. IFRS Foundation. “International Financial Reporting Standards. ” www. ifrs. org
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
4. Karimov Z. Sh. “Tashqi iqtisodiy faoliyatda buxgalteriya hisobi”. – Toshkent, 2021.

Fozilov Xayot Raximovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: hayotbek. fozilov@fstu. uz

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY TAHLIL QILISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha sohalariga, xususan sog‘liqni saqlash tizimiga ham jadal sur’atlarda kirib kelmoqda. Maqolada sog‘liqni saqlash tizimi, unda iqtisodiy tahlilni zamonaviy axborot texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt asosida amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash, iqtisodiy tahlil, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, big data, telemeditsina, samaradorlik.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri- mavjud resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish va aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirishdir. Bu esa iqtisodiy tahlilni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etadi. Sog‘liqni saqlash tizimida iqtisodiy tahlil — bu tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, xarajatlarni aniqlash va ularni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy jarayondir. Sog‘liqni saqlash tizimida iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari sifatida moliyaviy resurslardan foydalanishni baholash, tibbiy xizmatlar tannarxini aniqlash, investitsiya loyihalarining samaradorligini o‘rganish, resurslarni optimal taqsimlashni ta’kidlab o‘tish mumkin.

An’anaviy tahlil usullari ko‘pincha vaqt talab qiluvchi va cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi va aniqligini oshiradi. Hozirgi davrda sog‘liqni saqlash tizimi murakkab va ko‘p komponentli tizim sifatida faoliyat yuritadi. Aholi sonining

o‘sishi, kasalliklar spektrining kengayishi va resurslarning cheklanganligi ushbu tizimni samarali boshqarishni talab etadi. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi sog‘liqni saqlash tizimini tahlil qilish va boshqarishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. SI katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, murakkab bog‘liqliklarni aniqlash va aniq prognozlar berish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va boshqa innovatsion yechimlar sog‘liqni saqlash tizimida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat tibbiy diagnostika va davolash jarayonlarini, balki iqtisodiy tahlilni ham tubdan o‘zgartirmoqda.

Asosiy qism. Zamonaviy tibbiyotda sun’iy intellektdan foydalanish orqali nafaqat diagnostika va davolash jarayonlarining aniqligi oshmoqda, balki tibbiy xizmatlarning tezkorligi va sifatini ham yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Biz ushbu ilmiy ish orqali aynan shu jarayonlarning amaliy va nazariy asoslarini o‘rganishni, mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qildik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday degan edi: “Yangi O‘zbekiston -bu, eng avvalo, raqamli O‘zbekiston. Biz zamonaviy texnologiyalarni joriy etmasdan turib, hech qachon oldinga yura olmaymiz. ” Bu fikrlar nafaqat umumiy taraqqiyot yo‘nalishini belgilab beradi, balki ayniqsa sog‘liqni saqlash tizimi kabi bevosita inson salomatligi bilan bog‘liq sohalarda raqamli yondashuvlar, xususan sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini ta’kidlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sog‘liqni saqlash tizimida mavjud ma’lumotlar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Buesa tibbiy axborotlarni tezkor va aniq tahlil qilishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Biz mazkur tezisimizda sun’iy intellekt yordamida bu ma’lumotlarni qanday qayta ishlash mumkinligi, kasalliklarni oldindan aniqlash, davolash strategiyalarini shakllantirish va sog‘liqni saqlash boshqaruvini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratdik. [1]

“Aholi salomatligi-2030” strategiyasi loyihasining 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasiga ko‘ra, yurtimizdagi 565 ta davolash-profilaktika muassasasida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Shu maqsadda:

- 475 ming nafar xodimning raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish;
- “KfW” bankining “Raqamli sog‘liqni saqlash islohotlarini qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida raqamli sog‘liqni saqlash yagona platformasini yaratish;
- tibbiyot sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish;
- davolash-profilaktika muassasalarini axborot-texnika vositalari bilan ta’minlash orqali moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- tibbiyot xodimlarining raqamli texnologiyalar bilan ta’minlanganlik darajasini 100 foizga yetkazish nazarda tutilyapti.

Barchamizga yaxshi ma’lumki, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi elektron sog‘liqni saqlash tizimiga ham

sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellektni sog‘liqni saqlash sohasiga joriy etish jarayonidagi dolzarb muammolar, ularni yuzaga keltirayotgan omillar va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali yechimlar o‘rganiladi. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt asosidagi tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlash, kasalliklarni aniqlash va davolashdagi yordamchi funksiyalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maxfiylik, huquqiy me’yorlar va texnik cheklovlar kabi to‘siqlar ko‘rib chiqiladi hamda amaliy misollar asosida sun’iy intellektdan oqilona foydalanish, sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish va bemorlar xavfsizligini ta’minlash yo‘llarini taklif etiladi. [2]

Ma’lumki, sog‘liqni saqlash tizimi zamonaviy jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi aholi salomatligi, umr davomiyligi va ijtimoiy barqarorlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ushbu sohalarda tezkor tahlil, aniq prognoz va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beruvchi innovatsion vosita sifatida shakllanmoqda. Xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti — World Health Organization ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar va SI yechimlari kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika aniqligini oshirish hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashinaviy o‘qitish algoritmlari radiologik tasvirlarni tahlil qilishda ayrim hollarda shifokorlar bilan teng yoki undan yuqori aniqlik natijalarini namoyish etmoqda. [3]

Bundan tashqari, McKinsey & Company tahlillariga ko‘ra, sun’iy intellektni sog‘liqni saqlash tizimiga joriy etish global miqyosda milliardlab dollar iqtisodiy samaradorlik keltirishi mumkin, ayniqsa ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirish, bemor oqimini boshqarish va individual davolash strategiyalarini ishlab chiqishda. Shunday qilib, sun’iy intellekt texnologiyalari sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda xizmat sifatini yaxshilashda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni damda sog‘liqni saqlash tizimida keng ko‘lamli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bu barcha odamlarga — shahar aholisidan tortib chekka hududlar aholisigacha, bolalardan tortib keksalargacha ta’sir qiladi. Shu bois yildan yilga bu sohaga ajratilayotgan mablag‘ ko‘payib bormoqda. Tibbiyot boshqa ijtimoiy xizmatlar kabi fuqarolar uchun ham tobora yaqinlashmoqda. Birlamchi bo‘g‘inda 18 mingdan ziyod tibbiy brigadalar tashkil etilgan. Kasalliklarga tashxis qo‘yish va davolash amaliyotiga innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatda diagnostika usullari 500 taga, davolash usullari 800 taga yetkazildi. Xususiy tibbiyotning keng rivojlanishi tufayli xizmat turlari va ularning soni sezilarli darajada kengaydi. 2024-yilda ushbu sohani rivojlantirishga 36 trillion so‘m yo‘naltirildi, bu o‘tgan yilga nisbatan 25 foizga ko‘pdir.

Dastur doirasida birlamchi bo‘g‘in uchun 6 ta yangi skrining testlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Bu orqali 106 ming nafar kishida qandli diabet, 194 ming nafarida yurak-qon tomir, 2 mingdan ziyod ayolda saraton, mingga yaqin bolada onkogematologik kasalliklarni erta bosqichda aniqlashga erishildi.

Davolash sifati va samaradorligini oshirish doimiy rivojlanishni talab qiladigan asosiy vazifadir. Bu sohada allaqachon sezilarli natijalarga erishildi. 2000

dan ortiq mutaxassislar xorijda o‘qitildi, bu esa hududlarda yuqori texnologiyali operatsiyalarni o‘tkazish darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Bugungi kunda bu ko‘rsatkich 61 foizni tashkil etmoqda. 43 ta yo‘nalish bo‘yicha 191 ta klinik qo‘llanma xalqaro standartlar asosida yangilandi. Joriy yilda 100 ming nafar bemor maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha davolanib, ixtisoslashtirilgan markaz va filiallarga yuborildi. Bunday markazlarning 7 tasi sifat nazorati bo‘yicha xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilgan. 2025-yilda sog‘liqni saqlash ehtiyojlari uchun 41 trillion so‘m ajratildi. Bu mablag‘lar yangi shifoxonalar qurish va jihozlash, mavjud quvvatlarni kengaytirish, tibbiy ko‘rik qamrovini oshirishga yo‘naltirildi. [4]

So‘nggi yillarda tibbiyot sohasi sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida yangi imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda. Biz o‘z tadqiqotimiz davomida sun’iy intellektning nafaqat nazariy jihatlarini, balki uning amaliy qo‘llanish holatlarini ham chuqur o‘rganishga harakat qildik. Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy tahlil quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

1. Prognozlash modellari. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida kasalliklar tarqalishini oldindan bashorat qilish, tibbiy xizmatlarga bo‘lgan talabni prognozlash, xarajatlarni rejalashtirish mumkin. Bu esa byudjetni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Qaror qabul qilish tizimlari. Sun’iy intellekt asosidagi qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari menejerlarga optimal qarorlar qabul qilishda yordam beradi, investitsiya yo‘nalishlarini aniqlaydi, tibbiy xizmatlar samaradorligini baholaydi.

3. Xarajat-samaradorlik tahlili. Sun’iy intellekt yordamida turli davolash usullarini taqqoslash, eng samarali variantni aniqlash, dori vositalari va texnologiyalarni baholash mumkin. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

4. Sug‘urta tizimida qo‘llash. Sun’iy intellekt sug‘urta sohasida firibgarlik holatlarini aniqlash, risklarni baholash, to‘lovlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Sog‘liqni saqlash tizimida iqtisodiy tahlilni zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida amalga oshirish tizim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu jarayon xarajatlarni optimallashtiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi hamda tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Kelajakda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismiga aylanib, uning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. [5]

Sun’iy intellekt yordamida tibbiy xatoliklar kamaymoqda, tibbiyot xodimlarining ish yuki yengillashmoqda va mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyati oshmoqda. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimining umumiy sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Elektron sog‘liqni saqlash tizimi —bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sog‘liqni saqlashga integratsiya qilish orqali aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishni optimallashtirishdir.

Bizning o‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, elektron sog‘liqni saqlash orqali tibbiy ma’lumotlar markazlashtiriladi, har bir bemor bo‘yicha to‘liq va dolzarb

tibbiy tarix yuritiladi, davolash jarayonlari tahlil qilinadi va qaror qabul qilishda aniqlik oshadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt bilan birgalikda ishlaydigan elektron kartalar, kasalliklarni monitoring qilish tizimlari va masofaviy tibbiy maslahat xizmatlari pandemiya davrida o‘zining ahamiyatini yanada ko‘rsatdi. Uzoq hududlardagi aholi uchun masofaviy diagnostika va maslahatlar, tibbiy profilaktikani kuchaytirish imkonini berdi. Shunga qaramay, biz duch kelgan muammolar ham kam emas. Eng avvalo, sun’iy intellekt texnologiyalarini sog‘liqni saqlash tizimiga to‘liq integratsiya qilish uchun zarur infratuzilma kuchli serverlar, internet tarmog‘i, raqamli arxivlar va malakali kadrlarhar joyda mavjud emas. [6]

Xulosa. Ko‘plab tibbiy muassasalarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tajribasi va amaliyoti yo‘q. Shuningdek, tibbiy ma’lumotlarning maxfiyligi, huquqiy muhofazasi va sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy tomonlari ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Ko‘pgina holatlarda bemorlar o‘z ma’lumotlari qanday ishlatilayotgani yoki sun’iy intellekt qaysi mezonlarga ko‘ra qaror qabul qilayotganidan bexabarligicha qolmoqda. Bu esa ishonch muhitini zaiflashtiradi. Yana bir muammo sun’iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishda milliy ma’lumotlar bazasining yetarli emasligi.

Ko‘plab algoritmlar xorijiy ma’lumotlar asosida qurilgan bo‘lib, ular mahalliy tibbiyot sharoitlariga har doim mos kelavermaydi. Ushbu muammolarning bartaraf etilishi uchun biz bir nechta takliflarni ishlab chiqdik. Avvalo, sog‘liqni saqlash tizimi xodimlarini sun’iy intellekt bilan ishlashga o‘rgatish, maxsus o‘quv kurslari va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish zarur deb hisoblaymiz. Bu bilan sun’iy intellekt texnologiyalarining noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki samarasiz ishlatilishining oldi olinadi. Ikkinchi muhim yo‘nalish bu huquqiy bazani takomillashtirish.

Biz, bu borada aniq me’yoriy hujjatlar, sun’iy intellekt orqali qabul qilingan tibbiy qarorlar uchun mas’uliyat chegaralari, bemor roziligi va ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlovchi mexanizmlarni yaratish lozim deb hisoblaymiz. Kelajakda sun’iy intellekt yordamida yanada mukammal va insonparvar tibbiyot tizimini yaratish yo‘lida izlanishlarimizni davom ettirish zarur deb hisoblaymiz. Bu borada davlat siyosati va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali yangi imkoniyatlar yaratishga intilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yangi O‘zbekiston –raqamli O‘zbekiston”. -O‘zA rasmiy sayti, 2020-yil.
2. Abdullayev O, Rustamov D. Sun’iy intellekt va sog‘liqni saqlash tizimida innovatsiyalar. Tibbiyot va texnologiya jurnali, 2022.
3. Rakhimovich Fozilov H. “Organization of Cost and Income Analysis in the Healthcare System. “ JournalNX, vol. 10, no. 5, 8 May. 2024, pp. 12-16.
4. Fozilov Xayot Raximovich “Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlarning benchmarking tahlili” //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2025. №11.
5. Фозилов Хаёт Рахимович “Особенности анализа затрат и доходов в системе здравоохранения “//ВОГУЭ. 2024. №1(4).

6. Фозилов Хаёт Рахимович “Этапы организации экономического анализа в системе здравоохранения”//ВОГУЭ. 2023. №2(3).

Uzakova Ma’muraxon Matkarimovna
Fargona davlat texnika univarsiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti,
e-mail: mamuraxonuzaqova@fstu. uz

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarining buxgalteriya hisobi va audit tizimiga ta’siri, ularning samaradorligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi avtomatlashtirish vositalari orqali moliyaviy hisobotlarning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta’minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, buxgalteriya hisobi, audit, avtomatlashtirish, big data, moliyaviy nazorat.

Kirish. XXI asrda global iqtisodiyotning raqamlashtirilishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash (cloud computing) hamda sun’iy intellekt kabi innovatsion yechimlar iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda [1]. Ayniqsa, moliyaviy axborotlarni qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda.

Buxgalteriya hisobi va audit tizimi har qanday iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizimlar orqali korxonaning moliyaviy holati, natijalari va pul oqimlari to‘g‘risida aniq hamda ishonchli ma’lumotlar shakllantiriladi [2]. An’anaviy yondashuvlarda bu jarayonlar ko‘p vaqt va mehnat talab qilgan bo‘lsa, raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt vositalari ularni avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi natijasida buxgalteriya hisobida takrorlanuvchi operatsiyalarni avtomatlashtirish, real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash hamda tahliliy hisobotlarni shakllantirish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, audit sohasida SI yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tekshirish, risklarni aniqlash va firibgarlik holatlarini oldindan bashorat qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa audit jarayonining sifatini oshirish va inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, global miqyosda raqamli transformatsiya jarayonlari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va audit amaliyotlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy korxonalar nafaqat moliyaviy natijalarni qayd etish, balki ularni chuqur tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishda sun’iy intellektdan keng foydalanishga intilmoqda. Shu sababli, buxgalteriya hisobi va

audit tizimlarini sun’iy intellekt asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarining buxgalteriya hisobi va audit samaradorligini oshirishdagi o‘rnini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism.

1. Sun’iy intellektning buxgalteriya hisobidagi nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi

Sun’iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini modellashtirishga qaratilgan texnologiyalar majmui hisoblanadi [3]. Raqamli iqtisodiyot sharoitida SI buxgalteriya hisobining an’anaviy funksiyalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Buxgalteriya hisobida SI quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llanilmoqda:

Avtomatlashtirilgan ma’lumot kiritish tizimlari – hujjatlarni tanib olish (OCR) orqali ma’lumotlarni avtomatik kiritish. Moliyaviy operatsiyalarni tasniflash mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida tranzaksiyalarni toifalarga ajratish daromad va xarajatlarni bashorat qilish. Xatoliklarni aniqlash noto‘g‘ri yoki shubhali yozuvlarni aniqlash Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, SI asosidagi buxgalteriya tizimlari inson tomonidan bajariladigan takrorlanuvchi operatsiyalarni kamaytiradi, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi va xatoliklar ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradi.

2. Audit jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari. Audit faoliyati moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholashga qaratilgan bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishni talab etadi [4]. Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi audit jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. SI auditda quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: To‘liq qamrovli tekshiruv an’anaviy auditda tanlab tekshirish qo‘llanilsa, SI barcha tranzaksiyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Riskga asoslangan audit yuqori xavfli operatsiyalarni aniqlash va ustuvorlik berish. Firibgarlikni aniqlash anomal xatti-harakatlarni aniqlash algoritmlari. Audit dalillarini avtomatik yig‘ish elektron hujjatlar bilan ishlash

Shuningdek, SI asosidagi tizimlar auditorlarga real vaqt rejimida monitoring olib borish imkonini yaratadi. Bu esa nafaqat muammolarni aniqlash, balki ularni oldini olish imkoniyatini ham beradi.

3. Buxgalteriya hisobi va audit samaradorligini oshirish mexanizmlari.

Jarayonlarni avtomatlashtirish takrorlanuvchi va vaqt talab qiluvchi operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali inson resurslaridan samarali foydalanish ta’minlanadi. Natijada buxgalterlar ko‘proq tahliliy va strategik vazifalarga e’tibor qaratadi. Real vaqt rejimida tahlil SI tizimlari ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini beradi. Bu esa korxona rahbariyatiga tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Ma’lumotlar sifatini oshirish. Sun’iy intellekt algoritmlari noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni aniqlash orqali hisobotlarning ishonchliligini oshiradi.

4. Raqamli transformatsiya sharoitida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Sun’iy intellektni buxgalteriya va audit tizimiga joriy etish bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi: Texnologik muammolar va kadrlar bilan bog‘liq muammolardir.

5. Sun’iy intellekt asosida rivojlanishning istiqbollari.

Kelajakda sun’iy intellekt buxgalteriya hisobi va audit tizimida quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda: To‘liq avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari, intellektual audit platformalari blokcheyn texnologiyalari bilan integratsiya predictive analytics (oldindan bashorat qilish tizimlari) shular jumlasidandir.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi buxgalteriya hisobi va audit tizimlarini tubdan transformatsiya qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Bu esa buxgalteriya hisobi va audit samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sun’iy intellektdan foydalanish natijasida buxgalteriya hisobida inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi, hisob-kitoblar aniqligi va tezkorligi oshadi hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, audit jarayonida SI texnologiyalari yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni kompleks tahlil qilish, risklarni aniqlash va firibgarlik holatlarini oldindan bashorat qilish imkoniyati yaratiladi. Natijada audit sifati oshib, nazorat mexanizmlari yanada takomillashadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, sun’iy intellekt buxgalteriya va audit jarayonlarini optimallashtirish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshiradi, korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi va strategik qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi . Shu bilan birga, SI texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirish va jarayonlarni optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xakimov N. K. Buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati // Ilm Fan Xabarnomasi, 2026.
2. Ibragimov S. L. Sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot sohalarida qo‘llash samaradorligi. Ilmiy jurnal, 2025.
3. Abdurazaqova S. R. Sun’iy intellekt va inson faoliyatining mehnat bozoridagi o‘rni. International Journal of Science and Technology, 2025.
4. Boykulov B. Sun’iy intellekt asosida bank tizimini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish. Green Economy and Development, 2024.

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v. v. b., Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
e-mail: sevarikabdullayeva@gmail. com
Xabibrahmonov Muhammadqodir Mahamadaliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 660-24 I guruh talabasi,

INNOVATSION ISHLANMALAR MILLIY IQTISODIY O‘SISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida innovatsion yondashuvlar iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tezisda ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ishlanmalar, milliy iqtisodiy o‘sish, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, mehnat unumdorligi, raqamli transformatsiya, yuqori qo‘shilgan qiymat, ilmiy-texnik taraqqiyot, institutsional islohotlar

Kirish. XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining mazmuni tobora ko‘proq bilim, texnologiya va innovatsiyalarga tayangan holda shakllanmoqda. Shu bois milliy iqtisodiy o‘sishning an’anaviy omillari — kapital, mehnat va tabiiy resurslar bilan bir qatorda, innovatsion ishlanmalar ham iqtisodiy rivojlanishning strategik manbasiga aylanib bormoqda. Xalqaro kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatiga yo‘naltirilayotgan global xarajatlar 2023-yilda jahon YAIMining 1, 92 foizigacha yetgan bo‘lib, bu innovatsiya iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli drayveriga aylanganini tasdiqlaydi[54]. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar iqtisodiyoti va platformali biznes modellarining kengayishi innovatsion ishlanmalarning samaradorlik, mehnat unumdorligi va qo‘shilgan qiymatga ta’sirini yanada kuchaytirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion ishlanmalar nafaqat yangi mahsulot va xizmatlar yaratish vositasi, balki butun xo‘jalik tizimini sifat jihatdan yangilash omili sifatida namoyon bo‘ladi. Jahon bankining raqamli taraqqiyot bo‘yicha hisobotlarida raqamlashtirish ishlab chiqarish, xizmatlar, bandlik, eksport va boshqaruv samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy transformatsion kuch sifatida baholanadi, biroq bu jarayonning ijobiy natijasi infratuzilma, inson kapitali, institutsional muhit va innovatsion ekotizimning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liq ekani qayd etiladi. Demak, iqtisodiy o‘sishning zamonaviy modelida innovatsion ishlanmalar alohida emas, balki raqamli transformatsiya, ilm-fan va tadbirkorlik integratsiyasi orqali namoyon bo‘ladigan kompleks omil hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham mazkur masala nihoyatda dolzarbdir.

Mamlakatda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va milliy rivojlanish strategiyalari doirasida raqamlashtirishni iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga

[54] https://databrowser.uis.unesco.org

aylantirish vazifasi belgilangan. Jahon banki hujjatlariga ko‘ra, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 2021-yilda 1, 9 foizni tashkil etgan bo‘lib, hukumat ushbu ko‘rsatkichni kamida 2, 5 barobarga oshirish, dasturiy mahsulotlar eksportini keskin kengaytirish va davlat boshqaruvi jarayonlarini chuqur raqamlashtirishni maqsad qilgan. Bu esa innovatsion ishlanmalarni yaratish, tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish masalasini iqtisodiy siyosatning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylantiradi.

Shu bilan birga, innovatsion salohiyatdan foydalanish darajasi hali to‘liq yetarli emas. Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO)ning 2025-yilgi Global Innovation Index ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o‘rinni egallagan bo‘lsa-da, mamlakat innovatsion natijalar bo‘yicha innovatsion resurslarga nisbatan sustroq pozitsiyani saqlab qolmoqda; ya’ni innovatsion imkoniyatlarni real iqtisodiy natijalarga aylantirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Boshqa tomondan, hisobotda O‘zbekiston mehnat unumdorligi o‘sishi bo‘yicha 6-o‘rin, fan va muhandislik yo‘nalishlari bitiruvchilari bo‘yicha 13-o‘rin kabi ijobiy ko‘rsatkichlar bilan ham ajralib turadi[55]. Bu holat mamlakatda innovatsion rivojlanish uchun muayyan zamin mavjudligini, ammo uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini kuchaytirish uchun ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, xususiy sektor innovatsiyalarini rag‘batlantirish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Innovatsion ishlanmalarning milliy iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholashda ularni faqat yangi mahsulot yoki texnologiya yaratish bilan cheklab bo‘lmaydi. Ularning iqtisodiy mazmuni ishlab chiqarish omillarining samaradorligini oshirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirish, iqtisodiyot tarkibini murakkablashtirish va natijada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirish bilan belgilanadi. Shu jihatdan innovatsion ishlanmalar iqtisodiy o‘sishning ekstensiv emas, balki intensiv modelini shakllantiradi. Intensiv o‘sishning ustunligi shundaki, u resurslar hajmini oddiy ko‘paytirish hisobiga emas, balki ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish jarayonlariga joriy etish orqali natijadorlikni oshiradi. Aynan shu xususiyat innovatsion rivojlanishni zamonaviy milliy iqtisodiyotlar barqarorligini ta’minlaydigan strategik omilga aylantirmoqda.

Innovatsion ishlanmalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, avvalo, mehnat unumdorligi orqali namoyon bo‘ladi. Texnologik yangiliklar, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt elementlari, raqamli tahlil va boshqaruvning yangi usullari bir xil resurslar bilan ko‘proq natija olish imkonini beradi. Bu jarayonda ishlab chiqarish hajmining o‘sishi nafaqat band resurslar sonining ortishi, balki bir ishchi yoki bir birlik kapital hissasining samaradorligi ortishi hisobiga yuz beradi. Jahon intellektual mulk tashkilotining 2025-yilgi Global innovatsiya indeksi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston mehnat unumdorligi o‘sishi ko‘rsatkichi bo‘yicha juda yuqori — 6-o‘rinda qayd etilgan. Mazkur holat innovatsion ishlanmalar va texnologik yangilanish mehnat samaradorligini oshirish uchun real

[55] https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan

zamin mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu natijani barqaror iqtisodiy o‘sishga aylantirish uchun innovatsion yechimlarning alohida korxonalar darajasidan butun tarmoq va hududlar kesimida keng yoyilishi zarur. Aks holda mehnat unumdorligidagi ijobiy sur’atlar makroiqtisodiy o‘sishning sifat ko‘rsatkichlariga to‘liq aylanmay qolishi mumkin.

Innovatsion ishlanmalar milliy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishning ham asosiy manbalaridan biridir. An’anaviy ishlab chiqarish modeli ko‘proq xomashyo, energiya va arzon mehnat resurslariga tayansa, innovatsion iqtisodiyotda qiymat zanjiri ilmiy bilim, muhandislik yechimlari, dasturiy mahsulotlar, dizayn, patent va ma’lumotlarga asoslanadi. Bunda mahsulotning bozor qiymati uning moddiy tarkibidan ko‘ra, unda mujassam bo‘lgan intellektual komponent ulushi bilan belgilanadi. Jahon intellektual mulk tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda kelib chiqishi bo‘yicha patentlar soni 518 taga yetgan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish hajmi esa 2022-yilda 10, 54 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Shu bilan birga, 2023-yilda yuqori texnologiyali eksport hajmi 256, 24 mln AQSH dollariga yetib, bir yil ichida 160 foizdan ko‘proq o‘sgan. Bu ko‘rsatkichlar innovatsion ishlanmalarning real sektorda iqtisodiy natijaga aylanishi boshlanayotganini ko‘rsatsa-da, ularning milliy iqtisodiyot tarkibidagi ulushini sezilarli oshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Chunki yuqori qo‘shilgan qiymatning barqaror o‘sishi milliy daromad tarkibining murakkablashuvi va eksport salohiyatining sifat jihatdan yangilanishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan innovatsion ishlanmalar korxona, tarmoq va mamlakat darajasidagi ustunliklarni shakllantiradi. Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatning asosiy mezoni narxning arzonligi emas, balki texnologik yangilanish tezligi, mahsulot sifati, xizmat ko‘rsatish qulayligi va bozor ehtiyojlariga moslashish darajasidir. Shu sababli innovatsion rivojlanish milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi mavqeini belgilovchi omilga aylanadi. O‘zbekistonning 2025-yilda Global innovatsiya indeksida 139 iqtisodiyot ichida 79-o‘ringa ko‘tarilgani va bu uning eng yaxshi natijasi bo‘lgani innovatsion salohiyatning xalqaro maydonda ham e’tirof etilayotganidan dalolat beradi. Biroq innovatsion tizim samaradorligini faqat reytingdagi o‘rin bilan baholab bo‘lmaydi. Muhim jihat shundaki, innovatsion resurslar — ya’ni ta’lim, kadrlar, ilmiy salohiyat va institutsional baza — qanday darajada bozorbop mahsulot, eksportbop xizmat va real iqtisodiy samaraga aylanmoqda. Aynan shu nisbat milliy iqtisodiyotning haqiqiy raqobatbardoshligini belgilaydi.

Raqamli transformatsiya innovatsion ishlanmalarning iqtisodiy samaradorligini keskin kuchaytiruvchi muhit sifatida maydonga chiqmoqda. Raqamlashtirish sharoitida innovatsiya yaratish, uni sinovdan o‘tkazish, bozorga olib chiqish va kengaytirish xarajatlari kamayadi, ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi masofa qisqaradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya innovatsion ishlanmalarni nafaqat axborot texnologiyalari sektorida, balki sanoat, logistika, moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida ham ko‘paytiradi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2022-yilda 1, 9 foiz bo‘lib qolgan, biroq axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlar eksporti 2017-yildagi 600 ming AQSH dollaridan 2022-yilda 140 mln AQSH dollarigacha oshgan. Bu bir tomondan raqamli sektorning tez sur’atlarda o‘sayotganini, ikkinchi tomondan esa uning makroiqtisodiy tizimdagi ulushi hali cheklanganini ko‘rsatadi. Demak, raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish innovatsion ishlanmalarning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga tarqalishini tezlashtirish uchun zarur shartdir.

Innovatsion ishlanmalar samaradorligi ilmiy-texnik taraqqiyot va inson kapitali holati bilan uzviy bog‘liq. Innovatsion iqtisodiyotning tayanchi bo‘lgan ilmiy bilimlar, muhandislik salohiyati va tadqiqot infratuzilmasi yetarli bo‘lmasa, texnologik yangiliklar import qilinishi mumkin, ammo ularning mahalliylashtirilishi va takomillashtirilishi murakkablashadi. Mazkur sharoitda institutsional islohotlarning roli alohida kuchayadi. Innovatsion ishlanmalarning keng joriy etilishi uchun bozorda mulk huquqining himoyalanganligi, intellektual mulk institutlarining samaradorligi, investitsiya muhitining barqarorligi, raqobat muhitining ochiqligi hamda ilm-fan, ta’lim va biznes o‘rtasidagi kooperatsiya rivojlangan bo‘lishi lozim. Innovatsion rivojlanishning xalqaro tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnologik yangilanish faqat moliyaviy resurslar hisobiga emas, balki institutlarning sifati orqali jadallashadi. O‘zbekistonda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha davlat tashabbuslari aynan shu institutsional asosni mustahkamlashga qaratilgan. Jahon banki ham O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nafaqat infratuzilma va ko‘nikmalar, balki tegishli qonunchilik, strategiyalar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlar zarurligini alohida ta’kidlaydi. Demak, institutsional islohotlar innovatsion ishlanmalarning tarqalish tezligi va ularning iqtisodiy o‘sishga aylanish darajasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion ishlanmalarning milliy iqtisodiy o‘sishga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon sektoral va hududiy jihatdan bir xil kechmaydi. Ayrim tarmoqlarda innovatsiya bevosita texnologik yangilanish shaklida namoyon bo‘lsa, boshqalarida u tashkiliy, logistika yoki platformaviy yechimlar orqali samaradorlikni oshiradi. Shu sababli innovatsion siyosatning universallashgan emas, balki differensial modeli zarur: sanoatda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va avtomatlashtirish, xizmatlar sohasida raqamli platformalar va ma’lumotlar iqtisodiyoti, qishloq xo‘jaligida esa resurs tejovchi texnologiyalar va raqamli monitoring ustuvor bo‘lishi kerak. Bunday yondashuv innovatsion rivojlanishni iqtisodiyotning real tarkibiga moslashtiradi va innovatsion ishlanmalarning milliy iqtisodiy o‘sishga ta’sirini kuchaytiradi. Shu ma’noda, innovatsiya siyosatining samaradorligi alohida loyiha yoki startaplar soni bilan emas, balki mehnat unumdorligi, eksport murakkabligi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish hajmi va qo‘shilgan qiymat ulushidagi tizimli siljishlar bilan o‘lchanishi lozim. Shuningdek, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni faqat texnologik yangiliklar bilan cheklash yetarli emas. Zamonaviy iqtisodiyotda ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati innovatsiyaning yangi manbaiga aylangan. Jahon bankining 2025-yilgi raqamli taraqqiyot hisobotida sun’iy intellekt bilimlarga kirish imkoniyatini

kengaytirishi, unumdorlikni oshirishi, yangi bozorlar va ish o‘rinlarini yaratishi mumkinligi qayd etilgan. Biroq bu imkoniyatlardan foydalanish uchun mamlakatlarda ma’lumotlar boshqaruvi, institutsional tayyorgarlik, infratuzilma va inson kapitali yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi kerakligi ham urg‘ulanadi. Bu xulosa O‘zbekiston uchun ham nihoyatda muhimdir, chunki innovatsion ishlanmalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ularni yaratish bilangina emas, balki ularni boshqarish, himoya qilish, tijoratlashtirish va ommaviy joriy etish qobiliyati bilan belgilanadi.

Innovatsion ishlanmalar, umumiy tarzda, milliy iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida ko‘p qirrali iqtisodiy mazmunga ega. Ular mehnat unumdorligini oshiradi, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi, iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligini kuchaytiradi, ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini real sektorga olib kiradi, raqamli transformatsiyani jadallashtiradi va institutsional islohotlar samaradorligini iqtisodiy natijaga aylantiradi. Shu sababli innovatsion rivojlanish masalasi alohida texnologik siyosat doirasida emas, balki milliy iqtisodiy o‘sish strategiyasining markaziy komponenti sifatida qaralishi zarur. O‘zbekiston sharoitida bu, eng avvalo, ilmiy salohiyatni bozor natijasiga aylantirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, xususiy sektor innovatsiyalarini rag‘batlantirish va innovatsion institutlarning samaradorligini oshirish orqali ro‘yobga chiqarilishi mumkin. Aynan shunda innovatsion ishlanmalar iqtisodiy o‘sishning mavhum shiori emas, balki amaliy va barqaror drayveriga aylanadi.

Xulosa sifatida, innovatsion ishlanmalar milliy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda mehnat unumdorligini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois milliy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni chuqurlashtirish uchun ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini real sektorga kengroq joriy etish, oliy ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, raqamli infratuzilmani yanada takomillashtirish, yuqori texnologiyali tarmoqlar va startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Ayniqsa, innovatsion salohiyatni iqtisodiy natijaga aylantirishda intellektual mulk himoyasi, tijoratlashtirish mexanizmlari va malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, innovatsion ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga tizimli va samarali joriy etish O‘zbekistonda barqaror, raqobatbardosh va sifat jihatdan yangi iqtisodiy o‘sish modelini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.

2. Jahon intellektual mulk tashkiloti. Global Innovation Index 2025. Geneva: WIPO, 2025.

3. Jahon intellektual mulk tashkiloti. Uzbekistan Ranking in the Global Innovation Index 2025. Geneva: WIPO, 2025.

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v. v. b., Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
e-mail: sevarikabdullayeva@gmail. com;
Komilov Abrorbek Farxod o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 63–24 I guruh talabasi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA UNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalarning xizmat ko‘rsatish sohasi bilan bir qatorda xom ashyo, yarim tayyor va pirovard mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etilishi iqtisodiyotning yangi texnologik bosqichga o‘tishini jadallashtirmoqda. Bunday sharoitda axborot xavfsizligi, ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxatarlarning oldini olish va raqamli infratuzilma barqarorligini ta’minlash masalalari alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlashning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, uning milliy iqtisodiyot barqarorligi, investitsion jozibadorlik va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, samaradorlik, iqtisodiyot, innovatsiya

Kirish. Hozirgi globallashuv va jadal raqamli transformatsiya sharoitida raqamli iqtisodiyot jahon xo‘jaligining eng tez kengayayotgan segmentlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyot deganda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet infratuzilmasi, bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi. Mazkur modelda ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarining tobora ko‘proq qismi raqamli muhitga ko‘chib, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, vaqt tejamkorligini oshirish, bozor chegaralarini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishga xizmat qilmoqda. UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda 43 ta iqtisodiyotda bizneslar tomonidan amalga oshirilgan elektron savdo hajmi qariyb 25 trillion AQSH dollariga yetgan bo‘lib, 2022-yilda bu ko‘rsatkich deyarli 27 trillion dollarga ko‘tarilgani baholangan. Bu holat raqamli kanallar va platformalarning global iqtisodiy o‘sishdagi roli keskin ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotning kengayishi, ayniqsa, xizmatlar sohasida, moliyaviy operatsiyalarda, elektron tijoratda, sanoat boshqaruvida va davlat xizmatlari ko‘rsatishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Raqamli vositalar yordamida biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida ma’lumot almashish, masofaviy boshqaruv va raqamli monitoringni joriy etish ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib kelmoqda. Shu ma’noda, raqamli iqtisodiyot nafaqat yangi texnologik muhit, balki iqtisodiy o‘sishning yangi modeli sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Biroq iqtisodiy faoliyatning raqamli infratuzilmaga tayanishi kuchaygan sari, ushbu tizimlarning uzluksizligi, ishonchliligi va himoyalanganligini ta’minlash masalasi ham shunchalik muhim tus olmoqda. Jahon banki kiberbarqarorlikni iqtisodiy o‘sish va inklyuziv rivojlanishning zarur sharti sifatida baholaydi. Aynan shu nuqtada kiberxavfsizlik masalasi raqamli iqtisodiyotning tarkibiy va strategik elementi sifatida maydonga chiqadi.

Ma’lumotlar bazalari, to‘lov tizimlari, bank xizmatlari, logistika platformalari, davlat axborot resurslari va sanoat boshqaruv tizimlarining raqamlashtirilishi kiberxatarlar ko‘lamini ham kengaytirmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi baholashicha, kiberhodisalar oqibatidagi eng yirik yo‘qotishlar hajmi 2017-yildan buyon to‘rt martadan ko‘proq oshib, 2, 5 milliard AQSH dollariga yetgan; moliya sektori esa barcha kiberhujumlarning deyarli beshdan bir qismi bilan eng ko‘p nishonga olinayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda respondentlarning 72 foizi so‘nggi bir yil ichida kiberxatarlar kuchayganini bildirgan, yirik tashkilotlarning 54 foizi esa uchinchi tomon risklarini boshqarishni asosiy muammo sifatida qayd etgan[56]. Demak, kiberxavfsizlikka oid xatarlar endilikda alohida texnik nosozlik emas, balki investitsion muhit, moliyaviy barqarorlik, korporativ ishonch va milliy iqtisodiy xavfsizlikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omilga aylanmoqda.

Kiberxavfsizlikning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarbdir. Jahon bankining maxsus tadqiqotida qayd etilishicha, agar rivojlanayotgan mamlakat yirik oshkor qilingan kiberhodisalar sonini taqsimotning yuqori kvartilidan quyi kvartiliga tushira olsa, aholi jon boshiga YaIM hajmi taxminan 1, 5 foizga oshishi mumkin. Tadqiqotda, shuningdek, ayrim yirik kiberhodisalar nishonga olingan mamlakat YaIMining 2, 4 foizigacha zarar yetkazishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu esa kiberxavfsizlikni xarajat talab qiluvchi yordamchi soha emas, balki iqtisodiy samaradorlikni, investitsion ishonchni va raqamli bozorlarning barqaror ishlashini ta’minlovchi strategik institut sifatida talqin qilish lozimligini anglatadi.

O‘zbekiston sharoitida ham mazkur masala alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatda raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi izchil kengayib bormoqda: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yil yanvar–iyun oylarida AKT xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi 2, 4 foizni tashkil etgan[57]. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik sohasini mustahkamlash maqsadida 2024-yilda kiberxavfsizlik bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu raqamlashtirishning chuqurlashuvi bilan bir qatorda, uni himoyalashning institutsional va huquqiy mexanizmlarini kuchaytirish zarurati ham ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlash va uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega

[56] https://www.imf.org/en/blogs/articles/2024/04/09/rising-cyber-threats-pose-serious-concerns-for-financial-stability

[57] https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/56224-akt-xizmatlarining-yalpi-ichki-mahsulotdagi-ulushi-qanchaga-ortgan-24

Asosiy qism. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kiberxavfsizlikning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, avvalo, iqtisodiy tizimning uzluksiz va barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. Chunki raqamli muhitda amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar, elektron tijorat, raqamli logistika, masofaviy xizmatlar hamda platformaviy biznes modellarining samaradorligi axborot tizimlarining ishonchlilik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Agar mazkur tizimlarda xavfsizlik darajasi past bo‘lsa, bu nafaqat alohida xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga, balki tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarning izchilligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois kiberxavfsizlik iqtisodiy o‘sishning yordamchi emas, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi muhim institutsional omillardan biri sifatida maydonga chiqadi.

Kiberxavfsizlikning iqtisodiy ahamiyati uning investitsion muhitga ta’sirida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Raqamli infratuzilmasi himoyalangan, ma’lumotlar xavfsizligi ta’minlangan va kiberxatarlarga tezkor javob berish mexanizmlariga ega bo‘lgan iqtisodiyot investorlar uchun nisbatan jozibador hisoblanadi. Aksincha, kiberhujumlar xavfi yuqori bo‘lgan muhitda biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarga sarmoya kiritish istagi pasayadi, chunki potentsial daromad bilan bir qatorda, yuqori xavf va qo‘shimcha xarajatlar ham yuzaga keladi. Demak, kiberxavfsizlikni ta’minlash investitsiya faoliyatining kengayishiga, tadbirkorlik tashabbuslarining ortishiga va pirovard natijada iqtisodiy o‘sish sur’atlarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Mazkur jarayonning yana bir muhim jihati shundaki, kiberxavfsizlik raqamli ishonchni shakllantiradi. Raqamli iqtisodiyotda iste’molchi, ishlab chiqaruvchi, vositachi va davlat o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p jihatdan elektron platformalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu munosabatlarning barqarorligi esa foydalanuvchilarning raqamli xizmatlarga bo‘lgan ishonchiga bog‘liq. Agar foydalanuvchi o‘zining shaxsiy ma’lumotlari, moliyaviy resurslari yoki tijorat axboroti himoyalanganiga ishonch hosil qilsa, u raqamli xizmatlardan faolroq foydalanadi. Natijada elektron savdo hajmi ortadi, onlayn to‘lovlar kengayadi, raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi kuchayadi. Bu esa iqtisodiy faollikni rag‘batlantirib, yangi bozor segmentlarining shakllanishiga zamin yaratadi.

Kiberxavfsizlik innovatsion rivojlanish uchun ham muhim shart hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonida korxonalar sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar, “aqlli” boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan platformalarni joriy etishga intiladi. Biroq ushbu texnologiyalarning samarali ishlashi faqat tegishli xavfsizlik choralari bilan qo‘llab-quvvatlangandagina mumkin bo‘ladi. Agar korxonalar kiberxatarlardan yetarlicha himoyalanmagan bo‘lsa, ular innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ehtiyotkorlik bilan harakat qiladi yoki bu jarayonni sekinlashtiradi.

Demak, kiberxavfsizlik innovatsion faoliyatni jadallashtiruvchi va texnologik modernizatsiyani rag‘batlantiruvchi omil sifatida ham qaralishi lozim. Bundan tashqari, kiberxavfsizlikning yetarli darajada ta’minlanmaganligi iqtisodiyotda bevosita va bilvosita yo‘qotishlarni keltirib chiqaradi. Bevosita yo‘qotishlar qatoriga moliyaviy mablag‘larning talon-toroj qilinishi, operatsion tizimlarning to‘xtab qolishi, ma’lumotlar bazalarining buzilishi va ularni tiklash xarajatlari kiradi. Bilvosita yo‘qotishlar esa korxona obro‘sining pasayishi,

mijozlar ishonchining susayishi, bozor ulushining qisqarishi va kelgusidagi daromad imkoniyatlarining kamayishida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda kiberxavfsizlikka yo‘naltirilgan xarajatlarni qo‘shimcha yuk sifatida emas, balki iqtisodiy xavflarni kamaytiruvchi va uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlovchi investitsiya sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Raqamli iqtisodiyotda ayniqsa bank-moliya tizimi, elektron hukumat, transport-logistika, sanoat ishlab chiqarishi va savdo platformalari kiberxavfsizlikka yuqori darajada ehtiyoj sezadi. Chunki mazkur sohalar katta hajmdagi ma’lumotlar almashinuvi, tezkor tranzaksiyalar va uzluksiz raqamli boshqaruv jarayonlariga tayanadi. Ushbu tarmoqlarda sodir bo‘ladigan kiberhodisalar butun iqtisodiy zanjirga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, to‘lov tizimidagi uzilish savdo amaliyotlariga ta’sir etsa, logistika tizimidagi nosozlik ta’minot zanjirini izdan chiqaradi, sanoat boshqaruv tizimidagi kiberhujum esa ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli kiberxavfsizlik masalasi endilikda alohida tashkilot yoki soha doirasidagi vazifa bo‘lib qolmay, balki milliy iqtisodiy xavfsizlikning muhim elementi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda raqamli xizmatlar ko‘lamining kengayishi, davlat boshqaruvining raqamlashtirilishi, bank-moliya operatsiyalarining elektron shaklga o‘tishi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining ortishi ushbu yo‘nalishda yangi talablarni yuzaga chiqarmoqda. Endilikda asosiy vazifa faqat raqamli infratuzilmani kengaytirish emas, balki uning xavfsizligini, ishonchliligini va uzluksiz ishlashini ta’minlashdan iboratdir. Bu esa huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish, kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy himoya vositalarini joriy etish hamda xalqaro tajribadan samarali foydalanishni talab etadi. Shularga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida kiberxavfsizlikni ta’minlash va uning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun quyidagi bir qator ustuvor chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish – shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash, kiberhodisalar uchun javobgarlik choralarini aniq belgilash va xalqaro standartlarga mos me’yorlarni joriy etish zarur;

- davlat va xususiy sektorda zamonaviy himoya tizimlarini keng joriy etish – bank-moliya muassasalari, davlat organlari, sanoat korxonalari va raqamli platformalarda doimiy monitoring, tahdidlarni erta aniqlash va ularga tezkor javob qaytarish mexanizmlarini kuchaytirish lozim;

- kiberxavfsizlik bo‘yicha audit va risklarni baholash tizimini rivojlantirish – axborot tizimlarining zaif jihatlarini muntazam aniqlab borish, ularni oldindan baholash va profilaktik choralarni qo‘llash iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi;

- malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish – oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish markazlari va amaliy treninglar orqali kiberxavfsizlik bo‘yicha zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash zarur;

- aholi va tadbirkorlik subyektlarida raqamli xavfsizlik madaniyatini oshirish – foydalanuvchilarning axborot xavfsizligi bo‘yicha savodxonligini oshirish, firibgarlik va kiberxatarlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi;

- xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilg‘or tajribani o‘zlashtirish – kiberxavfsizlik sohasida rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda zamonaviy texnologik yechimlarni milliy amaliyotga moslashtirish maqsadga muvofiqdir;

- milliy raqamli infratuzilmaning barqarorligini mustahkamlash – serverlar, ma’lumotlar markazlari, bulutli platformalar va raqamli aloqa tizimlarining uzluksiz, himoyalangan va ishonchli ishlashini ta’minlash zarur.

Xulosa sifatida, raqamli iqtisodiyot sharoitida kiberxavfsizlik nafaqat texnik zarurat, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik omiliga aylanib bormoqda. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy jarayonlarning aksariyati raqamli platformalarga ko‘chayotgan bir paytda, ma’lumotlar va tizimlarning himoyasi ta’minlanmasa, bu butun iqtisodiy tizimning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Kiberxavfsizliksiz raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlana olmaydi, chunki xavfsizliksiz muhitda foydalanuvchining ishonchi shakllanmaydi, na investorlar faol qatnashadi, na innovatsiyalar to‘liq rivojlanadi. Har qanday kiberhujum nafaqat alohida tashkilotga, balki butun iqtisodiyotga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli kiberxavfsizlikni ta’minlash iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashning ajralmas sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024–yil 20–sentyabrdagi “Kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”O‘RQ-964-sonli Qonuni

2. Синица, С. А. Киберугрозы цифровой экономики России // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2023. – № 11-3 (105). – С. 65–70.

3. Решетникова, М. С., Пугачева, И. А., Попов, В. В. Киберугрозы: фактор неопределенности цифровой экономики // Креативная экономика. – 2022. – Том 16. – № 11. – С. 4113–4130.

4. Удалов, Д. В. Угрозы и вызовы цифровой экономики // Экономическая безопасность и качество. – 2018. – № 1(30). – С. 12–18.

5. Хитровская, А. С. Обеспечение кибербезопасности в условиях цифровой экономики // Цифровая экономика глазами студентов: материалы Международной научной конференции. – Казань, 2023. – С. 460–463.

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v. v. b., Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
e-mail: sevarikabdullayeva@gmail. com;
Numonov Muxammad Muso O‘ktamjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti, 660–24 I guruh talabasi,

IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash jamiyat farovonligi va mamlakatning xalqaro maydondagi o‘rnini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish jarayonida sun’iy intellekt iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Mazkur maqolada iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda sun’iy intellektdan samarali foydalanishning nazariy asoslari, uning iqtisodiyotga ta’siri hamda amaliy qo‘llash yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, sun’iy intellekt, innovatsiya, samaradorlik, iqtisodiyot, texnologiyalar, fan-texnika taraqqiyoti.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy jarayonlar uchun sun’iy intellekt ular faoliyatining rivojlanishini ta’minlovchi hamda sohalarning bozordagi raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim drayver hisoblanadi. Texnologik inqiloblar – elektr energiyasi, yonilg‘i dvigatellari, kompyuterlar va avtomatlashtirish tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan bo‘lsa, sun’iy intellekt ushbu jarayonni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. U nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki iqtisodiy tizimlarning sifat jihatdan transformatsiyasini ham ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish jarayonlarining raqamlashtirilishi va optimallashtirilishi natijasida korxonalar bozor talabini aniq prognoz qilish, xarajatlarni minimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish orqali iste’molchilar xulq-atvorini chuqur o‘rganish, individual yondashuv asosida mahsulot va xizmatlarni taklif etish hamda marketing strategiyalarini takomillashtirish mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish darajasini keskin oshirib, inson omiliga bog‘liqlikni kamaytiradi. Bu esa mehnat unumdorligini oshirish, xatoliklarni kamaytirish va mahsulot sifatini barqaror darajada ushlab turish imkonini beradi. Xizmat ko‘rsatish sohasida esa sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar (chatbotlar, virtual yordamchilar, tavsiya tizimlari) mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligi va sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt yangi iqtisodiy segmentlar va biznes modellarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Platforma

iqtisodiyoti, raqamli ekotizimlar, masofaviy xizmatlar va “aqlli” ishlab chiqarish tizimlari aynan ushbu texnologiya asosida rivojlanmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotlarning global raqobat muhitida o‘z o‘rnini mustahkamlashiga yordam beradi.

Asosiy qism. Zamonaviy global iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish omillari tarkibi tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy ravishda iqtisodiy o‘sish yer, mehnat va kapital kabi ishlab chiqarish omillariga tayanib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bilim, innovatsiya va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt (SI) iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda strategik resurs sifatida shakllanib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda yangi qiymat yaratish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, birinchidan, sun’iy intellekt ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishning intensiv modeliga o‘tishni ta’minlaydi. Klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, ishlab chiqarish hajmining oshishi omillar miqdorining ko‘payishi yoki ularning unumdorligining ortishi hisobiga yuz beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalari aynan ikkinchi yo‘nalishda – ya’ni mehnat va kapital unumdorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlariga sun’iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish natijasida texnologik operatsiyalar tezligi ortadi, xatoliklar kamayadi va mahsulot sifati barqarorlashadi. Bu esa ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga va korxonalarning raqobatbardoshligining oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashni talab qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari (mashinali o‘rganish, neyron tarmoqlar) yordamida ushbu ma’lumotlarni tezkor va chuqur tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada korxonalar bozor kon’yunkturasini aniq prognoz qilish, talab va taklifdagi o‘zgarishlarga tez moslashish hamda risklarni minimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon mikroiqtisodiy darajada firmalarning foyda maksimalizatsiyasiga, makroiqtisodiy darajada esa resurslar taqsimotining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi va yangi iqtisodiy sektorlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri hisoblanadi va sun’iy intellekt esa ushbu jarayonni jadallashtiradi. Masalan, sog‘liqni saqlashda diagnostika tizimlari, moliya sektorida fintex yechimlari, qishloq xo‘jaligida “aqlli” agrotexnologiyalar aynan sun’iy intellekt asosida rivojlanmoqda. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hamda iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt xizmatlar sektorining rivojlanishida muhim omil bo‘lib, iqtisodiyotning strukturaviy o‘zgarishlariga ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlar sohasida sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar (chatbotlar, tavsiya tizimlari, avtomatlashtirilgan mijozlarga xizmat ko‘rsatish platformalari) xizmat ko‘rsatish sifati va tezligini oshiradi. Bu esa iste’molchilar qoniqish darajasini oshirib,

talabning kengayishiga olib keladi. Natijada xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib, iqtisodiy o‘sishning yangi manbalari shakllanadi.

Beshinchidan, sun’iy intellekt global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotlarning ustunliklarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat faqat resurslarga emas, balki texnologik ustunlikka asoslanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etgan davlatlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda yuqori samaradorlikka erishib, xalqaro bozorlarda o‘z mavqeini mustahkamlaydi. Shunga ko‘ra ko‘plab davlatlar sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiyalar ishlab chiqib, uni iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlariga joriy etishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekistonda ham sun’iy intellektni iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlariga joriy etish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlandi. Mazkur hujjatda sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 2030-yilga borib 1, 5 milliard AQSH dollariga yetkazish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda 2024–2026-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish belgilangan[58]. Strategiyada qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, geologiya-energetika, transport va boshqa tarmoqlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini keng qo‘llash vazifalari alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Jumladan, qishloq xo‘jaligida yerni masofadan zondlash, ekinlar holatini monitoring qilish va hosildorlikni oshirishga xizmat qiluvchi SI yechimlarini joriy etish, energetikada esa energiya resurslarini ishlab chiqarish va iste’molini prognozlash hamda obyektlarni samarali boshqarish vazifalari belgilangan. Bundan tashqari, ushbu strategiyani moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2025-yil 1-yanvardan boshlab Raqamli texnologiyalar vazirligiga 50 million AQSH dollari miqdorida foizsiz kredit ajratilishi nazarda tutilgan. 2025-yilda esa strategiya ijrosini davom ettirish maqsadida “Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi” tashkil etilib, 2025–2026-yillarda ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha alohida hukumat qarori қабул qilindi. Bu holat O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish endilikda faqat nazariy yo‘nalish emas, balki aniq institutsional va investitsion mexanizmlar bilan ta’minlanayotgan ustuvor rivojlanish yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi. Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga keng ko‘lamda tatbiq etilishi nafaqat yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi, balki bir qator murakkab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan:

- mehnat bozorida strukturaviy o‘zgarishlarning yuzaga kelishi – ayrim kasblarga bo‘lgan talabning qisqarishi ishchi kuchini qayta tayyorlash, zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda malaka oshirish tizimini takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi;

- ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari – sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish jarayonida ma’lumotlarni himoya qilish, ulardan

[58] https://lex.uz/docs/-7158604

foydalanish tartibini belgilash hamda huquqiy-me’yoriy bazani yanada mustahkamlashni talab etadi;

- **texnologik tafovut muammosi** – rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi raqamli nomutanosiblikning yanada chuqurlashishiga va texnologik rivojlanish darajasidagi farqlarning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin;

- **qaror qabul qilish jarayonining “qora quti”ga aylanishi** – ayrim sun’iy intellekt tizimlari qanday xulosa chiqarganini aniq izohlash qiyin bo‘lgani sababli, ularning natijalariga nisbatan ishonch va nazorat masalasi dolzarb bo‘ladi;

- **yuqori moliyaviy xarajatlar** – sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish, infratuzilma yaratish va malakali mutaxassislarni tayyorlash katta investitsiyalarni talab etadi;

- **malakali kadrlar yetishmovchiligi** – sun’iy intellekt bilan ishlay oladigan dasturchilar, tahlilchilar, muhandislar va soha mutaxassislarining kamligi texnologiyalarni samarali joriy etishni cheklaydi;

- **texnologiyaga haddan tashqari qaramlik** – iqtisodiy subyektlarning sun’iy intellekt tizimlariga ortiqcha tayanishi inson nazoratining susayishiga, xatoliklar yuz berganda esa salbiy oqibatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin;

- **kiberxavfsizlik tahdidlari** – sun’iy intellekt tizimlariga tashqi aralashuv, ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki manipulyatsiya qilish xavfi iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid tug‘diradi;

- **institutsional va huquqiy tartibga solishning yetarli emasligi** – sun’iy intellektni qo‘llash chegaralari, javobgarlik masalasi, intellektual mulk va ma’lumotlardan foydalanish tartibi bo‘yicha me’yorlarning yetarlicha shakllanmaganligi muammolarni kuchaytiradi;

- **hududlar va tarmoqlar o‘rtasida notekis joriy etilish** – ayrim tarmoqlar va hududlar sun’iy intellektdan tez foydalana boshlasa, boshqalari ortda qolib ketishi mumkin, bu esa iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim strategik omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. U ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini optimallashtirish, resurslardan foydalanish unumdorligini kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash orqali iqtisodiy taraqqiyotning yangi sifat bosqichini shakllantiradi. Shu bilan birga, sun’iy intellektni iqtisodiyotga keng ko‘lamda joriy etish mehnat bozori transformatsiyasi, ma’lumotlar xavfsizligi, texnologik tafovut, kadrlar yetishmovchiligi hamda huquqiy-institutsional tartibga solish bilan bog‘liq qator murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, eng avvalo, sun’iy intellektni rivojlantirish va undan foydalanishni tartibga soluvchi mustahkam huquqiy-me’yoriy bazani shakllantirish zarur. Bunda ma’lumotlar xavfsizligi, maxfiylikni himoya qilish, algoritmik shaffoflik, javobgarlik va etik me’yorlar aniq belgilanishi lozim. Shu bilan birga, mehnat bozorida yuz berayotgan strukturaviy o‘zgarishlarni yumshatish maqsadida aholini qayta tayyorlash, zamonaviy raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish va uzluksiz malaka oshirish tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va biznes subyektlari o‘rtasidagi

hamkorlikni kengaytirish orqali sun’iy intellekt bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Bundan tashqari, sun’iy intellektdan oqilona va samarali foydalanish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, sifatli ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda ushbu texnologiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga bosqichma-bosqich joriy etish lozim. Xususan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, sog‘liqni saqlash, bank-moliya va davlat boshqaruvi kabi sohalarda sun’iy intellekt yechimlaridan foydalanish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki iqtisodiy resurslardan foydalanish sifatini ham yaxshilaydi. Shu jihatdan, sun’iy intellektni joriy etishda faqat texnologik natijaga emas, balki uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga ham kompleks yondashuv zarur.

Shunday ekan, sun’iy intellektdan foydalanish masalasi faqat texnik yangilik sifatida emas, balki milliy iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Uni chuqur ilmiy asosda o‘rganish, ilg‘or xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish va samarali institutsional mexanizmlarni yaratish orqali sun’iy intellektning iqtisodiy taraqqiyotdagi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 – yil 14 – oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 – yil 10 – iyuldagi “2025–2026-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ustuvor loyihalar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 425-son Qarori.

3. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company, 2014.

4. Agrawal, A., Gans, J., Goldfarb, A. Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence. Boston: Harvard Business Review Press, 2018.

Abdisamatov Elmurodjon Dilmurodovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Kimyo muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: aelmurodjon@gmail. com

ANALITIK KIMYO FANINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada analitik kimyo fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini boshqarish masalalari tahlil qilindi. Sun’iy intellekt asosida talabalar bilimini baholash, o‘quv jarayonini monitoring qilish hamda individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan

foydalanish analitik kimyo fanini o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: analitik kimyo, sun’iy intellekt, ta’lim sifati, learning analytics, raqamli ta’lim, baholash, monitoring, ta’limni boshqarish, oliy ta’lim

Kirish. Bugungi kunda analitik kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va ta’lim sifatini boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1].

Analitik kimyo fani murakkab hisob-kitoblar, laboratoriya ishlari hamda analitik tahlillarni o‘z ichiga olganligi sababli talabalar bilimini baholash va monitoring qilish muhim hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ushbu jarayonni avtomatlashtirish hamda ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi [2].

Jahon amaliyotida sun’iy intellekt texnologiyalaridan analitik kimyo fanini o‘qitishda keng foydalanilmoqda. Masalan, virtual laboratoriyalar, avtomatik baholash tizimlari hamda learning analytics texnologiyalari ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini bermoqda [3].

Sun’iy intellekt asosida analitik kimyo fanini o‘qitish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Talabalar bilimini avtomatik baholash
- Laboratoriya ishlarini virtual muhitda bajarish
- Individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirish
- Ta’lim jarayonini monitoring qilish
- Ta’lim natijalarini prognozlash

Mazkur tadqiqotning maqsadi analitik kimyo fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini o‘rganishdan iborat.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqot analitik kimyo fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini boshqarish samaradorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotda pedagogik tajriba, kuzatuv, taqqoslash, statistik tahlil, learning analytics hamda so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi [4].

Tadqiqot texnika oliy ta’lim muassasasida olib borildi va unda 80 nafar talaba ishtirok etdi. Talabalar ikki guruhga ajratildi:

- Nazorat guruhi — 40 nafar talaba (an’anaviy ta’lim)
- Tajriba guruhi — 40 nafar talaba (sun’iy intellekt asosida ta’lim)

Tajriba guruhida analitik kimyo fanini o‘qitishda quyidagi sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanildi:

- Virtual laboratoriya tizimlari (Labster, ChemCollective)
- Sun’iy intellekt asosidagi test tizimi
- Learning analytics platformalari
- Raqamli monitoring tizimi
- Avtomatik baholash tizimi

Tadqiqot bir semestr davomida olib borildi. Tadqiqot davomida talabalar o‘zlashtirish darajasi, laboratoriya ishlari bajarilishi, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari hamda faolligi monitoring qilindi [5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan analitik kimyo ta’lim jarayonida talabalar o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi.

1-jadval

Analitik kimyo fanida ta’lim samaradorligi natijalari

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
O‘zlashtirish darajasi	69	86
Laboratoriya ko‘nikmasi	63	84
Mustaqil ta’lim ko‘nikmasi	60	82
Talabalar faolligi	65	88

Natijalarga ko‘ra, tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatildi. Ayniqsa, laboratoriya ko‘nikmalarining rivojlanishi yuqori darajada bo‘ldi. Virtual laboratoriya texnologiyalari talabalar bilimini mustahkamlashga xizmat qildi [6].

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish analitik kimyo fanini o‘qitishda quyidagi afzalliklarni yaratdi:

- Murakkab analitik hisob-kitoblarni avtomatlashtirish
- Laboratoriya jarayonlarini virtual muhitda bajarish
- Talabalar bilimini real vaqt rejimida baholash
- Individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar murakkab analitik masalalarni tezroq o‘zlashtirdi. Shuningdek, talabalar laboratoriya ishlari bajarilishida faolroq ishtirok etdi [7].

Sun’iy intellekt asosidagi learning analytics texnologiyalari o‘qituvchiga talabalar bilim darajasini aniqlash va ta’lim jarayonini boshqarish imkonini berdi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qildi [8].

Ta’lim samaradorligi o‘sishi:

- O‘zlashtirish darajasi — 17% ga oshdi
- Laboratoriya ko‘nikmasi — 21% ga oshdi
- Mustaqil ta’lim — 22% ga oshdi
- Talabalar faolligi — 23% ga oshdi

Natijalar sun’iy intellekt asosida analitik kimyo fanini o‘qitish samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari analitik kimyo fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini boshqarishning samarali vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalar bilim darajasi, laboratoriya ko‘nikmalari hamda mustaqil ta’lim faoliyati sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, virtual laboratoriya texnologiyalaridan foydalanish analitik kimyo fanini o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etdi. Talabalar murakkab analitik jarayonlarni virtual muhitda o‘rganish orqali laboratoriya

tajribalarini chuqurroq o‘zlashtirdi. Bu esa analitik kimyo fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Sun’iy intellekt asosida learning analytics texnologiyalaridan foydalanish talabalar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini berdi. Bu esa o‘qituvchiga talabalar bilim darajasini aniqlash, individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish hamda ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkonini yaratdi.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida avtomatik baholash tizimlari talabalar bilimini obyektiv baholash imkonini berdi. Bu esa ta’lim sifatini boshqarishda muhim omil hisoblanadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish analitik kimyo fanini o‘qitishda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida analitik kimyo fanini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish ta’lim sifatini oshirish, raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish hamda ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

7. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
8. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press, 2018.
9. Zawacki-Richter O., Marín V., Bond M., Gouverneur F. Systematic Review of Artificial Intelligence Applications in Higher Education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 2019.
10. Siemens G., Long P. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. EDUCAUSE Review, 2018.
11. Baker R., Inventado P. Educational Data Mining and Learning Analytics. Springer, 2014.

Sadullayeva Bahora Ahmadovna
Leading expert of the Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage,
e-mail: bahorasadullayeva96@gmail. com

THE IMPACT AND EFFECTIVENESS OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE MANAGEMENT SYSTEM

Annotation. The rapid development of digital technologies has significantly influenced economic processes and management systems worldwide. The digital economy, characterized by the widespread use of information technologies, digital platforms, and data-driven decision-making, plays an important role in improving management efficiency. This article analyzes the impact of the digital economy on management systems and evaluates its effectiveness in organizational development.

Keywords: digital economy, digital transformation, management systems, artificial intelligence, organizational efficiency.

Digital economy is based on electronic goods and services produced by an electronic business and traded through electronic commerce, a business with electronic production and management processes and that interacts with its partners and customers and conducts transactions through Internet and Web technologies. With growing population and resource mobilization, digital economy is not limited to business trading and services effecting on every aspect of life from health to education and from business to banking [1]. The study examines the role of modern technologies such as big data, artificial intelligence, cloud computing, and automation in improving management processes. The findings show that the effective implementation of digital technologies can enhance productivity, optimize resource management, and strengthen organizational competitiveness [2, 3].

Modern organizations increasingly rely on digital technologies to improve management processes and organizational performance. The integration of digital tools allows managers to make faster and more accurate decisions, improve communication within organizations, and increase productivity. As a result, digital transformation has become an essential element of effective management in the modern business environment. The growth and advancement of digital or electronic technology at present, which allows us to move information or goods quickly is a fundamental trend in the development of all economic sectors.

In the age of the digital economy, business opportunities for small and medium size enterprises as well as local industries will increase dramatically through the effective application of information technology, and in this way it will

enable the economic frontier to expand. For this reason, an environment should be created in which all businesses and individuals will be able to have equal access to the digital economy.

Many scholars have studied the relationship between the digital economy and management efficiency. According to researchers, digital technologies significantly influence productivity growth and organizational performance. Their research highlights the role of digital tools in transforming business operations and management practices. They emphasize that the digital economy creates new opportunities for innovation and strategic management. The use of digital platforms and big data analytics allows organizations to better understand market trends and consumer behavior. Other researchers also note that digital transformation supports flexible organizational structures and improves decision-making processes by providing access to real-time data.

Today export incomes generated by international tourism ranks fourth after fuels, chemicals and automotive products. For many developing countries, it is one of the main income sources and the number one export category, creating much needed employment and opportunities for development.

Digital economy sectors:

- Fintech

- E-commerce
- Healthtech
- Transportation
- Food delivery
- Business-to-business e-logistics




Figure 1. Impact of Digital Technologies on Management Efficiency

Data from international economic reports and research studies are analyzed to evaluate the role of digital technologies in improving management performance.

1. Digital Technologies in Management Systems

The digital economy introduces various technologies that enhance management systems.

2. Big Data Analytics

Big data technologies allow organizations to collect and analyze large volumes of information. This enables managers to make data-driven decisions and identify new business opportunities.

3. Artificial Intelligence

Artificial intelligence helps automate routine management tasks, improve forecasting, and support strategic decision-making. AI systems can analyze complex datasets and provide accurate insights for managers.

4. Cloud Computing

Cloud computing provides organizations with flexible access to digital resources and data storage. It reduces operational costs and enables remote management of business processes.

5. Automation Technologies

Automation improves efficiency by reducing human errors and speeding up operational processes.

6. Digital Platforms

Digital platforms facilitate communication between organizations, employees, and customers, improving collaboration and information exchange. The future of management systems will be increasingly connected with digital technologies. Artificial intelligence, machine learning and advanced analytics will play an even more important role in decision-making processes. Organizations that successfully integrate these technologies will be able to adapt quickly to economic changes and maintain competitive advantages. Digital transformation will also encourage the development of smart organizations where data and technology support all levels of management.

In conclusion, the digital economy has fundamentally transformed modern management systems by introducing advanced technologies that improve organizational efficiency and decision-making processes. Digital technologies provide organizations with powerful tools for improving efficiency, productivity, and strategic decision-making. The integration of technologies such as artificial intelligence, big data, and cloud computing enables organizations to optimize their operations and strengthen competitiveness. The effective use of digital tools such as artificial intelligence, big data, and cloud computing enables organizations to optimize management practices and achieve sustainable development. Therefore, businesses and institutions should prioritize digital transformation strategies and invest in technological infrastructure to remain competitive in the modern digital economy.

References:

1. Yusupov, R. Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot. -Toshkent: Fan, 2020.

2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Raqamli iqtisodiyot va elektron biznes. O‘quv qo‘llanma, -Toshkent, 2021.

3. World Bank Digital Development Report. (2022).

Usmanova Guljahon Ulug‘bek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
e-mail: Solijonova@list. ru

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI MOLIYAVIY RISKLARINI REAL VAQT REJIMIDA BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy risklarini real vaqt rejimida boshqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Sun’iy intellekt, Big Data analitikasi, IoT sensori ma’lumotlari va bulutli hisoblash texnologiyalarining integratsiyasiga asoslangan real vaqt risk-monitoring tizimining konseptual modeli taklif etilgan. O‘zbekiston sanoat

korxonalari misolida mavjud muammolar tahlil qilinib, xalqaro ilg‘or amaliyot asosida tizimli yechimlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, moliyaviy risklar, real vaqt monitoringi, sun’iy intellekt, Big Data, ERP, IoT, sanoat korxonasi, risk-boshqaruv.

Kirish. To‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4. 0) fonida dunyo sanoat korxonalari moliyaviy boshqaruv paradigmasi tubdan o‘zgarmoqda. An’anaviy, retroaktiv ya’ni muammo yuzaga kelgandan keyin choralar ko‘ruvchi risk boshqaruv yondashuvlari o‘rnini, proaktiv real vaqt rejimida ishlaydigan tizimlar egallab bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, zamonaviy sanoat korxonalarida moliyaviy risklar millisekundlar ichida yuzaga kelib, katta iqtisodiy zararga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni doirasida sanoat korxonalarini raqamlashtirish jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Biroq, raqamli infratuzilmani yaratish bilan bir qatorda moliyaviy risklar boshqaruvini real vaqt rejimiga o‘tkazish masalasi hali ham yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Ayniqsa, kichik va o‘rta sanoat korxonalari uchun arzon va samarali real vaqt risk-monitoring tizimlari yaratish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston sanoat korxonalari sharoitiga moslashtirilgan, sun’iy intellekt va IoT texnologiyalarini integratsiyalagan real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimining konseptual modeli ishlab chiqish va uning amaliy tatbiq mexanizmlari asoslab berish maqolaning tadqiqot oldiga qo‘yilgan dolzarb masaladir. [1]

Asosiy qism. O‘zbekiston sanoat korxonalarining 2023 yilgi monitoringi natijalariga ko‘ra, yirik korxonalarning atigi 34 foizi ERP tizimiga ega bo‘lsa, o‘rta korxonalarda bu ko‘rsatkich 12 foiz, kichik korxonalarda esa 4 foizni tashkil etadi. Ko‘pchilik korxonalarda moliyaviy ma’lumotlar hali ham Excel jadvallarida, ba’zan esa qog‘oz hujjatlarda saqlanadi. Bu holat real vaqt risk-monitoring tizimini joriy etishning eng asosiy to‘sig‘i hisoblanadi. Bundan tashqari, mavjud ERP tizimlari ham ko‘pincha bir-biri bilan integratsiyalashmagan holda ishlaydi, ya’niy moliya bo‘limi, ishlab chiqarish bo‘limi va ta’minot zanjiri boshqaruvi alohida dasturiy muhitlarda ishlashi natijasida yaxlit risk manzarasi shakllanmaydi.

Tadqiqotimiz doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston sanoat korxonalari moliyaviy ma’lumotlarining o‘rtacha 28 foizi noto‘liq yoki xatoliklar bilan kiritilgan. Ushbu muammo bir necha sababdan kelib chiqadi. Xodimlarning malakasizligi, qo‘lda ma’lumot kiritish jarayonining zaifligi va nazorat tizimlarining yo‘qligi shular jumlasidandir.

Ma’lumotlar sifatining pastligi nafaqat risk-monitoring tizimining aniqligini pasaytiradi, balki “chiqindi kiradi — chiqindi chiqadi” (garbage in — garbage out) tamoyiliga muvofiq, noto‘g‘ri boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga olib keladi. Real vaqt risk-boshqaruv tizimlarini samarali qo‘llash uchun zamonaviy moliya texnologiyalari (FinTech) sohasida bilimga ega kadrlar zarur. Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ushbu yo‘nalishdagi kadrlar tayyorlash tizimi hali shakllanish bosqichida. Natijada, raqamli risk-boshqaruv

tizimlarini joriy qilgan korxonalar tez-tez chet el mutaxassislariga murojaat qilishga majbur bo‘lmoqda, bu esa xarajatlarni sezilarli darajada oshiradi. Moliyaviy ma’lumotlarning raqamli tizimga o‘tishi yangi bir risk turini — kiberxavfsizlik riskini — yuzaga keltiradi. O‘zbekiston Kiberxavfsizlik markazi ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda mamlakat korxonalariga qarshi kiberxujumlar soni oldingi yilga nisbatan 67 foizga oshgan, ularning 43 foizi moliyaviy ma’lumotlarni nishon qilgan. Real vaqt tizimlarida ma’lumotlar uzluksiz oqimda bo‘lganligi sababli ularning zaiflanish ehtimoli yanada yuqori. [2]

Taklif etilayotgan **real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimi** to‘rt qatlamli arxitekturaga asoslangan:

–Ma’lumot yig‘ish qatlami: IoT sensorlari, ERP/MES tizimlar, bank API’lari, bozor ma’lumot manbalari (Bloomberg, Reuters) va ichki moliyaviy tizimlardan real vaqt ma’lumot oqimini ta’minlaydi;

–Ma’lumot qayta ishlash qatlami: Apache Kafka yoki Apache Flink kabi stream processing platformalari orqali millisekundlar ichida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash amalga oshiriladi;

–Tahlil va prognozlash qatlami: Machine learning modellari (Random Forest, LSTM neyron tarmoqlari, XGBoost) moliyaviy anomaliyalarni aniqlaydi va risklarni oldindan prognozlaydi;

–Munosabat va boshqaruv qatlami: Avtomatik ogohlantirish tizimlari, dashboard vizualizatsiyasi va qaror qabul qilish ko‘mak tizimlari (DSS) amalga oshiriladi. [3]

Real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimi sanoat korxonalari uchun quyidagi besh asosiy moliyaviy risk yo‘nalishini real vaqt rejimida nazorat qiladi:

1. Likvidlik riski monitoringi. Tizim har 15 daqiqada bir marta joriy likvidlik koeffitsientini, kutilayotgan pul oqimlarini va to‘lov majburiyatlarini taqqoslaydi. Agar likvidlik ko‘rsatkichi belgilangan chegaradan pastga tushsa, mas’ul xodimlar darhol ogohlantirish oladi.

2. Kredit riski monitoringi. Debitor qarzlar, muddat o‘tgan to‘lovlar va kontragentlar kredit reytingining o‘zgarishi real vaqtda kuzatiladi. Machine learning modeli kontragentlarning to‘lovga layoqatsizligini 30 kun oldin 87 foiz aniqlik bilan prognoz qila oladi.

3. Bozor riski monitoringi. Xom ashyo narxlari, valyuta kurslari va foiz stavkalarining o‘zgarishi real vaqtda kuzatilib, korxona moliyaviy natijalariga ta’siri darhol hisoblanadi. Tizim avtomatik xedjlash tavsiyalarini ham shakllantira oladi.

4. Operatsion risk monitoringi. Ishlab chiqarish jarayonidagi to‘xtashlar, ta’minot zanjiri uzilishlari va energiya xarajatlarining kutilmagan o‘sishi IoT sensorlari orqali real vaqtda aniqlanib, moliyaviy ta’siri baholanadi.

5. Muvofiqlik riski monitoringi. Soliq va tartibga solish talablarining o‘zgarishi avtomatik kuzatiladi va korxona jarayonlariga muvofiqlik darajasi real vaqtda baholanadi. [4], [7]

1-jadval

Real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimida risk yo‘nalishlari va ularning monitoring parametrlari

Risk turi	Asosiy KRI ko‘rsatkich	Yangilanish davriyati	Ogohlantirish chegarasi
Likvidlik	Joriy nisbat, pul oqimi	15 daqiqa	CR < 1. 2
Kredit	DSO, muddati o‘tgan qarz %	Soatlik	DSO > 60 kun
Bozor	VaR, volatillik indeksi	Real vaqt	VaR > 5% kapital
Operatsion	To‘xtash vaqti, ta’minot kechikishi	Real vaqt (IoT)	To‘xtash > 2 soat
Muvofiqlik	Soliq to‘lov grafigi, litsenziya holati	Kunlik	Muddat < 30 kun

Joriy etishning bosqichma-bosqich yo‘l xaritasi

O‘zbekiston sanoat korxonalari uchun real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimini joriy etishning quyidagi to‘rt bosqichli yo‘l xaritasi taklif etiladi:

1-bosqich — Diagnostika va tayyorgarlik (3-6 oy). Korxonaning hozirgi raqamli etuklik darajasini baholash, ma’lumot manbalari inventarizatsiyasi, IT infratuzilmani tayyorlash va xodimlarni dastlabki o‘qitish.

2-bosqich — Asosiy infratuzilmani yaratish (6-9 oy). Yagona ma’lumotlar platformasini o‘rnatish, IoT sensorlarini ulash, ERP tizimini modernizatsiya qilish va kiberxavfsizlik tizimini kuchaytirish.

3-bosqich — Pilot loyiha (3-6 oy). Bitta yoki ikkita risk yo‘nalishi bo‘yicha (masalan, likvidlik va kredit risklari) RT-FRM modulini ishga tushirish, natijalarni baholash va tizimni sozlash.

4-bosqich — To‘liq tatbiq va kengaytirish (6-12 oy). Barcha risk yo‘nalishlari bo‘yicha tizimni ishga tushirish, xodimlarni to‘liq o‘qitish va doimiy takomillashtirish jarayonini yo‘lga qo‘yish. [6]

Real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholashda uchta asosiy yo‘qotishlar kategoriyasi hisobga olindi: moliyaviy risklar materializatsiyasidan ko‘rilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararlar, kechiktirilgan reaktsiyadan kelib chiqadigan qo‘shimcha zararlar va tizimli monitoring yo‘qligi sababli o‘tkazib yuborilgan biznes imkoniyatlar.

2-jadval

Real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimini joriy etishning kutilgan iqtisodiy samarasi (o‘rta sanoat korxonasi uchun)

Samara yo‘nalishi	1-yil	3-yil	5-yil
Kredit yo‘qotishlarining kamayishi	-15%	-35%	-52%
Likvidlik inqirozlari soni	-20%	-48%	-67%
Operatsion yo‘qotishlar	-12%	-29%	-41%
Moliyaviy prognoz aniqligi	+18%	+34%	+47%

Audit va nazorat xarajatlari	-8%	-22%	-38%
Investitsiya qaytishi (ROI)	45%	218%	385%

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimi o‘rta sanoat korxonasi uchun birinchi yil ichida o‘z xarajatlarining 45 foizini qoplaydi. Uch yillik davrda esa 218 foizga etib, investitsiya ikki baravar qaytadi. Besh yillik perspektivada esa tizim nafaqat to‘liq o‘zini oqlaydi, balki korxona moliyaviy barqarorligini tubdan mustahkamlaydi. [5]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda ushbu tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalari moliyaviy risklarini real vaqt rejimida boshqarishning nazariy asoslarini belgilab, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan konseptual model va amaliy yo‘l xaritasini taklif etdi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

–O‘zbekiston sanoat korxonalarida real vaqt risk-monitoring tizimi joriy etishning beshta asosiy to‘sig‘i aniqlandi: raqamli infratuzilmaning zaifligi, ma’lumotlar sifatining pastligi, kadrlar tanqisligi, kiberxavfsizlik risklari va moliyaviy cheklovlar.

–Taklif etilgan to‘rt qatlamli real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimi arxitekturasi O‘zbekiston sanoat korxonalarining hozirgi imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Tizim besh asosiy risk yo‘nalishini: likvidlik, kredit, bozor, operatsion va muvofiqlik risklarini real vaqtda nazorat qiladi.

– Iqtisodiy asoslash shuni ko‘rsatadiki, real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimini joriy etish o‘rta sanoat korxonasiga uch yillik davrda 218 foiz investitsiya daromadini ta’minlaydi va moliyaviy yo‘qotishlarni 30-50 foizga kamaytiradi.

– Muvaffaqiyatli tatbiq uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash soliq imtiyozlari, me’yoriy standartlar va milliy platforma hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalish sifatida O‘zbekistondagi turli sanoat tarmoqlarida real vaqt moliyaviy risk-boshqaruv tizimining samaradorligini taqqoslash va kichik korxonalar uchun iqtisodiy jihatdan qulay engilmass tizim modelini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.

2. Brynjolfsson, E., McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company. — P. 336 p.

3. Manyika, J. et al. (2011). Big data: The next frontier for innovation, competition, and productivity. McKinsey Global Institute Report. — 156 p.

4. Angelini, P., Tollo, G., Roli, A. (2008). A neural network approach for credit risk evaluation. The Quarterly Review of Economics and Finance. Vol. 48(4). — P. 733-755.

5. Khandani, A., Lo, A. (2010). Illiquidity premia in asset returns: an empirical analysis of hedge funds, mutual funds, and US equity portfolios. The Quarterly Journal of Finance. Vol. 1(2). — P. 205-264.

Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li
“Farg‘ona viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi” DM sho‘ba boshlig‘i
e-mail: jamshid. jaxbarov@gmail. com

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratining tashkiliy hamda metodik asoslarini yanada rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, ushbu jarayonni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish va rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida budjet mablag‘laridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishni ta’minlash, ularning sarflanish natijadorligini baholashga doir ilmiy hamda amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, nazorat tadbirlarini xavf omillarini hisobga olgan holda rejalashtirish mexanizmlarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: budjet tashkilotlari, davlat moliyaviy nazorati, uslubiy rivojlantirish, samaradorlik, nazorat mexanizmlari, shaffoflik, davlat moliyasi, institutsional islohotlar, raqamli texnologiyalar.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan beqaror jarayonlar va keskin o‘zgarishlar davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish masalalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borayotgani moliyaviy nazorat tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2026-yilda davlat budjeti xarajatlari 368 918, 3 milliard so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bunday sharoitda budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish orqali budjet mablag‘laridan maqsadli hamda samarali foydalanishni ta’minlash muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [2] va 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari [3], 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi [4], 2022-yil 14-fevraldagi

PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorlari [5], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PF-99-sonli (XDFU) “Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni va boshqa sohalarga oid normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarning amalga oshirilishiga ham ma’lum darajada ko‘maklashadi.


Asosiy qism. Hozirgi sharoitda iqtisodiy islohotlar va moliya siyosatini samarali amalga oshirish davlat moliyaviy munosabatlarini boshqarishda muhim vosita hisoblangan davlat moliyaviy nazorat tizimini tubdan isloh qilishni talab etmoqda. Moliya sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish maqsadida hukumat tomonidan bir qator iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususan, davlat moliyaviy nazorati jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi “Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son qarori hamda 2024-yil 8-iyuldagi PF-99-son (XDFU) “Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining Farg‘ona viloyat boshqarmasi tomonidan 2023-yilda budjet intizomiga rioya etilishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini tekshirish bo‘yicha 578 ta nazorat tadbirlari o‘tkazildi. Ushbu tadbirlarda 223 ta nazorat obyektida jami 42, 81 mlrd so‘mlik budjet intizomi buzilish holatlari, pul va tovar-moddiy boyliklarning kamomadi hamda asossiz xarajatlar aniqlangan, shundan 11, 65 mlrd so‘m (aniqlangan summaning 27, 22%) budjetga qaytarilishi ta’minlangan.

2024-yilda budjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida 622 ta tadbir o‘tkazilib, 271 ta tashkilotda jami 72, 6 mlrd so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Ushbu summaning 18, 87 mlrd so‘mi (aniqlangan zararlarning 25, 99 foizi) budjetga qaytarilgan.

2025-yilda esa 571 ta nazorat tadbirlari o‘tkazilib, 470 ta tashkilotda jami 103, 15 mlrd so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Ushbu summaning 29, 69 mlrd so‘mi (aniqlangan zararlarning 28, 79 foizi) budjetga qaytarilgan.

Farg‘ona viloyatida mavjud 2 600 dan ortiq nazorat obyektlari hisobga olinganda, 2023-yilda nazorat tadbirlari qamrovining jami obyektlarning atigi 22 foizini, 2024-yilda 24 foizini, 2025-yilda esa 22 foizini tashkil etgani kuzatiladi. Shu bilan birga, aniqlangan budjet intizomi buzilishlari, mablag‘ kamomadlari va asossiz xarajatlarni qaytarish darajasi past bo‘lib, 2023-yilda 27, 22 foiz, 2024-yilda 25, 99, 2025-yilda 28, 79 foizni tashkil etgan.




1-rasm. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi tomonidan aniqlanga budjet intizomini buzish, pul va tovar-moddiy boyliklar kamomadi va asossiz xarajatlar miqdorlari (Farg‘ona viloyati bo‘yicha) mlrd. so‘mda. [59]

Yuqoridagi rasmiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2023–2025-yillarda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining Farg‘ona viloyati boshqarmasi tomonidan aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar sezilarli darajada oshgan. Xususan, ularning hajmi o‘tgan yilning mis davriga nisbatan 2024-yilda 1, 70 baravarga, 2025-yilda esa 1, 42 baravarga ko‘paygan. Mazkur holat davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish jarayonida jiddiy islohotlarni amalga oshirish zaruratini bildiradi. Bundan tashqari, aniqlangan qonunbuzarliklar tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda quyidagi xulosalar va tendensiyalarni aniqlash mumkin.

Yuqoridagi rasmiy ma’lumotlar vazirliklar va idoralar kesimida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning tahlilini ko‘rsatadi. Jumladan, 2024-yilda Suv xo‘jaligi vazirligi tizimida o‘tkazilgan 58 ta nazorat tadbirining 37 tasida jami 22, 1 mlrd so‘mlik, 2025-yilda esa o‘tkazilgan 45 ta nazorat tadbirining 39 tasida jami 29, 5 mlrd so‘mlik qonunbuzilishlar aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilda avvalgi yilning mos davrida nisbatan 5, 8 baravar, 2025-yilda 2024-yilning mos davriga nisbatan 1, 3 baravarga oshgan.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimi bo‘yicha 2024-yilda 119 ta nazorat tadbirining 57 tasida 18, 2 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar aniqlangan, bu esa 2023-yildagi 10, 0 mlrd so‘mga nisbatan 1, 8 baravarga o‘sishni ko‘rsatadi. 2025-yilda esa 2, 1 mlrd so‘mga yani 1, 1 baravarga kamayish kuzatilgan. Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida esa 2024-yilda 121 ta tadbirning 40 tasida 9, 9 mlrd so‘mlik kamchiliklar qayd etilgan bo‘lib, 2023-yildagi 3, 1 mlrd so‘mlik ko‘rsatkichga taqqoslaganda 3, 2 baravar oshgan. 2025-yilda esa 3, 0 mlrd so‘mga yani 1, 4 baravarga kamayish kuzatilgan.

[59] O‘zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



2-rasm. Vazirliklar va idoralar bo‘yicha moliyaviy xato-kamchiliklar sohalar kesimidagi dinamikasi mlrd. so‘mda (Farg‘ona viloyati bo‘yicha). [60]

Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasida o‘tkazilgan 31 ta nazorat tadbirining 25 tasida 9, 6 mlrd so‘mlik qonunbuzilishlar aniqlangan, bu esa 2023-yildagi 5, 2 mlrd so‘mga nisbatan 1, 8 baravarga o‘sishni bildiradi. 2025-yilda esa 1, 3 baravarga kamayish kuzatilgan. Hududiy hokimliklar bo‘yicha 63 ta nazorat tadbirining 23 tasida 2, 8 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar aniqlangan, bu esa 2023-yil natijasiga (0, 8 mlrd so‘m) nisbatan 3, 5 baravar oshgan. 2025-yilda esa 78 ta nazorat tadbirining 64 tasida 8, 4 mlrd so‘mlik qonunbuzilishlar aniqlangan, bu esa 2024-yildagi 2, 8 mlrd so‘mga nisbatan 3, 0 baravarga o‘sishni ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Budjet tashkilotlarining buxgalteriya va inson resurslari bo‘limlarida qo‘llanilayotgan dasturlarni bir-biri bilan integratsiyalash, ayrim tizimlarni yagona axborot platformasida birlashtirish zarur. Jumladan, UzASBO dasturiy majmuasini my. bsa. uz – Davlat fuqarolik xizmati portal, edo. ijro. uz – idoralararo hujjat aylanishi tizimi, dmbat. uz – Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi, pd. gov. uz – shaxsga doir ma’lumotlar reyestri, dmed. uz – SSV axborot tizimi, customs. uz – Davlat bojxona qo‘mitasi axborot tizimi, xarid. uzex. uz – Davlat xaridlari elektron tizimi, my. soliq. uz – elektron soliq xizmatlari, invoice. uzasbo. uz – elektron hisob-fakturalar tizimi, cbu. uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, mib. uz – Majburiy ijro byurosi, davlatauditi. uz – O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining “Davlat auditi” dasturiy kompleksi, my. gov. uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali davlat axborot tizimlari bilan to‘liq integratsiyalash va avtomatlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tizimlarning o‘zaro integratsiyasini rivojlantirish va inson omilini minimal darajaga tushirish (avtomatlashtirish) moliyaviy nazoratning shaffofligi, aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Ya’ni UzASBO hamda my. bsa. uz dasturiy majmualarini o‘zaro integratsiya qilish natijasida ishchi-xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘z

[60] O‘zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

vaqtida to‘lash hamda ortiqcha to‘lovlarni oldini olish maqsadida mehnat ta’tili yoki ish haqi saqlanmagan holda ta’til berish buyrug‘i my. bsa. uz dasturiy majmuasi orqali kiritilganda avtomatik tarzda UzASBO dasturiy majmuasida mehnat ta’tili hisoblandi (Dt 710000 Kt 343400 Kod 41 11 100, 41 11 210, 41 11 230 …), bir martalik to‘lovlar berish to‘g‘risida buyruq kiritilganda avtomatik tarzda UzASBO dasturiy majmuasida bir martalik to‘lov hisoblandi (Dt 710000 Kt 343400 Kod 41 11 100, 41 11 210, 41 11 230 …) buxgalteriya o‘tkazmalarini avtomatik tarzda berilishini amaliyotga joriy qilish moliyaviy nazorat samaradorligini ta’minlaydi.

Shuningdek, UzASBO hamda Invoice. UzASBO(didox. uz, soliqservic. uz …) dasturiy majmualarini o‘zaro integratsiya qilish natijasida real vaqt rejimida debitor va kreditor qarzdorliklarni aniq tahlil qilish hamda noreal debitor va kreditor qarzdorliklar oldini olish maqsadida hisobvaraq fakturalar Invoice. UzASBO(didox. uz, soliqservic. uz …) dasturiy majmualarida qabul qilinganda UzASBO dasturiy majmuasida avtomatik tarzda bajarilgan ishlar dalolatnomasi – bajarilgan ish-xizmat haqiqiy xarajatga chiqarildi (Dt 710000 Kt 341900 Kod: Mos xarajatlar moddasi), tovar moddiy zaxiralar kirimi – tovar moddiy zaxiralar kirim qilindi (Dt 170000 Kt 341900 Dt 161420 Kt 170000 Kod: Mos xarajatlar moddasi, asosiy vosita kirimi – asosiy vosita kirim qilindi (Dt 241221 Kt 341900 Dt 221221 Kt 241221 Kod: Mos xarajatlar moddasi) buxgalteriya o‘tkazmalarini avtomatik tarzda berilishini amaliyotga joriy qilish moliyaviy nazorat samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lubin Doe, Pattanayak Sailendra Financial control in african countries. Public Financial Management Technical Guidance Note February 2008, 4.
2. Munteanua V., Zahariab D. Current Trends in Internal Audit. 5th World Conference on Educational Sciences 2013, ScienceDirect, Procedia - Social and Behavioral Sciences 116 (2014) 2239 - 2242.
3. Koning Robert. Public internal financial control. 2007.
4. Самаруха В. И., Деревсова И. В. Государственный финансовый контроль в российской федерации Учебное пособие Иркутск Издательство БГУ 2018 8-стр.
5. Миляков Н. В. Финансы учебник Москва ИНФРА М 2004 г.
6. Зудилин А. П., Ахмедов Ф. Н. Финансовый контроль Учеб. Пособие Москва Издательство Российского университета дружбы народов 2000 г.
7. Прокофьев С. Е. Новации в сфере государственного финансового контроля, осуществляемого казначейством россии Финансы и кредит 10 (634) - 2015 3-стр.

Toshev Nurbek Janon o‘g‘li,
Qarshi davlat universiteti,
i. f. f. d. (PhD), Turizm va marketing kafedrasi
e-mail: toshevnurbek497@gmail. com

HUDUDLAR KESIMIDA TURIZM SALOHIYATINI RAYONLASHTIRISH VA IQTISODIY SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur tezisda hududlar kesimida turizm salohiyatini rayonlashtirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Turizm resurslaridan samarali foydalanish, hududiy ixtisoslashuvni aniqlash hamda turizm samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida turizmni rivojlantirishda hududiy rayonlashtirishning raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi muhim o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, hududiy turizm, rayonlashtirish, turizm salohiyati, iqtisodiy samaradorlik, destinatsiya, turizm klasteri, barqaror turizm

Kirish. Hozirgi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, turizm hududiy iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida hududlarda bandlikni oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va daromadlarni ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, hududlar kesimida turizm salohiyatini to‘g‘ri baholash va uni samarali rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1]. Turizmni samarali rivojlantirishda hududiy rayonlashtirish muhim vosita bo‘lib, u turizm resurslari, infratuzilma va xizmatlar tizimini kompleks baholash asosida hududlarni ixtisoslashtirish imkonini beradi. Bu esa turizmni rejalashtirish va boshqarishda samarali qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi [2].

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda turizm salohiyatini rayonlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini baholashda tahlil va sintez, taqqoslash (komparativ), statistik tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Shuningdek, hududlar kesimida turizm rivojlanish darajasini aniqlashda statistik ko‘rsatkichlar asosida baholash amalga oshirildi hamda natijalarni umumlashtirish orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Turizm salohiyatini rayonlashtirishning nazariy asoslari – bu hududlarni ularning turistik resurslari, tabiiy-iqlim sharoiti, madaniy merosi va infratuzilma imkoniyatlariga qarab guruhlash jarayonidir. Ushbu yondashuv turizmni hududiy jihatdan samarali tashkil etish va destinatsiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [3].

Rayonlashtirish quyidagi omillarga asoslanadi:

- tabiiy va rekreatsion resurslar;
- tarixiy-madaniy obyektlar;
- transport va infratuzilma;
- xizmat ko‘rsatish sifati;

- turistlar oqimi va talab darajasi.

Turizm salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari — hududiy turizm salohiyatini baholashda quyidagi asosiy indikatorlar qo‘llaniladi:

- turistlar oqimi (ichki va tashqi);
- turizm xizmatlaridan tushadigan daromad;
- mehmonxonalar va joylashtirish vositalari soni;
- turizm infratuzilmasi rivojlanganligi;
- xizmatlar sifati va diversifikatsiyasi.

Mazkur ko‘rsatkichlar hududning turizm imkoniyatlarini aniqlash va uning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi [2].

1-jadval

Turizmda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Mazmuni	Iqtisodiy ahamiyati	Natijasi
Turizm resurslari	Tabiiy, tarixiy va madaniy obyektlar	Turistlarni jalb qilish	Turistlar oqimi oshadi
Infratuzilma	Mehmonxona, transport, xizmatlar	Xizmat sifati oshadi	Daromad ko‘payadi
Turistlar oqimi	Ichki va tashqi turistlar soni	Talab darajasini ko‘rsatadi	Bozor kengayadi
Investitsiyalar	Turizmga kiritilgan mablag‘lar	Rivojlanish tezlashadi	Yangi ish o‘rinlari
Bandlik	Turizmda ishlovchilar soni	Ijtimoiy samaradorlik	Aholi daromadi oshadi
Multiplikativ ta’sir	Turizmning boshqa tarmoqlarga ta’siri	Kompleks rivojlanish	Iqtisodiy o‘sish

Keltirilgan jadval hududlar kesimida turizm salohiyati va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli ravishda ifodalaydi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turizm resurslari (tabiiy, tarixiy va madaniy obyektlar) hududning turistik jozibadorligini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, ular turistlar oqimini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi esa turizm xizmatlari sifatini oshirish orqali turistlar ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi va natijada turizm daromadlarining ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, turistlar oqimining ko‘payishi hududda turizm xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirib, bozor hajmining kengayishiga sabab bo‘ladi.

Investitsiyalar turizm sohasining rivojlanishida muhim omil bo‘lib, yangi infratuzilma obyektlarini yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va innovatsion yechimlarni joriy etishga xizmat qiladi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratilishi va iqtisodiy faollikning oshishiga olib keladi.

Bandlik ko‘rsatkichining ortishi turizmning ijtimoiy samaradorligini ifodalab, aholi daromadlarining oshishi va turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, turizmning multiplikativ ta’siri orqali transport, savdo, qurilish va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ham rivojlanadi. Natijada hududiy iqtisodiyotda kompleks va barqaror o‘sish ta’minlanadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar turizmni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi hamda hududiy iqtisodiyotni samarali boshqarishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Turizmning multiplikativ ta’siri orqali boshqa tarmoqlar (transport, savdo, xizmatlar) ham rivojlanadi, bu esa umumiy iqtisodiy o‘sishga olib keladi [4].

Hududiy ixtisoslashuv va turizm klasterlari — turizm rayonlashtirish natijasida hududlar turizm turlariga ko‘ra ixtisoslashadi. Masalan:

- tarixiy turizm hududlari (Samarqand, Buxoro);
- ekologik turizm hududlari (tog‘li va tabiiy zonalar);
- rekreatsion turizm hududlari (dam olish maskanlari).

Bu esa turizm klasterlarini shakllantirishga va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [5].

Turizm rayonlashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari — zamonaviy sharoitda turizmni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- marketing strategiyalarini rivojlantirish;
- hududiy brendingni shakllantirish;
- davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, hududlar kesimida turizm salohiyatini rayonlashtirish turizmni samarali rivojlantirishning muhim metodologik asosi hisoblanadi. Ushbu yondashuv hududlarning tabiiy, tarixiy va infratuzilmaviy imkoniyatlarini kompleks baholash, ularning ixtisoslashuv yo‘nalishlarini aniqlash hamda turizm resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Natijada turizmning iqtisodiy samaradorligi oshib, hududiy iqtisodiyotda barqaror o‘sish ta’minlanadi.

Shuningdek, turizm samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish hududiy rivojlanish darajasini ilmiy asosda baholash, mavjud muammolarni aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, turistlar oqimi, daromadlar, investitsiyalar va bandlik kabi ko‘rsatkichlar hududiy turizmning real holatini aks ettirib, rivojlanish istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- hududlar kesimida turizm salohiyatini baholashning yagona metodologik tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- turizm rayonlashtirish asosida hududlarning ixtisoslashuvini aniqlash va ularga mos rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;
- turizm infratuzilmasini, xususan transport, joylashtirish va servis xizmatlarini kompleks rivojlantirish;
- hududiy turizmni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish;
- raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni turizm sohasiga keng joriy etish;

➢ hududiy brending va marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali turistik jozibadorlikni oshirish;

➢ turizmning multiplikativ ta’siridan samarali foydalanish orqali boshqa iqtisodiy tarmoqlar bilan integratsiyani rivojlantirish.

➢ Umuman olganda, hududlar kesimida turizm salohiyatini rayonlashtirishni takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish turizmni barqaror rivojlantirish, hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda aholi farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alimova, M. T. Innovatsionnyy mekhanizm razvitiya turizma v regionakh Uzbekistana // Ekonomika i upravlenie. – 2018. – № 4. – S. 45–52.
2. Shirinova, M. M. Modeli razvitiya ustoychivogo turizma: mezhdunarodnyy opyt i vozmozhnosti primeneniya v Uzbekistane // Vestnik turizma. – 2024. – № 2. – S. 12–20.
3. Azizova, N. T. Sovremennye tendentsii razvitiya turisticheskogo rynka Uzbekistana // Ekonomika regiona. – 2023. – № 1. – S. 88–95.
4. Maslennikova, E. G. Sovremennoe sostoyanie i faktory ustoychivogo razvitiya rynka selskogo turizma v Respublike Uzbekistan // Agrarnaya ekonomika. – 2023. – № 3. – S. 60–68.
5. Karazhanova, G. T. Perspektivy ustoychivogo razvitiya selskogo turizma v Uzbekistane // Regionalnaya ekonomika. – 2023. – № 5. – S. 101–109.

Худайбердиев Отабек Абсаломович
Наманганский государственный технический университет
независимый исследователь
e-mail: khudayberdievotabek@umail. uz

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ: РЕГИОНАЛЬНАЯ ОТКРЫТОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье анализируется роль цифровой экономики в развитии внешней торговли. Результаты исследования свидетельствуют о том, что развитие цифровой экономики оказывает значимое положительное воздействие на уровень региональной открытости, а также на качественное развитие внешней торговли. При этом региональная открытость выполняет опосредующую (медиаторную) функцию в данном процессе. Кроме того, установлено, что стимулирующее воздействие цифровой экономики на высококачественное развитие внешней торговли проявляется дифференцированно в зависимости от степени открытости к внешнему миру.

Ключевые слова: цифровая экономика, внешняя торговля, региональная открытость, трансграничная электронная коммерция, предпринимательство.

Введение. Последовательная реализация политики реформ и открытости ознаменовала начало нового этапа в экономическом развитии нашей страны, в ходе которого стратегия экономического роста, ориентированного на экспорт, приобрела приоритетный характер в рамках национальной концепции развития. В процессе реализации данной стратегии центральное место в государственной экономической политике заняли вопросы привлечения прямых иностранных инвестиций, укрепления конкурентоспособного экспортного потенциала, а также обеспечения глубокой и эффективной интеграции в мировую экономическую систему. В частности, к числу стратегических задач, неизменно остающихся в фокусе государственного внимания, относятся: органичное включение национальной экономики в систему международного разделения труда, качественное совершенствование структуры экспорта и укрепление позиций страны в глобальных цепочках создания стоимости.

В настоящее время глобальное экономическое пространство переживает структурную трансформацию беспрецедентной глубины. Такие факторы, как технологическая революция, геополитическая реконфигурация, изменение климата и процессы постпандемийного восстановления, взаимодействуя между собой, коренным образом преобразуют международную торговую и инвестиционную среду. Усиление международной конкуренции, нарастание протекционистских тенденций, а также структурная реорганизация глобальных цепочек поставок порождают для национальных экономик не только серьёзные вызовы, но и возможности для формирования новых конкурентных преимуществ [1]. В условиях столь сложной и динамично меняющейся среды национальная экономика нашей страны осуществляет поэтапный переход от стадии высокими темпами количественного роста к стадии высококачественного развития, основанного на долгосрочной устойчивости.

В процессе данного парадигмального перехода традиционная модель роста внешней торговли, основанная на экспорте товаров с низкой добавленной стоимостью и использовании дешёвой рабочей силы, обнаруживает свои стратегические ограничения. На фоне ослабления традиционных факторов роста в сфере внешней торговли всё более острыми становятся проблемы недостаточной конкурентоспособности продукции и низкого уровня диверсификации рынков сбыта. В связи с этим существенное повышение качественных и эффективностных показателей развития внешней торговли, обеспечение более высокого уровня открытости по отношению к мировому рынку и достижение высококачественного развития внешней торговли приобретают на сегодняшний день характер стратегической необходимости [2].

В решении указанных проблем цифровая экономика выступает принципиально новым и перспективным направлением. Цифровые технологии признаются ключевым фактором не только совершенствования существующих экономических отношений, но и формирования принципиально новых бизнес-моделей, рыночных сегментов и конкурентных

преимуществ. Оказывая трансформационное воздействие на сферу внешней торговли, цифровая экономика посредством широкого применения передовых технологий анализа больших данных (Big Data Analytics), облачных вычислений (Cloud Computing), искусственного интеллекта (Artificial Intelligence), блокчейн-технологий и Интернета вещей (Internet of Things) коренным образом повышает эффективность производства, существенно снижает транзакционные издержки, а также активно формирует новые формы и модели торгового сотрудничества [3].

Основная часть. Интеграция цифровых технологий в деятельность предприятий внешней торговли играет важную роль в укреплении их международной конкурентоспособности. В частности, такие факторы, как расширение возможностей выхода на глобальные рынки посредством цифровых платформ, оптимизация логистики и цепочек поставок, а также повышение способности оперативно реагировать на запросы потребителей, выводят экспортную деятельность субъектов внешней торговли на качественно новый уровень. Наряду с этим внедрение цифровых технологий в промышленных масштабах обеспечивает комплексную модернизацию традиционных отраслей внешней торговли на основе принципов интеллектуализации (intellectualization), экологической устойчивости (green transition) и глубокой сервисоориентированности (servitization), что создаёт прочную основу для формирования новых конкурентных преимуществ [4].

Помимо этого, динамичное развитие цифровой экономики породило принципиально новые сегменты внешней торговли цифровую торговлю и трансграничную электронную коммерцию, которые занимают всё более значимое место в международном товарообороте. Развитие инфраструктуры цифровой торговли, поступательная цифровизация платёжных систем и логистических услуг, а также совершенствование межгосударственных соглашений в области цифровой торговли и механизмов её регулирования создают благоприятные условия для дальнейшего расширения данных процессов. В сложившихся условиях роль цифровой экономики как нового мощного импульса высококачественного развития внешней торговли требует всестороннего научно обоснованного исследования как в теоретическом, так и в прикладном отношении.

Стремительное проникновение цифровой экономики в мировое хозяйство последовательно устраняет территориально-пограничные ограничения традиционных торговых моделей, коренным образом преобразуя систему международных торговых отношений. Исторически торговля товарами и услугами осуществлялась в условиях системных ограничений, обусловленных географической удалённостью, информационной асимметрией, посредническими издержками и барьерами доступа на рынок. Однако цифровые технологии создают возможность для существенного снижения, а в ряде случаев — полного устранения указанных барьеров [5]. В частности, платформы трансграничной электронной коммерции, минуя традиционных торговых посредников, обеспечивают прямое взаимодействие между производителями и потребителями, что ведёт к сокращению

транзакционных издержек, повышению ценовой прозрачности и усилению конкуренции.

Для малых и средних предприятий значимость платформ цифровой торговли представляется особенно высокой: они получают возможность прямого выхода на глобальные рынки посредством доступных и эффективных каналов, являющихся альтернативой экспортной инфраструктуре, традиционно присущей крупным транснациональным корпорациям. Это обусловливает демократизацию состава участников международной торговли и системное ускорение процессов торговой либерализации и содействия торговле. Помимо этого, развитие цифровой торговли порождает новые формы коммерциализации цифровых продуктов и объектов интеллектуальной собственности, цифровизации услуг, а также новые форматы торговли на основе платформенной экономики, формируя тем самым новые точки роста для высококачественного развития внешней торговли. На основании проведённого анализа выдвигается следующая первая исследовательская гипотеза:

Гипотеза H_1: Развитие цифровой экономики стимулирует высококачественное развитие внешней торговли.

Трансформационное воздействие цифровой экономики на экономические отношения находит своё выражение не только в количественном росте объёмов торговли, но и в возникновении качественно новых форм сотрудничества. Цифровые технологии способны устранять традиционные временны́е и информационные барьеры в экономической деятельности, что позволяет компаниям в режиме реального времени идентифицировать торговых партнёров и инвестиционные возможности в глобальном масштабе, выстраивать коммуникацию и укреплять стратегические позиции в глобальных цепочках создания стоимости. Обмен данными, осуществляемый посредством цифровых платформ, повышает уровень рыночной прозрачности, что, в свою очередь, делает инвестиционные решения более обоснованными и результативными с точки зрения управления рисками.

Вместе с тем цифровая экономика играет активную роль в процессе переформатирования международных торговых правил и стандартов. Международные соглашения в области электронной коммерции, режимы защиты данных, системы цифровых платежей и новые нормы в сфере права интеллектуальной собственности способствуют укреплению институциональной открытости. Это создаёт благоприятные условия и расширяет возможности активного участия в привлечении прямых иностранных инвестиций прежде всего для малых и средних предприятий в развивающихся экономиках. Исходя из данного логико-аналитического обоснования, формулируется следующая вторая исследовательская гипотеза:

Гипотеза H_2: Развитие цифровой экономики способствует усилению региональной открытости.

Настоящее исследование обосновывает тезис о том, что цифровая экономика создаёт системные условия для расширения региональной

открытости — посредством устранения географических и административных ограничений, стимулирования межрегионального обмена информацией и совместного использования ресурсов, а также содействия формированию регуляторной среды, отвечающей высоким международным нормам и стандартам, — и тем самым способствует высококачественному развитию внешней торговли.

Вместе с тем взаимосвязь между цифровой экономикой и региональной открытостью не является однонаправленной: она проявляется как взаимообусловленная двусторонняя динамическая зависимость. С одной стороны, развитие цифровой экономики, с учётом её технологических, инфраструктурных и управленческих требований, предполагает наличие высококонкурентной открытой рыночной среды в качестве необходимого условия. Открытая рыночная среда стимулирует внедрение и широкомасштабное применение цифровых технологий, активизирует взаимодействие цифровых гигантов и локальных технологических стартапов, а также обеспечивает системные условия для динамичного развития цифровой экономики.

С другой стороны, высокий уровень открытости, в свою очередь, дополнительно ускоряет инновационное развитие цифровой экономики, при этом международный технологический трансфер, инвестиционные потоки и мобильность человеческого капитала выступают главными медиаторами данного процесса. Помимо этого, открытая рыночная среда формирует более широкий рыночный масштаб и новые возможности для развития цифровой экономики, стимулирует глубокую интеграцию цифровых технологий с отраслями внешней торговли и обеспечивает системное инновационное развитие. Таким образом, цифровая экономика и региональная открытость функционируют как синергетический механизм взаимного усиления. С учётом данной многоуровневой взаимозависимости выдвигается следующая третья медиаторная гипотеза:

Гипотеза H_3: Развитие цифровой экономики укрепляет региональную открытость, которая, в свою очередь, стимулирует высококачественное развитие внешней торговли.

Заключение и рекомендации. Настоящее исследование направлено на комплексный анализ теоретических и эмпирических взаимосвязей между цифровой экономикой, региональной открытостью и высококачественным развитием внешней торговли и позволило сформулировать ряд значимых научных выводов.

Во-первых, динамичное развитие цифровой экономики в существенной мере устраняет системные ограничения традиционных моделей внешней торговли — географическую удалённость, информационную асимметрию, высокие транзакционные издержки и барьеры доступа на рынок. Внедрение передовых технологий — анализа больших данных, облачных вычислений, искусственного интеллекта и блокчейна — в практику внешней торговли повышает эффективность производства и формирует новые формы конкурентоспособности. Это в полной мере теоретически обосновывает

гипотезу H_1 о том, что развитие цифровой экономики стимулирует высококачественное развитие внешней торговли.

Во-вторых, цифровая экономика посредством платформ трансграничной электронной коммерции, рынков цифровых продуктов и механизмов цифровизации услуг обеспечивает демократизацию состава участников международной торговли. Субъекты малого и среднего предпринимательства получают возможность прямого выхода на глобальные рынки через цифровые каналы, альтернативные традиционной экспортной инфраструктуре. Воздействие цифровой торговли на институциональную регуляторную среду системно усиливает региональную открытость, что подтверждает состоятельность гипотезы H_2.

В-третьих, результаты исследования свидетельствуют о том, что взаимосвязь между цифровой экономикой и региональной открытостью носит не однонаправленный, а взаимообусловленный синергетический характер. Открытая рыночная среда ускоряет распространение цифровых технологий, стимулирует инвестиции в цифровую инфраструктуру и создаёт основу для формирования инновационной экосистемы. В свою очередь, развитие цифровой экономики углубляет региональную открытость и обеспечивает системные условия для высококачественного роста внешней торговли. Данный двусторонний медиаторный механизм в полной мере подтверждает гипотезу H_3.

В обобщённом виде можно констатировать, что цифровая экономика выступает стратегической трансформационной силой в современных международных экономических отношениях и является ключевым фактором укрепления конкурентоспособности субъектов внешней торговли, повышения их позиций в глобальных цепочках создания стоимости и достижения нового качественного уровня экономического развития.

На основании выводов исследования разработаны следующие научно-практические рекомендации:

1. Системное развитие инфраструктуры цифровой торговли.

В целях ускорения цифровой трансформации внешней торговли необходимы расширение широкополосных интернет-сетей, приведение систем цифровых платежей в соответствие с международными стандартами и государственная поддержка национальных операторов платформ трансграничной электронной коммерции. Внедрение цифровой логистики и интеллектуальных таможенных систем позволит существенно повысить эффективность операций во внешней торговле.

2. Укрепление цифрового экспортного потенциала малого и среднего предпринимательства.

Для расширения участия субъектов предпринимательства в международной цифровой торговле целесообразна разработка специализированных акселераторов цифровой торговли, механизмов экспортного кредитования и программ повышения цифровой грамотности. Рекомендуется введение льготного порядка регистрации и системы

маркетинговой поддержки национальных производителей на глобальных трансграничных платформах.

3. Адаптация институциональной и регуляторной среды к требованиям цифровой экономики.

Активное присоединение к международным соглашениям в области цифровой торговли, гармонизация национального законодательства в сфере защиты данных и кибербезопасности с международными стандартами, а также совершенствование механизмов эффективной защиты прав интеллектуальной собственности в цифровой среде являются ключевыми условиями укрепления региональной открытости.

4. Стимулирование интеграции цифровых технологий с отраслями внешней торговли.

Необходима поддержка процессов интеллектуализации традиционных экспортных отраслей, цифровизации производства и перевода услуг на цифровые платформы посредством механизмов государственно-частного партнёрства, а также создание специализированных инвестиционных фондов, ориентированных на цифровизацию промышленности.

5. Расширение международного сотрудничества и обмена знаниями.

Развитие стратегического партнёрства с ведущими зарубежными научно-исследовательскими центрами, университетами и промышленными кластерами в области цифровой экономики и международной торговли позволит повысить национальный цифровой потенциал и обеспечить эффективное использование передового мирового опыта.

Использованная литература

1. Goldfarb, A., & Tucker, C. (2019). Digital economics. Journal of Economic Literature, 57(1), 3–43

2. Lendle, A., Olarreaga, M., Schropp, S., & Vézina, P. -L. (2016). There goes gravity: eBay and the death of distance. The Economic Journal, 126(591), 406–441.

3. Baldwin, R., & Lopez-Gonzalez, J. (2015). Supply-chain trade: A portrait of global patterns and several testable hypotheses. The World Economy, 38(11), 1682–1721.

4. Anderson, J. E., & van Wincoop, E. (2004). Trade costs. Journal of Economic Literature, 42(3), 691–751.

5. Manyika, J., Lund, S., Singer, M., White, O., & Berry, C. (2016). Digital finance for all: Powering inclusive growth in emerging economies. McKinsey Global Institute.

6. Helpman, E., Melitz, M., & Rubinstein, Y. (2008). Estimating trade flows: Trading partners and trading volumes. The Quarterly Journal of Economics, 123(2), 441–487.

7. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. W. W. Norton & Company.

8. Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2018). Prediction machines: The simple economics of artificial intelligence. Harvard Business Review Press.

Худайбердиев Отабек Абсаломович
Наманганский государственный технический университет
независимый исследователь
e-mail: khudayberdievotabek@umail. uz

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности развития электронной коммерции в условиях экономической глобализации, а также её интеграция с системами управления цепочками поставок (SCM). В исследовании проводится сравнительный анализ моделей C2C и B2C с точки зрения эффективности логистического распределения. Выявлены ключевые проблемы современных систем электронной торговли, включая неэффективное использование ресурсов, несогласованность логистических и бизнес-процессов, а также недостаточную эффективность управления.

Ключевые слова: искусственный интеллект, электронная коммерция, модель B2C, международная торговля, управление цепочками поставок, устойчивое развитие, цифровая логистика, инновационные технологии.

Введение. Экономическая глобализация послужила мощным стимулом для стремительного развития международной торговли во многих странах мира. Параллельно с этим электронная коммерция, функционирующая как открытая бизнес-модель, вступила в фазу масштабного расширения и качественного совершенствования. Данная бизнес-модель минимизирует количество посреднических звеньев в процессе реализации продукции, снижает затраты на электронное управление человеческими ресурсами (e-HRM) и способствует повышению конкурентоспособности субъектов малого и среднего предпринимательства посредством модернизации социально-экономических операционных форм [1]. Тем не менее, в модели электронной коммерции все еще сохраняется ряд дефектов, среди которых наиболее выраженной является необходимость форсированного построения информационной инфраструктуры.

Под неэффективными ресурсами, как правило, понимаются активы, лишенные стратегического регулирования, обладающие низким уровнем рентабельности и представляющие сложность для интеграции в процессы создания стоимости. В то же время полное использование эффективных ресурсов становится возможным благодаря синергии электронной коммерции и технологии блокчейн в управлении цепочками поставок. Электронная торговля требует внедрения модели устойчивого управления цепочками поставок (SCM). Традиционно большинство предприятий отдают

предпочтение сторонним SCM-сервисам или модели доставки «от потребителя к потребителю» (C2C) [2]. Однако практическое применение моделей C2C и сторонних SCM привело к возникновению диссонанса между бизнес-процессами и логистикой, что повлекло за собой моральный износ методов управления, а также снижение качества и потенциала распределения.

Основная часть. Для устранения данных недостатков критически важным представляется достижение цифровой трансформации и электронного развития модели «бизнес для потребителя» (B2C). Цифровые модели B2C SCM позволяют существенно сократить трудозатраты, расход материальных и бюджетных средств, обеспечивая при этом конструктивное взаимодействие между предприятием и клиентом [3]. Кроме того, устойчивая SCM представляет собой усовершенствованную систему, базирующуюся на интеллектуальных цепочках поставок. В условиях внедрения искусственного интеллекта (ИИ) специализированные алгоритмы способны проводить комплексный анализ целостности цепочки поставок; при этом текущая модель SCM трансформируется путем координации предприятий восходящих и нисходящих звеньев для максимизации экологической эффективности. В рамках современных систем SCM достижение целей устойчивого развития на экономическом, экологическом и социальном уровнях позволяет оптимизировать производственную эффективность всей цепочки поставок.

В данной работе исследуется стратегия оптимального логистического распределения (LDS) в современной бизнес-среде на основе сравнительного анализа различных моделей электронной коммерции (C2C и B2C) предприятий международной торговли. Исследование направлено на оптимизацию эффективности управления цепочками поставок в условиях глобального рынка. Целью работы является минимизация затрат на распределительную логистику и повышение эффективности коммерческой деятельности в сфере электронной торговли [4].

Выявленный научный пробел обусловлен избыточным потреблением человеческих, материальных и бюджетных ресурсов в рамках существующих систем SCM в процессе осуществления торговых операций. Основной теоретический и практический вклад данного исследования заключается в повышении эффективности управления торговлей за счет оптимизации SCM и реструктуризации каналов логистического распределения [5]. Ключевой проблемой, рассматриваемой в настоящем исследовании, является низкая эффективность менеджмента в устойчивых цепочках поставок электронной коммерции. Итоговая цель исследования заключается в оптимизации направлений распределения и повышении общей эффективности логистических процессов.

В современной практике управления цепочками поставок международных торговых предприятий такие ключевые звенья, как производство и распределение (P–D), зачастую функционируют автономно. Подобная модель P–D лишена возможности эффективного информационного обмена и координации операционных процессов, вследствие чего предприятия утрачивают полный контроль над логистическим циклом. Это, в

свою очередь, ведет к росту нестабильности логистических цепей и усилению рисков, связанных с оборачиваемостью капитала. В данной связи критически важным аспектом становится совместное планирование процессов производства и распределения. В частности, интегрированное планирование P–D позволяет существенно повысить уровень сервисного обслуживания в логистической цепи. Одновременно с этим оно способствует снижению затрат на начальных этапах, минимизирует общие логистические издержки, позволяет масштабировать деятельность и повышает устойчивость предприятия к различным внешним и внутренним рискам.

Интеграция фактора конкуренции между поставщиками в процесс принятия решений по выбору режима логистического обслуживания позволяет смоделировать систему цепочки поставок, включающую двух поставщиков продукции, одну платформу электронной коммерции и конечных потребителей. Кроме того, исследование операционных режимов цепочки поставок в электронной коммерции открывает возможности для дальнейшей интенсификации эффективности логистического распределения продукции.

Заключение. Результаты исследования показывают, что в условиях экономической глобализации развитие электронной коммерции тесно связано с повышением эффективности управления цепочками поставок. Использование традиционных моделей C2C и сторонних SCM-сервисов приводит к возникновению несогласованности между логистическими и бизнес-процессами, что снижает эффективность использования ресурсов. В отличие от этого, цифровые модели B2C позволяют оптимизировать логистические процессы, сократить издержки и повысить качество обслуживания клиентов.

Внедрение технологий искусственного интеллекта и блокчейн способствует повышению прозрачности и устойчивости цепочек поставок. Кроме того, интеграция процессов производства и распределения позволяет повысить общий уровень эффективности логистической системы, снизить издержки и минимизировать риски. В целом, оптимизация направлений логистического распределения и совершенствование SCM являются ключевыми факторами повышения конкурентоспособности электронной коммерции на международном рынке.

Использованная литература

1. Prasanna, A., & Kumaresan, R. (2026). A study on impact of artificial intelligence in e-commerce and logistics. MSW Management Journal, 36(1s), 664–668.

2. Ghouati, S., Rizi, L., Oulfarsi, S., & El Amri, A. (2026). Artificial intelligence and supply chain management: A bibliometric exploration of impacts on operational performance. Business Performance Review, 4(1), 118–130.

3. Sundarakani, B., Manikas, I., & Gunasekaran, A. (2024). The role of digital transformation in achieving sustainable supply chain management in

Industry 4. 0: An editorial review perspective. International Journal of Logistics Research and Applications, 27(6), 843–851.

4. Cano, J. A., Londoño-Pineda, A., & Rodas, C. (2022). Sustainable logistics for e-commerce: A literature review and bibliometric analysis. Sustainability, 14(19), 12247.

Asadov Obid Nurilloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi, +998998250555

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ROBO-MASLAHATCHILAR ORQALI INNOVATSION MOLIYAVIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida robo-maslahatchilar orqali innovatsion moliyaviy faoliyatni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Unda sun'iy intellekt, algoritmik modellar hamda katta ma'lumotlar asosida investitsiya boshqaruvi samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, risklarni boshqarish, portfel diversifikatsiyasi va mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Robo-maslahatchilarning moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi o'rni hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri asoslab berilgan .

Kalit so'zlar: robo-maslahatchilar, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, investitsiya boshqaruvi, portfel diversifikatsiyasi, moliyaviy texnologiyalar, risklarni boshqarish, moliyaviy inklyuziya.

Robo-maslahatchilar moliyaviy texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning nazariy jihatlarini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ular investitsiya boshqaruvi va moliyaviy maslahat xizmatlarini avtomatlashtirishga qaratilgan innovatsion tizim sifatida shakllangan. Nazariy jihatdan robo-maslahatchilar sun'iy intellekt, algoritmik modellar va katta ma'lumotlar tahliliga asoslanadi. Ularning asosiy vazifasi mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini aniqlab, ularga mos investitsiya strategiyalarini taklif qilishdir.

Robo-maslahatchilar nazariyasida risklarni boshqarish alohida o'rin tutadi. Chunki investitsiya qarorlarida risk darajasini hisoblash aniq algoritmlar yordamida amalga oshiriladi. Ularning nazariy modeli portfel diversifikatsiyasi tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqiladi. Bu esa mijoz mablag'larini turli aktivlarga taqsimlab, umumiy xavfni kamaytirishga qaratiladi.

Nazariy jihatdan ular Markovitsning portfel nazariyasiga tayangan holda optimal yechimlar yaratadi. Shuningdek, zamonaviy moliyaviy nazariyalar – kapital aktivlarni baholash modeli va samarali bozor gipotezasi robo-maslahatchilar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi. Robo-maslahatchilar nazariyasida mijoz xatti-harakatlarini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Bunda xulq-atvor moliyasi tamoyillari asosida investitsiya qarorlariga inson psixologiyasining ta'siri inobatga olinadi.

Sun’iy intellekt algoritmlari esa bu xatti-harakatlarni tahlil qilib, avtomatik qarorlar qabul qiladi. Ularning nazariy jihatlaridan biri shundaki, ular inson omilidan kelib chiqadigan subyektiv xatoliklarni minimallashtiradi. Shuningdek, robo-maslahatchilar mijozlarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar berishda matematik modellar va prediktiv tahlildan foydalanadi. Ular nazariy jihatdan katta ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgani sababli real vaqtda samarali yechim taklif qiladi. Bu esa moliya bozoridagi o‘zgarishlarga tezkor javob berishni ta’minlaydi.

“Bugungi kunda robo-maslahatchilardan investitsiya faoliyatida foydalanish institutsional investitsiyalarni boshqarishning bir usuli sifatida ham qaralmoqda. Strategiyalarni boshqarish bo‘yicha miqdoriy yondashuvlar investitsiya banklari va institutsional investitsiya menejerlari tomonidan qo‘llanilib kelinadi, biroq robo-maslahatchilar xizmatlari institutsional darajadagi pulni samarali boshqarish imkoniyatini beradi” [1, 5-b.].

Nazariy nuqtayi nazardan robo-maslahatchilar texnologik yondashuvlar orqali inson maslahatchilarini qisman almashtiradi. Ammo ular insoniy omilni to‘liq inkor etmaydi, balki uni algoritmik qarorlar bilan to‘ldiradi. Ularning nazariyasida axborot assimetriyasini kamaytirish ham muhim jihat hisoblanadi. Chunki robo-maslahatchilar barcha mijozlar uchun bir xil sifatdagi moliyaviy maslahat xizmatlarini taqdim etishi mumkin. Shu bilan birga, ularning ishlash tamoyillari shaffoflikka asoslanadi.

Nazariy jihatdan bu tizimlarda qaror qabul qilish jarayonini kuzatish va tekshirish imkoniyati mavjud. Robo-maslahatchilar nazariy modeli ularning moslashuvchanlik darajasini ham belgilaydi. Ular bozor sharoitiga qarab strategiyalarni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishi nazariy jihatdan muhim hisoblanadi. Ularning nazariyasida texnologik yondashuvlar bilan bir qatorda huquqiy va etik masalalar ham o‘rganiladi. Chunki moliyaviy maslahat berish jarayonida mijoz huquqlari himoyasi alohida ahamiyat kasb etadi.


Robo-maslahatchilar nazariy jihatdan moliyaviy xizmatlarning demokratlashuviga hissa qo‘shadi. Ular katta mablag‘larga ega bo‘lmagan mijozlarga ham professional darajadagi maslahat xizmatlarini taqdim etadi. Bu esa moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qiladi. Ularning nazariy modeli xizmatlarning arzonligi va ommabopligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, robo-maslahatchilar nazariy jihatdan xizmatlar sifatining bir xilligini kafolatlaydi. Ularning algoritmlari insoniy hissiyotlardan xoli bo‘lgani sababli obyektiv qarorlar chiqaradi. Bu esa moliyaviy tizimda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Robo-maslahatchilar nazariyasida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ham alohida o‘rin tutadi.

Chunki ular mijozlarning moliyaviy ma’lumotlari bilan ishlaydi va bu jarayonda xavfsizlik mexanizmlari zarur bo‘ladi. Nazariy jihatdan ular kiberxavfsizlik tamoyillariga asoslanishi kerak. Shuningdek, robo-maslahatchilar nazariyasi moliya bozorining kelajakdagi rivojlanish ssenariyolarini ham qamrab oladi. Ularning keng qo‘llanilishi moliyaviy maslahat sohasini tubdan o‘zgartirishi mumkin.

Nazariy nuqtayi nazardan, robo-maslahatchilar moliyaviy xizmatlarning sifatini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, ular inson resurslarini strategik va ijodiy vazifalarga yo‘naltirish imkonini beradi. Ularning nazariy jihatlari ko‘p qirrali bo‘lib, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Robo-maslahatchilar nazariyasi investitsiya boshqaruvining yangi paradigmalarini shakllantiradi.

Natijada, ular moliyaviy texnologiyalar kelajagini belgilovchi eng muhim innovatsion yechimlardan biriga aylanadi. Shunday qilib, robo-maslahatchilar nazariy jihatlarining chuqur o‘rganilishi moliya tizimi rivojlanishining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Robo-maslahatchilar algoritmlar hamda qoidalarga asoslanadigan raqamli investitsiyalar bo‘yicha maslahatlar va portfellarni boshqarish xizmatlarini ham taklif etadi. Robo-maslahatchilar faoliyatining asosiy tamoyillari ham mavjud bo‘lib, ular yuqoridagi rasmda keltirib o‘tilgan (1-rasm). Shaffoflik jarayonlarni ochiq va tushunarli qilishga xizmat qilib, iqtisodiy faoliyatning ishonchliligini oshiradi. Obyektivlik esa qarorlar qabul qilishda xolislikni ta’minlab, resurslarni adolatli taqsimlashga yordam beradi. Bu ikki omil birgalikda iqtisodiy samaradorlikning poydevorini yaratadi.



1-rasm. Robo-maslahatchilar faoliyatining asosiy tamoyillari [2, 3-b]

Shaffoflik moliyaviy va boshqaruv ma’lumotlarining ochiq bo‘lishini talab qiladi. Bu korxona yoki tashkilotlar faoliyati haqida barcha manfaatdor tomonlarga aniq ma’lumot yetkazib beradi. Shaffoflik orqali tashkilotlarda korrupsiya va noqonuniy harakatlarning oldi olinadi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi muhim omildir. Obyektivlik esa qarorlar qabul qilishda shaxsiy manfaatlardan xoli bo‘lishni ta’minlaydi. Bu ko‘rsatkich iqtisodiy jarayonlarda xolis ma’lumotlardan foydalanishni rag‘batlantiradi. Obyektivlik tufayli resurslar samarali taqsimlanadi va iqtisodiy ko‘rsatkichlarning oshishiga erishiladi.

Robo-maslahatchilarning amaliy mexanizmlari zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning eng samarali yutuqlaridan biri sifatida shakllanib, ularning ishlash tamoyillari sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni qayta ishlash

jarayonlariga asoslanadi. Birinchi navbatda, robo-maslahatchilar mijozlardan zarur ma’lumotlarni yig‘adi va ushbu ma’lumotlar ularning moliyaviy profilini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mijozlarning daromadlari, xarajatlari, moliyaviy maqsadlari, riskka bo‘lgan munosabati va vaqt oraliqlari batafsil o‘rganiladi. Ushbu jarayon natijasida har bir mijozning moliyaviy ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiy profil yaratiladi. Keyingi bosqichda algoritmik modellar yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, investitsiya strategiyasini ishlab chiqadi. Portfel diversifikatsiyasi mexanizmlari yordamida turli aktivlar o‘rtasida mablag‘lar taqsimlanadi. Bu jarayonning asosiy maqsadi risklarni kamaytirish va rentabellikni oshirishdir. Amaliy mexanizmlarning muhim jihati shundaki, robo-maslahatchilar bozor dinamikasini real vaqt rejimida kuzatadi. Moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar aniqlansa, portfel qayta muvozanatlab turiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, robo-maslahatchilar turli investorlar va aholi mablag‘larini keng qamrovda jalb qilish uchun qulay imkoniyatlarga ega, chunki arzon va qulay xizmat, ishonchli boshqaruv, past darajadagi risk hamda uncha katta bo‘lmagan moliyaviy resurs bilan investitsiya faoliyatini boshlash imkoniyati robo-maslahatchilarning asosiy afzalliklari hisoblanadi. Ba’zida robo-maslahatchilarning institutsional investorlar bilan raqobatga kirishishi ham kapital bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. The future of advisory: exploring the impact of robo on wealth management. A Finextra white paper produced in association with EPAM, September 2016. – P. 5.

2. Cam-Duc Au., Philippe Krahnhof. The Role of Robo-Advisors in the German Banking Market - Critical Analysis on Human versus Digital Advisory Services. // Conference Paper, May 2020. – P. 3.

Umidova Fotima Iskandarbekovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Mustaqil tadqiqotchi,
e-mail: fotimaumidova@gmail. com

O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda masofaviy ta’limni samarali tashkil etish va boshqarishda institutsional yondashuvlar, raqamli infratuzilma, iqtisodiy vositalar hamda zamonaviy boshqaruv usullarining o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida masofaviy ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va ta’lim sifati barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.


Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, boshqaruv samaradorligi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, raqamli infratuzilma, ta’lim sifati, boshqaruv tizimi, O‘zbekiston

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi masofaviy ta’limni samarali tashkil etish va boshqarish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylantirmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim endilikda faqat an’anaviy ta’limning muqobil shakli emas, balki ta’lim xizmatlarining ochiqligi, moslashuvchanligi, uzluksizligi va qamrovini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda [1]. Shu sababli uni boshqarish samaradorligini oshirish, ayniqsa tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar asosida takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, elektron ta’lim platformalaridan foydalanish va ta’lim sifati boshqaruvini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq masofaviy ta’lim tizimini boshqarishda institutsional yondashuvlarni kuchaytirish, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy rag‘batlantirish vositalarini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamli monitoring va tahlil mexanizmlaridan keng foydalanish zarurati saqlanib qolmoqda. Aynan shu holat mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, tizimli yondashuv hamda masofaviy ta’limni tashkil etish va boshqarishga doir ilmiy manbalar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda amaliy tajribalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv masofaviy ta’lim tizimining amaldagi holatini baholash, boshqaruv jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni asoslab berish imkonini berdi [2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim tizimini samarali boshqarish faqat texnologik platformalarni joriy etish bilan cheklanmaydi, balki boshqaruvning institutsional, tashkiliy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirishni ham talab etadi. Zamonaviy sharoitda masofaviy ta’limning boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish darajasi, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, pedagog kadrlarning tayyorgarligi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarining takomillashganligiga bog‘liq. Shu sababli mazkur yo‘nalishda kompleks yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlaridagi talabalar soni dinamikasi, 2020/2021–2024/2025-o‘quv yillari, ming nafar

Diagramma O‘zbekistonda 2020/2021–2024/2025-o‘quv yillari davomida oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar sonining izchil oshganini aks ettiradi. Mazkur o‘sish masofaviy ta’lim tizimini boshqarishda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda ta’lim sifati monitoringini kuchaytirish zaruratini yanada oshiradi [3, 4, 5].

O‘rganishlar natijasida aniqlandiki, O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirish uchun, avvalo, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasida funksional uyg‘unlikni kuchaytirish va boshqaruv vakolatlarining aniq taqsimotini ta’minlash zarur. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va baholash jarayonlarini yagona boshqaruv mexanizmi asosida yo‘lga qo‘yish ham muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirishga va mavjud resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida masofaviy ta’lim tizimini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarning ham muhim o‘rin tutishi asoslandi. Xususan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish, pedagog va texnik xodimlarni iqtisodiy rag‘batlantirish, shuningdek, ta’lim xizmatlarining natijadorligiga asoslangan baholash tizimini joriy etish zarur. Mazkur iqtisodiy vositalar masofaviy ta’lim tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash, xarajatlar samaradorligini oshirish va boshqaruvning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash imkonini beradi.

Shuningdek, masofaviy ta’lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirishda raqamli monitoring, tahliliy platformalar, elektron nazorat mexanizmlari va ta’lim natijalarini baholashning shaffof mezonlaridan foydalanish muhim ekanligi aniqlandi. Bunday vositalar boshqaruv jarayonida tezkor axborot

almashinuvi, natijalarni muntazam kuzatib borish, muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada masofaviy ta’lim tizimi faoliyati yanada samarali, moslashuvchan va natijador tus oladi.

Shu bilan birga, institutsional omillar, jumladan, me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, ta’lim sifati boshqaruvi mexanizmlarini kuchaytirish, raqamli kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlash va ta’lim xizmatlari iste’molchilari ehtiyojlarini hisobga olish masofaviy ta’limni boshqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aynan shu omillar tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshirishga va O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimini boshqarishning zamonaviy modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’limning barqaror va samarali faoliyat yuritishi boshqaruv tizimining institutsional jihatdan takomillashganligi, tashkiliy jarayonlarning muvofiqlashtirilganligi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilishi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Shuningdek, masofaviy ta’lim tizimini samarali boshqarish uchun ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va baholash mexanizmlarini yagona tizim asosida takomillashtirish zarur. Bunda iqtisodiy rag‘batlantirish vositalaridan foydalanish, raqamli monitoring va tahlil mexanizmlarini joriy etish, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim sifati ustidan samarali nazoratni yo‘lga qo‘yish muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuv nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki masofaviy ta’lim xizmatlarining sifati, ochiqligi va natijadorligini ham kuchaytiradi.

Kelgusida O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimini boshqarish samaradorligini oshirish uchun me’yoriy-huquqiy bazani yanada mustahkamlash, tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va zamonaviy raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Natijada mamlakatda masofaviy ta’limni boshqarishning zamonaviy, moslashuvchan va samarali modeli shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida : O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? — Paris : UNESCO, 2023.
4. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. — Paris : OECD Publishing, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining 94, 2 foizi internetdan foydalanadi. — Toshkent, 2025.

Yaxshiboyev Rustam Erkinboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Mustaqil tadqiqotchi,
e-mail: r. yaxshiboyev@tsue. uz

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA’LIM METODOLOGIYASINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda masofaviy ta’lim metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasi yoritiladi. Unda masofaviy ta’limning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, xalqaro standartlarning metodologik ahamiyati hamda ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ta’lim sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy yondashuvlar asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, masofaviy ta’lim, xalqaro standartlar, ta’lim metodologiyasi, raqamlashtirish, ta’lim sifati.

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta’lim tizimini tubdan yangilashni, ayniqsa masofaviy ta’limni ilmiy-metodik asosda takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim endilikda faqat muqobil ta’lim shakli emas, balki ta’lim xizmatlarining ochiqligi, moslashuvchanligi va uzluksizligini ta’minlaydigan muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda [1]. Shu bois uni tashkil etish, boshqarish va baholash jarayonlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasi alohida ilmiy va amaliy axamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, masofaviy ta’lim platformalaridan samarali foydalanish hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Biroq masofaviy ta’limning metodologik asoslarini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim mazmuni, pedagogik yondashuvlar, raqamli kompetensiyalar va natijalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Aynan shu holat mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.


Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda masofaviy ta’lim metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasi tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, tizimli yondashuv hamda masofaviy ta’limni tashkil etishga doir xalqaro me’yorlar va ilmiy manbalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv masofaviy ta’limning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi [2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot ta’lim tizimiga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Endilikda ta’lim jarayonida nafaqat axborotni

uzatish, balki interaktivlikni kuchaytirish, ta’lim resurslaridan erkin foydalanish, individual yondashuvni qo‘llash, natijadorlikni baholashning shaffof mexanizmlarini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlar masofaviy ta’lim metodologiyasini shakllantirishda asosiy yo‘nalish beruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ta’lim sifati, o‘quv materiallarining mosligi, pedagogik yondashuvlarning zamonaviyligi hamda raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Diagramma O‘zbekistonda 2021–2025-yillarda internetdan foydalanuvchilar ulushining izchil oshganini aks ettiradi. Ushbu ijobiy dinamika mamlakatda raqamli infratuzilmaning mustahkamlanib borayotganini va masofaviy ta’limni rivojlantirish uchun yanada qulay sharoit shakllanayotganini ko‘rsatadi [3, 4, 5].

O‘rganishlar natijasida aniqlandiki, O‘zbekistonda masofaviy ta’limni rivojlantirishda raqamli platformalarni keng joriy etish bilan bir qatorda, ularning metodik asoslarini takomillashtirish ham zarur. Xususan, o‘quv jarayonida xalqaro standartlarga mos elektron resurslardan foydalanish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim mazmunini raqamli muhitga moslashtirish va o‘quv natijalarini baholashning ishonchli mezonlarini shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bunday yondashuv masofaviy ta’limning samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini barqaror ta’minlash va oliy ta’lim muassasalarining xalqaro ta’lim maydonidagi raqobatbardoshligini kuchaytirish imkonini beradi.



1-rasm. O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar ulushi dinamikasi, 2021–2025, %

Shuningdek, tadqiqot davomida masofaviy ta’lim metodologiyasini takomillashtirishda institutsional omillar ham muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Jumladan, normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ta’lim platformalari o‘rtasida integratsiyani ta’minlash va sifat monitoringi tizimini kuchaytirish zarur. Aynan shu omillar xalqaro standartlarni milliy ta’lim tizimiga samarali joriy etishning amaliy asosini tashkil etadi. Natijada raqamli iqtisodiyot sharoitida masofaviy ta’lim metodologiyasini takomillashtirish nafaqat ta’lim jarayonini modernizatsiya qiladi, balki mamlakatning intellektual va innovatsion salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistonda masofaviy ta’lim metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim samaradorligini oshirish uchun uning metodologik asoslarini zamonaviy talablar darajasida yangilash, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda raqamli vositalardan maqsadli va tizimli foydalanishni kuchaytirish zarur.

Shu bilan birga, xalqaro standartlarga tayangan holda masofaviy ta’limni rivojlantirish ta’lim sifati, ochiqligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat ta’lim oluvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini yuksaltirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va milliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim maydoniga integratsiyalashuvini jadallashtirish uchun ham muhim asos yaratadi.

Kelgusida O‘zbekistonda masofaviy ta’lim metodologiyasini takomillashtirishda xalqaro tajribani chuqur o‘rganish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, elektron ta’lim resurslari sifatini oshirish va natijalarni baholashning shaffof mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday yondashuv mamlakatda zamonaviy, samarali va barqaror ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? — Paris : UNESCO, 2023.
2. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. — Paris : OECD Publishing, 2023.
3. European Commission. Digital Education Action Plan (2021–2027). — Brussels : European Commission, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining 94, 2 foizi internetdan foydalanadi. — Toshkent, 2025.

Madiyeva Zuxra Iskandarbekovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Mustaqil tadqiqotchi,
e-mail: zuxraxon1119@gmail. com

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvi samaradorligini oshirishning raqamli mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda elektron tijorat sohasini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli platformalar, to‘lov tizimlari hamda innovatsion yondashuvlarning o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, raqamli mexanizmlar, boshqaruv samaradorligi, raqamli platformalar, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, O‘zbekiston

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi elektron tijorat sohasining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni va ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, elektron tijorat nafaqat tovar va xizmatlar almashinuvining zamonaviy shakli, balki biznes jarayonlarini tezlashtirish, bozordagi raqobat muhitini kengaytirish, xaridorlar uchun qulaylik yaratish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Shu bois elektron tijoratni rivojlantirishni samarali boshqarish hamda ushbu jarayonda raqamli mexanizmlardan keng foydalanish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda [1].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda elektron tijoratni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, onlayn savdo platformalarini takomillashtirish, elektron to‘lov tizimlarini rivojlantirish va raqamli xizmatlar ko‘lamini oshirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq sohani boshqarish tizimida samaradorlikni oshirish, elektron tijorat subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, raqamli platformalarning funksional imkoniyatlarini kengaytirish hamda iste’molchilar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan yondashuvlarni yanada takomillashtirish zarurati сақланиб qolmoqda. Aynan shu holat mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.


Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi raqamli mexanizmlarni aniqlash va ularni ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvi samaradorligini oshirishning raqamli mexanizmlari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, tizimli yondashuv hamda elektron tijoratni rivojlantirishga doir

ilmiy manbalar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv elektron tijorat sohasining amaldagi holatini baholash, boshqaruv jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni hal etishda samarali raqamli mexanizmlarni asoslab berishga xizmat qildi [2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish faqat texnologik yangilanish bilan cheklanmaydi, balki boshqaruv tizimining zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirilishini ham talab etadi. Elektron tijorat sohasida boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan raqamli platformalarning funksional imkoniyatlari, elektron to‘lov tizimlarining ishonchliligi, logistika xizmatlarining uzluksizligi, axborot xavfsizligi darajasi va iste’molchilar bilan raqamli aloqalarning samaradorligiga bog‘liq. Shu sababli mazkur yo‘nalishda kompleks yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Diagramma O‘zbekistonda 2016–2024-yillarda elektron tijorat savdo hajmining izchil va keskin oshganini aks ettiradi. Ushbu o‘sish mamlakatda raqamli infratuzilma, elektron to‘lov tizimlari va onlayn savdo platformalarining rivojlanib borayotganini, shuningdek, elektron tijoratni boshqarish samaradorligini oshirish uchun qulay iqtisodiy va texnologik asos shakllanayotganini ko‘rsatadi [4, 5, 6].



1-rasm. O‘zbekistonda elektron tijorat savdo hajmi dinamikasi, 2016–2024, mlrd so‘m

O‘rganishlar natijasida aniqlandiki, O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun, avvalo, raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish, elektron savdo platformalarining integratsion imkoniyatlarini kengaytirish, ma’lumotlar almashinuvi tezligi va aniqligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamli tahlil vositalaridan foydalanishni kuchaytirish zarur. Shuningdek, elektron tijorat subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi axborot oqimlarini

tartibga solish va mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar sifatini oshirish ham boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Tadqiqot davomida elektron tijoratni boshqarishda raqamli mexanizmlar sifatida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, elektron monitoring, raqamli marketing vositalari, mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilishga xizmat qiluvchi analitik platformalar hamda xavfsiz elektron to‘lov texnologiyalarining o‘rni yuqori ekanligi asoslandi. Bunday mexanizmlar elektron tijorat jarayonlarini tezlashtirish, xarajatlarni qisqartirish, boshqaruv shaffofligini oshirish va bozorning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada elektron tijoratni rivojlantirishni boshqarish tizimi yanada samarali, moslashuvchan va natijador tus oladi.

Shu bilan birga, elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvi samaradorligini oshirishda institutsional omillar ham muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Xususan, me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, elektron tijorat ishtirokchilari uchun qulay biznes muhitini yaratish, raqamli ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda iste’molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Aynan shu omillar raqamli mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshirishga va O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvining zamonaviy modelini shakllantirishga imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvi samaradorligini oshirishda raqamli mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, elektron tijorat sohasining barqaror rivojlanishi raqamli infratuzilmaning takomillashuvi, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining joriy etilishi, elektron platformalar faoliyatining integratsiyalashuvi hamda axborot almashinuvi samaradorligining oshirilishi bilan bevosita bog‘liq.

Shuningdek, elektron tijoratni samarali boshqarish uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish, elektron to‘lovlar xavfsizligini ta’minlash, logistika va servis xizmatlarini raqamli asosda muvofiqlashtirish, shuningdek, analitik vositalar orqali boshqaruv qarorlarini asoslash zarur. Bunday yondashuv nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki bozor subyektlari faoliyatining shaffofligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Kelgusida O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash va iste’molchilar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Natijada mamlakatda elektron tijoratni boshqarishning zamonaviy, samarali va barqaror modeli shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Elektron tijorat to‘g‘risida : O‘RQ-792-son, 2022-yil 29-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida : 185-son, 2016-yil 2-iyun.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: Farmon, PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Elektron tijorat savdo hajmi (yillik). — Toshkent, 2025.
5. OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024. Volume 2. — Paris: OECD Publishing, 2024.
6. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. — New York; Geneva: United Nations, 2024.

Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna
Farg‘ona davlat texnika unversiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi.
e-mail: zebosh1986@gmail. com

BIOLOGIK AKTIVLAR BUXGALTERIYA HISOBIDA RAQAMLI BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni samarali boshqarishda raqamli monitoring texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. IoT sensorlari, dronlar, sun’iy intellekt, GIS tizimlari kabi raqamli yechimlar yordamida o‘simliklar va chorva hayvonlarining rivojlanish holati, joylashuvi, sog‘lomligi va hosildorligi real vaqt rejimida nazorat qilinishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari raqamli monitoring tizimlari aktivlar qiymatini adolatli baholash, kutilmagan yo‘qotishlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: biologik aktivlar, raqamli monitoring, IoT, dronlar, GIS, qishloq xo‘jaligi, adolatli qiymat, sun’iy intellekt, aktivlarni boshqarish.

Kirish. Global iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish, boshqaruv va moliyaviy tizimlarning tubdan yangilanishiga olib kelmoqda. Qishloq xo‘jaligi ham raqamli transformatsiyadan chetda qolmayapti. Biologik aktivlar — chorva mollari, ko‘p yillik o‘simliklar, parrandalar va boshqa tirik organizmlar — o‘zining dinamik biologik xususiyati sababli buxgalteriya hisobida alohida yondashuvni talab qiladi.

Xalqaro amaliyotda biologik aktivlar hisobini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjat 41-sonli BHXS “Qishloq xo‘jaligi” hisoblanadi. Ushbu standart biologik aktivlarni adolatli qiymatda baholashni nazarda tutadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish jarayonlari ko‘p omilli, mavsumiy va yuqori darajada xavf-xatarlidir. Biologik aktivlar – ya’ni hosildor o‘simliklar va tirik chorva hayvonlari – tirik organizmlar bo‘lgani sababli ularning o‘sishi, rivojlanishi va mahsuldorligi tashqi muhit sharoitlari, agrotexnik tadbirlar va boshqaruv sifatiga bevosita bog‘liq. An’anaviy nazorat va kuzatuv usullari ko‘p hollarda jarayonlarning real vaqt rejimidagi o‘zgarishlarini aks ettira olmaydi,

buning natijasida aktivlar qiymatini baholashda aniqlik yetishmaydi, hosildorlik pasayishi va kutilmagan yo‘qotishlar yuzaga keladi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, xususan IoT sensorlari, dronlar, GIS tizimlari, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni boshqarishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu texnologiyalar orqali ekin maydonlari namligi, tuproq harorati, o‘simliklarning rivojlanish darajasi, chorva hayvonlari harakati va sog‘ligi kabi ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. Bu esa biologik aktivlar holatini ob’yektiv baholash, resurslardan tejamkor foydalanish, xavf-xatarlarni oldindan prognozlash hamda adolatli qiymatni aniqlashda yuqori aniqlik ta’minlaydi. [7’b]

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi, xususan chorvachilik va ekin yetishtirish tarmoqlari barqaror rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo‘lib, aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqat xavfsizligiga bo‘lgan talabning oshishi biologik aktivlar – ya’ni tirik hayvonlar va o‘simlik resurslariga ehtiyojni oshirmoqda. Qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i bo‘lib, 2024-yilda mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 444, 6 trillion so‘mni tashkil etgan, bu esa 2020-2024 yillarda 18, 5 % o‘sishni ko‘rsatadi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi “Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, 2 million gektar hajmda tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o‘simliklarini biobotanik tekshirishni har yili amalga oshirish, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirish. ” deb nomlangan 71-maqsad bo’yicha ustuvor vazifalar belgilangan. [1] Bunda biologik aktivlar hisobi va bahosining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash, ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish hamda O‘zbekiston tadbirkorlik subyektlari sharoitiga mos taklif va mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga kelishi ilmiy va amaliy nuqtai nazardan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy qism. Tadqiqot davomida qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni boshqarishda qo‘llanilayotgan raqamli monitoring texnologiyalarining amaliy samaradorligi, ularning iqtisodiy va boshqaruv jarayonlariga ta’siri chuqur o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamlashtirish jarayonlariga qadar biologik aktivlar bo‘yicha ma’lumotlar odatda vizual kuzatuv, davriy tekshiruv va qo‘lda yuritiladigan qaydlarga asoslangan bo‘lib, bu ma’lumotlarning aniqligi, to‘liqligi va vaqtga sezgirligi past bo‘lgan. Raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi ushbu jarayonlarni tubdan o‘zgartirdi. [2]

Birinchidan, IoT sensorlari yordamida ekin maydonlari va chorva mollarining holati real vaqt rejimida qayd etilishi boshqaruv samaradorligini keskin oshirdi. Tuproq namligi, havo harorati, o‘simlik ozuqa moddalarining yetarliligi, chorva hayvonlarining tana harorati va harakat faolligi kabi parametrlarning avtomatik o‘lchovi fermerga aniq qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Tahlillar natijasida sensorlar qo‘llanilgan xo‘jaliklarda suv sarfi 18–25 foizga, o‘g‘it xarajatlari esa 10–15 foizga kamayganligi qayd etildi.

Ikkinchidan, dron texnologiyalari yordamida o‘simliklar rivojlanish dinamikasini masofadan tahlil qilish nisbatan keng hududlarda bir xil aniqlikda monitoring o‘tkazish imkonini berdi. Vegetatsiya indekslari (NDVI- Normalized Difference Vegetation Index, SAVI- Soil Adjusted Vegetation Index), o‘simlik zichligi va kasallik belgilari tezkor aniqlanib, agrotexnikarboro o‘z vaqtida qo‘llanilgan. Bu hosildorlikning o‘rtacha 12–20 foizga oshishiga olib kelgan.

Uchinchidan, GIS tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi tahliliy modellar biologik aktivlarning joylashuvi, o‘sish intensivligi, xavf zonalari va hosil prognozini aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Muayyan hududlarda tuproq sho‘rlanishi, suv yetishmovchiligi yoki kasallik tarqalishidan kelib chiqadigan risklarning oldini olish uchun geoxaritalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv aktivlarning qadrsizlanish ehtimolini 15–22 foizga kamaytirgan. [3]

To‘rtinchidan, raqamli monitoring tizimi biologik aktivlarning adolatli qiymatini belgilash jarayonini ancha soddalashtirdi. Oldin qiymat baholash jarayoni mavsumiy, subyektiv va o‘rtacha me’yorlarga asoslangan bo‘lsa, raqamli ma’lumotlar asosida aktiv holatini baholash ob’yektiv va izchil bo‘ldi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda xatoliklar kamayishiga va baholashning xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minladi. [4]

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli monitoring tizimlaridan foydalanayotgan xo‘jaliklarda quyidagi natijalar kuzatildi:

-hosildorlikning oshishi – 12 — 20%,

-xarajatlarning qisqarishi – 18 — 25%,

-aktivlar qadrsizlanishi riskining pasayishi – 15 — 22%,

-boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezligi — 30 — 40% ga yaxshilangan.

Ushbu raqamlar shuni tasdiqlaydiki, raqamli monitoring texnologiyalarining joriy etilishi qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlar boshqaruvini optimallashtirib, samaradorlikni oshirishga, resurslardan tejamkor foydalanishga va iqtisodiy natijalarni yaxshilashga sezilarli hissa qo‘shadi. [5]

Xulosa. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni boshqarishda raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. IoT sensorlari, dronlar, GIS texnologiyalari va sun’iy intellektga asoslangan tahlil vositalarining qo‘llanilishi biologik aktivlarning holati, rivojlanish jarayoni, joylashuvi va ishlab chiqarish natijalarini real vaqt rejimida kuzatishga imkon yaratdi. Bu esa an’anaviy nazorat usullariga nisbatan ancha aniqlik, tezkorlik va ob’yektivlikni ta’minlab, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshiladi [6].

Raqamli monitoringning amaliy joriy etilishi natijasida suv va o‘g‘it xarajatlarining keskin kamayishi, hosildorlikning oshishi, kasalliklar va nobud bo‘lish xavfini oldindan prognozlash imkoniyatining kuchayishi kuzatildi. Shuningdek, raqamli ma’lumotlar biologik aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash jarayonini ancha osonlashtirib, moliyaviy hisobotlarda aniqlik va shaffoflikni ta’minladi.

Umuman olganda, raqamli monitoring tizimlari qishloq xo‘jaligi korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, aktivlar qadrsizlanishi riskini kamaytirish va raqobatbardoshlikni

oshirishda muhim innovatsion asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni yanada integratsiyalash, ma’lumotlarni sun’iy intellekt asosida chuqur tahlil qilish va ularni boshqaruvning barcha bo‘g‘inlariga tatbiq etish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi /www. lex. uz.

2. В. М. Витальевна Развитие организационно-методического обеспечения управленческого учета биологических активов Автореферат диссертации д. э. н. Воронеж – 2022.

3. Axmadaliyeva, Z. A. (2023). MHXS ASOSIDA INVESTITSION MULKLARNI HISOBGA OLISHNING O‘ZIGA XOSLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 801-811.

4. Abduxalimovna A. Z., & Nabiyevich I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(11), 86-92.

5. Abduxalimovna A. Z. (2024). XALQARO VA MILLIY STANDARTLARGA KO‘RA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINING MUAMMOLI MASALALARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 499-506.

Xatamov Dilmurad Baxriddinovich
Turan International University
m. iqt. 25-au guruhi magistranti

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

Annotatsiya. Raqamli transformatsiya bilan tavsiflanayotgan hozirgi davrda sun’iy intellekt (AI) korporativ raqobatbardoshlikning muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Mazkur maqola «AI» texnologiyalarini joriy etishning innovatsion faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sirini, shuningdek, ushbu ta’sirning ma’lumotlar elementlari orqali amalga oshiriladigan vositachilik mexanizmi hamda tashqi raqamli iqtisodiyotning moderatorlik roli orqali qanday shakllanishini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt (AI), innovatsion faoliyat samaradorligi, vositachilik ta’siri, moderatorlik ta’siri, resursga asoslangan qarash, raqamli transformatsiya.

Kirish. Jahon iqtisodiy manzarasi sun’iy intellektning (AI) asosiy texnologiya sifatida yuksalishi natijasida chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, «AI» zamonaviy Umumiy Maqsadli Texnologiya (UMT) sifatida talqin etilib, bug‘ dvigateli yoki

elektr energiyasi singari deyarli barcha tarmoqlarda ishlab chiqarish, boshqaruv va innovatsiya jarayonlarini tizimli ravishda qayta shakllantirish salohiyatiga ega. Korxonalar raqobatbardosh ustunlikni ta’minlash maqsadida «AI» texnologiyalarini o‘z faoliyatining turli bosqichlariga, mahsulot dizaynidan tortib jarayonlarni avtomatlashtirish va strategik qarorlar qabul qilishgacha, keng ko‘lamda joriy etmoqda [1]. Dastlabki ilmiy tadqiqotlar «AI» investitsiyalari va korxona samaradorligi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini ko‘rsatib, texnologiyani joriy etgan korxonalar odatda innovatsion rivojlanishning yuqori sur’atlari bilan ajralib turishini tasdiqlaydi.

Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, bizning mamlakitmizda ham, sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu soha uchun malakali kadrlar tayyorlashga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori qabul qilingan.

«AI»ning bilimlarni kashf etish jarayonini tezlashtirish va tadqiqot-tajriba-konstruktorlik ishlari (TTKI) samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari uning patentlar va yangi mahsulotlar kabi innovatsion natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatish salohiyatini namoyon etadi [2]. Biroq, «AI» va innovatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq kuzatilayotgan bo‘lsa-da, ushbu munosabatni ta’minlovchi mexanizmlar hamda uni kuchaytiruvchi kontekstual omillar hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mazkur texnologik transformatsiya milliy iqtisodiy siyosatda, xususan, ma’lumotlarning strategik ahamiyatini qayta baholash jarayoni bilan bir vaqtda kechmoqda. Korxonaning Resursga asoslangan yondashuvi (RAQ)ga ko‘ra, raqobatbardosh ustunlik qimmatli, noyob va taqlid qilib bo‘lmaydigan resurslarga tayanadi. Raqamli davrda ma’lumotlar aynan shunday strategik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda [3].

Ko‘plab davlatlar ma’lumotlarni yangi ishlab chiqarish omili sifatida e’tirof etib, uni yer, mehnat, kapital va texnologiya bilan teng darajada baholamoqda. Bu yondashuv ma’lumotlarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim strategik ustuvorlikni belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, ma’lumotlar elementlari (data), ya’ni korxonalarning tuzilgan va tuzilmagan axborot aktivlari, qiymat yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [4]. Ma’lumotlar «AI» algoritmlarini “oziqlantiradi”, bozor tahlilini aniqlashtiradi hamda strategik qarorlar sifatini oshiradi. Natijada korxonaning innovatsion salohiyati sezilarli darajada yuksaladi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori sifatli ma’lumotlar aktivlariga ega korxonalar resurslarni samarali taqsimlash va TTKI bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ustunlikka ega bo‘lib, yaxshiroq innovatsion natijalarga erishadi.

Bu holat «AI» va ma’lumotlar o‘rtasidagi sinergik bog‘liqlikni ifodalaydi: «AI» ma’lumotlarda yashirin qiymatni aniqlash imkonini bersa, ma’lumotlar innovatsion jarayonning asosiy “yonilg‘isi” vazifasini bajaradi. Shu bois, ma’lumotlar «AI» va innovatsion faoliyat samaradorligi o‘rtasidagi munosabatda muhim vositachilik rolini o‘ynaydi. Korxonaning «AI» va ma’lumotlarga

asoslangan ichki strategiyalarining samaradorligi tashqi muhit bilan chambarchas bog‘liq. Kontingentlik nazariyasiga ko‘ra, boshqaruvning universal modeli mavjud emas va tashkiliy samaradorlik korxona hamda uning tashqi muhiti o‘rtasidagi muvofiqlikka bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, raqamli infratuzilma, elektron tijorat platformalari va raqamli boshqaruv tizimlarini o‘z ichiga olgan raqamli iqtisodiyot (DIGECON) muhim kontingent omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Rivojlangan raqamli iqtisodiyot innovatsiyalar uchun qulay ekotizim yaratib, korxonalarga ilg‘or ulanish imkoniyatlari, keng axborot tarmoqlari va TTKI hamda tijoratlashtirish xarajatlarini kamaytiruvchi raqamli xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Natijada, «AI» investitsiyalarining samaradorligi raqamli jihatdan rivojlangan hududlarda sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Aksincha, raqamli infratuzilmasi sust rivojlangan hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalar o‘z texnologik investitsiyalaridan to‘liq foyda olishda muayyan cheklovlarga duch kelishi mumkin. Bu esa raqamli iqtisodiyot rivojlanish darajasi «AI»ning korporativ innovatsiyalarga ta’sirini moderatsiya qiluvchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi [5]. Mazkur jihat korporativ strategiya va davlat siyosatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar faoliyat yuritayotgan raqamli muhit «AI» va ma’lumotlarga kiritilgan investitsiyalardan olinadigan samaradorlikni hal qiluvchi darajada belgilaydi. Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarning tarqalishi, infratuzilma (jumladan, keng polosali va mobil tarmoqlar), raqamli platformalar hamda aholining umumiy raqamli savodxonlik darajasini o‘z ichiga oladi. Rivojlangan raqamli iqtisodiyot korxona darajasidagi innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi tashqi resurslar va infratuzilmani taqdim etadi.

Xususan, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari va bulutli hisoblash xizmatlarining keng joriy etilishi korxonalar uchun ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash xarajatlarini kamaytiradi, bu esa «AI» va katta hajmdagi ma’lumotlar tahlilini amaliyotga tatbiq etishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Shu bilan birga, elektron tijorat platformalari va moliyaviy texnologiyalar (fintech) xizmatlari kabi raqamli platformalar tarmoq effektlari orqali bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi.

2024 yil oktyabrida O‘zbekiston 2030 yilgacha «AI» texnologiyalarini rivojlantirish Milliy strategiyasini qabul qildi, 2025 yil noyabrida esa Senat yangi SI qonunini tasdiqladi. Strategiya qo‘yidagi katta maqsadlarni belgilaydi: 2030 yilga qadar milliy «AI» bozorini $1, 5 mlrd ga yetkazish, davlat xizmatlarining kamida 10% ni «AI» asosida tashkil etish va O‘zbekistonni Hukumat «AI» Tayyorgarligi Indeksida dunyoning Top 50 mamlakatlari qatoriga olib chiqish vazifasi qo‘yildi. O‘zbekiston sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarga qariyb 2 milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qildi, IT xizmatlari eksporti 4, 5 baravar oshdi va startaplar soni o‘n baravar ko‘paydi, bu esa 300 million dollarlik investitsiyalarni jalb qildi.

O‘zaro ta’sir effektlari nuqtai nazaridan, raqamli iqtisodiyot «AI» texnologiyalarini joriy etishning innovatsion faoliyat samaradorligiga ta’sir kuchini sezilarli darajada shartlantiradi. Yuqori darajada raqamlashtirilgan muhitda faoliyat yurituvchi korxonalar «AI» texnologiyalarini o‘z qiymat zanjiriga samarali

integratsiya qilishi, raqamli kanallar orqali iste'molchilarga tezkor chiqishi va raqamli tarmoqlar orqali hamkorlikni rivojlantirishi mumkin. Natijada, innovatsion ta'sir kuchayadi. Aksincha, raqamli infratuzilmasi sust rivojlangan muhitda «AI» texnologiyalarini qo'llayotgan korxonalar to'ldiruvchi infratuzilma va bozor tayyorgarligining yetishmasligi sababli texnologiyadan to'liq darajada foydalana olmasligi mumkin.

So'nggi empirik tadqiqotlar ham ushbu nazariy mantiqni tasdiqlaydi. Xususan, ma'lumotlar elementlarining innovatsion faoliyatga ijobiy ta'siri yuqori darajadagi raqamli infratuzilmaga ega hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalarda yanada yaqqol namoyon bo'lishi aniqlangan. Bu esa raqamli iqtisodiyot omillari (infratuzilma va raqamli xizmatlar) ichki resurslardan olinadigan innovatsion samarani kuchaytirishini anglatadi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi qator tashqi cheklovlarni kamaytiradi. Jumladan, raqamli moliyaviy xizmatlar innovatsion korxonalar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi, raqamli davlat xizmatlari esa patentlash va litsenziyalash kabi jarayonlarni soddalashtiradi. Ushbu omillar raqamli iqtisodiyotning moderator sifatidagi rolini yanada mustahkamlaydi. Shu bois, mazkur tadqiqot doirasida «AI» ilovalarining innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'siri raqamli iqtisodiyoti rivojlangan sharoitlarda yanada kuchliroq namoyon bo'lishi kutiladi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot «AI» va ma'lumotlarga asoslangan innovatsiyalar uchun qulay institutsional va texnologik muhitni shakllantiruvchi "platforma" sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari innovatsiyani faqat texnologiya bilan izohlovchi soddalashtirilgan yondashuvni inkor etadi. Aksincha, «AI»ning haqiqiy salohiyati faqatgina ma'lumotlar resurslari va rivojlangan raqamli ekotizim bilan uyg'unlashgan kompleks strategiya orqali ro'yobga chiqishini ko'rsatadi. «AI» investitsiyalaridan real innovatsion natijalarga o'tish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mustahkam ma'lumotlar bazasi va qo'llab-quvvatlovchi raqamli muhit asosida bosqichma-bosqich shakllanadigan murakkab tizimli jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Babina, T., Fedyk, A., He, A., & Hodson, J. (2024). Artificial intelligence, firm growth, and product innovation. Journal of Financial Economics, 151, Article 103745. Carri'ere-Swallow, Y., & Haksar, V. (2019). The economics and implications of data: An integrated perspective (IMF departmental paper no. 19/03). Washington, DC: https: //alexxihe. github. io/jfe. pdf

2. Durongkadej, I., Hu, W., & Wang, H. E. (2024). How artificial intelligence incidents affect banks and financial services firms? A study of five firms. Finance Research Letters, 70, Article 106279. https: //www. mdpi. com/1911-8074/19/1/21

3. Li, J., Wu, T., Hu, B., Pan, D., & Zhou, Y. (2025). Artificial intelligence and corporate ESG performance. International Review of Financial Analysis, 102, Article 104036.

4. Liu, L., Zhang, Y., Gong, X., Li, M., Li, X., Ren, D., & Jiang, P. (2022). Impact of digital economy development on carbon emission efficiency: A spatial econometric analysis based on Chinese provinces and cities. International Journal of Environmental Research and Public Health, 19(22), Article 14838.

5. Ma, J., Shang, Y., & Liang, Z. (2025). Digital transformation, artificial intelligence and enterprise innovation performance. Finance Research Letters, 78, Article 107190.

Tursunova Nigora Ulug‘bek qizi
Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

INNOVATSION TADBIRKORLIKNI O‘SISHINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA INFRATUZILMA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmalaridan foydalanish hamda korxonalar o‘sishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil etadi. Tadqiqot doirasida qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasining uch turi biznes-inkubatorlar, texnologik markazlar va universitetlar ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur infratuzilmalardan kompleks foydalanish yosh innovatsion kompaniyalarning o‘sishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion tadbirkorlik, yosh innovatsion kompaniyalar, qo‘llab-quvvatlash infratuzilmalari, biznes-inkubatorlar, texnologik markazlar, innovatsion ekotizim, iqtisodiy o‘sish, tadbirkorlik siyosati.

Tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab xarakterga ega bo‘lishiga qaramay, empirik tadqiqotlar davlat siyosati innovatsiyalarni rag‘batlantirish hamda yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shishini tasdiqlaydi. Innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmalari (ITQI) mazkur siyosatning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi [1]. Biznes-inkubatorlar va texnologik markazlar o‘rtasida muayyan farqlar mavjud bo‘lsa-da, ular hukumatlar tomonidan, ayniqsa mintaqaviy darajada, tadbirkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, bilimlarni yaratish va transfer qilishda muhim rol o‘ynovchi universitetlar ham mazkur infratuzilmalar tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ITQIdan foydalanish masalasi mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro darajalarda ilmiy hamjamiyat hamda siyosat ishlab chiquvchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Innovatsiya va tadbirkorlik alohida yoki o‘zaro uyg‘unlikda iqtisodiy farovonlik va barqaror o‘sishning asosiy omillari sifatida namoyon bo‘ladi [2]. Mazkur tadqiqot doirasida ITQIdan foydalanish va o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik yosh innovatsion kompaniyalar (YIK) misolida o‘rganiladi. YIKlar tabiatan innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlar bo‘lib, ularning innovatsion faollik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Tadqiqot aynan

YIKlarning ITQIdan foydalanishi va ularning o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan [3].

Innovatsiya va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati: infratuzilmalar. Tadbirkorlik siyosati yangi biznes subyektlarini rag‘batlantirish hamda ularga dastlabki bosqichdagi muammolarni bartaraf etishda ko‘maklashuvchi institutsional muhitni shakllantirishga qaratilgan. Natijada, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali tadbirkorlik tashabbuslari yuzaga kelishi rag‘batlantiriladi. Innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmalari davlat siyosatining muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘lib, ular bilim va texnologiyalarni yaratish, transfer qilish hamda tijoratlashtirish jarayonlarida vositachi rolini bajaradi [4]. Ushbu infratuzilmalar kompaniyalarni yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish hamda bozorga chiqarishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Mazkur infratuzilmalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi. Birinchidan, biznes-inkubatorlar innovatsion korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ular quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:

(1) bozor imkoniyatlarini aniqlash, texnologiya, moliyalashtirish va huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar berish;

(2) biznes-rejalar ishlab chiqish hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar o‘tkazish;

(3) yangi biznes tashabbuslarini ishga tushirish va dastlabki bosqichda ularni qo‘llab-quvvatlash;

(4) innovatsion firmalarni vaqtinchalik joylashtirish uchun zarur infratuzilma bilan ta’minlash;

(5) firmalarning barqaror rivojlanishi, ish o‘rinlari yaratishi va bozor raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashish.

Ikkinchidan, texnologik markazlar innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular innovatsiya va texnologik taraqqiyotni rag‘batlantirish, sanoat bilan integratsiyani kuchaytirish hamda ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi. Texnologik markazlar turli mamlakatlarda o‘zining tashkiliy shakli, faoliyat yo‘nalishi va maqsadli auditoriyasi jihatidan farq qiladi. Shu sababli yagona universal model mavjud emas. Biroq ularning barchasiga xos umumiy jihatlar sanoatga yo‘naltirilganlik va innovatsion xizmatlar ko‘rsatish mavjud. Ular qisqa muddatda mahsulot sifatini nazorat qilish, o‘rta muddatda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, uzoq muddatda esa ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni rivojlantirishga qaratilgan xizmatlarni amalga oshiradi.

Uchinchidan, universitetlar innovatsion ekotizimning muhim instituti hisoblanadi. Ular bilimlarni yaratish, transfer qilish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Universitetlarning ilmiy salohiyati va texnologik imkoniyatlari innovatsion biznes rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Universitetlar bilan hamkorlik qiluvchi biznes subyektlari bilimga asoslangan resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday hamkorlik ayrim xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin, jumladan, intellektual mulk bilan bog‘liq cheklovlar yoki texnologik optimizmning ortiqcha darajada baholanishi.

Ko‘plab tadqiqotlar innovatsion tadbirkorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi [5]. Xususan, D. Audretsch tadqiqotlarida kichik firmalar yangi ish o‘rinlarining asosiy qismini yaratishi qayd etilgan. Shuningdek, Global Tadbirkorlik Monitori (GEM) ma’lumotlari ham innovatsion firmalar faoliyati iqtisodiy o‘sishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotda asosiy e’tibor yosh innovatsion kompaniyalarga (YIK) qaratiladi. YIKlar faoliyat muddati 8 yildan kam bo‘lgan hamda so‘nggi 3 yil ichida innovatsion mahsulot yoki jarayonlarni joriy etgan korxonalardir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu turdagi korxonalar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, sanoat tuzilmasini yangilash va innovatsiyalarni keng yoyishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, so‘nggi yillarda akademik doiralar va siyosat ishlab chiquvchilar tomonidan YIKlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida YIKlarni tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar keng joriy etilgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash infratuzilmalaridan (ITQI) samarali foydalanish, yosh innovatsion kompaniyalar (YIK) o‘sishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, biznes-inkubatorlar, texnologik markazlar va universitetlarning o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish, yangi bilim va texnologiyalarni yaratish hamda ularni tijoratlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, alohida infratuzilma elementlariga nisbatan ularning kompleks qo‘llanilishi yuqori natijadorlikni ta’minlaydi.

Biznes-inkubatorlar startap bosqichidagi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynasa, texnologik markazlar ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni takomillashtirishga xizmat qiladi, universitetlar esa bilimlar transferi va inson kapitalini rivojlantirish orqali innovatsion ekotizimni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, universitetlar va biznes o‘rtasidagi hamkorlik ayrim institutsional va tashkiliy muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkinligi aniqlandi. Xususan, intellektual mulk bilan bog‘liq cheklovlar yoki texnologik imkoniyatlarni ortiqcha baholash holatlari YIKlarning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Umuman olganda, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini takomillashtirishda ITQIni tizimli va o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan ushbu infratuzilmalarni qo‘llab-quvvatlash, ular o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda YIKlar uchun qulay institutsional muhit yaratish iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Belso-Martinez, J. A., Molina-Morales, F. X., & Mas-Verdu, F. (2013). Combining effects of internal resources, entrepreneur characteristics, and KIS on new firms. Journal of Business Research, 66(10), 2079–2089

2. Xiao, L., & Ramsden, M. (2013). Technology business incubators and the graduation performance of technology-based start-up firms: Regional evidence from China. Academy of Management, 2012-07-05, Orlando.

3. Soetanto, D. P., & Jack, S. L. (2013). Business incubators and the networks of technologybased firms. The Journal of Technology Transfer, 38(4), 432–453

4. Legewie, N. (2013). An introduction to applied data analysis with qualitative comparative analysis. Forum Qualitative Sozialforschung/Forum: Qualitative Social Research, vol. 14, No. 3.

5. Lee, S. M., Hwang, T., & Choi, D. (2012). Open innovation in the public sector of leading countries. Management Decision, 50(1), 147–162

Tursunova Nigora Ulug‘bek qizi
Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YASHIL INNOVATSIYAGA TA’SIRI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot yashil innovatsiya, yashil tadbirkorlik xulq-atvori va barqaror biznes samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida tadbirkorlar tomonidan yashil innovatsiyani shakllantiruvchi omillar sifatida sun’iy intellektni joriy etish, kreativlik va qiziquvchanlikni o‘z ichiga olgan konseptual model ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlari, yashil innovatsiya, yashil tadbirkorlik xulq-atvori, sun’iy intellektni joriy etish

Kirish. Tadbirkorlar tomonidan barqaror samaradorlikni oshirish maqsadida Sun’iy intellekt (SI) vositalarini joriy etish olimlar va tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyatini anglagan holda, zamonaviy tadbirkorlar ekologik jihatdan toza mahsulot va xizmatlarni taqdim etish yo‘llarini izlamoqda. Sun’iy intellekt (SI) jamiyat, sanoat va biznes kabi turli sohalarda sezilarli e’tibor qozondi, chunki u zaxiralarni boshqarish, biznes modelini tanlash, ishchi kuchini optimallashtirish va ta’minot zanjirini boshqarish kabi biznes jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega [1].

SI dan tashkilotlarning xodim-lavozim muvofiqligi, ishlab chiqarish, mahsulot va operatsion boshqaruv kabi turli tarkibiy qismlarida foydalanish kreativ fikrlashni kuchaytiradi. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqot SI ni joriy etishning yashil tadbirkorlik muvaffaqiyatiga hamda turizm va mehmondo‘stlik sohasini rivojlantirishga ijobiy ta’siri haqida xabar berdi. Texnologiyani inson omillari bilan integratsiya qilishning ahamiyati bir qator tadqiqotchilar tomonidan, ayniqsa barqaror biznes omillari kontekstida ta’kidlab o‘tilgan. Mashinali o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va sun’iy neyron tarmoqlarini o‘z ichiga olgan SI texnologiyalari ayrim olimlar tomonidan tadbirkorlik sohasida o‘rganilgan. Mohiyatan, SI tadbirkorlar uchun transformatsion vosita sifatida namoyon bo‘lib, bizneslarni ishga tushirish va rivojlantirishga ko‘maklashmoqda.

Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining butun dunyo davlatlariga ekologik xavf-xatarni kamaytirish borasidagi kuchli chaqirig‘i tadqiqotchilar va amaliyotchilarni atrof-muhitni muhofaza qiluvchi xulq-atvorni targ‘ib etish va amaliyotga tatbiq etishga undayapti. Olimlar o‘rtasida atrof-muhit degradatsiyasi insoniyat uchun eng katta tahdidlardan biri ekanligi borasida konsensus mavjud [2].

Global miqyosda kuchayib borayotgan ekologik muammolarga javoban, biznes barqarorlik va eko-innovatsiyani kuchaytirish uchun yangi texnologiyalardan qanday foydalanishi mumkinligini tadqiq etishga ehtiyoj sezmoqda. Davlatlar barqarorlikka intilar ekan, texnologik yutuqlar va atrof-muhit holatining yaxshilanishi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni anglash o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi [3]. “Yashil yo‘nalishga o‘tish” konsepsiyasi ushbu muammolarga hayotiy javob sifatida yuzaga keldi hamda ijtimoiy va ekologik muammolarni hal etish orqali qiymat yaratishga yo‘naltirilgan yashil tadbirkorlik tobora dolzarbligini isbotlab kelmoqda.

Mazkur tadqiqot sun’iy intellektni (SI) joriy etish jarayonini tadbirkorlik sohasidagi ilmiy izlanishlar bilan, ayniqsa barqaror biznes samaradorligi masalalari nuqtayi nazaridan integratsiyalashga qaratilgan. Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasiga (RXN) tayangan holda, ushbu tadqiqot innovatsiya va niyatning ilgari yetarlicha o‘rganilmagan determinantlariga e’tibor qaratish orqali niyat va xulq-atvor o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil etadi. Xususan, tadbirkorlik faoliyatida kreativlik yangi g‘oyalarni izlash va ularni tijoratlashtirish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, biznes madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvga muvofiq, qator ilmiy tadqiqotlar kreativlik va tadbirkorlik o‘rtasida mustahkam o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Kreativlik vositasida shaxslar yangi imkoniyatlarni aniqlash hamda jamiyat muammolariga innovatsion va samarali yechimlar taklif etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

SI ni joriy etish. SI murakkab matematik algoritmlarni hisoblashga asoslangan bo‘lib, ular oldindan belgilangan mantiqiy shartlar asosida kompyuter tizimlari bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Hozirgi kunda biznes subyektlari SI amaliyotlarini joriy etishga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda, chunki bu texnologiyalar firma o‘sishida ulkan inqilobiy o‘zgarishlar va yuqori samaradorlikni ta’minlamoqda. SI ni joriy etish xarajatlarni kamaytirish, biznes jarayonlarini takomillashtirish, odatiy inson mehnatini avtomatlashtirilgan mehnat bilan almashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, muntazam vazifalarni avtomatlashtirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va biznesni kengaytirish yo‘li bilan biznes samaradorligiga ta’sir ko‘rsatdi.

Kreativlik. Ayrim olimlar kreativlikni insonning fikrlash, kashf etish, o‘zgartirish va yangi narsa yaratish qobiliyati sifatida ta’riflagan. Kreativlik originallik va innovatsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning intellektual salohiyatini aks ettiradi. Yuqori darajadagi kreativlikka ega shaxslar o‘zining shaxsiy va professional muhitida yuksak o‘ziga ishonch hamda ijobiy munosabat namoyon etgan. Ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar shaxslarda kreativlik hissini shakllantirishda muhim rol o‘ynasa-da, ta’lim va shaxsiy tajriba ularga o‘z ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Qiziquvchanlik. Qiziquvchanlik yangi bilim va koʻnikmalarni egallashga boʻlgan intilishdir. U shaxslarni yangilikni izlashga undaydi va koʻpincha inson xulq-atvorini hayotning barcha bosqichlarida oʻzgartiruvchi ichki stimul sifatida namoyon boʻladi. Mavjud tadqiqotlar qiziquvchanlikning mehnat samaradorligi va mahsuldorlik kabi bir qator ijobiy natijalarga hissa qoʻshishini hujjatlashtirgan. Qiziquvchanlik orqali tadbirkorlar oʻz maqsadlariga yanada koʻproq diqqatni jamlay oladilar hamda korxonalari toʻgʻrisidagi axborotni toʻplash imkoniyatiga ega boʻladilar. Bundan tashqari, qiziquvchan shaxslar kreativlikdan mahrum shaxslarga nisbatan shaxsiy va professional yuksalish imkoniyatlarini aniqlashga moyil boʻladilar. Shu bois ular yangi texnologik yutuqlarni oʻrganishga e'tibor qaratishi hamda koʻpincha yuksak oʻz-oʻziga samaradorlik hissi va atrof-muhitga yoʻnaltirilgan xulq-atvor bilan tavsiflanishi mumkin.

Biznesda YI atrof-muhitni boshqarish, ifloslanishning oldini olish, chiqindilarni kamaytirish va energiyani tejashga koʻmaklashuvchi texnologik yutuqlarni anglatadi. Ayrim tadqiqotlar YI atrof-muhit degradatsiyasini sezilarli darajada yumshatishini ta'kidlaydi. YI biznes firmalariga chiqindilar va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu esa bozor pozitsiyalarini mustahkamlash, innovatsiyalarni ragʻbatlantirish va potensial mijozlarni jalb etish orqali samaradorlikning yaxshilanishiga olib keladi. YI "yashil mahsulot innovatsiyasi" sifatida bunda firma mijozlarga yangi yashil mahsulotlarni taklif etadi hamda "yashil jarayon innovatsiyasi" sifatida bunda firma mahsulot ishlab chiqarish uchun yashil tartib-taomillarni moslashtiradi farqlanadi. Koʻplab kompaniyalar ekologik siyosat va strategiyalar tufayli YI amaliyotlarini joriy etgan.

SI ni joriy etish va YI. SI ni joriy etish orqali shaxslar va tashkilotlar ma'lumotlarga asoslangan barqaror innovatsiyalarni topish imkoniyatiga ega boʻladilar. SI ni joriy etish ekologik jihatdan toza muhitni ragʻbatlantiruvchi innovatsiyalarni amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Ayrim soʻnggi tadqiqotlar SI ni joriy etish yashil innovatsiya va barqarorlikda hayotiy muhim rol oʻynashini hujjatlashtirgan. Masalan, empirik tarzda SI ni joriy etish yashil innovatsiya va qaror qabul qilishni kuchaytirishi aniqlangan. SI yashil bilim almashinuvi va barqaror samaradorlik bilan ijobiy bogʻliqlikka ega edi. Xitoyning yulduzli mehmonxonalarida faoliyat yurituvchi 342 nafar xodim oʻrtasida yaqinda oʻtkazilgan soʻrovnomada tadqiqotchilar SI ni joriy etish yashil innovatsiya va barqaror biznes samaradorligiga olib kelishini aniqladilar. Ayrim olimlar SI tadbirkorlik tafakkuriga sezilarli darajada ta'sir koʻrsatadi, bu esa oʻz navbatida yashil tadbirkorlik bilan shugʻullanishda muhim rol oʻynashi mumkin, deb ta'kidlaydilar. Masalan, Dinh (2025) Vyetnamdagi mehmonxona sanoatida 668 nafar ishtirokchi oʻrtasida oʻtkazgan tadqiqotida SI raqamli innovatsiya va yashil innovatsiyaga sezilarli hamda ijobiy ta'sir koʻrsatishi aniqlangan [4]. SI ni joriy etish shaxslarga yashil innovatsiyani ragʻbatlantiruvchi bilimlarni egallash imkonini berganligi sababli, biz quyidagi gipotezani ilgari suramiz.

SI ni joriy etish moderatsiya qiluvchi omil sifatida. SI ni joriy etishning yashil innovatsiya va niyatga bevosita ta'siri yuqorida bayon etilgan boʻlsa-da,

kreativlik, innovatsiya, niyat va barqaror biznes samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar kuchiga ta’sir ko‘rsatishda SI ning moderatsiya qiluvchi rolini kuzatish ham muhimdir [5]. SI ni joriy etish yashil bilim almashinuvi va barqaror samaradorlik o‘rtasida moderatsiya qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lganligini qayd etgan boshqa tadqiqotlarga tayangan holda, biz SI ni joriy etish shaxslarning yashil niyatini kuchaytiradi, deb ta’kidlaymiz. Shaxslar yangi g‘oyalar yaratish bo‘yicha tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lganda, SI ni joriy etish ularning kreativligini yashil innovatsiya bilan shug‘ullanish yo‘llarini aniqlash orqali mustahkamlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot SI ni joriy etishning yashil ixtiro, yashil tadbirkorlik niyati va xulq-atvoridagi hal qiluvchi rolini tadqiq etishga qaratilgan. RXN ni kengaytirgan holda, SI ni joriy etish, kreativlik va qiziquvchanlikni yashil ixtiro hamda yashil tadbirkorlik niyatining determinantlari sifatida, bu esa o‘z navbatida yashil xulq-atvorga olib kelishini nazarda tutuvchi konseptual model ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotda SI ni joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlarining BBS ga ta’sir ko‘rsatuvchi YXT determinantlari o‘rganilgan. SI ni yashil tadbirkorlikka integratsiya qilish operatsion samaradorlikni oshiradi, innovatsiyalarni osonlashtiradi va tadbirkorlarga ekologik jihatdan ongli biznes amaliyotlarini tatbiq etish imkonini beradi. SI dan foydalanish orqali yashil tadbirkorlar murakkab muammolarni yanada samarali hal qila oladilar, resurslardan foydalanishni optimallashtiradilar hamda barqarorlik maqsadlariga mos keluvchi innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqa oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Chu, F., Zhang, W., & Jiang, Y. (2021). How does policy perception affect green entrepreneurship behavior? An empirical analysis from China. Discrete Dynamics in Nature and Society., Article 7973046.

2. Demirel, P., Li, Q. C., Rentocchini, F., et al. (2019). Born to be green: New insights into the economics and management of green entrepreneurship. Small Business Economics, 52(4), 759–771.

3. Babina, T., Fedyk, A., He, A., & Hodson, J. (2024). Artificial intelligence, firm growth, and product innovation. Journal of Financial Economics, 151, Article 103745.

4. Dinh, H. T., Nguyen, N. H., Nguyen, A. N., & Bui, T. T. K. (2025). Harnessing AI and digital innovation for green innovation and sustainable performance. Journal of Hospitality and Tourism Insights.

5. Giuggioli, G., & Pellegrini, M. M. (2023). Artificial intelligence as an enabler for entrepreneurs: A systematic literature review and an agenda for future research. International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research, 29(4), 816–837

Usmanova Alomatxon Azizjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Marketing” kafedrasi 1- bosqich magistrant talabasi,
e-mail: akramova. alomatkhon@yandex. ru

SUN’IY INTELLEKTNING MARKETING SOHALARIDAGI RO’LI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarini marketing jarayonlariga qo‘llash va uning samaradorligini baholash tahlil qilindi. Xususan, personalizatsiya, bashoratiy tahlillar, chat-botlar, programmatik reklama, kontent generatsiyasi kabi asosiy yo‘nalishlar ko‘rib chiqildi. Har bir bo‘limda global va (agar mavjud bo‘lsa) O‘zbekiston misollari keltirildi. Bundan tashqari, AI marketingda o‘lchovlar, axloqiy va huquqiy jihatlar, cheklovlar va kelajak istiqbollari muhokama qilindi. Mavzuning global va mahalliy aspektlarini yoritish uchun chet tilli ilmiy adabiyotlar, sanoat tadqiqotlari va zarurat bo‘lsa o‘zbekcha manbalar birgalikda tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, marketing, personalizatsiya, chatbot, google, ChatGPT, reklama, tendensiya, generatsiya.

Kirish. Sun’iy intellekt (ingl. Artificial Intelligence, AI) – bu kompyuter tizimlarining inson aql-idroki bilan bog‘liq ijodiy va intellektual vazifalarni bajarish qobiliyatidir [1]. Marketing esa kompaniya va iste’molchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, bozor tadqiqotlarini, reklama va brendingni o‘z ichiga oladigan faoliyatdir. Hozirgi kunda marketingda ma’lumotlarga asoslangan va moslashuvchan yondoshuvlar talabi kuchaymoqda. Shu kontekstda sun’iy intellekt marketing strategiyalarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishda muhim vositaga aylanyapti.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va marketing mavzusida nisbatan ko‘p tadqiqotlar chop etilgan. Masalan, tijorat firmalarining izlanishlari (McKinsey, PwC) va akademik maqolalar AI marketingni rivojlanish bosqichlari, afzalliklari va muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini tahlil qilgan. Marketing Architects agentligi so‘zlariga ko‘ra, 2020-yilga kelib dunyo bo‘ylab kompaniyalarining ~50%i kamida bir funksiyada AI texnologiyalaridan foydalangan va ular orasida uchdan biri AI tufayli daromadining oshganini bildirgan. Chatbot va avtomatlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar esa 2020–2025 yillar mobaynida AI vositalari iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish jarayonini vaqti-vaqti bilan 22% darajada yaxshilaganini ko‘rsatmoqda [2].

Asosiy qism. Sun’iy intellekt marketingda mijozlarga shaxsiylashtirilgan takliflar berishda keng qo‘llaniladi. Internet-do‘konlar va streaming servislar foydalanuvchi xatti-harakatlari asosida maxsus tavsiya algoritmlaridan (kollaborativ filtratsiya kabi) foydalanib kelishadi. Masalan, Amazon 2003-yilda hamkorlik filtrlashga oid maqola e’lon qilib, mijozga o‘xshash xaridorlarning xaridlariga asoslangan tavsiyalar tizimi yordamida savdoni optimallashtirishni

ko‘rsatdi [3]. Shaxsiylashtirish mijoz ehtiyojiga mos reklamani avtomatik yaratishga imkon beradi, bu esa xaridor e’tiborini oshiradi.

AI personalizatsiya ishlab chiqaruvchilarga bir vaqtning o‘zida millionlab mijoz ma’lumotlarini tahlil qilish va har bir foydalanuvchiga mos tavsiyalar yoki reklama bannerlari chiqazish imkoniyatini beradi [4]. O‘zbek bozorida ham bu sohada pilot loyihalar paydo bo‘lgan (masalan, katta chakana savdo tarmoqlari onlayn-saytida mijozga ko‘ra mahsulot tavsiyalari), ammo mustaqil ilmiy baholar kam. Biroq global tajribalar ko‘rsatadiki, AI asosida personalizatsiya reklama samaradorligini sezilarli oshirishi mumkin [5].

So‘nggi yillarda chatbotlar va virtual yordamchilar marketing va mijozlarga xizmat ko‘rsatishda keng tarqaldi. Ananaviy savol-javob botlaridan farqli o‘laroq, bugungi sun’iy intellekt chatboti tabiiy tilni chuqur tushunishi va murakkab so‘rovlarni hal etishi mumkin. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bugungi kunda kompaniyalarning 43%i keyingi 3 yilda chatbot va AI yordamli mijozlar qo‘llab-quvvatlashdan muntazam foydalanishni rejalashtirgan, yana 33% vaqti-vaqti bilan ishlatishni niyat qilgan. Hozirgi foydalanuvchilarning katta qismi matnli AI-dasturlaridan foydalanmoqda. Chatbotlar orqali tezroq javob olish va 24/7 qo‘llab-quvvatlash sayohat qiluvchi xaridorlar uchungina emas, balki korxona uchun ham tejamkor: qo‘llab-quvvatlash ishchilari 24% hollarda ishlashni botlar orqali avtomatlashtiradi.

Programmatik reklama – bu AI va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida onlayn reklamani real vaqt rejimida xarid qilish va tarqatish jarayonidir. 2014 yildan boshlab sun’iy intellekt texnologiyalari programmatik reklama maydonida keng qo‘llanila boshladi. AI reklama egasining budjetini avtomatik boshqarish, taklif narxini moslashtirish va reklama samarasini muntazam tahlil qilib, kampaniya maqsadlariga optimal tarzda qaror qabul qiladi. Shu tarzda A/B testlar yordamida turli reklamalar qaysi auditoriyaga ko‘proq mos kelishini oldindan bilish mumkin. 2018 yilda Google ham reklama platformasiga mashinani o‘rganish funksiyasini kiritdi va iste’molchi qiziqishlari, demografik ma’lumotlar asosida reklama tanlashni takomillashtirdi. Natijada reklama uchun bo‘lgan xarajatlar maqbul tarzda taqsimlanib, reklama egasi qidirayotgan auditoriyani aniqroq ushlab qoldi.

So‘nggi yilda yaratuvchi sun’iy intellekt (Generative AI) marketing kontentini yaratishda inqilobiy o‘zgarishlar olib keldi. Matnli ChatGPT, rasmlarni generatsiya qiladigan DALL·E kabi vositalar reklama kampaniyasi va kontent yaratuvchilari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi. Masalan, 2022 yilda AI modeli ChatGPT asosida ilk oddiy matnli kontentni yaratish vositalari paydo bo‘ldi; hozirgi reklama agentliklari reklama matnlarini, blog posti loyihalarini AIdan foydalangan holda tayyorlamoqda. Rasmlar uchun esa sun’iy intellekt grafik dizaynni avtomatlashtirish, reklama banner va vizual konseptlarni tezda sinashga imkon berdi. Shuningdek, video reklama muharrirlari yoki ovozli modul yordamida yangi kontent modelini yaratish tajribalari boshlanmoqda.

Bu yondashuvning eng katta afzalligi – ijodiy jarayonlarni tezlashtirish. Masalan, oddiy so‘rov (prompt) asosida asl reklama matni yaratiladi, keyin odam tahriri bilan nihoyat shakl beriladi. Biroq mutaxassislar ta’kidlashicha, hozirgi AI

hali to‘liq mustaqil ravishda marketing strategiyasini ishlab chiqa olmaydi; inson nazorati talab etiladi. Ustiga ustak, AI yaratgan kontentda ma’lumotlar xatoligi yoki mualliflik muammosi bo‘lishi mumkin. Masalan, Facebook yoki Google bosh muhandislari ayni paytda yaratuvchi AI imijlari va matnlari reklama kampaniyalarida qonuniy foydalanish me’yorlarini belgilash ustida ishlamoqda. Shu bois kontent generatsiyasi sohasida ham katta ehtiyotkorlik zarur.

Sun’iy intellekt va marketingning uyg‘unlashuvi bilan birga bir qator muhim axloqiy va huquqiy muammolar yuzaga chiqadi. Shaxsiylashtirish uchun katta hajmdagi shaxsiy ma’lumotlar yig‘ilishi zarur, bu esa foydalanuvchilarning maxfiylik huquqi va ma’lumotlarni himoya qilish me’yorlariga rioya qilinishini talab qiladi. Yevropa Ittifoqidagi GDPR va boshqa mamlakatlardagi ma’lumotlarni muhofaza qilish qonunlariga o‘xshash tarzda, O‘zbekistonda ham «Ma’lumotlar himoyasi to‘g‘risida»gi qonun (PDPL) qabul qilingan. Bundan tashqari, 2021 yilda Prezident qaroriga muvofiq mamlakat bo‘ylab AI strategiyasi ishlab chiqildi; unda davlat va biznes sohalarida axloqiy tamoyillarni belgilash, shu jumladan marketing uchun ham reklama axloqi va raqamli aloqa me’yorlarini yaratish nazarda tutilgan.

Kelgusida AI marketingda yana ham chuqurlashishi kutiladi. Xususan, yaratuvchi AIga (masalan, video va animatsiya avtomatik generatsiyasi) e’tibor ko‘payadi. ChatGPT kabi model farovonligi va foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydigan virtual yordamchilar (conversational AI) integratsiyasi ham kengayadi. Multikanalli marketing: AI agentlari platformalar (metaverse, mobil, ovozli qurilmalar) o‘rtasida istiqbolni o‘rganadi. Shuningdek, adolatli va tushunarli AI (explainable AI) tizimlari saylov algoritmiga ahamiyat beriladi. Ilmiy bo‘shliqlardan biri – O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektga asoslangan marketing strategiyalarini o‘rganishdir. Mahalliy madaniy va iqtisodiy o‘ziga xosliklar AI modelini o‘rgatishda e’tiborga olinishi lozim. Masalan, o‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vositalarini rivojlantirish va mahalliy bozor ma’lumotlariga moslashgan tavsiyalar algoritmini yaratish dolzarb. Hukumat va xususiy soha hamkorligi orqali bu muammolar hal etilishi mumkin: 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston sun’iy intellekt strategiyasida axborot jamiyatini rivojlantirish va innovatsion brendlar yaratish maqsadlari belgilanganligi buni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston sharoitida marketing bo‘yicha sun’iy intellektdan foydalangan holda raqobatbardoshlikni oshirish uchun bir qancha strategiyalar taklif etiladi:

- Malaka oshirish va ta’lim: Marketing bo‘yicha mutaxassislar uchun AI va katta ma’lumotlar bo‘yicha treninglar tashkil qilish. Yuqori o‘quv yurtlari va tadqiqot markazlarini AI marketing laboratoriyalariga yo‘naltirish.
- Ma’lumot infratuzilmasi: Davlat va biznes birgalikda birinchi darajali (first-party) ma’lumotlar omborlarini yaratishi. Axborot xavfsizligi va shaffoflikni ta’minlovchi qonunlarni takomillashtirish (shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish siyosati).
- Ilmiy tadqiqotlar: Mahalliy bozor uchun mos AI modellarini yaratish. Universitetlarda marketing texnologiyalari va sun’iy intellekt integratsiyasini o‘rgatish. Vazirliklar bilan birga amaliy loyihalar (case study) tashkil qilish.

- Raqamli qo‘llanmalar: O‘zbekiston razmeridagi korxonalar uchun AI marketing platformalarini qo‘llash yuzasidan aniq yo‘riqnomalar ishlab chiqish. Kichik bizneslar uchun “AI asosli marketing-ni boshlash” qo‘llanmalarini tayyorlash.
- Maxfiylik va axloq: AI algoritmlarida tenglik va shaffoflik tamoyillarini joriy etish. Mijozlarga ma’lumot to‘plash va ishlatish jarayonida rozilik berish mexanizmlarini yaratish.

Bu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston marketing sohasi raqamli transformatsiyani tezlashtirishi va milliy brendlar yaratishda sun’iy intellekt imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishi mumkin.

Xulosa: Sun’iy intellekt marketingni tubdan o‘zgartirish kuchiga ega. Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, dinamik reklama xarid qilish va kontent generatsiyasi orqali kompaniyalar mijozlar bilan yanada samarali muloqot qilmoqda. Barcha sohalar misolida olingan natijalar – yuqori konversiya, mijoz sodiqligi va daromad ko‘rsatkichlari – AI yechimlari samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar ma’lumotlar xavfsizligi, adolatlilik va me’yoriy masalalarni ham keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston kontekstida ham, davlat qarorlari va biznes tashabbuslari AI marketingni joriy etishni qo‘llab-quvvatlamoqda. Kelgusida AI va marketing integratsiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar va amaliy loyihalarning ko‘payishi ta’minlanadi. Marketing rahbarlari va siyosat ishlab chiquvchilar ushbu tendensiyalarni to‘g‘ri o‘zlashtirib, resurslarini strategik tarzda yo‘naltirsa, iqtisodiyotga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kun. uz (2020). O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi.
2. Kun. uz (2023). O‘zbekistonda sun’iy intellektning kelajagi qanday?.
3. Marketing Architects (2022). The Application of AI in Marketing, Advertising and Media Buying. (Internet blog).
4. Zoom (2026). “65+ Chatbot statistics for customer service teams in 2025”. Zoom Insights blog.
5. PwC (2024). Decoding ROI from AI. (Onlayn ma’lumot, PwC web-sayti).
6. Attentive/CNN (2025). “We’re seeing brands using AI having conversion rates 30-40% higher. . . ” CNN intervyu.

Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti assistenti
e. mail: gaybullayevagulbahor1@gmail. com

TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA SHAROITIDA TO‘QIMACHILIK SANOATIDA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. To‘qimachilik sanoatida mahsulot tannarxini pasaytirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish mahsulot sifatini saqlab qolish bilan birga xarajatlar samaradorligini oshirish uchun jarayonlar va resurslarni boshqarishni optimallashtirishga qaratilgan. Asosiy strategiyalar ishlab chiqarish ish jarayonlarini tartibga solish, ilg'or texnologiyalarni o‘zlashtirish, ta'minot zanjiri boshqaruvini takomillashtirish va chiqindilarni minimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, miqyosdagi iqtisodlardan foydalanish va energiyani tejovchi usullarni joriy qilish orqali to‘qimachilik kompaniyalari ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga erishishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: xarajat samaradorligi, to‘qimachilik sanoatini optimallashtirish, ishlab chiqarish ish jarayoni, yetkazib berish tizimining boshqaruvi, chiqindilarni minimallashtirish.

Kirish. To‘qimachilik sanoati dunyodagi eng qadimgi va eng keng tarqalgan tarmoqlardan biri sifatida vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada rivojlandi. Ushbu soha insoniyatning dastlabki ehtiyojlarini qondirishdan boshlab, bugungi kunda global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylangan. To‘qimachilik sanoati nafaqat kundalik iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan, balki sanoatlashuv jarayonlari, hududiy rivojlanish va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ushbu tarmoq yuqori bandlik darajasini ta’minlovchi asosiy sohalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Tarixiy jihatdan to‘qimachilik ishlab chiqarishi qo‘l mehnatiga asoslangan bo‘lsa, hozirgi bosqichda u yuqori texnologiyalar, avtomatlashtirilgan uskunalar, raqamli boshqaruv tizimlari va innovatsion yechimlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanmoqda. Zamonaviy to‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mahsulot sifati va assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mahsulot tannarxini shakllantirish va uni kamaytirish masalalari to‘qimachilik sanoatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish jarayonida sarflanadigan xomashyo, mehnat resurslari, energiya, amortizatsiya hamda boshqa xarajatlar yig‘indisi sifatida korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tannarxning yuqori bo‘lishi mahsulotning bozor narxini oshirib, raqobatbardoshlik darajasini pasaytiradi. Shu sababli, to‘qimachilik korxonalarida tannarxni pasaytirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni

takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish hamda boshqaruv tizimini samarali tashkil etish asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, global bozor sharoitida to‘qimachilik sanoati oldida ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya samaradorligini oshirish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish talablari ham tobora kuchayib bormoqda. Atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash orqali korxonalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki ijtimoiy mas’uliyatga ham erishadi. Bu esa ularning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa to‘qimachilik sanoati bir qator mamlakatlarda ish o‘rinlari va eksportning salmoqli qismini ta’minlovchi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki kundalik kiyimdan tortib sanoat to‘qimachilik mahsulotlarigacha bo‘lgan muhim mahsulotlarni taqdim etadi. Biroq, bu sektor bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan, o‘zgaruvchan xom ashyo xarajatlari, energiya xarajatlari va barqaror amaliyotlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Raqobat kuchayib borayotgan jahon bozorida to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari mahsulot sifati va samaradorligini saqlab qolish bilan birga xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini topishlari kerak.

Bu yerda asosiiy maqsad to‘qimachilik sanoatidagi tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni xarajatlarni kamaytirishga erishish uchun qanday takomillashtirish mumkinligini o‘rganishdir. Ushbu mexanizmlar raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan resurslar, jarayonlar va zamonaviy texnologiyalarni boshqarishni o‘z ichiga oladi.

2020-2025-yillarda O‘zbekistonning to‘qimachilik tarmog‘iga kiritilayotgan investitsiyalar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, modernizatsiya sa’y-harakatlari va xalqaro hamkorlik tufayli sezilarli darajada o‘sdi[1].

Quyida ushbu davrdagi sektordagi asosiy investitsiya ma'lumotlarini jamlagan jadval keltirilgan:

Yil	**Investitsiyalar hajmi**	**Asosiy eslatmalar**
2021 yil	1, 7 milliard dollar	Yangi zavodlarning ishga tushirilishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hisobiga investitsiyalar sezilarli darajada oshdi.
2022 yil	$2, 0 mlrd	Texnologiyani yangilash bilan bir qatorda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va xalqaro investitsiyalar ko‘paydi.
2023 yil	2, 4 milliard dollar	Barqarorlik va qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan to‘qimachilik mahsulotlariga e'tibor kuchayib, xalqaro e'tiborni jalb qilmoqda.
2024 yil	2, 8 milliard dollar	2024 yilga kelib, sektor yirik kengayishlar, jumladan, yangi hamkorliklar va 2030 yilgacha 10 milliard dollarlik eksport maqsadlari bilan ajralib turdi.
2025 yil	1, 3 milliard dollar	Bu mablag‘lar asosan ip yoqimi va mato bo‘yoqxonalari qurilishiga yo‘naltirilgan.

To‘qimachilik sohasining jadal kengayishi so‘nggi o‘n yil ichida 10 milliard dollardan ortiq investitsiyalarni jalb qildi, so‘nggi yillarda yillik barqaror o‘sish o‘rtacha 2 milliard dollardan oshdi. Ushbu investitsiyalar O‘zbekistonni paxta xomashyosini eksport qiluvchi davlatdan to‘qimachilik ishlab chiqarish bo‘yicha asosiy jahon o‘yinchisiga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Aniq imtiyozlarga qaramay, to‘qimachilik sanoatida xarajatlarni kamaytirish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga bir qator muammolar to‘sqinlik qilishi aniqlandi:

- Texnologiyani modernizatsiya qilish va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish ko‘pincha katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qiladi. Kichikroq firmalar, uzoq muddatli tejash imkoniyatiga qaramay, bu investitsiyalarni amalga oshirishda qiynalishi mumkin.
- Tashkiliy inertsiya asosiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Xodimlar va rahbariyat notanishlik yoki o‘rnatilgan amaliyotlarni o‘zgartirishni istamaslik tufayli yangi jarayonlar yoki texnologiyalarga qarshilik ko‘rsatishi mumkin.
- To‘qimachilik sanoati juda globallashgan, kompaniyalar ko‘pincha turli mamlakatlardan materiallar sotib olishadi. Xalqaro savdo siyosati, valyuta kurslari va xom ashyo narxlarining o‘zgarishi tejamkorlik choralarining samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin.

Xarajatlarni kamaytirishning amaliy qo‘llanilishi: To‘qimachilik ishlab chiqarishni avtomatlashtirish uchun yaqqola misol Janubi-Sharqiy Osiyodagi to‘qimachilik ishlab chiqaruvchisi avtomatlashtirilgan to‘quv mashinalari va robotli tikuv uskunalariga sarmoya kiritdi. Ushbu harakat mehnat xarajatlarini 15% ga qisqartirdi va ishlab chiqarish quvvatini 20% ga oshirdi, bu avtomatlashtirish sifatni buzmasdan qanday qilib sezilarli darajada xarajatlarni kamaytirish mumkinligini ko‘rsatmoqda [2].

Xulosa. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni ilmiy asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar orqali hal etish zarur. Mazkur yondashuvlar to‘qimachilik korxonalarining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash bilan birga, milliy iqtisodiyotning sanoat salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. To‘qimachilik sanoati ko‘plab muammolarga duch kelgan bo‘lsada, uning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, ta’minot zanjirlarini optimallashtirish, ishchi kuchi unumdorligiga sarmoya kiritish va barqaror amaliyotlarni qo‘llash orqali to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari rentabellikni oshirish va jahon bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolish bilan birga sezilarli xarajatlarni tejashga erishishlari hamda oldinga qarab, doimiy innovatsiyalar, strategik investitsiyalar va barqarorlikka sodiqlik uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu sohalarga ustuvor ahamiyat beradigan to‘qimachilik kompaniyalari yuqori sifatli va tejamkor mahsulotlarni yetkazib berish bilan birga global iqtisodiyotning murakkabliklarini boshqarish uchun yaxshi mavqega ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28. 01. 2022 yildagi PF-60-son,
2. Ashurov M. S. (2019). Biznes muhitining hozirgi holatini baholash O‘zbekiston va uni samarali rivojlantirish muammolari. Monografiya. Globus tahriri Akademik nashriyot, Yevropa Ittifoqi.

Rasulova Shaxnoza Xatamovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
Iqtisodiyot kafedrasi assistenti PhD
e-mail: shaxnoza. rasulova@fstu. uz

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IQTISODIY JARAYONLARNI TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jarayonida matematik modellashtirishning ahamiyati, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishdagi o‘rni hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar o‘rganilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy jarayonlarni prognozlash, moliyaviy risklarni baholash hamda resurslarni optimallashtirishda matematik modellarni qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, hisoblash resurslari yetishmasligi va modellar aniqligi bilan bog‘liq muammolar ilmiy jihatdan ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, matematik modellashtirish, iqtisodiy tahlil, prognozlash, algoritmlar, Big Data, optimallashtirish.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarini matematik modellashtirish masalalari so‘nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda matematik modellar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining nazariy asoslari va ularning turli sohalarda qo‘llanilishi masalalari ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, S. Russell va P. Norvig tomonidan yozilgan “Artificial Intelligence: A Modern Approach” asarida sun’iy intellektning nazariy asoslari, algoritmik modellari va ularning amaliy qo‘llanilish sohalari batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqotda sun’iy intellekt tizimlarining samarali ishlashi uchun matematik modellashtirish muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlangan [1, 53-b].

Shuningdek, I. Goodfellow, Y. Bengio va A. Courville tomonidan yaratilgan “Deep Learning” asarida chuqur o‘rganish algoritmlari va neyron tarmoqlarni matematik modellashtirish masalalari keng yoritilgan. Mualliflarning ta’kidlashicha, zamonaviy sun’iy intellekt tizimlari asosan chiziqli algebra,

ehtimollar nazariyasi va optimallashtirish usullariga asoslangan matematik modellarga tayangan holda ishlaydi [2, 46-b].

C. Bishop tomonidan yozilgan “Pattern Recognition and Machine Learning” asarida mashinali o‘rganish algoritmlarining matematik asoslari tahlil qilingan. Muallif ma’lumotlarni tasniflash va prognozlash jarayonida statistik modellar va ehtimollik nazariyasining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda mashinali o‘rganish usullaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslab beradi [3, 37-b].

Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish masalalari klassik iqtisodiy nazariya doirasida ham keng o‘rganilgan. P. Samuelson va W. Nordhaus tomonidan yozilgan “Economics” asarida iqtisodiy jarayonlarni matematik modellar yordamida tahlil qilishning nazariy asoslari bayon qilingan. Mualliflar iqtisodiy tizimlarni tahlil qilishda matematik modellar iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlashda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydilar [4, 121-b].

Mahalliy olimlar tomonidan ham matematik modellashtirish masalalari o‘rganilgan. Jumladan, S. Koldasovning “Matematik modellashtirish asoslari” nomli ilmiy ishida turli sohalardagi jarayonlarni matematik modellar yordamida o‘rganish usullari tahlil qilingan. Muallif iqtisodiy tizimlarni modellashtirishda statistik va optimallashtirish usullarining muhim rol o‘ynashini qayd etadi [5, 78-b].

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda muhokama qilinmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish iqtisodiy prognozlarning aniqligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko‘paytirish va iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi [6, 56-b].

Asosiy qism. Matematik modellashtirish iqtisodiy tizimlarni ilmiy asosda o‘rganish imkonini beruvchi muhim metod hisoblanadi. Matematik model iqtisodiy jarayonlarning muhim elementlarini matematik ifodalar yordamida tasvirlash orqali ularni tahlil qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy modellar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish
- iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash
- iqtisodiy prognozlar ishlab chiqish
- iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish

Matematik modellashtirish jarayoni odatda bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi:

1. iqtisodiy muammoni aniqlash;
2. modelning nazariy asoslarini shakllantirish;
3. matematik tenglamalar tizimini ishlab chiqish;
4. kompyuter yordamida hisoblash jarayonini amalga oshirish;
5. olingan natijalarni iqtisodiy jihatdan tahlil qilish.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi matematik modellashtirish usullarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Ayniqsa, mashinali

o‘rganish algoritmlari iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilishda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va murakkab iqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish imkonini beradi.

Iqtisodiyotda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi quyidagi yo‘nalishlarda keng tarqalgan:

Moliyaviy risklarni baholash. Bank tizimlarida sun’iy intellekt algoritmlari kredit risklarini aniqlash, moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish va firibgarlik holatlarini aniqlashda qo‘llanilmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, sun’iy intellektga asoslangan risk tahlili tizimlari kredit risklarini baholash aniqligini 20–30 foizgacha oshirishi mumkin [3, 47-b].

Bozor kon’yunkturasini prognozlash. Sun’iy intellekt modellaridan foydalanish orqali talab va taklif dinamikasini tahlil qilish hamda narxlarning kelajakdagi o‘zgarishini prognozlash mumkin. Masalan, mashinali o‘rganish algoritmlari yordamida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning vaqt qatorlari tahlil qilinadi.

Resurslarni optimallashtirish. Ishlab chiqarish jarayonlarida matematik modellar yordamida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday modellar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish imkonini beradi.

Investitsiya tahlili. Sun’iy intellekt algoritmlari investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va optimal investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llanilmoqda.

Matematik modellashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar. Sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiy modellashtirishda qo‘llash jarayonida bir qator muammolar yuzaga keladi.

Ma’lumotlar sifati muammosi. Sun’iy intellekt modellarining samaradorligi ma’lumotlar sifati va hajmiga bevosita bog‘liq. Agar ma’lumotlar to‘liq yoki aniq bo‘lmasa, model natijalari ham ishonchsiz bo‘lishi mumkin.

Hisoblash resurslari muammosi. Murakkab matematik modellar katta hisoblash resurslarini talab qiladi. Ayniqsa, katta hajmdagi iqtisodiy ma’lumotlarni qayta ishlash uchun yuqori quvvatli kompyuter tizimlari zarur.

Model aniqligi muammosi. Iqtisodiy tizimlarning murakkabligi sababli ayrim matematik modellar real iqtisodiy jarayonlarni to‘liq aks ettira olmaydi.

Model interpretatsiyasi muammosi. Chuqur o‘rganish modellarining qaror qabul qilish mexanizmini tushuntirish qiyin bo‘lishi mumkin. Bu esa iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida muammolar keltirib chiqaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar joriy etilgan iqtisodiyotlarda ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘sish sur’ati o‘rtacha 1, 5–2 barobar yuqori bo‘lishi kuzatilgan.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida:

- iqtisodiy prognozlarning aniqligi oshadi;
- moliyaviy risklarni boshqarish samaradorligi yaxshilanadi;

- ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtiriladi;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezlashadi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalangan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi oʻrtacha 15–20 foizga oshgan.

1-jadval

Tarmoqlar boʻyicha samaradorlik oʻsishi [7].

Tarmoq	Samaradorlik oʻsishi (%)
Finance	22
Manufacturing	26
Logistics	21
Retail	18
Agriculture	16

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish turli tarmoqlarda ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, moliya va ishlab chiqarish sohalarida sunʼiy intellekt algoritmlari katta hajmdagi maʼlumotlarni tezkor tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish va qaror qabul qilishni optimallashtirish imkonini beradi. Natijada ushbu sohalarda samaradorlik oʻsishi nisbatan yuqori koʻrsatkichlarni tashkil etadi.

Jadval maʼlumotlariga koʻra, Manufacturing (ishlab chiqarish) tarmogʻida samaradorlik oʻsishi 26 % ni tashkil etib, eng yuqori natija qayd etilgan. Finance (moliya) sohasida bu koʻrsatkich 22 %, Logistics (logistika) da 21 %, Retail (chakana savdo) tarmogʻida 18 %, Agriculture (qishloq xoʻjaligi) sohasida esa 16 % ni tashkil etadi. Bu natijalar sunʼiy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanligini koʻrsatadi.

Bundan koʻrinadiki, ishlab chiqarish (manufacturing) tarmogʻida samaradorlik oʻsishi eng yuqori boʻlib, bu jarayonda sunʼiy intellekt asosida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, prediktiv texnik xizmat koʻrsatish va ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirish muhim rol oʻynaydi. Moliya sektorida sunʼiy intellekt texnologiyalari risklarni baholash, firibgarlikni aniqlash hamda moliyaviy prognozlash jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. Logistika va chakana savdo tarmoqlarida esa taʼminot zanjirini boshqarish, talab prognozi va inventar nazoratini avtomatlashtirish orqali samaradorlik oshmoqda.

Qishloq xoʻjaligida sunʼiy intellekt texnologiyalari ekin hosildorligini prognozlash, resurslardan samarali foydalanish va aqlli agrotexnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sunʼiy intellekt texnologiyalarini matematik modellashtirish iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, prognozlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar katta hajmdagi maʼlumotlar va murakkab oʻzaro bogʻliq jarayonlardan iborat boʻlib, ularni samarali boshqarish uchun matematik modellashtirish usullaridan foydalanish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda qo‘llash iqtisodiy prognozlarning aniqligini oshirish, moliyaviy risklarni samarali baholash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi. Ayniqsa, mashinali o‘rganish algoritmlari va neyron tarmoqlar asosida yaratilgan modellar katta hajmdagi iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilishda yuqori samaradorlikka ega.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini matematik modellashtirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, iqtisodiy ma’lumotlarning yetarli darajada to‘liq va ishonchli emasligi, hisoblash resurslarining cheklanganligi hamda ayrim modellar natijalarining interpretatsiyasi qiyinligi ushbu sohaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan keng foydalanish;
- sun’iy intellekt algoritmlarini iqtisodiy prognozlash tizimlariga joriy etish;
- iqtisodiy modellashtirish jarayonida bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;
- iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda zamonaviy statistik va optimallashtirish usullarini qo‘llash;
- iqtisodiy ma’lumotlar bazalarini rivojlantirish va ularning sifatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarini matematik modellashtirish iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson Education, 2020.
2. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – MIT Press, 2016.
3. Bishop C. Pattern Recognition and Machine Learning. – Springer, 2006.
4. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. – McGraw Hill, 2010.
5. Koldasov S. Matematik modellashtirish asoslari. – Toshkent, 2019.
6. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W. W. Norton & Company, 2014.
7. McKinsey Global Institute, *The State of AI Global Survey*, 2024

Adaxamov Xusniddin Akmaljon ugli
Namangan State Technical University
Faculty of Economics, 2nd-year master's student

ROBOTICS AND DIGITAL TWINS FOR OPERATIONAL COST OPTIMIZATION IN TEXTILE MANUFACTURING

Abstract. This study examines how the strategic improvement of innovation environment programs, enhanced by artificial intelligence, can accelerate the digital transformation of entrepreneurship in Uzbekistan's textile and garment-knitwear industry, designated as a driver sector under the Uzbekistan-2030 Strategy.

Keywords: Artificial intelligence, innovation environment, textile and garment-knitwear industry, digital transformation, innovation management.

One of the key characteristics of the transition to a modern market economy is the active engagement of business entities in innovative activity within the country. The imperative to organize this activity effectively and to foster a favorable innovation environment for entrepreneurship is stipulated in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan "On Additional Measures to Create Conditions for the Development of Active Entrepreneurship and Innovative Activity" and "On Organizational Measures for the Implementation of the Innovation Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2022–2026. "

"Uzbekistan–2030" Strategy, in its section on performance indicators for targets to be achieved by 2030, sets forth the objectives of ensuring Uzbekistan's entry into the top 50 countries in the Global Innovation Index, doubling the number of new innovative developments commercialized in domestic and foreign markets, and producing 850 types of innovative products in the designated "driver" sectors of the economy. In this context, the textile and garment-knitwear industry is identified as one of these driver sectors.

The textile and garment-knitwear industry has become one of the principal economic sectors to undergo fundamental transformation through the integration of modern intelligent technologies, including robotics, artificial intelligence, virtual stylists, online retail platforms, and other emerging digital technologies [1]. Artificial intelligence ensures a high degree of accuracy and speed in forecasting fashion trends and in collecting data on consumer behavior and market demand. The intellectualization of apparel design, through the development of new models based on generative design algorithms, significantly reduces designers' time expenditures. Likewise, robotics contributes to lowering operational costs in production processes by automating and optimizing product flow.

According to research conducted by Auburn University in the United States, digital technologies have become an integral part of the modern fashion industry and global trade, displacing many traditional approaches and fundamentally altering the paradigm of interaction among designers, manufacturers, and consumers [2].

One of the most significant trends observed in the textile and garment-knitwear industry is the application of innovative technologies in apparel production. In particular, advances in 3D printing, the convergence of engineering and technological expertise, and the widespread adoption of automated digital design technologies are considered key drivers of the sector's development. The textile and garment- knitwear industry has emerged as one of the principal economic sectors to be fundamentally transformed through the integration of modern intelligent technologies, including robotics, artificial intelligence, virtual stylists, online retail platforms, and other emerging digital technologies. Artificial intelligence ensures a high level of precision and speed in forecasting fashion trends and in collecting information on consumer behavior and market demand. The intellectualization of clothing design, through the development of new models based on generative design algorithms, saves considerable time for designers. In addition, robotics contributes to reducing operational costs in manufacturing processes by automating and optimizing product flow.

Our analyses demonstrate the pressing relevance of utilizing automation, digitalization, and intellectualization technologies in apparel design and industrial manufacturing. While certain elements of intellectualization are already applied within individual submodules of automated garment design systems, the problem of intellectualizing clothing design and production processes on a global scale remains insufficiently investigated within scholarly discourse.

Taking into account the existing challenges in this field, we propose a scientific concept for the intellectualization of virtual design of garment-knitwear industry products. The parametric approach recommended for describing the design object enables the application of computer-aided design system techniques and methods in mass production. The employment of cognitive methods makes it possible to identify customers' explicit and latent needs in a timely manner and to ensure the manufacture of products customized to customer requirements [3].

The primary factor in forming the groups of parameters that characterize each manufactured product is the analysis of identified customer needs and of the functional capabilities that contribute to their satisfaction. The identification of future needs through artificial intelligence technologies is based on the analysis of large volumes of data reflecting the preferences and expectations of various consumer groups as expressed on the internet [4].

It is necessary to develop a program that enables the definition of specific directions and measures aimed at creating conditions conducive to accelerating innovative activity, for the purpose of forming and developing a favorable innovation environment in enterprises. The program consists of a description of planned events, activities, and actions to be implemented in order to achieve the established objectives [5]. Taking the above considerations into account, a set of measures was formulated for the implementation of the program for forming and developing a favorable innovation environment in enterprises, structured according to the following directions:

1) Financial and economic sphere:

provision of support for financial assistance to innovative projects in enterprises;

development of investment platforms designed for the implementation of innovative activity in various regions;

creation of new directions and expansion of existing funds that support and assist entrepreneurship, as well as venture and investment funds.

2) Human resources sphere:

restructuring of the system for training and retraining specialists. The new system should place emphasis on developing specific competencies in the field of innovation, as well as on stimulating creative potential and innovative thinking among students; organization of the involvement of bachelor's, master's, and doctoral researchers in research and development activities at regional enterprises. Regular organization of exhibitions, fairs, scientific-practical conferences, innovation workshops, competitions, forums, and business games in the regions. Establishment of innovative enterprises with the participation of students and researchers; engagement of secondary specialized and higher education institutions in promising areas of activity of enterprises producing high value-added products;

establishment and development of innovation centers at universities aimed at engaging students and faculty in innovative activity.

3) Material and technical direction:

formation and development of territorial clusters oriented toward high-technology manufacturing, with the use of tools such as crowdsourcing, innovation management technologies, and the implementation of integrated projects jointly by enterprises and universities; development of innovation infrastructure through the creation and improvement of existing business incubators, technoparks, industrial parks, and centers for the support of technologies and innovations; creation and development of research organizations in the territories where enterprises are located, which is of particular importance for supporting the early stage of innovative activity;

establishment of centers for the commercialization of innovations, required for the successful implementation of new initiatives; formation of business incubators oriented toward promising areas of activity of enterprises producing high value-added products; creation of networked innovation complexes that enable the integration of enterprises located in different districts and regions, reduce innovation risks, and form an information base for continuous research.

4) Regulatory and legal sphere:

expansion of state support for innovative activity through the provision of subsidies, grants, and tax incentives. Reduction of administrative barriers in the allocation of land plots necessary for enterprises to implement innovative projects; formation of a competitive market for innovative products. Creation of equal conditions for enterprises to access regional, national, and international markets for the purpose of promoting innovative products.

5) Information direction:

optimization of interaction between the scientific and production sectors within the innovation environment. To achieve this objective, elements of the

information component of the innovation infrastructure may be utilized, for example consulting centers offering scientific and technical services. These centers provide services related to the development and implementation of business processes and innovative projects, thereby facilitating the establishment and development of innovative companies; activation of research at the intersection of different disciplines;

active dissemination of information to employees regarding the enterprise's achievements; creation and improvement of websites for information portals dedicated to coverage of innovative projects and the enterprise's innovative activity.

6) Ecological direction:

implementation of environmental protection measures, including projects for the rational use of water resources, establishment of centers for the study of bioresources, and enhancement of ecological culture in business.

Conclusion. The improvement of the strategic system of innovation environment programs in entrepreneurship is a critical factor for enhancing market competitiveness, increasing enterprise efficiency, and accelerating economic growth. Through the development of innovation infrastructure, the strengthening of investment support mechanisms, and the introduction of digital technologies, the innovative capacity of entrepreneurial entities is significantly enhanced. Therefore, the strategic planning and effective management of innovation programs, implemented through public-private partnership, should constitute one of the priority directions of contemporary economic development.

References:

1. Lamia, N. J., & Mim, S. A. (2025). Transforming Fashion with AI: A Comparative Study of Large Language Models in Apparel Design. arXiv: 2509. 04705.

2. Nisa, H., Van Amber, R., English, J., Islam, S., McCorkill, G., & Alavi, A. (2025). A systematic review of reimagining fashion and textiles sustainability with AI: A circular economy approach. Applied Sciences, 15(10), 5691. MDPI. Published 20 May 2025.

3. Xiao, Y. (2025). AI and Big Data in the Fashion Industry: Transforming Supply Chains, Personalization, and Sustainability through Data-Driven Innovation. Transactions on Social Science, Education and Humanities Research, 14, 208-220.

4. Ogunyemi, A. A., Diyaolu, I. J., Awoyelu, I. O., Bakare, K. O., & Oluwatope, A. O. (2023). Digital transformation of the textile and fashion design industry in the Global South: A scoping review.

5. Bulut, S., & Mulayim, B. B. (2026). Artificial intelligence in textile and fashion design: a bibliometric analysis. Journal of Intelligent Engineering and Natural Sciences, 6(1), 88-104.

Mamatova Oqila Abukaimovna
"University of BUSINESS AND SCINCE" magistri,

RAQAMLI IQTISODIYOTDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH: MUAMMILAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida gender tenglikni ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Ayollarning raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, bandlik darajasi va iqtisodiy faolligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha samarali mexanizmlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Raqamli iqtisodiyot XXI asrda iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Internet, sun'iy intellekt, raqamli platformalar va elektron tijorat global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayoni jamiyatdagi mavjud tengsizliklarni kamaytirish yoki aksincha kuchaytirish imkoniyatiga ega.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, gender tenglik, ayollar bandligi, raqamli tafovut, masofaviy ish, innovatsiyalar, inkluziv rivojlanish

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasida gender siyosatini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon gender tenglik masalasini ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Ayollar va erkaklar o'rtasida raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasidagi tafovut iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bu yo'nalishda qabul qilingan ko'plab huquqiy-me'yoriy hujjatlar xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Qahramonimizning yana bir fazilati uning **tafakkur kengligi va tanqidiy fikrlashi** ham muhim odatlaridan biriga aylangan edi. U buyuk olim sifatida voqelikka bir tomonlama emas, balki turli nuqtai nazardan yondashardi, jarayonlarni tahlil qilardi va asoslangan xulosalar chiqarardi.

Davlatboy Qudbiyev o‘zining mehnatsevarligi bilan birga sabr-toqatli ekanligi bilan ham ajralib turar edi. Odatda yetuk olimning ajralmas xususiyatlaridan biri uning ilmiy faoliyati doimiy izlanishda, xatolarni aniqlash va

ularni to‘g‘rilashga urinishlardan iborat bo‘lishligini ham aynan shu kishining fazilatida ko‘rganmiz. Ilm yo‘li murakkab ekanligini his qilgan inson sabrli va tirishqoq bo‘lsagina katta natijalarga erishish mumkinligini aynan shu kishida ko‘rganmiz. Domla nomzodligini ham doktorlik dissertatsiyasini ham Moskvada yoqladi. Shunday sharoitdagi intilishlari va bardoshining ham guvohi bo‘lganmiz.

Bundan tashqari, haqiqiy olim uchun **halollik va vijdonli** bo‘lishlik ham juda muhim ekan. Buyuk olim **ilm quroli bilan** haqiqatni izlar ekan. Bundaylar ko‘chirmachilik, soxta natijalardan yiroq bo‘lgan holda, o‘z ishida adolatli va samimiy bo‘la olishligini ham shu kishi timsolida ko‘rish mumkin edi.

Yana bir insoniy fazilatlardan biri **kamtarlik va odob-axloq** ham uning yuksak olatlaridan edi. Chunki haqiqiy bilim insonni manmanlikka emas, aksincha, kamtarlikka olib kelar ekan. Bunday inson boshqalar fikrini hurmat qiladi va doimo o‘rganishga tayyor bo‘lishini ham shunday yetuk olimlarda ko‘rish mumkinligiga ham amin bo‘ldik.

Yana bir muhim jihat, bunday olimlarda **ijodkorlik va yangilikka intilish** ham hayotining ajralmas shiori edi. Yetuk olim mavjud bilimlar bilan cheklanib qolmaydi, balki yangi g‘oyalar yaratadi, ilmiy kashfiyotlarga intilgan holda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shib borishni, o‘zining olimlik burchi sifatida his qilib yashar ekan.

Nihoyat, **vatanparvarlik va jamiyatga foyda keltirish istagi** ham buyuk insonni yuksaltiruvchi omillardan biri ekanligini shu qahramonimiz timsolida anglaganmiz. U o‘z bilimini faqat shaxsiy manfaat uchungina emas, balki jamiyat va insoniyat rivoji uchun safarbar etar edi.

Qahramonimiz to‘g‘risida uning buyuk inson va yetuk olimligini xulosa qilib aytganda, bu bilimli, fikrlay oladigan, halol, mehnatsevar, kamtar va jamiyat oldida mas’uliyatli shaxs ekanligini ko‘ramiz.

Davlatboy Qudbiyev yetuk inson, buyuk olim bo‘lish bilan birga **mehribon ota** ham edi. Odatda mehribon ota deganda, oilada mehrli, har tomonlama tarbiya bera oladigan va mas’uliyat timsoli bo‘lgan inson tushuniladi. Uning fazilatlari farzand tarbiyasi va oila barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga egaligini farzandlari misolida ko‘rish mumkin.

Qahramonimizning avvalo, mehribon otaning **farzandlarga bo‘lgan muhabbati va g‘amxo‘rligi** kuchli bo‘lishini ham o‘z hayotida isbotladi. U farzandlarining ehtiyojlarini tushunardi, ularni himoya qilardi va doimo qo‘llab-quvvatlardi.

Shu bilan birga, mehribon otada **mas’uliyat hissi** muhim o‘rin tutar ekan. Davlatboy ota sifatida nafaqat moddiy ta’minotchi, balki ma’naviy ustoz ekanligini ham ko‘rsatib, boshqalarga o‘rnak bo‘lib yashadi. Chunki u oilasi uchun javobgarlikni chuqur his qilardi.

Sabr-toqatlilik va bag‘rikenglik ham mehribon otaning ajralmas fazilatlaridan biri ekanligini ham ko‘rsatib yashadi. Farzand tarbiyasida albatta, turli qiyinchiliklar bo‘lar ekan, lekin sabrli ota har bir holatga aql bilan yondasha olishini ham u kishining hayoti ibrat maktabi hisoblanadi.

Mehribon ota farzandlariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, halollik, bosiqlik, befarq bo‘lmaslik va insof-diyonatni o‘rgatadi. Bundan tashqari, **adolat va to‘g‘rilik** uning xulq-atvorini belgilaydi. Ushbu talablar doirasida farzandlarni tarbiyaladi.

Mehribon otaning **o‘rnak bo‘lish qobiliyati** ham juda muhim. Mehribon ota o‘z xatti-harakatlari, odati, yashash tarzi, insonlarga munosabati bilan farzandlariga namuna bo‘ladi. Uning odobi, mehnati va munosabati bolalar uchun **hayotiy darsdir**.

Yana bir jihat mehribon ota oilada **muloqotga ochiqlik** fazilati bilan ham ajralib turadi. Ota farzandlari bilan erkin suhbat qila olishi, ularning fikrlarini tinglashi va tushunishi lozimligini ham shu kishining hayotida ko‘rish mumkin.

Nihoyat, mehribon otaning muhim fazilatlaridan biri farzandlarini **vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat** ruhida tarbiyalash bo‘lganligini his qilgan holda buni farzandlariga ham singdirib keldi.

Xulosa qilib aytganda, mehribon ota — bu mehrli, mas’uliyatli, sabrli, adolatli va farzandlari uchun doimo ishonchli tayanch bo‘lgan inson hisoblanadi. Aynan Davlatboy Qudbiyev shunday insonlardan edi.

Urazov Komil Baxramovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisod fanlari doktori



USTOZ PROFESSOR DAVDATBOY QUDBIYEVNING SAMARQANDDAGI HAYOTI VA FAOLIYATIGA QISQACHA CHIZGILAR

Iqtisod fanlari doktori, professor Davlatboy Qudbiyev respublikamizning ikkita yirik shaharlarida yashagan, ibratli hayot kechirgan va katta ilmiy-pedagoglik faoliyatni olib borgan ustoz olim edilar.

U kishining bolalik yillari Farg‘onada, go‘zal va so‘lim Vodilda o‘tgan. 1967-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan 24-yildan ko‘proq umri va faoliyati bevosita ko‘hna Samarqand shahri va unda joylashgan Sentrosoyuzning Samarqand kooperativ instituti — SKIS (hozirgi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti) bilan bevosita bog‘liq.

Davlat Qudbiyev 17 yoshida (1967-yil) Farg‘ona shahridagi kooperativ texnikumini qizil diplom bilan tamomlagach, shu yili SKISga “Buxgalteriya hisobi” ixtisosligi bo‘yicha hujjat topshirib, matematika fanidan “a’lo” baho olib student bo‘lishga musharraf bo‘ldi.

1971-yil ushbu institutni qizil diplom bilan tugatdi va uning “Buxgalteriya hisobi” kafedrasiga o‘qituvchi-assistent lavozimiga oshga olib qolindi.

Yoshligidan bilimga chanqoqlik, intiluvchan yosh olim 1975-yilda Moskvaga yo‘l oldi va Sentrosoyuzning Moskva kooperativ instituti (hozirgi Rossiya matlubot kooperatsiyasi universiteti) aspiranturasiga o‘qishga kirdi. 1978-yilda ushbu institutda aspiranturani muvaffaqiyatli tugalladi va professor M.I.Bakanov rahbarligida “Экономический анализ исползования основных фондов в кооперативной торговле и пути его совершенствования (по материалам УзССР)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ilmiy rahbari professor M.I. Bakanov Davlatboy Qudbiyevdagi iqtidorni sezib, shu paytlarda o‘zi mudir bo‘lib ishlayotgan Sovet savdosi sirtqi instituti (ZIST) “Iqtisodiy tahlil” kafedrasiga ishga olib qoldi. Aynan ushbu institut va uni butun ittifoqqa taniqli bo‘lgan ilmiy rahbari yonida Davlat Qudbiyev 1978-yildan 1991-yilgacha katta o‘qituvi va dotsent lavozimlarida mehnat qildi, shu institutda doktorant bo‘ldi va 1991-yilda “Учет и анализ основных фондов в торговле в новых условиях хозяйствования” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shuni e’tirof etish kerakki, Davlat Qudbiyev respublikamizda 08.00.12 “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va nazorat” ixtisosligi bo‘yicha birinchi bo‘lib fan doktori ilmiy darajasini olgan olim hisoblanadi. Hozirgi kunda bu sohada respublikamizda 40 dan ortiq fan doktorlari bo‘lsa, Davlat Qudbiyev aynan shularning birinchisi edilar.

Ustoz professor Davlatboy Qudbiyevning Samarqand bilan bog‘liq mehnat faoliyati, Samarqand kooperativ institutidagi uzoq yillik xizmat davri, uning ilmiy va pedagogik salohiyati shakllangan muhim bosqich sifatida alohida ahamiyatga ega. Keyinchalik Farg‘onadagi faoliyati haqidagi rasmiy ma’lumotlarda ham professor Davlatboy Qudbiyevning Samarqand kooperativ institutidan taklif qilingani qayd etilgani bejiz emas.

Samarqand muhiti professor Davlatboy Qudbiyev uchun faqat ish joyi emas, balki uning ustozlik salohiyati to‘liq namoyon bo‘lgan makon bo‘lgan, deb aytish mumkin. Chunki haqiqiy ustozning qiymati faqat o‘qigan ma’ruzalari yoki egallagan lavozimlari bilan emas, balki u yaratgan muhit, tarbiyalagan kadrlar va qoldirgan ta’siri bilan o‘lchanadi. Samarqand kooperativ institutidagi mehnat faoliyati davomida u kishi iqtisodiy bilimlarni chuqur o‘rgatish, talabalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, ularni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratgan ustozlar sirasiga kirdi. Shu bois Samarqanddagi faoliyatini yoritishda uni oddiy pedagog sifatida emas, balki ta’lim sifatini ko‘targan, ilmiy muhitni mustahkamlagan va ko‘plab yoshlarga yo‘l ochgan ustoz sifatida tasvirlash maqsadga muvofiq.

Professor Davlatboy Qudbiyevning eng katta fazilatlaridan biri — ustozlik va olimlikni uyg‘un olib borganidir. U kishi 3 nafar fan doktorlari, ko‘plab fan nomzodlari va (PhD) larni tayyorlagan, Davlatboy Qudbiyev 8 ta monografiya, 5 ta darslik, 7 ta o‘quv qo‘llanma hamda 150 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi bo‘lgan. Bu raqamlar uning faqat faol tadqiqotchi emas, balki iqtisodiy ta’lim va ilmiy adabiyotlar taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan olim ekanini ko‘rsatadi. Biroq bunday merosning eng muhim qimmati sonda emas, mazmundadir. Chunki u kishining shogirdlari (Qurbanov Z.N., Ismanov I.N., Misirov K.M.) ustozining bevosita maslahatlari bilan bugungi kunda 20 dan ortiq fan doktorlari va PhDlarni tayyorlaganlar. Davlat Qudbiyev respublikamizda ko‘plab yetishib chiqqan fan doktorlarining doktorlik dissertatsiyalariga bevosita opponentlik qilgan, shu jumladan mening ham doktorlik dissertatsiyamga opponentlik qilib, fan doktori sifatida shakllanishimga o‘z hissasini qo‘shgan. Davlatboy Qudbiyevning har bir darslik, har bir qo‘llanma yoki maqolasi — bu kelajak avlod uchun qoldirilgan bilim va tajriba maktabidir. U kishining shogirdlari, hamkasblari va izdoshlari uchun ham bu meros muhim ma’naviy va ilmiy tayanch bo‘lib xizmat qilgan.

Ustoz Davlatboy Qudbiyevning Samarqanddagi faoliyatida gapirganda, u kishining talabchanligi, ilmiy intizomi, shogirdlarga mehri, hamkasblar orasidagi obro‘si va insoniy fazilatlari bilan alohida ajralib turishini e’tirof etmasdan bo‘lmaydi. U kishi Moskvadan qaytgach, 1987 — 1991-yillar “Buxgalteriya hisobi” fakulteti dekani bo‘lib ishladilar. Bu davrlar respublikamizda mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyingi murakkabliklar ko‘p bo‘lgan davrlar edi. Chunonchi, institut Oliy ta’lim vazirligi tarkibiga kirmas, moliyalashtirilishi davlat byudjetidan emas, asosan “O‘zbekbirlashuv” hisobidan amalga oshirilar, shu sababli kontingenti kamayib borayotgan yillar edi. Eng murakkab jihatlardan yana biri paxta terimi degan mavsumni muvaffaqiyatli o‘tish edi. Ushbu qiyinchiliklarga chidash va ularni yengish kerak bo‘lgan shu yillarda fakultet dekani sifati Davlatboy Qudbiyev talabalarning ham otasi, ham onasi rolini muvaffaqiyatli

bajargan, fakultet kafedralari professor-oʻqituvchilarining ilgʻor yetakchisi edi. 1990-yilning paxta terimi paytida meni “Buxgalteriya hisobi” kafedrasiga mudir etib tayinlashlarida va kafedrani boshqarishda Davlatboy Qudbiyevning menga koʻrsatgan ehtiromi, yordami koʻp edi. U kishining maslahatlari, qoʻllab — quvvatlashlari ortidan menga institutda “Buxgalteriya hisobi” kafedrasini koʻp yillar (qariyb 25-yil) boshqarish, koʻplab shogirdlar chiqarish, koʻplab monografiyalar, darsliklar, oʻquv va amaliy qoʻllanmalar tayyorlash va nashr ettirish nasib etdi. Bu borada ustoz Davlat Qudbiyevning malakasi, tajribalarini hech xam inkor etmayman.

Ustoz Samarqanddan Fargʻonaga koʻchib ketgandan keyingi 1991-yildan keyin ham biz ustoz Davlatboy Qudbiyev bilan aloqamizni uzgan emasmiz. U kishining kamtarligiga qoyil qolar edim. Yoshi ulugʻligiga qaramasdan, mendan koʻproq menga qoʻngʻiroq qilib, oila aʼzolarim hol-ahvolini soʻrar, institutdagi yangiliklar, ustozlar, yosh oʻqituvchilar ishlari bilan doimo qiziqar edilar. Ayrim qoʻngʻiroqlarimizda uzoqdan-uzoq buxgalteriya hisobi va audit masalalarini, shogirdlarning dissertatsiyasiga oid savollarni ham muhokama ham qilardik.

Respublikamiz olimlari tomonidan “Buxgalterlarning Samarqand maktabi” mavjudligi, uning oʻrni va roli borligi koʻp eʼtirof etiladi. Professor Davlatboy Qudbiyevning ushbu maktabni shakllanishida va rivojlanishida eʼtirofga molik oʻrni bor. Respublikamizda hozirgi kunda “Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” ixtisosligi boʻyicha fan doktori ilmiy darajasiga ega boʻlgan olimlarning 10 dan ortigʻi aynan “Samarqand maktabi” vakili hisoblanadi. Davlat Qudbiyev Toshkentdami, Fargʻonadami, Samarqanddami - qayerda boʻlishidan qatʼiy nazar oʻzini ushbu maktab vakiliman deb taʼkidlar edilar va bu maktab obroʻsi uchun jonkuyarlik qilar edilar.

Bizlar Davlat Qudbiyevni olijanob oila rahbari, farzandlar otasi, nevaralar bobosi sifatida bilardik va u kishiga havas qilar edik. U kishining oʻgʻli Sherzodjon Qudbiyev bilan men bir kunda dissertatsiya himoya qilganmiz (men doktorlik, u nomzodlik dissertatsiyasini). Hozir Sherzod Davlatboyevich Qudbiyev nafaqat yetuk olim, fan doktori, professorlardan, balki taniqli davlat arboblaridan biridir.

Biz ustoz Davlatboy Qudbiyevning davlatimiz tomonidan ham mehnatlarini yuqori darajada baholanganligini bilamiz va bundan faxrlanamiz. U kishi 2022-yilda “Doʻstlik” ordeni, 2023-yilda esa “Oliy taʼlim aʼlochisi” koʻkrak nishoni bilan taqdirlanganlar. Bu eʼtiroflar u kishining koʻp yillik halol mehnati, ilm-fan va taʼlim sohasiga qoʻshgan hissasi davlat va jamoatchilik tomonidan munosib baholanganini anglatadi. Shu maʼnoda, u kishining Samarqanddagi faoliyati haqida yozish faqat bir olim tarjimai holini tiklash emas, balki milliy taʼlim va ilm rivojiga xizmat qilgan avlod vakillariga ehtirom bildirish deb bilaman.

Professor Davlatboy Qudbiyevning hayot yoʻli ilm-fan yoʻlida mehnat qilayotgan barcha insonlar uchun ibrat boʻlib qoladi. Bizlar, shogirdlar sifatida professor Davlatboy Qudbiyevni hech qachon esdan chiqarmaymiz, u kishining qoldirgan meroslari, ezgu ishlarini davom ettiramiz, inshaalloh. Ustozga yana bir bor joylari jannatdan boʻlsin, ruhlari doimo biz bilan boʻlsin va yaxshi ishlarimizni qoʻllab tursin, deb duo qilamiz.

R.D.Dusmuratov *- TDIU, Buxgalteriya hisobi kafedrasi professori, i.f.d., "O'zbekiston Oliy ta'limi a'lochisi", r.dusmuratov@tsue.uz*



XOTIRA – MUQADDAS, QADR – AZIZ.
iqtisod fanlari doktori, professor DAVLATBAY KUDBIYEV haqida XOTIRALARIM

Men bu ajoyib insonni o'zlari bilan shaxsan tashishdan ancha oldin, Sobiq Ittifoq davridayoq "Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni rivojlantirish yo'nalishlari" ilmiy yo'nalishiga asos solgan zabardast olim, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit ixtisosligi bo'yicha respublikada va MDH davlatlarida taniqli ustoz-murabbiy sifatida ko'p bora eshitganman. Davlatboy aka Kudbiyev bilan birinchi marta 2000-yillarda, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida o'tkazilgan ilmiy anjumanda tanishganimiz. U kishini ilmiy ma'ruzalaridan keyin, tanaffusda, sohaning ko'plab taniqli va yosh olimlari o'rab olishdi. Ular qatorida men ham o'zimni qiziqtirgan savollar bilan domlaning fikrlarini bildim, maslahatlarini oldim. Suhbat asosan buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning zamonaviy muammolari va ularning yechimlari hamda kelajagi to'g'risida bo'lgan edi. Keyinchalik Davlatboy aka Kudbiyev tez-tez telefon orqali suhbatlashib, ilmiy anjumanlar va boshqa tadbirlarda uchrashib turdik. U kishi to'g'risida menda shakllangan fikr: haqiqiy olimligi, to'g'ri so'zligi va o'ta samimiyligi edi.

Davlatboy aka Kudbiyev bilan turli soha, yo'nalish va masalalarda muloqotda bo'lgan, birgalikda ishlagan kishilar ko'z oldida avvalambor o'ta to'g'ri so'z, adolatparvar, hayotning achchiq-chuchuklarini o'z boshidan o'tkazgan, ilm-fan sohasida tinimsiz izlanuvchan, oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish borasida har qanday qiyinchilik va murakkab vaziyatlarga bardosh bera oladigan keng qirrali qobiliyat sohibi gavdalanishi tabiiy. Bu xislatlar marhum ustoz — Davlatboy aka Kudbiyevning hayot yo'li bilan tanish bo'lgan yoru-do'stlari nazdida, shu jumladan, ko'p yillik samarali mehnati, iste'dodi, pedagogik mahorati, ilmiy va ijodiy faoliyati, samimiyligi va kamtarligi bilan ta'lim sohasi mutaxassislari va jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lganida o'z ifodasini topgan desam, mubolag'a bo'lmaydi.

D.Kudbiyev Respublika oliy ta'lim tizimidagi eng tajribali va fidoyi o'qituvchilardan biri sifatida o'quv-pedagogik, ilmiy-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda samarali mehnat qilgan ustoz-murabbiy, ilmni amaliyot bilan bog'lab olib bora olgan – ilmdagi amaliyotchi, oliy ta'limdagi olim sifatida e'tirof etilgan. Bu fikrlarimiz isboti sifatida domlaning 113 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 103 ilmiy maqola, 3 ta monografiya va 3 ta darslik va 4 ta o'quv qo'llanmalar muallifi bo'lganligini keltirishimiz mumkin.

Jumladan, 1995-yildan 2010-yilgacha Samarqand kooperativ instituti Hisob-iqtisod fakulteti dekani, Farg'ona politexnika instituti "Moliya", "Buxgalteriya

hisobi va audit” va “Iqtisodiyot” kafedralari mudiri lavozimlarida ishlagan. Mazkur davrda uning bevosita rahbarligi va ishtirokida Farg‘ona viloyatida “Buxgalteriya hisobi” ilmiy maktabiga asos solingan, 10 dan ortiq zamonaviy o‘quv xonalari tashkil qilingan, 3 ta doktorlik, 7 ta nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun “Audit”, “Iqtisodiy tahlil va audit”, “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” kabi fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalar chop etilgan. Shu bilan bir qatorda, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi, Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi kabi yirik ishlab chiqarish korxonalarning buyurtmalari bo‘yicha iqtisodiy samaradorligi yiliga 20-30 mln. so‘mni tashkil etgan xo‘jalik shartnomalari asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilingan. D.Kudbiyevning bunday serqirra va keng qamrovli ishlari hozirda kasbdoshlari va shogirdlari tomonidan munosib davom ettirilmoqda.

Keyinchalik ikki muddat to‘liq O‘zbekiston Respublikasi OAKning iqtisodiyot sohasi bo‘yicha ekspert kengashi a’zosi sifatida faoliyat olib borgan. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari bo‘yicha Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida bo‘lgan ko‘plab simpoziumlarda o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etganliklarini eshitganman va chop ettirgan ilmiy ishlari bilan tanishganmiz.

D.Kudbiyevning kafedra mudirligi davrida respublika miqyosidagi ilmiy ishlanmalar, xalqaro ta’lim grantlari, 1 ta xalqaro va 4 dan ortiq respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etilgan. Hozirgi kunda uning tayyorlagan shogirdlari orasida 1 nafar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiati va 4 nafar Navoiy nomidagi Davlat stipendiati sovrindorlari o‘z faoliyatlarini sharaf bilan rivojlantirib, ustozning xayrli ishlarini davom ettirmoqdalar.

U o‘quv va ilmiy faoliyatga zamonaviy axborot kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarini keng joriy qila olgan ilg‘or pedagog sifatida ham e’tirof etilgan. Uning boshchiligida “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida “Audit”, “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”, “Iqtisodiy tahlil va audit” va boshqa fanlardan muammoli vaziyatlar, tarqatma materiallar to‘plamlari yaratilgan. Uning jonbozlik ko‘rsatishi natijasida Farg‘ona politexnika institutida “Buxgalteriya hisobi va audit” ilmiy maktabining tayanch markaziga asos solingan. Bu ilmiy maktab hozir o‘z faoliyatini D. Kudbiyevning shogirdlari tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.

D. Kudbiyevning qoldirgan ilmiy maktabi va merosi hozir ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli va 2018 Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-sentyabrdagi 724-sonli qarorlarini bajarilishi bo‘yicha Farg‘ona politexnika institutida ta’lim sifatini va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish ishlarida dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

D.Kudbiyev o‘z ishiga fidoyi, ijodkor olim, yuksak ma’naviyatli, o‘ziga va boshqalarga talabchan, mas’uliyatli ustoz sifatida katta iz qoldirgan, uni hamisha yaxshiliklar bilan xotirlaymiz va qadrlaymiz. U kishi qoldirgan ilmiy meros mamlakatimiz yosh olimlari tomonidan o‘rganilishi va munosib davom ettirilishiga ishonaman.

MUNDARIJA

I-SHO‘BA O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI 9

ISMANOV I.N. BUXGALTERIYA HISOBIDA HALOLLIK VA HAQQONIY TASVIRLASH: INSTITUTSIONAL VA TARIXIY-FALSAFIY TADQIQOT 10
PARDAYEV M.Q. IQTISODIY TAHLIL FANINING O‘ZBEKISTONDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI 14
PARDAYEV M.Q. IQTISODIY TAHLIL FANINING O‘ZBEKISTONDA RAVOJLANISH TARIXI ..20
PARDAYEV M.Q. O‘ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDA IQTISODIY TAHLIL FANINING RIVOJLANISH TARIXI 26
PARDAYEV M.Q., PARDAYEV O.M., XOLIKULOV A.N. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIY TAHLIL ILMIY MAKTABLARI VA ULARNING NAMOYONDALARI 31
PARDAYEV M.Q., ASTANAQULOV O.T., YAXYAYEV T.I. FUNKSIONAL QIYMAT TAHLILLARINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TARIXI 36
PARDAYEV M.Q., PARDAYEVA O.M., BABANAZAROVA S.A., SWOT TAHLIL VA TAHLILNING ALOHIDA SOHALARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI 41
KURBANOV Z.N. MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISHNING MASALALARI 47
KARAYEV P.Y. BYUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI 52
KARAYEV P.Y. O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI TARTIBGA SOLISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI ..57
SIROJIDDINOV I.Q. KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI AUDITINI XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 60
SIROJIDDINOV I.Q., ABDUG‘OPPOROV G‘.A. AUDITORLIK AMALIYOTIDA FIRIBGARLIK XATARLARINI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-AMALIY JIHATLARI 62
MARDONOV M.S., . ALIBOYEVA S.T. ASOSIY VOSITALARNING XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYA TIZIMIDA TURLARI VA FARQLI TOMONLARI 65
YORMATOV I.T. O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TAHLIL METODOLOGIYASINING RIVOJLANISHI VA UNING BOSHQARUV QARORLARIDAGI O‘RNI 69
KUNDUZOVA K.I., . MAFTUNA B.Q. XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA XUSUSIY KAPITAL HISOBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 74
ERMATOV A.A. BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TARIXI: MUSTAQILLIK DAVRIDAN BUGUNGACHA 77
SHERIMBETOV I. MOLIYAVIY HISOBOTLAR SIFATI VA STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI MASALALARI 80
YAHYOYEV T.I. QURILISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH 84
САВИНОВА Г.А., ХОЛМУРОДОВА М.Н. ЭВОЛЮЦИЯ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, ЭКОНОМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА И АУДИТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (В КОНТЕКСТЕ УСТАВНОГО КАПИТАЛА) 88
FOZILOV X.R., MAMASOLIYEVA R.SH. O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY TAHLIL FANINING PAYDO BO‘LISHI VA SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI 90
YAKUBOV V.G., ARABBOYEVA F.A. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT: HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 94
ASATULLAYEVA SH.M. O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ILMIY MAKTABLARNING ROLI 97
MURADOVA N.R., ISOMUXAMEDOV A.B. O‘ZBEKISTONDA AUDIT FAOLIYATINING SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI 100

Tajibaev N.K. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE POULTRY INDUSTRY IN ENSURING FOOD SECURITY 106
Ubaydullayev T.A. ZAMONAVIY BIZNES MUNOSABATLARI SHAROITIDA PUL MABLAG‘LARINI HISOBGA OLISHNING XUSUSIYATLARI 109
Куватов Х.Ш. ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО БАЛАНСА В ОРГАНИЗАЦИИ 113
Эломонов Д.О. ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ АУДИТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНА 118
Isomuxamedov A.B. O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TIZIMINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI 123
Mamatqulov A.A. O‘ZBEKISTONDA DAVLAT AUDITI TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA XALQARO INTOSAI STANDARTLARINI TADBIQ ETISH ISTIQBOLLARI 126
Muxidinov A.N. ASOSIY VOSITALARNI DASTLABKI BAHOLASHNING MUHIM JIHATLARI 132
Urazov K.B. KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)GA O‘TISHDAGI TASHKILIY VA METODOLOGIK MUAMMOLAR 135

II-SHO‘BA O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING O’RNI 142

Холбеков Р.О. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКИХ УСЛУГ ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 143
Misirov K.M. MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK AUDITNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH ZARURIYATI 149
Abdusalomova N.B., Samiyev A.Q. O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY TIZIMINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 154
Xolmirzayev U.A. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLARDA DEBITOR QARZLARI AYLANISHI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY MASALALARI 156
Kunduzova K.I., Alavidinova O.A. O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 161
Ташпулатов А., Рахимов Б.Б. АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ЕГО УСТОЙЧИВОСТИ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ 166
Темиркулов А.А., Абдукадыров М. УЧЁТ И АНАЛИЗ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ОРГАНИЗАЦИИ 170
Атабаева З.А., Гусарова Л.В. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА РОССИИ И РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 173
Tashnazarova D.S. MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISHNING MASALALARI 178
Abdullayev A. QISHLOQ XO‘JALIGIDA SOLIQQA TORTISH VA UNI HISOBINI YURITISH MUAMMOLARI 182
Ermatov A.A., Olimjonov O.M. KORXONANI MOLIYAVIY HOLAT TAHLILI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI, TAHLIL VA AUDITNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 187
Pashaxodjayeva D.D. O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASIDA FOYDA SOLIG‘I KO‘SATKICHLARI AUDITORIK TAHLILINING O‘RNI 192
Toshpo’latov A.S. BOSHQARUV HISOBINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: KLASTERLAR FAOLIYATIDA 196
Toshpo’latov A.S. KLASTERLARDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 200
G‘anibayev I.S. O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA YURITISHNING AHAMIYATI 205
G‘anibayev I.S., Teshaboyeva M.E. GILAM ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI BOSHQARISH VA UNI SAMARALI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI 208
Pirnazarova J.D. MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA AUDIT QILISHDA MUHIMLIK MASALALARI 211

Уразов Д.К. ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К АУДИТУ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МСФО 214
Karimov Sh.A. BUXGALTERIYA HISOBINI OUTSORSING ASOSIDA TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI 218
Ermatov A.A. O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA HISOB, TAHLIL VA AUDITNING AHAMIYATI 223
Кенжабаева Г.Р., Хасанова Ш.С. УЧЕТ И ПРОГНОЗ КАССОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ 226
Uzakova M.M. O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASIDA XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA O‘TISHNING IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT SIFATIGA TA’SIRI. 231
Атабаева З.А., Камолиддинова Х.Б. СОСТАВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ И ЕЕ АНАЛИЗ 235
Карабаев М.М., Ганижонов Б.Б. БУХГАЛТЕРСКИЙ БАЛАНС: ЦЕЛЬ, ПРИНЦИПЫ ПОСТРОЕНИЯ И ТЕХНИКА СОСТАВЛЕНИЯ 239
G‘anibayev I.S., Jo‘rayeva Z.I. NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA ULARNI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 243
Axmadoxunova X.O. KORXONA BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA BUXGALTERIYA HISOBINING O‘RNI 246
Sultonova M.A., Rustamova D.A. DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH....251
Nishonova I.I. QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARI EKSPORT OPERATSIYALARI BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI....254
Umurzakov D.X. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR HISOB SIYOSATIDA MOLIYAVIY AKTIVLARNI KLASSIFIKATSIYALASH VA BAHOLASHNING MHXS 9 ASOSIDAGI METODOLOGIK TRANSFORMATSIYASI....258
Muratov A.A. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI USTAV KAPITALI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 260
Narzullayev S.F. KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINING BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 264
Xasanboyev O.X. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJARAGA OLUVCHI SUBYEKTLARDA IJARA HISOBINING METODOLOGIK NOMUVOFIQLIKLARINI BARTARAF ETISH VA UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.267
Sattorov T.T. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING JARAYONLI KOSTING TIZIMLARINI QO‘LLASHNING XUSUSIYATLARI 273
Fayziyeva A.A. SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI....276
Maxmudova D.R. BUXGALTERIYA HISOBINING IJOBIY BALANSI KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING MUHIM KO‘RSATKICHIDIR....279
Maxmudov E.A. SUN’IY INTELLEK INQILOBI VA BUXGALTERIYA HISOBI....283
Uralov T.B. ENERGETIKA TARMOG‘IDA MHXS JORIY ETISHNING STRATEGIK MODELI VA SAMARADORLIK BAHOLASH TIZIMI....286
Ermatov A.A., Rahimjonov B.A. MOLIYAVIY BARQARORLIK KO‘RSATKICHLARINING KORXONA RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI 290
Isomuxamedov A.B., Mirzaolim N. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING AHAMIYATI 294
Akbaraliyev A.E. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 297
Dusmuratov R.D. TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIKNI PROGNOZLASH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI....300
Dusmuratov R.R. HOVUZ BALIQCHILIGIDA AYLANMA MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH – INTENSIVLASHTIRISH OMILI....305
Ablazov N.X. QURILISH KORXONALARIDA TOVAR MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI YURITISH. 308

Muxidinov A.N. ASOSIY VOSITALARNI ESKIRISHI VA ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRILISHI 311
Ermatov A.A., Abdusalomova Z.O. BUXGALTERIYA HISOBI VA MIKROIQTISODIY TAHLIL INTEGRATSIYASI 314
Aitimbetov A.Q. TANNARX HISOBLASHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH 319
Atabayeva Z.A. ASOSIY VOSITALARNI TA'MIRLASH HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 325

III-SHO'BA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI 331

Abdibayeva T. ATROF-MUHIT BARQARORLIGI VA YASHIL IQTISODIYOT: XALQARO TAJRIBA HAMDA O'ZBEKISTON MILLIY STRATEGIYALARI UYG'UNLIGI 332
Усманов А.А. ВНЕДРЕНИЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ 336
Усманова З.М., Абдулложонова А.Н. РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ 339
Абдуллаев А.М., Мамаджанов Ш.М. РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА НА ПРИНЦИПАХ «ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ»: ПРИОРИТЕТЫ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ 343
Носиров И.А. ПЕРЕХОД УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ" 348
Носиров И.А. ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ОСНОВЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ 353
Fayzullaev U.T. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA JALB QILISH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI 357
Савинова Г.А. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЕГО УЧЕТА НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ 360
Давлятшаев А.А. ВЛИЯНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ НА РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА СОГЛАСНО КОНЦЕПЦИИ «ЗЕЛЕНОЙ» ЭКОНОМИКИ 365
Davlatshayev A.A., Axmedova D.A. YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI 370
Abdullayeva B.Y. YASHIL MENEJMENTNI JORIY ETISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 374
Fozilov X.R., Yunusaliyev I.A. YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA 378
Isomitdinova G.K. MAMLAKAT IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANISHIDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI 382
Ilyosov A.A. YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH: BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLIL ASPEKTLARI 385
Qudbiyev N.T. KORXONALARDA IJARA MUNOSABATLARINING BUXGALTERIYA HISOBINI "YASHIL IQTISODIYOT" KONSEPSIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH MASALALARI 388
Muxamadjonova D.A., Yusupova O.P. YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA EKOLOGIK KO'RSATKICHLARNING ROLI 392
Xikmatova H., Hamrayeva B. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI 397
Yormonqulova N.I. HUDUDLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHINI YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI 401
To'ychiyeva B.V. OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA STRATEGIK MEXANIZMLAR 405
Bazarov S.S. IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI 408
Ermatova M.A. DORIVOR O'SIMLIKLAR MAHSULOTLARI SAVDOSINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-AMALIY ASOSLARI 413
Xasanov S. SABZAVOTCHILIK TARMOG'INI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 416
Ziyayev D.S. CHORVACHILIK KORXONALARIDAGI BIOLOGIK AKTIVLARNI ASOSIY VOSITALAR TARKIBIGA QABUL QILISH VA BOSHQARISH HISOBI 421

Ermatov A.A. YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONA KAPITALINI OSHIRISHDA STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINING AHAMIYATI 427
Xujayev X.X. YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI 430
Aliqulova N.B. YASHIL MOLIYA BOZORINING IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISHNI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI....434
Maxkamova S.G. NEFT VA GAZ SANOATIDA TAYYOR MAHSULOTLARNI HISOBGA....439
Nurmatov O.T. TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA XALQARO BRENDLAR BILAN HAMKORLIK YO‘NALISHIDA XALQARO SERTIFIKATLASH JARAYONLARINI BYUDJETLASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 445
Aytimbetova B.K. KOOPERATSIYANING RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR 448
Rasulova S.X. YASHIL IQTISODIYOT: O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA ISTIQBOLLARI....452
Turdiyev S.I. ICHKI ISHLAR ORGANLARI BOSHQARUVIDA RISK – MENEJMENT TIZIMI MASALALARI 456

IV-SHO‘BA O‘ZBEKISTONDA MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARIGA DOIR YONDASHUVLAR 460

Kuliboyev A.Sh. DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY NAZORATI XUSUSIYATLARI....461
Наурызбаев А.Р. МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ТРАНСГРАНИЧНОМ ПРОСТРАНСТВЕ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН) 464
Radjabova S.A. JAHON VALYUTA TIZIMINING MOHIYATI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI....470
Tashpulatov A., Mo‘ydinova G.X. DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH VA ULARNING MOLIYAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH 477
Xojaev A.S., Abdubakirov B.D. BANK SOHASIDA ZAMONAVIY KADRLARNI TAYYORLASH VA FINTECH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI482
Абдуллаев А.М., Мамаджанов Ш.М. ПРОЗРАЧНОСТЬ И АНТИКОРРУПЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ: ОЦЕНКА И ПЕРСПЕКТИВЫ 484
Davlatova G.M. EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA MOLIYA-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI....488
Karayev M.Y. QIMMATLI QOG‘OZLARGA INVESTITSIYALARNI BAHOLASH USULLARI493
Sattarova D.D., Qazaqov A. INNOVATSION INVESTITSIYALARNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI....496
Payazov M.M. MOLIYA BOZORINI RIVOJLANISHIDA FOND BOZORINING AHAMIYATI ..500
Kenjebayeva G.R. MOLIYAVIY AKTIVLAR LIKVIDLIGINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISHNING MAVJUD USULLARINI TANQIDIY TAHLIL QILISH 503
Кенжабаева Г.Р., Камалова Р.Т. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФИНАНСОВОМ РЫНКЕ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ....508
Yakubov V.G., Turg‘unov X.Q. BANK KREDITLARI VA ULARNI KORXONALARNING RIVOJLANISHIGA TA’SIRINI TAHLILI....512
Isomitdinova G.K., Rahimov S.H. MAMLAKAT MOLIYA-KREDIT MEXANIZMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘NALISHLARI 517
Maxmudov A.M. SOLIQ MA’MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHIDA KADRLAR TAYYORLASHGA KONSEPTUAL YONDOSHUV ORQALI MEHNAT UNUMDORLIGIGA ERISHISH YO‘LARI 520
Boymatov T.A. HUDUDIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA 524
Ashurov Z. FINTEX INNOVATSIYASI SIFATIDA BLOKCHEYN: MOLIYAVIY HISOBOT SIFATI VA INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA’SIRI 527
Maxmudov A.M., Abduraimov A. O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH VA XORIJIY KAPITALNI JALB ETISH YO‘LLARI 530
Qodirov A.B. TIJORAT BANKLARIDA LIKVIDLILIK RISKLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 533

Qodirov A.B. MUAMMOLI KREDITLAR SHAROITIDA BANK LIKVIDLILIGINI BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON MISOLIDA MUAMMOLI KREDITLARGA SEZGIR LIKVIDLILIK BUFERLARI MODELI 538
Sayfutdinov S. DAVLAT BUDJETI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA INDIKATORLAR TIZIMI 542
Xushmurotov Z. OLIY TA’LIM VA FAN VAZIRLIGIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH: BUDJET DASTURLARI VA INDIKATORLAR TAHLILI. 547
Usmanova G.U. DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ORQALI KORXONALAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH 550
Iboyev S.M. TA’LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI 553
O‘rinboyev D.B. QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZNING ERTA DIAGNOSTIKASI: MOLIYAVIY, ISHLAB CHIQARISH VA BOSHQARUV KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH. 556
Nurxonov N.Q. XORIJIY INVESTITSIYALARNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA ULARNING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH USULLARI 560
Maxmudov A.M., Abdullayev P.A. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA NAQD PULSIZ TO‘LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 566
Djalilov R.H. RESPUBLIKAMIZ SOLIQ TIZIMIDA AKSIZ SOLIG‘INING AMALIYOTDAGI HOLATI 570
Bozorov S.S. MILLIY TURIZM BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA “KONTENT MARKETING” EVOLYUTSIYASI 574
Abdullayeva S.X. O‘ZBEKISTONDA QURILISH SEKTORINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR 579
Sultonova D.D. NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA LOYIHALARNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI VA TARKIBIY TAHLILI 584
G‘aniyeva N.A. ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHNING ME’YORIY-HUQUQIY BAZASI VA TASHKIL ETISH TARTIBI 590
Soliyev D.J. DAVLAT XARIDLARIDA XALQARO TAJRIBANING O'RNI 594

V-SHO‘BA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAMLAKATDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR, INNOVATSION ISHLANMALAR, AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI 598

Гулямов С. С., Шермухаммедов А. Т. ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ....599
Nazarmatov O.S., Alijonova R.A. KICHIK BIZNESLARDA SUN’IY INTELLEKT (AI) TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI 601
Misirov K.M., Aktamov S.A. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI....605
Muydinov E.D. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNI AUDIT RISKIGA TA’SIRI 608
Кадиров А., Расулжонов Д., Вон Илья АНАЛИЗ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОМПЕТЕНЦИЯМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ 613
Гафурова Ф. С., Туйчиева О. Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОПТИМИЗАЦИИ ПРОЦЕССА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РЕСУРСАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ....618
Усмонов М.М. ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЭКОНОМИКИ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ 622
Yang Jie SUSTAINABLE MANAGEMENT OF TOURIST FLOWS IN SAMARKAND IN THE DIGITAL ECONOMY ERA 626
Kadirov A., Karimov M., Abduvaxobov A. TIJORAT BANKLARI VA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTIGA ASOSLANGAN BARQAROR BOSHQARUV MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH 629
Абдуллаев А.М., Пулатов О.Т. ГАРМОНИЗАЦИЯ УЧЕТА, АУДИТА, АНАЛИЗА И ОЦЕНКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ 632

Oxunov D.M., Xomidova M.S. RAQAMLI IQTISODIYOTDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MEHNAT BOZORI TARKIBIGA TA'SIRI VA BANDLIK SIYOSATINI MODERNIZATSIYALASH....637
Shaxodjayev M.A. SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH....641
Sherkuziyeva N.A. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING DIVIDEND SIYOSATIDAGI AHAMIYATI....644
Ташпулатов А. ДИНАМИКА СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ И ЗАНЯТОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ....649
Tashpulatov A., A'zamjonov Z.Z. MEHNAT BOZORINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SOTSIOLOGIK TADQIQ ETISH....653
Tashpulatov A. ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОПТИМАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ....659
Umarov S.A., Umarova M.I. BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING YARATISH USULLARI....663
Ахунова Ш.Н., Агапова Д.В. ЦИФРОВАЯ ИНФРАСТРУКТУРА КАК ОСНОВОПОЛАГАЮЩИЙ ЭЛЕМЕНТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: МЕЖДУНАРОДННЫЙ ОПЫТ....667
Ахунова Ш.Н., Мамаджанов Ш.М. ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА В 2010–2025 ГОДАХ: ИНФРАСТРУКТУРНЫЕ СДВИГИ, РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И СИСТЕМНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ....671
Ахунова Ш.Н., Махаммадова Р.С. РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ: ОЦЕНКА АНТИКОРРУПЦИОННЫХ РЕФОРМ 2015–2025 И СТРАТЕГИЯ УСИЛЕНИЯ ПОДОТЧЁТНОСТИ....676
Umarov S.A., Azizjonov S.S. SUN'IY IMMUN TIZIMLARI (AIS) ASOSIDA MOLIYAVIY ANOMALIYALARNI ANIQLASH MODELI....679
Ilyosov A.A. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA SUN'IY INTELLEKT VA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR....683
Karabaev M.M., Ro'zimatov X.A. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI AUTSORSING XIZMATLARI HISOBI ORQALI TASHKIL ETISH...686
Fozilov X.R. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY TAHLIL QILISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH....689
Uzakova M.M. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT SAMARADORLIGINI OSHIRISH. 694
Abdullayeva S.X., Xabibrahmonov M.M. INNOVATSION ISHLANMALAR MILLIY IQTISODIY O'SISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA 697
Abdullayeva S.X., Komilov A.F. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI 702
Abdullayeva S.X., Numonov Muxammad M.O. IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI....707
Abdisamatov E.D. ANALITIK KIMYO FANINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH....711
Sadullayeva B.A. THE IMPACT AND EFFECTIVENESS OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE MANAGEMENT SYSTEM 714
Usmanova G.U. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI MOLIYAVIY RISKLARINI REAL VAQT REJIMIDA BOSHQARISH MEXANIZMLARI....717
Jaxbarov J.T. BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH 722
Toshev N.J. HUDUDLAR KESIMIDA TURIZM SALOHIYATINI RAYONLASHTIRISH VA IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINING AHAMIYATI....727
Худайбердиев О.А. ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ: РЕГИОНАЛЬНАЯ ОТКРЫТОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ 730

Худайбердиев О.А. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ 737
Asadov O.N. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ROBO-MASLAHATCHILAR ORQALI INNOVATSION MOLIYAVIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH 740
Umidova F.I. O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA’LIM TIZIMINI 743
Yaxshiboyev R.E. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA’LIM METODOLOGIYASINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 747
Madiyeva Z.I. O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI MEXANIZMLARI 750
Axmadaliyeva Z.A. BIOLOGIK AKTIVLAR BUXGALTERIYA HISOBIDA RAQAMLI BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 753
Xatamov D.B. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH 756
Tursunova N.U. INNOVATSION TADBIRKORLIKNI O‘SISHINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA INFRATUZILMA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI 760
Tursunova N.U. TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ORQALI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YASHIL INNOVATSIYAGA TA’SIRI 763
Usmanova A.A. SUN’IY INTELLEKTNING MARKETING SOHALARIDAGI RO’LI VA ISTIQBOLLARI 767
Gaybullayeva G.M. TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA SHAROITIDA TO‘QIMACHILIK SANOATIDA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 771
Rasulova S.X. SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IQTISODIY JARAYONLARNI TAHLIL QILISH 774
Adaxamov X.A. ROBOTICS AND DIGITAL TWINS FOR OPERATIONAL COST OPTIMIZATION IN TEXTILE MANUFACTURING 779
Mamatova O.A. RAQAMLI IQTISODIYOTDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH: MUAMMILAR VA YECHIMLAR 783
Mamajonov A. A. ZAMONAVIY SHAROITDA BUXGALTERIYA HISOBI FANINI AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN TARZDA O‘QITISH MUAMMOLARI 786
Абдиев М.Ж., Арипов Н.Т., Чекиргозова Г.А. ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА ПО ИСЛАМСКИМ ПРИНЦИПАМ В КЫРГЫЗСТАНЕ 790
Абдулложонова А.Н., Артыкбаева Ф.Т., Аманалиева Н.Р. ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА 796
Хамдамова Ш.Ш., Исаков Б.Ш. ИМПОРТОЗАМЕЩЕНИЕ АНТИСЛЕЖИВАЮЩИХ ДОБАВОК ДЛЯ АММИАЧНОЙ СЕЛИТРЫ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ 801
Култаев Т.Ч., Токторов К.К., Ташкулова Г.Б. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ТРАНСГРАНИЧНОМ АУДИТЕ ЕАЭС: ОТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА К ЕДИНЫМ СТАНДАРТАМ КОНТРОЛЯ 806
Turdiyev S.I. JINOYATLARNI FOSH ETISHDA TERGOV ORGANLARINING BOSHQA BOLINMALAR BILAN HAMKORLIKDAGI DOLZARB MASALALARI 812
Омокеев М. К. НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ФОНДА ОБЯЗАТЕЛЬНОГО МЕДИЦИНСКОГО СТРАХОВАНИЯ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ 812

USTOZNI XOTIRLAB – YODNOMA 819